J. YA. Yaxshilikov
N.E. Muhammadiyev

FALSAFA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

J. YA. YAXSHILIKOV, N. E. MUHAMMADIYEV

FALSAFA

Darslik

(barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun)

Samarqand – 2021

Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E.Falsafa. Darslik ***(barcha bakalavr yo'nalishlari uchun).***– Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 712 b.

Darslikda falsafa fanining obyekti, subyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, genezisi, evolyutsiyasi, hozirgi kundagi rivojlanish tendensiyalari, ontologiyaning mavjudlik shakllari, borliqni anglash, mavjud reallikning rivojlanish qonuniyatlari, inson ongi va tafakkurining xususiyatlari, globallashuv jarayonlari davrida jamiyat hayotida yuz beradigan taraqqiyot va tanazzulning xarakterini bilish masalalari, korrupsiyaning shakllari, sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari; shuningdek axloq, estetika, mantiq fanlarining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rni, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, diniy ma'rifatning mutaassiblik, terrorizmdan farqi, diniy e'tiqodning yo'nalishlari bir qator chizma va jadvallarda tasvirlash orqali bayon qilingan.

Darslik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan barcha talabalarga, shuningdek, professor-o'qituvchilarga va falsafa ilmiga qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Z.R.Qodirova – falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sh.S.Qo'shaqov - falsafa fanlari doktori, professor
X.F.Xaydarov– falsafa fanlari doktori, professor
O.M.G'aybullaev – falsafa fanlari doktori, professor
Sh.Sh. Negmatova – falsafa fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi № 571-sonli "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qaroriga muvofiq Samarqand davlat universiteti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ilmiy Kengashining qaroriga ko'ra darslik sifatida tavsiya qilingan va nashr etishga ruxsat etilgan.

(2020-yil "30" noyabr, № 04- sonli qarori)

ISBN 978-9943-5943-0-2

©. Yaxshilikov J.Ya., 2021.
©.Muhammadiyev N.E., 2021.
©.SamDU., 2021.
©.ToshPTI ., 2021.

KIRISH

O‘zbekiston xalqi mustaqillikka erishgandan so‘ng, uning hayotida buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Buni odamlarimizning falsafiy dunyoqarashi tubdan o‘zgarib – ona-Vatanda ozod va obod yashash, erkin va farovon hayot kechirish mumkinligiga bo‘lgan ishonchining tobora ortib borayotganligida; mamlakat hayotining barcha sohalarini innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirishga harakat qilayotganliklarida; tadbirkorlik bilan ish yuritishga bo‘lgan hissi kuchayib, yanada samarali mehnat qilishga rag‘bati ortayotganligida; har xil mafkuraviy xuruj va nayranglarning maqsad-muddaolarini tezlikda anglash borasida hushyorligi kuchayganligida; mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga astoydil bel bog‘layotganligida; yoshlarning sog‘lom avlod bo‘lib kamol topishi to‘g‘risida tinmay qilayotgan g‘amxo‘rliklarida; aholining salomatligini saqlash yo‘lida astoydil xizmat qilinayotganligida; yoshlarimizning esa ajdodlarining an’analariga sodiq qolgan holda ilm-fan, san’at va madaniyat cho‘qqilarini egallab, o‘zbek degan nomni butun dunyoga taratishga urinayotganligida; jamiyatimizni yangi bosqichga olib chiqish uchun ilgari surilayotgan taktik va strategik ahamiyatga molik bo‘lgan milliy mafkuraviy g‘oyalar kishilar hayotidan o‘rin olib, ularni buyuk maqsad sari safarbar etayotganliklarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, bugungi kunda butun insoniyat bilan bir qatorda o‘zbek xalqi ham o‘zining zimmasiga murakkab tuzilishga ega bo‘lgan hayotning yengil va og‘ir yuklarini yelkalab uchinchi ming yillikka qadam qo‘ydi. Bularga bir tomondan, o‘ta zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi orqali kishi bilmas tabiat olamining sir-asrorlaridan voqif bo‘layotganliklarni, inson haq-huquqlarini himoya qilishni amalda qo‘llashga urinayotganliklari, gender masalalarini hal etishda oqilona siyosat yuritayotganliklari, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining shiddat bilan kechayotganliklari; ikkinchi tomondan esa xalqaro terrorizm, hududiy kelishmovchiliklar, elatlar, millatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, katta va kichik darajadagi geoiqtisodiy urushlar, ekologik kataklizmalar, ochlik va kambag‘allik, oziq-ovqat tanqisligi, narkotiklar iste’moli va savdosi, SPID, koronovirus pandemiyasi kabi noxushliklarning me’yoridan chiqib jahondagi barqaror vaziyatni izdan chiqarayotganliklari kabilar shular jumlasiga kiradi.

Bunday murakkab sharoitda har bir inson o‘zining ichki dunyoqarashiga mos tarzda olam va unda sodir bo‘layotgan narsa, voqea, hodisa va jarayonlar orasidagi o‘rnini anglab yetishi orqali qanday tarzda xatti-harakatlar sodir etishi belgilovchi o‘rinni egallaydi. Zero, mavjud vaziyatning qanday darajada kechish yoki kechmasligi jarayonining

mohiyatini anglab yetishda falsafa ilmi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Chunki, u boshqa fanlardan farqli o‘laroq inson borlig‘ini, hayotining ma’nosini, jamiyatdagi qadr-qimmatini tushuntirib berish,uni yanada kengroq tasavvur etishning yangicha usul va yo‘nalishlarini aniqlab berish kabi metodologik vazifalarni bajaradi.

Demak, XXI asr jahon sivilizatsiyasi tarixiga insonning haq-huquqlarini har tomonlama qadrlovchi transformatsiyalangan bosqich sifatida kirib kelar ekan, unda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy, texnik va texnologik o‘zgarishlarni anglab yetish uchun falsafa ilmiga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortib boraveradi. Aniqroq aytganda, falsafa fani odamlarning ongi, taffakkuri, madaniyatini har tomonlama shakllanib, rivojlantirib, kishilik jamiyatining kelgusidagi istiqbollarini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston xalqlari tarixidan shu narsa ma’lumki, IX-XII asrlarda birinchi Renessans yuzaga keldi va jahon ahliga M.A.Xorazmiy, A.R. Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk faylasuflarni; islom dini olamining Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Muin Nasafiy kabi qomusiy mutafakkirlarini; XV-XVI asrda ikkinchi Renessans davrida Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi olimlar, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Kamoliddin Behzod kabi jahonga mashhur olimlar, tarixchilar, shoirlar etishib chiqdilar va o‘zlarining o‘lmas asarlarini yaratib, ularni jahon xalqlarining tarixiy merosining oltin xazinasiga aylantirdilar.

Bugungi kunda ana shu buyuk mutafakkirlarning o‘lmas ishlarini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yosh avlod Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishga harakat qilmoqda. Bu poydevorning ma’naviy ustunini yangicha falsafiy tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarnigina qo‘yishi mumkin. Yangicha falsafiy dunyoqarash sohibi bo‘lish uchun esa butun jahonda kechayotgan jarayonlarning rivojlanish mantig‘ini tezda anglaydigan, ularning rivojiga ta’sir qilayotgan obyektiv va subyektiv omillarni to‘g‘ri baholay olish uchun falsafiy aql, falsafiy tarbiya ko‘rgan mutaxassislar yangi avlodini tarbiyalab voyaga etkazish zarur bo‘ladi. Bunga esa har qanday butun borliqda kechayotgan jarayonlarning metodologik asoslarini o‘zida aniq ifodalab beruvchi falsafiy o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish, shu orqali yosh avlodga falsafiy ta’lim berish va tarbiyalash ishlarini amalga oshirish orqali erishiladi.

Buning uchun esa Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: *”yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar*

asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz"[1],- tarixiy zaruriyat hisoblanadi. Shu sababli mazkur darslikni yozishdan ***asosiy maqsad*** – yoshlarning dunyoviy, falsafiy va diniy bilimlarni o'rganishi asosida, ulardan ijtimoiy hayotda maqsadli foydalanish va to'g'ri fikrlash mahoratini shakllantirishdan; ***vazifalari esa*** yoshlarga falsafiy qonunlar va kategoriyalarni o'rgatish orqali mavjud voqelik haqida tizimli, kreativ fikrlash; falsafiy tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish orqali shaxsiy, ijodiy jihatdan baholay olish; o'zini va o'zligini anglagan holda haqiqiy vatanparvar inson bo'lib yetishish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Darslikni yozishda M.A.Ahmedova, M.N.Abdullayeva, B.O.To'rayev, N.A.Shermuhamedova, S.Otamuradov, Q.Nazarov, Sh.Madaeva, B.T.To'ychiyev, A.Ochildiyev, H.Yo'ldoshxo'jayev kabi tajribali va ayni vaqtda yosh iqtidorli olimlar tomonidan yozilgan kitoblardan foydalanildi.

Darslikning «Global korrupsiya ijtimoiy-madaniy inqiroz oqibati» nomli 2-modulining 9-10 boblari Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi X.I. Xidirov, «Tibbiyot ontologiyasi» nomli mavzusi esa Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi M.S.Yusupov, «Dinshunoslik» deb nomlangan 3-modulning 11,12,13,14 boblari Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchisi Sh.J.Hoshimov, 15-bobi Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD) J.J.Yaxshilikov, «Globallashuv sharoitida o'zbek xalqining milliy manfaatlari mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari» nomli mavzusi Termiz davlat universitetining o'qituvchisi M.A.Xolmirzayeva tomonidan yozilgan.

Zero, darslik falsafa haqidagi barcha bilimlarni qamrab ololmasligi tabiiy. Kitobxonlarning uni o'qib takomillashtirish haqida bildirilgan barcha fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz hamda o'z takliflari bilan o'rtoqlashganlarga minnatdorchilik bildiramiz.

Mualliflar

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.// https://president.uz/uz/lists/view/4057.

I BOB. FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI

1-§. Dunyoqarash olamni diniy, falsafiy, ilmiy bilish shakli

1. «Falsafa» va «filosofiya» atamalari haqida tushuncha.«Falsafa» atamasi qadimgi yunon tilidagi **«filosofiya»** so'zidan olingan bo'lib lug'aviy ma'noda ***«donishmandlikni sevish»*** (***«phileo»*** - sevaman, ***«sopia»*** - donolik) degan mazmunni anglatadi. Bu so'z dastlab taxminan eramizdan oldingi VI asrda yashagan taniqli matematik olim **Pifagor** tomonidan ishlatilgan va Yevropa madaniyatiga qadimgi yunon faylasufi **Aflotun** (mil.avv.427-347 y.) asarlari orqali kirib kelgan. Abu Nasr Forobiy «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi haqida» nomli asarida «falsafa» atamasi yunon tilidan kelib chiqqanligini tasdiqlaydi. Demak, «falsafa» va «filosofiya» atamalari bir xil ma'noga ega bo'lib, uning kelib chiqqan makoni qadimgi Yunoniston hisoblanadi. Ular barcha ilm-amal sohalarini filosofiya deb atashgan va ***«barcha fanlarning otasi»*** sifatida e'tirof etishgan. Bugungi kunda ham katta ilmiy yutuqlarni erishgan ilm ahliga, masalan, *«matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori», «tibbiyot bo'yicha falsafa fanlari doktori»* kabi ilmiy unvonlar berilib, uning «otalik» maqomi ajdodlardan avlodlarga o'tgan holda saqlanib kelinmoqda.

Falsafani o'rganish ***«dunyoqarash»*** tushunchasining mazmunini bilib olishdan boshlanadi. Dunyoqarashda butun olamning mohiyati va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularnnng yechimi to'g'rida fikrlar yuritiladi. Bu muammolar olamning kelib chiqishi va uning nechtaligi, strukturasi va tashqi shakli, o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlari, katta kichikligi va nimadan tashkil topgani va shu kabi murakkab ilmiy-nazariy masalalarni o'z ichiga oladi.

2. Dunyoqarash tushunchasi. Har bir insonning o'zini o'rab turgan turfa olam – dunyoga nisbatan qarashlari bo'ladi. O'zbek tilida **«Dunyo»** [arabcha–jahon, olam] so'zi quyidagi:"1) butun borliq; koinot, olam; 2) borliqning, mavjudotning ayrim bo'laklari yig'indisi, to'plami; 3) jonli tabiatning ayrim qismlari, ular yashaydigan muhit;4) ijtimoiy hayot yoki turmushda yuz bergan (mavjud bo'lgan) holatga nisbatan, unga qarama-

qarshi bo‘lgan boshqa bir holat; 5) atrofimizni o‘rab turgan butun mavjudot; atrof muhit; 6) Yer yuzi va undagi barcha odamlar, insoniyat; 7) Yer yuzi, undagi barcha qit’alar, mamlakatlar; 8) hayot, tiriklik; 9) kishilarning ma’naviy, ruhiy olami, hayoti; 10) ma’lum bir ilm-fan,kasb-hunar,ijtimoiy hodisa sohasi; 11) ma’lum bir ijtimoiy tuzumga, o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lgan omillar bilan birlashgan kishilik jamiyati va u mavjud bo‘lgan davr; 12) boylik, davlat”[2],– degan ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Demak, *dunyoqarash – bu «dunyo» so‘zidan olingan bo‘lib, individ, shaxs, katta va kichik jamoalar, elat, millat, xalqlarning – butun dunyoga, unda o‘zining egallagan o‘rniga, atrofidagi real voqelikka, ularning ayrim voqea-hodisalariga bo‘lgan ilmiy, mafkuraviy, ma’naviy, ilohiy qarashlar tizimidir.* Falsafiy adabiyotlarda ko‘pincha «dunyo» va «olam» atamalari sinonim so‘zlar sifatida qo‘llaniladi. Chunki, «olam» so‘zi ham arabcha bo‘lib, odatda dunyo, jahon; koinot; xalq, omma ma’nosini anglatadi[3].

Dunyoqarash bu shunchaki olam to‘g‘risidagi qarashlar tizimidan iborat emas, balki unda odamzod ong-u tafakkurining o‘ziga xos bo‘lgan o‘zini o‘zi anglash shakli ham, demakdir. Bunda «odam – olam» munosabatlari dunyoqarashning asosiy masalasini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra dunyoqarash – inson ongining muhim atribut[4]laridan biri hisoblanadi. Yevropa olimlarining fikriga ko‘ra «Dunyoqarash» tushunchasini birinchi bo‘lib nemis mumtoz faylasufi Immanuil Kant ilmiy bilimlar tizimiga kiritgan, emish.

3. Dunyoqarashning asosiy xususiyatlari. Dunyoqarash inson tafakkurining atributi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Dunyoqarashning *birinchi muhim xususiyati shundan iboratki, bunda butun olam bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning nazariy yechimini amalda isbotlab bo‘lmaydi.* Masalan, olamning makon va zamonda cheklangan va cheklanmaganligini amaliyotda isbotlash amri maholdir. Shuning uchun ham, bu muammolarni yechishda turli va qarama-qarshi xulosalarga kelish tabiiy holdir. Falsafa tarixiga nazar tashlasak, Qadimgi Xitoy falsafasida butun olam to‘g‘risidagi qarashlarda «dao» olamdagi barcha narsalarning bosh ibtidosi va ham intihosidir. Shu bilan birga «dao» butun olamning umumiy qonuni, yo‘li. Olamdagi barcha

---

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. – Б. 662-664

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 105

[4] ***Атрибут***[*лотинча attributum – қўшиб берилган, таъминланган, қўшимча қилинган*] 1. Предмет ёки ҳодисанинг ўзига хос, ундан ажратиб бўлмайдиган энг муҳим характерли хусусияти, белгиси.

narsalar bu qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Hatto bir odamning axloqiy-siyosiy faoliyati ham bu qonunga bo‘ysunadi. «Dao» abadiy va cheksiz, yaratilmagan va hamma yerda mavjud. Agarda xudo mavjud bo‘lsa, uning ham kelib chiqishi «dao» bilan bog‘liq.

Qadimgi Gretsiyada ham olamning kelib chiqishi, nechtaligi, o‘zgarishi, mohiyati va boshqa tomonlari to‘g‘risida ko‘plab qarashlar yaratilgan edi. Masalan, pifagorchilar olamning kelib chiqishi,tarkibiy tuzilishi va mohiyatini matematik nuqta, son va geometrik shakllar bilan bog‘liqligini isbotlar edi. Masalan, «1» raqami olamdagi barcha narsa va xudolarning ham bosh ibtidosi deb qabul qilingan.Ko‘rinib turibdiki,olam to‘g‘risida yozilgan dunyoqarashga taalluqli qarashlar nihoyatda ko‘pdir.

Dunyoqarashning ikkinchi muhim xususiyati shundan iboratki, dunyoqarashda olam bir butun (yaxlit) deb qabul qilinadi. Dunyoqarash bo‘yicha olamda nimaiki mavjud bo‘lmasin, ular bir-biri bilan bevosita yoxud bilvosita bog‘liqdir. Shuninig asosida, dunyoqarash bo‘yicha olam tabiat, jamiyat va odam birlikda bir butunlikni tashkil qiladi.

Bu butunlik dunyoqarashda quyidagicha talqin qilinadi. Ma’lumki, dunyoqarash har bir odam ongining o‘ta muhim bir qismidir. Bu muhimlik shundan iboratki, odam o‘z-o‘zini bilib olishda uning dunyoqarashi asosiy va betakror uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda dunyoqarashning olam, tabiat, jamiyat va odamning bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oyasi, har bir odam o‘z-o‘zini anglab olishida tayanch nuqtasi rolini bajaradi. Shu bilan birga faqat odam o‘z-o‘zini anglab olishi jarayonida, ya’ni o‘zini ana shu xilqatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida idrok etishi mazkur g‘oyaning to‘g‘riligiga shaxsan o‘zi ishonch hosil qiladi.

Dunyoqarashning uchinchi muhim xususiyati uning hamma vaqt insonning tafakkur qilish darajasi bilan bog‘liqligidir. Bunda shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, har bir odam o‘z-o‘zini anglashi orqali o‘zining mohiyati odamzod mohiyatidan kelib chiqishini, tabiat va butun olam mohiyati ham odamning mohiyatida o‘z ifodasini topishini ham bilib oladi. Har bir odamning mohiyatini odamzod, tabiat va olam mohiyati to‘liq belgilaydi deb tushunish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki kishining insoniy xususiyatlari, ma’lum darajada, uning hayotiy tajribasi asosida shakllanib borib, tarbiyasi, madaniyati, ma’naviyati va bilimiga ham bog‘liq bo‘ladi. Umuman olganda, har bir odamning mohiyatini tashkil qilgan xususiyatlarining bir qismini odamzod, tabiat va olam mohiyatlari belgilasa, qolgan qismini esa, odamning hayotiy tajribasi va uning kamoloti belgilaydi. Shuning asosida har bir odamning o‘ziga xos mohiyati boshqacha aytganda insoniylik xususiyatlari mavjud. Bu

fikrlardan, dunyoqarashning har bir odam uchun zarurligi to‘g‘ris ikkita muhim xulosa kelib chiqadi.

Har bir odam o‘zining dunyoqarashi asosida chinakam insonga bo‘lgan xususiyatlarni bilib oladi va shu orqali jamiyatda o‘z o‘rnini to olib haqiqiy baxtga erishadi, uning oliy maqsadlari va ezgu niyat amalga oshadi.

Agarda bir odamning dunyoqarashi tor va mazmunan qashshoq bo‘lsa, u o‘z-o‘zini yetarli darajada anglab ololmaydi va bilan uning insoniy xislatlarining shakllanishi sekinlashadi va ka topmaydi. Shuning natijasida, u odam o‘zining ijtimoiy va shax faoliyatida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi va bisyor hay qiyinchiliklarga duch keladi.

Dunyoqarashning to‘rtinchi muhim xususiyati, uning hamma yalpi umumiylik ahamiyat kasb etishidir. Shu sababli dunyoqarashni yalpi umumiylik to‘g‘risidagi ta’limot ham deyishadi. Dunyoqarashda yoxud yalpi umumiy bo‘lgan xossa, zaruriyat, aloqadorlik va hokazo to‘g‘risida fikr yuritiladi. Dunyoqarashning bilish obyekti yalpi umumiy xarakteriga ega, boshqacha aytganda, dunyoqarashda ifodalanadigan xos aloqalar va boshqalar olamning har bir qismida mavjud. Masalan. miq bilan sifat o‘rtasidagi aloqadorlikni olaylik. Bu aloqadorlik elektron, at molekula, hujayra, o‘simlik, hayvon, odam, millat, davlat, jamiyat, bil jarayonida, Quyosh tizimi, Koinot va hakozolarga xosdir.

Yalpi umumiyliklarning soni va turlari juda ham ko‘p bo‘l mumkin. Bunday umumiyliklar to‘g‘risidagi bilimlar dunyoqarash negizini va asosiy mazmunini tashkil qiladi. Yalpi umumiyliklarni kashf etish ular to‘g‘risida fikr yuritish nihoyatda murakkab ilmiy-nazariy jarayondir. Faqat qomusiy bilimga ega bo‘lgan buyuk iste’dod sohiblarigina dunyoqarashning har taraflama ravnaq topishiga o‘z hissasini qo‘shi mumkin.

Yer kurrasidagi yashayotgan har bir odamning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyat va mohiyatlari bo‘lmasin, ularning barchasi umumiy mohiyatga ega. Ana shu mohiyat asosida har bir odam «inson», «odamoxun» va shu kabi ulug‘ va mo‘’tabar nomlarga ega bo‘ladi. mohiyat har bir odamning muhim va zaruriy hislat va fazilatlaridan tash topadi, uni jamiyat, xalq va odamzodga ko‘proq foyda keltiruvchi sifat ta’riflaydi Ana shu barcha odamlarga xos bo‘lgan umumiy mohi dunyoqarashda o‘z ifodasini topadi.

4. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi. Dunyoqarash murak tuzilishga ega bo‘lgan ma’naviy hodisa bo‘lib, uning mazmun-mohiya belgilashda bilimlarni umumlashtirish, ishonch, qadr-qimmat, id

narsalar bu qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Hatto bir odamning axloqiy-siyosiy faoliyati ham bu qonunga bo‘ysunadi. «Dao» abadiy va cheksiz, yaratilmagan va hamma yerda mavjud. Agarda xudo mavjud bo‘lsa uning ham kelib chiqishi «dao» bilan bog‘liq.

Qadimgi Gretsiyada ham olamning kelib chiqishi, nechtaligi, o‘zgarishi, mohiyati va boshqa tomonlari to‘g‘risida ko‘plab qarashlar yaratilgan edi. Masalan, pifagorchilar olamning kelib chiqishi,tarkibiy tuzilishi va mohiyatini matematik nuqta, son va geometrik shakllar bilan bog‘liqligini isbotlar edi. Masalan, «I» raqami olamdagi barcha narsa va xudolarning ham bosh ibtidosi deb qabul qilingan.Ko‘rinib turibdiki,olam to‘g‘risida yozilgan dunyoqarashga taalluqli qarashlar nihoyatda ko‘pdir.

Dunyoqarashning ikkinchi muhim xususiyati shundan iboratki, dunyoqarashda olam bir butun (yaxlit) deb qabul qilinadi. Dunyoqarash bo‘yicha olamda nimaiki mavjud bo‘lmasin, ular bir-biri bilan bevosita yoxud bilvosita bog‘liqdir. Shuninig asosida, dunyoqarash bo‘yicha olam tabiat, jamiyat va odam birlikda bir butunlikni tashkil qiladi.

Bu butunlik dunyoqarashda quyidagicha talqin qilinadi. Ma’lumki, dunyoqarash har bir odam ongining o‘ta muhim bir qismidir. Bu muhimlik shundan iboratki, odam o‘z-o‘zini bilib olishda uning dunyoqarashi asosiy va betakror uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda dunyoqarashning olam, tabiat, jamiyat va odamning bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oyasi, har bir odam o‘z-o‘zini anglab olishida tayanch nuqtasi rolini bajaradi. Shu bilan birga faqat odam o‘z-o‘zini anglab olishi jarayonida, ya’ni o‘zini ana shu xilqatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida idrok etishi mazkur g‘oyaning to‘g‘riligiga shaxsan o‘zi ishonch hosil qiladi.

Dunyoqarashning uchinchi muhim xususiyati uning hamma vaqt insonning tafakkur qilish darajasi bilan bog‘liqligidir. Bunda shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, har bir odam o‘z-o‘zini anglashi orqali o‘zining mohiyati odamzod mohiyatidan kelib chiqishini, tabiat va butun olam mohiyati ham odamning mohiyatida o‘z ifodasini topishini ham bilib oladi. Har bir odamning mohiyatini odamzod, tabiat va olam mohiyati to‘liq belgilaydi deb tushunish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki kishining insoniy xususiyatlari, ma’lum darajada, uning hayotiy tajribasi asosida shakllanib borib, tarbiyasi, madaniyati, ma’naviyati va bilimiga ham bog‘liq bo‘ladi. Umuman olganda, har bir odamning mohiyatini tashkil qilgan xususiyatlarining bir qismini odamzod, tabiat va olam mohiyatlari belgilasa, qolgan qismini esa, odamning hayotiy tajribasi va uning kamoloti belgilaydi. Shuning asosida har bir odamning o‘ziga xos mohiyati boshqacha aytganda insoniylik xususiyatlari mavjud. Bu

fikrlardan, dunyoqarashning har bir odam uchun zarurligi to‘g‘risida ikkita muhim xulosa kelib chiqadi.

Har bir odam o‘zining dunyoqarashi asosida chinakam insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni bilib oladi va shu orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topib olib haqiqiy baxtga erishadi, uning oliy maqsadlari va ezgu niyatlari amalga oshadi.

Agarda bir odamning dunyoqarashi tor va mazmunan ham qashshoq bo‘lsa, u o‘z-o‘zini yetarli darajada anglab ololmaydi va shu bilan uning insoniy xislatlarining shakllanishi sekinlashadi va kamol topmaydi. Shuning natijasida, u odam o‘zining ijtimoiy va shaxsiy faoliyatida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi va bisyor hayotiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Dunyoqarashning to‘rtinchi muhim xususiyati, uning hamma vaqt yalpi umumiylik ahamiyat kasb etishidir. Shu sababli dunyoqarashni yalpi umumiylik to‘g‘risidagi ta’limot ham deyishadi. Dunyoqarashda eng yoxud yalpi umumiy bo‘lgan xossa, zaruriyat, aloqadorlik va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Dunyoqarashning bilish obyekti yalpi umumiylik xarakteriga ega, boshqacha aytganda, dunyoqarashda ifodalanadigan xossa, aloqalar va boshqalar olamning har bir qismida mavjud. Masalan. miqdor bilan sifat o‘rtasidagi aloqadorlikni olaylik. Bu aloqadorlik elektron, atom, molekula, hujayra, o‘simlik, hayvon, odam, millat, davlat, jamiyat, bilish jarayonida, Quyosh tizimi, Koinot va hakozolarga xosdir.

Yalpi umumiyliklarning soni va turlari juda ham ko‘p bo‘lishi mumkin. Bunday umumiyliklar to‘g‘risidagi bilimlar dunyoqarash negizini va asosiy mazmunini tashkil qiladi. Yalpi umumiyliklarni kashf etish va ular to‘g‘risida fikr yuritish nihoyatda murakkab ilmiy-nazariy jarayondir. Faqat qomusiy bilimga ega bo‘lgan buyuk iste’dod sohiblarigina dunyoqarashning har taraflama ravnaq topishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

Yer kurrasidagi yashayotgan har bir odamning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyat va mohiyatlari bo‘lmasin, ularning barchasi umumiy bir mohiyatga ega. Ana shu mohiyat asosida har bir odam «inson», «odamoxun» va shu kabi ulug‘ va mo‘’tabar nomlarga ega bo‘ladi. Bu mohiyat har bir odamning muhim va zaruriy hislat va fazilatlaridan tashkil topadi, uni jamiyat, xalq va odamzodga ko‘proq foyda keltiruvchi sifatida ta’riflaydi Ana shu barcha odamlarga xos bo‘lgan umumiy mohiyat dunyoqarashda o‘z ifodasini topadi.

4. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi. Dunyoqarash murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ma’naviy hodisa bo‘lib, uning mazmun-mohiyatini belgilashda bilimlarni umumlashtirish, ishonch, qadr-qimmat, ideal,

e'tiqod, faoliyat, hayot normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarashga yarim funksionallik xos bo'lib, uning asosini odamning dunyo sir-asrorlarini bilishda fizio-psixologik mexanizmlar orqali mo'ljal olishi tashkil qiladi. Bunda so'z inson ma'naviy dunyosining hissiyot, aql, erk va ularning birgalikda harakat qilishi haqida ketmoqda. Shunga ko'ra, dunyoqarashning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi.

Dunyoqarashning tarkibiy qismlari:

a) *dunyoni sezish* – bu odamlarning olamdagi real mavjud narsalarni sezgi organlari orqali his etishi bo'lib, uni dunyoqarashning emotsional-ruhiy;

b) *dunyoni idrok etish* – kishilarning atrof-borliqni orttirilgan tajribasi tufayli timsoliy idrok etishi bo'lib, uni dunyoqarashning dunyo haqida tasavvurlarning shakllanish;

v) *dunyoni tushunish* – dunyoning mohiyatini, undagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqalarini bilib olish bo'lib, uni dunyoqarashning intellektual darajalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Demak, odamlarning tabiat va jamiyat haqidagi bilimlari sintezlanib dunyoning umumiy manzarasi, tabiatshunoslik ilmlarining qo'shilishidan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi, ijtimoiy fanlarning mantiqiy birlashishidan dunyoning ijtimoiy-tarixiy manzarasi, dunyoning mafkuraviy manzarasi kabilar yaratiladi. Dunyoning umumiy manzarasini ishlab chiqish esa barcha ilm sohalarining vazifasi hisoblanadi.

Dunyoqarashni sohiblariga ko'ra ikkiga ajratimiz.

1. Individual dunyoqarash.
2. Ijtimoiy dunyoqarash.

1. *Individual dunyoqarash deb dunyo to'g'risida bir kishiga yoki alohida shaxsga xos bo'lgan qarashlarga aytiladi.* Uning sohibi – bu konkret odam hisoblanadi. Masalan, fuqaro Olim Ahmedovning dunyoqarashi individual dunyoqarashlar jumlasiga kiradi.

2. *Ijtimoiy dunyoqarash deb dunyo-olam haqida mehnat va xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, elat, millat, xalqlar, xullas butun jamiyatga xos bo'lgan qarashlar tizimiga aytiladi.* Bunga, masalan, O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning dasturlarini kiritish mumkin.

Ijtimoiy dunyoqarashning negizida alohida odamlarning dunyoqarashlari yotadi. Har qanday dunyoqarash – ko'p o'lchovli tizim bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida inson ong va ong ostining turli xil sezgi, kayfiyat, intilish, ishonch, bilim, qadriyat, baho, intuitsiya kabi qismlari ishtirok etadi. Yuqoridagi tarkibiy qismlar, bir butunlikni tashkil

qilib, insonning real hayotida u yoki bu darajada o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad fuqarolarimizning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishdan iboratdir. Milliy tiklanishdan–milliy yuksalishga o‘tish borasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida **Sh.M.Mirziyoyev** aytganidek***”Dunyoqarashni – ilm, daromad, manfaat o‘zgartiradi”***[5].

5. Dunyoqarashning komponentlari. Dunyoqarash individual va ijtimoiy ongning murakkab, sintetik, integrallashgan birikmasi bo‘lib, uni tuzilishi bo‘yicha to‘rtta asosiy komponentga ajratib o‘rganish mumkin.

1. **Bilish komponenti.** Bu asosan odamlarning har kuni olgan oddiy ma’lumotlari, shuningdek, professional aql-zakovati, ilmiy izlanishlari orqali hosil qilingan individual va ijtimoiy bilish natijalarini tizimlashtirish orqali dunyoning ilmiy universal va konkret-ilmiy manzarasini tasavvur etishga asos bo‘ladigan tarkibiy qismidir.

2. Me’yoriy (normativ[6]) - qadriyatlar komponenti. Dunyoqarash faqat oddiy yoki ilmiy tarzda hosil qilingan bilimlar tizimidangina iborat emas, balki, odamzodga xos bo‘lgan ishonch, e’tiqod, ideal, maqsad,vijdon kabi jamiyatni tartibga solib turuvchi me’yoriy (normativ) qadriyatlar tizimidan ham iboratdir. Inson – oliy qadriyat, uning tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, jarayonlarga insoniylik nuqtai nazaridan qadriyatli tarzda munosabatda bo‘lishi ham dunyoqarashning tarkibiy tuzilishidagi ustunlaridan biri hisoblanadi.

3. Hissiy-idrok komponenti. Bilim, qadriyat va o‘rnatilgan me’yorlarni amalda bajarish uchun eng avvalo, ularni har bir odam chin qalbdan his etishi orqali o‘zining ishonchiga, maslagiga aylantirishi, shundan so‘ng esa biron bir harakatlarni sodir etishi uchun hissiy-ruhiy jihatdan tayyor ekanligiga ko‘rsatma berishi kerak bo‘ladi. Shakllangan ana shu hissiy-idrok jarayoni dunyoqarashning tarkibiy tuzilishidagi muhim qismlardan biri bo‘lib, u siz dunyoqarash yetarlicha shakllanmay qoladi.

4. Amaliy komponent. Dunyoqarash bu shunchaki bilim, qadriyat, ishonch, va boshqalarning umumlashmasigina emas, balki odamning muayyan sharoitda o‘zining xulq-atvoriga qarab amalda harakat qilishi

---

[5] ***Мирзиёев Ш.М***. https://www.uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-dunyo-arashni-nima-uzgartiradi-ilm-daromad-manfaat

[6] ***Норматив*** [*лотинча normatio – меъёрлаш, тартибга солиш*]. Бирон-бир ишни бажариш, дастурни амалга оширишнинг иқтисодий, техник ва бошқа норма кўрсатгичлари мажмуи. ***Норма*** [*лотинча norma – меъёр, ўлчов; қоида, қонун*] 1.Расмийлаштирилган қонун қоида. 2. Умум томонидан қабул қилинган ва тан олинган, ҳамма учун мажбурий деб ҳисобланган, конун ҳукмига кирган тартиб-қоида.

hamdir. Amaliyotda foydasi tegmagan dunyoqarash – abstraktlikdan o‘zga narsa emas. Garchand, bu komponent odamlarning aniq ish jarayonida bevosita ishtirok etmasada, biroq, uning optimal yo‘lini ko‘rsatish, shuningdek rag‘batlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

6. Dunyoqarashning xarakteri. Odamlar o‘ziga xos va sermazmun dunyoqarashga ega bo‘ladilar. Bu odamning dunyoqarashida ishonch va shubha, bilim va uydirma, umid va umidsizlik hamda boshqa qarama-qarshi bo‘lgan fikr va g‘oyalar o‘z o‘rnini topishi mumkin. Umuman olganda, odam dunyoqarashi mazmunining miqdori va sifatini o‘lchab bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, odamlarning dunyoqarashi mazmuniniig sifati va xarakterini ularning ijtimoiy va shaxsiy hayoti, odamlarga, mehnatga, boylikka, bilimga, san’atga va hakozolarga bo‘lgan munosabati orqali bilib olish mumkin. Gap shundaki, odam dunyoqarashining mazmunining uning umumiy sifati va xarakterini belgilaydi. Agarda bir odam dunyoqarashining mazmuni olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakozolar to‘g‘risidagi teran dunyoviy bilimlarga asoslangan bo‘lsa, unda bunday odamning dunyoqarashi ilmiylik xarakterga ega bo‘ladi. Bunday dunyoqarashga ega bo‘lgan olimlar qatoriga XX asrning eng mashhur fiziklaridan biri bo‘lgan Albert Eynshteynni (1879- 1955) kiritish mumkin. Ingliz olimi Bertran Raseel (1872- 1970) ham o‘zining matematik mantiq va tibbiyot fanlarining falsafiy muammolari bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari bilan XX asrning eng mashhur olimlaridan biri hisoblanadi.

1. Agarda bir odamning dunyoqarash mazmuni olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakozolar to‘g‘risidagi teran dunyoviy bilimlarga asoslangan bo‘lsada, lekin bu odamning iymoni komil va but bo‘lsa, *bunday odamnnng dunyoqarashi diniy xarakterga ega bo‘ladi.* Masalan, Ibn Sino (980-1037) va I.P.Pavlov (1849- 1936) kabilarning dunyoqarashi shunday baholanishi mumkin. Shunday olim va mutafakkirlar ham borki, ular falsafa, matematika, fizika va boshqa bilim sohalarida buyuk kashfiyotlar qilganligiga qaramasdan, ularning dunyoqarashi ilmiy-materialistik emas, balki diniy-idealistik yoki idealistik masalan, I.Kant (1724-1804), Gegel (1770-1831), E.Max (1838-1916), A.Puankare (1854-1612) kabilarning dunyoqarashi shunday xarakterga ega bo‘lgan.

2. Yuqorida zikr qilganimizdek, odamlarning dunyoqarashi nihoyatda xilma xil va ziddiyatli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim odamlarning dunyoqarash xarakterini belgilovchi omilini aniqlashning o‘zi katta muammoga aylanadi. Bizningcha, har qanday dunyoqarash mazmunining asosiy unsurini *odam o‘z hayotining maqsadi va mohiyatini to‘g‘ri anglashi tashkil qiladi.* Bu nihoyatda murakkab mantiqiy

jarayondir. Har bir odam o‘z umrining asosiy maqsadini anglashiga, o‘zini o‘zi (o‘zligini) to‘g‘ri bilib olishi bilan birga, uning shaxsiy va ijtimoiy tizimlar (sinf, millat va h.k.) bilan bog‘liq bo‘lgan manfaat va ehtiyojlari hamda jamiyatda tutgan o‘rni nihoyatda katta ta’sir qiladi.

Shu fikrlardan kelib chiqqan holda dunyoqarash xarakterini gumanistik va jaholatparast (reaksion) turkumlarga ham bo‘lish mumkin.

3. Dunyoqarashi *gumanistik xarakterga* ega bo‘lgan odamlar hayotining asosiy maqsadini o‘z xalqi va umuminsoniyatning ozodligi va farovonligi uchun olib boriladigan kurash bilan bog‘laydilar. Masalan. Zardusht (er.av. VI asrda yashagan),Muhammad ibn Abdulloh (570-632), Alisher Navoiy (1441-1501), Moxandas Karamchand Gandi (1869-1949). Ibrohim Mo‘minov (1908-1974), I.A.Karimov (1938-2016) va shu kabi buyuk insonlarning dunyoqarashi gumanistik xarakterga ega bo‘lgan.

4. Dunyoqarashi *jaholatparast xarakterga* ega bo‘lgan odamlar ayrim millat, sinf va boshqa ijtimoiy birliklar manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat kechirsalarda ular boshqa millatlarga nisbatan genotsid[7]o‘tkazadilar. Jamiyatda zo‘ravonlik, zulm va boshqa antidemokratik tartiblar o‘rnatadilar, odamlarning haq-huquqlari poymol bo‘lishiga yo‘l qo‘yadilar va hakozolar. A.Gitler, I.V.Stalin va boshqa terrorchilarning dunyoqarash xarakteri shunga yaqqol misol bo‘la oladi.

7. Dunyoqarashning tasnifi. *Dunyoqarashni tasniflash deb ularning umumiyligi, egallagan o‘rni, shakllari, nazariy yetukligi darajalar, sohiblariga qarab bir nechta turlarga ajratishga aytiladi.*

Bunda dunyoqarashni quyidagi:

1) *umumiyligi bo‘yicha*: individual; jamoaviy; umuminsoniy;

2) *tarixiy shakli bo‘yicha*: mifologik; diniy; falsafiy;

3) *tarixiy o‘rni bo‘yicha*: antik-qadimgi; o‘rta asr; zamonaviy;

4) *nazariy etukligi bo‘yicha*: kundalik ommaviy; nazariy turlarga ajratish mumkin.

8. Dunyoqarashning darajalari. Dunyoqarashning darajasi har bir odamning ongida sifati bo‘yicha qanday dunyoqarash qaror topganligini bildiradi. Odamning dunyoqarashini uning darajasi bo‘yicha asosan *hayotiy-tajribaviy va ilmiy-nazariy turlarga* bo‘lish mumkin.

Har bir odam o‘ziga xos va o‘ziga mos bo‘lgan dunyoqarashga ega bo‘ladi. Bir odam barcha fanlar asoslarini teran bilmasada, olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakozolar mohiyatlarini o‘zining ko‘p yillik shaxsiy va ijtimoiy hayoti, mehnat tajribasi asosida birmuncha bilib oladi. Ko‘p

---

[7] *Геноцид* [юнонча *genos* – уруғ, қабила + лотинча *caedo* - ўлдираман] Аҳоли гуруҳларини уларнинг ирқи, миллати, дини ва ш.к. хусусиятларини рўкач, асос қилиб, қисман ёки бутунлай қириб ташлаш.

umr ko‘rgan odamlarning dunyoqarashi o‘z hayoti tajribasidan olgan bilimlarga boydir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida «Qari bilganini pari bilmas» va «Qari bor uyda pari bor» degan gaplar bejiz keng tarqalmagan. O‘zbek xalqining eng nodir udumlaridan biri ham qariyalarni e’zozlash va ularning pand-nasihatlari bo‘yicha yashashdir. Xalqimizning bir necha ming yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqan dunyoqarashga taalluqli nihoyatda boy va nodir fikrlari mavjud. Respublikamiz mustaqil va suveren davlat bo‘lishi tufayli xalqimiz bunday ziyo va durdona aql sarchashmasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga ulug‘ avlod-ajdodlarimiz bizga benihoya katta ma’naviy boylik qoldirib ketgan. Respublikamiz taraqqiy etgan davlatlar qatoriga tezda o‘tib olishi uchun xalqimiz bu ma’naviy boylikdan bemalol bahramand bo‘lishi kerak.

Hayotiy-tajribaviy dunyoqarashning ahamiyati va salohiyati ancha cheklangan, chunki u borliqning obyektiv qonunlari va odamlarning o‘zgaruvchan mohiyatlariga asoslanmaganligi sababli, kelajakni oldindan bilish va jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga imkon bermaydi.

Dunyoqarashning ilmiy-nazariy darajasi olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakozolarning mohiyati va barcha fanlarda erishilgan tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlarga asoslangan *bo‘lib,* har bir odamning shaxsiy va ijtimoiy hayotida eng to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O‘zining ilmiy-nazariy dunyoqarashiga asoslanib, har bir odam o‘zligini bilib va haqiqiy inson bo‘lib yetishi uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topib olishi mumkin. Albatta, bunday odamlar o‘z Vatani va xalqining haqiqiy jonkuyariga aylanadi.

9. Dunyoqarashning tarixiy tiplari. Falsafa ilmida dunyoqarash asosan uch tarixiy tip[8]ga ajratilib tadqiq qilinadi.

Bularga quyidagilar kiradi:

1.Mifologik dunyoqarash.

2. Diniy dunyoqarash.

3. Falsafiy dunyoqarash.

1. Mifologik dunyoqarash va unga xos bo‘lgan xususiyatlar. Mifologik dunyoqarash inson va jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlariga xos bo‘lib, ma’naviy madaniyatning alohida shakli sifatidagi mifologiya bilan bog‘liq, uning vositasida qurshab turgan dunyoni va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish amalga oshiriladi. Mifologik ong o‘zining

[8]**Тип** юнонча *«typos – из, белги, шакл, намуна»* сўзларидан олинган бўлиб, муайян бир тур(гуруҳ)даги нарсаларнинг муҳим белгиларга эга бўлган намунаси, шакли, модели, деган маънони англатади// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 106.

sinkretikligi[9] – qorishiqligi, birlashganligi, qism va bo‘laklarga ajralganligi bilan farqlanadi. Afsonalarda diniy ishonch, ilmiy bilimlar kurtaklari, falsafa, san’at, siyosiy va ijtimoiy qarashlar murakkab tarzda o‘ylab topilib, talqin qilinadi. Afsonalarning ifodalanish shakllari ko‘pincha sezgi-shoirona tarzda bo‘lib, ularda aql-idrok tushunchasi ham shakllanmagan bo‘ladi. Afsonalarda taqqoslash, kinoya, o‘xshatish, ishoralardan tez-tez foydalaniladi.

Ijtimoiy hayotda faqat ijtimoiy voqelikni anglash va maqsadli takomillashtirish, shunchaki an’analarga, marosimlarga, qaror topgan xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlarga tayanish mifologik ongga xosdir. Shu bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solish amalga oshiriladi.

Insonning madaniy yutuqlari, dunyo va insonning kelib chiqish masalalari, tarixiy voqealar, hayot va o‘lim masalasi, yaxshilik va yomonlik, shuningdek abadiy falsafiy muammolar, inson va dunyoning kelajagini bilishga intilish mifologiyaning predmeti hisoblanadi.

Ilk mifologiya xayoliy (bolalarcha) yarim xayoliy dunyoqarash sifatida baholandi, unda tarqalgan fikrlarga binoan, real voqelik g‘alati qiyshiq oynadagiday buzib ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Hozirgi tadqiqotchilar bunday bir tomonlama baholashdan chekinib, miflarni ilk, ba’zan xayoliy sifatida, lekin borliqni bilishda unumli va chuqur urinish sifatida qaramoqda.

Hozirgi davrda mifologik dunyoqarash qoloq xalqlar o‘rtasida hukmronlik qilmoqda. Bir shakldan boshqa shaklga o‘tgan mifologik qoldiqlarning turlari ijtimoiy ongda va rivojlangan millatlarda saqlanmoqda. Masalan, ijtimoiy-siyosiy mif turlarida («xalq dahosi», «kuchli qo‘l», bir millatning ikkinchi millatdan ustunligi, «tanlangan millat» to‘g‘risida va boshqalar).

Shunday qilib, *mifologik dunyoqarash (grekcha «mifos» - afsona, ertak va «logos» - tushuncha,ta’limot) - bu ibtidoiy odamlarning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelikni naql, rivoyat, afsonalar shaklida jonlantirilgan obrazlar vositasi orqali tasavvur qilishi va shu asosda tushuntirilishidir.* Bunday holat, *birinchidan,* ibtidoiy odamning o‘zini hali o‘rab turgan tabiiy muhitdan ajratmaganligi, *ikkinchidan* esa, ibtidoiy odam tafakkurining emotsional-ruhiy holatlardan aqliy bilish tomon aniq ajralmaganligi bilan ifodalanadi.

Mifologik dunyoqarashga xos bo‘lgan xususiyatlar:

1) mifning odamni tabiatning bir bo‘lagi deb bilgan holda uni tabiatdan

[9] ***Синкретик***[*юнонча synkretismos- бирлашиш*] Қоришиқ; бирлашган; қисм, бўлакларга ажралган

ajrata olmaganligi, ya'ni uni tabiiy va ijtimoiy tomonlar uyg'unligining mahsuli sifatida tasavvur qila olmaganligi;

2) mifdagi afsonaviy shaxslarning mavjud fenomen olamda yashaganlarliklarini aks ettirganligi (Zevsning Olimp, Alpomishning Boysun tog'ida yashaganligi);

3) mifda odam ruhining o'ziga qon-qarindosh bo'lgan boshqa narsalar ruhi bilan aloqadorligi bosh ma'naviy jarayon sifatida qaralganligi bilan ifodalanadi.

Vaqt o'tishi bilan mifologik dunyoqarash tarkibidan quyidagi ma'naviy faoliyat sohalari birinchilar qatorida ajralib chiqqan

1-sxema

Mifologik dunyoqarashdan ajralib chiqqan ma'naviy faoliyat sohalari



2. Diniy dunyoqarash va unga xos bo'lgan xususiyatlar.

Din[10]ilk, rivojlanmagan shakllarda amalda mifologiya bilan qo'shilib ketadi, chunki u borliqni ustun darajada his-sezgilar bilan idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan mifologik g'oyaviy platforma[11]ga asoslanadi. Keyingi, rivojlangan shakllarda esa aniq falsafiy, ratsional-tushuncha asosiga tayanadi.

«Din» atamasi ikkita asosiy ahamiyatga ega. Birinchisi, kengroq ma'noda (religare – birikish, bog'lanish, ittifoq) so'zlarining kelib chiqishi bilan bog'liq inson jonining oliy borliqda (xudo, ruh, Atman, Adi-Budda, Kosmik aql, Koinot ongi va boshqalar) qo'shilish amaliyotini nazarda

---

[10] ***Дин*** – бу арабча *«эътиқод, ишонч»* деган сўзлардан олинган бўлиб, Илоҳий кучга, Худога ишонишга асосланган дунёқараш, тасаввур, урф-одат ва маросимлар мажму, деган маънода англатади.

[11] ***Платформа*** [*франц. plate-forme-текис, ясси шакл; майдонча*] Бирор сиёсий партия, ижтимоий ташкилот ёки арбобнинг дунёқараши, маслаги, тутган йўли, иш, ҳаракат дастури.

tutadi. Ikkinchisi esa, tor ma'noda ong turlaridan birining konkret ijtimoiy ifodasini aniqlaydi, ya'ni ijtimoiy hodisa sifatida konkret dinni ko'rsatadi.

An'anaviy diniy dunyoqarashga xos bo'lgan muhim xususiyatlar:

1) «ishonch»ni bilim va aqlga tayangan holda tamoyil darajasiga ko'tarish;

2) tabiat qonunlari va insonning bilish imkoniyatlari doirasidan chiqadigan g'ayritabiiy, sababdan tashqari, tushuntirib bo'lmaydigan hodisalar imkoniyatiga ishontirish;

3) diniy ibodatlarning mavjudligi (marosimlar) va boshqalar;

4) mutlaq haqiqat, xudoning «vahiy» yuboruvchi sifatida qabul qilinuvchi, diniy aqidalar, muqaddas yozuvlarning mavjudligi;

5) konkret din manfaatlari bilan bog'liq ijtimoiy institut (tashkilotlar) sifatida amal qilishi.

Xudo, inson uchun vafotidan keyingi borliq, savob, axloqiy me'yorlar, dunyo va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi ma'lum qarashlar, diniy amaliyot va boshqalar diniy e'tiqodning predmeti hisoblanadi. Odatda Xudo dunyoning Yaratuvchisi, uning qonunlarini nazorat qiluvchi oliy shaxs (Mutlaq Shaxs) sifatida tushuniladi.

Diniy dunyoqarash insoniyatning rivojining tarixiy bosqichlarida zamonning talablariga mos ravishda ijobiy yoki salbiy rol o'ynagan.

Hozirgi dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda qoloq va yuqori darajada rivojlangan millatlar o'rtasida turli diniy dunyoqarashlar tarqalgan.

Shunday qilib, diniy dunyoqarash - bu borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi,adolatning yuksak namunasi,moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, yani Xudoga nisbatan bo'lgan munosabat,tasavvur, urf-odat va marosimlar tizimidir.

Diniy dunyoqarashga xos bo'lgan xususiyatlar:

- e'tiqod, ya'ni xudoning bor ekanligiga ishonish, unga aql va bilim bilan itoatda bo'lish;
- qandaydir g'ayri tabiiy kuchlarga, ular tomonidan sodir etilajak mo'jizalarga ishonish va e'tiqod qilish;
- diniy ibodatlarning borligi;
- *diniy* «muqaddas yozuv - kitob»larning *mavjudligi;*
- cherkov, masjitlarning diniy tashkilot sifatida faoliyat olib borishi bilan ifodalanadi.

Diniy dunyoqarashning mifologik dunyoqarashdan farqi:

a) diniy ongning o'z obyekti va subyektini qat'iy tarzda ajrata olishi, mifning esa odamni tabiatdan ajrata olmasligi;

b) dinning olamni jon va tana, ruh va vujud, yer va osmon, tabiiy va g'ayri tabiiy sohalarga ajratishi, mifning esa o'z afsonaviy shaxslarining faqat mavjud moddiy olam qo'ynida yashaydi deb tushunishi;

v) dinda e'tiqodning amaliy xatti-harakatlar bilan chambarchas bog'liqligi, mifda esa uning hali amaliy e'tiqod darajasiga ko'tarilmaganligi;

g) dinda odamning Xudo bilan ruhan birlashuvi masalalarining aniq ifoda etilganligi, mifda individning o'z qarindosh urug'lari bilan birlashuvining tasvirlanishi bilan belgilanadi.

Diniy dunyoqarashni **teologiya** (*«teo» - xudo, «logos» - ta'limot*) deb ataladigan fan o'rganadi.

Dunyoqarashning navbatdagi rivojlangan tarixiy tipi falsafa hisoblanadi.

3. Falsafiy dunyoqarash: ta'rifi va xususiyatlari. *Falsafiy dunyoqarash - bu olam va odam munosabatlaridagi tabiat, jamiyat va insonning eng umumiy o'zaro bog'lanish, aloqadorlik va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish asosida kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan bir butun olam haqidagi ilmiy, tarixiy, mantiqiy, universal, maqsadli, g'oyaviy, nazariy bilim va amaliy xatti-harakatlarning yaxlit tizimidir.*

Falsafiy dunyoqarashga xos bo'lgan xususiyatlar:

Falsafiy dunyoqarashning:

1) voqelikni mifologik yoki diniy dunyoqarashdagi hissiy- obrazli idrok ettirishdan tashqari abstrakt-tushunchalar orqali o'zlashtirishi;

2) tarixiy taraqqiyot silsilasida muayyan bir tizim tarzida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lgan ilmiy dunyoqarashning nazariy shakli bo'lib, uning dunyoqarash masalalarini tanqidiy ko'z bilan tadqiq etish va aniq dalil-isbotlar bilan hal qilishga asoslanishi;

3) mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli o'laroq, ularni qanoatlantiruvchiga qandaydir asoslariga tayanishi bilan emas, balki, ilmiy dunyoqarashning yadrosini tashkil etishi va ularning bir butunligini, o'zaro aloqadorligini va aniqligini ta'minlashi;

4) olamni anglashda ilmiy bilimlarga tayanishi va shu bilan bir vaqtda falsafa fanlarning rivojiga ham o'zining kuchli ta'sirini o'tkazishi hamda ilmiy bilishning umumiy metodologiyasi vazifasini bajarishi;

5) inson borlig'i muammosini imkon boricha aniq va mutlaq tarzda hal etishga urinishi;

6) insoniyat olamidagi axloqiy va estetik, ijtimoiy- siyosiy, qadriyat, bilish kabi muammolar tadqiqi bilan shugullanishi;

7) avtoritetga emas, balki zaruriyatga qarab ijtimoiy na individual

faoliyat uchun zarur bo‘lgan mezon va tamoyillarniishlab chiqishi bilan ifodalanadi.

2-sxema

Dunyoqarash, falsafa, fan o‘rtasidagi munosabatlar



Falsafiy dunyoqarashning asosiy tamoyillari. *Falsafiy dunyoqarash tamoyillari - bu olam va odam munosabatlarida tabiat, jamiyat, insoniyat olamni anglab yetish uchun o‘ziga asos qilib olgan, unga og‘ishmay amal qiladigan qonun-qoida, nuqtayi nazar, qarash, maslaklar yig‘indisi hisoblanadi* va ularga quyidagilar: ilmiylik; tarixiylik; mantiqiylik; universallik; maqsadlilik; g‘oyaviylik; nazariya va amaliyot birligi kabilar kiradi.

3-sxema

Falsafiy dunyoqarash tamoyillari

1. ***Falsafiy dunyoqarash ilmiydir,*** chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi.

2. ***Falsafiy dunyoqaraishing tarixiylik tamoyili*** jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. ***Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili*** har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi.

4. ***Falsafiy dunyoqarashning universalligi*** boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

5. ***Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq*** bo'lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. ***Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviylik tamoyili*** uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. ***Falsafiy dunyoqarashning nazariya*** *va amaliyot birligi tamoyili* dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy vazifalari. *Falsafiy dunyoqarashning vazifalari - bu dunyoqarash subyektlarini uning tamoyillaridan kelib chiqqan holda odam va olam munosabatlarida sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning tub mohiyatini anglab etish uchun baholash, boshqarish, nazarat qilish, birlashtirish va tarbiyalash ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.*

4-sxema.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy vazifalari



1. Falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasi - bu insonning, o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda narsa-hodisalarni yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratishidir.

2. Falsafiy dunyoqarashning *boshqarish* vazifasi - bu inson faoliyatini axloqiy me’yor, diniy qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali idora etishidir

3. Falsafiy dunyoqarashning *nazorat qilish* vazifasi - bu inson faoliyatini jamoatchilik fikri tarzida nazorat qilishidir.

4. Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish (kommunikativ)* vazifasi - bu turli dunyoqarash yo‘nalishlarini milliy va umuminsoniy g‘oyalar atrofida uyg‘unlashtirishdir.

5. Falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasi - bu kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag‘rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo‘l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

2-§. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funksiyalari, yangi sohalari.

Falsafaning predmeti bugun emas, balki, u o‘tgan ming yilliklarni o‘z ichiga olgan tarixiy davrlarda odamlarning madaniy taraqqiyot darajasiga mos ravishda shakllangan. Falsafa ilm sohasi sifatida tarixiy rivojlanishining boshlang‘ich davrlarida tabiat, kosmos va odam to‘g‘risidagi barcha bilimlarni o‘z ichiga olgan holda kengayib borgan. Shu sababli qadimgi davr odamlari faylasuflarni har tomonlama bilimga ega bo‘lgan olimlar, ya’ni qomusiy bilim egalari deb atashganlar.

Kishilar tomonidan «falsafa» nimani o‘rganadi deyilsa, ularga oddiy odamlar orasida «falsafa hamma narsani o‘rganadi» deb javob berish odat tusiga kirib qolgan. Chunki, faylasufning sinchkov aqli tabiiy va ijtimoiy hayotning eng har xil burchaklariga kirib boradi. Bu yerda yana bir bor shuni ta’kidlash kerakki, eng umumiy, eng keng qamrovli, eng muhim muammolar va masalalar tom ma’nodagi falsafaning bahs mavzulari-predmeti hisoblanadi. Ularni maxsus, butun tafsilotlarini o‘rganish xususiy fanlarning faoliyat sohasi bo‘lmish predmetini tashkil etadi.

1. Falsafaning predmeti. Modomiki, falsafa ijtimoiy ong shakli sifatida mavjud ekan, uning predmetini nimalar tashkil qiladi, ya’ni nimalarni o‘rganadi degan savol tug‘iladi? Bu savolga falsafaga turli davrlarda yashagan mutafakkirlar: falsafa - bu « *donolikni sevish* » **(Pifagor),** *«tadqiqot bilan shugullanish»* **(Geraklit),** *«ezgulik va yovuzlikni bilish vositasi»* **(Suqrot),** *«narsalarning sababi va prinsiplarini*

tadqiq qilish» **(Arastu),** *«baxt-saodatga aql bilan erishish vositasi»* **(Epikur), Abu Nasr Forobiy:**«*Mavjudot haqidagi bilim qo'lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz...*

Falsafa bilimi ochiq-oydin ishonchli dalil-hujjatlarga ega bo'ladi. Odamlar falsafa yo'li bilan isbot etilgan mavjud narsa haqida to'la ishonch va qanoatga ega bo'laflar.

Faylasufning xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. Shuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarni qattiq tutgan bo'lishi kerak.

Faylasuf bo'lmoqchi bo'lgan odam o'z axloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o'rganishga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvi mumkin»[12]*,– degan bo'lsa, «tushunchalar orqali ifodalangan bir butun fan»,* **(F.Bekon),** *«to'g'ri fikrlash orqali bilishga erishish»* **(T.Gobbs),** *«umumiy aql haqidagi fan, umuman predmetlarga fikriy yondashish»* **(Gegel),** «bor *narsani bilish»* **(L.Feyerbax),** *«dunyoning mohiyatini abstrakt tushunchalar shaklida ifodalovchi ilm sohasi»* **(A.SHopengaur),** *«foydali narsalarni bilish jarayoni»* **(J.Dyui) o'rganadi** degan ta'riflarni berganlar. Bunday ta'rif va tavsiflar falsafa tarixida ko'plab uchratish mumkin.

Zero, shunday ekan bugungi kunda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan falsafa ilmiga ta'rif berishning o'ziga xos bo'lgan qiyinchiliklari ham mavjuddir. Buni *birinchidan,* insoniyat rivoji tarixining turli davrlarida yashagan mutafakkirlar tomonidan falsafaga berilgan ta'riflarning xilma xilligi; *ikkinchidan,* har qanday falsafiy ta'limotlarning barchasi har doim ham ilmiy bo'lmaganligi; *uchinchidan,* falsafa faqat sof aqliy bilishdan emas, balki turli xil dunyoqarashlar, axloqiy normalar, baholash mezonlari, qadrlash tamoyillarining u yoki bu jihatlari o'zida ifodalashi bilan izohlash mumkin.

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak XVI asrning oxiri XVII asrga kelib tabiiy-tajribaviy fanlarning keng quloch yoyishi, ya'ni falsafadan oldin yer va osmon jismlari mexanikasi, astranomiya va matematika, so'ngra fizika, kimyo, biologiya fanlarining ajralib mustaqil fan maqomiga bo'lishi, yangi sharoitda falsafa fanining ham o'ziga xos bo'lgan predmeti aniqlab olish zaruriyati paydo bo'ldi. Badiiyroq qilib ifodalaganda, bunday tarixiy sharoitda ***«barcha fanlarning otasi bo'lmish***

[12] ***Форобий Абу Наср.*** Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.283.

falsafa o'zining bor-yo'g'ini bolalariga bo'lib berdi, endi yashashi uchun uning o'zida nimalar qoldi», degan shaklidagi holat yuz berdi.

Bunday vaziyatning vujudga kelishida har doim falsafa bilan maxsus fanlar o'rtasida chegarani aniqlab olish orqali falsafaning o'ziga xos bo'lgan predmetini shakllantirish va rivojlantirib borish zarur bo'ladi. Buni maxsus aniq fanlarning predmetlari bilan falsafaning predmetini solishtirish-taqqoslash natijasida amalga oshirish mumkin. Buni isbotlash uchun ba'zi bir argumentlarni keltiramiz.

1.Falsafa fan sifatida butun olam haqidagi bilimlarni eng umumiy tarzda o'rganadi va umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan «borliq», «ruh», «ong», «qonun», «qonuniyat», «sababiyat» kabi kategoriyalara aks ettiradi va tushuntiradi. Maxsus aniq fanlar esa borliqning u yoki bu tomonlarini, ularning tarkibiy tuzilishiga va harakatlanish mexanizmlariga oid bo'lgan ba'zi bir tomonlarini alohida tarzda o'rganadi va maxsus alohida tushunchalarda aks ettirgan holda bayon qiladi. Masalan, tibbiyotshunoslik fanida «yurak»,«jigar»,«buyrak» va shunga o'xshash.

2. Aniq ilmiy bilimlar har bir narsani aniq, ravshan holda bayon qiladi va boshqacha tarzda talqin qilishiga hojat qoldirmaydi. Falsafiy bilimlar esa plyuralistik[13] ahamiyatga ega bo'lib, bir masalani bir necha xil tarzda talqin qilish xusussiyatlariga egalik qilishi bilan aniq ilmiy bilimlardan farq qiladi. Shuning uchun ham falsafani tabiat va jamiyatda yuzaga kelgan muammoning umumiy yechimini topish, istiqbollarini oldindan bashorat qilishni turli xil nuqtayi nazardan(din va fan, dunyoviylik yoki dahriylik) hal etishga qaratilgan umumiylik maqomiga ega bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi.

3. Falsafa fan sifatida aniq ilmiy fanlar bilan yaqinlashar ekan, o'zining holatini mantiqiy jihatdan asoslash, isbotlash, ularni nazariy shaklda ifodalashga harakat qiladi. Aniq ilmiy bilimlar obyektiv bo'lib, insonning maqsadlari va qadriyatlariga nisbatan betaraflik kasb etadi. Masalan, fizika va kimyo formulalari axloqiy qadriyatlar jumlasiga kirmaydi. Dunyoga nisbatan bo'ladigan falsafiy qarashlar hamma vaqt subyektiv bo'lib, u yoki bu narsa, hodisa, jarayonlarga nisbatan «befarq» emas. Chunki, har qanday falsafiy fikr odamlarning maqsad va manfaatlari

[13] ***Плюрализм*** [*лотинча pluralist – кўп учрайдиган,кўп миқдордаги*]1. Сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётнинг турли хил шаклларининг бир пайтда бирга яшаши, мавжуд бўлиши – ҳуқуқий жамият тузилишининг асосий тамойили. 2. Ғоялар, қарашлар, манфаатлар ва ш.к.нинг танлаш эркинлигига имкон берувчи хилма-хиллиги, кўплиги. 3. борлиқнинг, ҳаётнинг бир неча (ёки кўпгина) мустақил ибтидоси, билимнинг бир неча асоси мавжуд, деб ҳисобловчи фалсафий таълимот, оқим.

prizma[14]si orqali hosil qilinadi. Bunda, aniq fanlar «*nega, nimaga*», falsafa esa «*qanday maqsadda, kim, nima uchun*», degan savolga javob topishga urinadi.

4. Maxsus aniq fanlarning qonunlari borliqdagi narsalarning obyektiv aloqadorliklarini,munosabatlarini mavjud sharoitda o‘zgarmas, doimiylik tarzda aks ettiradi. Masalan, kimyo, fizika, biologiya qonunlari insonning amaliy faoliyati davomida ulardan unumli foydalanish maqsadida kashf qilinadi. Aytaylik, fizika va mexanika qonunlari kashf qilinmaganda - zamonaviy kosmik tadqiqotlar yoki inson fiziologiyasi qonunlari kashf qilinmaganda- zamonaviy tibbiy davolash ham bo‘lmagan bo‘lar edi. Demak, falsafa ilmining boshqa maxsus aniq fanlardan farqi, unda empirik qonunlarining yo‘qligidir. Shuningdek, uning bilish usullari sifatidagi eksperemental yoki matematik bazaning mavjud emasligidir. Bu esa falsafa o‘rganadigan muammolarining natijalarini aniq tekshirib ko‘radigan vositalar bilan jihozlangan tashkilotlariga ega emasligi sababli, qoidaga muvofiq, yagona falsafiy etalon[15]ining ishlab chiqilmaganligidir. Boshqa aniq maxsus fanlarning barcha ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan o‘ziga xos etalonlari mavjud bo‘lib, ularning soni yil sayin ortib borishi bilan odamlarda katta qiziqish uygotayotganligi bilan xarakterlanadi.

5. Barcha aniq maxsus fanlar inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan moddiy olamning obyektiv tarkibiy tuzilishini, ayni vaqtda inson dunyosining ko‘proq tashqi tomonini bilish shakli sifatida faoliyat yuritsa, falsafa esa inson refleksiyasi shakli sifatida inson ma’naviy dunyosining ichki tajribasi rivojini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Fan odamlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv olamni bilish shakli bo‘lsa, ***falsafa esa*** insonning reflektiv shakli hisoblanadi.

Refleksiya[16] – bu insonning dunyoni ma’naviy jihatdan o‘zlashtirish hodisasi bo‘lib, uning predmetini inson ichki dunyosining tashqi dunyoga munosabati tashkil qiladi. Shu sababli, uning xulosasi fandagi bilishga mos kelavermaydi. Shu tariqa, *falsafa inson faoliyatining umumiy asoslarini aks ettirish bo‘yicha tizimlashtirilgan, oqilona aks etishi, inson ma’naviyatining rivojlanish tajribasini umumlashtiruvchi ta’limotdir.*

---

[14]***Призма***[*юнонча ўтиш- қирралик, ярқираган*] Муайяний жараёнларни ниҳоятсимон ўта тиниқ жисмдан ўтказиш орқали унинг биринчи даражали хусусиятларини аниқлаб олиш.

[15]***Эталон***[*франц.etalon-намуна*] Бирор нарсанинг идеал намунаси,ўлчови ёки тури; ўлчов бирликларининг ҳозирги кундаги фан ва техника эришган энг юқори аниқлик билан қайд этиш, сақлаш ва тарқатиш учун хизмат қилади.

[16]***Рефлекция*** *– лотинча reflexio – орқа қайтиш, акс этиш* маъносини англатган ҳолда, фалсафа илмида- кишининг ўз ҳатти-ҳаракатлари ва уларнинг асосларини тушуниб етиши, фаҳмлашига қаратилган назарий фаолияти; билишнинг алоҳида бир шакли сифатида тушунилади.

Shunday qilib, agar har xil davrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan falsafaning predmetini belgilashga oid qarashlarni birlashtirsak, «falsafa»ni taxminan «haqiqatga doimiy muhabbat» va «haqiqatni sevish, donishmandlikka intilish», deb tushunish mumkin[17]. Ayni vaqtda, ***falsafa inson faoliyatining umumiy asoslarini aks ettirish bo'yicha tizimlashtirilgan, oqilona aks etishi, inson ma'naviyatining rivojlanish tajribasini umumlashtiruvchi ta'limotdir. Falsafa inson dunyoqarashining o'ziga xos, maxsus, intellektual faoliyatning boshqa yo'nalishlari va turlarini takrorlamaydigan shaklidir.*** Uning predmetini subyekt-obyekt munosabati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak «odam - olam» munosabatlari tashkil qiladi.

Shunday qilib, falsafa:

1) olamning tabiati va mohiyatini;

2) odamning tabiati, mohiyati va maqsadini;

3) umuman «odam - olam» tizimining holati va umumiy tuzilishini o'rganadi. ***Demak, falsafa - bu olamda odamning tutgan o'rni va uning mavjud dunyoga nisbatan turli xil shakldagi munosabatlarini ifodalovchi eng umumiy ilmiy-nazariy qarashlar tizimidir.*** *Falsafa - bu inson ma'naviyatining alohida o'lchovidir.*

5-sxema.

Falsafaning predmeti



2. Falsafiy bilimlarning predmetlari bo'yicha tuzilishi. Falsafaning predmetidan ham ko'rinib turibdiki, falsafa «odam–olam» munosabatlarining eng umumiy tomonlarini o'rganar ekan, shunga muvofiq tarzda odamlar bilishi, tadqiq qilishi, amaliyotda qo'llashi

[17]**Фалсафа**: энциклопедик луғат. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010. – Б.273-274.

mumkin bo‘lgan ilm-fan va boshqa moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha bir qator juz’iy xarakterga ega bo‘lgan falsafiy bilimlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratib beradi. Juz’iy xarakterdagi falsafiy bilimlar esa o‘z navbatida amaliyotda qo‘llanilishi kutilayotgan ilm sohalari uchun moddiy va ma’naviy olamning eng umumiy rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilish orqali umummetodologik vazifani bajaradi. Tushuntirish apparatining postulat[18]larini yaratishga xizmat qiladi.

Ularni olamning mavjudlik va reallik sohalarini o‘rganishlariga qarab, ya’ni predmetlari bo‘yicha tuzilishga qarab quyidagilarga ajratish mumkin.

6-sxema.

Falsafiy bilimlarning predmetlari bo‘yicha tuzilishi



[18] ***Постулат****[лотинча postulatum -талаб қилинади] biror narsani postulat sifatida ifoda etish, dalilsiz boshlang'ich pozitsiya sifatida qabul qilish.*

Bunda 1) *Koinot va tabiatni anglab etish bo'yicha*– ontologiya, tabiat falsafasi, taraqqiyot nazariyasi;

2) *jamiyat va uning tarixini bilish bo'yicha* – sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, tarix falsafasi, madaniyat falsafasi, akseologiya;

3) *insonni o'rganish bo'yicha* – falsafiy antropologiya, antroposofiya;

4) *ma'naviy jarayonlar bo'yicha* – gnoseologiya, mantiq, etika, estetika, din falsafasi, huquq falsafasi, falsafa tarixi, axborotning falsafiy masalalari va boshqa shu kabi falsafiy bilim shakllari ko'payib bormoqda.

Mazkur falsafiy bilimlarning predmetlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ontologiya – borliq qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- naturfalsafa –tabiat to'g'risida falsafiy ta'limot;
- teologiya – xudo to'g'risidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson to'g'risidagi ta'limot;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat rivojlanish to'g'risidagi ta'limot;
- gnoseologiya, yoki epistemologiya – bilish to'g'risidagi ta'limot;
- etika – axloq va odob to'g'risidagi ta'limot;
- logika – tafakkur qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- estetika – go'zallik qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- aksiologiya – qadriyatlari to'g'risidagi ta'limot;
- falsafa tarixi – falsafa rivojlanishi to'g'risidagi ta'limot;
- germenevtika – ma'no-mazmun to'g'risidagi ta'limot va boshqa sh.k.

3. Falsafaning kelib chiqishi. Dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi VII va VI asrlarda bir vaqtning o'zida har xil mintaqalar – Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Yunonistonda, Qadimgi Turonda paydo bo'lgan. Buni xitoy, hind, misr, turon va boshqa sivilizatsiyalar tarixining ilk davrlaridagi hosil qilingan mifologik, diniy va falsafadan oldingi adabiy manbalarda aks ettirilgan ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Dastlabki inson va jamiyat to'g'risida qadimgi qarashlarda ildiz otgan falsafiy donishmandlik an'anaviy turmush tarzini tanqidiy tahlil qilishning ifodasi bo'lib, uning birinchi kurtaklari kundalik, an'anaviy, patriarxal hayotning adolatligi va haqiqiyligiga shubha bilan qarashlar asosida paydo bo'lgan edi. Umuman falsafa mifologik-diniy ongning usullari tabiiy va ijtimoiy voqelikni tushuntirishga qurbi yetmay inqirozga uchragan davrida haqiqiylikni umumiylikdan, asillikni yasamalikdan ajratish, yangi mustahkam dunyoqarashni yaratish va yangi hayotiy yo'nalishlarni aniqlash zaruriyati tufayli vujudga kelgan. Bu vazifalarni hal etishga bo'lgan urinish esa, o'z navbatida dunyo va odam to'g'risida

tanqidiy, aqlan fikrlash to‘g‘risidagi dunyoqarashning yangi turi bo‘lmish falsafaning rivojlantirishga sabab bo‘ldi.

4. Falsafaning asosiy masalasi: bahslar va yechimlar. Falsafaning asosiy masalasi to‘g‘risida har xil qarashlar mavjud. Masalan, hind klassik falsafasi uchun u insonni azob-uqubatdan qutqazishning amaliy yo‘llarini izlash, mayi hokimiyati (xayollar), karm (savob qonuni), azoblar dunyosida – yer dunyosida doimo qayta tug‘ilishning zarurligi bilan bog‘liq. Hind donishmandlari uchun falsafa oliy ma’naviy dunyoda o‘limsiz hayotga erishish vositasidir. O‘rta asr diniy falsafasida eng muhimi jonni saqlash va Xudoni bilishdir. Nemis faylasufi Immanuil Kant falsafaning bir nechta masalalarini ifodalaydi: «men nimani bilaman?», «men nima qilishim kerak?», «nimaga men ishonishim kerak?».

Markscha-lenincha falsafada ong va materiya (ong va borliq) ning munosabati asosiy masala sifatida qaraladi. Bu holda, bu masalaning ikki jihati bor. Birinchi: nima birlamchi – ruh yoki materiya (ontologik jihat). Bu savolga javob berishiga qarab faylasuflar materialistlar va idealistlarga bo‘linadi: materialistlar (Brixaspati, Charvak maktabi, Levkipp, Demokrit, Kondilyak, Lametri, Golbax, Gelvetsiy, Feyerbax, Marks, Engels, Lenin va boshqalar) va idealistlar (Budda, Platon, Aristotel, Origen, Avgustin, Foma Akvinskiy, Dekart, Leybnits, Shelling, Gegel, Solovyev, Berdyayev va boshqalar). Idealizm doirasida obyektiv va subyektiv idealistlar mavjud. Materializm doirasida: qadimgi tarqoq, sodda qadimgi materializm, Yangi dunyoning mexanik materializmi va XIX-XX asrlardagi dialektik materializm.

Ikkinchi marksistlarcha falsafa asosiy masalasining (gnoseologik) jihati: dunyoni bilish mumkinmi? degan savol. Yanada aniqroq ifodalansa u quyidagicha: ong borliqni aynan ifodalashga qodirmi? Dunyoni to‘la va qisman bilishni inkor qiluvchilar agnostik[19]lar (sofistlar maktabi, D.Yum, pozitivizm[20] va neopozitivizmdagi ba’zi bir oqimlar, Dj.Santayana va boshqalar) deyiladi.

Hozirgi kunda ularning muqobili sifatida sinergetik materializmning tabiat va jamiyat olamini tushuntirib berishga qaratilgan harakatlari ham falsafiy ta’limot sifatida falsafiy bilimlar tizimidan joy olmoqda.

---

[19] ***Агностицизм[юнонча agnostos - билиб бўлмас]*** Борлиқни, нарса-ҳодисалар ва уларнинг моҳиятини билиш мумкинлигини қисман ёки бутунлай инкор этувчи назария.

[20] ***Позитив*** [*лотинча positivus - мусбат, ижобий*] фактларга, тажрибаларга асосланган; ишончли, тасдиқловчи. ***Позитивизм [французча <лотинча positivus - ижобий***] Барча чинакам(позитив) билимлар, бирор фалсафанинг ўз устидан ҳукмронлигига мухтож бўлмаган махсус фанларнинг биргаликдаги, умумий натижасидир, деб ҳисобловчи фалсафий йўналиш.

Ba'zi falsafiy oqimlar nuqtayi nazaridan «falsafa bosh masalasi»ning marksistlarcha qo'yilishi xato hisoblanadi. Masalan, teosofiya va «Jonli etika» (E.P.Blavatskaya, E.I.Rerix va boshqalar) ruh va materiyani Yagona kosmik substansiya (Birlamchi) asosiy belgi sifatida qaraydi. Shuning uchun ular materiya va ruhning birlamchiligining marksistlarcha ifodalanishi uydirmadir, deb hisoblaydilar.

Bugungi kunda tarixiy ildizi juda qadimiy bo'lgan o'zbek falsafasi o'zining asosiy masalasini – moddiy va ma'naviy olamning uzviy birligi sifatida talqin qilmoqda. Masalaning bunday yechim topishi bizning milliy shakldagi dunyoqarashimizga mos keladi.

7-sxema.

Falsafaning tasnifi*(1 qism)*



5.Falsafiy tizim va an'analarning tasnifi. Falsafa fani 3-2,5 ming yillik tarixga ega ekan, uning bosib o'tgan yo'lini, jamiyat rivojiga qo'shgan hissasini, kelgusidagi istiqbollarini hisobga olgan holda konkret dunyoqarash va nazariy asoslash yo'nalishlari, ochiqligi va hammabopligi, tarixiy va geografik belgilari, moddiy va ma'naviy asoslar birlamchiligi masalasining yechimi, aniq mafkuraviy konsepsiyalar, nazariyalar, g'oya va dinlar kabi mezonlar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin.

8-sxema

Falsafaning tasnifi*(2 qism)*



Hozirgi kunda barcha fanlar,shu jumladan falsafa ilmi ham mustaqil fan sifatida differensiallashuv va integrallashuv jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bu esa insonning butun olamda sodir bo'layotgan barcha narsa, hodisa, voqelarning tub mohiyatini bilish, shu orqali ulardan insoniyat manfaat va ehtiyojlarini qondirish yo'lida foydalanilayotgan jarayonlardan biri hisoblanadi.

6. «Fan» tushunchasi, ta'rifi va tavsifi. Fan voqelik haqidagi obyektiv bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirishga qaratilgan inson faoliyatining bir sohasi hisoblanadi. Ushbu faoliyat faktlarni to'plash, ularni muntazam yangilab borish, tizimlashtirish va tanqidiy tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu asosda kuzatilgan tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarni tavsiflovchi va bashorat qilishga imkon beradigan sababiy aloqalarni ko'rsatadigan yangi bilimlar yoki umumlashmalar birikmasi

hosil qilinadi. Bu borada kuzatilgan faktlarning umumiyligini tavsiflovchi va tajribalar orqali rad etilmagan farazlar tabiat yoki jamiyat qonunlari sifatida tan olinadi.

Fan keng ma'noda tegishli inson faoliyatning bir qismi sifatida: ilmiy ishlarning taqsimlanishi va kooperatsiya[21]si; ilmiy muassasalar, eksperimental va laboratoriya uskunalari; tadqiqot ishlari usullari; konseptual[22] va kategorik apparatlar; ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanish tizimini o'z ichiga oladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda:

fan *- bu aniq qoidalar asosida qurilgan ma'lum belgilar bilan mustahkamlangan bilimdir;*

fan *- har doim eng aniq tilda ifodalanadigan bilimlar majmuasidir;*

fan *- bu ob'ektlarning ishlashi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlar tizimidir;*

fan *- bu empirik sinovdan o'tgan va tasdiqlangan bilimdir;*

fan *- bu doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib boradigan bilimlar tizimidir.*

Yuqoridagi ta'rif va tavsiflardan ham ko'rinib turibdiki, ***fanning bevosita maqsadi*** o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdan iboratdir..

Har qanday fan obyekt, predmet, nazariya va gipoteza, metod va fakt, empirik materiallar tavsiflni o'z ichiga olgan holda muayyan kompozitsiya[23]shaklida ifodalangan bo'ladi. Bu kompozitsiya ilmiy-tadqiqotlar natijasida yanada sayqallashib boradi.

Ilmiy tadqiqotlarda uchta asosiy yo'nalish mavjud:

1. ***Fundamental***[24] ***ilmiy tadqiqotlar*** - bu yangi fundamental bilimlarni olish, shuningdek, o'rganilayotgan hodisalarning qonuniyatlarini aniqlashtirish uchun mavzuni chuqur va har tomonlama o'rganishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalari esa bevosita ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanishga mo'ljallanmagan bo'ladi.

---

[21] ***Кооперация*** [*лотинча cooperatio - шериклик;ҳамкорлик*] 1.Ўзаро боғланган ишлаб чиқариш жараёнида ёки саноат тармоқларида кишиларнинг ёки ташкилотларнинг ҳамкорлик асосида ишлашини ташкил этиш шакли. 2. Пайчилардан тушган маблағ асосида тузилган савдо-сотиқ ёки ишлаб чиқариш корхонаси, жамияти.

[22] ***Концепция*** [*лотинча cooncIptio - тўплаш,бирлаштириш; тизим; ибора*] Қарашлар, фикрлар йўналиши тизими; фикр юритиш, дунёни тушуниш, англаш усули.

[23] ***Композиция*** [лотинча compositio-тузиш, ижод қилиш] 1.Адабий асар, санъат асари қисмларининг тузилиши, жойлаши ва уларо мунсабаим,уларнинг қўшилиб кетиши, қўшилган яхлитлиги.

[24] ***Фундаментал*** – лотинча fundamentalis – асос (негиз) бўлувчи, асос қилиб олинувчи деган сўздан олинган бўлиб, ўзбек тилида асосий, бош, энг муҳим нарса деган маънони англатиш учун ишлатилади.

2. ***Amaliy – ilmiy tadqiqotlar*** – bu fundamental fan yutuqlaridan amaliy muammolarni hal qilishda foydalanadigan tadqiqot bo‘lib, uning natijalari yangi texnologiyalarni yaratish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

3. ***Tadqiqot va ishlanmalar (ilmiy-tadqiqot ishlari)*** - bu yerda ilm-fan va ishlab chiqarish birlashtirilib, shu bilan ushbu loyihaning ilmiy va texnikaviy hamda muhandislik tadqiqotlari ta’minlanadi. Ba’zan olingan natijalar ilmiy-texnikaviy inqilobga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda barcha ilmiy-tadqiqotlar pirovard natijada yangi fanlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Yangi fanni yaratish esa o‘z navbatida: yangi tadqiqot obyekti ajratib olish; ajratib olingan obyekt uchun yangi tadqiqot usullarini yaratish; yangi fanning predmeti va mazmunini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Odatda, yangi fanlarning yaratilishi ilmiy maktablar tomonidan amalga oshiriladi. Qilingan kashfiyotlarning darajalariga qarab esa mumtoz ilmiy maktablar zaminida yangi ilmiy maktablar shakllanib, rivojlanib boradi. Jahondagi sivilizatsiyalar beshiklaridan biri bo‘lgan bizning ona-Vatanimizda ham juda qadimdan boshlab bir nechta ilmiy maktablar shakllangan va rivojlangan. Bu an’ana hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda. Faylasuf olimlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi mutafakkirlarning ishlarini davom ettirib falsafa ilmini fan darajasiga ko‘tardilar.

7. Fan falsafasi. Fan falsafasi turli xil o‘ziga xos falsafiy tushunchalar orqali boshqa fan namoyondalarining kognitiv[25] faoliyat va fanni rivojlantirshining muayyan modellarini taklif qilishi bilan metodologik, qolaversa evristik, prognostik ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi va vazifalari boshqa fanlarning o‘rni va ahamiyatini, uni bilish faoliyatining boshqa bilish turlaridan ajratib turadigan xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ilmiy ijod ahlini mantiqan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga olib keladi.

Fanlar tabiatshunoslik yoki ijtimoiy sohani o‘rganishga yo‘naltirilganligidan qat’iy nazar, ulardan farqli o‘laroq fan falsafasi tarixiy, ijtimoiy-madaniy bilim maqomiga ega bo‘lib, uning namoyondalari mazkur sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, «kashfiyotlar algoritmi», ilmiy bilimlarning rivojlanish dinamikasi, tadqiqot faoliyati usullari bilan qiziqadi. Fan falsafasi, garchi u boshqa fanlarning oqilona rivojlanishidan manfaatdor bo‘lsa-da, shunga qaramay,

---

[25] ***Kognitiv,*** *kognitiv fan (lot. cognitio "bilish")* - bilimlar nazariyasi, bilim psixologiyasi, neyrofiziologiya, kognitiv lingvistika, og'zaki bo'lmagan aloqa va sun'iy intellekt nazariyasini birlashtirgan fanlararo ilmiy yo'nalish.

ularning oqilona rivojlanishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ko‘p qirrali uslub va uslubiyot bilan ta’minlashga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda boshqa fanlarning asosiy maqsadi haqiqatni ochish bo‘lsa, unda fan falsafasi insoniyat uchun o‘z aql-idrokini qo‘llashning eng muhim sohalaridan biri sifatida «haqiqatga qanday erishish mumkin?», degan savolga javob topish bilan shug‘ullanishga qaratilgan bo‘ladi.

Fan falsafasi birinchidan barcha fanlarning differensiallashuv va integrallashuv jarayonlarini mantiqiy jihatdan tushuntirib berish bilan bir qatorda, falsafa fanining ham shu jarayonni o‘z boshidan kechirishini ham metodologik jihatdan asoslab beradi.

Falsafa fanining differensiallashuvi – bu muayyan davrda obyektiv olamdagi narsa, hodisa, voqealarning rivojlanish mantig‘idan kelib chiqqan holda mustaqil fanlarga ajralib ketishidir. Masalan, XVII asrda yuz bergan tabiiy-amaliy fanlar inqilobi natijasida falsafadan, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar ajralib chiqib, mustaqil fan darajasiga ega bo‘ldilar. Buni falsafa fanining tashqi tomondan differensiallashuvi sifatida tushunish kerakligini unutmagan holda, uning ichki tomondan ham etika, estetika, huquq, din kabi ijtimoiy ong shakllariga ajralib ketishi, bu jarayonning hozirgi kungacha ham dialektika, sinergetika, germenevtika, epistomologiya, aksiologiya, valeologiya, akmeologiya kabi shakllarda davom etayotganligini ko‘rish mumkin.

Differensiallashuv jarayonida mustaqil bo‘lib ketgan fanlar olam sirlarini bilishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishib, jamiyat hayotidagi moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirib yubordilar. Natijada, ishlab chiqarish jarayonini yangi sifatiy bosqichga ko‘tarish masalasi, fanlar o‘rtasidagi umumiy, xususiy, alohida aloqalar o‘rnatish orqali hal etish zarurligi ko‘zga tashlanib qoldi. Shu tariqa, falsafa fanining obyektiv olamning birligi, undagi mavjud narsalarning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risidagi nazariy xulosasi XX – XXI asrga kelib yanada teranroq tarzda o‘z ifodasini topa boshladi. Qisqa qilib aytganda, mavjud reallikni o‘rganayotgan har bir fan, boshqa fanlar bilan ham o‘zaro aloqa o‘rnatishi tufayli fanlarning chuqur integratsiyalashuvi sodir bo‘ldi. Natijada, masalan biofizika, biokimyo, agrokimyo kabi o‘nlab, yuzlab yangi fanlar yuzaga keldi. Endilikda bu fanlar o‘zlarining erishgan yutuqlarini tushunish va tushuntirishga ehtiyoj seza boshladilar. Bu masalaga metodologik jihatdan javob topish ishiga mas’ul bo‘lgan falsafa ilmi ham ular bilan integrallashib yangicha shakl va mazmundagi integrallashgan falsafa fanlarining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Falsafa fanining integrallashuvi – bu obyektiv olamdagi mavjud barcha narsalarning u yoki bu tomonini o‘rganayotgan aniq fanlarning

o'zaro qayta birlashishi natijasida paydo bo'lgan va faoliyat yuritayotgan fanlar tizimidir.

Masalan,tibbiyot falsafasi, texnika falsafasi, informatsion texnologiyalar falsafasi, tarix falsafasi, adabiyot falsafasi, til falsafasi va boshqalar.*(00-chizmaga qarang)*

9-sxema

Hozirgi davrda integrallashgan falsafa fanining sohalari

1. Metafizika	10. Ta'lim falsafasi
2. Tabiat falsafasi	11. Texnika falsafasi
3. Inson falsafasi	12. Din falsafasi
4. Bilish falsafasi	13. Til falsafasi
5. Axloq falsafasi	14. San'at falsafasi
6. Ijtimoiy falsafasi	15. Mantiq falsafasi
7. Tarix falsafasi	16. Falsafa tarixi
8. Madaniyat falsafasi	17. Futuristik falsafa
9. Siyosat falsafasi	18.Tarbiya falsafasi

Fan falsafasi haqiqiy fanlardan ***«kundalik soxta–yolg'on fan»***larni ajratib berish vazifasini ham bajaradi. *Soxta fan - bu ilmiy faoliyatga taqlid qiluvchi, faktlarni e'tiborsiz qoldirish yoki buzib ko'rsatish bilan odamlarni o'ziga jalb qilishga qaratilgan oldi-qochdi tushunchalar turkumidan iborat bo'lgan* ***«chala mulla»****larning faoliyat sohasidir.* Bu***«chala mulla»***lar nazariy hisob-kitoblarni kuzatish natijalari bilan «sog'lom fikr», «dalil» yoki «obro'li fikr» ga murojaat qilish foydasiga solishtirishdan bosh tortish, mustaqil nazar bilan tasdiqlanmagan nazariya, ma'lumotlar, tajribalar, tadqiqot natijalarini mustaqil ravishda tekshirish yoki takrorlashning iloji yo'qligidan nolib, ilmiy ishda siyosiy va diniy munosabat, dogmalardan foydalanishni afzal ko'rib, o'zlaricha ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinmagan qandaydir nazariyalarni ishlab chiqishga urinadilar. Shu sababli ular o'zlarini ***«falsifikatsiya qilingan rasmiy ilmga qarshi kurashchilar»*** deb e'lon qilishadi. Shu bilan ular ilm ahlini chalg'itishga urinadilar. Bunday xatti-harakatlar ilm ahli o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqarish orqali yangi jamoada shakllanayotgan ilmiy-ijodiy muhitni buzishga qaratilgan bo'ladi.

8. Falsafaning maqsadi va asosiy funksiyalari. ***Falsafa fanining maqsadi*** *– bu «odam - olam» munosabatlari doirasida olamning borligini, birligini, harakat va rivojlanishda ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan tushuntirishdan iborat.*

Falsafaning funksiyalari -bu falsafaning inson bilimlarining boshqa sohalariga va hayot jabhalariga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadigan munosabatlarining nazariy- amaliy ifodasidir.

Falsafaning jamiyat hayotida katta va betakror rol o'ynashi uning bajaradigan asosiy funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Bular quyidagilardir: 1) dunyoqarashlik; 2) ontologik; 3) metodologik; 4) gnoseologik; 5) ijtimoiy; 6) aksiologik; 7) evristik funksiyalaridir.

1. Dunyoqarashlik funksiyasi. Falsafa dunyoni bir butun holda aks ettirib, unda insonning dunyoga munosabati haqidagi barcha bilimlarimizni nazariy jihatdan umumlashtirib, uni o'zlashtirish asosida bizni borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson, uning ongi va tafakkuri, insonning dunyoni bilishi to'g'risidagi eng umumiy qarashlar bilan qurollantiradi. Bu falsafaning dunyoqarash funksiyasi bo'lib, u falsafaning, falsafiy bilimlarning asosiy xususiyatidir.

2. Ontologik funksiyasi – bu borliqni, uning tuzilishini, rang-barangligini, shakllarini o'rganishda namoyon bo'ladi.

3. Metodologik funksiyasi. Borliqning turli tomonlarini xususiy fanlar o'z metodlari bilan tahlil qilishadi. Shu bilan birga, borliqni o'rganishda xususiy fanlar umumiy xulosalar chiqarish uchun falsafiy metodlardan ham foydalanishadi. Chunki falsafiy metodlar borliq, tabiat, jamiyat, bilish, ong va boshqa kategoriyalarning, narsa va hodisalarning mohiyatini, eng umumiy tomonlarini, bog'lanish va aloqadorligini bilish imkoniyatini beradi. Aniq fanlar rivojlangan sari falsafiy metodlarning ahamiyati ham ortib boradi. Falsafiy metodlar aniq fanlar yutuqlarini umumlashtirib, olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Aynan shu vazifani falsafiy metodologik umumlashmalar, falsafiy metodlar bajaradi.

Umuman, falsafa alohida fanlar uchun, ularning tabiat va jamiyatning borliq va ongning aniq tomonlarini o'rganishda, tadqiq qilishda eng umumiy metod rolini o'ynaydi.

4. Gnoseologik funksiyasi. Falsafa dunyoni bilish muammosini o'rganar ekan, uning umumiy metodlarini ishlab chiqib, inson bilish jarayonining umumiy nazariyasini yaratadi. Shu asosda inson bilish, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini ochib beradi. Falsafa inson amaliy tajribasida hosil bo'lgan bilimlarning haqiqatligini tekshiruvchi mezonlarni ham tadqiq etadi.

Falsafa inson oldiga, avvalo, o‘zini anglash va so‘ngra borliqni o‘rganish masalasini ham qo‘yadi. Dunyoni bilish asosida inson o‘zi o‘zgarib, dunyoni oqilona anglab, so‘ngra amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayanadi. Bunday hollarning barchasida falsafaning gnoseologik vazifasi namoyon bo‘ladi.

5. *Ijtimoiy funksiyasi.* Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi o‘rganilib va tahlil qilinib, xulosalar chiqarib boriladi. Uning hozirgi kundagi imkoniyatlari, ehtiyojlarini bilishdan kelib chiqqan holda jamiyatning kelgusidagi istiqboli aniqlanadi.

6. Aksiologik funksiyasi. Jamiyat hayotining hozirgi sharoitida falsafaning aksiologik funksiyasi ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu funksiyaning mohiyati shundaki, falsafa inson hayotining mohiyatini, asosiy mazmunini, insonning turmushdagi qadr-qimmati, jamiyatda tutgan o‘rnini, uning axloqiy, gumanistik prinsiplar va g‘oyalarni baholash asosida tushuntiradi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi kunda insoniyat boshiga xavf solayotgan jahon termoyadro urushi, qurollanish poygasining yanada avj olishi, ekologiyaning buzilishi, energiya zaxiralarining tugab borishi, jamiyatda yuz berayotgan moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy tangliklar sharoitida turli maqsadlar va faoliyat natijalarining gumanistik g‘oyalar bilan qo‘shilib borishi, insoniyatning yer yuzida yashab qolishi muammolari umuminsoniy qadriyatlarni birinchi o‘ringa chiqarmoqda. Inson o‘z qadr-qimmatidan kelib chiqqan holda o‘zini ehtiyotlashga, tabiatni qo‘riqlashga intilib boraveradi. Insoniyat o‘z tarixiy rivojlanishi davrida manfaatlari bilan bog‘liq juda ko‘p qadriyatlarni yaratgan. Falsafa esa uni ogohlikka chaqirmoqda.

7. Evristik funksiyasi. Evristika (*yunoncha. «evriko» so‘zi «izlayman», «ochaman» degan ma’noni anglatadi*) - metodik jihatdan yangilik ochishga oid qo‘llanma, yangilik kashf etish san’atidir. Falsafaning evristik funksiyasi yangilik ochishga qaratilgan bo‘lib, yangilik ochishga xizmat qiladi. Masalan, yangi g‘oya va dalillar ochish hamda ilmiy bayonda tizimli bayonlashga qarama-qarshi bo‘lgan holda yangi ilmiy natijalarga erishish yo‘lini tasvirlab berish shular jumlasidandir.

9. Falsafaning metodlari. Falsafaning metodlariga quyidagilar kiradi.

1. Dialektika[26] *metodi.* «Dialektika» yunon tilida bahs va

[26] ***Диалектика*** [*юнонча dialektike – сухбатлашиш, баҳс қилиш санъати*] 1.Табиат, кишилик жамияти ва тафаккур тараққиётининг умумий қонуниятлари ҳақидаги фан. 2. Табиат ва жамиятнинг абадий ҳаракатланиб ва ўзгариб турувчи ички зиддиятлари, қарама-қаршиликларини очиш ҳамда қарама-қаршиликлар ўртасидаги доимий

suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Dialektikaga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti, harakat yo'nalishiga ega barcha narsa, hodisalar o'zaro bog'liq hamda aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon bo'ladi.

2. «Metafizika»[27]bu tushunchani falsafa tarixida birinchi marta, qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Arastuning «Ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Metafizika – tabiatshunoslikdan falsafiy metod sifatida falsafaga kiritilgan bo'lib, dunyodagi narsa va hodisalarni bir- biridan ajralgan holda, umumiy bog'lanishdan tashqarida tekshirishga va shuning natijasida narsa, hodisalarni harakatda emas, balki harakatsiz holatda, muhim darajada o'zgaradigan narsalar sifatida emas, balki abadiy o'zgarmaydigan, tirik emas, balki o'lik narsalar sifatida tekshirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi.

3. Sofistika[28] - bilib turib, xato asoslardan yolg'on xulosa chiqarish (bu erda so'fiylik falsafasi emas, o'rta asrlarda Evropada keng tarqalgan alohida falsafiy ta'limot nazarda tutiladi).

Sofistik tafakkur usuli dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo'lib, ayniqsa o'rta asrlarda keng tarqaladi va rivojlanadi. Qadimgi davr yunon falsafasida biror-bir bilim sohasini mukammal egallagan kishilar *sofistlar* deb atalgan bo'lsa, keyinchalik o'rta asrlarga kelib, notiqlik, bilimdonlik, donishmandlik bilan nom chiqargan kishilar hamda turli omonim so'zlar asosiga qurilgan turli fikrlar bilan kishilarning boshini qotiradigan, ustomonlik bilan ular fikrlarini chalg'itadigan kishilar ham sofistlar deb atala boshlagan.

Sofistik tafakkur usuli sofistik muhokama jarayonida bila turib, atayin yolg'on asoslardan yolg'on xulosalar chiqarish asosida fikr yuritishdir.

алоқадорлик ва кураш моҳиятини аниқлашдан иборат фалсафий метод. 3. Бирор нарсанинг ҳаракати, ривожланиши, тараққиёт жараёни.

[27] ***Метафизика*** *[юнонча « Meta ta physika» -«Физикадан кейин» (Аристотелнинг фалсафий асарлари номидан)]* Диалектикага қарама-қарши ўлароқ, табиат ва жамият ҳодисаларини ривожлантиришда ва бир-бирига боғлиқ ҳолда олиб қарамасдан, бир биридан узилган ҳолда, тургун ва ўзгармас ҳолда олиб текширалиган, ҳодисаларнинг ички қарама-қаршиликларини инкор этувчи билим методи.

[28] ***Софистика*** *[юнонча sopistika – мунозарани айёрлик билан олиб бориш,унинг йўналишини ўзгартириб юбориш маҳорати.]* Мантиқ қонунларини атайин бўзиб, ёлғон далилларга асосланган ҳолда муҳокама юритиш.

4. Eklektika[29] turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli bo‘lib, narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, asosiy va asosiy bo‘lmagan xususiyatlari, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar mexanik ravishda birlashtirilib, qorishtirilib ifodalanadi.

5. Dogmatika[30] - bu aniq shart-sharoitlarni hisobga olmay qo‘llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir. Dogmatik tafakkur falsafadagi amaliyot va fanning yangi ma’lumotlarini hisobga olmay, aniq makon va zamon bilan bog‘liq bo‘lmagan, o‘zgarmas tushuncha hamda qoidalar bilan ish ko‘ruvchi tafakkur usulidir.

6. Sinergetika[31] olamning o‘z-o‘zini tashkil etish, makon va zamonda narsa va hodisalarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. U asosan XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ta’limot bo‘lib, asoschisi Nobel mukofoti sovrindori I.Prigojindir. Bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to‘ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydigan, ularga qarshi o‘laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim deb hisoblovchilar ham bor.

Sinergetikaning XX asrdagi shaxdam odimlari o‘rta asrlarda Yevropada aniq fanlar sohasida induksiya va deduksiya usullarining muvaffaqiyatli qo‘llangani, katta mavqega ega bo‘lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganini eslatadi. Sinergetikani XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu uning dialektikani falsafadan butunlay surib chiqarganini bildirmaydi. Zero, falsafada har bir ta’limot metodining o‘z o‘rni, faoliyat darajasi bor. Dialektikaning falsafadagi o‘rni, qadr-qimmati juda katta va u falsafaning asosiy qismlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Falsafiy bilimlar juda keng qamrovli bo‘lib falsafa tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlarini o‘rganadi va insonlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

---

[29] ***Эклектика, эклектизм*** *[юнонча eklektikos – танловчи,сайлаб олувчи]* Ҳар турли, ҳатто бир бирига қарама-қарши бўлган фикр, қараш, ғоя ва назарияларни бирлаштиришга уриниш, принципсизларча қориштириб юбориш.

[30] ***Догматика,*** *[юнонча dogma,dogmatos – фикр;қарор;таълимот]*1. Қанчалик тўғрилиги танқидий текшириб кўрилмай, ҳақиқат сифатида кўр-кўрона қабул қилинган қонун-қоида, фик; ақида. 2. ***Догматизм*** – эскирган, қотиб қолган, бир томонлама назария ва қонун-қоидаларга, ақидаларга асосланган тафаккур; танқидий қарамай, кўр-кўрона фикрлаш; ақидапарастлик. 3. ***Догматик***-қотиб қолган, ўзгармас ақидалар тарафдори; ақидапараст.

[31] ***Синергетика*** атамаси қадимги юнон тилидан келиб чиққан бўлиб, биргалик, бирлашган холда, ҳамкорлик, кўмаклашиш, иштирокчилик ёки кўмаклашувчи, ёрдам берувчи деган маъноларни англатади.

10. Falsafaning amaliy qadr-qiymati. Odamlar, xususan talabalar nima uchun bankirga, dasturchiga, shifokorga, huquqshunosga, tilchiga, muhandisga, o'qituvchi va boshqalargafalsafani o'rganish kerak degan savolni tez-tez berishadi. Ularning kelgusi mutaxassisligiga u qanchalik kerak? Ularga quyidagicha javob berish mumkin: falsafa inson hayotida kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarish, unda muayyan yutuqlarga erishishda mavjud real voqelik va faoliyatlarga alohida munosabatda bo'lish, tafakkur tamoyillari va tarzini egallashni o'rganish va o'rgatish uchun zarurdir.

Demak, falsafa amaliyotda insonga nima beradi?

1. Dunyo yaratilishining umumiy qonunlari va tamoyillarini bilishga yordam beradi.

2. Dunyoda o'zining o'rnini va hayotiy maqsadlarini anglashni o'rgatadi.

3. Haqiqiy hayotiy qadriyatlarni va yo'nalishlarni aniqlash, shuningdek to'g'ri yashashni (xayollarsiz, yanglishlarsiz, azob-uqubatlarsiz) o'rganish vazifasini bajaradi.

4. Tafakkurning dialektik tarzini o'zlashtirish, har qanday muammoni bir butun, uning har xil tomonlarini ziddiyatli, chuqur anglash va samarali hal qilish yo'llarini ko'rsatib beradi.

5. O'zini kamolotga yetkazishda falsafiy donishmandlikdan foydalanishga imkon hosil qiladi.

6. Shaxsning ichki ma'naviy «o'zagini» mustahkamlaydi va hayotiy qiyinchiliklarni va «taqdir zarbalarini» matonat bilan engish qobiliyatini rivojlantiradi.

7. Kelajakka boqish va chegaralangan bilishdan odamning baland turish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga yordamlashadi.

11. Falsafaning inson va jamiyat hayotda tutgan o'rni. Falsafaning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni - bu uning inson va jamiyat rivoji uchun qo'shgan hissasi va kelgusida nimalarni bajarishga qodir ekanligi bilan belgilanadi.

Falsafaning inson va jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati:

1. Olamning eng umumiy qonunlari va prinsiplarini bilish.
2. Olamda o'zining tutgan o'rnini va umrining mazmunini anglash.
3. Haqiqiy hayotiy qadriyatlarni ajrata bilish va shunga qarab o'z hayotini tashkillashtirish.
4. Dialektik tafakkur tarzini egallash, ya'ni hayotning barcha qarama-qarshiliklarini anglash va ular orasidan to'g'ri yo'lni tanlash.
5. O'zining barkamolligini ta'minlash yo'lida falsafiy aql-zakovatni ishga solish.

6. O‘zining ichki ma’naviy dunyosini har xil hayotiy «*taqdirzarba*» lariga bardoshli qilib chiniqtirishni mustahkamlash.

7. Hozirgi zamon bilimlari puxta o‘zlashtirgan holda, uningkelgusidagi istiqbollarini ko‘ra bilish bilan belgilanadi.

12. Falsafaning hozirgi kunda yangilanib borish zaminlari. Hozirgi zamon falsafasining shakllanib borish zaminlari - bu uning yangi sharoitda rivojlanishini, yetakchilik xususiyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy shart-sharoitlar, ilmiy kashfiyotlar va nazariy ishlanmalarning ko‘lami bilan belgilanadi.

Falsafaning hozirgi kunda yangilanib boorish zaminlarini:

- informatsion-texnologik ishlab chiqarishning qaror topishi va tobora rivojlanib kengayib borishi;
- jahonda «*o‘rta hol*» aholi qatlamining o‘sishi natijasida ijtimoiy munosabatlar va jamiyatning ijtimoiy strukturasida yuz berayotgan o‘zgarishlar;
- texnogen iqtisodiyotdan neoiqtisodiyotga o‘tishda yangi tipdagi professional, zamonaviy falsafiy tafakkur madaniyatini egallagan ishchi va xizmatchilar avlodining dunyoga kelayotganligi;
- fundamental fanlar sohasida qilinayotgan buyuk kashfiyotlar (sinergetika, vakuum nazariyasi, antrop prinsipi, mikroelektronika va boshqalar) va ularning dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini yaratish borasidagi sa’y - harakatlari;
- falsafa sohasida amaliyotdan kelib chiqqan holda yangi nazariy g‘oyalarni ishlab chiqish va uni ijtimoiy sohada qo‘llash va boshqalar tashkil etadi.

13. Haqiqiy faylasuf bo‘lish tamoyillari. Donishmandlar qadimda o‘zining shogirdlarini hayotning alohida falsafiy tarziga o‘rgatganlar. Ba’zan, «professional faylasufdan» juda uzoq bo‘lgan, hayotga nostandart munosabatda bo‘lgan oddiy odamlarni «faylasuf» deb atalishini eshitish mumkin. Amalda bu «hayotning falsafiy tarzi» qanday? Amalda haqiqiy faylasuf bo‘lish uchun – nimani bilish va qilish kerak?

Avval haqiqiy faylasuf keng ma’lumotli odam bo‘lishi, har xil hodisalarning sabab va oqibatini tushunadigan, narsalarning mohiyatini bila olishi kerak. U tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini tushunishi va ularni xususiy hayotiy hodisalarga qo‘shabilishi zarur. Foyda uchun emas, haqiqat va kamolga yetish uchun u doim bilimni sevishi va unga intilishi lozim. U hamma hayotiy vaziyatlarda izchil, matonatli va qat’iy, kam ehtiyojli bo‘lishi darkor. Haqiqiy faylasuf hayotning abadiy ekanligini tushunishi, undagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni ko‘ra bilish va hattoki o‘limni ham

tik boqib, uni mangulik sifatida qabul qilishi kerak. U o‘ziga va oliy ma’naviy qadriyatlarga ishona bilishi zarur. U behuda hayotdan ozod, shu bilan birga o‘zining barcha harakatlarda juda omilkor bo‘lishi lozim. Oxir-oqibat haqiqiy faylasuf falsafaning bosh masalasi – o‘rab turgan dunyoni va o‘zini bilish, o‘z hayot mazmunini anglagan holda umrguzaronlik qilishi maqsadga muvofiqdir.

Qisqacha xulosalar

1. Inson bioijtimoiy mavjudod sifatida tana va ruh, jism va jon, ong va materiya, moddiylik va ma’naviylikning uzviy birligidan tashkil topgan bir go‘zal mo‘jizaviy xilqatdir[32].

2. Har bir insonning o‘ziga xos bo‘lgan dunyoqarashi mavjud bo‘lib, u eng avvalo o‘zining kim ekanligini bilishga bo‘lgan qiziqishi tufayli, so‘ngra atrofini o‘rab turgan narsalarning bevosita ta’sir ko‘satayotgan tomonlarini, shuningdek, yaqin va uzoq masofada joylashgan borliq shakllarining xususiyatlarini, mazmun-mohiyatini bilishga, qolaversa ularni o‘zgartirishga bo‘lgan ishtiyoqi asosida shakllanib, rivojlanib boradi.

3. Inson dunyoqarashining eng mukammal shakli falsafiy dunyoqarash bo‘lib, u obyektiv olamdagi narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning sir-asrorlarini bilish orqali kengayib, takomillashib boradi.

4. Falsafiy dunyoqarash asosida butun olam to‘g‘risida falsafiy bilimlar hosil bo‘ladi, falsafa umumnazariy fan sifatida qaror topadi.

5. Barcha fanlar umumnazariy ahomiyatga molik bo‘lgan falsafiy qonun va kategoriyalar talabiga mos ravishda faoliyat olib borsagini, ularning tushuntirib beruvchi apparati shunchalik mukammal bo‘ladi.

6. Falsafiy tarbiya - barcha tarbiya turlarining metodologik asosi bo‘lib,u yosh avlodni mustaqil fiklashga,yuzaga kelgan vaziyatdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, ona-Vatanini sevishga, o‘z hayotining mazmun-mohiyatini belgilab olishga o‘rgatadi.

Tayanch tushunchalar

Falsafa, dunyoqarash, fan, fan falsafasi, ontologiya, gnoseologiya, sotsiologiya, logika, monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, materialistik monizm, idealistik monizm, gnostiklar, agnostiklar, agnostitsizm, falsafaning funksiyalari, dunyoqarash, gnoseologik, metodologik, aksiologik, ijtimoiy, tarbiyaviy, metod, dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika.

---

[32] ***Хилқат*** *(арабча сўз бўлиб, табиат; ташқи кўриниш ;тузилиш; шакл*) фалсафий маънода яратилган, бунёдга келган нарса ёки кимса маъносини англатади.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Falsafaning bahs mavzusi nima?
2. Falsafaning asosiy funksiyalari mohiyatini ochib bering.
3. Falsafa fanining izlanish uslublarini tavsiflab bering.
4. Falsafa faniga siz qanday ta'rif bergan bo'lar edingiz?
5. Olamning asosini nima tashkil qilishi haqida qanday falsafiy qarashlarni bilasiz?
6. O'zbek falsafasi nimalardan bahs yuritishi kerak deb o'ylaysiz?
7. Fan deb nimaga aytiladi? Ularning diffensiallashuvi va integrallashuvi deganda nimalarni tushunasiz?
8. «Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi?»[33] ,- degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring?

[33] ***Мирзиёев Ш.М.*** Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 30.09.2020.//https://president.uz/uz/lists/view/3864

II BOB. BORLIQ VA RIVOJLANISH FALSAFASI

1-§. Ontologiya- borliq haqidagi falsafiy ta‘limot.

Odam olamning bir mo‘jizakor xilqati bo‘lib,olamni tushunish bevosida odamning paydo bo‘lishi, aql-zakovatining shakllanib, rivojlanib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayonlar qatoriga kiradi. Shu sababli faylasuflar olamni«odam – olam» munosabatlari doirasida tadqiq qilar ekan, uning mavjudligini, o‘ziga xos tuzilish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi ilm sohasini – ontologiya,ya‘ni borliq haqidagi falsafiy ta‘limot deb atashni maqbul topganlar.

1. “Ontologiya” atamasi haqida tushuncha. «Ontologiya» so‘zi birinchi marta 1606 yilda nemis faylasufi va o‘qituvchisi Yakob Lorxard tomonidan yozilgan «Ogdoas scholastitsa» asarida tilga olinadi. Shundan so‘ng «Ontologiya» atamasi Rudolf Goklenius tomonidan 1613-yilda o‘zining «Falsafiy lug‘at” («Lexitson philosophitsum, quo tanquam slave philisophiae fores aperiunter. Fransofurti») va birozdan keyin Iogan Klauberg tomonidan 1656 yilda «Metaphysika de ente, quae retstus Ontosophia», yozilgan asarida “Metafizika” ga teng «Ontosofiya» variantida ekvivalent tushuncha sifatida ”ontologiya” so‘zi ishlatiladi. Bu atamani amaliyotda foydalanish masalasini Kristian fon Volf o‘rgangan holda «ontologiya» va «metafizika» atamalarini semantik (*yunoncha* semantikos – ifodalovchi,bildiruvchi)jihatdan aniq ajratib beradi.

XX asr falsafasida Nikolay Gartman («yangi ontologiya»), Martin Xaydegger («fundamental ontologiya») va boshqa shu kabi faylasuflar maxsus ontologik muammolar bilan shug‘ullanishgan.

2. «Ontologiya» atamasining falsafiy tavsifi. «Ontologiya» atamasi qadimgi yunon tilidan «ontos – borliq va logos – ʼta‘limot» degan so‘zlardan olingan bo‘lib, «borliq haqidagi ta‘limot», degan ma‘noni anglatadi. Bugungi kunda «Ontologiya» atamasi falsafiy ma‘noda – borliqning fundamental tamoyillarini,uning eng umumiy qonun va kategoriyalarini, strukturasi va xususiyatlarini bilish nazariyasi va mantiq bilan birgalikda o‘rganuvchi falsafiy ta‘limotlardan biri hisoblanadi.

Ontologiyaning o‘rganish obyektini borliq tashkil etadi. Uning mazmuni borliq va yo‘qlik, me‘yor va sifat, miqdor va o‘lchov, makon va zamon, harakat va o‘zgarish kabi tushunchalar orqali yoritiladi.

Ko‘pincha falsafani o‘rganish aynan ontologiyadan boshlanadi. Shuning uchun ham o‘tmishda yashagan faylasuf va mutafakkirlar ijodida ontologiya qamrab oladigan borliq va mavjudlik, koinot va olam, botiniylik va zohiriylik, borliq va yo‘qlik, materiya va harakat, makon va zamon,

cheklilik va cheksizlik, inson va jamiyat borlig'i bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat berilgan.

3.Ontologiyaning genezisi[34], evolyutsiyasi[35] va rivojlanish bosqichlari. Ontologiyaning falsafiy tafakkur hosilasi sifatidagi genezisi yer yuzida paydo bo'lgan dastlabgi odamzod vujudida nutq,til va tafakkurning paydo bo'lgan vaqtidan boshlab, uning falsafiy tafakkur qilish davrigacha bo'lgan vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu maqomga Qadimgi Xitoy, Hindiston, Turon, Misr, Yunonistonda yashagan dastlabgi odamlar va ularning avlodlari sazovor bo'lganlar. Shular qatorida ontologiya masalasini birinchilardan bo'lib yunon faylasuflari turli talqinlarda bayon etganlar. Ular ontologiyani haqiqiy borliqni nohaqiqiy mavjudlikdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limot, deb hisoblashgan. Eley maktabi namoyandalari hissiy dunyoning aldamchi ko'rinishini haqiqiy borliqqa qarama qarshi qo'yib, ontologiyani mangu o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot sifatida qo'llashgan. Milet maktabi vakillari va Ioniya faylasuflari dastlabgi borliqning sifatiy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni Empedokl «stixiya», Demokrit «atomlar», Anaksimandr «apeyron», Anaksagor «urug'» deb atagan. Platon g'oyalar ontologiyasini, Aristotel empirizm ontologiyasini yaratdi.

O'rta asrlar falsafasida ontologiya ilohiyot bilan chambarchas bog'lanadi. Sharq falsafasida ontologiya ko'proq ilohiy borliqning, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta'limot tarzida, sharq panteistik falsafasida vahdati mavjud va vahdati vujud ko'rinishidagi ta'limotlar shaklida paydo bo'lgan. Falsafada ontologiya monistik, dualistik va plyuralistik konsepsiyalar shaklida ham uchraydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va o'rta Sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan Al-Kindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta'limotni butunlay yangicha bosqichga ko'tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyani yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta'limot sifatida talqin etadi.Abu Nasr Forobiy yagona borliqni 11 bosqichdan iborat deb hisoblagan: «1-ilk borliq (Musabbib) - xudo; 2-borliq (Aqli kul) ; 3-borliq (Aql, ya'ni - faol aql, al-aql al-faol); 4-borliq Zuhal (Saturn) osmoni ; 5-borliq Nohid(Yupiter) osmoni; 6-borliq Bahrom (Mars) osmoni; 7-borliq (Sayyoralar) osmoni; 8-borliq (Quyosh osmoni); 9-borliq Zuhro(Venera) osmoni; 10-borliq Olam;

---

[34] ***Генезис*** [*юнонча genezis - келиб чиқиш,юзага келиш*] Келиб чиқиш,пайдо бўлиш тарихи.

[35] ***Эволюция*** [*лотинча evolutio авж олдириш, кучайтириш*] Узликсиз тадрижий ривожланиш,ўзгариш;табиат ва жамиятда узлуксиз ва тадрижий равишда давом этадиган ва сифат ўзгаришларига олиб борадиган миқдор ўзгаришлари.

11-borliq Oy osmoni»[36]. Bu bosqichlar bir-biri bilan sababiy bog‘langan bo‘lib, ular barcha mavjudlikning boshlang‘ichi hisoblanadi.

Yangi davr falsafasida dualistik ontologiya namoyandasi R. Dekart bo‘lgan. O‘z falsafasining asosiga «monada» – «ilohiy atomlar»ni qo‘ygan V.G. Leybnits falsafasi - plyuralistik ontologiyaga mansubdir. Bu konsepsiya bo‘yicha olamning asosida bir qancha mohiyat yotishi mumkin. Shunday konsepsiya empiriokrititsizmda ham uchraydi. R. Avenarius, E. Max borliqning asosida sezgilar majmui yotadi, deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon falsafasida ontologiyaning mazmuni yanada boyigan. Bu borliq haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi bilan bog‘langandir. Ma‘lumki, borliqni mexanistik, metafizik va materialistik talqin etishda u moddiylik bilan, aktual mavjudlik bilan, reallik bilan aynanlashtirib qo‘yilgan edi. Borliq aslida barcha narsa va hodisalarni, ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud bo‘lib turgan va kelajakda mavjud bo‘ladigan realliklarni, moddiylik va ma‘naviylikni, modda va g‘oyani ham o‘ziga qamrab oladi[37] .

XX asr falsafasida Nikolay Gartman («yangi ontologiya»), Martin Xaydegger («fundamental ontologiya») va boshqa shu kabi faylasuflar maxsus ontologik muammolar bilan shug‘ullanishgan.

Hozirgi kunda ongning ontologik muammolari masalasi alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Masalan, Karl Popper o‘z izlanishlarida ontologiya masalasida uchta olam:« 1) jismoniy narsalar va holatlar dunyosi; 2) ongning aqliy va mental holatlari dunyosi; 3) fikrlashning obyektiv mazmuni dunyosi borligi haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi. Bu olamlar subyektiv idrokka bog‘liq bo‘lmagan ilmiy farazlar, adabiy asarlar va boshqa narsalarning mazmunini o‘z ichiga oladi»[38],-degan g‘oyaga asoslanadi.. Shu sababli, hozirgi zamon faylasuflari borliqning umumiylik tomonlarini izohlashdan ko‘ra, uning har bir qirrasini ontologik jihatdan baholash asosida tadqiq qilishni afzal ko‘rmoqdalar. Buning natijasida, gen ontologiyasi, tibbiyot ontologiyasi,informatika ontologiyasi kabi bir qator yangi maxsus nazariya, g‘oya va amaliy ishlanmalardan iborat bo‘lgan yangicha tipdagi ontologik ta‘limotlar paydo bo‘lmoqda va ularni har tomonlama rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

4. Ontologiyaning asosiy masalasi va tushuntirish apparati. «Nima mavjud?» degan savolga javob topish ontologiyaning asosiy masalasi hisoblanadi. Ontologiyaning tushuntirish apparatini – borliq,

---

[36] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шари. – Тошкент:Янги аср авлоди,2016. – Б.195-197.

[37] 1.3. Тўраев Б.О. материаллари асосида тайёрланган// https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/ontologiya-uz/

[38] Поппер К. Логика и рост научного знания — 1983 — с. 439—440.

struktura, xususiyat, moddiylik, ma‘naviylik, jon va ruh, ideallik, ekzistensiallik, makon-fazo, zamon-vaqt, harakat tushunchalari tashkil qiladi. Shu sababli ontologiya - bu mavjud universumni eng umumiy jihatdan tavsiflashga urinish bo‘lib, u alohida fanlarning ma‘lumotlari bilan cheklanib qolmaydi va ehtimol, ularning ma‘lumotlariga ko‘ra qisqarib ham, kamayib ham ketmaydi.

Amerikalik faylasuf Uilyard Kuayn tomonidan ontologiya to‘g‘risida boshqacha tushuncha berilgan: uning so‘zlariga ko‘ra, ontologiya - bu ba‘zi nazariyalarning mazmuni, ya‘ni ushbu nazariya tomonidan mavjud deb qo‘yilgan obyektlardir.

Modomiki, borliq qanchalik rang-barang bo‘lsa, ontologiya ham falsafiy ta‘limot sifatida shunchalik keng qamrovli bo‘lib, uning shakllari ko‘payib, mazmuni yanada sayqallanib boradi. Ilm-fanning rivojlanishi natijasida odamlarning ontologiya haqidagi tasavvurlari ham o‘zgarib, zamonaviylashib boraveradi.

5. Ontologiyaning predmeti. *Ontologiyaning predmeti deb borliqning mavjudlik va reallik shakllarining tarkibiy tuzilishlari, ular o‘rtasidagi aloqadorliklar nisbatini,bir turdan ikkinchi turga o‘sib o‘tishini, jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayotining rivojlanishdagi substratlarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish borasida yangidan hosil qilingan ilmiy-amaliy bilimlar tizimiga aytiladi.* Shunga ko‘raontologiyani falsafiy ta‘limot sifatida zamonaviy tushunishning predmetini:

1) ontologiyaning asosiy mavzusini mavjudlik tashkil qilib, reallikning barcha turlarining to‘liqligi va birligi sifatida belgilangan obyektiv, jismoniy, subyektiv , ijtimoiy va virtual tarzda namoyon bo‘lish darajalari;

2) reallik idealizm nuqtayi nazaridan an’anaviy ravishda materiya (moddiy dunyo) va ruh (ruh va olam tushunchalarini o‘z ichiga olgan ma‘naviy dunyo), moddiylik nuqtayi nazaridan u inert, tirik va ijtimoiy materiyaga bo‘linib o‘rganilishi haqidagi falsafiy ta‘limotlar o‘rtasidagi bahslar;

3) o‘ylash mumkin bo‘lgan narsaning bo‘lishi haqidagi fikrga, aqlga sig‘maydigan yo‘q narsaning qarshi qo‘yish masalasining qay yo‘sinda hal etilishi haqidagi bayon qilingan fikrlar tashkil qiladi. Bu bilan ontologiyaning falsafiy ta‘limot sifatida o‘rganadigan predmeti chegaralanib qolmaydi,balki, zamonlar o‘zgarishi bilan jamiyatning ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga qaratilgan yangidan yangi predmetlarga ega bo‘lgan ontologik ta‘limotlar paydo bo‘laveradi.

6. Ontologiyaning tiplari. *Ontologiyaning tiplari deb borliqni bir xil turdagi mavjudlik va realliklardan tashkil topgan shakllarga ajratish,*

ya'ni tipiklashtirishga aytiladi. Bugungi kunda ilm-fanda yuz berayotgan o'zgarishlar (axborot texnologiyalari misolida) ning mantig'iga ko'ra ontologiyani quyidagi tiplarga:

• **meta-ontologiyalar** - mavzu sohalariga bog'liq bo'lmagan eng umumiy tushunchalarni tavsiflash;

• **predmet sohasi ontologiyasi** - predmet sohasining rasmiy tavsifi: odatda meta-ontologiyada aniqlangan tushunchalarni aniqlashtirish uchun (agar ishlatilgan bo'lsa) va yoki mavzu sohasining umumiy terminologik bazasini aniqlash uchun ishlatiladi;

• **ma'lum bir vazifaning ontologiyasi** - vazifa yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan umumiy terminologik bazani belgilaydigan ontologiya;

• **tarmoq ontologiyalari** - ko'pincha domen yoki vazifa obyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning yakuniy natijalarini tavsiflash uchun ishlatiladigan ontologiyalarga ajratish mumkin.

Borliqning u yoki bu tomonini tadqiq qilish natijasida hosil qilingan axborotlarni olish, ularni falsafiy jihatdan baholash orqali amaliyotda qo'llash, natijalarini sun'iy intellekt tiliga kiritishni ta'minlash kabi masalalar aniq fanlar ontologiyasining predmeti sifatida bir nechta tiplarga ajratib o'rganilmoqda.

2-§. Aniq fanlar ontologiyasi va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati

Barcha fanlarning obyektiv olamni aks ettiruvchi tomonlari mavjud bo'lib, ularning diqqat e'tibori qaratilgan narsalar, jarayonlar predmet maqomiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, barcha fanlarning o'ziga xos bo'lgan ontologiyasi mavjud bo'lib, ularning tarkibiy tuzilishi, genezisi, evolyutsiyasi, rivojlanish tendensiyalari o'rganish yangidan yangi ilm sohalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bular jumlasiga informatik ontologiya, tibbiy ontologiya, gen ontologiyasi, formal ontologiya va boshqalarni kiritish mumkin.

1. Aniq fanlar ontologiyasiga xos bo'lgan elementlar. Zamonaviy ontologiyalarning aksariyati yozuv tilidan qat'iy nazar, bir xil tarzda qurilgan bo'lib,ular odatda nusxalar (ekzemplyarlar), tushunchalar, atributlar va munosabatlardan tashkil topgan bo'ladi.

1. *Nusxalar* - bu obyektlar, ontologiyaning quyi darajadagi asosiy tarkibiy qismlari; ham jismoniy narsalarni (odamlar, uylar, sayyoralar), hamda mavhum (raqamlar, so'zlar) ni aks ettirishi mumkin.

2. *Tushunchalar yoki sinflar* – mavhum guruhlar, to'plamlar yoki obyektlar to'plamidan iborat bo'lib, ular misollarni, boshqa sinflarni yoki ikkalasining kombinatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin.

3. *Atributlar.* Ontologiyadagi obyektlar atributlarga ega bo'lishi mumkin. Har bir atribut hech bo'lmaganda nom va qiymatga ega va obyektga xos va u bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, Avtomobil-Model-A obyekti quyidagi atributlarga ega:

- Ism: Avtomobil modeli-A
- Eshiklar soni: 4
- Dvigatel: {4.0L, 4.6L}
- Transmissiya: 6-tezlik

4. *Munosabatlar.* Atributlarning o'ynaydigan muhim rollaridan birini ontologiya obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni (bog'liqliklarni) aniqlash hisoblanadi. Bundagi munosabatlar - bu boshqa obyektlarga mansub bo'lgan atributlardir.

2. Aniq fanlardagi ixtisoslashgan va umumiy ontologiyalar. Aniq fanlar ontologiyasi ixtisoslashgan va umumiylashgan bo'ladi.

Ixtisoslashgan (mavzuga yo'naltirilgan) ontologiyalar bu bilim sohasi yoki real dunyoning bir qismini aks ettiradi. Bunday ontologiyada ushbu soha uchun maxsus atamalarning ma'nolari mavjud. Masalan, qishloq xo'jaligidagi «maydon» so'zi yer uchastkasini, fizikada materiyaning turlaridan biri, matematikada algebraik tizimlar sinfini anglatadi.

Umumiy ontologiyalar ko'plab sohalar uchun umumiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday ontologiyalar domenlarda atamalarni tavsiflash uchun ishlatiladigan asosiy atamalar to'plamini, lug'at yoki tezaurusni o'z ichiga oladi.

Agar ixtisoslashtirilgan ontologiyalardan foydalanadigan tizim rivojlanayotgan bo'lsa, unda ularni birlashtirish kerak bo'lishi mumkin. Ontologiyalarni birlashtirishning kichik vazifasi ontologiyalarni xaritalashdir. Ontologiya muhandisi uchun bu jiddiy vazifadir. Hatto yaqin hududlarning ontologiyalari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Farq mahalliy madaniyat, mafkuraning o'ziga xos xususiyatlari yoki boshqa ta'riflash tilidan foydalanish tufayli paydo bo'lishi mumkin.

Ontologiyalarni birlashtirish qo'lda ham, yarim avtomatik rejimda ham amalga oshiriladi. Umuman olganda, bu ko'p vaqt talab qiladigan, sekin va qimmatga tushadigan jarayon. ***Asosiy ontologiya*** - bitta lug'atdan foydalanish bo'lib, u ishni biroz soddalashtiradi. Birlashtirish texnologiyalari bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlar mavjud, ammo ular, asosan bir-birlaridan amaliy emas, balki ko'proq nazariy ahamiyatga molik bo'lganligi bilan ajralib turadi.

3. Aniq fanlar ontologiyasini tavsiflovchi maxsus tillar. Aniq fanlarda ontologiya o'ziga xos bo'lgan tillar orqali tavsiflanadi.Ontologik

tavsiflash tili - ontologiyani kodlash uchun ishlatiladigan rasmiy til hisoblanadi. Bularga quyidagilar:

• OWL – Web Ontology Language, W3S standarti, qaysikim.,semantik tasdiqlash uchun RDF va RDFS kengaytmasi sifatida ishlab chiqilgan veb-ontologiya tili;

• KIF (inglizcha) rus tili. (Inglizcha Knowledge Interchange Format – bilimlarni almashish formati) - mantiq uchun S-ifodaga asoslangan sintaksisi;

• Sommon Logits –umumiy mantiq (SL) (angl.) ruscha. – KIF vorisi (standartlashtirilgan — ISO/IES 24707:2007);

• SysL (angl.)rus tili. Sys loyihasida ishlatiladigan ontologik til va shu kabilar kiradi.

Ontologiya tillari bilan ishlashning bir necha texnologiyalari mavjud: ontologik muharrirlar (ontologiyalar yaratish uchun), ontologik SUBD (ontologiyalarni saqlash va ularga kirish uchun) va ontologik ombor (bir nechta ontologiyalar bilan ishlash uchun).

4. Informatika ontologiyasi. Axborot texnologiyalari va informatika fanida «ontologiya» obyektlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarning aniq tavsifini anglatadi. Bunda ontologiya - bu obyektlar va ularning bog‘lanish nazariyasi hisoblanadi.

Formal jihatdan informatika ontologiyasi quyidagilardan:

• tushunchalar, taksomoniya bo‘yicha tashkil etilgan;

• ularning ta’riflari,

• chiqish qoidalaridan iborat bo‘ladi.

Informatikadagi ontologiya – bu konseptual sxema yordamida ma’lum bir bilim sohasini har tomonlama va batafsil rasmiylashtirishga urinish bo‘lib,u odatda, bunday sxema obyektlarning barcha tegishli sinflarini, ularning o‘zaro munosabatlari va ushbu sohada qabul qilingan qoidalarini (teoremalari, cheklovlari) o‘z ichiga olgan ma’lumotlar tuzilmasidan iborat bo‘ladi.

Ontologiyalar dasturlash jarayonida real dunyo yoki uning bir qismi haqidagi bilimlarni namoyish etish shakli sifatida ishlatiladi. Amaliyotning asosiy yo‘nalishlari - bu biznes jarayonlarini modellashtirish, semantik veb, sun’iy intellekt va boshqalar hisoblanadi.

Informatikadagi ontologiya falsafiy ontologiya tushunchasidan farqlanadi. Bunda «ontologiya» atamasi dastlab falsafiy bo‘lgan bo‘lsa-da, kompyuter fanida u mustaqil ma‘no kasb etdi.

Bu yerda ikkita muhim farq mavjud:

• informatika ontologiyasi kompyuter osonlikcha qayta ishlay oladigan formatga ega bo‘lishi kerak;

3. *Atributlar.* Ontologiyadagi obyektlar atributlarga ega bo'lishi mumkin. Har bir atribut hech bo'lmaganda nom va qiymatga ega va obyektga xos va u bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, Avtomobil-Model-A obyekti quyidagi atributlarga ega:

- Ism: Avtomobil modeli-A
- Eshiklar soni: 4
- Dvigatel: {4.0L, 4.6L}
- Transmissiya: 6-tezlik

4. *Munosabatlar.* Atributlarning o'ynaydigan muhim rollaridan birini ontologiya obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni (bog'liqliklarni) aniqlash hisoblanadi. Bundagi munosabatlar - bu boshqa obyektlarga mansub bo'lgan atributlardir.

2. Aniq fanlardagi ixtisoslashgan va umumiy ontologiyalar. Aniq fanlar ontologiyasi ixtisoslashgan va umumiylashgan bo'ladi.

Ixtisoslashgan (mavzuga yo'naltirilgan) ontologiyalar bu bilim sohasi yoki real dunyoning bir qismini aks ettiradi. Bunday ontologiyada ushbu soha uchun maxsus atamalarning ma'nolari mavjud. Masalan, qishloq xo'jaligidagi «maydon» so'zi yer uchastkasini, fizikada materiyaning turlaridan biri, matematikada algebraik tizimlar sinfini anglatadi.

Umumiy ontologiyalar ko'plab sohalar uchun umumiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday ontologiyalar domenlarda atamalarni tavsiflash uchun ishlatiladigan asosiy atamalar to'plamini, lug'at yoki tezaurusni o'z ichiga oladi.

Agar ixtisoslashtirilgan ontologiyalardan foydalanadigan tizim rivojlanayotgan bo'lsa, unda ularni birlashtirish kerak bo'lishi mumkin. Ontologiyalarni birlashtirishning kichik vazifasi ontologiyalarni xaritalashdir. Ontologiya muhandisi uchun bu jiddiy vazifadir. Hatto yaqin hududlarning ontologiyalari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Farq mahalliy madaniyat, mafkuraning o'ziga xos xususiyatlari yoki boshqa ta'riflash tilidan foydalanish tufayli paydo bo'lishi mumkin.

Ontologiyalarni birlashtirish qo'lda ham, yarim avtomatik rejimda ham amalga oshiriladi. Umuman olganda, bu ko'p vaqt talab qiladigan, sekin va qimmatga tushadigan jarayon. ***Asosiy ontologiya*** - bitta lug'atdan foydalanish bo'lib, u ishni biroz soddalashtiradi. Birlashtirish texnologiyalari bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlar mavjud, ammo ular, asosan bir-birlaridan amaliy emas, balki ko'proq nazariy ahamiyatga molik bo'lganligi bilan ajralib turadi.

3. Aniq fanlar ontologiyasini tavsiflovchi maxsus tillar. Aniq fanlarda ontologiya o'ziga xos bo'lgan tillar orqali tavsiflanadi.Ontologik

tavsiflash tili - ontologiyani kodlash uchun ishlatiladigan rasmiy til hisoblanadi. Bularga quyidagilar:

• OWL – Web Ontology Language, W3S standarti, qaysikim.,semantik tasdiqlash uchun RDF va RDFS kengaytmasi sifatida ishlab chiqilgan veb-ontologiya tili;

• KIF (inglizcha) rus tili. (Inglizcha Knowledge Interchange Format – bilimlarni almashish formati) - mantiq uchun S-ifodaga asoslangan sintaksisi;

• Sommon Logits –umumiy mantiq (SL) (angl.) ruscha. – KIF vorisi (standartlashtirilgan — ISO/IES 24707:2007);

• SysL (angl.)rus tili. Sys loyihasida ishlatiladigan ontologik til va shu kabilar kiradi.

Ontologiya tillari bilan ishlashning bir necha texnologiyalari mavjud: ontologik muharrirlar (ontologiyalar yaratish uchun), ontologik SUBD (ontologiyalarni saqlash va ularga kirish uchun) va ontologik ombor (bir nechta ontologiyalar bilan ishlash uchun).

4. Informatika ontologiyasi. Axborot texnologiyalari va informatika fanida «ontologiya» obyektlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarning aniq tavsifini anglatadi. Bunda ontologiya - bu obyektlar va ularning bog‘lanish nazariyasi hisoblanadi.

Formal jihatdan informatika ontologiyasi quyidagilardan:

• tushunchalar, taksomoniya bo‘yicha tashkil etilgan;

• ularning ta’riflari,

• chiqish qoidalaridan iborat bo‘ladi.

Informatikadagi ontologiya – bu konseptual sxema yordamida ma’lum bir bilim sohasini har tomonlama va batafsil rasmiylashtirishga urinish bo‘lib,u odatda, bunday sxema obyektlarning barcha tegishli sinflarini, ularning o‘zaro munosabatlari va ushbu sohada qabul qilingan qoidalarini (teoremalari, cheklovlari) o‘z ichiga olgan ma’lumotlar tuzilmasidan iborat bo‘ladi.

Ontologiyalar dasturlash jarayonida real dunyo yoki uning bir qismi haqidagi bilimlarni namoyish etish shakli sifatida ishlatiladi. Amaliyotning asosiy yo‘nalishlari - bu biznes jarayonlarini modellashtirish, semantik veb, sun’iy intellekt va boshqalar hisoblanadi.

Informatikadagi ontologiya falsafiy ontologiya tushunchasidan farqlanadi. Bunda «ontologiya» atamasi dastlab falsafiy bo‘lgan bo‘lsa-da, kompyuter fanida u mustaqil ma‘no kasb etdi.

Bu yerda ikkita muhim farq mavjud:

• informatika ontologiyasi kompyuter osonlikcha qayta ishlay oladigan formatga ega bo‘lishi kerak;

• axborot ontologiyalari doimo aniq maqsadlar bilan yaratilgan - konstuksiyalardagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda ular butunligiga qarab emas, balki ko‘proq qo‘llanilishi jihatidan baholanadi.

5. Tibbiyot ontologiyasi. Obyekt qanchalik murakkab bo‘lsa, atrofdagi dunyoning omillari unga shunchalik ko‘p ta‘sir qiladi. Shuning uchun insonning ahvoli ularning maksimal darajadagi ko‘lami bilan belgilanadi. Turli tibbiy an’analar asosan bir-birlaridan ta’sir etuvchi omillar soni, sabablari va ta‘sirlari ko‘rib chiqiladigan yo‘nalishlarni o‘rganish va o‘zgartirish usullari bilan farq qiladi.

Tibbiyot ontologiyasi - kasallikka olib kelgan barcha sabab va ta’sirlarni aniqlash, ularni bemorning ongiga yetkazish, so‘ngra aniqlangan barcha sabab va ta’sirlarni hamda ularning salbiy oqibatlarini olib tashlashga imkon beradi.

Shifokor-ontolog - aslida tuzatuvchi rolini bajaradi, kasallikning sabablari va oqibatlarini, eskirgan yoki zararli dasturlarni va viruslarni, irsiy dasturlarni aniqlaydi va yo‘q qiladi, har bir qavatda «manba» kodini tiklaydi, insonning o‘sishiga va insonga aylanishiga to‘sqinlik qiladigan hamma narsani bartaraf etadi. «Inson so‘zi mag‘rur jaranglaydi», degan hayqiriq biron bir shaxsga nisbatan sodda tuyulsada, unchalik aniq ifodalanmasada, shifokor uchun «Inson so‘zi juda qiyin, murakkabroq tuyuladi» degan so‘z juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, bu murakkablik ko‘p o‘lchovli bo‘lib, u insonning jismoniy tanasining tuzilishini qandaydir tarzda tushunish uchun ko‘p yillik tibbiyot maktabi va rezidentlik talab etiladi. Bu borada butun hayoti davomida oddiy odamlar o‘zlarining hissiy, moddiy va ma‘naviy hayotining sog‘lom yashashi uchun zarur bo‘lgan sohalarini barpo etadilar va kamdan kamlargina bunda mukammallikka erishadi. Bugungi kunda G‘arbga «Sharqiy» tibbiy an’analar va o‘z-o‘zini rivojlantirish texnikalarining kirib borishi tufayli insonning energetik tabiati qanchalik murakkab ekanligi aniq bo‘ldi. Bunga insonda ma‘naviy aloqalarni mustahkamlash zarurligini qo‘shsangiz, nihoyatda murakkab aglomeratsiyaga[39] ega bo‘lasiz ... Shuning uchun qadimgi odamlar haqli ravishda: «O‘zingizni biling va shunda siz butun dunyoni bilib olasiz» deb ta‘kidlashgan.

Inson «uyi» ning uch qismli tuzilishi: yerto‘la - jismoniy tanadir, turar-joy qavatlari - hayot darajalari va tom - ma‘naviy tabiat bo‘lib, uning

[39] ***Агломерация*** [*лотинча agglomerare -тўпламоқ, қўшилоқ, бирлаштирмоқ*] Бирор нарса,масалан ташкилот,корхона ва шу кабиларни бирлаштириш,қўшиш; кўплаб шаҳар ва аҳоли масканларининг ягона шаҳар сифатида қўшилиб кетиши.

tuzilishi va unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni yaxshiroq tushunish uchun batafsil bayon qilish mumkin.

Inson dunyoni eng to‘liq aks ettiradigan yagona mavjudotdir, uning har uch darajadagi mavjudotida: jonsiz - jismoniy tanada, jonli - hissiy va aqliy sohalarda va hayotdan yuqori - ma‘naviy tabiatda ko‘rinadi. Dunyoda ham, odamda ham mavjudotning uchta darajasi vertikal, ierarxik tuzilmani (bir daraja ikkinchisiga uyg‘unlashgan holda) namoyish etishini anglash juda muhimdir. Shunday qilib, bugungi kunda biz odamdan ko‘ra murakkab narsalarni bilmaymiz. Inson - bu butun bir narsa, ya‘ni pastki qavatda (jismoniy tana darajasida) biror narsa noto‘g‘ri bo‘lsa yoki ikkita yuqori qavatda (aqliy va ma‘naviy sohada) biror narsa qurilmagan bo‘lsa (Odatda, hamma narsa yaxshi bo‘lishi mumkin emas), odamning jismoniy tanasi, armiyadagi askar singari, yuqori qavatlardan kelgan buyruqlarni bajarishi kerak bo‘ladi. Ertami-kechmi yuqoridan kelgan «noto‘g‘ri» buyruqlar jismoniy tanaga yetib boradi va ularni bajarishga majbur qilish bilan unga zarar yetkaza boshlaydi. Ushbu oddiy haqiqat quyidagi «Baliq boshdan sasiydi», «Uy tomdan chiriydi», «Yuqorida nima bor, shuncha pastda ham bor» va h.k.mashhur so‘zlarda aks ettirilgan. Shuning uchun, bemor shifokorga kelib, og‘riq, qichishish, nafas qisilishi, yomon xotira va hokazolardan shikoyat qilganda, demak, uyimizning hamma qavatlarida allaqachon muammolar mavjud bo‘lganligini ko‘ramiz. Bularning barchasi odamning faqat yerto‘lada (uning jismoniy tanasi darajasida) sodir bo‘layotgan narsalarga sezgirligi bilan og‘irlashib borishini bildiradi. Chunki, og‘riqlar faqat sezgilarda bilinadi. Darhaqiqat, qo‘pol yoki jizzaki odam, odatda, buni ko‘rmaydi, ahmoq o‘zini ahmoq ekanligini tushunmaydi, aqldan ozgan odam o‘zini g‘ayritabiiy deb hisoblamaydi, ruhsiz odam ham buni anglamaydi.

Shunday qilib, biz bilamizki, Yevropa tibbiyoti asosan «yerto‘la» bilan ishlaydi. Ular bemorning to‘qimalari va organlari darajasidan ancha oldinroq bo‘lgan nafaqat molekulyar, balki atom darajasida ham sodir bo‘ladigan qonunbuzarliklarni ro‘yxatga olishga qodirligi bilan ajralib turadi. Hayot darajasi bilan shug‘ullanadigan noan’anaviy terapiya, ular ishlaydigan qavatlar soni bilan ham farq qiladi. Masalan, klassik akupunktur hayvon darajasi bilan shug‘ullansa, terapiyasi o‘simlik darajasi bilan shug‘ullanadi. Va «tom» (ma‘naviy tabiat) darajasida biz yana ikkita qavatni ajratishimiz mumkin. Shunday qilib, eng to‘liq detallashtirish 10 darajadan yoki qavatdan iborat: yerto‘lada to‘rttasi - elementar zarralar, atomlar, molekulalar va moddalar (organlar, to‘qimalar) darajasiga to‘g‘ri keladi; hayot darajasida to‘rtta - viruslar darajasi, o‘simliklar darajasi, hayvon darajasi va odam darajasi; va ikkitasi «tom» darajasida. Biroq,

bunday tafsilotlar amalda kamdankam hollarda kerak bo‘ladi, garchi bu prinsipal jihatdan inson qanday ishlashini to‘liq anglash uchun foydalidir. Odamlar uyining yetarlicha va qulay tavsifi odatda besh qavat bilan chegaralanadi: yerto‘la, o‘simlik tagligi, hayvonlarning tagligi, odamning tagligi, tomi (ma‘naviy tabiat). Ushbu tabaqalanish inson qo‘lining anatomiyasi, ya‘ni har bir qavatning o‘z barmog‘i shaklida aks etadi.

Agar biz endi terapiya muammosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda aniq terapiya yoki davolanishni faqat bir vaqtning o‘zida uyimizning barcha besh qavatida tartib olib keladigan terapiya deb atash mumkinligi aniq bo‘ladi. Biroq, bir yoki hatto bir necha qavat bilan ishlash bu shunchaki bemor bizga kelgan alomatlar yoki shikoyatlarni bartaraf etish vaqtidagi ba‘zi urinishlardir, xolos.

Afsuski, biz uchun ma‘lum bo‘lgan biron bir narsa, ham Yevropa, ham noan’anaviy tibbiyot yondashuvlari yuqorida bayon qilingan terapevtik mezonga javob bermaydi. Ya‘ni, boshqacha qilib aytganda, hech kim davolamaydi. Yevropa tibbiyoti asosan yerto‘lada va har bir alohida shifokor faqat bitta xonasi bilan ishlaydi. An’anaviy bo‘lmagan usullar odatda yuqori, ammo faqat bitta qavat bilan ishlaydi. Tibbiyotdagi ushbu holat nima uchun uning «rivojlanganiga» qaramay, bemorlar soni va o‘lim darajasi kamaymayotganini tushuntiradi, garchi ma‘lum sohalarda muvaffaqiyat aniq, an’anaviy va noan’anaviy yondashuvlarning kombinatsiyasi ba‘zida hayratlanarli natijalar beradi (vaqtinchalik bo‘lsa ham). Boshqacha qilib aytganda, kasallik sabablarini hech kim yo‘q qilmaydi! Dono tabiblar shunday deydi: «Buning sababini olib tashlang va kasallik o‘z-o‘zidan yo‘qoladi!»

Ha, afsuski, bugungi kunda dunyodagi odamlarning aksariyati, ular kim ekanligi yoki nima bo‘lishi kerakligi haqida emas, balki faqat nima bor yoki nima bo‘lishi mumkinligi bilan shug‘ullanadi. Qadimgi Rimda bo‘lgani kabi va hozir ham odamlarni asosan «non va sirk» lar qiziqtiradi. Oddiy odamning «ruhiy inson» bo‘lishga intilmasligi, hattoki shunchaki ongli odam bo‘lishining o‘zi ham global ma‘noda uning kasal bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuni tushunish kerakki, odamlar shifokorga davolanish masalasida olib keladigan muammolar (kasalliklar) nafaqat kecha yoki bir necha yil oldin, balki konsepsiya shaklida ham boshlanib ulgurgan. Ko‘pincha, ular bizning ong-u shuurimizga chuqur singib ketgan. Boshqacha qilib aytganda, muammolar va kasalliklarning 70 foizigachasi irsiy meros tariqasida davom etib kelmoqda. Ontologiya irsiy tabiatning sabablarini olib tashlashga imkon beradigan yagona texnologiya bo‘lib, oiladagi keyingi avlodlarni bunday og‘ir yukdan xalos qiladi.

6. Gen ontologiyasi. Gen ontologiya (GO) - barcha biologik turlarning genlari va gen mahsulotlarini izohlash uchun yagona terminologiyani yaratishga bag'ishlangan bioinformatik loyihadir.

Loyihaning maqsadi genlar atributlarining ma'lum bir ro'yxatini saqlash va to'ldirish, genlar va mahsulotlarga izohlarni tuzish, loyiha ma'lumotlar bazasi bilan ishlash vositalarini ishlab chiqish, Shuningdek yangi eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish, xususan, genlarning funksional guruhlari vakilligini tahlil qilishdir. Shuni ta'kidlash joizki, GO loyihasi ma'lumotlarning tasnifi (genlar va ularning mahsulotlari, ya'ni RNK va oqsillar, Shuningdek ularning funksiyalari haqida ma'lumot) uchun markirovka tilini yaratdi, bu esa gen mahsulotlari haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni tezda topishga imkon beradi.

Informatika ontologiyalari real hayotdagi obyektlar va ular o'rtasidagi munosabatlar (ma'lumotlar bazasi deb ataladigan) to'g'risidagi ma'lumotlar tizimidan foydalangan holda ma'lum bilim sohalarini rasmiylashtirish uchun ishlatiladi. Biologiya va unga aloqador fanlarda muammo terminologiya uchun universal standart yo'qligi bilan bog'liq edi. O'xshash tushunchalarni ifoda etadigan, ammo har xil turlar, tadqiqotlarning turli yo'nalishlari uchun yoki hattoki olimlarning turli guruhlari uchun ishlatiladigan atamalar tubdan farqli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, bu ma'lumotlar almashinuvini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan «Gen ontologiyasi» loyihasining vazifasi genlar va ularning mahsulotlarini xususiyatlarini aks ettiruvchi va har qanday organizmlarga taalluqli bo'lgan atamalar ontologiyasini yaratish edi.

Gen ontologiyasi 1998-yilda uchta model *Drosophila melanogaster* (mevali chivin), *Mus mussulus* (sichqon) va *Satscharomyses serevisiae(*novvoy xamirturushi) organizmlarning genomlarini o'rgangan olimlar konsorsiumi tomonidan yaratildi. Keyin boshqa model organizmlar uchun ko'plab ma'lumotlar bazalari GO Konsorsiumiga qo'shildi va shu bilan nafaqat izohlash bazasini kengaytirishga, balki ma'lumotlarni ko'rish va ulardan foydalanish xizmatlarini yaratishga ham hissa qo'shdi.

Konsorsium GO (*GOTS*)- bu Gen Ontologiya loyihasida faol ishtirok etadigan biologik ma'lumotlar bazalari va tadqiqot guruhlari to'plamidir. U turli xil model organizmlari uchun bir nechta ma'lumotlar bazalarini, umumiy oqsil ma'lumotlar bazalarini, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish guruhlarini va gen ontologiyasi muharrirlarini o'z ichiga oladi.

Gen Ontologiya - keng ko'lamli va tez rivojlanayotgan loyiha hisoblanadi. 2007 yilda Inter Mine yangi xizmati yaratildi, uning maqsadi juda ko'p xilma-xil manbalardan olingan genomik ma'lumotlarni birlashtirish va

aniq genomik hududlarni topish va statistik testlarni o‘tkazish kabi hisoblash ishlarini yengillashtirishdir.

Shuni anglash kerakki, «Gen Ontologiya» o‘ziga xos biologik obyektlarni emas, balki murakkab biologik hodisalarni tavsiflaydi. Gen Ontologiya ma‘lumotlar bazasi uchta mustaqil lug‘atni o‘z ichiga oladi :

• ***Molekulyar funksiya*** - gen mahsulotining (oqsil yoki RNK) molekulyar darajadagi o‘ziga xos funksiyasiga ko‘ra tasniflash, masalan, uglevod bilan bog‘lanish yoki ATPaza faolligi.

• ***Biologik jarayonlar*** - murakkab jarayon bo‘yicha tasniflash, odatda organizmlarning hayotiy faoliyati uchun zarur va molekulyar reaksiyalar ketma-ketligi natijasida yuzaga keladi, masalan, purinlarning mitozi yoki biosintezi.

• ***Uyali komponentlar*** - hujayra yoki hujayra tashqari bo‘shliqning gen mahsuloti funksiyasi bajariladigan qismiga ko‘ra tasnifi, masalan, yadro yoki ribosoma.

Gen ontologiyasidagi har bir atama bir qator atributlarga: noyob raqamli identifikator, ism, atama tegishli lug‘at va ta‘riflarga ega.

Ontologiya yo‘naltirilgan siklik grafik asosida qurilgan.Bunda har bir atama boshqa turdagi munosabatlar orqali bir yoki bir nechta boshqa atamalar bilan bog‘langan bo‘ladi.

Genom annotatsiyasi gen mahsulotlarining xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot olishga qaratilgan. Buning uchun GO izohnomalarida «Gen ontologiyasi» atamalari qo‘llaniladi. Konsorsium GO (*GOTS*) a‘zolari o‘z izohlarini Gene Ontologiya veb-saytiga joylashtiradilar.

Gen izohnomasida quyidagi ma‘lumotlar mavjud: gen mahsulotining nomi va identifikatori; tegishli GO atamasi; annotatsiya asoslanadigan ma‘lumotlar turi (inglizcha dalil kodi); manbaga havola; Shuningdek izohning yaratuvchisi va sanasi. Izohning (dalil kodining) haqiqiyligini ko‘rsatadigan ma‘lumotlar turlari uchun *OVO* loyihasi bilan bog‘liq maxsus ontologiya mavjud. U boshqarishning turli usullarini ham qo‘lda, ham avtomatik ravishda o‘z ichiga oladi, Masalan:

•IDA (Inferred from Diretst Assay) — eksperimental ma‘lumotlar.

•TAS (Tratseable Author Statement) — ilmiy nashrdan olingan ma‘lumotlar.

• IMP (Inferred from Mutant Phenotype) — mutant fenotip asosida olingan ma‘lumotlar.

• IGI (Inferred from Genetits Interatstion) — genlarning o‘zaro ta‘siriga asoslangan.

• IPI (Inferred from Physitsal Interatstion) — jismoniy o‘zaro ta‘sirga

asoslangan.

• RSA (Inferred from Reviewed Somputational Analysis) — ishonchli hisoblash tahliliga asoslangan va shunga o‘xshash boshqalar.

Hozirgi kunda «Gen ontologiya» ilmiy-amaliy jihatdan rivojlanib borayotgan istiqbolli ilm sohalaridan biri hisoblanadi. Uning falsafiy qirralarini o‘rganish dalzarb masalaladan biri sifatida kun tartibida turibdi.

7. Formal ontologiya. «Formal ontologiya» atamasi birinchi marta Edmundom Gusserlem tomonidan 1900-1901 yillarda yozilgan «Mantiqiy tadqiqotlar» nomli asarining ikkinchi nashrida qayd etilgan bo‘lib, unda muallif formal mantiqning ontologik analogi borligiga ishora qilgan holda obyektning sifatlari va obyektning o‘zi bilan qamrab olishini ifodalashga harakat qilgan.

Formal ontologiya - bu rasmiy tilda aksiomalar bilan aniqlanadigan informatik til ontologiyasi hisoblanadi. Falsafada formal ontologiya –bu mavjud reallikning obyektiv ko‘rinishini ta‘minlash maqsadida domen yoki dastur modelini ishlab chiquvchiga yordam beradigan rasmiy tilda aksiomalar bilan aniqlangan ontologiya hisoblanadi.

Formal ontologiya voqelikning mustaqil ko‘rinishini saqlagan holda quyidagi: a) ontologiya tarkibning ko‘payishiga mos keladi cheksiz kengayish; b) har qanday «konsepsiya» o‘z o‘rnini topishi mumkin bo‘lgan tarkib va kontekstning mustaqilligi; v) turli darajadagi tafsilotlarni hisobga olish kabi xususiyatlarga egaligi bilan bashqa aniq fanlar ontologiyasidan ajralib turadi.

8. Formal va noformal ontologiyalar. Informatikada ontologiya formal tilda aniqlangan bo‘lsa formal, aks holda esa noformal hisoblanadi. Falsafada formal va noformal ontologiyalar o‘rtasida alohida tafovut mavjud. Masalan, formal ontologiya «qo‘l harakâti»ni ifodalovchi tushunchani o‘z ichiga olishi mumkin. Noformal ontologiyada esa bunday tushunchani ko‘pincha «qo‘lning ko‘karishi» sifatida qaragan holda, boshqa tushunchalar bilan bir qatorda «qo‘lni aniqlash» deb tasniflash mumkin bo‘ladi. Formal ontologiyaning o‘ziga xos tarzda shakllangan va amaliyotda qo‘llash uchun ishlatiladigan terminlari bo‘ladi.

Terminlar - bu tabiiy tilda voqelikdagi elementni tasvirlash uchun foydalaniladigan turli tillardagi so‘zlar yoki so‘z birikmalari, shuningdek, mazkur elementni voqelikda shakllantiradigan formal ontologiya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan holda lug‘at, atamalar to‘plami va ularning sharhlari, ontologiyada berilgan tushunchalar va munosabatlar «tabiiy til uchun ontologik interfeys» ni tashkil qiladi.

Shunday qilib aniq fanlar ontologiyasi, bir tomondan, borliqning ichki va tashqi tuzilishini mega, makro, mikro darajada tadqiq qilishi,

ikkinchi tomondan esa tadqiq natijasida olingan xulosa va amaliy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishda metodologik vazifalarni o‘tashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

3-§. Borliq vauning asosiy shakllari

1. Borliq tushunchasi. Insonni o‘zining katta va kichikligi,jonli va jonsizligi,yumshoq va qattiqligi, chekli va cheksizligi, harakatchanligi va harakatsizligi, soddaligi va murakkabligi, to‘qligi va ochligi, rangsizligi va rangliligi, go‘zalligi va xunukligi, yaxshiligi va yomonligi, foydaliligi va foydasizligi, halolligi va haromligi, aqlliligi va axmoqliligi kabi xususiyatlari bilan bir biridan farq qiluvchi behisob narsalar, voqealar, hodisa va jarayonlar qurshab turadi. Buni odamlar borliq deb atashadi. Demak, borliq – odamzodni o‘rab turgan barcha narsa,voqea, hodisa va jarayonlarni umumiy tarzda ifodalovchi falsafiy tushuncha hisoblanadi.

Har bir inson o‘zini o‘rab turgan narsa,voqea,hodisa va jarayonlarning boshlang‘ich ibtidosini, ya‘ni aynan nimalardan tashkil topganini,makon va zamonning qaysi nuqtasida joylashganligini,nima hisobidan, qanday tarzda harakatlanishini bilishni istaydi. Bu masalaga turli davrlarda yashagan faylasuflar bir xilda javob berishmagan. Masalan, borliqning mohiyati haqida qadimgi yunon faylasufi *Parmenid* borliq mavjuddir, u mutlaqo harakatsiz, bir tarkibli, o‘zgarmasdir. Borliqdan boshqa hech narsa yo‘qdir, ya‘ni borliq mavjud, yo‘qlik esa mavjud emas. Bo‘lish va bilish – aynan bir narsadir, *Platon* esa borliq – bu haqiqiy, o‘zgarmas, abadiy bo‘lgan g‘oyalar dunyosidan iboratdir. U haqiqiy oliy darajadagi borliq bo‘lib, moddiy dunyoda ko‘plab ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, *Geraklit* bu haqda barqaror, o‘zgarmas borliqning o‘zi yo‘q. Uning mohiyati borliq va yo‘qlikning birgalikda mavjudligida, borliqning yo‘qlik tomon beqaror harakatlanishidadir, degan falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan.

Hozirgi zamon falsafasida ham borliqning mohiyatini tushunish masalasida har xil qarashlar mavjud. Masalan, *ekzistensializm* (lotincha *exsistentia–yashash, mavjudlik*) falsafaning obyektini insonning mavjudligi tashkil etadi, *neotomizm* boshlang‘ich ibtidosi xudo tomonidan yaratilgan, ruhiy-ma‘naviy mazmunga ega bo‘lgan «sof borliq»gina mavjuddir, *neopozitivizm* esa obyektiv borliq tajriba bilan birdir, tajribadan tashqarida obyektiv reallik yo‘qdir, degan falsafiy fikrni asoslashga harakat qilganliklarini ko‘rish mumkin.

Mustaqillik sharofati tufayli shakllanayotgan o‘zbek falsafasida borliqqa nisbatan bo‘lgan munosabat masalasi I.A.Karimovning "...inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma‘naviy xususiyat va alomatlarni

mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish- o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi"[40],– degan fikrlarga asoslangan holda o'z yechimini topmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, borliqning ibtidosini, asosini, manbayini nimalar tashkil qiladi degan savolga javob berish masalasida: *monistik qarash* tarafdorlari moddiylik yoki ma'naviylik; *dualistik pozitsiyadagilar* moddiylik va ma'naviylik; *plyuralistik yondashuv tarafdorlari* juda ko'p xilma xil narsalar tashkil etishini ta'kidlaydilar.

Borliq masalasini o'rganishda klassik(mumtoz) falsafa nisbatan tabiat borlig'ini, uni bilish shakllarini, postklassik (zamonaviy) falsafa esa inson borlig'ini va uning ma'naviy hayot kechirish tarzini falsafaning bosh masalasi sifatida o'rganishga e'tibor qaratganlar.

2. Borliq va yo'qlik. Inson foniy dunyoga keladi va vaqt o'tishi bilan boqiy dunyoga ravona bo'ladi. Shu davr ichida inson yashash uchun kurash olib boradi. Bu kurashda esa dunyo ichki qarama-qarshiliklardan, ziddiyatlardan iborat ekanligini bilib oladilar. Chunki, uning atrofini o'rab turgan borliqdagi narsalar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan va ham o'zgarmasdir. Bu kim uchun borliq, yana kim uchun yo"qlikdir.

Bugungi kunda insoniyat yo «bor bo'lmoqlik (hayot); yoki yo'q bo'lib ketmoqlik (o'lim)» nima degan savolga javob qidirmoqda. Darhaqiqat, yadro falokati, ekologik bo'xronliklar, turli xil bedavo yuqumli kasalliklar (koronovirus pandemiyasi va shu kabilar) Yer sayyorasidagi million yillar bilan hisoblanadigan insoniyat mavjudligining tabiiy vaqtini o'nglab bo'lmaydigan darajada to'xtatib qo'yishi mumkin. Gap «bor bo'lmoqlik» yo «yo'q bo'lmoqlik» haqiqatan ham umumbashariy va mislsiz keskin masala bo'lib qolayotgan ekan, borliq va yo'qlik muammosini anglab olish ayniqsa muhimdir. Bunda uning oddiy hayotiy zaminlaridan tobora murakkabroq falsafiy mulohazalar va xulosalari tomon izchil siljib borish kerak bo'ladi.

---

[40] ***Каримов И.А.*** Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:»Маънавият»,2008. – Б.67.

ikkinchi tomondan esa tadqiq natijasida olingan xulosa va amaliy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishda metodologik vazifalarni o‘tashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

3-§. Borliq vauning asosiy shakllari

1. Borliq tushunchasi. Insonni o‘zining katta va kichikligi,jonli va jonsizligi,yumshoq va qattiqligi, chekli va cheksizligi, harakatchanligi va harakatsizligi, soddaligi va murakkabligi, to‘qligi va ochligi, rangsizligi va rangliligi, go‘zalligi va xunukligi, yaxshiligi va yomonligi, foydaliligi va foydasizligi, halolligi va haromligi, aqlliligi va axmoqliligi kabi xususiyatlari bilan bir biridan farq qiluvchi behisob narsalar, voqealar, hodisa va jarayonlar qurshab turadi. Buni odamlar borliq deb atashadi. Demak, borliq – odamzodni o‘rab turgan barcha narsa,voqea, hodisa va jarayonlarni umumiy tarzda ifodalovchi falsafiy tushuncha hisoblanadi.

Har bir inson o‘zini o‘rab turgan narsa,voqea,hodisa va jarayonlarning boshlang‘ich ibtidosini, ya‘ni aynan nimalardan tashkil topganini,makon va zamonning qaysi nuqtasida joylashganligini,nima hisobidan, qanday tarzda harakatlanishini bilishni istaydi. Bu masalaga turli davrlarda yashagan faylasuflar bir xilda javob berishmagan. Masalan, borliqning mohiyati haqida qadimgi yunon faylasufi *Parmenid* borliq mavjuddir, u mutlaqo harakatsiz, bir tarkibli, o‘zgarmasdir. Borliqdan boshqa hech narsa yo‘qdir, ya‘ni borliq mavjud, yo‘qlik esa mavjud emas. Bo‘lish va bilish – aynan bir narsadir, *Platon* esa borliq – bu haqiqiy, o‘zgarmas, abadiy bo‘lgan g‘oyalar dunyosidan iboratdir. U haqiqiy oliy darajadagi borliq bo‘lib, moddiy dunyoda ko‘plab ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, *Geraklit* bu haqda barqaror, o‘zgarmas borliqning o‘zi yo‘q. Uning mohiyati borliq va yo‘qlikning birgalikda mavjudligida, borliqning yo‘qlik tomon beqaror harakatlanishidadir, degan falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan.

Hozirgi zamon falsafasida ham borliqning mohiyatini tushunish masalasida har xil qarashlar mavjud. Masalan, *ekzistensializm* (lotincha *exsistentia–yashash, mavjudlik*) falsafaning obyektini insonning mavjudligi tashkil etadi, *neotomizm* boshlang‘ich ibtidosi xudo tomonidan yaratilgan, ruhiy-ma‘naviy mazmunga ega bo‘lgan «sof borliq»gina mavjuddir, *neopozitivizm* esa obyektiv borliq tajriba bilan birdir, tajribadan tashqarida obyektiv reallik yo‘qdir, degan falsafiy fikrni asoslashga harakat qilganliklarini ko‘rish mumkin.

Mustaqillik sharofati tufayli shakllanayotgan o‘zbek falsafasida borliqqa nisbatan bo‘lgan munosabat masalasi I.A.Karimovning "...inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma‘naviy xususiyat va alomatlarni

mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish- o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi"[40],– degan fikrlarga asoslangan holda o'z yechimini topmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, borliqning ibtidosini, asosini, manbayini nimalar tashkil qiladi degan savolga javob berish masalasida: *monistik qarash* tarafdorlari moddiylik yoki ma'naviylik; *dualistik pozitsiyadagilar* moddiylik va ma'naviylik; *plyuralistik yondashuv tarafdorlari* juda ko'p xilma xil narsalar tashkil etishini ta'kidlaydilar.

Borliq masalasini o'rganishda klassik(mumtoz) falsafa nisbatan tabiat borlig'ini, uni bilish shakllarini, postklassik (zamonaviy) falsafa esa inson borlig'ini va uning ma'naviy hayot kechirish tarzini falsafaning bosh masalasi sifatida o'rganishga e'tibor qaratganlar.

2. Borliq va yo'qlik. Inson foniy dunyoga keladi va vaqt o'tishi bilan boqiy dunyoga ravona bo'ladi. Shu davr ichida inson yashash uchun kurash olib boradi. Bu kurashda esa dunyo ichki qarama-qarshiliklardan, ziddiyatlardan iborat ekanligini bilib oladilar. Chunki, uning atrofini o'rab turgan borliqdagi narsalar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan va ham o'zgarmasdir. Bu kim uchun borliq, yana kim uchun yo"qlikdir.

Bugungi kunda insoniyat yo «bor bo'lmoqlik (hayot); yoki yo'q bo'lib ketmoqlik (o'lim)» nima degan savolga javob qidirmoqda. Darhaqiqat, yadro falokati, ekologik bo'xronliklar, turli xil bedavo yuqumli kasalliklar (koronovirus pandemiyasi va shu kabilar) Yer sayyorasidagi million yillar bilan hisoblanadigan insoniyat mavjudligining tabiiy vaqtini o'nglab bo'lmaydigan darajada to'xtatib qo'yishi mumkin. Gap «bor bo'lmoqlik» yo «yo'q bo'lmoqlik» haqiqatan ham umumbashariy va mislsiz keskin masala bo'lib qolayotgan ekan, borliq va yo'qlik muammosini anglab olish ayniqsa muhimdir. Bunda uning oddiy hayotiy zaminlaridan tobora murakkabroq falsafiy mulohazalar va xulosalari tomon izchil siljib borish kerak bo'ladi.

---

[40] ***Каримов И.А.*** Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:»Маънавият»,2008. – Б.67.

Odamzod yashayotgan borliq – dunyo hamma vaqtda bo‘lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham bo‘laveradi, U o‘tkinchi emas. Borliqdagi alohida narsa, organizm, kishi, ularning faoliyatlari muvaqqat, o‘tkinchidir.

Borliqning bor yoki yo‘qligi muammosini hal etishda: *birinchidan,* olamning umumiy mohiyatini izohlash; *ikkinchidan*, borliqning tarkibiy tuzilishi, ichki harakatlanish mexanizmlarining xususiyatlarini aniqlash; *uchinchidan,* insonning mavjudligi, uning ichki ruhiy-ma‘naviy dunyosini tahlil qilish kabi yo‘nalishlarda bahs-munozaralar davom etmoqda.

Borliq ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud va kelajakda mavjud bo‘ladigan obyektiv hamda subyektiv reallikni ham o‘ziga qamrab oladi. Ya‘ni tabiat, inson, fikrlar, g‘oyalar, jamiyat hammasi turli shakllarda mavjuddir. Ularning barchasi mavjud bo‘lganligi uchun ham yaxlit yagona borliqni tashkil etadi. Shunday qilib, borliq kategoriyasi umumiylashgan abstraksiya bo‘lib mavjudlik belgisi bo‘yicha turli xil hodisalar, narsalar va jarayonlarni o‘zida birlashtiradi. Tabiatdagi tabiiy obyektlar, ularning xossalari, aloqadorliklari va munosabatlari, kishilar jamoasi va ayrim odamlar, ijtimoiy tashkilotlar, inson ongining holati va boshqalar ham borliq tushunchasiga kiradi.

Borliq nafaqat narsalarni, jismlarni, obyektiv reallikni, balki, ma‘naviy hodisalarni, ruhiyatni, ong va tasavvurni, subyektiv reallikni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, «***Borliq» kategoriyasi***– *bu tabait va jamiyatdagi xilma xil narsa, hodisa va jarayonlarni, alohida shaxs, ijtimoiy guruh va jamoalarni, inson ongining holati, darajasi va shakllarini mavjudlik belgilari asosida ifodalaydigan umumiy falsafiy abstraksiyadir.*

Umuman olganda, borliq falsafadagi eng umumiy tushunchadir. Borliqqa aksil tushuncha sifatida «yo‘qlik» tushunchasini ishlatishadi. *Yo‘qlik hech nimani, ya‘ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.*

Yo‘qlik esa nisbiy mazmundagi tushuncha bo‘lib, qayerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, yo‘qlik deb o‘tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda (ayni shu vaqtda) yo‘qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali yo‘q edi, ammo imkoniyatdagi borliq sifatida mavjud edi. Ertangi hodisa ham hozircha yo‘qlik, ammo imkoniyatdagi borliqdir. Biz o‘tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, kelajakni esa bugungi hodisalardagi o‘zgarish sur’ati va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga yo‘qlikka aylanadi, ko‘pgina tirik jonivorlar ertaga o‘lik bo‘ladi, ya‘ni hayot o‘limga aylanadi. *O‘lim - bu hayotning yo‘qligidir.* Individning

hayotiy borlig'i u o'lgach, yo'qlikka aylanadi. Ammo uning qoldiqlari, tanasi birdan yo'qolmasligi mumkin. Ular ham yo'qolgach, odamlar xotirasida uning siymosi qolishi mumkin. Xullas, mutlaq yo'qlikning o'zi yo'qdir. Yo'qlik shu ma'noda nisbiy mazmun kasb etadi.

Yo'qlikni bilish ma'nosida ham tushunish mumkin. Biz yo'q deb hisoblagan obyektlar hozircha bizning fikr bilish chegarasidan chetda qolgan bo'lishi ham mumkin. Voqeylikning muayyan joyida ma'lum bir sinfga mansub obyektlar, olamning munosabat va aloqadorliklarining uchramasligini ham yo'qlik deyish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yo'qlik tushunchasi narsa va hodisalarning mavjud bo'lmaslik, yo'q bo'lish, haqiqiy bo'lmagan xususiyatlarini bildiradi. *Yo'qlik - bu aslida mavjud bo'lmagan, hali paydo bo'lmagan yoki mavjudligini allaqachon to'xtatgan narsa.* Borliqning namoyon bo'lish shakli bir narsadir, yo'qlik hech narsa emas. *Yo'qlik – bu biron bir subyektning aniq faoliyat ko'rsatishi vaqtida real mavjud bo'lmagan narsalarni ifodalovchi umumiy falsafiy tushunchadir*

3. Substansiya va substrat. Faylasuf olimlar borliqni hodisa sifatida bir necha shakllarga ajratib o'rganishda, uning mazmun-mohiyatiga, ya'ni asosida nima yotadi degan masalaga e'tibor qaratishgan. Shu tariqa falsafada substansiya kategoriyasi shakllangan. *Substansiya (lotincha substantio – mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) – bu muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyatdir.* Demak, substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ma'naviy mohiyat tushunilgan bo'lib, unga qarama-qarshi narsa va hodisalarning o'tkinchi sifatlarini ifodalovchi"aksidensiya" (*lot. atssidentia — o'tkinchi, tasodifiy*) tushunchasi ishlatilgan. Abu Nasr Forobiyning yozishicha:" ...(olamda) substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo'lmagan, araz) hamda substansiya, aksidensiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir.

Aksidensiyani besh sezgi his etadi, ular o'rtasida hech qanday vosita yo'qdir, masalan, ko'rish o'zicha rangni his etadi, shu bilan u oq va qorani bir-biridan farq qiladi; eshitish o'zicha baland hamda past ovozlarning farqini sezadi; ta'm-maza sezgisi turli ta'mlarni qabul qiladi, shirin va achchiq ta'mlarning farqini ajratadi; teri sezgisi predmetlarning holatini sezadi va ularning yumshoq yoki qattiqlik holatini farq qila oladi.

Substansiyani faqat aql qabul qiladi va bunda aksidensiya aql uchun vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aql ranglar ostida shu rangga ega bo'lgan

aqlning boshqa sezgilar bilan munosabati ham shuning kabidir.

Substansiya ba‘zan qizaradi, ba‘zan oqaradi, ba‘zan uzayadi, ba‘zan qisqaradi, ba‘zan ko‘payadi, ba‘zan kamayadi, ba‘zan tug‘iladi, ba‘zan o‘ladi, ba‘zan kasal bo‘ladi, ba‘zan sog‘ayadi - shunday ekan (substansiyaning) bu o‘zga- rishlarini ko‘rsatib bera oladigan ilmga ehtiyoj tug‘iladi. Bu ilm bizga bunday o‘zgarishlarni, ularning qandayligini, omillari va sabablarini ko‘rsatib beradi. Bu ilm yordamida biz agarda istasak zararli natijalarning oldini olamiz yoki zararli natijalarni kuchaytira olamiz. Bu ilm tabiat to‘g‘risidagi, ya‘ni harakat va o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ilmdir.

Uning kelib chiqishini qidiradigan bo‘lsak, biz to‘rt unsur, xususan - olov, havo, suv va tuproq mavjudligini aniqlaymiz. (Bu to‘rt unsur) oy doirasi ostidagi substansiyaning massasini tashkil qiladi; ularning sifatlari to‘rtta, xususan issiq, sovuq, namlik va quruqlik - bular subtansiyaning aksidensiyasini vujudga keltirib, harakat va o‘zgarishni keltirib chiqaradi (ya‘ni, harakat va o‘zgarishda bo‘ladi). Masalan, olma - substansiya bo‘lsa, uning qizilligi esa aksidensiyadir”[41].

Bugungi kunda substansiya masalasi o‘zining xususiyatlarini:” o‘z-o‘zini belgilash (o‘z-o‘zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo‘q qilib bo‘lmaydi); universallik (hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan, barqaror, o‘zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi); kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog‘liqligini o‘z ichiga oladi);yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko‘rsatadi)”[42] shakllarida namoyon qilayotganligi bilan bahs mavzuyi doirasida qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, substansiya kategoriyasi hozir ham birinchidan, barcha mavjud narsalarning birinchi sababi sifatida amal qilishi; ikkinchidan, barcha o‘zgarishlarni belgilovchi o‘zaro ta‘sirning yangi turlarini izlash va maydonning yagona fizik nazariyasini tuzishga yo‘naltirilganligi; uchinchidan, evolyutsion imkoniyatlarini ishga solib, harakatlanayotgan materiya sifatida tushunilishi; to‘rtinchidan, materiya va ongning mutlaqo qarama-qarshiligi to‘g‘risidagi masalaning ijobiy yechimini topish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Olamning tuzilishini tushunish yana bir tushuncha “substrat” kategoriyasi bilan ham bog‘langandir. *Substrat (lotincha substratum—asos, to‘shama, taglik) - bu turli-tuman hodisa va jarayonlarning umumiy*

[41] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди,2016. – Б.269,273.

[42] Шермуҳамедова Н.А. Фалсафа: ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент:» NOSHIR», 2012. – Б.219.

nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo'lgan moddiy yoki g'oyaviy tuzilmalar majmuasi. Har qanday obyektning nimalardan tashkil topganligi, sistemaning asosida shu sistemani tashkil etuvchi asosni axtarish – substratni axtarishdir. Masalan, RNK, DNK va oqsillar biologik organizmlar uchun substrat bo'lsa, EHMlarning asosida axborotlar almashuvi jarayoni substrat bo'lib keladi. Borliqning asosida yotuvchi birlamchi mohiyatni axtarish – substansial yondashuv bo'lsa, har qanday sistemaning, umuman borliqning nimalardan bunyod qilinganligini, tarkib topganligini, tashkil topganligini, "qurilganligini" axtarish substrat yondashuvdir.

Shunday qilib, yaxlit holda butun olamning asosida nima yotadi? Bu savolga javob berishda faylasuflar turli xil konsepsiyalarda fikr yuritishadi. Bu joyda asosan uch xil muhim konsepsiyani ko'rsatish mumkin. Ularga monistik, dualistik va plyuralistik konsepsiyalar kiradi.

Monizm Monizm konsepsiyasi vakillari dunyoning asosida bitta manba (bitta substansiya) yotadi, deb hisoblashadi. Materialistik monizm tarafdorlari bu manba moddiy manbadir deb aytishsa, idealistik monizm tarafdorlari dunyoning asosida bitta g'ovaviy negiz, g'oyaviy, ma'naviy, ilohiy substansiya yotadi deyishadi.

Dualizm. Dualizm vakillarining fikricha, dunyoning asosida ikkita mustaqil negiz: ham moddiy, ham g'oyaviy (ma'naviy, ilohiy) negiz yotadi, deb hisoblashadi.

Plyuralizm. Plyuralizm – vakillarining aytishicha, borliqning asosida ko'plab, bir-biridan mustaqil moddiy va g'oyaviy negizlar yotadi. Ayrim plyuralistlar moddiy negizlarga urg'u berishadi. Ularni materialistik plyuralizm vakillari deyish mumkin. Masalan, qadimgi xitoy, qadimgi hind, qadimgi yunon materialistlari borliq olov, suv, havo va tuproqdan tashkil topgan deyishgan. Boshqa yo'nalishdagi plyuralistlar esa ma'naviy, g'oyaviy substansiyalarga ustuvorlik berishgan (ularni idealistik plyuralizm vakillari deyishadi).

4. Borliq, mavjudlik va reallik. Borliq voqelikning eng umumiy, ichki va tashqi, mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettirsa, ***mavjudlik*** esa voqelikning tashqi, ko'zga tashlanadigan, shakliga aloqador va tajriba vositasida bilib olinadigan tomonini ifodalaydi. Borliq voqelikning chuqur mohiyatini qamrab oladi va aql vositasidagina bilib boriladi. ***Reallik*** esa borliqning muayyan obyektda mavjud bo'lgan mujassamlashgan qismini ifodalaydi. Reallik borliqning ayni paytdagi mavjud qismidir.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. *Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi.* Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi.

5. Borliqning shakllari. *Borliqning shakllari deb borliqning nisbatan turg'un muayyan aloqalari va o'zaro ta'sirlari,uning tuzilishi, strukturasi kabilarning tashkil etuvchilariga aytiladi.* Bular quyidagilardan iborat.

Moddiy va ma'naviy borliq. Bu asosan obyektiv va subyektiv shaklda namoyon bo'ladi. Atrofimizni o'rab turgan dunyo ikki xil obyekt*iv va subyektiv reallik*dan tashkil topgandir. Ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan reallik *obyektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar Materiya tushunchasi bilan aynan bir ma'noda ishlatadi.

Reallikning inson ongi bilan bog'liq bo'lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi subyektiv realhk deyiladi. Obyektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, subyektiv reallik esa borliqning g'oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g'oyaviy shakli moddiy shaklining mahsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g'oyaviylikning ijodi yoki g'oyaviylikning namoyon bo'lish shaklidir deb ta'kidlaydilar.

Aktual va potensial borliq. *Aktual borliq* borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo'lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu obyektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki obyektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan emas. Biz borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz. Bu qismi o'tmishga aylanib, uning o'rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo'ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holidagi qismi *potensial borliq* deyiladi. *Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdir.*

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual *(lotincha virtualis – ehtimol)* borliq deyiladi.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o‘ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. *Virtual - narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o‘laroq, obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi.* «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar.

Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiyadir. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. *Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning ta‘mi va hidini his qilish mumkin emas.* Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. Virtual olam - inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar ma‘naviy aloqasining alohida madaniy shaklidir.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta‘sirida vujudga keluvchi his-tuyg‘ular ko‘p jihatdan uning o‘zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho‘milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo‘luvchi his-tuyg‘ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog‘liq bo‘ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o‘rnini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig‘irig‘idan o‘tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq obyektiv tarzda, ya‘ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo‘ladi. Ayni zamonda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat’i nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta‘sir ko‘rsatadi, mazkur ongning mazmuniga - bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. *Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi.* Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi.

5. Borliqning shakllari. *Borliqning shakllari deb borliqning nisbatan turg'un muayyan aloqalari va o'zaro ta'sirlari,uning tuzilishi, strukturasi kabilarning tashkil etuvchilariga aytiladi.* Bular quyidagilardan iborat.

Moddiy va ma'naviy borliq. Bu asosan obyektiv va subyektiv shaklda namoyon bo'ladi. Atrofimizni o'rab turgan dunyo ikki xil obyekt*iv va subyektiv reallik*dan tashkil topgandir. Ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan reallik *obyektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar Materiya tushunchasi bilan aynan bir ma'noda ishlatadi.

Reallikning inson ongi bilan bog'liq bo'lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi subyektiv reallik deyiladi. Obyektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, subyektiv reallik esa borliqning g'oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g'oyaviy shakli moddiy shaklining mahsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g'oyaviylikning ijodi yoki g'oyaviylikning namoyon bo'lish shaklidir deb ta'kidlaydilar.

Aktual va potensial borliq. *Aktual borliq* borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo'lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu obyektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki obyektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan emas. Biz borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz. Bu qismi o'tmishga aylanib, uning o'rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo'ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holidagi qismi *potensial borliq* deyiladi. *Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdir.*

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual *(lotincha virtualis – ehtimol)* borliq deyiladi.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o‘ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. *Virtual - narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o‘laroq, obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi.* «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar.

Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiyadir. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. *Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning ta‘mi va hidini his qilish mumkin emas.* Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. Virtual olam - inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar ma‘naviy aloqasining alohida madaniy shaklidir.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta‘sirida vujudga keluvchi his-tuyg‘ular ko‘p jihatdan uning o‘zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho‘milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo‘luvchi his-tuyg‘ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog‘liq bo‘ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o‘rnini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig‘irig‘idan o‘tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq obyektiv tarzda, ya‘ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo‘ladi. Ayni zamonda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat’i nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta‘sir ko‘rsatadi, mazkur ongning mazmuniga - bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan

sohada, fanda - fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Tabiiy borliq. Tabiiy borliq deganda odatda atrofimizdagi jismoniy narsalar (jismlar), jarayonlar, tabiatning holatlari nazarda tutiladi. Tabiiy borliq ikki qismga ajraladi. Birinchisi - azaliy tabiiy borliq, ya'ni tabiatning tabiiy borlig'i, u insondan ilgari insonning ishtirokisiz mavjud bo'lgan. Buni birlamchi tabiat deb ham atashadi, bunga tabiatdagi narsa va hodisalarning, jism va jarayonlarning asl tabiiy borlig'i kiradi. Ikkinchisi - inson ishtiroki bilan vujudga kelgan narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlarni o'z ichiga oluvchi hosilaviy tabiiy borliq. Uni ikkilamchi tabiat deb ham atash mumkin.

Birlamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko'rinishini kiritish mumkin:tabiatdagi narsa va hodisalarning, jarayonlarning asl tabiiy borlig'i kiradi.

Ikkilamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko'rinishlarini kiritish mumkin:inson borlig'i;ma'naviy borliq;ijtimoiy borliq, jamiyatning borlig'i.

Inson borlig'i. Inson borlig'i barcha tirik mavjudotlardan o'zining ongi, irodasi, aqli va boshqa insonga xos belgi va xususiyatlari bilan farqlanadigan tirik mavjudotdir. Inson borlig'ini tahlil qilishda insonning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson hamda butun insoniyat borlig'i ko'rinishlarida mavjud bo'lishi jihatidan borlig'ini farqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, inson borlig'ida tabiat va jamiyatdagi hamma narsalar uchun umumiy bo'lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjuddir. Bu jihatdan inson borlig'i o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra eng murakkab borliq shaklidir, u hamma borliq shakllarining ma'lum tomonlarining dialektik birligini namoyon etadi.

Inson borlig'ida, avvalo, insonning tabiat taraqqiyotining mahsuli sifatida tabiiy borliqning har ikki shakliga oid tomonlar bilan birga, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida unda ijtimoiy va ma'naviy borliqning ham barcha shakllariga xos tomonlarning yig'indisi mujassamlangandir. Shuning uchun ham hozirgi kunda insonni – bioijtimoiy mavjudod sifatida ta'riflash va tavsiflash mumkin.

Ma'naviy borliq. Inson dunyoda faqat mavjud bo'lib qolmasdan, balki u o'z-o'zini anglaydi, o'zi yashayotgan dunyoni biladi, va unga ta'sir qiladi. Dunyoni va o'zini o'zlashtirib, o'zgartirib boradi. Ma'naviy ijodiyotda ishtirok etadi. Kishi ongida nafaqat tabiiy narsalar, shu bilan birga, barcha ma'naviy-g'oyaviy narsalar ham uning amaliy va nazariy faoliyatida o'zlashtirilib, haqiqiy o'ziga xos reallikni kasb etadi. Bu o'z tabiatiga ko'ra ma'naviy borliq deyiladi.

Ma'naviy borliq subyektiv individuallashgan va obyektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashgan ma'naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi. U onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh - individual ong bilan bir xil tushuncha, tor ma'noda esa u tafakkurdir. Ong - inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, Shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar, andozalarning ko'rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo'lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. Shaklan bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir zamonda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni zamonda uning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'z tanasi, fikrlari va tuyg'ularini, o'zining boshqa odamlarga munosabatini va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglab yetishi, ya'ni o'zini o'zi bilishdir. *O'zlikni anglash* - bu ongimizning o'ziga xos markazidir. Individual ong o'zining o'limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma'naviy shakl shamoyil kasb etadi, shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi.

Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo'ljallari, maqsadlari, g'oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va zamonda erkin harakatlanadi.

Ijtimoiy borliq. Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning o'z borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar - oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Olamda nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda keng ma'noda «yaxlit dunyo»ni tashkil etadi va uni ba'zan «haqiqiy borliq» deb ham atashadi. Forobiy barcha mavjud narsalarning yig'indisi dunyoni tashkil qiladi, «hamma narsaning umumiy jinsi olamdir» va «olamdan tashqarida hech nima yo'qdir», deb hisoblagan.

4-§. Borliqning asosiy atributlari: materiya, harakat, makon va zamon

1. Materiya tushunchasi. Odamlar o'zlarining hayot faoliyatida dastlab voqelikning moddiylik (modda) ko'rinishiga duch keladilar. Shu

sababli qadimgi davrlardan hozirgi kungacha voqelikning ibtidosini moddiy narsalardan qidirishga urinib kelmoqdalar. Qadimgi davr faylasuflari ana shu jarayonni ifodalash uchun «Materiya» *(lotincha materia – modda;ilk asos;mohiyat)* atamasini ishlatishni afzal ko'rganlar. Shu atama negizida Materiya tushunchasi shakllanib,rivojlanib falsafiy kategoriya maqomini olgan.

Materiya tushunchasi evolyutsiyasining birinchi bosqichi Antik davrda-Materiyani birinchi material(suv,olov,atom va boshqalar) sifatida tushunishni o'z ichiga oladi. Masalan, Fales-suvni; Geraklit – olovni, Demokrit – atomlarni barcha narsalarning birinchi moddiy asosi, deb bilishgan.

Materiya tushunchasi evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi XVII-XVIII asrlarda ijod qilgan metafizik materializm vakillari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular materiyani narsalarda aniqlangan o'zgarmas xususiyatlarning yig'indisi sifatida talqin qilishgan. Masalan, barcha moddiy narsalar alohida modda bo'lib, unga o'lcham, massa, og'irlik kabi xususiyatlar xos. Ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan moddalar moddiy olamning asosini tashkil etadi degan holda,moddiy olamning ibtidosini mexanistik tarzda hal qilishga o'rinishganlar. Bunday qarashning yirik namoyondalari F.Bekon, G.Golbax, D.Didro hisoblanadi. Bu xususida G.Golbax: "Bizning sezgi organlarimizga ta'sir ko'rsatuvchi hamma narsalar bizga nisbatan materiyadir", - degan edi.

Sharq falsafasida materiya dunyoning asosida yotuvchi moddiy sabab, ilohiy sababning hosilasi sifatida qaraladi. Al-Kindiy fikricha Materiya Allohning amri bilan yo'qdan bunyod bo'lgan. Forobiy, Ibn Sino, Tusiy va boshqalar materiyani har doim bo'lgan (dahr - mangu) deb hisoblagan. Islom falsafasida mangulik sifati faqatgina Allohgagina xos sifatdir deb hisoblanadi. Jism, modda o'tkinchidir. Bir payt paydo bo'ladi va boshqa paytda yo'qoladi. Ruh yaratilgan, ammo u abadiy yashaydi deb talqin etiladi. Shu sababli islom falsafasida materiyaning manguligini isbotlashga urinuvchi faylasuflarni dahriylar («dahr» - «mangulik») deb atashgan.

Materiya haqidagi tasavvur rivojining uchinchi bosqichi XX asrda yuz bergan ilm-fandagi keskin o'zgarishlar, ilmiy-texnika inqillobi bilan bog'liq bo'lib,endilikda materiya – obyektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida talqin qilina boshladi. Aniqrog'i, materiya olamdagi *moddiy obyektlarni birlashtiruvchi tushuncha sifatida qo'llanila boshladi.* Bunga sabab 20-asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va relyativistik kosmologiya sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib

yubordi. Natijada tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishning imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqot olib bora boshladilar.

Materiya dunyodagi cheksiz barcha obyekt va sistemalar bo'lib, har qanday xususiyat, aloqa, munosabat va harakat shakllarining substrati (asosi)dir. Materiya tabiatda bevosita ko'z bilan ko'riladigan obyektlar va jismlarnigina emas, balki kuzatish vositalari va eksperimentning takomillashishi asosida kelgusida bilinishi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Materiya o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, har qanday jism molekulalardan, molekulalar atomlardan, atomlar proton va neytronlardan tashkil topgan va h.k. Sifat jihatdan materiya ikki: moddasimon va nomodda ko'rinishida uchraydi. Moddasimon ko'rinishi modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifat o'zgarishi ro'y beradi, ya'ni modda nomoddiy ko'rinishga, nomodda esa moddiy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddiy ko'rinishi ham ikki: maydon va nurlanish shaklida uchraydi. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda moddiy zarralarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Materiyaning yuqorida qayd etilgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum emas.

Materiyaning tuzilishi haqidagi har qanday fizik yondashuvlar uning xususiy jihatini hisobga oladi, bunda butun borliq emas, balki uning ayrim jihatlarinish tahlil qilish nazarda tutiladi. Materiyaning falsafiy talqini butun predmetli borliqni qamrab oladi va umumiylik belgisiga ega. U butun obyektiv borliqni to'liq ifodalaydi. Umumiylik belgisiga suyanuvchi materiyaning falsafiy talqini amalda eskirishi mumkin emas, chunki u insonning tashqi dunyoni aks ettirishga qaratilgan qobiliyatini ifoda etadi. Materiya xossalari, tuzilishi va turlari haqidagi fizik yondashuvlar muqarrar ravishda eskiradi hamda o'zgaradi. Bundan materiya emas, balki materiya haqidagi bilimlarimizning kechagi chegarasi yo'q bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Xo'sh, bu kategoriyaga qaysi metodologik vositalar bilan yondashish kerak uning eng mukammal ta'rifini qanday topish mumkin? Bu savolga berilgan javoblar quyidagilardan iborat.

1. Materiyaning *substansional ta'rifi* uni yaratib ham, yo'q qilib ham bo'lmasligini, uning mavjudligi va o'zgarishining tashqi sabablari mavjud emasligini ko'rsatadi. Ushbu ta'rif materiyaning barcha narsalar substansiyasi deb bilishga asoslanadi.

2.Materiyaning *atributiv ta'rifi* uni biron-bir substrat bilan emas, balki atributlar majmui: makon, zamon, harakat, sifat, miqdor bilan tenglashtiradi.

3. Materiyaning *genetik-kontrast* ta'rifiga ko'ra, uni faqat ongga qarshi qo'yish yo'li bilan ta'riflashga asoslanadi"[43].

Umuman olinganda materiyaning o'zi yo'q, balki dunyoda materiyaning ayrim narsa yoki biror aniq buyum shaklidagi ko'rinishlari uchraydi, xolos. Materiya esa materiyaning hamma aniq ko'rinishlariga xos barcha universal xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchadir. Bu dunyoda «umuman odam» bo'lmasdan, ayrim odamlar uchrashiga o'xshash fikrdir. Umuman odam bu ayrim odamlarga xos umumiy belgilarni aks ettiruvchi abstraksiyadir. Shunga o'xshash materiya tushunchasi ham abstraksiyadir. U mavjud butun obyektiv reallikni qamrab oluvchi falsafiy kategoriyadir. Materiya ongdan mustaqil ravishda va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. Materiyaning falsafiy tushunchasi barcha narsalar voqeligi, moddiy voqelikni o'ziga qamrab oluvchi, yalpi umumiylik (universallik) belgilariga egalik qiluvchi, butun obyektiv reallikni ifodalovchi kategoriyadir.

Materiya to'g'risidagi falsafiy ta'limotning asosiy tomonlari quyidagilardan:

- materiya kategoriyasining universalligini, yalpi umumiyligini;
- materiya kategoriyasining falsafiy abstraksiya ekanligini;
- materiya va moddiy sistemalarning obyektivligini;
- materiyaning rivojlanishini, moddiy sistemalarning evolyutsiyasini;
- materiya va moddiy sistemalarning cheksizligini, bitmas-tuganmasligini tan olishdan iboratdir.

2. Materiyaning tarkibiy tuzilishi. Materiya va moddiy obyektlar xilma-xil ko'rinishlarda va shakllarda uchraydi. Moddiy sistemalar tuzilishga ega, ya'ni u strukturali, turli xil strukturaviy elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Bunday elementlar va ulardan tashkil topgan moddiy obyektlar rivojlanishga egadir.

Materiya va moddiy sistemalar, obyektiv dunyoning tuzilishi xususiyatlariga ko'ra, turli xil strukturaviy darajalardan tashkil topgan bo'ladi. Bunday darajalarni moddiy sistemalarning tashkiliy tuzilishi va miqyosiy tuzilishiga qarab: 1) tashkiliy-struktura darajalari; 2) miqyosiy-struktura darajalariga ajratish mumkin.

3.Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari. Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan

[43] Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти,2012. – Б.218.

uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu darajalar makon-zamon strukturasining sifatiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: noorganik daraja («notirik tabiat»); organik daraja («tirik tabiat») va sotsial daraja («jamiyat») deb ataladi. Sifatiy jihatdan eng quyi darajada uyushgan va eng passiv (inert) daraja noorganik darajadir. Bu darajada atom yadrosi, yadro, atom va molekulalar majmuasi, molekulyar birikmalar, jismlar, yer shari, osmon jismlari, Quyosh sistemasi va boshqa planetar sistemalar, yulduzlar to'pi, Galaktika, metagalaktika va koinotning quyi darajada uyushgan makon-zamon aloqadorliklari namoyon bo'ladi.

Bunga nisbatan uyushganroq va faolroq makon-zamon sistemasi organik daraja deyiladi. Unga organik molekulyar sistemalar, tirik organizmlarning xilma-xil ko'rinishlari, bir hujayrali suv o'tlari va sodda jonivorlardan tortib, murakkab tuzilgan umurtqalilargacha, sodda hayvonlardan to maymunlar va odamlargacha kiradi.

Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi ijtimoiy sistemalar sotsial darajaga mansubdir. Bu darajada ongga, fikrga ega bo'lgan insonlar faoliyat ko'rsatganligi sababli u eng uyushgan va faol daraja hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan tashkiliy-struktura (tuzilish) darajalari bir-biridan moddiy aloqadorliklar sifati va miqdoriga ko'ra, unda yetakchilik qiluvchi harakat shakliga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, noorganik darajada mexanik, fizik, ximiyaviy va geologik harakat shakllari faoliyat ko'rsatsa, organik darajada yuqoridagi harakat shakllariga biologik harakat qo'shiladi va u mazkur darajada yetakchilik qiladi, sotsial darajada yana bir harakat shakli ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib, u ushbu darajada yetakchilik qiladi.

4.Materiyaning miqyosiy-struktura darajalari. Bu moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo deyiladi.

Mikrodunyoda kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sir kuchlari hukmronlik qiladi. Bu kuchlarning ta'sir doirasi atom yadrosi va atom o'lchovi bilan chegaralangandir. Kuchli yadroviy o'zaro ta'sirlar atom yadrosining tarkibiy qismlari bo'lgan proton va neytronlarning yaxlitligini, kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sir kuchlari esa atom strukturasining yaxlitligini ta'minlaydi. Bu kuchlar tufayli mikrodunyo o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlaydi.

Makrodunyoning strukturaviy yaxlitligi esa elektromagnit o'zaro ta'sirlari bilan saqlanadi. Elektromagnit o'zaro ta'sir kuchlari atomlar va

molekulyar brikmalarning, moddiy jismlarning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi. Shu kuch tufayli yerda hayot mavjud, yorug'lik mavjud.

Megadunyo - bu gravitatsion o'zaro ta'sirlar kuchi bilan chegaralangan eng katta moddiy obyekt - koinotdir. Yer shari va uning atrofida Oyning aylanishi, sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishini ta'minlovchi, Galaktikamizning muayyan tuzilishga egaligiga, butun Koinotning makon-zamon strukturasi tartibining mavjudligiga gravitatsion o'zaro ta'sir kuchlari mas'uldir. Bu kuchlar bo'lmaganda edi dunyodagi hozirgi tartib va munosabatlar ham bo'lmagan, mikro, makro va megadunyolar ham shakllanmagan bo'lar edi. Xullas, materiya va moddiy obyektlarning strukturaviy yaxlitlikka ega bo'lishida harakat va makon-zamon shakllarining, ularning asosida yotuvchi o'zaro aloqadorlik kuchlarining roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Hozirgi zamon tabiatshunoslik fanlari olamning tuzilishining o'ta murakkabligini, dunyoning xilma-xilligini ta'kidlash bilan bir qatorda, obyektiv dunyodagi moddiy obyektlarning ham xilma- xilligini, turlicha ko'rinishlarda uchrashini isbotlamoqda.

5. Materiyaning hozirgi kundagi ko'rinishlari. Hozirgi paytda materiyaning moddasimon va nomoddasimon ko'rinishlarining mavjudligi aniqlangan. Obyektiv reallikning butun bizga ko'rinadigan qismidagi Koinot qa'ridan tortib, to mitti elementar zarrachalar va antizarrachalargacha (elektronlar, pozitronlar, protonlar, antiprotonlar, neytronlar va hokazo) Materiyaning moddasimon ko'rinishiga mansubdir.

Elektron va proton modda hisoblansa, pozitron va antiproton antimodda hisoblanadi. Hamma zarrachalar - modda, hamma antizarrachalar - antimoddadir. Materiyaning nomoddasimon ko'rinishiga turli xil fizik maydon va nurlanishlar kiradi. Modda bilan antimodda to'qnashganda Materiyaning annigilyasiya (lot. «annihilatio» - yo'qolishi, hech nimaga aylanishi) hodisasi sodir bo'ladi, ya'ni vateriya moddasimon ko'rinishdan nomodda ko'rinishiga - maydon va nurlanishga aylanadi. Fizik vakuumdagi elektromagnit maydonini muayyan intensivlikdagi nurlanishlar bilan bombardimon qilinganda mazkur vakuumda zarracha va antizarrachalar hosil bo'ladi, ya'ni materiyaning maydon ko'rinishi modda ko'rinishiga aylanadi. Bu hodisalarining mohiyatini mexanistik dunyoqarash asosida izohlashning iloji yo'q, buning uchun yangicha logika va dialektik dunyoqarash lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki:

1.Materiyaga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar jumlasiga strukturaviylik, harakat, makon-fazo, makon-vaqt kiradi.

2. Materiya – modda, maydon, fizik vakuum ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.
3. Universumning atributiv xususiyatlari: tizimli – strukturalik, dinamiklik; makon- -zamonda joylashganlik kabilar bilan ifodalanadi.

Jonsiz tabiatda quyidagilar mavjud:
• fizik vakuum (moddaning maxsus holati sifatida);
• elementar zarralar;
• atomlar;
• molekulalar;
• makrojismlar (har xil agregat holatlarida - qattiq, suyuq, gazsimon);
• sayyoralar;
• yulduzlar;
• galaktikalar (Yer - bu galaktikalardan biri);
• Metagalaktika («Tabiatshunoslar olami», astronomik Olam).

Tirik tabiatda quyidagilar mavjud:
• protoplazma (tirik molekulalar);
• hujayra;
• organizm (individual);
• turlar (populyatsiya);
• biotsenoz (populyasiyalar + atrof-muhit);
• biogeotsenoz (ekotizim tushunchasiga teng).

Biosfera (hayotning global tizimi) doirasida moddiy tizimning o‘ziga xos turi - insoniyat jamiyati shakllanadi, unda maxsus quyi tizimlar ajratiladi:
• odam;
• oila;
• sinflar;
• millat;
• davlat;
• davlatlar tizimi;
• umuman jamiyat.

Tizimlar rivojlanish zinapoyasida qanchalik baland bo‘lsa, ularda o‘z-o‘zini tashkil qilish shunchalik qiyin bo‘ladi va jarayonlarning o‘zi tezlashadi.

Moddiy dunyoni tashkil etishning dinamik tomoni materiyaning eng muhim atributiv xususiyatini,ya‘ni uning o‘zgaruvchanligini ochib beradi.

6. Harakat - borliqning asosiy mavjudlik usuli. Borliqning mavjudligi undagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Agar o‘zgarish bo‘lmasa, borliqning bor yoki yo‘qligi noma‘lumligicha qolardi. Har qanday o‘zgarish – bu harakat mahsulidir. Demak, shunday ekan harakat

nima,degan savol tug‘iladi?

Harakat *(arabcha so‘z bo‘lib,o‘zbek tilida – yurish, qimirlash, tebranish; faoliyat; jarayon degan ma‘noni anglatadi)* deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Kishi va narsalarning yoki ularning qismlarining tinch holatdan chiqishi: qo‘zg‘alishi, qimirlashi va sh.k.; tinch holatga qarama-qarshi holati.
2. Ishni bajarishda faoliyatning holati, bajaruvchining faoliyat tarzi, yo‘sini.
3. Kishi tana a‘zolarining ma‘lum bir ma‘no, mazmunni ifodalovchi harakat-holati.
4. Biror ishga kirishish, biror narsa qilishga urinish; intilish, tirishish.
5. Payida bo‘lish; taraddud.
6. Xatti-harakat; qiliq.
7. Makonda biror yo‘nalish bo‘yicha bo‘ladigan siljish, yurish va boshqalar.
8. O‘sish, rivojlanish.
9. Moddaning yashash usuli, uning umumiy ajralmas xususiyati, moddiy dunyoning o‘zgarishi va rivojlanishining to‘xtovsiz jarayoni.
10. Ma‘lum maqsadga qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; ish, mehnat.
11. Belgili maqsad ko‘zda tutilgan ijtimoiy faoliyat.(Masalan, milliy-ozodlik harakati, ishchilar harakati, tajovuzkorlik harakati.)[44].

Falsafiy ma‘noda harakat – bu obyektiv olamdagi moddiy va ma‘naviy narsalarning o‘zgarishi va boshqa narsaga aylanishini o‘zida ifodalovchi umumiy abstratsiyadir, ya‘ni falsafiy kategoriyadir. Harakat barcha materiya shakllariga xos bo‘lgan umumiy xususiyat bo‘lsada, biroq, ularga mos bo‘lgan nisbiy tinch – harakatsizlik holati ham mavjud bo‘ladi.

Harakatsizlik deganda, odatda harakat qilmaydigan, qimirlamaydigan, qo‘zg‘almas; bir joyda turib qolgan; biror ish qilishga urinmaydigan, tirishmaydigan; faoliyatsiz, sust, harakatsiz odam; foydalanilmay, ishlatilmay yotgan holatda(gi) narsalar tushuniladi. Harakasizlik masalasini chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, uning harakatlanish momenti, materiyani farqlash shartlaridan biri ekanligini ko‘ramiz.

Tinchlik(harakatsizlik) barcha narsalarning nisbiy barqaror ekanligini ifodalaydi. Tinchlik - bu harakatlanish momenti, materiyani farqlash shartidir. Tinchlik nisbiy, harakat mutlaq, u materiyaning ajralmas xususiyatidir. Shuning uchun narsalarning mavjud bo‘lish usuli nafaqat

---

[44] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. – Б. 506-507.

uning harakatlanishi va rivojlanishida, balki harakatlanish, rivojlanish tashkil etadigan tinchlik holatida ham namoyon bo'ladi.

Har qanday (moddiy yoki ma'naviy) obyektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Shu sababli harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir. Falsafiy adabiyotlarda moddiy borliqning quyidagi harakat shakllarini ajratib ko'rsatishadi: 1) moddiy harakatning eng sodda shakli - mexanik harakat (uni moddiy nuqtalarning makondagi siljishi deb ta'riflashadi); 2) fizik harakat (elementar zarrachalar, atom yadrosi va atomning harakatidan tortib, olamning fundamental kuchlari, issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug'likdan tortib koinotning gravitatsiya kuchigacha barchasi shu harakat shakliga mansubdir); 3) kimyoviy harakat (bunga molekulalarning assotsiatsiyasi va dissotsiatsiyasi, ionlar harakati, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, ximiyaviy reaksiyalar, ximiyaviy sintez va parchalanish, yonish va oksidlanish va boshqa ximiyaviy jarayonlar kiradi); 4) biologik harakat (hayotiy jarayonlar); 5) sotsial (yoki ijtimoiy) harakat (jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo'lishi).Bulardan tashqari, inson aql-zakovati hamda axborot jarayonlari bilan bog'liq ideal, g'oyaviy, ma'naviy ko'rinishdagi harakat shakllari ham mavjuddir.

Harakat shakllari haqida zamonaviy g'oyalar:

- mexanik harakat barcha fizik jarayonlarning asosi emas;
- fizik va biologik harakatlarning yangi shakllarini ochish;
- harakatning ijtimoiy shakliga kosmik hodisa sifatida qarash.

O'tgan yuz yil mobaynida fan mikro va mega olamda harakatning ko'p yangi shakllarini kashf etdi: elementar zarralarning harakati va bir holatdan ikkinchi holatga aylanishi, atom yadrolardagi, yulduzlardagi, moddaning o'ta zich holatlaridagi jarayonlar, Metagalaktikaning kengayishi va hokazo.

Hozirgi vaqtda harakatning asosiy shakllaridan avvalo shundaylarini ajratib ko'rsatish mumkinki, bu shakllar materiyaning ma'lum bo'lgan barcha makoni miqyoslarida va struktur darajalarida yuz beradi. Bu shakllarga quyidagilar kiradi: 1) makonda o'rin almashtirish — atomlar, molekulalar, makroskopik va kosmik jismlarning mexanik harakati; elektromagnit va gravitatsion to'lqinlarning tarqalishi (tra- ektoriyasiz tarqalishi); elementar zarralarning harakati; 2) elektromagnit o'zaro ta'sir; 3) gravitatsion o'zaro ta'sir (tortilish).

So'ngra harakat shakllarining shundaylarini ajratib ko'rsatmoq zarurki, bu shakllar jonsiz tabiatda, tirik tabiatda va jamiyatda, muayyan struktur darajalardagina yuz beradi.

Jonsiz tabiatda bu avvalo elementar zarralar va atom yadrolarning

o‘zaro ta‘siri va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishidan iborat. Y
energiyasining hamma turlari ayni harakat shaklining xususiy zuhu
sifatida yuz beradi. Molekulalardagi atomlar o‘rtasida aloqalarning q
taqsimlanishi, molekulalar strukturasining o‘zgarishi natijasida bir
moddalar ikkinchi xil moddalarga aylanadi, Bu jarayon harakatning xi
formasini tashkil etadi.

Makroskopik jismlarning harakat shakllarini: issiqlik, kristallas
protsesslari, agregat holatlarning o‘zgarishlarini, qattiq jismlarc
suyuqliklardagi, gazlardagi va plazmadagi struktur o‘zgarishlarni ko‘rs
o‘tmoq kerak. Harakatning geologik formasi katta temperatura va bosi
sharoitida turli xildagi minerallar, rudalar va boshqa moddalarning tas
topishi bilan bog‘lik bo‘lgan fizik-ximik jarayonlar majmuasini o‘z ic
oladi. Yulduzlarda o‘z-o‘zini quvvatlovchi termoyadro reaksiyalari, xi
elementlarning tuzilishi (ayniqsa yangi va o‘ta yangi yulduzlar chaq
ketgan choqda) kabi harakat shakllari yuz beradi. Kosmik obyektlar
xususan kattaroq massalari va zichliklarida gravi- tatsion kollaps
sistemaning o‘ta zich holatga o‘tishi tipidagi protsesslarning bo‘
mumkin, bunday vaqtda sistemaning tortilish maydoni endi modda
zarralarini va elektromagnit nurlanishni («qora teshiklar») deb atalu
narsalarni sirtga chiqarmaydi. Megaolam miqyoslarida
Metagalaktikaning ulkan darajada kengayishining guvohimiz,
kengayish, aftidan, mazkur gigant moddiy sistema harakat shakli
ayrim bosqichi bo‘lsa kerak. Materiyaning har bir struktur daraja
harakatning formalari va tegishli moddiy sistemalarning amal qilishi
o‘z shakllari yuzaga chiqadi.

Jonli tabiatda harakat shakllari ham tirik organizmlarning ich
ham ustorganizm sistemalarida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘z ic
oladi. Tana tirikligi – oqsil jismlar bilan nuklein kislotalarning mavju
usulidan iborat bo‘lib, organizm bilan atrof muhit o‘rtasida uzlu
moddalar almashinuvi, organizmlarning o‘z-o‘zini saqlashga va ta
hosil qilishiga qaratilgan in’ikos va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlar
usulning mazmunini tashkil etadi.

Barcha tirik organizmlar ochiq sistemalardan iborat. Jonli organizm a
muhit bilan doimo modda va energiya almashinib, o‘z struksiya
funksiyalarini uzluksiz ravishda qayta bunyod qiladi, ularning ni
barqarorligini saqlab boradi. Moddalar almashinuvi to‘qimalar huj
tarkibining doimiy ravishda o‘z-o‘zini yangilashiga olib keladi.

Yer yuzida materiyaning rivojlanishining oliy bosqichi – inson
jamiyati va unga xos bo‘lgan ijtimoiy harakat shakllaridir. Bu har
shakllari jamiyat taraqqiy qilib borishi bilan uzlu

murakkablashaveradi. Bu shakllar kishilarning ma‘lum maqsadga qaratilgan faoliyatining hamma xildagi ko‘rinishlarini, barcha ijtimoiy o‘zgarishlarni hamda insondan tortib to davlatgacha va umuman jamiyatgacha turli ijtimoiy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir turlarini o‘z ichiga oladi. Voqelikning tafakkurda aks etish jarayonlari ham harakatning ijtimoiy shakllarining yuz berishiga xizmat qiladi, bu jarayonlar barcha fizik-ximik va biologik harakat shakllarining inson miyasidagi sinteziga asoslanadi.

Amaliyot uchun harakat shakllarni tanlash quyidagi bir qator omillarni:

•o‘zgarishlarning moddiy tashuvchisi;

• harakatning turli xil ko‘rinishlari o‘rtasida genetik aloqani o‘rnatishga imkon beradigan o‘zgarishlarning umumiy xususiyatlarining namoyon bo‘lishini;

• moddiy olamning ma‘lum darajadagi tarkibiy tashkil etish darajasiga tegishli o‘zgaruvchan tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Materiya harakatining hamma shakllari o‘rtasida mahkam o‘zaro aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlik avvalo materiyaning tarixiy rivojlanishida va harakatning nisbatan quyi shakllari asosida yuqori shakllarining paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Harakatning yuqori shakllari nisbatan quyi formalarini o‘zida sintezlashtiradi. Chunonchi, inson organizmi o‘zida chambarchas birlikda bo‘lgan fizik-ximik va biologik harakat shakllarining o‘zaro ta‘siri asosida yashaydi va ayni vaqtda inson shaxs sifatida harakatning ijtimoiy aqllarini yaratuvchi sifatida o‘zini ko‘rsatadi.

Harakat shakllarning o‘zaro munosabatini o‘rganganda yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo‘yishdan ham, pala-partish ravishda yuqori shakllarni quyi shakllardan iborat qilib qo‘yishdan ham saqlanish muhimdir. Yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo‘yganda ularning kelib chiqishini va strukturaviy xususiyatlarini izohlab bo‘lmaydi, Harakatning yuqori shakllarining sifat jihatdan o‘ziga xos xususiyatini mensimaslik va ularni qo‘pol ravishda quyi shakllardan iborat qilib qo‘yish mexanitsizmga va nojoiz siyqalashtirishga olib boradi.

Harakat shakllarining o‘zaro munosabatini bilish olamning moddiy birligini, materiyaning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish uchun katta metodologik ahamiyatga egadir. Materiyani bilish jarayoni ko‘p jihatdan uning harakat shakllarini tadqiq qilish bilan mos bo‘lib tushadi, binobarin, agar biz harakatni batamom bilib olganimizda edi u vaqtda biz materiyani ham uning hamma ko‘rinishlari bilan bilib olgan bo‘lur edik. Lekin bu jarayon cheksiz nihoyasizdir.

o‘zaro ta‘siri va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishidan iborat. Yadro energiyasining hamma turlari ayni harakat shaklining xususiy zuhuroti sifatida yuz beradi. Molekulalardagi atomlar o‘rtasida aloqalarning qayta taqsimlanishi, molekulalar strukturasining o‘zgarishi natijasida bir xil moddalar ikkinchi xil moddalarga aylanadi, Bu jarayon harakatning ximik formasini tashkil etadi.

Makroskopik jismlarning harakat shakllarini: issiqlik, kristallashuv protsesslari, agregat holatlarning o‘zgarishlarini, qattiq jismlardagi, suyuqliklardagi, gazlardagi va plazmadagi struktur o‘zgarishlarni ko‘rsatib o‘tmoq kerak. Harakatning geologik formasi katta temperatura va bosimlar sharoitida turli xildagi minerallar, rudalar va boshqa moddalarning tashkil topishi bilan bog‘lik bo‘lgan fizik-ximik jarayonlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Yulduzlarda o‘z-o‘zini quvvatlovchi termoyadro reaksiyalari, ximik elementlarning tuzilishi (ayniqsa yangi va o‘ta yangi yulduzlar chaqnab ketgan choqda) kabi harakat shakllari yuz beradi. Kosmik obyektlarning xususan kattaroq massalari va zichliklarida gravi- tatsion kollaps va sistemaning o‘ta zich holatga o‘tishi tipidagi protsesslarning bo‘lishi mumkin, bunday vaqtda sistemaning tortilish maydoni endi moddaning zarralarini va elektromagnit nurlanishni («qora teshiklar») deb ataluvchi narsalarni sirtga chiqarmaydi. Megaolam miqyoslarida biz Metagalaktikaning ulkan darajada kengayishining guvohimiz, bu kengayish, aftidan, mazkur gigant moddiy sistema harakat shaklining ayrim bosqichi bo‘lsa kerak. Materiyaning har bir struktur darajasida harakatning formalari va tegishli moddiy sistemalarning amal qilishining o‘z shakllari yuzaga chiqadi.

Jonli tabiatda harakat shakllari ham tirik organizmlarning ichida, ham ustorganizm sistemalarida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Tana tirikligi – oqsil jismlar bilan nuklein kislotalarning mavjudlik usulidan iborat bo‘lib, organizm bilan atrof muhit o‘rtasida uzluksiz moddalar almashinuvi, organizmlarning o‘z-o‘zini saqlashga va takror hosil qilishiga qaratilgan in’ikos va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlari bu usulning mazmunini tashkil etadi.

Barcha tirik organizmlar ochiq sistemalardan iborat. Jonli organizm atrof muhit bilan doimo modda va energiya almashinib, o‘z struksiya va funksiyalarini uzluksiz ravishda qayta bunyod qiladi, ularning nisbiy barqarorligini saqlab boradi. Moddalar almashinuvi to‘qimalar hujayra tarkibining doimiy ravishda o‘z-o‘zini yangilashiga olib keladi.

Yer yuzida materiyaning rivojlanishining oliy bosqichi – insoniyat jamiyati va unga xos bo‘lgan ijtimoiy harakat shakllaridir. Bu harakat shakllari jamiyat taraqqiy qilib borishi bilan uzluksiz

murakkablashaveradi. Bu shakllar kishilarning ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatining hamma xildagi ko'rinishlarini, barcha ijtimoiy o'zgarishlarni hamda insondan tortib to davlatgacha va umuman jamiyatgacha turli ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir turlarini o'z ichiga oladi. Voqelikning tafakkurda aks etish jarayonlari ham harakatning ijtimoiy shakllarining yuz berishiga xizmat qiladi, bu jarayonlar barcha fizik-ximik va biologik harakat shakllarining inson miyasidagi sinteziga asoslanadi.

Amaliyot uchun harakat shakllarni tanlash quyidagi bir qator omillarni:

•o'zgarishlarning moddiy tashuvchisi;

• harakatning turli xil ko'rinishlari o'rtasida genetik aloqani o'rnatishga imkon beradigan o'zgarishlarning umumiy xususiyatlarining namoyon bo'lishini;

• moddiy olamning ma'lum darajadagi tarkibiy tashkil etish darajasiga tegishli o'zgaruvchan tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Materiya harakatining hamma shakllari o'rtasida mahkam o'zaro aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlik avvalo materiyaning tarixiy rivojlanishida va harakatning nisbatan quyi shakllari asosida yuqori shakllarining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Harakatning yuqori shakllari nisbatan quyi formalarini o'zida sintezlashtiradi. Chunonchi, inson organizmi o'zida chambarchas birlikda bo'lgan fizik-ximik va biologik harakat shakllarining o'zaro ta'siri asosida yashaydi va ayni vaqtda inson shaxs sifatida harakatning ijtimoiy aqllarini yaratuvchi sifatida o'zini ko'rsatadi.

Harakat shakllarning o'zaro munosabatini o'rganganda yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo'yishdan ham, pala-partish ravishda yuqori shakllarni quyi shakllardan iborat qilib qo'yishdan ham saqlanish muhimdir. Yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo'yganda ularning kelib chiqishini va strukturaviy xususiyatlarini izohlab bo'lmaydi, Harakatning yuqori shakllarining sifat jihatdan o'ziga xos xususiyatini mensimaslik va ularni qo'pol ravishda quyi shakllardan iborat qilib qo'yish mexanitsizmga va nojoiz siyqalashtirishga olib boradi.

Harakat shakllarining o'zaro munosabatini bilish olamning moddiy birligini, materiyaning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish uchun katta metodologik ahamiyatga egadir. Materiyani bilish jarayoni ko'p jihatdan uning harakat shakllarini tadqiq qilish bilan mos bo'lib tushadi, binobarin, agar biz harakatni batamom bilib olganimizda edi u vaqtda biz materiyani ham uning hamma ko'rinishlari bilan bilib olgan bo'lur edik. Lekin bu jarayon cheksiz nihoyasizdir.

7.Makon va zamon. Tevarak-atrofimizdagi predmetlarning hammasi muayyan hajmlarga, turli yo‘nalishlardagi ko‘lamga egadir, ular bir- biriga nisbatan o‘rin almashtirib turadilar. Xuddi shuningdek barcha obyektlar muayyan vaqt oralig‘ida paydo bo‘lib, o‘zgarib turadilar. Demak,ular muayyan vaqt oralig‘ida biron bir makonda ketma-ket joylashgan bo‘ladi. Makon va zamon barcha moddiy tizimlar va jarayonlar borlig‘ining umumiy shakllaridir. Makon va zamondan tashqarida turuvchi obyekt yo‘q, shuningdek harakat qiluvchi materiyadan tashqarida, o‘z-o‘zicha bo‘ladigan makon va zamon ham yo‘q.

Zamon - vaqt. Vaqt borliqning asosiy yashash shakllaridan biri bo‘lib, hodisalarning ketma-ket ro‘y berishi va izchilligi tartibini, davomiyligini ifodalaydi. Vaqt tushunchasi forsiy til ta‘sirida yozilgan falsafiy adabiyotlarda zamon deb ham atalgan. Vaqtning asosiy xususiyatlariga davomiylik, bir jinslilik, anizotroplik (bir xil bo‘lmagan yo‘nalish), bir o‘lchamlilik, orqaga qaytmaslik, kompaktlilik, chiziqli tartiblanganlik kabilar kiradi. Biror obyektdagi vaqtning o‘tishi shu obyektning harakatlanish tezligiga hamda obyektni tashkil etuvchi moddalar zichligiga bog‘liq. Obyekt qanchalik katta tezlikda harakatlansa, unda vaqtning o‘tishi nisbatan tinch turgan obyektlarga qaraganda shunchalik sekin kechadi. Obyektni tashkil etuvchi modda zichligi ham qanchalik katta bo‘lsa, unda vaqt shu qadar sekin o‘tadi. Bu munosabat xususiy va umumiy nisbiylik nazariyasi xulosalaridan kelib chiqadi.

Falsafada vaqtning mohiyatiga ikki xil yondashish va unga nisbatan ikki xil konsepsiya mavjud. Ular: substansional va relyasion yondashish, dinamik va statik konsepsiyalardir. Substansional yondashish zamirida vaqtni alohida substansiya, deb qarash yotadi. Bu yondashish bo‘yicha vaqt azaliy va mustaqil substansiya, unda hodisalar bo‘lib o‘tadi. Relyasion yondashuv bo‘yicha vaqt jarayonlar o‘lchovi, uni jarayondan ajratib bo‘lmaydi. Dinamik konsepsiya bo‘yicha hodisalar birin-ketin, dinamik ketma-ketlikda ro‘y beradi. Vaqtning faqat hozirgi zamoni mavjud. O‘tmish bo‘lib o‘tgan, kelajak esa hali bo‘lmagan. Statik konsepiiya bo‘yicha vaqtning barcha lahzalari mavjuddir. Biz unda o‘tmish yoki kelajakka qarab siljiymiz. Hodisalar ilgari yoki keyin ro‘y bergani bilangina bir-biridan farq qiladi. Masalan, ota o‘g‘ildan ilgari tug‘ilgan. Nevara o‘g‘ildan keyin tug‘ilgan va h.k. Vaqt turli tizimlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Shu sababli fizikaviy, kimyoviy, biologik, geologik, psixologik va ijtimoiy vaqtlarni bir-biridan farqlash lozim[45].

[45] Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2010. – Б.61-62.

Makon-fazo. Makon va zamonning xossalaridan materiyaning hamma ma'lum struktur darajalarida namoyon bo'ladigan yalpi umumiy xossalarni, xususiy xossalarni, shuningdek materiyaning faqat ba'zi holatlariga va hatto ayrim obyektlarga xos bo'lgan maxsus xossalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Yalpi umumiy xossalar materiyaning boshqa atributlari bilan va uning bor- lig'ining dialektik qonunlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu xossalar filosofiya uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Materiya makonining *yalpi umumiy xossalariga avvalo ko'lam kiradi;* ko'lam turli elementlarning (bo'laklar, hajmlarning) yonma-yon joylashuvini, biron muayyan elementga kelasi element kelib qo'shilishi yoki elementlar soni kamayishi mumkinligini bildiradi. Ko'lamsiz makon uning elementlarining miqdor o'zgarishi mumkinligini, shuningdek moddiy tuzilmalarning strukturaviyligini istisno qilgan bo'lur edi. Xuddi moddiy sistemalarda birgalikda yashovchi va bir-biriga ta'sir ko'rsatib turuvchi elementlar borligi tufayli, bunday sistemalarning ichki makoni ko'lamlidir. Shunday qilib, ko'lam sistemalarning strukturligi bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Makonning yalpi umumiy xossalariga zamon va materiya harakati bilan chambarchas bog'liqligi, moddiy sistemalardagi strukturaviy munosabatlarga qaramligi kiradi.

Makonga (aniqrog'i, materiyaning makoniy xossalariga) *uzluklik bilan uzluksizlikning birligi xosdir.* Uzluklik nisbiy bo'lib, moddiy obyektlar va sistemalarning alohida-alohida mavjudligida namoyon bo'ladi, bu obyekt esa sistemalardan har biri muayyan hajmlarga va chegaralarga egadir. Ammo moddiy maydonlar (elektromagnit, gravitatsion va boshqa maydonlar) barcha sistemalar makonida uzluksiz ravishda taqsimlangandir. Makonning uzluksizligi jismlarning makonda o'rin almashtirishida ham namoyon bo'ladi. Muayyan o'ringa qarab harakat qilayotgan jism elementlar o'rtasidagi uzunlikning butun benihoya izchilligidan o'tadi. Shu bilan makon bog'lanishga ega bo'ladi va unda «uzilish» bo'lmaydi.

Makonga uch o'lchovlilik xos bo'lib, bu sistemalarning strukturaviyligi va ularning harakati bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shunday bir moddiy obyektni tasavvur qilaylikki, uning hajmlarini e'tiborga olmaslik mumkin bo'lsin (moddiy nuqta). Bunday obyektning harakati chiziqni – bir o'lchovli ko'lamni beradi. Chiziqning perpendikulyar yo'nalishda siljishi tekislikni – ikki o'lchovli ko'lamni beradi. Tekislikning siljishi hajmni – uch o'lchovli ko'lamni beradi. Agarda biz hajmni har qanday usul bilan nariga siljita bersak, u

o‘lchovlarning bundan ortiq sonlaridan makonga o‘tmaydi. Uch o‘lchov zarur bo‘lgan va kifoya qiladigan minimumdir, moddiy obyektlarning hamma harakatlari va o‘zaro ta‘sirlari shu minimumda amalga oshadi.

Nisbiylik nazariyasida to‘rt o‘lchovli kontinuum tushunchasi ifodalanadi. Lekin bunda to‘rtinchi o‘lchov sifatida zamon qo‘shiladi, makonniig o‘zi esa uch o‘lchovli hisoblanadi.

Makonning ko‘lami bilan metrik munosabatlar mahkam bog‘liq bo‘lib, bu munosabatlar makoniy elementlarning aloqasi strukturasini, bu aloqalarning tartibini va miqdoriy qonunlarini ifodalaydi. Tekislikdagi, sferadagi, psevdosferadagi (grammofon karnayini eslatadigan figuradagi) va boshqa sirtlardagi metrik munosabatlar geometriyaning turli tiplarida – evklid va noevklid geometriyalar (Lobachevskiy, Riman)da aks ettiriladi. Makonda muayyan metrik xossalarning mavjudligi, uning yalpi umumiy xarakteristikalari sirasiga taalluqlidir.

Zamonning yalpi umumiy xossalaridan (aniqrog‘i, moddiy sistemalardagi zamonaviy munosabatlardan) uning materiyaning makoni va harakati bilan chambarchas aloqasini, moddiy sistemalardagi uzunlik, assimetriya, qaytarilmaslik, notsikllik, uzluklik bilan uzluksizlikning birligi, bog‘langanlik, struktur munosabatlarga qaramlikni qayd qilib o‘tmoq kerak:

Uzunlik moddiy obyektlar mavjudligining izchilligi sifatida, nisbatan barqaror shaklda ularning saqlanishi sifatida yuzaga keladi. Davomiylik har qanday jarayonlarning o‘zgarish tezligi nihoyaliligi tufayli zamonning bir momenti ketidan ikkinchisi paydo bo‘lish yo‘li bilan tashkil topadi. U makonning ko‘lamiga o‘xshash bo‘lib, materiya va harakatning saqlanish natijasidir. Bu saqlanish zamonniig bog‘langan bo‘lishiga, unda uzilishlarning yo‘qligiga, umumiy va mutlaq uzluksizlikka ham sabab bo‘ladi. Uzluklik faqat materiyaning konkret sifat holatlarining mavjudligi zamonini xarakterlaydiki, bu holatlardan har biri paydo bo‘lib va g‘oyib bo‘lib, boshqa shakllarga o‘tib turadi. Lekin ularning tarkibidagi materiya elementlari (masalan, elementar zarralar) bunda paydo bo‘lmasdan va yo‘q bo‘lmasdan, faqat aloqa shakllarini o‘zgartib, turli jismlarni tashkil etishi mumkin. Ana shu ma‘noda materiyaning mavjudlik zamonining uzlukligi nisbiy bo‘lib, uzluksizlik esa mutlaqdir. Materiyaning va uning eng muhim xossalarining saqlanish qonunlari bu faktning ifodasidir.

Zamonning assimetriyasi yoki bir yo‘nalishligi uning faqat o‘tmishdan kelajakka qarab o‘zgarishini, bu o‘zgarishning orqaga qaytmasligini bildiradi. Makonda har qanday yo‘nalishlarda harakat qilish mumkin. Zamonda esa o‘tmishiga qarab harakat qilish mumkin emas, har qanday o‘zgarish shu tariqa sodir bo‘ladiki, zamonning kelgusi, bo‘lg‘usi

momentlari kela beradi. O‘zgarishning o‘tilgan holatlarini yoki davrlarini (sikllarini) mutlaq ravishda to‘la takrorlash ham mumkin emas. Har qanday davriylik nisbiy bo‘lib, jarayonlarning ko‘proq yoki ozroq takrorlanishini ifodalaydi. Davrlarning(sikllarning) har birida hamisha qandaydir yangilik bo‘ladi, shunga ko‘ra zamon hamisha qaytarilmasdir. Zamonning bu qaytarilmasligi sabab-oqibat munosabatlarining assimetriyasi bilan, materiyaning rivojlantsh protsessining umumiy qaytarilmasligi bilan belgilanadiki, bu protsessda hamisha yangi imkoniyatlar, sifat holatlari va o‘zgarish tendensiyalari paydo bo‘lib turadi. So‘nggi yillar mobaynida fanning rivojlanishi makon va zamon xossalarining moddiy protsesslar bilan aloqadorligini yangidan oydinlashtirib berdi. Nisbiylik nazariyasi isbot qilib berdiki, jismlar harakatining tezligi oshib borishi bilan ularning harakat yo‘nalishidagi hajmlari nisbatan kamayadi, ularda barcha protsesslarning (nisbiy osoyishtalik holatidagi protsesslarga qiyosan) sekinlashuvi sodir bo‘ladi. Moddalarning ko‘p to‘planishlari natijasida vujudga keladigan juda kuchli gravitatsion maydonlarning ta‘siri ostida ham protsesslarning sekinlashuvi yuz beradi. Buning natijasida oq karliklar va kvazarlar chiqaradigan nurlanishning spektral chiziqlari spektrning qizil tomoniga siljigan bo‘lib chiqadi.

Tortilish maydonlarining ta‘siri ostida o‘ziga xos ravishda «fazoning egrilanishi» sodir bo‘ladi, bu esa gravitatsion maydonlardagi yorug‘lik nurlarining egrilanish effektlarida yuz beradi. Sistemaning massasi va zichligi agar yetarli darajada katta qimmatlarga erishsa, u vaqtda uning fazosining metrikasi shu qadar kuchli o‘zgaradiki, yorug‘lik nurlari yaqin atrofda yopiq chiziqlar bo‘ylab siljiy boshlaydi, Masalan, agar Quyoshimizning butun massasi 2,5 km. diametrli sharda markazlashgan bo‘lganda, shunday effekt bo‘lgan bo‘lardi.

So‘nggi yillarda Galaktikada gravitatsion kollaps (moddaning halokatli ravishda tez qisilishi) natijasida paydo bo‘lgan shu xildagi obyektlar topildi. Avvalida, bu obyektlarni (nazariyada bashorat qilingan va «tetiklar» deb atalgan obyektlarni) nurlanish chiqarmaganligi sababli, mutlaq yopiq, deb faraz qilgan edilar. Lekin so‘ngra ravshan bo‘ldiki, ular statik gravitatsion maydonni vujudga keltirar va tevarak-atrofdagi fazodan yulduzlararo changni va gazni yutib turar ekan. Muayyan o‘tkazgich obyekt ustiga tushganda moddaning zarralari doimo o‘zaro to‘qnashadi, buning natijasida juda kuchli rentgen nurlanishi paydo bo‘ladiki, bu nurlanishni yerdagi asboblar qayd qilgan edi. Bu hol yana bir marta isbot qildiki, fazoda mutlaq yopiq sistemalarning mavjudligi haqida so‘zlash uchun hech qanday asos yo‘q. Har holda bunday sistemalar boshqa

jismlarga nisbatan o‘zining mavjudligini ko‘rsatmagan bo‘lar edi va biz ular haqida hech qanday informatsiyaga ega bo‘lolmas edik. Lekin u vaqtda ularning mavjudligini tasdiqlash uchun hech qanday asos qolmas edi.

Makon va zamonning yalpi umumiy xususiyatlari sirasiga ularning benihoyaligi ham kiradi. Materiya mutlaq bo‘lganligi, uni yaratib ham, yo‘q qilib ham bo‘lmasligi sababli u abadiy mavjuddir, bu abadiylik esa zamonning har qanday intervallarining (yillar, ming yillar va hokazo) benihoyaligidan boshqa narsa emasdir.

Zamonning benihoyaligini, ayni bir xildagi shakllarda va holatlarda cheksiz ravishda bir zaylda mavjud bo‘lishi, deb tushunish yaramaydi. Materiya aslo so‘nmaydigan o‘z-o‘zidan rivojlanish holatida hamma vaqt bo‘lib keldi va bundan buyog‘iga ham bo‘laveradi; materiyaning o‘z-o‘zidan rivojlanishi sifat jihatdan yangi shakllar, holatlar, tendensiyalarning va o‘zgarish qonunlarining benihoya paydo bo‘lib turishini o‘z ichiga oladi. Zamonning benihoyaligi faqat miqdor aspektiga (cheklanmagan uzunlikka) emas, balki sifat aspektiga ham egadir, bu aspekt materiyaning tarixiy rivojlanishi va umumiy strukturaviy bitmas-tuganmasligi bilan bog‘liqdir.

Materiya o‘zining borliq makoniy shakllarida ham benihoyadir. Kosmologiyaning nazariy prinsiplaridan va hozirgi zamon kuzatish ma‘lumotlaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, koinotning bizni bevosita qurshab turgan sohasining fazosi egrilikka ega bo‘lib, berk emasdir (moddaning o‘rtacha zichligi taxminan 1031 g/sm 3 ni tashkil etadi). Barcha galaktikalarning spektral chiziqlari spektrning qizil taxmoniga siljiganidir, bu esa ularning o‘zaro bir-biridan uzoqlashganligidan dalolat beradi. Uzoqlashish tezligi masofa bilan oshib boradi va eng uzoq kuzatiluvchi obyektlarda yorug‘lik tezligning yarmiga borib yetadi.

Ayni kengayish lokal protsessdir va Koinotda bizning Metagalaktikamizdan tashqari son-sanoqsiz ko‘p kosmik sistemlar mavjuddir, bu sistemalar eng turli strukturaviy tuzilish shakllariga va makoniy-zamoniy xossalarga egadir, deb hisoblash uchun asos bor. Makonning benihoyaligi ham o‘zining sifat aspektlariga egadir va bu aspektlar materiyaning struktura jihatdan bir emasligi bilan bog‘liqdir.

Moddiy olamni bilish protsessi jismlarning makoniy-zamoniy xossalarini va munosabatlarini tadqiq etishni muhim tarkibiy qism sifatida o‘z ichiga oladi. Makon va zamonning qarab chiqilgan umumiy xossalari bilan bir qatorda ularning xususiy xossalarini bilish ham birinchi darajali ahamiyatga egadir. Xususiy xossalar sirasiga moddiy sistemalarning konkret makoniy shakllari va hajmlari, erdagi vaqt birliklarida ularning

mavjudligining qancha davom etishi, sistemalardagi protsesslarning ritmi, metrik xossalar, sistema strukturasida simmetriya yoki assimetriyaning mavjudligi, konsimonlik munosabatlari va hokazolar kiradi. Bu xossalarning hammasi materiya harakatining va o‘zaro ta‘sirining hosilalaridir.

Makoniy-zamoniy munosabatlarni tadqiq qilish biron-bir shaklda deyarli hamma fanlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Chunonchi, biologiyada tirik organizmlarning turli kichik sistemalaridagi ritmlar («biologik soatlar»), tirik modda molekulalarining makoniy strukturasidagi asimmetriya muammolarini birinchi o‘ringa surilmoqda.

Ijtimoiy hayotda biz taraqqiyot sur’atlarining tezlashuvini kuzatmoqdamiz, fizik vaqtning ayni bir birligiga hozir innovatsion kashfiyotlarining, ijtimoiy o‘zgarishlarning tobora ko‘proq miqdori joylashmoqda.Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlarni butun mamlakat bo‘ylab qisqa vaqt ichida amalga oshirish borasida olib borilayotgan ishlar makoniy-zamoniy tasavvurlarimizning o‘zgarishiga, ya‘ni yangicha dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida, shuni ta‘kidlash joizki, hozirgi kunda fazo va vaqtning klassik bo‘lmagan tushunchalarini:

• jismlarning fazoviy va vaqtinchalik xususiyatlari ularning harakatlanish tezligiga bog‘liq (tezlik qancha yuqori bo‘lsa, vaqt shunchalik qisqaroq va sekinroq oqadi, masalan, «egizaklar misoli»);

• makon va vaqt bir-biriga bog‘liq bo‘lib, ajralmas birlikni tashkil etadi - 4 o‘lchovli makon-vaqt davomiyligi;

• makon va vaqtning xossalari moddaning tarqalishi va zichligiga bog‘liq: katta massaga ega jismlar yaqinida bo‘shliq «egri» va vaqt sekinroq oqadi, degan ilmiy-amaliy jihatdan isbotlangan falsafiy fikrlar tashkil qiladi.

Kosmologiyada koinotning modellari:

• Eynshteynning statik olam modeli: olam vaqt jihatidan cheksiz, ammo fazoda cheklangan;

• Fridmanning statsionar bo‘lmagan Koinot modeli: olam vaqt ichida ham, kosmosda ham o‘zgaradi, u ma‘lum bir intervalda pulsatsiyalanadi, keyin qisqaradi, keyin kengayadi, hozirgi paytda koinot kengayish holatida,degan xulosalari bilan tavsiflanadi.

Makon va vaqt shakllarining sifatli xilma-xilligi:

• jonsiz tabiatdagi makon va vaqt;

• biologik makon va biologik vaqt;

• ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt.

Jonsiz tabiatdagi makon va vaqt:

• mikrokosm (makon va vaqt diskret);
• makrokosm (makon va vaqt evklid geometriyasi bilan xarakterlanadi);
• mega dunyo (makon va vaqtning egriligi tortishuvchi massalarning o‘zaro ta‘siri bilan bog‘liq).

Biologik makon: organlar tuzilishidagi, murakkab organizmlarning tana qismlari tarkibidagi assimetriya, biosfera.

Hayotiy jarayonlar organizmlarning fiziologik jarayonlariga bog‘liq bo‘lgan maxsus biologik vaqt (biologik soat) - tirik mavjudotlarning ichki vaqti bilan tavsiflanadi (masalan, yangi tug‘ilgan bola uchun bir fiziologik yil 100 yoshli erkakka nisbatan 70 baravar ko‘p, chunki bu vaqt ichida chaqaloqning tanasi 70 barobar ko‘proq fiziologik ish olib boradi).

Ijtimoiy makon - bu odamlarning chinakam insoniy hayoti uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy uyushgan muhit (turar joy, «insonparvarlashgan tabiat»).

Ijtimoiy vaqt deganda madaniy va sivilizatsiyalashgan hodisalarning (insonning individual yashashi davri,) parallel rivojlanishiga imkon beradigan tarixiy jarayon tushuniladi.

10 -sxema.

Borliqning asosiy turlari



Tabiiy borliqning asosiy atributlari



11- sxema.

Substansiya haqida fasafiy tasavvurlar

Substansiya muammolarini yechish turlari	Har xil ko‘rinishlari	Substan-siyalar soni	Substansiya deganda nima tushuniladi	Vakillari
SUBSTANSIAL MONIZM	Materialistik monizm	1	Materiya	Feerbax, Marks, Engels, Chernishevskiy, Lenin
	Idealistik monizm	1	Ideal asos (Xudo, G‘oya, Logos, Ruh, Kosmik aql, ong)	Platon, Aristotel, Shankara, Avgustin, Foma Akvinskiy, Gegel
	panteistik monizm	1	Tabiatga tenglashtirilgan Xudo	Kuzanskiy, Kopernik, Bruno, Spinoza, Blavatskaya
Substansiya dualizm		2	Materiya (tabiat) va Ruh (ong)	Kapila, Patandjali, Vyasa, Dekart
Substansiya plyuralizm		Ko‘pchi Lik	Monadlar (ma‘naviy zarralar – elementlar)	Leybnits

12- sxema.

Materiya shakllari

Materiya shakllari	Har xildagi ko‘rinishlari
Makon	Fizik uch o‘lchovli makon Transfizik ko‘p o‘lchovli makon
Vaqt	Fizik bir o‘lchovli vaqt Transfizik ko‘p o‘lchovli vaqt
Modda	Kvark, proton, neytron, atom, molekula va boshqalar
Fizik maydon	Tortilish maydoni Elektromagnit maydoni Kuchsiz yadro maydoni Kuchli yadro maydoni

13 - sxema.

Koinotda materiyaning uyushganlik darajalari



14- sxema.

Hozirgi kosmologiyaga binoan, koinot rivojlanishining mumkin bo'lgan asosiy ssenariyalari

	Koinotning boshlang'ich holati	**Koinot boshidagi voqealar**	**Bosh kosmologik jarayon**	**Koinotning oxirgi holati**
1	Juda tig'iz bo'shliq nuqtasi	Katta portlash	Koinotning cheksiz kengayishi	?
2	Juda tig'iz bo'shliq nuqtasi	Katta portlash	Koinotning kengayishi, uning asta-sekin tortish	Turg'un koinot

			kuchlariga tenglasha borishi	
3	Juda tig‘iz bo‘shliq nuqtasi	Katta portlash	Koinotning kengayishi, tortuv ko‘chi bilan kengaytirishning to‘xtatilishi, koinotning qisilishi	Juda zich vakuum bo‘shliq
4	Juda tig‘iz bo‘shliq nuqtasi	Katta portlash	Koinotning kengayishi. Tortuv ko‘chi bilan kengaytirishning to‘xtatilishi. Koinotning qisilishi	Juda zich vakuum nuqtasi. Yangi katta portlash koinot rivojlanishing yangi sikli. Rivojlanish siklining cheksiz urib turishi(kengayish-torayish)

5-§. Tabiatning tarkibiy tuzilishi va uning jamiyat hayotidagi o‘rni

1. Tabiat tushunchasi. Tabiat arabcha «borliq; tabiiy xislat; odatiylik», degan so‘zdan olingan bo‘lib, quyidagi ma‘nolarni:1) butun mavjudotni o‘z ichiga olgan olam, borliq; 2) insoniyat va hayvonotdan o‘zga olamni; 3) o‘t-o‘lan, o‘simlik va b. narsalar band etgan tevarak-atrof, qir-adir, o‘rmon va sh.k. larni; 4) Yer sathining ma‘lum bir jihatini aks ettiruvchi belgi, xususiyat yoki holatini; 5) inson ruhiyatiga xos asosiy, turg‘un xususiyatlar majmui; xarakter, fe‘l-atvorini; 6)odamning past tabiat: ziqna, qizg‘anchiq, xasisligini; 7) narsalarga xos biror belgi, xususiyatni; 8) odamning kayfiyati, ruhiy holatini; 9) odamning didi, farosatini anglatish uchun ishlatiladi[46]. Demak, tabiat falsafiy jihatdan juda keng, kundalik inson faoliyatida esa tor ma‘nolarda ishlatiladi.

Shunga ko‘ra, falsafiy jihatdan “Tabiat” tushunchasini keng va tor ma‘noda talqin etish mumkin.Tabiat keng ma‘noda ko‘rinib turgan narsalardan tortib olisdagi koinotnnng ko‘z ilg‘amas burchaklaridagi galaktikalar, kvazar va pulslar, elementar zarralardan tortib fizikaviy maydonlar — umuman mikro, makro va mega dunyolar tabiat degan tushunchani tashkil etadi va bu ma‘noda u materiya tushunchasiga yaqindir. Ammo «tabiat» tor ma‘noda, ya‘ni inson va insoniyat borligi uchun zarur bo‘lgan tabiiy sharoitlar, barcha tirik mavjudotlarning

[46] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2007. -Б.626-627.

rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradigan asos sifatida ham tushuniladi.

Kishilik jamiyati tabiatning bir qismi bo‘lib, uning rivojlanishining oliy hosilasidir. Jamiyat tabiatdan tashqarida yashay olmaydi. Agar insonlarning tabiatga bo‘lgan ta‘sirini hisobga olmasak, tabiatdagi hodisalar, jarayonlar muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Jamiyat qonunlari esa tabiat qonunlaridan farqli ravishda odamlar va ularning jamoalari faoliyati bilan bog‘lanib ketadi. Birinchi holda bu tushuncha bizni o‘rab turgan jamiki borliqni, butun dunyoni uning barcha voqea va hodisalari bilan: “cheksiz o‘zgarmas materik bo‘laklardan tortib, kosmik tizim va hayvonot olami hamda ijtimoiy hayotni” o‘ziga qamrab oladi. Albatta, bunday tushunishda jamiyat va tabiatni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mantiqan noto‘g‘ri. Agar tabiat barcha borliqni, voqelikni o‘ziga qamrab olsa, unda inson ham, jamiyat ham tabiatning bir bo‘lagi hisoblanadi.

Agar biz “tabiat tushunchasini” tor ma‘noda, ya‘ni borliq, butun dunyo ma‘nosida emas, balki inson va jamiyatni o‘rab turgan tabiiy geografik hodisa sifatida talqin qilsak unda bu tushuncha butunlay boshqa ma‘no kasb etadi. Bu holda tabiat deganda inson yashashi uchun yaratilgan mavjud butun moddiy dunyo tushuniladi. Bu tabiiy sharoitlar o‘ziga quyidagi komponentlarni oladi: 1) iqlim; 2) joyning tuzilishi; 3) yerning hosildorlik darajasi; 4) o‘simlik va hayvonlar; 5) foydali qazilmalar va boshqa xomashyo manbalarining mavjudligi; 6) suv resurslari va boshqalar.

2. Tabiatning tuzilishi. Tabiat o‘ziga xos bo‘lgan tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, uning ko‘pgina sir-asrorlari olimlar tomonidan muntazam ravishda ochib borilmoqda. Masalan,1735-yilda Karl Linney «Tabiat tizimi» kitobida uchta: minerallar, o‘simliklar, hayvonlar; 1883-yilda V. V. Dokuchaev - tuproqlar; 1866-yilda Gekkel- protistlar;1938-yilda Gerbert Kopeland - bakteriyalar, arxeylar; Robert Uittaker – qo‘ziqorinlar va shu kabilarni tabiat olami-dunyosi sifatida tizimlashtirdilar.

Tabiatning tuzilishida Yer sayyorasi alohida o‘rin tutadi. Chunki, yer hozirgi paytda hayot bilan ma‘lum bo‘lgan yagona sayyoradir. Uning tabiiy xususiyatlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusidir. Bu Quyosh tizimidagi uchinchi sayyora va yerdagi sayyoralar orasida diametri, massasi va zichligi bo‘yicha eng kattasi. Yerning asosiy iqlimiy xususiyatlari ikkita katta qutbli mintaqalar, ikkita nisbatan tor mo‘tadil zonalar va bitta keng ekvatorial-tropik mintaqaning mavjudligidan iborat.

Sayyoradagi yog‘ingarchilik miqdori joylashuvga qarab keng o‘zgarib turadi va yiliga bir millimetrdan bir necha metrgacha

yog‘ingarchilikni tashkil etadi. Yer yuzining taxminan 71 foizini okean egallaydi. Qolganlari materiklar va orollardan iborat bo‘lib, odamlar yashaydigan yerlarning katta qismi shimoliy yarim sharda joylashgan.

Yerning evolyutsiyasi dastlabki sharoitlarning izlarini qoldirgan geologik va biologik jarayonlar orqali sodir bo‘ldi. Sayyora yuzasi bir necha doimiy harakatlanuvchi litosfera plitalariga bo‘linadi, bu esa qit’alarning davriy ravishda birlashishi va ajralishiga olib keladi. Yerning ichki qismi eritilgan mantiyaning qalin qatlami va magnit maydon hosil qiluvchi temir yadrodan iborat.

Hozirgi atmosfera tarkibi asl bilan taqqoslaganda turli xil hayot shakllari orqali yuzaki sharoitlarni barqarorlashtiradigan ekologik muvozanatni yaratadigan darajada o‘zgargan. Kenglik va boshqa geografik omillarga bog‘liq ravishda iqlimning sezilarli farqlariga qaramay, o‘rtacha global iqlim muzliklararo davrlarda ancha barqaror va o‘rtacha global haroratning 1-2°S o‘zgarishi tarixiy ravishda Yerning ekologik muvozanati va geografiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Geologiya - bu yer qobig‘ining tarkibi, tuzilishi va unda joylashgan minerallar haqidagi fanlar majmuasi. Geologiya fanlari kompleksi quruqlikdagi materiallarning tarkibi, tuzilishi, fizik xususiyatlari, dinamikasi va tarixini, Shuningdek ular shakllanishi, harakatlanishi va o‘zgarishi jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Geologiya, boshqa narsalar qatori, foydali qazilmalar va uglevodorodlarni qazib olish, tabiiy ofatlarni bashorat qilish va yumshatish, geotexnika sohalarida hisob-kitoblar va o‘tmishda iqlim va atrof-muhitni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy o‘quv fanlaridan biridir.

Olimlarning fikriga ko‘ra, yer 4,54 milliard yil oldin Quyosh va boshqa sayyoralar bilan bir qatorda yulduzlararo gaz va chang bulutidan hosil bo‘lgan . Taxminan 20 million yil o‘tgach, massa tanasining yer bilan to‘qnashishi natijasida Oy paydo bo‘ldi.

Yerning eritilgan tashqi qatlami vaqt o‘tishi bilan soviydi, natijada qattiq qobiq hosil bo‘ldi. Gazlarning chiqishi va vulqon faolligi birlamchi atmosferaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Suv bug‘larining kondensatsiyalanishi (ularning aksariyati kometa muzidan hosil bo‘lgan) okeanlar va boshqa suv resurslarining paydo bo‘lishiga olib keldi[47]. Shundan so‘ng yuqori energiyali kimyo taxminan 4 milliard yil oldin o‘z-o‘zini takrorlaydigan molekulaning paydo bo‘lishiga olib keldi[48]. Yer yuzi

---

[47] *A. Morbidelli et al.* Source Regions and Time Scales for the Delivery of Water to Earth (англ.) // Meteoritics & Planetary Science[en]. — 2000. — Vol. 35, no. 6. — P. 1309—1320. — doi:10.1111/j.1945-5100.2000.tb01518.x. — Bibcode: 2000M&PS...35.1309M.

[48] Earth's Oldest Mineral Grains Suggest an Early Start for Life (недоступнаяссылка). NASA Astrobiology Institute (24 декабря 2001). Дата обращения: 24 мая 2006.Архивировано 22 июня 2012 года.

yuzlab million yillar davomida o‘zgarib, vaqti-vaqti bilan superkontinentga birlashib, keyin yana alohida materiklarga parchalanib ketdi. Taxminan 750 million yil oldin, ma‘lum bo‘lgan eng qadimgi superkontinensiya - Rodiniya bo‘linishni boshladi. Biroz vaqt o‘tgach, qit’alar birlashdilar va taxminan 540 million yil oldin ajralib chiqqan Pannotiyani tashkil etishdi. Keyin 180 million yil oldin bo‘linib ketgan so‘nggi superkontinensiya - Panjea paydo bo‘ldi[49].

Neoproterozoy erasi davrida yerning keng miqyosli muzlashuvi bo‘lgan, bu davrda muz ekvatorga yetib borgan deb taxmin qilinadi. Ushbu gipoteza «Qor to‘pi yer» deb nomlangan va ayniqsa qiziqish uyg‘otadi, chunki bu vaqt taxminan 530-540 million yil oldin sodir bo‘lgan Kembriya portlashidan oldin bo‘lib, bu davrda ko‘p hujayrali hayot shakllari yoyila boshlagan[50].

Kembriya portlashidan keyin beshta aniq belgilangan ommaviy qirg‘inlar bo‘lgan. Oxirgi ommaviy qirilish taxminan 65 million yil oldin sodir bo‘lgan, qachonki Yerning meteorit bilan ta‘siri dinozavrlar va boshqa yirik sudralib yuruvchilarning yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, keyingi 65 million yil natijasida turli xil sutemizuvchilar paydo bo‘ldi.

Yer atmosferasi sayyoralar ekotizimini saqlashning asosiy omilidir. Yerni o‘rab turgan yupqa gaz qatlami sayyoramizning tortishish kuchi bilan ushlab turiladi. Atmosferaning quruq havosi oz miqdorda 78% azot, 21% kislorod, 1% argon, karbonat angidrid va boshqa birikmalardan iborat. Shuningdek, havo o‘zgaruvchan miqdordagi suv bug‘ini o‘z ichiga oladi. Atmosfera bosimi balandlik oshishi bilan asta-sekin pasayib boradi va taxminan 19-20 km balandlikda shunday pasayadiki, inson tanasida suv va hujayralararo suyuqlikning qaynashi boshlanadi. Shuning uchun inson fiziologiyasi nuqtai nazaridan «kosmik» allaqachon 15-19 km balandlikda boshlanadi. 11 dan 50 km balandlikdagi yer atmosferasi (tropik kengliklarda - 25-30 km, mo‘tadil kengliklarda - 20-25, qutb kengliklarida - 15-20) O3 molekulalaridan tashkil topgan ozon qatlamiga ega - bu muhim rol o‘ynaydi. Havfli ultrabinafsha nurlanishining yutilishi, shu bilan yer yuzidagi barcha hayotni zararli nurlanishdan himoya qiladi. Atmosfera sizni tunda ham isitadi, harorat o‘zgarishini kamaytiradi.

Sayyora iqlimi ob-havoning uzoq muddatli tendensiyalarining o‘lchovidir. Sayyoramizning iqlimiga turli xil omillar, jumladan, okean

---

[49] *J. B. Murphy, R. D. Nance.* How do supercontinents assemble? (англ.) // American Scientist[en]. — Sigma Xi[en], 2004. — Vol. 92, no. 4. — P. 324. — doi:10.1511/2004.4.324.

[50] *J. L. Kirschvink.* Late Proterozoic Low-Latitude Global Glaciation: The Snowball Earth // The Proterozoic Biosphere / J. W. Schopf, C. Klein eds. — Cambridge: Cambridge University Press, 1992. — P. 51—52. — ISBN 0-521-36615-1

oqimlari, sirtdagi albedo, issiqxona gazlari, quyosh nurlarining o‘zgarishi va sayyora orbitasidagi o‘zgarishlar ta‘sir ko‘rsatadi. Olimlarning xulosalariga ko‘ra, o‘tmishda yerda iqlimning keskin o‘zgarishlari, shu jumladan muzlik davri bo‘lgan.

Mintaqaning iqlimi bir qator omillarga, birinchi navbatda kengliklarga bog‘liq. Shu kabi iqlimiy xususiyatlarga ega kengliklarning bir qatori mintaqaning iqlimini shakllantiradi. Ekvatorial iqlimdan janubiy va shimoliy qutblarning qutbli iqlimigacha bo‘lgan bir nechta bunday mintaqalar mavjud. Iqlimga, shuningdek, yer o‘qi orbitasi tekisligiga nisbatan burilishidan kelib chiqadigan fasllar ham ta‘sir qiladi. Yozda yoki qishda egilish tufayli sayyoramizning bir qismi boshqasiga qaraganda ko‘proq quyosh energiyasini oladi. Bu holat yer orbitasida harakatlanayotganda o‘zgaradi. Har qanday vaqtda, shimoliy va janubiy yarim sharlar bir-biriga qarama-qarshi fasllarga ega.

Quruqlikdagi ob-havo hodisalari deyarli faqat atmosferaning pastki qismida (troposfera) sodir bo‘ladi va konvektiv issiqlik taqsimoti tizimi bo‘lib xizmat qiladi. Okean oqimlari iqlimni belgilaydigan eng muhim omillardan biri, ayniqsa issiqlik energiyasini ekvatorial zonalardan qutb mintaqalariga tarqatadigan yirik dengiz osti termohalini sirkulsiyalaydi. Ushbu oqimlar mo‘‘tadil zonalarda qish va yoz o‘rtasidagi harorat farqlarini yumshatishga yordam beradi. Bundan tashqari, okean oqimlari va atmosferadan foydalangan holda issiqlik energiyasini taqsimlashsiz, tropik mintaqalarda ancha issiq, qutbli hududlarda esa ancha sovuqroq bo‘lar edi.

Ob-havo ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Tornado, bo‘ron va siklon kabi ob-havoning og‘ir sharoitlari yo‘l davomida katta miqdordagi energiyani chiqarib yuborishi va jiddiy zarar etkazishi mumkin. Yer usti o‘simliklari mavsumiy ob-havo o‘zgarishlariga bog‘liqlikni rivojlantirdi va bir necha yil davom etadigan keskin o‘zgarishlar ham o‘simliklarga, ham o‘simliklarni oziq-ovqat uchun iste‘mol qiladigan hayvonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ob-havo bu atrof-muhitdagi kichik o‘zgarishlar tufayli osongina o‘zgarib turadigan xaotik tizim, shuning uchun aniq ob-havo prognozlari hozirda bir necha kun bilan cheklangan. Hozirgi kunda dunyoda ikkita jarayon sodir bo‘lmoqda: o‘rtacha harorat ko‘tarilib, mintaqaviy iqlim sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda.

Suv vodorod va kisloroddan iborat kimyoviy birikma bo‘lib, hayotning ma‘lum barcha shakllari hayoti uchun zarurdir . Odatiy ma‘noda suv atamasi faqat suyuq holat yoki holatlarni anglatadi, shu bilan birga modda qattiq holatga (muz) va gaz holatiga - suv bug‘iga ega. Suv yer

yuzining 71 foizini qoplaydi va asosan okeanlar va boshqa yirik suv havzalarida to'planadi. Bundan tashqari, suvning taxminan 1,6% yer osti qatlamlarida va havodagi 0,001% bug' va bulutlar shaklida (suvning qattiq va suyuq zarralaridan hosil bo'lgan), shuningdek atmosfera yog'inlari shaklida bo'ladi. Okeanlarda 97% yer usti suvlari, muzliklar va qutb qopqoqlari - taxminan 2,4%, daryolar, ko'llar va suv havzalari qolgan 0,6% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, yerdagi oz miqdordagi suv biologik organizmlar va inson mahsulotlarida mavjud.

Ekotizim - bu tirik organizmlar (biotsenoz) birlashmasi, ularning yashash muhiti (biotop), shuningdek ular orasidagi bog'lanish moddalar va energiya almashinuvi tizimidan iborat bo'lgan biologik tizim. Ekotizimlar o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil abiotik va biotik tarkibiy qismlardan iborat. Ekotizimlarning tuzilishi va tarkibi turli xil atrof-muhit omillari bilan belgilanadi, ular orasida bog'lanish tizimi mavjud va bu omillarning o'zgarishi ekotizimning dinamik o'zgarishiga olib keladi. Tuproq, atmosfera, quyosh radiatsiyasi, suv va tirik organizmlar ekotizimning muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Hozirgi vaqtda hayot tushunchasi bo'yicha yakdil fikr mavjud emas, ammo olimlar umuman hayotning biologik namoyon bo'lishini tashkil qilish, metabolizm, o'sish, moslashish, stimullarga javob berish va ko'payish bilan tavsiflanishini tan oladilar. Shuni ham aytish mumkinki, hayot organizm holatiga xos xususiyatdir. Yerdagi organizmlarga (o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar, protozoa, arxea va bakteriyalar) xos xususiyatlar quyidagicha: ular murakkab tashkilotga ega bo'lgan uglerod-suv asosidagi hujayralardan iborat, metabolizmga ega, o'sish, stimulga javob berish va ko'payish qobiliyatiga ega. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs odatda hayot deb hisoblanadi. Biroq, hayotning har bir ta'rifi bu xususiyatlarning barchasi zarurligini ta'kidlamaydi.

3.Biosfera. Tirik organizmlar yashaydigan yer qobig'i biosfera deb ataladi. Biosferaga yer, yer usti toshlari, suv, havo va atmosfera - hayot mavjud bo'lgan va o'z navbatida biotik jarayonlarni o'zgartiradigan yoki o'zgartirmaydigan barcha narsalar kiradi. Keng geofiziologik nuqtai nazardan, biosfera barcha tirik mavjudotlarni va ularning munosabatlarini, shu jumladan litosfera (toshlar), gidrosfera (suv) va atmosfera (havo) elementlari bilan o'zaro aloqalarni birlashtirgan global ekologik tizimdir. Hozirgi kunda butun yer yuzida 75 milliard tonnadan ortiq biomassa (hayot) mavjud bo'lib, u biosferadagi turli muhitlarda yashaydi.

O'simliklar yerdagi umumiy biomassaning 90% dan ortig'ini tashkil etadi, ularga hayvonlar hayoti ko'p jihatdan bog'liqdir. Bugungi kunga kelib 2 milliondan ortiq o'simlik va hayvon turlari aniqlangan va mavjud

turlarning haqiqiy sonini taxmin qilish bir necha milliondan 50 milliondan oshiqroq. Turlarning soni yangi turlarning paydo bo'lishi va boshqalarning yo'q bo'lib ketishi bilan doimiy ravishda o'zgarib turadi. Hozirgi vaqtda turlarning umumiy soni tez kamayib bormoqda.

Qadimgi davrlarda ham odamlar barcha tirik organizmlarni hayvonlar va o'simliklarga bo'lishgan. Aristotel hayvonlar tarixida hayvonlarni tasniflagan va uning shogirdi Teofrastus o'simliklar haqida parallel ravishda «O'simliklar tarixi» asarini yozgan. Keyinchalik, 18-asrda Karl Linney tabiiy dunyoni uchta «qirollik» ga: mineral, o'simlik (Lotin Regnum Vegetabile) va hayvonlarga (Regnum Animale) ajratib, to'rt darajadan («darajalar»): sinflar, buyruqlar va turlardan foydalangan. 1969 yilda Robert Xarding bugungi kunda ham mashhur bo'lgan besh qirollik tasniflash tizimini taklif qildi. Bu organizmlarning oziqlanishdagi farqlariga asoslanadi: o'simlik dunyosi vakillari - ko'p hujayrali avtotroflar, hayvonlar - ko'p hujayrali heterotroflar, zamburug'lar - ko'p hujayrali saprotroflar. Protist va bakterial qirolliklariga bir hujayrali va protozoan organizmlar kiradi. Besh qirollik ham ushbu organizmlarning hujayralarida yadroga ega bo'lishiga qarab - evkaryotlar va prokaryotlarning super qirolliklariga bo'linadi.

Tabiat, boshqa har qanday organik muhit kabi, doimiy rivojlanishda va harakatda. Tabiatning asosiy xususiyati uning tekislik tabiati, fasllarning ketma-ket o'zgarishi bo'lib, u yerda uyg'ongan jarayonlar asta sekin o'sib borishi va rivojlanish bosqichidan uxlash bosqichiga va jarayonlarning sekinlashuviga qadar sekinlashganlarni almashtiradi. Yil davomida tabiat fasllarining o'zgarishini fasllar - bahor, yoz, kuz, qish deb atashadi. Tabiat fasllari, fasllar almashinishining jismoniy hodisalari sifatida nafaqat olimlarni o'ziga jalb qiladi, balki ko'plab madaniyat va san'at odamlari - shoirlar, nasr yozuvchilari, rassomlar va musiqachilarga ilhom bag'ishlaydi.

Tabiatning tuzilishi shular bilan tugamaydi. Kelgusida uning yangi qirralari kashf qilinadi.

6-§.Tabiatning jamiyat hayotidagi o'rni

Jamiyat hayotida, uni o'rab turgan tabiiy borliqning ahamiyati va mohiyatining muhimligi faylasuflar tomonidan allaqachon isbotlab berilgan. Jamiyat hayotida tabiatning roli haqida Lao-szi, Konfutsiy, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Xoldun, Jan Boden va boshqa faylasuflar juda ko'p gapirganlar va yozganlar. Lao-szi yozgan edi: "Inson uchun namuna - yerdir. Yer uchun namuna - osmondir.

Osmon uchun namuna -yo‘ldir (Dao)”. Jan Boden ta‘kidlashicha, xususan, jamiyat inson xohishidan tashqarida tabiiy ravishda tabiat qonunlariga bo‘ysungan holda shakllanadi va rivojlanadi.

1. Geografik determinizm. Geografik determinizmning nazariy asosi va bunyodga kelishi fransuz faylasufi Sharl Monteskyo (1689-1755) nomi bilan bog‘liq. U shunday deb yozgan edi: “Iqlim hukmronligi barcha hukmronlikdan ustundir”, “issiq iqlim xalqlari qariyalardek sust, sovuq iqlim xalqlari esa yoshlardek harakatchandir” va hokazo. Biroq, u vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy faktrlarning ta‘siri kuchayishini ham inkor etmagan: “Yovvoyilarni deyarli har doim tabiat va iqlim boshqaradi”, lekin “odamlar mehnat va foydali qonunlar yordamida yerni yashash uchun yana ham qulay qilib olganlar” .

Geografik determinizm K. Ritter, F. Ratsel, G. E. Reklyn, L. Mechnikov va boshqa nemis tadqiqotchilari izlanishlarida yanada rivojlantirildi. Masalan, T.G.Bokl (1821-1862)ning takidlashicha, agar biz qaysi bir fizik detallar insoniyatga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatishini aniqlamoqchi bo‘lsak, ularni biz quyidagi to‘rt guruhga ajratishimiz qiyin emas, ya‘ni: iqlim, ovqat, yer va tabiatning umumiy ko‘rinishlari L. Mechnikov o‘zining “Sivilizatsiya va buyuk tarixiy daryolar” nomli mashhur kitobida insoniyat tarixini uch turdagi sivilizatsiyaning almashinuvi natijasi deb isbotlagan: 1) daryolar sivilizatsiyasi (Nil, Gang, Ind, Yanszi, Xuanxe, Tigr, Evfrat kabi daryo havzalarining shakllanishi bilan bog‘liq); 2) dengiz (avvalambor, O‘rta yer dengizi) sivilizatsiyasi; 3) okeanlar (global) sivilizatsiyasi.

2. Geoiqtisodiyot. Geografik determinizmning zamonaviy ko‘rinishlaridan biri bu geoiqtisodiyotdir. Xo‘sh, geoiqtisodiyot nima, uning kelib chiqish sabablari, mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Geoiqtisodiyot tushunchasini birinchilar qatorida qo‘llagan kishi o‘tgan XX asrning 80-yillarida AQSHning Davlat departamenti va Milliy xavfsizlik kengashida maslahatchi bo‘lib ishlagan Edvard Lyuttvak hisoblanadi. U o‘zining mazkur tashkilotlar uchun tayyorlagan axborotlari va yozgan kitoblarida «Amerika orzusi xavf ostida: iqtisodiy ustunlik uchun bo‘layotgan geoiqtisodiy bellashuvda AQSH g‘olib kelishi va uchinchi davlatlar qatoriga tushib qolmasligi uchun nima qilmoq kerak?»[51], - degan masalalarga to‘xtalib «Geoiqtisodiyot - bu xalqaro bellashuvda davlatlar o‘rtasida bo‘ladigan raqobat bo‘lib, unda davlat —o‘zining kompaniya va boshqa xo‘jalik birlashmalari uchun jahondagi o‘zga kompaniyalarga nisbatan maksimal

[51] Жан К. Геоэкономика (господство экономического пространства) / К. Жан, П. Савона; Пер.с итал. - М., 1997. - С. 8.

ustunlikni ta'minlaydi»[52],- degan edi.

Shunday qilib, «Geoiqtisodiyot» atamasi yangi bir iqtisodiy voqelikning in'ikosi sifatida muomalaga kiritilar ekan, jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan turlicha talqin etila boshlandi. Masalan, XX asrning oxirlarida geopolitikaning yangi bir oqimi sifatida paydo bo'lgan, geoiqtisodiyotga «hotoesopomisus va makon omillarining tovarlarni ishlab chiqarish va taqsimlash sohasiga ta'sir etishi, iqtisodiy faoliyatni yanada kengaytirish uchun iqtisodiy makonlardan foydalanish»[53],...jahonda daromadni shakllantirish va qayta taqsimlashga erishish maqsadida millatning geoiqtisodiy makonda milliy jihatdan o'zini o'nglab olish uchun tezkor harakatlarni amalga oshirish texnikasi», «davlatning jahon yoki mintaqada iqtisodiy yo'l bilan ustunlikka erishishning strategik rivojlanishi haqidagi fan. Geoiqtisodiy globalizatsiya va regionalizatsiya omillari ta'sirida shakllanayotgan hozirgi zamon geosiyosati»[54], «...jahon miqyosida turli qit'a, mintaqa va davlatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi negizida shakllanayotgan yagona iqtisodiy tizim, iqtisodiy makon»[55] , degan ta'rif va tavsiflar berildi.

Geoiqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida mavjudligini ta'minlovchi omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Geoiqtisodiyot elat, millat, xalq va davlatlarning geografik joylashuvi, yer osti va usti boyliklari, tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Bunda qaysi bir davlat geografik jihatdan qulay joylashgan, yer osti va usti boyliklari ko'p va xilma-xil, tabiiy iqlim sharoiti yaxshi bo'lsa, o'sha davlat geoiqtisodiy jarayonlarda ustunlikka ega bo'lib, shakllanayotgan yangi geoiqtisodiy makonlarning markaziy tortish kuchiga aylana boradi.
2. Geoiqtisodiyot har bir davlatning suverenitetiga, iqtisodiy mustaqilligiga bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlar qatoriga kiradi. Iqtisodiy mustaqilligini to'la-to'kis qo'lga kiritib, xilma-xil mulk shakllarining huquqiy tengligini ta'minlash asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tgan davlatlargina geoiqtisodiy jarayonlarda har tomonlama ishtirok etib, undan yetarlicha foyda ko'rish, iqtisodiy daromaddan o'z ulushini ajratib olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.
3. Geoiqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri mulkdorlar sinfi hisoblanadi. Ana shu mulkdorlar sinfining tadbirkorlik, ishbilarmonlik, omilkorlik faoliyati butun boshli elat, millat, xalq va

---

[52] Моро-Дефарж Ф. Введение в геополитику. Гл. 5. - М.: Конкорд, 1996. - С. 76.

[53] Кочетов Э. Ғ. Геоэкономика (Освоение мирового экономического пространства). - М.:БЕК, 1999. - С. 4.

[54] Дергачев В. А. Глобальная геоэкономика (Трансформация мирового экономического пространства). - Одесса: ИПРЭЭИ НАНУ, 2003. - С. 3.

[55] Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати / Тузувчи ва масъул Қ. Назаров - Т.: Академия, 2007. - Б. 117; Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти / Қ. Назаров, И. Эргашев ва бошқ. - Т.: Ғафур Ғулом, 2007. - Б. 572-573.

davlatlarning iqtisodiy ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun geoiqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisiga aylanishga undaydi va ularning geoiqtisodiy makonlardan joy izlab topishiga olib keladi.

4. Geoiqtisodiyot har bir davlatning iqtisodiy salohiyatiga: tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyasi, ularning turlari, raqobatbardoshligi, xaridorgirligi, miqdori va hajmi; ichki bozorlar mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirilganligi; kommunikatsiya tarmoqlarining sifati; logistikasi; banklardagi kapitalning miqdori va harakati; aholining bandlik darajasi va real pul daromadlari kabilarga asoslanadi. Ushbu ko'rsatkichlar qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatdagi geoiqtisodiy vaziyat ham shunchalik turg'un va barqaror bo'ladi.

5. Geoiqtisodiyot har bir elat, millat, xalq va davlatning iqtisodiy integratsiyalashuv darajasiga bog'liq. Bunday integratsiyalashuv bo'lmagan joyda geoiqtisodiyot mavjud bo'lolmaydi.

Geoiqtisodiyotning mavjudligini ta'minlovchi ushbu omillardan kelib chiqqan holda unga ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Geoiqtisodiyot *(grekcha geo - yer, iqtisod - arab. xo'jalik, tejab-tergash) - muayyan bir elat, millat, xalq va davlatning geografik o'rni, hududiy joylashuvi, suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi, mulkdorlarning tadbirkorligi, kommunikatsion imkoniyatlari hamda iqtisodiy salohiyati darajalariga qarab o'zga elat, millat, xalq va davlatlar bilan integratsiyalashuvi negizida daromad topish, foyda ko'rish maqsadida yuritayotgan iqtisodiy faoliyatidir.*

Bugungi kunda geoiqtisodiyot geografik determinizmning eng ko'p qo'llanishi mumkin bo'lgan turlaridan biriga kiradi.

Geografik determinizmda geografik muhim ahamiyat kasb etadi. *Geografik muhit – bu tabiatining inson faoliyati doirasiga jalb qilingan,jamiyat mavjudligi va rivojlanishining zaruriy obyektiv omili hisoblangan hudud, iqlim, resurslar, landshaf, joy relefi va shu kabi parametrlardan iborat bo'lgan qismidir.* Geografik muhitdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari, birinchidan, undan qanday bo'lsa shundayligicha, ikkinchidan, mavjud parametrlarini o'zgartirish, uchinchidan, sun'iy parametrlarni paydo qilish orqali foydalanish tashkil qiladi.

Bu masalalar bilan shug'ullanuvchi "geografik determinizm", "geosiyosat","geoiqtisodiyot"kabi konsepsiyalarni o'z ichiga oluvchi bir qator geografik maktablar mavjud bo'lgan. Masalan, Ibn Xaldunning geografik maktabi shular jumlasidandir.

Geografik muhit deganda tor ma'noda o'ziga tabiatning jamiyat hayotiga,

avvalambor, ishlab chiqarish jarayonida amalga oshadigan qismini o‘zida mujassamlashtirgan muhit tushuniladi.

O‘rab turgan muhitni kengroq ma‘noda tushuntirish uchun xilma-xil tushunchalar taklif etilgan va etilmoqda: “biogeosfera”, “geobiosfera”, “vitasfera” (lotin tilida “vita” — hayot), “ekosfera”, “landshaft sfera” va boshqalar. Biz inson xohishi va ongiga bog‘liq bo‘lmagan obektiv ravishda mavjud bo‘ladigan va unga nisbatan birlamchi deb hisoblangan “birinchi tabiat” tushunchasini qo‘llaymiz. Shunga ko‘ra, “ikkinchi tabiatni” yaratuvchi - inson o‘z qo‘li bilan yaratgan sun’iy muhit tashkil qiladi.

Tabiiylik va ijtimoiylikning o‘zaro ta‘siri. “Sun’iy tabiat” inson yaratgan barcha narsani o‘z ichiga oladi: mehnat qurollari, maishiy buyumlar, qurilishlar, sa‘nat asarlari. So‘zsiz, “Sun’iy tabiat” “tabiiy tabiat” bilan uzviy bog‘langan: insonning mehnat jarayonida tabiiy boyliklar va ashyolar zarur narsalarga aylantiriladi, hayvonlar uy hayvoniga, o‘simliklar esa madaniy boylikka aylantiriladi va boshqalar. Inson o‘zining faol hayotiy jarayonida “sun’iy tabiat”ni, ya‘ni su’niy muhitning hajmini ko‘paytira boradi, bu esa har doim ham “tabiiy tabiat”ga, insonga va jamiyatga foydali bo‘lavermaydi. Sitseron o‘z vaqtida aytgan edi: “Tabiatning yaratuvchanligi san’at yaratuvchanligidan oliyroqdir”.

Insoniyatga 370 ming xil o‘simlik turi ma‘lum, undan 80 ming xilini iste‘mol qilish mumkin, o‘zlashtirilgani esa 3 ming (1% dan kam), bulardan esa juda ko‘p qismi unchalik keng tarqalmagan. O‘simliklardan bor yo‘g‘i 12 turi (bug‘doy, guruch, makkajo‘xori va boshqalar) barcha hosilning 90%ini beradi. Xuddi shunday holatni hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Bizga ma‘lum bir million turdan 100 turigina (ya‘ni 0,1%) uy hayvoniga aylantirilgan, ulardan faqat 10 turdagi hayvon esa (sigir, qo‘y, tovuq va boshqalar) mahsulot beradi.

Zamonaviy ilmiy bilish taraqqiyoti darajasi tirik mavjudotni barcha xususiyatlariga ko‘ra ikki muhim guruhga ajratishga imkon beradi: a) tirik mavjudotning tashqi dunyo narsalarini o‘z manfaatiga moslagan holda o‘zgartirib o‘zlashtirishi; b) tirik mavjudotning turli xususiyat va sifatlarini o‘zlashtirish va mustahkamlash qobiliyati .

Insonning paydo bo‘lishi tabiatga ta‘sir ko‘rsatishning yangi antropogen faktorining shakllanishiga olib keldi. Inson va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ularning ahamiyati va roli bir xil bo‘lavermadi. Jumladan, “inson paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida o‘zini boshqa tirik mavjudotlardan alohida ajratmas edi. U o‘zini barcha boshqa organik dunyo bilan genetik va uzviy bog‘liq deb bilar edi”[56] .

Inson rivojlangan sari uning madaniyati ham murakkablashib, ishlab

[56] У.М.Абилов,С.Л.Нигай,Р.Р.Бурнашев. Основы философии.

chiqarishi tezlashib, yashash faoliyati jarayoni "sun'iylashib" bordi. U tabiatdan, tabiiy muhitdan borgan sari uzoqlashib bordi. Lekin bu bugungi taraqqiyot davrida tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi va ta'siri o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotdi degani emas. Bugungi kunda bu aloqalar faqat boshqacha tus olgan: inson tabiiy faktorlarga butunlay bog'liq emas, aksincha, cheklangan, himoyalanmagan tabiat aql va ongga nisbatan kuch va qudrati ancha takomillashgan insonga ko'p jihatdan qaramdir.

Ilmiy texnika inqilobi asrida sotsioantropogen faktorlarining, yadro energiyasi, kosmos va kompyuterlashtirishning tabiiy muhitga ta'siri o'z mashtabiga ko'ra tabiatning o'zining tabiiy faktorlarining ta'siri bilan solishtirish mumkin: jamiyat yaratgan "texnomassa" hajmini tabiat yaratadigan biomassa hajmi bilan qiyoslash mumkin. Bulardan tashqari, sun'iy radiatsiya, "ozon teshiklari", ko'pgina tabiiy elementlar sonining butunlay o'zgarishi, tabiatda ma'lum bo'lmagan yangi narsalari sintez qilish va boshqalarni ko'zda tutish kerak. Shunday qilib, tabiiy tarix (tabiat tarixi) borgan sari jamiyat va inson taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib ketmoqda.

6.Noosfera. "Noosfera" tushunchasi grek tilidan olingan - noos "aql" degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, etimologik jihatdan noosfera — aql doirasiga oid tushunchadir. Bu tushuncha fransuz faylasufi Eduard Lema (1870—1954) va Per Teyyar de Sharden (1881—1955)lar tomonidan XX asming 20-yillarida taklif etilgan va ishlab chiqilgan. 1927-yili bir vaqtning o'zida Lemaning "Mafkuraviy talab va evolyusiya fakti" va Shardenning "Ilohiy muhit" nomli kitoblari nashr etildi, aynan shu asarlarda noosfera falsafiy ta'limotiga asos solindi. Uning mohiyatini Lerua shunday talqin etdi: "Ong borgan sari erkin va toza bo'la boradi va oliy darajada shakllangan ong yaratiladi — ruhiyat shunchalik oliy darajaga yetadiki, unda kapalak qo'g'irchoqdan ajralishga intilgandek noosfera ham biosferadan ajralishga intiladi"[57] .

Boshqa so'z bilan aytganda, insoniyat evolutsiyasi ma'lum bir vaqtgacha biosfera doirasida amalga oshadi. Lema biosfera va noosferalarni Xitoy devori bilan bir-biridan ajratmaydi: " Ko'pchilik hollarda ular bir-biriga aralashib ketadi, ikkinchisi birinchisining qayta yaralganidir". Lekin sekin-asta shunday holat vujudga keladiki, insonning to'xtovsiz o'zgaruvchi rivojlanuvchi ongi chegarali va cheklangan biosferaga sig'may qoladi. U "insoniy, tafakkur qiluvchi, o'z mohiyatiga ko'ra fikr"ning yangi bir holatini — noosferani vujudga keltiradi .

Teyyar ds Sharden noosfera ta'limotini yanada rivojlantirdi. Uning

[57] Исторически процесс:диалектика современной эпохи. – Москва:Нуака,1987. – С.415.

aytishicha, taraqqiyot biosfera doirasi bilangina chegaralanmaydi. Sharden postulatlaridan biri shuki, dunyoda hamma narsa uzluksiz ravishda murakkablashadi va rivojlanadi. U dunyoning uzluksiz taraqqiyotining to'rt bosqichini ishlab chiqdi: a) hayotdan avval; b) hayot; v) fikr; g) hayotdan oliylik.[58] "Fikr" stadiyasi inson paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi, u psixik va ruhiy energiyani quyuqlashtiradi, jamlaydi va noosferani yaratadi. Sharden konsepsiyasining xususiyati shundan iboratki, u ilmiy tafakkurni diniy e'tiqod bilan sintez qilishga harakat qilgan. Aynan shundan kelib chiqqan holda to'rtinchi stadiya ("hayotdan oliylik") kelib chiqqan, unda inson ongidan oliyroq substansiya, ya'ni xudo tushunilgan. Yaratuvchi deb "Omega nuqtasi" - Gegelning absolyut haqiqat haqidagi g'oyasiga yaqin borgan tushuncha e'lon qilinadi. Sharden fikricha, barcha narsalar shunchaki taraqqiy etmaydi, balki teleologik, ya'ni ma'lum bir maqsad, ideal tomon intilish orqali rivojlanadi. Shunday qilib, noosferaning teyyarcha konsepsiyasini toliq ravishda teleologik konsepsiya deyish mumkin.

Noosfera ta'limoti rus faylasufi V.I. Vernadskiy{ 1863-1945) tadqiqotlarida yana ham rivojlantirildi va mukammallashtirildi. 1925-yilda (ya'ni E.Lema va P.Teyyar de Shardenlarming tadqiqotlari nashr etilmasdan avval) "Insonning avtotrofligi" nomli maqolani e'lon qiladi. Vernadskiy konsepsiyasining asosiy g'oyasi biosferada evolutsion taraqqiyotning mavjudligidir. Teyyar de Shardendan farqli ravishda Vernadskiy evolutsiya haqidagi g'oyaning mifologik va diniy talqiniga bo'lgan har qanday harakatlarni qat'iy ravishda inkor etadi. U bunda asosli ravishda tabiiy fanlar: fizika, ximiya, biologiya, geologiya va boshqalarda mavdjud empirik ma'lumotlarga tayanadi. Vernadskiy uchun noosfera - bu faqat inson ongi, inson tafakkurigagina bog'liq bo'lmasdan, tabiiy jarayonlarning hayotda o'z-o'zidan va aniq ravishda ro'y berishi bilan bog'liqdir , "bizning planetamizdagi yangi geologik hodisadir" .

Noosfera konsepsiyasi taraqqiyotining muhim ilmiy-falsafiy natijasi sifatida tabiat va jamiyatning koevolyutsiya (hamkorlikda, paralel, o'zaro bog'liqlikda rivojlanish) nazariyasining shakllanganini eslab o'tish mumkin. Bu ikki yirik tizimning bir-biriga qarshi turishi va kurashi emas, balki ularning uzviy birligi insoniyatning keyingi taraqqiyotini ta'minlashi mumkin[59].

---

[58] П.Тейер де Шарден. Феномен человека. – М.: Мысль,1965.- С.43.

[59]Фалсафа: Дарслик –Т.: Ўзбекистон файласуфари миллий жамияти нашриёти,2006. – Б.359-360.

Qisqacha xulosalar

1. Falsafa mustaqil ilm sohasi sifatida o‘ziga xos bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p g‘oyalar,nazariyalar,konsepsiyalar,ilmiy-amaliy ishlanmalardan tashkil topgan bo‘lib,shulardan biri borliq to‘g‘risidagi xilma-xil g‘oya va konsepsiyalarni o‘z ichiga oluvchi umum metodologik fan hisoblanadi.
2. Borliqning mavjudlik va reallik shakllarida namoyon bo‘lishini barcha faylasuflar tan olishgan. Biroq, uning yaratuvchisi, birinchi ibtidosi haqidagi masalani yechishda hozirgacha bahs-munozaralar davom etmoqda.
3. Vaqt sayin borliqning turli qirralari ochilib bormoqda. Ana shu ochilgan, ochilayotgan, kelgusida ochiladigan tomonlarini ontologiya – borliq haqidagi ta‘limot sifatida o‘rganmoqda. Natijada, har bir fan o‘zining tadqiqot obyektini, bahs mavzusini, erishgan natijasini, masalan, ”tibbiyot ontologiyasi”, “gen ontologiyasi”, ”informatika ontologiyasi” kabilar sifatida o‘rganmoqda.
4. Ontologiya-borliq haqida ta‘limot bo‘lsa, borliq- mavjudlik va reallik shaklidagi narsa, voqea, hodisa va jarayonlardan iborat bo‘lgan moddiy va ma‘naviy olamning sintezlashgan ko‘rinishidir.
5. Borliqning barcha shakllari tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan tizimli ravishda o‘rganilib, odamni hayron qoldiradigan hayratomuz tomonlari ochilmoqda. Ulardan esa yangi texnika va texnologiyalarni yaratish yo‘lida foydalanilmoqda.

Tayanch tushunchalar

Ontologiya, borliq va uning asosiy shakllari, yo‘qlik, mavjudlik, reallik, harakat va uning asosiy shakllari, makon va zamon materiyaning yashash usuli sifatida, rivojlanish, taraqqiyot, voqelik, obyektiv voqelik, subyektiv voqelik, obyektiv reallik, substansiya, tabiat, geografik muhit, geografik determinizm, biosfera, noosfera, geoiqtisodiyot.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Borliqning qanday shakllarini bilasiz?
3. Falsafada substansiya va substrat masalasi qanday ahamiyatga ega?
4. Materiya nima, uning yashash usullarini nimalar tashkil qiladi.
5. Falsafada harakat va materiyaning bir-biriga bog‘liqligi qanday?
6. Tabiat,jonli va jonsiz tabiat deganda nimani tushunasiz?
7. Biosfera va noosfera nima?
8. Tabiat, uning tuzilishi va rivojlanishi.
9. Tabiat va jamiyat, ularning o‘zaro aloqasi.
10. Yerdagi hayot va biosotsial evolutsiya.
11. Tabiatni falsafiy tushunishning ahamiyati va ekologik tarbiya.

12. *"Kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beruvchi omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir. ... Buning uchun qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozim"*[60],-degan so'zlarning tabaitdan qanday foydalanish kerakligi, shuningdek biosfera va noosfera o'rtasidagi umumiy aloqadorlik borligi yoki yo'qligi haqida o'z mulohozalaringizni bildiring? .

[60] Ўзбекистон Республикаси Президенти ***Шавкат Мирзиёевнинг*** Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.// https://president.uz/uz/lists/view/4057

RIVOJLANISH FALSAFASI

Tabiatdagi o‘simlik olami, hayvonot dunyosi, odamlar hayoti va kishilik jamiyati doimo harakatdadir. Harakat esa rivojlanish manbaidir. Harakatsizlik - bu nisbiy bo‘lib, u narsa va hodisalarning ichki imkoniyati va tashqi ta‘sir omillariga bog‘liqdir. Harakatsiz narsa vaqti kelib harakatlanadi va aksincha, harakatdagi narsalar nisbatan harakatsizlanish, ya‘ni bir joyda to‘xtab, tepsinib turish xususiyatiga ham egadir. Harakatlanish rivojlanish, taraqqiyotga olib kelsa, harakatsizlik esa bir joyda to‘xtab qolish, qolaversa, tanazzulni keltirib chiqarishi ham mumkin. Har ikkala jarayonni ham dialektika nazariyasi o‘rganadi.

1-§. Dialektika - rivojlanish haqidagi ta‘limot

1. Shakllanish, o‘zgarish, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalari. Olamdagi barcha narsa, hodisa, voqealar makon ichra shakllanib zamondagina mavjud bo‘ladi. Mavjudlik o‘zgarib rivojlanish orqali o‘zining taraqqiyot darajasiga etadi. *Bunda **shakllanish (shakllanmoq)** deb olamdagi narsa,hodisa,voqealarning ma‘lum bir ko‘rinishga kelishiga, ya‘ni tus olishiga aytiladi.* Shakllanish inson nasliga nisbatan olib qaraganda odatda o‘zoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. *O‘zgarish(o‘zgarmoq) deb biron bir narsa,hodisa,voqealar silsilasida o‘zgacha holatning yuz berishi, aniqrog‘i, mohiyat jihatidan avvalgisiga o‘xshamagan holatga o‘tishiga, xususan o‘rni, vazifasi, maqomi bo‘yicha yangicha, boshqacha bo‘lishiga aytiladi.* Bunga kishilik jamiyati tarixida yuz beradigan keskin burilish, bir holatdan boshqa holatga o‘tish,ya‘ni o‘zgacha, boshqacha bo‘lish misol bo‘la oladi. O‘zgarishning ziddi o‘zgarmaslik hisoblanadi. O‘zgarmaslik(o‘zgarishsizlik) – bu narsalarning hech qanday o‘zgarish yuz bermagan holati, ya‘ni odatda eskicha qolishidir.

Rivojlanish - tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o‘zgarish, ya‘ni bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o‘tishni ifodalaydi. Rivojlanish natijasida obyektning - tarkibi yoki strukturasining yangi sifat holati vujudga keladi. Rivojlanish tabiat, jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy tamoyilidir.

Jonsiz tabiatda rivojlanishga yulduzlarda yuz berayotgan evolyusiya jarayonlarini, jonli tabiatda - turli organizmlarning o‘sishini, jamiyatda - fan, texnika, sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi va shu kabilar misol bo‘ladi.

«Rivojlanish» tushunchasi nafaqat moddiy, balki ma‘naviy dunyoga, xususan, inson tafakkuriga nisbatan, masalan, umuman ongning yoki ayrim fikr, g‘oya, nazariyaning rivojlanishi to‘g‘risida so‘z yuritilgan

holda, qo'llanilishi mumkin. Fikrning rivojlanishi uning «pishib etilishi»ni, ya'ni murakkablashuvi, takomillashuvi, yanada aniqroq ma'no kasb etishi va shu kabilarni anglatadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, narsalar va hodisalarning obyektiv dunyosidan farqli o'laroq, subyektiv konstruksiyalar (tafakkur, g'oyalar, nazariyalar) harakati va rivojlanishiga nisbatan ko'lam ko'rsatkichlari tatbiq etilishi mumkin emas. Ayni vaqtda ideal narsalar va hodisalar darajasida rivojlanish jarayonlari, xuddi moddiy narsalar dunyosidagi kabi vaqtda kechadi.

Rivojlanishning ikki shakli mavjud bo'lib, birinchisi, obyektning asta-sekin sodir bo'luvchi miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq evalutsiyon rivojlanish, ikkinchisi, obyekt tuzilmasidagi sifat o'zgarishlaridan iborat inqilobiy rivojlanishdir.

Evolyutsion rivojlanish jamiyatda bir tizimning asta-sekin, keskin portlashlarsiz bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini, inqilobiy rivojlanish esa keskin portlash yo'li bilan bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini bildiradi. Evolyutsion rivojlanish jamiyatning yangi bosqichga uzluksiz va talafotlarsiz o'tishiga imkon beradi. Bunday o'tishda muayyan vaqt zarur bo'ladi. Inqilobiy rivojlanishda jamiyatning eski asosiy tayanch nuqtalari yo'q qilinib, keskin sifatiy o'zgarishlar amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi jamiyatga o'tishning evalutsion rivojlanish yo'lini tanladi. Bu yo'l jamiyat a'zolarining manfaatlariga zid kelmaydigan, muayyan vaqtni talab qiladigan va pirovardida samarali bo'ladigan yo'ldir.

Rivojlanishning progressiv, taraqqiyot turi bilan regressiv, tanazzul turi farqlanadi. Hozirgi zamon fanida rivojlanishning maxsus ilmiy nazariyasi ishlab chiqilmoqda, unda asosan, qaytariluvchi jarayonlarni qarab chiquvchi klassik tabiatshunoslikdan farq qilgan holda, nochiziqli, sakrashsimon o'zgarishlar bayon qilinadi.

Kundalik hayotda «Harakat» deganda, odatda, narsa va hodisalarning oddiy o'rin almashuvi tushuniladi. Dialektikada esa harakat chuqurroq tushuniladi. Bundagi «O'zgarish» tushunchasi hajm jihatdan «Harakat» tushunchasiga kiradi. Chunki har qanday o'zgarish harakatdir, lekin har qanday harakat o'zgarish emasdir. O'zgarish narsa va hodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga, bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishidir. Masalan, yangi buyumning eskirishi va shular kabi. Biroq «O'zgarish» o'z ichiga «rivojlanishni» oladi, garchi har qanday o'zgarish rivojlanish bo'lmasa ham.

Taraqqiyot (*arabcha - yuksalish, olg'a harakatlanish, rivojlanish, o'sish*) - rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga

yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi. Taraqqiyot borliqning eng umumiy xossalaridan biri bo‘lib, u predmetning yangi sifat holatiga o‘tishida, tarkibi va strukturasining xossalari, aloqalari va munosabatlarining o‘zgarishi va sh.k.larda o‘z ifodasini topadi. Vaqt taraqqiyotning muhim xususiyatlari qatoriga kiradi. Har qanday taraqqiyot real vaqtda sodir bo‘ladi va bu uning orqaga qaytmas yo‘nalishga ega o‘zgarish ekanligini namoyon qiladi. Taraqqiyot falsafiy adabiyotlarda progressiv rivojlanish tarzida qo‘llaniladi. Odatda rivojlanishning 2 muhim yo‘nalishi bo‘lib, biri taraqqiyot (progres-siv rivojlanish), ikkinchisi inqiroz (regressiv rivojlanish) deyiladi. Taraqqiyot nisbiydir. Rivojlanish bir sistema uchun taraqqiyot, boshqa sistema uchun regress bo‘lishi mumkin. Har qanday sistema o‘zining rivojlanishi mobaynida taraqqiyotni ham, inqirozni ham boshidan kechiradi. Sistemaning ravnaq topishi taraqqiyotni anglatsa, uning yemirilishi inqirozni anglatadi. taraqqiyot jonsiz, anorganik tabiatga ham, jonli, organik tabiatga ham, jamiyatga, inson tafakkuriga, ruhiyatiga ham xos bo‘lgan tabiiy va zaruriy jarayondir. taraqqiyot mikro-makro-megadunyoda ham sodir bo‘ladi. Taraqqiyot g‘oyasining shakllanishi va asoslanishida yangi davrda eksperimental fanlarning vujudga kelishi, ayniqsa ilmiy kosmologiyaning paydo bo‘lishi, biologiya va geologiyada evolyusiya nazariyalarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

XX asrda ilmiy bilishning rivojlanishi, ayniqsa biologiya, madaniyat tarixi sohalarida erishilgan muvaffaqiyatlar ta‘sirida taraqqiyotning ichki mexanizmlari haqidagi tasavvurlar kengaydi. Xususan, taraqqiyot o‘zining katta yo‘nalishlarida, masalan, organik dunyo evolyutsiyasi yoki sivilizatsiya rivojida bir jinsli emasligi, turli xil tendensiyalar: progress, regress, turg‘unlik kabi jarayonlardan tashkil topishi (masalan, organizm va sivilizatsiyaning ba‘zi turlarining yo‘q bo‘lib ketishi, boshqalarining paydo bo‘lishi, mavjudlarining modifikatsiyaga uchrashi) ma‘lum bo‘ldi. Falsafa tarixida G.Gegel tomonidan taraqqiyot masalasi har tomonlama chuqur o‘rganildi va uning natijasi sifatida taraqqiyot haqidagi yaxlit falsafiy ta‘limot - dialektika nazariyasi shakllandi. Unda taraqqiyot manbaini ziddiyatlar, taraqqiyotning amalga oshish mexanizmini miqdor va sifat o‘zgarishlarning o‘zaro aloqadorligi, taraqqiyot yo‘nalishini dialektik inkorga asoslangan abstraktlilikdan konkretlilikka tomon bo‘lgan harakat tashkil etishi haqidagi chuqur ma‘noga ega fikrlar mantiqan asoslandi[61].

2. Dialektika:tushunchasi va mohiyati. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi fan va amaliyot rivoji natijasida dialektika tabiat, jamiyat va

[61] Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти,2010. - Б.254.

tafakkur taraqqiyotining, ulardagi aloqadorlik va bog‘lanishlarning eng umumiy qonunlari haqidagi fan; voqelikdagi narsa va hodisalar, ularning fikriy in’ikoslari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi prinsiplar, ularni doimo o‘zgarish va rivojlanishda, ichki ziddiyatlar taqozosi bilan yuz beradigan «O‘z harakati»da, deb qaraydigan bilish nazariyasi; har tomonlama boy, ziddiyatlarga to‘la tarixiy taraqqiyot haqidagi ta‘limot sifatida maydonga chiqadi.

Bu dialektika bir butun borliqning eng umumiy aloqadorligi, o‘zgarishi va taraqqiyoti to‘g‘risidagi ta‘limot sifatida ham moddiy dunyoga, ham uning in’ikosi bo‘lgan inson bilishiga xos ta‘limotdir. Shunga ko‘ra bu dialektika o‘z ichiga obyektiv va subyektiv dialektikani oladi. Bunda moddiy dunyoning, undagi narsa va hodisalarning aloqadorlik va bog‘lanishlari, ularning harakati, o‘zgarish va rivojlanishlari *obyektiv dialektikani* tashkil etadi. Moddiy dunyoning inson miyasidagi in’ikosiga xos bo‘lgan bilish jarayonining dialektikasi *subyektiv dialektika* — obyektiv dialektikaning kishilar miyasidagi in’ikosidir. Demak, *obyektiv dialektika — bu narsalar, buyumlar dialektikasidir; subyektiv dialektika esa, obyektiv dialektikaning inson ongidagi in’ikosi — ya‘ni, tafakkur dialektikasidir.*

Obyektiv dialektika subyektiv dialektikani vujudga keltiradi. Dialektika borliq, ya‘ni tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi aloqadorliklar va rivojlanishlarning umumiy qonuniyatlari haqida bizga to‘g‘ri yo‘nalish berib, dunyoni o‘zlashtirish va o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi nazariyadir, usuldir. Dialektika dunyoning haqiqiy ilmiy manzarasini yaratib, kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Chunki ilmiy asoslangan dialektika, birinchidan, dunyodagi har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlarining bir-birlariga bog‘liq bo‘lishi va bir-birlari bilan juda mustahkam aloqador ekanligi to‘g‘risida chuqur ma‘lumot bersa, ikkinchidan, u bosib o‘tilgan bosqichlarni takrorlanayotgandek bo‘lib ko‘rinadigan, lekin ularni boshqacha, yanada yuqoriroq negizda takrorlaydigan taraqqiyot, to‘g‘ri chiziq bilan emas, balki spiral tarzda boradigan, ma‘lum holatlarda boshlang‘ich holga go‘yo qaytganday bo‘lib ko‘ringan, ma‘lum tanazzullar va bo‘hronlar bilan bo‘ladigan ilg‘or taraqqiyot to‘g‘risidagi ta‘limot hisoblanadi.

Dialektika kishilarning, ularni qurshab turgan dunyoni bilishining umumiy usuli sifatida dunyoga dialektik qarashni vujudga keltirgan.
Dunyoga dialektik qarash — bu barcha narsa va hodisalarni, ularning inson miyasidagi in’ikoslari — inson bilishini ham o‘zaro aloqadorlikda va bog‘lanishda qarama-qarshiliklar birligi va kurashida, miqdor va sifat

o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tishida, eskining o‘rnini yangi egallashida, xullas, ularni «O‘z harakati»da, o‘zgarib va rivojlanib turishida, paydo bo‘lib va yo‘q bo‘lib turishida, va ayni vaqtda hamma narsa o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda va o‘zaro munosabatda, deb tushunishdir. Bunday tushunish dialektik qarashni vujudga keltiradi. Dunyoga dialektik qarash dialektik tafakkurni yuzaga keltiradi.

Dialektik tafakkur subyekt tafakkurining rivojlanish darajasiga ham bog‘liqdir. Tabiat va jamiyatda pirovard natijada hamma narsa dialektik tarzda yuz beradi. Bu dialektik jarayon subyekt miyasida in’ikos etganda, paydo bo‘lgan tasavvur va tafakkur yo metafizik yoki dialektik yo‘l bilan hosil qilinishi mumkin. Dialektik tafakkur shu jihatdan inson tafakkuri taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichiga xosdir. Dialektik tafakkur borliqdagi narsa va hodisalar asli qanday bo‘lsa, ularning subyekt miyasida muayyan fikr shaklida xuddi shunday aks etishidir. *Dialektik tafakkur — bu dialektik fikrlash usuli.* Dialektik tafakkur ham tabiatshunoslik va ijtimoiy fikr taraqqiyoti bilan o‘zgarib, rivojlanib boradi. Uning keyingi davr ijtimoiy taraqqiyot bilan, jahon xalqlari hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq yuzaga kelgan shakli, bu- yangicha tafakkurdir. Yangicha tafakkurning asosini jamiyatni dialektik tushunish tashkil qiladi. Dialektik tafakkur usuli o‘z mohiyati bilan sofistik, eklektik va dogmatik tafakkur usullaridan tubdan farq qiladi.

Tafakkurning sofistik, eklektik, metafizik, dogmatik usullari dialektik tafakkur usulining muqobillaridir. Ular inson tafakkuri faoliyatining turli qirralari sifatida bir-birlariga ham qarama- qarshi, ham, ayni vaqtda, bir-birlarini to‘ldiradilar. Dialektika o‘z mohiyati jihatdan umumiy aloqadorlik, bog‘lanish, harakat, o‘zgarish to‘g‘risidagi ta‘limot sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos eng umumiy aloqadorlik va bog‘lanishlarni to‘g‘ri ochib borish asosida kishilarga dunyoni o‘zlashtirish va o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatuvchi metodologik qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Dialektika, avvalo, umumiy alokadorlik va bog‘lanishlar haqidagi fandir. Chunki borliqdagi barcha narsa va hodisalarni umumiy aloqadorlikda va o‘zaro bog‘lanishda olib qarash borliq haqida dialektik fikr yuritishdir. Haqiqatan ham, borliqdagi hamma narsalar, hodisa va jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular umumiy aloqadorlikda bir-birlariga ta‘sir va aks ta‘sir qilib turadilar, bir-birlarini taqozo qiladilar. Xoh tabiat va jamiyatda, xoh inson hayoti va tafakkurida bo‘lsin, hech bir hodisa yoki voqea, o‘zgarish yoki jarayon boshqa hodisa yoki voqealardan, boshqa o‘zgarish va jarayonlardan alohida, ulardan ajralgan, ularga bog‘liq,

bo‘lmagan, ular bilan aloqadorliksiz mavjud bo‘lmaydi, aksincha, ular bilan doimo o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi.
Borliqning turli tomonlari, materiyaning turliko‘rinishlari, uning asosiy mavjudlik usullari, harakatning turli shakllari bir-birlari bilan o‘zaro umumiy aloqadorlikda bo‘lib, bir-birlariga ta‘sir va aks ta‘sirida, lekin o‘zaro bog‘lanishda bir-birlarini taqozo qilib turadi.

Dialektikaning o‘zaro aloqadorlik prinsipi yalpi umumiy xarakterga egadir. Uning bu yalpi umumiyligi shundaki, *birinchidan,* bu aloqadorlik bir butun borliqqa, ya‘ni tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri va bilishga xosdir; *ikkinchidan,* bu aloqadorlik borliqning hamma ko‘rinishlariga oid barcha narsa va hodisalarni, ularga xos hamma narsa va holatlarni, bir butun inson bilish jarayonini, xullas, bir butun moddiy va ma‘naviy olamning hamma bog‘lanishlarini o‘z ichiga oladi.
Dunyoda boshqa narsalar, hodisalar va jarayonlar bilan tabiiy aloqadorlikda bo‘lmagan hech bir narsa, jarayon yo‘q. Lekin biz o‘z bilish jarayonimizda biron narsa yoki hodisani o‘rganar ekanmiz, dastlab uni boshqa narsalar yoki hodisalarning umumiy bog‘lanishlaridan ajratamiz. Bu jarayonda biz uning o‘ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish uchun bu narsa yoki hodisaning boshqa narsalar va hodisalar bilan bo‘lgan hamma aloqa va bog‘lanishlarini, hamma aloqadorliklarini aniqlab, bilib boramiz. Narsa va hodisalarni haqiqatdan bilish uchun ularning barcha tomonlarini, barcha aloqalarini va bog‘lanishlarini birga olib o‘rganmoq, lozim. Biz garchi bunga hech qachon to‘la- to‘kis erisha olmasak ham, lekin har tamonlama o‘rganish talabi bizni xatolardan, noto‘g‘ri xulosa chiqarishlardan saqlab qoladi. Shu asosdagina biz bu narsa yoki hodisaning bir butun tabiati va mohiyatini to‘g‘ri bilib olishga erishamiz.

Dialektik aloqadorlik va bog‘lanishlar bir butun borliqning turli tomonlari va materiyaning turli ko‘rinishlari o‘rtasidagina mavjud bo‘lmasdan, balki har bir narsa yoki hodisaning ham o‘zidagi barcha tomonlari, hamma belgi va xususiyatlari o‘rtasida ham mavjuddir.
Chunki har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlari bir-biriga bog‘liq bo‘lishi va bir-birlari bilan juda mahkam va chambarchas aloqadorligi qonuniy va tabiiy holdir.

3. Aloqadorlik va bog‘lanishlarning namoyon bo‘lishi. Aloqadorlik va bog‘lanishlar borliqning turli sohalarida turli-tuman shakllarda namoyon bo‘ladi. Bular quyidagilardir: *notirik olamda:* a) «elementar» zarralarning bir-birini taqozo qilishi va aks ta‘siri shaklida; b) planetalarning bir-birini tortib va itarib turishlari shaklida.

Organik tabiatda: a) tirik organizmlarning modda almashinuvi shaklida; b) tirik organizmlar bilan tabiiy muhit o'rtasidagi bog'lanishlar; v) o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro aloqadorligida; g) hayvonlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlarda va h. k.

Jamiyatda bo'lsa: a) jamiyat bilan tabiat o'rtasida; b) jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti o'rtasida; v) jamiyat ishlab chiqarish usulining tomonlari: ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida; g) jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan ustqurmasi o'rtasida; d) jamiyat iqtisodiy strukturasi elementlari o'rtasida; e) jamiyatda shaxs o'rtasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Tafakkurda bo'lsa: a) bir butun tafakkur jarayonida, tafakkur shakllari o'rtasida: b) tafakkur shakllari va qonunlari o'rtasida; v) tafakkur va borliq o'rtasida.

Bilish jarayonida esa: a) hissiy bilish va aqliy bilish o'rtasida; b) bilish bosqichlari va bilish shakllari o'rtasida; v) bilish bilan borliq o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarda ifodalanadi.

Borliqning aniq sohalariga oid bu aloqadorliklarni turli aniq fanlar o'rganadi. Bunda har bir fan o'z sohasidagi aloqadorliklar zanjiridagi ma'lum, o'rganilgan xalqalarga tayangan holda hali ma'lum bo'lmagan yangi xalqalarni ochib boradi. Bu jarayondaborliqning ma'lum bir turiga oid konkret sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning yangi bir turi ham ochilishi va ma'lum oraliq sohalarni o'rganuvchi yangi fanlarning paydo bo'lishi mumkin. Masalan: biofizika, biomexanika, fizikaximiya, geofizika, matematik lingvistika, matematik mantiq va boshqalar shular jumlasidandir.

Umuman, borliq bepoyon aloqadorliklar va bog'lanishlar majmuidir. Turli fanlar bu aloqadorliklar va bog'lanishlarni turli jihatdan o'rganadi. Dialektika esa bir butun borliqqa va uning turli ko'rinishlariga xos bo'lgan eng umumiy aloqadorlikni va bog'lanishlarni o'rganadi va ochib beradi. *Dialektikada bunday aloqadorliklarning uch turi mavjud:* 1) universal, 2) strukturaviy, 3) deterministik aloqadorliklar. Bu jihati bilan dialektika konkret fanlardan farq qiladi.

Shuni aytish kerakki, narsa, voqea, hodisa va jarayonlar aloqadorliklarining turli tomonlari, bosqichlari, uning konkret xususiyatlari turli konkret fanlar tomonidan o'rganilib, ularning har biri o'zining sohasiga oid alohida nazariyalarini ishlab chiqadi va mukammallashtirib boradi. Masalan, hozirgi zamon kosmologiyasi koinot, ayrim galaktikalar, turlicha kosmik obyektlarning kelib chiqishi kabi nazariyalarni ishlab chiqmoqda. Evolyutsion biologiya esa tirik organizmlarning rivojlanishi, ularda sodda turlardan murakkab turlarning qanday kelib chiqishi haqida

o‘z nazariyalariga ega. Tarix fanida esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari haqida turli nazariyalar mavjud; tilshunoslik fani bo‘lsa turli tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi nazariyalarni ishlab chiqqandir. Bular rivojlanishning turli konkret maxsus sohalariga oid nazariyalardir.

Narsa, voqea, hodisa va jarayonlar aloqadorliklarining turli maxsus fanlar sohalariga oid bunday nazariyalarining umumiy jihatlari dialektikaning taraqqiyot nazariyasida ifodalanadi. Dialektikaning taraqqiyot nazariyasi esa bir butun borliqning harakati, o‘zgarishi va rivojlanish qonunlari va prinsiplarini o‘z ichiga olgan umumfalsafiy ta‘limotdir.

2-§. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari

1.Qonun tushunchasi va uning turlari. Qonun muayyan shart-sharoitda narsalar, voqealar rivojining xususiyati va yo‘nalishini belgilaydigan, ma‘lum bir qat’iy natijani taqozo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy, barqaror munosabatlaridir.

Qonunlar narsa, voqea, hodisa va jarayonlarning eng muhim belgilarni aks ettirish, umumiy munosabatlarni ifodalash, zaruriylik, majburiylik, barqarorlik, takrorlanuvchanlik kabi xususiyatlarini ifodalaydi.

Qonunlar amal qilish doirasiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

Eng umumiy qonunlar - tabiat, jamiyat, tafakkurning istisnosiz barcha obyektlariga xos bo‘lgan universal, falsafiy qonunlardir. Ular tabiat, jamiyat taraqqiyotining umumiy hamma yerda, doim mavjud xossalari, mayllari o‘rtasidagi umumiy, zaruriy, barqaror ichki takrorlanib turuvchi, muhim obyektiv bog‘lanishlarni ifodalaydi.

Umumiy qonunlar - moddalarning saqlanish va aylanish qonuni; butun olam tortishish qonuni va hokazolar.

Xususiy qonunlar - fizikada Kulon qonuni, Mendeleyevning kimyoviy elementlarining davriy sistemasi, huquqshunoslikda fuqarolik qonuni, saylovlar haqidagi qonun, jinoyat kodeksi va boshqalar.

Namoyon bo‘lishiga ko‘ra qonunlar ikki guruhga bo‘linadi:

1) *dinamik qonunlar* - mutlaq ma‘nodagi sababiy, zaruriy bog‘lanishlarni ifodalaydi;

2) *statistik qonunlar* - mutlaq ma‘nodagi zaruriy qonunlar emas, ular ehtimollik sababiga muvofiq bog‘lanishlarni ifodalaydi. Masalan, nishonga otilgan o‘qning mo‘ljalga tegish ehtimoli va hokazo.

Qonuniyat - qonunning tasodifiy sharoitlar qamrovida aniq hodisa jarayonlarda ifodalanishi. Masalan, organizm tuzilishi va biron-bir badiiy asarning yaratilishi, har biri uchun umumiy bo'lgan biologik yoki estetik qonunlar asosida namoyon bo'ladi. Lekin shu bilan birga har bir hodisa bu umumiy qonunlardan tashqari xususiy qonunlarga ham egadir. Shu tasodifiy qonunlarning takrorlanish ehtimoli qonuniyatda ifodalanadi.

Har qanday fanning asosini uning qonunlari tashkil etadi. Jumladan, falsafa fanining qonunlari, eng umumiy qonunlar sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkurining umumiy bog'lanishlari- ni o'zida ifodalaydi. Falsafaning uch qonuni bor:

1. Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tish qonuni.
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.
3. Inkorni inkor qonuni.

Hozir esa falsafiy qonunlar bilan sohaviy qonunlarni tushunishdagi farqni ko'rsatish maqsadida huquqiy qonunlar misolida ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Shu o'rinda huquqshunoslik fani va amaliyotida «qonun» tushunchasiga qanday yondashilishi haqida bir og'iz to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqshunoslikda amal qiladigan qonunlar jamiyatda mavjud huquqiy munosabatlarni shakllantirish va kishilarning bu jarayonda xatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, huquqshunoslik qonunlari fuqarolarning ma'lum bir jamiyatdagi xatti-harakatlarini boshqarib turish hamda ularning huquq va majburiyatlarini belgilab berish uchun mavjud hokimiyat qarori bilan ta'sis etiladi.

Huquq nuqtai nazaridan qonun - bu oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, davlatning qonun chiqaruvchi organ tomonidan yoki aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, referendum o'tkazishning talablariga muvofiq qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub'ektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ- huquqiy hujjatdir[62].

2. Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tish qonuni

Bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o'rganar ekanmiz, ular bir-birlaridan o'zlarining turli xususiyatlari bilan farqlanishlarini ko'ramiz. Bunda ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsa - ularning sifatidir.

Sifat deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisani

[62] Юридик энциклопедия / проф. У.Таджиханов тахрири остида. - Т.:ИИВ Академияси, 2001. - Б. 610-611.

ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytiladi.

Sifat bir narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisadan ajratib turadigan shunday muayyanlikka, uning o'zgarishi uning o'rniga boshqa narsa va hodisani vujudga keltiradi.

Tabiat va jamiyat juda ko'p xilma-xil narsalar, voqea va hodisalarning birligidan tashkil topgan. Ularning bunday xilma-xilligi narsa va hodisalar o'rtasidagi sifatiy tafovutlarning ifodasidir. Masalan, noorganik tabiat bilan organik tabiat sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Organik tabiat o'z atrofidagi muhit bilan uzluksiz modda almashinib turadi. Noorganik tabiatda bunday modda almashinish bo'lmaydi, o'z navbatida, organik tabiatning turli qismlari o'rtasida, masalan, o'simliklar bilan hayvonlar o'rtasida ham farq bor. Biroq, inson ularga nisbatan butunlay boshqacha sifatga ega.

Odatda bir narsa yoki hodisaning sifati boshqa narsa yoki hodisa bilan bo'lgan munosabatida aniqlanadi. Shu bilan birga, sifat bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratibgina qolmasdan, balki uning boshqa narsalar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Shuning uchun muayyan sifatga ega bo'lgan narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib, bir tomonlama o'rganish bilan chegaralanmay, balki ularni bir-biri bilan bog'laydigan umumiy xususiyatlari asosida ham o'rganish zarur. Agar organik tabiatdagi tirik organizmning atrof-muhit bilan modda almashinishi to'xtab qolsa, bu organizm halok bo'ladi, o'zining tiriklik sifatini yo'qotadi, chunki tirik organizmning tirikligi, undagi hayotning mohiyati modda almashinuvidan iborat.

Narsa va hodisalarning sifati ularning xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Har bir narsa yoki hodisa ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlardan bir qanchasi birikib, shu narsa yoki hodisaning muayyan sifatini tashkil qiladi. Bunda sifat bilan xususiyat bir narsa emasligi ma'lum bo'ladi. sifat narsa va hodisaning umumiy xarakteristikasini berib, uning mohiyatini ifodalaydi. Xususiyatlar esa sifatning ifodasidir, ularning muhim va nomuhim xususiyatlari o'zgarishi bilan ularning sifati ham o'zgarishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari ularning sifati o'zgarishlarida katta rol o'ynaydi.

Narsa va hodisalar nomuhim xususiyatlarini yo'qotishlari yoki yangidan hosil qilishlari natijasida, ular o'z sifatlarini o'zgartirmaydilar. Agar bu narsa va hodisalar o'zlarining muhim xususiyatlarini yo'qotsa yoki o'zgartirsalar, ular yangi sifatga o'tadilar. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo'qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchanlik

esa benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o‘zining bu xususiyatini biror sabab bilan yo‘qotsa, u dvigatel uchun yonilg‘i bo‘lmay qoladi, natijada, sifat jihatidan boshqa ximiyaviy moddaga aylangan bo‘ladi.
Narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlari ham obyektivdir.

Shuni aytish kerakki, borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan faqat sifatlari bilan emas, balki miqdorlari bilan ham farqlanadilar. Ularning sifatlari doimo miqdorlari bilan birga mavjuddir.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi miqdor deb ataladi. Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o‘lchov daraja tariqasida, uchinchi holatda esa narsa va hodisalarning makondagi o‘zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Ijtimoiy hodisalarning miqdor muayyanligini, tabiat hodisalarida bo‘lganidek, hamma vaqt ham aniq ifodalab bo‘lmaydi Lekin bunda ham sifat va miqdor birlikda bo‘ladi. Masalan, bir ijtimoiy tuzum ikkinchi ijtimoiy tuzumdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri jihatidan farq qilishi bilan birga (sifat), ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, unumli mehnat bilan shug‘ullanuvchi odamlarning soni, milliy daromadning ma‘lum miqdori, uning jamiyat a‘zolariga taqsimlanishi (miqdor) va shu kabilar bilan farq qiladi.

Miqdor ham sifat kabi obyektiv mavjud bo‘lib, u predmet va hodisalarning eng muhim tomonini ifodalaydi.
Shuning uchun narsa va hodisalarni o‘rganishda ularning miqdor va sifatini, uzviy bog‘liqligini e‘tiborga olmoq lozim. Har bir narsa va hodisa muayyan miqdor va sifat birligidan iborat me‘yorga ham ega bo‘ladi. *Me‘yor narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir. Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me‘yor, deyiladi. Me‘yor narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisaning sifatining o‘zgarishiga, uning boshqa sifatga o‘tishiga, ya‘ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.*

Ijtimoiy hodisalarda me‘yorning roli juda kattadir. Ayniqsa, san’atda me‘yor juda muhimdir. Tabiat va inson go‘zalligini me‘yordan chiqib ifodalash mumkin emas. Me‘yor ma‘naviy-ahloqiy hodisalarga ham taalluqlidir. Har bir ijtimoiy tuzumda uning ahloqiy normalari doirasidan chiqib ketilsa, u jinoyatga aylanib ketadi. Chunki bu chegaradan, ya‘ni me‘yor doirasidan chiqish bilan bir faoliyat boshqa bir faoliyatga aylanadi.

Bunday holda odatda boshqa sifat va miqdor birligiga asoslangan yangi me'yor vujudga kelgan bo'ladi.

Narsa va hodisalar o'z mavjudligining ma'lum davrlarida sifat va miqdor birligini, ya'ni oldingi sifatlarini saqlaydilar. Bu davrda ularda faqat muhim bo'lmagan miqdor o'zgarishlari sodir bo'ladi. Biroq, bu jarayon vaqtinchadir. Taraqqiyotning ma'lum bosqichida miqdor o'zgarishlari shunday darajaga etadiki, endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolishi tufayli, zaruran sifat o'zgarishlariga o'tadi. Masalan, misning xarorati 600°S yoki 1000»Sga yetkazilganida ham, uning agregat holati o'zgarmaydi, ammo harorat 1083°Sga yetganda mis eriy boshlaydi, ya'ni u yangi sifatiga o'tadi. Bunda narsaning eski sifat chegarasining buzilishi natijasida, uning oldingi me'yori ham o'zgaradi, ya'ni yangi sifat va miqdorga ega bo'lgan yangi me'yordagi narsa vujudga keladi.

Borliqdagi narsa va hodisalarda sifat o'zgarishi ulardagi miqdor va sifatning o'zgarishlari natijasida sodir bo'ladi. Bunda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga o'tgani kabi, sifat o'zgarishlari ham miqdor o'zgarishlariga o'tadi. Rivojlanish jarayonidagi bir- biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o'zgarishlari, uzluksizlik va uzilishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. *Uzluksizlik* - bu narsa va hodisalarning rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi Bu uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarning rivojlanishi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bu uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarda ichki o'zgarishlar yuz bersada, bu o'zgarishlar shu narsa yoki hodisa mohiyatini butunlay o'zgartirib yubormaydi. Bunda narsa yoki hodisa o'zining oldingi sifatini saqlab qoladi. *Uzilish* esa shu narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ifodalaydi. *Uzilish — bu o'zgarish va rivojlanish jarayonida narsa yoki hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o'tishi demakdir.O'zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o'tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanish jarayoni falsafada uzluksizlikning uzilishi, deyiladi. Ayni shu uzluksizlikning uzilishi tufayli bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayonini falsafada sakrash, deb ataladi.* Sakrash narsa va hodisalarning butun uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Masalan, moddiy olam rivojlanishida noorganik tabiatdan organik tabiatning paydo bo'lishi, ayni vaqtda buyuk sakrash bo'lgan. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatini emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrash o‘z xarakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo‘lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Masalan, tabiatdagi sakrashlar undagi eski sifatdan yangi sifatga o‘tishlar insonning irodasiga bog‘liq, bo‘lmagan holda, tabiiy-tarixiy jarayonning oqibati sifatida yuz beradi.

Ijtimoiy hayotdagi sakrashlar esa tabiatdagi sakrashlardan farq qilib, ular kishilar tomonidan obyektiv zaruriyatlarni anglash natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o‘ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatadigan ijtimoiy inqiloblar, tadrijiy rivojlanishlar orqali amalga oshiriladi. Sakrashlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning bilimlar tizimining rivojlanib borishiga ham xosdir. Ilm-fan sohasida sekin-asta to‘planib borgan faktlar, ma‘lumotlar va bilimlar asosida inson o‘z aql-idroki bilan ixtiro va kashfiyotlar qilishi, yangi qonuniyatlarni ochishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib sakrashlarni ikki turga bo‘lish mumkin: birinchisi — portlash yo‘li bilan bo‘ladigan sakrashlar, ikkinchisi — sekin-asta tadrijiy yo‘l bilan bo‘ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o‘tishi tezlik bilan yuz beradi. Masalan, kimyoviy jarayonlarda reaksiyaga kirishgan modda tezlik bilan eski sifatdan yangi sifatga o‘tadi, boshqa kimyoviy moddaga aylanadi.

Sakrashning ikkinchi turida esa eski sifat elementlarining asta-sekin yo‘qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to‘planishi natijasida yangi sifat paydo bo‘ladi. Bunday sakrash turiga tilning rivojlanishini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Demak, har qanday o‘zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bir-biriga o‘tishi orqali sodir bo‘ladigan jarayonlardan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, miqdor va sifat o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tishini bilish faqat ilmiy bilish uchungina emas, balki amaliy faoliyat uchun ham katta ahamiyati bor. Masalan, respublikamiz mustaqillikka erishdi. Lekin uni saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish bizdan har doim chidam va matonat bilan ishlashni talab qiladi. Chunki, O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evalutsiya yo‘l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o‘tish - tanlab olingan yo‘lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. O‘zbekistan haqiqiy demokratik va rivojlangan davlatga aylanishi uchun (ya‘ni yangi sifatga ega bo‘lishi uchun) juda ko‘p iqtisodiy, siyosiy va ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish kerak. Bunda

yoshlarning, bo‘lajak yuqori malakali mutaxassislarning jonbozlik ko‘rsatishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.

Borliqdagi har bir narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo‘ladi. Har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini o‘zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlar va tamoyillarga ega. Masalan, elektr manfiy va musbat, tabiatda esa o‘zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimilyasiya va dissimilyasiya kabilar. Ana shu bir-birini taqozo etuvchi va o‘zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o‘rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbai bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanishning har bir bosqichi o‘ziga xos ziddiyatlar va turli qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal bo‘lishidan iborat.

Qarama-qarshiliklar va ularning o‘zaro munosabati, ziddiyat va ularning birligi jamiyatga, ijtimoiy hodisalarga, insonga, inson faoliyatiga, hatto uning bilish jarayoniga ham xosdir.

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishi jarayonidan iborat ekanligini tushunib olish uchun ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik kabi tushunchalarning o‘zaro munosabatlarini bilib olish lozim. *Narsa va hodisalardagi o‘zaro o‘xshash tomonlar birligi ayniyat deyiladi. Ayniylik narsa aa hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi.* Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga, tafovut ham mavjud bo‘ladi. *Tafovut narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir.* Borliqda o‘z qarama-qarshi tomonlariga ega bo‘lmaydigan narsa va hodisa bo‘lmaydi. Binobarin, ularda ayniyat ham, tafovut ham bo‘ladi.

Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Ziddiyatning mavjudligi taraqqiyotning manbai va harakatga keltiruvchi kuchini taqozo etadi.

Dialektikada qarama-qarshilik deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning o‘zaro bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o‘zaro munosabatlari tushuniladi. Umuman. qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ayniyat, tafovut, ziddiyatlarni o‘rganish qarama-qarshiliklar birligi va kurashi haqidagi ta‘limotning mohiyatini bilishga yordam beradi.

Chunki, har qanday narsa va hodisalarning o‘zgarishi va rivojlanishi ulardagi mavjud ziddiyatlar birligi va kurashi natijasida yuz beradi.

Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatida hal qilinmasa, konfliktga aylanishi mumkin. Ziddiyatlarning hal qilinishi o‘zgarish va rivojlanishga, bir sifatdagi narsa yoki hodisaning boshqa sifatdagi narsa yoki hodisaga aylanishiga, yoki narsa yoki hodisa o‘rniga yangi narsa va hodisa paydo bo‘lishiga olib keladi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi hamma sohada amal qiladi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti ayni shu sababga binoan sodir bo‘ladi. Ziddiyatlarning mohiyatini bilmay taraqqiyotning sabablarini tushunib bo‘lmaydi. Lekin har bir sohadagi ziddiyatlarni konkret o‘rganmoq va ularni alohida o‘ziga xos hal bo‘lish yo‘llarini to‘g‘ri bilmoq katta ahamiyatga ega. Buning uchun ziddiyatlarning xillari, ularning narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi rolini to‘g‘ri va aniq bilib olish lozim.

Ziddiyatlar juda xilma-xildir. Ular narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha rol o‘ynaydi hamda har xil vazifani bajaradi. Ular, odatda, ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo‘lmagan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Ichki ziddiyat — bu narsa va hodisalarning o‘z ichidagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

Tashqi ziddiyat esa narsalar va hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Lekin ichki va tashqi ziddiyatlarni bunday bo‘lish nisbiy xarakterga ega. Chunki, bir munosabatda ichky ziddiyat boshqa munosabatda tashqi ziddiyat bo‘lishi mumkin. Masalan, turli tuzumdagi davlatlararo ziddiyat tashqi ziddiyat, ammo kishilik jamiyati miqyosida olinsa ular ichki ziddiyatlardir.

Ichki va tashqi ziddiyatlar rivojlanish jarayonida bir xil rol o‘ynamaydi. Rivojlanishning mohiyatini asosan, ichki ziddiyat belgilaydi. Tashqi ziddiyatlar - rivojlanishga bilvosita, ya‘ni ichki ziddiyatlar orqali ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, biz hozir mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, uni rivojlantirish rejalarini tuzyapmiz. Bunda respublikamizning rivojlanishi, istiqboli ko‘p jihatdan mamlakatning ichidagi iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy muammolarni to‘g‘ri, ishning ko‘zini bilib hal qilishimizga bog‘liq. Biroq, respublikamiz xalqaro hamjamiyatlarda, mustaqil davlatlar hamdo‘stligida yashamoqda. Tashqi aloqa va munosabatlardagi muammolarni ham to‘g‘ri aniqlab hal qilinmasa, respublikamiz oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Demak, rivojlanish, asosan ichki muammolarni hal qilishga bog‘liq, bo‘lsa ham, lekin tashqi ziddiyatlarni ham nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Hayotda ichki va tashqi ziddiyatlarning o‘zaro

aloqadorligi va o‘zaro ta‘sirini qat’iy hisobga olib ish tutgan taqdirdagina muvaffaqiyat qozonish mumkin.

Ziddiyatlarni o‘z xarakteriga, ularning narsa va hodisalarning rivojlanishidagi ahamiyatiga qarab asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlarga ham bo‘lish mumkin. *Narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan ziddiyat asosiy ziddiyat deyiladi. Asosiy ziddiyat taraqqiyotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va boshqa barcha ziddiyatlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy bo‘lmagan ziddiyatlar esa narsa va hodisalarning ma‘lum bir taraqqiyot bosqichida ular mohiyatini belgilamaydigan, rivojlanishini o‘zgartirish kuchiga ega bo‘lmagan ziddiyatlar bo‘lib, ularning rivojlanishga ta‘siri konkret vaqtga va sharoitga bog‘liqdir.*

Shuni ham aytish kerakki, ziddiyatlarning qaysi biri asosiy va asosiy emasligini aniqlash rivojlanishning asosiy sabablarini to‘g‘ri belgilashning yo‘lidir. Bu esa oson ish emas. Asosiy ziddiyatni mavjud ziddiyatlar orasidan topish uchun ziddiyatlarni maydonga chiqargan sharoitni, vaziyatni, bundagi qarama-qarshi tomonlarni va ular birligidan tashkil topgan narsaning mohiyatini, boshqalardan farqini, har bir ziddiyatning shu mohiyatga bo‘lgan munosabatini aniqlash lozim. Asosiy ziddiyatlarni aniqlash esa ijtimoiy amaliyot jarayonida va bu amaliy natijalarini tafakkur orqali analiz va sintez qilish natijasida amalga oshadi.

Asosiy ziddiyatlar orasida ularning biri bosh ziddiyatni tashkil qilishi mumkin. *Bosh ziddiyat deb, rivojlanishning u yoki bu bosqichining mohiyatini belgilab beradigan asosiy ziddiyatga aytiladi.* Bosh ziddiyat asosiy ziddiyatlar ichida muhim o‘rin tutadi, ularga nisbatan taraqqiyot jarayonida belgilovchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy taraqqiyotda bosh ziddiyatni aniqlab olish mamlakat taraqqiyotini to‘g‘ri belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotiga xos ziddiyatlarni tahlil qilganda, yana antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni ham farq qilish zarur. Antagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga tubdan zid bo‘lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Noantagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga mos keladigan yoki manfaatlarini o‘zaro kelishtirish mumkin bo‘lgan ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Antagonistik ziddiyatlar konfliktlarga olib kelishi ham mumkin. Bunday holda ular bir tomonning mag‘lubiyati va ikkinchi tomonning g‘alabasi bilan hal qilinadi. Umuman, hamma ziddiyatlarni o‘z vaqtida hal qilib borish zarur, aks halda ularning keskinlashib borishi kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, ziddiyatlar masalasiga, ularni hal etishning shakl va usullariga ham dialektik tafakkur asosida yondashish lozim. Jamiyat ziddiyatlari xilma- xil shakl va usullar bilan bartaraf etilishi mumkin. Ulardan ba'zilari eskining yemirilib borishi va yangining qaror topib borishi asosida hal qilinib borilsa, boshqalari ayni shu ziddiyatlarni tashkil qilgan qarama- qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosa-yu-madoraga keltirish, bir-birlari bilan o'zaro siyosiy muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'llari bilan bartaraf etilishi va shu asosda taraqqiyotni ta'minlash mumkin. Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda qo'llanilayotgan samarali usullardan biri konsensus (o'zaro kelishuv)dir.

Hozirgi davrda konsensus usuli jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'yinamoqda. Ayniqsa, uzoq muddatlar davomida bir-biriga qarama-harshi bo'lib kelgan davlatlar, jamiyatdagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar, ijtimoiy guruhlar, harakatlar va partiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni. jamiyatning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib hal qilishda konsensus usuli juda qo'l kelmoqda. Bu usul jahon xalqlarini milliy totuvlikka, o'zaro hamkorlikka, hamjihatlik va birlikka, barqarorlikka erishishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Konsensus usuli o'zaro tinch yo'l bilan olib borilayotgan muzokaralar, muloqotlar, referendumlar, xalqaro huquq normalari asosida ma'lum bir bitimga kelishuvlar, shular asosida eng muhim hujjatlar qabul qilishlar orqali olib borilmoqda. Jamiyatdagi bunday ziddiyatlarni hal qilishda, ayniqsa, xalqaro tashkilot (BMT va shu kabi)larning obro'-e'tiboridan foydalanish, xalqaro hamjamiyatga teng huquqli a'zo bo'lish va ularning jahon taraqqiyotiga ta'sirining ortib borishi ham muhim omil bo'lmoqda.

Ziddiyatlarni o'rganayotganda konkret sharoitni hisobga olish kerak. Davr va sharoitning o'zgarishi bilan antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni yechish shakllari ham o'zgarishi mumkin. Chunki ziddiyatlar ham o'zgarib, bir-biriga o'tib turadi.

Har bir sohaga xos ziddiyatlarning o'ziga xos hal bo'lish shakllari mavjud. Tabiatdagi ziddiyatlar, odatda stixiyali o'z-o'zicha paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng o'zlarigaxos qonuniyatlar asosida hal etiladi. Jamiyatda esa ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, jamiyatdagi antagonistik ziddiyatlar yo bu ziddiyatni tashkil etgan tomonlar o'zaro muzokaralar olib borish orqali, yoki birining g'alabasi, ikkinchisining mag'lubiyati bilan hal qilinadi.

Umuman ziddiyatlar paydo bo'lishi, rivojlanishi va turlicha hal qilinishi mumkin. Bu bilan ziddiyatlar butunlay tugamaydi. Ularning eskilari

o‘rniga yangilari paydo bo‘lib, ular ham ma‘lum vaqtdan so‘ng eskirib, o‘rnini yana yangilari olib, shu asosda rivojlanish cheksiz davom etaveradi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo‘lmagan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni bir-biridan farq qilish zarur, lekin ular o‘rtasida mutlaq chegara yo‘q. Voqelikda ular o‘zaro chirmashib ketadilar, bir- biriga o‘tib turadi va taraqqiyotda xilma-xil rol o‘ynaydilar. Shuning o‘chun ziddiyatlarning har biriga konkret yondoshish, ular namoyon bo‘ladigan sharoitni, vaziyatni, shu taraqqiyot jarayonida o‘ynaydigan rolini to‘g‘ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

3. Inkorni inkor qonuni

Taraqqiyotdagi vorislik va davomlilik inkorni inkor etish yo‘li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o‘rganishni inkor tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi va yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo‘lib turadi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo‘q», so‘zi bilan qo‘shilib ketadi, inkor qilmoq - «yo‘q,» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri «yo‘q», demak emas, yoki narsani mavjud emas, deb e’lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo‘qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo‘lmasdan, balki yangi eskining bag‘rida vujudga kelib, undagi sog‘lom tomonlardan foydalanib, qaror topishini tan olishdir.

Dialektik inkor ayni bir vaqtda «yo‘q» deyish bilan «Ha» deb, ya’ni inkor etish bilan birga tasdiqlashni ham o‘z ichiga oladi. U barcha narsani butunlay rad etuvchi nigilistik qarashdan holi bo‘lib, bir paytda sodir bo‘ladigan yemirilish bilan yaralishni, xullas, narsa va hodisalarning yo‘qolishi va paydo bo‘lishini bog‘lab ilgarilab rivojlanish holatini ifodalaydi. Bu dialektik inkorning muhim jihatini tashkil qiladi.

Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o‘rniga yangining kelishi tabiiy- tarixiy jarayon bo‘lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog‘liq, ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor etish haqida to‘xtalib o‘tishdan avval uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Dialektikaning bu tamoyilining ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi moddiy olamdagi narsa va

hodisalarning doimiy ravishda o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har bir mavjud bo‘lgan narsa va hodisa o‘zigacha bo‘lgan sifat va miqdorning inkor etilishinint mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o‘zi ham sharoitning o‘zgarishi, vaqtning o‘tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va uvdan ko‘proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor ana shu inkorlarning sodir bo‘lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Bundagi bitta inkor narsa va hodisalardagi o‘zgarish va rivojlanishning bir momentini tashkil esa, «inkorni inkor» atamasi ularning muayyan zanjirining bir necha davrini ifodalaydi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning tugallovchi xalqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichdagi ba’zi belgilar takrorlanadi (don o‘simlikdan yana donlarga aylanadi).

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, balki aylana shaklida bo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo‘ladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingi o‘ramiga nisbatan yuqoriroq, bosqichda yuzaga kelgan bo‘ladi. Ana shu ma’noda taraqqiyotning‘ dialektik nazariyasida «spiralsimon» atamasi ishlatiladi.

Dialektik inkorga ko‘ra, taraqqiyotning spiralsimon xarakteri o‘zining‘ quyidagi uch jihatiga ega: *birinchidan,* inkorni inkorda, dastavval, narsa va hodisalar abadiy o‘zgarmasdan qola olmasligi, davrning o‘tishi bilan har bir narsa va hodisa o‘zgarishi, bu o‘tishda esa yangi sifat faqat yemirilayotgan narsa zaminida paydo bo‘lishini ochib beradi. Buni destruksiya deyiladi.

Ikkinchidan, u yemirilayotgan (inkor etilayotgan) narsa bilan paydo bo‘layotgan yangi narsa o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Buni kumulyasiya deyiladi. *Uchinchidan*, inkor etilayotgan narsa oldin erishgan yutuqlarni, uning rivojlanishga Qodir bo‘lgan ba’zi belgi va xususiyatlarni saqlab qolish, ulardan foydalanish asosida yuz beradi. Buni konstruksiya deb yuritiladi. Shu asosda o‘zgarish, rivojlanish sodir bo‘ladi. Bunday inkorni inkorning muhim belgisi, ya’ni narsa va hodisalarning ilgarilab rivojlanishi, yangilikning yengilmasligi mantiqan o‘z-o‘zidan kelib chiqadi. Chunki har bir narsa va hodisa uzluksiz o‘zgarishlar, ya’ni o‘sishlar va yemirilishlar, paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lish jarayonini kechirib turadi. Demak, yangi

vujudga kelgan sifat, albatga inkor etilayotgan eski sifatdan ustun va bir qadam olg‘a ketgan bo‘ladi. Bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos bo‘lgan obyektiv jarayondir.

Yuqorida aytilgan, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan uch jarayonning birligi hozirgi kunda O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda. Biz uchun hozir jamiyatimizda eskirgan ijtimoiy munosabatlarni iloji boricha dialektik izchillik va ziyraklik bilan o‘z vaqtida bartaraf etish, yangi paydo bo‘layotgan bozor iqtisodiyotiga oid munosabatlarni o‘z vaqtida payqab olish, ularni rivojlantirish yutuqlarimizning ko‘payishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimiz keng qo‘llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizdagi xo‘jasizlik, shahar va qishloqlarda mehnatni tashkil qilishning eski samarasiz usullari, hayotning hamma sohalarida boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar yetkazuvchi ekologik va ma’naviy buzilishlarning tugatilishiga olib keladi.

Inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab boruvchi, ilgarilab boruvchi rivojlanish sodir bo‘ladi. Shuning uchun inkorni inkor jarayonining xarakterli xususiyatlaridan biri — uni orqaga qaytarib bo‘lmasligidir. Buning sababi shundaki, har bir yangi bosqich ilgarigi bosqichlarning butun boyligini o‘zida sintezlashtirib, taraqqiyotning yanada yuqoriroq shakllari uchun zamin yaratadi. Bu sintez «inkorni inkor» deyiladi. Inkorni inkor tufayli har bir paydo bo‘lgan yangilik shuning uchun sintez deyiladiki, unda eskining rivojlanishiga qodir bo‘lgan tomonlari saqlanib qolib, ular yangida paydo bo‘lgan tomonlar bilan uzviy birikkan bo‘ladi va shu asosda rivojlanishning navbatdagi bosqichini ta’minlaydi. Xuddi shu yo‘l bilan taraqqiyotning yo‘nalishi belgilanadi.

Taraqqiyotning yo‘nalishi haqida turli davrlarda turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Uzoq davrlar taraqqiyotning yo‘nalishini noto‘g‘ri tushunish oqibatida, faylasuflar hamma narsalar davriy takrorlanuvchi o‘zgarishdan yoki bekik doira ichida doimiy aylanishlardan iborat, deb qaraganlar. Ba’zi olimlar taraqqiyotni to‘g‘ri chiziq bilan boruvchi yoki takrorlanib turuvchi bosqichlardan iborat, deb tushunganlar, masalan, fransuz olimlari Lamark tirik tabiatda taraqqiyot uzluksiz va sakrashlarsiz to‘ppa-to‘g‘ri yo‘ldan ilgarilab boradi, desalar; italiyalik faylasuf J.Viko, jamiyat o‘z boshidan doimiy ravishda takrorlanib turuvchi uch bosqichni (go‘daklik, yigitlik va yetuklik davrini) kechirib turadi, deydi.

Shuni ham aytish kerakki, taraqqiyot jarayonida ma’lum darajadagi takrorlanishlarni uchratamiz. Lekin ularning har biri oldingi holatning

oddiy o‘zgarishsiz takrorlanishidan iborat bo‘lmay, balki yangicha, o‘zgacha yuqoriroq bosqichda sodir bo‘lishidir, bundagi in inkorni inkor oddiy va to‘g‘ri yo‘l bilan sodir bo‘lmay, balki o‘ziga xos murakkab, egri-bugri yo‘l bilan spiralsimon yo‘nalishda sodir bo‘ladi. Bundagi taraqqiyot jarayoniga xos inkor va inkorni inkor momentlarida bo‘ladigan vaqtinchalik orqaga chekinishlar, takrorlanishlar bilan bir qatorda, ilgarilab boradigan rivojlanishni ham ko‘ra bilish inkorni inkorning mohiyatini tashkil qiladi.

Tarixda, jumladan O‘zbekiston sharoitida bir necha bor jamiyatni orqaga qaytaruvchi katta yo‘qotishlar va qurbonlarga olib kelgan quruq inkorlar bo‘lgan. Aslida, real tarixiy rivojlanish ideallashtirilgan ko‘rinishidan yiroq bo‘lib, o‘z qadriyatlarini yo‘qotmagan holda, mukammallashib boruvchi bosqichlardan iborat bo‘ladi.

Hozirgi kunda O‘zbekietonda eski va eskirayotgan narsalarni inkor etish va ularning o‘rniga yangilarini qurish, yaratish uchun kurash davom etmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan bozor iqtisodiyoti tug‘dirayotgan o‘zgarishlarni har bir kishi to‘g‘ri tushunib olishi lozim. Respublikani sifat jihatiddn o‘zgartirish, uni yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kiritish uchun hozirgi davrda har bir kishidan ko‘proq kuch-g‘ayrat sarflashni, o‘z faoliyatiga baho berishda xoli, prinsipial bo‘lishni, omilkorlik va fidokorlikni talab qiladi. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash uchun faqat iqtisodiy o‘zgarishlar qilish yetarli emas, shu bilan birga, siyosiy, madaniy va ma’naviy o‘zgarishlar ham qilish, faol ijtimoiy siyosat olib borish, inson to‘g‘risida g‘amxo‘rlik, uning hayotiy manfaatlarini himoya qilish ham zarur.

Mustaqillik bizdan bilimdonlikni va yuksak darajada mutaxassislikni talab qiladi. Endilikda ishlab chiqarishni, fan va texnikani boshqarish, mehnatni, shubhasiz, yuqori darajada tashkil qilish va shu kabilar har tomonlama tayyorgarliksiz, chuqur bilimlarsiz bo‘lishi mumkin emas.

Mustaqillik - mustamlakachilikni qat’i bartaraf etish, taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi ma’mur buyruqbozlik mexanizmni butunlay buzib tashlab O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlantirishning ishonchli va samarali mexanizmg yaratish demakdir.

Mustaqillik umuminsoniy va milliy normalarini buzish hollaridan xolos etish, ijtimoiy adolat tamoyillarini izchillik bilan amalga oshirish demakdir. Bu degani: so‘z bilan ishning, huquq, bilan burchning birligini ta’minlash, halollik va vijdon bilan ishlab, yuqori unumli mehnatni tashkil qilish, u haq to‘lashda tekischilik tendensiyalarini, iste’molchilik kayfiyatini bartaraf etish, inkor qilish demakdir.

Shunday qilib, borliq va bilishga xos inkor inkorni inkorlar beniho
davom etaveradi. Bu abadiy davom etadigan jarayonda dialektikani
barcha tamoyillari birgalikda amal qiladi. Bunda inkorni inkor hech b
narsa yoki hodisa abadiy o‘zgarmasdan qolmasligini, aksincha, eski o‘rni
muqarrar egallashini, ammo ular o‘rtasida vorisiylikning mavjudligi
ifodalaydi.

Dialektika o‘rganadigan borliqning bu eng umumiy aloqadorlikla
va bog‘lanishlari falsafada quyidagi tushunchalar, kategoriyalar orq
ifodalanadi.

**Falsafiy kategoriyalar va ularning ilm-fan va amaliyoti uchu
metodologik ahamiyati**

Har qanday fanning o‘ziga xos qonunlari va asosiy tushunchala
bo‘ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og‘irlik, tezlik, kuch ka
tushunchalarga juda ko‘p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu f
tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog‘langa
Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematika
esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qili
qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asos
tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o‘rganishd
avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab oli
zarur. An’anaviy tavsiflarga ko‘ra, «Qonun» falsafiy kategoriya sifati
narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbat
barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o‘zaro bog‘lanishlar, aloqal
munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko‘rib o‘tdik. En
kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqacha tanishaylik.

3-§.Falsafa kategoriyalar: tushunchasi va mohiyati

Kategoriya tushunchasi. Kategoriya o‘zi nima? Bu so‘z qadim
yunon tilidan olingan bo‘lib, «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish
degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xil
qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Falsa
tarixida ularni birinchi bo‘lib, Arastu ta’riflab bergan. U o‘zini
«Kategoriyalar» degan asarida ularni obyektiv voqelikning umumlashg
in’ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususa
uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiy
«miqdor», «sifat», «munosabat», «o‘rin», «vaqt», «holat», «mavqe
«harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o‘z vaqtida ilmiy bilish
juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizik

asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan[63].

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega edi. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmadi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. Usha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XII-X1X asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I.Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyasizlik, zarurat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Gegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor); «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik); «tushuncha» (obyektiv, subyektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) obyektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy - mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda

[63] Аристотель.Метафизика.

borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafa kategoriyalari - moddiy olamdagi narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi.

Falsafiy kategoriyalarni shartli ravishda uch turkumga ajratish mumkin:

1. Voqelikning eng umumiy aloqadorligini, aks ettiradigan kategoriyalar. Mazkur turkumga alohidalik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa kategoriyalari kiradi.

2. Voqelikning tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar. Bular mazmun va shakl, butun va qism, sistema, struktura va elementdan iborat.

3. Voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik (determinizm)ni aks ettiruvchi kategoriyalar. Sabab va oqibat, zarurat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

1.***Voqelikning eng umumiy aloqadorligini, aks ettiradigan kategoriyalar.*** Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

1. Alohidalik, xususiylik va umumiylik. Alohidalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi alohidalik deyiladi. Alohidalik alohida narsa va hodisalarni ham, ulardagi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi.

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lgan o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha umumiylik deb ataladi. Umumiylik borliqdagi ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lgan umumiy belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir. Umumiylik bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarni

ham ifodalaydi. Chunki borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan albatta, biror umumiy tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi xususiylik kategoriyasida ifodalanadi. Xususiylik kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylik kabi tomonlar o'rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiy, umumiylikka nisbatan alohida tomonlar, belgilar, xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Bir butun borliqdagi hamma narsa va hodisalarga xos tomonlar, belgi va xususiyatlar eng umumiylikdir. Eng umumiylik hajm jihatdan boshqa kengaytirib bo'lmaydigan universal tushunchadir. Masalan, Ahmad, odam, tirik mavjudot, materiya, nihoyat borliq. «Borliq» tushunchasi bu erda eng umumiylikdir.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik bir-biri bilan o'zaro dialektik munosabatda bo'ladi. Binobarin, alohidalik bilan umumiylik xususiylik orqali bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikdadir. Xususiylik alohidaliklardan tashkil topib, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi. Umumiylik esa alohidaliklardan ajralgan holda bo'lmaydi, balki alohidaliklarning umumiy xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog'lanishlari shaklida har bir alohidalikning o'zida mavjud bo'ladi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa alohidalik, xususiylik va umumiylikning birligidan iboratdir.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi shundan iboratki, ma'lum sharoitda alohidalik xususiylikka, xususiylik umumiylikka va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Obyektiv olamda har qanday yangilik dastlab alohidalik sifatida paydo bo'lib, so'ngra u o'sib, rivojlanib xususiylik va umumiylik xarakterini kasb etadi.

Lekin, bundan har qanday alohidalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylikka o'taverar ekan, degan fikrni yuritmaslik kerak. Bunday bo'lishi uchun ular taraqqiyotning asosiy tendensiyasiga mos kelishi shart. Alohidalik, xususiylik va umumiyliklarning o'zaro bog'lanishlarini dialektik nuqtai nazardan tushunish ob'ektiv voqelikni to'g'ri bilish uchun juda muhimdir. Chunki, insonning borliqni bilishi ham alohidalikdan xususiylikka va undan umumiylikka borishdan iboratdir. Bu umumiylikni biz narsa va hodisalarni hamda ularda ifodalanuvchi alohidaliklar va xususiyliklarni bilish orqali anglab yetamiz. Dastavval, sezgi a'zolarimiz yordamida alohidalikni, yakka narsa va hodisalarni idrok qilamiz. So'ngra tafakkurimizda shu hissiy idrokimizda vujudga kelgan mavjud faktlarni analiz va sintez qilib, ularning muhim tomonlarini muhim bo'lmagan tomonlaridan, umumiy tomonlarini alohida tomonlaridan ajratamiz, ularni

o‘zaro bir- biri bilan birlashtiramiz, bir-biriga taqqoslaymiz, shular asosida fikrimizda ularni ifodalovchi tushunchalarni hosil qilamiz. Bu hosil qilgan tushunchalarda narsa va hodisalarning yakka, ham ularning muayyan turkumiga xos xususiy hamda shu narsa va hodisalarning butun bir sinfiga oid umumiy tomonlari ifodalanadi.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o‘tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iborat. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo‘lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o‘ziga xos bo‘lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo‘llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi. Alohidalik yoki, ba’zi falsafiy adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, alohidalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (bu haqda «Osiyosentrizm» va «Evropatsentrizm» to‘g‘risida eslash kifoya). Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo‘lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o‘z o‘rni va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo‘lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki, har qanday umumiylik, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko‘ra, har qanday sistema o‘z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo‘la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan

to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o‘ziga xos yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Ya’ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo‘nalishlarga asos bo‘lgan. Bu madaniyat yo‘nalishlari nisbatan mustaqil bo‘lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo‘lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

2. Mohiyat va hodisa. Mohiyat va hodisa kategoriyasini olib ko‘raylik. Mohiyat-o‘zida alohidalik, xususiylik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruratini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog‘lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir. Mohiyatni alohidalik, xususiylik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sub’ekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga ko‘ra, asosiy va asosiy bo‘lmagan, nisbatan barqaror yoki o‘zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o‘rnini almashtirib turishlarini e’tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo‘lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib, uning mohiyatini tashkil qiladi.

Shunga ko‘ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bog‘lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo‘ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o‘zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondashadi. Bu yondashish subyektiv xarakterga ega bo‘lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi.

Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqovini qondirish, fizik uchun agregat holati, elektr tokini o‘tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N2O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o‘zgarib turadi. Mohiyatdagi

har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgargan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish xususiyatini o'lchaydigan asboblar bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Falsafaning yuqorida qayd etilgan kategoriyalari bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud.

3. Butun va qism. Ma'lumki, borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko'z oldimizda bir butunlik sifatida gavdalanadi. Biz ularni o'rganar ekanmiz, ularning qismlardan, bo'laklardan, komponentlardan, elementlardan iboratligini ko'ramiz. Bu qismlar, bo'laklar, komponentlar, elementlar o'zaro muayyan qonuniyatlar orqali birikib, ma'lum tuzilishdagi bir butun narsani, hodisa yoki jarayonni tashkil qiladilar. Bu narsa va hodisalarning-ma'lum bir guruhi o'zaro birikib, biron bir sistemani hosil qiladi. Bu esa ma'lum strukturaga ega bo'lib, muayyan elementlardan iborat bo'ladi. Bundagi butun, qism, sistema, struktura, elementlar o'zaro dialektik birlikda, bog'lanish va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Xo'sh, butun va qism deb nimaga aytiladi?

Butun — o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. Masalan, bizni o'rab turgan olam bir butundir. *Qism esa shu butunni tashkil qilgan, uning tarkibidagi ma'lum bo'lak, komponent, elementdir.* Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Borliqdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan butun va qismlarning o'zaro qonuniyatli aloqadorligi «Butun va qism» kategoriyalarida aks etadi va ifodalanadi. Olamdagi har bir predmet (hodisa, buyum, protsess) ana shu butun va qismlarning dialektik birligidan iborat. Masalan, leksikologiyaga oid «ishchilar» so'zini olsak. Bu so'z: «ish» - «chi» - «lar» kabi ma'noli qismlardan iborat. Bu qismlar o'zaro birikib, bir butun «ishchilar» so'zini hosil qiladi.

Butun va qism o‘zaro dialektik aloqadorlikdadir. Butunning umumiy tabiati uni tashkil qiluvchi qismlarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, butun tarkibidagi har bir qism butunning o‘ziga xos xususiyatini ma’lum darajada ifodalaydi. Lekin butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo‘laklari sifatida ko‘rinadi. Unda butunga xos ma’lum xususiyat qismlarga ham xos bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, butun tarkibidagi qismlar butun bilan umumiy birlikka ega bo‘lishi bilan birgalikda, ular bilan o‘zaro ziddiyatda, qarama-qarshilikda bo‘lishi ham mumkin. Butunsiz qismlar va qismlarsiz butun yo‘q va bo‘lishi mumkin emas, ular faqat o‘zaro aloqadorlikda, birlikda, birgalikda, bir-birini taqozo qilgan holda mavjud bo‘ladi. Bunda butunni tashkil qiluvchi qismlar ham o‘zaro bir-birlari bilan ta’sir va aks ta’sir qilib turishadi. Butun va qismlarning bu o‘zaro ta’sir va aks ta’sir qilib turishlari natijasida butun va qismlarning o‘zgarishi va rivojlanishi sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir butun va qismlar ob’ektiv reallikdagi boshqa butunlik va qismlar bilan ham muayyan aloqadorlikda va bog‘lanishda bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, butunni - umumiylik, qismni yoki elementni - alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o‘xshashlik bo‘lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmuyi ham bo‘lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo‘lib, uning samaradorligini ta’minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko‘ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

4. **Sistema, struktura va element.** Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega bo‘ladi. Chunki ular ma’lum sistemalar tarzida mavjud bo‘lib, o‘z tuzilishi va tarkibiga ko‘ra esa muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Sistema grekcha so‘z bo‘lib, mantiqiy ma’nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma’nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi tizimlashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi.

Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko‘ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning

borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya'ni, insonning ob'ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan, tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema - narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog'lanish aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lot. «tuzilish», «tartib») sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollarini belgilab turadi.

Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xusu- siyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNKlarning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning obyektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura»ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning stukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki

elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko‘ramiz. Shunga ko‘ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo‘lib, kategoriyalar sifatida, unga bo‘lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko‘ra, muhim va muhim bo‘lmagan, asosiy va asosiy bo‘lmagan elementlarga ajratib o‘rganish lozim. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko‘ra, o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko‘rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli xarakterga ega bo‘lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati struktura- viy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya’ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma’lum vaqtga kelib muhim bo‘lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

5. Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. *Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishi bo‘lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.*

Shakl esa - sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an’anaviy xarakterga ega. Ya’ni, mazmunning o‘zgarishi shaklning o‘zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo‘lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog‘lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo‘lish mumkin bo‘lmaganidek, mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz’iy o‘zgarish ham bir-biridagi o‘zgarishlarni taqozo qiladi, faqat biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo‘lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. Ya’ni, suv bug‘ holatida chanqoqni qondirmaydi, o‘simliklarni sug‘orish uchun yaramaydi.

Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, strukturaviy bog‘lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko‘ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo‘rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e’tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning ob’ektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subyektiv, muqobil qarashlarda o‘z ifodasini topadi.

Umuman, falsafaning «sistema», «struktura», «element» kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo‘ladi.

Voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik (determinizm)ni aks ettiruvchi kategoriyalardir. Falsafa fanidagi an’anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalaridan farqli o‘laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zarurat va tasodif», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko‘rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

6. Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko‘ra, ularning mazmuni va shakli o‘zgarib turadi. O’z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘lanish konkret mazmunga ega bo‘lib, unga mos mazmunlarda o‘z ifodasini topadi. Mazmun va shakl o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya’ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo‘lishi, muayyan sabab oqibatidir.

Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab- oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ***sabab - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.*** Narsa va hodisalarning

rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo'lmagan; muhim va muhim bo'lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollarini ham belgilab beradi. Gegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning obyektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;

3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;

4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi

7. Zarurat va tasodif. Obyektiv olamni bilishda zarurat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. *Zarurat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruratning namoyon bo'lish shaklidir.*

Zarurat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, zaruratni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish

lozim. Shuningdek, zaruratni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish kerak. Zarurat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda obyektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, "milliy tiklanishdan –milliy yuksalishga" o'tishi tarixiy ob'ektiv zaruratdir, uning «Harakatlar strategiyasi» asosida amalga oshirilishi zaruratning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «subyektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, obyektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, milliy yuksalishga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruratlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruratlarning tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zarurat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zarurat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zarurat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan subyekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, ob'ektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruratni ko'rib turibmiz.

Zarurat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruratning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyligi, sababiyligi, qonuniyligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

8. Imkoniyat va voqelik. ***Imkoniyat va voqelik*** - falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlari, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Imkoniyat va voqelik o‘zgarish va rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarning ikki xil davrini, ikki xil holatini, bu davrlarning o‘zaro munosabatini o‘zlarida ifodalovchi kategoriyalardir.

Umuman olganda, voqelik — bu hozir real mavjud bo‘lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir. Lekin bu hodisalar rivojlanish jarayonida birdaniga hozirgi holatda bo‘lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo‘lgan bo‘lib, ular o‘zlarining ma’lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik o‘zining paydo bo‘lish davridan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo‘ladi.

Imkoniyat — bu voqelikning kurtak holdagi ko‘rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Shu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari ham bo‘lishi mumkin. Imkoniyat obyektiv qonuniyatlardan kelib chiqadi, ular tomonidan yaratiladi.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarini, ularning o‘zaro dialektikasini chuqur bilib olish kishilarning amaliy faoliyatida, ilmiy tekshirish ishlarida katta ahamiyatga ega.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarining mazmuni ongdan tashqaridagi obyektiv olamdan olinadi. Bu kategoriyalar bir butun moddiy yoki ruhiy jarayonning ikki tomonini aks ettiruvchi, o‘zaro dialektik munosabatdagi kategoriyalardir. Shuning uchun imkoniyat va voqelikni bir-biridan farq qilish lozim, chunki ularni aralashtirib yuborish nazariyaning rolini inkor etishga, insonning tabiat va jamiyatni o‘zgartiruvchi faoliyatini tushunmaslikka, amaliyotning ahamiyatini yo‘qqa chiqarishga olib keladi. Ularni aralashtirib yuborish yo‘q narsani bor, deb bilishga, yangining kurash jarayonida eski ustidan g‘alaba qilishni ko‘rmaslikka olib boradi.

Imkoniyatlar yangi, endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan va eski, umrini tugatayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ bo‘lishi mumkin.

Eskilikni ifodalovchi imkoniyat rivojlanish jarayonida voqelikka aylanib qolishi ham mumkin, lekin bu harakatning ichki qonuniyatidan. uning tub xarakteridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun eskilikni ifodalovchi imkoniyatning voqe bo‘lishi vaqtinchadir.

Imkoniyat voqelikka birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, avvalo, kurtak shaklida mavjud bo‘lib, so‘ng rivojlanib borib, tobora

reallasha boradi va ma'lum davrda, ma'lum shart-sharoit tufayli voqelikka aylanadi. Imkoniyat reallasha borgan sari, uning mavjud eski voqelik bilan kurashi ham keskinlashib boradi Shunga ko'ra, imkoniyatni formal, abstrakt va real imkoniyatlarga ajratib o'rganiladi. Quruq fikriy izchillik jihatidangina to'g'ri bo'lgan, lekin real asosga ega bo'lmagan imkoniyat formal imkoniyatdir. Formal imkoniyat ob'ektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham u hech qachon voqelikka aylanmaydi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'liq yetilmagan, lekin amalga oshishi qonuniy bo'lgan, narsa va hodisaning o'zgarish va rivojlanish mantig'idan kelib chiquvchi imkoniyat abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum obyektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar yetilganda, real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — bu rivojlanishning asosiy tendensiyasini ifodalovchi, hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtda amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatning voqelikka aylanishida obyektiv shart-sharoit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Obyektiv shart-sharoitlar — bular inson onggidan tashqarida mavjud bo'lgan shart-sharoitlardir. Biroq jamiyatdagi real imkoniyatlarni voqelikka aylantirishda ongli faoliyatning roli ham g'oyat kattadir. Buning ma'nosi shuki, jamiyat imkoniyatlarining voqelikka aylanishida subyektiv omil muhim ahamiyatga ega. Subyektiv omil - bu xalq ommasi, uning ongliligi va aktiv amaliy faoliyatidan iborat. Shuning uchun ham imkoniyat va voqelik dialektikasini o'rganish masalasi jamiyatni boshqarishda juda katta ahamiyatga ega. Bunda subyektiv omil obyektiv shart-sharoitlarga asoslanadi. Ularsiz subyektiv omilning o'zi hech narsani yuzaga keltira olmaydi, chunki obyektiv shart-sharoitlar subyektiv fa'oliyatga nisbatan birlamchi va belgilovchidir.

Ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini hamisha butun ichki murakkabligi va ziddiyatligi bilan tasavvur etish kerak. Biroq bu jarayonlarning markazida doimo inson, uning manfaatlari va qiziqishlari turmog'i lozim. Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos eng muhim xususiyati ham mana shundan iborat.

Umuman, dialektikada yuqoridagi deterministik aloqadorliklarni ifodalaydigan kategoriyalar o‘zaro bir- birlari bilangina emas, balki boshqa barcha kategoriyalar bilan ham chambarchas bog‘liqlikda o‘rganishni talab qiladi.

Imkoniyatning voqelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Mamlakatimiz yoshlarining imkoniyatlari haqida Sh.M.Mirziyoev: ”Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib voyaga yetayapsizlar. Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak”[64], - degan edi.

15-sxema.

Materiya harakatlari va uning har xil turlari.

Harakat	Har xil turlari	Misollar
Harakat – har xil o‘zgarish va o‘zaro ta’sir	mexanik harakat	tekislik bo‘yicha sharning ko‘chishi
	fizik harakat	materiyaning yadro reaksiyasi
	ximik harakat	oksidlanishning ximik reaksiyasi
	biologik harakat	xujayralarning bo‘linishi
	ruhiy harakat	sezgi va tafakkur
	ijtimoiy harakat	ijtimoiy-siyosiy inqilob
	kosmik harakat	koinotning galaktikalararo makonining kengayishi

[64] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи.26.12.2020 йил.// http://uza.uz/posts/197662

16 - sxema.

Rivojlanish va uning turlari.



17 - sxema.


Dialektikaning asosiy g‘oyalari va qonunlari
G‘oyalar
Qonunlar
Rivojlanishning manbai (sababi)
Tabiatda hamma narsa o‘zgaradi va rivojlanadi
Qarama qarshiliklar kurashi va birligi qonuni
Qarama qarshiliklarning ziddiyatli o‘zaro ta’siri
Tabiatda hamma narsa qutblilik va zid
Son o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni
Tabiatda umumiy aloqa va narsalarning bir biriga o‘zaro ta’siri mavjud
Inkorni inkor qonuni

18 - sxema.

Determinizm, uning tamoyillari va har xil turlari.



Qisqacha xulosalar

1. Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni rivojlanish faqat oddiy miqdoriy o'zgarishlardangina iborat bo'lmasdan, balki miqdor o'zgarishlarning tub sifat o'zgarishlariga sakrash orqali o'tib turishdan iborat ekanligini ochib beradi.

2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni - rivojlanishning ichki manbaini ochib beradi.

3. Inkorni inkor qonuni - rivojlanishning taraqqiyparvarligini, ya'ni olg'a qarab taraqqiy qilishdan iborat ekanligini, yangining eskiga munosabatini ochib beradi. Unga ko'ra, eskining yangi tomondan inkor

etish kishilarning ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv jarayon bo‘lib, har bir narsa va hodisa uchun inkorning aniq turi mavjuddir. Dialektik inkor to‘liq inkor bo‘lmasdan, balki eskining yangi bilan bog‘lab turuvchi jihatdir. Dialektik inkor taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishini, bir sifatdan boshqa sifatga o‘tishni tavsiflaydi.

Falsafa fanining kategoriyalari haqida yuqorida keltirgan fikrlarimizni umumlashtirib, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflarini keltirishimiz mumkin: 1) obyektiv voqelikning in’ikosi; 2) narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o‘zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy-mantiqiy bilish darajalaridan biridir. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, falsafa kategoriyalari deganda bir tomondan, narsa va hodisalar hamda ular o‘rtasidagi takrorlanib turuvchi aloqadorliklarni ifodalovchi keng mazmundagi - «borliq», «voqelik», «makon» «zamon», «miqdor» «sifat» kabi tushunchalarni aks ettiruvchi katetoriyalarni, ikkinchi tomondan, o‘z xususiyatlariga ko‘ra juft kategoriyalar deb ataluvchi sabab va oqibat, mazmun va shakl, zarurat va tasodif kabi turlarga bo‘linuvchi kategoriyalarni tushunish darkor.

Tayanch tushunchalar

Qonun tushunchasi, qonun turlari, eng umumiy qonunlar, umumiy qonunlar, xususiy qonunlar, qonuniyat, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik, miqdor o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni, miqdor, sifat, me’yor, sakrash, inkorni inkor qonuni, inkor, dialektik inkor, rivoj- lanish, rivojlanishda vorisiylik, taraqqiyot, falsafa fanining kategoriyalari, voqelikning eng umumiy aloqadorligini aks ettira- digan kategoriyalar: alohidalik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa kategoriyalari; voqelikning tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar: mazmun va shakl, butun va qism, sistema, struktura va element; voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik (determinizm)ni aks ettiruvchi kategoriyalar: sabab va oqibat, zarurat va tasodif, imkoniyat va voqelik kategoriyalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qonun nima?
2. Qonunning qanday turlarini bilasiz?
3. Falsafa qonunlarini sanab bering.
4. Falsafa qonunlarining o‘ziga xos jihati nimada?

5. Falsafa qonunlarining tabiat, jamiyat va inson tafakkurida namoyon bo‘lishiga misollar keltiring.

6. Kategoriya nima?

7. Falsafada kategoriyalari deb qanday kategoriyalarga aytiladi?

8. Falsafada kategoriyalarining boshqa fan kategoriyalaridan farqi nimada?

9. Falsafada kategoriyalari qanday turlarga bo‘linadi?

10. Voqelikning tuzilishini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarni ayting.

11. Voqelikning umumiy aloqadorligini aks ettiruvchi falsa- fiy kategoriyalarni sanab bering.

12. Determinizmning umumiy aloqadorliklarini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarni tushuntiring.

13. “ ...buyuk ajdodlarimiz o‘zlarining ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan dunyoga ustozlik qilishgan. Boshqalarga ergashmagan,balki boshqalarni o‘z ortidan ergashtirgan. Biz ham ergashuvchi emas,ergashtiruvchi kuchga ega xalq bo‘lishimiz shart. Aks holda,taraqqiyot yo‘lidan chekkaga chiqib,yana tanazzul botqog‘iga botamiz. Ota-bobolarimiz erishgan marralarini osongina boy berib qo‘yamiz”[65],- degan falsafiy fikrni falsafa qonunlari misolida muhokama qiling?

[65] ***Мирзиёев Ш.М.*** Мактаб таълимини ривожлантириш биз учун умуммиллий мақсадга,умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур// *Унинг ўзи.* Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4-жилд. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ,2020.= Б.151.

5. Falsafa qonunlarining tabiat, jamiyat va inson tafakkurida namoyon bo‘lishiga misollar keltiring.

6. Kategoriya nima?

7. Falsafada kategoriyalari deb qanday kategoriyalarga aytiladi?

8. Falsafada kategoriyalarining boshqa fan kategoriyalaridan farqi nimada?

9. Falsafada kategoriyalari qanday turlarga bo‘linadi?

10. Voqelikning tuzilishini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarni ayting.

11. Voqelikning umumiy aloqadorligini aks ettiruvchi falsa- fiy kategoriyalarni sanab bering.

12. Determinizmning umumiy aloqadorliklarini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarni tushuntiring.

13. “ ...buyuk ajdodlarimiz o‘zlarining ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan dunyoga ustozlik qilishgan. Boshqalarga ergashmagan,balki boshqalarni o‘z ortidan ergashtirgan. Biz ham ergashuvchi emas,ergashtiruvchi kuchga ega xalq bo‘lishimiz shart. Aks holda,taraqqiyot yo‘lidan chekkaga chiqib,yana tanazzul botqog‘iga botamiz. Ota-bobolarimiz erishgan marralarini osongina boy berib qo‘yamiz”[65],- degan falsafiy fikrni falsafa qonunlari misolida muhokama qiling?

[65] ***Мирзиёев Ш.М.*** Мактаб таълимини ривожлантириш биз учун умуммиллий мақсадга,умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур// *Унинг ўзи.* Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4-жилд. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ,2020.= Б.151.

III BOB. BILISH NAZARIYASI

Bilish nima, uning asosiy shakllari nimadan iborat, bilmaslikdan bilishga, bir bilimdan ikkinchi, yanada chuqurroq bilimga o'tishning qonuniyatlari nimadan iborat, haqiqat nima, uning mezoni nimadan iborat, qanday yo'llar va metodlar bilan haqiqatga erishiladi va yanglishish bartaraf qilinadi, - xuddi shu kabi falsafiy masalalarni bilish nazariyasi o'rganadi.

1-§. Bilishning mazmuni va mohiyati, obyekti va subyekti, usul va darajalari.

Bilish nazariyasining muammolari falsafa bilan birga paydo bo'ldi. Qadimgi yunon falsafasida Demokrit, Platon, Aristotel, epikurchilar, skeptiklar va stoiklar bilishning tabiatini analiz qilishga asos soldilar. Keyinchalik F. Bekon, R. Dekart, J. Lokk, V. Spinoza, G. Leybnits, I. Kant, D. Didro, K. Gelvetsiy, G. Gegel, L. Feerbax va boshqa faylasuflar bilish jarayonini tahlil qilishga muhim hissa qo'shdilar.

Bilish masalasi hozirgi zamon falsafasida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Hozirgi kunda tabiiy yoki ijtimoiy voqelikni bilish mumkin yoki mumkin emasligi masalasi kun tartibidan olib tashlanganicha yo'q. Bu haqda bir qator falsafiy paradigmalar yaratilgan. Bu paradigmalarni, ular o'rtasidagi tafovutga qaramay, ko'pincha qadim zamonda ularga berilgan nom bilan umuman skeptitsizm[66] yoki agnostitsizm deb ta'riflash mumkin. Agnostitsizm so'zi XIX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan.

Falsafiy skeptitsizm ideyalarini qadimgi yunon faylasuflaridan Pirron, Karnead, enisidem bayon qilgan edilar. Antik faylasuflar muhokama qilinadigan har bir nazariy masala yuzasidan bir-birini istisno qiluvchi qarama-qarshi fikrlar aytilishi faktini dalil qilib, prinsipial ravishda haqiqatga etib bo'lmaydi, degan xulosaga kelgan edilar. Antik skeptiklar, hissiy idroklar ham, mantiq qoidalari ham narsalarni bilish imkoniyatini ta'minlamaydi, har qanday bilimning diniy e'tiqoddan ortiqlik joyi yo'q, deb isbot qilmoqchi bo'lardilar. Yangi zamonda bir qancha faylasuflar antik skeptitsizmning dalillarini yangidan takrorlab, rivojlantirdilar. Bu faylasuflar orasidan birinchi navbatda XVIII asrda yashab o'tgan ingliz faylasufi D. Yumni ko'rsatmoq kerak. Yum, har qanday bilish aslida bilmaslikdan iborat, deb da'vo qilardi. «Eng mukammal tabiiy falsafa bizning bilmasligimiz chegaralarini faqat ozgina

---

[66] ***Скептицизм*** [юнонча *skeptikos* - *кўриб чиқишга, ўйлаб кўришга лойиқ*] 1. Объектив ҳақиқатни тўғри ва аниқ билиш мумкинлигига ишончсизлик билан қаровчи идеалистик фалсафий оқим. 2. Ҳамма нарсага шубҳа ва ишончсизлик билан қараш;ишончсизлик.

nari surib qo‘yadi, eng mukammal axloqiy yoki metafizik falsafa esa, ehtimol, faqat bilmaslikning yangi sohalarini ochishga bizga yordam qilishi mumkin. Shunday qilib, insonning ko‘rligiga va zaifligiga ishonish butun falsafaning natijasidir...»[67]. Yum bilimni emas, balki e’tiqod va odatni amaliy harakat uchun asos qilib olishni tavsiya qilardi.

Kantchilik agnostitsizmning undan keyingi ko‘rinishlaridan biridir. I.Kant bilish jarayonini, uning ayrim lahzalarini — hissiyotni, farosatni, aqlni batafsil analiz qilib chiqqan. Bu analiz gnoseologiyaga qo‘shilgan muhim hissa edi. Lekin,I.Kantning barcha nazariy bilish muhokamalarining yo‘nalishi va umumiy xulosasi noto‘g‘ri. Kant bilishning murakkab va ziddi- yatli olamini topgan-u, lekin uni real olam narsalaridan ajratib tashlagan. «...ular (narsalar.- M.N.E.) o‘z-o‘zligicha qandayligi to‘g‘risida biz hech nima bilmaymiz, - deb yozgan edi Kant, - biz faqat ularning zohirotlarini, ya’ni ular sezgi organlarimizga ta’sir qilib bizda hosil qiladigan tasavvurlarni bilamiz»[68].

Kant bilish tajribadan, sezgilardan boshlanadi, deyishda haqlidir. Lekin tajriba, uning tushunishicha, inson bilan «narsalar o‘zida» olamini birlashtirish o‘rniga ularni chegaralab qo‘yadi, chunki ongda tajribadan ilgari va unga bog‘liq bo‘lmagan holda hissiyot va farosatning mavjud formalari (aprior, tajribadan oldingi bilim) borligi faraz qilinadi. Kantning fikricha, bilim tajriba bergan narsadan va ana shu aprior[69] formalardan tashkil topadi. Apriorizm Kantni najotsiz agnostitsizmga olib keladi.

XIX—XX asrlar falsafasidan agnostitsizm yo‘qolmadi. Uni birinchi navbatda pozitivizm hamda unga yaqin turgan pragmatizm kabi turdoshlari qabul qiladi, xolos.

1. **Gnoseologiya tushunchasi va muammolari.** Bilishni o‘rganadigan falsafa bo‘limi «gnoseologiya»[70] yoki «epistemologiya»[71] deb ataladi. Bilishni u yoki bu darajada ba’zi bir ilmiy fanlar ham o‘rganadi, masalan, psixologiya. Garchi, falsafa gnoseologiyaning eng umumiy dunyoqarash muammolarini jamlab, ular quyidagi savollar shaklida ifodalanishi mumkin.

- Dunyoni bilish mumkinmi?
- Odamda dunyoni bilishning qanday qobiliyatlari mavjud?

---

[67] Юм.Д. Сочинение.2-том. - М.:Наука,1965. – С.33.

[68] Кант. И. Сочинение. 4-том. 1-часть. - М.:Наука,1965. – С.105.

[69] ***Априори*** *[лотинча a priori аввал бошдан,аввал тургандан*]Тажрибага асосланмаган, тажрибадан олинмаган,тажрибадан олдинги

[70] ***Гносеология*** *[юнонча gnosis- билим+Logos - таълимот]* Билиш назарияси – илмий билишнинг манбалари, шакллари, методлари ва унинг тўғрилигини ўрганадиган фалсафий таълимот.«»

[71] ***Эпистемология*** *[юнонча epistemologia – билиш назарияси]* Гносеология билан бир хил маънони англатади.

- Odam dunyoni qanday biladi?
- Haqiqat nima, uning mezonlari qanday?
- Odamning bilishi obyektiv hisoblanadimi?
- Bilishning diniy va ilmiy shakllarining xususiyatlari nimada?

Inson doimo biron bir narsani bilishga,uni o'zgartirishga intiladi. Shunga ko'ra, ***bilish*** *deb insonning borliq va uning obyektiv qonunlarini o'rganish,anglash,o'zlashtirish egallashlariga aytiladi.* Bilish o'z navbatida murakkab jarayon hisoblanadi. Buning natijasida muayyan bilimlar hosil qilinadi. ***Bilim*** *deb insonning hayoti davomida obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan tabiiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va shu kabi sohalarga oid tartibga solingan ilmiy, amaliy ma'lumotlar,tushunchalar majmuiga aytiladi.* Soddaroq qilib aytganda insonning hayot davomida yangi bilim bilan boyib borish jarayoni bilish deb ataladi,desak ham bo'ladi.

2. Bilish subyekti. Bilishning mohiyatini, qonuniyatlarini tushunib olmoq uchun kim uning subyekti ekanligini aniqlamoq zarur. Bunday qaraganda hammasi ravshandek ko'rinadi: ***bilish subyekti - inson.*** Lekin, *birinchidan,* falsafa tarixi shunday mutafakkirlarni biladiki, ular olamni bilishning prinsipial imkoniyatini inkor etish bilan, aslda, bilishning subyektini ham inkor qiladilar. *Ikkinchidan,* ba'zi mutafakkirlar va tabiatshunoslar, bilish, jumladan nazariy tafakkur faqat kishilarga emas, balki ular yaratgan elektron hisoblash mashinalari kabi qurilmalarga ham xosdir, deb da'vo qilmoqdalar. Nihoyat, inson - bilish subyekti, deyishning o'zi kifoya qilmaydi: insonni nima shunday subyekt qilishini aniqlab olmoq zarur.

Inson qanday qilib o'zining konkret real mohiyatiga ega bo'ladi? Inson tabiiy vujud xossalariga, shu jumladan hissiyotga ham egadir, lekin u o'zining ikkinchi ijtimoiy tabiatini— madaniyatni, sivilizatsiyani bunyod qiladi, mehnat vositasi bilan o'zini yaratadi, tabiat buyumlarini oddiygina o'zlashtirmasdan, ularni o'z ehtiyojlariga muvofiq qilib o'zgartiradi. Inson bu ishni ijtimoiy vujud bo'lgan taqdirdagina, o'zigao'xshagan odamlar bilan muayyan munosabatda bo'lgandagina bajara oladi. Chunki, inson tabiat qo'ynida, jamiyat ichida yashaydi. Jamiyatdan tashqari inson yo'q, demak, bilish subyekti ham yo'q.

Lekin kitobxonda, olamni ayrim kishilar: Pifagor, Aristotel, Nyuton, Eynshteyn va boshqa atoqli va noatoqli shaxslar emas, balki birdaniga butun insoniyat, jamiyat biladimi?— degan qonuniy savol tug'ilishi mumkin. Albatta, jamiyat fikr qiluvchi, ishlab chiqaruvchi, individual xususiyatlarga va qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilarsiz yashay olmaydi. Lekin bu ayrim kishilar faqat shu tufayli bilish subyekti bo'la oladilarki,

ular o‘zaro muayyan ijtimoiy munosabatda bo‘ladilar, ijtimoiy uyushma, jamoaning ayni bosqichida ularga muyassar bo‘lgan ishlab chiqarish qurollari va vositalariga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, bilish jarayoni insonning biluvchilik qobiliyatlarining tarixan tarkib topgan strukturasi, mavjud ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan bilishning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Nyuton nechog‘liq zakovatli bo‘lmasin, u nisbiyat nazariyasini mutlaqo yarata olmas edi.

Ba’zida shunday savol tug‘iladi? Hayvonlar bilish subekti bo‘lishi mumkinmi? Yo‘q, albatta! Hayvon xulq-atvori ma’nosiz emas. Lekin, hayvonlarni aql emas, ichki biologik dastur – instinkt boshqaradi. Fan ma’lumotlarining guvohlik berishicha, bu dastur aniq belgilangan harakatlar – ko‘payish, oziq-ovqat izlash, himoyani amalga oshirish natijasida tirik qolishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qurshab turgan dunyoni bilish orqali aql uning egasiga instinkt bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi nostandart harakatlar imkonini beradi. Lekin ular unga aqlsiz hayvonlar oldida ustunlik beradi. Shunday qilib, odam yoki kishilik jamiyati, aqlli mavjudot bilishning subyekti hisoblanadi.

Demak,bilish bilan shug‘ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchiolimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o‘ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Bilish obyekti. Ammo bilish uchun faqat subyekt emas, balki subyekt (inson) bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan obyekt ham bo‘lishi zarur. Obyektiv reallik hodisalari, jarayonlari ongga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. Bilish subyektining o‘zi inson to‘g‘risida uning bilishi va amaliyotining obyekti bo‘lib nima maydonga kelishiga qarab fikr yuritish mumkin. Masalan, elektron faqat Demokrit va Aristotel zamonida emas, balki Galiley va Nyuton zamonida ham garchi reallik sifatida mavjud bo‘lsa-da, lekin insonning bilish faoliyati sohasiga kirmas edi, inson u vaqtda hali uni o‘z fikri va harakatining obyekti sifatida aniqlab olishga qodir emas edi. Jamiyatning taraqqiyot darajasini bilgandagina tabiatning qanday predmeti kishilarning bilish faoliyatining obyekti bo‘lib qolishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, ijtimoiy amaliyot darajasi hozir shundayki, erimizni qurshab turgan kosmik fazoni, Quyosh sistemasining boshqa sayyolarini amaliy o‘zlashtirish asta-sekin inson faoliyati sohasiga kirib bormoqda.

ular o‘zaro muayyan ijtimoiy munosabatda bo‘ladilar, ijtimoiy uyushma, jamoaning ayni bosqichida ularga muyassar bo‘lgan ishlab chiqarish qurollari va vositalariga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, bilish jarayoni insonning biluvchilik qobiliyatlarining tarixan tarkib topgan strukturasi, mavjud ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan bilishning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Nyuton nechog‘liq zakovatli bo‘lmasin, u nisbiyat nazariyasini mutlaqo yarata olmas edi.

Ba’zida shunday savol tug‘iladi? Hayvonlar bilish subekti bo‘lishi mumkinmi? Yo‘q, albatta! Hayvon xulq-atvori ma’nosiz emas. Lekin, hayvonlarni aql emas, ichki biologik dastur – instinkt boshqaradi. Fan ma’lumotlarining guvohlik berishicha, bu dastur aniq belgilangan harakatlar – ko‘payish, oziq-ovqat izlash, himoyani amalga oshirish natijasida tirik qolishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qurshab turgan dunyoni bilish orqali aql uning egasiga instinkt bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi nostandart harakatlar imkonini beradi. Lekin ular unga aqlsiz hayvonlar oldida ustunlik beradi. Shunday qilib, odam yoki kishilik jamiyati, aqlli mavjudot bilishning subyekti hisoblanadi.

Demak,bilish bilan shug‘ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchiolimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o‘ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Bilish obyekti. Ammo bilish uchun faqat subyekt emas, balki subyekt (inson) bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan obyekt ham bo‘lishi zarur. Obyektiv reallik hodisalari, jarayonlari ongga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. Bilish subyektining o‘zi inson to‘g‘risida uning bilishi va amaliyotining obyekti bo‘lib nima maydonga kelishiga qarab fikr yuritish mumkin. Masalan, elektron faqat Demokrit va Aristotel zamonida emas, balki Galiley va Nyuton zamonida ham garchi reallik sifatida mavjud bo‘lsa-da, lekin insonning bilish faoliyati sohasiga kirmas edi, inson u vaqtda hali uni o‘z fikri va harakatining obyekti sifatida aniqlab olishga qodir emas edi. Jamiyatning taraqqiyot darajasini bilgandagina tabiatning qanday predmeti kishilarning bilish faoliyatining obyekti bo‘lib qolishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, ijtimoiy amaliyot darajasi hozir shundayki, erimizni qurshab turgan kosmik fazoni, Quyosh sistemasining boshqa sayyolarini amaliy o‘zlashtirish asta-sekin inson faoliyati sohasiga kirib bormoqda.

Inson biron-bir darajada insoniylashgan tabiat ichida yashaydi. U tabiatning yangidan-yangi hodisalarini o‘z turmushi bag‘riga tortib, ularni faoliyat obyektlariga aylantirmoqda. Insoniing dunyosi shu tariqa kengayib va chuqurlashib boraveradi. Shunday qilib, bilish obyektlarining ancha qismi insoniyat tomonidan o‘zgartirilib boshqa shaklga solingan tabiat hodisalaridan iborat. Bu bilish obyektlari insonning amaliy faoliyatiga ma’lum darajada bog‘liqdir. Ana shu faoliyat vositasi bilan madaniyat vujudga keltiriladi, bilish esa ana shu madaniyatning elementidir.

Shunday qilibtadqiqotchi olim, faylasuf, san’atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma’naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo‘lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Falsafaning asosiy masalalaridan biri: subyekt → obyektni bilaoladimi? Yoki bunday bilish faqat xayolparastlikmi, yoki bilish uchun o‘tib bo‘lmaydigan devor, obyekt ↔ subyektdan ajralganmi? Bu masalani yechishda har xil falsafiy qarashlar mavjud, G‘arb falsafiy an’analari uchun bilishning obyekti va subyektini umumiy qarama qarshi qo‘yish xos bo‘lib, bundan obyekt va subyekt munosabatining uchta varianti kelib chiqadi.

1. Subyekt obyektni to‘lig‘icha o‘zlashtira olmaydi. Bunday falsafiy qarashga agnostitsizm deyiladi. Bunday qarash tarafdorlari dunyoni bilib bo‘lmaydi deb faraz qiladilar. Ularning fikricha, dunyo to‘g‘risidagi odamning barcha bilimlari subyektiv va xayolparastlikdan iborat bo‘lib, dunyoni odam bilmaydi va hech qachon bila olmaydi, ham.

2. Subyekt obyektni qisman o‘zlashtira oladi . Bunday falsafiy qarashga qisman agnostitsizm deyiladi. Uning tarafdorlari dunyo odam bilishiga faqat ba’zi bir o‘zining parchalarida yoki ma’lum bir sharoitlarda tushunarli deb faraz qiladi.

3. Subyekt obyektni to‘liq o‘zlashtira oladi. Bunday falsafiy qarash – bilish optimizmi[72] deb ataladi. Uning tarafdorlari dunyo odam bilishi uchun tushunarli va bu bilish xayoliy emas, tabiatdagi narsalarning real holatini aks etirishiga ishonadi. Buni bilish optimizmi deyish mumkin.

4. Bilishning shakllari. Bilishning ikki shakli: kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish bir-biridan farqlanadi.

---

[72] ***Оптимизм*** [*лотинча optimus -энг яхши,энг мақбул*] Келажакка ва умуман ҳар ишга ишонч билан қараш; ҳар бир нарсанинг яхши ва порлоқ томонини кўришга мойиллик.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o‘ziga xos bo‘lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim xosil qilish usullarini o‘rganuvchi maxsus soha — *etnometodologiya* fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

5. Bilishning maqsadi. Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar xosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan - fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma’naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e’zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

6.Bilish predmeti. Bilish predmeti subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obyektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o‘rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

7. Bilish darajalari. Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lib, hissiy bilish deyiladi.

Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir. Insonning sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo‘lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to‘g‘risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo‘lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o‘z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg‘ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining

biron bir narsa yoki hodisa to‘g‘risida bergan ma’lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to‘plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning yana bir darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g‘oyibona bilishdir. O‘zining butun borlig‘ini fan, din, siyosat va san’at sohasiga bag‘ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g‘oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog‘liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o‘rin egallab keldi. Har bir fan o‘ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. *Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.*

Ilmiy bilishning metodlari mavjud va ularni o‘rganadigan maxsus soha — metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o‘z harakteriga ko‘ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo‘linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavxumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo‘lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so‘rovi, hujjatlarni o‘rganish sotsiologiya faniga xos bo‘lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to‘g‘ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o‘rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o‘rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy boqliqdir. Ilg‘or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o‘sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali

vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezoni bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

2-§. Odamning bilish qobiliyatlari

Har bir odamning olamni bilishda o'ziga xos bo'lgan shart-sharoitlar natijasida biron bir qobiliyati shakllangan bo'ladi. Bunda *bilish qobiliyati deb, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarini ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlariga aytiladi.* Hozirgi falsafada, odatda odam bilishining uchta asosiy qobiliyatini qayd qilingan: hissiy bilish, ratsional bilish va irratsional bilish (intuitiv). Ularni batafsil qarab chiqamiz.

1. Hissiy bilish. ***Hissiy bilish*** bu bilishning bir turi bulib, odamning fiziologik sezgi organlari orqali kechadi. Bunday organlar odamda beshta – ko'rish, eshitish, teri, hid va ta'm sezgisi. Sezgi orqali bilish uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi. Ular sezish , idrok va tasavvur deb ataladi.

Sezish - bu sezgi orqali bilishning yagona akti bo'lib, u sezish, ko'rish, eshitish, teri, hid, va ta'm orqali bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ***sezgi*** *– bu odam organizmiga ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarini miyasida aks etishidir.*

Idrok - *bir nechta sezgilarning birgalikda ishlashi orqali kishi tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishidir.* Idrok odatda murakkab yaxlitlik xarakteriga ega bo'lib, unda tashqi olamdagi buyumlarning hamma tomonlari va xususiyatlari aks ettiriladi. Aniqrog'i,idrok tashqi olamning katta murakkab tasvirining bir qismini aks ettiradi deyish mumkin. Masalan, qachon odam o'rmondan besh kilometr uzoqlikda tursa, u uni faqat ko'rishi mumkin. Bu erda sezgi orqali bilish ko'rish sezgisi vositasida kechadi. Qachon odam o'rmonga kirsa, bir vaqtning o'zida har xil sezgi organlari orqali uni bilishi mumkin –

daraxtlarni ko‘radi, o‘rmon ovozini eshitadi va uning hidini sezadi. Bu sezgi idrok deyiladi.

Tasavvur *deb real voqelikdagi narsa va hodisalarning muayyan daqiqada idrok qilinmayotgan hissiy obrazlariga aytiladi.* Tasavvur real olamdagi narsalarning qayta tiklangan obrazidir. Tasavvurning manbai obyektiv reallikdir. Idrokda biz ko‘rayotgan,eshitayotgan,bizga tegib turgan narsalar va shu kabilar qo‘zg‘otuvchi bo‘ladi. Tasavvur uchun esa buyum emas, balki shu buyum haqidagi so‘z yoki fikr qo‘zg‘atuvchi hisoblanadi. Aytaylik, agar siz oldin limon iste’mol qilgan bo‘lsangiz, siz uni tasavvur qilishingiz mumkin. Nafaqat sariq rangi, nordon mazasi, o‘ziga xos hidi, siqib shirasini chiqarishdagi ovozini his qilamiz. Shunday qilib odam tasavvurida ilgari qabul qilingan obyektlarning belgilarini qo‘shishi mumkin va real dunyoda mavjud bo‘lmagan yangi obyektni ichki nuqtai nazarida gavdalantiradi.

Hozirgi tadqiqotchilar odamda fiziologik sezgi organlaridan tashqari, ularning ingichka ruhiy (astral) o‘xshashlari ham bor deb faraz qiladilar. Ko‘pchilik odamlarda ular faol ishlamaydi, shuning uchun ularda sezgi orqali bilishning qo‘shimcha (zahira yoki paranormal) qobiliyatlari yashirish holda mavjud. Ammo fan oldindan bilish, oldindan eshitish, psixometriya kabi(ruhiy o‘lchov) kabi, inson zehn tizimining zahiraviy imkoniyatlarining namoyon bo‘lishiga bir necha bor to‘qnashdi. Kuzatish bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan odamlar sonining o‘sib borishiga guvohlik beradi.

Har qanday hissiy bilish o‘zining chegarasiga ega va hamma vaqtda ishonarli emas. “Sezgi aldovi” degan tushuncha mavjud. Masalan, mexanik soatlardagi soat tili go‘yoki harakatsizday. Yer go‘yoki tep-tekisdek, qalam suvli stakanda go‘yoki qiyshiqdek. Bunday “ aldov”ning sababi nimada? *Birinchidan,* barcha sezgi organlari idrok bo‘sag‘asiga ega. *Ikkinchidan,* ba’zi bir tabiat hodisalari tashqi jihatdan o‘zining real holatidan farq qiladi yoki hech bo‘lmaganda tirik mavjudotning sezgi organlari orqali hayoliy qabul qilinadi. Masalan, suvli stakanda qalamning hayolan qiyshayishi. Sezgi aldovini yo‘qotishi uchun, bilishning qo‘shimcha qobiliyatlari – aql va his qilishni ishga solish kerak.

Gnoseologik konsepsiyada bilish jarayonida sezgi organlari harakatiga katta ahamiyat berilishiga - sensualizm va empirizm deyiladi. Bunday olganda ular urtasida jiddiy farq yo‘q. ***Sensualizm*** *tarafdorlari bilish jarayonida sezgi hal qiluvchi rol o‘ynaydi debhisoblaydi.* ***Empirizm*** *tarafdorlari esa bilishda hissiy tajriba asosiy o‘rinni egallaydi deydilar.* Nemis filosofi Feerbax, ingliz mutafakkirlari Lokk va Gobbs, fransuz

filosoflari Lametri va Gelvetsiy, rim stoiklari, yunon epikurchilari sensualizm va empirizmning izdoshlari edilar.

2. Aqliy bilish – bu aql yordamida (aql – idrok, fahm – farosat, tafakkur, aql) bilish, ma'lumki, bilishning bu turiga faqat aqlli mavjudot ega bo'lishi mumkin. U uchta asosiy: tushuncha, hukm, xulosa shaklda amalga oshiriladi.

Tushuncha *- obyektning muhim belgilarini ifodalovchi va uning ifodasini tilda mustahkamlovchi so'z belgisi.* Tushuncha sodda va murakkab bulishi mumkin. Sodda tushuncha sezgi organlari tomonidan qabul qilinadigan narsalarni ifodalaydi. Sodda tushunchaga odam, stol, tosh, it, qor, quyosh kabilar misol bo'ladi.. Murakkab tushuncha mavhumlikning ma'lum darajasi sifatida tushuniladi. Odatda ular ushlab va ko'rib bo'lmaydigan narsalarni ifodalaydi. Uni tushunish uchun aql va ma'lum bilim (falsafiy, ilmiy va boshq.)dan foydalanish zarur. Burch, sharaf, vijdon, ong, korpuskulyar – to'lqinli dualizm, makon – vaqt, tabiatning dialektik qonuniyatlari, Xudo, tarixiy rivojlanish – abstrakt tushunchalarga misol bo'la oladi.

Hukm *–ma'nosi bo'yicha bir-biri bilan bog'langan tushunchalar majmui.* Og'ir tosh, qushlar uchadi, qizil olma, mis metall, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi – hukmga misol.

Xulosa *– biridan boshqasi chiqadigan, mantiq qonuni bo'yicha o'zaro bog'langan bir nechta hukmlar majmui.* Masalan, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, mis-metall, shuning uchun ham elektr tokini o'tkazadi.

Falsafada ratsional bilishning mumkinligi va to'g'riligi bo'yicha har xil nuqtai nazarlar mavjud. Shu bilan birga, ba'zi filosoflar insonning idrok qilish qobiliyatini chegaralangan deb, aqlni cheksiz bilish imkoniyatlari mavjud degan fikrni ilgari surganlar.(Kant, Blavatskaya, Rerix).

Gnoseologik konsepsiyada aql odam bilishning asosi hisoblanib,uni ratsionalizm deb ataydilar. Uning yevropalik tarafdorlari – Dekart, Leybnits, Spinoza, Kant va boshqa filosoflar hisoblanadi.

3.*Irratsional bilish* – bu bilish to'g'ridan to'g'ri sezgi aql-idrok va ratsional fikrlashsiz kechadi deb tushuntiruvchioqimdir. Bunday bilish turlarining ko'p xil ko'rinishlari va nomlari bor – insayt, nogahon esiga tushish qatori, sezgi bilish va boshqalar. Ammo, hammasi u yoki bu darajada ichki his bilan bog'liq. Ichki his odamning amaliy va bilish faoliyatida katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, ko'p fundamental ilmiy kashfiyotlar filosoflar va olimlarning ichki gumonlariga asoslangan bo'lib, ular keyinchalik fan empirik faktlari va ratsional tushunchalar tekisligiga ko'chirildi.

Gnoseologik konsepsiya, unda odam bilishining asosi intuitsiya hisoblanib, "intuitivizm" deb ataladi. Uning tarafdorlari qatoriga A.Bergeon va N.Losekiy va shuningdek, atoqli filosoflar Dekart, Spinoza, Leybnits, Shelling, Blavatskayalar bilishda va inson hayotida aqliy va ma'naviy intuitsiyaning yetakchi roli, katta ahamiyatini tan oladilar.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko'rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma'naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g'oyalarni ham o'rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

4. Bilish va til. Til ong va tafakkur, bilish jarayonining insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzodlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzodlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush-belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi — signallar tizimi uzoq davom etgan evolutsiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat'iy nazar faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy boqliqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o'zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma'no-mazmunning anglanishi

insonning umumiy bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitdagi kayfiyati kabi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo'llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang -barangligini ta'minlaydigan, fikrni ifodalashga xizmat qiladigan o'ziga xos imo-ishoralar raqs, musiqa «tiliga» ham ega. Shunday bo'lsa-da, ular so'zga ko'chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo'ladi.

Shu bilan birga milliy tillar bilan bir qatorda ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan baynalminal til fan tili, uning tushunchalari va formulalari ham borligini unutmaslik kerak.

XX asrda qo'llanish doirasi tobora kengayib borayotgan elektron hisoblash mashinalarining «beysik», «fortan» kabi tillari yaratildi. Kompyuterlarning ijtimoiy hayotdagi roli tez o'sib borayotgan hozirgi davrda bu «til»lar axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganligini ko'rsatmoqda

Til o'ziga xos tarixiy xotira rolini o'tashini ham unutmaslik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Zero, millat tilida uning o'zligi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkur tarzi aks etadi, mustaxkamlanadi. Shunday ekan, mustaqillik sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e'tibor berilayotganligi milliy o'zligimizni anglashimizning o'tish jarayonida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qaralmog'i lozim.

5. Bilish va o'z-o'zini anglash. Inson voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini boshqarishdek qobiliyatga ham ega. Bu o'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga - subyektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o'zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat'i nazar alohida va betakror «Men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va

o‘zining imkoniyatlarini o‘zi baholashga o‘rganib boradi. Aynan mana shu davrda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta’sirida bolada o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonida u mansub bo‘lgan madaniyat, turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta’sirlar mavjudligi shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta’minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagina ijtimoiy muammo shaxs hayotini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta’sirlar domiga tortishi mumkin. Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib borayotgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

6.Bilish va axborot. Keyingi yillarda «Axborot», «Axborotlashgan jamiyat», «Informatsion portlash» tushunchalari tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch -qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo‘lidagi urinishlarning natijasi bo‘ldi. Asrimizning o‘rtasida paydo bo‘lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo‘lgan bo‘lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operatsiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo‘sh, bularning inson ongi, bilishi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, kompyuterlar ham inson tafakkuriga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Ammo ular qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo‘nalishlardagi aqliy faoliyatini yengillashtirishga xizmat qiladi va o‘zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo‘la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o‘n yilda, informatsiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o‘zlashtira oladimi, degan savol ko‘ndalang bo‘lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo‘lmagan yaqin o‘tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni

o‘zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo‘nalishlari bo‘yicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, inson eng yangi adabiyotlarni o‘rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o‘qigan betiga o‘n ming o‘qilmagan sahifa to‘g‘ri kelar ekan.

Kishilarning paydo bo‘lgan yangi kitoblarning aksariyatini jismonan o‘qib ulgurmaganligi «informatsion portlash» keltirib chiqarayotgan oqibatlarning bir ko‘rinishidir, xolos. Masalaning yana bir jihati borki, bu inson to‘plagan bilim, axborotning ma’naviy eskirishi, keraksiz bo‘lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur’ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy ta’lim sohasida bu jarayon olti-yetti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil davomida sodir bo‘layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o‘quv yurtini bitirganingizga yetti yil bo‘lgan bo‘lsa, o‘z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga javob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarning o‘z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e’tiborni, o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Aks holda, ta’lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo‘lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, bilishning mohiyatini, tushunish, u bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, bilish mohiyatini anglash insonning o‘zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma’no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi. Bu bilish va u bilan bog‘liq masalalar har bir inson hayotida nihoyatda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

3-§. Haqiqat tushunchasi, uning turlari va mezonlari

Har qanday bilishning maqsadi – bilinayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlar to‘g‘risida haqiqatni topishdan iboratdir.. «Haqiqat» nima? Bu savolga javob topish unchalik ham oson emas. Masalan, pragmatizm tarafdori (amerika falsafiy oqimi) bo‘lgan V.Djems *amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa haqiqatdir* deb faraz qiladi. Garchi, haqiqatning klassik konsepsiyasi keng tarqalgan va tan olingan bo‘lib, unga binoan, ***haqiqat – bilimning voqelikka, o‘z predmetiga mos kelishidir.*** Unday bo‘lsa *yanglishish – bu bilimning o‘z haqiqiy predmetiga mos kelmasligidir.*

Fan va falsafada haqiqatning bir nechta: mutlaq, nisbiy, obyektiv va subyektiv kabi turlarini qarab chiqish qabul qilingan. Ularning bir-biridan farqlarini ko‘rib chiqamiz.

Mutlaq haqiqat *– bu biron narsa to'g'risida har tomonlama to'liq, aniq,mukammal,kelgusida tuzatilmaydigan, to'ldirilmaydigan, tugallangan bilimlardir.* Bunday bilim bo'lishi mumkinmi? Mutloq haqiqatni bilish – dialektika qonuni bo'yicha kechadigan abadiy ma'naviy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bir tomondan odamga dunyo to'g'risidagi bilimini kengaytirish va chuqurlashtirishga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Boshqa tomondan, odam dunyoni mutlaq bilish nuqtasiga yaqinlashaolmaydi, shunday ekan hamma vaqtda ham bilinmagani mavjud bo'ladi. Mutloq haqiqat (agar gap murakkab obyekt to'g'risida ketsa) – bu «gorizont» u hamma vaqtda uzoqda turadi. Agar gap oddiy obyektlar yoki hodisalar to'g'risida ketsa – mutlaq haqiqatga to'la erishish mumkin. Masalan, morfologik normal odamning qo'lida barmoqlar soni to'g'risida mutlaq haqiqatni o'rnatish mumkin - ular beshta.

Nisbiy haqiqat –bu bizning borliqdagi predmet va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri,lekin to'liq bo'lmagan bilish jarayonida tuzatilib,to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan bilimlardir. Masalan, yer shar shaklida deyiladi. Nisbatan bu to'g'ri. Lekin, bunday deyish unchalik ham aniq emas. Agar aniqroq qilib aytganda yer planetasi – bu ellipsoid (yopiq sirt), sal yalpoqli shardir.

Obyektiv haqiqat – bu bilish subyektning xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan obyektiv mavjud narsalar, voqea, hodisalar to'g'risidagi bilimlardir. Masalan, Yer Quyosh atrofida aylanadi. Bu obyektiv fakt. Odam bu to'g'rida biladimi – bilmaydimi, unga yoqadimi – yoqmaydimi – Yerning Quyosh atrofida aylanishi unga bog'liq bo'lmagan obyektiv haqiqat.

Subyektiv haqiqat – bilish subyektining xususiyatlariga bog'liq bo'lgan bilimlardir.. U obyektiv haqiqatga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Masalan, O'rta asr ilohiyotchilari yerni dunyoning markazi deb o'ylaganlar. Bu

ularning subyektiv nuqtai nazari (subyektiv haqiqat) edi. Uyg'onish davrining naturfaylasuflari N.Kopernik va Dj.Bruno yer dunyoning markazi emas va Quyosh atrofida aylanadi deb faraz qildilar. Ularning subyektiv kosmologik qarashlari obyektiv haqiqatga mos keladi.

Obyektiv haqiqatning qanday mezonlari (belgilari) mavjud? Odam qanday qilib o'z bilimining to'g'riligini tekshirishi mumkin? Inson qadimdan boshlab o'z bilimlarining haqiqatligini, uning xatodan farqini ajratuvchi mezonni topishga harakat qilib kelgan. Shu sababli falsafada bilimlarning haqiqatligi mezoni muammosi va uni hal qilishga doir turlicha qarashlar paydo bo'lgan.

Falsafada har xil haqiqat mezonlari ilgari surildi. Ulardan eng muhimlari – formal mantiq mezoni, amaliyot mezoni, psixologik mezon, estetik mezon. Bunday qarashlarning dastlabkisi bu haqiqatning formal mantiq mezonidir.

Formal mantiq mezoni. Bu mezonga ko‘ra, bilim haqiqat bo‘lishi uchun bu bilimni ifodalovchi fikr ikkinchi biror fikrga muvofiq kelishi yoki bu bilim boshqa bilimdan zaruran kelib chiqishi lozimdir. Lekin bunga idealistlar va materialistlar turlicha yondashganlar Masalan, obyektiv idealistlar haqiqatning mezoni, deb mutlaq g‘oyaning o‘z-o‘ziga mos kelishini tushunadilar subyektiv idealistlar esa, haqiqatning mezonn subyektning o‘zi yoki uning tafakkuridir, subyekt nimani haqiqat, deb bilishi uning o‘ziga, xohishiga bog‘lik deyishadi. Ba’zi subyektiv idealistlar esa bilimlarning haqiqatlik mezonini subyekt tasavvurlari va tushunchalarining aniq va ravshan bo‘lishidan, ularning umumahamiyatliligidan yoki subyektiv tajribalardan axtaradilar. Materialistlar bo‘lsa, bilimlarning haqiqatlik mezoni deb amaliy faoliyatni oladilar. Ular bilish nazariyasida amaliyot inson bilimlarining to‘g‘ri yoki xatoligini aniqlovchi mezondir.

XX asr nepozitivizm oqimi vakillari o‘z bilish nazariyalarida haqiqatning mezoni deb **kogerensiya** prinsipini oladilar. Bu prinsipga ko‘ra ular haqiqatning mezoni deb bilimning o‘z-o‘ziga mos kelishini tushunadilar. Nepozitivizmning boshqa bir guruhi vakillari esa bilimlarning haqiqatlik mezoni sifatida ***verifikatsiya*** prinsipini ilgari suradilar. Bu prinsipga ko‘ra, bilimlarni hissiy tajriba, kuzatish, eksperiment yo‘llari bilan tekshirish mumkin. Biroq bizga ma’lumki, fanlarda paydo bo‘lgan ba’zi g‘oyalar va qarashlarning haqiqatligini bunday hissiy tajribalar asosida tekshirib bo‘lmaydi. Shu sababli ingliz faylasufi K.Popper verifikatsiya prinsipi bilan tekshirishni «nazariyani tasdiqlovchi dalillarga qarama qarshi, ularni rad qiluvchi, faktlarni qidirib topish bilan takomillashtirish» g‘oyasini ilgari so‘radi. K.Popperning bu g‘oyasi fanlardagi nazariy tizimlarning tatbiq etilish chegaralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq u inson bilimlarining haqiqatligini isbotlovchi mezon bo‘la olmaydi.

Pragmatizm oqimi vakillari esa, har qanday ishning, amalning va bilimning haqiqatlik mezoni uning insonga keltiradigan foydasi bo‘lishi kerak, deyishadi. Haqiqatda esa foydali bo‘lish, foyda keltirish - bular inson bilimlarining haqiqatlik mezoni emas.

Ekzistensializm falsafasi vakillari bo‘lsa, inson bilimlarining haqiqatlik mezoni - bu har bir kishining o‘z ehtiyoji, maqsad va manfaatlaridir, deyishadi.Ularning qarashicha hech qachon ikki kishining

ehtiyoji, intilishlari bir-biriga to‘la mos kelmaydi Shu sababli haqiqatning barchaga baravar bo‘lgan mezoni bo‘lishi mumkin emas.

Inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi odatda uning bu bilimlardan o‘z amaliy faoliyatida foydalanishida ma’lum bo‘ladi. Haqiqat bo‘lgan bilimlar uni o‘z ko‘zlagan maqsadiga to‘g‘ri olib boradi, xato bilimlar esa uning faoliyatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi Shuning uchun bilishning dialektik-materialistik nazariyasi inson bilishning haqiqatlik mezoni deb amaliyotni oladi. Chunki insonning har qanday sohaga oid yangi bilimini haqiqat ekanligini aniqlamoq uchun, albatta, amaliyotda tekshirib ko‘riladi.

Amaliyot inson bilish jarayonida hosil bo‘lgan har bir bilimning haqiqatligini tasdiqlash bilan birga, hosil qilgan bu bilimning cheklanganligini, bir tomonlamaligini hatto xato yoki g‘ayri ilmiyligicha ham aniqlab beradi.

Lekin shuni ham aytish kerakki amaliyot ham inson bilimlarining haqiqatlik mezoni sifatida mutlaq emas. Sababi: inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi amaliyotda tasdiqlanishi aslo to‘liq bo‘lmaydi. Shuning uchun barcha davrlarda inson bilimlarining barcha sohalarida hali haqiqatligi tasdiqlanmagan yoki xatoligi to‘la aniqlanmagan ko‘pgina muammo va gipotezalar mavjudki, ular kelgusi avlodlar tomonidan tuzatilib, to‘ldirilib, tasdiqlanib yoki qilinib boriladi. Shu boisdan ma’lum sharoitlarda inson bilishi erishgan fundamental bilimlarni haqiqatligini amaliyotda tasdiqlash yoki xatoligini rad qilish uchun ba’zan bir necha daqiqa, bir necha soat yoki bir necha kun talab qilinsa, ba’zan bu muddat bir o‘n yil yoki bir necha yuz, hatto minglab yillarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Umuman, amaliyot haqiqat mezoni sifatida insonning to‘g‘ri bilimlarini xato bilimlardan farq qilishda katta ahamiyatga ega. Bu mezon, birinchidan, inson bilimlari borliqning to‘g‘ri in’ikosi ekanligini tasdiqlasa, ikkinchidan, u borliqni noto‘g‘ri aks ettiruvchi qarashlarning xatoligini ochib beradi.

Psixologik mezon odamning ichki ishonchiga asoslanadi. Masalan, fransuz filosofi R.Dekart u psixologik mutlaq ishonarli, tadqiqotchilarda hech qanday shubha tug‘dirmaydigan narsa haqiqatdir deydi. Lekin, psixologik ishonch hamma vaqtda ham haqiqatni kafolatlamaydi. Axir tarixda odamlar haqiqatga hech qanday aloqasi yo‘q narsalarga juda ishongani to‘g‘risida tarixda faktlar ko‘p. Masalan, qadimgi odamlar yer tekis va okeanlarda katta toshbaqa (katta kitlar) ustida suzib yuradi deb o‘ylaganlar.

Estetik mezon haqiqiy bilimning «go'zalligi» bilan bog'liq. Ba'zi olimlar va filosoflar haqiqiy bilim estetik uyg'un va go'zal deydi. Masalan, fiziklar fizik kattaliklarning munosabati u yoki bu formulada «go'zal» ko'rinadi – matematik uyg'un deb aytishlari mumkin. Ammo bu yerda ham odam xatolardan holi emas. Axir, estetik go'zallik to'g'risidagi qarashlar har xil odamlarda farq qiladi. Bu mezon his tuyg'usi yuqori rivojlangan odamlarda bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchi o'z obyektini o'rganishga kirishar ekan, o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u bu predmet yoki hodisa ustida ma'lum davr ichida tinmay turli xil izlanish va tadqiqotlar olib boradi va o'z tadqiqot jarayonida turli xil yo'llar, usullar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni kechiradi. Shundan keyingina u o'zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma'lum yangi bilimlarni hosil qilishi mumkin. Bunda to'g'ri tanlangan ilmiy bilish metodlari tadqiqotchilarning izlanishlarida tadqiqot yo'lini yorituvchi bir mash'aldir.

Ilmiy bilishda to'g'ri tanlangan metod shu metod yordamida qilingan ilmiy kashfiyotga nisbatan qimmatliroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday metod bilan tadqiqotchi bir emas, balki bir necha ilmiy kashfiyotlar qilishi mumkin.

4-§. Bilish metodologiyasi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganish falsafada metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy talimot sifatida o'zida kishilar dunyoqarashi prinsiplari, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tadbiq o'rganadi. Metodologiya termini falsafada ko'p ma'nolidir. U bir o'rinda borliqni ilmiy bilish va o'zgartirishning metodlari haqidagi nazariyani ifodalasa, ikkinchi o'rinda u butun ilmiy bilish metodlarining yig'indisi ma'nosini ifodalaydi. Uchinchi bir o'rinda esa, metodologiya termini insonning borliqni ilmiy bilish va o'zgartirishning eng umumiy metodi ma'nosida qo'llanadi.

Ilmiy bilish metod va metlodologiya terminlari bir-biri bilan juda yaqin va o'zaro chambarchas bog'liqdir. Metodologiyaga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga qo'llaniladigan metodlar bir-birlaridan o'z tabiati, xarakteri, qo'llanish sohalari, qo'llanish ko'lami, darajali jihatdan farq qiladilar. Ular bir-birlaridan ilmiy
bilishning empirik va nazariy darajalariga bog'liqligi jihatidan ham farq qiladilar. O'z qo'llanish ko'lamiga ko'ra ilmiy metodlarning ba'zilari

hamma ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilsa, boshqa bir xillari ko‘pchilik fan sohalaridagi olib boriladigan tadqiqotlarda, uchinchi bir xillari esa alohida, ayrim fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlardagina qo‘llaniladi.

Ilmiy bilishning eng umumiy ilmiy metodining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tadqiqotchilarning har qanday ongli amaliy va nazariy faoliyatida, hamma va har qanday ilmiy tadqiqot sohasida qo‘llaniladi.

Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlari - bular ko‘pchilik yoki bir guruh fan sohalarida qo‘llaniladigan, ilmiy bilishning empirik bosqichiga oid bo‘lgan metodlardir.

Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlari esa olib boriladigan ilmiy tadqiqotla ularning nazariy bosqichda qo‘llaniladigan metodlardir.

1 jadval

Asosiy gnoseologik konsepsiyalar

Gnoseologik konsepsiyalar	
Sensualizm	Intuitivizm
Odam bilishining asosini sezgi tashkil qiladi	Odam bilishining asosini intuitsiya tashkil qiladi (ongning irratsional qobiliyati
Odam bilishining negizini tajriba tashkil qiladi	Sintetik konsepsiya
Odam bilishining negizini aql tashkil qiladi	Odam bilishi sezgi, aql va intuitsiya harakatlariga asoslangan

2 jadval

Haqiqatning turlari



3 jadval

Haqiqat mezonlar



4. Jadvallar.

Ilmiy va diniy bilishning xususiyatlari



Qisqacha xulosalar

1. Inson bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aql-idrokli mavjudoddir. Boshqa bironta mavjudotda bunday xususiyat ham,qobiliyat ham yo‘qdir.

2. Bilishning mohiyatini, tushunish, u bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi.

3. Bilish mohiyatini anglash insonning o‘zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma’no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi. Bu bilish va u bilan boqliq masalalar har bir inson hayotida nihoyatda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

4. Bilishning tur,shakl,usul va uslublari juda ko‘pdir. Shular ichida,ilmiy bilish metodlari alohida ajralib turadi. Uning natijalari amaliyotda qo‘llanilib,biron bir foyda keltirgandagina haqiqatga yetaklovchi kuch hisoblanadi.

5. Haqiqatning tur va shakllari ko‘p. Ular obyektiv,mutlaq,konkret bo‘lishi mumkin. Ammo abstrakt haqiqat yo‘qdir. Bilishning maqsadi haqiqatga erishmoqdir.

Tayanch tushunchalar

Dunyoni anglash, ong, in'ikos, bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, bilish obyekti, bilish subyekti, bilish metodlari, xaqiqat, o'z-o'zini anglash, axborot.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ong nima?
2. Gnoseologiya nimani o'rganadi?
3. Bilish nima?
4. Bilish obyekti, subyekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Bilishda haqiqatga erishish yo'lini izohlang
6. Bilimlar va axborot omili ta'siri ortishini qanday tushunasiz?
7. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyat nimada?
8. Bilishning hissiy darajasining shakllari nimalar?
9. Aqliy bilish darajasining shakllari nimalar?
10. Bilishning asosiy uslublari nimalar?
11. Haqiqat, uning mezoni nimada?
12. Ilmiy bilish va uning darajalari?
13. O'zbekiston ilmiy salohiyatining ko'tarilishida ilmiy bilishning rolini nimalarda ko'rasiz?
14. *« eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm,eng katta meros - bu yaxshi tarbiya,eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir»*[73],- degan fikrning falsafiy mohiyati haqida bahs yuriting?

[73]Ўзбекистон Республикаси Президенти ***Шавкат Мирзиёевнинг*** Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.// https://president.uz/uz/lists/view/4057

IV. BOB. MANTIQ

1-§. Mantiq fanining predmeti va tarkibiy qismlari

1. Mantiq haqida tushuncha. Odamzod o‘zining aqli, tafakkuri bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi. Bunda mavjud voqelikda sodir bo‘layotgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlar haqida mustaqil tarzda to‘g‘ri fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri fikrlashni o‘rgatish masalasi bilan esa mantiq fani shug‘ullanadi.

Mantiq (arabcha), logika(yunoncha) - nutq, til, so‘zlash, fikr, aql ma’nolarini anglatadi. «Logika» tushunchasini ilmiy atama sifatida birinchi bor yunon faylasufi Demokrit o‘zining «Mantiqiylik yoki qoidalar haqida» asarida muloqotga kiritgan. Hozirgi zamon ilmiy muloqotida «mantiq» atamasining mazmuni ancha boyigan bo‘lib, u turli ma’nolarda ishlatiladi. Agar so‘z narsalarning tartibi, bog‘lanishi, izchilligi ustida borsa - obyektiv mantiqni va aksincha, agar so‘z, fikrlar bog‘lanishi, izchilligi asoslanishi, tafakkur taraqqiyoti va qonuniyatlari haqida boradigan bo‘lsa, tafakkur mantig‘i yoki subyektiv mantiq tushuniladi.

Mantiq fanining o‘rganish obyekti tafakkur hisoblanadi. Tafakkurni esa o‘z navbatida falsafa, psixologiya, fiziologiya, kibernetika kabi boshqa ko‘pgina fanlar o‘rganadi.

Falsafa tafakkurning borliqqa, dunyoga bo‘lgan munosabati bilan shug‘ullanadi. Shu ma’noda falsafa inson ongi tafakkuridagi dunyo to‘g‘risidagi bilimlar, qarashlar tizimini o‘rganishi bilan kishilarning dunyoqarashi haqidagi ta’limotlarning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratib beradi.

Fiziologiya - tafakkurning tabiiy asosini, ya’ni inson miyasi faoliyatidagi fikrlash jarayonining mexanizmini tekshiradi. Fiziologik jarayonsiz inson miyasida sezish, idrok, tasavvur, xotira, hayol, hissiyot fikrlash kabi hech qanday jarayon yuz bermaydi.

Psixologiya - ruhiyat esa tafakkurning normativ rivojlanishi, uning vazifalarini boshqa ruhiy holatlar bilan (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, xayol, diqqat va shu kabi) aloqasini inson faoliyati natijasi sifatida o‘rganadi. Ruhiyat (psixologiya) fikrlashning taraqqiyoti, uning yuzaga kelishi qonuniyatlarini, turli bosqichlardan iborat ruhiy jarayonlarning aloqasini o‘rganadi.

Mantiq fani har qanday tilining tarkibiy qismi bo‘lgan grammatika bilan ham uzviy bog‘liq. Tushuncha, hukm va xulosalarning ifodalanish tuzilishini aniqlashda grammatikaning roli kattadir.

Shuningdek, o‘quvchi «Mantiq» termini bir-biridan mustaqil bo‘lgan uchta fanni - formal mantiq, dialektik mantiq va matematik (simvolik) mantiqni ifoda qilishini tushunib olishi lozim.

Dialektik mantiq tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiy etishining eng umumiy qonunlari va ular asosida yaratiladigan metodologik prinsiplarini o‘rganadi.

Formal mantiq tafakkurning konkret mazmunidan chetlanib e’tiborini uning tuzilishini tekshirishga qaratadi. Shu jumladan, tafakkur formalari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ham ularning tuzilishi nuqtayi nazardan o‘rganadi.

Matematik (simvolik) mantiq tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallashgan tizimda tahlil qiladi.

Biroq yuqorida tilga olingan fanlarning har biri tafakkurga o‘z nuqtayi nazaridan yondashib, uning turli qirralarini ochib berishga qaratilgan. Mantiqning ana shu tarmoqlanib ketgan turlari orasida inson tafakkurining eng oddiy (elementar) qonun-qoidalari bilan qurollantiradigan, uni to‘g‘ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog‘i formal mantiq bo‘lib, u tarixiy kelib chiqishi nazarda tutilib, klassik, an’anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtayi nazardan esa umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib, aytishimiz mumkinki, *formal mantiq tafakkur qonunlari, qoidalari, shakl va usullarini o‘rganuvchi fandir.* Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, biz o‘rganayotgan formal mantiq tafakkurning shakl va qonunlarni o‘rganuvchi fan sifatida insonning tashqi olamni bilish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda insonning bilish jarayoni o‘z mohiyati va tabiati jihatidan o‘zaro tafovut qiluvchi ikki bosqichdan: birinchi quyi hissiy bilish, ikkinchi yuqori aqliy bilish bosqichlaridan iboratdir. Dastavval inson dunyoni sezgi, idrok, tasavvur kabi hissiy bilishning shakllari orqali bilishga muvofiq bo‘ladi.

Inson hissiy bilish orqali narsa va hodisalarning bevosita tashqi jihati va xususiyatlari, tashqi bog‘lanishlarini bilib oladi. Ular bizga narsalarning ichki bog‘lanishlari va rivojlanish qonunlari, mohiyati, zaruriy bog‘lanishlarini ochib bera olmaydi. Bunga biz keyingi yuqori bosqich aqliy bilish orqali erishamiz. Aqliy bilish tafakkurning tushuncha, hukm, xulosa kabi shakllarida namoyon bo‘ladi.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllar (tushuncha, hukm va xulosalar) hamda ular o‘rtasidagi

aloqada ma'lum mantiqiy qonun-qoidalarni vujudga keltiradiki, to'g'ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan xoli fikrlash ana shu qonun-qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Mantiq fani mana shu qonunlar bilan shug'ullanadi. Bu qonunlar amaliyoti natijasida vujudga kelgan bilimlar isbotlanadi yoki rad etiladi, ularning to'g'riligi yoki xatoligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Tafakkur til bilan uzviy bog'liq. Til fikrlarimizning bevosita mavjud bo'lishini ta'minlaydigan va kishilar o'rtasida aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari tizimidan iborat.

Har qanday fikr tilda ifodalanadi, til esa o'z navbatida fikrga ta'sir etadi, uni shakllantiradi, kengaytiradi. Til va tafakkur o'zaro aloqada shakllanadi, namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi.

Til tufayli inson tashqi olam ko'rinishining chuqur bog'lanishlarini oydinlashtiradi va pirovardida, eng oddiy tushunchalar vujudga keladi. Mantiqda vujudga kelgan tafakkur shakllari til bilan birikib, yangi-yangi bilimlar ko'rinishida namoyon bo'ladi hamda tafakkur o'zining qaysi vazifalarini tilning zimmasiga yuklaydi, degan muammolarni tushuntirib beradi. Bundan tashqari, qanday hollarda ramziy (matematik) mantiq ismlar va predikatlar (kesimlar) mantig'ida namoyon bo'lishi masalalarni, ularning fanda muayyan vazifalarni amalga oshirish mumkinligi muammolarini ham mantiq fanining bahs mavzui doirasiga kiradi.

Shu bois mantiq fani o'rganadigan til - barcha turdagi belgili axborot tizimi bo'lib, mazkur tizimning vazifasi axborotni (bilimlarni) qabul qilish, saqlash, to'plash va o'zgalarga yetkazib berishdan iboratdir.

Tilning belgi tizimi nazariyasini o'rganuvchi fan semiotika deb ataladi. U tilni uch nuqtayi nazardan tahlil qiladi: sintaksis, semantika va pragmatika.

Sintaksis (yunoncha «qurilma», «tartib») semiotikaning muhim bir tarmog'i bo'lib, tilning tuzilishini, turli belgilari o'rtasidagi aloqa, shakllanish usullarini o'rganadi.

Semantika (yunoncha ««ifodalaydigan») til belgilari bilan unda ifodalangan obyekt o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi.

Pragmatika (yunoncha «ish», «harakat») kishilarning belgilarga munosabatini o'rganadi. Bunda belgilar yordamida kishilar o'rtasidagi vujudga keladigan munosabatlar ham tahlil qilinadi.

Til o'z navbatida ikkiga, ya'ni tabiiy va sun'iy tillarga bo'linadi.

Tabiiy til - kishilar o'rtasida tarixan shakllangan tovushlar (nutq) va grafika (yozuv)ning axborot belgilari tizimidir. Tabiiy til kishilarning tarixan birligi asosida paydo bo'ladigan jonli so'zlashuvlarda, keyinchalik

grafik yozuvlarda ifodalanadi. Bu esa belgi - axborot tizimini tashkil qiladi. U kishilar o'rtasidagi aloqa vazifasini bajarish ehtiyojini qondirish uchun paydo bo'ladi va muhim ijtimoiy va tabiiy vazifalarni bajaradi. Til orqalikishilar bir-birlariga axborot beradilar, tajriba almashishadi, ularni to'playdi va keyingi avlodga qoldiradi.

Sun'iy til - tibbiy til negizida yaratilgan yordamchi axborot belgilari tizimidan iborat bo'lib, u mavjud xabarlarni aniq, hamda tejamli bayon qilish va uzatish uchun xizmat qiladi. Sun'iy tilda sun'iy yo'l bilan yaratilgan maxsus belgilar, ya'ni simvollar - ramzlar ishlatiladi. Tabiiy tildagi konkret mazmunga ega fikrlar ilmiy bilishda ana shunday simvollar bilan almashtiriladi. Demak, sun'iy til fikrimizning konkret mazmunidan chetlashgan holda faqat simvollar bilan ish olib borishni ta'minlaydi. Belgi-simvollar asosida alfabitlar tuziladi. Ular aniq ma'nolik, mantiqiy axborot jarayonlarning semantikasini ifodalaydi.

Bugungi kunda zamonaviy mantiq ilmi sun'iy til yordamida fikrlash qonun va shakllarini nazariy tahlil qilmoqda. Shuning uchun simvolik mantiq deb ham yuritiladi. Tilning semantik kategoriyalari til ifodalarining sinflaridan iborat bo'lib, ular bir-birlaridan qanday obyektlarni aks ettirishlari bilan farq qiladi. Asosiy semantik kategoriyalar qatoriga gap va uning tarkibida nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lgan qismlari - deskriptiv va mantiqiy atamalar kiradi. Gap o'z navbatida: darak gap; so'roq gap; buyruq va undov gaplarga bo'linadi. Hukmni ifoda qiluvchi gap narsaga birorta belgi va xususiyatning xos yoki xos emasligini tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Hukm darak gapdan iborat bo'ladi.
Gapda narsalarni, ularning xossa munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar deskreptiv atamalar deyiladi. Deskreptiv atamalar o'z navbatida, narsaning nomi, funksional belgilari va predikatorlarga bo'linadi.

Narsalarning nomlari ayrim so'zlar va so'z birikmalari bo'lib, ular moddiy (planeta, elektr toki) va ideal (sezgi, tafakkur) narsalarni ifodalaydi. Narsa nomi belgidan iborat bo'lganligi uchun o'z mazmuni va ma'nosiga ega. Nomning mazmuni narsani ifoda qiladi va mantiqda denotat deb ataladi. Nomning ma'nosi esa narsaning muhim, umumiy belgilarini ifoda qiladi va konsent deb ataladi. Masalan «Aristotel», «Logika fanining asoschisi», «Topika» asarining muallifi, kabi ifodalarning mazmunini bir xil, ya'ni bitta narsani ifodalaydi, ma'nosi esa turli xil, ya'ni fikr qilinayotgan obyektning har xil belgilarini qayd qiladi.
Shuningdek, nomlar yakka (Toshkent shahar) yoki umumiy (shahar) bo'lishi mumkin. Yakka nom bitta predmetni, umumiy nom esa narsalar sinfini aks ettiradi.

Predikatorlar gapda kesim o‘rnida kelib, o‘zi taalluqli nomning miqdoriga bog‘liq holda bir o‘rinli yoki ko‘p o‘rinli bo‘lishi mumkin. Bunda narsaning xossasini ifoda qiluvchi predikatorlar bir o‘rinli, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda qiluvchi predikatorlar ko‘p o‘rinli predikatorlar hisoblanadi. Masalan, «O‘zbekiston mustaqil respublikadir», degan mulohazada predikator bir o‘rinli, «O‘zbekiston Qozog‘iston bilan iqtisodiy shartnoma tuzdi», degan fikrda «iqtisodiy shartnoma tuzdi» predikatori ikki o‘rinli, «O‘zbekiston Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida joylashgan», degan fikrda «oralig‘ida joylashgan» predikatori uch o‘rinlidir.

Mantiqiy atamalar (mantiqiy konstantlar) doimiy mantiqiy qiymatga ega bo‘lib, gapda deskreptiv atamalarni bog‘lashda ishlatiladi.
Mantiqiy atamalar:

- konyunksiya (birlashtiruvchi) - (a/\v) - va, ham;
- dizyunksiya (ayiruvchi) - (a\/v) - yoki, yo, yoxud;
- implikatsiya (shartli) - (a ^ v) - agar , u holda;
- ekvivalent (tenglik) - (a = v);
- inkor - belgilar ustiga qo‘yilgan chiziq inkorini bildiradi a (a emas).

2-§. Tushuncha va uning turlari

1. Tushuncha - tafakkur shakli sifatida. Inson tushunchalar vositasida fikrlaydi va o‘zaro munosabatda aynan shu tushunchalar orqali bir-biri bilan muloqotda bo‘ladi. Insonning dunyo va dunyoning qonunlari mohiyatini bilishi kundalik ong darajasidagi tushunchalar va ilmiy tushunchalar - kategoriyalar shaklida namoyon bo‘ladi.

Tushuncha - bu narsa va hodisalarning umumiy, muhim, o‘ziga xos belgi va xususiyatlarining inson ongida yaxlit aks ettiruvchi tafak kur shaklidir.

Tushuncha tafakkur shakllaridan biri sifatida insonning oddiy hissiy bilish shakllari - sezish, idrok va tasavvurdan farq qiladi.

Sezish - narsalardagi ayrim jihatlar (rang, ta’m, hid va boshqalar)-ning inson ongidagi aksidir, idrok esa narsalarning inson miyasida to‘la, yaxlit holda in’ikos etishidir. Tasavvurda inson oldindan idrok qilgan holatlarning obrazlarini ko‘z oldida tiklaydi. Demak, ko‘rib turganimizdek sezgi, idrok, tasavvur kabi hissiy bilishning shakllari bevositalik hamda ko‘rgazmalikka asoslanar ekan.

Tushunchada esa muayyan bir guruh narsalarga xos bo‘lgan muhim va zaruriy belgilar umumlashtiriladi, natijada insonning tafakkurida alohida bir xususiyatga, ya’ni shakl, rang va boshqa belgilarga ega bo‘lgan

aniq bir narsa - stol yoki stul emas, balki ularning umumiy obrazi shakllanadi.

Tushuncha bir-biriga o‘xshash narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim tomonlarini ongimizda aks ettiradi. Chunki shu belgilar narsaning mohiyatini ko‘rsatadi.

Tushunchaning belgilari deganda nima tushuniladi? Agar narsa-hodisalar biron jihati bilan bir-biriga o‘xshash yoki farqli bo‘lsa, shu o‘xshashlik yoki tafovut narsa va hodisalarning belgisi deb aytiladi. Biz ongimizda aks etgan narsa va hodisalarning belgisini «tushunchaning belgisi» deb ataymiz.

Narsa va hodisalarning belgilari juda ko‘p. Ularning narsaga bo‘lgan ahamiyati nuqtayi nazaridan muhim va nomuhim belgilarga bo‘linadi.Narsa va hodisalarning ma’lum nisbatda olingandagi tub xususiyatlarini ifodalovchi belgi «muhim belgi» deb ataladi. Narsalarning mavjudlik mohiyatiga ta’sir qilmaydigan xususiyatlarini ifodalovchi belgi «nomuhim belgi» deb ataladi.

Belgilarni muhim va nomuhim belgilarga ajratish nisbiydir. Chunki bu holat insonning faoliyati va tajribasiga bog‘liq hamda o‘zgaruvchandir. Inson bilim doirasiga binoan o‘zgarib boradi. Muhim belgi nomuhimga, nomuhimdan muhimga o‘tib boradi. Demak, tushunchada narsa va hodisalarning birinchidan, eng umumiy va ikkinchidan, muhim belgilari ifodalanar ekan.

Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy, muhim, o‘ziga xos belgi va xususiyatlarini insonning ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushunchaning nima ekanligi haqida dastlabki tasavvur olganimizdan so‘ng uning shakllanishi asoslarini, boshqacha qilib aytganda, tushuncha shakllanishining mantiqiy usullarini bilib olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mantiq ilmida tushunchaning shakllanishida taqqoslash, analiz, sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish kabi mantiqiy usullar muhim rol’ o‘ynaydi.

Mantiqiy taqqoslash*narsa va buyumlarning boshqa narsa va buyumlar bilan o‘xshashligi yoki farqini aniqlashning mantiqiy usuldir.* Aynan taqqoslash usuli yordamida bir tushunchaning boshqa tushunchadan farqli tomoni aniqlanadi va narsa to‘g‘risida yaxlit tushuncha hosil qilinadi. Muayyan narsa haqida tushuncha hosil qilish uchun dastlab, ushbu narsaning boshqalar bilan o‘xshashligi yoki farqini aniqlash lozim. Aynan shu vazifani bajaruvchi mantiqiy usul taqqoslash hisoblanadi.

Tushunchani hosil qilishda foydalaniladigan yana bir muhim mantiqiy usul - ***bu analiz va sintezdir***. Analiz va sintez fikrlashda abstrakt

tushunchalarning yordamida amalga oshiriladi va bunday tushunchalarni vujudga keltirishda asosiy usullardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bilishda u boshqa - taqqoslash, mavhumlashtirish va umumiylashtirish usullari bilan uzviy bog‘lanib qo‘llaniladi.

Mantiqiy analiz - bu tadqiq etuvchi obyektni tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganishdir. Ma’lumki, obyektiv voqelik nihoyatda murakkab bo‘ladi, biroq u aniq narsa va hodisalardan tashkil topadi. Ular esa o‘z navbatida, xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Bunday hodisa va narsalarni bilish va ular to‘g‘risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish uchun shu murakkab narsalarni tarkibiy qismlar, elementlar hamda bo‘laklarga fikran ajratish, ya’ni analiz qilish zarur.

Masalan, tergovchi hodisa sifatida olingan jinoyatning mohiyatiga yetib borish uchun uni turli xil versiya (tusmol)lar asosida tahlil qilib ko‘radi. Jinoyat sodir etilgan joyni ko‘zdan kechiradi, guvohlar bilan ishlaydi, har bir harakatni o‘z fikrlarida qaytadan tiklaydi. Bu holda fikriy tahlil amaliy tahlil bilan bog‘liq bo‘ladi. Lekin analiz fikrlash jarayonida alohida uchramaydi, u har doim sintez bilan birgalikda, u bilan bog‘liq holda keladi.

Sintez - bu analiz yordamida butunning bo‘laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to‘plab, yaxlit holda o‘rganishdir. Bir obyektni o‘rganish jarayonida, avvalo, uni bo‘laklarga ajratib, so‘ng bu bo‘laklarni yana bir butunga to‘playmiz. Bunda sintez bevosita amaliy sintez bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Masalan, tergovchi jinoyat sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirayot- ganda, dastlab turli xil dalillarni guruhlariga qarab ajratadi (tahlil qiladi), so‘ng bu ma’lumotlarni yig‘adi, sintez qiladi. Sintezlashtirish jarayonida fikr yakkadan umumiyga, qismdan butunga, konkretdan abstraktga boradi. Sintez analiz (tahlil)ga asoslanadi va bilishda tushunchalarning vujudga kelishini yakunlaydi.

Tushunchaning vujudga kelishidagi muhim mantiqiy usul, umuman obyektiv reallikdagi narsa va hodisalarni ularning xususiyatlarini tafakkurda aks ettirishning eng muhim xislatlaridan biri - bu *abstraksiyalash, ya’ni mavhumlashtirishdir.*

Mavhumlashtirish - bu obyektiv reallikdagi narsa hodisalar- ning ikkinchi darajali, muhim bo‘lmagan alohida xususiyatlaridan uzoqlashib, mavhumlashtirish yordamida ularning eng muhim va asosiy umumiy tomonlarini aniqlashdir. Olamni ilmiy o‘rganishda hodisalarning ichki tomonlarini mohiyatini ochish va ular haqida to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarish uchun mavhumlashtirishning ahamiyati juda katta. *Mavhumlashtirish qobiliyati - bu fikrlash qobiliyatidir.* O‘quvchini mavhumlashtirishga o‘rgatish uning ilm-fanni egallash, konkret

hodisalarning umumiy tomonlarini bila olishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy mavhumlashtirish narsalarning konkret belgilaridan uzoqlashgan holda ularni chuqurroq bilishga xizmat qiladi. Ilm-fan ilmiy abstraksiyalarga asoslanadi.

Umumlashtirish - narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi yoki xususiyatlarining bog'lanishlarini fikrda muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir. Umumlashtirish - ilmiy bilishning muhim vositalaridan biri.

2. Tushunchaning turlari va ular o'rtasidagi munosabatlar.

Tushunchaning turlari haqida gapirishdan oldin ularni turlarga bo'lishning eng asosiy mezoni bo'lmish tushunchalarning hajmi va mazmuni haqida tasavvur hosil qilishimiz lozim. Tushunchaning hajmi va mazmuni uning mantiqiy tarkibini tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi deb uning mohiyatini tashkil etuvchi narsalarning yig'indisiga aytiladi. Tushuncha o'zida bir turkumga kiruvchi narsa va hodisalarni birlashtiradi. Masalan, inson, yulduz, jinoyat kabi tushunchalar. Bularning har biridan o'z hajmiga bog'liq bo'lgan boshqa tushunchalar doirasida ham foydalanish mumkin. Jumladan, insonning tushunchasida o'tgan, hozir va kelajakda mavjud bo'lishi mumkin barcha odamlar haqidagi bilimlar mujassamlashtiriladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tushunchaning mantiqiy tuzilishi bir tomondan uning hajmi bilan, ikkinchi tomondan mazmuni bilan ifodalanadi.

Tushunchaning mazmuni deb narsa va hodisalarning tushunchada aks etgan muhim belgilarining yig'indisiga aytiladi. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, tushunchaning mazmuni unda ifodalanishi mumkin barcha muhim belgilarni aks ettirar ekan. Masalan, ziyoli o'qituvchi. Ziyoli tushunchasi o'zida madaniyat, ilm, ma'naviyat sohibini gavdalantiradi.

Tushuncha hajm va mazmun birligidan iborat. Shuning uchun hajmsiz mazmunli, mazmunsiz hajmli tushunchalar bo'lmaydi. Tushunchalarning hajmi va mazmuni o'rtasidagi munosabat shakl va mazmun o'rtasidagi o'zaro teskari munosabat qonunidagidek namoyon bo'ladi. Yani, *tushunchalarning hajmini kengayishi ular mazmunining mavhumlashuviga olib keladi, hajmning qisqarishi mazmunning boyishiga olib keladi.* Masalan, jinoyat - hajmi keng, mazmunini ifodalovchi muhim belgilari ham nisbatan mavhum. O'g'irlik - hajmi jihatidan jinoyatdan torroq, lekin mazmunan boyroqdir.

Mazkur teskari munosabat qonuni hamma tushunchalarda emas, balki bir xil tur tushunchalarda namoyon bo'ladi.

Tushunchalarni turga ajratish to‘da buyumlar uchun umumiy belgilarga qarab ajratishdir. Tushunchada ifodalangan hodisalarning guruhlari hajmi jihatidan munosabatlariga qarab jins va tur guruhlariga bo‘linadi. Jins turga nisbatan keng bo‘ladi. Demak, narsa va hodisalar bir xildagi jins va tur guruhlariga oid bo‘lgandagina ularning o‘rtasidagi hajm va mazmun munosabatlarining teskari aloqadorligini ko‘rishimiz mumkin. Aks holda, bu munosabat amalga oshmaydi. Masalan, uy tushunchasining hajmi qanchalik kengaymasin, poeziya tushunchasi torayib qolmaydi. Hajmi va mazmuni tushunchani turlarga bo‘lishning eng asosiy mezoni hisoblanadi. Mazkur mezonga binoan tushuncha muayyan turlarga bo‘linadi.

Tushunchalar hajmiga ko‘ra, nol’ (bo‘sh), yakka, umumiy chegaralangan yoki umumiy chegaralanmagan tushunchalarga bo‘linadi.

Noltushunchalar - insoniyat tajribasida uchramagan, fanda qayd etilmagan narsa va hodisalarni ifodalovchi hajmsiz tushunchalardir. Masalan, shayton, ajina, farishta va boshqalar.

Yakka tushunchalar - ayrim, alohida narsa, hodisa va jarayonlarning umumiy va muhim tomonlarini aks ettiradi. Masalan: Sirdaryo, general Rahimov, Samarqand shahri va boshqalar.

Umumiy tushunchalar - bir yoki bir nechta guruh narsa va hodisalarning muhim, umumiy tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Masalan, yulduz, fabrika, jinoyat, jamiyat.

Umumiy tushuncha bilan yakka tushunchalar orasida jamlovchi yoki boshqacha qilib aytganda, to‘planma tushunchalar alohida o‘rin egallaydi.

To‘plam tushunchalar - bir to‘plam, bir guruh narsalarning bir butun yaxlit holatda aks etishidir. Masalan, xalq - kishilarning to‘plami, militsiya - ichki ishlar organlari xodimlarining to‘plami, armiya - askarlarning hamda harbiylarning to‘plami. Lekin askar va odam tushunchalari to‘planma emas. Chunki, bu tushunchalar to‘plamni emas, balki bir guruh narsalarni aks ettiradi.

Chegaralangan tushunchalar - tushunchalarning narsa va hodisalarni hisoblash imkoniyatini vujudga keltiruvchi xislatga ega bo‘lishi. Masalan, «Akademiyaning talabalari», «1-kurs rahbar zobitlari» va boshqalar.

Chegaralanmagan tushunchalarda tarkibidagi narsa va hodisalarning son-sanoqsiz holati namoyon bo‘ladi. Masalan, atom, yulduz, mikrob va boshqalar.

Tushunchalar mazmuniga ko‘ra aniq, mavhum, ijobiy, salbiy, nisbatli hamda nisbatsiz turlarga bo‘linadi.

Aniq tushunchalar - obyektiv borliqdagi moddiy holatda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalarni real aks ettiruvchi tushunchalardir. Aniq

tushunchalar narsalarning belgilarini yaxlit belgilaydi. Masalan, shahar, haykaltarosh, militsioner va hokazo.

Mavhum tushuncha deb narsa va hodisalarni sifatlari yoki munosabatlarining belgisi narsaning o'zidan ajratilib, mustaqil holda aks etuvchi tushunchalarga aytiladi. Mavhum tushunchada narsa va hodisalar emas, balki ularning qandaydir bir xususiyati yoki munosabati yaxlit mavjud narsa shaklida in'ikos ettiriladi. Masalan, qahramonlik, sotqinlik, mardlik, johillik.

Ijobiy tushunchada narsa va hodisalarga xos sifatlarning mavjudligi ifodalanadi. Masalan, obro'li kishi, madaniyatli militsioner.
Narsa va hodisalarga muayyan sifatlarning mansub emasligi salbiy tushunchalarda qayd etiladi. Masalan, vijdonsiz, intizom- siz, savodsiz va boshqalar. Demak, ijobiy va salbiy tushunchalar ham tushunchaning mazmuniga qarab, buyumlarda belgining borligini tasdiqlashi yoki uni inkor etishi bilan bir-biridan farq qiladi. Ammo ijobiy va salbiy tushunchalarni ularga bo'lgan bizning munosabatimiz bilan almashtirish xatodir. Masalan, millatchi, bosqinchi, jinoyatchi.O'zi salbiy holatlarni ifodalasa ham bu tushunchalar mantiqda ijobiy tushunchalar deb aytiladi.

Mazmuniga ko'ra tushunchalar nisbatli va nisbatsiz tushunchalarga bo'linadi. *Nisbatli tushunchalar* - buyumlarning o'zga buyumlar bilan muayyan aloqadorlikda mavjud ekanligini ifodalaydi. Masalan, ota-bola, aka-uka va boshqalar. *Nisbatsiz tushunchalar* - buyumlarning mustaqil mavjudligini ifoda etadi. Masalan, oy, yulduz, jinoyat, qonun.

3. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalar o'rtasida *taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan* munosabatlar mavjuddir.

Taqqoslanadigan (qiyoslanadigan) munosabatlar o'zaro muhim va umumiy belgilarga ega tushunchalarning orasida sodir bo'ladi. Masalan, tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, kabi tushunchalar o'rtasida muhim umumiylikning hammasi fan ekanligi, ya'ni fanning turli tarmoqlari ekanligida.

Taqqoslanmaydigan (qiyoslanmaydigan) munosabatlar - o'zaro umumiy jihatlari bo'lmagan buyumlarning o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Masalan, musiqa - tarvuz, yurak - traktor, qahramonlik - madaniy o'g'it tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlikda muhim umumiylik yo'q. Shuning uchun ularni taqqoslab bo'lmaydi. Mantiq fani faqat taqqoslanadigan tushunchalarni o'rganadi.

Taqqoslanadigan tushunchalar hajmiga ko'ra sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalarga bo'linadi. *Sig'ishadigan tushunchalar*o'zaro teng ma'noli, tobelik, kesishganlik munosabatda bo'ladi.

Teng ma'noli (ayniyat) munosabatlari. Hajmlari bir-biriga to'la teng keladigan tushunchalar ayniyat munosabatidagi teng ma'noli tushunchalardir.

Ayniyat munosabatidagi tushunchalar mazmun jihatidan aynan bir narsani turli tomondan ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston poytaxti va O'rta Osiyodagi eng katta shahar tushunchalarining o'rtasida ayniyat munosabati bor. Chunki har ikkala tushunchada ham bir narsa - «Toshkent shahri» ifodalanmoqda. Ayniyat munosabati hajmlari teng, biroq mazmuni har xil bo'lgan tushunchalar o'rtasidagi munosabatdir.

Tobelik (bo'ysunish) munosabati. Bir tushunchaning hajmi boshqasining hajmini bir qismi sifatida o'z ichiga olsa, bunday tushunchalar o'rtasida bo'ysunish munosabati mavjud bo'ladi. Masalan, terak va daraxt, O'zbekiston va Respublika, oliy o'quv yurti va IIV Akademiyasi.

Qisman mos kelish (kesishganlik) munosabati. Qisman mos kelish munosabatida tushunchalar mazmuni jihatidan har xil bo'lsa-da, ularning hajmlari bir-biriga qisman mos keladi. Masalan, oliy o'quv yurti o'qituvchilari va fan doktorlari. Bunda oliy o'quv yurti o'qituvchilarining bir qismi fan doktorlari yoki aksincha, fan doktorlarining bir qismi oliy o'quv yurti o'qituvchilaridir.

Sig'ishmaydigan tushunchalar - deb hajmiga ko'ra bir-birlarini umuman taqozo qilmaydigan tushunchalarga aytiladi.

Sig'ishmaydigan tushunchalar - qarama-qarshilik, zidlik, o'zaro tobelik munosabatlarida bo'ladi.

Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar bir-biriga hajmi jihatidan teskari va qarama-qarshidir. Masalan, «achchiq-shirin», «ijobiy-salbiy», «oq-qora», «baland-past» kabilar.

Zidlik munosabatidagi tushunchalar. Zidlik munosabatidagi tushunchalar bir-birlarini inkor qiladi, lekin inkor qilingan tushuncha noaniq holda qoladi. Masalan, baland, baland emas, keng, keng emas, jinoyatchi, jinoyatchi emas o'rniga nimaligi noaniq.

O'zaro tobelik munosabati. Uzaro tobelik munosabatida ikki yoki undan ortiq tushunchalar bir tushunchaning hajmiga kiradi. Masalan, «chiziq» tushunchasiga «egri chiziq», «to'g'ri chiziq», «siniq chiziq» tushunchalari kiradi. «Jinoyat», «o'g'irlik», «qotillik» tushunchalarining o'rtasida o'zaro tobelik munosabati mavjud.Chunki «o'g'irlik» bilan «qotillik» tushunchalari «jinoyat» tushunchasiga tobe bo'lib, lekin o'zaro bir-biriga bo'ysunmaydi.

4. Tushunchalar ustida mantiqiy amallar. Tushunchalarning ustida umumlashtirish, chegaralash, bo'lish, ta'riflash, tasniflash kabi mantiqiy amallarni bajarish mumkin.

Tushunchalarni umumlashtirish usulining yordamida bir tushuncha hajmini tashkil etuvchi buyumlarga xos ayrim belgilarni birma-bir olib tashlash yo'li bilan boshlang'ich tushunchaning hajmi kengaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda tor hajmdagi tushunchalardan keng hajmdagi tushunchaga boriladi. Masalan, «yozuvchi» tushunchasidan «aqliy mehnat egasi», «inson» tushunchalariga o'tilganda fikr nisbatan hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga qarab harakatlanadi.

Tushunchalarning chegaralanishi usuli yordami asosida tushunchaning hajmi toraytiriladi. Masalan, yozuvchi, o'zbek yozuvchisi, «Navoiy» romanining muallifi.

5. Tushunchani ta'riflash. *Tushunchaning mazmunini, muhim belgi- larini ochishga qaratilgan jarayon ta'riflash yoki definitsiya deb ataladi.*

Buyumlarning muhim belgilari ko'pligi sababli tushunchaning ta'rifi buyumlardagi muhim belgilarning barchasini to'liq aks ettira olmaydi. Formal mantiqda buyumlarni to'g'ri ta'riflash uchun muhim belgilarni ajrata olish tartibiga katta e'tibor beriladi.

***Ta'riflash tur**, tur belgisi va jins tushunchasi sxemasida harakat qiladi.* Masalan, idrok (tur) narsalarning yaxlit obrazini aks ettiruvchi (tur belgisi) ruhiy jarayondir (jins tushunchasi). Mazkur ta'rifning eng yaqin tur va jins belgisini ko'rsatish orqali ta'riflashga misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'riflar genetik, nominal va real turlarga bo'linadi.

Genetik ta'rif. *Genetik ta'riflash (yunon. «genezis.» so'zidan kelib chiqib, «manba» degan ma'noni anglatadi) - buyumlarning paydo bo'lishi va kelib chiqishini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.* Masalan, «O'zbekiston Respublikasi - Markaziy Osiyodagi, sobiq O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining hududida, 1991 yil 31 avgustda paydo bo'lgan yangi mustaqil davlat», - deb genetik ta'riflashimiz mumkin.

Nominal ta'rif.*Nominal ta'rifda tushunchani ifodalagan so'z, nom va terminning ma'nosi bayon etiladi.* Masalan, «teleskop» grekcha «tele» - uzoq, «skop» - ko'raman, degan so'zdan olingan bo'lib, osmon jismlarini uzoqdan kuzatishda ishlatiladigan narsadir.

Demak, nominal ta'rif ta'riflanuvchi terminning ma'nosini ochib berish uchun qo'llaniladi.

Real ta'rif.*Tushunchada ifodalangan narsaning mohiyati va uning muhim belgilarini ochib berilishiga «real ta'rif» deyiladi.* Masalan,

«huquqiy davlat - o‘z faoliyatida faqat qonunga suyanib ish ko‘radigan siyosiy tashkilotdir», - desak, unda biz mazkur tushunchaning barcha mohiyatli belgilarini ochgan bo‘lamiz va bu real ta’rif bo‘ladi.

6. Ta’riflash qoidalari. *Ta’riflash teng hajmli bo‘lishi kerak, ya’ni ta’riflanuvchi tushunchaning hajmi ta’riflovchi qismning hajmiga teng bo‘lishi kerak.* Masalan, dogmatizm - aqidalarga asoslangan hamda qotib qolgan ta’limot (teng hajmli).

Ta’riflashda eng yaqin jins tushunchasini olish kerak. Masalan, badiiy adabiyot - voqelikni so‘z va timsollar orqali aks ettiradigan san’at. Ta’rifning tur belgisi faqat ta’riflanuvchi narsaga tegishli bo‘lishi va uning boshqa narsalardan farqini ko‘rsatib berish lozim. Masalan, falsafa - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojining eng umumiy qonunlarini o‘rganadigan ijtimoiy fandir. *Ta’rif inkor shaklida bo‘lmasligi kerak.Ta’riflanuvchi tushuncha boshqa tushunchalar bilan ifodalanishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim.Ta’riflash badiiy iboralarsiz aniq bayon qilingan bo‘lishi kerak.* Masalan, hayot - bino kabi chuqur asosga va mustahkam poydevorga ega bo‘lmog‘i kerak, degan fikr to‘g‘ri, lekin so‘zning ta’rifi emas.

7. Tushunchalarni bo‘lish. *Muayyan bo‘lish asosiga ko‘ra bo‘linuvchi tushunchaning hajmini nisbatan kichik hajmli boshqa tushunchalarga ajratish, tushunchalarni bo‘lish deb aytiladi.* Masalan, «Davlat» tushunchasini muayyan asos «boshqarish» usuliga ko‘ra bo‘ladigan bo‘lsak, unda yakka hokimlikka asoslangan va Respublika tipidagi davlatlarga bo‘linadi.

Bo‘lish qoidalari:

- bo‘lish doimo bir asosga ko‘ra olib borilmog‘i lozim;
- bo‘lishning a’zolari yoki qismlari bir-birini inkor etishi lozim;
- bo‘lish mutanosib bo‘lishi lozim;
- bo‘lish uzluksiz bo‘lishi kerak.

8. Dixotomik bo‘lish. *Dixotomik bo‘lish buyumlarni ma’lum belgiga ko‘ra ikki guruhga, ya’ni belgi mavjud bo‘lgan narsalar (ular odatda bo‘lish asosini tashkil qiladi) va bu belgiga ega bo‘lmagan narsalarga ajratadi.* Boshqacha qilib aytganda, bir tushuncha ikki qarama-qarshi yoki zid tushunchalarga bo‘linadi. Masalan, sud hukmi adolatli yoki adolatsiz bo‘lishi mumkin. Hayvonlar - umurtqali yoki umurtqasizlarga, jismlar - organik yoki noorganik jismlarga bo‘linadi.

9. Tushunchalarni tasniflash. *Tasniflash - bu narsalarni bir- biriga o‘xshashligi va farqiga qarab, ma’lum guruhlarga, turlarga, sinflarga bo‘lishdir.* Bunda har bir narsa bir sinf yoki bir guruh narsaga muayyan

munosabatda bo‘lgan va bu sinfdagi narsalar tuzilishida ko‘rsatilgan joydan o‘rin olgan bo‘ladi.

Tasniflashni tabiiy va sun’iy turlarga bo‘lish mumkin. Tabiiy tasniflash - bu narsalarning muhim belgilariga va ular amal qiladigan qonuniyatlarga qarab sinf, guruhlarga bo‘lishdir. U sun’iy tasniflashdan farqli o‘laroq, narsalarning qaysi gurnhga mansub ekanligini aniqlashda narsadagi tegishli belgilarni hisobga oladi. Bu esa narsaning xususiyati haqida fikrlashga imkon beradi. Masalan, jinoyat o‘rganilib, u qasddan qilinganmi yoki ehtiyosizlik oqibatida, qanday sharoitda sodir bo‘lgan va uning jamoat uchun qanchalik xavfli yoki xavfsizligi ko‘rib chiqilib, shundan keyin bu ish jinoyat kodeksining qaysi modda va bandiga oidligi aniqlanadi. Tabiiy ilmiy tasniflashning mumtoz namunasini D.I. Mendeleevning kimyoviy elementlari davriy tizimining jadvalida ko‘ramiz.

Tabiiy tasniflash bilan birgalikda yordamchi sun’iy tasniflash ham mavjud. *Sun’iy tasnif tashqi belgilarga asoslanadi hamda turli-tuman narsalarni va ularni aks ettiruvchi tushunchalarni tartibga solish uchun xizmat qiladi.* Masalan, kutubxonadagi kitoblarning predmetiga, muallifiga qarab tartibga solish; telefon kitobchasida yoki sinf jurnalida odamlarning familiyasini alfabit tartibida ro‘yxatga olish va boshqalar. Sun’iy tasniflash muayyan tabiiy tasniflash mavjud bo‘lgan taqdirdagina ishlatiladi. Ammo u narsalarning mohiyati haqida xabar bermaydi.

3-§. Hukm tushunchasi, turlari va ular o‘rtasidagi munosabatlar.

Hukm tushunchadan keyingi tafakkur shakllaridan birini tashkil qiladi. Tushunchada fikr tugallanmagan bo‘lsa, hukmda fikr tugallangan bo‘lib, tasdiq yoki inkor ma’nosida ifodalanadi. Hukmning tafakkur shakli sifatida mohiyati, sodda va murakkab hukmlar va ularning turlari, hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar, hukm modalligi va moduslarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, ulardan amaliy faoliyat jarayonida qo‘llay bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Hukm va uning turlari. Kishilarning ongi moddiy olamni in’ikos etish jarayonida faqat olamning voqea hodisalari to‘g‘risida tushuncha hosil qilib, tushunchalarning mohiyatini anglab olish bilan chegaralanmaydi. U mazkur jarayonda tushunchaning boshqa tushuncha bilan muayyan munosabatini ham o‘rganib, olam haqida yangi bilim olishga intiladi. Narsa va hodisalar to‘g‘risida fikr yuritilganda, bu jarayonda bir nechta tushuncha ishtirok etishi mumkin. Narsa va hodisalarning chin yoki yolg‘onligini tasdiq yoki inkor etilishi

isbotlangan bo‘ladi. Masalan, yozning qishga nisbatan issiq bo‘lishi, osmonga otilgan narsaning yerga tushishi va boshqalar. Bu kundalik hayotdan olingan fikr bo‘lib, uning isboti ham hayotning o‘zidadir.

Hukmning chin yoki xatoligi tasdiq yoki inkor natijasida emas, balki buyum va ularning belgilari haqidagi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri hukm natijasida bo‘ladi. Hukmlarning xatoligini aniqlash uchun quyidagi qoidalardan foydalaniladi:

1.Agar bir fikrning chinligi isbot etilgan bo‘lsa, uni chin deb tasdiqlash ham chin bo‘ladi.

2.Agar bir fikrning chinligi isbot etilgan bo‘lsa, uni xato deb tasdiqlash xato bo‘ladi.

3.Agar bir fikrning xatoligi aniqlangan bo‘lsa, uni chin deb tasdiqlash xato bo‘ladi.

4.Agar bir fikrning xatoligi isbot etilgan bo‘lsa, uni xato deb tasdiqlash chin bo‘ladi.

2. Hukm va gap. Agar tushuncha so‘zda reallashsa, hukm grammatik gapda ifodalanadi. Gapda ifodalanmaydigan hukm bo‘lmaydi. Masalan, «Toshkent - O‘zbekistonning poytaxtidir», «Ba’zi SamDU talabalari sportchilardir» kabi hukmlar grammatik gap orqali ifodalangan. Demak, gapning hosil bo‘lish jarayoni ham hukm bilan bog‘liq.

Hukm turli grammatik shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, «Men seni a’lochi tinglovchi deb bilaman» yoki «Men seni yomon tinglovchi deb bilmayman». Bir hukm turli tilda turlicha ifodalanadi. Masalan, «u talaba», «он студент». Keltirilgan misollarimizda turli xil ifodalangan gap bir narsani ifodalovchi hukmni tashkil qiladi. Shuning uchun hukm bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda, u o‘z mazmuni va tuzilishini saqlaydi. Bu til bilan tafakkurning birligini ko‘rsatadi. Biroq tafakkur bilan til aynan bir narsa emas. Shuning uchun hukm bilan gap ham aynan birxil emas. Demak, ularning o‘rtasidagi birlik farqlarini yo‘qqa chiqarmaydi. Hukm gapda ifodalanadi. Har qanday gap esa hukm bo‘lavermaydi. *So‘roq va undov gaplar shakliga ko‘ra hukm bo‘la olmaydi.* Masalan, «Siz ma’ruza eshitishni xohlaysizmi?», «Uyalmasdan tezroq gapirsang- chi!», «Bu yoqqa kel!» kabi gaplar hukm bo‘la olmaydi. Chunki bunday gaplarda tasdiq yoki inkor qilib aytilgan fikr yo‘q. Ularning haqiqat yoxud haqiqat emasligi (to‘g‘ri yoki xato ekanligi) aniqlangan emas. Gap hukm shakliga kirishi uchun tasdiq yoki inkor qilib aytilishi hamda to‘g‘ri yoki xato ekanligi aniqlangan bo‘lishi shart.

Endi hukmning tarkibini ko‘rib chiqaylik. Odatda, har bir hukmning uch asosiy elementi bo‘ladi. Bular subyekt (lotin tilidagi ***«subjetstum - ega»*** so‘zidan olingan), predikat (lotin tilidagi ***«praeditsatum-***

*kesim»*so‘zidan olingan) va mantiqiy bog‘lovchidan iborat. Masalan, «Ahmedov birinchi kurs talabasidir». Bunda «Ahmedov» - subyekt (mantiqiy ega), «birinchi kurs talabasi» - predikat (mantiqiy kesim), «dir» esa mantiqiy bog‘lovchi bo‘lib kelyapti. Hukmning subyekti fikrdagi narsani bildiradi. Shuning uchun hukmdagi fikr nimaga qaratilgan bo‘lsa, uning subyekti hisoblanadi. U «S» harfi bilan belgilanadi. Hukmning predmetini tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan kesim «predikat» deb ataladi. U «R» harfi bilan belgilanadi.

Bog‘lovchi subyekt bilan predikat o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi va «dir», «emas», «yo‘q», «zarur» kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Masalan, «Ahmedov 201-guruhning sardori». Hukmning umumiy sxemasi quyidagicha: «S - R» bunda S - subyekt (ega), R - predikat (kesim) «-» belgisi esa subyektning predikat bilan munosabatini ifodalovchi bog‘lovchi. Mazkur munosabat yozuvda «S - R dir» kabi belgilanadi.

Hukm tafakkur shakli sifatida sodda va murakkab hukmlarga bo‘linadi. Sodda va murakkab hukmlar ham o‘z navbatida bir nechta turlarga ajraladi. Endi bu hukm turlarini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

3. Sodda hukm va uning turlari. Agar fikr birgina hukmdan iborat bo‘lsa, sodda va aksincha bir qancha sodda hukmlarning yig‘indisi bo‘lsa, murakkab bo‘ladi. Sodda hukm formulada quyidagidek ifodalanadi:«S - Rdir» yoki «S - R emas».

Sodda hukmlar ularda ifodalangan buyumning belgisi, munosabati va mavjudligi haqida bahs yuritishga, boshqacha qilib aytganda, predikatning mazmuniga ko‘ra ular uch turga bo‘linadi:

1. Atributiv hukmlar.
2. Munosabat hukmlari.
3. Mavjudlik hukmlari.

Atributiv (belgiga oid) hukm - predikat biror xususiyatning narsaga xos yoki xos emasligi aniq, qat’iy qilib ko‘rsatiladi. Shuning uchun atributiv hukmlarni qat’iy hukmlar ham deb yuritiladi. Masalan, «O‘zbekiston - Respublika tipidagi davlat», «Ko‘p xil fikrlilik, jinoiy javobgarlik emasdir» - kabi hukmlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning formulasi: «S - Rdir» va «S - R emas».

Munosabat hukmlari - hukmda ifodalangan narsalarning o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni tasdiq yoki inkor tarzda ifodalaydi. Masalan, «Dialektik mantiq formal mantiqqqa nisbatan murakkabdir», «Jamiyat qonunlari tabiat qonunlariga nisbatan o‘zgaruvchandir» va boshqalar. Munosabat hukmning formulasi quyidagicha: «ARV». Bunda «A» va «V» hukmlarning nomlari, «R» esa ularning orasidagi munosabatni ifodalaydi.

Mavjudlik hukmida predikat biror narsa va hodisaning mavjud yoki mavjud emasligini bildiradi. Masalan, «Ba'zi talabalar darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmaydilar». Mazkur hukmda talabalarning orasida darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmaydiganlari ham mavjud ekanligi bildirilmoqda. Mavjudlik hukmida ifodalangan narsaning mavjudligi tasdiq yoki inkor qilinadi.

Sodda hukmlar miqdor va sifati jihatidan ham turlarga bo'linadi. Sodda hukmlar miqdor jihatdan fikrning bir yoki bir nechta buyum haqidaligiga qarab yakka, juz'iy va umumiy turlarga bo'linadi.

Hukmda ifodalangan fikr bir buyumni tasdiq yoki inkor esa, bu holda u yakka hukm deb ataladi. Masalan, «Abu Nasr Forobiy - «Fozil odamlar shahri» kitobining muallifi», deyilsa mazkur hukm yakka hukm bo'ladi. Chunki «Abu Nasr Forobiy» - hukmning subyekti (S), bir kishining «Fozil odamlar shahri» kitobiga muallif (R) bo'lishdek belgiga ega ekanligi tasdiq shaklida kelmoqda.

Hukmda ifodalangan fikr bir emas, bir nechta buyumga taalluqli bo'lsa, bu holda u juz'iy hukm deb ataladi. Masalan: «Ba'zi jinoyatlar ehtiyosizlik orqali sodir etilgan jinoyatlardir», deyilsa unda predikatda hukm buyumi maqomidagi jinoyatlarning barchasiga oid muhokama yuritilmay, balki ularning alohida juz'iy qismigagina xos fikr yuritilmoqda. Juz'iy hukmning formulasi: ba'zi **«S - R»dir.**

Agar predikatda ifodalangan fikr subyekt buyumlarining barchasiga oid bo'lsa, unda mazkur hukm «umumiy hukm» deb ataladi. Masalan, «OO'YU xodimlarining barchasi dam olish huquqiga egadir». Uning formulasi: «Hamma S - R»dir.

Sodda hukmlar sifatiga ko'ra tasdiq yoki inkor hukmlarga bo'linadi. ***Tasdiq hukmdagi subyekt buyumiga xos xususiyat predikatda ifodalangan fikrning vositasida e'tirof etiladi.*** Masalan, «O'zbekiston Markaziy Osiyodagi mustaqil davlat», degan hukmda O'zbekiston Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatning belgisi taalluqliligi uqtiriladi.

Inkor hukmda esa hukm subyektiga tegishli sifatlar inkor etiladi. Masalan, «Demokratik davlatda qonunlar xalq irodasidan tashqari bo'lmaydi», - degan hukmda ham subyektga xos bo'lgan xususiyat inkor etilyapti. Inkor hukm «emas», «yo'q», «ma» shakli orqali ifodalanadi.

4. Sodda hukmlarning sifat va miqdor jihatdan tasnifi. Hukmlar sifat jihatdan tasdiq va inkor, miqdor jihatdan esa yakka, juz'iy hamda umumiy turlarga bo'linadi. Tasdiq va inkor hukmlar yakka, juz'iy va umumiyga bo'linishi mumkin va aksincha, yakka, juz'iy va umumiy hukmlar ham tasdiq va inkor hukmlaridan iborat bo'lishi mumkin. Shunga

ko‘ra, mantiqda hukmlarning sifat va miqdor jihatidan to‘rt turi tasnif etiladi. Bular:

1) umumiy tasdiq hukmi;
2) juz’iy tasdiq hukmi;
3) umumiy inkor hukmi;
4) juz’iy inkor hukmi.

Bu hukmlarni qisqacha bayon etish va qo‘llashni osonlashtirish maqsadida ko‘pincha ularni ifodalashda lotin tilidagi «A», «I», «E», «O» harflaridan foydalaniladi.

Umumiy tasdiq - A (lotin tilidagi « A» - tasdiqlayman, so‘zining birinchi unli harfi);

Juz’iy tasdiq - I (lotin tilidagi « I » - so‘zining ikkinchi unli harfi);

Umumiy inkor - e (lotincha «E» - inkor qilaman, so‘zining birinchi unli harfi);

Juz’iy inkor - O («O» so‘zining ikkinchi unli harfi).

Umumiy tasdiq - «A» (miqdor jihatidan umumiy, sifat jihatidan tasdiq). Masalan, «Hamma o‘qituvchilar aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilardir». Uning formulasi: Hamma S - R dir.

Juz’iy tasdiq - «I» (miqdor jihatidan qisman, sifat jihatidan tasdiq). Masalan, «Ba’zi kishilar noyob qobiliyatning sohiblaridir». Uning formulasi: Ba’zi S-R dir.

Umumiy inkor - «E» (miqdor jihatidan umumiy, sifat jihatidan inkor). Masalan, «Hech bir jinoyat sababsiz vujudga kelmaydi». Uning formulasi: Hech bir S-R emas.

Juz’iy inkor - «O» (miqdor jihatidan qisman, sifat jihatidan inkor). Masalan, «Ba’zi talabalar a’lochi emas». Uning formulasi: Ba’zi S - R emas. Hukmlarda terminlarning (atamalarning) taqsimlanishi. Sodda hukmlardagi tushunchalar «atamalar» deb aytiladi. Atamalar bu - hukmdagi subyekt va predikatlardir.

Hukmlarda atamalarning taqsimlanishi, deganimizda mazkur hukmlarda subyekt «S» bilan predikatning «R» hajmlari o‘rtasidagi munosabat tushuniladi, ya’ni S ning hajm jihatidan qanchalik ekanligini nazarda tutiladi.

Hukmda subyekt va predikat o‘zlari ifodalangan narsalar yoki hodisalarning hammasini aks ettirishsa va ular hajm jihatidan to‘liq olingan bo‘lsa, hukmda terminlar taqsimlangan, deyiladi. Aksincha, hukmda subyekt va predikat o‘zlari ifodalangan narsa yoki hodisalarning bir qismini aks ettirishsa, bunday hukmlarda terminlar taqsimlanmagan, deyiladi. Mantiq ilmida hukm atamalarining taqsimlanishini «+», taqsimlanmasligini esa «-» deb, belgilash qabul qilingan.

5. Murakkab hukm va uning turlari. Biz yuqorida oddiy hukmlarning tuzilishini ko‘rib chiqdik. Oddiy hukmlarning bo‘laklari S - R kabi terminlardan tashkil topsa, murakkab hukmning bo‘laklarini oddiy hukmlar tashkil qiladi.

Murakkab hukmlar deb, ikki va undan ortiq sodda hukmlardan mantiqiy bog‘lovchilar vositasida paydo bo‘ladigan hukmlarga aytiladi. Hukmlarning o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydigan mantiqiy bog‘lovchilar - «va» (L), «yoki» (V), «agar ... u holda» (^) va boshqalardir. Shunga ko‘ra *murakkab hukmlar konyunktiv (bog‘lovchi), dizyunktiv (ajratuvchi), shartli va ekvivalent hukmlarga bo‘linadi.*

Birlashtiruvchi (konyunktiv) hukmda bir nechta sodda hukmlar «va» (/\) bog‘lovchisi orqali murakkab hukmni hosil qiladi. Masalan, «Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» (O‘zR Konstitutsiyasi 64-modda), «Alisher Navoiy - buyuk mutafakkir va yirik davlat arbobidir». Bu ikki hukm «va» mantiqiy bog‘lovchisi orqali murakkab hukmni tashkil etmoqda. Uning formulasi: S - R va R dir. Ba’zida «va» mantiqiy bog‘lovchisi bir nechta hukmlarni bog‘lashi mumkin.

Birlashtiruvchi (konyunktiv) hukmda hamma sodda hukmlar to‘g‘ri (chin) bo‘ladi, agar ulardan birortasi xato (yolg‘on) bo‘lsa, boshqalari ham xato bo‘ladi.

Ajratuvchi hukm (dizyunksiya) ikki va undan ortiq sodda hukmlarni «yo», «yoki» (V) mantiqiy bog‘lovchilari yordamida birlashtirish natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, «Qonunni buzgan shaxs jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortiladi». Mantiqiy bog‘lovchi «yoki» mantiq ilmida ikki xil ma’noda ishlatiladi: ajratuvchi va birlashtiruvchi ma’nolarda.

«Yoki» bog‘lovchisi qat’iy-ajratuvchi ma’nosida ishlatilganda, hukmlarning biri albatta to‘g‘ri bo‘lsa, ikkinchisi xato bo‘ladi. Ikkalasi birdaniga xato bo‘lsa unda qat’iy ajratuvchi hukm ham xato bo‘ladi. Masalan, «Jinoyatchi Toshmatov jabrlanuvchini yo o‘ldirgan, yo o‘ldirmagan». Misolda jinoyatchi Toshmatov ikki belgidan (jinoiy xatti-harakatdan) biriga ega ekanligi qayd etiladi. Mazkur belgining biri ikkinchisini inkor etadi.

Qat’iyajratuvchi «yoki» (V) bog‘lovchisi bilan belgilanadi.

Shartli hukm murakkab hukm bo‘lib, uning haqiqatligi ma’lum shart asosida namoyon bo‘ladi. Bu hukmlar «Agar ... u holda» (^) mantiqiy bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi. Misol, «Agar qurollangan jinoyatchi qurolini tashlamasa, unda unga nisbatan qurol ishlatish mumkin». Shartli hukm ikki qismdan iborat bo‘lib, bulardan biri shart

qo‘yadi. Mana shu shartni bajarish natijasida hukm haqiqatga aylanadi. Shart qo‘ygan qism «asos», shu shart asosida hosil bo‘ladigan hukm «natija» deb ataladi. Uning formulasi quyidagicha: «Agar S - R bo‘lsa, S - R bo‘ladi, ya’ni agar «a» bo‘lsa, «v» bo‘ladi.

Ekvivalent hukm murakkab hukm bo‘lib, buyum to‘g‘risida mulohazalar bildirilgan hukmlarning har biri chin yoki yolg‘on bo‘lsa, chin yoki yolg‘on bo‘ladi. Uning formulasi a=v dir. Mazkur ifoda «a=v «faqat va faqat «a» va «v» bir vaqtning o‘zida chin yoki yolg‘on bo‘lgandagina haqiqiydir» deb o‘qiladi. Ekvivalent hukmlar turli mazmunni bildirsa ham bir narsani ifodalaydi.

4-§. Formal mantiqning asosiy qonun-qoidalari

Qonun narsa va hodisalar o‘rtasidagi obyektiv, muhim, zaruriy, takrorlanuvchi, nisbatan o‘zgarmas bog‘lanishlardir. Hamma tabiiy, ijtimoiy va boshqa hodisalar ma’lum qonunlar asosida mavjud bo‘ladi va o‘zgaradi. Mantiqiy qonunlar yoki tafakkur qonunlari fikrlar o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlarni to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Tafakkur qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyasiz asoslangan fikr yuritish demakdir. Ular tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarishda asoslar o‘rtasidagi zaruriy bog‘lanishlarni ifodalaydi. To‘g‘ri tafakkur qilishning, ya’ni mantiqning asosiy to‘rtta qonuni mavjud bo‘lib, ular ayniyat, ziddiyatsizlik, uchinchisi istisno va yetarlicha asos qonunlaridir. Tafakkur qonunlari ham boshqa qonunlar singari obyektiv bo‘lib, ular moddiy narsalarning o‘zaro zaruriy bog‘lanishlaridagi muhim aloqalardan, voqelik qonunlarining inson miyasidagi in’ikosidan iborat. Endi mana shu mantiq qonunlarga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Ayniyat qonuni. Ushbu qonun tafakkurning asosiy qonunlari- dan biri bo‘lib, ma’lum buyum to‘g‘risida ifodalangan fikr muhokama davomida o‘zgarmasdan, ayni bir vaqtda o‘z-o‘ziga tengdir.

Ayniyat qonuni quyidagicha ifodalanadi: agar fikrlar bir xil hajmga ega bo‘lsa, aytilgan fikrlar hajm jihatidan o‘zgarmay qolsa, aynan fikrlardir. Ayniyat qonunining formulasi: A-A dir (A=A, A=A). mantiqiy o‘zgaruvchi A har qanday fikrni ifodalaydi. Agar A o‘rniga har qanday konkret fikrni qo‘ysak, u holda to‘g‘ri fikr ifodalanaveradi. Masalan, A o‘rniga «planeta» tushunchasini qo‘ysak, u holda «planeta planetaga teng», degan fikr kelib chiqadi. Demak, ayniyat qonuni fikrlarning o‘z-o‘ziga tengligini ko‘rsatib beradi.

Biror fikrni ma’lum bir ma’noda, ma’lum bir mazmunda bayon qilar ekanmiz, o‘z muhokamamiz davomida fikrning shu mazmunini saqlab

qolishimiz kerak. Aks holda fikr yuritishda chalkashlik, turli xatolar kelib chiqishi mumkin. Bilishda ayniyat qonunining ahamiyati katta. Bu qonunga asoslanib suhbatdoshdan to‘g‘ri fikr bilan hisoblashishni talab qilish mumkin.

Agar rivojlanish jarayonida narsa va hodisalarning hajmi ham o‘zgarsa, u holda ayniyat qonunlariga amal qilmaydi. Masalan, «Ahmedov tinglovchi», degan fikrni aytsak, bu fikr uning tinglovchilik davrida to‘g‘ri bo‘ladi. Agar Ahmedovni Prokurortura akademiyasini tamomlagandan so‘ng ham «tinglovchi» deb atasak, u holda bu fikr to‘g‘ri emas, chunki bu o‘rinda endi fikr hajm jihatidan ham o‘zgar- ganini ko‘ramiz. Demak, ayniyat qonunida hajmga e’tibor beriladi va bir fikr hajmi jihatidan o‘zgarmay qolsagina, u aynan fikr bo‘lib qoladi.

Ayniyat qonuni har bir tushuncha, atama bir ma’noda, ya’ni o‘z ma’nosida ishlatilishi kerak, degan talabni qo‘yadi. Ayniyat qonuni atamalar va so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatishda, xususan, huquq sohasida huquqiy akt va nomlarning mantiqiy mazmunini to‘g‘ri ifodalashda katta ahamiyatga ega. So‘zlar va atamalarni turli ma’noda ishlatish atamalarning kengayib ketishi yoki, aksincha, torayib qolishini keltirib chiqaradi.

Ayniyat qonuni fikrlashning to‘g‘ri tuzilishini ifodalovchi umuminsoniy qonundir. Bunda qaysi til orqali fikrlashdan qat’i nazar, umumiy bir qoida: «aniq fikrlash kerak», degan qoida kelib chiqadi.

2. Ziddiyatsizlik qonuni. Ziddiyatsizlik qonuni quyidagicha ifodalanadi: bir narsa to‘g‘risidagi ikki bir-biriga qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtda ayni bir narsaga nisbatan birdaniga to‘g‘ri (haqiqiy) bo‘lishi mumkin emas. Uning formulasi: A-A emas (a-a). A va A. Masalan, « Ahmedov barcha fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtiradi». Ahmedov barcha fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirmaydi. Bu hukmlarning biri to‘g‘ri (haqiqat) bo‘lsa, ikkinchisi xato bo‘ladi, bularning har ikkalasi birdaniga ayni bir vaqtda to‘g‘ri (haqiqat) bo‘la olmaydi. Ziddiyatsizlik qonunidagi ikki hukmning bir-biriga qarama-qarshiligini ayni bir vaqtda, bir narsaga nisbatan deb qarash kerak. Masalan, «Bu odam HMQO xodimi» va «Bu odam HMQO xodimi emas». Bu fikrlarni ikkalasi ham to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, chunki bu birinchi fikrda u odamning qachonlardir HMQO xodimi bo‘lganligi to‘g‘risida gap borsa va ikkinchi fikrda o‘sha odamning hozir HMQO xodimi sifatida ishlamayotgan bo‘lsa, u holda har ikkala fikr ham to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Ziddiyatsizlik qonuni zid va qarama-qarshi hukmlarga nisbatan qo‘llaniladi. Zid hukmlardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqadi, qarama-qarshi hukmlardan birining xatoli- gidan

ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi, ularning ikkalasi ham xato bo‘lishi mumkin.

Ziddiyatsizlik qonuni to‘g‘ri fikr yuritish jarayonida amal qiladi. Bu qonun talabiga binoan fikr mantiqiy ziddiyatlardan xoli bo‘lishi kerak. Mantiqiy ziddiyatlar narsalar va hodisalarda mavjud bo‘lgan obyektiv ziddiyatlardan farq qilish kerak. Birinchisi tafakkurda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ziddiyat bo‘lsa, ikkinchisi narsa va hodisalar taraqqiyotining ichki manbayini tashkil qiladigan ziddiyatdir.

Ziddiyatsizlik qonuni barcha sig‘ishmaydigan hukmlarga tegishlidir. Ziddiyatsizlik qonuni to‘g‘ri fikrlashning zaruriy shartidir. Bu qonun deduktiv xulosa qarishda asoslardan zaruriy xulosa chiqarishning mavjudligini ko‘rsatib beradi. Mavjud narsalar haqida fikr yuritilganda biz hamma vaqt umumiy tasdiq hukmlarning to‘g‘riligiga asoslanib, juz’iy tasdiq hukmlarning to‘g‘riligi haqidagi hukmni keltirib chiqaramiz. Masalan, «Hamma yozuvchilar so‘z san’atkoridir» degan fikr to‘g‘ri bo‘lsa, unda, «Ba’zi yozuvchilar ham so‘z san’atkoridir» degan fikr o‘z-o‘zidan to‘g‘ridir.

3. Uchinchisi istisno qonuni. Uchinchisi istisno qonuni ziddiyatsizlik qonuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ikki o‘zaro zid fikrning munosabatini ifodalaydi. Bilish jarayonida biz, fikrimizda obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning ayni bir vaqtda mavjud yoki mavjud emasligini, ularga biror xususiyat xos yoki xos emasligini aks ettiramiz. Bunday aks ettirishning juda ko‘p marotaba takrorlanishi bizning tafakkurimizda uchinchisi istisno qonuni sifatida o‘z ifodasini topadi.

Bu qonun quyidagicha ifodalanadi: ayni bir narsa yoki hodisa haqida bir-birini inkor etuvchi ikki zid fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda, ayni bir nisbatda xato bo‘lishi mumkin emas, Ularning biri, albatta, chin, ikkinchisi xato bo‘ladi, uchinchi holning bo‘lishi mumkin emas. Uchinchisi istisno qonuni «A V yoki V emasdir formulasi orqali beriladi. Masalan, «Ahmedov mantiqni yaxshi o‘rgangan», «Ahmedov mantiqni yaxshi o‘rganmagan» degan ikki zid fikr berilgan bo‘lsa, ularning biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi holning bo‘lishi mumkin emas.

Uchinchisi istisno qonunda bir-biriga zid fikrlarning biri albatta to‘g‘ri, ikkinchisi esa qay darajada xato ekanligi noaniq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qilamiz.

«Ahmedov mantiqni yaxshi o‘rgangan», degan fikrni to‘g‘ri deb olsak, «Ahmedov mantiqni yaxshi o‘rganmagan», degan fikr xato bo‘lib qoladi. Shu bilan bir qatorda, Ahmedovning mantiqni qay darajada o‘rganmaganligi noaniq bo‘lib qoladi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bir hukm ikkinchi bir hukmni inkor etganda, ayni bir narsaga va

ayni bir vaqtga nisbatan olinadi. Uchinchisi istisno qonuni ana shunday xususiyatlarga ko'ra ziddiyatsizlik qonuniga juda o'xshab ketadi, lekin ularning o'rtasida kattagina farq bor. Ularning o'xshashligi shundaki, har ikkalasida ham bir-biriga qarama-qarshi ikkita hukm olinadi. Yoki tajribada bir-biriga qarama-qarshi shunday juft hukmlarni uchratish mumkin. Ular ham ziddiyatsizlik qonuniga, ham uchinchisi istisno qonuniga bo'ysunaveradi. Yana shunday hukmlar ham borki, ular faqatgina ziddiyatsizlik qonuniga bo'ysunadi. Masalan, «Hamma talabalar intizomlidir» va «Hech bir tinglovchi intizomli emas», «Rayimov mantiq fanini yaxshi biladi» va «Rayimov mantiq fanini yaxshi bilmaydi». O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu hukmlar uchinchisi istisno qonuniga emas, balki ziddiyatsizlik qonuniga bo'ysunayapti. Chunki biz bilamizki, uchinchisi istisno qonuniga bo'ysunuvchi barcha hukmlar o'z tuzilishi jihatidan ziddiyatsizlik qonuniga bo'ysunsa ham, baribir undagi bir-biriga zid bo'lgan hukmlarning biri, albatta to'g'ri bo'ladi, ikkalasi birdaniga to'g'ri yoki ikkalasi birdaniga yolg'on bo'lishi mumkin emas. Ziddiyatsizlik qonuni qarama-qarshi va zid munosabatlarda amal qiladigan bo'lsa, uchinchisi istisno qonuni faqat zid munosabatlarda amal qiladi. Ular o'rtasidagi farqni bilish HMQOlarida biron hodisani jarayonni isbotlashda ko'p qo'l keladi.

4. Etarli asos qonuni. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular o'rtasidagi sababli bog'lanishlar eng muhim bog'lanishdir. Narsa va hodisalardan birining mavjudligi boshqasining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Boshqasiga nisbatan avvalroq ro'y beradigan, boshqasini yuzaga keltiradigan hodisa sabab, undan keyin amalga oshadigan hodisa natija deb ataladi. Sabab hodisani - asos, vujudga kelgan hodisani – oqibat deymiz. Bunday bog'liqlik inson tafakkurida yetarli asos qonuni shaklida namoyon bo'ladi. Inson fikri boshqa oldingi bir fikr bilan taqozo qilinadi. Har bir narsa va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularni in'ikosi bo'lgan fikrimiz ham asoslangan bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida yetarli asos qonunining mazmunini tashkil qiladi. Bu qonunning talabiga binoan har qanday narsa va hodisa haqida aytilgan fikr asoslangan bo'lishi kerak. Yetarli asos qonuni «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud» formulasi orqali beriladi. Masalan: «Ahmedov a'lochi tinglovchi», degan fikrning isboti uchun yetarli asoslar keltiramiz. Uning hamma fanlardan a'lo baho olganligini isbotlovchi imtihon qaydnomalarini ko'ramiz, bu dalilning o'zi uning a'lochiligini isbotlaydi.

Asoslash bayon qilingan fikrning chinligini, chinligi ilgaridan aniqlangan fikrdan keltirib chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonunida ifodalangan. Mantiqiy asos sifatida turli-tuman aksiomalar, qoidalar, qonunlar keltirilishi mumkin. Yetarli asos qonuni fikr yuritishda, ayniqsa, isbotlashda muhim ahamiyatga ega. U to‘g‘ri xulosa chiqarishda, fikrlash jarayonida uchraydigan ayrim xatolarni anglashda yordam beradi.

Tafakkur qonunlari, tafakkur shakllari kabi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasidir. Bu qonunlar aqliy faoliyatning hamma ko‘rinishida rioya qilinishi lozim bo‘lgan qonunlardir.

Mantiq fani tafakkur qonunlari bilan bir qatorda to‘g‘ri fikr yuritish qoidalarini ham o‘rganadi.

5.Tafakkur qilish qoidalari: muayyanlik, izchillik, ziddiyatsizlik, asoslanganlik.

1. Tafakkurning muayyanligi qoidasi. Har bir fikrning aniq va ravshan bo‘lishi zarurligi tafovutiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri hisoblanadi va u doimo biror-bir voqea-hodisaning zaruriy in’ikosidir. Shuning uchun tushuncha, hukm, xulosa kabi mantiqiy tafakkur shakllarning qanday xususiyatlarga egaligidan qat’i nazar, eng avvalo, ular muayyan narsa va buyumlardagi mohiyatli belgilarning ifodasi bo‘ladi.

Muayyan buyumning xuddi shu buyumligi, uning o‘zga buyum emasligi har bir narsaning vaqt, jarayonlarda o‘z-o‘ziga baravar bo‘lishi mantiqdagi mavhumlikka, predmetni fikriy tahlil etishning muayyanlik talabiga mos keladi.

Nega muayyanlik talabiga shunchalik e’tibor beriladi?
Buning sababi - har bir bog‘lanishlarning murakkab halqalaridan inson o‘zi uchun zarur bo‘lgan jihatlarni ajratib o‘rganishi, hodisalarning mohiyatini tezroq tushunib yetishidir.

2. Izchillik qoidasi. Izchillik qoidasi fikrlarning ketma-ketligini ifodalaydigan mezon bo‘lib, u fikrlardan kelib chiqadigan xulosalarning mantiqiy bo‘lishi, fikrlarning bir-birini taqozo qilishi kabi talablardan iboratdir. Izchillik - fikrlardagi o‘zaro ichki bog‘lanishlarning mohiyatli ifodasidir. Unda tarixiylik va mantiqiylikning o‘zaro munosabati kabi aloqadorlik kuzatiladi.

3. Ziddiyatsizlik qoidasi. Fikrlar ziddiyasiz bo‘lgandagina muayyan ma’no kasb etadi. Chunki ziddiyatli fikrlaydigan kishining ishlari chalkash, tartibsizdir. Ziddiyatsizlik qoidasi faqat fikrlarga, nazariya sohasiga taalluqlidir. Borliqdagi voqea-hodisalar doimo ziddiyatli rivojlanadi. Borliq bizning tafakkurimizda tushuncha, hukm, xulosalar shaklida aks etadi. Biz shu tushuncha, hukm, xulosalarni ifodalashda ziddiyatga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

4. Asoslanganlik qoidasi. Ushbu qoida har bir fikr inson ongida va nazariyada doimo ma'lum asosga ega bo'lishini taqozo etadi. Asossiz fikr bo'lmaydi. Har qanday fikr ma'lum faktlar, tajribalarga asoslangan bo'lishi lozim. Masalan, «D.I.Mendeleyev davriy sistemasini yaratishdan oldin u ma'lum bilimlarni, tajriba natijalarini to'plagan. Keyingina davriy sistema yaratgan».

Mantiqning tafakkur qonunlari bilan qoidalari aynan bir xil narsa bo'lmasdan, ular o'rtasida tafovut mavjud.

To'g'ri fikrlash qonunlari tafakkur shakllari orasidagi zaruriy, obyektiv munosabatlarni bildirsa, mantiqiy qoidalar esa subyektiv, insonning o'z xohish-irodasi bilan bog'liq fikrni ifodalaydi. Mantiqiy qoida fikrlar orasidagi bog'lanishni real voqelikdan mustaqil ravishda ifoda esa, mantiqiy qonun mazkur munosabatni ana shu voqelikka vositali aks ettiradi. Mantiq qoidalari tafakkurga qo'yiladigan ma'lum talablardir.

4-§. Xulosa va uning turlari

Xulosa tafakkurning bir yoki bir nechta chin va bir-biri bilan o'zaro bog'langan hukmlardan yangi hukmni hosil qilish shaklidir. Xulosa chiqarishning bir qancha shakllari mavjud bo'lib, ularga deduktiv, induktiv va analogiyaga ko'ra xulosa chiqarish kiradi. Ularning har biri yana bir nechta turlarga bo'linadi. Shuning uchun xulosa chiqarishning shakllari va turlari o'rtasidagi farq farqlarni bilib olish zarur. Tafakkur shakli sifatida xulosa chiqarishning mohiyati shundan iboratki, kundalik hayotimizda va kasbimiz bilan bog'liq masalalar yuzasidan to'g'ri xulosalar chiqarishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Xulosa haqida umumiy tushuncha. Xulosalash - tafakkurning tushuncha va hukmdan keyingi yuqori shaklidir. Voqelikni bilish jarayonida ko'pincha, ma'lum bilimlar asosida yangi bilimlar vujudga keladi. Bu bilimlarni keltirib chiqarishning mantiqiy shakli xulosalashdir. Xulosalash - bu bir yoki bir nechta chin hukmlardan muayyan qoidalar asosida yangi hukmlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir.

Xulosalash asos va natijani hamda ularning o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni o'z ichiga oladi.

Xulosalash uchun keltirilgan hukmlar «asoslar» deyiladi. Asoslar asosida chiqarilgan yangi hukm «natija» deb ataladi. Asoslardan natijaga mantiqiy o'tish jarayoni xulosalashdir. Masalan, Asos: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi).

Asos: N.Muhammadiyev - O'zbekiston Respublikasining fuqarosi.

Natija: O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish N.Muhammadievning burchidir.

Xulosalash jarayonida asos bilan natija bir-biridan ajratilib, yuqoridagi misolda ko‘rsatilganidek, ost, ust shaklida yoziladi.

Har qanday xulosalash quyidagi talablarga bo‘ysunishi lozim:

- keltirilayotgan asoslar albatta chin bo‘lishi kerak;
- asoslar mazmun jihatidan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Agar asos hukmlar mazmunan bog‘lanmagan bo‘lsa, ulardan natija kelib chiqmaydi.

Xulosalash qoidalarining qat’iyligiga ko‘ra, xulosa chiqarishning demonstrativ (zaruriy) va nodemonstrativ (haqiqatga yaqin) turlari mavjud. Demonstrativ xulosada natija mantiqiy qonun darajasida namoyon bo‘luvchi ketma-ketlikka ko‘ra asoslardan kelib chiqadi.

Nodemonstrativ xulosa chiqarishda xulosalash qoidasi asoslardan ehtimoliy natijaning kelib chiqishini ta’minlaydi.

Bilimlarimizning umumiylik darajasiga va mantiqiy xulosalashning yo‘nalishlariga ko‘ra, xulosa chiqarish quyidagilarga bo‘linadi:

1. Deduktiv (lot. «dedutstio» - «keltirib chiqar») xulosa chiqarish.
2. Induktiv (lot. «indutstio» - «yagona asosga keltirish») xulosa chiqarish.
3. Analogiya (grek. «analogia» - «moslik», «o‘xshashlik»)ga ko‘ra xulosa chiqarish.

Mazkur xulosalashning shakllari bilish jarayonida chin, haqiqiy bilimlarni keltirib chiqarishning asosiy usullari sifatida keyingi bayonlarimizning asosini tashkil etadi.

2. Deduktiv xulosa chiqarish. *Umumiy hukmlardan juz’iy yoki yakka hukmlarni keltirib chiqarishga deduktiv xulosa chiqarish deb aytiladi.* Deduktiv xulosalashda agar asoslar isbotlangan bo‘lsa, mavjud umumiy qoidalarga suyanib mantiqiy qoida va qonunlar asosida chin natija keltirib chiqariladi. Masalan,«O‘zbekistonning barcha fuqarolari bilim olish huquqiga ega».«N.Muhammadiyev - O‘zbekiston fuqarosi».Demak, N.Muhammadiyev bilim olish huquqiga ega.

Deduktiv xulosalash qat’iy hukmlardan asoslar miqdoriga ko‘ra deduktiv xulosalash bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi.

Bevosita xulosa chiqarish. *Agar xulosa bir asosdan olinsa, u bevosita xulosa chiqarish deb ataladi.* Bevosita xulosa chiqarishning to‘rt turi mavjud:

1) aylantirish;
2) almashtirish;
3) predikatga qarama-qarshi qo‘yish;

4) mantiqiy kvadratga ko‘ra xulosa qilish.

Aylantirish - bunda asosda miqdoriy o‘zgarishlar yuz bermay, sifatiy o‘zgarish ro‘y beradi. Bizga ma’lumki, qat’iy hukmlar bog‘lovchining sifatiga («dir» yoki «emas») ko‘ra, tasdiq yoki inkor hukmlarga bo‘linadi. Shuning uchun ham xulosalashda aylantirish orqali umumiy tasdiq hukmlar umumiy inkor hukmlarga, juz’iy tasdiq hukmlar juz’iy inkor hukmlarga aylantiriladi.

1. Umumiy tasdiq hukm (A) umumiy inkor hukm (E) ga aylantiriladi va u formulada quyidagidek ifodalanadi:

Barcha S - R dir

Hech bir S - R mas (siz) emas

A. Barcha insonlar yashash huquqiga ega

E. Hech bir inson, yashash huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

2. Umumiy inkor (E) umumiy tasdiq hukmga aylantiriladi va u formulada quyidagicha ifodalanadi:

Hech bir S -R emas.

Barcha S - R dir.

e. Hech bir jinoyat jazosiz qolmas.

A. Barcha jinoyatlar jazolanadi.

3. Juz’iy tasdiq (I), juz’iy inkor (O) hukmga aylantiriladi va u formulada quyidagicha ifodalanadi:

Ba’zi S - R dir.

Ba’zi S - R mas (siz) emas.

I. Ba’zi talabalarning bilimi qoniqarli hisoblanadi.

O. Ba’zi talabalarning bilimi qoniqarsiz hisoblanmaydi.

4.Juz’iy inkor (O) juz’iy tasdiq hukmga aylantiriladi va formulada quyidagicha ifodalanadi:

Ba’zi S - R emas.

Ba’zi S emas - R dir.

0. Ba’zi bir jinoyatlar qasddan qilingan emas.

1. Ba’zi bir jinoyatlar ehtiyosizlikdan qilingandir.

Almashtirish *- bevosita xulosa chiqarishning shunday turiki, unda hukm sifati o‘zgarmasdan, natijada uning subyekti predikatga, predikati esa natijada subyektga almashtiriladi.*

Almashtirish orqali chiqarilgan xulosada atamalarning hajmiga, ya’ni ularning taqsimlangan va taqsimlanmaganligiga e’tibor berish kerak. Agar mazkur qoida buzilsa, xulosa noto‘g‘ri bo‘ladi.

Atamalarning taqsimlanishiga ko‘ra, almashtirish oddiy (sof) va chegaralangan turlarga bo‘linadi.

Oddiy (sof) almashtirishda berilgan asos hukmning predikati xulosaning subyektiga, subyekti esa hajm o'zgarishisiz uning (xulosaning) predikatiga almashtiriladi. Masalan, A. Barcha jinoyatlar ijtimoiy xavflilikka ega bo'lgan qilmishlardir. A. Ijtimoiy xavflilikka ega bo'lgan qilmishlarning barchasi jinoyatdir.
Mazkur almashtirishning formulasi:
Barcha S - R dir.
Barcha R - S dir.

Atamalarning taqsimlanish qoidasiga ko'ra, asos hukmning predikati taqsimlanmagan bo'lsa, u xulosada subyektga almashtirilganda ham taqsimlanmagan xolicha qoladi. Bunday almashtirishda xulosa xato bo'ladi. Aynan shu xatolikning oldini olish uchun xulosada S (subyekt) o'rnida kelgan atamaning hajmi chegaralanadi. Bunday almashtirish chegaralangan almashtirish, deb aytiladi. Masalan,A. «Guruhimizning barcha talabalari mantiq fanidan imtihon topshirishdi».I. «Mantiq fanidan imtihon topshirganlarning ba'zilari guruhimizning talabalaridir».
Mazkur almashtirishning formulasi:
Barcha S - R dir.
Ba'zi R - S dir.

Umumiy inkor hukm (E) umumiy tasdiq hukmiga cheksiz almashtiriladi. Masalan,
e. «Hech bir inson ongsiz mavjudot emas».
e. «Hech bir ongi yo'q mavjudot inson emas».
Umumiy inkor (E) hukmini almashtirishning formulasi:
Hech bir S - R emas.
Hech bir R - S emas.

Juz'iy inkor hukmi (1)ni juz'iy tasdiq hukmi (1)ga quyidagicha almashtirish mumkin, Masalan, I. «Guruhimizning ba'zi talabalari sportchilardir». I. «Sportchilarning ba'zilari guruhimiz talabalaridir».
Juz'iy tasdiq hukmi (1)ning almashtirish formulasi:Ba'zi S - R emas.
Ba'zi R - S emas.

Juz'iy inkor hukmdan (O) almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki bunday hukmlardan zaruriy chin natija kelib chiqmaydi.

Almashtirish usuli bilan xulosa chiqarishda hukmlardagi atamalarning taqsimlanish qoidasiga qat'iy amal qilish kerak. Chunonchi, predikati taqsimlanmagan umumtasdiq hukmni chegaralashsiz almashtirib bo'lmaydi yoki predikati taqsimlanmagan juz'iy tasdiq hukmni chegaralash orqali almashtirish mumkin emas. Masalan, «Tibbiyot akademiyasi talabalarining barchasi mantiq fanini o'rganishadi» hukmidan faqat chegaralash orqali «Mantiq fanini o'rganuvchilarning ba'zilari

Tibbiyot akademiyasi talabalaridir», degan xulosani chiqarish mumkin, yoki «Ba'zi huquqshunoslar - tergovchilardir» hukmidan faqat kengaytirilgan almashtirish orqali «Barcha tergovchilar - huquqshunoslardir» degan xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, almashtirish usulida hukmdagi subyekt va predikatning hajmini aniqlash to'g'ri xulosa chiqarishning muhim sharti ekanligi haqidagi qoidaga o'z mulohazalarimizda qat'iy amal qilishimiz lozim.

Predikatga qarama-qarshi qo'yish. Predikatga qarama-qarshi qo'yishda hosil bo'lgan natijadagi yangi hukmning subyekti o'rnida hukmning predikatiga zid tushuncha, predikati o'rnida esa asos hukmning subyekti keladi. Predikatga qarama-qarshi qo'yish mantiqiy usulini aylantirish va almashtirishning natijasi sifatida ko'rish mumkin. Dastlab asos hukm

(S - R)ni aylantirish orqali (S - R emas) munosabatini aniqlaymiz va hosil bo'lgan hukmdan almashtirish orqali (R emas - S dir) munosabatini aniqlaymiz.

Predikatga qarama-qarshi qo'yish orqali hosil bo'lgan xulosa asos hukmning miqdori va sifatiga bog'liq bo'lib, unda A - e ga, e - I ga, O - I ga o'zgaradi. Masalan,1) A. «Barcha jinoyatlar ijtimoiy xavflilik belgisiga ega bo'lgan qilmishdir». E. Ijtimoiy xavflilik belgisiga ega bo'lgan hech bir qilmish jinoyat hisoblanmaydi.

Barcha S - R dir.

Hech bir R emas - S emasdir.

2) E. «Hech bir mahkum saylash huquqiga ega emas».

I. «Saylash huquqiga ega bo'lmaganlarning ba'zilari mahkumlardir».

Hech bir S - R emas.

Ba'zi R emas - S dir.

3) O. «Ba'zi guvohlar voyaga etmaganlardir».

I. Ba'zi voyaga etmaganlar guvohlardir.

Ba'zi S - R emas.

Ba'zi R emas - S dir.

Juz'iy tasdiq (I) hukmidan predikatga qarshi qo'yish usuli orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi. CHunki «Ba'zi S - R dir» (I) hukmini aylantirsak, «Ba'zi S - R emas»(O) hukmi kelib chiqadi. Ma'lumki, juz'iy inkor hukmidan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Mantiqiy kvadrat bo'yicha xulosa chiqarish. *Mantiqiy kvadratga ko'ra (A, e, I, O) qat'iy hukmlarni o'rtasidagi munosabatning tabiatidan kelib chiqib, birining chinligidan ikkinchisining yolg'on yoki chinligini*

keltirib chiqaruvchi xulosaga mantiqiy kvadrat bo'yicha xulosa chiqarish deb aytiladi.

Zid munosabatdagi hukmlarda A - O , e - I uchinchisi mustasno qonuniga amal qilinib birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi yoki aksincha natija kelib chiqadi. Masalan,A. «Barcha insonlar mehnat qilish huquqiga ega» (chin).O.«Ba'zi insonlar mehnat qilish huquqiga ega emas» (yolg'on).

Yoki boshqa bir misolni olib ko'raylik: I.«Ba'zi talabalar sportchi» (chin). e. «Hech bir tinglovchi sportchi emas» (yolg'on). Demak, zid munosabatdagi hukmlarning har ikkisi chin bo'lmaydi, chunki ulardan biri albatta yolg'on bo'lishi kerak.: Ach - Oyo; Ayo - Och; ech - 1yo; eyo - 1ch (Bu erda chin - «ch», yolg'on - «yo», deb belgilanmoqda).

Qarama-qarshi munosabatdagi hukmlar (A-E)ni xulosalashda birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi kelib chiqadi, ammo birining yolg'onligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi.

Masalan,A. «Barcha O'zbekiston fuqarolari qonun oldida tengdirlar» (chin).

E. «Hech bir Uzbekiston fuqarosi qonun oldida teng emas» (yolg'on).

Qarama-qarshi munosabatdagi hukmlarning o'rtasidagi munosabat ziddiyatsizlik qonuniga bo'ysunadi va «chin, yolg'onlik» ketmaketligi quyidagicha ifodalanadi:

Ach - eyo ; ech - Ayo ; Ayo - e (ch. yoki yo.); eyo - A (ch. yoki yo.).

Qisman mos munosabatdagi hukmlar (I - O)ni xulosalashda birining yolg'onligidan boshqasining chinligi kelib chiqishi, ammo birining chinligidan boshqasining chinligi ham, yolg'onligi ham kelib chiqishi yoki ikkisi ham chin bo'lishi mumkin. Masalan:

I. «Ba'zi guvohlar to'g'ri ko'rsatma berishdi» (chin).

O. «Ba'zi guvohlar to'g'ri ko'rsatma berishmadi» (chin yoki yolg'on).

Qisman mos munosabatdagi hukmlarni xulosalashda «chin, yolg'onlik» ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

1yo - Och; Oyo - 1.ch; 1ch - O (ch. yoki yo.); Och -I (ch. yoki yo.).

4) Bo'ysunish munosabatidagi (A - I, e - O) hukmlarda bo'ysundirayotgan hukmning chinligidan bo'ysunuvchi hukmning chinligi kelib chiqadi. Ammo bo'ysunuvchi hukmning chinligi bo'ysundiruvchi hukmning chinligini keltirib chiqarmasligi ham mumkin. Masalan,

O. «Ayrim IIO xodimlari oliy ma'lumotga ega emas» (chin).

E. «Hech bir IIO xodimi oliy ma'lumotga ega emas» (yolg'on).

Bo'ysunish munosabatidagi hukmlarni xulosalashda «chin, yolg'onlik» ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ach -1ch; ech - Och; 1ch -(ch. yoki yo.); Och - e(ch. yoki yo.).

3. Sillogizm. Bilvosita xulosa chiqarish. Oddiy qat'iy sillogizm - bu vositali deduktiv xulosa chiqarishning muhim turlaridan biridir. «Sillogizm»[74] yunoncha *«syllogismos»* so'zidan olingan bo'lib,«hisoblash»,«hisobga olish»,«xulosa chiqarish» degan ma'nolarni anglatadi.

Ikki yoki undan ko'p oddiy qat'iy hukmlar (asoslar)dan xulosa chiqarilishga «sillogizm» deb aytiladi. Hukmlarning aniq va ravshan, bir-biri bilan mantiqan bog'langanligi hamda oddiy va qat'iyligi tufayli oddiy qat'iy (kategorik) sillogizm deyiladi.

Oddiy qat'iy sillogizmning tarkibi uch qat'iy hukmlardan: *ikki asos va bir xulosa, ya'ni uch termindan iborat bo'ladi.* Sillogizmning terminlari hukm atamalari «S» subyekt va «R» predikatdan farq qilib, katta, kichik va o'rta terminlar bilan belgilanadi.

Sillogizmning kichik termini (S) xulosa subyektidagi tushunchaga, katta termini (R) xulosa predikatidagi tushunchalarga to'g'ri keladi va «chekka terminlar» deb ham yuritiladi.

Tarkibida kichik termin bo'lgan hukm kichik asos, tarkibida katta termin bo'lgan hukm esa katta asos deb ataladi. Sillogizmning har ikkala, katta va kichik asoslarini bog'lovchi, lekin xulosada ishtirok etmaydigan tushuncha - o'rta termin deb atalib, lotincha «M» harfi *bilan belgilanadi. Masalan,*Katta asos - «Barcha ommaviy axborot vositalarida (M) - senzuraga yo'l qo'yilmaydi» (R).Kichik asos - «Huquq» - jurnali (8) - ommaviy axborot vositasi» (M).

Xulosa - ««Huquq» jurnalida (8) - senzuraga yo'l qo'yilmaydi» (R).

Yuqoridagi misolda «Ommaviy axborot vositalari» tushunchalari o'rta termin (M) bo'lib, u xulosada qatnashmayapti, «senzuraga yo'l ko'yilmaydi» (R) katta hajmli termindir, chunki u xulosada predikat bo'lib kelmoqda. «Huquq jurnali» (S) kichik hajmli tushuncha bo'lib, xulosada subyekt maqomida kelmokda. Demak, katta termin qatnashgan hukm katta asos, kichik termin qatnashgan hukm kichik asosdir.

Sillogizm asoslari muayyan ketma-ketlikda oldin katta asos, keyin kichik asos va xulosa tarzida keladi.

Qat'iy sillogizm qoidalari. Qat'iy sillogizm fikrlash jarayonida ko'p uchraydi. Sillogizmda har doim ham chin asoslardan chin xulosa kelib chiqmaydi. Chin xulosani olish uchun asoslarning chinligi yetarli bo'lmasdan, sillogizm qoidalariga amal kilish ham lozim bo'ladi. Uch

[74] *Силлогизм (юнонча «syllogismos» сўзидан олинган бўлиб,«ҳисоблаш»,«ҳисобга олиш»,« хулоса чиқариш»)* - ўзаро мантиқий боғланган икки қатъий мулоҳазадан учинчи-янги қатъий мулоҳаза ҳосил қилиш;дедуктив хулоса чиқариш тури.

qoida terminlarga, to‘rt qoida asoslarga nisbatan mavjud bo‘lib, ularga amal qilish chin xulosalar olish imkoniyatini beradi.

1.Termin (atama)lar qoidalari.

1-qoida. *Har bir sillogizmda faqat uch termin S , R, M bo‘lishi lozim.* Agar muhokama ikki yoki to‘rt termindan iborat bo‘lsa, u sillogizm bo‘la olmaydi. Masalan, «Hayot abadiy». «Ahmad hayot kechirmoqda». «Ahmad abadiy».

Bu xulosa xato va mantiqsizdir, sababi o‘rta termin, ya’ni «hayot» tushunchasining ikki ma’noda qo‘llanishidir. Birinchi hukmda «hayot» tushunchasi umuman tiriklik ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchi hukmda «hayot» konkret bir insonning cheklanmagan umr kechirishi ma’nosida ishlatilmoqda. Bu xato sillogizmda «terminlarni to‘rtlashtirish» deyiladi. Chunki «hayot» termini ikki hukmda ikki xil ma’nodagi tushuncha, ya’ni ikkita termin bo‘lib kelmoqda.

2-qoida.O‘rta termin (M) asoslarning birida, albatta, taqsimlangan bo‘lishi kerak. Masalan,

«Barcha sudyalar (R) oliy ma’lumotli» (M).

«Ahmedov (S) oliy ma’lumotli» (M).

«Ahmedov (S) sudya» (R) .

Bu holda «Ahmedov sudya» degan xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Ahmedov sudya bo‘lmasligi ham mumkin. Bu misolda har ikkala asos to‘la hajmda olinmagan, ya’ni taqsimlanmagan.

3-qoida. Asoslarda taqsimlanmagan termin xulosada ham taqsimlanmaydi. Masalan, «Hamma tergovchilar (M) oliy ma’lumotli» (R).

«Salimov (8) tergovchi emas» (M).«Salimov (8) oliy ma’lumotli» (R).

Noto‘g‘ri xulosa chiqarilgan. Katta termin taqsimlanmagan. Salimov oliy ma’lumotli bo‘lishi (S) yoki bo‘lmasligi (S) ham mumkin.

Asoslarga oid qoidalar.

1-qoida.*Ikkita inkor asos hukmdan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.*

Masalan, «Akademiyaning talabalari fizika fanini o‘qimaydilar».

«Ahmedov Akademiya tinglovchisi emas».

Bu hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi, chunki har ikki asos ham inkoriy sifatga ega bo‘lib, bunda xulosadagi fikr noaniq bo‘ladi.

2-qoida.*Agar asos hukmlardan biri inkor hukm bo‘lsa, xulosa ham inkor hukm bo‘lib keladi.* Masalan, «Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’minlanadi». «Fuqaro S. ayblanuvchi emas». «Fuqaro S.ga himoyalanish huquqi kerak emas».

3-qoida. Ikki juz'iy asos hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar sportchi»..«Ba'zi talabalar a'lochi».
Bu hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi, chunki o'rta termin «ba'zi talabalar» o'zining bog'lovchi vazifasini bajara olmayapti.

4-qoida.Asos hukmlardan biri juz'iy bo'lsa, xulosa ham juz'iy hukm bo'ladi. Masalan, «Barcha aybdorlar jazolanishi lozim».«Ba'zi odamlar - aybdor».«Ba'zi odamlar jazolanishi lozim».

2. Sillogizmning figura va moduslari.

Sillogizmning figuralari deb asos hukmlarda o'rta terminning holatiga ko'ra farqdanadigan sillogizm shakllariga aytiladi. Sillogizmning to'rt figurasi mavjud:

*Birinchi figura:*o'rta termin katta asosda subyekt, kichik asosda predikat o'rnida bo'ladi. Masalan,«Hamma sudyalar (M) daxlsiz» (R) (Konstitutsiyasi, 112-modda).«Komilov (8) sudya» (M).«Komilov daxlsiz». Bu figura huquqiy amaliyotda ko'p qo'llaniladi. Huquqiy hodisalarni baholash (kvalifikatsiya qilish), huquq normalarini alohida hodisalarga nisbatan qo'llash, jinoyat uchun jazo belgilash va shu kabi boshqa sud qarorlarida qo'llaniladi.

Ikkinchi figura: o'rta termin ikki asosda ham predikat o'rnida keladi. Masalan,«Jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish majburiyati (R) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga yuklatiladi» (M).(JPK, 86-modda).
«Aliev (S) surishtiruv, tergov, prokuratura va sud idoralarida ishlamaydi» (M).Demak, Alievga (S) jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish majburiyati yuklatilmaydi (R). Ikkinchi figura asos hukmlarda ifodalangan fikrlarga zid holatlarni inkor etadi va sud amaliyotida, hodisada jinoyat tarkibining yo'qligi haqida xulosalar beradi.

Uchinchi figura: o'rta termin har ikkala asosda ham subyekt bo'lib keladi. Masalan, yuzlashtirishda (M) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R) (JPK-122 m.). Yuzlashtirish (M) tergov harakatidir (S).
Demak, tergov harakatida (S) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R). Xulosa chiqarishda sillogizmning boshqa figuralariga nisbatan uchinchi figurasi kam foydalaniladi.

*To'rtinchi figura:*o'rta termin katta asosda predikat, kichik asosda esa sub'ekt bo'lib keladi. Masalan:«Hech bir jinoyat (R) xalq manfaati yo'lidagi harakat emas» (M). «Xalq manfaati yo'lidagi ba'zi harakatlar (M) ozodlikdir» (S).Demak, ozodlik(S) jinoyat emas (R).

3-qoida. Ikki juz'iy asos hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar sportchi»..«Ba'zi talabalar a'lochi».
Bu hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi, chunki o'rta termin «ba'zi talabalar» o'zining bog'lovchi vazifasini bajara olmayapti.

4-qoida.Asos hukmlardan biri juz'iy bo'lsa, xulosa ham juz'iy hukm bo'ladi. Masalan, «Barcha aybdorlar jazolanishi lozim».«Ba'zi odamlar - aybdor».«Ba'zi odamlar jazolanishi lozim».

2. Sillogizmning figura va moduslari.

Sillogizmning figuralari deb asos hukmlarda o'rta terminning holatiga ko'ra farqdanadigan sillogizm shakllariga aytiladi. Sillogizmning to'rt figurasi mavjud:

*Birinchi figura:*o'rta termin katta asosda subyekt, kichik asosda predikat o'rnida bo'ladi. Masalan,«Hamma sudyalar (M) daxlsiz» (R) (Konstitutsiyasi, 112-modda).«Komilov (8) sudya» (M).«Komilov daxlsiz». Bu figura huquqiy amaliyotda ko'p qo'llaniladi. Huquqiy hodisalarni baholash (kvalifikatsiya qilish), huquq normalarini alohida hodisalarga nisbatan qo'llash, jinoyat uchun jazo belgilash va shu kabi boshqa sud qarorlarida qo'llaniladi.

Ikkinchi figura: o'rta termin ikki asosda ham predikat o'rnida keladi. Masalan,«Jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish majburiyati (R) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga yuklatiladi» (M).(JPK, 86-modda).
«Aliev (S) surishtiruv, tergov, prokuratura va sud idoralarida ishlamaydi» (M).Demak, Alievga (S) jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish majburiyati yuklatilmaydi (R). Ikkinchi figura asos hukmlarda ifodalangan fikrlarga zid holatlarni inkor etadi va sud amaliyotida, hodisada jinoyat tarkibining yo'qligi haqida xulosalar beradi.

Uchinchi figura: o'rta termin har ikkala asosda ham subyekt bo'lib keladi. Masalan, yuzlashtirishda (M) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R) (JPK-122 m.). Yuzlashtirish (M) tergov harakatidir (S).
Demak, tergov harakatida (S) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R). Xulosa chiqarishda sillogizmning boshqa figuralariga nisbatan uchinchi figurasi kam foydalaniladi.

*To'rtinchi figura:*o'rta termin katta asosda predikat, kichik asosda esa sub'ekt bo'lib keladi. Masalan:«Hech bir jinoyat (R) xalq manfaati yo'lidagi harakat emas» (M). «Xalq manfaati yo'lidagi ba'zi harakatlar (M) ozodlikdir» (S).Demak, ozodlik(S) jinoyat emas (R).

Sillogizmning to‘rtinchi figurasi sun’iyroq xususiyatga ega bo‘lib, muhokama jarayonida ko‘p qo‘llanilmaydi hamda uning amaliy ahamiyati nisbatan kam.

Sillogizmning moduslari.

Asoslarning sifat va miqdoriy tasnifi bilan farqlanadigan sillogizm turlariga oddiy qat’iy sillogizm moduslari deb aytiladi.

Modus - lotincha «modus» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, tur, qoida, degan ma’nolarni anglatadi. Har bir sillogizm ikki asos hukm va bir xulosa hukmdan hamda bu hukmlarning umumiy birlashgan tasnifi to‘rt turdan, umumiy tasdiq (A), umumiy inkor (E), juz’iy tasdiq (I) va juz’iy inkor (O) hukmlardan iborat bo‘ladi. Sillogizmning moduslari sillogizm umumiy qoidalari va o‘rta terminning figurada joylashgan tartibiga ko‘ra, hukmlarning o‘zaro bog‘lanishi natijasida paydo bo‘ladi. Har bir asos to‘rt hukmdan biri bo‘lishi mumkin. Bir figuraning asoslarida yuz berishi mumkin bo‘lgan asoslarni birlashtirishning 16 turi mavjud, to‘rtta figurada 64 ta. Hamma moduslar ham sillogizmning qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi. Ishonchli xulosani faqat 19 ta modusdan olish mumkin. Ular quyidagilar:

1- figura: AAA, eAE, AII, eIO;
2- figura: eAE, AEE, eIO, AOO;
3- figura: AA I, IAI , AII, eAO, OAO, eIO;
4- figura: AA I, AEE, IAI, eAO , eIO.

Sillogizm moduslari figuralarning maxsus qoidalaridan olinadi. Figuralarning maxsus qoidalari.

1-Figura. Katta asos umumiy hukm, kichik asos tasdiq hukmi bo‘lishi kerak.

2-Figura. Katta asos umumiy hukm asoslardan biri va xulosa inkor hukm bo‘lishi kerak.

3 - Figura. Kichik asos tasdiq, xulosa juz’iy hukm bo‘lishi lozim.

4-Figura. Umumiy tasdiq xulosani bermaydi. Agar katta asos tasdiq hukmidan iborat bo‘lsa, kichik asos umumiy hukm bo‘ladi. Asoslardan biri inkor hukm bo‘lsa, katta asos umumiy hukmdan iborat bo‘ladi.

Qisqartma qat’iy sillogizm (entimema). Entimema yoki qisqartirilgan qat’iy sillogizm, deb sillogizmdagi asoslardan biri yoki xulosaning tushirib qoldirilishiga aytiladi. «Entimema» tushunchasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, «esda», «fikrda», «yodda» degan ma’nolarni anglatadi.

Entimemalar uch turga bo‘linadi: katta asosi tushirib qoldirilgan, kichik asosi tushirib qoldirilgan va xulosasi tushirib qoldirilgan entimemalar.

1) Katta asosi tushirib qoldirilgan entimemaga misol:

«O‘zbekiston - mustaqil Respublika».
Demak, O‘zbekistonning ham o‘z Konstitutsiyasi bor. Mazkur entimemada «Barcha mustaqil Respublikalar o‘z konstitutsiyasiga ega», degan katta asos tushirib qoldirilgan.

2) Kichik asos tushirib qoldirilgan entimemaga misol:
«Barcha O‘zbekiston fuqarolari bilim olish huquqiga ega».
Demak, sen bilim olish huquqiga egasan.
Bu misolda kichik asos «Sen O‘zbekiston fuqarosisan», degan hukm tushirib qoldirilgan.

3) Xulosasi tushirib qoldirilgan entimemaga misol:
«Barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi».
«Sen fuqarosan».

Bu misolda «Demak, sen uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi», degan hukm xulosa sifatida tushirib qoldirilgan. Entimema singari qisqartirilgan sillogizmlar, asosan, xalq maqollari, aforizmlarda ko‘p uchraydi.

Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizmlar. Murakkab sillogizmlar o‘z mazmuni bilan bog‘langan, ikki yoki undan ortiq sillogizmlardan tarkib topib, birining xulosasi ikkinchisi uchun asos hukm bo‘ladi. Murakkab sillogizm «polisillogizm» (ko‘p sonli sillogizm) deb ham yuritiladi.

Mantiq fanida ikki xil: progressiv va regressiv polisillogizmlar farqlanadi. Agar dastlabki sillogizmning xulosasi ikkinchi sillogizmning katta asosi bo‘lsa, bunday polisillogizm progressiv deyiladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, polisillogizm tarkibidagi birinchi sillogizm «prosillogizm», keyingisi «episillogizm» deb ataladi. Demak, progressiv polisillogizmda prosillogizm xulosasi episillogizm uchun katta asos o‘rnida kelar ekan. Masalan,

«Barcha ijtimoiy xavfli harakatlar (A) jazolanadi» (V).
«Jinoyat (S) - ijtimoiy xavfli harakatdir» (A).
«Jinoyat (S) jazolanadi» (V).
«Pora berish (D) jinoyatdir» (S).
«pora berish (D) jazolanadi » (V).

Mazkur progressiv polisillogizmning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:
Barcha A - V dir.
S - A dir.
S - V dir.
D - S dir.
D - V dir.

Regressiv polisillogizm. Agar dastlabki sillogizmning (prosillogizmning) xulosasi, ikkinchi silogizm (episillogizm)ni kichik asosi bo'lib kelsa, bunday polisillogizm «regressiv sillogizm» deyiladi.
Masalan, Barcha fuqarolar (A) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega (V). (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 29-m.).
«Rahimov (S) - fuqaro» (A).
«Rahimov (S) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega (V).
«Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi (V) demokratik erkinlikdir» D).
«Rahimov (S) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega» (V).
«Rahimov (A) demokratik erkinliklarga ega» (D).
Mazkur regressiv polisillogizmning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:
Barcha A - V dir.
S - A dir.
S - V dir.
V - D dir.
S - V dir.
S - D dir.

4. «Sorit»lar. Soritlar murakkab sillogizmning polisillogizmlardan tashkil topgan ko'rinishidir. Progressiv va regressiv poli-sillogizmlar mantiqda qisqartirilgan shaklda «soritlar» deb yuritiladi. **Sorit** - yunoncha «sorites» so'zidan olingan bo'lib, «to'da», «jamlangan» degan ma'noni anglatadi. Soritlarning ikki: progressiv va regressiv turlari mavjud.

Progressiv soritda polisillogizmning xulosasiepisillogizmlarning katta asosi tushirib qoldiriladi. Masalan,«Barcha ijtimoiy xavfli harakatlar (A) jazolanadi» (V).«Jinoyat (S) - ijtimoiy xavfli harakatdir» (A).«Pora berish (D) jinoyatdir» (S).«Pora berish (D) jazolanadi» (V).
Mazkur progressiv soritning sxematik tuzilishi quyidagicha:
Barcha A - V dir.
S - A dir.
D - S dir.
D - V dir.

Regressiv soritda prosillogizmning xulosasi va episillogizmlarning kichik asosi tushirib qoldiriladi. Yuqoridagi regressiv polisillogizmga oid yuqoridagi misolimizni regressiv soritga aylantiramiz:
«Rahimov (A) fuqarodir» (V).«Fuqarolar (V) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega» (S).«Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi (S) demokratik erkinlikdir» (D). Rahimov (A) demokratik erkinlikka ega (D).
Mazkur progressiv soritning sxematik tuzilishi quyidagicha:
A - V dir.

V - S dir.
S - D dir.
A - D dir.

5. Epixeyrema.*Epixeyrema murakkab qisqartirilgan sillogizm bo'lib, uning ikki asos hukmlari qisqartirilgan oddiy sillogizm (entimema)lardan iborat bo'ladi.* Masalan, «Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor (S), chunki ongli mehnat (A) shaxs va jamiyat rivojiga xizmat qiladi (V).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnat (A), chunki HMQO xodimlari (D) jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi (E). Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (D) hurmatga sazovordir (S). Umumiy va tasdiq muhokamalar uchun epixeyremaning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:
A - S dir, chunki A - V dir.
D - A dir, chunki D - E dir.
D - S dir.

Epixeyremaning birinchi va ikkinchi asoslari qisqartirilgan qat'iy sillogizm entimema bo'lib, ularda asoslardan biri tushirib qoldiriladi. Epixeyremaning birinchi va ikkinchi asoslari quyida to'laligicha ifodalangan:
Bu yerdagi birinchi va ikkinchi sillogizmlarning xulosasini uchinchi sillogizmning katta va kichik asoslari sifatida olsak:
A - S dir.
D - A dir.
D - S dir ko'rinishida ifodalanadi.
Epixeyremaning to'laligicha ifodalasak:

1.«Shaxs va jamiyat rivojiga xizmat qiladigan harakatlar (V) hurmatga sazovor» (S).

«Ongli mehnat (A) jamiyat va shaxs rivojiga xizmat qiladi» (V).

«Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor» (S).

2.«Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash (E) ongli mehnatdir (A).

«Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (D) jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi» (E).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnatdir (A).

Bu misolda birinchi va ikkinchi sillogizm xulosalari uchinchi sillogizm asoslari bo'ladi.

3.Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor (S).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnatdir (A).

1. V - S dir. A - V dir. A-S dir.
2. E - A dir. D - e dir. D - A dir.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) hurmatga sazovor (S).

Epixeyremadan bahs va munozaralarda fikrlarning to‘g‘riligini tekshirish hamda mantiqiy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadlarida keng foydalaniladi.

Murakkab hukmlardan xulosalar chiqarish. Xulosa chiqarish nafaqat oddiy hukmlardan, balki murakkab hukmlardan ham tashkil topadi. Asoslari shartli yo ayiruvchi yoki ham shartli, ham ayiruvchi hukmlar bo‘lib, ularning turlicha o‘zaro yoki qat’iy hukmlar bilan birikishidan tashkil topgan xulosalarga murakkab hukmlardan xulosa chiqarish deyiladi.

Bu xulosa chiqarishning o‘ziga xosligi shundaki, asoslardan olingan xulosa qat’iy sillogizmdagi kabi o‘rta terminlarning munosabatidan emas, balki hukmlarning o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish tabiatidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham asoslarning subyekt - predikat tartibidagi tarkibi hisobga olinmaydi. Murakkab hukmlardan xulosa chiqarishning keng tarqalgan turlari quyidagilardir:

1) sof shartli xulosa; 2) shartli qat’iy xulosa;

3) ayiruvchi qat’iy xulosa; 4) shartli ayiruvchi xulosa.

Shartli xulosa chiqarish deb har ikki asos yoki asoslaridan biri shartli hukm bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Ma’lumki hukm: «Agar a bo‘lsa, unda v bo‘ladi» tartibida kelsa, bular shartli hukmlar deyiladi. Shartli xulosa chiqarish o‘z navbatida sof shartli va shartli- qat’iy xulosalarga bo‘linadi.

1.Sof shartli xulosa. Ikki asos va xulosani shartli hukmlardan tashkil topgan vositali xulosalashga sof shartli xulosa chiqarish deyiladi. Sof shartli xulosa chiqarishning formulasi quyidagicha.

Agar A bo‘lsa, V bo‘ladi.
Agar V bo‘lsa, S bo‘ladi.
Demak, A bo‘lsa, S bo‘ladi.
Masalan,
«Agar o‘qishni xohlasang, (A) imkoniyat qidir» (V).
«Agar imkoniyat qidirsang, (V) maqsadingga yetasan» (S).
«Agar o‘qishni xohlasang, (A) maqsadingga yetasan» (S).

2. Shartli-qat’iy (kategorik) xulosa chiqarish. Asoslardan biri shartli, ikkinchisi va xulosa qat’iy hukmlardan iborat bo‘lgan xulosalashga shartli-qat’iy xulosa chiqarish deyiladi. Masalan, «Agar prokuror sud

majlisiga kelmay qolgan taqdirda (A) jinoyat ishini muhokama qilish keyinga qoldiriladi» (V) (O‘zbekiston Respublikasi JPK , 412-modda) .
«Prokuror sud majlisiga kelmadi» (A).
«Sud jinoiy ishning muhokamasini keyinga qoldirdi» (V).
Birinchi asos - shartli hukm asos (A) va oqibatning (V) bog‘lanishini ifodalaydi. Ikkinchi asos qat’iy hukm bo‘lib, unda «prokurorning sud majlisiga kelmaganligi», tasdiqlanadi. Ikkinchi asos natijaning chinligini keltirib chiqarmoqda. Shartli-qat’iy xulosa chiqarishning ikki to‘g‘ri modusi tasdiq va inkor modusiari mavjud.

3.Ayiruvchi qat’iy xulosa. Asoslaridan biri ayiruvchi, qolgan asoslari va xulosasi qat’iy hukmdan iborat bo‘lgan xulosalashga ayiruvchi qat’iy xulosa chiqaruvchi deb aytiladi. Ayiruvchi hukmlarning tarkibidagi oddiy hukmlar «yoki» diz’yunktivlari orqali bog‘lanadi.
Masalan: «Organizm bir hujayrali yoki ko‘p hujayrali bo‘ladi», degan hukmda ikkita oddiy hukm «yoki» mantiqiy bog‘lovchisi orqali bog‘langan. Bu holda dizyunksiyaning bir a’zosi tasdiqlanib, ikkinchisi inkor qilinishi mumkin. Shundan kelib chiqib, ayiruvchi- qat’iy xulosa chiqarishning ikki modusi, ya’ni tasdiq-inkor va inkor-tasdiq moduslari farqlanadi.

*4. **Shartli-ayiruvchi xulosa chiqarish.*** Asoslarning biri shartli, boshqasi ayiruvchi hukmlardan iborat bo‘lgan xulosalashga shartli ayiruvchi xulosalash deyiladi.

Ayiruvchi hukmlardan ikki, uch yoki undan ko‘p muqobil (al’ternativ) yechimlarga ega bo‘lgan masalalarni to‘g‘ri hal qilishda foydalaniladi. Shartli ayiruvchi xulosa - lemmatik (taxminiy) xulosa chiqarish, deb ham yuritiladi hamda u dilemma (ikki al’ternativ), trilemma (uch al’ternativ) va hokazo turlarga bo‘linadi.

Masalan, «Agar shaxs qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan chet elga chiqish tartibini buzsa (a), JK ning 223-moddasiga binoan jazolanadi» (s).

«Agar shaxs qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga kirish tartibini buzsa (v), JK ning 223-moddasiga binoan jazolanadi» (s).
«Shaxs qonunga xilof ravishda chet elga chiqish (a) yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish (v) qoidalarini buzdi».
Demak, shaxs O‘zbekiston Respublikasi JK ning 223-moddasini buzgan hisoblanadi.

6. Induktiv xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish bevosita xulosa chiqarish qatoriga kiradi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, induksiya hodisalarni birma-bir o‘rganishga asoslanadi. Induktiv xulosa

chiqarish yordamida narsalar va hodisalarning turli xususiyatlari o‘rganiladi, ularning umumiy tomonlari haqida xulosa chiqariladi.

Induksiyaning asosini yakkalik, xususiylik va umumiylikning uzviy aloqasi tashkil etadi. Induksiyaning yana bir xususiyati shundaki, uning xulosalari ko‘pincha ehtimolli xarakterga ega bo‘ladi. Bu induksiyaning hodisalarni birma-bir o‘rganishga asoslanganligi hamda kuzatish va eksperiment bilan bog‘liq bo‘lganligidan kelib chiqadi.

Induktiv xulosa chiqarish deb nisbatan torroq bilimlardan nisbatan kengroq bilimlarga fikran harakat qilishdan iborat bo‘lgan xulosa chiqarishga aytamiz.

Mantiq fani induktiv xulosa chiqarishning ikki turini o‘rganadi. *Bular to‘liq va to‘liqsiz induksiyadir.* To‘liq induksiya umumiy bilimlar olish yo‘llaridan biridir. To‘liq induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda xulosa bir turkum narsa va hodisalarning hammasini birma-bir o‘rganish asosida nisbatan yangi bilim hosil qilinadi. Bunday xulosa chiqarish uchun narsa va hodisalarning birorta o‘xshash, umumiy xususiyati bo‘lishi kerak. Har bir narsaning xususiyati haqidagi fikr asoslarda yakka hukmlar orqali ifodalanadi.

Xulosa odatda umumiy hukm orqali beriladi, unda biror xususiyatning bir turkum narsalarning hammasiga xosligi yoki xos emasligi haqidagi fikri ifodalanadi. To‘liq induksiyaning shu asoslari va xulosasi aniq, ehtimoldan xoli bo‘lgani uchun fikr qat’iy hukmlar orqali beriladi.

To‘liq induksiya bo‘yicha xulosa chiqarish uchun o‘rganilayotgan narsalar va hodisalar nisbatan kamroq bo‘lib, ularni birma-bir o‘rganish imkoniyati bo‘lishi lozim. Masalan, «Merkuriy quyosh atrofida aylanadi».
Mars quyosh atrofida aylanadi.
Yer quyosh atrofida aylanadi.
Venera quyosh atrofida aylanadi.
Saturn quyosh atrofida aylanadi.
Uran quyosh atrofida aylanadi.
Neptun quyosh atrofida aylanadi.
Pluton quyosh atrofida aylanadi.
Yupiter quyosh atrofida aylanadi.

Yuqoridagi planetalar quyosh sistemasidagi hamma planetalardir. Demak, bu planetalarning hammasi quyosh atrofida aylanadi.

To‘liqsiz induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda bir turkum narsalarning bir qanchasini o‘rganish asosida olingan bilimlarga tayanib biror xususiyat shu turkumdagi narsalarning hammasiga xosligi haqida xulosa chiqaramiz. Bunda xulosa kuzatilgan va kuzatilmagan narsa

va hodisalarga aloqador bo'ladi. To'liqsiz induksiyaning xulosasi ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi.

O'rganilayotgan xususiyatda bir turkum narsalarning qolganlariga xos yoki xos emasligi noaniq qoladi. *To'liqsiz induksiya o'z navbatida oddiy sanash orqali yoki ommabop induksiya va ilmiy induksiyaga bo'linadi.*

Oddiy sanash orqali induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda bir turkum narsalarning bir qanchasida biror xususiyat takrorlanishini o'rganish asosida qolganlariga xulosa chiqariladi. Induksiyaning bu turida xulosa chin bo'lishi uchun xususiyat ko'proq narsalarga xos va xususiyat narsalar uchun muhim bo'lishi, umumiy holatga zid keladigan hollar bo'lmasligi kerak. Oddiy sanash orqali induksiya xulosalari ilmiy xarakterga ega bo'lmasa ham, takrorlanib turadigan holatlardan xulosa chiqarish uchun ahamiyatlidir. «Hamma metallar qizdirilganda kengayadi», «Hamma 18 yoshga etgan O'zbekistonliklar saylash huquqiga ega», «Hamma odamlar tinchlik uchun kurashadi» kabi xulosalar to'liqsiz induksiyaning oddiy sanash turi orqali chiqarilgandir.

Ilmiy induksiya. Ilmiy induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda xulosa chiqarish uchun hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asos qilib olinadi. Ilmiy induksiyada xulosa, hodisalarning muhim xususiyatlarining takrorlanishini o'rganish natijasida hosil bo'ladi. Sababiy bog'lanish hodisalar o'rtasidagi bog'la- nishlarning eng muhimidir. U narsa va hodisalarni asoslab beradigan qonuniyatlarni yechishga imkoniyat yaratadi. Ilmiy induksiya xulosalari ilmiy ahamiyatga ega ekanligini F. Bekon asoslab berdi. Uning metodlarini esa J.St. Mill' ishlab chiqdi. Shuning uchun ba'zan uni Bekon - Mill' induksiyasi deb atashadi. Mantiq fani ilmiy induksiyaning quyidagi metodlarini o'rganadi.

O'xshashlik metodi. Bu metodning mohiyati quyidagilardan iborat. Agar ikki yoki undan ortiq hodisalarning birorta o'xshash tomoni mavjud, ularning natijasi bir xil bo'lsa, shu o'xshash tomoni hodisaning sababidir deb xulosa chiqariladi. O'xshashlik metodi yordamida xulosa chiqarish ko'pincha kuzatish bilan bog'liq bo'ladi. Hodisalar kuzatilganda ularga hech qanday ta'sir o'tkazilmaydi. O'xshashlik metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS hodisasi ro'y berganda, a hodisasi ro'y beradi. ADE hodisasi ro'y berganda, A hodisasi ro'y beradi. Demak, A holati a hodisasining sababchisidir. Masalan, temir, mis, po'latdan yasalgan mayatniklar bir xil uzunlikda osib qo'yilsa, ularning tebranish davri bir xil bo'ladi. Tebranish davrining bir bo'lishiga sabab mayatniklarning nimadan yasalgani emas, balki sterjenlarning bir xil uzunlikda bo'lishidir. Hamma hollarda faqat shu tomoni o'xshash bo'lib,

qolgan tomonlari, ya'ni kimyoviy sostavi, zichligi, og'irligi, qattiqligi va boshqa tomonlari bilan farq qiladi.

Tafovut metodi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, agar hodisa bir holatda ro'y bersa, ikkinchi holatda ro'y bermasa, ularning farq qiladigan tomoni mavjud bo'lsa, shu tomoni hodisaning sababi, deb xulosa chiqariladi. Tafovut metodi bo'yicha xulosa chiqarish ko'pincha tajriba o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi. Tajriba o'tkazilganda, maqsadga mos keladigan sharoitlarni yaratish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, tajriba o'tkazganda natija ta'sir qiladigan hamma shart-sharoitni hisobga olish lozim. Tafovut metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS hodisasi ro'y berganda, a hodisasi ro'y beradi. VS hodisasi ro'y berganda, a hodisasi ro'y bermaydi. Demak, A holati a hodisasining sababidir. Masalan, quyosh nuri ko'proq tushib turgan joyda etilgan mevalarning mazali va yirik bo'lishi ma'lum, aksincha soya joyda yetilgani bemaza va mayda bo'ladi. Boshqa tomonlari bir xil bo'lib, bir tomondan farq qilgani, ya'ni quyosh nurining kuchi turlicha bo'lgani hodisaning sababi bo'ladi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi. Bu metodning mohiyati shundaki, bir voqeaning o'zgarishi, boshqa voqeaning o'zgarishiga olib kelsa, avvalgisi keyingisi uchun sabab bo'ladi. Yo'ldosh o'zgarishlar metodi bo'yicha chiqarilgan xulosalar ko'pincha ehtimoliy xarakterga egadir. Yo'ldosh o'zgarishlar metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS hodisasi ro'y berganda, a hodisasi ro'y beradi. AIVS hodisasi ro'y berganda, AI hodisasi ro'y beradi. Demak, A holati a hodisasining sababidir. Masalan, aholi o'rtasida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bilan ba'zida sodir bo'ladigan jinoiy ishlar o'rtasida sababiy bog'lanish bor. Tarbiyaviy ishlar kuchaytirilsa, jinoiy ishlar nisbatan kamayadi. Tarbiyaviy ishlarning kuchaytirilishi sabab bo'lib, jinoiy ishlarning kamayishi natijadir.

Qoldiqlar metodi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, hodisaning bir qismi aniqlangan sababning natijasi bo'lsa, ikkinchi qismi hali aniqlanmagan sababning natijasi bo'ladi, deb xulosa chiqariladi. Qoldiqlar metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AV hodisasi natijasida av hodisasi ro'y berganligi ma'lum, v hodisasi V ning natijasi bo'lsa, a hodisasi A ning natijasi bo'lsa kerak.

Sababiy bog'liq hodisalarni o'rganishda yuqorida ko'rsatilgan metodlarning bir nechtasidan foydalanish mumkin.

7. Analogiya. ***Analogiya shunday xulosa chiqarish turiki, unda narsaga ma'lum bir belgining xosligi haqidagi xulosa shu narsaning boshqa narsa bilan muhim xossalariga ko'ra o'xshashligiga asoslanib***

chiqariladi. Misol qilib quyidagini keltirish mumkin. yer va quyosh qator muhim xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash:

- ular bir planetalar sistemasiga kiruvchi osmon jismlari;
- ikkalasi ham harakatda;
- kimyoviy tarkibi o‘xshash (yerda mavjud kimyoviy elementlar spektral analiz yordamida Quyoshda ham topilgan). Mana shu o‘xshashlikka asoslanib olimlar Quyoshda topilgan yangi element (geliy) erda ham bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelganlar.

Analogiya yo‘li bilan olingan bu xulosaning chinligi ko‘p o‘tmay tasdiqlandi. Yerda ham geliy elementi topildi. Agar o‘xshatilayotgan narsalarni A va V, ularning belgilarini a, v, s, a deb belgilasak, unda yuqoridagi xulosa chiqarishning strukturasini quyidagi sxema tarzida ko‘rsatish mumkin.

A narsa a,v,s, a belgilariga ega.
V narsa a,v,s, a belgilariga ega
Ehtimol, V narsa ham a belgisiga egadir.
Mazkur sxema analogiya bo‘yicha xulosa chiqarishning tipik sxemasidir.

Analogiyada bir narsa haqidagi bilim shunga o‘xshash boshqa narsa haqidagi bilimdan xulosa tarzida keltirib chiqariladi, ya’ni fikrimiz juz’iy bilimdan juz’iy bilimga qarab harakat qiladi. Bu xulosa induktiv yo‘l bilan olingan xulosa singari ehtimol tarzida bo‘ladi.

Analogiya narsalar, ularning xususiyatlari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarga tayanadi, ya’ni u o‘zining obyektiv asosiga ega. Analogiyaning bir qancha turlari mavjud. O‘xshatilayotgan obyektlarning xarakteriga qarab, xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi farq qilinadi. Yuqoridagi Yer va Quyosh o‘xshashligi bo‘yicha chiqarilgan xulosa xususiyat analogiyasiga taalluqlidir. Bunda ikkita narsa o‘xshatilib, biridan ikkinchisiga fikran birorta xususiyat ko‘chiriladi. Munosabat analogiyasida esa ikki juft narsalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘xshatilib ko‘chiriladigan belgi shu munosabatlarning xossasidir. Misol qilib Rezerfordning atom tuzilishining planetar modeli haqidagi xulosasini keltirish mumkin. Bu xulosa Quyosh va Planetalar o‘rtasidagi munosabatning atom yadrosi va elektronlar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘xshatilish natijasida hosil qilingan.

Mantiqda yana xulosaning aniqlik darajasiga qarab, qat’iy analogiya, qat’iy bo‘lmagan analogiya va xato analogiyalar ajratiladi. Analogiya bo‘yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini, ya’ni chin bo‘lish ehtimolini oshirish uchun ma’lum bir shartlarga rioya qilish lozim: taqqoslanayotgan narsalarning iloji boricha ko‘proq o‘xshash belgilari aniqlanishi lozim; bu umumiy, o‘xshash belgilar narsalar uchun muhim

belgilar bo‘lishi kerak; bir narsadan ikkinchi narsaga fikran ko‘chirilayotgan belgi qolgan belgilar bilan zaruriy aloqada bo‘lishi lozim; taqqoslanayotgan narsalarning bir- biridan farq qildirib turadigan belgilar hisobga olinishi lozim.

Analogiya bilish va amaliy faoliyatimizda katta ahamiyatga ega. U modellashtirishning asosini tashkil qiladi. Uning yordamida ko‘p kashfiyotlar qilingan. Xususan, inson miyasi va ba’zi fizik jarayonlardagi in’ikosining o‘xshashligini aniqlash kibernetik qurilmalarni yaratishga olib kelgan.

6-§. Dalillashning mantiqiy asoslari.

1. **«Dalillashning mantiqiy asoslari. Isbotlash va raddiya.** «Muammo. Faraz. Nazariya», deb nomlangan ma’ruzadan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda dalillashning mantiqiy asoslari, isbotlash va raddiya, muammo, faraz, nazariya haqida har taraflama bilimlar hosil qilish, ulardan huquqshunoslik faoliyatida to‘g‘ri foydalanishning ahamiyatini tushuntirib, talabalarda yaxlit tushunchani hosil qilish. Ma’ruza maqsadiga erishish uchun mavzu rejasida qo‘yilgan savollarni har taraflama tahlil qilish vazifa sifatida belgilanadi.

1. Isbotlashning tuzilishi va turlari. Isbotlash va uning tarkibi to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval, mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalarining o‘zaro farq lanishi to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. *Dalillash deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo‘li bilan (kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytiladi.* Dalillash bevosita yoki vositali bo‘ladi. Bevosita dalillash hissiy bilish, ya’ni ko‘rish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa chinligi tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Dalillashning xususiy ko‘rinishi mantiqiy isbotlashdir. Mantiqiy isbotlash deb, ma’lum bir fikrning chinligini, chinligi isbotlangan boshqa fikrlar orqali asoslashga aytiladi. Isbotlashdan maqsad biror hukmning chinligini aniqlash bo‘lsa, dalillashdan maqsad ham hukmning chinligini aniqlash, ham uning ahamiyatini va muayyan faoliyat uchun qo‘llash mumkinligini ko‘rsatishdir. Isbotlash jarayonida qo‘llanilgan chin hukmlar (asoslar) berilgan hukmning chinligini tasdiqlash uchun xizmat qilsa,

dalillash, bundan tashqari, dadillanayotgan hukmning boshqa shu kabi fikrlardan afzalligini asoslaydi. Dalillashga keltirilgan asoslar isbotlash uchun keltirilgan asoslarga nisbatan rang-barang bo‘ladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chiqarish ko‘rinishida amalga oshadi. Dalillash ko‘proq suhbat (dialog) ko‘rinishida bo‘lib, uning ishtirokchilaridan har biri o‘z fikrining chinligini isbotlashga, raqibining fikrini rad etish va talabalarning o‘zini ham fikr qilishga, o‘z fikrlariga ishontirishga harakat qiladi.

Dalillash jarayonida talabalarga biror fikrning to‘g‘ri yoki xatoligi asoslab beriladi va ularda shu fikrga nisbatan ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Dalillovchi shaxsning so‘z san’atini qay darajada egallaganligi, ya’ni notiqlik mahorati talabalarda ishonch-e’tiqodning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritilgan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi. Kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega e’tiqodni yaratishdan iborat.

Dalillash va isbotlash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e’tiqod kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Fan va amaliyotdagi bilish jarayoni faqat sezgilarimiz orqali bevosita bilinadigan haqiqatlardan iborat bo‘lmaydi, balki abstrakt tafakkurda ifodalanadigan yangi nazariya va xulosalarni isbotlash hamda asoslashni ham o‘z ichiga oladi.

To‘g‘ri tafakkur yuritishning muhim belgisi - bu uning isbotlangan bilimlarga asoslanishidir. Ilmiy haqiqatlar chuqur va har tomonlama o‘rganilib, ilmiy jihatdan asoslanganidan so‘nggina ahamiyati katta bo‘ladi.

Fandagi ayrim qoidalar va aksiomalarning muayyan ahamiyat kasb etishi, dastavval, ularning chinligi, ulardan olinadigan natijalarning to‘g‘riligi va ularning amaliyotda o‘z tasdig‘ini topayotganligi bilan asoslanadi. Shu o‘rinda har qanday fuqarolik va jinoyat ishlarida ularning mohiyatini yetarli darajada asoslash mustaqil respublikamizning qonunlarini to‘g‘ri tatbiq etish va ishonchli qarorlarni qabul qilishda juda muhimdir.

Umuman fan va amaliyotning har bir sohasida isbotga intilish, haqiqatni qaror toptirish insondan mantiqiy qoidalarga amal qilishni talab etadi. Mazkur mavzuda biz isbotlashda qanday qonun- qoidalarga amal qilish lozimligini ko‘rib chiqamiz.

Isbotlash - ma’lum bir hukmning chinligini, chinligi isbotlan- gan boshqa hukmlar orqali asoslashning mantiqiy uslublari

yig'indisidir. Demak, tajribada tekshirilib, chinligi isbotlangan hukmlar orqali ikkinchi bir hukmning chinligini aniqlashga qaratilgan jarayon isbotdir.

Mantiqda har bir isbot faktlarga, tajribaga tayangan bo'ladi. CHunki tajribada tekshirilib, umumlashtirilgan chin fikrlardan chin xulosalar olish mumkin.

Isbotlash ishonch-e'tiqod bilan bog'langan bo'lsada, lekin ular aynan emas. Isbotli tafakkurning asosiy vazifasi asoslangan e'tiqodni shakllantirishdir. Agar ishonch-e'tiqodning asosini ilmiy bilimlar tashkil etsa, unda belgilangan vazifalar nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri va anglashilgan holda hal etilishi mumkin. *E'tiqod - insonning xatti-harakati, ma'naviy va axloqiy sifatlarini belgilab beradigan qarashlar va tasavvurlar yig'indisidir.* Ilmiy e'tiqod asoslangan, isbotlangan va dalillangan bilimlar asosida shakllanadi.

Ilmiy e'tiqoddan tashqari diniy bilimlarga, ishonchga asos- langan diniy e'tiqod bo'lib, u insonning ichki tuyg'ulari, dunyoni yaratuvchi va boshqaruvchi ilohiyotning mavjudligi haqidagi bilimlarga asoslanadi. Diniy e'tiqodning insoniy fazilatlarni shakllanishidagi rolini inkor etgan holda, fan va amaliyotda isbotlangan dalillarga asoslangan ilmiy e'tiqod shakllanishining mantiqiy asoslarini isbotlash misolida o'rganib chiqamiz.

Isbotlashning tarkibi - tezis, asos (dalil) va demonstratsiyadan iborat. Chinligi yoki yolg'onligi dalillar yordamida isbotlangan hukmga tezis deb aytiladi. Tezis sifatida har qanday fanlarning nazariyalari yoxud emperik tadqiqot obyektlari, muayyan bir narsa yoki hodisaning paydo bo'lish sabablari haqidagi bilimlarini olishimiz mumkin. Masalan, meditsinada alohida bir kasallik, tarix fanida ma'lum bir tarixiy hodisa, sud amaliyotida muayyan bir jinoiy ish yoki jinoyatda ayblanuvchi shaxs haqidagi muhokamalarning isboti talab etiladigan tezislar sifatida kelishi mumkin.

Isbotlashning asosi yoki dalillash - bu tezisni asoslash uchun keltirilgan chin hukmlardir. Ular isbotlashning mantiqiy asoslarini tashkil etib, turli bilimlar doirasida, o'z mazmuniga ko'ra turli xil chin hukmlar shaklida namoyon bo'ladi. Dalillarning bir nechta turlari farqlanadi:

1.***Yakka tartibdagi aniq dalillarning isbot uchun asos bo'lishi.*** Bu turdagi dalillarga guvohning ko'rsatmalari, hujjatdagi imzo, ilmiy faktlar, iqtisodiyot va ma'naviyat sohalaridagi aniq iqtisodiy ma'lumotlar singari isbotlangan bilimlar kiradi. Aniq dalillar va ularning tahliliga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati amaliy faoliyatda ahamiyati bo'lmaydi. Dalil sifatida faktlardan foydalanish isbotlashda keng qo'llaniladi. Masalan, sud-tergov amaliyotida ayblanuvchining jinoyat

sodir bo‘lgan vaqtda boshqa joyda bo‘lganligi yoki o‘g‘rilik jinoyatida o‘g‘irlangan ashyoviy dalillarning ayblanuvchida topilmaganlik faktining o‘zi uning jinoyatga aloqasi yo‘qligini isbotlaydi. Isbotlanayotgan tezis, ya’ni muhokama qilinayotgan hukmlar uchun asos sifatida ayrim dalillarni ko‘rsatishning o‘zi yetarli emas. Shu bois alohida olingan dalillar emas, balki o‘rganilayotgan masalaga tegishli, o‘zaro mantiqiy bog‘langan barcha dalillarning yig‘indisi isbot uchun yetarli asos bo‘lishi mumkin.

2.Ta’riflash - isbotning asosi sifatida. Isbotlash asoslarining tarkibiga muayyan bir fandagi asosiy tushunchalarning ta’rifi ham kirishi mumkin. Chunki isbotlash - bu chinligi oldin isbot etilib, mavjud holatlardan yangi holatlarni keltirib chiqarishdir. Ta’riflangan tushunchalarda ularning mazmunini ifodalaydigan asosiy belgilar aks ettiriladi.

Ta’riflash chin hukm bo‘lganligi tufayli isbotda asos sifatida ishtirok etishi mumkin.

3.Aksioma va postulatlar isbotning asosi sifatida. Aksioma va postulatlar insonning ko‘p yillik amaliyotida tasdiqlangan, isbotsiz qabul qilingan haqiqatlardir. Ular matematika, fizika va mexanika fanlarida ko‘p ishlatiladi. Aksioma va postulatlarning roli ayrim fanlarda ilmiy nazariyalarni asosli, izchil isbotlashda muhim o‘rin egallashi bilan belgilanadi. Mantiq fanining qonunlari, ba’zi qoidalari aksiomatik tabiatga ega. Agar aksiomalarga asoslanib isbotli mulohaza yuritilsa, ayrim mantiqiy talablarga rioya etilishi lozim. Aksiomalar to‘liq, mustaqil va ziddiyatsiz bo‘lmog‘i kerak.

4.Fan qonunlari va teoremalari isbotlashning asosi sifatida.

Isbotning daliliy asosi sifatida isbot etilgan tabiiy va ijtimoiy fanlarning qonunlari va teoremalar kelishi mumkin. Huquqiy qonunlar sud-tergov amaliyotida foydalaniladigan dalillar vazifasini bajaradi.

Isbot tarkibiga tezis va asoslardan tashqari - demonstratsiya ham kiradi. Tezis va asoslarning o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishiga demonstratsiya (lot. ***demonstratio*** - namoyish etish) deyiladi. Demonstratsiya hukmlarning mantiqiy bog‘lovchisi bo‘lib, muayyan bir natijani keltirib chiqaradi. Demak, demonstratsiya tezis bilan asoslar o‘rtasidagi aloqa vositasidir.

Isbotlash shakliga ko‘ra ikkiga, bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. Bevosita isbotda isbotlash dalillardan tezisga qarab boradi. Tezisning chinligi bevosita dalillar vositasida asoslab beriladi. Bunday isbotlash quyidagicha ifodalanishi mumkin, ya’ni (a,v,s...) dalillardan (k,j,ł...) chin hukmlar, ulardan esa isbotlanishi lozim bo‘lgan D tezisi kelib chiqishini ko‘rsatib beradi.

Masalan, «Ba'zi talabalar a'lochidir», degan tezis «ayrim a, v, s talabalar a'lo o'qishadi», degan asos va dalillardan kelib chiqadi.

Bilvosita isbot - bu tezisning chinligini antitezisning yolg'onligini isbotlash orqali keltirib chiqarishdir. Vositali isbot to'g'ridan-to'g'ri isbotlash uchun dalillar etarli bo'lmagan vaqtda qo'llaniladi. *Antitezis - bu tezisga zid bo'lgan hukmdir. Isbotlash quyidagi ketma-ketlikda tuziladi.*

Tezisga qarama-qarshi bo'lgan antitezisni shakllantiramiz. Yuqoridagi misolimiz «Ba'zi talabalar a'lochi», degan juz'iy tasdiq hukmidan «Hech bir tinglovchi a'lochi emas», degan umumiy inkor hukm, ya'ni antitezis kelib chiqadi. Antitezisni shartli ravishda chin deb hisoblab, mantiqiy xulosa qilsak, har bir alohida olingan talabalarning ham a'lo o'qimasligi haqida yolg'on xulosa kelib chiqadi. Demak, xulosaning yolg'onligidan antitezisning yolg'onligi, antitezisning yolg'onligidan esa tezisning chinligi kelib chiqadi. Demak, tezis isbotlandi.

Ayiruv vositali isbotlashda tezis sof ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmning bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganligi tezis bo'lib, unda mazkur jinoyatning ehtiyotsizlik tufayli sodir etilmaganligi tasdiqlansa, u holda jinoyatning qasddan sodir etilganligi isbotlanadi.

2. Raddiya va uning usullari. *Raddiya - berilgan tezisning asoslanmaganligi yoki yolg'onligini aniqlash orqali isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.* Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin.

Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislarga asoslanib qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiyaning tarkibi ham isbotlash tarkibi kabi uch qismga bo'linadi:

- Raddiyaning tezisi - rad etilishi lozim bo'lgan muhokama;
- Raddiya dalillari - tezisni rad etishga qaratilgan muhokama;
- Raddiya demonstratsiyasi - raddiyaning tezisi va dalillarini bog'laydigan usul.

Raddiya uch xil usulda amalga oshiriladi:

1) tezisni rad etish;
2) argumentlarni rad etish;

3) demonstratsiyani rad etish.

Tezisni rad etish amali quyidagi usullardan iborat:

1.Dalillar vositasida rad etish.

Tezisni asoslash uchun keltirilgan dalillarni inkor etish orqali tezis rad etiladi. Agar tezis dalillar bilan solishtirilganda bir-biriga zid kelsa, tezis rad etiladi. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sobiq Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan xulosaning yolg'onligini (yoki zidligi) aniqlash orqali rad etish. Tezisdan kelib chiqadigan xulosaning haqiqatga zid ekanligi isbotlanadi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha (a^')^((a^')^a)

3. Antitezisni isbotlash orqali tezisni rad etish.

Rad etilishi lozim bo'lgan tezisga nisbatan unga zid keladigan hukm keltiriladi va natijada uning chinligi isbotlanadi. Agar antitezis chin bo'lsa, tezis yolg'on bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, uchinchisi mustasno qonuniga muvofiq antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirilib chiqariladi. Masalan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasa-yu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch - adolatda», deyishi mumkinmi?»

Asos yoki dalillarni rad etishda tezisni asoslashga keltirilgan dalillar va ularning chin emasligi yoki tezisning chinligini isbotlash uchun yetarli emasligi tanqid qilinadi. Keltirilgan dalil va asoslarning yetarlicha ishonchli emasligi, tezisning ham chinligiga shubha tug'diradi.

Demonstratsiyaning rad etish usuli isbotlash shaklida, dalillar va tezisning o'rtasida mantiqiy bog'lanish yo'qligini ko'rsatib beradi. Agar tezis dalil va asoslardan kelib chiqmasa, uning ishonchli emasligi haqida xulosa qilinadi. Demonstratsiyaning rad etish usulini qo'llash, deduktiv,

induktiv va analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish qoidalari hamda undan kelib chiqadigan xatolarni hisobga olishni taqozo etadi.

2. Isbotlash va raddiyaning qoidalari hamda xatoliklari ularga amal qilishning ahamiyati.

Tezisning chin yoki yolg‘onligini asoslash jarayonida muayyan bir qoidalarning buzilishi mantiqiy xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Isbotlashning tuzilishiga muvofiq qoidalar quyidagilarga bo‘linadi: tezis qoidalari, asos, dalil qoidalari, demonstratsiya qoidalari.

Tezisning qoidalari uning mantiqiy jihatdan aniq va ravshan bo‘lishini talab qiladi. Ba’zi bir holatlarda, masalan, ilmiy maqola, ma’ruza yoki arizalar yozishda biz o‘z fikrimizni aniq va lo‘nda ifodalab bera olmaymiz. Demak, to‘g‘ri tafakkur yuritish qonunlariga, jumladan ayniyat qonuniga amal qilmaymiz.

Tezis isbotlash jarayonida o‘zgarmasligi lozim. Bu qoida ham tafakkur qonuniyatlaridan kelib chiqib, isbotlash jarayonida tezis mazmunining o‘zgarmasligini talab etadi.

3. Isbot va raddiyada tezisga nisbatan xatoliklar.

Tezisni almashtirish. Isbotli tafakkur yuritish qoidalariga ko‘ra, tezis aniq va ravshan bo‘lib, isbotlash va raddiyaning butun jarayonida o‘zgarmasligi kerak mabodo bu qoidalarga amal qilinmasa, tezisni almashtirish xatoligi kelib chiqadi. Agar biz aniq bir jinoyatning kelib chiqish sabablarini tadqiq etib, uning boshqa hodisalar bilan aloqadorlik masalasiga baho berishga, bog‘lashga urinishga harakat qilsak, tezisning mazmuni o‘zgarib, unda tezisni almashtirish xatoligi kelib chiqadi.

Insonning shaxsiy sifatlarini o‘rinsiz asos qilib ko‘rsatish bilan tezisni almashtirish. Bu xatolikda muayyan bir shaxs oldida turgan tezisni isbotlashda aniq dalillar bilan emas, balki bu tezis muallifining shaxsiy sifatlarini bayon etish vositasida tezisni isbotlamoqchi yoki rad etmoqchi bo‘ladi. Masalan, totalitar tuzum davrida kommunistik partiya rahbarlarining fikri mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinib, hatto biror-bir mulohazaning isboti sifatida asos qilib olingan. Bundan tashqari, ko‘pincha ilmiy dissertatsiyalarning muhokamasida ilmiy ish mazmuniga emas, balki dissertatsiyaning shaxsiy sifatlariga e’tibor berish holatlari ham uchrab turadi.

Tezisning almashinish xatoligi ikki xil holda namoyon bo‘lishi mumkin, ya’ni:

- *haddan tashqari isbotlashga urinishda;*
- *kam isbotlashga urinish hollarida.*

Birinchi xatolikda, ya'ni bir xil tezisning o'rniga, undan kuchliroq tezisni isbotlashga urinish natijasida asosiy tezis isbotlanmay qoladi. Masalan, aybdorning aybsizligi uni yaxshi odam, jamoatchilikda faol ekanligi va shunga o'xshash hislatlarini bayon etish yordamida bu insonning ayb ish qilishi mumkin emasligini isbotlashmoqchi bo'lishadi.

Ikkinchi xatolik kam isbotlashga urinishdan ham kelib chiqadi. Masalan, biror-bir insonning yaxshi inson ekanligini uning ma'lumoti oliyligi bilan isbotlamoqchi bo'ladilar, lekin xalqimiz «olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin», degan aksiomatik qoidani yaxshi biladi.

Asos yoki dalillarga nisbatan qoidalar quyidagicha:

- *tezisni isbotlash uchun keltirilgan dalillar chin bo'lishi va bir- biriga zid kelmasligi lozim;*
- *tezisni tasdiqlash uchun keltirilgan dalillar yetarlicha asos bo'lishi lozim;*
- *asos va dalillar tezisdan mustaqil ravishda isbotlangan hukmlardan iborat bo'lishi kerak.*

Isbotlashning asos yoki dalillardagi xatoliklari quyidagilardan iborat:

Dalillarning chin bo'lmasligi xatoliklari. Dalil sifatida olingan hukmlar chin bo'lmay, chin sifatida talqin etiladi. Bu xatolikka ataylab yo yo'l qo'yilishi mumkin.

Masalan, sud amaliyotida ayblanuvchi yoki guvohlar o'zining jinoiy qilmishlarini yashirish uchun ayrim hollarda ataylab noto'g'ri ko'rsatmalar berishi mumkin.

Dalilning yetarlicha asos bo'lmasligi xatoliklari. Agar tezis isbotlanmagan dalillarga tayansa hamda dalil tezisni isbotlash o'rniga uning ahamiyatini bo'rttirish yordamida isbotlashga harakat qilsa, mazkur xatolik yuzaga keladi. Masalan, ayblanuvchining aybdorligini isbotlashda chinligi tekshirilmagan taxminiy dalillar asos qilib olinsa, ularning noto'g'riligi, albatta, yuzaga chiqib qoladi.

Aylanma isbot etish xatoligi. Bu xatolikda tezisni dalillar vositasida, dalil esa tezis yordamida isbot etishga harakat qilinadi.

Masalan, «Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritishga qodir» degan tezisni «Qilichni qinga kiritishga bir kalima shirin so'z qodir», deb isbotlasak, yuqorida keltirilgan xatolikka yo'l qo'yiladi.

Tezisning asoslash usuli (demonstratsiya)ga nisbatan qoidalar va isbotlash shaklida uchraydigan xatoliklar.

Isbotlash usuli qoidasi eng avvalo, tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi kerak. Buning uchun tezis asoslardan xulosa chiqarishning umumiy qoidalariga asoslanib, xulosa shaklida keltirib chiqarilmog'i zarur.

Isbotlash usuli (demonstratsiyaga)ga doir xatoliklar:

1.Yuzaki (soxta) isbotlash xatoligi. Agar tezisni tasdiqlash uchun keltirilgan dalillardan tezis kelib chiqmasa, «kelib chiqmaydi» degan xatolik yuz beradi. Bu mantiqiy xatolikka ko'pincha tezisga aloqador bo'lmagan dalillarni keltirish oqibatida yo'l qo'yiladi. Masalan, shaxsning jinoyat sodir etganligini isbotlash uchun aniq ashyoviy dalillarni keltirish o'rniga uning tashqi ko'rinishi, xulq- atvori kabi hislatlarni dalil sifatida keltirish soxta isbotlash xatoligini keltirib chiqaradi.

2.Aniq fikrdan noaniq fikrga o'tish xatoligi. Bu xatolik tezisni isbotlash uchun keltirilgan dalillar muayyan vaqt, munosabatga nisbatan o'zgarmas deb qabul qilinib, uni barcha holatlarda qo'llanilsa yuz beradi. Bunday xatolikka jinoiy ishni kvalifikatsiya qilishda jinoiy kodeksga doimiy kiritilib boriladigan o'zgarishlarni e'tiborga olinmasdan qilingan xulosalarda yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, jinoyat kodeksining 66-moddasiga 2001-yil 29-avgustda kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra «Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish» to'g'risidagi 66 -moddasi kiritildi. Bu moddaning kiritilishi natijasida surishtiruv jarayonida bo'lgan ko'pgina ishlar sudgacha tomonlarning kelishuviga ko'ra to'xtalishi mumkin. Shu va shunga o'xshash boshqa o'zgartishlarni bilmaslik, yuqorida aytganimizdek, jinoiy ishlarni kvalifikatsiya qilishda qo'pol xatoliklarga olib kelishi mumkin.

4. Paralogizm, sofizm va paradoks. Muhokama yuritish, isbotlash jarayonlarida mantiqiy qoida va qonunlarning buzilishi hamda ularning talablariga rioya etmaslik turli xil xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Tafakkur jarayonida anglanmay yo'l qo'yilgan xato - bu paralogizmdir. Paralogizm yunoncha «paralogismos» so'zidan olingan bo'lib,«noto'g'ri mulohaza,mantiqiy xato» degan ma'noni anglatadi.

Paralogizm - tafakkurning nomukammalligi va bilimning yetarli emasligi natijasida masalaning mohiyatini to'la tushunib yetmasdan turib xatolikka yo'l qo'yishdir.

Raqibni chalg'itish maqsadida yolg'onni rost qilib ko'rsatish usuliga sofizm, deb aytiladi. Sofizm yunoncha «sophisma» so'zidan olingan bo'lib - «ayyorlik qilish, aldash,uydirma», degan ma'nolarni anglatadi.

Muhokama jarayonida raqibni noto'g'ri yo'lga olib kirish maqsadida turlicha sofistik usullardan foydalanuvchilar «sofistlar» deb ataladi. Ular ongli ravishda o'zlarining noto'g'ri fikrlarini chin deb ko'rsatishga urinadilar.

O'z e'tiqodlarining chin yoki yolg'onligidan qat'iy nazar tushunchalarning o'rinlarini almashtirish va ularni turli mazmunda qo'llash vositasida ularni haqiqat sifatida singdirishga urinadilar. Buni qadimda

mashhur bo‘lgan «Shoxli» nomli sofizm misolida ham ko‘rib chiqishimiz mumkin:

«Sen hech narsa yo‘qotmagan bo‘lsang, demak, u senda».

«Sen shox yo‘qotmagansan».

Demak, «sening shoxing bor».

Bunday xulosa chiqarish mantiqiy noto‘g‘ri fikrlashning natijasidir. Sofistlar so‘zlarning ko‘p ma’noliligi, omonim va sinonimlardan foydalanib, tezisni almashtirish, yolg‘on asoslarni chin deb qabul qilishga asoslanadilar. Shu o‘rinda mashhur «Pratogor va Evatl» paradoksni ko‘rib chiqaylik. Pratogor o‘z o‘quvchisi Evatl bilan shartnoma tuzadi. Unga ko‘ra, Evatl huquqshunoslikni o‘rganib, ustoziga o‘qish haqqini birinchi sud ishini yutib chiqqandan so‘ng to‘lashiga kelishadilar. O‘qishini tugatib, Evatl sud ishlarida qatnashmay yuradi va o‘qish haqini to‘lashdan bosh tortadi. Pratogor uni sudga beradi va sudning qarori qanday bo‘lishidan qat’i nazar, u o‘z haqqini olishga haqli deb biladi. U quyidagicha fikr yuritadi: agar sud Evatl ustidan o‘qish haqqini to‘lash haqida hukm chiqarsa, demak, u o‘z haqini sud hukmiga binoan undirib oladi. Agar sudda Evatl yutib chiqsa ham u o‘zaro kelishuvga binoan o‘z haqini olishi kerak.

Evatl esa har ikki holatda ham haq to‘lamasligini e’lon qilib, uni shunday asoslaydi. Agar sud pulni to‘lash haqida hukm chiqarsa, Evatl sud ishini yutqazgan bo‘ladi va shartnomaga binoan o‘qish haqini to‘lamaydi. Agar sud o‘qish haqini to‘lamaslik to‘g‘risida hukm chiqarsa, demak, u sud qaroriga binoan o‘qish haqini to‘lamaydi. Mazkur misol asosida biz sofizmning asl tabiatini ko‘rsatishga harakat qildik.

Paradoks *- bu hal qilib bo‘lmaydigan zid fikrdan tashkil topgan mulohaza bo‘lib, unda ma’lum bir holatning chinligi ham, yolg‘onligi ham isbotlanishi mumkin.* Paradoks[75] (*yunoncha «paradoxos» - kutilmagan,beo‘xshov,g‘alati qarshi fikr ma’nosida*) - «g‘ayritabiiy fikrlash» ma’nosini anglatadi. Qadimdan «Yolg‘onchi» yoki «Axilles va toshbaqa» deb nomlangan yoki shunga o‘xshash juda ko‘p paradokslar ma’lum. Bunday paradokslarni mutlaqo hal etib bo‘lmagan. Masalan, «Yolg‘onchi» paradoksida isbotlanishicha, yolg‘onchi o‘zining yolg‘on gapirganiga iqror bo‘lsa, demak u rost gapirgan bo‘ladi. Rost gapirgan odam esa yolg‘onchi bo‘lmaydi. Bundan esa yolg‘onchining yolg‘onchi emasligi haqida xulosa kelib chiqadi. Mazkur misoldagi paradoks shundan iboratki, mantiqan to‘g‘ri yuritilgan mulohaza bir vaqtning o‘zida ham

[75]***Парадокс*** *[юнонча «paradoxos» - кутилмаган,ғалати*]- кўпчилик томонидан қабул этилган анъанавий фикр,тажрибага ўз мазмуни ва шакли билан кескин зид бўлган,кутилмаган фикр,мулоҳаза.

chinlik, ham yolg'onlik maqomiga kiritib bo'lmaydigan, bir-birini istisno qiluvchi, qarama-qarshi natijalarga olib keladi. Ko'p vaqtlar paradokslarga yechimi yo'q, ma'nosiz fikriy mashg'ulot sifatida qarab kelindi. Matematik mantiq va matematik to'plam nazariyalarining yaratilishi bunday paradokslar uchun bir nechta yechimlarning topilishiga asos bo'ldi. Shu o'rinda biz paradokslarning tahlili mantiqiy nazariyalarni mukammallashtirishi lozimligini yana bir bor ko'rsatib berganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Isbotlash va munozara. Isbotlash mantiqiy amalining asosiy maqsadi muhokamaga qo'yilgan tezisning chinligini asoslashdir.

Chinligi isbotlanishi lozim bo'lgan har qanday tezis bahs va munozara jarayonida asoslanadi. Shuning uchun ham munozara bilimlarning rivojlanishida muhim amaliy vosita bo'lib, haqiqatni aniqlashning shakli sifatida ahamiyatlidir.

Munozara orqali hal etiladigan muammoning ilmiy yoki hayotiy bo'lishi munozarada ishtirok etayotgan tomonlarning fan va tajriba bilan bog'liqlik darajasi, mantiqiy qoida va qonuniyatlardan foydalanish ko'nikmalari bilan bog'liq.

Munozaraning ikki asosiy turi mavjud. *Bu - bahs va tortishuvdir.*

Bahs - fikrlar to'qnashuvi bo'lib, munozara jarayonida muxoliflar muhokama etilayotgan muammoni o'z nuqtayi-nazari bo'yicha asoslab, bir-birining dalillarini inkor etadi. To'g'ri bahs yuritishning talablari sifatida zaruratsiz bahslashmaslik, mavzusiz bahs yuritmaslik yoki bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik, uni o'zgartirmaslik, mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, to'g'ri asoslangan isbotlarni tan olish va bahsni o'z vaqtida to'xtata olish kabi bir qator qonun- qoidalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bahs yuritishning bunday qonun- qoidalariga amal qilish o'z navbatida fikrlash madaniyatini oshirishga imkon beradi.

Tortishuv - munozara shakli bo'lib, bahslashuvchi tomonlarning asosiy harakati muhokama etilayotgan masalada o'z nuqtai nazarlarini qanday bo'lishidan qat'i nazar albatta tasdiqlashdir. Tortishuvda tomonlar muhokama etilayotgan masalani o'z manfaatlariga yo'naltirish maqsadida isbotlanmagan dalillardan ham foydalanishadi. Ayrim hollarda tortishuv mavzusi chetda qolib, muxoliflar bir- birlarining hissiyotlariga ta'sir etish orqali tortishuv muammosini yechishga harakat qiladilar. Lekin mantiqsiz bo'lgan har xil yo'llar orqali erishilgan g'alaba uzoqqa bormaydi, buni mantiqda safsatabozlik (demagogiya) deyishadi.

Safsatabozlik o'z oldiga noto'g'ri faktlar, yolg'on va'dalar, kayfiyatiga ko'ra maqtov va turli yorliqlar yordamida odamlarni aldashni

maqsad qilib qo‘yadi. Safsatabozlik, shuhratparastlikka «qarindosh» bo‘lib, siyosiy elita namoyandalari tomonidan turli va’dalar bilan odamlarning o‘rtasida soxta obro‘ qozonishda namoyon bo‘ladi. Demak, munozara fikrlar rivojining alohida shakli sifatida muayyan bir mantiqiy qoidalarga amal qilishni taqozo qilar ekan. Ularning buzilishi esa yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, demagogiya, ya’ni safsatabozlikning turli ko‘rinishlariga olib kelishi muqarrar.

Isbotlash va raddiyaning qoidalari hamda xatoliklarini bilish hamda ulardan HMQ xodimlarining amaliy faoliyatida to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan munozara mantiqiy amal sifatida insonning bilimlari rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

5. Muammo. Muammo (*yunoncha «problema» - «vazifa», «topshiriq»)* - bilimlar rivojining muayyan bosqichida mantiqan kelib chiqadigan, o‘rganilishi hamda yechimiga ega bo‘lishi zarur vazifadir.

Muammo *- tafakkurning muayyan bir shakli bo‘lib, ilmiy fakt, g‘oya, nazariya va qonunlarning ziddiyatidan kelib chiqadigan, noaniq va to‘liq bo‘lmagan bilimlardan aniq va to‘liq bilimlarga o‘tish uslubi sifatida empirik va nazariy bilimlar rivojining mantiqiy davomiyligini ifodalaydi.*

Muammo ko‘p holatlarda savol bilan tenglashtiriladi, ammo muammo nafaqat savolni balki savollar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shu sababli ulardan ayrim savollarning yechimi muammoni hal etilishiga olib kelmaydi.

Muammoni masaladan ham farqlash lozim. Har qanday masala tadqiqot uchun asos bo‘la olmaydi. Amaliyotda masalaning yechimi ma’lum bir tizimning ziddiyasizligini isbotlash maqsadida kuzatish va eksperimentdan oldin muhokama uchun qo‘yilishi mumkin. Masala ilmiy muammoning shakllanishi uchun asos, manba bo‘lib xizmat qiladi. Demak, *savol hamda masala bilish va amaliyot jarayonida ilmiy muammo uchun manba bo‘lib xizmat qiladi*. Muammo ilmiy tadqiqotning yo‘nalishini belgilab beradigan uslubiy yo‘nalish sifatida amal qiladi. Ilmiy muammo bilim rivojlanishining muayyan shakli sifatida, birinchidan, empirik va nazariy bilimlarning chuqurligi va to‘liqligi darajasidagi farqni ko‘rsatuvchi mantiqiy bilim bo‘lsa, ikkinchidan, yangi va eski bilim o‘rtasidagi dialektik ziddiyatni ifodalash shaklidir.

Ilmiy muammoning tabiati va vazifasi dialektik mantiq doirasida to‘g‘ri tushunilishi mumkin. Chunki u o‘z tabiatiga ko‘ra, tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining umumiy obyektiv qonuniyatlarini ochib beradi. Obyektiv olamni bilish jarayonida hodisa va jarayonlarning o‘rtasidagi sababiy aloqalar aniqlanib, ilmiy muammolar qo‘yilishi uchun obyektiv imkoniyatlar yaratiladi.

Ilmiy muammoning quyidagi vazifalari mavjud: *bayon etish; axborot yig'ish; izohlash; bashorat qilish.*

Ilmiy muammoning bayon etishning vazifasi - tajriba, o'lchash taqqoslash va yetarli faktlarni to'plash asosida tadqiqotning moddiy obyektini aniqlashdan, to'plangan dalillarni umumlashtirishdan va tizimlashtirishdan iboratdir. Yangi fakt, gipoteza hamda nazariyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni talqin etadi. Muammoning bayon etish vazifasi asosan to'plangan bilimlarni bir butun tizimga yig'adi va umumlashtiradi. Olingan natijalar muammoning tabiatini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bayon etish vazifasi, jumladan, sud-tergov amaliyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qoldirilgan izlar, dalillar hamda guvohlar asosida yuz bergan hodisani qayta tiklash uchun xizmat qiladi. Bayon etish darajasining mukammal bo'lishiga erishish o'z navbatida dalillarining to'g'ri, muayyan tartibda umumlashtirilishini va uning natijasi sifatida jinoyatning ochilishini taqozo qiladi.

Ilmiy muammoning axborot yig'ish vazifasi kuzatish, eksperiment, o'lchash va taqqoslash, natijalarni umumlashtiradi va muammo qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Axborot yig'ish jarayonida muammo haqidagi axborotlar markazlashtiriladi, natijada turli xil qonuniyatlar o'rtasidagi ichki bog'lanish aniqlashadi.

Ilmiy muammoning axborot yig'ish vazifasi bilimlarning rivoji uchun, uni qayta ishlash, mukammallashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy muammolarni qo'yishda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar haqidagi mavjud bilimlarning yetarli emasligini, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularning boshqarish qonuniyatlarini topishni, o'zgartirish sabablari va mohiyatini aniqlashni bilish zarurdir.

Axborot - inson tomonidan egallangan barcha bilimlarning majmuasi bo'lmasdan, balki muayyan muammoning mohiyatini aniqlash uchun xizmat qiladigan ma'lum bir qismi bo'lib, nazariya va empirik qonunlardan olinadi va muammo bilan bog'liq hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etadi hamda muammoni echimiga yo'naltiradi.

Ilmiy muammoning izohlash vazifasi ham eski bilimlar tizimidan yangisiga o'tishning mohiyati va sabablarini, qonuniyatlari, nazariya, gipoteza va dalillarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, izohlash ilmiy bilimlarning rivojiga, hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga va oldindan aytib berish (bashorat qilishga)ga xizmat qiladi.

Izohlash orqali ilmiy muammolarda hodisaning mohiyati, tar- kibini, sabablarini aniqlash kabi ilmiy tadqiqotning aniq vazifalarini echishga erishish mumkin.

maqsad qilib qo‘yadi. Safsatabozlik, shuhratparastlikka «qarindosh» bo‘lib, siyosiy elita namoyandalari tomonidan turli va’dalar bilan odamlarning o‘rtasida soxta obro‘ qozonishda namoyon bo‘ladi. Demak, munozara fikrlar rivojining alohida shakli sifatida muayyan bir mantiqiy qoidalarga amal qilishni taqozo qilar ekan. Ularning buzilishi esa yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, demagogiya, ya’ni safsatabozlikning turli ko‘rinishlariga olib kelishi muqarrar.

Isbotlash va raddiyaning qoidalari hamda xatoliklarini bilish hamda ulardan HMQ xodimlarining amaliy faoliyatida to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan munozara mantiqiy amal sifatida insonning bilimlari rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

5. Muammo. Muammo (*yunoncha «problema» - «vazifa», «topshiriq»*) - bilimlar rivojining muayyan bosqichida mantiqan kelib chiqadigan, o‘rganilishi hamda yechimiga ega bo‘lishi zarur vazifadir.

Muammo *- tafakkurning muayyan bir shakli bo‘lib, ilmiy fakt, g‘oya, nazariya va qonunlarning ziddiyatidan kelib chiqadigan, noaniq va to‘liq bo‘lmagan bilimlardan aniq va to‘liq bilimlarga o‘tish uslubi sifatida empirik va nazariy bilimlar rivojining mantiqiy davomiyligini ifodalaydi.*

Muammo ko‘p holatlarda savol bilan tenglashtiriladi, ammo muammo nafaqat savolni balki savollar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shu sababli ulardan ayrim savollarning yechimi muammoni hal etilishiga olib kelmaydi.

Muammoni masaladan ham farqlash lozim. Har qanday masala tadqiqot uchun asos bo‘la olmaydi. Amaliyotda masalaning yechimi ma’lum bir tizimning ziddiyasizligini isbotlash maqsadida kuzatish va eksperimentdan oldin muhokama uchun qo‘yilishi mumkin. Masala ilmiy muammoning shakllanishi uchun asos, manba bo‘lib xizmat qiladi. Demak, *savol hamda masala bilish va amaliyot jarayonida ilmiy muammo uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.* Muammo ilmiy tadqiqotning yo‘nalishini belgilab beradigan uslubiy yo‘nalish sifatida amal qiladi. Ilmiy muammo bilim rivojlanishining muayyan shakli sifatida, birinchidan, empirik va nazariy bilimlarning chuqurligi va to‘liqligi darajasidagi farqni ko‘rsatuvchi mantiqiy bilim bo‘lsa, ikkinchidan, yangi va eski bilim o‘rtasidagi dialektik ziddiyatni ifodalash shaklidir.

Ilmiy muammoning tabiati va vazifasi dialektik mantiq doirasida to‘g‘ri tushunilishi mumkin. Chunki u o‘z tabiatiga ko‘ra, tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining umumiy obyektiv qonuniyatlarini ochib beradi. Obyektiv olamni bilish jarayonida hodisa va jarayonlarning o‘rtasidagi sababiy aloqalar aniqlanib, ilmiy muammolar qo‘yilishi uchun obyektiv imkoniyatlar yaratiladi.

Ilmiy muammoning quyidagi vazifalari mavjud: *bayon etish; axborot yig'ish; izohlash; bashorat qilish.*

Ilmiy muammoning bayon etishning vazifasi - tajriba, o'lchash taqqoslash va yetarli faktlarni to'plash asosida tadqiqotning moddiy obyektini aniqlashdan, to'plangan dalillarni umumlashtirishdan va tizimlashtirishdan iboratdir. Yangi fakt, gipoteza hamda nazariyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni talqin etadi. Muammoning bayon etish vazifasi asosan to'plangan bilimlarni bir butun tizimga yig'adi va umumlashtiradi. Olingan natijalar muammoning tabiatini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bayon etish vazifasi, jumladan, sud-tergov amaliyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qoldirilgan izlar, dalillar hamda guvohlar asosida yuz bergan hodisani qayta tiklash uchun xizmat qiladi. Bayon etish darajasining mukammal bo'lishiga erishish o'z navbatida dalillarining to'g'ri, muayyan tartibda umumlashtirilishini va uning natijasi sifatida jinoyatning ochilishini taqozo qiladi.

Ilmiy muammoning axborot yig'ish vazifasi kuzatish, eksperiment, o'lchash va taqqoslash, natijalarni umumlashtiradi va muammo qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Axborot yig'ish jarayonida muammo haqidagi axborotlar markazlashtiriladi, natijada turli xil qonuniyatlar o'rtasidagi ichki bog'lanish aniqlashadi.

Ilmiy muammoning axborot yig'ish vazifasi bilimlarning rivoji uchun, uni qayta ishlash, mukammallashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy muammolarni qo'yishda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar haqidagi mavjud bilimlarning yetarli emasligini, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularning boshqarish qonuniyatlarini topishni, o'zgartirish sabablari va mohiyatini aniqlashni bilish zarurdir.

Axborot - inson tomonidan egallangan barcha bilimlarning majmuasi bo'lmasdan, balki muayyan muammoning mohiyatini aniqlash uchun xizmat qiladigan ma'lum bir qismi bo'lib, nazariya va empirik qonunlardan olinadi va muammo bilan bog'liq hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etadi hamda muammoni echimiga yo'naltiradi.

Ilmiy muammoning izohlash vazifasi ham eski bilimlar tizimidan yangisiga o'tishning mohiyati va sabablarini, qonuniyatlari, nazariya, gipoteza va dalillarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, izohlash ilmiy bilimlarning rivojiga, hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga va oldindan aytib berish (bashorat qilishga)ga xizmat qiladi.

Izohlash orqali ilmiy muammolarda hodisaning mohiyati, tar- kibini, sabablarini aniqlash kabi ilmiy tadqiqotning aniq vazifalarini echishga erishish mumkin.

Muammoning izohlash vazifasi tadqiqotning boshqa vazifalari uchun ham zamin yaratadi. U bir tomondan bayon etish, ikkinchi tomondan bashorat etish bilan bog'langan. Izohlash tajriba va nazariy izlanishlarning o'rtasidagi o'tish bosqichidir.

Bizni o'rab turgan hodisalar dunyosi murakkab, o'zaro ichki bog'langan tizim bo'lib, bu tizim bevosita kuzatish mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan jarayonlardan iborat. SHuning uchun ha ularning o'rtasidagi qonuniy zaruriy bog'lanishlarni aniqlash tadqiqotchi oldiga hodisalarning kelajagi haqida axborot olish, ya'ni bashorat qilish vazifasini qo'yadi.

Bashorat qilish - ilmiy bilishning asosiy vazifalaridan biridir. Ilmiy muammo nafaqat bayon etish, axborot yig'ish, izohlash vazifalarini, balki hodisalarning yo'nalishini bashorat etish vazifasini ham bajaradi.

Bashorat qilishda mavjud ma'lum nazariya va qonuniyatlar ularning zaruriy bog'lanishlari va munosabatlari asosida bu nazariya va qonuniyatlar doirasida aniqlangan noma'lum bilimlar haqidagi farazlar o'rtaga tashlanadi.

Bashoratning ishonchliligi tadqiqotning rivojlanish qonunlari haqidagi bilim darajasiga, hodisalar rivojining dialektik mantiqiy yondashuviga bog'liqdir. Bashoratlash realdir, chunki kelajak, hozirgi jarayonlarda va o'tmish qonuniyatlarida o'z ildizlariga ega.

Ilmiy muammoning yuqorida qisqacha tahlil etilgan vazifalari uning tabiatini quyidagicha tavsiflashga asos bo'la oladi:

birinchidan, ilmiy bilish va amaliy faoliyat keyingi taraqqiyot uchun asosiy uslub bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, ular o'zaro bog'liq bo'lib, tadqiqotchining ko'zlagan natijalarini olishga xizmat qiladi;

uchinchidan, tadqiq etilayotgan hodisalar rivojlanish qonuniyatlari va yangi nazariyalarning ochilishiga xizmat qiladi.

6. Savol - muammoning ifoda qilinish shakli. Muammoni hal etishda to'g'ri qo'yilgan savol muammoning yarmidan ko'proq yechimini tashkil etadi. Savol muammoning ifodalanish shakli bo'lib, u mavjud masala haqida axborot olish va har bir tadqiqotchining shaxsiy fikrini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Har bir savolning kelib chiqishi va qo'yilishiga mavjud bilimlarning yetarli emasligi, qo'shimcha bilim va axborotlarga bo'lgan ehtiyoj asos bo'ladi. Demak, savol - bilim yoki asos axborot yetarli bo'lmaganda, javob tarzida qo'shimcha shaklidagi yangi axborot olishning mantiqiy shaklidir.

Odatda savol ikki turga bo'linadi:

1.Aniqlovchi (muayyan, bevosita yoki «mi» - savollar).

Masalan, «Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga egami?», «Toshkent shahrida haqiqadan ham uch million aholi bormi?» «Tibbiyot Akademiyasida mantiq fani o‘qitiladimi?»

Barcha savollarda «mi» - aniqlovchi qo‘shimchasi mavjud.

Aniqlovchi savollar oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin. Oddiy savollar esa o‘z navbatida shartli va shartsiz turlarga bo‘linadi. Masalan, «Haqiqatdan ham, koinotga birinchi bo‘lib Yu. Gagarin uchganmi?» - oddiy shartsiz savol yoki «Agar tinglovchi a’lo baholarga o‘qisa, yuqori unvon bilan taqdirlanadimi?» oddiy shartli savol.

Murakkab savollar murakkab hukmlar singari konyunktiv (birashtiruvchi) va dizyunktiv ayiruvchi hamda aralash (birlashtiruvchi-ayiruvchi) savollarga ham bo‘linadi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida so‘z va vijdon erkinligi singari demokratik tamoyillar mavjudmi?» yoki «Jinoyat ehtiyotsizlikdan yoki qasddan sodir etilganmi?» va hokazo.

2. To‘ldiruvchi savollar. To‘ldiruvchi savollarning tarkibi «qachon?», «qayerda?», qanday?», «nega?», «nima?», «qaysi?» kabi so‘roq olmoshlaridan iborat bo‘ladi.

To‘ldiruvchi savollar ham o‘z navbatida oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi.

Oddiy to‘ldiruvchi savollar bir buyum yoki hodisaga oid axborotni olish uchun beriladi. Masalan, «O‘zbekiston BMTga qachon a’zo bo‘ldi?» va hokazo.

Murakkab to‘ldiruvchi savollar bir nechta oddiy to‘ldiruvchi savollardan iborat bo‘ladi. Masalan, «Kim, qachon va qayerda birinchi bo‘lib koinotga parvoz qilgan?» va hokazo.

Oddiy va murakkab savollarni qo‘yish qoidalari quyidagicha:

- qo‘yilayotgan savol aniq bo‘lishi kerak;
- aniqlovchi savollarga «ha» yoki «yo‘q» shaklidagi muqobil javob olinishi kerak;
- savol qisqa va ravshan shaklda ifodalanmog‘i kerak;
- savol oddiy qo‘yilishi kerak;
- murakkab ayiruvchi savollarda barcha tomonlarning muqobil ravishda sanab o‘tilishi;
- savolni ritorik (notiqlik) uslubda qo‘ymaslik lozim. Masalan, «Qaysi o‘zbek O‘zbekistonni sevmaydi?» - shaklida. Odatda ritorik savollarda tasdiq yoki inkor shaklidagi mazmun bo‘lib, ular savol tarzida emas, balki hukm shaklida ifodalanadi.

Javoblar ham savollar tabiatiga qarab shakllanadi. Jumladan, oddiy savollarga javob ham oddiy bo'lib, «ha» yoki «yo'q» shaklida bo'ladi. Masalan, «Tergovchi huquqshunosmi?» - «ha» - shaklida.

Oddiy to'ldiruvchi savollarning javoblari aniq va puxta ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim. Masalan, «Tibbiyot Akademiyasi qachon va qaysi farmon bilan tashkil etilgan?» degan savolga «Tibbiyot Akademiyasi 1998-yil 1-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tashkil etilgan», degan to'liq javob shaklida bo'ladi.

Murakkab to'ldiruvchi savollarga javob uning tarkibidagi barcha oddiy savollarga javob tarzida bo'ladi. Masalan, dizyunktiv to'ldiruvchi murakkab savolga: «Haqiqatdan ham jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganmi?» degan savolga javob ham «Jinoyat qasddan sodir etilgan» yoki «Jinoyat ehtiyotsizlikdan sodir etilgan» - shaklida bo'ladi.

7. Faraz (gipoteza) va uning turlari. Tusmol. Mantiqiy tadqiqotning asosiy maqsadi empirik izlanishlar natijasida olingan faktlarning mohiyatini tahlil etish, muayyan bir tizimga solish, bashorat qilish tufayli ma'lum bir tamoyil va qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.

Faraz (gipoteza) - tabiat, jamiyat va insonning tafakkurida yuz beradigan narsa va hodisalarning umumiy aloqadorlik sabablari va qonuniyatlari haqidagi ilmiy asoslangan taxminiy, ehtimoliy bilimlarning rivojlanish shaklidir.

Faraz - ***(yunon. «hypothesis» - «asos», «taxmin»)*** uslubiy jihatdan ikki xil ma'noda ishlatiladi, ya'ni yetarlicha asoslanmaganlikni tasniflovchi bilimning rivojlanish shakli sifatida, muammolilik va muayyan bir taxminni izohlovchi tamoyil, nazariya va qonunlarni shakllantiruvchi uslub sifatida.

Farazning shakllanishi va ilmiy tekshirishda qo'llanilish jarayoni bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda, nazariy izohga muhtoj empirik ma'lumotlar bilan tanishiladi. Bu ma'lumotlarni ilmiy qonun va nazariyalar asosida izohlashga harakat qilinadi. Agar mavjud qonun va nazariyalar hodisaning mohiyatini izohlab bera olmasa, *ikkinchi bosqichga o'tiladi*, ya'ni hodisaning yuz berish sabab va qonuniyatlari haqida taxmin va farazlar oldinga suriladi. Bu yerda olim mantiqiy tafakkurning induktiv analogiya bo'yicha xulosalash va modellashtirish singari uslublaridan foydalanadi. Bu bosqichda bir-biriga zid bir nechta taxminiy izohlar bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqichda, bir nechta taxmin va farazlarning ichidan haqiqatga ehtimoliy yaqinlari tanlab olinadi. Bu bosqichda gipoteza

(faraz)ning mantiqiy ziddiyatsizligi fanning fundamental qoidalariga zid kelmasligi tahlil etiladi.

To'rtinchi bosqichda, asosiy faraz amaliy tajribada tekshirish mumkin bo'lgan deduktiv xulosaning natijasidan olinadi va gipoteza tekshirilib, unga aniqliklar kiritiladi. *Beshinchi bosqichda,* muayyan nazariyadan keltirib chiqarilgan natija eksperimental jihatdan tekshiriladi. Faraz empirik jihatdan tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Farazning umumiy tarkibidan ko'rinib turibdiki, u murakkab bilish uslubi bo'lib, unda mantiqning deduktiv, induktiv hamda analogik xulosalash usullaridan keng foydalaniladi. Faraz tarkibining tahlili quyidagi muhim belgilarni ko'rsatib beradi:

1.Farazning birinchi muhim belgisi - bu uning mantiqiy bilish uslubi ekanligidir. Bu belgi inson bilimlarining doimiy uzluksiz ravishda noaniqlikdan aniqlikka borishini, hodisalarning sababiy bog'lanishlari va qonuniyatlarini uzluksiz o'rganish bilan bog'liqdir. Haqiqatdan ham tabiat, jamiyat va inson tafakkurining sabablari va qonuniyatlarini bilish farazdan boshlanadi.

2.Farazning ikkinchi belgisi - bu uning taxminiy muammolik bo'lishidir. Farazdagi taxminiy fikrlar mantiqiy xulosaning usullari orqali aniqlanishi, ma'lum darajada obyektiv haqiqatga asoslanishi lozim.

3.Farazning uchinchi belgisi - bu uning yangi bilimlarni keltirib chiqarishidir. Farazning chinligini dalillash jarayonida bizga noma'lum bo'lgan yangi bilimlar kelib chiqishi mumkin. Farazning bunday ijodiy ko'rinishi ilmiy tadqiqot jarayonida yangi tamoyil, nazariya va qonunlarni keltirib chiqaradi.

Faraz tadqiqot obyektiga ko'ra umumiy va xususiy turlarga bo'linadi.

Umumiy faraz deb, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining qonuniyatlari va sabablari haqida ilmiy asoslangan farazga aytiladi. *Umumiy faraz tadqiq* etilayotgan hodisalarning butun bir sinfi bilan umumiy aloqadorligi va qonuniy tabiatini tushuntirish maqsadida qo'llaniladi. Umumiy farazga fan tarixidan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Demokritning «Narsalarning atomistik tuzilishi» haqidagi farazi keyinchalik gipoteza shaklida o'rganilib, isbotlangan nazariyaga aylandi.

Juz'iy faraz deb muayyan sinf turining aniq ayrim va yakka hodisalarining sababiy va qonuniy bog'lanishlari haqidagi ilmiy asoslangan faraziga aytiladi. Juz'iy faraz muayyan ko'plikning ayrim qismlari qonuniyatlarining paydo bo'lish sabablarini o'rganish uchun

Javoblar ham savollar tabiatiga qarab shakllanadi. Jumladan, oddiy savollarga javob ham oddiy bo‘lib, «ha» yoki «yo‘q» shaklida bo‘ladi. Masalan, «Tergovchi huquqshunosmi?» - «ha» - shaklida.

Oddiy to‘ldiruvchi savollarning javoblari aniq va puxta ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim. Masalan, «Tibbiyot Akademiyasi qachon va qaysi farmon bilan tashkil etilgan?» degan savolga «Tibbiyot Akademiyasi 1998-yil 1-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tashkil etilgan», degan to‘liq javob shaklida bo‘ladi.

Murakkab to‘ldiruvchi savollarga javob uning tarkibidagi barcha oddiy savollarga javob tarzida bo‘ladi. Masalan, dizyunktiv to‘ldiruvchi murakkab savolga: «Haqiqatdan ham jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganmi?» degan savolga javob ham «Jinoyat qasddan sodir etilgan» yoki «Jinoyat ehtiyotsizlikdan sodir etilgan» - shaklida bo‘ladi.

7. Faraz (gipoteza) va uning turlari. Tusmol. Mantiqiy tadqiqotning asosiy maqsadi empirik izlanishlar natijasida olingan faktlarning mohiyatini tahlil etish, muayyan bir tizimga solish, bashorat qilish tufayli ma’lum bir tamoyil va qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.

Faraz (gipoteza) - tabiat, jamiyat va insonning tafakkurida yuz beradigan narsa va hodisalarning umumiy aloqadorlik sabablari va qonuniyatlari haqidagi ilmiy asoslangan taxminiy, ehtimoliy bilimlarning rivojlanish shaklidir.

Faraz - ***(yunon. «hypothesis» - «asos», «taxmin»)*** uslubiy jihatdan ikki xil ma’noda ishlatiladi, ya’ni yetarlicha asoslanmaganlikni tasniflovchi bilimning rivojlanish shakli sifatida, muammolilik va muayyan bir taxminni izohlovchi tamoyil, nazariya va qonunlarni shakllantiruvchi uslub sifatida.

Farazning shakllanishi va ilmiy tekshirishda qo‘llanilish jarayoni bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda, nazariy izohga muhtoj empirik ma’lumotlar bilan tanishiladi. Bu ma’lumotlarni ilmiy qonun va nazariyalar asosida izohlashga harakat qilinadi. Agar mavjud qonun va nazariyalar hodisaning mohiyatini izohlab bera olmasa, *ikkinchi bosqichga o‘tiladi*, ya’ni hodisaning yuz berish sabab va qonuniyatlari haqida taxmin va farazlar oldinga suriladi. Bu yerda olim mantiqiy tafakkurning induktiv analogiya bo‘yicha xulosalash va modellashtirish singari uslublaridan foydalanadi. Bu bosqichda bir-biriga zid bir nechta taxminiy izohlar bo‘lishi mumkin.

Uchinchi bosqichda, bir nechta taxmin va farazlarning ichidan haqiqatga ehtimoliy yaqinlari tanlab olinadi. Bu bosqichda gipoteza

(faraz)ning mantiqiy ziddiyatsizligi fanning fundamental qoidalariga zid kelmasligi tahlil etiladi.

To'rtinchi bosqichda, asosiy faraz amaliy tajribada tekshirish mumkin bo'lgan deduktiv xulosaning natijasidan olinadi va gipoteza tekshirilib, unga aniqliklar kiritiladi. *Beshinchi bosqichda,* muayyan nazariyadan keltirib chiqarilgan natija eksperimental jihatdan tekshiriladi. Faraz empirik jihatdan tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Farazning umumiy tarkibidan ko'rinib turibdiki, u murakkab bilish uslubi bo'lib, unda mantiqning deduktiv, induktiv hamda analogik xulosalash usullaridan keng foydalaniladi. Faraz tarkibining tahlili quyidagi muhim belgilarni ko'rsatib beradi:

1.Farazning birinchi muhim belgisi - bu uning mantiqiy bilish uslubi ekanligidir. Bu belgi inson bilimlarining doimiy uzluksiz ravishda noaniqlikdan aniqlikka borishini, hodisalarning sababiy bog'lanishlari va qonuniyatlarini uzluksiz o'rganish bilan bog'liqdir. Haqiqatdan ham tabiat, jamiyat va inson tafakkurining sabablari va qonuniyatlarini bilish farazdan boshlanadi.

2.Farazning ikkinchi belgisi - bu uning taxminiy muammolik bo'lishidir. Farazdagi taxminiy fikrlar mantiqiy xulosaning usullari orqali aniqlanishi, ma'lum darajada obyektiv haqiqatga asoslanishi lozim.

3.Farazning uchinchi belgisi - bu uning yangi bilimlarni keltirib chiqarishidir. Farazning chinligini dalillash jarayonida bizga noma'lum bo'lgan yangi bilimlar kelib chiqishi mumkin. Farazning bunday ijodiy ko'rinishi ilmiy tadqiqot jarayonida yangi tamoyil, nazariya va qonunlarni keltirib chiqaradi.

Faraz tadqiqot obyektiga ko'ra umumiy va xususiy turlarga bo'linadi.

Umumiy faraz deb, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining qonuniyatlari va sabablari haqida ilmiy asoslangan farazga aytiladi. *Umumiy faraz tadqiq* etilayotgan hodisalarning butun bir sinfi bilan umumiy aloqadorligi va qonuniy tabiatini tushuntirish maqsadida qo'llaniladi. Umumiy farazga fan tarixidan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Demokritning «Narsalarning atomistik tuzilishi» haqidagi farazi keyinchalik gipoteza shaklida o'rganilib, isbotlangan nazariyaga aylandi.

Juz'iy faraz deb muayyan sinf turining aniq ayrim va yakka hodisalarining sababiy va qonuniy bog'lanishlari haqidagi ilmiy asoslangan faraziga aytiladi. Juz'iy faraz muayyan ko'plikning ayrim qismlari qonuniyatlarining paydo bo'lish sabablarini o'rganish uchun

yaratiladi. Masalan, arxeolog qazish ishlarida ochilgan topilmaning yoshi haqida faraz tuzsa, tarixchi aniq tarixiy davrlar haqida farazlar tuzadi.

Yakka faraz - alohida olingan narsa va hodisalarning paydo bo'lish va rivojlanishi qonuniyatlarini tushuntiruvchi dalillarga asoslangan taxmindir. Tergovchi jinoyatni ochishda, sodir etilgan jinoyatning individual belgilaridan kelib chiqib, turli xil versiyalarni yoki shifokor aniq bir kasalni davolash jarayonida individual yondashuvlarga asoslangan turli taxminlarni o'rtaga tashlaydi. Masalan, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va o'ziga xos bozor iqtisodiyotiga ega bo'lishi, iqtisodiy rivojlanishning turli ehtimoliy taxminga asoslangan yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Umumiy, xususiy va yakka farazlarni isbotlash jarayonida ishchi farazlar ham tuziladi. Ishchi faraz - bu tadqiqotning boshlang'ich bosqichida tuzilib, undan kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlash, muayyan bir tizimga solish, guruhlashtirish va bayon etishda foydalaniladi. Ishchi farazda yangi faktlar, aloqalar oydinlashib, yangi ehtimoliy bilimlar paydo bo'ladi.

Sud-tergov amaliyotida alohida faktlarni yoki jinoiy hodisalarni izohlashda turli farazlar oldinga suriladi. Bunday farazlar «versiya» (***lot. «versio» - «o'zgartirish», «turlantirish»)*** yoki o'zbekcha «**tusmol**» deb ataladi. Tusmol sud-tergov amaliyotida qo'llaniladigan jinoyatchilikning ayrim xususiyatlari va umuman jinoyatchilikning mohiyati va kelib chiqishini izohlovchi faraz shaklidir. Sud oldida turgan jinoyat hodisasini va jinoyatni sodir etgan jinoyatchini aniqlash vazifasini isbotlashda yuz bergan hodisa haqida umumiy tusmolni oldinga surishni taqozo qiladi. Bu tusmol hodisaning barcha muhim jihatlarini umumlashtirib, kim sodir etgan, qachon, qayerda, qanday usulda sodir etilgan, jinoyatning maqsadi, motivi, jinoyatchining aybi kabi bir nechta savollarga javob berishi lozim.

8. Nazariya va uning tarkibiy qismlari. Oldingi mavzularning tahlillaridan eski nazariy bilim, tasavvur hamda yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatlar muammoning vujudga kelishi va uni hal etish uchun turli farazlarning oldinga surilishiga sabab bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Nazariya mantiqiy tafakkurning muammo va gipotezadan keyingi, ularning hal etilish va baholash mezoni bo'lib, umumlashgan, ishonchli bilimlar majmuasidan iborat bo'lgan, o'z tushuncha hamda qoida va qonunlaridan tashkil topgan bir butun tizimdir.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1) empirik asos - nazariyaga aloqador faktlar va hokazo;

2) boshlang'ich nazariy asos - nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlari (aksiomalari), qonunlari, prinsiplari;

3) nazariyaning mantiqiy apparati: tushunchalarni hosil qilish va ta'riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari;

4)olingan natijalar (xulosalar).

Olim ilmiy muammoni nafaqat oldinga suradi, balki yangi nazariyani tashkil etuvchi o'ziga xos bilimlar tizimini ishlab chiqadi. Shuning uchun ham mantiqiy tafakkurning shakllari: muammo, gipoteza va nazariyalarning o'rtasida dialektik birlik hosil bo'ladi.

Nazariyani yaratish jarayoni empirik dalillarni to'plash va umumlashtirishdan iborat bo'lmay, balki yangi dalillar va eski nazariyalarning o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashdan iboratdir.

Ilmiy nazariya mantiqiy jihatdan mukammallikni ifodalovchi, tizimlashtirilgan va tarkiblashtirilgan bilimdir. Ilmiy nazariyaning bilimlar tizimi sifatida uning tarkibidagi asosiy tamoyil mavjudlik shartini ajratishni tashkil etadi.

Ilmiy nazariyaning asosiy tamoyili bo'lib, ilmiy tamoyil darajasiga olib chiqilgan va umumlashtirilgan asosiy qonuniyati namoyon bo'ladi.

Demak, *tamoyil - ilmiy dalil, tushuncha, muammo, faraz va muayyan ilmiy nazariyani o'zaro bog'laydigan va muayyan yo'nalishga soladigan mantiqiy-ilmiy tafakkur shaklidir.* Tamoyil ilmiy nazariyaning asosini tashkil etadi. Chunonchi, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish nazariyasining asosida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan oldinga surilgan quyidagi tamoyillar yotadi:

- erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish;
- so'z erkinligi, vijdon erkinligi, matbuot erkinligi;
- qonun ustuvorligini ta'minlash va hokazo.

Ilmiy nazariyaning tarkibida muhim o'rinni tamoyillar bilan birgalikda qonunlar egallaydi. Qonun mantiqiy tafakkurda muhim, zaruriy, barqaror aloqadorlikni ifodalab, hodisaning yo'nalishini belgilab beradi. Qonunsiz nazariya muayyan maqomga ega bo'lmaydi. Qonun ilmiy nazariyada elementlar o'rtasidagi umumiy aloqadorlikni tartibga soluvchi rolini o'ynaydi. Ilmiy nazariyada barcha qonunlar o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, bir butunlikni tashkil etadi.

Shuning uchun ham muayyan bir qonunning qisman o'zgarishi butun bir tizimning o'zgarishiga olib keladi. Ilmiy nazariyaning asosini tashkil etuvchi qonunlar nazariya tamoyilining mazmunini izohlaydi hamda rivojlantiradi.

Nazariya tarkibiga tamoyillar va qonunlardan tashqari, uning muhim, zaruriy belgilarini ifodalovchi tushunchalar ham kiradi. Fandagi har bir nazariyaning asosiy maqsadi - mazkur sohaga oid ilmiy tushunchalarni

shakllantirishdan iborat. Masalan, «Fuqarolik jamiyati», «Huquqiy davlat» tushunchalariga oid nazariyalar.

Ilmiy nazariya tarkibida muayyan qoida va dalillar ham mavjud bo'lib, ular nazariyaning poydevorini tashkil etadi. Ayrim qoidalar isbotsiz qabul qilingan aksiomalar tarzida bo'ladi. Ilmiy nazariyalar yaratishning asosiy sabablaridan biri uning muayyan vazifalarni bajarishidir. Nazariya ham muammo singari izohlash, bayon etish, bashorat qilish kabi metodologik vazifalarni bajaradi.

Muammo savollar yordamida mavjud nazariyalar doirasida yoki ularning modifikatsiyalari asosida muhokama qilinadi va yechiladi. Savolni yechish odatda gipotezalarni ilgari surishdan boshlanadi. *Gipoteza (faraz)ning sud-tergov, jinoyatlarni ochish jarayonida qo'llaniladigan alohida turi tusmol sodir etilgan jinoyatning aniq dalillari yig'indisiga asoslanadi.* Umumiy tusmolni tekshirish jinoiy hodisaning yakka jihatlarini, faktlarini keng tahlil qilish asosida olib boriladi. Jinoiy hodisaning har bir tomoni haqida, juz'iy hamda yakka tusmollar oldinga suriladi. Juz'iy va yakka tusmollar yordamida olingan axborotlar umumiy tusmolni aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nazariyaning pirovard maqsadi - amaliyotga xizmat qilishdir. Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi uning hayotiyligini oshiradi va bilimlarimiz haqiqiyligining mezoni bo'ladi. Ilmiy tafakkurdagi mantiqiy shakllarning gnoseologik tahlilidan ko'rinib turibdiki, ular o'zaro aloqadorlikda bo'lib, ilmiy bilimlar rivojining tabiatini tushunishga yordam beradi.

Qisqacha xulosalar

1. Mantiq to'g'ri tafakkur qonunlarini o'rganuvchi,o'zining predmeti,obyekti,subyekti va tushuntirish apparatiga ega bo'lgan fandir.

2. Tushunchaning inson hayoti faoliyatidagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati haqida muayyan tasavvur hosil qildik deyishga asosimiz bor. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, ular ustida bajariladigan mantiqiy amallar va ularni to'g'ri bajarishning qonun qoidalarini har taraflama bilish kasb-hunar xodimlarining amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

3.Hukm turlari, sodda va murakkab hukmlar, sodda hukmlarda atamalarning taqsimlangan yoki taqsimlanmaganligini bilish, tafakkur shaklining yuqori shakli xulosada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday xulosa hukmlardan kelib chiqadi.

4. Xulosa to'g'ri tafakkur qilishning eng yuqori shakli bo'lib, o'zining murakkab tuzilishiga ega. Deduktiv xulosa chiqarishning bevosita va bilvosita turlari, ularning qoidalari mantiqiy usullari to'g'ri fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Ilmiy ijod va

amaliy faoliyatda ko‘p qo‘llaniladigan xulosa shakllaridan biri deduktiv xulosa chiqarish bo‘lib, uning bevosita va bilvosita turlari, ularning qoidalari, mantiqiy usullari to‘g‘ri fikr yuritish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shartli ayiruvchi hukmlarning ahamiyati muammoni hal qilishning bir nechta usullari mavjudligi hamda ularning har biri turli natijalari keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlab berishda juda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Yuqorida qayd qilingan masalalar faqat formal mantiqning muammolari bo‘lib, shuningdek, boshqa barcha fanlar nazariyasi va amaliyotida ham o‘zining beqiyos ahamiyatiga ega.

5. Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi. Ishonch-e’tiqod bu kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega e’tiqodni yaratishdan iborat. Yuqorida tahlil etilgan isbot, raddiya va uning tarkibi, raddiya usullari nafaqat yakka tartibda, balki birgalikda bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi. Amaliy faoliyatda raddiya va uning tarkibi, raddiya usullarini har taraflama chuqur bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalar

Tushuncha tafakkur shakli, tushunchaning hajmi, tushunchaning mazmuni, tushunchaning hajmiga ko‘ra turlari, tushunchaning mazmuniga ko‘ra turlari, tushunchalarni shakllantirish usullari, taqqoslash, analiz, sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish, tushunchalarni chegaralash va umumlashtirishning mantiqiy amali, tushunchalarni bo‘lish, dixtomik bo‘lish, tushunchalarni klassifikatsiyalash, tushunchalarni ta’riflash, real tarif, nominal ta’rif, genetik ta’rif.

Tafakkur shakllari, hukm tafakkur shakli sifatida, sodda hukmlar va ularning turlari, atributiv, munosabat, mavjudlik hukmlari, umumtasdiq, umuminkor, juz’iy tasdiq, juz’iy inkor hukmlari, sodda hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar, mantiqiy kvadrat, murakkab hukmlar va ularning turlari, birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent hukmlar, taqsimlangan va taqsimlanmagan atamalar, hukm modalligi, hukm moduslari, formal mantiq qonun va qoidalari hamda hukmga oid bilimlarni va tafakkur qonunlarini har taraflama chuqur bilishning HMQO xodimlari amaliy faoliyatidagi o‘rni.

Xulosa chiqarish tafakkur shakli, xulosa chiqarishning turlari: deduktiv, induktiv, analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish va uning turlari, bevosita va bilvosita xulosa chiqarish, bevosita xulosa chiqarish va uning turlari, sillogizm bilvosita xulosa chiqarish turi

sifatida, murakkab hukmlardan xulosa chiqarish, sillogizm figura va moduslari, entimema, polisillogizm, sorit, induktiv xulosa chiqarish va uning turlari, analogiya bo'yicha xulosa chiqarish, xulosa amaliy faoliyatidagi o'rni.

Nazorat va muhokama uchun savol va topshiriqlar

1. Tushuncha deb nimaga aytiladi?
2. Tushunchaning muhim va nomuhim belgilari qanday?
3. Tushunchaning hajmi deb nimaga aytiladi?
4. Tushunchaning mazmuni deb nimaga aytiladi?
5. Tushunchaning hajmiga ko'ra turlarini aniqlang.
6. Tushunchaning mazmuni ko'ra turlarini aniqlang.
7. Tushunchalarni shakllantirish usullarini sanab bering.
8. Tushunchalar ustida qanday mantiqiy amallar bajariladi?
9. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish mantiqiy amalini izohlab bering.
10. Dixtomik bo'lish deb qanday bo'lishga aytiladi?
11. Tushunchalarni klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
12. Tushunchalarni ta'riflash deb nimaga aytiladi ?
13. Real, nominal va genetik tariflarni farqlang va misollar keltiring.
14. Hukm deb nimaga aytiladi?
15. Har qanday gap hukm bo'la oladimi? 16. Hukm va gap to'g'risida so'zlab bering.
17. Sodda hukm deb qanday hukmga aytiladi?
18. Murakkab hukm deb qanday hukmga aytiladi?
19. Murakkab hukmlar qanday turlarga bo'linadi?
20. Hukmlar o'rtasida qanday munosabatlar mavjud?
21. Hukm modalligi deganda nimani tushunasiz?
22. Hukm modusi deganda nimani tushunasiz?
23. Tafakkur qonunlarini sanab bering.
24. Xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi?
25. Deduktiv xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi?
26. Deduktiv xulosa chiqarishning qanday turlari mavjud?
27. Sillogizm deb nimaga aytiladi?
28. Entimema nima?
29. Isbotlash deb nimaga aytiladi?
30. Raddiya deb nimaga aytamiz va uning qanday usullari mavjud?
31. Farazning qanday turlari bor?
32. Tusmolni tuzish bosqichlarini sanab bering.
33. Paralogizm, sofizm va paradoks nima?

VBOB. JAMIYAT VA INSON FALSAFASI.

1-§. Inson falsafasi

1. Falsafiy antropologiya tushunchasi. Insonni o‘rganishga bag‘ishlangan falsafa bo‘limi antropologiya[76] falsafasi deb ataladi. U inson bilan bog‘liq ilmiy antropologiya yoki maxsus fanlar kompleksidan tubdan farq qiladi. Barcha fanlar insonning bir ma’lum tomonlarini o‘rganadi. Masalan, psixologiya insonning ichki dunyosi, ongini o‘rganadi. Tibbiyot kasallik sababalari va ularni davolashni o‘rganadi. Nitrofiziologiya odam va hayvonning asab tizimi funksiyalarini o‘rganadi. shunday qilib, insonni o‘rganishga bag‘ishlangan juda ko‘p va har xil ilmiy fanlar mavjud bo‘lib,ulardan farqli o‘laroq falsafiy antropologiya falsafiy dunyoqarashlik ahamiyatiga ega bo‘lgan holda insonning eng umumiy tomonlarini o‘rganadi,ya’ni, keng qamrovli antropologik muammolarni tadqiq qiladi. Ma’lumki, deyarlik barcha fanlar uzoq vaqt davomida insonning yashirin kuchlari yoki o‘limidan keyingi hayot muammolarini o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullangan emas edilar. Hozirgi kunda esa insonning bioijtimoiy mavjudot sifatida o‘rganish masalalari bilan falsafa va tabiatShunoslik fanlari jiddiy shug‘ullanmoqdalar. Demak, shuni yana bir bor ta’kidlash kerakki, antropologiyaga falsafiy yondashuv o‘zining bir butunligi va tizimliligi bilan maxsus ilmiy yondoshuvlardan farq qiladi.

2. Insonning mohiyati muammosi. «Inson»[77] so‘zi eng ko‘p tarqalgan kundalik va ilmiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu so‘zning tagida qanday mazmun-mohiyat yashiringan? Ma’lumki, tirik mavjudotning ma’lum biologik turi bu «Hemo Sapiens» – aqlli odamdir. Uning asosiy belgi va turlari qanday? U bo‘yi o‘rtacha– 160-180 sm bo‘lgan, pastki ikki oyog‘i bilan tik yuradigan, oziqlanish usuli aralash (hayvon va o‘simlik bilan oziqlanish), ko‘payish usuli – jinsiy, miyasi to‘liq,yuqori qo‘llari yaxshi haorakatlanadigan, o‘rtacha umr uzunligi – 65-85 yosh (XX asrda), ichki organlari, nutqi va aqli rivojlangan mavjudotdir. Ammo bu belgilar, uning tabiiy va ijtimoiy tirikchiligi bilan bog‘liq tashqi ko‘rinishi bo‘lib, lekin uning mohiyatini tushunish imkoniyatini bermaydi.

Mohiyat nima? Keng ma’noda – bu faqat shu hodisa va predmetga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatdir. Ular bir-birini to‘ldirib, predmetning ichki asosini tashkil qilib, uning o‘zgarishi, o‘zaro ta’siri, rivojlanishinibelgilab beradi. Mavjudlik nima? Bu hodisa va predmetning

---

[76] ***Антропология*** *(юнонча anthropos «одам»- logos- «таълимот»)* – одамнинг келиб чиқиши,одамзот ирқларининг пайдо бўлиши,одамнинг тана тузилишидаги табиий фарқтафовут ,ўзгарувчанлик ҳақидаги фан.

[77] ***Инсон*** [арабча - одам]1. Одамзод,башар.2.Ҳар бир якка шахс;одам.

real borligi, real hayoti: u o‘zini voqelikda qanday tutishi, namoyon qilishidir.

Faylasuflar mohiyat hamma vaqt chuqur yashiringan, mavjudlik esa yuzaga joylashgan deb faraz qildilar. Ana shunda ularning qarama qarshiligina namoyon bo‘ladi. Biroq real predmet mohiyat va mavjudlikning birligidan iborat. Mohiyatni tushunish mavjudlikni o‘rganish, tushunishga yordam beradi.

Falsafa tarixida inson to‘g‘risida juda ko‘p qarashlar mavjud bo‘lib, ulardan ba’zi bir eng ma’lum va xarakterlilarini umumlashtirilgan holda keltiramiz.

- Odam – koinotning qismi, kichik koinot (mikrokosm) – qadimgi hind, xitoy, yunon falsafasi.
- Odam – bu abadiy, mutloq ruh (Atman) – qadimgi hind falsafasi (yoga, vedanta).
- Odam – barcha narsaning o‘lchovi – Qadimgi yunon sofistlari (Protagor va boshq).
- Odam – siyosiyhayvon – Aristotel.
- Odam – qiyofavaxudogao‘xshash – O‘rtaasrnasroniylik teologiya.
- Odam – fikrlovchimavjudot – R.Dekart.
- Odam – jonlantirilgan mashina – J.Lametri.
- Odam-ikkidunyogategishlimavjudot. Tabiiy zaruriyat dunyosiga va axloqiy erkinlik dunyosiga – I.Kant.
- Odam – tartibsizlik, ziddiyatlardan qo‘rqish, aql va jahl urushi. – B.Paskal.
- Odam – aqllihayvon – K.Linney.
- Odam – qurolishlabchiqaradiganhayvon – B.Franklin.
- Odam – tanlovchimavjudot – S.Krkegor.

Ma’lumki, odamgayuqoridaberilganta’riflarningko‘pqismi tor va bir tomonlamabo‘lib, odam mohiyatitomonlariningbittasiniko‘rsatadi,xolos.

Umuman insonning mohiyatiga berilgan ta’riflarni to‘rtta asosiy yondashuvga (boshqalari ham bor) ajratish mumkin.

2.1. Biologizatorlik yoki naturalistik yondashuv. Bu yondashuv tarafdorlarining fikricha, insonning mohiyati - bu uning tabiiy asosi bo‘lmish biologik jismlar va insonning tirikligini ta’minlovchi har xil organlarning xususiyatlardan iboratdir. Bunda insonning mohiyatni belgilovchi ijtimoiy va ma’naviy jihatlar qarab chiqilmasdan,faqat biologik jihatlar asos qilib olinadi. Bunday qarashlarni hind falsafasi charvak maktabining, yangi dunyo Yevropa faylasuflari J.Lamitri (mexanitsizm), T.Gobbe (mexanitsizm), L.Feerbax va boshqalarning izdoshlari yoqlab chiqdilar.

2.2. Teologik yondashuv. Bu yerda insonning mohiyati «jon» masalasiga bog'lab tushuntiriladi. U biologik jism - tanaga qarama qarshi qo'yiladi va inson mohiyatining ijtimoiy jihati bu yyerda odatdagiday qarab chiqilmaydi. Inson ruh (ilohiy asos), jon (ilohiy asosning aks ettirilishi, odamning «men»ligi, uning ongi), jismi (tabiiy asos) uyg'unligi sifatida tushuniladi.

2.3. Sotsiologizatorlik yondashuv. Bu yerda inson mohiyati ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida qaraladi. Inson mohiyatning ma'naviy jihati ijtimoiy jihatga o'xshatiladi va insonning biologik tabiatiga bog'liq holda qo'yiladi. Inson ijtimoiy munosabatlarga qo'shilgan aqlli biologik mavjudot sifatida tushuniladi va inson mohiyatining shakllanishi, rivojlanishi butunlay ularga bog'liq bo'ladi,deb hisoblanadi. Bu nuqtayi nazar nemis faylasuf – materialisti K.Marks va uning ko'p sonni izdoshlariga tegishlidir.

Bu uchta yondoshuvda boshqalar zarariga, inson mohiyatining jihatlaridan biriga (biologik, ma'naviy yoki ijtimoiy) haddan tashqari e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. shunday ekan, qayd qilingan yondashuvlar bir tomonlamadir.

Hozirgi kunda inson mohiyatining har xil jihatlarini birlashtiradigan, sotsiokosmik yondashuv eng qiziqarli bo'lib ko'rinmoqda.

2.4. Sotsiokosmik yondashuv. Bu yerda inson mohiyatining uchta jihati – ma'naviy, ijtimoiy, biologik tomonlari bor deb taxmin qilinadi. Ma'naviy yoki kosmik jihat insonning ma'naviy mohiyati bilan bog'liq. Ijtimoiy jihat madaniy ta'sir natijasida jamiyatda shakllangan inson shaxsiga bog'liq. Biologik yoki moddiy jihat insonning biologik jismi va tabiiy (tug'ma, sezgi) intilishlariga bog'liq.

Sotsiokosmik yondashuvga binoan, inson biologik jismlar, shuningdek quyi va oliy energetik jism (qobiq)lardan iborat. Oliy energetik jism inson mohiyatining ma'naviy-kosmik jihatlaridan tashkil topib, o'lmas va bir moddiy shakldan boshqasiga ko'chib yuradi.

Shunday, masalan, JonliEtika falsafiy ta'limotida odam jismi – qobig'ining quyidagi klassifikatsiyasi (tasnifi)dan foydalaniladi.

1	Oliy jism	Ruh – kosmik energiya
2	Olov jismi	Oliy aql
3	Ingichka jism	Quyi aql va sezgi asosi
4	Tig'iz jism	Biologik jism

Odamning oliy va olovli jismi uning kosmik individualligini tashkil qiladi. Ingichka va tig'iz jism dunyoviy shaxsning vaqtinchaligini ifodalaydi. Individuallik shaxs orqali izchil rivojlanadi, dunyoviy hayotdagi eng

yaxshi ma'naviy yutuqlarni o'ziga singdiradi. Inson mohiyatini bunday tushunish ezoterik buddizm, teosofiya, tirik etika falsafiy tizimi uchun xosdir.

3. Antropogenez muammosi. Antropogenez[78] – bu odamning kelib chiqishi va insonning keyingi rivojlanishi. Hozirgacha bu muammo fanda, falsafada va dinida ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. XIX va XX asrlarda ilmiy anropologiyasida odamning biologik evolyutsiyasi hukmronlik qilib, uning qaror topishiga ingliz naturalisti Ch.Darvin katta hissa qo'shdi. Ammo bu nazariya o'zining ko'p kamchilliklariga ega. Masalan, hayot shaklining takomillashishi va murakkablashishida tasodifning roli, ongning rivojlanishida biologik omilning ko'paytirilishi va boshqalar hisobga olinmaganligi shular jumlasiga kiradi.

Hozirgi madaniy makonda mavjud bo'lgan odamzodning kelib chiqishi haqidagi har xil nazariyalarni uchta: teologik, biologik evolyutsiya va kosmik evolyutsiya konsepsiyalariga ajratish mumkin.

3.1. Antropogonezning teologik konsepsiyasi. Bu konsepsiya xudo tomonidan dunyo va odamning yaratilishi – ***kreatsionizm***[79]to'g'risidagi diniy ta'limotning bir qismidir. Xudo o'zining qudratiga binoan «o'ziga o'xshash» odamni yaratadi. Bu jarayon hech qanday evolyutsiyani ko'zda tutmaydi. Injilda aytilishicha: odamning jismi, «yer,tuproq»dan yasalgan bo'lib, xudo unga jon kiritgan. Shu tariqa, birinchi inson mavjudot erkak bo'lgan. Keyinroq xotin uning «qovurg'a»sidan yaratilgan. Boshda ular jannat bog'larida yashagan. «Yaxshi va yomonni bilish» sin deb, ma'lum bir aybi uchun Xudo ularni yerdagi tabiiy hayotga tushirgan, odam urug'i shunday boshlangan degan fikrga asoslanadi.

Teologik konsepsiyada bunday olganda odamning kelib chiqish jarayonini konkret tushuntirish yo'q, uning yaratilishi to'g'risidagi «fakt»larni qayd qilish bor. Bu konsepsiyaning foydasiga xizmat qiluvchi jiddiy dalilliy asoslar ham noma'lum. Shuning uchun ham u ilmiy materializm tarafdorlari tomonidan, boshqa falsafiy ta'limot izdoshlari tomonidan ham qattiq tanqid qilinadi. Masalan, teosoflar odamning kelib chiqishini injilga tushuntirishni rad qilmaydi, lekin nasroniy cherkovlaridek uni tom ma'noda qabul qilish mumkin emasligini tasdiqlaydilar. Belgilar bilan to'ldirilgan injil va boshqa muqaddas kitoblarni ekzoterik, germinevtik kalitlarni egallamasdan turib, ularni tushunish mumkin emas.

---

[78] ***Антропогенез*** - антропологиянинг «одамнинг келиб чиқиши ҳақида» баҳс юритувчи қисми.

[79] ***Kreatsionizm*** (lot. Creatio - «yaratiliSh» dan) - unga ko'ra organik olam (hayot), insoniyat, Yer sayyorasi, Shuningdek umuman olamning asosiy Shakllari to'g'ridan-to'g'ri Yaratuvchi yoki Xudo tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi диний ва фалсафий таълимотдир.

3.2. Insonning biologik evolyutsiyasi konsepsiyasi. Bu tirik tabiat evolyutsion rivojlanishi to‘g‘risidagi – darvinizm nazariyasining oqibati hisoblanadi. Bu konsepsiya tarafdorlari hozir mavjud bo‘lmagan, ibtidoiy davrda yashagan odamsimon maymundan kelib chiqqan deb faraz qiladilar. Odam va hayvonot dunyosining rivojlanishi, takomillashish tomonga asta sekin o‘zgarish jarayoni evolyutsiya demakdir. Biologik evolyutsiya jarayonida quyidagi omillar-genetik irsiyat, genetik o‘zgaruvchanlik va tabiiy tanlash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu omillar mifologik va antropoid maymun, boshqa o‘zgarish, jarayonlarni ijobiy oqim tomon yo‘naltirdilar, oxir oqibatda yangi sifatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. To‘g‘ri yurishga, barmoqlarning o‘zgarishiga, nutqning rivojlanishiga, bosh suyagi va miyaning kattalashishiga, aqlning paydo bo‘lishi va hokazo.

XX asr boshlarida Darvin nazariyasi genetika va boshqa fanlar ma’lumotlari bilan to‘ldirilib, evolyutsiyaning sintetik nazariyasi (STE) paydo bo‘ldi. Kreatsionizm va teosofiya tarafdorlari darvinchilarni evolyutsiyaning ma’naviy omillariga e’tibor bermaslikda va tasodifiy biologik o‘zgarishlarga olib kelishda tanqid qiladilar. Shu bilan birga teosofiya va Jonli Etika evolyutsiyani rad qilmaydi, nafaqat biologik jihat va kosmik jihatlarni qarab chiqishga chaqiradi.

3.3. Insonning kosmik evolyutsiyasi konsepsiya. Bu qandaydir ma’noda diniy kreatsionizm va biologik evolyutsionizmni yaratishga qaratilgan konsepsiyadir. U JonliEtika falsafiy tizimi va teosofiya tarafdorlari tomonidan rivojlantiriladi. Bu konsepsiya izdoshlari quyosh tizimidagi planetalardan birining evolyutsion ichki ta’siri natijasida odam hayotning kosmik shaklidan kelib chiqib, yerda paydo bo‘ladi deb hisoblaydilar. Yerda hayot evolyutsiyasi ikki yo‘l – astral-psixik (nobiologik hayot) va oksil-nuklin (biologik hayot - birinchi tirik hujayradan murakkab ko‘p xujayrali organizmgacha) bilan amalga oshiriladi. X (iks) nuqtasida (taxminan bir nechta million yildan necha o‘n million yil oldin) bitta mavjudot hayot evolyutsiyasining ikki oqimi kesishishi sodir bo‘ladi. U o‘z biologik jismining antral (ruhni) to‘ldirishiga erishadi.

Kosmik evolyutsiya konsepsiyasiga binoan odamning kelib chiqishi va rivojlanishiga qanday asosiy omillar ta’sir qilgan? Bu kosmik yoki ma’naviy omil (kosmosning energetik ta’siri va oliy aqliy mavjudot). Bu biologik omil (naslchilik, o‘zgaruvchanlik, tabiiy tanlash). Bu ijtimoiy-madaniy omil (ijtimoiy munosabatlar, mehnat, ta’lim, tajriba almashish).
Deyarli yuz yil bu g‘oyalar ilmiy dunyo tomonidan e’tiborsiz qoldi. Unga qiziqish faqat XX asr oxirlarida oshaboshladi. Inson axborot-energetik

nazariyasining tarafdorlari, inson kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi kelajakda katta istiqbollarga ega deb faraz qiladilar.

3.4. Inson ongining kelib chiqishi. Odamning paydo bo'lishi muammosi bilan uning ongining kelib chiqishi muammosi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida qayd qilingan antropogenez konsepsiyada uning qanday yechilganligini qarab chiqamiz.

Antropogenezning teologik konsepsiyasi inson ongi jonning alohida qobiliyati hisoblanadi. Jonni odamga xudo beradi. shunday qilib ong ham Xudoning tuhfasi. Biroq,bu konsepsiya,qanday qilib xudo ongni (jon) yaratganligini aniq tushuntirib berolmaydi.

Biologik evolyutsiya konsepsiyasiinson ongini yuqori darajada tashkil topgan materiya -odam miyasining mahsuli deb biladi. U odamning evolyutsiya jarayonida qo'lga kiritgan ruhiy dunyosining alohida qobiliyatidir. Bu tabiiy muhitda tabiiy tanlanish sharoitida yashab qolishga imkon beradigan qobiliyatdir. Darvinistlar fikriga ko'ra bu qobiliyat, biologik o'zgaruvchanlik va naslchilik, shuningdek ibtidoiy odam mavjudotning mehnat va ijtimoiy faoliyatining oqibatidir, yuqori darajadagi radiatsiya yoki boshqa sabablar natijasidagi biologik mutatsiya ongning rivojlanishiga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. Boshqa organizmlardan ustunlik beruvchi yangi sifatlarning paydo bo'lishi, naslchilikning genetik mexanizmi tufayli tabiiy ravishda avlodlarda mustahkamlanib boradi.

3.5. Insonning kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi. Teosofiya va Jonli Etikaga binoan, ong (aql) ruh- materiyaning alohida funksiyasi bo'lib, u shunday funksiya rivojlanishiga ega bo'lgan ob'yektlarning ishtirokida rivojlanishi mumkin. Olovning boshqa olovdan yonishiday, ong (aql) ham boshqa ong (aql) ta'sirida rivojlanadi.

Inson ongining paydo bo'lishi kosmik aqlning ta'siri bilan bog'liq bo'lib, kosmosning protoodam organizmiga ma'lum energetik ta'siri deb tushunish kerak. shunday qilib, organizm har xil guruhlariga bunday ta'sirning jadalligi, «Yashirin Doktrina»ning guvohlik berishicha unchalik bir xil emas. Natijada, bir odam mavjudotning aqlliligi (ongning rivojlanishi), boshqa odam mavjudotnikiga nisbatan yuqori bo'ldi. Shuning uchun ham hozirgacha rivojlangan sivilizatsiyali odam (masalan yyevropaliklar) va yovvoyi (masalan Okeaniya orollari) orasida uzoq masofa bor.

3.6. Insonning ruhiy dunyosi. Insonning ruhiy dunyosi faqat ong sohasi bilan chegaralanmaydi, balki, uning doirasidan uzoqqa tarqaladi. Inson ruhiyatining bu sohasi ong sohasi doirasidan tashqarida bo'lib, ongsizlik sohasi degan nom oldi. Sharqiy falsafiy va diniy ta'limotlarda bu

sohaga katta e'tibor beraldi. G'arb falsafasi an'analari to'g'risida bunday deb aytaolmaysiz.

Uzoq vaqt ongning har xil jihatlarini o'rganishga ustun darajada murojaat qilindi. XIX-XX asrlarda haqiqiy G'arb ongsiz dunyosi ochildi. XIX asrda postklassik falsafaning ko'p oqimlari (hayot falsafasi, teosofiya,intuitivizm va boshqa) an'anaviy ratsionalizmdan chekinadi. Falsafiy ta'limotlarda har xil ongsizlik kuchlari – iroda, tug'ma his tuyg'u, intuitsiya, sezgi, yashirin ma'naviy qobiliyatlar birinchi o'ringa chiqadi. XX asrda «psixoanaliz» deb atalgan falsafiy oqimda bu tendensiya rivojlanadi va eng avjiga chiqadi. Talantli avstriya psixologi va psixiatri Zigmund Frayd uning asoschisidir. Ongsizlik sohasini (tush, yanglishish, xato, unutuvchanlik, ixtiyorsiz harakat, gipnoz (ta'siri) tadqiq qilib, frayd shaxsning ruhiy struktura modelini ishlab chiqadi. Unda u uchta asosiy darajani ajratadi: ikkita ongsiz – quyi va yuqori – va bitta ongli.

- Quyi darajadagi inson ruhiyati «U» atamasi bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning quyi sohasi – anglanmagan qiziqish va instiktlarning «qaynayotgan qozoni». Ularning muhimlari – hayot instinkti (Eros) va o'lim instinkti (Tanatos) deb Freyd faraz qiladi. Hayot instinkti – avlodni saqlash va davom ettirishga urinish. U ongsiz seksual qiziqishni (libido) avjiga chiqaradi. O'lim instinkti – bu ongsiz tajovuzkor kuch bo'lib, avstriyalik psixiatr hayot instinkti keltirib chiqaradigan g'azablanishlarni tenglashtirish deb qaraydi. «U» hayvonlar va ilk yoshdagi bolalar uchun xos bo'lgan lazzatlanish tamoyiliga amal qiladi.
- Ikkinchi darajadagi inson ruhiyati «Men» (yego) tushunchasi bilan ifodalandi. Ongning bu sohasi – ongsizlikning katta qorong'i yer to'lasidagi kichkina alanga shami «Men» tashqi reallikning «iz»i sifatida shakllanadi, lekin shu bilan birga «U»ning qiziqish va instinktlari bilan bog'liq. Garchi Freyd reallik (istaklarni qondishdan voz kechishga qobiliyati) tamoyillariga amal qilib, ongning ba'zi bir mustaqilligidan voz kechmadi, shunday qilib u «U», «Men»ning yashirin harakatlantiruvchisi deb faraz qildi. ong buni hamma vaqtda ham anglamaydi.
- Uchinchi darajadagi inson ruhiyati «Mendan yuqori- Men» (Super-Yego) atamalari bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning oliy sohasi bo'lib, tarbiyaviy taqiqlar, ijtimoiy va axloqiy me'yorlar ta'sirida shakllanadi. «Yuqori-Men» - odam axloqiy tamoyillarining manbayi bo'lib, uning ongida, masalan,vijdon, burch, sharaf sifatida namoyon bo'ladi.

shunday qilib inson ruhi oliy va quyi ongsiz kuchlarning doimiy kurash sahnasiga aylandi. Yoki, boshqacha aytganda ma'naviy tamoyillar va hayvon instinktlari o'rtasidagi kurashdir. Agar instinktlar yengsa, odam o'zining insoniylik qiyofasini yo'qotadi. Uning ongi quyi kuchlarga bo'ysinadi va ongsiz qiziqishlarni doimo amalga oshirishga intiladi. Agar ma'naviy tamoyillar yengsa, qiziqishlar va instinktlar chegaralanadi. Ong quyi ongsizlik ustidan g'alaba qozonadi va uning ichki turtkilarini nazorat qiladi. Odam ongsizlikning quyi sohasi ustidan ongning nazoratini kengaytirishga intilishi kerak.

3.7. Insonning paranormal kuchlari. Eng qadimgi davrdan boshlab Sharq falsafiy ta'limotlarida rivojlanishi va amalga oshishi mumkin bo'lgan odamda yashiringan ma'naviy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlar mavjudligi to'g'risida fikr yuritiladi. Asta sekin bunday kuchlarni egallashning maxsus uslubiyati ishlab chiqildi. Deyarli, ularning hammasi odamni ma'naviy shakllantiradigan qadimgi amaliy tizimi **Yoga** bilan to'g'ri yoki bilvosita bog'liq edilar. Yogik usullardan har xil diniy va ma'naviy-falsafiy ta'limotlarda (buddizm, induizm, daosizm, yangi platonchilik, nasroniylik, islom, teosofiya va boshq) foydalanildi.

Fan uzoq vaqt odam organizmida noma'lum kuchlar mavjudligi mumkinligini rad qildilar. Albatta, ortodoksal olimlar odamning shunday qobiliyatlari: xotira, iroda, aql, sezgi organlari, jismoniy kuch va boshqa zahiralari bo'lishi mumkin dedilar. Lekin, odam masalan shunday qobiliyatlarga: levitatsiya, telepatiya, telekinez kabilarga ega bo'lishini noilmiy deb hisobladilar. Ammo, sharq faylasuflari ta'sirining kuchayishi va ilmiy kuzatishlar natijalarining yig'ilishi natijasida olimlarning odam to'g'risidagi qarashlari o'zgara boshladi. XX asr boshlarida ko'p davlatlarda odamning yashirin kuchlari to'g'risidagi jiddiy tadqiqotlar olib borildi.

Qanday kuchlar va qobiliyatar to'g'risida gap ketayapti?

- Nojismoniy ko'rish va eshitish qobiliyati («oldindan bilish» va «oldindan eshitish»);
- Telepatiya (masofadan turib fikrlarni uzatish va qabul qilish);
- Levitatsiya (odam tomonidan yer tortilishini tugatish.muallaq holatga keltirish);
- Avtonom yashash ongning jismdan tashqariga chiqishi;
- O'limdan keyin odam ongining avtonom yashashi;
- Tabiiy jarayonlarga (yomg'ir, shamol, tabiiy hodisalar) inson ruhiy energiyasining ta'siri;
- Ruhiy energiya va fikrlar kuchi yordamida davolash;
- Fiziologik jarayonlarni irodaviy (fikriy) boshqarish;

- Ongning o‘tmishga ruhiy nazarsolishi (o‘tmishga mahliyo bo‘lish qobiliyati va o‘zi yoki boshqalarning yashashini eslash);
- Kelajakni qabul qilish qobiliyati;
- Tez hisoblash va o‘qish qobiliyati;
- Noyob xotira;
- Fikrlarning biologik jarayonlarga ta’siri;
- Telekinez (jismoniy predmetlarga boshqacha ta’sir qilish, yoki aloqasiz ko‘chirish qobiliyati).

XXI asr boshlarida fan odatiy qarashlar, qobiliyatlar doirasidan tashqari, odamning yuqorida ko‘rsatilgan va boshqa noodatiy namoyon bo‘lishi to‘g‘risida ko‘p miqdorda omillar yig‘adi. Ular «paranormal qobiliyat» degan nom oldilar. Ularni ilmiy-nazariy tushuntirish, hozirgi davrda odamning yangi ilmiy andozasi faol ishlab chiqilishi bilan asoslanadi. Uni odamning biomaydon tabiati konsepsiyasi yoki odamning axborot-energetika nazariyasi sifatida ifodalaydi. Bu konsepsiya (nazariya)ning bosh g‘oyasi shundaki, odam shunday biologik jism emas, energetik va hujayra – nuklein jismlardan iborat murakkab biomaydon tizimidir. Noodatiy (paranormal) kuchlarning namoyon bo‘lishi, odam ichki energiyasining o‘rganilmagan harakatlar bilan tushuntiriladi.

XIX va XX asrlarda odamning yashirin kuchlarini o‘rganishga, hozirgacha shunday falsafiy ta’limotlar: klassik yoga, buddizm, daosizm, teosofiya va Jonli Etika (Agni -Yoga) ta’sir qilib kelmoqda.

O‘limdan keyingi hayot muammosi. Odamning o‘limidan keyin unda nima kechadi? Uni o‘ldi deb e’lon qilgandan keyin uning joni, aqli, ongi yoki ruhi yashaydimi? O‘limdan keyin jon qayerga ketadi? Yerga yana qaytib kelib, tiriladimi? Hayot va o‘limning siri bilan bog‘liq bu va boshqa savollar insoniyatni hamma vaqt o‘ylantirib kelgan va kelmoqda. Diniy ta’limotlarga ko‘ra o‘lim bo‘sag‘asidan keyin odamning hayoti davom etadi, lekin, qanday va qanday turda ekanligi har xil tushuniladi. Falsafiy ta’limot har xil javob berdilar – o‘limdan keyin hayotning to‘la inkor qilinishidan, odamning ma’naviy hayotining reinkarnatsiya (shaklning o‘zgarishi yoki ko‘chib yurishi)sigacha fan uzoq vaqt ongni miya faoliyatining mahsuli deb hisobladilar. Shuning uchun ko‘p olimlar jism va miyaning o‘lishi bilan odamning ongi ham o‘ladi, o‘limdan keyin hech narsa yo‘q – faqat yo‘qliq podSholigi hukm suradi deb faraz qildilar. Umuman, o‘limdan keyingi hayot muammolarining falsafiy yechimini uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga materialistik yo‘nalishdagi falsafiy ta’limot kiradi. Bu masalan, qadimgi Hindistondagi charvak maktabi, qadimgi Yunonistondagi epikurchilar; Qadimgi Rimdagi stoiklar; Golbax,

Kondilyak, Lamitri; Germaniyada Feerbax, Marks, Engels; Rossiyada Cherni Shevskiy, Plexanov, Leninlar. Materializm tarafdorlari biologik jism o'lganidan keyin odamning hayoti to'xtaydi deb faraz qiladilar. Hech qanday ruh, jon, ong, aql yashamaydi va yashayolmaydi.

Ikkinchi guruhga an'anaviy va idealistik falsafa kiradi. Masalan, bular: A.Blajinniy, V.Velikiy, F.Akvinskiy, N.Kuzanskiy, V.Solovyov, N.Berdyaev va boshqa nasroniy faylasuflar: Aristotel, Dekart, Kant, Gegel va boshqa idealistik falsafa vakillari. Bu mutafakkirlar odamning joni uning jismoniy jismi o'lganidan keyin abadiy ruhiy dunyoda yashashi mumkin deb hisoblaydilar.

Uchinchi guruhga bilishning ezoterik an'analariga yaqin falsafiy va diniy ta'limotlar kiradi. Masalan, mif germetizmi, Hind yogasi, vedantlar falsafasi, buddizm, pifagorchilar, platonchilar, islom ismoilitlari, teosofiya, Xram, Jonli Etika (Agni-yoga) ta'limoti. Bu ta'limotlar izdoshlari, odamning (ruh) ruhiy asosi abadiy yashashiga va izchil boshqa shakllarga o'tishiga ishonadi. Boshqa so'z bilan aytganda ular odam ruhiy mohiyatining bir jismdan boshqa jismga o'tishi reinkarnatsiya nazariyasini tan oldilar.

Ilmiy o'limdan keyingi hayot muammolarini jiddiy o'rganish XIX asr oxirida boshlandi va XX asrda faol rivojlandi. Tig'iz moddiy va ingichka ruhiy dunyolar o'rtasida vositachi bo'ladigan odamlar – mediumlar o'rganildi. Boshqa borliq sohasiga tegishli noma'lum kuchlar va mohiyatlar medium orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan o'lgan odamning joniga o'xshash ingichka moddiy flyuidik fantomlar paydo bo'lishini rasmga va videorasmga olindi.

Klinik o'lim holatini boshidan kechirgan odamlarning ko'rsatmalari tahlil qilindi. Sinalgan odamlar bir-birini tanimasa ham, har xil yoshda, jinsda, diniy e'tiqodda, millatda, o'limga har xil munosabatda bo'lsa ham, ularning ko'rsatmalarida hayron qolarli darajada ko'p o'xshash elementlar (unsurlar) borligi aniqlandi. Klinik o'lim davrida inson ongining o'chmasligi, boshqa tirik (odamiy-noodamiy) mavjudotlar bilan to'qnashuvi, boshqa reallikda yashashni davom ettirishi aniqlandi.

Ongning ruhiy retrospeksiyasi – odamlarning o'z o'tmishidagi mavjudligini eslashi tadqiq qilindi va tekShirildi. shunday hodisalarning ma'lum foizi yuqori darajadagi ishonchliligi bilan farq qilib, mutaxassislar fikricha soxtalashtirilmagan, chunki ular joriy hayotida muddati va tajribasidan kelib chiqqan holda, bilishi va eslashi mumkin bo'lmagan holda bu odamlar o'tmishini batafsil gapirib bergan. Ba'zi bir olimlar jismoniy o'limdan keyin yangi biologik shakl (jism)da odam ruhining

tirilishi mumkin degan Sharq falsafasining nuqtayi nazariga mayillik bildirdilar.

Garchi, hozircha ilmiy dunyoda o'limdan keyingi hayot muammolari to'g'risida to'la yagona fikr mavjud emas. Ehtimol, boshqa – o'limdan keyingi borliq sirlarining yaqin kelajakda ochilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

3.8. Insonning ma'naviy rivojlanishi. Ko'p diniy, falsafiy va ilmiy ta'limotlarda «insonning ma'naviy rivojlanishi», «odamni ilohiylashtirish», «odamning ma'naviy evolyutsiyasi» degan tushunchalar ishlatiladi. Hozirgi dunyoda «moddiylik», «texnokratizm», «tubanlik», «javobgarsizlik», «texnokratizm», «mexanizm», «hayotga iste'molchilik munosabatda bo'lish» kabi tushunchalarga qarshi «ma'naviyat» to'g'risida ko'p gapiriladi. «Ma'naviylik» va «insonni ilohiylashtirish» nima? G'oyalari ko'p G'arb diniy, falsafiy va ilmiy ta'limotlariga singgan, sharq falsafasining nazariy bazasi va amaliy yutuqlariga tayangan holda bu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Ma'naviyat eng umumiy ma'noda ruhga yaqinlashish yoki qo'shish demakdir. Yuqorida biz o'rganganimizdek «ruh» tushunchasi yo tabiiy borliq (ma'naviy dunyolar)ning yuqori holatini yo aql (ma'naviy mavjudot) va hayotning takomillashgan holatini odatda simvolik ifodalaydi. Masalan, Agni- Yoga fanidan, ilohiylashtirishni, moddiy shakllarni har tomonlama shakllantirish, ularning potensial sifat va hususiyatlarining ochilishi, borliqning kosmik evolyutsiyasi zinapoyalaridan yanada ko'tarilayotgan harakati deb ta'kidlaydilar. shunday qilib odamning ma'naviy rivojlanishi aqlli kosmik mavjudot sifatida uning mohiyatining har tomonlama rivojlanishidir.

Ko'p diniy va falsafiy ta'limotlarning asoschilari bu jarayonning har xil xususiyatlariga diqqat qilsa ham, insonning ma'naviy rivojlanishiga ko'maklashishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydilar. Shu bilan birga bu ta'limotlar bir-biriga qarama qarshi qo'yilmasligi kerak. XX asr boshlarida har xil diniy va falsafiy konsepsiyalar g'oyalarini birlashtiradigan (sintez) yangi yo'nalish kuchaya bordi. U teosofiya va Jonli Etika axloqiy-falsafiy ta'limotlarida yorqin namoyon bo'ldi. Ularning izdoshlari odamning ma'naviy rivojlanish muammolarini birinchi marta ilmiy asosda ko'rib chiqa boshladilar. Xususan, ular odamning ma'naviy rivojlanishi bilan uning kosmik evolyutsiyasi jarayonlari o'rtasida bevosita aloqa borligini ko'rsatishga urindilar.

3.9. Odam evolyutsiyasining keyingi istiqbollari. Biologik aqlli mavjudot sifatida odamning kelajagi masalasi falsafiy va ilmiy antropologiyaning muhim masalalari qatoriga kiradi. Lekin, hozirgi ilmiy

nazariyalar bu muammoga kam e'tibor bermoqda. U bilan faylasuflar, futurologlar va fantastik yozuvchilar ko'p shug'ullandilar. Inson rivojlanishining istiqbollari to'g'risida qanday qarashlar mavjud?

An'anaviy diniy qarashlarga binoan (nasroniylik, islom va boshq.) inson kelajakda o'zgarishi kerak. Lekin, shunday o'zgarishlar ilohiyotchilar tomonidan evolyutsiya sifatida qaralmaydi. Masalan, islom ilohiyotchilari taqvodor odam o'limidan keyin o'zgaradi, qandaydir ruhiy mavjudot sifatida jannatda abadiy yashaydi deb hisoblaydilar. Diniy ta'limot faqat odamning axloqiy boshqa qiyofaga kirishi to'g'risida gapiradi. Uning jismiy (jismoniy jism o'rniga – ruhiy jism) o'zgarishi to'g'risida odamda bilvosita gapiriladi.

Klassik ilmiy qarashlarga (darvinistlar, marksistlar, pozitivistlar va boshq.) binoan, kelajakda odamni axloqiy, aqliy, jismoniy ma'noda shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, bu guruhning ba'zi bir vakillarining fikricha, kam harakatli turmush tarzi sivilizatsiyasi ta'sirida, ojiz gavda, rivojlanmagan oyoqlari, katta boshi bilan odam kelajakda inqirozga uchraydi. Biroq, bu yerda odatda insonning sifat o'zgarishlari qarab chiqilmaydi. Aqlli odam – Homo-Sapiens bo'lgan va hozirgi yashab turgan odamdan farqi kam bo'lgan holda, kelajakda qaror topgan biologik tur sifatida qolaveradi deb hisoblanadi. shunday qilib, bu yerda inson mavjudotning keyingi evolyutsiyasi mohiyatan rad qilinadi.

Dunyo sivilizatsiyasi rivojining texnotron konsepsiyasi tarafdorlarining qarashlariga binoan, kelajakda uning organizmiga har xil texnik qurilmalarning tatbiq qilinishi natijasida odam takomillashishi mumkin. Bular: kompyuter chiplari va portlari, miniatyur yurak stimulyatorlari, gormonal regulyatorlar, sun'iy organ va suyaklar bo'lishi mumkin. Odamni bunday «takomillashtirish» natijasida u butunlay boshqa mavjudot – nafaqat tirik biologik materiyadan, yana boshqa uning tanasiga o'rnatilgan qurilma, sun'iy yaratilgan elementlardan iborat biokibernetik organizm bo'lishi mumkin. Tirik mavjudotning bu turini ***Homo-techno Sapiens - aqlli texno-odam*** deb atash mumkin.

Bunday jarayonni odam tabiatining evolyutsiyasi deb aytish mumkinmi? Albatta yo'q. Bu yerda biz texnika evolyutsiyasiga ega bo'lib, odam organizmiga tadbiq qilinadi va o'ziga bo'ysindiradi. Ba'zi bir faylasuflarning fikricha, sivilizatsiyaning bunday rivojlanish yo'li odam uchun ma'naviy mavjudot sifatida juda xavfli. U uning ma'naviy mavjudot ekanligini kamsitadi va mashinalar bilan to'ldirilgan dunyoda, mashinadan odam yasaydi.

Insonning keyingi evolyutsiyasi muammolariga eng radikal qarashlarini hayot va aqlni takomillashtruvchi evolyutsion – kosmik yo'l

tarafdorlari yo‘qlaydilar. U falsafiy, ilmiy va ba’zi bir noodatiy diniy ta’limot (teosofiya, tirik etika, rus kosmizmi, mistik nasroniylik, sufizm, budizm, yoga va boshq.)larni o‘z ichiga oladi. Bu yerda bosh g‘oya shundaki, - odam doimiy kosmik jarayonga qo‘Shilgan. Mavjud odam turi (Homo Sapiens) evolyutsion tugagan va takomillashmagan. U o‘zgarib, boshqacha qiyofada, ancha takomillashgan – aqlli hayot turlariga o‘tishi muqarrar. Bunday o‘zgarish va hayot ma’naviy turlarida nimalar nazarda tutiladi? Rus faylasufi Nikoloy Fyodorov texnika vaqtincha, sivilizvsiya rivojining qo‘shimcha shoxi deb hisoblaydi. Odam kuchi boshqa tomonga – o‘zini-o‘zi yaxshilashga va o‘zgartirishga yo‘naltirilishi kerak. Nasroniy kosmik Vladimir Solovyov hayvoniy mayillikni tugatish va ma’naviy takomillashish Isoday odamni «Xudoga teng» - o‘zida insoniy va ilohiy tabiatni birlashtiradi deb faraz qiladi. Yana bir rus kosmisisti – Aleksandr Suxova-Kobilin odamzotning tobora ruhiylashining kuchayib borishi natijasida,uni zaif jismoniy tanadan xalos qiladi,uning o‘rniga *efirli organizm* paydo bo‘ladi. Bu efirli organizm hech qanday texnik qurilmalarsiz odamzotning kosmik uchishlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi,degan g‘oyani ilgari suradi.

Rus kosmik – faylasuflar ta’limotida insonning ma’naviy – kosmik evolyutsiyasi to‘g‘risidagi qadimgi ezoterik g‘oya namoyon bo‘ladi, natijada biologik (hayvon) organizmiga muhtoj bo‘lmagan holda aqlli odam hayvon kosmik mavjudotni ilohiylashtirishda qiyofasini o‘zgartiradi. Plastik astral substansiyadan o‘z ruhiy energiya va yangi organizmni foydalanishi, odamga ekologik xavfli texnikadan voz kechish, jismoniy kasalliklardan qutilish, tashqi jismoniy va ichki (ruhiy) koinotni keng miqyosda o‘zlashtirishni boshlash imkonini beradi deb faraz qilinadi.

3.10. Odam hayoti ma’nosi muammosi. Nimaga u yashaydi, uning hayotining ma’nosi va maqsadi to‘g‘risidagi masalalar odamni hamma vaqt o‘ylantirib keladi. Ba’zan, bu masalalarni hal qilishga intilish ma’nosiz, hatto zararli deyiladi. Axir hayvonlar yashaydi, lekin o‘z hayotining mazmuni to‘g‘risida o‘ylamaydi. Lekin odam – hayvon emas. Uning ruhi, aqli ma’nosiz yashayolmaydi. shunday vaqt keladiki, bunday hayot odam uchun chidayolmas darajada bo‘ladi. Nimaga o‘qish, ishlash, kurashish, azob kurish, takomillashish kerak? Ruhshunoslar shuni aniqladiki – hayot ma’nosi va maqsadini yo‘qotsa odamni axloqiy, ruhiy va jismoniy turg‘unlikka, hatto inqirozga olib kelar ekan. Masalan, shu narsa ma’lumki fashistlar konslageridagi mahbuslar o‘z hayot ma’nosini izlashni yo‘qotib, kasallik va ochlikdan tez halok bo‘lganlar.

Odam hayoti ma’nosi muammosining ikki – sub’yektiv va ob’yektiv jihatlari bor. Hayotning sub’yektiv ma’nosi nima? Bu ma’no konkret

odamning o‘zi, uning intilishlari va istaklari bilan bog‘liq. Bu u hayotdan nimani istaydi. Masalan, sevuvchi ona o‘z hayoti ma’nosini bola tarbiyasida ko‘radi. Ashaddiy kolleksioner – o‘z kolleksiyalarini saqlash va kupaytirishda. Dindor odam – xudoga xizmat qilishda. Egoist – o‘ziga o‘zi xizmat qilishda. Ma’lumki, hayotning sub’yektiv ma’nosi juda ko‘p. Garchi ko‘pchilik faylasuflar bitta umumiy hayot ma’nosi bor bo‘lib, boshdan mavjud odamning bilish – bilmasligidan, istash – istamasligidan xoli deb faraz qildilar. U dunyo yaratuvchisi, kosmik borliq tomonidan oldin berilgan va hayotning ob’yektiv ma’nosi hisoblanadi.

Ma’lumki, falsafani eng oldin hayotning ob’yektiv ma’nosi qiziqtiradi. Boshqa masalalardagi kabi bu yerda ham faylasuflarning fikri bir biridan farq qiladi. Garchi asosiy, keng tarqalgan javoblar kam.

Faylasuf-materialistlar hayot ma’nosini lazzat olishda (chorvak, epikurchilar) yoki jamiyatni va o‘z mohiyatini takomillashtirishda (markizm) ko‘rdilar.

Faylasuf-idealistlar hayot mazmunini dunyodagi doimiy buzulishlardan, azob-uqubatlardan xalos bo‘lish, oliy ruhiy dunyo va abadiylikka erishish (vedanta, yoga, buddizm), xudoni bilish va ilohiy dunyoda xudo bilan birga jonning abadiy hayotligiga erishish (nasroniylik, islom) deb xisoblaydilar.

Teosofiya va bilishning ezoterik an’analariga yaqin falsafiy oqimlar hayotning maqsad va ma’nosini, borliqni bilishda, ma’naviy takomillashishda, oliy ma’naviy mavjudotning o‘zgarishida, oliy ruhiy dunyodagi hayotga va abadiylikka erishishda, koinotda hayot evolyutsiyasiga xizmat qilishda ko‘rdilar.

3.11. Insonning erkinligi va javobgarligi. Inson erkinligi muammosining ikki asosiy jihati bor – ijtimoiy va tabiiy. Insonning ijtimoiy erkinligi – ijtimoiy tuzilish – siyosiy, iqtisod, yuridik qonunlarga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, erkinlikning bu jihati insonning o‘zi va insoniyat jamiyatiga bog‘liq. Jamiyatning tarixiy takomillashishi, aniqrog‘i tarixiy taraqqiyot – bu ijtimoiy erkinlikning rivojlanishiga, odamning boshqa odamlardan (quldorlar, zolim hukmdor, feodal, podSho, burjua va boshq.) jismoniy, feodal, yuridik, iqtisodiy qaramlikdan ozod bo‘lish yo‘li. Jamiyat qancha rivojlangan bo‘lsa, qancha erkin bo‘lsa, konkret odamning erkinliklari Shuncha ko‘p bo‘ladi. Bu yerda hammasi tushunarli. Lekin, erkinlikning boshqa jihati tabiiy erkinlik bo‘yicha faylasuflarda bunday aniqlik yo‘q.

“Erkinlikning tabiiy jihati” deganda nima nazarda tutiladi? Odam o‘zining hayotida qanchalik tanlaydi va unga amal qiladi? Tanlash nimaga bog‘liq? Bunday tanlovni odamning o‘zi qiladimi yoki (birov)

tomonidan oldindan belgilanadimi, yoki odamning o‘zi tanlagandek tuyuladimi? Bir so‘z bilan aytganda, odamning iroda erkinligi to‘g‘risida gap ketadi.

Falsafada bu muammo bo‘yicha o‘ta va mo‘tadil fikrlar aytiladi. Maxsus falsafa tilida ular – taqdir, iroda erkinligining indeterminizmi, iroda erkinligini dialektik tushunish deb ataladi.

Fatalizm – *bu falsafiy dunyo qarashning bir ko'rinishi bo'lib, unga binoan odamning harakati oldindan belgilangan bo'ladi.* Boshqacha aytganda odam amalda hech qachon mustaqil tanlay olmaydi. Odamni harakatini oldindan kim belgilaydi? Ilohiyatchilar va ba’zi bir diniy faylasuflar bu xudo (islom ilohiyotchilari) deydi. Boshqa faylasuflar tabiat shunday qurilganki, uning qonunlari odamga erkin tanlash (yunon atomchilari, yevropa mexinitsistlari va boshq.) imkonini bermaydi deb uylaydilar. shunday qilib, fatalistlarga binoan odam real tanlov qilaolmaydi va real iroda erkinligiga ega emas. O‘qilishi kerak bo‘lgan, oldindan yozilgan qandaydir oliy (ilohiy yoki tabiiy) zaruriyatdir. Erkinlik va tanlash – bu hayolparastlikdir. Bunday holatda odamga axloqiy va huquqiy normalarni qo‘llash be’manilik va adolatsizlikdir. Axir agar u yomonlik (o‘ldirish yoki o‘g‘irlik) qilsa bu uning erkin harakati emas, oldindan belgilangan harakat, unda konkret odam faqat taqdir qurolidir. Bunday nuqtayi nazar o‘zining ko‘p qarshilariga ega bo‘lib, ular uning be’maniligini ko‘rsatdilar. Haqiqatda ham, odamning tarixiy hayoti doimo shuni isbotladiki, eng qiyin sharoitlarda, o‘lim va hayot orasida haqiqat yoki yolg‘onni, erkinlik yoki qullikni, yaxshi yoki yomonni, uyasiz hayot yoki qahramonlarcha kurashni tanlash i mumkin. Ma’lumki, fatalistlar zaruriyat bilan bog‘liq, iroda erkinligi muammolarining dialektik tomonlaridan birini kupaytirib yuboradi.

Iroda erkinligini indeterminizmi – bu falsafiy dunyoqarashning bir turi bo‘lib, unga binoan odamning harakati odam istagidan boshqa sabab va omillar bilan bog‘liq emas. Ular juda erkin bo‘lib, hech qanday moddiy yoki ma’naviy ta’sir(I.G.Fixte, M.F. Men de Biron va boshq.) bilan belgilanmaydi.

Ma’lumki, odamni real hayoti bu nuqtayi nazarni inkor qiladi, chunki amalda uning tanlovi ichki va tashqi xarakterga ega bo‘lgan ko‘p sabablar bilan bog‘liq. Odam bor imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, bu sabablar bilan hisoblashishga va qaror qabul qilishga majbur. Biz indeterministlarning iroda erkinligi muammolarining boshqa dialektik tomoni - odam irodasining mustaqilligini oshirib yuborilganligini ko‘ramiz.

Ko‘rib chiqilayotgan muammolarning eng muallaq falsafiy yechimini iroda erkinligi haqidagi dialektik konsepsiya beradi. Bu konsepsiyada odamning real iroda erkinligi tan olinadi, lekin Shu bilan birga, odamning tanlash i va harakati erkin amalga oshirilmaydi, ma’naviy va moddiy xarakterga ega bo‘lgan ma’lum sabablar ta’sirida (buddizm, Kant, Gegel, marksizm, teosofiya) amalga oshishi ko‘rsatilgan.

Masalan, nemis faylasufi I.Kant ta’limotiga binoan, odam aqlli mavjudot sifatida ikki dunyoga – aqlning transsendent dunyosiga va real tabiat (empirik) dunyosiga taalluqli. Ularning birinchisida odam juda erkin. Ikkinchisida tabiiy zaruriyatga bo‘ysinadi.

Marksistlar odam irodasi tashqi muhit tomonidan ma’lum ta’sir sezsa ham, shu bilan birga kelajakka yo‘naltirilgan harakatlarga nisbatan erkindir. Lekin, o‘tmishda qilingan xarakatlarning sabablari va oqibati, inson irodasiga bo‘ysinmaydi. Ular tabiiy zaruriyat sifatida chiqib, u bilan odam hisoblashishiga to‘g‘ri keladi.

Bunday nuqtayi nazarni sal farq bilan buddaviylar va teosoflar yoqlaydi, ular faqat odamning yagona hayotini qarab chiqmasdan, uning izchil ko‘p tug‘ilishlari va o‘lishlarini ham qarab chiqib, reinkarnatsiya (boshqa qiyofaga kirish), odamning ma’naviy mohiyati nazariyasini tan oladilar. Odamning hayot sharoiti, uning ma’naviy – ruhiy holati, shunday qilib, tanlash erkinligi uning karmlari – o‘tmish hayotidagi uning fikr va harakatlari, sabab va oqibatlari summasiga bog‘liq. Biroq, odam o‘zining kelajak karmasiga ta’sir qilish va o‘zgartirish kuchiga ega, chunki uning iroda erkinligiga ko‘p bog‘liq.

3.12. Inson va bioetika muammolari. Bioetika – bu yangi fanlararo ilmiy yo‘nalish bo‘lib, XX asr oxirida jadal rivojlana boshladi. U bir nechta fanlar – tibbiyot, genetika, filosorfiya, etika va huquqning tutashishi natijasida shakllandi. Hozirgi bioetikaning dolzarb muammolari qatoriga quyidagilar: abortlar, evtanaziya, hayotni cho‘zish, klonlashtirish, organlarni ko‘chirish, surragat onachilik, gen muhandisligi, jinsni almashtirish va boshqalar kiradi. Bu muammolar, ularni yechishga yo‘naltirilgan yangi texnologiyalar nafaqat tibbiy va biologik, balki axloqiy, falsafiy va huquqiy masalalarni keltirib chiqarmoqda. shulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

Diniy ta’limot homiladorlikni sun’iy to`xtatish – abortni hamma vaqtda qoralaydi. Ammo fan va tibbiy texnologiyalar rivojlanishi bilan, abort eng kundalik, ommaviy jarrohlikka aylandi. Butun dunyoda unday jarrohlikning soni yiliga o‘n millionga etdi. Faqat Rossiyada yiliga ikki

yarim million abort qilinadi. Ko‘p mutaxassislar bu odam mavjudotning ommaviy o‘ldirilishi deb baholaydilar. Axir, xotin tomonidan ko‘tarib yurilgan homila, bir nechta haftadan keyin urug‘lanishdan boshlab, biologik tugallangan organizmga aylanadi, tashqaridagi ovozni sezadi.

Abortlar yetarli emas va uni man qilish ham mumkin emas. Bu yerda nafaqat huquqiy, boshqa choralar ham talab qilinadi. Xususan, yoshlarni axloqiy va jinsiy tarbiyalash natijasida, ular homilador bo‘lishdan saqlaydigan vosita va mexanizmlarni bilishi, jinsiy aloqalarning axloqiy javobgarchiligini, aborning o‘ldirish ekanligini aniq tushunishi kerak. Davlat o‘z navbatida xotinlarni bola tug‘ilishi va tarbiyalanishining munosib tibbiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart- sharoitlari bilan ta’minlashi kerak.

3.13. ***Evtanaziya: muammo va yechimlar.*** shunga o‘xshash ***evtanaziya*** (kasalni o‘limini tezlashtirish) muammolarini echishda kompleks yondoshuvini qo‘llash kerak. Uning mohiyati shundaki, davosi yo‘q kasal odam ixtiyoriy o‘lish huquqiga egami? Agar shunday bo‘lsa kim va qanday sharoitda hayotdan ketishiga yordam berishi kerak? Hozirgacha bu muammo ilmiy dunyoda va jamoatchilik orasida keng munozara qilinmoqda. Shu bilan birga ma’lumki, shifokor sog‘ayib ketishiga umid yo‘q odamni azobdan qutqazish, qachon u insonparvar bo‘lsa shu yagona vaqtda kasalga hayotdan ketish huquqini amalga oshirishga yordam berishi mumkin. Shunda ham bunday qarorni – bemor (agar u ongida bo‘lsa) , uning qarindoshlari bilan, shifokorlar konsiliumi, huquqshunoslar yoki ijtimoiy himoya xizmati vakillari bilan jamoaviy qabul qilinishi kerak. Bunday jamoaviy qaror, shifokorlar yoki qarindoshlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar va o‘zboshimchaliklar ehtimolini kamaytiradi.

Bioetikaning boshqa muammolari ham ko‘p savollarni keltirib chiqaradi.

- Odamga hayvon yoki boshqa odamlarning organlarini ko‘chirib o‘tkazish mumkinmi?
- Odamning eskirgan organlarini almashtirish uchun biologik materiallarning gennomuhandislik ishlab chiqarishi axloqiy nuqtayi nazardan qanchalik to‘g‘ri?

- Odamni klonlashtirish to`g‘rimi?
- Odamning o‘simliklar va hayvonlarning gen strukturasiga aralashuvining chegarasi qayerda? U nimasi bilan xavfli?
- Odamga uzoq umr guzaronlik kerakmi? Agar ko‘p odamlar 50 – 70 yoshda (ba’zan undan ham erta) hayotdan ruhiy charchasa, odam nima uchun ko‘p yashashi kerak?
- Odam jinsini sun`iy o‘zgartirilishi axloqiy va biologik nuqtayi nazardan to‘g‘rimi?

Konkret odam, fan va jamiyat o‘rtasidagi manfaatlar oltin o‘rtasini topishga uringanlar, Shu savollarga mustaqil fikrlab, javob berishga harakat qilganlar. Axir, hamma vaqtda ham fan yutuqlari jamiyat foydasiga xizmat qilmaydi. Konkret shaxslarning manfaati tez-tez barcha jamiyat manfaatlariga zid keladi. Ba’zan, jamiyat shaxs rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Qanday eng maqbul yondoshuvni topish kerak? Ma’lumki, bunday murakkab muammolarni yechishda asosini, albatta insoniyatni progressiv rivojlanishi va yashab qolishi mumkinligiga qaratilishi kerak. Millionlab odamlarni taqdiri bilan bog‘liq, bioetika muammolarini anglab va ma’lum qarorlarni qabul qilib, faylasuflar, olimlar va siyosatchilar bularga amal qilishlari kerak.

14 sxema

Inson mohiyatini ta’riflashga asosiy yondoshuvlar.



15 sxema.

Antropogenezning asosiy konsepsiyalari

Har xil turlari	Konsepsiyalarning asosiy g'oyalari	Vakillari
Teologik konsepsiya(kreatsionizm)	Xudo odamni yaratadi.Yaratish – evolyutsiya emas, bir vaqtning o'zidagi akt.	Nasroniylar teologiyasi va boshqalar
Biologik evolyutsiya konsepsiyasi(Darvinizm)	Biologik evolyutsiya qonunlari ta'sirida odamsimon maymunlardan tabiiy ravishda odam paydo bo'ladi (naslchilik, o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlanish)	Ch.Darvin, F.Engels, K.Marks, V.Lenin, marksistlar, pozitivistlar va boshqalar
Odamning kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi	Kosmik Aql hamda kosmik va biologik evolyutsiya qonunlari ta'sirida, astral va biologimk organizmlar evolyutsiyasi natijasida odam kelib chiqadi	Maxatmlar, E.Blavatskaya, F.Dyu, E.Rerix va boshqalar.

16 sxema

Psixoanaliz va yogi falsafasi bo'yicha inson olamining ruhiy strukturasi



17 sxema.

O'limdan keyingi hayot muammolarining asosiy falsafiy yechimi.

Falsafiy pozitsiyaning asosiy g'oyasi	Falsafaning yo'nalishi(oqimi)	Vakillar
Jism o'lgandan keyin odamning hayoti to'xtaydi	Materializm: Epikurchilar, Charvak, stoitsizm, mexanistik va dialektik materializm, pozitivizm, darvinizm va boshqalar.	Epikur, Lametri,Feerbax, Marks, Engels, Kant, Darvin, Lenin va boshqalar.
Biologik jismning o'limidan keyin jon ruhga qo'shilib ruhlar dunyosida abadiy yashaydi	Diniy va idealistik falsafa	Aristotel, Avgustin, Dekart, Kant, Solovyov, Berdyaeva va boshqalar
Odamning ruhiy yadrosi abadiy yashaydi va bir jismdan boshqasiga o'zgarishi mumkin	Ezoterik falsafa va unga g'oyaviy yaqin bo'lgan diniy va falsafiy oqim: yoga, sankxya, buddizm,vedanta, gnostitsizm,teosofiya va boshqalar	Krishna,Kamla,Patandjali, Budda,Pifagor, PlatonOrigen, Shankara,Ramakrishna,Vivekananda, Blavotskaya, Rerix, Andreev.

18 sxema

Inson irodasi erkinligi muammolarining asosiy falsafiy yechimi.



19 sxema

Inson hayoti ma'nosi muammolarining ba'zibir falsafiy echimi

№	Inson hayoti ma'nosi muammolarining falsafiy echimining asosiy g'oyasi	Falsafiy oqimlar va maktablar
1.	Lazzatlanish	Charvak maktabining qadimgi materializmi, Epikurchilar
2.	Karmlar va sansarlardan ozod bo`lish, borliqning oliy ruhiy soxasiga erishish (ongning ruhiy ozod bo'lishi)	Hind klassik falsafasi – sankxya, yoga, vedanta va boshqalar
3.	Moddiy borliqqa xos bo'lgan azoblardan ozod bo`lish, ma'naviy borliqning oliy holatiga erishish (nirvana)	Hind klassik falsafasi, Tibet falsafasi – buddizm
4.	Ma'naviy uyg`unlikka erishish (takomillik) va abadiylik	Hitoy klassik falsafasi - daossizm
5.	Xudoni bilish va jonning xudo bilan birga abadiy hayotga erishish	Diniy falsafa – nasroniylik, islom
6.	Jamiyatning takomillashishi	Yangi va eng yangi davrning dialektik materializmi – marksizm-leninizm
7.	Dunyoni bilish va takomillashish: ma'naviy o'zini takomillashtirish, oliy ma'naviy mavjudotga o'zgarish, oliy dunyoda abadiylik va yashashga erishish (ongning kosmik evolyutsiyasi)	Sir tutilgan donishmandlik falsafasiga g'oyaviy yaqin oqim – teosofiya, Jonli Etika (Agni-Yoga)xram ta'limoti.

2-§. Jamiyat falsafasi

1. Jamiyat tushunchasi. Eng keng ma'noda odamlarning birlashmalarini va ularning birga yashashini jamiyat deb ataymiz. Bunday ta'rif bu hodisaning to'la mohiyatini ochib berolmaydi. Axir birgalikdagi hayot nafaqat odamlarga, hayvonlarga ham xos. Axir asalarilar, chumolilar, pingvinlar va boshqalar ham birga yashaydiku. Agar shunday ekan odamlar birlashmalarining – hayotning quyi shakli boshqa birlashmalardan sifat jihatdan farqi bormi? Bor. Gap shundaki, insoniyat jamiyati nafaqat biologik tamoyillarga, balki madaniy tamoyillarga ham asoslanadi. Odamlarning birga yashashi – faqat himoya, oziq-ovqat topish va avlodni davom ettirish emas. Jamiyat odamlarga dunyoni bilish va o'zgartirishda, o'zini va birgalikdagi hayotni shakllantirishda, yig'ilgan tajribani bir avloddan boshqasiga berishda yordam beradi. shunday qilib,

jamiyat – odamlarning birgalikda yashashi emas, ularning birgalikdagi faoliyati, balki ongli ravishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish hamdir.

Endi biz jamiyatga berilgan dastlabki ta'rifni aniqlashimiz mumkin. ***Jamiyat -bu umumiy ehtiyojlar, manfaatlar va maqsadlar yo'lida birlashgan odamlarning aqlli uyushgan, madaniy hayoti va faoliyati shaklidir.***

Jamiyatni o'rganib, shunga e'tibor berish kerakki, u alohida odamlarning, individlarning oddiy mexanik yig'indisi emas. Jamiyat individlar tizimi bo'lib, ularda alohida elementlarga xos bo'lmagan sifatning namoyon bo'lishidir. Masalan, hech qanday kuch yerning qiyofasini o'zgartirishga qodir emas. Lekin insoniyat jamiyati bugun shunday qudratli geoplanetar kuchdir.

Insoniyat jamiyatining asosiy tasnifi sifatida qanday muhim belgilarini ko'rsatish mumkin?

- *Butunlik* – o'zaro tig'iz bog'langan alohida individlar va ijtimoiy guruhlar, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va jamiyatning boshqa sohalari bir-biriga ta'sir qilib, yagona ijtimoiy butunlikni tashkil qilishini ifodalaydi.
- *O'zi uyushganlik*- bu ichki kuch va jarayonlarning uyushgan mavjudlik va rivojlanishga ta'sirini ifodalaydi.
- *Jo'shqinlik*- ijtimoiy institutlar va birlashmalar, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tomonlarining, har xil tashkilot turlari, ijtimoiy shakllarning harakatchanligi va o'zgaruvchanligini ifodalaydi.
- *Rivojlanish* - jamiyatning progressiv va regressiv tomonlarga o'zgarishi takomillashishi yoki tanazzulga yuz tutishini ifodalaydi.
- *Qonuniyat*- bu jamiyat rivojlanishining tartibsiz emasligi, ma'lum ob'yektiv qonunlarga bo'ysinishini, ulardan odamlar ijtimoiy hayotini bilish, takomillashtirish uchun foydalanish mumkinligini ifodalaydi..

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari o'z mohiyatiga ko'ra, tabiat dunyosi qonunlariga mos keladi. Lekin bu yerda bir nechta xususiyatlar bor. *Birinchidan*, ijtimoiy qonunlar aql va irodaga ega bo'lgan odamlar faoliyati orqali amalga oshiriladi. *Ikkinchidan,* ijtimoiy qonunlar hamma vaqtda ehtimollik tabiatiga ega. Masalan, ular mazmunan Nyutonning klassik mexanika qonunlariga o'xshamaydi. Ular amalga oshishi tabiiy va ijtimoiy omillarni va odamlarning iroda erkinligi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanishning har xil tendensiyalarini shakllantiradi.

2. Jamiyat hayotining sohalari va tuzilishi. Keng tarqalgan yondashuvga ko‘ra, jamiyat strukturasi ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongni o‘z ichiga oladi. Bu tushunchalar jamiyat hayotining moddiy va ma’naviy tomonlarini mavhumroq ifodalaydi.

Ijtimoiy borliq – jamiyatning real moddiy hayoti (ifodali qilib aytganda – ijtimoiy materiya), obyektiv ijtimoiy voqelik.

Ijtimoiy ong – bu jamiyatning o‘z borligi va dunyosini bir butun anglashi.

Nima belgilovchi – ijtimoiy borliqmi yoki ijtimoiy ong? degan falsafiy munozara bor. Falsafiy idealizm tarafdorlari jamiyat borlig‘i va tarixiy jarayonlarning borishi individual va ijtimoiy ongga bog‘liq deb faraz qildilar. Qisqacha bu pozitsiya – *“dunyoni g‘oyalar boshqaradi”*- degan dunyoqarash formulasida ifodalanadi. O‘z navbatida materializm tarafdorlari, albatta real moddiy hayot, ijtimoiy borliq jamiyatga va individlar ongiga asosiy ta’sir qiladi deb hisoblaydilar. Har xil g‘oya va nazariyalar bo‘shjoyda vujudga kelib, ijtimoiy borliqning muammolari va ziddiyatlari natijasida tug‘iladi. Shundan jamiyatni takomillashtirish uchun odamlarning ijtimoiy borlig‘ini o‘zgartirish kerak degan markscha-lenincha asosiy fikr kelib chiqadi.

Ammo, SSSRdagi sotsialistik eksperiment amalda uning bunday emasligini ko‘rsatdi. Bunday qaraganda ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong murakkab dialektik aloqada va bir-biriga ta’sir qiladi. Shu bilan birga ko‘p tarixiy holatga qarab har xil ta’sir qiladi.

Ijtimoiy borliq, nemis faylasufi K. Marks fikriga binoan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy strukturasini yaratadigan, moddiy ishlab chiqarish usuli va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlariga asoslangan. Marksistlar ishlab chiqarish usulining quyidagi turlarini ko‘rsatadi: ibtidoiy jamoa, quldorchilik, feodal, kapitalistik, sotsiolistik, kommunistik.

Ijtimoiy ong, eng asosiy ikki darajaga ega: kundalik ong, bilan bog‘lik ijtimoiy psixologiya (yoki ommaviy ong) va nazariy ong bo‘lib,unga falsafa, fan, axloq, ijtimoiy mafkura va shungao‘xshashlar kiradi.

Kundalik ong, odamlarning har kunlik hayotida vujudga keladi. Odatda u o‘z-o‘zdan yuzaga keladigan, rasmiylashtirilmagan, subektiv ong hisoblanadi. Kundalik hayotni ijtimoiy psixologiya aks ettiradi. Unda birinchi navbatda, bu hayotni anglamaslik va tushunish emas, balki unga psixologik munosabat, u odamning subektiv baholashi sifatida maydonga chiqadi.

Nazariy ong jamiyatni boshqarish va tabiiy, ijtimoiy borliqning muhim qonunlarini ifodalashga qodir ong shakli hisoblanadi. Bunday boshqarish mexanizmlaridan biri mafkura bo'lib,u jamiyatga ta'siri va ijtimoiy o'zgarishlar dasturlari va uslublaridan kelib chiqadigan ma'lum nazariy qoidalarga asoslangan murakkab bilim hisoblanadi.

Mafkuraning siyosiy va boshqa turlari, falsafa, fan, din, axloq, san'at, huquq ijtimoiy ong shakllari hisoblanadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda boshqa yondashuvlardan ham foydalanish mumkin. Unda ijtimoiy struktura jamiyat hayotining quyidagi: ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalari orqali o'rganiladi.

Ma'naviy soha ma'naviy ta'limot, falsafa, din, fan, axloq, huquq, maorif, san'at keng ma'noda madaniyatning har xil namoyon bo'lish shakllarini birlashtiradi.

Siyosiy soha jamiyatning ikkita asosiy institutlarini (davlat va siyosiy partiyalar tizimi, shuningdek kasaba, yoshlar va boshqa siyosiy tashkilotlar) qo'shadi. Barcha siyosiy institutlar va tashkilotlar jamiyatda hokimiyatga erishish va undan foydalanish yoki o'z maqsadlari yo'lida unga ta'sir qilishni o'zining maqsadi qilib qo'yadilar.

Iqtisodiy soha moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy struktura elementlari: zavodlar, fabrikalar, banklar, birjalar, qishloq xujalik korxonalari, mayda xususiy biznes va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Jamiyat tahlili ijtimoiy sohasining ko'p belgilari bo'yicha shakllangan har xil ijtimoiy guruhlar va uyushmalar: jinsi bo'yicha(erkaklar va xotinlar), yoshi bo'yicha(bolalar, kattalar, qariyalar) dini bo'yicha (ishonuvchi va ishonmaydiganlar), iqtisodiy(boylar, kambag'allar va boshqalar) tashkil qiladi.

3. Qadriyatlar va uning jamiyat hayotidagi o'rni. Falsafada hamma vaqtda ham qadriyatlar muammosiga katta e'tibor berilgan. «Haligida nima bor» va «Haligi qanday bo'lishi kerak» o'rtasida aniq chegara o'tkazilgan buyuk nemis faylasufi I.Kantning ishidan keyin ularni jadal o'rganish boshlandi. Kant izdoshlari asta-sekin falsafada yangi yo'nalish – aksiologiyani (qadriyatlar tug'risida falsafiy ta'limot) shakllantirdilar, keyinroq boshqa yevropa faylasuflari (Gusserel, Shiller, Kamyu, Sartr, Berdyaev va boshqalar) faol rivojlantirdilar.

Qadriyat nima? Bu qandaydir obyekt(hodisa)ning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati yoki roli. Falsafiy ma'noda «... qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan,balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar,holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va

boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir»[80]. Shu bilan birga ko‘p qadriyatlar jamiyatdan tashqari o‘z ahamiyatini tez yo‘qotadi. Masalan, pul va tillo bezaklar odamsiz orolda kerak emas. Undan hech qanday amaliy foyda yo‘q. shunga ko‘ra ko‘p qadriyatlar faqat insoniyat jamiyatida tug‘iladi va yashaydi.

Qadriyatlarning asosiy ijtimoiy funksiyasi nimada? U shundaki, odam va jamiyatga hayoti va faoliyatida aniq yo‘nalishlar beradi. Nimaga intilish kerakligi, uni qanday qilish lozimligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga erishish vositalarini aniqlaydi. Ma’lumki bunday holatda qadriyatlar odamlar ijtimoiy hayotining tartibga soluvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Jamiyat qanday bo‘lsa uning qadriyatlari ham shunday bo‘ladi. Qadriyatlar qanday bo‘lsa uning tartibga soluvchisi ham shunday bo‘ladi. Masalan, qonunga itoat qiluvchi, huquqiy jamiyatda oliy ijtimoiy qadriyatlardan biri qonun bo‘lib, u orqali barcha ijtimoiy hayot tartibga solinadi. O‘z boshimcha va qonunsiz jamiyatda obyektiv qadriyat va tartibga soluvchi, muqarrar ravishda kuch ishlatish hisoblanadi. Bunda qonun, huquq, axloqiy qadriyat hokimiyat tomonidan siqib chiqariladi. Kim kuchli bo‘lsa u to‘g‘ri, barcha qolganlar,garchand haqiqat ular tomonda bo‘lsa ham, zo‘rovonlar oldida juda himoyasiz bo‘lib qoladilar.

Qandaydir hodisaning jamiyat uchun qadrliligi nimada? Bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarining rivojlanish darajasida. Radiaktiv uran va kompyuterning yovvoyi uchun qadrliligi katta emas. U undan qanday amaliy foyda olishni bilmaydi. Bu yerda ma’lumki, u yoki bu narsani ahamiyati va qadrliligi to`g‘risidagi qarashlarga odamning yetuklik darajasi ta’sir qiladi.

Odamlarning ehtiyojlar va manfaatlar murakkabroq, chunki ular nafaqat ob’yektiv, subyektiv sabablar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Uy-joy va oziq-ovqatga,kiyim-kechakka bo‘lgan ehtiyoj har bir jamiyatda ob’yektiv ravishda mavjud. Shu bilan birga moddiy boylik qadriyati har xil jamiyatda bir xil emas. Qayerdadir pul va oltin moddiy boylikning ekvivalenti sifatida ijtimoiy qadriyatlar darajasida birinchi o‘rinni egallaydi. Qayerdadir ularga kamtarona o‘rin beriladi.

Qanday qadriyatlar bor? Berilgan tasniflardan biri bo‘yicha ular quyidagicha bo‘ladi: moddiy (mehnat quroli, uy, pul, kiyim, ovqat, suv va boshqalar) va ma’naviy (axloq, bilim, go‘zallik, ma’naviy ta’limot, falsafa, din, fan, huquq, san’at va boshq.). Bu yerda shuni tushunish kerakki, moddiy qadriyatlar odam hayotida birdan-bir maqsad

[80] Назаров Қ.Н. Фалсафа асослари. – Т.:"Ўзбекистон миллий файласуфлар жамияти", 2012.- Б.755.

bo‘laolmaydi. Ular faqat ma’naviy maydonda joylashgan odam borlig‘ining asl maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita vazifasini o‘taydi.

Qadriyatlar tasnifining boshqa ikkita guruhi ham mavjud bo‘lib, sub’yektiv va ob’yektivga bo‘linishini taqozo qiladi, shuningdek quyidagilarga ham bo‘linadi: shaxsiy, korporotiv (guruhlar) va umuminsoniy.

Alohida sub’yektiv (odam yoki guruhlar) uchun ahamiyatli xodisa sub’yektiv qadriyat hisoblanadi. Millionlab odamlar konfetlarini yeb, qog‘ozlarini tashlaydilar, chunki konfet qog‘ozi ular uchun hech qanday qadriyat emas. Lekin, kolleksioner ularni teradi va saqlaydi, ular uning uchun katta qadriyat hisoblanadi. Mana suv, toza havo, ovqat har bir odam uchun ob’yektiv moddiy qadriyatdir, chunki ularsiz yerda hayot kechirishi mumkin emas.

Shaxsiy, korporotiv (guruhlar) va umuminsoniy qadriyatlar orasida oxirgisi katta ahamiyatga ega. Barcha insoniyat tarixining rivojlanishi – alohida siyosiy partiyalar, diniy birlashmalar, milliy yoki boshqa guruhlar qadriyatlaridan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvor ahamiyatini odamlarning anglash jarayonidir.

Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi keng madaniyatlararo muloqotga, o‘zaro tushunishga, hamkorlik va yagona planetar hamjamiyatga birlashishda odamlar uchun katta istiqbol ochadi.

Falsafiy ta’limot muhabbat, insonparvarlik, burch, adolat, zo‘ravonlik qilmaslik, oliyjanoblik, diniy va siyosiy chidamlililik, bilish, madaniyat, maorif, erkinlik, ijtimoiy taraqqiyot, tenglik va boshqalar kabi umuminsoniy qadriyatlarning butun jamiyat, har bir odam uchun ahamiyatini asoslashga katta xissa qo`Shib keldi va kelmoqda.

4. Shaxs va jamiyat. Yuqorida biz tabiiy mavjudot sifatida odam erkinligi muammolarini qarab chiqdik. Endi uning ijtimoiy jihatlariga to‘xtalamiz. Uning mohiyati shundaki, odam jamiyatda erkin bo‘lishi mumkinmi? Bu savolga javobning ikki – ijtimoiy va axloqiy tomonlari bor.

Avvalo odamning ijtimoiy erkinligi to‘g‘risidagi savolning ijtimoiy tomonini ko‘rib chiqamiz. Bu yerda muammo jamiyatda siyosiy hokimiyat va moddiy mulkka ega bo‘lganlardan shaxsning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy mustaqilligiga borib taqaladi.

Masalan, nemis faylasufi G.Gegel jamiyat tarixini erkinlikni amalga oshirishda progress deb qaradi. Qadimgi dunyoda faqat bitta odam (davlatni boshqaruvchi) erkin edi deb yozadi. Barcha qolganlar (qullar va fuqarolar) unga mutloq qaram edilar. Keyinroq, antik demokratiya davrida

erkinlikdan ancha ko‘p miqdordagi odamlar foydalandi, ozod bo‘lmagan (qullar) ham yetarli edi. Bir asrdan keyin nasroniylik jamiyati hammani ozod qildi deb yozadi Gegel. Albatta, bu yerda u XIX asrdagi ijtimoiy vaziyatni ideallashtiradi va odamlarning erkinlik darajasini oshirib yuboradi. Axir, agar u vaqtda Yevropada siyosiy bo‘lmasa ham, odamlarning asosiy qismi iqtisodiy jihatdan zavodlar, fabrikalar, fermerlar, bank egalariga qaram edilar. Lekin, shunga qaramay yevropa huquqiy davlati qadimgi hukmdorlar monarxiyasiga nisbatan ko‘p erkinliklar berdi.

Jamiyatga odamning ijtimoiy qaramligini boshqa nemis faylasufi K.Marks qaramlikning shaxsiy (siyosiy, harbiy, diniy, jismoniy) bo‘lishini ko‘rsatdi. Masalan, bu qul, qirol, asirlar yoki krepostnoy dehqonlarning qaramligi. Iqtisodiy bo‘lishi ham mumkin, unda odam shaxsan erkin bo‘lib, yashash uchun hech narsasi bo‘lmaganlikdan «xo‘jayin»ga ishlashga majbur. Bunday munosabatlar kapitalistik jamiyat uchun ham xosdir. U jamiyat rivojining yuqori bosqichida (sotsializm va kommunizm) shaxsiy va iqtisodiy qaramlik tugatiladi deb faraz qildi. Odam erkin individ bo‘lib, «xo`jayin»ga emas yaratuvchilik faoliyatida o‘zining ijodiy ehtiyojlarini amalga oshirish uchun o‘ziga ishlaydi. Bir so‘z bilan aytganda mehnat erksiz qatorga bo‘lmay, qiziqarli ish bo‘ladi, unda odam majburlikdan emas, ehtiyoji bo‘yicha ishlaydi.

Biroq, amalda davlat bor ekan, odam to‘la erkinlikdan foydalana olmaydi. Davlat uni o‘zining qonunlari va farmoyishlari bilan chegaralab qo‘yadi. Erkinlikni bunday chegaralash kerakmi? shunday ekan, jamiyat va inson rivojlanishining hozirgi bosqichida ular juda muqarrar. Nimaga? Chunki, bu cheklovlar davlat kuchi bilan jamiyat a’zolari teng huquqlarini va uning barqarorligini ta’minlaydi. Albatta, biz bu yerda har qanday davlatni emas, barcha siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy resurslar tomonidan shaxsning huquqi va demokratik erkinliklari yuqori darajadi qadrlanadigan va kafolatlanadigan haquqiy davlatni nazarda tutayapmiz. Bunday yangi davlat andozasini yangi davr Yevropa faylasuflari (Gobbs, Lokk, Manteske, Russo, Kant va boshqalar) ishlab chiqdilar. Huquqiy davlatning maqsadi – shaxsni bostirish emas (o‘tmishdagiday), uning huquqini kafolatlashdir.

Shaxs ijtimoiy erkinligining ikkinchi tomoni – bu axloqiy (etik)masalasidir.. Huquqiy davlat odamga keng huquq va imkoniyatlar beradi. Demokratik huquqiy tizimning bosh tamoyili – «hamma, nima man qilinmagan bo‘lsa – ruhsat berilgan»,degan g‘oyaga asoslanadi.. Muammolarni keskinlashtirish uchun faraz qilaylik, jamiyat, davlat va uning qonunlaridan butunlay voz kechdi deb. Hamma narsaga ijozat

berilgan deb. Bu taqiq va cheklovlarning yo'qligini ifodalaydimi? Odam barcha xohlagan narsasini qilaoladimi? Javob aniq. Agar shunday bo'lsa, jamiyatda tartibsizlik (xaos) – «hamma – hammaga qarshi urush» vujudga keladi. Odam har qanday holatda imkoniyat urug'i va o'zini saqlash uchun axloqiy me'yorlarga (ichki axloqiy qonunlar) rioya qilishga majbur bo'ladi. Shuning uchun, *boshqa odamning mustaqilligi qayerda boshlansa, sening erkinligining Shu yerda tugaydi degan, erkinlikning asosiy axloqiy formulasi* mavjud.

20. Sxema

Insoniyat jamiyatining asosiy tasnifi



21 sxema

Jamiyat hayotining sohalari



22 sxema

Tarixiy materializm (marksizm) konsepsiyasiga binoan jamiyat strukturasi



23 sxema

Jamiyat rivojlanishining (tip) turlari



Urushlar	Islohotlar
Siyosiy to'ntarishlar	Hokimiyatning almashishi an'ana va saylovlar natijasi sifatida
Ijtimoiy-siyosiy inqilob	G'oyalar, nazariyalar, konsepsiyalar, mafkuralarning tabiiy jo'shqinligi
Qo'zg'olon	Tabiiy- iqtisodiy o'zgarishlar
Ilmiy inqiloblar	Ijtimoiy ierarxiya va tarzlarning erkin o'tishi
Texnologik inqiloblar	Ijtimoiy harakatchanlik
	Madaniyatlararo dialog

24 sxema

Odam ijtimoiy hayotining asosiy regulyatorlari (tartibga soluvchilari)



25 sxema

Odam qadriyatining turlari va ierarxiyasi



3-§.Tarixiy jarayon va tarix falsafasi

1. Tarix falsafasi tushunchasi va muammolar. Tarix falsafasi insoniyat tarixiy rivojlanishining eng fundamental qonunlari va tamoyillarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu yerda quyidagi masalalarga: tarixning ma'nosi va maqsadi, tarixiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlari va mexanizmlari, ijtimoiy progress yokm regress mavjudmi va uning mezonlari qanday, insoniyat tarixining yagonaligi va ko'pxilligi masalalariga katta e'tibor qaratiladi.

Tarix falsafasi falsafa tarixdan nimasi bilan farq qiladi? Falsafa tarixi, asosan, tavsif xarakterga ega. U real tarixiy voqealar, uning sabablari va oqibatlari, ularning bevosita va bilvosita qatnashchilari, ularning jamiyat hayotining har xil sohalarga ta'sirini aniqlaydi va ko'rsatadi. Tarix falsafasining vazifalari alohida tarixiy voqealarni o'rganishdan iborat emas, balki, konkret ijtimoiy fanlar yutuqlari asosida fundamental, eng umumiy tarixiy qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.

Masalan, Falsafa tarixining ma'nosi masalasi konkret ijtimoiy fanlar uchun odatda, ilmiy ahamiyatga ega emas. Pozitivistlar, xususan, fan bunday savollarga javob bera olmaydi deb faraz qiladilar. Bu metafizik masalalar, ilmiy bilish sohasi doirasidan chiqadilar. Tabiiy va ijtimoiy hayotning xususiy faktlarini o'rganuvchi konkret fanlardan asl falsafa shunga o'xshash «chegaradan tashqari» savollarga murojaat qilishi bilan farq qiladi.

Shunday qilib, tarix falsafasi fundamental tarixiy qonuniyatlarni bilishda nafaqat odamga yordam beradi, balki, pozitivistik fan voz kechayotgan, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan odam ruhiyatini to'lqinlantiradigan savollarga javoblarni izlaydi.

Tarixiy rivojlanishning ma'nosi va yo'nalishlari. Tarixiy rivojlanish ma'nosi muammolari to'g'risida gap ketganda qo'yidagi savol ko'zda tutiladi: nima (nima uchun) tarixiy jarayon rivojlanadi (yashaydi)? Bu savol bilan boshqasi ham bog'liq: jamiyat tarixi qaysi tomonga progressiv yoki regressiv tomonga harakatlanadimi? Bu savollarga faylasuflarning qanday javob berganligini qarab chiqamiz.

Insoniyat tarixi ma'nosi to'g'risidagi qadimgi qarashlardan biri ***"jonni ozod qilish" konsepsiyasidir***. U klassik hind falsafasida, Platon va yangi platonchilar va ba'zi bir boshqa falsafiy ta'limotlarda rivojlantirildi. Bu konsepsiyaga binoan, insoniyat tarixi va odamlarning dunyoviy hayotining moddiy dunyoga bog'liqlikni tugatish va ma'naviy dunyo amaliyotni qo'llashdan iboratdir. Ularning fikricha «tana - bu jonning zindoni», «yerdagi dunyo – bu hayot haqiqiy emas – oliy dunyodagi asl

ma'naviy hayotga tayyorgarlikdir. Odam o'zining ma'naviy kuchi bilan moddiy borliqqa bog'liqlikni tugatadi va ozodlikka erishadi».

Jonni ozod qilish konsepsiyasi ko'proq ***ma'naviy koinot evolyutsiyasi konsepsiyasiga yaqin*** bo'lib, bu yerda tarixning ma'nosi odamning ma'naviy mohiyati rivojlanishida va uning ongining kengayishida ko'rinadi. Bu unga moddiy va ma'naviy dunyoda yashashga qodir, yuqori ongli ma'naviy kosmik mavjudotga o'zgarishiga va jismoniy, aqliy chegaralanganlikni tugatish imkoniyatini beradi.

Yuqorida qayd qilingan ikkita qarashlarning ma'lum ko'rinishlaridan biri nasroniy faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan ***providensializm diniy konsepsiyasidir.*** Bu konsepsiyaning dastlabki asosiy fikri qo'yidagilarda: «ilohiy ko'rabilish» (qandaydir oliy kuch - xudo), u odamga noma'lum maqsadlarni taqib qilib, insoniyat tarixini boshqaradi. Shu bilan birga, Xudo ta'siri ostida tarixiy jarayon mavjud bo'lgan oliy, takomillashgan jamiyat holatiga harakatlanadi deb faraz qilinadi.

Tarix ma'nosining idealistik konsepsiyasi uni g'ayriinsoniy kelib chiqishning oliy tamoyillarini amalga oshirish sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi – bu dunyoviy jarayonning bosqichlaridan biridir. Uning maqsadi – insoniyat jamiyati va odam orqali kechadigan mutlaq Ruhning ozod bo'lishi va o'zini bilishdir.

*Tarixning ma'nosi marksistik konsepsiyasi nemis faylasuf-materialisti K.Marks izdoshlari tomonidan rivojlantirildi.*Ularning fikricha, tarixning ma'nosi inson va uning mohiyatli kuchlarining rivojlanishidadir. Bu nuqtayi nazarning tashqi o'xshashligiga qaramasdan ruhiy-koinot evolyutsiyasi konsepsiyasi undan ancha farq qiladi. Bu yerda insonning rivojlanishi sifat ma'nosiga nisbatan tezroq miqdor ma'nosida ko'rib chiqiladi. Hech qanday uning ontologik o'zgarishi oliy ma'naviy mavjudot deb qarab chiqilmaydi.

Endi tarix yo'nalishlari masalasiga murojaat qilamiz.Albatta agar biz tarixda qandaydir ma'no mavjud deb faraz qilsak, Shu bilan biz tarixiy jarayonlarning ma'lum bir yo'nalishlari borligini tan olamiz Bu yashirin ma'noni amalga oshirish tomon yo'nalganligini anglaymiz. Shu bilan birga, ba'zi faylasuflar tarixning yo'nalganligi to'g'risidagi masalani sal boshqacha qo'ydilar. Mana shunday: tarixning rivojlanishi progressiv yoki regressiv yo'nalishda bo'ladi. Bu savol o'tmishda to'rtta asosiy javobni oldi.

1. Tabiatda va jamiyatda hodisa va jarayonlarning doimiy doiraviy aylanishi sodir bo'ladi. Hammasi ertami kech "o'z qatoriga" qaytadi.

Qadimgi hind va yunon faylasuflari shunday deb o‘ylaganlar. Jamiyat yuksalish (oltin asr) va emirilish (Temir yoki Qora, asr) davrlariga ega.

2. Jamiyatning progressiv rivojlanishi mavjud – unga takomillashmagan holatdan yuqori takomillashgan holatga ko‘tarilishi. Bu fikr har xil dunyoqarash yo‘nalishidagi faylasuflar ishlarida uchraydi – Kondorse, Gerder, Gegel, Marks, Lenin, Blavatskaya, Rerix va boshqalar. Bu yerda tarixiy jarayonlarining mezonlari (ko‘rsatkichlari) to‘g‘risidagi masala katta ahamiyatga ega. Jamiyatning progressiv rivojlanganligini nima ko‘rsatadi? Eng ma’lum javoblar qo‘yidagicha.

- Insonning ma’naviy rivojlanishi (yetuklik, aql, axloqiy tamoyillar, ma’naviy kuchlar, ongning kengayishi).
- Inson erkinligining kengayishi.
- Tabiat kuchlarini egallash.
- Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi.
- Yagona hamjamiyatga birlashish yo‘lida harakat qilish.

3. Tarixiy taraqqiyotning yagona yo‘li mavjud emas. XX asrda ba’zi G‘arb faylasuflari shunday deb o‘yladilar. Ular progress va regress – ikki o‘zaro bog‘liq tendensiyalar ekanligini qayd qildilar. Birdagi progress boshqada regressni ifodalaydi. Masalan, XX asrda fan va texnikaning rivolanishi (progress), hozirgacha tugatilmagan ekologik inqirozga (regress) aylandi. Umuman jamiyat tarixiy rivojlanishini qanday baholash mumkin, u progressivmi yoki regressiv? Bunday fikrlash ma’lum ma’noda so‘zsiz adolatlidir. Ammo, bu insoniyat tarixining umumiy yo‘nalishini aniqlash mumkin emas degani emas.

4. Jamiyatning regressiv rivojlanishi ham mavjud deb faraz qiluvchilar. Nemis faylasuflari Nitsshe va Shpenglerlar jamiyatning inqiroziga, salbiy ijtimoiy hodisalarning (madaniyatning, axloqning, huquqiy ongning, dinning va boshq.) ko‘payishiga ishongan holda, jamiyatning emirilish va regress foydasiga guvohlik beradilar. Shuni ham qayd qilish kerakki, bu nuqtayi nazarning vakillari, yemirilish davridan keyin, ma’lum sharoitlarda jamiyat tarixiy ko‘tarilishining yangi davri boshlanishini ham inkor qilmadilar.

Ko‘pchilik hozirgi faylasuflar tarixda yo‘nalishlikning mavjudligini faraz qiladilar. *Tarixiy progress ham mavjud.* Shu bilan birga, real kuzatishlar insoniyat tarixining ziddiyatli rivolanishiga guvohlik beradi. Unda ham progressiv, ham regressiv tendensiyalar birga yashaydi. Agar inson va jamiyat tarixiy rivojlanishining qandaydir oliy ma’nosi bo‘lsa, unda u avtomatik amalga oshirilmay, har bir odamning faol zo‘r berishini talab qiladi.

2. Jamiyat tarixiy rivojlanishining andozalari (modellari). Falsafa tarixining asosiy muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Agar biz yuqorida insoniyat tarixi qaysi tomonga va nima uchun harakatlanishini bilishga uringan bo'lsak, endi bizga jamiyat tarixiy rivojlanishi qanday amalga oshirilishini tahlil qilishimiz kerak. Qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha har xil mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan, bu jarayonning uchta asosiy nazariy andozalari ma'lum.

Tarixiy jarayonning siklik (davr) andozasi jahon tarixini doimo bir birini almashtiruvchi, ma'lum sikllarning abadiy aylanishi sifatida ko'rsatadi. Ular jamiyatdagi madaniy ko'tarilish bosqichlarini, turg'unlik va yemirilishni aks ettiradi.

Xarakterli misol – jamiyat rivojining to'rtta janubi (sikl) to'g'risidagi qadimgi hind mifologik va diniy falsafiy ta'limot quyidagilardan iborat.

1. Satyayuga (1728000 yil) – insoniyat tarixidagi Oltin asr ma'naviy gullash va moddiy farovonlik davri.
2. Tretayuga (1296000 yil) – Kumush asr, illat va yomonlik o'sishining boshlanishi.
3. Dvaparayuga (864000 yil) – Mis asr, yomonlik butun dunyoga yoyiladi.
4. Kaliyuga (432000 yil) – Qora yoki temir asr – illatlarning tantanasi, jamiyatda zo'ravonlik va ma'naviyasizlik.

Kasalliklar, ochlik, urushlar, isyonlar, ag'dar-to'ntarlar inson hayotini chidab bo'lmas darajaga olib keladilar. Bitta Maxayugi (Katta sikl – 4320000 yil) davri shunday tugaydi.

Qachon odamlarning azoblanishi o'z chegarasiga etganda insoniyat dunyosida odamlar aqlini yangi ma'naviy haqiqat bilan yorituvchi – ma'naviy ustoz avatara (Xudoning timsoli) paydo bo'ladi. Navbatdagi Maxayuga boshlanadi. Ob'yektiv Kosmos yashash davri – kosmik manvantara tugaguncha cho'ziladi deb hisoblaydi induizm falsafasi. Tarixning siklligi to'g'risidagi o'xshash va unga yaqin qarashlar Geraklit, Platon, Aristotel, Polibiya, Viko, Danilevskiy, Shpengler, Toyinbi, Gumilev va boshqalar ta'limotlarida ham uchraydi.

Jamiyat to'g'ri chiziqli rivojlanadi deb hisoblaydi tarixning chiziqli andozasi. Geometrik sxema – chiziq yoki kesma. Ma'lumki, bu yerda yo'nalganlik progressiv yoki regressiv tomonga bo'lishi mumkin.

Bunday qarashlarga klassik misol – tarixni o'rta asr xristiancha tushunish (Avgustin va boshqalar). Xristian texnologiyasi uchun tarixda ikki vaqt muhim ahamiyatga ega: Xudoning o'g'li (Iso)ning eramizgacha I asr chegerasida Erga kelishi va eramizning birinchi asrida kutilayotgan

uning ikkinchi kelishi, u uzoq bo‘lmagan kelajakda amalga oshishi faraz qilinadi. shunday qilib, insoniyat tarixi, insoniyat ustidan sud, ikkinchi kelishi “vaqtning oxiri” ga tarang intilgan holda, kesmaga(vektor) tortilmoqda.

Nasroniylik konsepsiyasi progress yoki regress bilan aniq o‘zaro nisbatga ega emas. Uning hammasi boshqa tekislikda joylashgan. Fransuz faylasufi Mari Kondersening tarixning chiziqli andozasi ijtimoiy taraqqiyotning aniq g‘oyasiga ega bo‘lib, ularning mezoni inson aqlining «bilim, fan, maorif va ma’rifat» rivolanishidir. U taraqqiyot harakatlantiruvchisidir. Yevropa faylasuf – pozitivistlari O.Kont va G. Spenser tarix chiziqli – progressiv andozasi tarafdorlaridir.

Tarixning spiral(burama) andozasi dialektik falsafa uning har xil ko‘rinishlari (G.Gegel, K.Marks va boshqalar) yoqlovchilari uchun xosdir. Bu andoza yuqorida ifodalangan, sikllilik va chiziqlilikni o‘zida sintezlashtiradi. U ma’lum tarixiy sikllarning mavjudligini ko‘rsatib, shu bilan birga spiralning har bir yangi aylanishi oldingisini takrorlamaydi – o‘tmishga to‘la qaytishni nazarda tutmaydi. Spiral rivojlanish progressiv ham, regressiv ham bo‘lishi mumkin.

Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to`g`risidagi marksistcha nazariyani qarab chiqamiz. Marks bu atama bilan, ishlab chiqarish usuli asos bo‘lgan jamiyatning konkret tarixiy tipini ifodaladi. Beshta formatsiya – (ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik, kommunistik) ko‘rsatildi. Ularning barchasi tarix spiral rivojlanishining ma’lum aylanasini ko‘rsatadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyat sababli ijtimoiy inqiloblar orqali biri boshqasiga o‘tadi. Tarix rivojlanishi bu «erkinlik podSholigi» (kommunizm) tomon yo‘l deb faraz qildi K.Marks. K.Marks – tarixiy progress g‘oyasi tarafdori bo‘lgan edi.

3. Tarixiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlari. Insoniyat tarixida tarixiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlari muammolarining mohiyati, nimalarga bog‘liq? - degan savol tug‘iladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, gap tarixiy determinizm, qandaydir tarixiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida ketadi. Faylasuflarning ko‘pchiligi bunday o‘zaro bog‘liqlik mavjud – jamiyat tarixiga ta’sir qiluvchi ma’lum omillar va kuchlar bor deb faraz qildilar. Ammo, bu kuch va omillarni tushunish har xildir.

Masalan, Hind veda falsafasida tarixda muhim rol, vaqti, vaqti bilan odamlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan diniy islohotlar, ma’naviy qiyofadagi murabbiylar, Xudo timsoli bo‘lgan (avatarlar)ga berilgan. O‘rta asr nasroniylik falsafasida tarixni harakatga keltiruvchi asosiy kuch – Xudo.

Yangi davr ko‘p Yevropa faylasuflari tarix yo‘li diniy, falsafiy, ilmiy yoki siyosiy g‘oyalar (g‘oyalar dunyoni boshqaradi) bilan bog‘liq dedilar.

Ba’zi mutaffakkirlar jamiyat tarixiy rivojlanishi uchun tabiiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatdilar, masalan, fransuz tadqiqotchisi Monteske va Kuzen bunday omil deb tabiiy klimatik sharoitlarni hisoblaydi, rus tabiat tadqiqotchisi Mechnikov u yoki bu hududning suv sohasini (daryo,ko‘l, dengiz) inobatga olish kerak deydi. Nemis faylasufi Gegel tarixning asosiy kuchini insoniyat tarixi orqali o‘z maqsadlari – erkinlik va o‘zini bilishga erishish, mutlaq Ruhning rivojlanishida deb biladi. Boshqa nemis faylasufi – Marks, aksincha, ma’naviy omillar ahamiyatini inkor qilib, moddiy omillar – (moddiy ne’matlar ishlab chiqarish usuli, odamlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari, mulkka egalik qilish) ning hal qiluvchi rolini alohida ta’qidlaydi. XX asr G‘arb sientientlari insoniyat tarixi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fan va texnikaning rivojlanishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadilar.

Lekin, tarixiy determinizm bo‘yicha ko‘p qarashlar bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi falsafada ko‘p omilli tarixiy determinizm konsepsiyasi mustahkamlanmoqda. Uning asosiy g‘oyasi shundaki, tarixning rivojlanishiga ma’naviy va moddiy kabi har xil omillar ta’sir qiladi. Shu bilan birga ma’lum omillarning konkret davrda, konkret millatlar tarixiga ta’sir jadalligi har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, VII-IX asrlarda Arabiston Yarim oroli qabilalarining tarixiy rivojloanishida yangi din – islom muhim rol o‘ynadi. Qadimgi slavyanlar hayotida bu davrda diniy omil bunday ahamiyatga ega bo‘lmadi. Geografik, moddiy va siyosiy omillar ohang berdilar.

Umuman, ko‘p omilli konsepsiyalar variantlaridan biriga binoan, tarixning harakatlantiruvchi kuchlarini quyidagi sxemada ko‘rsatish mumkin.



Geografik sharoitlar	Ijtimoiy guruh va sinflar
Kosmik ta'sir	Xalq ommasi
Psixokosmos ta'siri	Tarix subyektlari
	Psixokosmos ta'siri

Tabiiy va tarixiy qonuniyatlarning ta'siri ma'lum. Masalan, Yerning Quyosh atrofida aylanishi, iqlimning o'zgarishi, yer qimirlashi, biologik o'zgaruvchanlik, Shuningdek, tarixning dialektik sikllanganligi(spirallik) jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Geografik sharoitlarning rolini kuzatish oson. Qadimgi dunyoda birinchi yirik sivilizatsiya iliq iqlimli mamlakatlarda vujudga kelgan. Deyarli barcha yirik Shaharlar suv yoqasida (daryolar, ko'llar, dengizlar) joylashgan. Sanoatni rivolanishi (metall ishlab chiqarish va boshqalar) tabiiy hom ashyolarining (kon, ko`mir, elektr energiya) yirik zahiralarining yaqin joylashishini talab qiladi.

Tarixiy jarayonga kosmik ta'sirni fan yangi davrda anglay boshladi. Albatta, qadimgi davrdan odamlar quyosh nuri, kometa, asteroid, oyning ahamiyatini fahmlay boshladilar. Shu bilan birga XX asrda buyuk rus olimi A. Chijevskiy tadqiqotlariga binoan, Quyosh faolligining nafaqat jismoniy (iliqlik, magnit) balki ma'naviy, hayvonot va o'simlik dunyosiga, jamiyatga,odamga psixobiologik ta'sirini aniqladilar.
Ijtimoiy o'zgarishlarning aksariyat ko'pchiligi (urushlar, inqiloblar, islohotlar, ilmiy kashfiyotlar va boshqalar), hatto epidemiyalar 11 yilda bir marta oshib boradi, Quyosh faolligi davrida amalga oshadi. Olimlar fikricha, boshqa kosmik jismlar (yulduzlar, planetalar, kometalar) shunday ta'sir ko'rsatadi. Bu inson va jamiyatga osmon ob'yektlarining qonuniy, davriy ta'siri (ma'naviy, ruhiy, jismoniy) mavjudligi bosh g'oyasi bo'lgan, qadimgi astrologiyaga bo'lgan salbiy ilmiy munosabatlarni qayta anglashga majbur qiladi.

Rus faylasufi va shoiri Daniel Andreev «ichki kosmos» deb atagan, ko'p o'lchovli dunyo (ingichka dunyolar) tarixiga muhim ta'siri ba'zi bir falsafiy ta'limotlarda (teosofiya va jonli etika) asoslanadi. Hind mutafakkirlari (maxatm) fikricha "ichki kosmos" insoniyatning ruhiy energiyasi va fikrlari ta'sirida shakllanadi. Bunday holda u o'ziga Yerning energetik maydoni noosferani (aql sohasi) tasavvur qiladi.

Insoniyatning ruhiy – ma'naviy holati qanday bo'lsa – planetaga kiradigan va uni o'rab olgan ichkidunyosining ham holati shunday bo'ladi. Tarixning hozirgi davrida qachon urushlar, ijtimoiy mojarolar, ekologik inqiroz va ma'naviyasizlik o'choqlari yer yuzida tarqalganida, inson va jamiyatga ichki dunyoning salbiy energetik ta'sirining kuchayishi

Jonli-tirik Etika kitobida qayd qilingan. Elena Rerix yangi ommaviy epidemiyalar, turg'unlik va ruhiy kasallikning ko'payishi, shuningdek jinoyatchilik ildizlarini shu yerdan izlash kerak deydi.

Hamma vaqtlar buyuk tarixiy shaxslar tarixda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Pifagor, Platon, Budda, Lao-Szы, Konfutsiy, A.Makedonskiy, Yu.Sezar, Iso, Muxammad, Chingizxon, Temur, Nyuton, Pyotr 1, Lomonosov, Napoleon, Lenin, Gitler, Stalin, EnShteyn kabi odamlarning fikrlari va ishlari nafaqat o'z asridagi va keyingi yuz yillikda millionlab odamlar hayotiga ta'sir qildi va qiladi. Biz bu shaxslar orasida ma'naviy islohotchilar va faylasuflar, olimlar va siyosatchilar, sarkardalar va istilochilarni ko'ramiz. Ularning tarixiy roli progressiv (Budda) va regressiv (Gitler) bo'lishi mumkin, lekin ular tarix yo'lini u yoki bu tomonga o'zgartirishganini inkor qilish mumkin emas.

Albatta, buyuk shaxslar qachonki o'z orqasidan jamiyatdagi sinflar va guruhlar, katta xalq ommasini ergashtira olsa, shunda tarixni o'zgartirish mumkin. Shuning uchun ular muhim tarixiy kuch hisoblanadi.

Oxirida tarixning subyektlari to'g'risida keng ma'noda, kim tarixiy jarayonlarning maqsadi, qonunlari va mexanizmlarini anglasa, uni amalga oshirishga ongli, izchil harakat qilsa uni tarix subyekti deb atash mumkin. Bunday holda har qanday buyuk tarixiy shaxslar ham tarixning subyekti bo'laolmaydi. shunday qilib, masalan, Jonli-tirik Etika falsafasi insoniyat tarixini ma'naviy rag'batlantiradigan va yo'naltiradigan, insoniyatning buyuk ustozlari (Maxatma) va ularning yaqin ma'naviy shogirdlarini bu kategoriyaga kiritadilar. Marksistlar harakati jamiyatni o'zgartirishga yo'naltirilgan faol ongli ijtimoiy guruhlar –tarixiy jarayonlarning jamoaviy subyektlari bo'lib asta-sekin shakllanadi, deb faraz qiladilar.

26. Sxema

Tarix ma'nosining asosiy falsafiy konsepsiyalari

Tarix ma'nosi		
	Jonni ozod qilish konsepsiyasi	Hind klassik falsafasi, Platon, yangi Platonchilar
	Providensializm konsepsiyasi	Nasroniylik falsafasi va teologiyasi

	Idealistik konsepsiya	G.Leybnits, G.Fixte, G.Gegel va boshqalar
	Marksistik konsepsiya	K.Marks va izdoshlari
	Ma'naviy kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi	Maxatilar, E.Blavitskaya, E. Rerix

27. Sxema

Tarixiy jarayonlar rivojlanishining asosiy nazariy andozalari

№	Andoza nomlari	Andozalarning asosiy g'oyalari	Tarafdorlari
1	Siklik andoza	Jaxon tarixi –jamiyatdagi yemirilish, turg'unlik, madaniy ko'tarilish bosqichlarini aks ettiradigan, bir –biriga almashadigan, ma'lum sikllarning abadiy aylanishi.	Geraklit, Platon, Aristotel, Polibiy, Viko, Danilevskiy, Shpenglir, Toynbi, Guyashlev
2	Chiziqli andoza	Jamiyat va tarix to'g'ri chiziqli rivojlanadi. Geometrik sxema – chiziq yoki kesma. Progres yoki regres bo'lishi mumkin.	Avgustin, Kondori, Kont, Slenser.
3	Spiral andoza	Tarixda rivojlanishning ma'lum sikllari mavjud, lekin to'la o'nglishga qaytish yo'q. Spiralning har bir yangi aylanishi oldingisini takrorlamaydi. Progres yoki regres bo'lishi mumkin.	Gegel, Marks, Maxatmlar, Blavatskaya, Rerix va boshqalar

28 Sxema

Tarixiy jarayonlarning asosiy mezonlari

	Insonning ma'naviy rivojlanishi
	Inson erkinligining kengayishi
	Tabiat kuchlarini egallash
	Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi
	Fan va texnikaning rivojlanishi
	Birlashish yo'lida harakat

4. Madaniyat: tushunchasi, shakllari, turlari va funksiyalari. Madaniyat tushunchasi. *«Madaniyat»* - hozirgi falsafa va fanda eng keng tarqalgan tushunchalardan biri hisoblanadi.Shu bilan birga u nafaqat ilmiy leksikada, siyosatchilar, iqtisodchilar, harbiylar, muhandislar va boshqa mutaxassislarning so'zlarida ham uchraydi. Har kunlik turmushimizda biz ham bu tushunchaga ko'plab murojaat qilamiz. U nimani ifodalaydi? Bu savolga javob berish unchalik ham oson emas.

Har xil sabablarga ko'ra ilmiy adabiyotlarda "madaniyat" tushunchasiga ikki yuzdan ortiq ta'riflar berilgan. Nimaga bunday ko'p,degan savol tug'iladi? Chunki, madaniyat –insoniyat borlig'ining eng murakkab va ko'p o'lchovli hodisalardan biridir. U ko'p tarmoqli strukturaga, ko'p funksiyalarga, shakl va har xil turlarga ega. Har xil tarixiy bosqichlarda va har xil falsafiy mulohaza bildirgan olimlar va faylasuflar madaniyatni qanday tu shunganligini qarab chiqamiz.

- Ishlov berish (tuproqqa), tarbiya, ta'lim, rivojlanish, qadrlash (Qadimgi rim mutaffakirlari).
- shaxsning rivojlanishi, odamni kamol toptirmoq, alohida odamni yaxshilash (S. Pufendrof (XVII asr)).
- Xalqning turmush tarzi; insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti (I.Gerder (XVIII-XIX asr) .
- Bilimlar boyligi, estetik va aqliy rivojlanishi (I.Gyote (XVIII-XIX asr)).
- Insoniyat shaxsining o'zini amalga oshirish usuli, aqlli mavjudotning maqsad qo'yish qobiliyatiga ega bo'lishi (J. Russo (XVIII asr)).
- Insoniylik odam g'oyasi (D. Lukach (XIX-XXasr)).
- Jamiyat yaratilishini anglash (A. Shyus (XXasr)).
- Belgilarni ishlab chiqish va foydalanish bilan bog'liq hodisalarning, faoliyat turlarining, predmetlarning, g'oyalar va sezgilarning yig'indisi (L.Uayt (XX asr)).
- Ruh tamoyili ijtimoiy timsoli, yorug'likni ruh energiyasi sifatida qadrlash (N. Va E.Rerix (XIX asr))

shunday qilib, xulosa o'rnida madaniyatning tushuntirish va ta'rif berishda bir nechta asosiy yondashuv va g'oyalar qarab chiqamiz,

Birinchidan, *"Tabiat" (yovvoyi tabiat)ning "madaniyat" (insoniyat jamiyat yoki tabiatni yaxshilash) dan farqi to'g'risidagi g'oya.* Bu yerda insoniyatning faol ijodiy asosi va uning yaratuvchanlik faoliyati ko'rsatiladi. Bunday yondashuvda "jamiyat" va "madaniyat" tushunchalari deyarli bir biriga qo'shilib ketadi.

Ikkinchidan, *madaniyat jamiyat tomonidan yaratilgan qadriyatlar yig'indisi to'g'risidagi g'oya.* Bu yerda ijtimoiy hayotning qadriyatlar (aksiologiya) jihatiga diqqat qaratiladi.

Biroq, eng qamrovlisi ***uchinchi yondashuv*** bo'lib, unda madaniyat insoniyatning barcha *eng yaxshi ijodiy yutuqlarining sintezi* (ijtimoiy jihat), Shuningdek *odamga insoniylik o'lchovi* - uning aqllilik va jo'shqinligi o'lchovi (shaxsiy jihat) sifatida qabul qilinadi.

Madaniyatning shakllari va turlari. Madaniyatni umumiy tarzda ikki asosiy shaklga: ma'naviy va moddiyga ajratadi. Bu bo'linishni shartli ravishda qabul qilish kerak, chunki ma'naviy madaniyat hodisasi, odatda moddiy madaniyatning ma'lum shakllarida mavjud. Masalan, muqaddas yozuvlar, ibodatxona devorlaridagi rasm, toshlarda chizilgan rasm, manuskrit (qo'lyozma), kitob ko'rinishida mavjud. Ilmiy yutuqlar ma'lum monografiyalar, priborlar, apparatlar, narsalar va qo'shilmalar, karta, atlaslar, qog'ozda yozilgan formulalar yoki kompyuter xotirasi kabi shakllarida ham mavjud.

Ma'naviy madaniyat shakllariga – ma'naviy ta'limot, axloq, mifologiya, din, falsafa, fan, huquq, maorif, san'at va boshqalar kiradi. *Moddiy madaniyat shakllariga esa* kitoblar, san'at va ibodat predmetlari, me'morlik, priborlar, mashinalar, mexanizmlar, bezak va boshqalar daxl bo'ladi.

Inson va jamiyatga nisbatan madaniyatning ikki turi – shaxs madaniyati va ijtimoiy madaniyat tushunchasi ishlatiladi. Unisi ham bunisi ham madaniyatning ko'p jihatlarini o'z ichiga oladi. Ulardan eng muhimlari: axloqiy madaniyat, diniy madaniyat, ilmiy – falsafiy madaniyat, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, ekologik madaniyat, estetik madaniyat, turmush madaniyati, mehnat madaniyati, jismoniy madaniyat, ovqatlanish madaniyati.

Madaniyatning ana shu jihatlari asosida inson va jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy –siyosiy va boshqa rivojlanish darajasini aniq baholash mumkin.

Madaniyatning funksiyalari. Madaniyat jamiyatda qator muhim funksiyalarni bajaradi, shunga ko'ra aqlli mavjudotlar birlashmasi sifatida yashab va progressiv rivojlanadi. Quyidagi funksiyalari muhim ahamiyatga ega.

Inson ruhining har xil ijodiy yutuqlarida ***ob'yektiv voqelikni aks ettirish.*** Madaniyat inson dunyosini o'zlashtirishning alohida uslubi bo'lib, unda uning har xil shakllari (din, falsafa, fan, huquq, san'at va boshqalar) insoniyat tajribalarini tizimlashtirish va dunyoni tushunishning (ratsional, sezgi, irratsional, an'anaviy) vositalari hisoblanadi.

Ilmiy bilimlar, g'oyaviy va siyosiy farmoyishlar, yuridik qonunlar, ijtimoiy tarz va diniy an'analar, axloq me'yorlari yordamida ***odamlar hayotini tashkil qilish va tartibga solish.*** Har xil jamiyatlarda ko'rsatilgan regulyatorlardan biri katta, boshqasi kichik ta'sirga ega. Ular amal qilmaydigan jamiyat yo'q.

Yangi avlodlarni ijtimoiylashtirish va to'plangan tarixiy tajribalarni yetkazish. Boshqacha aytganda, madaniyat insoniyat barcha yutuqlarining to'plangan saqlanadigan joyi. U yangi avlodlarni ajdodlar yutuqlari va tajribasi dunyosiga kiritadi, uni qabul qilish va o'zlashtirishga imkon beradi. Masalan, har yuz yilda g'ildirakni yangidan ixtiro qilishga, yozuvni yaratishga va butun dunyo tortishish qonuni ochishga zaruriyat yo'q.

Inson va jamiyatni takomillashtirish. Asrlar tajribasini yig'ib, madaniyat, san'at va ma'naviy yasamalik, bilim va amaliyot, axloq va huquq yutuqlarining tarixiy ahamiyatini ko'rish va baho berishda odamga imkon beradi. Shu bilan birga odam o'zining shaxsiy va umuminsoniy tajribasi asosida o'rganadi. U o'zining ma'naviy va amaliy faoliyatida uni yaxshiroq bilishga va foydalanishga qodir.

5. Sivilizatsiya «Sivilizatsiya»[81] tushunchasi, madaniyat tushunchasiga o'xshash katta ahamiyatga ega bo'lgan, keng foydalanadigan ilmiy tushunchadir. U Ma'rifat (XVIII) davrida ilmiy so'z boyligiga kiritilgan. Eng umumiy ma'noda u yovvoyilikka nisbatan inson va jamiyatning holatini anglatadi. Sivilizatsiyalashgan jamiyat nima? Bu erkinlik, adolat, aql, qonunga asoslangan jamiyat. Bu yerda moddiy madaniyatning rivojlanishi ham muhim rol o'ynaydi. shunday qilib odam ancha tarixiy paytgacha yovvoyilik holatida qolib, ma'lum holatga o'tgandan keyin sivilizatsiya belgilari paydo bo'ldi. Unga nima yordam qildi? Bunga faylasuflarning fikricha mehnat taqsimoti, sinflar va tovar – pul munosabatlarining vujudga kelishi, davlatning paydo bo'lishi, ma'anaviy madaniyatning rivojlanishi, yozuvning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamoada oilaviy munosabatlarning o'zgarishi va boshqalar.

Ammo hozirgi dunyoda «sivilizatsiya» tushunchasining boshqa ma'nolari ham bor. Ulardan eng ko'p tarqalganlari quyidagilardan iborat:

- «Madaniyat» tushunchasining sinonimi (F.Shelling).
- Madaniyatning antipadi (qarama-qarshi) - jamiyatning tirik holatiga, ma'naviy madaniyatiga qarshi, hayot tuzilishining jonsiz, o'lik shakli. (N.Berdyaev, N.Rerix).

---

[81] ***Цивилизация*** [*фр.civilization<лот.civilis – фуқарога хос,давлатга хос*] 1. Моддий ва маънавий маданиятнинг ижтимоий тараққиётида эришилган муайян босқич;маданий тараққиёт даражаси. 2. Маданият,тамаддун. 3.Маданиятнинг замон ва маконда чегараланган тарихий типи.4. Инсониятнинг ёввойилик ва ваҳшийлик давридан кейинги ижтимоий тараққиёт босқичи.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати.4-жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти,2008. – Б.441.

- Madaniyatning zaiflanishi, uning tug‘ilish va o‘lish bosqichlari. (O.Shpengler).
- Jamiyatning konkret tarixiy turi. Masalan, «Misr sivilizatsiyasi», «Rim sivilizatsiyasi» va boshq. (A.Toynbi).
- Sivilizatsiya diniy birlik sifatida masalan, «Xristian sivilizatsiyasi», «Budda sivilizatsiyasi» va boshqalar.
- Sivilizatsiya jamiyatning texnologik rivojlanish tarixi. Masalan, «Agrar sivilizatsiya», «Industrial sivilizatsiya» vaboshqalar.
- Sivilizatsiya aqlli jonzotlarning birlashgan planitar hamjamiyati sifatida. Masalan, «Yer planetasi sivilizatsiyasi», «Veneraplanetasi sivilizatsiyasi» va boshqalar.

6. Ma’naviy madaniyat va moddiy sivilizatsiya. XIXasrda nemis va rus faylasuflari (Fixte, Nitsshe, Slavyanofillar) madaniyat va sivilizatsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, har xil ijtimoiy hodisa ekanligiga e’tibor qildilar. Nemis filosofi I.Fixte madaniyat ruhining ichki hayoti, sivilizatsiya esa bu hayotning tashqi namoyon bo‘lishidir deb yozadi. XX asrda bu g‘oya boshqa mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilib, ularning orasida O.Shpengler, N.Berdyaev,N.Rerix,E.Rerixlar muhim joyni egalladilar. Ular yuqori rivojlangan industrial jamiyat, yuqori sivilizatsiya, insonning ichki ma’naviy takomillashishi kafolatini bermasligini ishonarli isbotladilar. U qandaydir boshqa tekislikda joylashib, unga transportning rivojlanishi, sanoat, aloqalar va boshqa sivilizatsion boyliklar kam ta’sir ko‘rsatadi.

Buyuk rassom, mutafakkir va ijtimoiy arbob N.Rerix sivilizatsiya o‘z ildiziga ko‘ra, fuqarolik yoki hayotning ijtimoiy tuzilishiga egaligini qayd qiladi. Haqiqatda ham u inson borligining tashqi jihozlanishidir. Lekin jihozlash hali hayot degani emas. Axir odamning aqli va ma’naviy mavjudot sifatida hayoti va rivojlanishi madaniyat bilan bog‘liq.

Madaniyatning ma’naviy jihatini atoqli diniy faylasuf N.Berdyaev ham ta’kidladi. Har qanday madaniyat ibodat bilan bog‘liq. U diniy ibodatdan kelib chiqadi va rivojlanadi deydi. U tabiiy ofatlar ustidan ruhning ijodiy ishlarining mahsuloti.

Hozirgi tadqiqotlarda har qanday ijtimoiy tizimning asosi sifatida ma’naviy madaniyatning ahamiyati to‘g‘risida ko‘p gapiriladi. Albatta, u erishgan taraqqiyot darajasini va jamiyat barqarorligini qo‘llab – quvvatlaydi, Shuningdek keyingi taraqqiyotga xizmat qiladi. Ma’naviy madaniyatning vayron bo‘lishi muqarrar ravishda ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, sivilizatsiyaning vayron bo‘lishiga olib keladi.

Masalan, Yevropa va Amerikaning yuqori rivojlangan iqtisodi, hayoti salbiy demografiya, jinsiy chekinishlardan, hayot ma'nosining yo'qolishidan, yoshlar o'rtasidagi ruhiy kasalliklardan, narkomaniya, jinoyatchilik kabi "sivilizatsiya yarasi" dan qutqaza olmaydi. G'arb jamiyati bilan nima bo'ladi? Ko'p futurologlar qorong'i prognoz bermoqdalar. Qo'shimcha dalil – isbot – bu insoniyatning tarixiy tajribasi. O'rta asrlarning boshlang'ich davridagi Rim sivilizatsiyasini eslaymiz. Ma'naviy madaniyatning zaiflanishi,siyosiy o'zboshimchalik, axloqning susayishi, pastkash instinktlar jantanasi, diniy boshqa fikrlovchilarni ta'qib qilish o'z kulminatsiyasiga yetdi. Tez katta imperiya qulay boshladi. Katta Rim yarim yovvoyilarga qarshi turaolmadi. Qadimgi eng kuchli sivilizatsiyalardan biri, ma'anaviy chirib, moddiy, siyosiy, iqtisodiy ma'noda mustaqil davlat sifatida yashashga qodir bo'lmay qoldi.

Hozirgi dunyo sivilizatsiyasi va ma'naviy madaniyatni uyg'unlashtirishga muhtoj. Buning uchun nima zarur? Insonparvarlik va axloqiy tamoyillarni mustahkamlash, ijtimoiy Sheriklik va muloqotni rivojlantirish, fanni jonlantirish va maorifni qo'llab – quvvatlash, diniy bag'rikenlik va san'atni ma'naviy ideallarni qo'pol kuchlarni ibodatlashtirishga qarshi to'ldirish, huquqiy madaniyatni, ijtimoiy adolatni, qonunga hurmatni mustahkamlash zarur.

7. Yuksak madaniyat va «ommaviy madaniyat». XX asrda "ommaviy madaniyat" deb atalgan yangi ijtimoiy hodisa paydo bo'ldi. U boshqa –an'anaviy, haqiqiy yoki ba'zi nazariyachilar aytganidek "yuksak ma'naviyat"ga qarama –qarshi qo'yiladi. Yuksak ma'naviyat ommaviy emasmi, degan savol paydo bo'ladi. Ob'yektiv aytganda – yo'q. Insoniyat tarixida odatda faqat savodli va boy odamlar, diniy elitalar, harbiylar, siyosiy elita vakillari yuksak madaniyat mevalaridan foydalanganlar. Masalan, Rossiya yoki Amerikada aholining asosiy ommasi Nyuton mexanikasi, Shekspir sonetlari, uyg'onish davrining rassomlari, arab astronomiyasi, hind faylasuflarining tarktlari, antik demokratiya to'g'risida ozi – kam bilarmidi?

XX asrda bu vaziyat keskin o'zgara boshladi. Milliy–ozodlik harakati, sotsializmning qaror topishi va g'arb demokratiyasining rivojlanishi, keng industriyalashtirish va urbanizatsiya, savodi yetishmaganligi tufayli "yuksak ma'naviyatni" qabul qilishga qodir va tayyor bo'lmagan millionlab odamlarni tarix sahnasiga chiqarib yubordilar. Ularga boshqa tushunarliroq, yetarliroq va g'oyaviy yaqin madaniyat, aniqrog'i –qandaydir almashtiruvchisi talab qilindi. U o'zini uzoq kuttirmadi. Adabiyot, kinoindustriya, badiiy sa'nat, estrada, OAV lari o'rta, ko'p millionli omma vakillarining dunyoqarashi va estetik

ehtiyojlariga mo‘lajallangan asarlarni jadal yaratib, eshittira boshladi. shunday qilib, yuksak madaniyatning soddalashtirilgan, hajviy o‘rnini bosadigan – ommaviy madaniyat paydo bo‘ldi.

Mutaxassislar ommaviy madaniyat rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlarini qayd qildilar. Ijobiy tomoni shundaki, birinchi marta insoniyat yutuqlari har kimga tushunarli bo‘ldi. Gazetalar, jurnallar, kitoblar, muzeylar, teatrlar, radio va televideniya, XX asr oxirida internet madaniyat dunyosiga kirish uchun eng keng imkoniyatlar ochildi.

Biroq, ommaviy madaniyat ko‘pincha o‘zining ko‘rinishlarida odamni ruhlantirish va takomillashtirishga kam yordam beradi. U boshqa qadriyatlar va ideallarni – kuchlining huquqi, pul hokimiyati, pastkash instinktlar erkinligi, texnitsizmni o‘stiradi. U zerikarli hayoti bilan kaltabinlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, oddiy syujetlar, obrazlar va g‘oyalardan foydalanadi. U odamlarga tayyor, andozali qarorlar tavsiya qiladi, lekin tushunishga, o‘ylashga, baholashga axloqiy tanlash ga o‘rgatmaydi. Faylasuflar, ruhshunoslar, sotsiologlar va pedagoglar shunga yakdilki, madaniyatning bunday o‘rnini bosadigani (Erzats) bolalar, o‘smirlar, hatto kattalarning ongiga buzg‘unchi ta’sir qiladi.

Ommaviy madaniyatning ommaviy ta’siri bilan odam axloqiy buzila boshlaydi. U muammoni hal qilishning zo‘rlik yo‘lidan boshqasini ko‘raolmaydi. U pul bilan hokimiyatni do‘stlik, sharaf, ijod, muhabbat va burchdan yuqori baholaydi. U hayotning asl ma’nosini unutib, uni sezgi lazzati bilan almashtirishga urinadi.

Juda ma’lumki, agar jamiyat ommaviy madaniyat sohasini boshqa olijanob qadriyatlar va ideallar bilan to‘ldirmasa, jinoyatchilik va narkomaniyadan tortib, to o‘zini – o‘zi o‘ldirish va ruhiy kasalliklargacha bo‘lgan salbiy ijtimoiy hodisalarning o‘sishini prognoz qilish mumkin. Asl madaniyatni himoya qilishga, ommaviy ongga uning ta’sirini oshirishga o‘ta zarurlik etildi. Ko‘p mutafakkirlar axloqiy inqiroz va ijtimoiy nuqsonlardan qutulish vositalarini Shunda ko‘rdilar.

8. Shaxs madaniyati. Hozirgi hayotda biz “madaniyatli odam” degan tushunchani tez-tez ishlatamiz. U nimani anglatadi? Madaniyatli odam qanday bo‘lishi kerak, u nimani bilishi, qila bilishi, o‘zini qanday tutishi, odamlarga qanday munosabatda bo‘lishi kerak?

Ma’lumki, odamni “madaniyatlashtirish”da maorif muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumotli odam – mas’uliyatli odam degan fikr bor. Balkim shunday bo‘lishi kerakdir. Biroq amalda hamma vaqtda ham shunday emas. Hozirgi maorif tizimining fojeasi shundaki, u ba’zan yosh odamga axborot beradi, kasbiy malakaga o‘rgatadi, lekin uning umummadaniy imkoniyatini kam rivojlantiradi. Uning har tomonlama jo‘shqinligiga kam

yordam beradi. Natijada o‘zining kasbidan boshqani bilmaydigan, qila olmaydigan yomon bo‘lmagan mutaxassislar paydo bo‘ladi. O‘z hayoti ma’nosi va uning axloqiy tamoyillarini bilmaydi; qiyinchilikka qarshi turishni, jamiyatda o‘zini tutishni bilmaydi, o‘zining yaqinlari va tabiat to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilaolmaydi.

Madaniyatli odam – bu jo‘shqin, har tomonlama rivojlangan shaxs. Yuqorida biz shaxs madaniyatlarining asosiy jihatlarini qayd qildik. Ko‘rdikki u nafaqat bilimdan, balki odob – axloq qoidalaridan ham iboratdir. Uning asosini o‘z ongi orqali sezilgan, anglagan shaxsiy dunyoqarashning fundamental blokida qayta eritilgan axloqiy, falsafiy, huquqiy tamoyillar tashkil qiladi. Madaniyatli odam – axloqiy pok, huquqiy, falsafiy fikrlaydigan va estetik nafis shaxsdir.

Hozirgi hayotda siyosiy, ekologik va kasb-mehnat madaniyati katta ahamiyatga ega. Demokratiya sharoitida siyosiy jarayonlar va dasturlar mohiyatini tushunish o‘ta muhim, axir ma’lum partiyalarga yoki siyosiy liderlarga ovoz berib, biz o‘z kelajagimizni boshqaramiz, o‘z taqdirimizni tanlaymiz. Fan –texnika inqilobi va sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishi sharoitida insonning texnologik qudrati oldida tabiatning himoyasiz ekanligini anglash muhim, Shuning uchun ham tabiat bilan o‘zaro foydali hamkorlikka intilish kerak. Odamning mehnat faoliyati madaniyatdan chekkada tura olmaydi. *Mehnat madaniyati*o‘z majburiyatiga javobgarlik munosabatda bo‘lishni, yuqori sifatga intilish, kasbiy axloq – odob, mahsulotini estetik takomillashtirishni talab qiladi.

Hozirgi hayotda turmush va jismoniy madaniyat, ovqatlanish madaniyati muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tashkil qilingan turmush, mashqlar va sog‘lom ovqatlanish yordamida organizmning jismoniy tonusini ushlab turish, zararli odatlarni (g‘azablanish, beboshlik, alkogol va narkotikka qiziqish, chekish) tugatish, nafaqat odamning umumiy madaniy rivojlanishiga yordamlashadi, balki uning umrini uzaytiradi, ijodiy imkoniyalarini, ishchanligini oshiradi.

9. Madaniyat ko‘pxilligi va madaniyatlararo dialog (muloqot). Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda insoniyat tarixi bir butundir. Shu bilan birga, tarixning turli bosqich va davrlarida har xil mamlakat va xalqlar madaniyatining farq qilishini inkor qilib bo‘lmaydi. Madaniyatning ko‘p xilligi –ijtimoiy-tarixiy omil bo‘lib, yagona tarix va dunyo sivilizatsiyasi to‘g‘risida gap ketganda uni e’tiborga olish kerak bo‘ladi.

XX asr oxirlarida ijtimoiy mojarolarda siyosiy farqlar emas, madaniy farqlar birinchi o‘ringa chiqdi. Ular yuzaki joylashgan bo‘lib, muammolarni tinchlik yoki zo‘ravonlik yo‘li bilan yechishga hamma vaqt

ta'sir qildilar. Ulardan asosiysi – industrial rivojlangan va qoloq mamlakatlar, xalqlar va mamlakatlar diniy madaniyati o'rtasidagi farqdir.

Har xil madaniyatlarning tinch – totuv yashashi mumkinmi? Bu savolga hozircha yagona javob yo'q. Biroq, ma'lumki hozirgi dunyoda biron bir milliy madaniyatning ustunlik qilishi maqsadga muvofiq emas. O'zaro bilish, tushunish, hurmat rivojlanishi, qadriyatlar va yutuqlarning o'zaro almashinish imkoniyatlarining ochilishi uchun madaniyatlarning keng muloqoti zarur. Yuqori rivojlangan va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik zarur. Chuqurlashib borayotgan siyosiy va iqtisodiy globallashuv sharoitida, unda o'zining munosib joyini egallaydigan milliy-tarixiy madaniyatlar progressiv yutuqlarining yagona dunyo ***intermadaniy makonni*** shakllantirish juda dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

29. Sxema

Madaniyatning ijtimoiy funksiyalari

Madaniyat funksiyalari
Ob'yektiv voqelikni aks ettirish
Odamlar hayotini tashkil qilish va tartibga solish
Yangi avlodning ijtimoiylashuvi va yig'ilgan tarixiy tajribani berish
Jamiyat va insonni shakllantirish

30. Sxema

Madaniyat mohiyatini aniqlashda asosiy falsafiy yondashuvlar

Madaniyat jamiyat tomonidan yaratilgan qadriyatlar yig'indisi sifatida	Madaniyat inson jamiyati amalga oshirgan tabiatni (Natura) yaxshilash sifatida
madaniyat	
Madaniyat insoniyat ijodiy yutuqlarining sintezi sifatida	Madaniyat odam insoniyligining (aqllilik, jo'Shqinlik) o'lchovi sifatida

31. *Sxema*

Madaniyatning shakllari va turlari

<table>
<tr><td colspan="4">MADANIYAT</td></tr>
<tr><td colspan="2">Madaniyatning shakllari</td><td colspan="2">Madaniyatning turlari</td></tr>
<tr><td>Man'aviy</td><td>Moddiy</td><td>Ijtimoiy madaniyat</td><td>shaxsiy madaniyat</td></tr>
<tr><td>Ma'naviy ta'limot</td><td>Me'morchilik</td><td colspan="2">Axloqiy madaniyat</td></tr>
<tr><td>Axloq</td><td>Mashinalar</td><td colspan="2">Diniy madaniyat</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Mifologiya</td><td rowspan="2">Mexanizmlar</td><td colspan="2">Falsafiy madaniyat</td></tr>
<tr><td colspan="2" rowspan="2">Ilmiy madaniyat</td></tr>
<tr><td>Din</td><td rowspan="2">San'at va ibodat predmetlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Siyosiy madaniyat</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Falsafa</td><td rowspan="2">Bezak va boshqalar</td><td colspan="2">Huquqiy madaniyat</td></tr>
<tr><td colspan="2" rowspan="2">Iqtisodiy madaniyat</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Fan</td><td rowspan="3"></td></tr>
<tr><td colspan="2">Ekologik madaniyat</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Huquq</td><td colspan="2" rowspan="2">Estetik madaniyat</td></tr>
<tr><td rowspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">Mehnat madaniyati</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Maorif</td><td rowspan="2"></td><td colspan="2">Jismoniy madaniyat</td></tr>
<tr><td colspan="2" rowspan="2">Ovqatlanish madaniyati</td></tr>
<tr><td rowspan="2">San'at</td><td rowspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">Turmush madaniyati</td></tr>
</table>

Tayanch tushunchalar

Odam, kishi, inson, shaxs, antropologiya, antropogenezis, hayot va o'lim, bioetika, ong, ruh, jon, tana, erkinlik va mas'uliyat, fatalizm, determinizm, indeterminizm, gnoseologiya, jamiyat, qadriyat, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, tarix, falsafa tarixi, tarix falsafasi,tarixiy taraqqiyot

modellari, madaniyat, sivilizatsiya, ommaviy madaniyat, shaxs madaniyati,madaniyat turlari.

Nazorat va muhokama qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Inson mohiyati muammosi.
2. Antropogenez va ongning kelib chiqishi.
3. Insonning ruhiy dunyosi va ongsizlik sohasi.
4. Insonning yashirin (paranormal) ko‘zlari.
5. O‘limdan keyingi hayot muammolari.
6. Inson va sivilizatsiyaning keying istiqbollari.
7. Inson hayoti ma’nosi muamolari.
8. shaxsning erkinligi va javobgarligi.
9. Bioetikaning aktual muammolari.
10. Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida. Jamiyat rivojlanish qonunlari va xususiyatlari
11. Qadriyatlar ijtimoiy hayotning regulyatori sifatida. Totalitar va demokratik jamiyat
12. Jamiyat hayoti strukturasi va sohalari .
13. Tarix rivojining ma’nosi va rivojlanishlari. Tarixiy taraqqiyot mumkinmi?
14. Tarixiy jarayon va jamiyat rivoji andozalari.
15. Tarixiy determinizm va tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlari.
16. Madaniyat tushunchasi, shakllari va turlari. Madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va ahamiyati.
17. Sivilizatsiya tushunchasi.
18. Madaniyatning ko‘pxilligi va madaniyatlararo muloqot
19. Hozirgi sivilizatsiyaning rivojlanish tendensiyalari va global muammolari
20. Dunyo sivilizatsiyasining kelajagi.
21. ”...o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish,yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an’ana,qadriyatlarga sadoqat,ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash”[82] uchun qanday amaliy ishlarni bajarish kerakdeb o‘ylaysiz?

[82] 2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси.// Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фарсонига 1-илова.

VI BOB. ETIKA

1-§. Axloq va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni

1. Axloq va uning ta’rifi. Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan, kattayu kichik mehnat jamoatlari bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning o‘z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishi zarurligi bilan bog‘liq.

Jamoat bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan ob’ektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmyi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

Kishilarning kundalik hayotida odob, xulq-atvor, axloq kabi tushunchalar ko‘plab ishlatiladiki, bunda *odob* biron kishining o‘zini tuta bilishi tufayli sodir etadigan oddiy, chiroyli, yoqimli xatti-harakatini (masalan, yoshlarning keksalarga salom berishi, transportda joy berishi kabilarni) anglatsa, *xulq-atvor* esa kishiga odat bo‘lib qolgan, takrorlanib turadigan muomala, xatti-harakat va ruhiy xususiyat, fe’l va avzoyining bir butun majmuyini (masalan, muayyan kishining to‘y-marakalarda ochiq ko‘ngil bilan chin dildan xizmat qilishini) bildiradi. Demak, «odob» torroq, «xulq-atvor» esa unga qaraganda kengroq ma’nolarga ega tushunchalardir.

«*Axloq*» – arabcha so‘z bo‘lib, kishining tabiati, muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan ma’nolarni anglatadi[83]. Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni o‘zida mujassam etadi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishida, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq-atvori, yurish-turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalanadigan munosabatlarining majmuiga aytiladi. Shundan kelib chiqqan holda, jamiyatning serqirra va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi «axloq» tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin.

---

[83] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Ж.1. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.120.

Axloq*inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmuidir.*

Axloq ijtimoiy hodisa bo'lib, jamoatlar bilan shaxslar o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat sifatida insoniyat jamiyati bilan bir vaqtda vujudga kelgan. U o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida quyidagi vazifalarni bajargan:

– umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o'zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;

– jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;

– kishilarning ichki tuyg'ulari, hissiyotlarini o'stirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarni anglab yetish, asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo'llaridan eng afzali;

– oila va kundalik turmushda mavjud bo'lgan oilaviy burch, o'zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an'analarni avloddan-avlodga o'tkazish asosida davom ettirish vositasi;

– adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g'oyasi va h.k.

Axloqning mazmunini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, aholining yoshi, kishilarning ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosi xilma-xil shakllardagi mulklardan iborat bo'lgan bir vaqtda uni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik tashkil etadi. Shubhasiz, ana shu negizlar asosida O'zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma'naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan masalalar, ya'ni axloq, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli kabi muammolarni o'rganish bilan bevosita axloqshunoslik fani shug'ullanadi.

2. Axloqshunoslik fani va uning rivojlanish qonuniyatlari.

Axloqshunoslik– axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat rivojidagi o'rni, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganuvchi va haqiqatligi amalda isbotlangan bilimlar majmuidan iborat fan. U boshqa

ijtimoiy fanlar singari o‘z qonun va kategoriyalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi.

Axloqshunoslik fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, normativ qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Umumiy etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini o‘rganadi.

Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini tadqiq etadi.

Normativ qadriyatlar etikasi axloq normalarini, axloqiy majburiylik talabalarini, axloqiy meros sifatida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o‘rganadi.

Kasbiy etika har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va usullarini o‘rganadi.

Axloqshunoslik fanining tarkibiy qismlari uzviy bo‘lib, bir-birlarini taqozo etadi va to‘ldirib turadi.

Axloqshunoslik fani falsafa, huquqshunoslik, psixologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik, pedagogika kabi fanlar bilan aloqada bo‘lib, uning xususiyatlari, ya’ni boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiluvchi jihatlari quyidagilardan iborat:

– axloqshunoslik inson faoliyatining barcha tomonlarini emas, balki ulardagi axloqiy xislatlarning chegaralarini izohlab, ko‘rsatib berish bilan shug‘ullanadi;

– axloqshunoslik insondagi axloqiylikni yuqori darajadagi fozillik deb bilgani holda, kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rni va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntiradi hamda hayotga tatbiq etadi;

– axloqshunoslik insonlardagi axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki tanqidiy baholaydi va tahlil etadi.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirilishi axloqshunoslik fanidan ham muayyan qonuniyatlar asosida voqelikdagi axloqiy hodisalarni o‘rganish va uning yo‘nalishlarini belgilab berishni talab etmoqda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida axloqshunoslik ilmi quyidagi *qonunlar*[84] asosida ish ko'radi va rivojlanib boradi:

1) ma'naviyat va axloqning birligi, axloqning ma'naviyat o'zagini tashkil etishi;

2) inson va axloqning ajralmasligi, axloqning inson mohiyati va xatti-harakatini belgilashdagi faolligi;

3) axloq va huquqning o'zaro aloqasi, axloqning huquqqa insoniy mazmun berib borish;

4) axloq va iqtisodning o'zaro ta'siri, iqtisodning tobora axloqiylashib borishi;

5) axloq va siyosatning o'zaro aloqadorligi, axloqning siyosat mazmunini belgilab berishi.

3. Kasb axloqi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kasb axloqida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining (ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandlik, savdogarlik va boshqa kasblarning) paydo bo'lishi mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa har bir kishining qilayotgan mehnat turiga, mehnatni tashkil etish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan takrorlanmas, o'ziga xos ko'nikmalarni vujudga keltirdi. Oqibatda bu ko'nikmalar har bir kasbda ichki va tashqi, asosiy va ikkinchi darajali asosiy bo'lmagan ziddiyatlar keltirib chiqardi. Odamlar esa sub'ektiv tuyg'ulari va axloqiy fikrlarini ularni bartaraf etishga safarbar etadilar. Shu tariqa, kasbiy munosabatlardagi xilma-xil holatlar orasidan ixtisosning nisbatan mustaqilligi xususiyatlarini ifodalovchi eng tipik holatlar ajralib chiqdi. Ular, o'z navbatida, mehnat jarayonida ishtirok etayotganlarning o'ziga xos xatti-harakati, xulq-atvor normalarini keltirib chiqaradiki, natijada kasbiy munosabatlar sifat jihatdan barqarorlikka erishishi bilanoq har bir mehnat turining tabiatiga muvofiq keluvchi axloqiy dasturlarning, ya'ni kasb axloqining yuzaga kelishiga olib keladi.

Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzluksiz

---

[84] ***Қонун*** *–муайян шарт-шароитда воқеалар ривожининг характер ва йўналишини белгилайдиган, маълум бир қатъий натижани тақозо этадиган объектив дунёдаги нарса ва ҳодисаларнинг муҳим, зарурий, умумий, нисбий, барқарор муносабатларидир.* (Туленов Ж. Диалектика назарияси. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 106.)

ijtimoiy fanlar singari o‘z qonun va kategoriyalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi.

Axloqshunoslik fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, normativ qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Umumiy etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini o‘rganadi.

Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini tadqiq etadi.

Normativ qadriyatlar etikasi axloq normalarini, axloqiy majburiylik talabalarini, axloqiy meros sifatida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o‘rganadi.

Kasbiy etika har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va usullarini o‘rganadi.

Axloqshunoslik fanining tarkibiy qismlari uzviy bo‘lib, bir-birlarini taqozo etadi va to‘ldirib turadi.

Axloqshunoslik fani falsafa, huquqshunoslik, psixologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik, pedagogika kabi fanlar bilan aloqada bo‘lib, uning xususiyatlari, ya’ni boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiluvchi jihatlari quyidagilardan iborat:

– axloqshunoslik inson faoliyatining barcha tomonlarini emas, balki ulardagi axloqiy xislatlarning chegaralarini izohlab, ko‘rsatib berish bilan shug‘ullanadi;

– axloqshunoslik insondagi axloqiylikni yuqori darajadagi fozillik deb bilgani holda, kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rni va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntiradi hamda hayotga tatbiq etadi;

– axloqshunoslik insonlardagi axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki tanqidiy baholaydi va tahlil etadi.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirilishi axloqshunoslik fanidan ham muayyan qonuniyatlar asosida voqelikdagi axloqiy hodisalarni o‘rganish va uning yo‘nalishlarini belgilab berishni talab etmoqda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida axloqshunoslik ilmi quyidagi *qonunlar*[84] asosida ish ko'radi va rivojlanib boradi:

1) ma'naviyat va axloqning birligi, axloqning ma'naviyat o'zagini tashkil etishi;

2) inson va axloqning ajralmasligi, axloqning inson mohiyati va xatti-harakatini belgilashdagi faolligi;

3) axloq va huquqning o'zaro aloqasi, axloqning huquqqa insoniy mazmun berib borish;

4) axloq va iqtisodning o'zaro ta'siri, iqtisodning tobora axloqiylashib borishi;

5) axloq va siyosatning o'zaro aloqadorligi, axloqning siyosat mazmunini belgilab berishi.

3. Kasb axloqi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kasb axloqida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining (ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandlik, savdogarlik va boshqa kasblarning) paydo bo'lishi mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa har bir kishining qilayotgan mehnat turiga, mehnatni tashkil etish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan takrorlanmas, o'ziga xos ko'nikmalarni vujudga keltirdi. Oqibatda bu ko'nikmalar har bir kasbda ichki va tashqi, asosiy va ikkinchi darajali asosiy bo'lmagan ziddiyatlar keltirib chiqardi. Odamlar esa sub'ektiv tuyg'ulari va axloqiy fikrlarini ularni bartaraf etishga safarbar etadilar. Shu tariqa, kasbiy munosabatlardagi xilma-xil holatlar orasidan ixtisosning nisbatan mustaqilligi xususiyatlarini ifodalovchi eng tipik holatlar ajralib chiqdi. Ular, o'z navbatida, mehnat jarayonida ishtirok etayotganlarning o'ziga xos xatti-harakati, xulq-atvor normalarini keltirib chiqaradiki, natijada kasbiy munosabatlar sifat jihatdan barqarorlikka erishishi bilanoq har bir mehnat turining tabiatiga muvofiq keluvchi axloqiy dasturlarning, ya'ni kasb axloqining yuzaga kelishiga olib keladi.

Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzluksiz

[84] *Қонун –муайян шарт-шароитда воқеалар ривожининг характер ва йўналишини белгилайдиган, маълум бир қатъий натижани тақозо этадиган объектив дунёдаги нарса ва ҳодисаларнинг муҳим, зарурий, умумий, нисбий, барқарор муносабатларидир.* (Туленов Ж. Диалектика назарияси. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 106.)

davom etishi esa, o‘z navbatida, har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan-yangi faoliyat sohalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ularning sohiblari esa shunga ko‘ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o‘z aksini topdi.

Shunday qilib, kasb axloqi uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida paydo bo‘ldi va faoliyat ko‘rsata boshladi.

Jamiyatning har bir kasb-hunarga, ixtisosga beradigan axloqiy bahosi ikki asosiy omil bilan – birinchidan, mazkur kasb-hunar vakillarining jamiyat rivojlanishi uchun ob’ektiv ravishda nimalar berishi bilan; ikkinchidan, jamiyatning ma’naviy ta’sir ko‘rsatish ma’nosida ularga sub’ektiv ravishda nimalar berishi bilan bog‘liq.

Ana shu axloqiy baho omillariga ko‘ra, kasb axloqini har bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o‘qituvchilik ixtisosiga qarab – pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab – shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab – yurist axloqi; qurolli kuchlar ixtisosligiga qarab – harbiylik va ofitserlik etikasi va h.k.

Shifokorlik hozirgi zamonda eng ko‘p tarqalgan, hayot uchun eng zarur kasblardan bo‘lib, bu kasb axloqining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– bemorlarga nihoyatda katta e’tibor, shirinso‘zlik va odamshavandalik bilan munosabatda bo‘lish va g‘amxo‘rlik qilish;

– bemorlarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etish, ya’ni ularni ruhiy davolash usullarini puxta egallash va mahorat bilan qo‘llash, odamlarda tajriba o‘tkazish chegaralarini aniq bilish va uni buzmaslik;

– bemorlardagi kasallikni, u keltirib chiqaradigan yomon oqibatlar va uni davolash sirlarini oshkor qilmaslik, uni bemor hamda uning qarindoshlariga nihoyatda ehtiyotlik bilan ma’lum qilish va h.k.

Shifokorlik kasbi axloqining sir-asrorlarini tibbiyotda deontologiya[85] fani o‘rganadi. Bu fan ishlab chiqqan qoidalarga rioya qilmaslik, ya’ni bemorlarga qo‘pol gapirish, hayqirish, ularning kasalini ko‘rib, oshkora hayratga tushish, iztirob chekish, nojo‘ya xatti-harakatlar, ayniqsa, tamagirlik qilish bemor ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, «dard ustiga chipqon» bo‘ladi. Bu esa bemorni ham, shifokorni ham katta fojiaga duchor etishi mumkin.

[85] *Деонтология* – грекча *deontos* – тегишли ва *logos* – таълимот деган сўзлардан олинган бўлиб, уни фанга инглиз файласуфи И.Бентам (1748 – 1832) киритган.

Demak, shifokorlik kasb axloqining jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni shundaki, shifokor o‘zining yuksak axloqiy hislatlarini namoyon qilib, bemorlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri davolab, kishilarning jismonan sog‘lom bo‘lishini ta’minlab, jamiyatning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shishi yoki, aksincha, o‘zining noshudligidan, odamlarni xasta, nogiron holga keltirishi, ba’zan esa ularning o‘limini tezlashtirib, jamiyat rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

O‘qituvchilik, shifokorlik kabi jamiyat rivojiga salmoqli hissa qo‘shuvchi kasblardan biri hisoblanadi. Bu kasb axloqining xususiyatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– o‘quvchi-talabalarni eng zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularga ushbu bilimlarni hayotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

– ularga zamonaviy usullar asosida ta’lim-tarbiya berish, talabchan bo‘lish, o‘quvchi-talabalarni o‘z farzandidek ardoqlash;

– fikrini aniq ifodalash, o‘z ustida tinmay ishlash, o‘quvchi-talabalar qalbida bilimga chanqoqlik hissini uyg‘otish;

– turmushda o‘z xulq-atvorini qattiq nazorat qilib, shu asosda o‘quvchi-talabalarga har sohada doimo ibrat bo‘lish va h.k.

O‘qituvchilar kasb axloqining jamiyat hayotida tutgan o‘rni yosh avlodning xat-savodini chiqarish, ularga zamonaviy ilm sirlarini o‘rgatish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish va shu asosda ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash, Vatanni muqaddas deb bilish kabi tuyg‘ularni shakllantirish bilan belgilanadi.

Vatanni himoya qilish eng sharafli kasblardan biridir. Ushbu kasb egallari bo‘lmish harbiy xizmatchilar – askar va ofitserlarning kasb axloqi vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, eng zamonaviy jang qurollari, usul va vositalarini bilish va qo‘llay olish; jangovar o‘rtoqlik qoidalariga sodiq qolish, jang maydonini tashlab ketmaslik, asrga tushishdan hazar qilish; harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so‘nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilar kasb axloqining asosiy qoidalari ularning «harbiy qasamyodi» va nizomlarida o‘z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar kasb axloqining jamiyat rivojida tutgan o‘rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashi uchun sharoit yaratish, ya’ni ularni xavf-xatar va dushman tajovuzlardan himoya qilish bilan bog‘liq.

Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, kasb axloqi umumiy axloqning nisbatan mustaqil qismidir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

– qadriyatlar olamida jamiyat tomonidan yaratilayotgan yangi qadriyatlar tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ko‘rsatkich ekanligi;

– jamiyat manfaati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda muayyan ijtimoiy qatlamlarning ehtiyojlarini qondiruvchi ma’naviy ozuqa ekanligi;

– o‘ta xavfli va qiyin, ziddiyatli sharoitlarda axloqiy tanlovni amalga oshirish vositasi ekanligi;

– davlat ma’muriy organlari, jamoatt tashkilotlarining aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi kundalik turmush munosabatlarini tartibga solib turuvchi omillardan biri ekanligi va h.k.

Shunga ko‘ra, kasb axloqi,*birinchidan,* jamiyatda qabul qilingan umumiy axloq qoidalarining ma’lum kasb egasi tomonidan amalda qanday bajarilishini ko‘rsatuvchi xatti-harakat, odob, xulq-atvor qoidalarning majmui vazifasini o‘tasa; *ikkinchidan,* shaxsning xarakterini shakllantirishda bevosita ishtirok etib, kasbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishiga ko‘maklashadi.

Shunday qilib, ***kasb axloqi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq etuvchi aniq kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishi.***

Ana shunday kasb axloqi kasbiy soha xodimlarning kasb axloqidir. Chunki, axloq Kasbiy soha xodimlari jamiyatda insonlar salomatligini saqlashni tashkil etish uchun emas, balki o‘z kasblaridagi qadr-qimmat, halollik va poklikni mustahkamlash uchun ham zarur.

Shunday ekan, kasbiy soha xodimlarining kasb axloqiga mamlakatda kasbiy soha sohasida inson huquqlariga rioya qilinishini,aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘la olishini,profilaktika chora-tadbirlarining ustunligini, sog‘lig‘ini yo‘qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini,tibbiyotning amaliyot bilan birligini ta’minlash borasida borasida insonparvarlik, qonuniylik, adolat prinsiplari, jamoattchilik asosida axloqiy xatti-harakatlarni sodir etish xosdir.

Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqini quyidagi sohalarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

– pediatrning kasb axloqi;
– psixiatr va narkologiya shifokorining kasb axloqi;
– terapevtning kasb axloqi;
– shoshilinch tibbiy yordam shifokorining kasb axloqi;
– tibbiyot hamshiralarining kasb axloqi h.k.

2-§. Kasb axloqining mohiyati, tarkibiy qismlari, soha va xususiyatlari

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini ta'minlashda qatnashayotgan kishilarning egallagan har bir kasb, ishlab chiqarish faoliyati ularning axloqiy sifatlari va ruhiyatiga o'z muhrini bosadi va biz uni har bir sohaga tegishli kasb axloqining tarkibiy tuzilishida ko'rishimiz mumkin.

1. Axloqning tarkibiy qismlari. Kasb axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, asosan uch tarkibiy qismdan: axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topadi.

2. Axloqiy ong. Jamiyatda yashovchi har bir insonning mehnat faoliyati, xatti-harakatlari uning ongi orqali boshqariladi. Chunki ong kishilarning ob'ektiv olamni, ya'ni jamiyatni, tabiatni aks ettiruvchi g'oyalari, nazariyalari, his-tuyg'ulari va odatlarining majmui bo'lib, siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, estetik qarashlar va kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Binobarin, axloqiy ong ijtimoiy ongning bir shaklidir.

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy ongi xizmat jamoatlarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u, hissiyotlarning bir butun tizimidan iborat bo'lib, kishilar kundalik turmushdagi axloqiy faoliyati va xulqi u aks ettiradigan ob'ekt hisoblanadi.

Axloqiy ongning tuzilishi. Axloqiy ong ikki ajralmas qismdan, ya'ni muayyan bir xodimning ongi bo'lgan *individual ong* va bir qancha xodimlar birlashmasi bo'lgan xizmat jamoatlarining ongini o'zida mujassamlashtirgan *ijtimoiy ongdan* iborat bo'ladi. Individual axloqiy ong tarkibiga – shaxsning his-tuyg'usi, fikr-mulohazalari kabilar, ijtimoiy axloqiy ong tarkibiga esa jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etiladigan kodekslar, kategoriyalar, normalar, prinsiplar, mafkuraviy g'oyalar va boshqa qonun-qoidalar kiradi.

Axloqiy ong darajalari. Kasbiy soha xodimlarining axloqiy ongi kundalik-hissiy va aqliy-nazariy darajalarga ega.

Kundalik-hissiy darajadagi axloqiy ongga axloqiy tuyg'ular, hissiyotlar kiradi. Ma'lumki, hissiyot insonning mavjud voqelikka munosabati uning ehtiyoji va manfaatlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligini aks ettiruvchi ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari bo'lsa, kasbiy soha xodimlarining axloqiy hissiyoti ularning o'zi va boshqa odamlar tomonidan bajarilgan xatti-harakat, ish, muomala, qiliqlarga nisbatan paydo bo'lgan ichki, sub'ektiv ruhiy kechinmalari hisoblanadi.

3. Axloqiy hissiyot va uning vazifalari. *Kasbiy soha xodimlarining axloqiy hissiyoti* – ularning o‘zi va boshqalar sodir etgan xatti-xarakatlarni, muomalalarni ma’qullashlari yoki qoralashlari, ularga nisbatan axloqiy mamnuniyat yoki axloqiy norozilik izhor qilishlariga qarab ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi.

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy hissiyotlari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Vatanga bo‘lgan muhabbat tufayli vujudga keladigan vatanparvarlik, kasbiy burchga sadoqat, jamiyat oldida mas’ullik, milliy iftixor, adolatparvarlik, insonpavarlik tuyg‘ulari;

2) xodimlarning shaxsiy xislatlarini namoyon qilishda paydo bo‘ladigan vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, g‘urur, o‘z xatti-harakatlaridan qoniqish, qilmishidan hijolat tortish hissiyoti;

3) odamlarga yordam berish, ularning hojatini chiqarib, ko‘nglini olish hamda boshqa xayrli ishlar qilish jarayonida yuzaga keladigan yaxshilik qilish, ezgulikka intilish fazilatlari;

4) o‘zaro munosabat vaqtida paydo bo‘ladigan g‘amxo‘rlik, ishonch, hurmat, samimiyat, rahmdillik hissiyotlari.

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy hissiyotlari jamiyat rivojida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

birinchidan, ular kishilar tomonidan sodir etilgan axloqiy xatti-harakatlarga jamoatt tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan axloqiy norma, prinsip va qonun-qoidalar nuqtayi nazaridan baho beradi, ulardagi ijobiy va salbiy axloqiy qadriyatlarni, insonning ularga munosabatini ko‘rsatib beradi;

ikkinchidan, axloqiy hissiyotlar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi hamda shaxsiylik bilan ijtimoiylikni uyg‘unlashtiruvchi vosita vazifasini o‘taydi;

uchinchidan, axloqiy his-tuyg‘ular tufayli qoida, norma va prinsiplar insonning ishonch-e’tiqodiga aylana boradi, bu esa, o‘z navbatida, insonning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi;

to‘rtinchidan, axloqiy hissiyot nafaqat boshqarish, uyg‘unlashtirish vazifalarini, balki shaxsning o‘zligini anglash, ichki imkoniyatlarini har tomonlama rivojlantirib, voqelikka aylantirish vositasi vazifasini ham bajaradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, axloqiy hissiyotlar bo‘lmasa, shaxslar o‘rtasida chinakam axloqiy munosabatlar ham bo‘lmaydi. Chunonchi, axloqiy hissiyotlar insondagi ijtimoiylikning ichki ko‘rinishi bo‘lib, ularni to‘laqonli shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nazariy-aqliy darajadagi axloqiy ong norma, prinsip, qoida va g‘oyalar shaklida bo‘ladi.

4. Axloqiy amaliyot. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi asoslaridan birini xodimlarning axloqiy amaliyoti tashkil etadi. Ma’lumki, har bir faoliyatda aniq bir maqsadni ko‘zlab, tegishli vosita va usullar orqali harakat qilinadi hamda ma’lum natijalarga erishiladi. Demak, maqsad, vosita va natijalar inson faoliyatining, jumladan *axloqiy amaliyotining tarkibiy qismlari* hisoblanadi.

Har bir amaliy faoliyat biron-bir maqsadga xizmat qiladi, yaxshilik yoki yomonlik, adolat yoki razolat, samimiyat yoki g‘arazgo‘ylik kabi axloqiy bahoga ega bo‘ladi. Bu esa har qanday maqsadning axloqiy mazmunga egaligidan darak beradi. Maqsadsiz faoliyat bo‘lmaganidek, axloqiy mazmunsiz maqsad ham bo‘lmaydi.

Yaxshi yoki yomon, adolatli yoki razolatli, samimiy yoki g‘arazli maqsadlar ma’lum vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularni, axloqiy mazmuniga ko‘ra, qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yoki mumkin bo‘lmagan vositalarga ajratish mumkin. Masalan, tergovchi jinoyatni ochib, adolatni qaror toptirish maqsadida, bir tomondan, qo‘llanishi mumkin bo‘lgan, insoniylikka mos keluvchi ishonch, o‘zaro hurmat, xushmuomalalik, samimiyat kabi vositalardan; boshqa tomondan, aksincha, qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan g‘ayrinsoniy, g‘ayriaxloqiy vositalardan, ya’ni qo‘rqitish, ruhiy tazyiq o‘tkazish, ta’qib qilish, haqoratlash, urish kabilardan ham foydalanishi mumkin. Bu hol maqsadni amalga oshirishda qo‘llaniladigan hech bir vosita axloqiy mazmunsiz bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Maqsadlar vositalar orqali amalga oshirilar ekan, muayan natijalar ham beradi. Olingan natijalarning axloqiy mazmuniga kishilar orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishida yordam beruvchi yaxshi yoki yomon, qulay yoki noqulay oqibatlarni keltirib chiqarish xosdir.

Mana shu uch tomonning o‘zaro birligi axloqiy amaliyotning mazmunini tashkil qiladi. Shuning uchun axloqiy amaliyot ba’zan amalda namoyon bo‘ladigan yoki amaliy axloq deb ham ataladi.

5. Axloqiy munosabatlar. Ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida axloqiy munosabatlar jamiyat hayotida o‘ziga xos o‘rinlardan birini egallaydi.

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy munosabatlari deb ularning aholi guruhlari, mehnat jamoatlarida amal qiladigan, qonunlar va buyruqlarda o‘z ifodasini topgan hamda axloq normalari bilan chegaralangan aloqalari, bog‘lanishlari, ta’sir va aks ta’sirlariga aytiladi.

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy munosabatlarini, ular munosabatga kirishadigan ob'ekt turiga ko'ra, uchta katta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga kasb sohiblari faoliyatining ob'ektini tashkil etuvchi quyidagi shaxslar bilan bo'ladigan axloqiy munosabatlar kiradi:

– har xil toifadagi odamlar;
– huquq-tartibotni buzishga moyil bo'lganlar;
– murojaat qilgan fuqarolar;
– jabrlanuvchilar, bevosita guvohlar, xolislar;
– mansabdor shaxslar;
– chet el fuqarolari va h.k.

Ikkinchiguruhga kasb sohiblari o'rtasida yuzaga keladigan axloqiy munosabatlar kirib, ular asosan:

1) boshliqlar va bo'ysunuvchilar, unvoni kattalar va kichiklar;

2) xizmat lavozimlari va unvonlari teng xodimlar o'rtasidagi muloqotlardan tashkil topadi.

Uchinchi guruhga Kasbiy soha xodimlariningbevosita o'z xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq bo'lmagan, xizmatdan bo'sh vaqtlarida, ya'ni oilada, turmushda yuz beradigan axloqiy munosabatlari kiradi.

6. Axloqiy va huquqiy munosabatlar. Kasbiy soha xodimlariningaxloqiy munosabatlari bevosita ularning huquqiy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Kasbiy soha xodimlarining huquqiy munosabatlari deb ularning qonunda ko'rsatilgan huquq va burchlarini amalga oshirish yuzasidan barcha fuqarolar bilan bo'ladigan aloqalariga aytiladi. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Huquq aynan huquqiy munosabatlar orqali amal qiladi.

Shunday ekan, Kasbiy soha xodimlarining axloqiy va huquqiy munosabatlari o'zaro uzviy birlikda bo'lib, bu birlik, axloq va huquqning:

birinchidan, kasb sohiblari bilan jamiyat, davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatlar nisbatini to'g'ri belgilashida;

ikkinchidan, kasbiy soha xodimlarining axloqiy munosabatlari hamda huquqiy munosabatlarini tenglik prinsipi asosida uyg'unlashtirishida;

uchinchidan, har bir fuqaroning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, egallab turgan mavqeyidan qat'iynazar, ularga nisbatan bir xil talablar qo'yishida;

to'rtinchidan, kasbiy soha xodimlarining har bir fuqaroning xulq-atvorini baholashda asosiy mezon bo'lgan adolat prinsipining talablari asosida yondashishida;

beshinchidan, axloqiy va huquqiy tarbiyaning eng maqbul vositalaridan biri bo'lgan ishontirish usulidan keng foydalanishlarida yaqqol ko'rinadi.

Ayni vaqtda axloqiy va huquqiy munosabatlar o'rtasida muayyan farq ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

1) huquqiy munosabatlar davlat tomonidan, axloqiy munosabatlar esa jamoattchilik tomonidan o'rnatiladi va e'tirof etiladi;

2) huquqiy munosabatlar davlatning majburlov kuchi bilan qo'riqlansa, axloqiy munosabatlar har bir insonning ichki e'tiqodi, iymoni hamda jamoattchilik fikri va uning ta'sir kuchi bilan muhofaza qilinadi;

3) huquqiy munosabatlar davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda o'z aksini topsa, axloqiy munosabatlar ko'pincha «yozilmagan qonunlar» shaklida bo'ladi;

4) huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan huquq va burchlar orqali boshqarib turilsa, axloqiy munosabatlar ko'pincha umuminsoniy qadriyatlar asosida tartibga solib turiladi;

5) huquqiy munosabatlarni buzganlik uchun davlat majburlov choralari ko'rilsa, axloqiy munosabatlarni buzganlik uchun jamoatt ta'siri ko'rsatildi.

Axloqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, chunki ular o'zaro uzviy birlikda bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Bu birlik axloqiy munosabatlar talabining hayot sinovlaridan o'tib, huquqda o'z aksini topganligi hamda har qanday huquqiy munosabatlarning chuqur xalqchil axloqiy mazmun kasb etgan holda xalqning kundalik hayotidan o'rin olishida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, axloqiy va huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra ikki xil – boshqarish va qo'riqlash vazifalarini o'taydi. Kasbiy soha xodimlarining axloqiy va huquqiy munosabatlari uchun umumiy bo'lgan jihat ona-Vatanga, davlat, xalq, uning urf-odatlari, an'analari, ma'naviy-madaniy va huquqiy qadriyatlariga sodiq bo'lgan holda mamlakatda ozodlik va obodlik, adolat, tenglik, qonun ustuvorligi, insonparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlikni qaror toptirishdan iboratdir.

7. Kasb axloqining xususiyatlari. Har qanday kasb axloqida bo'lgani kabi kasbiy soha xodimlari kasb axloqining ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat.

1. Kasbiy soha xodimlariga qo'yiladigan axloqiy talablar huquqiy asosga ega bo'ladi, ya'ni ular qonunlar, nizomlar va yo'riqnomalar tarzida

rasmiylashtiriladi. Ularni buzgan xodimlar intizomiy jazoga, g‘ayriqonuniy ish ko‘rganlar esa ma’muriy va jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar.

2. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi, avvalo, jasurlik, adolat va sadoqatga, har bir ishga beg‘araz va xolis yondashishga asoslanadi. Kasallikka qarshi kurashish, boshqa kasblardan farqli o‘laroq, xodimdan jasurlik, shijoat, topqirlik kabi bir qator yuksak axloqiy xislatlarga ega bo‘lishni talab qiladiki, ular boshqa kasbdagilar uchun unchalik zaruriy hisoblanmaydi.

3. Kasbiy soha xodimlari kasb axloqining normalari insonning qadr-qimmatini hurmat qilish va qonunni buzganlarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lishga asoslanadi, ya’ni umuminsoniy axloq normalarini o‘zida aks ettiradi.

To‘g‘ri, kasbiy soha xodimlari xizmat zaruriyatidan kelib chiqib, hamda davlat va xizmat sirini saqlash uchun davolash ishlari davomida yo‘riqnomalarda ko‘rsatilgan talablar bo‘yicha yolg‘on gaplar, ba’zi bir kombinatsiyalarni ishlatishlari mumkin. Ammo ular bu bilan haqiqatga xilof ish qilmaydilar, balki adolatni qaror toptirish uchun xizmat qiladilar.

4. Kasbiy soha xodimlari jamiyatning eng nufuzli vakili sifatida ish ko‘rar ekan, ularning axloqi nufuzlilik va tarbiyaviylik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Kasbiy soha xodimlarining axloqiy nufuzi qanchalik yuqori bo‘lsa, xalqning davlatga, qonun kuchiga ishonchi ham shunchalik kuchli bo‘ladi yoki aksincha.

Kasbiy soha xodimlari o‘z tabiatiga ko‘ra tarbiyachidirlar, ya’ni xastaliklarning oldini olish, oilaviy janjallarni ijobiy hal etish, voyaga yetmagan bolalar bilan ishlash, jamiyatga zarar etkazuvchi boshqa har qanday shaxslar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish kasbiy soha xodimlari kundalik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasbiy soha xodimlarining kasbiy an’analari va urf-odatlari, xizmat xususiyatlari, normativ xujjatlar va jamoattchilik fikri ular kasb axloqining asosiy manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

8. Kasb axloqining vazifalari. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi ularning o‘z xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida ko‘maklashadi.

2. Kasb axloqi kasbiy soha xodimlarini axloqiy jihatdan tarbiyalab, ularda shijoat, jasurlik, adolat va intizomlilik fazilatlarini shakllantiradi. Ushbu axloqiy xislatlar esa xizmat vazifasini bajarish, xastalikka qarshi kurashish, ya’ni aholining sog‘lig‘ini saqlash uchun zarur axloqiy vosita hisoblanadi.

3. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi kasbiy soha xodimlarining manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib turadi.

4. Huquqiy demokratik davlat bunyod etish kasbiy soha xodimlaridan jamoattchilik bilan doimiy hamkorlik qilishni taqozo etadi. Kasbiy soha xodimlari xodimlari o‘z burchlarini bajarishlari uchun doimo xalqqa tayanishlari zarur, chunki xalqning qo‘llab-quvvatlashisiz aholining sog‘lig‘ini saqlashdagi xavfsizligini ta’minlab bo‘lmaydi.

5. Kasbiy soha xodimlarining kasb axloqi ularning xizmat qiyinchiliklari tufayli kasbiy tanazzulga uchrashlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Inson va jamiyat hayotida axloq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Axloqning tartibga solish, boshqarish funksiyasi – odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni jamiyat tomonidan qabul qilingan, o‘rnatilgan axloqiy normalar orqali tartibga solinishi va boshqarishi bilan ifodalanadi. Unda axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini axloq tamoyillari, normalari, jamoattchilik fikri, el-yurt o‘rtasidagi obro‘-martaba, an’ana, urf-odat, o‘git, pand-nasihat va boshqalar tashkil qiladi. Tartibga solish, boshqarish esa bevosita moslovchi-norma, talab qiluvchi-norma, ta’qiqlovchi-norma, chegaralovchi-norma, namunali-norma va hokazolar orqali amalga oshiriladi. Qadriyat maqomini olgan axloq ana shu jarayonda o‘zining ijobiy kuchini namoyish qiladi.

Axloqning aksiologik funksiyasi - bu “axloqiylik va axloqsizlik”, “yaxshilik va yomonlik” nuqtayi nazaridan odamlarning xatti-harakatlariga, niyati, maqsadi, o‘y-xayollariga, vaj-sabablariga, axloqiy qarashlari va shaxsiy xislatlariga baho berish asosida ularni qadrlashni amalga oshiradi. Axloqning ana shu funksiyasi axloqiy qadriyatlarning qanchalik hayotiy yoki hayotiy emasligini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Xuddi shu joyda axloqiy va estetik qadriyatlarning uyg‘unligi ham ko‘zga tashlanadi.

Axloqning maqsadga yo‘naltirish funksiyasi - bu jamiyat hayotida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy qadriyatlar tizimining kelgusidagi istiqbollarini belgilab beruvchi yo‘lchi yulduz ishini bajaradi. Axloqning bu funksiyasi har bir jamiyat uchun o‘ta zarur bo‘lgan axloqiy qadriyatlar tizimini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Shu tufayli ba’zi bir axloqiy qadriyatlar umuminsoniy yoki milliy darajaga ega bo‘ladilar.

Axloqning bilish funksiyasi - bu odamlardagi yaxshi va yomon fazilatlarni anglab olish asosida voqelik to‘g‘risida muayyan bilimlarni hosil qilish ishini o‘taydi. Ma’lumki, axloqiy bilim, prinsip, norma, kodeks, nizom va boshqalarda ijtimoiy axloqiy qadriyatlar haqida ko‘plab

axborot-ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'ladi. Ana shu axborot-ma'lumotlarga ega bo'lish odam, jamiyat uchun eng qiyin, og'ir damlarda birdan bir to'g'ri axloqiy tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.

Axloqning tarbiyaviy funksiyasi – bu jamiyatda mavjud bo'lgan tarbiya tizimini umuminsoniyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy norma, urf-odat, an'analarga moslashtirish va shu asosda fuqarolarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ishlarini tashkil etishni amalga oshiradi.

Axloqning kommunikativ funksiyasi – bu umumiy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqish uchun odamlar o'rtasida fikr almashish, bir-birini tushunib umumiy xulosalarga kelishda o'zaro aloqa qilish vositasi vazifasini bajaradi. Xullas, axloq tufayli xalqlar, elatlar, millatlar bir-birlari bilan aloqada bo'lib, fikr almashib, o'zlariga xos, manfaatlariga mos keladigan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqadilar hamda ularga og'ishmay amal qilishni yo'lga qo'yadilar.

Yuqoridagi fikrlar axloqning jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallashidan dalolat beradi.

Umuman olganda, hozirgi kunda axloq-odob, nafosat, ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifa barkamol avlodni tarbiyalab,ularning ozod va obod Vatanda,erkin va farovon yashashdek baxtga sazovor bo'lishini ko'rishdan iborat.

Xulosa. Yosh avlodni kasbiy jihatdan axloqiy-ma'naviy, estetik tarbiyalash, ularga huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya berishning o'zagini tashkil qiladi. Chunki, *har qanday qonun, huquqiy norma asosida axloqiylik va ulug'vorlik yashiringan bo'ladi, u amaliyotda o'zini adolat timsoli bo'lgan adolatli qonunlar shaklida namoyon qiladi*. Shunday ekan «Kasb etikasi va estetik madaniyati» fanini ta'lim-tarbiya tizimida uzluksiz tarzda o'qitishni tashkil etish,yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, raqobatlashayotgan dunyo bosimiga qarshi turadigan, sotilmas, qo'rqmas, imon-e'tiqodli, haqiqiy xalqparvar, vatanparvar Kasbiy soha xodimlarining yangi avlodini tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3-§. Umuminsoniy axloq prinsiplari va normalari

1. «Umuminsoniy axloq prinsiplari» tushunchasi. «Prinsip» lotincha – *«principium»* - *«asos, negiz»; «ibtido»* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida: 1) biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida; 2) xulq-atvor, xatti-harakat me'yorini belgilaydigan, kishi

qattiq ushlab olgan va og‘ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtayi nazar, qarash, maslak degan ma’nolarni anglatadi[86].

Axloq prinsiplarini biron-bir shaxs yaratmagan, u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq, moddiy va ma’naviy hayot jarayonida kishilar ijtimoiy turmushining, axloqiy munosabatlarining talablarini birmuncha umumlashgan holda aks ettiradigan axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun-qoidalar hisoblanadi. Shunga ko‘ra,***umuminsoniy axloq prinsiplarideb jamiyatning ma’naviy ongida ishlab chiqilgan, insonning ma’naviy mohiyatiga, burchiga, hayotining mazmuniga va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro talablarning tabiatiga taalluqli umumiy talablarni aks ettiradigan, insonlar faoliyatining umumiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan va muayyan xulq-atvor normalariga asos bo‘lib xizmat qiladigan qonun-qoidalarga aytiladi.***

Umuminsoniy axloq prinsiplariga quyidagilar kiradi: insonparvarlik, o‘zaro yordam, ishonch, hamjihatlik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, adolatlilik, odamiylik, qonuniylik va h.k.

2. Insonparvarlik prinsipi. Insonparvarlik ikki ma’noda: birinchidan, amaliy faoliyat, ya’ni insonning ozodlik va tenglik uchun olib boradigan kurashi; ikkinchidan, dunyoqarash, mafkura, siyosat, axloq, tarbiya sifatida tushuniladi. Bu ikki tomon doimo bir-birini to‘ldirib turadi.

Insonparvarlik odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash ularning haq- huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi oliyjanob tuyg‘ular, qarashlar majmuyidir.

«Insonparvarlik» axloqiy prinsip sifatida kishilarning xulqini bir-biriga hurmat va g‘amg‘o‘rlik, insonning kuch-qudratiga ishonch ruhida tartibga solib boradigan xatti-harakatlarni bildiradi.

Insonparvarlik prinsipining axloqiy mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

– insonni oliy darajadagi qadriyat deb tushunish, uning ijodiy kuch va qobiliyatlari, imkoniyatlari cheksiz kamol topishiga ishonish;

– har bir insonning qadr-qimmatini, shaxsiy daxlsizligini, erkin yashashini, moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishini, baxt-saodatga erishishini talab qilish;

– har bir insonni – yoshi, jinsi, irqi, millati, tili va dinidan qatiy nazar moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratuvchisi sifatida hurmat qilish;

[86]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. – Т.: « Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.309.

– erkak va ayollarni, qariya va bolalarni, barcha irq va millat vakillarini ularning insoniyligiga qarab hurmat qilish;

– o‘zgalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik, insoniyatning baxt-saodati yo‘lida tinmay mehnat qilish, kerak bo‘lsa o‘zini qurbon qilishga tayyorlik va sh.k.

Insonparvarlik prinsipi o‘zining huquqiy ifodasini «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» (1948 yil 10 dekabr), «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» (1992 yil 8 dekabr) kabi xujjatlarda topgan.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da: «Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlarcha ruhda munosabatda bo‘lishlari kerak» (1-modda); «Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir» (3-modda); «Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak» (5-modda); «Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg‘in qilinishi mumkin emas» (9-modda) deyilgan bo‘lsa[87] , O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir» (24-modda); «Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligiga ega» (27-modda); «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi» (31-modda) deyilgan. Bular Konstitutsiyamizning nihoyatda insonparvar ruhdagi qonun ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishning ma’naviy negizlaridan birini insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik prinsipini amalga oshirmasdan turib xalqimizning azaliy orzusi bo‘lgan adolatli jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi. Insonparvarlik xislatlari esa xalqimizning qon-qoniga, jon diliga singib ketgan.

Insonparvarlik o‘zbek xalqining barcha hayot jabhalariga kirib ketgan bo‘lib, uning qonun-qoidalari, masalan, kasb sohasi xodimlarining fuqarolar bilan, aholining turli-tuman qatlamlari bilan bo‘ladigan axloqiy-ma’naviy munosabatlarini qamrab olgan holda ularni tartibga solib turuvchi, boshqaruvchi vosita hisoblanadi.

---

[87] Инсон ҳуқуқлари: Универсал халқаро ҳужжатлар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 10-12.

Umuminsoniy axloq prinsiplariga kiruvchi insonparvarlik kasb sohasi xodimlari,masalan, shifokorlarning aholi sog‘ligini saqlash faoliyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyat quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Kasb sohasixodimlari faoliyati o‘z mazmuniga ko‘ra insonparvarlik xususiyatiga ega. Chunki bu muassasalar kishilarning yashashi, mehnat qilishi, ijod bilan shug‘ullanishi, dam olishini ta’minlash uchun ularni har xil yuqumli kasalliklardan himoya qilish, ularning shaxsiy, mulkiy, siyosiy haq-huquqlarini ta’minlashga qaratilgan.

Shunga ko‘ra, umuminsoniy axloq prinsipi bo‘lgan insonparvarlik kasb sohasi xodimlarining faoliyatida yomonlikka, yovuzlikka qarshi kurashuvchi, shaxs va jamiyat, davlat manfaatlarini har xil g‘ayrinsoniy tajovuzlardan himoya qiluvchi, jamiyatda o‘rnatilgan huquq va axloq normalarining og‘ishmay amalga oshirilishini ta’minlovchi, har bir insonning baxtli-saodatli hayot kechirishi va kelgusida kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga xizmat qiluvchi kasb axloqi prinsipi shaklida namoyon bo‘ladi.

2. Kasb sohasi xodimlarining xizmat faoliyatida insonparvarlikning kasb axloqi sifatida amal qilishini ko‘rsatuvchi omillardan biri ularning har xil kasalliklarning oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlari va o‘tkazadigan tadbirlari hisoblanadi. Bu xatti-harakat va tadbirlarning zamirida yotuvchi insonparvarlik g‘oyasi quyidagilarda ifodalanadi: axloqiy nazoratdan chetda qolgan shaxslarni aniqlash va ular orasida ta’lim-tarbiya ishlari olib borish; balog‘at yoshiga yetmagan yoshlarning mehnat qilish, dam olish, qadriyatlardan foydalanish huquqlarini himoya qilish; yuqumli kasalliklar keltirib chiqaruvchi sabablarni tezlikda aniqlash va ularni tugatish choralarini ko‘rish, aholining barcha qatlamlari o‘rtasida muntazam sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot va axloqiy tarbiya ishlarini tashkil qilish.

Shunday qilib, kasb sohasi xodimlari o‘z faoliyati bilan insonparvarlikka xizmat qiladilar, ya’ni insonning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi qonunbuzar shaxslarni jamiyatda qaror topgan huquqiy va axloqiy normalar asosida tarbiyalash va qayta tarbiyalash orqali erkin ijobiy hayotga, olijanob insonlar davrasiga qaytarish vazifalarini bajaradi.

3. Jamiyat va davlat tomonidan o‘rnatilgan huquqiy va axloqiy normalarni buzib, jinoyat sodir etganlarni ham, eng avvalo, inson deb bilgan holda, qayta tarbiyalab, halol mehnat quchog‘iga qaytarish asosida ish yuritish o‘zbek qonunchiligining va qonun ijrosini ta’minlovchi kasb sohasi xodimlarining faoliyatidagi insonparvarlikning asl mohiyatini tashkil etadi.

4. Kasb sohasi xodimlari faoliyatidagi insonparvarlik kasb sohasi bilan bog‘liq yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan usul va vositalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, avvalo, ishontirish, so‘ngra majbur qilish vositalarini qo‘llashda ko‘rinadi.

Ishontirish usuli har bir insonni o‘rnatilgan huquq va axloq normalariga amal qilishga, qonun talablari va tartib-intizomni buzmaslikka, bordiyu ularni buzsa, albatta qilmishiga yarasha jazo olishi muqarrarligiga iqror etishda namoyon bo‘ladi.

Majburlash – ishontirish usuli ish bermay qolganida qo‘llaniladigan vosita. Uning amalda qo‘llanishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini u yoki bu tarzda cheklashni anglatadi.

Ishontirish va majburlash usullarini qo‘llashning axloqiy-huquqiy asoslarini, *birinchidan*, shaxsning jismoniy (hayoti va sog‘lig‘i), axloqiy (sha’ni va qadr-qimmati), ma’naviy (ruhiy) daxlsizligi; *ikkinchidan*, uy-joylarining; *uchinchidan*, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid sirlarni saqlash huquqlarining daxlsizligi tashkil etadi. Bu normalar kasb sohasi xodimlarining fuqarolar bilan bo‘ladigan munosabatlarini boshqaruvchi, tartibga solib turuvchi vosita vazifasini o‘taydi. Xuddi shunga ko‘ra, kasb sohasi xodimlarining ushbu normalarni buzgan har qanday xodimi, egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, intizomiy, ma’muriy va jinoiy jazoga tortiladi.

Har bir insonga, u kim bo‘lishidan qatiiy nazar, to‘g‘ri muomala qilish, ya’ni urishmaslik, baqirmaslik, haqorat qilmaslik, shaxsiyatiga tegmaslik kerak. Odamlar bilan doimo yaxshi muomalada bo‘lib, samimiy muloqot qilish lozim. Bu, albatta, kasb sohasi xodimlari har qanday qabihlikni kechirishlari kerakligini emas, balki har bir masalani qonuniy asosda, shoshmasdan, bafurja hal etishlari zarurligini bildiradi.

Insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati bunyod etish jarayonida insonning sog‘ligini, uning haq-huquqlarini himoya qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, ayni vaqtda Kasb sohasi tizimi faoliyatini tubdan qayta qurishni, insoniylashtirishni taqozo etmoqda.

Kasb sohasi tizimi faoliyatini insoniylashtirish ikki yo‘nalishda olib borilishi kerak: *birinchidan*, sog‘liqni saqlashning butun faoliyatini; *ikkinchidan,* har bir xodimni insoniylashtirish zarur, chunki insoniylashtirish insonparvarlikning amaldagi ifodasidir.

Jahon mutafakkirlari insonparvarlik haqida:

– Odamlar, insonparvar bo‘ling! Bu sizning birinchi burchingiz. (J.J.Russo)

– Inson bo'lish – san'atdir.(Novalis)
– Har bir kishi – butun bir kitobdir, hamma gap uni o'qiy olishda. (U.CHenning)
– Inson bo'lish – kurashchi bo'lmoqlikdir. (I.Gyote)
– Insonni bilish uchun uni sevish kerak. (L.Feebax)
– Kimki hech kimni sevmasa, menimcha, uni ham hech kim sevmaydi. (Demokrit)

3. Jamoatchilik prinsipi. Hech bir odam o'zgalardan ajralgan holda yashamaydi. U, albatta, boshqalar bilan hamkorlik qilgan holda jamoat-jamoat bo'lib yashaydi va mehnat qiladi. Jamoat bo'lib yashash – insonlarga xos xususiyatlardan biri. Bu xususiyat asosida o'zaro yordam, hamkorlik, qo'llab-quvvatlash, hamdardlik yotadi.

Sog'liqni saqlash xodimlarining kasalliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish, insonlarning haq-huquqlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajarishlarida, xizmat jamoatsidagi hamkorlikning, o'zaro yordamning o'rni nihoyatda katta bo'ladi. Xizmat jamoatlariga birlashgan xodimlarning faol harakatisiz bu vazifalarni uddalab bo'lmaydi. Binobarin, xizmat vazifasini bajarishda muayyan maqsadni ko'zlagan, ehtiyoj va manfaatlardan kelib chiqqan holda o'zaro yordam va hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish jamoattchilik prinsipining asosini tashkil qiladi.

Jamoattchilik prinsipideb kasbiy soha xodimlarining o'z burchini bajarishda odamlarning sog'lig'ini ta'minlash va haq-huquqlarini himoya qilishda shaxsiy manfaatni ko'pchilik manfaatiga ongli ravishda bo'ysundirishga asoslangan o'rtoqlarcha hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlari bilan bog'liq ixtiyoriy, ongli xatti-harakatlarini belgilovchi qoidalar majmuiga aytiladi.

Jamoatchilik prinsipi kasbiy soha xodimlarining shaxsiy manfaatlarini jamoatning manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi va xodimlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi mehnat qonun-qoidalari sifatida har ikki tomonga (shaxs va jamoatga) muayyan vazifa va majburiyatlarni yuklaydi.

Xodimning xizmat jamoatsi oldidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

1) xizmat jamoatsining kuchiga ishonish, uni hurmat qilish, fikriga quloq solish, unda o'zining baxtini tasavvur qilish;

2) xizmat jamoatsida bo'layotgan ishlarga o'zini ham mas'ul deb bilish, tartib-intizomni saqlashga, o'zaro yordam va hamkorlik ishlariga hissa qo'shish;

3) xizmat jamoatsining ahilligiga putur yetkazuvchi illatlar bo'lmish shaxsiyatparastlik, soxta jamoatchilik, amalparastlik, «tanish-bilishchilik», kalondimog'lik, guruhbozlikka qarshi kurashish.

Xizmat jamoatsining xodimlari oldidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

1) har bir xodimning xizmatini diqqat bilan kuzatish, jamoat ishiga qo‘shgan hissasini adolatli baholash;

2) har bir xodimning ma’naviy va jismoniy imkoniyatlaridan, to‘plagan tajribasidan unumli foydalanish;

3) har bir xodimning yaxshi turmush kechirishi uchun g‘amxo‘rlik qilish, yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatishida yordam berish.

«O‘zbek xalqi azaldan jamoat tuyg‘usiga moyil. Biz to‘yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo‘yib, beva- bechoralarning, etim-yesirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo‘yib yashagan insonlarning farzandlari bo‘lamiz[88]. Jamuljam bo‘lib yashash tuyg‘usi biz uchun hayot falsafasiga, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak, bu milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni sezmaslik, anglamaslik, ko‘rmaslik umuman mumkin emas”[89], – degan edi I.A.Karimov.

Jamoatchilik axloqiy prinsipi sifatida, *birinchidan,* tarbiyalash, umuminsoniy axloq prinsiplari va normalarini amalga oshirish, ularning avlodlar o‘rtasidagi uzluksizlikka asoslangan vorisiyligini ta’minlash; *ikkinchidan,* sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni vujudga keltirish; *uchinchidan,* mehnat va xizmat intizomini mustahkamlash; *to‘rtinchidan,* xodimlarni taqdirlash, axloqiy faolligini oshirish; *beshinchidan,* oilaviy-turmush sharoitlarini yaxshilash, farzandlarni jamoat an’analari ruhida tarbiyalash; *oltinchidan,* demokratiyani rivojlantirish asosida boshqarish ishlarini takomillashtirish vazifalarini bajaradi.

Mutafakkirlar jamoatchilik haqida:

– Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to‘rt kishi uch kishidan yaxshi, ko‘pchillik bilan birga bo‘linglar.(Hadis)

– Jamoatt bo‘lmay yakka yashash davri o‘tib ketdi. (Hadis)

– Xodimlaringiz birodarlaringizdir. Ularga yaxshilik qilinglar. Agar ularni qiyinchilikda ko‘rsanglar, yordamlashib yuboringlar.(Hadis)

– Odam tabiatiga ko‘ra ijtimoiy mavjudotdir. (Arastu)

– Kishi uzlatda yashay olmaydi, unga jamoatt kerak.(I.Gyote)

---

[88] *Каримов И.А.* Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар // *Ушинг ўзи.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.:Ўзбекистон,1996 – Б.11-12.

[89] *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.10.

– Kishi jamiyat uchun yaralgan. U bir o'zi yashashga qodir emasligidan tashqari, bir o'zi yashashga jasorat ham qila olmaydi..(U. Blekstoun)
– Yakka odam uzlatda qolgan Robinzon singari ojizdir; faqat boshqalar bilan hamkorlikdagina u ko'pgina ishlarni qila olishi mumkin. (A.SHopengauer)

4. Qonuniylik prinsipi. Bu prinsipning mohiyati haqida I.A.Karimov: «Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi»[90], – degan edi.

Shunga ko'ra, *qonuniylik* bu – ijtimoiy munosabatga kirishgan jamiyat a'zolarining huquq normalariga qat'iy rioya qilgan holda ularni amalga oshirishlaridir.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida qonuniylik prinsipiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Qonuniylik prinsipi deb ularning konstitutsiyada, qonunlarda, farmonlarda, buyruqlarda ko'rsatilgan va belgilab qo'yilgan huquq normalarining talablarini og'ishmay amalga oshirishlari, o'ziga yuklatilgan xizmat vazifasini mavjud qonunlarga qat'iy bo'ysungan holda holda bajarishlariga aytiladi.

Qonuniylikning to'rt prinsipi mavjud:
1) qonuniylikning yagonaligi va bir xilda tushunilishi;
2) qonunning ustunligi;
3) qonunlarning haqqoniyligi va maqsadga muvofiqligi;
4) qonunning madaniyat bilan bog'liqligi.

Bu prinsiplarning amal qilishi, *bir tomondan*, jamoattning sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash borasida fuqarolarning, mansabdor shaxslarning, jamoatt tashkilotlari, korxona va muassasalarning haq-huquqlarini qonuniy tarzda qo'riqlashlarini o'z ichiga olsa; *ikkinchi tomondan*, tartib-intizomni saqlash, qonuniylikni ta'minlash, qonunga itoatkorlik jarayonlarini qamrab oladi. Bu esa har bir fuqaroning amaldagi qonunchilik prinsiplarini mukammal bilishlari va ularni o'zlarining faoliyatlarida to'liq qo'llashlari lozimligini ko'rsatadi.

---

[90]*Каримов И.А.* Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // *Унинг ўзи.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т.: Ўзбекистон,1996 – Б.321.

Mutafakkirlar qonun va qonunchilik haqida:

– Xalq qonunni o'z tayanchi, o'zini muhofaza qiluvchi devor sifatida himoya etmog'i lozim.(Geraklit)

– Qonunni himoya qilolmaydigan, jur'atsiz odamlar uchun qonun behudadir.(T. Makoley)

– Qonun ortida uni qo'llab-quvvatlaydigan majburlovchi kuch bo'lmasa — u qonun emas.(J. Garfild)

– Odatlar — bu odamlardir, qonunlar esa — mamlakatning aqli. Odatlar ko'pincha qonunlardan ko'ra shafqatsizroqdir. Aksari nomaqbul odatlar qonunlardan ustun keladi. (0. Balzak)

– Qonunga rioya qilmaydigan odamdek yovuz hayvon yo'q. (J. Savonarola)

– Qonunga xilof harakat hech kimning obro'yini oshirmaydi va o'ziga hurmat ham uyg'otolmaydi.(L.Kazbegi)

– Qonun insoniy donolikning yuksak ifodasi bo'lib, u odamlar to'plagan tajribadan jamiyat farovonligi yo'lida foydalanadi.(S.Jonson)

– Hech bir qonunga bo'ysunmaslik o'zini najotbaxsh himoyadan mahrum etish degan so'z, zero, qonunlar bizni boshqalardangina emas, o'zimizdan ham asrab turmog'i kerak. (G. Geyne)

– Qaerda qonun tugasa, u yerda zo'rlik boshlanadi.(U. Pitt)

– Agar qaysi yerda g'arib xo'rlanur,
U xil mamlakat tezda vayron bo'lur.(Sa'diy)

– Qonunlar illatlarga barham berib, yaxshilikka yo'l ochmog'i kerak. (Sitseron)

– Qonunlar barchaga barobar bo'lishi zarur. (SH. Monteske)

– Fuqarolarning haqiqiy tengligi shundaki, ular qonunlarga bir xilda itoat etmoqliklar lozim.(J. Dalamber)

– Qonun – mayda pashshalar ilinib, yiriklari qutulib ketadigan to'r emas. (0. Balzak)

– Imtiyoz – qonunning ashaddiy dushmani. (M. Ebner-Eshenba)

– Men uchun qaysi tomon kuchliligining ahamiyati yo'q; muhimi huquq kim tomondaligida.(V. Gyugo)

5. Vatanparvarlik prinsipi. «Vatan» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ona yurt» degan ma'noni anglatadi. «Vatan, – degan edi faylasuf olim H.Po'latov, – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, har kimning birligini qadrlovchi, o'z-o'ziga siyosiy bekligini

ifodalavchi zamin, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'idir»[91].

Shunday qilib «Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan,hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan – ota-bobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir. Vatani bor odamning g'ururi-iftixori yuksak,maqsad-muddaolari aniq bo'ladi.Tog'dek tayanchi – Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi»[92]. «Vatanni sevmoq iymondandir», –degan edilar payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom. Vatanni sevish vatanparvarlikning negizini tashkil qiladi.

Kasbiy soha xodimlarining vatanparvarligi deb ona-Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish, har bir fuqaroning sog'ligini saqlash yo'lida har xil kasalliklarning xurujidan himoya qilishga, kerak bo'lsa, uning mustaqilligi, obodligi, ozodligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish yo'lida jonlarini fido qilishga tayyor turishlariga aytiladi.

Kasbiy soha xodimlarining vatanparvarligi ularning Vatanni his qilishida, Vatanga bo'lgan tuyg'usida ifodalangan bo'ladi.

«Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganligini tan olishdan, buyukligini e'tirof yetishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas. O'zbeksiz O'zbekistonni, O'zbekistonsiz o'zbekni xayolga ham keltirib bo'lmaydi. ...Azal kotiblari vasiqani shunday bitibdilar, taqdir bizga kulib boqibdi, O'zbekiston bizga Vatan bo'libdi, biz unga farzandi komil bo'libmiz. Toabad shunday bo'lgay, insholloh!»[93].

Vatan hissi – muqaddas tuyg'u. Vatan tuyg'usi – ajdodlarimizning Vatan deya, uning ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilganliklarini, jabr-sitam, zulm-istibdodga uchraganliklarini yod etish, mustaqil, ozod va

---

[91] *Пўлатов Ҳ.* Мустақиллигимиз қадриятлари // Ўзбекистоннинг миллий истиқлол мафкураси – Т.: Ўзбекистон, 1993 – Б.76.

[92] *Миллий истиқлол ғояси:* асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 51.

[93] *Иброҳимов А., Султонов Ҳ., Жураев Н.* Ватан туйғуси – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.146.

obod Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir[94].

Vatanparvarlik haqida donishmandlar shunday deganlar:

– Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. (G.Gegel)

– Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech kimni seva olmaydi. (Bayron)

– Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi. (J.J.Russo)

– Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslikdir.(M. Robesper)

– O'z Vataniga dog' tushirish - uni sotish degan so'z. (V.Gyugo)

– Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi, – bu Vatanga xiyonatdir. (P.Buast).

– Vatan mening jonu tanim sajdagohimdur. U mening to'lin oyim, tinch-omonim, izzatim, sharafim. Ka'bam, qiblam hamda gulistonimdur. (Fitrat)

O'tar kunlar, o'tar zamon,
ey Vatanim, bo'lma hijron!
Men ketsam-da, sen bo'l omon!
Omon – Vatan, Vatan – omon. (A.Avloniy)

4-§. Umuminsoniy axloq normalari

1. «Umuminsoniy axloq normalari» tushunchasi. Norma lotincha («norma» - me'yor, o'lchov; qoida, qonun) so'z bo'lib, o'zbek tilida: 1) rasmiylashtirilgan qonun-qoida; 2) umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida; 3) biror narsaning, ishning aniq belgilangan o'lchami, miqdori, me'yori degan ma'nolarni anglatadi[95].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma'naviy hayoti muayyan normalar orqali tartibga solinadi va boshqariladi. Umuman olganda, jamiyat hayotida amal qiluvchi barcha normalarni texnikaviy va ijtimoiy normalarga ajratish mumkin. Bunda texnikaviy normalarinson va mashina, ijtimoiy normalar esa inson va inson o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy normalarning turlariga quyidagilar kiradi: axloq normalari, jamoatt birlashmalari normalari, milliy urf-odatlar, xalqlarning odatlari, an'ana normalari, siyosiy hayot normalari, huquq normalari, diniy normalar.

---

[94] *Иброҳимов А., Султонов Х., Жураев Н.* Ватан туйғуси – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.152– 153.

[95] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3 – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.60.

Jamoatt birlashmalarning normalari — jamoatt birlashmalarining o‘z faoliyatini tartibga solish va tashkilotlarning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun o‘rnatgan xulq-atvor qoidalari.

Odat normalari — kishilarning ko‘p marta takrorlangani uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari.

An’ana normalari — ilg‘or an’analarni asrash zarurati tufayli yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari.

Marosim normalari — kishilarning ma’lum rasm-rusumlarni bajarishdagi xulq-avtor qoidalari.

Diniy normalar — dindorlarning xudoga, ibodatxonaga bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarning tashkil qilinishi va faoliyatini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

Siyosiy normalar — alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarning hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

Huquq normalari — davlat tomonidan belgilanadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

Yuqorida keltirilgan ta’rif va tavsiflardan ham ko‘rinib turibdiki,barcha ijtimoiy normalarning mag‘zini axloq (xulq-atvor) normalari tashkil qiladi. Chunki, u birinchilar qatorida bashariyat beshigi allasidan bahra olgan holda shakllangan, rivojlangan va uzoq vaqtlar davomida kishilarning ijtimoiy hayotini boshqarib kelayotgan ma’naviy vosita hisoblanadi.

Umuminsoniy axloq normalari deb har bir inson, elat, millat, xalq, davlat va turli xil shakldagi moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqaruvchi ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, texnikaviy munosabatlarini jamiyatning axloqiy hayoti talablaridan kelib chiqqan holda tartibga soluvchi axloqiy-ma’naviy qonun-qoidalarning muayyan tizimiga aytiladi.

Axloq normalari ikki xil ko‘rinishda, ya’ni axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo‘ladi. Axloq normalarining birinchi shakli ko‘pchilik kishilarning bir xildagi xatti-harakatlari tufayli kelib chiqqan va keyinchalik barcha uchun bajarilishi shart qoidalar tusini olgan normalardir. Ikkinchi xil axloqiy norma inson ongida o‘z aksini topgan muayyan qoida sifatida namoyon bo‘ladi (masalan, «o‘ldirma», «o‘g‘irlama» va h.k.), ya’ni unda buyruq mayli xususiyati ko‘zga tashlandi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, agar axloq prinsiplari - umumlashgan axloqiy tushunchalar bo‘lsa, axloqiy normalar ularni

aniqlashtirishga xizmat qiladi, ya'ni axloqiy prinsiplarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini, bunda kishi irodasi qay tarzda namoyon bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

Axloq normalari nafaqat elementar axloqiy ong, balki shu bilan birga, kishilarni harakatga undovchi motiv hamdir. Ular ma'naviy va amaliy hodisalarning sintezi sifatida nima qilish mumkin-u, nima mumkin emasligi, u yoki bu sharoitda qanday harakat qilish kerag-u, nimadan o'zimizni tiyishimiz lozimligini ko'rsatgan holda xulqimizni yo'lga soladi, ya'ni mumkin va nomumkinlik me'yorini belgilab beradi.

2. Kasb axloqining normalari. Kasb axloqi prinsiplari amalda axloq normalari orqali namoyon bo'ladi.

Kasb axloqining normalari deb jamiyat, davlat, vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan, mas'ul xodimlarining xulqi, fe'l-atvorlarini tartibga soluvchi, bajarilishi shart bo'lgan axloqiy-huquqiy talablar majmuiga aytiladi.

Kasb axloqining normalari umumiylikdan xususiylikka va undan alohidalikka qarab amal qilgan holda xodimning o'z xulqiy xatti-harakatlarini sodir etishda nima qilishi lozimligiga emas, balki uning qanday bo'lishi kerakligiga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, axloqiy normalar jamiyat, davlat va xizmat jamoatlarining xodimga munosabatini ifodalab, uning shaxsiga muayyan baho beradi.

Shunday qilib, axloq normalari ayni vaqtning o'zida talab va baho normalari shaklini oladi, ya'ni jamiyat, davlat, xizmat jamoatlari yomonlik keltiradigan xatti-harakatlarni ular orqali qoralaydi va yaxshilikka erishishga qaratilgan xatti-harakatlarni ular orqali ma'qullaydi. Bu bilan axloq normalari nafaqat yomonlik yo'liga to'siq, balki ayni paytda xodimlarni ezgu ishlarga chorlovchi ma'naviy-axloqiy omil bo'lib ham xizmat qiladi.

Kasb axloqining normalariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiqko'ngillilik va dangallik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sipolik, kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

3. Xushmuomalalik va odoblilik. *Xushmuomalalik* – o'zga kishilarga bo'lgan ichki hurmatning tashqi ko'rinishidir. Uning o'nta belgisi bor. Ular quyidagilar: insof, aql, ilm, hilm[96], olijanoblik, ko'rkam fe'l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlik. Mana shularga amal qilgan har bir

[96] *Хилм* – мулойим табиатлилик

xodim hamisha va har qanday holatda fuqarolar bilan odob doirasidan chiqmasdan muloqotda bo‘ladi.

Kasb egalarining xushmuomalaligi –har bir xodimning o‘z xizmat vazifasini bajarishda dilidagi ardoqli fikrlarini, eng noyob his-tuyg‘ularini, eng sara ezgu niyatlarini odamlar bilan baham ko‘rish asosida osoyishtalik, vazminlik, xotirjamlik, odob bilan muloqot qilishi demakdir.

Biron bir kasb egalarining xushmuomalaligi:

birinchidan, har bir xodimning o‘zi va safdoshlarining xizmat jamoatsida o‘rnatilgan intizom va boshqa tartib-qoida talablariga rioya qilishida ko‘rinadi, chunki intizomli kishi aksariyat hollarda xushmuomala, intizomsiz odam esa qo‘pol va yolg‘onchi bo‘ladi;

ikkinchidan, har bir xodimning barcha fuqarolar bilan bo‘ladigan muomalada ularning ijtimoiy mavqeyi va boshqa ustunliklaridan qat’i nazar teng va iltifotli bo‘lishida namoyon bo‘ladi, chunki xushmuomalalik xushnudlikda, boshqa kishilarga nisbatan hurmatda namoyon bo‘ladigan insoniylikdir;

uchinchidan, har bir xodim fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqotda hech qachon boshqa kishilarni noqulay ahvolga solib qo‘ymasligida, ularning fikr mulohazalariga baho berishda odobsizlik qilmasligida, o‘zining undan ustunligini aslo pesh qilmasligida bilinadi;

to‘rtinchidan, har bir xodimning hayotda uchraydigan u yoki bu masala yuzasidan boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarining noto‘g‘ri ekanligini, unga qo‘shilmasligini odob bilan tushuntirishida, kerak bo‘lsa isbotlashga harakat qilishida, binobarin, qo‘pollik qilmasligida ko‘rinadi.

Xushmuomalalik haqida mutafakkirlar shunday deyishgan:

– Hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun talantdan ko‘ra kishilar bilan xushmuomalada bo‘lish ko‘proq muhimdir. (J.Lebbok)

– Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma’rifatliligidan darak. (O.Balzak)

– Ozginagina xushmuomalalik hayotingizni yoqimli, kunni esa nurafshon etadi.(K.Bouvi)

– Xushmuomalalik eng zarur va eng yoqimli ezgulikdir.(J.Lokk)

– Haqiqiy xushmuomalalik odamlar bilan muruvvatli munosabatdan iboratdir.(J.J.Russo)

– Xushmuomalalik hech narsa turmaydi-yu, ammo ko‘p naf keltiradi. (M.Montegyu)

Odoblilik – yaxshi tarbiya ko‘rganlikning namoyon bo‘lishi, xatti-harakatlarda, so‘zlashuvda me’yorni, chegarani, muvofiqlik va nomuvofiqlikni bilishdir. Odoblilikning asosiy belgisi – o‘zini tuta bilish,

hukm chiqarishda shoshmaslik, kishilarning orqasidan g'iybat qilmaslik, o'zgalar fikrini tinglay bilish, shirinso'zlik hisoblanadi.

Kasb egalarining odobi – bu har bir xodimning o'z xizmat vazifasini bajarishda shirinso'zlik, sipolik, bosiqlik, xokisorlik, mehr-muruvvat ila hech kimni kamsitmasdan fuqarolar bilan bo'ladigan muloqotlarining yaxlit ko'rinishidir.

Xodimlarining odobliligi:

– odamlar orasida o'z tanishi bilan boshqalar bilishi shart bo'lmagan ishlar haqida ovozni baland qo'yib gaplashmasligida;

– suhbat chog'ida o'zini bosiqlik bilan tuta bilishida;

– boshqa kishilarning xatti-harakatlari va xarakteri haqida hukm chiqarishda shoshilmasligida;

– kishilarning orqasidan g'iybat qilmasligida;

– birovni nohaq xafa qilmasligida;

– suhbatdoshi istamagan suhbatni sipolik bilan yakunlab qo'ya qolishida;

– o'zi haqida gapirmasligi yoki juda ham kam gapirishida ko'rinadi va h.k.

Odob haqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday deganlar:

– Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir.

– Odob – kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil- mazahdan, kamsitilishdan saqlaydi.

– Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi.

– Odob kichik yoshdagilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar.

– Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlikni ko'radi.

– Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi[97].

Odob bo'lmagan joyda ma'naviyat bo'lmaydi. Ma'naviyatsiz xodim esa o'zining xizmat vazifasini odoblilik bilan bajarish qobilyatiga ega bo'lolmaydi. Shuning uchun ham donishmandlarimizning xushmuomalalik va odoblilik haqidagi fikrlariga amal qilish

4. Halollik va rostgo'ylik. *Halollik* – har bir insonning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning evaziga topgan mol-mulki, obro'si,

[97] *Навоий Алишер.* Маҳбуб ул– қулуб: (Қалблар севгилиси).– Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти,1983.– Б.48.

jamiyatda tutgan o‘rni, xulqining to‘g‘riligi, so‘zida qat’iylik va sadoqatining majmuasidir.

Kasb egasining halolligi uning o‘ziga yuklatilgan vazifani to‘la-to‘kis bajarishi uchun davlat tomonidan ajratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlar evaziga hayot kechirishi, jamiyatda o‘rnatilgan qonun talablari va qaror topgan axloq normalariga muvofiq tarzda xalqning sog‘ligini saqlash,tinch-osuda yashashini ta’minlash yo‘lida sidqidildan xizmat qilishidir.

Xodimlarninghalolligi:

– har bir xodimning xatti-harakati va xulqining to‘g‘riligida;

– har bir xodimning o‘z so‘zida qat’iy turishida, unga sodiq qolishida;

– o‘zi va oilasini davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar evaziga boqishida;

– o‘zining shaxsiy manfaatidan xalq, davlat, jamiyat manfaatini ustun qo‘yishida;

– o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan talabchanligida;

– sotilmasligi, poraga uchmasligi, tamagirlik qilmasligi kabilarda ko‘rinadi.

Shuning uchun ham kasb egalarining hayotda, xizmat vazifasini bajarishda halollik bilan mehnat qilishi zaruriy bo‘lgan axloqiy talab hisoblanadi. Bu esa ularga ulkan axloqiy qoniqish bag‘ishlaydi.

Halollik to‘g‘risida jahonga mashhur donishmandlar shunday deganlar:

– Aqlning halolligi haqiqat oldida chekinmay, unga intilish, har qancha qiyin bo‘lganda ham uni topish, yengil, qulay, yarim-yorti xulosalar, haqoratli soxtagarchiliklardan jirkanishdadir. Mustaqil izlanish, hukm chiqarish va o‘zicha hal eta olish jur’atiga ega bo‘lishdadir. Mustaqil fikrlash jur’atidadir. Inson bo‘lishlikdadir. (R.Rollan)

– Halol odamni ta’qib etish mumkin, ammo badnom qilib bo‘lmaydi. (F.Volter)

– Odam qanchalik aqlli va epchil bo‘lsa, halolligini yo‘qotishi bilan shu qadar badxoh, adovatchi bo‘lib qoladi. (Sitseron)

– Halollik har qanday martabani bezaydi. (F.SHiller)

– Halollik eng yaxshi va ayni paytda eng to‘g‘ri faoliyat tarzidir. (J.Lebbok)

– Bir umr baxtli bo‘lishni istasang – halol odam bo‘l.(T.Fuller)

Rostgo'ylik halollikning bir ko'rinishi bo'lib, haqiqatni gapirish, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'g'ri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir.

Kasb egasi bo'lgan xodimlarining rostgo'yligi (haqgo'yligi) bu har bir xodimning haqiqatni gapirishi, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'g'ri baholashi, nuqsonlarini chin dildan, ochiq-oydin tan olishi, haqiqiy ahvolni yashirmasligidir.

Xodimlarining rostgo'yligi:

– mavjud vaziyat haqida haqiqatni gapirishida;

– kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berishida;

– dushmanga sir boy bermasligida;

– ishonish va ayni vaqtda shubhalanishi, ogohligida;

– jinoyatchilarning hiyla-nayranglariga uchmasligida ko'rinadi.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, masalan, kasb sohasixodimlarining rostgo'yligida ikki jihat mavjuddir. *Birinchisi*, xizmat jamoatsi, *ikkinchisi* esa jamoatdan tashqarida, ayniqsa, jinoyatchi unsurlar bilan bo'ladigan ish faoliyati doirasida bo'ladigan rostgo'ylikdir. Bu ikki jihat bir birini to'ldirib turadi.

Rostgo'ylik haqida donolar shunday deganlar:

– Rostgo'ylik – hayot nafasi, har qanday fazilatning negizi. (T.Drayzer)

– Rostgo'y odam tong kabi beg'ubordir. Rostgo'y bo'lishga harakat qilsang, ishing o'nglanib, yurishib, joning osuda bo'ladi. (Xusayn Voiz Koshifiy)

– Rostgo'ylikning eng past darajasi botin bilan zoxirning barobar bo'lishidir.(Abdulqosim Qushayriy)

– Haqgo'ylik – hayot nafasi, har qanday fazilatlarning negizi. (T.Drayzer)

– Gunohsiz kishi so'zga botir bo'lur. (Sa'diy Sheroziy)

– Haqiqatdan yolg'onchilar va soxta guvohlar qochib qutulolmaydi. (Geraklit)

– G'animning yolg'oniga, laganbardorning shirin suxaniga uchma. Birinchisi, ayyorlik to'rini tashlagan, ikkinchisi esa yovuz jig'ildonini ochib turibdi.(Sa'diy Sheroziy)

– Rostgo'ylik oxirat kunida najotga muyassar qilur. (Xusayn Voiz Koshifiy)

Har bir xodimning kasb axloqi normalaridan o'rin olgan halollik va rostgo'ylik, *birinchidan,* har bir xodimdan o'z so'zining ustidan chiqishni talab qiladi, bu esa ularning o'z burchini puxta bajarishlariga hamda qonunbuzarlar oldida ojiz qolganlarning ularga suyanishiga olib keladi;

ikkinchidan, yolg‘onchilikka, tamagirlikka o‘rin qoldirmaydi; *uchinchidan,* har qanday qiyin sharoitda ham ziddiyat va kamchiliklarni, jinoyatkorona qilmishlarni ochib tashlaydi; *to‘rtinchidan,* kelgusida bo‘ladigan hiyla-nayranglarga yo‘l qoldirmaydi.

5. Shijoat va hushyorlik. *Shijoat* – botirlik, dovyuraklik, mardlik degani. Kasb axloqining markaziy normalaridan sanalmish bu fazilat haqida Abdulla Avloniy shunday degan edi: «Shijoat deb botir va yurakli bo‘lmakni aytilur. Shaji’ kishi hech narsadan qo‘rqmaydurgan botir va yurakli bo‘lur. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g‘ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniysidir. Shijoatning haqiqati qalbning matonatindan, ruhning salomatindan iboratdur»[98].

Demak, shijoatli bo‘lish , eng avvalo, botir va dovyurak bo‘lishni talab qiladi. Bu esa jonni saqlab qolish,ya’ni insonni hayotga qaytarish uchun kurash zaruratidan kelib chiquvchi axloqiy talab hisoblanadi. Faqat dovyurak va mard xodimgina xasta tana va ruhni tiklash bilan hayot-mamot jangiga kirishishga qodir bo‘ladi.

Shunga ko‘ra *shijoatli xodim* deb hech kimdan, hech narsadan qo‘rqmasdan xastalikning har qanday ko‘rinishlariga davo topishni o‘ziga kasb qilib olgan ona-Vatanimizning botir, dovyurak, mard farzandlariga aytiladi.

6. Jasorat. *Jasorat* – bu odamzotning har qanday qiyinchilik va xavf-xatarlarga qaramasdan o‘zining zohiriy va botiniy kuchini ishga solib ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida qo‘rqmasdan mardonavor xatti-harakatlarni sodir etish faoliyatidir. Bu xususda I.A.Karimov: «Yer yuzidagi barcha o‘lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyotlar va ixtirolar, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va ma’naviy jasorat mahsulidir. Shuning uchun ham bu yorug‘ olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma’naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylaymanki, yangilishmagan bo‘lamiz”[99], – degan edi.

Jasorat deb xodimlarning xizmat vazifalarini o‘tash vaqtida duch keladigan qiyinchilik va xavf-xatarlardan tahlikaga tushmasdan, qo‘rqmasdan o‘zining bor imkoniyatlarini ishga solib ona-Vatanning ozodligi va obodligi yo‘lida xizmat qiladigan mardonavor xatti-harakatlariga aytiladi.

Masalan, xodimlarining mardligi va jasorati, avvalo:

---

[98] Қаранг: *Абдулла Авлоний.* Туркий гулистон ёхуд ахлоқ – Т.: Ўқитувчи ,1992. – Б.21.

[99] *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.159.

– har qanday yuqumli kasalliklarning do‘q-po‘pisa va boshqa makr-hiylalaridan qo‘rqmasligida;

– hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da, halol odamlarni yuqumli kasalliklarga chalinishdan qutqarishida;

– xavf-xatarni pisand qilmasdan tibbiy hayot olamiga kirib borib, ularning sir-asrorlarini o‘rganishda;

– o‘zining ma’naviy jasorati bilan odamlarning xasta tanasi va ruhiga darmon topishda yaqqol ko‘rinadi.

Shijoatli xodim boshlagan ishini oxiriga etkazmay qo‘ymaydi. U har qanday to‘siqni engib o‘zbek xalqining qalqoni va suyanchig‘i bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ladi. U o‘zining obro‘- e’tibori, nomi va sha’nini hamisha baland tutib, o‘z kasbining qadr-qimmatsaqlaydi, xalqning ularga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Jahon mutafakkirlari mardlik va jasorat haqida:

– Mardlik qo‘rquvdan jirkanishdir. U bizga tahdid solib turgan xavf-xatarni pisand qilmay, unga tikka boradi va uni yakson etadi.(Seneka)

– Haqiqiy mard odam biron-bir ishga qo‘l urganida ehtiyotkor bo‘lmog‘i, barcha tasodiflarni chamalab ko‘rmog‘i, ammo ishni hal etishga kelganda esa jasorat ko‘rsatmog‘i lozim. (Gerodot)

– Haqiqiy mardlikni men xatarning me’yorini baholashdagi aql mukammalligi va o‘sha xatarga qarshi tura bilishdagi ma’naviy tayyorlik, deb ta’riflagan bo‘lar edim. (U.Sherman)

– Mardlik – qarshilik ko‘rsatish kuchi bo‘lsa, jasorat – yovuzlikka tahdid soladigan kuchdir. (P.Baust)

– Botirlik ma’naviy jasoratdir. (J.Blekki)

– Qo‘rquv nimaligini bilmay, o‘limga mardona tik borgan odamni mard desa bo‘ladi. (Arastu)

Hushyorlik kasb axloqining normasi sifatida xodimlardan doimo bedor va ogoh bo‘lishni, ya’ni xalqning hayotidan xabardor bo‘lishni, ayniqsa yuqumli kasalliklarning oqibatlaridan ogoh bo‘lib turishni, axloq va qonun talablarini buzishlariga yo‘l qo‘ymaslikni, buning uchun esa bor imkoniyatlarini ishga solishni talab etadi.

Hushyorlik – har xil illat va xastaliklarning oldini olishdagi asosiy vosita, usullardan eng muhimi. Uning talablarini bajarish har bir xodimning muqaddas burchidir.

7. Hayolilik va pokizalik. Hayolilik va pokizalik ham kasb axloqining normalari hisoblanadi.

Hayolilik – bu uyalish, xijolat tortish, o‘zini har xil nojo‘ya xatti-harakatlardan tiya olish demakdir. Shunga ko‘ra hayoli xodimlar bu o‘zini ziyolilarning vakili sifatida ba’zi bir tarbiyasiz odamlarning har xil

nojo‘ya xatti-harakatlari, behayo qiliqlari, surbetliklaridan xijolat tortish va uyalishi tufayli ularni tartibga chaqirish, qilmishiga yarasha izza berish ishlarini amalga oshiruvchi axloqan madaniyatli posbonlaridir.

Bu to‘g‘rida ulug‘ ajdodlarimiz shunday deganlar:

– Hayo - iymondandir. Hayoli, odobli bo‘lmoq, har vaqt xayrli ishlarga sabab bo‘ladi. Hayoning turgan-bitgani yaxshidir. Hayo faqat yaxshilik keltiradi. (Hadislardan)

– Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Hayosiz inson - imonsizdir. Imonsiz esa inson emasdir. (Alisher Navoiy)

– Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir. Hayo pardasi ila o‘ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas. (Abdulla Avloniy)

– Hayo – insonning abadiy go‘zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o‘xshaydi. (Ibn Sino)

– Kishidan hayo ketsa, tezdagina balo yetib keladi. (Muhammad Zehniy)

– Agar oradan sharm-hayo ko‘tarilsa va kishi kishidan uyalmasa, olam nizomiga xalal etadi. (Xusayn Voiz Koshifiy)

– Hayo kishilarni yomon yo‘ldan qaytaruvchi va yaxshilik sari undovchidir, kimning hayosi bo‘lmasa, uning uyati bo‘lmaydi. Barcha qabih ishlarni qilishdan ham qaytmaydi. Kishida hayo bo‘lsa, nafs uning ustidan hokim bo‘lolmaydi va o‘z yo‘liga sololmaydi.(Muhammad Javhar Zamindor)

Pokizalik – bu tozalik va soflik degani. Tozalik – inson salomatligining garovi. U kasb axloqi normasi sifatida har bir xodimdan kiyim-kechagi, aft-angori, ish joyining pokiza bo‘lishini hamda qalbining pok bo‘lishini, eyiladigan taomlariga harom aralashmasligini, luqmaning halol bo‘lishini talab qiladi.

8. Sobitqadamlik, sabr-qanoat, kamtarlik. *Sobitqadamlik – niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga etmaguncha undan chekinmaslik, boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir. X*odimining sobitqadamliligi bu uning o‘tkinchi narsalarga, ya’ni bir lahzalik kayfiyatga, «oshna-og‘aynigarchilikka» berilmasdan boshlagan ishini qat’iyat bilan oxirigacha yetkazishidir.

Sabr-qanoat boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan engishdir. Xodimining sabr-qanoati ularning xizmat o‘tashida uchraydigan barcha uqubat, xavf-xatarlarga bardosh berishi xizmat burchini sabr-toqat va matonat bilan bajarishi demakdir.

Bu xususda donolarimiz shunday deganlar:

– Sabr deb musibat yetgan vaqtda darhol o‘zini to‘xtatishga aytiladi. (Hadis)

– Sabr shodliklar kalitidir. Sabr – achchiq, ammo foyda beruvchidir. Qanoat

– ekin, urug'i– boylik; daraxtdir – mevasi muhtojsizlik. (Alisher Navoiy)

– Sabrning avvali achchiq, oxiri esa shirindir. (Muhammad Zehniy)

– Sabr bilan ishlar bitar, shoshqaloqlik boshga yetar. (Husayn Voiz Koshifiy)

– Qanoat kishini qudratli qilur. (Sa'diy Sheroziy)

– Sabr – shikoyatlarni tark etishlikdir.(Ruvaym ibn Ahmad)

– Sabr shunday kuchli narsadirki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozuga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetadi. (Abdulla Avloniy)

Kamtarlik *deb kishining o'zini tabiiy holda, qanday bo'lsa shundayligicha, hamma bilan teng, bab-barobar tutishiga aytiladi.* Soha xodimining kamtarligi bu ularning xizmat burchini yasamachilik, dabdabavozlik, izzattalablik, maqtanchoqlik, shuhratparastlik, xo'jako'rsinlik, hashamdorliklarga yo'l qo'ymasdan, sodda tabiatlik bilan bajarishlaridir.

Kamtarlik haqida donolar shunday deganlar:

– Kuchli odamlar hamisha oddiydirlar. (L.N.Tolstoy)

– Kamtarlik saxovat ko'rkigina bo'lib qolmay, balki uning soqchisi hamdir. (J.Addison)

– Kamtarlikning yetishmasligi aqlning yetishmasligidandir. (A.Pop)

– Hamma narsada, hatto kamtarlikda ham me'yorni bilish kerak. (A.Frans)

– Kamtarlikni pesh qiladigan kamtarlik - kamtarlik emas, kamtarlik jandasiga o'rangan takabburlikning o'zginasi, xolos. (I.Bexer)

– Xo'jako'rsinga kamtarlik pardali munofiqlikdir. (F. Laroshfuko)

– Johil kishilar oldida kamtarlik qilmagil, aks holda ular nazarida sen tuban va sharmandadirsan. Haqir va notavon ko'rinmay desang, donolar oldida takabbur bo'lma. (Majid Havofiy)

Xalqimizning insonparvar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan ishlarida har bir soha xodimlarining o'z xizmat vazifalarini kasb axloqi prinsip va normalari asosida bajarishlari katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Chunki, halol, rostgo'y, sobitqadam, sabr-qanoatli, kamtar, shijoatli soha xodimlari tomonidan fuqarolarimizning tinch-osuda yashashlarini ta'minlash borasida yaratilayotgan shart-sharoitlar kelajagi buyuk davlatimizning, mehnatkash o'zbek xalqining kamolotini ta'minlaydi.

5-§. Adolat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.

Insoniyat paydo bo'libdiki, u doimo yer yuzida adolat tantana qilishi uchun kurashib keladi. Chunki, adolat har qanday jamiyat hayot faoliyatini, uning kelgusidagi istiqbollarini belgilashda buyuk hakam vazifasini bajaradi. Bunda ko'hna tarix qaerda adolat bo'lsa,o'sha joyda barqaror taraqqiyot va aksincha, adolat bo'lmagan joyda esa shaxs, elat, millat va xalqlar tanazzulga giriftor bo'lganligidan dalolat beradi.

«Adolat» - arabcha so'z bo'lib, odillik, to'g'rilik, haqqoniylik degan ma'nolarni anglatadi[100]. Umuman olganda «Adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida jamiyatdagi barcha munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunga ko'ra **adolat***deb ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlarga kirishgan odamlarning o'z burch va vazifalarini jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloqiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy me'yorlar talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona bajarishlarini o'zida ifodalovchi xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.*

Adolat tushunchasining **mazmun-mohiyati** insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy mezoni sifatida idrok etilgani uchun ham doimo ijtimoiy ahamiyat kasb etgan holda va «ijtimoiy adolat» tarzida ifodalanib kelinadi.

Ijtimoiy adolat tushunchasining mazmun mohiyatini:

– jamiyatda demokratiyaning mavjudligi;
– insonning ijtimoiy himoyalangani;
– barchaning qonun oldida tengligi;
– fuqarolarning ish bilan ta'minlangani;
– malakali tibbiy xizmatning qanday yo'lga qo'yilganligi;
– uy-joy bilan ta'minlanish imkoniyalarining bor yoki yo'qligi;
– bepul ta'lim tizimining o'rnatilganligi;
– madaniy ne'matlar va ma'naviy qadriyatlarga daxldorligi;
– mehnatga yarasha haq olish tizimining qoniqtirishi;
– jinoyatga yarasha jazoning muqarrarligi kabilar tashkil qiladi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, ijtimoiy adolat insonlar hayotida real qadriyat bo'lib, u adolatli huquqiy demokratik davlatni bunyod etish hamda fuqarolik jamiyati shakllantirish va rivojlantirishning uzviy qismi hisoblanadi. Shu nuqtaiyi nazardan qaraganda adolat yuksak ma'naviy qadriyat bo'lib, u «tinchlik», «hamkorlik», «baxt-

[100] Ўзбек тилининг изоҳяи луғати. Ж. 1. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. — Б.41.

saodat» kabi insonning azaliy ezgu niyatlarini ifodalovchi olijanob tushunchalar qatoriga kiradi.

1. Adolat g'oyasi, uning genezisi va evolyutsiyasi. Jamiyatda adolat ikki xil ko'rinishda:

birinchidan, adolat – bu jamiyatda kishilar o'rtasida bo'ladigan barcha ijtimoiy munosabatlarning mezoni;

ikkinchidan, adolat – bu kishilarning jamiyatda kelgusida qaror topajak eng olijanob ezgu istaklarini o'zida ifoda etuvchi bunyodkor g'oya sifatida o'zligini namoyon qiladi.

Uning bu xildagi ko'rinishlari dialektik tarzda bir birlarini to'ldirib turadi.

Adolat g'oyasining genezisini: *birinchidan*, insoniyatning paydo bo'lishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishgan odamlar o'rtasidagi aloqalarni axloqiy normalar orqali tartibga solish zaruratining paydo bo'lganligi; *ikkinchidan*, katta-kichik urug' va qabilalarni boshqarishda ijtimoiy-axloq normalarining keng qo'llanila boshlanishi; *uchinchidan*, odamlarning mavjud ijtimoiy tartib-qoidalardan roziligi yoki noroziligi o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi va kuchayib borishi; *to'rtinchidan*, ko'pchillik tomonidan e'tirof etilgan ijtimoiy-axloqiy normalarning qonun darajasiga o'sib o'tishi; *beshinchidan,* ijtimoiy-axloqiy normalari bilan huquqiy normalar o'rtasidagi munosabatlarning hukmron doiralar manfaatidan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirilishi kabilar bilan ifodalash mumkin.

Adolat g'oyasining evolyutsiyasini, masalan, qadimgi davrlarda yashagan mutafakkirlar tomonidan «adolat» haqida aytilgan quyidagi fikrlar misolida ko'rish mumkin.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da "Biz adolat istovida bu yerga keldik. Biz bu yerda adolatni istaymiz. Agar sen ozurda bo'lmasang, adolat istaguvchini maqsad manziliga yetkazasan.Zaxmlarga hammadan yaxshi malham bo'lursan. O'g'ri va qaroqchilarni hammadan ko'ra yaxshiroq nobud aylagaysan[101]. Har bir zardushtiy adolatli,sulhparvar hamda nekandesh bo'lmog'i lozim"[102] ,– degan ko'plab fikrlar bayon qilinganligini ko'rish mumkin.

Qadimgi yunon faylasuflaridan biri, «*birinchi muallim*» nomiga musharraf bo'lgan mutafakkir **Aflotun** (Platon – milloddan avvalgi 428-347 yillarda yashab o'tgan) adolat haqida o'zining **"Davlat"** nomli munozara, bahslardan iborat bo'lgan to'plamida "Adolat – oltindan qimmatlidir. Eng

---

[101]*Қаранг:Авесто.* Тарихий-адабий ёдгорлик.Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001.– Б.250.

[102]*Қаранг:Ҳомидий Ҳ.* «Авесто»дан «Шоҳнома»га . – Т.: «Шарқ», 2007.– Б.155.

kuchli narsa – adolatning o‘zidir. Har kimning o‘z ishi bilan shug‘ullanishi adolatdir. Har kimga o‘ziga munosibini berish – adolatdir.”[103],– degan edi.

Qadimgi yunonistonning yana bir mashhur faylasufi Arastu (Aristotel – milloddan avvalgi 384-322 yillarda yashab o‘tgan): “Ikki xil adolatlilik bor. Biri qonunga muvofiqlikdir. Qonun buyurganini qilish adolatli hisoblanadi (agar adolatli qonun bo‘lsa). Qonun (yaxshi, ya’ni ilohiy qonun) odamlardan mard, oqil va fozil bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham odillik - eng mukammal fazilatdir. Modomiki, adolatlilik (yaxshi, ilohiy) qonunlarga muvofiq yashash ekan, qonun esa barchadan fazilatlar bilan yashashni talab qilar ekan, qonunlarga muvofiq, adolatli ish tutuvchi odam eng fozil odamdir. Adolatlilik (odillik) eng yaxshi fazilatdir. Adolatlilikning bir turi mana shudir.

Qonun talablariga muvofiq yashashdan farqlanuvchi ikkinchi xil adolat boshqa odamlarga nisbatan adolat qilishdir. Boshqa odamlarga adolat qiluvchi odam o‘z-o‘ziga adolat qilmasligi ham mumkin. O‘zgalarga munosabatda adolatli ish tutish, aslini olganda tenglikka amal qilishdir. Chindan ham tengsizlik adolatsizlikdir: ba’zi odamlar o‘ziga yaxshi narsalarni ko‘proq, yomon narsalarni kamroq oladilar. Mana shu tengsizlikdir, shu tengsizlik tufayli bu odamlar o‘zgalarga adolatsizlik qiladilar. Yoki shu tufayli o‘zgalar adolatsizlik, nohaqlikdan jabr ko‘radilar. Modomiki, adolatsizlik - tengsizlik (nohaqlik) ekan, adolat va odillik (har ikki tomonning o‘z majburiyatlariga) teng rioya qilishida ko‘rinadi.

Shu ma’noda adolatni ham ortiqchalik va yetishmovchilikning, ko‘plik va ozlikning o‘rtasi deyish mumkin. Adolatsizlik (nohaqlik) qiluvchi odam (yaxshi narsalar - ne’malarni) o‘ziga ko‘proq, ya’ni ortiqcha oladi: adolatsizlikka uchragan, jabr ko‘rgan esa, keragidan kamroq oladi. Mana shu, ortiqchalik va kamlikningo‘rtasi - tenglik va mana shu tenglik adolatdir. Avval aytganimizdek, tenglik kamlik bilan ortiqchalikning o‘rtasidir va mana shu o‘rtalik adolatdir. Odil odam esa, barchani teng ko‘ruvchi, tenglikka rioya qiluvchi odamdir. Demak, o‘zgalarni o‘ziga teng ko‘ruvchi odam odil odamdir. Modomiki, adolat tenglikda ekan, mutanosiblik (pro- porsionallik) ham adolatlidir. Jamiyat hayoti - ijtimoiy hayot shunday mutanosiblik asosiga quriladi . Adolat ham mutanosiblikdir, shu ma’noda jamiyat hayoti ham adolat asosiga qurilmog‘i kerak”[104], – degan edi.

O‘rta asrlarga kelib adolat g‘oyasi Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ijodining asosiy qismiga aylanadi. Buning misolini Amir Temurning

---

[103] *Қаранг:Афлотун.* Давлат: насрий достон. – Т.: Янги аср авлоди. – Б.20-44.

[104] Қаранг: *Арасту*. Ахлоқи кабир. – Т.: «Янги аср авлоди»,2015. – Б.142-144.

davlatni adolatli boshqarish asosida jamiyatda adolatparvarlikning qaror toptirishi borasida qilgan say-harakatlarida ko'rish mumkin

2.Adolat prinsipi va uning mezonlari. Adolat – axloq va huquq kategoriyasi sifatida kasbiy soha xodimlarining o'zaro va fuqarolar bilan bo'ladigan axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, ularning faoliyatiga baho beradigan zaruriy o'lchov hisoblanadi. Ana shu o'lchov unga prinsip maqomini beradi.

Kasb sohasi xodimlari kasb axloqining adolat prinsipi deb jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy va huquqiy normalarni haqqoniylik bilan, odilona va xolisona, to'g'ri, qonuniy tarzda hayotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyatiga aytiladi.

Bu prinsip, o'z mazmuniga ko'ra, uch tarkibiy qismdan – taqdirlash mezoni, talab qilish mezoni hamda qonuniy baho berishdan – tashkil topadi.

Adolat prinsipining *taqdirlash mezoni* deganda – jamiyatning, xizmat jamoatlarining har bir odamni, xizmatchini qilgan mehnatiga (xizmatiga) yarasha siylashi yoki qilmishiga yarasha jazolashi; *talab qilish mezoni* deganda – shaxs-xizmatchining jamiyat va xizmat jamoatlari tomonidan norma, odob qoidasi, an'ana, urf-odat shaklida qaror topgan axloqiy talablarga og'ishmay amal qilishini, ularni bajarishini qat'iy talab qilishi; *qonuniy baho berish* deganda esa o'rnatilgan axloqiy baholash o'lchovi asosida har bir harakatga berilgan bahoning to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilab berishi tushuniladi.

Ulug' alloma Nosiriddin Tusiy: «Ijtimoiy (axloqiy va huquqiy – N.M.) adolatning uchta asosiy talabi bordir, bular: birinchidan, aholi turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlash; ikkinchidan, el-ulusning haq-huquqi teng ta'minlangan holda kishilarni xizmatga tayinlashda shaxsning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish; uchinchidan, barchaning teng farovonligini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson o'z ulushini olishiga imkon yaratishdan iboratdir»,[105] – degan edi.

3. Adolatlilikning jamiyat hayotida amal qilish qoidalari. Jamiyatda tinchlikni saqlash,o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashda adolatlilikning o'ziga xos bo'lgan qoidalari mavjud bo'ladi. Bularga: 1) talab va taklif; 2) teng imkoniyatlar; 3) ehtiyoj; 4) ijtimoiy kafolat; 5) xizmat ko'rsatish; 6) mutanosiblik; 7) ekvivalentlik; 8) rag'batlantirish; 9) kasbiy layoqatlilik; 10) ijtimoiy foydalilik qoidasi kabilar kiradi.

---

[105] *Иброҳимов А., Султонов Х., Жураев Н.* Ватан туйғуси – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.33-39.

Mazkur qoidalar bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha demokratik jamiyatlarda keng qaror topgan. Bu qoidalar hayotga qanchalik keng joriy etilsa, fuqarolik jamiyatiti poydevori shunchalik mustahkam bo‘ladi.

O‘tgan yillar mobaynida barcha bo‘g‘inlarida korrupsiyaning ildiz otishiga yo‘l ochib berdilar.

Bunga sabab: aholining murojaatlarini yuzaki ko‘rib chiqish holatlarining keng tarqalganligida;joylardagi kasb sohasi xodimlarida amaliy ish tajribasi yetishmasligi, ular o‘rtasidagi tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik juda past darajada ekanligida; kasalliklarning oldini olish – profilaktika qilish ishlari talab darajasida olib borilmayotganligida; profilaktika faoliyatida ularga haddan tashqari ko‘p ish yuklash, ishlarni soxtalashtirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yetarli darajada hamkorlik qilmaslik holatlari keng tarqalganligida;voyaga yetmaganlar bilan ishlash sohasida tizimli ishning umuman yo‘qligida;kadrlar bilan ishlash masalasi uzoq vaqt davomida vazirlik rahbariyatining e’tiboridan chetda qolib kelganligidadir. Bu esa kasb sohasi xodimlarida «sharaf» («chest») tushunchasi yo‘qolishiga olib kelganligi, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda aksariyat hollarda tamagirlikka yo‘l qo‘yilganligidadir. Demak, kasb sohasi sohasida adolat qaror topishi,korrupsiya tag-tomiri bilan yo‘q qilinishi hayotiy zaruriyatdir. Chunki, ***“Adolat bo‘lmasa, dunyo zimiston bo‘ladi, hayotda hech qanday ma’no-mazmun bo‘lmaydi”***[106],– degan edi davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev.

4. Adolatni qaror toptirishga qaratilgan maqsad va taktik-strategik vazifalar. O‘zbek xalqining asosiy maqsadi adolat g‘oyasiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishdir.Adolat g‘oyasining huquqiy demokratik davlatni barpo etishdagi taktik[107] vazifalari qatoriga jamiyatning kundalik hayoti, shuningdek, yaqin ikki, uch yil ichida bajaradigan quyidagi:

birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish;

ikkinchidan, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlash asosida ular orasidagi muvozanatni saqlab turish;

---

[106]***Мирзиёев Ш.М.*** Қонун ва адолат устуворлигини таъминлаш – барча эзгу мақсадларимизга эришишнинг энг муҳим шартидир.// *Унинг ўзи.* Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд. –Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.– Б.447.

[107]**“Тактика”** (юнонча taktike – қўшин тузиш, сафлаш маҳорати) – кўзланган мақсадга эришмоқ учун олиб бориладиган курашнинг муаян шароитга мос йўл ва воситалари, шакл ва усуллари// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. –Б.646.

uchinchidan, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshirish;

to'rtinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qilish;

beshinchidan, voqelikda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to'siqlik qilayotgan munosabatlarni bartaraf etish;

oltinchidan, kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otish vazifalarni kiritish mumkin.

Adolat g'oyasini jamiyatda qaror toptirish uchun kurash yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan tugamaydi. Madomiki, biz mustaqil mamlakat sifatida dunyo turguncha turmoqchi ekanmiz (bunga shubha yo'q,albatta) adolat g'oyasini qaror toptirish borasida strategik[108] vazifalarni oldimizga quyish va uni bajalish mexanizmlarini ishlab chiqishni ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyatni barpo etishda ijtimoiy adolat g'oyasini amalga oshirish borasidagi strategik vazifalar qatoriga quyidagilarni:

– har bir fuqaroning tabiiy yashash huquqini mustahkamlash va ularning jamiyat oldidagi burch va huquqlarini uyg'unlashtirib borish;

– har bir fuqaroni o'zi tanlagan kasb-koriga qarab to'liq ish bilan ta'minlashga erishish, ularning ijodiy ish bilan shug'ullanishiga shart-sharoitlarni yaratib berish;

– har bir fuqaroning salomatligini saqlash bo'yicha odilona ish olib borish va aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish;

– moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan ne'matlarni, ularning qo'shgan hissasiga yarasha iste'mol qilish madaniyatini shakllantirish, yulg'ichlik va boqimandalikka qarshi keskin choralar ko'rish;

– mulkiy munosabatlarni rivojlantirishda sog'lom raqobatning ahamiyatini oshirish, uni jamiyatning harakatlantiruvchi mexanizmiga aylantirish;

– davlat boshqaruvining har qanday bug'inida xalq bilan muloqot qilish asosida, uning kuch qudratiga qarab odilona ish olib borish,ya'ni rahbarlik siyosatini yuritish;

---

[108]**"Стратегия"** (юнонча strategia, stratos – қўшин ago – бошлаб бораман) асл маънода «уруш олиб бориш санъати», кўчма маънода «ижтимоий-сиёсий курашга раҳбарлик қилиш санъати», шунингдек, «умуман, ***бошқарувни тўғри ва истиқболли режалаштириш санъати***» // Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. –Б.573.

– ayollar, bolalar, nogironlar, keksalar va boshqa ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarga moddiy va ma'naviy yordam qo'lini cho'zish, saxovatpesha bo'lishni ta'minlash kabilarni kiritish mumkin.

5. Adolatparvarlik va uning mohiyati. Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab jamiyat hayotida adolatparvar kuchlar bilan adolatsizlik qiluvchilar o'rtasidagi tinimsiz kurash davom etib keladi. Adolat g'oyasining amaldagi ifodasi har bir shaxs,ijtimoiy guruh,jamiyat va davlatning adolatparvarlik bilan ish yuritishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday ekan adolatparvarlik nima? **Adolatparvarlik** – ***bu kishilarning jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy normalar asosida shakllangan ustuvor insoniy munosabatlar doirasida bir birlariga nisbatan teng va xolisona munosabatda bo'lishidir.***

Demak,har bir mutassadi xodim adolatparvar bo'lishi kerak. *Adolatli bo'lish – odobning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Har bir mas'ul xodim odob va insoniylikka erishaman desa, adolatli bo'lishni unutmasligi kerak. Adolatli so'z uni aytuvchiga ham, eshituvchiga ham manfaat yetkazadi. To'g'rilik odamlarni hamisha yaxshilikka yetaklaydi, yaxshilik esa adolatga yetkazadi.*

Adolatparvarlik – insondagi o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, olijanoblilik va mardlikni ko'rsatuvchi dalildir. Dunyoda adolatparvarlikdan ko'ra ko'rkamroq xulq va tabiat yo'q. Undan ko'ra sharafliroq xislat va iqbol, ta'sirliroq naf qiluvchi narsani topish amrimaholdir.

6. Adolatsizlik va uning shakllari. Adolatparvarlikning ziddi – bu adolatsizlikdir. **Adolatsizlik** – *bu kundalik hayotda ayrim kishilarning jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy normalar asosida shakllangan munosabatlar doirasida bir-birlariga nisbatan mensimaslik, lavozimini pesh qilish, qo'lga kiritgan boyligi bilan maqtanish, orqasida turgan "aka" siga ishonib birovlarni qo'rqitish hisobiga o'zgalarning mulkini o'zlashtirish, boqimandalik kayfiyatiga berilish kabi g'ayri insoniy munosabatlar asosida xatti-harakatlar sodir etishidir.* Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki,adolat me'yorlari, qonun va jamiyat tomonidan o'rnatilgan tamoyillarining buzilishi,ma'naviy tamoyillarga amal qilmaslik adolatsizlikni keltirib chiqaradi.

Adolatsizlik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. U gohida butun jamiyatga, ba'zan shaxslar yoki ijtimoiy sub'ektlarga (sinf, guruh, partiya, millat, davlat va b.) nisbatan bo'lishi mumkin. Tarixda adolatsizlikning xilma-xil ko'rinishlari uchraydi, chunonchi, bosqinchilik urushlari, kolonializm siyosati, xalqlarni ona yurtidan

zo‘rlik bilan ko‘chirish, muayyan xalq yoki millatga nisbatan genotsid uyushtirish, milliy madaniyatidan judo qilishga intilish, uning boshiga bo‘htonlar yog‘dirib, yomonotliq qilish, tahqirlash va shu kabilar.

Adolatsizlik nisbiy tushuncha bo‘lib, uning boshqa shakllari ham uchrab turadi. Bularga quyidagilar kiradi.

1. Proteksionizm.*Proteksionizm* (lotincha *protectio*— himoyalash) ijtimoiy hayot uchun xavfli bo‘lgan illat bo‘lib,yuqori mansab va mavqega ega bo‘lgan shaxs tomonidan o‘zga shaxsning muammolarini hal qilish uchun noqonuniy homiylik ko‘rsatish hisoblanadi. Demak, u hokimiyatni g‘arazli maqsad yulida noqonuniy qo‘llash bilan bog‘liq holatdan iborat bo‘lgan jinoyatdir.

2. Byurokratizm.*Byurokratizm* (fransuzcha bureau – devonxona, organ; yozuv stoli va yunoncha kratos qudrat,hokimiyat) – bu o‘z vazifasiga rasmiyatchilik bilan qarovchi,rasmiyatparast,to‘radir,yana ham aniqrog‘i ishga, o‘z vazifasiga rasmiyatchilik va sovuqqonlik bilan qarash,quruq rasmiyatchilik bilan ish tutish,qog‘ozbozlik,to‘rachilik bilan ish yuritib echilishi lozim bo‘lgan muammoning yechimini ataylab murakkablashtirishdir.

3. Boqimandalik. Boqimandalik o‘zini o‘zi munosib baholay olmaslik, o‘z qobiliyati va jamiatdagi o‘rnini noto‘g‘ri tushunish oqibatidir. Jamiyatda boqimandalikning kuchayishi ikki xil salbiy holatga olib keladi. Birinchi holatda shaxs o‘z xizmatlarini ortiqcha baholab yuboradi. Natijada u «odamlar mening oldimda qarzdor» qabilidagi soxta tasavvurlar bilan o‘ziga ko‘proq imtiyozlar talab qila boshlaydi. Ikkinchi holatda esa shaxs o‘z imkoniyatlarini yetarli baholay olmaydi va shu tariqa noshud, tashabbusdan yiroq, irodasiz odamga aylanib, “Bersang — yeyman, ursang – o‘laman” degan naqldagi ayanchli holatga tushib qoladi. Boqimandalikning ildizlari, avvalo, tarbiyadagi noto‘g‘ri yondashuv bilan bog‘liq. Ikkinchidan, shaxsning ijtmoiylashuv jarayonida uzilish yuz berishi, uning ijtimoiy munosabatlarga to‘la jalb etilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Bunday kimsalar umrbod «davlat yoki boshqalar meni boqishi kerak» degan kayfiyatda kun kechiradi.

5. Mahalliychilik. *Bu – kishilarda o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg‘usining salbiy shaklda namoyon bo‘lishi.*

Mahalliychilikning eng nomaqbul tomoni mahalla, hudud, mintaqa manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishdadir. Jamiyatda bunday qarash va munosabatlar tizimining mavjud bo‘lishi davlatning hududiy yaxlitligi, barqarorligi, va taraqqiy etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

6. Millatchilik. *Bu – boshqa millat kishilari manfaatlari, ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarash, xudbinlarcha munosabatlarni ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti. Millatchilik – o'z millati manfaatlarini, ehtiyojlarini boshqa millat manfaatlarini, ehtiyojlarini kamsitish yordamida qondirishdir.*

Millatchilik chinakam milliy g'ururni shakllantirmaydi. Milliy g'ururni millatchilik bilan tenglashtirish millatlararo munosabatlar madaniyatiga g'ov bo'ladi. Milliy g'urur bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarni rivojlanishiga, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga qaratilgan intilish bo'lsa, millatchilik boshqa millatlar, elatlar manfaatlari, ehtiyojlarini nazar-pisand qilmaslik, ularning huquq va erkinliklarini chegaralashga qaratilgan faoliyat, harakatdir.

Millatchilik siyosiy tusga kirsa, kuchli salbiy yo'nalish kasb etishi mumkinligani ta'kidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko'lamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin.

Millatchilik turli shakllarda namoyon bo'ladi. U bir hududda yashayotgan millatlarning yoki bir davlatda istiqomat qilayotgan millatlar o'rtasida, muayyan imperiya sharoitida bir millatning ikkinchisi yoki boshqalaridan ustunligi tarzida ro'y berishi ham mumkin.

7.Adolatsizlikka qarshi kurash chora-tadbirlari. Adolatli huquqiy demokratik davlatni bunyod etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish o'zbek xalqining pirovard maqsadidir. Adolatli jamiyat qurish uchun adolatsizlikka qarshi kurashish kerak. Har bir kasb sohasi xodimi o'zbek xalqining buyuk farzandi **I.A.Karimovning**:"***"Adolat" so'zi ming yillar davomida insonga hamroh bo'lib kelgan. Asrlar davomida kishilar adolat uchun kurashgan, mislsiz qurbonlar bergan.***

Adolat haqida juda chiroyli gapirish mumkin. Adolat haqida juda uzoq gapirish mumkin. Ammo gap chiroyli va uzoq gapirishda emas, balki hayotda adolatni o'rnata olishda.

Ayniqsa, rahbar adolati, el-u yurtga yetakchilik qilishdek og'ir mas'uliyatni bo'yniga olgan odamning adolati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga ega. Avvallari ham ko'p bor aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman: ***xalq ochlikka, yo'qchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi.***

Odil hukmdor, adolatli rahbar g'oyasi Farobiydan tortib Alisher Navoiygacha va yana boshqa ko'p-ko'p mutafakkirlarimizning ulug' ma'naviy ideali bo'lib kelgan. Sharqda qadimdan juda mashhur bo'lgan "Siyosatnoma" degan asarda podshoh, hokim, amir va beklar, qozi yu quzzotning, zamonaviy til bilan aytganda, rahbarning bosh vazifasi "qo'y

qo'zilarni bo'rilardan muhofaza qilib, ***harom qo'llarni kesib, yer yuzini yomonlik qiluvchilardan tozalash, jahonni adolat va osoyishtalik bilan obod qilishdan iborat",*** *deb ko'rsatilgan.*

Har safar shu kabi hikmatli fikrlarni o'qiganimda chuqur o'yga tolaman. Qani edi, shu so'zlar har bir rahbarning, amal kursisida o'tirgan katta-kichik mansabdorlarning iymon-e'tiqodiga aylansa, deb orzu qilaman.

Mening komil ishonchim shundan iboratki, dunyoda adolat qonuni mavjud ekanini hech kim inkor etolmaydi. Ertami-kechmi har bir inson ana shu qonun oldida javob berishi muqarrar. Buni aslo unutmaslik kerak. Qolaversa, odam o'z qilgan gunohlari, qilmishlari uchun zamon qonunlari beradigan jazodan qochishi mumkin, ammo oxiratda qaerga qochasan?

Agar odam oxiratdan qo'rqsa, odam bo'lib yashashga intiladi, odamiyligi ortadi. Aks holda, uning hayvondan deyarli farqi qolmaydi.

Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor prinsip sifatida e'tirof etamiz. Va hech qanday kuch bizni bu yo'ldan ortga qaytarolmaydi[109]*. Adolatga intilish - xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik goyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishiga sidqidildan xizmat qilish kerak*[110]*. Chunki, odamlar hamma narsaga chidashi mumkin. Ammo adolatsizlikka chiday olmaydi»*[111]*,* - degan fikrlarini doimo yodda tutishi zarur.

I.A.Karimovning qoldirgan siyosiy merosini metodologik asos sifatida qabul qilgan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev jamiyatda adolatni qaror toptirish uchun adolatsizliklarning har qanday ko'rinishlariga barham berish ishiga qattiq kirishdi.

Sh.M. Mirziyoev: «*Adolat bo'lmasa, dunyo zimiston bo'ladi,hayotda hech qanday ma'no-mazmun bo'lmaydi. Biz xalqimiz uchun ozod va obod,farovon hayot barpo etmoqchi ekanmiz,mening davlat rahbari sifatida sizlardan talabim shu:faqat adolat yana bir bor adolat hayotimizda hukmron bo'lishi kerak»*[112]**,**– degan ilmiy-amaliy

---

[109]*Каримов И.А.* Адолат ҳар ишда ҳамроҳимиз ва дастуримиз бўлсин// *Унинг ўзи.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз.Т.7. – Т.: Ўзбекистон,1999. – Б.239-240.

[110]*Каримов И.А.* Ўзбекистон иқтисодий ислоқотларни чуқурлаштириш йўлида // *Унинг ўзи.* Ватан саждогоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996 – Б 354-355

[111]*Каримов И.А.* Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш – ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи // *Унинг ўзи.* Тинчлик ва хавфсизлнгимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т : Ўзбекистон, 2004. – Б.295.

[112]***Мирзиёев Ш.М.*** Қонун ва адолат устуворлигини таъминлаш – барча эзгу мақсадларимизга эришишнинг энг муҳим шарти //Унинг ўзи. Миллий тараққиёт

ahamiyatga molik falsafiy tafakkur hosilasi bo‘lgan adolat va uning tantana qilish qoidasini ilgari surmoqda.

Shunga ko‘ra, adolatsizlikka qarshi kurashish borasidagi taktik va strategik yo‘nalishlarni belgilash va ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni sifatida quyidagi vazifalarni bajarish belgilandi.

1. Jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni taqsimlashda,har bir insonning qo‘shigan hissa va ulushlarga qarab taqsimot ishlarini amalga oshirish,pirovardida aholining keskin tarzda tabaqalanib ketishiga,ya’ni bir tomonda o‘ta boylar, ikkinchi tomonda esa o‘ta qashshoq- kambag‘allarga bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik. Pirovardida o‘z mulkiga ega bo‘lgan o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish. Ularni jamiyatimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish.

2. Aholining salomatligini saqlash borasida har bir fuqaroning malakali tibbiy yordam olishlari uchun dori-darmon va boshqa ixtisoslashgan shifo muolajalarining xizmatlar ko‘rsatish qiymatlarini orzonlashtirish hamda ayni vaqtda bemorlarni davolash ishida uchrayotgan poraxo‘rlik, yulg‘ichlik, byurokratiya, proteksionizm kabi illatlariga qarshi keskin choralar ko‘rishni muntazam tarzda yo‘lga qo‘yish.

3. Kasb sohasi tizimining barcha bo‘g‘inlarida adolat kuzgusi va hakami bo‘lgan adolatli xalqchil qonunlar talablarini so‘zsiz bajarishga erishish. Qilingan ishlar haqida xalq oldida muntazam ravishda hisobot berib borish. Xalqning fikrini – adolat kuzgusi va hakami deb tushunish.

4. Adolatli hukm chiqaruvchi mutasaddilar safini ma’naviyatisiz, poraxo‘r, tamagir, kalondimog, oddiy jabrdiyda xalqning arz-dodini eshitmaydigan korchalonlardan tozalash. Bu ishga yuksak ma’naviyatli kishilarni mas’ul etib tayinlash. Chunki, «***adolat va ma’naviyat – o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib,ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat ham bo‘lmaydi***»[113]. Demak, adolat va ma’naviyat bir biridan ajralmasdir. Adolatsizlikka qarshi faqat ma’naviyatli kishilargina kurashishga qodirdirlar.

5. Har qanday adolat farzandlar shuurida oiladan, ota-onaning bir birlariga va farzandlariga bo‘lgan munosabatlaridan boshlanadi. Bola otani adolat timsoli deb bilsa,onani adolat qo‘riqchisi deb tushunadi. Ota-ona o‘rtasidagi har qanday adolatsizlikka asoslangan munosabatlar, bolaning

---

йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон»НМИУ,2017.– Б.447,437.

[113]***Мирзиёев Ш.М.*** Қонун ва адолат устуворлигини таъминлаш – барча эзгу мақсадларимизга эришишнинг энг муҳим шарти //Унинг ўзи. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон»НМИУ,2017.– Б.432.

adolat haqidagi murg‘ak qarashlarining ildiziga bolta uradi.Bolani uyda,oilada adolatparvar qilib tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish.

6. O‘quvchi, talaba adolatni o‘zlariga saboq berayotgan ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilari timsolida ko‘rmoqchi bo‘ladi. Uning bilimiga nisbatan qo‘yilgan har qanday odilona to‘g‘ri baho,uning ko‘nglini tog‘day ko‘tarib adolatga bo‘lgan ishonchini oshiradi va aksincha uning bilmiga qo‘yilgan noto‘g‘ri baho yoki o‘qituvchining tamagirligi tufayli o‘zidan past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchiga qo‘ygan adolatsiz «a’lo» yoki «yaxshi» bahosi uning yuragiga xanjar bo‘lib sanchiladi. Ming nadomatlar bo‘lsinkim, yulg‘ich, poraxo‘r, tamagirni o‘qituvchi-ustoz deb bo‘ladimi. Afsuski,yo‘q. Bundaylarni hech qachon ta’lim muassasalari dargohiga yo‘latmaslik (yaqinlashtirmaslik) kerak.

7. Har bir xodim adolatni o‘zining ish joydagi rahbaridan qidiradi. Rahbar adolatli bo‘lsa,uning ishida fayz-u baraka bo‘ladi,kelajakka bo‘lgan ishonchi ortib boradi. Rahbar adolatsiz bo‘lsa g‘iybat, chaqimchilik, g‘arazgo‘ylik, sotqinlik avj oladi, jamoatda ma’naviy-axloqiy muhit buziladi. Oqibatda jamoat tanazzulga yuz tutadi. Bugungi kunning eng muhim adolatli talabi: “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning – bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi,hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi,ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”[114]. Chunki, bunday chora-tadbirsiz adolatsizlikka qarshi kurashib bo‘lmaydi.

***

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ***«...bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta’minlashga qaratilishi shart. Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta’minlashdir. Bu – ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir. Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish borasidagi asosiy vazifamiz – bu adolatli qonunlar qabul qilishdan iborat. Qisqacha aytganda, qonun adolatli***

[114]***Мирзиёев Ш.М.***Танқидий таҳлил,қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар – фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак//Унинг ўзи. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон»НМИУ,2017.– Б.235.

bo'lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi»[115].

Jahon mutafakkirlari adolat haqida. Jahonga tanilgan mutafakkirlar adolat va haqiqat haqida shunday fikrlarni bildirganki,ular bugungi kunda adolat tantanasi uchun xizmat qilayotgan kasb sohasi xodimlarining faoliyatida milliy g'oya bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat.

– Kuch – adolatdadir. (Amir Temur)

– Adolat va haqiqat bilan to'g'ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq qattiq azob-uqubat va baloga giriftor bo'ladi. (Abulqosim az-Zamaxshariy)

– Agar adolat himoya qlinmasa, zaif va kuchli odamlar yo'qolib ketadi. Xalqning ahvoli adolatsiz yaxshilanmaydi. (Husayn Voiz Koshifiy)

– Adolat hayot uchun non singari kerakli ozuqadir. (L.Berne)

– Adolaptarvar odamning axloqiy xislatlari bemalol qonun o'rnini bosa oladi. (Menandr)

– Adolat ketgan joyda kishilar hayotining qadr-qimmatini ushlab turadigan hech narsa qolmaydi. (I.Kant)

– Agar hokimiyat atrofida adolat hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi. (Abu Bakr al-Xorazmiy)

– Yurt obodligi to'rt narsa sababidan: rahbarlar adolati, olimlar ilmi, boylar saxovat, muhtojlar duosi. (Abu Homid al- G'azzoliy)

– Kim adolatsizlik bo'layotganini bilaturib sukut qilsa, go'yo u saqov shaytondir. (Abu Ali Dahqoq)

– Dunyoda adolatliroq narsani ko'rmadim: unga xizmat qilsang, senga xizmat qiladi, uni tark etsang, u ham seni tark etadi. (Abu Abdulloh Mag'ribiy)

– Kuchga tayanmagan adolat g'irt ojizlikdir,adolatsiz kuch esa – zo'rovonlik. Demak,adolatni kuch bilan uyg'unlashtirmoq va buning uchun adolatning kuchli,kuchning esa adolatli bo'lishiga erishmoq zarur. (B.Paskal)

– Azizim, adolatli shoh, amaldor xalqning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash uchun g'amxo'rlik qilmas ekan, fitnaning qo'li azob-uqubatni, adolatsizlikni kuchaytirishga ko'maklashadi. Agar adolat sha'mining nuri bilan bechora xalqning uyini yoritmas ekan, sitamdiydalarning dili kabi mamlakat havzasi g'amga botadi, qorong'ilashadi.

---

[115]**Мирзиёев Ш.М.** Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир// http: //uza.uz/oz/politics/ konstitutsiya-erkin -va-farovon-ayetimiz-mamlakatimizni-yanad-08-12-2017.

BAYT

Adolat dastini tutgayki yaxshi shoh,
Anga pushtu panoh bo'lgay o'zi Olloh.
Adolatdan qo'lin tortsa agar sulton,
Sitamindan viloyatlar bo'lur vayron[116].

(Xoja Samandar Termiziy)

6-§.Umuminsoniy axloqqa zid illatlar va ularni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari

«Umuminsoniy axloqqa zid illat» – axloqiy yomonlik tushunchasi. «Illat» so'zi tandagi dard, kasallik, xastalik, jismoniy yoki ruhiy kamchilik, nuqson, ayb hamda biror ishga, holga sabab bo'lgan buzuqlik, balo, ofat degan ma'nolarni anglatadi. Shunga ko'ra, *umuminsoniy axloqqa zid illatlar debumuminsoniy odob-axloq prinsiplari va normalari doirasiga sig'maydigan, unga xilof ravishda sodir etiladigan yaramas xatti-harakatlarga aytiladi.* Ularga g'azab, jaholat, adovat, g'iybat, haqorat, hasad, nifoq, zulm, yolg'onchilik, maqtanchoqlik, dangasalik, ichkilikbozlik, manfaatparaslik, shuhratparastlik, ayyorlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik, ezmalik, jizzakilik, buzuqchilik kabilar kiradi.

1. G'azab.G'azab – insonning aql quvvatidan hissiyot quvvati ustun kelib, o'zini bosolmasdan, o'zgalarga shiddat bilan muomala qilishidir. Agar g'azab birovni urish, so'kish, ya'ni kishilarga jabr va zulm etkazish tariqasida yuzaga chiqsa, axloqqa zid illatga aylanadi. O'rinsiz g'azablanish kasb sohasixodimlariningishlariga zarar keltiradi.

G'azabning illatlari to'g'risida donishmandlar shunday deganlar:

– G'azab tez qaytariladigan, shafqatsiz, g'oyat kuchli, ruhiy jihatdan hayvoniy bir hissiyotdir, u qotillik sababchisi, g'am-kulfat hamrohi,ziyondoshlik va nomussizlikning oshnasi bo'lishi mumkin. (Aristotel)

– G'azab ustida jazo berish – jazolash emas, qasd olishdir. (P.Buast)

– G'azab ustida urgan har bir zarbamiz oxir-oqibat o'zimizga kelib tushadi. (U. Peni)

– G'azabga tushish birovning xatosi uchun o'zimizdan o'ch olishimizdir. (A.Pop)

---

[116] Термизий Хожа Самандар. Дастур ул-мулук: Подшоҳларга қўлланма. – Т.:. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1997. –Б.62.

– Qaysi birlaringda jahl-u g'azab qo'zisa, darhol sukut saqlashga o'tsin. (Hadis)

– G'azab qo'ziganda gapirish ham, nimadir qilish ham kerak emas. (Pifagor)

– Qaysi birlaringda jahl-u g'azab tik turgan paytda kelsa, darhol o'tirib olsin. Agar shunda ham g'azab ketmasa, yotib olsin. (Hadis)

– G'azabi kelganda uni bosoladigan kishi eng kuchli odamdir (Hadis)

2. G'iybat va tuhmat. *G'iybat* – birovlarning orqasidan yomonlab gapirish, fisq-fasod tarqatishdir. G'iybat tarqatuvchilarni g'iybatchilar deb ataydilar. Ular birovning gapini boshqa birovga yetkazib, odamlar o'rtasiga nifoq soladilar. Oqibatda ota o'g'ilni oq qiladi, qiz onasidan yuz o'giradi, ustoz shogirdidan voz kechadi, rahbar va xodim o'rtasida sovuqchilik tushadi, bir-birlaridan o'ch olish payiga tushadilar. Shu tariqa g'iybatchilar dunyoni buzadilar. Shuning uchun ham payg'ambarimiz: ***«G'iybatdan saqlaningiz, g'iybat zinodan ham yomonroqdur»,*** – degan edilar.

Tuhmat – bu halol, imoni butun odamlarni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo, bo'htondir.

Tuhmat-bo'htonlar tufayli sobiq sho'rolar davrida yuz minglab kishilar hayotdan ko'z yumdilar. Birgina «o'zbeklar ishi» deb ataluvchi Markazdan to'qib chiqarilgan bo'hton tufayli xalqimizning o'n mingdan ortiq farzandi ustidan jinoyat ishi qo'zg'atdilar, besh mingga yaqinini qamoqda saqladilar. Ammo matonatli xalqimizning asl farzandlari qiyinchiliklarni, tuhmat balo-qazolarini yengib, asrlik kishanlarini parchalab tashlab, ozodlikni qo'lga kiritdilar va ona Vatanimizning mustaqilligi, obodligi va ozodligi yo'lida tinmay mehnat qilmoqdalar.

Tuhmat va bo'htonning zararli illat ekanligi haqida donishmandlar shunday deganlar:

– Biron-bir narsani ta'kidlay turib, uni qonuniy ravishda isbotlay olmaslik tuhmat qilish demakdir.(P.Bomarshe)

– Boshqalarga tuhmat qilib shivirlaydigan odamni uyingdan haydab chiqar.(Fales)

– Eshitar quloq uchun tuhmat tilga chiqqan chipqondek gap. (SH.Rustaveli)

– Tuhmatga ishonish orqali qancha-qancha do'stlik iplari uzilgan, qancha-qancha xonadonlar xaroba bo'lgan. (Lukian)

– Kim tuhmatchini qoralamasa, uni qo'llagan bo'ladi.(Svetoniy)

– Bo'hton xuddi miltiq kabi xavfli quroldir.(A.G.Rubinshteyn)

– Bo'hton – hasad qurolidir.(S.Segyur)

– Bo'hton g'ingillab jonga tegadigan ariga o'xshaydi: uni joyida o'ldira olishingizga ishonmasangiz, yaxshisi uni haydashga ham urinmang, qaytaga u sizga battar yopishadi. (N.SHamfor)

– G'iybat – birodaringning eshitsa xafa bo'ladigan tomonini gapirishingdir.(Hadis)

3. Yolg'on. *Yolg'on* – bu haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, noto'g'ri so'zlarni aytishdir. Yolg'onchi kishilarni kazzob deydilar. Payg'ambarimiz s.a.v.: «Al kazzobu lo ummati», ya'ni yolg'onchi mening ummatimdan emasdir[117], – degan edilar. Gaplarning yomoni – yolg'on gap, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Yolg'onchilik yovuzlikka, yovuzlik esa jahannamga boshlaydi. Rostgo'y odamga yaxshi, yolg'onchiga yomon baho beradilar.

Hadislarda: *«Har bir yolg'on gap odam bolasiga gunoh bo'lib yoziladi, lekin uch yolg'on yozilmaydi:*

1. Kishi urushda (dushmanga) yolg'on ishlatadi, chunki urushning o'zi hiyladir.

2.Kishi xotiniga murosa uchun yolg'on gapiradi.

3. Kishi ikki kishining orasini isloh qilish (yarashtirish) uchun yolg'on gapiradi»[118], – deyilgan. Demak, urush vaqtida, er va xotinni rizo qilishda, ikki mo'min orasini tuzatishda yolg'on gapirish mumkin ekan.

Yolg'onchilikning zararlari haqida donishmandlar shunday deganlar:

– Yolg'onchilik – qabih illat. (M.Monten)

– Yolg'onchi – inson deb atalishga loyiq emas. (F.Fenelon)

– Yolg'on beviqor qilur odamni,

–Yolg'on sharmisor qilur odamni. (Sa'diy)

– Yolg'onchining jazosi uning gapiga hech kim ishonmay qo'yishida emas, balki uning o'zi endi hech kimga ishonmasligidadir. (B.SHou)

– Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi.(Abu Rayhon Beruniy)

– Yolg'on gapirmanglar,chunki yolg'on gap imonga ziddir (Hadis)

4. Haqorat, qo'rqoqlik, nifoq, tama,zulm. Xalq fidoyisi Abdulla Avloniy yomon xulqlar, axloqqa zid illatlar to'g'risida quyidagilarni yozgan edi.

«Haqorat deb bir kishining nafsiga, iffatiga tegadurgan so'zlar ila qadr va e'tiborini tushurmak niyatida yomon muomala qilmoqqa aytiladi. Birovni

---

[117] Ахлоқ– одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990 – Б.46.

[118] Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар.– Т.: Камалак,1991.– Б.98.

haqorat qilish katta gunohdir. Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o‘rnashib, shunday yomon jarohatlarni ochurki, fursatni g‘animat topib, o‘ch va intiqom olmaguncha tuzalmaydur.

*Qo‘rqoqlik e*ng yomon xulqlarning biridur. Qo‘rqoq kishilar vahm va xayolot asiri bo‘lub, bir ishni ishlamakg‘a jasorat qilolmaslar. Qo‘rqoq kishilarning so‘z va va’dalariga ishonib bo‘lmagani kabi yo‘l va safarda ham hamroh bo‘lmak xatodur. Zeroki, yuraksiz kishilarda sabr va sabot, jur’at va matonat kabi yaxshi sifatlar bo‘lmaydur.

Nifoq deb kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa xil so‘zlanadigan so‘zlarga aytiladi. Bunday so‘zlovchi ikki yuzlama kishilarni munofiq deyiladi. Ba’zi hiylakor, ko‘rnamak, yolg‘onchi munofiqlar bo‘lurki, o‘zlarining shaxsiy manfaatlari uchun sizni qurbon qilur.

Tama deb birovdan bir narsa umidvor bo‘lishga aytiladi. Tamagirlik balosiga giriftor bo‘lgan kishilarda nomus va hayo degan yaxshi sifatlar bo‘lmaydi.

Zulm deb birovning joniga yoki moliga zarar yetkazmakni aytiladi. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag‘rur bo‘lib, birovning haqiga taarruz (to‘sqinlik) va tajovuz qilmoq zulmdur.

Kattalikning izzati zulm va taaddi (jabri)da emas, shafqat va marhamatdadur. Kichiklikning lazzati nafrat va qarshilikda emas, sadoqat va hurmatdadur»[119].

5. Poraxo‘rlik. Poraxo‘rlik forscha *«pora-mayda pul,chaqa; xayr-sadaqa: rishva, pora»* degan so‘zlardan olingan bo‘lib, biror ishni noqonuniy tarzda bitirib bergani uchun mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa yoki pul ma’nosini anglatadi. Pora olish bilan shug‘ullanuvchi kishilarni poraxo‘r deb atashadi.

Poraxo‘rlikning kelib chiqishiga bir necha omillar ta’sir qiladi. Bularga:

– jamiyatda erkin yashash uchun yetarlicha moddiy va ma’naviy boyliklarning etishmasligi, uni taqsimlashda adolatsizlikning avj olganligi;

– boqimandalikning kundalik turmush tarziga aylanganligi;

– boylikka hirs qo‘yganlik, ochko‘zlik balosiga giriftor bo‘lganlik;

–shaxsiy foyda keltiruvchi davlat mansablarini egallashga bo‘lgan harakatlar, ya’ni pulning hokimiyatga intilishi;

– o‘zining farzandlari va qarindoshlarining odamlardan boy-badavlat bo‘lib, ustun yashashini ta’minlashga qaratilgan g‘ayriqonuniy harakatlar;

[119] *Абулла Авлоний*. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б.51, 52, 54, 55.

– egallagan mansabini pesh qilib odamlarni qo‘rqitish orqali xalq mulkini tekinga o‘zlashtirib olish;

– qonunlarni mensimasdan g‘ayri qonuniy harakatlarni sodir etish va boshqalar kiradi. Kasb sohasi xodimlarining ochiq yoki pinhona tarzda pora olishi – bu davlat hokimiyatiga, qolaversa, uning rahbariga nisbatan qilingan xiyonat hisoblanadi. Xodimning poraxo‘rligini ko‘rgan xalq davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchini yo‘qotadi. Adolatning tantana qilishiga ishonmaydi. Hayotdan ko‘ngli soviydi, adolatni qaror toptirishning o‘ziga xos bo‘lgan qandaydir “boshqa” usullarini izlashga kirishadi. Shuning uchun ham payg‘ambarimiz **Muhammad S.A.V**: *“Pora bergan ham, pora olgan ham do‘zaxga tushadi”*[120], – deb aytganlar. Keyingi yillarda yuzlab kasb sohasi xodimlari poraxo‘rligi tufayli jinoiy jazoga tortildilar, bu haqiqat. Shuning uchun ham bu illatning qil tomirini kesish jamiyatda adolat va tinchlik o‘rnatish, uning barqaror rivojlanishini ta’minlash demakdir.

6. Loqaydlik, beparvolik, befarqlik. Kasb sohasi xodimlarining kasbiy tanazzuliga olib keladigan axloqiy illatlardan birini loqaydlik,beparvolik va befarqlik tashkil qiladi.

Loqaydlik — inson, jamiyat, millat ishiga beparvo va sovuqqonlik bilan yondashish, munosabatda bo‘lishni ifodalovchi axloqiy -ma’naviy illat. U muayyan kishining gohida o‘z hayoti, o‘zgalar faoliyati, atrofida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga befarqligi va munosabatsizligidir.Hayotiy pozitsiyaning aniq emasligi, dolzarb vazifalardan o‘zini olib qochish, el-yurt, jamiyat va millat tashvishlaridan chetda turish holatlari loqaydlik ko‘rinishlaridir.

Beparvolik (befarqlik, e’tiborsizlik, loqaydlik) — kishidagi o‘zgalar hayotiga, atrof voqelikka e’tiborsizlik, loqaydlikdir. Ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan, Vatan taqdiri hal bo‘layotgan pallalarda kishilardan yuksak faollik, mas’uliyat talab qilinganda befarqlik nafaqat illat, balki jinoyat hamdir. Loqaydlik va beparvolik o‘zaro aloqadordir.

Befarqlik — jamiyatga, ijtimoiy hayotga, atrofdagi insonlar va hodisalarga nisbatan biror bir qiziqish va aniq ma’naviy-hissiy munosabatning namoyon bo‘lmasligini ifodalaydigan tushuncha. Befarqlikni o‘zini tutib turish, vazminlik holatidan farqlash lozim. Vazmin odam o‘zini organ qila olishi hisobiga qalbidagi tug‘ tug‘yonlarni bosib tura oladi va o‘zining mustahkam irodasini namoyon qiladi.

---

[120] Муҳаммад пайғамбар қиссаси.Ҳадислар.–Т.:Камалак,1991.–Б.88.

Loqaydlik va befarqlik — ma'naviy qashshoqlik va axloqsizlikni keltirib chiqaruvchi illatlar. **Loqaydlik** — qayd etmaslik, e'tibor bermaslik, daxldorlikni his etmaslik. ***Befarqlik esa «menga nima» deb, o'zini chetga olish.*** Ushbu illatlar har doim taraqqiyotga zarar etkazadi. Tashqi g'oyaviy ta'sir ichki ma'naviy loqaydlik, zaiflik bor joyda ildiz otadi. Bu illatlar faollikning kushandasi. Loqaydlik, befarqlik hafsalasizlikka sabab bo'ladi. Befarq odamlar boshqalarning irodasiga tez bo'ysunadilar. Bu hol ulardan turli maqsadlarda foydalanish, ularni salbiy tomonga yetaklash imkonini beradi.

Shuningdek, «beg'amlik» ham beparvolik, loqaydlik bilan ma'nodosh so'zdir. Beg'am kishi turmushda yuzaga kelgan muammolarning yechimini izlashga intilmaydi, hamisha beg'am, tashvishdan yiroq yashashni ko'zlaydi. Beg'amlik kayfiyati oxir-oqibat tevarak-atrofdagilarga, jamiyatga moddiy va ma'naviy-g'oyaviy zarar keltiradi. Mavjud muammolarning yanada keskinlashuviga olib keladi.

Beparvo va loqayd odam jamiyatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, bunyodkorlik ishlarini his qilishdan yiroq. Shu bois g'animlar bunday odamlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanadilar va jamiyatga juda katta zarar keltiradilar. Loqayd insonlar mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilmaydilar, ular uchun kelajakka intilib yashash, xalq farovonligi yo'lida kurashish, ezgu amallar va savob ishlarni amalga oshirish begonadir.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Donishmandlardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: ***«Dushmanlardan qo'rqma, nari borsa ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma, nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq — ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».***

Har bir inson uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega ana shunday fikrlarni unib-o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Axloqqa zid illatlarning kelib chiqish sabablari va shart sharoitlari. Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning kelib chiqishiga quyidagi sharoitlar sabab bo'ladi:

1. Ijtimoiy hayot rivojlanishining bir tekis bormasligi, ya'ni eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli kelib chiqadigan axloqiy yomonliklar. Masalan, xususiylashtirishda eskilik bo'lgan umumiy mulkchilik tarafdorlari bilan yangilik bo'lgan xususiy mulkchilik tarafdorlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar axloqiy illatlarni keltirib chiqaradi.

2. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash sohasida yo'l qo'yilgan xatolar tufayli kelib chiqadigan axloqiy yomonliklar. Bu haqda I.A.Karimov: «Hammamiz yaxshi bilamiz: 15 dan to 18 yoshgacha bo'lgan davr inson umrida eng nozik, eng murakkab davrdir. Shu yoshda inson ongi, xulqi va axloqi, ma'naviy qiyofasi tugal shakllanadi. Hali suyagi qotmagan farzandlarimizni o'z holiga tashlab qo'ysak, tarbiyasi, ilmi va ma'naviyati bilan shug'ullanmasak, kelajakda ularning komil insonlar bo'lib yetishmog'iga kim kafolat bera oladi?»[121], – degan edi.

3. Hayotning mazmunini qanday yo'l bilan bo'lmasin boylik orttirish, mol-dunyo to'plashda ko'ruvchilarning haddan tashqari ko'payib ketishi. Buning oqibatida o'g'rilik, chayqovchilik, fohishabozlik, talonchilik, bosqinchilik kabilar avj olib ketadi.

Umuminsoniy axloqqa zid bo'lgan eng yuqori darajadagi illat jinoyatchilikdir. Jinoyat sodir etish axloqiy yomonlikdir.

Umuminsoniy axloqqa zid bo'lgan illatlar axloq normalarini buzishning quyidagi shaklarida namoyon bo'ladi:

1) ijtimoiy axloq buzilishining shakli bo'lgan bezorilik;

2) g'ayriinsoniy munosabatda bo'lishdan kelib chiquvchi qo'pollik, qasos, qasam;

3) o'zining shaxsini ehtiyot qilmaslik tufayli kelib chiqqan axloqiy yomonlik shakllari: shaxsiyatparastlik, xudbinlik.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish sharoitida ham axloqqa zid illatlar, ayniqsa,o'g'rilik, firibgarlik, poraxo'rlik, jinsiy buzuqlik, ichkilikbozlik, mayda bezorilik kabilarning saqlanib qolishi tabiiydir. Buning sababi, bir tomondan, eskidan odamlarning ongida saqlanib qolgan axloqiy illatlarning yashovchanligi bo'lsa; ikkinchi tomondan, jamiyatdagi ziddiyatlar, ularning to'liq hal etilmaganligidir.

---

[121]*Каримов И.А.* Янгича тафаккурга – кенг йўл // *Унинг ўзи.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т.6. – Т.:Ўзбекистон, 1998. – Б.11.

7. Axloqqa zid illatlarga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari Umuminsoniy axloqqa zid illatlar, birinchidan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; ikkinchidan, yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalash ishlariga xalaqit beradi; uchinchidan, jinoyatlarning kelib chiqishini kuchaytirib yuboradi. Shuning uchun ham axloqqa zid illatlarga qarshi kurashish kasb sohasi xodimlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Axloqda zid illatlarga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Bozor iqtisodiyotining qonunlaridan kelib chiqqan holda mamlakat hayotining, ayniqsa, iqtisodiy faoliyatining barcha jabhalarida mehnat shartnomalarini bajarish, soliq, tijorat intizomini mustahkamlash. Intizom axloqning ajralmas qismi, axloq esa jamiyatdagi xatti- harakatlarni tartibga solish, boshqarishning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun ham mehnat va xizmat intizomini kuchaytirish har qanday axloqsizlikning oldini olishda asosiy vosita bo‘ladi.

2. Axloqqa zid illatlarni tugatishga qaratilgan yana bir yo‘nalish ish haqini to‘lashda tenglashtirish siyosatiga yo‘l qo‘ymaslik, ya’ni inson qancha va qanday mehnat qilgan bo‘lsa, shuncha ish haqi, daromad olishini ta’minlash; yaxshi mehnatni taqdirlash ishlarini yuqori darajada tashkil qilish. Kasb sohasi sohasida “har bir davolangan holat” uchun haq to‘lashning zamonaviy usullariga o‘tish[122].

3. Jamiyatda yaratilayotgan barcha moddiy ne’matlar va ularning taqsimlanishi davlat va jamoatt tashkilotlari tomonidan nazorat qilib turilishi lozim. Bu esa har xil ishyoqmaslar, o‘g‘rilar, firibgarlar va chayqovchilar bezoriliklarining oldini olishda yordam beradi.

4. Jamoattchilik tomonidan yomon xulqli odamlarga qarshi muhit yaratish zarur. Agar shunday muhit yaratilsa, ya’ni odamlar axloqbuzarlardan hamma joyda - ishda ham, ko‘chada ham, mahalla-ko‘yda ham nafratlansalar, qilmishlari uchun doimo tanbeh bersalar, ya’ni ular uchun noqulay muhit yaratsalar, axloqqa zid illatlar tezda yo‘qoladi.

5. Jamiyatning kichik yoshdagi fuqarolarini mehnatga, halol mehnat qilishga o‘rgatish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

6. Har bir kishining mehnati samarali bo‘lishi lozim. Samarali mehnat axloqsizlikdan asraydi.

---

[122] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш соҳа тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5590 Фармонига 1-илова.“2019 – 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизимини ривожлантириш концепцияси”.

7. Umuminsoniy axloqqa zid bo‘lgan axloqiy yomonliklarning eng qabih shakllaridan biri jinoyatdir. Uning jamiyatga zarari va uni tugatish yo‘llari haqida I.A.Karimov shunday degan edi: «Demokratik davlat o‘z fuqarolariga tinch yashash va mehnat qilish imkonini to‘la ta’minlab bermog‘i kerak. Lekin, ayni zamonda, jinoyatchilikka qarshi kurash shunchaki vaqtinchalik kampaniyaga aylanib ketmasligi lozim. Bu ish – davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lmog‘i zarur.

Jinoyatning yashirin va eng qabih turi bor. Bu – korrupsiya va poraxo‘rlik. Jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin.

Byurokrat kimsa hadik yoki mas’uliyatsizlik tufayli jarayonni sekinlashtirib qo‘ysa, poraxo‘r ko‘pincha ko‘ra-bila turib, o‘z manfaatini o‘ylab davlat va xalq manfaatlariga zid qarorlarni qabul qiladi.

Poraxo‘rlik, qonunni chetlab o‘tib chayqovchilik qilish, eng avvalo, tijorat ahlining o‘zini obro‘sizlantiradi, aholining qarg‘ishiga duchor etadi. Shu sababli, bozor munosabatlarining vijdonli va sofdil tarafdorlari turli o‘g‘ri va muttahamlarga o‘z oralaridan o‘rin bermasliklari kerak»[123].

Axloqqa zid illatlarni tugatish quyidagi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishni ham talab etadi.

1. Odamlarning mehnat va xizmat faoliyatlarini ularning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi madaniy dam olish shakllari - sayohat, o‘yin-kulgi, to‘y-tomosha, san’at, badiiy ijodkorlik, ixtirochilik va boshqa turli-tuman tadbirlar - bilan uyg‘unlashtirib olib borishni tashkil etish.

2. Odamlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini, azaliy udumlar, ya’ni kattani hurmat, kichikni izzat qilish, ayollarga oliyjanob munosabatda bo‘lish, har kuni salomlashish, mehmonning izzat-hurmatini joyiga qo‘yish, kamtarlik kabilarning hayotda qo‘llanilishini nazorat qilish asosida muntazam ravishda ish olib borish.

«Jamiyat madaniyatsiz, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovard-oqibatda tanazzulga yuz tutadi»[124]hamda axloqsizlar jamiyatiga aylanib qoladi.

3. Oiladagi muhitni yaxshilash, oilaviy tarbiyaga e’tiborni kuchaytirish, ayniqsa bolalarni urish va qo‘rqitish asosida tarbiyalash usullarini tarbiya tizimidan siqib chiqarish kerak. Qo‘rquv odamni tarbiya qilmaydi, aksincha, oxir-oqibatda bir qancha axloqsizliklarni keltirib chiqaradi. Oilada o‘zaro ishonch, o‘zaro hurmat ruhini shakllantirish

---

[123] *Каримов И. А.* Йўлимиз – мустақил давлатчилик ва тараққиёт йўли // *Ушбу ўзи.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.221– 222.

[124] Ўша манба. – Б.222.

kerak, chunki bu ruh axloqsizliklarning ildiziga bolta uradi, jamiyatning rivojlanishiga, farzandlarimizning oqil bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

4. Odamlar orasida ma’naviyat va ma’rifat ishlarini targ‘ib qilish, axloq va huquq normalarining bajarilishini talab etish hamda axloqiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish, bu sohadagi bilimlarni targ‘ib va tashviq qilish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim. Bu ishlarni amalga oshirmasdan turib buyuk davlat qurib bo‘lmaydi.

Yuqoridagilarni xulosalab aytish mumkinki, umuminsoniy axloqqa zid illatlarga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish;

2) hokimiyat va huquq-tartibot organlarining ishlarini zamon talablari darajasida faollashtirish;

3) jamoattchilik nazoratini kuchaytirish va jamoattchilik fikriga quloq solgan holda uzluksiz ish yuritish;

4) o‘zbek xalqi milliy qadriyatlarining ruhiga mos tarzda axloqiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish ishlarini olib borish.

Binobarin, axloqqa zid illatlarning payini qirqish har bir vijdonli fuqaroning, xususan, kasb sohasi xodimining burchidir.

7-§. Etika kategoriyalari, ularning mohiyati va ijtimoiy tabiati

1. Kasb etikasining kategoriyalari. Har bir fanning o‘z kategoriyalari bo‘lgani kabi Kasb sohasi xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati fanining ham kategoriyalari mavjud. «Kategoriya» so‘zi yunoncha bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi «hukm», «guvoh», «ifodalash», «ta’rif berish», «fikr aytish» demakdir.

Kasbiy soha xodimlari kasb etikasining kategoriyalari jamiyatning axloqiy-ma’naviy hayotida amal qiluvchi umuminsoniy axloq normalari va prinsiplarini mustahkamlash, unda yuz beradigan axloqsizlik va huquqbuzarlikning har qanday ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘lishning zaruriy, muhim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalardir.

Kasb sohasi xodimlari kasb etikasi kategoriyalarini, axloqiy ong (axloqiy prinsip, axloqiy norma, axloqiy ishonch, axloqiy maqsad, axloqiy tanlov),axloqiy munosabat (axloqiy harakat, axloqiy nizo, axloqiy nufuz, axloqiy obro‘),axloqiy amaliyotni aks ettiruvchi (axloqiy yoki axloqqa zid ish, axloqiy ajr, axloqiy qasos, axloqiy oqibat, axloqiy cheklov va boshqa) kategoriyalarga ajratib o‘rganish mumkin.

Bulardan tashqari, kasb sohasi xodimlari kasb etikasi kategoriyalarini strukturali va substansional kategoriyalarga ajratgan holda talqin etsa ham bo'ladi.

Kasb sohasi xodimlari kasb etikasining *strukturali* kategoriyalari axloqning tarkibiy qismlarni ichki aloqadorligi jihatidan xarakterlaydi. Ularga axloqiy norma, prinsip, baho, ideal, qarashlar, e'tiqodlar, hissiyot, odatlar, fe'l-atvor, xatti-harakat, xulq, munosabat va boshqalar kiradi.

Kasb sohasi xodimlari kasb etikasining *substansional* kategoriyalari axloqni jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlar mazmunining o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan xarakterlaydi. Bularga yaxshilik, yomonlik, ezgulik, adolat, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat, hayotning ma'nosi kabilar kiradi.

Umuman olganda, etika fanining kategoriyalari boshqa fanlarning kategoriyalaridan o'zining bir qator *xususiyatlari* bilan farq qiladi.

Birinchidan, etika kategoriyalari faqat axloqshunoslik sohasida emas, balki boshqa fan sohalarida ham qo'llaniladi. Har qanday nazariya, kashfiyot va ilmiy qarashning zamirida ma'lum bir qadriyat bor, ya'ni u mazkur ish nima maqsadda qilingan, u yaxshimi yoki yomon, degan savoldan tashqarida bo'lolmaydi. Shunday qilib, amaliyotda axloqiy faoliyatdan tashqarida bo'lgan narsaning o'zi yo'q.

Ikkinchidan, etika kategoriyalari (masalan, vatanparvarlik, adolat, mas'uliyat va h.k.) ayni vaqtning o'zida boshqa (siyosiy, iqtisodiy, huquqiy) fanlarning ham kategoriyalari hisoblanadi. Bu axloqiylikning, uning in'ikosi bo'lgan axloq kategoriyalarining sintez qilish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Etika kategoriyalarining sintez qilish xususiyati, bir tomondan, jamiyat a'zolarini axloqiy tarbiyalash uchun boshqa fan jabhalarini o'zida mujassamlashtirgan holda ish ko'rishini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, boshqa fan kategoriyalariga axloqiy mazmun bag'ishlashini, ularning axloqiylikdan tashqarida emaslikini ham ko'rsatib beradi.

Uchinchidan, etika kategoriyalari o'zining keng qamrovga egaligi bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar iinson hayotining barcha jabhalarini, ya'ni tug'ilishidan hayotining so'nggi kunlarigacha bo'lgan hodisalar – mehnat, muhabbat, kundalik odob-axloq, xulq, muomala – hammasini o'zida umumiy tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi.

To'rtinchidan, etika kategoriyalari odamlarning xatti-harakatlari, xulq-avtorlarini jamiyat talablari nuqtai nazaridan ma'qullash yoki qoralash, ya'ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir.

Etika kategoriyalariga quyidagilar kiradi:

– *yaxshilik va yomonlik;*

– *adolat va adolatsizlik;*
– *baxt va baxtsizlik;*
– *vijdon va vijdonsizlik;*
– *burch, or-nomus va qadr-qimmat;*
– *hayotning ma'nosi.*

Bu kategoriyalar, garchand umumiy kategoriyalar bo'lsa-da, o'zining kasb sohasi xodimlarining amaliy faoliyatida qo'llanishida aniqlik, ya'ni o'ziga xoslik kasb etadi.

Har bir kategoriyaning o'ziga xos jihati va bajaradigan maxsus vazifalari mavjud. Yaxshilik, yomonlik, adolat kategoriyalari normativ faoliyatni ifodalovchi kategoriyalar hisoblanadi.

«Yaxshilik» va «yomonlik» kasb etikasining inson faoliyatini axloqiy jihatdan baholovchi markaziy kategoriyalaridan hisoblanadi.

2. «Yaxshilik» tushunchasi va uning mohiyati. Yaxshi deganda, odatda, kishining biror talabiga to'liq javob beradigan, unga yoqadigan, ma'lum bo'lgan xatti-harakatlar, narsalarning ijobiy sifatlari tushunilsa, yaxshilik deganda esa ixtiyoriy ravishda biror kishining manfaatini ko'zlab ish tutish, unga manfaat yetkazish, xayrli, ezgu ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Yaxshilik o'zining kundalik oddiy tushunchasidan tashqari etika fanining kategoriyasi sifatidagi ta'rifiga ham egadir.

Yaxshilikdeb tevarak-atrofda sodir bo'layotgan hamma voqea, hodisalar hamda vujudga kelayotgan narsalarning insonni e'zozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallariga mos keladigan, odamgarchiligining o'sishini har tomonlama ta'minlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishiga xizmat qiladigan barcha ijobiy tomonlari yig'indisiga aytiladi.

Yaxshilik kasb sohasi xodimlari kasb etikasining kategoriyasi sifatida axloqning turlicha namoyon bo'lishini o'zida aks ettirar ekan, boshqa axloq kategoriyalaridan o'zining quyidagi jihatlari:

birinchidan, inson faoliyatining sababi va natijasiga ko'ra tekshiriladigan hamda muayyan axloqiy normalar tizimi nuqtai nazaridan ijobiy baholashga imkon beradigan axloqiy mazmun;

ikkinchidan, axloqiy idealga muvofiq keladigan real mavjud axloqiy munosabatlarning ijobiy mazmuni;

uchinchidan, muayyan tarixiy axloq shaklining barcha ijobiy norma va prinsiplari yig'indisini o'zida jamlagan umumiy ideal;

to'rtinchidan, xatti-harakatning sababiga aylanuvchi axloqiy maqsad;

beshinchidan, insoniy xususiyat, fazilat ekanligi bilan ajralib turadi.

«Yaxshilik» kategoriyasi o‘zining ko‘p qirraliligi, keng qamrovliligi, ya’ni kishilar hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham u mehnat sohasida – jamiyat manfaatlari yo‘lida qilingan halol ijodiy mehnat; siyosat va huquq sohasida esa insonparvarlik, adolatparvarlik va boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi.

Yaxshilik kasb sohasi xodimlarining faoliyatida insonlarning dardlariga davo topish, oilada tinch-totuv, osuda yashashlarini ta’minlashga xizmat qilish, kasalliklarning oldini olish hamda yuqumli kasalliklarning sirini ochib tashlash kabi ijobiy sa’y-harakatlarni amalga oshiruvchi mard, qo‘rqmas, insonparvar, vijdonli, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, xalqi, uning tinchligi, baxt-saodati uchun o‘z hayotini qurbon qilishga tayyor turish kabi bir qator axloqiy fazilatlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday xastaliklarning oldini olish, dardmanlarni davolash jamiyatning rivojlanishi, insoniyatning tinch-osuda yashashini ta’minlash yo‘lida qilingan yaxshilik hisoblanadi. Shunga ko‘ra, kasb sohasi xodimlarining mamlakatimiz fuqarolarining sog‘ligini saqlash orqali tinch-osuda yashashlarini ta’minlash borasida olib borayotgan barcha ishlari, o‘tkazayotgan tadbirlari xalqimizning buyuk kelajagini ta’minlash yo‘lida qilingan yaxshilik hisoblanadi.

Jahon mutafakkirlari yaxshilik haqida shunday deganlar:

– Yaxshilik haqida fikr qilinglar, chunki yaxshilik haqida o‘ylash kishini o‘sha yaxshilikni qilishga undaydi.(Abdulloh ibn Abbos)

– YAxshilar ketidan choparsan,

–Istasang, baxtingni shunda toparsan. (Sa’diy SHeroziy)

– Har bir yaxshilik sadaqadir. (Hadis)

– Yaxshilik qilmoq – yomon falokatlardan asraydi.(Hadis)

– YAxshi qiliq, go‘zal muomala bir yo‘ldirki, u yo‘ldan yurmay turib, izzat va sharaf manziliga etib bo‘lmaydi. (Husayn Voiz Koshifiy)

– Biron qog‘ozga qo‘l qo‘ymoqchi bo‘lsang, biron odamni xafa qilib qo‘ymaslikni o‘yla! (Qozi Ahmad G‘afforiy)

3. «Yomonlik» tushunchasi va uning mohiyati. Yomon odam deganda, odatda, fe’l-atvori buzuq, yaramas, razil odam; yomonlik deganda esa o‘zining fe’l-atvori, qilgan ishlari bilan atrofdagilarga zarar yetkazuvchi axloqan buzuq, yaramas odamlarning xatti-harakatlari tushuniladi.

Umuman olganda, yaxshi xulq egasi bo‘lish – yaxshilik, yomon xulqlilik esa yomonlik hisoblanadi. Chunonchi, jamiyatning moddiy va

ma'naviy farovonligini oshirishga qarshi qaratilgan barcha xatti-harakatlar yomonlikdir.

Yomonlikni oddiy va falsafiy tushunish mavjud.

Yomonlikdeb jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, kishilarning axloqiy ideallariga, ular e'zozlaydigan qadriyatlarga, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda axloqiy taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o'sishiga zid keladigan xatti-harakatlar yig'indisiga aytiladi.

Yomonlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: kosmopolitizm, millatchilik, oshna-og'aynigarchilik, ma'muriy buyruqbozlik, odam o'ldirish, o'g'rilik, zo'ravonlik, mansabparastlik, poraxo'rlik, tashmachilik, tamagirlik, bezorlik, bosqinchilik, ichkilikbozlik, ishyoqmaslik va h.k.

Yomonliklarni, borliqni aks ettirishiga qarab, shartli ravishda tabiiy, ijtimoiy va axloqiy yomonliklarga bo'lish mumkin. Bunda tabiiy yomonliklarga – zilzila, suv toshqini, yong'in kabi tabiiy ofatlarni; ijtimoiy yomonliklarga - kishining kishini ekspluatatsiya qilishi, millatchilik, irqiy va boshqa jihatlardan kamsitish; axloqiy yomonliklarga esa yolg'onchilik, haqorat qilish, baxillik, yulg'ichlik, poraxo'rlik kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, yomonlikni quyidagi xillarga bo'lish mumkin:

1) yomon maqsad;
2) yomon vosita;
3) yomon natija;
4) yomon baho.

Yomon maqsad biror yomon xatti-harakatni razilona, g'ayriinsoniylik va johillik bilan talab qilish, jamiyat va jamoat manfaatiga zid keladigan, xudbinlik niyatida qilinadigan yomonlikdir. Masalan, odam o'ldirish, xalqni qo'rquvda ushlab turish va hokazo.

Yomon vosita biror xatti-harakatni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan tadbir, shu harakatni bajarish usuli va qurolidir. Yomon vosita qanday maqsad uchun xizmat qilishiga qarab, adolatli va adolatsiz bo'ladi.

Yomon natija – yaxshi maqsadga erishish uchun yaxshi, insonparvar vositalar qo'llanishiga qaramay, sharoit, vaziyat taqozosi, xatoliklar tufayli sodir bo'ladigan yomonlik.

Yomon baho u yoki bu xatti-harakat, jamoat va individ faoliyatidagi salbiy, g'ayriaxloqiy, antigumanistik jihatlarni baholash mezonidir. Yomonlikning barcha ko'rinishlari hamma davrlarda shu mezon yordamida baholanadi. Ammo bu mezon jamiyat taraqqiyotiga ko'ra o'z mazmunini o'zgartirib, yangilab boradi.

Yomonlikning yuqorida ko‘rsatilgan shakl va turlarini chuqur tushunib olish kasb sohasi xodimlarining yomonlikni tugatishga qaratilgan faoliyati yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Kasb sohasi xodimlarining amaliy faoliyati yomonlikni, yovuzlikni tugatishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi jamiyat hayotida yaxshilikni qaror toptirish hisoblanadi. Kasb sohasi xodimlarining yovuzlik, jinoyatchilik kabi yomonlik turlariga qarshi kurashishi ijtimoiy yomonlikning kamayishi va jamiyatda yaxshilikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Kasb sohasi xodimlari yomonlikka qarshi kurashni, avvalo, ishontirish orqali, bordiyu u yordam bermasa, majburiy davolash usuli bilan olib boradilar.

Donishmandlar yomonlik haqida shunday deganlar:

– Yomonlikni butun vujudi bilan ashaddiy nafratlay bilgan odamgina

yaxshilikni yurakdan seva oladi. (F.Shiller)

– Yomonlikka shafqat ko‘rsatish yaxshilikka sovuqqon bo‘lish bilan qo‘shilib ketadi. (N.S.Leskov)

– Inson toki o‘zini mayda gap, o‘chakish, janjal, shikoyat, norozilik, ohu vohlardan ozod qilolmas ekan, u iflos va pastlik tabiatidan xalos bo‘lolmaydi. (Abu Ali ibn Sino)

– Yomonlik butun nuqsonlar majmuidir.(Husayn Voiz Koshifiy)

– Yomon fe’lli kishidan haromdan parhez qilgandek parhez qilinglar. (Abu Bakr Varroq)

– Yomonlarga marhamat va yaxshilik qilish yaxshilarga zarar va alam keltiradi.(Alisher Navoiy)

«Yaxshilik» va «yomonlik» o‘zaro aloqador va ayni vaqtda bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir.

Yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida hadislarda shunday deyilgan:

– Yaxshilaringiz xushxulq bo‘lib, kishilarga yon beruvchi, ya’ni atrofida

yaxshi hayot kechirishga imkon beruvchi kishilardir. Yomonlaringiz mahmadona, dilozor, kishilar rohatini buzuvchi kishilardur.

– Yaxshilaringiz qarzni yaxshi ado etuvchi kishilardir.

– Yaxshilaringiz o‘z ahliga, oila a’zolariga yaxshi bo‘lganlaringizdir.

– Yaxshilaringiz umrlari uzoq bo‘lib, amallari yaxshi bo‘lgan kishilardir.

– Birodarning yaxshisi Allohni zikr qilsang yordamlashadi, esingdan chiqarsang esingga soladi.

– Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaatlirog'idir.

– Yoshlarning yaxshisi o'zini keksalarga o'xshatadiganidir. Keksalarning yomoni o'zini yoshlarga o'xshatadiganidir.

– Yaxshilikka dalolat qiluvchi kishi yaxshilikni qilgan kishi bilan barobardir.

– «Kimga yaxshilik qilay», – deb so'ragan sahobaga uch marta onangga deb, to'rtinchisida otangga deb aytdilar. Ya'ni yaxshilikni avvalo onangga, yana onagga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil, dedilar»[125].

4. «Kasb burchi» tushunchasi va uning ahamiyati. Inson ijtimoiy mavjudotdir. U jamiyat hayotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'p qirrali faoliyat yuritadi, ana shu jarayon davomida turli kishilar, guruhlar bilan aloqada bo'ladi. Har qanday aloqadorlik esa odamga qandaydir majburiyat yuklaydi, ana shu majburiyatni bajarish burchini keltirib chiqaradi. SHunday qilib, *burch,* oddiy qilib aytganda, ado etilishi, bajarilishi shart bo'lgan vazifa, majburiyatdir.

Burchning manbaini, asosini ijtimoiy manfaatlar tashkil etadi. Burchda manfaat buyruq shaklida maydonga chiqadi.

Kasb sohasi xodimlarining kasbiy burchi deb xodimlarning jamiyat, davlat qo'ygan vazifalarni, xizmat vazifalarini majburiy ravishda bajarishlariga aytiladi.

Kasb sohasi xodimlari kasbiy burchining asosiy mazmunini tashkil etuvchi vazifa va majburiyatlar quyidagilardan iborat:

– Ona Vatan – O'zbekiston Respublikasiga cheksiz sadoqat bilan xizmat qilish, xizmat burchini o'z kuchi, hattoki hâyotini ayamasdan bajarish;

– o'z davlatining konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga qat'iy rioya qilish, buyruq va nizomlarning talablarini bajarish;

– xizmat vazifasini bajarishda, ijtimoiy va shaxsiy hayotda halol va to'g'ri, itoatkor, mehnatsevar, intizomli bo'lib, barchaga namuna bo'lish;

– har xil illatlarning oldini olish va tugatish bilan bog'liq xizmat mashaqqatlariga sabot bilan bardosh berish;

– kasbga oid bilimlarni muntazam egallash, o'z uquvi va mahoratini takomillashtirish;

– halol, intizomli, jasur bo'lish, xizmat burchini ijro etish chog'ida oqilona tashabbus ko'rsatish;

[125] Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар.– Т.: Камалак, 1991.– Б.66.

– «Kasb xodimi» degan nomni sharaf bilan oqlash, or- nomusini e'zozlash;

– o'zaro birodarlikni e'zozlash, o'z hayotini ayamasdan o'rtoqlarini xavf- xatardan qutqarish, ularga so'z va ish bilan yordam berish, har birining or- nomusi va qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zini va boshqa xizmatchilarni tahqirlashlariga yo'l qo'ymaslik, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolish;

– maxsus yurish-turish odobi qoidalariga rioya qilish va salomlashish qoidalarini bajarish, doimo qoida bo'yicha, ozoda va orasta kiyinish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Kasb sohasi xodimlari kasb burchining talablari jamiyat hayotining oddiy qoidalaridan kelib chiqqan holda, shaxs bilan jamiyat, boshliq bilan bo'ysunuvchi, kattalar bilan kichiklar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Faylasuflar burch haqida shunday deyishgan:

– O'z burchini bajarishdan mamnun odamgina erkin yashaydi. (Sitseron)

– Burch! Sen avj pardadagi buyuk so'zsan. Bu shunday chindan ham insonni o'zidan ham yuksaklikka ko'taruvchi buyuklikdir. (I.Kant)

– Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan voz kechishni talab qiladi. (V.Gyugo)

– Inson o'z burchini bajarar ekan, o'zi majburan qilayotgan ishiga muhabbat bilan qaraydi. (I.Gyote)

– Burchdan voz kechib va o'z vazifasini tan olmagan holda, yana o'zi uchun hamma huquqlarni talab qilish to'ng'izlikdan boshqa narsa emas.(F.M.Dostoevskiy)

– Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir. (Demokrit)

5. «Or-nomus» («sha'n») va «qadr-qimmat» kategoriyalari. *Or* deganda, odatda, o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmagan ishdan, narsadan hijolat tortish, uyalish, nomus qilish tushunilsa, *nomus* deganda kishining o'z obro'sini ulug'lashi va ardoqlashi, oriyat, diyonat, uyat-andisha qilish, sharm, hayo tushuniladi. Shunga ko'ra, oriyatli odam deb or-nomusini biladigan, o'z obro'yini qadrlaydigan kishilarga aytilsa; nomusli odam deb uyat-andisha biladigan, sharm-hayoli kishilarga aytiladi.

Demak, axloqiy tushunchalar bo'lmish «or-nomus» ("sha'n")[126] insonda shaxsning ijtimoiy ahamiyati va axloqiy qadri hosil bo'ladigan fazilatlarning mavjudligini ko'rsatadi.

---

[126]*Шаън* – арабча сўз бўлиб ўзбек тилида – иш; алоқа, муносабат; қадр-қиммат, обрў; аҳамият; манфаат деган маъноларни англатади.

Kasb sohasi xodimlarining sha'nideb ularning o'z xizmat vazifalarini bajarishda jasorat va mardlik ko'rsatib, o'zlarining insoniylik, sobitqadamlik, adolatparvarlik, halollik kabi xislatlarini har tomonlama namoyish qilib, oriyatli, diyonatli, sharm-hayoli bo'lib, o'z kasblarini ulug'lashlari va ardoqlashalariga aytiladi.

Kasb sha'nini ifodalovchi asosiy sa'y-harakatlar jumlasiga mardlik, jasorat, insoniylik, sobitqadamlik, adolatparvarlik, halollik, diyonat, andisha, oriyat, hayo va boshqalar kiradi.

Kasb sha'ni har bir xodimidan:

1) kasb uchun zarur bo'lgan barcha axloqiy talablarning majmuini to'lig'icha anglab olishni;

2) o'z xizmat jamoatsining xalq oldidagi mas'uliyatini o'zining shaxsiy mas'uliyati deb bilishni;

3) har qanday qiyin, ziddiyatli, xavfli sharoitlarda xizmat burchini bajarishga tayyor turishni talab qiladi. Bu talablarni bajarish esa aholi orasida Kasb sohasxodimlarining nufuzini oshirib boradi.

Or-nomus haqida mutafakkirlar shunday deganlar:

– Nomus inson aqlining poydevoridir. (V.G.Belinskiy)

– Nomus jondan ham qimmat. (F.SHiller)

– Chinakam nomus egrilikka toqat qilolmaydi. (G.Filding)

– Nomus tushunchasi ahmoqni jazo haqidagi har qanday risoladan ham ko'ra

yaxshiroq izga soladi. (A.Sen-Simon)

– Nomus – bu tashqi vijdon, vijdon esa – ichdagi nomus. (A.Shopengauer)

«Or-nomus» kategoriyasi bilan bir qatorda inson faoliyatining axloqiy tomonlarini ifodalovchi «qadr-qimmat» kategoriyasi ham mavjud.

Kasb sohasi xodimlariningqadr-qimmati deb ularning jamiyatda, kishilar orasida tutgan o'rni, topgan obro'si, hurmati va nufuziga aytiladi. «Or-nomus» kategoriyasi shaxs axloqining tashqi tomonlarini ifodalasa, «qadr-qimmat» kategoriyasi insonning o'zini o'zi anglashi va nazorat qilishini ifodalaydi. Qadr-qimmat o'z qadrini anglash shakli bo'lib, insonni kamsitadigan, xo'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida o'z qadrini yo'qotishiga sabab bo'ladigan qiliqlarga yo'l qo'ymaydigan to'siq hisoblanadi. *Kasb sohasi xodimlariningqadr-qimmati ularning o'zini o'zi hurmat qilishi va saqlashi, atrofdagilarning hurmatini yo'qotmasligi, o'z sha'niga dog' tushirmaslik uchun o'zini nazorat qilishi sifatida ko'zga tashlanadi.*

6. «Vijdon» kategoriyasi. Vijdon deganda, odatda, kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoattchilik oldidagi

mas'uliyat hissi tushuniladi. Binobarin, kasb sohasi xodimlari kasb etikasining kategoriyasi sifatida uni quyidagicha izohlash mumkin.

Kasb sohasi xodimlarining vijdonideb o'z axloqiy xatti-harakatlarini va bu xatti-harakatlarga bog'liq bo'lgan his-tuyg'ulari, kechinmalarini davlat, jamiyat tomonidan joriy qilingan axloqiy normalar nuqtai nazaridan baholovchi va nazorat qiluvchi ichki tuyg'ularining majmuiga aytiladi.

Kasb sohasi xodimlarining vijdoni baho, buyruq, motiv va ta'sirchanlik xarakterga ega. Kasb sohasi xodimi qachonki to'g'ri xatti-harakat qilganligini, o'zi o'zlashtirgan umuminsoniy va kasb axloqlari talablariga mos ravishda ish tutganligini anglasa, o'z xulqi, xatti-harakati uchun o'zida ichki qoniqish hissi tug'iladi, vijdoni xotirjam bo'ladi. Agar u noto'g'ri harakat qilganligini, axloq talablarini buzganligini tushunsa, ayniqsa biron bir kasal odamning bevaqt o'limiga sababchi bo'lgan bo'lsa qattiq vijdon azobiga tushadi.Shunday qilib, vijdon xatti-harakatni ma'qullab yoki qoralab, baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi.Vijdonning baholash xarakteri naqadar odil, xolis bo'lishi ko'pjihatdan kishida ob'ektivlik hissining, adolat sari intilishning, haqiqatga bo'lgan muhabbatning, xushniyatlilikning o'sganligiga bog'liq. Vijdon qachonki axloqiy xatti-harakat qilishgaundasa, u buyruqxarakteriga ega bo'ladi va faol hisoblanadi,agar kishini axloqqa zid xatti-harakat qilishdan faqat tiyishbilangina cheklansa, sust hisoblanadi. Vijdonning faol yoki sust bo'lishi Kasb sohasixodimining tarbiyasi va xarakteriga bog'liq.

Kasb sohasi xodimining vijdon amri biror xatti-harakatdan oldin uni oqlab, amalga oshishiga ruhlantirishi yoki unga qarshi chiqishi ham mumkin. Bu holda ularning vijdoni motiv xususiyatiga ega bo'ladi. Vijdonning buyurish xarakteri uni xatti-harakatlarni tanlash vositasiga aylantiradi.

Kasb sohasi xodimlariningvijdoni axloqiy hissiyot tarzida ham namoyon bo'ladi. Uning ta'sirchanxarakteri pushaymon bo'lish, uyalish yoki axloqiy xotirjamlik, axloqiy qoniqish hissida ifodalanadi. Ta'sirchan kechinmalar kishini faoliyatga undaydi, ular fidokorona xatti-harakatlarning sababi bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Kasb sohasi xodimlariningvijdon amri xalqni doimo odamlarning dardiga davo topishga undagan.

Vijdon kategoriyasi barcha boshqa axloqiy prinsiplar va normalar bilan aloqadordir. Vijdon tushunchasini tilga olmasdan, yaxshilik, adolat, baxt, insoniylik haqida gapirib bo'lmaydi. Vijdon insonning faqat o'ziga, o'z xatti-harakatlariga nisbatangina emas, balki boshqa kishilarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda etadi. Kimningki manfaatlari, xalq,

Vatan manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, unda jamiyat oldidagi burch hissi, uni bajarish uchun axloqiy mas’uliyat hissi, ya’ni vijdon hissi teran rivojlangan bo‘ladi. Kishi qanchalik vijdonli bo‘lsa, u ijtimoiy burchni shunchalik chuqurroq anglaydi va shunchalik faolroq bajaradi.

Burch bilan vijdon chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, vijdonning o‘ziga xos xususiyatlari bor. U murakkab psixologik hodisa bo‘lib insonning ichki dunyosi bilan burchga nisbatan ko‘proq bog‘liq va tashqaridan turib nazorat qilishni deyarli talab etmaydigan sohaga mansubdir: u muayyan vaziyatda jamoattchilik fikri bormi-yo‘qmi, bundan qat’i nazar harakat qiladi, ya’ni unda sub’ektiv moment ob’ektiv momentga qaraganda ustunlik qiladi. Burch esa o‘zining ob’ektiv namoyon bo‘lish zaruriyatiga ko‘ra hamisha jamoattchilik bisotiga aylanuvchi muayyan harakatlar, xulq-atvorlarni nazarda tutadi, ya’ni «burch» tushunchasida shaxsning faqat o‘z-o‘ziga emas, balki, eng avvalo, jamiyatga, axloqqa nisbatan munosabati yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, vijdon hissi hamisha juda chuqur anglab olingan bo‘ladi, burch esa ba’zan tashqi tazyiq ta’sirida, ya’ni chuqur anglab yetilmasdan ham bajarilishi mumkin. Xullas,kasb sohasi xodimlarining xatti-harakatlarini oldindan ko‘rsatuvchi normativ kategoriya bo‘lgan burchdan farqli o‘laroq, vijdon yorqin ajralib turadigan emotsional[127] baho kategoriyasidir.

Vijdonning tarkibiy tuzilishi, *birinchidan*, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, erishgan muvaffaqiyatlardan o‘zini yo‘qotmaslik, ichki qoniqish hosil qilish, *ikkinchidan*, o‘z shaxsiy manfaatlaridan kechib, o‘zini jamiyat manfaatlariga baxshida etish kabi tuyg‘ularni qamrab olganligini ko‘ramiz.

Vijdon insonning faqat o‘ziga, o‘z xatti-harakatlarigagina emas, balki boshqa kishilarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda etadi. Zero, Kasb sohasi xodimlarining manfaatlari ona-Vatan manfaatlari bilan bog‘liq ekan, ularning axloqiy mas’uliyat hissi tobora rivojlana boradi.

Kasb sohasi xodimlarining vijdoni – bu ko‘pgina axloqiy xastaliklar: sovuqqonlik, aldash, qo‘pollik qilish, ikkiyuzlamachilik, maqtanchoqlik, behayolik, safsatabozlik, ko‘zbo‘yamachilik kabi illatilarga qarshi immunitet hisoblanadi. Demak, xodim qanchalik vijdonli bo‘lsa, o‘z kasbiy burchini shunchalik chuqurroq anglaydi va faolroq bajaradi.

Jahonga mashhur mutafakkirlar vijdon haqida shunday deganlar:

– Dilimizda yashaydigan qonun vijdon deb ataladi. Vijdon aslida xatti-harakatlarimizning shu qonunga muvofiq kelishidir. (I.Kant)

[127] *Ҳис, туйғу, ҳиссиёт, руҳий (ички) кечинма*

– Vijdonning buyuk qudrati bor: gunohsizni har qanday qo'rquvdan forig' etgani holda va gunohkorning tasavvurida u o'zi loyiq bo'lgan hamma jazolarni muttasil tiklagani holda, ikkovini ham baravar hayajonga solib turadi. (Sitseron)

– Vijdonimiz, agar uni o'zimiz nobud etmagan bo'lsak, pokiza hakamimizdir. (O.Balzak)

– Orqangda ayblaring bo'lmasa – sof vijdonga egasan. (Goratsiy)

– Agar miriqib uxlayman desang, o'rningga sof vijdon bilan yot. (B.Franklin)

– Vijdon faqat jinoyat va pastkashlik tufayligina siyqalashadi. (J.Lametri)

– Jazo berilmagan joyda vijdon azobi boshlanadi. (K.Gelvetsiy)

– Jinoyatchilarda qolgan yagona fazilat vijdon azobidir. (F.Volter)

– Yaxshi odam ushbu dunyoni tark etsa-da, biroq u tirik hisoblanadi. YOmon odam tirik bo'lsa-da, baribir o'lik qatoridadir. (Muhammad Zehniy)

– Qonunlar qonuni vijdondir (A.Lamartin),

– Oliy hukm vijdon hukmidir (V.Gyugo)

7. Hayotning ma'nosi. *Kasb sohasi xodimlari hayotining ma'nosi deb ularning o'z oldiga qo'ygan maqsad va niyatlariga, ularni amalga oshirish uchun qiladigan xatti-harakatlarining majmuiga aytiladi.*

Kasb sohasi xodimlari hayotining ma'nosi jamiyatdagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar uyg'unligi darajalari bilan belgilanadi.Bunda ob'ektiv omillarga:

– aholining moddiy farovonlik darajasi;

– xodim oilasining moddiy jihatdan yetarli darajada ta'minlanganligi;

– huquq, burch, vazifa, majburiyatlarining qonun bilan kafolatlanganligi;

– jamiyatda adolatli huquq tizimining mavjudligi va boshqalar kiradi.

Sub'ektiv omillarga xodimlarning:

– mavjud jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarini idrok yetishi;

– davlatning maqsad va vazifalarini anglab etishi;

– mutasaddi rahbarlarning turmush tarzi haqidagi tushunchalari;

– boshqalarning ishga va hayotga bo'lgan munosabatlaridan chiqargan xulosalari;

– o'z kasbiga bo'lgan sadoqati;

– mavjud jamiyat haqidagi tasavvurlari va boshqalar kiradi.

Ana shu omillarning mutanosib yoki nomutanosibligi kasb sohasi xodimlari hayotini ijobiy yoki salbiy tomonga burib yuborishi mumkin. Zero, ona - Vatanga sadoqat bilan o'zbek xalqining sog'lig'ini saqlash, tinch-osuda yashashini ta'minlash kasb sohasi xodimlarining burchi ekan, ular hayotining ma'nosi aql-idrokni ishga solib mehnatkash xalqimizning moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash yo'lida o'zini baxshida etishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Yuqorida zikr qilingan axloq kategoriyalaridan tashqari, «baxt», «iymon», «adolat» kabi kategoriyalar ham mavjud.

Kasb sohasi xodimlarining kasb etikasi kategoriyalari o'zaro aloqada, bog'lanish va rivojlanishdadir.

7-§. Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan muomala qilish madaniyati

1. Muomala madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari. Har bir qit'a, mamlakat, hudud, viloyat,shahar,tuman,qishloq va ovullarda shu joyning tabiatiga moslashgan odamlar yashaydi. Shunga ko'ra, ***aholi*** *deb ma'lum bir hududda – shahar, viloyat, tuman va mamlakatda – istiqomat qilayotgan odamlar majmuiga aytiladi.*

Aholi o'zining tarkibiy tuzilishi bo'yicha nihoyatda xilma-xil kishilardan tashkil topgan bo'lib, ular yoshi bo'yicha – katta va kichik; kasb-kori buyicha – dehqon, ishchi, ziyoli, tadbirkor, biznesmen, harbiy; jinsi bo'yicha – erkak va ayol; axloqiy xislatlari bo'yicha – yaxshi va yomon; estetik jihati bo'yicha – go'zal va xunuk kabi turlarga bo'linadi. *Kasbiy soha xodimlari* ham ana shu aholi tarkibiga kiradi hamda aholining tinchligi va sog'ligini,boshqa ko'pgina manfaat va ehtiyojlarini ta'minlovchi qatlam a'zolari hisoblanadi.

2. Kasbiy soha xodimlari madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari

Kasbiy soha xodimlari xizmat vazifalarini bajarish chog'ida aholining turli qatlamlari bilan muomalada bo'ladilar. Ma'lumki, muomala har qanday odam, jamiyat faoliyatining zaruriy va umumiy sharti, har tomonlama rivojlanishining muhim omili, ongli odamni tabiatdan ajratib turuvchi mezonlardan biridir. Shunday ekan, kasbiy soha xodimlarining aholi bilan bo'ladigan muomalasi ham o'z ob'ekti va predmetiga ega.

Kasbiy soha xodimlari faoliyatidagi aholi bilan bo'ladigan muomala ob'ektlarini quyidagilar tashkil qiladi: (Sog'liqni saqlash soha xodimlari misolida)

– fuqarolarning erkinligi, qadr-qimmati, hayoti va sog'lig'iga ta'sir qiluvchi narsa va hodisalar;

– sog'lig'idan shikoyat qilayotgan barcha fuqarolar;

– aholining turmush sharoitini yaxshilashga javobgar bo'lgan mutassadilar;

– tan jarohatini olgan jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar;

– kasalliklarning oldini olish va ochishda sidqidildan yordam beruvchilar;

– bevosida kasal bo'lmagan, ammo o'zlarining shaxsiy yumushlari bilan, ya'ni har xil tibbiy ko'rikdan o'tish orqali sog'lig'i haqida ma'lumot olish uchun kelgan fuqarolar;

– sog'lig'i va boshqa har xil masalalar bo'yicha murojaat qilgan chet el fuqarolari.

Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan bo'ladigan muomala madaniyati deb ularning shaxslar, oilalar, mehnat jamoatlari, ijtimoiy guruhlar, har xil jamoatt va davlat tashkilotlari, muassasalari, xorijiy davlat fuqarolari bilan bo'ladigan hamda qonun, farmon, nizom va buyruqlardagi axloqiy va huquqiy normalar, prinsiplar bilan tartibga solingan axloqiy-estetik, huquqiy munosabatlar tizimiga aytiladi.

Muomala juda murakkab jarayon bo'lib, odamlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlari, aloqalari yig'indisidan tashkil topadi. Muomalada barcha madaniyat turlarining botiniy va zohiriy xususiyatlari mujassamlashadi. Shu sababli uni tarixiy vorisiylik talablari darajasida shakllantirish Kasbiy soha xodimlarining ichki va tashqi madaniyat uyg'unligini, mushtarakligini ta'minlaydi.

Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan bo'ladigan muomala madaniyatining shakllari juda ko'p bo'lib, ular ichida uchtasi alohida ko'zga tashlanib turadi:

1) xulq-atvor madaniyati;

2) tashqi ko'rinish madaniyati;

3) nutq madaniyati.

Muomala madaniyati shakllarining barchasi bir vaqtning o'zida har bir odamda ichki mazmun va mohiyat, tashqi ifoda hamda ularning mushtarakligi yoki mushtarak emasligi tarzida sezilib turadi. Binobarin, muomala madaniyati uch tarkibiy qismdan iboratdir:

1) fe'l-atvorning ichki mazmuni va mohiyati;

2) yurish-turishning tashqi ifodasi;

3) ular o'rtasidagi uyg'unlik va mutanosiblik darajalari.

Xulq-atvorning ichki mazmuni va mohiyatini shaxs axloqiy-huquqiy va estetik ongining rivojlanish darajasi tashkil etsa, tashqi ko'rinishini ularning sintezi bo'lgan estetik did, fahm-farosat belgilaydi. Har ikkisining uyg'unligi va mushtarakligi esa kasbiy soha xodimlarining yuksak

madaniyat sohibi ekanligidan darak beradi. Shuning uchun ham kasbiy soha xodimlari yurtimizda aholining sog‘ligini saqlash orqali tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashni oliy maqsad deb hisoblaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga qatiy rioya qiladi va ularning hayotga tatbiq etilishini ta’minlaydi. Kasbiy soha xodimi o‘z xalqiga sadoqati, kasbiga fidoyiligi, mustaqil fikrlashi, izlanuvchanligi va intiluvchanligi bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Kasbiy soha xodimlari o‘zining ma’naviy va ma’rifiy etukligi, yuksak siyosiy ongi, madaniyati, yurish-turishi, kiyinishi, muomalasi, axloq-odobi bilan yosh avlod qalbida o‘zlariga nisbatan havas uyg‘otishga intiladi. SHuni unutmaslik kerakki, kasbiy soha *xodimlarining*yuksak madaniyat sohibidir. Uning yuqori darajada tarbiyalanganligi – aytgan so‘zining ustidan chiqishi, fidoyiligi, qo‘l urgan ishini o‘z vaqtida, puxta va tezkorlik bilan bajarish qobiliyatlariga, sodir etilgan voqeani aniq tahlil etish va to‘g‘ri qaror qabul qilish, vazminlik, mardonavorlik, turli xavf-xatarlar, haqoratlardan esankirab qolmaslik sifatlariga, shaxsiy xulq-odobi bilan obro‘-e’tibor qozonib, qarindosh-urug‘lari, farzandlari hamda mahalladoshlariga o‘rnak bo‘lishi kabi fazilatlarida ko‘rinadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan talablarga rioya qilish har qanday murakkab masalaning yechimini osonlashtiradi va atrofdagilarga ijobiy ta’sir etadi.

Ulug‘ ajdodlarimiz o‘zlarining hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda muomala odobi-madaniyatining umumiy qoidalarini ishlab chiqqanlar. Bu qoidalar kasbiy soha xodimining aholi bilan qiladigan muomalasining ajralmas qismi bo‘lishi tabiiydir.

3. Muomala madaniyatining umumiy qoidalari. Muomala madaniyatining umumiy qoidalari quyidagalardan iborat:

1. Odob va ehtiyot bilan muomala qilishdan hamma maqsadlar ro‘yobga chiqadi, yopiq eshiklar ochiladi. Muloyimlik bilan aytilgan so‘zlar ko‘ngilga rohat baxsh etadi. Ochiq yuz va shirin so‘zlik do‘stlik va muhabbatga dalil bo‘ladi. Shuning uchun hamma bilan odobga rioya etib muomala qiling, ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘ling.

2. Bir narsadan xafalanib, achchig‘ingiz kelib turgan vaqtda hech kim bilan so‘zlashmang, g‘azabingiz bosilguncha sabr qiling. Odamlarning kamchiliklarini kechiring, har ishda fikr qilish va e’tibor berishni unutmang.

3. Odamlarga aralashmay bir chetda turmang. Kim uchrasa, tekshirmay-netmay darhol og‘iz-burun o‘pishib do‘st bo‘lib ketmang. Har ishda hur fikrli, to‘g‘ri so‘zli bo‘ling, tilingiz va dilingiz bir bo‘lsin.

4. Qo‘pol kishilarning muomalasiga yaxshi muomala bilan javob qaytaring. Kishilarga qilgan muomalangiz siz ulardan kutgan muomaladan har holda yuqori darajada bo‘lishiga harakat qiling.

5. O‘zingizdan kichiklarni xo‘rlamang, aqlingiz va martabangiz bilan maqtanmang, balki o‘z martabangiz va boshqalarning martabalarini yaxshi tushunib, har kimning o‘ziga munosib muomala qiling.

6. Hamsuhbatingiz go‘zal muomala qilishini istasangiz, avval o‘zingiz unga go‘zal muomala qiling: «Odamlar meni yoqtirmasalar, yoqtirmay qo‘ya qolsinlar, [illegible] ishim bor», demasdan, balki ular bilan do‘st bo‘lish yo‘llarini izlang, kishilarga muhabbatli bo‘lishingiz sababli kamolotingiz hech bir zoe ketmaydi.

7. Xalqqa yaxshi ishlarni so‘zlang, yomon ishlarni yashiring. Odamlar bilan muomalangiz shunday bo‘lsinki, hayotingizda sizni sevsinlar, vafot etganingizdan keyin sizni eslab, qayg‘ursinlar.

8. Juda zarur bo‘lib qolgan vaqtdagina xalqdan yordam so‘rash mumkin, boshqa vaqtda xalqning ustiga yuk bo‘lib turish to‘g‘ri emas. SHuning uchun xalqqa o‘z og‘irligingizni solmang, uning moliga tama qilmang, o‘zingiz ishlang, mehnat qiling, rizq-ro‘zingizni o‘z mehnatingiz bilan yarating.

9. Bir ishni bajarishga ahd qildingizmi, so‘zingiz ustidan chiqing, va’dangizga vafo qiling. Kim bilan do‘st bo‘lsangiz, do‘stlikka sodiq bo‘ling. Odamlarning shodliklaridan shodlaning, qayg‘ularidan qayg‘uring. O‘zingiz yoqtirmagan narsani boshqalarga ravo ko‘rmang.

10. Jamiyat manfaati uchun xizmat qiling, bu yo‘lda sarflagan vaqtingizga achinmang, chunki boshqalarni sevish, ularga yordam berish, kamchiliklarini tugatish ulug‘lik va odamiylik belgisidir.

11. *Odob ila sen ulug‘lik olgin,*
Hikmat gavharin qo‘yningga solgin[128].

I. Kasbiy soha xodimlarining xulq-atvor madaniyati. *Xulq-atvor* kishining muomalasi va ruhiyatidagi, fe’li va xatti- harakati, odatlari, qiliqlaridagi xususiyatlarning majmui hisoblanadi. U ma’lum bir jamiyat, ijtimoiy guruh a’zolarining ijtimoiy hayot sharoitida shakllangan amaliy faoliyati, xatti-harakatlari, odamlar bilan munosabatlarining umumiy tartib qoidalaridan iborat bo‘ladi.

Kasbiy soha xodimlari kasb axloqi madaniyatini ichki va tashqi madaniyatga bo‘lib o‘rganamiz. *Ichki madaniyat* deganda xodim ma’naviy olamining boyligi, dunyoqarashining keng va sog‘lomligi, mustaqil va

[128] Донишмандлар одоб- ахлоқ тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – Б.20.

ijodiy fikrlay olishi, axloqan pokligi, his-tuyg‘ularining boy va faolligi, didining yuksakligi tushunilsa; *tashqi madaniyat* deganda xodimning xatti-xarakati va yurish-turishi, gapirish va kiyinish madaniyati tushuniladi. U xodimning hayo, ibo, nazokat, andisha kabi bir qator ijobiy fazilatlarini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy soha xodimlarining **aholi bilan bo‘ladigan xulq-atvor madaniyati.** Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan bo‘ladigan xulq-atvor madaniyati muomala madaniyatining uzviy qismi va aniq ifodasi hisoblanadi.

Yaxshi yoki yomon xulqlar ajratiladi.

Yaxshi xulqlar jumlasiga poklik, sobitqadamlik, rostgo‘ylik, shijoat, hayo, matonat, diyonat, qanoat, qadr-qimmat, farosat, itoat, kamtarlik, muloyimlik, xayrixohlik, munislik, kechirimlilik, sadoqat va boshqalar kiradi.

Yomon xulqlarga xudbinlik, hasad, xushomadgo‘ylik, jahl, g‘azab, g‘iybat, takabburlik, tamagirlik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, tuhmat, baxillik, ochko‘zlik, adovat, haqorat, nifoq, zulm, yalqovlik, qo‘rqoqlik va boshqalar kiradi.

Kasbiy soha xodimlarining xulq-atvor madaniyati, shubhasiz, xodimlarning aholi bilan bo‘ladigan munosabatlarida faqat yaxshi xulqlarini namoyon qilishlari, yomon xulqlarini yashirishlari, ularni yo‘q qilish uchun kurashishlarini taqozo etadi.

Odamlarning xulq-atvor madaniyati to‘g‘risida «Hadis»larda shunday deyilgan: *«Sizlar odamlarni mol-dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki ochiq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin», «Mo‘minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir»*[129], – deyilgan. Shunday ekan, xalqning osoyishtaligi, tinchligi, baxt-saodati yo‘lida xizmat qilayotganlar o‘zlarining yaxshi xulqlari bilan xalq orasida obro‘ topishlari suv va havodek zarur.

Kasbiy soha xodimlarining xulq-atvor madaniyati xushmuomalalik, madaniyatlilik, odob kabilarda namoyon bo‘ladi.

Xushmuomalalik deb kasbiy soha xodimlarining aholi bilan ularning izzat-hurmatini joyiga qo‘yib, samimiy, sipolik va muloyimlik, kamtarlik, xayrxohlik, xolislik bilan qiladigan axloqiy xatti- xarakatlari majmuiga aytiladi.

Odob (arabcha «adab») deganda, jamiyatda, kishilar bilan muomalada o‘zini tuta bilish; axloq, tarbiya va uning normalari tushuniladi.

---

[129] Ахлоқ– одобга оид ҳадис намуналари. – Т.:Фан, 1990. – Б.34,52.

Kasbiy soha xodimlarining odobi deb ularning o‘zaro va fuqarolar bilan qiladigan muomalalarida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor qoidalariga aytiladi.

Kasbiy soha xodimlarining muomala odobi deb ularning aholi bilan bo‘ladigan munosabatlarida, ya’ni jamiyatda, kishilar bilan bo‘ladigan muomalada o‘zini tuta bilish, yaramas ishdan, yomon so‘zdan nafsini tiyish, o‘zining ham, o‘zganing ham izzatini, obro‘sini saqlashga qaratilgan axloqiy xatti-harakat normalariga aytiladi. Xodim qanchalik adabli bo‘lsa, uning ham, Kasbiy soha tizimining ham obro‘si shunchalik baland bo‘ladi. *«Adab, – donolar aytganidek, – aqlga nur bag‘ishlovchi va salomatlikning sarmoyasidir. Adabsizlik esa qonun va axloqqa teskari bo‘lgan yaramas ishlar va yomon so‘zlarni hech uyalmasdan ishlatmoq va so‘zlamoqdir»*[130]. Demak, odobliga yo‘ldosh bo‘lib, odobsizdan yiroq yurmoq kerak.

Odobning asosiy shakli *sulukat* hisoblanadi. *«Sulukat» arabchadan kelgan so‘z bo‘lib, kishilar bilan muomalada, jamiyatda o‘zini tutish tarzi; xulq-atvor, qiliq ma’nosida qo‘llaniladi (masalan, sulukati sovuq odam yoki sulukatli (qilig‘i yoqimli) odam kabi)*[131].

Kasbiy soha xodimlarining sulukati – bu ularning aholi bilan bo‘ladigan muomalada o‘zini yaxshi tuta bilishi asosida yoqimli qiliqlar qilishidir. Uning o‘zaro va boshqa kishilar bilan muomala qilishida ko‘rinadigan odobining tashqi shakli, ifodasidir. Demak, har kimning o‘ziga xos xulq-atvori uning sulukatida o‘z aksini topgan bo‘ladi. Bu o‘rinda etika va estetikadagi yaxshilik va go‘zallik o‘zaro qo‘shilib ketadi, ularning uzviy birligi Kasbiy soha xodimlarining odobi va sulukati orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham «Estetika – kelajak etikasi», «Odob – chiroyli estetika» deydilar.

Kasbiy soha xodimlarining odobi jamiyatda o‘rnatilgan tartib-intizom, qonun-qoidalar orqali amalga oshirilishi bilan boshqalarning xulq-atvorlaridan ajralib turadi.

Madaniyatlilik deb kasbiy soha xodimlarining aqliy va ijtimoiy kamolotining rivojlanganligini, uning jamiyat va davlat manfaatlariga mos kelishini ifodalovchi ichki va tashqi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma’naviy qarashlari va xatti-harakatlarining muayyan tizimiga aytiladi.

Yuksak madaniyat sohibi bo‘lgan xodimgina xalqdan o‘zini ajratmaydi, uning diliga oshno, dardiga malham bo‘ladi.

---

[130] Донишмандлар одоб– ахлоқ тўғрисида. – Т.:Ўқитувчи,1986. – Б.49.

[131] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.586.

Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan bo'ladigan xulq-atvor madaniyatining muhim qismlaridan biri salomlashish odobi hisoblanadi.

1. Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan salomlashish odobi qoidalari. Salomlashish odoblilikning oliy belgilaridan biri hisoblanadi. Salomlashishning ko'rinishlari turli xil xalqlarda turlicha bo'ladi. Masalan, Yevropa xalqlari – bosh kiyimini echib-kiyib, hindistonliklar – kaftlarini juftlab va peshonasining o'rtasiga tegizib, afg'onlar – o'ng qo'lini manglayiga tegizib va ta'zim qilib, tibetliklar esa bir-birlariga qarata tillarini chiqarishib salomlashadilar.

O'zbeklarda salomlashishning yigirmaga yaqin shakllari mavjud. Masalan, qo'l berib ko'rishish, ikki qo'llab ko'rishish, quchoqlashib ko'rishish, qo'lni ko'krakka qo'yib salomlashish, qo'l qovushtirib salomlashish, ta'zim ila salomlashish, o'pishib ko'rishish, erkak bilan ayollarning salomlashishi, kattalarning yoshlar bilan ko'rishishi, ayollarning o'zaro ko'rishishi va hokazo.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan salomlashishning quyidagi umumiy qoidalari mavjud:

1. Tanish yoki notanish kishilar bir-birlari bilan uchrashib qolsalar, salom berib ko'rishishlari lozim. Tanishlar salomlashibgina qolmay, bir-birlarining hol-ahvollarini so'rashlari kerak. Bu xususda hadislarda: *«Salom — Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, unga bari bir, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi»*[132], – deyilgan.

2. Salom to'liq ravishda *«Assalomu alaykum»* deb berilishi hamda *«Va alaykum assalom»* deb alik olinishi kerak. «Assalomu alaykum» – «Sizga tinchlik va omonlik bo'lsin», «Va alaykum assalom» esa «Men xam sizga tinchlik va omonlik tilayman» degan ma'noni anglatadi. Boshqacha tarzda «Alaykum salom», «Salom berdik», «Salom o'rtoqlar!», «Assalom», «Alaykum salom», «Alaykum» deyish to'g'ri emas. Ayniqsa *«Assam alaykum»* deyish mutlaqo noto'g'ri, chunki bu yahudiy tilida *«Sizga o'lim bo'lsin»* degan ma'noni anglatadi.

3. Salom ko'pchilik turgan joyda bir kishi uchun emas, hamma uchun beriladi. Jamoat jam bo'lib turgan joyda har bir kishi uchun alohida salom berilmaydi. Barcha uchun «Assalomu alaykum» deyiladi va iloji bo'lsa, barcha bilan qo'l berib ko'rishib chiqiladi.

[132] Қаранг: Ахлоқ– одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990. – Б.100.

4. Har bir odam o‘ng qo‘lini chap ko‘ksiga qo‘yib, boshini biroz egib, ochiq, chehra bilan salom berishi, salom hamma uchun bir xilda va nihoyatda samimiy bo‘lishi kerak.

5. Salom eshitilarli qilib, muloyimlik va xushxulqlik bilan beriladi. Kar yoki gung odamlarga salom berish yoki ularning salomiga alik olish imo- ishora bilan bildiriladi.

6. *«Yurib ketayotganga – otliq, o‘tirganga – yurib ketayotgan, ko‘pchilikka – ozchilik salom bersin! Salomga alik olsa-ku yaxshi, bordiyu olmasa, salom beruvchiga zarari yo‘q»*[133]. Xuddi shuningdek, yoshlar keksalarga, ayollar erkaklarga, sog‘lom kishilar bemorlarga, farzandlar ota-onalariga, ukalar akalariga, singillar opalariga, shogirdlar ustozlariga birinchi bo‘lib salom beradilar.

7. Qo‘l berib ko‘rishish chog‘ida, eng avvalo, qo‘lni yoshi katta odam, ayol kishi, mansabdor shaxs uzatishi kerak, ulardan oldin qo‘l uzatish salomlashish odobi doirasiga kirmaydi.

8. Qo‘l berib salomlashgan vaqtda bir-birlarining qo‘llarini qattiq siqib, silkitib, qo‘lini og‘ritib yoki qo‘lining uchinigina berib qo‘yish, ayniqsa kaftini barmoq bilan qitiqlab qo‘yish o‘ta odobsizlik hisoblanadi. Ayol kishilar bilan so‘rashganda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salomlashgan ma’qul.

Quyidagi hollarda salomlashish kerak emas: 1) namoz o‘qiyotgan yoki tilovat qilib qur’on o‘qiyotgan shaxs bilan;

2) va’z aytayotgan notiq va xutba o‘qiyotgan imom bilan;

3) hojatxonada, hamomda, yuvinmagan paytda;

4) badmast, bezori, aqldan ozgan kishilar bilan;

5) taom eyish vaqtida, agar taom og‘izda bo‘lsa;

6) qizg‘in suhbat yoki savol-javob ketayotgan anjumanga kech qolib kirganda.

Kasbiy soha xodimlari salomlashishning yuqorida bayon etilgan umuminsoniy qoidalari bilan birga, quyidagi maxsus salomlashish qoidalarini ham bilmoqlari va ularga amal qilmoqlari kerak.

1. Har bir kasbiy soha xodimi fuqarolarga murojaat qilganda, eng avvalo, «Assalomu alaykum» deb aytishi va ya’ni o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, o‘zini tanishtirishi kerak.

2. Har qanday fuqaro kasbiy soha xodimiga murojaat etib, salom berganida, u, albatta, «Va alaykum assalom» deb alik olishi, o‘zini tanishtirishi va uning so‘zini diqqat bilan eshitib, tegishli javob qaytarishi lozim.

---

[133] Ахлоқ– одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990 – Б.100., *Бобомуродов Аҳмаджон.* Ислом одоби ва маданияти. – Т.: Чўлпон, 1995.– Б.11.

3. *Kasbiy soha* xodimlari xizmat burchini o‘tayotgan vaqtda murojaat qilgan fuqarolar bilan salom-alik qilar ekan, ular bilan o‘pishib ko‘rishishlari tavsiya etilmaydi. Bu axloq normalari talablariga zid hol hisoblanadi.

4. Xizmat xonasiga tashrif buyurgan har qanday fuqaro bilan o‘rnidan turib, iloji bo‘lsa unga peshvoz chiqib salomlashish va ketayotganida eshikkacha kuzatib qo‘yish lozim. Albatta, salom-alik moddiy boylik keltirmaydi, u insonning odamiyligi, fahm-farosati, madaniyati va axloq-odobidan dalolat beradi. «Salom» – muqaddas so‘z. Salom berish – qarz, alik olish – farz. Bu qoidaga rioya etmaslik haqoratga tengdir.

2. Kasbiy soha xodimlarining fuqarolar va mansabdor shaxslar bilan muomala qilish madaniyati. *Kasbiy soha xodimlarining fuqarolar:* korxona, muassasa, jamoatt tashkilotlari, jamoatt birlashmalarining rahbarlari va boshliqlari bilan muomala qilish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, Hukumati, Kasbiy soha vazirligi qabul qilgan qonun, farmon, nizom va buyruqlarda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ularni og‘ishmay bajarish har bir xodimning burchidir.

Xodimlar xizmat jarayonida va xizmatdan tashqari paytda so‘zlashish odobiga, muomala madaniyatiga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash, fuqarolar bilan xushmuomalada bo‘lish insonning mavqeyini yuksaltiradi, uning jamoatdagi va jamiyatdagi o‘rni hamda obro‘yini belgilab beradi. Ayni vaqtda kasbiy soha xodimi fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo‘lishga, ularning ish bilan bog‘lik chigal savollariga va boshqa holatlar bo‘yicha murojaatlariga to‘g‘ri va aniq javob berishga, arz va shikoyatlarini imkoni boricha qonuniy hal qilishga intilishi lozim.

Kasbiy soha xodimlari fuqarolar bilan bo‘lgan muloqotlarida xushmuomala bo‘lishlari kerak. Xushmuomalalik ichki madaniyatning tashqi ko‘rinishidir. Uning asosini insoniylik tashkil etadi

Fuqarolar bilan bo‘ladigan xushmuomalalik quyidagi xulq-atvor qoidalarini qamrab oladi:

– odamlarga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lish;

– insonga xayrxohlik, e’tiborlilik;

– muhtojlarga o‘z vaqtida yordam berish, ularning hojatini chiqarish;

– iltifot bilan joy ko‘rsatish, joy berish, oldinga o‘tkazib yuborish, yordamlashish;

– odamlarni o‘zining xatti-harakatlari bilan noqulay axvolga solib qo‘ymaslik, agar shunday holat yuz bersa, tezlikda kechirim so‘rash va o‘z xatti- harakatini tuzatish;

– keksalarga, bolalarga va ayollarga alohida iltifot ko‘rsatish va hokazo.

Xodim ushbu talablarga o‘zining butun faoliyati davomida, ya’ni fuqarolarni qabul qilganida, kuzatib qo‘yganida, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun xizmatga chiqqanida, kasallarni davolaganda, tashxis qo‘yish chog‘ida, xizmatdan tashqari vaqtlarda, transportda, teatrda, kino zallarida, uyda va jamoatt joylarida amal qilishi kerak.

Kasbiy soha xodimlari fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqotlarida, albatta ziyrak, hushyor, mehribon bo‘lishlari lozim.

Ziyraklik deb fuqarolarning orzu-umidlarini, aniq istak-xohishlarini, dilidagi gaplarini tezda fahmlab shunga javoban axloq qoidalari talabi asosida harakat qilishga aytiladi. Ziyraklikning asosini sezgirlik va hushyorlik tashkil etadi. Ziyraklik axloq va nafosatning fuqarolar dilidagini ilg‘ash, ularning qalbidan joy olishga xizmat qiladigan sirli kalitidir.

Fuqarolarga ziyraklik, ya’ni sezgirlik bilan yaxshi muomala qilish, ularning dardiga quloq solish, savollariga shirinsuxanlik bilan javob qaytarish, ularga yordam qo‘lini cho‘zish, umuman, yaxshi munosabatda bo‘lish oxir-oqibatda barcha mushkul muammolarni hal etishda yordam beradi. Bu esa kasbiy soha xodimlarining aholi o‘rtasidagi obro‘ini yanada oshiradi. Xalqning ularga nisbatan ishonchi kuchayadi va u kasbiy soha xodimlarining ishonchli tayanchiga aylanib boradi.

3. Kasbiy soha xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish vaqtida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati qoidalari. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1.Kasbiy soha xodimlarining har biri xizmat burchini bajarayotgan vaqtda, eng avvalo, o‘zining jamiyat boshqaruvining vakili ekanligini, odamlar uning xulq-atvori, xatti-harakati, so‘z ohangi va tashqi qiyofasiga qarab butun shifokorlarga baho berishlarini, uning obro‘si davlatning obro‘si ekanligini unutmasligi kerak.

2. Fuqarolar kasbiy soha xodimlariga yoki, aksincha, xodim fuqarolarga murojaat qilganida, salomlashish qoidalariga to‘liq rioya qilmog‘i, ya’ni salomlashib, o‘z lavozimi, unvoni, ismi-sharifini aytishi, so‘ngra murojaat qilish sababini va maqsadini diqqat va sabr-toqat bilan eshitishi hamda bayon qilishi kerak.

3. Fuqarolarning barcha savollari, murojaatlariga xushmuomalalik bilan javob berishi, yotig‘i bilan tushuntirishi, ularga iloji boricha yordamlashi, iloji bo‘lmaganda maslahatlar berishi zarur.

4. Kasbiy soha xodimi fuqarolarga murojaat qilganida ularning talabiga binoan o‘zining ismi-sharifi va ish joyini aytishi hamda xizmat guvohnomasini ko‘rsatishi shart.

5. Xodim fuqarolar bilan muomala qilayotganida quyidagilar taqiqlanadi:

– dimog‘dorlik, manmanlik, qo‘pollik qilish;

– kinoyali, dag‘al tarzda tanbeh berish;

– gapirganda inson qadr-qimmatini tahqirlovchi piching va qochiriq so‘zlar ishlatish;

– fuqarolarga asoslanmagan ayblar qo‘yish;

– tahdid soluvchi hamda fuqarolarning qadr-qimmati va shaxsini tahqirlovchi boshqa xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yish.

6. Har bir xodim xizmat vazifasini bajarish vaqtida u yoki bu fuqaroning hujjatlarini tekshirib ko‘rishga zarurat sezsa, uning oldiga kelib, salomlashishi, o‘zini tanishtirishi, vaqtini olganligi uchun uzr so‘rab, muloyimlik bilan hujjatlarini ko‘rsatishini talab qilishi kerak. Hujjatlar to‘g‘ri bo‘lsa, xodim hujjatni egasiga tezlikda qaytarishi, minnatdorchilik bildirib, xayrlashishi kerak. Bunda, albatta, hushyorlikni unutmaslik kerak.

7. Xodim fuqarolarning shaxsiy bahs-munozaralariga aralashmasligi lozim. Fuqarolarning hayotiga xavf soladigan, jamoat tartibining buzilishiga olib keladigan, jarohat keltirib chiqaradigan bahs-munozaralar bundan mustasnodir.

8. Har bir xodim har qanday fuqaroning hurmat-izzatini o‘rniga qo‘yib gaplashishi shart. Bunda kichik va o‘rta maktab yoshidagi bolalarga «sen», kattalarga esa «siz» deb murojaat qilish kerak.

9. Xodim xizmatdan tashqari hollarda murojaat qilgan fuqarolarga nisbatan befarq bo‘lmasligi, ularga to‘g‘ri maslahatlar berib, savollariga javob topish uchun imkoni boricha amaliy va ma’naviy yordam ko‘rsatishi zarur.

10. Qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularning murojaatlariga quloq solish, yordam berish, oilalarida bo‘layotgan har xil ko‘ngilsizliklarning oldini olishda yordamlashishi lozim.

11. Ta’til vaqtida, xizmatdan bo‘sh vaqtlarida xalq bayramlarida, milliy marosimlar, to‘y-hasham, ta’ziya va boshqalarda ko‘pchilik qatori qatnashishi kerak.

4. Kasbiy soha xodimlarining chet el fuqarolari bilan muomala qilish madaniyati. Kasbiy soha xodimlari chet el fuqarolari bilan muomala qilganda quyidagi qoidalarga amal qilishlari zarur:

1. Har bir xodim xorijiy mamlakatlar fuqarolari bilan faqat o'ziga berilgan vakolatlar doirasida munosabatga kirishishi va xizmat vazifasini, burchini bajarishda ona Vatanimizning posboni ekanligini unutmasligi kerak.

2. Xorijiy mamlakat fuqarolari savol bilan yoki yordam so'rab murojaat qilganlarida, ularning so'zlarini diqqat bilan eshitish, ularga o'z vakolatlari doirasida yordam berish, boshqa hollarda tegishli muassasalarga murojaat qilishni tavsiya etish lozim. Ayniqsa, davlat tilini bilmaydigan xorijiy fuqarolarning so'zlarini diqqat bilan eshitib, ularni tushunishga harakat qilish va shunga yarasha, ularni qanoatlantiradigan darajada javob qaytarish zarur.

3. Xorijiy mamlakat fuqarosi arzimagan, kam ahamiyatli kasalliklarga chalingan bo'lsa, unga birinchi tibbiy yordam sifatida masalahatlar berish kerak..

4. Har bir xodim shuni unutmasligi kerakki, diplomatik yoki konsullik hujjatlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakat fuqarolarini o'zboshimchalik bilan davolash taqiqlanadi. Mabodo, ular xasta bo'lsalar ularning familiyasi, ismi-sharifi, diplomatik yoki konsullik hujjatlarining belgi va raqamlari yozib olinib, bu haqda tezlik bilan yuqori turuvchi boshliqlarga yozma ravishda axborot berish kerak.

5. Har bir kasbiy soha xodimi ajnabiy fuqarolar bilan muloqotda bo'lganida o'zining yuksak fazilatlarini namoyon qilishi, xorijlik fuqarolar uning su'ratiga qarab ona Vatanimiz, O'zbekiston xalqi to'g'risida fikr yuritishini zinhor unutmasligi lozim. Buday ishni amalda bajarish kasbiy soha xodimi xorijiy davlat fuqarolari bilan muloqotda o'zini munosib tutishi, vazifasini yuksak mahorat bilan bajarib, respublikamiz sha'ni va mavqeyini baland ko'tarishi, ona Vatani bilan g'ururlanishi, uning uchun har qanday sinov va xizmatga tayyor ekanligini namoyish etadi.

5. Kasbiy soha xodimi fuqarolar xonadonlariga tashrif buyurish madaniyati. Fuqarolarning xonadonlariga kirishga to'g'ri kelganida Kasbiy soha xodimlari quyidagi axloq qoidalarga rioya etishlari kerak:

1. Kasbiy soha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida qonunlarda va yo'riqnomalarda ko'rsatilgan tartibda fuqarolarning xonadonlariga tashrif buyurishlari mumkin.

2. Xonadonga tashrif buyurayotgan xodim bu tashrif uy sohibining qadr- qimmati, qo'ni-qo'shnilari oldidagi obro'si bilan bog'liq bo'lgan katta axloqiy mas'uliyatga ega ish ekanligini unutmasligi kerak. Shuning

uchun ham fuqarolar xonadoniga tashrif buyurganda odob qoidalariga, tashqi ko‘rinish, kiyim-bosh kiyish, tozalik normalariga og‘ishmay amal qilishi zarur.

3. Xonadonga kirishda har bir xodim, eng avvalo, salomlashishi, o‘zini tanishtirishi va tashrifdan ko‘zlagan maqsadini bosiqlik bilan xonadon sohibiga tushuntirishi kerak.

4. Har bir xodim, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26- moddasida ko‘rsatilganidek, «har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega» ekanligini unutmagan holda xonadonga faqat kasalliklarning oldini olish, fuqarolarning hayotini saqlab qolish maqsadida kirishi, bunda ehtiyotkorlik bilan va tez harakat qilib, birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatishlari shart.

5. Yolg‘iz o‘zi yashovchi qariyalar yoki umuminsoniy axloqqa zid harakatlar qilib yashovchi oilalar, qamoq joyidan bo‘shab kelganlarning xonadonlariga tashrif buyurganda nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik bilan ish ko‘rib, ularga diqqat-e’tibor bilan qarash, yordam qo‘lini cho‘zish, qayta tarbiyalab, risoladagi hayot quchog‘iga qaytarish choralarini ko‘rish lozim.

6. Kasbiy soha xodimlarining fuqarolarni qabul qilish madaniyati. Kasbiy soha xodimlarining fuqarolarni qabul qilishi ularning aholi bilan birligini ta’minlovchi omillardan bo‘lib, fuqarolarning savollari, ariza va shikoyatlariga tez va to‘g‘ri javob topish hamda kasalliklarning oldini olish, kasalni davolash,epidimiologik tadbir o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi. Bunda quyidagi qoidalarga rioya etish zarur:

1. Fuqarolarni murojaat etilgan masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish vakolatiga ega xodimlari, boshliqlari qabul qilishi kerak.

2. Fuqarolarni qabul qilish uchun maxsus xona ajratilishi lozim. Ajratilgan xona toza, ozoda, yorug‘, tinch va qulay bo‘lishi, kerakli ko‘rgazmali ma’lumotlar hamda yuksak estetik did bilan jihozlangan bo‘lishi zarur. Qabul qilish uchun yaratilgan shart-sharoit va muhit kasbiy soha xodimlarining madaniyatlilik darajasini ko‘rsatuvchi belgilardan biri ekanligini unutmaslik kerak.

3. Fuqarolarni qabul qilish vaqti aniq belgilangan, kimlar qanday masalalar bo‘yicha qabul qilinishi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Qabul qiladigan xodim doimo maxsus kiyimda (formada) bo‘lishi, o‘zini kamtarona tutishi; fuqarolarga yordam berishga tayyorligi va ularning ishonchini oqlay olishi uning qabulidagi fuqaroga sezilib turishi kerak. Fuqaroda uni qabul qilayotgan xodimga nisbatan ishonch hosil bo‘lishi

zarur. Xodim, shuningdek, tashqi ko‘rinishi orasta bo‘lishi darkorligini unutmasligi lozim.

4. Kasbiy soha xodimi o‘z qabuliga kelgan fuqaroni, u kim bo‘lishidan qat’i nazar, peshvoz chiqib kutib olishi, salomlashishi, o‘tirish uchun taklif qilishi va hol-ahvol so‘rashi lozim. Shundan so‘ng suhbatdosh fuqaroning ismi-sharifi, ish joyi, uy adresi, telefonini so‘rashi va bu ma’lumotlarni tegishli daftar yoki hisob varaqasida qayd etishi, tashrifdan ko‘zlangan maqsadini so‘rashi kerak.

5. Suhbat chog‘ida fuqaroning barcha so‘zlarini diqqat bilan tinglash, gapini bo‘lmasdan eshitish, gapini tugatganidan so‘ng unga noaniq yoki tushunilmay qolgan narsalar to‘g‘risida savol berish kerak. Savol-javob jinoyatchi yoki guvohni so‘roq qilish tarzida bo‘lmasligi, suhbat samimiy, erkin tarzda olib borilishi lozim. Suhbat chog‘ida boshqa odamlar bilan, shu jumladan, telefon orqali so‘zlashmagan ma’qul.

6. Tashrif buyurgan fuqaroning barcha savollariga to‘liq javob berish, javobning tushunarli bo‘lganiga ishonch hosil qilish kerak. Fuqaro javobdan qoniqqan bo‘lsa – unga minnatdorchilik bildirish, qoniqmagan bo‘lsa yuqori tashkilotlarga murojaat qilish tartibini yotig‘i bilan, shoshmasdan, xushmuomalalik bilan tushuntirish zarur. Suhbat tugaganidan so‘ng fuqaroga sihat-salomatlik tilab, xayrlashish va, albatta, kuzatib qo‘yish lozim.

7. Suhbat chog‘ida fuqarolarning murojaatiga aloqador mansabdor shaxslar ishtirok etayotgan bo‘lsalar, ularning barchasini fuqaroga tanishtirish kerak. Bordiyu, suhbatdosh faqat boshliqning o‘zi bilan gaplashish istagini bildirsa, bunga ham imkon berish lozim.

8. Fuqaro bilan suhbat chog‘ida ularga berilayotgan javob aniq va ishonarli bo‘lishi uchun javobni tegishli qonunlar va boshqa normativ hujjatlardan parchalar o‘qib berish orqali asoslash maqsadga muvofiqdir.

9. Suhbat davomida ko‘rilayotgan masala kasbiy soha xodimi rahbarining vakolatiga kirmasa, fuqaroga bu haqda yotig‘i bilan gapirib, kimga murojaat qilishi zarurligi tushuntirib beriladi.

10. Suhbat davomida ko‘rilayotgan masalani hal qilish uchun qo‘shimcha ma’lumot, hujjatlarni ko‘rish yoki muayyan tashkiliy tadbirlar o‘tkazish zarur bo‘lsa, bu haqda suhbatdoshga ma’lum qilinadi va masala hal etilishi lozim bo‘lgan aniq vaqt belgilanadi.

11. Qabulga kelgan fuqaroning ma’lumoti kasalliklarning oldini olishga yoki kasbiy soha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lsa, unga albatta tashakkur aytish kerak.

12. Qabulga mast holda kelgan fuqarolar bilan odatda suhbat o‘tkazilmaydi. Bordi yu u jinoyat yoki boshqa ko‘ngilsiz voqealar sodir

etilayotganligi yoki bunga harakat bo‘layotgani haqida ma’lumotga ega bo‘lsalar, uning so‘zlarini tinglash va tegishli chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

13. Qabulga yozilgan barcha fuqarolar qabul qilinishi shart.

14. Qabul vaqtida tushgan taklif, ariza va shikoyatlar bilan bog‘liq masalalarni tezlikda hal qilishning imkoni bo‘lmasa, ularni umumiy tartibda hal qilib, fuqarolarga bu haqda yozma ravishda ma’lumot berish kerak.

15. Fuqarolarni qabul qilish kasbiy sohining har bir xodimi uchun uning kasbiy, axloqiy va siyosiy etukligi sinaladigan katta imtihon ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur.

II. Kasbiy soha xodimlarining nutq madaniyati. Barcha xalqlar, millatlar o‘z tili va nutq madaniyatiga egadirlar. Til – fikrni ifodalash usuli, muomala vositasi. Til va nutq – bir jarayonning ikki tomoni. Til fikrni ifodalaydi, nutq uni yuzaga chiqaradi. Fikrni so‘zlar orqali boshqalarga bildirish usuli kishilarning nutq madaniyati yoki so‘zlashish uslubi deb ataladi.

Kasbiy soha xodimlarining nutq madaniyati deb ularning o‘z fikrlarini bir-birlariga, fuqarolarga, aholiga til vositasida to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib yetkaza olishlariga aytiladi. Hozirgi kunda kasbiy soha xodimi chiroyli nutq madaniyatiga ega bo‘lishi uchun davlat tilini, o‘zining ona tilini, biron-bir jahon e’tirof etgan tilni ham bilishlari kerak. Bu avvalo o‘zbek tilining sir-asrorlarini bilishdan boshlanadi. Chunki, ***o‘zbek tili – ona tilimiz, ona suti, ona allasi bilan tanimizga kirib keladigan, jon bilan chiqib ketadigan tilimizdir. O‘zbek tilisiz mustaqillik sukunatdir. O‘zbek tili tufayli mustaqillik jarangdordir, u milliy iftixorimiz, g‘ururimiz, shuurimiz, ongimiz, bilimimiz, kelajagimizdir. O‘zbek tili – ilm-ma’rifat, madaniyat, do‘stlik, qardoshlik, birodarlik tilidir. O‘zbek tili ota-bobolarimiz tili, farzandlarimiz tili, davlatimiz tili, uning kelajak istiqboli tilidir. O‘zbek tili – o‘zbeklarning dunyoviy makondagi, zamondagi qalb gavhari, dil izhoridir, mustaqilligimizning tamal toshidir.***

«Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik,– deb yozgan edi I.A.Karimov, – til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir»[134] .

Har bir tilning yozma va og‘zaki shakllari bo‘lgani singari, nutqning ham yozma va og‘zaki turlari mavjud. Yozma nutq – ilmiy, rasmiy,

[134] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – Б.83.

publitsistik va qisman badiiy uslublarda; og‘zaki nutq esa adabiy va so‘zlashuv uslublarida ifodalanadi.

1. Yozma nutq va uning kasbiy soha xodimlarining kasbiy faoliyatida tutgan o‘rni. Yozma nutq kasbiy soha xodimlari faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oddiy bildirgi yozishdan murakkab diagnostika va davolash ishlarini olib borishgacha bajariladigan ishlarni yozma nutqsiz tasavvur qilish qiyin. Donolar, odatda, «Menga yozuvingni ko‘rsat, kimligingni aytib beraman» deydilar. Demak, yozuv odamning fe’lini ko‘rsatuvchi belgilardan biri ekan. Shuning uchun ham kasbiy soha xodimlari, eng avvalo, yozma nutq turlari va qoidalarini puxta egallagan bo‘lishlari lozim.

2. Ilmiy uslub. *Ilmiy uslub deb jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda fikrlarni o‘zbek tilining barcha morfologik va sintaktik qoidalari asosida, ilmiy-hujjat shaklida, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, o‘quv-ilmiy, publitsistik tarzda ifoda etishga aytiladi.*

Ilmiy uslub yozma nutqning boshqa shakllaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) bayon qilinayotgan axborotning ob’ektivligi, aniqligi;

2) bayon qilinayotgan fikrning qisqa va lo‘ndaligi;

3) mantiqiy izchillikning kuchliligi;

4) ma’lumotlarga boyligi;

5) adabiy til qoidalariga qat’iy rioya etilishi, shevachilikning yo‘qligi;

6) fikrni bayon etishda ko‘rgazmali qurollar, ya’ni har xil chizma, ramz va jadvallar ishlatilishi.

Ilmiy uslub, asosan, maqola, monografiya, ilmiy ma’ruza yoki axborot, risola shaklidagi asarlarda qo‘llaniladi.

3. Rasmiy uslub. Bu uslub hozirgi kunda ma’muriy va yuridik ishlarda keng qo‘llaniladigan yozma nutq shakllariga kiradi. Barcha qonunlarning matnlari, farmon, buyruq va qo‘llanmalar, yo‘riqnoma va ruxsatnomalar, bildirgi va bayonnomalar, tushuntirish xatlari, dalolatnomalar, shartnomalar, sudlardagi chiqishlar, xullas, milliy gvardiyada yuritiladigan barcha hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi.

Rasmiy uslub qoidalari quyidagilardan iborat:

1) so‘zlar tartibi grammatika qoidalariga to‘liq asoslangan bo‘lishi kerak;

2) fikr sodda, aniq va qisqa ifodalanishi lozim;

3) matn kasbga doir terminlar asosida bayon qilinishi zarur;

4) jargonlar, og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar ishlatilmasligi kerak;

5) eskirgan so‘z va iboralarni iloji boricha ishlatmaslik yoki o‘rniga qarab ishlatish lozim.

Rasmiy uslubda yozilgan hujjatlar har bir kasbiy soha xodimlarining, qolaversa, butun vazirlikning madaniyat darajasini, professional jihatdan yetukligini, zamon bilan, xalq bilan hamnafas ekanligini ifodalovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

4. Og‘zaki nutq va uning va uning kasbiy soha xodimlari muomala madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. Yuqorida qayd etilganidek, og‘zaki nutq so‘zlashuv uslubi va adabiy uslubda ifodalanadi.

So‘zlashuv uslubi deb kishilarning kundalik hayotda sheva va lahjalarda muloqot qilish usuliga aytiladi. So‘zlashuv uslubida nutq madaniyatining qoida va normalari qat’iy qo‘llanilmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Qarshi, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand shevalari kabi ko‘plab shevalarda so‘zlashadilar.

Adabiy uslub deb adabiy til normalariga qat’iy amal qilishga asoslangan uslubga aytiladi. Adabiy uslubda so‘zlashganda, jumladan, ma’ruza o‘qilganida, rasmiy uchrashuvlar o‘tkazishda til qoidalariga to‘liq rioya etiladi.

Og‘zaki nutq yozma nutqqa qaraganda keng qamrovli bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1) og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi;

2) og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkoni kam bo‘ladi;

3) og‘zaki nutqning o‘ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud;

4) og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o‘ynaydi;

5) og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyati, nutq so‘zlanayotgan vaziyat, so‘zlovchi nutqiy a’zolarining normal va sog‘lomligiga bog‘liq;

6) og‘zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o‘rgatish va o‘rganish ancha qiyin kechadi;

7) og‘zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va sonsanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyat bo‘lib, uning ko‘pgina qirralari turli sharoitlarda o‘zicha kechadi va payqamagan holda beiz yo‘qolib ketadi;

8) kishi so‘zlaganida o‘z nutqiga yozganidagi kabi yetarli e’tibor bermaydi[135].

---

[135] *Кўнгуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё.* Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б.33–34.

Og‘zaki nutq funksional shakliga ko‘ra, so‘zlashuv tilida gapiruvchi shaxslarning, notiqlarning, radio va televideniya suxandonlarining nutqlari hamda sahna nutqlariga bo‘linadi.

5. Kasbiy soha xodimlari nutq odobi qoidalari. Kasbiy soha xodimlarining nutqi, og‘zaki yoki yozma bo‘lishidan qat’i nazar, quyidagi qoidalarga mos kelishi kerak:

birinchidan, nutq mazmunli bo‘lishi, notiqning fikr yuritayotgan mavzuni har tomonlama va chuqur bilishidan darak berishi;

ikkinchidan, adabiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri, har qanday shevachilikdan xoli bo‘lishi;

uchinchidan, aniq-ravshan, qisqa va tushunarli ifodalanishi;

to‘rtinchidan, mantiqiy izchil, sof, keraksiz so‘z va iboralardan xoli bo‘lishi;

beshinchidan, ifodali, ta’sirchan, yorqin, tinglovchida qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi;

oltinchidan, aniq, sodda, go‘zal bo‘lgani holda nutq mavzuiga mos tushishi;

ettinchidan, o‘quvchi yoki tinglovchining ruhiy-ma’naviy holati, yoshi, kasb-kori, jinsi hamda mavjud vaziyatni, davlat tomonidan yuritilayotgan ichki va tashqi siyosatni inobatga olishi kerak.

Kasbiy soha xodimlarining nutq madaniyatini o‘stirish vositalariga quyidagilar kiradi:

– badiiy asarlarni muntazam ravishda o‘qib borish va ular yuzasidan fikr yuritish;

– o‘zbek tilining grammatik qonun-qoidalarini puxta o‘rganish;

– har xil lug‘atlar bilan muntazam ravishda ishlash;

– gazeta va jurnallar, ayniqsa ularda e’lon qilingan hikoya, maqol va latifalarni o‘qib borish;

– hikmatlar, pandnomalarni qunt bilan o‘qish;

– xizmatdoshlar oldida og‘zaki nutq so‘zlash, har xil axborotlar berib turish;

– badiiy havaskorlik to‘garaklarida qatnashib, she’r, monolog, qasidalarni o‘qish va h.k.

Kasbiy soha xodimlari aholi bilan muloqotda quyidagi nutq odobi talablarini unutmasliklari kerak:

1. Fuqarolar bilan so‘zlashganda xodim shirinsuxan, muloyim va ezgu niyatli bo‘lishi zarur. Chunki shirin so‘z bilan odamlarni birlashtirish, achchiq, haqoratomuz so‘zlar bilan esa yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin.

2. So‘zlaganda imo-ishoralarni kamroq ishlatish, ayniqsa qo‘lni ko‘tarib, do‘q-po‘pisa qilib, minbarni mushtlab, qo‘lidagi narsalarni otib gapirmaslik kerak. Suhbat nihoyatda samimiy, xayrxohlik ruhida, odamoxunlik bilan tugatilishi lozim.

3. Fuqarolarning so‘zlarini, garchand mazmuni sizga ma’lum yoki yoqmayotgan bo‘lsa ham, diqqat va chidam bilan eshitish kerak. Bu haqda Alisher Navoiy shunday deganlar: *«Fano ahliga ko‘p so‘zlamoq maqbul emas, ko‘p eshitmoq matlub va yaxshidir. Eshitmoq kishini to‘latadi, aytmoq bo‘shatadi»*[136].

4. So‘zlashish chog‘ida o‘zi, oilasi to‘g‘isida, shaxsiy g‘am-tashvishlari haqida so‘z ochmaslik, oila sirini saqlash kerak.

5. So‘zni qadrlash, hurmat qilish, tilni tiyish, sergap va vaysaqi bo‘lmaslik, har xil haqoratomuz so‘zlarni aytmaslik lozim. Chunki, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, *«ko‘p so‘zlovchi valdiroq tunda tong otguncha huriydigan itga o‘xshaydi. Nodonning dahshatga soluvchi aljirashiga tomoq qirmog‘i – eshakning o‘rinsiz hangramog‘i kabidir»*[2].

6. G‘iybatdan, tuhmatdan, mish-mishlardan tiyilish, bo‘shog‘izlik qilmasdan, suhbat sirini saqlay bilish kerak.

7. Fuqarolar bilan bo‘ladigan munosabatda *«til aql tarozisidir»* degan naqlni yodda tutishi kerak.

8. Xodim, egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, jamoatsida va fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqotlarda nutqi, xatti-harakatlari, xulqi va fe’l- atvorini nazorat qilib borishi, faqatgina o‘z gapini ma’qullashga urinmay, boshqalarning so‘zlariga ham quloq solishga odatlanishi kerak.

So‘zning qudrati va odamlarning notiqlik madaniyati to‘g‘risida turli xalqlarning mutafakkirlari shunday deganlar:

– So‘zdan qudratliroq narsa yo‘q. So‘z yovuzlarni yakson etadi. So‘z bo‘lmasa, dunyo dag‘al kuchlar qo‘lida qolar edi. (A. Frans)

– So‘z bilan ifodalangan har qanday fikr ta’sir ko‘lami tugamaydigan kuchdir. (L. N. Tolstoy)

– So‘zni ko‘ngilda pishirmaguncha tilga keltirma,

– Har nekim ko‘ngilda bo‘lsa - tilga surma. (Alisher Navoiy)

– Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi .(R. Emerson)

– ehtiyot bo‘lib gapirish notiqlikdan ham ustundir. (F. Bekon)

– YAxshi so‘zla, ammo mahmadona bo‘lma, ezmalik kaltabinlikdir. (Kaykovus)

---

[136] Аждодлар ўгити: ҳикоятлар ҳикматлар, тамсиллар. – Т.: Чўлпон, 1990. – Б.115.

[2] Ўша манба – Б.118.

– eng yaxshi til - tiyilgan til, eng yaxshi nutq - puxta o'ylangan nutq. (L. N. Tolstoy)

– Og'ziga kelganni demak – nodonning ishi,

– Oldiga kelganni yemak – hayvonning ishi. (Alisher Navoiy)

– Donolar so'ziga quloq ilmasang,eng nodon sendirsan – bilgil, bilmasang. (Abulqosim Firdavsiy)

III. Kasbiy soha xodimlarining tashqi ko'rinish madaniyati.

1. Tashqi qiyofa va uning ahamiyati. *Tashqi qiyofa* shaxsning ichki madaniyatidan kelib chiquvchi jismonan sog'lomlik, tananing bekamu ko'stligi, xatti-harakatlarning yengil va nafisligi, kiyim-bosh va aft-angorning pokiza va ozodaligi hamda o'zaro mutanosibligi, aniqrog'i tana va kiyimning o'zaro uyg'unligidir.

Inson tashqi qiyofasining ko'rkamligini belgilaydigan omillar quyidagilardan iborat:

– jismonan sog'lomlik va inson tanasining benuqsonligi;

– qaddi-qomatning tik va ixchamligi, xarakatchan va xushbichimligi;

– yurish, qadam tashlashning to'g'ri, chaqqon, yengil va nafisligi;

– tananing kiyim, ust-bosh bilan mutanosibligi;

– aft-angor va kiyim-boshning pokizaligi, ozodaligi va h.k.

Odamning tashqi qiyofasiga qarab, uning ichki dunyosi, kasbi-kori, yoshi, fe'l-atvori, jamiyatda tutgan o'rni, tarbiya ko'rgan-ko'rmaganligi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Tashqi qiyofa uchta muhim unsurdan tashkil topadi:

– jismoniy sog'lomlik va inson tanasining bekamu ko'stligini o'zida mujassamlashtirgan jismoniy tarbiya;

– kiyim kiyish;

– shaxsiy gigiena va kosmetika, zeb-ziynat taqish madaniyati.

Kasbiy soha xodimlarining tashqi ko'rinishini ifodalovchi muhim narsa uning salomatligi, jismonan baquvvatligi, tanasining chiroyliligidir.

Inson o'zining tashqi qiyofasini go'zal qilish uchun avvalo, sport bilan shug'ullanishi kerak. Sport odamni kuchli, chaqqon, shijoatli, qo'rqmas, chidamli qilib tarbiyalashi bilan birga, tanasiga go'zallik ham baxshida etadi. Inson tanasidagi go'zallik esa uning yurishida, qadam olishining yengilligi va nafisligida namoyon bo'ladi.

Yurganda beso'naqay qadam tashlash, oldinga yengashib yoki g'o'dayib yurish yoxud ikki yoqqa shox tashlab, qiypanglab yurish Kasbiy soha xodimlari uchun juda xunuk holat hisoblanadi: bu odamlarning nafratini qo'zg'atishi mumkin.

Kasbiy soha xodimlarining tashqi ko‘rinish madaniyati yuqori darajada bo‘lishi ularning shaxsiy gigiena hamda pardoz qoidalariga amal qilishlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Jismoniy jihatdan sog‘lom va go‘zal bo‘lish uchun har bir kasbiy soha xodimi bir qancha qoidalarga e’tibor berishi kerak.

Birinchidan, shaxsiy ozodalik, ya’ni badan, yuz-qo‘l, soch va shu kabilarni toza tutishi kerak. Buning uchun har bir xodimning shaxsiy buyumlari – alohida sochig‘i, dastro‘moli, sovuni, tarog‘i, erkaklarning ustarasi, ayollarning atir-upasi, tirnoq olgichi, oynasi va boshqa narsalari bo‘lishi lozim. O‘zgalarning narsalaridan foydalanish odobga ham, gigiena qoidalariga ham to‘g‘ri kelmaydigan xunuk ish hisoblanadi.

Ikkinchidan, yuz insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi ko‘zgu ekanligini unutmagan holda, uni har doim yuvib turish, soqolni olish, mo‘ylabni tartibga keltirish, yuzning tiniqligini saqlash, ajinlar bosishi, yara-chaqalar chiqishiga qarshi davolash hamda peshona va burunni tirishtirib yurmaslik choralarini ko‘rish lozim. Umuman olganda, hammaning nigohi tushib turadigan, forma kiygan xodimning yuzi xushro‘y, yoqimli bo‘lishi va undan «nur yog‘ilib turishi» kerak. Shuni unutmaslik lozimki, yuzdagi xunuklik, badbasharalik odamlarni qochiradi.

Uchinchidan, tishning, og‘iz bo‘shlig‘ining tozaligiga e’tibor berish lozim. Chunki tishdagi illatlar va og‘iz bo‘shlig‘idagi kasallik insondan yoqimsiz hid kelishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun kasal tishlar davolanishi, yo‘q tishlar o‘rniga sun’iy tishlar qo‘yilishi kerak. Tishdagi jilo odamning istarasini issiq qilib ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, soch odam husnining bezagi hisoblanadi. Sochning chiroyli qilib olinganligi va taralganligi Kasbiy soha xodimlari tashqi madaniyatidan dalolat beruvchi ko‘rsatkichlardan biridir. Soch – husn va ayni paytda, boshni issiq-sovuqdan saqlovchi vosita. Yuvib-taralmagan soch xizmat vazifasini bajarishga beparvolikni, o‘ziga va tevarak-atrofdagilarga hurmatsizlikni aks ettiradi. Shuning uchun ham har bir Kasbiy sohaxodimlari soch-soqoli hamma vaqt batartib bo‘lishi kerak. Bu kasbiy burch talabidir.

Beshinchidan, qo‘llar yaxshi parvarish qilinishi, tirnoqlar o‘z vaqtida olib turilishi lozim. Ovqatlanish, ovqat pishirish oldidan va ovqatdan keyin qo‘llar albatta yuvilishi kerak. Ayniqsa, hojatxonadan chiqqanda va ko‘chadan kirganda qo‘llarni yuvish ozodalik va axloq-odob jihatidan muhim burchdir. Kasbiy soha xodimlari «tahoratli» yursa, nur ustiga a’lo nur bo‘lur edi.

Oltinchidan, kasbiy soha xodimlari qo‘llariga, bo‘yinlariga turli taqinchoqlar taqmasligi, yaltiroq kiyimlar kiyib, ularni har xil bezaklar

bilan bezab tashlamasliklari kerak. Ayniqsa, badanga har xil tatirovkalar chizdirish qat'iyan man etiladi.

Yettinchidan, odam tanasida uning tashqi go'zalligiga rahna soluvchi biron o'zgarish sodir bo'lsa, uni albatta davolash, tibbiy kosmetika vositasida tuzatish chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

Sakkizinchidan, erkak xodimlar sochlarini bo'yashlari mumkin, ammo yuzni yaltiratadigan upa-eliklardan foydalanishlari odobdan emas. Upa-elik surtish, lab, qosh va kipriklarni bo'yash faqat ayol xodimlarga ruxsat etiladi.

2. Kiyinish madaniyati va uning xususiyatlari. Kiyim insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi turmush ziynati hisoblanib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

– odam tanasini boshqalar nigohidan yashirib turish;

– turli tabiiy sharoitlardan – qishda – sovuqdan, bahor va kuzda – namdan, yozda esa quyosh nuri, chang va hasharotlardan himoya qilish;

– yurish-turish va mehnat qilishda qulaylikni ta'minlash hamda Ichki ishlar;

– ko'rkamlik, go'zallik bag'ishlab, odamni latofatli va nafosatli qilib ko'rsatish.

Kasbiy soha xodimlari *kiyinish madaniyati* deb ularning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va kasbiy soha vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus libos kiyish va farqlovchi belgilar taqib yurish qoidalariga og'ishmay amal qilish asosida o'z qadr-qimmatini saqlash va butun kasbiy soha xodimlarining obro'-e'tiborini himoya qilishga qaratilgan axloqiy-estetik xatti-harakatlari tizimiga aytiladi.

Kiyim kiyish madaniyatini yaxshi o'zlashtirish uchun, avvalo, kiyim turlarini farqlay bilish kerak. Kiyimning quyidagi turlari mavjud:

– ichki va ustki kiyim, oyoq va bosh kiyimlari;

– erkaklar, ayollar, bolalar yoki yoshlar kiyimlari;

– kunduzgi, kechki, tungi kiyimlar;

– uyda va ko'chada kiyiladigan kiyimlar;

– qishda, yozda, bahor va kuzda kiyiladigan kiyimlar;

– kasb-korga bog'liq kiyimlar (korjoma), maxsus (formali) kiyimlar va boshqalar.

Kasbiy soha xodimlari kiyimlarining quyidagi turlari mavjud:

– kundalik ish kiyimi (hamma mavsumlarga mo'ljallangan);

– operatsiyalarni bajarish vaqtida kiyiladigan maxsus kiyimlar;

– bayram, tantana (namoyish) va boshqa kasb an'analarini o'tkazish, nishonlash vaqtida kiyiladigan kiyimlar va h.k.

Kasbiy soha xodimlarining egnidagi kiyimlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

birinchidan, xodimning bo'y-bastiga mos kelishi;

ikkinchidan, nihoyatda toza va dazmollangan, har qanday ortiqcha ip va matolardan xoli bo'lishi;

uchinchidan, tugmalari qadalgan bo'lishi, metall elementlari toza va yarqirab turishi;

to'rtinchidan, davlatimizning ramziy belgilari – gerb, bayroq, yulduz va boshqalar aks etgan farqlovchi belgilar joyiga qadalgan bo'lib, aniq ko'rinib turishi, odamlar nigohini o'ziga tortishi, ularda faxr-iftixor hissini uyg'otishi;

beshinchidan, hukumat nishonlarini (orden va medallarini) aks ettiruvchi belgilar kundalik ish kiyimlariga, ularning o'zlari esa tantanada kiyiladigan kiyimlarga taqib yurilishi;

oltinchidan, oyoq kiyimi nihoyatda toza bo'lishi, yaltillab turishi;

yettinchidan, kiyim-bosh mavsumga, bajarilayotgan ish turiga qarab va kiyish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda kiyilishi kerak.

Kasbiy soha xodimlarining maxsus kiyim-kechagini kiyganda va uni kiyish bilan bog'liq holda quyidagilar qat'iyan man etiladi:

– qimor o'ynash, spirtli ichimliklar iste'mol qilish;

– to'y-hasham, restoranlarga borish, u yerda raqsga tushish;

– kiyimlarni aralashtirib kiyish;

– mavsumga mos bo'lmagan kiyimlar kiyish, kiyimni iflos tutish;

– davlat belgilari va boshqa farqlovchi belgilarni noto'g'ri taqish, ularga nisbatan hurmatsizlik qilish;

– kiyimlarni o'zgalarga berish, bosh kiyimsiz, iflos oyoq kiyimi, ayniqsa, ta'mirlanmagan, moylanmagan poyafzalda aholi oldida, ish joyida yurish;

– cho'ntaklarni turli narsalar bilan to'ldirish yoki qo'lni cho'ntakka tiqib yurish;

– xizmat vaqtida va xizmat kiyimida spirtli ichimlik iste'mol qilish;

– xizmat kiyimidan o'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilgan holda shaxsiy maqsadlarda foydalanish va kiyim kiyish qoidalariga zid boshqa xatti-harakatlarni sodir etish.

Yuqoridagilarni xulosalab, shuni qayd etish mumkinki, kasbiy soha xodimining tashqi ko'rinishi, *birinchidan*, uning ichki madaniyati, ya'ni tirishqoqligi, xizmatga shayligi, intizomliligi, o'z kasbi va atrofdagilarga munosabatini bildiruvchi; *ikkinchidan*, fuqarolar va hamkasblarining ishonchiga sazovor qiluvchi; *uchinchidan*, insonga estetik zavq beruvchi;

to'rtinchidan, atrofdagilarga axloqiy-ruhiy ta'sir ko'rsatib, ularni tarbiyalovchi omillardan hisoblanadi.

8-§. Kasbiy soha xodimlarining axloqiy-kasbiy buzilishi va uni bartaraf etish yo'llari.

1. «Axloqiy-kasbiy buzilish» tushunchasi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni bunyod etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish ishlari oson kechmasligi tabiiy. Bu jarayonning borishi, bir tomondan, mulkni xususiylashtirish ishlarini tez va soz o'tkazib, tejamkorlikka, sifatga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, odamlarda davlat mulkchilik hukmronligi yillarida shakllangan boqimlik psixologiyasini tugatish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengishni ham talab qiladi.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda bir qator iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yetishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lishi aniq. Ana shu yetishmovchilik va ziddiyatlar Kasbiy soha tizimidagi ba'zi bir irodasi sust, e'tiqodi yo'q xodimlarni kasbiy tanazzulga duchor etishi mumkin.

Xo'sh, axloqiy-kasbiy buzilish deb nimaga aytiladi va u qanday sohalarda ko'rinadi?

Kasbiy soha xodimlarining axloqiy-kasbiy buzilishi deb ularning qonun hujjatlari, nizom va buyruqlarda belgilab qo'yilgan axloqiy normalar, professional burch va vazifalarni bajarishda o'zlarining shaxsiy manfaatlarini jamiyat, davlat, xalq manfaatlaridan ustun qo'yib, suiiste'mol qilishlari, pora olish, kalondimog'lik, tamagirlik, qo'pollik qilish, jinoyatni hisobdan yashirish kabi qonunga xilof xatti-harakatlarining majmuiga aytiladi.

Kasbiy soha xodimlarining kasbiy buzilishini, uning kelib chiqish sabablarini tugatish yo'llarini tadqiq etish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki kasbiy soha xodimlari davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rar ekanlar, ularning har bir xatti-harakati odamlarning diqqat-e'tiborida turadi. Bitta *kasbiy soha* xodimining qilgan xatosi, qo'polligi yoki pora olishi butun davlat tizimini xalq oldida abgor qilishi, boshqa halol ishlayotgan xodimlarning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham kasbiy buzilishning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

2. Axloqiy-kasbiy buzilishning turlari. Kasbiy soha xodimlari kasbiy buzilishining ikki turi mavjud: birinchisi – yosh xodimning tajribasizligi, qonun va buyruqlarni bilmasligi, qiyin sharoitlarda o'zini

yo‘qotib qo‘yishi tufayli bo‘ladigan kasbiy buzilish; ikkinchisi – davlat idoralari sohasida ishlab, tajriba orttirgan xodimlarning qonunlardagi kamchiliklarni anglab, hamma narsani tushungan holda, boylik orttirish maqsadida, ongli ravishda axloqiy yomonlikka yo‘l qo‘yishi asosida yuzaga keladigan kasbiy buzilish.

Kasbiy soha xodimlarining aholining turli qatlamlari bilan munosabatda bo‘lar ekan, bir tomondan, davlat hokimiyatining vakili sifatida ularga o‘z ta’sirini o‘tkazsa, ikkinchi tomondan esa, uning o‘zi ham o‘shalarning ta’siri ostida bo‘ladi. Xuddi shu joyda kasbiy buzilish kelib chiqishi mumkin. Chunki *kasbiy soha xodimlari* davlat hokimiyatining vakili sifatida fuqarolarga nisbatan o‘ziga berilgan vakolatlar chegarasidan chiqib ketib, lavozimini suiiste’mol qilishi; boshqa tomondan esa, o‘zgalarning ta’siri ostida bo‘lgan xodim ularning bergan va’dalari, poralari va boshqa xizmatlariga ishonib, o‘z xizmat burchiga xiyonat qilishi mumkin. Ikkala hol ham kasbiy buzilishga olib keladi.

Kasbiy soha xodimlarining kasbiy tanazzulga uchrashlariga ularning atrofini urab turgan odamlarning ta’siri ham sabab bo‘ladi. Odam o‘ldirishlar, bosqinchilik, o‘g‘rilik, ig‘vo, tuhmat, urush-janjallar *kasbiy soha xodimlarining* ma’naviy-ruhiy holatiga salbiy ta’sir qilib, oxir-oqibatda uning xulqi o‘zgarishiga, kasbiy jihatdan buzilishiga olib kelishi mumkin. Undagi bunday buzilish ochiq yoki yopiq shakllarda namoyon bo‘ladi.

Masalan, kasbiy soha xodimlarining bemorlarni davolashda qo‘llaniladigan usul va vositalaridagi xatolar, ayniqsa, qonundan chetga chiqib ketgan holda zo‘rlik ishlatish, urish yoki tibbiyot vositalaridan noto‘g‘ri foydalanishlari ham kasbiy buzilishning ko‘rinishlari hisoblanadi.

Xizmat jamoatlarida boshliq va bo‘ysunuvchilar, kattalar bilan kichiklar o‘rtasidagi ma’naviy-axloqiy muhitning qoniqarli emasligi ham kasbiy tanazzulga olib keladigan sharoitlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar xushomadgo‘ylik, mansabparastlik, shaxsiyatparastlik asosida qurilgan ekan, u albatta kasbiy buzilishni keltirib chiqaradi. Demak, kasb madaniyatining past darajada rivojlanganligi tufayli, ko‘pgina xodimlar kasbiy tanazzulga yuz tutadilar.

Shunday qilib *kasbiy soha xodimlarining* axloqiy ongida, xatti-harakatlarida yuzaga kelgan buzilishlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

– toshbag‘irlik, odamlarga yuzaki munosabatda bo‘lish, g‘amxo‘rlik va rahm-shafqatning yo‘qligi;

– subutsizlik;

– g'irromlik, tamagirlik, vijdonsizlik, shaxsga befarqlik, kasbiga sovuqqonlik bilan qarash;

– axloq prinsiplari (insonparvarlik, jamoatchilik, vatanparvarlik) va normalarini (burch, vijdon, mas'uliyat, sha'n va qadr-qimmatlar) bila turib atayin buzish;

–kasbiy bilimlarining past darajada ekanligi;

– odamlarga muntazam ravishda shubha bilan qarash, o'ch olish payida bo'lish, zahrini sochish;

-o'ziga berilgan vakolatlardan mutlaqo noto'g'ri foydalanish, lavozimini suiiste'mol qilish va h.k.

3. Axloqiy buzilish sabablari. O'zbekiston xalqi ezgu niyatlar bilan ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik va birodarlikka asoslangan jamiyat qurayotgan vaqtda uning bag'rida paydo bo'lib qolayotgan ba'zi bir illatlarni ham uchratamiz. Xo'sh, bunday salbiy hollarning kelib chiqish sabablari nimada? Bunga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, bozor iqtisodiyotini noto'g'ri tushunish, uni har xil yo'llar bilan boylik orttirishdangina iborat deb o'ylash, ana shu maqsadni amalga oshirish uchun ayrim badnafs fuqarolarning qonunga, umuminsoniy axloqqa zid harakatlar orqali mol-dunyo orttirishga intilayotganliklari kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonish etishmaydi, yetarlicha murabbiylik qilinmayapti, ularning tashabbusini bo'g'ish hollari uchramoqda. Bu axloqiy yomonlik to'g'risida I.A.Karimov: «Men bir narsaga qattiq ishonaman: yoshlarda shijoat bor, yangilikka intilish bor, ixtiro qilishga, kashfiyot yaratishga ishtiyoq bor. Lekin ularning oldida katta bir to'siq turibdiki, bu to'siqni ba'zan zambarak o'qi bilan ham otib qulatib bo'lmaydi. Bu to'siqning nomi byurokratiya, tamagirlik, mahalliychilik, urug'chilik.

O'sib kelayotgan yoshlarga quloq solishi, madad berishi lozim bo'lgan ko'p mansabdorlarda insof, diyonat yo'qligi ham shu to'siqning bir ko'rinishidir. Bunday odamlarning niyati aniq – besh-o'n yil amallab o'tirgan mansabini yo'qotmasa, mo'may maoshi va xufiya «shapka»sini olib tursa, marra uniki – u yog'i pensiya. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh shiorlaridan biri – yurtim deb, elim deb yonib yashash undaylarning tushiga ham kirmaydi.

Oqibatda yangilik kurtakligidayoq nobud bo‘ladi va uni boshlagan yosh tadbirkorning xafsalasi pir bo‘ladi, taraqqiyoti, intilishi so‘nib qoladi»[137], deb haq gapni aytgan edi.

Uchinchidan, qonunlarning o‘z vaqtida qabul qilinmasligi yoki qabul qilingan qonunlarning o‘z vaqtida hayotga tatbiq etilmasligi, natijada fuqarolarning axloqiy ongida ikkilanishlarning paydo bo‘lishiga hamda huquqiy madaniyatning shakllanishi past darajada qolib, ularning shu asosda har xil huquqbuzarliklar, qonunbuzarliklarni sodir etishlari.

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablar, albatta, *kasbiy soha xodimlarining* xizmat faoliyatiga, turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Bular Kasbiy soha xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining tashqi sabablari, xolos. Uning tub sabablarini esa *kasbiy soha xodimlarining* xizmat faoliyatini tashkil etishda, boshqarishda, xizmat jamoatlarida axloqiy-ruhiy-ma’naviy muhitda, tarbiyada yo‘l quyilgan kamchiliklardan izlash kerak.

Kasbiy soha xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishining ob’ektiv va sub’ektiv sabablari bor.

4. Axloqiy-kasbiy buzilishning ob’ektiv sabablari. Ular quyidagilardan iboratdir:

– professional faoliyatning xususiyatlari, ya’ni qiyin va xavfli sharoitlarda, favqulodda holatlar va ekstremal vaziyatlarda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, o‘limga tik qarab, jismoniy va ruhiy jihatdan zo‘riqib ishlashlari, ma’naviy va ruhiy jihatdan o‘z qobiliyatini tiklab olish uchun vaqt etishmasligi;

– a’naviy xastalar,buzg‘unchilar dunyosi bilan muntazam ravishda aloqada bo‘lish, ularning salbiy ta’sirini sezish va oqibatda ma’naviy tanazzulga tomon og‘ib ketish holatlarining mavjudligi;

– ishni tashkil qilish va boshqarishda xato va kamchiliklar, ya’ni hisobotlarning takomillashmaganligi, xizmat sohalari o‘rtasida birgalikda harakat qilishning yo‘qligi, miqdor ketidan quvish, haybarakallachiliklarning hamon uchrab turishi;

– birga ishlayotgan ba’zi xodimlarning o‘z xizmat vakolatlarini suiiste’mol qilishlari, ishga sovuqqonlik bilan yondashishlari, odamlarga nisbatan befarqlik, yuzaki munosabatda bo‘lishning yangi kelgan yoki vijdonli, mehnatkash va intizomli xodimga salbiy ta’siri;

---

[137] *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг сиёсий– ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // *Унинг ўзи.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 37.

– rahbar xodimlar va bevosita boshliqlar tomonidan nazorat qilish ishlarining muntazam ravishda tashkil qilinmaganligi yoki to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– operativ-texnika bilan yetarlicha ta’minlanmaganlik, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanmaganlik;

- oilaviy munosabatlardagi va turmush sharoitidagi qiyinchiliklar;

– kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va xatolar;

– xodimlarni tarbiyalash ishlarini amalga oshirishda hisob-kitobdan adashishlar, ya’ni yuzaki yondashuvlarga yo‘l qo‘yishlar;

– miqdor ortidan quvish, ushbu ko‘rsatkichlarning *kasbiy soha tizimining*o‘zlarida shakllanishi va qayd etilishi hamda ularning xastpo‘shlanishi va h.k.

5. Axloqiy-kasbiy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi sub’ektiv sabablar. Bular quyidagilardan iboratdir:

1) xodimlarning xizmat-kasb sohasidagi bilim darajasi nihoyatda pastligi va o‘z kasb mahoratini oshirishga urinmasliklari, o‘z ishiga tanqidiy nazarning yo‘qligi, to‘plagan arzimas tajribasiga haddan tashqari ishonish va h.k.;

2) xizmat vazifasini bajarishga ma’naviy-ruhiy jihatdan tayyor emaslik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, bo‘shanglik, spirtli ichimliklar ichishga ruju qo‘yganlik va h.k.;

3) xizmat jamoatsidagi axloqiy-ma’naviy-ruhiy muhitning yomonligi, shaxs va jamoat o‘rtasidagi manfaatlar va maqsadlarning mushtarak emasligi;

4) xodimlar axloqiy, xizmat va irodaviy tayyorgarligining yetarli darajada emasligi;

5) xizmat jamoatsi manfaatlarini mansabparastlik, guruhbozlik manfaatlaridan ajrata olmaslik;

6) xodimlarning o‘z ish vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qila olmasliklari, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlardan xalos bo‘lish usullarini bilmaslik, ishdagi va oiladagi tashvishlardan o‘zini xoli qilolmaslik va h.k.

Kasbiy buzilishning ob’ektiv va sub’ektiv sabablari o‘rtasida qat’iy chegara yo‘q. Bir joydagi ob’ektiv sabab ikkinchi joyda sub’ektiv bo‘lishi va, aksincha, bir joydagi sub’ektiv sabab boshqa bir joyda ob’ektiv bo‘lishi mumkin.

Kasbiy soha xodimlarining sub’ektiv kamchiligi boshqa xodimlarga, qolaversa, boshqa fuqarolarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, ularning ongini zaharlashi mumkin.

6. Axloqiy-kasbiy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omillar. Kasbiy buzilishiga olib keluvchi ob'ektiv va sub'ektiv sabablardan tashqari bir qancha omillar ham mavjud. Bu omillar quyidagilardan iborat:

***Yuridik omillar*:**

– jinoyat-protsessual qonunlarning nomukammalligi;

– operativ ish boshqaruvidagi noaniqliklar;

– xodimlarni boshliqlarning noto'g'ri buyruqlaridan himoya qiluvchi yuridik kafolatning yo'qligi.

***Iqtisodiy omillar*:**

– aniq iqtisodiy rag'batlantirishning yo'qligi;

– ish haqini to'lashdagi asossiz tenglashtirishlar;

– faxriy yoki maxsus unvonlar berish darajasining samarali emasligi;

– ish vaqtida daromadni oshirish imkonining yo'qligi;

– texnika bilan yetarli darajada ta'minlanmaganlik;

– moddiy-texnika bazasining yo'qligi yoki eskirganligi.

***Tashkiliy omillar*:**

– kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar;

– rahbarlar tomonidan nazoratning yo'qligi;

– kasb-kor faoliyatining o'ziga xosligi;

– ishni baholash mezonlarining takomillashmaganligi, hisob-kitob ishlarining yaxshi tashkil qilinmaganligi;

– xodimlarning malakasini oshirishga e'tibor berilmasligi;

– rahbarlarning ishga uning mohiyatini tushunmasdan asossiz ravishda aralashishlari.

***Intellektual omillar*:**

– xodimlar bilimining yetishmasligi;

– huquqiy, axloqiy, siyosiy va umumiy kasbiy madaniyatning shakllanmaganligi yoki etarli rivojlanmaganligi;

– qo'l ostidagilarni va o'z-o'zlarini tarbiyalashdagi kamchiliklar.

***Ijtimoiy-ma'naviy-ruhiy omillar*:**

– rahbarlarning qo'polligi va o'zini boshqara olmasligi;

– ijtimoiy guruhbozlik, milliy biqiqlik;

– o'ziga haddan tashqari ishonish;

– takabburlik va mansabparastlik;

– o'zini o'zi nazorat qilishning past darajada ekanligi.

7. Kasbiy buzilish shakllari. Kasbiy buzilishlarining tuzilishini kuzatadigan bo‘lsak, uning *ochiq*, ya’ni ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan va yopiq, ya’ni ko‘zga tashlanib turmaydigan shakllari ham mavjudligini ko‘ramiz.

Kasbiy buzilishlarning ochiq shakli. Kasbiy buzilishning *ochiq,* ko‘zga tashlanadigan shakllari quyidagilardan iborat:

– xodimning jinoyatchiga, huquqbuzarlik va tartibbuzarlikda ayblanib davolanayotgan fuqarolarga nisbatan rahmsizlik qilish, g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘lish, ya’ni urish, haqorat qilish, mansabini suiiste’mol qilish, xizmat axloqi prinsip va normalarini qo‘pol tarzda buzish;

– haddan tashqari shubhalanish, ayblashga moyillik, o‘z-o‘zini tanqid qilishning yo‘qligi;

– oddiy fuqarolar bilan ishlashda qonun yo‘li bilan ruxsat etilmagan usul va vositalarni ishlatish, ya’ni «vosita maqsadni oqlaydi» qabilida ish tutish;

– spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar iste’mol qilish;

– nutq madaniyatining etishmasligi, qo‘pollik, jinoyatchilar dunyosining jargonlaridan bo‘lar-bo‘lmasga foydalanish, ularni qo‘llashda suiiste’molliklarga yo‘l qo‘yish;

–tashqi ko‘rinishning xunukligi, kiyim-boshlarning iflosligi, soch-soqolning o‘sganligi, aft-angorning ifloslanib, sovuq tus olganligi va h.k.

Kasbiy buzilishlarning yopiq shakli. Kasbiy buzilishlarning *yopiq,* ko‘zga tashlanmaydigan shakllariga quyidagilar kiradi:

– ish jarayonida xizmat mavqeyidan o‘zining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanish;

– turmushdagi axloqiy nopoklik;

– axloqiy-ma’naviy jihatdan qashshoqlanish;

– xizmat manfaatlarini noto‘g‘ri tushunish, ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yish;

– hisobdan yashirish, poraxo‘rlik;

Kasbiy buzilishlarning ana shu barcha ko‘rinishlarini, omillarini, ob’ektiv va sub’ektiv sabablarini to‘liq hisobga olgan holda jamiyatdagi illatlarning oldini olish va uni tugatish chora-tadbirlarini ko‘rish zarur.

8. Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olish tadbirlari. Kasbiy buzilishlarning oldini olish asosan ikki yo‘nalishda, ya’ni umumiy chora-tadbirlarni va bevosita chora-tadbirlarni qo‘llash asosida olib boriladi.

Umumiy chora-tadbirlarga jamiyatdagi ziddiyatlarni tadrijiy yo‘l bilan hal qilgan holda, jamiyatda qonunga itoatkorlikni, hayotning barcha jabhalarida qonunlarning ustunligini ta’minlash kabilar kiradi.

Shunday ekan, qonunga bo‘ysunish yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib etish, ijtimoiy burch, ya’ni o‘z qilmishlari uchun davlat oldida javobgarlik tuyg‘usi bilan uzviydir. Har bir qonunga itoatkor fuqaro qonunlarning talablari jamiyatning yuksak manfaatlarini ifoda etishini, huquqiy qonunlarga rioya qilish faqat xalq manfaatlariga emas, balki uning o‘z manfaatlariga ham xizmat qilishini yaxshi tushunadi. Shu ma’noda, qonunlarga itoat qilishni xalq birligi va kuch-qudratining manbai deb atash mumkin.

Qonun odamlarni birlashtiradi, qonunlarni buzish esa huquqbuzarni qonun doirasidan tashqari chiqarib qo‘yadi. Qonunga itoatkorlik aql-idrok, vijdon, ichki e’tiqod mahsuli bo‘lib, insonning bunday olijanob fazilati har qanday sharoitda ham, har qanday yo‘llar bilan quvvatlanishi, tarbiyalanishi va rag‘batlantirilishi darkor.

Shunday qilib, kasbiy buzilishning oldini olishga qaratilgan tadbirlardan eng birinchisi, kasbiy soha xodimlarini huquqiy tarbiyalash va shu asosda ularning huquqiy ongini o‘stirib, huquqiy madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Axloqiy tarbiya va uning usullari. Kasbiy soha xodimlarini axloqiy tarbiyalash ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ularning kasbiy buzilishlarining oldini oluvchi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kasbiy soha xodimlarining *axloqiy tarbiyasi* deb ularda axloqiy bilimlar, ehtiyojlar, g‘oyaviy-axloqiy ishonch, axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

Axloqiy tarbiya ilmiylik, g‘oyaviylik, haqqoniylik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog‘lanish, ijodiy yondashuv prinsiplariga amal qilgan holda olib borilib, Kasbiy soha xodimlarini kasbiy tanazzulga uchrashdan saqlab turadi.

Axloqiy tarbiya prinsiplaridan tashqari, axloqiy tarbiya metodlaridan o‘z vaqtida unumli foydalanish kasbiy buzilishga yo‘l qo‘ymaydigan eng ishonchli omil hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya usullari deb kasbiy soha rahbar xodimlari va jamoatlari tomonidan axloqiy e’tiqodlarni, axloqiy his-tuyg‘u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining majmuasiga aytiladi.

Axloqiy tarbiya usullari jumlasiga ishontirish, rag‘batlantirish va jazolash, shaxsiy namuna ko‘rsatish, musobaqa-bellashuv, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid kiradi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) kasbiy soha xodimlarini har qanday qiyin va xavfli sharoitlarda ham yuksak darajadagi axloqiy g‘oyalarga, Vatanga sadoqatli bo‘lish, xalqqa chin dildan xizmat qilish, insoniylik, adolatparvarlik, qonuniylik, jamoatchilik, milliy g‘urur, sha’n va qadr-qimmatni saqlash ruhida tarbiyalash;

2) axloqan pok, rostgo‘y, sobitqadam, tashabbuskor, mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi kasbiy soha xodimlarini tarbiyalab etishtirish;

3) mard, jasoratli, tadbirkor, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishni xayoliga ham keltirmaydigan xodimlar avlodini vujudga keltirish;

4) yuksak darajadagi axloqiy-huquqiy madaniyat sohibi bo‘lgan, kasb madaniyatining sir-asrorlarini puxta egallagan Kasbiy soha xodimlarini kamol toptirish;

5) yuksak darajadagi professional bilimga ega, o‘zining axloqiy-kasbiy burchini chuqur his qiladigan, masalan «Kasbiy soha xodimi» degan yuksak nomga dog‘ tushirmaydigan xodimlarni tarbiyalab etishtirish va ularning qahramonligi, odamiyligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi bilan faxrlanish mumkin bo‘ladigan mutaxassislarni tarbiyalash.

Estetik tarbiya va uning axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishdagi ahamiyati. Kasbiy soha xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olishdagi vositalardan biri ularni estetik tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya deb insonni nafosat qonunlari asosida har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan faoliyatga aytiladi. Estetik tarbiya Kasbiy soha xodimlarini go‘zallik olami bilan oshno qilib, ularning

axloqiy ongida vujudga kelgan har xil bo‘lmag‘ur fikrlarni chiqarib tashlashga, unda hayotga bo‘lgan qiziqish, zavq-shavq bilan yashash orzu-umidlarini kuchaytirish ishiga xizmat qiladi.

Kasbiy buzilishning oldini olishda estetik tarbiyaning bir qancha omillaridan foydalaniladi.

Bunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. *Ijtimoiy munosabatlar omili* – bu odamlar, jamoatlar o‘rtasidagi bir-birlariga bo‘lgan diqqat-e’tibor, dilkashlik, xushchaqchaqlik, kulgi, hazil-mutoyibalardan iborat bo‘lib, ular odamdagi tushkunlik kayfiyatini yo‘q qilib, ko‘ngilni ko‘taradi, quvontiradi, ishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

2. Tabiat omili – bu tog‘larning ulug‘vorligi, sharsharalar, gullar, bog‘-rog‘lar, moviy dengizlar, sayroqi qushlar, serjilo baliqlar kabi tabiat go‘zalliklari bilan oshno bo‘lish, tabiat bag‘rida dam olish. U kishiga shavq-zavq, charchagan tanaga, toliqqan miyaga orom, rohat berib, odamni osoyishta hayot kuchog‘iga qaytaradi, miyadagi har xil g‘uborlarni chiqarib tashlashga xizmat qiladi.

3.San’at omili hisoblanmish yaxshi kuy, qo‘shiq, serjilo raqs, kino, arxitektura yodgorliklarini tomosha qilish asablarga dam beradi, voqelikdagi go‘zalliklarni ilg‘ab olishga, mazmundor hayot quchog‘iga qaytishga undaydi, yangidan-yangi qahramonliklarga chorlaydi.

*4. Atrof muhitni estetik jihatdan tashkil etish omili*o‘z ichiga yangi zamonaviy uslubda qurilgan binolarni, yuksak estetik did bilan jihozlangan ish joylarini, unumli mehnat qilish uchun did bilan bezatilgan va qulay mehnat vositalari – radio, televedinie, kompyuter, kriminalistika asbob-uskunalarini hamda xodimlarning dam olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar – bog‘lar, dam olish uylari, chiroyli choyxona va oshxonalar, ko‘llar, istirohat bog‘lari, sayilgohlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerlarda ishlagan, dam olgan xodimlarning miyasidan har xil bo‘lmag‘ur fikrlarning ko‘tarilishi tabiiy.

Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishda qo‘llaniladigan maxsus tadbirlar. Kasbiy soha xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olishga qaratilgan mazkur harakatlardan boshqa aniq chora-tadbirlar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. *Professional faoliyatni tashkil etish sohasida*:

– har bir xodimni tanlab olishda va ishga tayinlashda ularning qiziqishlarini inobatga olish;

– xodimlarga aniq vazifalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish;

– xodimlarga fuqarolar bilan muomala qilish madaniyatini, ruhiy aloqa o‘rnatish mahoratini o‘rgatish;

– xizmat vazifasini bajarishda ishga ijodiy yondashuvchi, chigal masalalarning yechimini tezlik da topuvchi, muammolarni hal qilishda ilm-fan yutuqlarini o‘rganib, ulardan unumli foydalanuvchi xodimlarni taqdirlash, izzat-hurmatini joyiga qo‘yish;

– qo‘l ostidagilarni o‘z ishini o‘zi tahlil qilishga, o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish;

– xodimlar bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari, oilasi tinch, hayoti sermazmun bo‘lishi uchun ular haqida tinmay g‘amxo‘rlik qilish;

– o‘zgalarga ruhiy ta’sir o‘tkazish usullarini amalda qo‘llashni o‘rgatish va Kasbiy soha xodimini qo‘rqinchli holatlarda ishlashga ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

– jismonan chiniqtirish va chidamliligini oshirish.

2. *Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish sohasida*:

– xodimlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy-huquqiy e’tiqod, g‘oyaviy-siyosiy madaniyat va irodaviy xislatlarni, qisqacha aytganda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish;

– ularni tanqid va o‘z-o‘zini tanqid ruhida tarbiyalash;

– iroda va xarakter kuchini chiniqtirish;

– ma’naviy xastalar dunyosining ta’siriga qarshi tura olish qobiliyatini hosil qilish;

– xizmatda va turmushda shaxsiy namuna orqali ta’sir ko‘rsatish;

– tarbiyalash jarayonida o‘rgatish va majburlash, rag‘batlantirish va jazolash usul va vositalaridan unumli foydalanish;

– jamoatda sog‘lom ruhiy muhitni vujudga keltirish;

– qo‘l ostidagilarning yashash sharoitlari, dam olishini yaxshilash borasida g‘amxo‘rlik qilish;

– tarbiyaning barcha turlarini, usul va vositalarini, prinsiplarini birga qo‘shib olib borish, ayniqsa, axloqiy va estetik,huquqiy tarbiyaning uzviy birligiga asosiy e’tiborni qaratish;

– xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an’analari, urf-odatlari va tili bilan bog‘liq qadriyatlardan tarbiya jarayonida milliy g‘ururni o‘stirish va milliy ongni shakllantirishda unumli foydalanish.

Qisqacha xulosalar

1. Jamiyat bir qator hayot sohalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Shular ichida jamiyatning ahloqiy hayoti alohida ajralib turadi.

2. Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishida, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq-atvori, yurish-turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalanadigan munosabatlarining majmuiga aytiladi.

3 Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi ob’ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmuidir.

4. Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi ob’ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, insonning hayoti va faoliyatini boshqaradigan hamda tartibga soladigan muayyan xulq- atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarning majmui hisob- lanadi. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

5.Axloq - insoniyat kamoloti sarchashmalaridan biri. Har bir odam u orqali o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Shuning uchun ham axloq masalasi qadim vaqtlardan buyon donishmandlarning, jamoatt va davlat arboblarining qolaversa, davlatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki axloqiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymasdan, kasb axloqi madaniyatini shakllantirmasdan turib, hech bir davlat ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmaydi. Shu bois ham bu hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar

Axloq, odob, xulq, kasb axloqi, axloqshunoslik, axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy va huquqiy munosabat,umuminsoniy axloq prinsiplari, insonparvarlik, jamoattchilik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, axloq normalari, xushmuomalalik, halollik va rostgo‘ylik, shijoat va hushyorlik, axloqqa zid normalar, g‘azzab, poraxo‘rlik, kasbiy buzilish,axloqiy tarbiya

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Axloqshunoslik fanining predmeti va vazifalari ayting?
2. Jamiyat taraqqiyotida kasb axloqi qanday rol o‘ynaydi?

3. Umuminsoniy axloq prinsiplarini sanab bering.
4. Vatanparvarlik prinsipi mohiyatini tushuntiring.
5 etika kategoriyalaridan qaysilarini bilasiz?
6. YAxshilik va yomonlikni qanday tushunasiz?
7. Pora olish va berish haqida «Hadis» va «Jinoyat kodeksi» da nimalar deyilganligini bilasizmi?
8. Kasbiy buzilishga olib keluvchi omillarni sanab bering?
9. Aristotelning *"Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi"*,degan so'zlarining ma'nosi haqida o'z fikringizni bildiring?
10.Alisher Navoiyning*"Quyoshliq istasang,kasbi kamol et"*, degan hikmatlarining mazmuni nimada ekanligi to'g'risida bahslashing?

VII BOB. ESTETIKA

1-§. Estetikaning ta'rifi, mohiyati va vazifalari

1. Estetika va uning ta'rifi. Tabiat va jamiyatda mavjud narsa, hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutanosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganiga guvoh bo'lamiz, bularning hammasi insonni zavqlantirishini, unga qandaydir orom va ma'naviy kuch berishini ko'ramiz. Ana shu zavq-shavq, orom hamda ma'naviy kuch beruvchi narslarning barchasi nafosat dunyosiga mansub qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Nafosat dunyosi haqida esa estetika fani bahs yuritadi. ***«Estetika»***so'zi yunoncha***«estetikos»***so'zidan olingan bo'lib,***«sezish», «his etish qobiliyati»***degan ma'noni anglatadi. Uni 1714-1762 yillarda yashab o'tgan nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar» kitobida fanga kategoriya sifatida kiritgan.

Xo'sh, estetika deganda nimani tushunamiz? ***«Estetika»*** kundalik turmushimizda ko'pincha narsa va hodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammalik, mutanosiblik, latofat kabi sifatlarning majmui tarzida tushuniladi. Fanda esa ***«estetika»*** so'zi kategoriya, ya'ni obyektiv olamdagi narsa va hodisalardagi go'zallik, ulug'vorlik, qahramonlik jihatlarini o'zida aks ettiruvchi falsafiy tushuncha, insonning voqelikka estetik munosabatlarining majmui deb ta'riflanadi. Shunga ko'ra, u ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Insonning har qanday faoliyatida axloqiy maqsad bo'lgani singari, estetik manba – sevinch va tashvish, orzu-umid, kulgililik, fojialilik – ham mavjud bo'ladi. Kasbiy faoliyat estetikasi uch tarkibiy qismdan: estetik munosabat, estetik ong va estetik faoliyatdan tashkil topadi. Ularga batafsil to'xtalamiz.

2. Estetik munosabat.*Estetik munosabat* deb voqelik hodisalarini go'zal yoki xunuk, yuksak yoki tuban, fojiali yoki kulgili, qahramonlik yoki qo'rqoqlik deb baholash qobiliyatiga aytiladi. Estetik munosabat obyektiv va subyektiv tomonlardan tashkil topadi, ya'ni u subyekt bilan obyekt o'rtasidagi o'ziga xos aloqalar shaklida namoyon bo'ladi. Bunda estetik munosabatlarning obyektiv tomoni, aniqrog'i, estetik obyektini insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishgan, bevosita idrok etish obyektiga aylangan, odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan voqelikning xilma-xil ko'rinishlari tashkil etsa, estetik subyektini esa estetik his-tuyg'u, kechinma, did va ideallarga ega bo'lgan shaxs yoki guruh tashkil etadi.

3. Umuminsoniy axloq prinsiplarini sanab bering.
4. Vatanparvarlik prinsipi mohiyatini tushuntiring.
5 etika kategoriyalaridan qaysilarini bilasiz?
6. YAxshilik va yomonlikni qanday tushunasiz?
7. Pora olish va berish haqida «Hadis» va «Jinoyat kodeksi» da nimalar deyilganligini bilasizmi?
8. Kasbiy buzilishga olib keluvchi omillarni sanab bering?
9. Aristotelning *"Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi"*,degan so'zlarining ma'nosi haqida o'z fikringizni bildiring?
10.Alisher Navoiyning*"Quyoshliq istasang,kasbi kamol et"*, degan hikmatlarining mazmuni nimada ekanligi to'g'risida bahslashing?

VII BOB. ESTETIKA

1-§. Estetikaning ta'rifi, mohiyati va vazifalari

1. Estetika va uning ta'rifi. Tabiat va jamiyatda mavjud narsa, hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutanosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganiga guvoh bo'lamiz, bularning hammasi insonni zavqlantirishini, unga qandaydir orom va ma'naviy kuch berishini ko'ramiz. Ana shu zavq-shavq, orom hamda ma'naviy kuch beruvchi narslarning barchasi nafosat dunyosiga mansub qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Nafosat dunyosi haqida esa estetika fani bahs yuritadi. ***«Estetika»***so'zi yunoncha***«estetikos»***so'zidan olingan bo'lib,***«sezish», «his etish qobiliyati»***degan ma'noni anglatadi. Uni 1714-1762 yillarda yashab o'tgan nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar» kitobida fanga kategoriya sifatida kiritgan.

Xo'sh, estetika deganda nimani tushunamiz? ***«Estetika»*** kundalik turmushimizda ko'pincha narsa va hodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammalik, mutanosiblik, latofat kabi sifatlarning majmui tarzida tushuniladi. Fanda esa ***«estetika»*** so'zi kategoriya, ya'ni obyektiv olamdagi narsa va hodisalardagi go'zallik, ulug'vorlik, qahramonlik jihatlarini o'zida aks ettiruvchi falsafiy tushuncha, insonning voqelikka estetik munosabatlarining majmui deb ta'riflanadi. Shunga ko'ra, u ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Insonning har qanday faoliyatida axloqiy maqsad bo'lgani singari, estetik manba – sevinch va tashvish, orzu-umid, kulgililik, fojialilik – ham mavjud bo'ladi. Kasbiy faoliyat estetikasi uch tarkibiy qismdan: estetik munosabat, estetik ong va estetik faoliyatdan tashkil topadi. Ularga batafsil to'xtalamiz.

2. Estetik munosabat.*Estetik munosabat* deb voqelik hodisalarini go'zal yoki xunuk, yuksak yoki tuban, fojiali yoki kulgili, qahramonlik yoki qo'rqoqlik deb baholash qobiliyatiga aytiladi. Estetik munosabat obyektiv va subyektiv tomonlardan tashkil topadi, ya'ni u subyekt bilan obyekt o'rtasidagi o'ziga xos aloqalar shaklida namoyon bo'ladi. Bunda estetik munosabatlarning obyektiv tomoni, aniqrog'i, estetik obyektini insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishgan, bevosita idrok etish obyektiga aylangan, odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan voqelikning xilma-xil ko'rinishlari tashkil etsa, estetik subyektini esa estetik his-tuyg'u, kechinma, did va ideallarga ega bo'lgan shaxs yoki guruh tashkil etadi.

3. Estetik ong. *Estetik ong* deb ularning voqelikni aks ettiruvchi his-tuyg‘u, kechinma, did va ideallari majmuiga aytiladi. *Estetik ong* estetik his-tuyg‘ular, estetik did, estetik orzu, estetik qarash va nazariyalardan tashkil topadi.

Estetik his-tuyg‘ularni voqelikni idrok etish sharoitida hosil bo‘ladigan shodlik, hayratlanish, ajablanish, rohatlanish, lazzatlanish, ehtirom, zavq-shavq, nafrat kabi ehtiroslar, hissiyotlar, tushunchalar tashkil etadi.

Estetik did deganda ularning bevosita his-tuyg‘u bilan hodisalarning estetik qiymatini aniqlash, ya’ni go‘zallikni xunuklikdan, ulug‘vorlikni tubanlikdan, qahramonlikni qo‘rqoqlikdan, kulgililikni fojiaviylikdan farqlash qobiliyati tushuniladi. Shunga ko‘ra, kimda-kim go‘zallikdan zavqlansa, uning estetik didi yaxshi bo‘ladi va aksincha, go‘zallikka beparvo bo‘lsa yoki xunuklikdan lazzat olsa, uning estetik didi yomon bo‘ladi. Estetik did shaxsning mavjud voqelikdan qoniqishi yoki qoniqmasligidir.

Estetik orzu deganda esa, ularning nafaqat mavjud voqelikni in’ikos ettirishi, balki uning kelajagi to‘g‘risidagi tasavvurlari, umid va mayllari majmui tushuniladi.

Estetik nazariya obyektni butunicha qamrab oladigan prinsiplar, qarashlar, tushunchalar, qoidalar, aqidalar, bilimlar tizimidan iborat bo‘lib, ular mantiqqa, muayyan falsafiy qarashlarga asoslangan bo‘ladi.

4. Estetik faoliyat. Kasbiy soha xodimlari estetik faoliyatining asoslari ularning muayyan talab va ehtiyojlaridan iborat bo‘lib, moddiy va ma’naviy faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Shunga ko‘ra «mehnat estetikasi», «ishlab chiqarish estetikasi», «turmush estetikasi», «sport estetikasi» kabilar farqlanadi. Ular kishilarning zavq-shavq bilan halol mehnat qilishlarida ko‘maklashadi.

Kasbiy soha xodimlarining estetik faoliyati ularning yurish-turishlarida, o‘z xizmat xonalarini jihozlashlarida, tabiiy olam va kishilarga munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

5. Estetika fani. Estetik ong, estetik munosabat, estetik faoliyat, estetik tarbiya, san’at masalalarini o‘rganish bilan bevosita estetika fani shug‘ullanadi.

Estetika – go‘zallik olami, san’at va badiiy ijod qonuniyatlarini o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi fan.

Ana shu umumiy ta’rifdan kelib chiqqan holda kasbiy soha xodimlariningkasb faoliyati estetikasiga fan sifatida quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Kasbiy faoliyat estetikasi deb biron bir kasb sohiblarining voqelikka estetik munosabatda bo'lish orqali o'zlarining xizmat faoliyatlarini nafosat qonunlari, prinsiplari, vositalari asosida tashkil qilishlarini o'rganish va o'rgatishga aytiladi.

Kasbiy faoliyat estetikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) xodimlarining olamni go'zallik qonunlari asosida yaratishi, o'zgartirishi va qayta qurishida ko'maklashish;

2) go'zallik, qahramonlik va ulug'vorlikni ularning antipodi bo'lgan xunuklik, qo'rqoqlik va pastkashlikdan ajrata bilish;

3) nafosat qonunlari, printsiplari asosida estetik tarbiya ishlarini tashkil qilish.

Estetika bilan etika doimo dialektik birlikdadir. Inson faoliyatidagi har bir xatti-harakat go'zal bo'lganligi uchun ham yaxshidir, qadr-qimmatlidir, ya'ni axloqiydir va aksincha, sodir etilgan har bir yaxshi, adolatli ish, xatti-harakat nafosatlidir. Shuning uchun ham buyuk rus nafosatshunos olimi V.G.Belinskiy «go'zallik – axloq-odobning tug'ishgan singlisidir» deganda haq bo'lgan.

2-§. Estetika kategoriyalari, ularning mohiyativa ahamiyati

1. Estetika kategoriyalari. Estetika fani o'zining bir qancha kategoriyalariga ega bo'lib, ular turli kasb egalarining faoliyatida turlicha ahamiyat kasb etadi. Demak, estetika fanining kategoriyalari go'zallik olamini idrok etuvchilar va uni maqsadga muvofiq tarzda o'zgartiruvchilar uchun metodologik vazifani o'taydi.

Kasb estetikasining kategoriyalarideb biron bir kasb sohiblarining vokelikka estetik munosabatlarining, estetik ong va estetik faoliyatlarining eng muhim, zaruriy tomonlarini o'zida aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalarga aytiladi.

2. Nafosat. Kasb estetikasi kategoriyalarining asosini "nafosat" kategoriyasi tashkil etadi. "Nafosat" – narsa va hodisalarning umumiy estetik tomonlarini o'zida aks ettiruvchi tushuncha bo'lib, birinchidan, tabiat, jamiyat hamda insonning moddiy va ma'naviy yaratuvchanlik faoliyatida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan nafosatni; ikkinchidan, olamni go'zallik qonunlari asosida o'zgartiruvchi ijodiy estetik faoliyatni; uchinchidan, estetik ongni qamrab oladi.

Nafosatning muhim xususiyatlarini me'yor, uyg'unlik, mukammallik tashkil etadi.

3. Estetik me'yor. *Estetik me'yor* tabiat va jamiyatdagi narsalar, voqea-hodisalarning ichki va tashqi, umumiy va xususiy tomonlarini, ulardagi mohiyat va hodisa, mazmun va shakl hamda barcha

qarama-qarshiliklarni bir butun holda ifoda etish, ularning bir holatdan ikkinchi holatga aylanish joyini tutashtirib turuvchi sistemali, substansiyali o'lchovdir.

Ongli mavjudot bo'lgan inson o'zini qurshab turgan voqelikka munosabatida har bir narsaga o'ziga xos mezon nuqtai nazaridan yondashadi va shu asosda voqelikni nafosat qonunlari bo'lmish miqdoriylik va sifatiylikning me'yori darajasida o'zgartiradi.

4. Estetik uyg'unlik. *Uyg'unlik* narsa va hodisalarning go'zal va xunuk, ijobiy va salbiy, yaxshi va yomon tomonlarining o'zaro echimidan kelib chiquvchi va bir butunlikni ifodalovchi, obyektiv mazmunga ega bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Uyg'unlik mutanosiblik, takrorlanuvchanlik, muvofiqlik, o'xshashlik, hamjihatlikni qamrab oladi. Uyg'unlik faqat tabiatga, jamiyatga xos bo'lmasdan, balki insonga, uning tabiat va jamiyatdagi narsalar bilan birlashib ketgan faoliyatiga ham taalluqdidir. Shuning uchun ham uyg'unlik universallik xususiyatiga ega ekanligi bilan boshqa hodisalar, voqea va narsalardan ajralib turadi.

5. Estetik mukammallik. *Mukammallik* go'zallikning obyektiv asosi, yuksak darajasidir. Mukammallikka insonning ehtiyojini qondiruvchi mehnat qurollari, jamiyat va shaxs manfaatlariga mos keluvchi ijtimoiy-siyosiy tuzum hamda xatti-harakatlari bilan o'zgalarning talabini qondiradigan odamlar misol bo'lishi mumkin.

6. Estetika kategoriyalarining tur va shakllari. Nafosat obyektivlik va subyektivlik xususiyatlariga ega bo'lib, muayyan va nisbiydir. Chunki bir joyda va bir vaqtda nafosatli, go'zal bo'lgan narsa boshqa bir joy va vaqtda xunuk bo'lishi mumkin.

Nafosat go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va pastkashlik, qahramonlik va qo'rqoqlik, kulgililik va fojiaviylik kategoriyalari orqali namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, kasbiy soha xodimlarining kasb estetikasi kategoriyalariga quyidagilar kiradi:

- *go'zallik va xunuklik;*
- *ulug'vorlik va tubanlik;*
- *kahramonlik va qo'rqoqlik;*
- *kulgililik va fojiaviylik.*

Estetika kategoriyalari, bir tomondan, insonning voqelikka estetik munosabatidagi muhim, zaruriy bog'lanishlarni o'zida aks ettirsa; ikkinchi tomondan, voqelikni nafosat qonunlari asosida o'zlashtirishning yo'nalishlarini belgilab beruvchi metodologik asos vazifasini ham bajaradi.

Voqelikni nafosat qonunlari asosida o‘zlashtirish, eng avvalo, kasbiy soha xodimlarining ish joylarini, mehnat vositalarini badiiy jihatdan qayta jihozlashi, ya’ni ishning samaradorligi oshib borishini ta’minlaydigan, uning zavq-shavq bilan ishlashiga, ma’naviy-madaniy dam olishiga imkon beradigan go‘zal muhit yaratishida ko‘rinadi, ularning turmushi, xulq-atvori va mehnat estetikasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, estetika kategoriyalari o‘zining amaliy ifodasini texnikaviy estetika, turmush estetikasi, xulq-atvor estetikasi, mehnat estetikasi, kosmetik estetika, dizayn kabilarda topadi va har bir xodim hamda xizmat jamoalarining estetik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

7. «Go‘zallik» kategoriyasi va uning amalda namoyon bo‘lishi. «Go‘zallik» – estetika fanining asosiy kategoriyasi. Estetika fanining deyarli barcha muammolari go‘zallik kategoriyasi bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Go‘zallik nafosat olamining negizi, asosiy belgisi, bosh xossasi va mohiyatini tashkil etadi. Shu bois estetikani go‘zallik haqidagi fan ham deyishadi.

Go‘zallik biror narsaga his-tuyg‘u orqali ta’sir ko‘rsatish bilan insonda jismoniy va ma’naviy kuchlar oqimining ko‘payishiga olib keladigan, shodlik, zavqlanish, ma’naviy qoniqish holatini vujudga keltiradigan tabiiy va ijtimoiy hodisadir[138].

Go‘zallik tabiatda, jamiyatda, odamlarning moddiy va ma’naviy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Tabiatdagi go‘zallik, bir tomondan, insonning tabiat hodisalaridagi uyg‘unlik, mukammallik, chiroyni his qilishi va hayajonga tushishini ifodalasa; ikkinchi tomondan, insonning orzusi sifatidagi tasavvurlarini ifodalovchi obraz hisoblanadi.

Kasbiy sohaxodimlari tabiatdagi go‘zallikni saqlab qolish borasida amalga oshirayotgan ishlari orqali o‘zlari ham qalban va jismonan go‘zallashib boradilar. Ammo tabiatni ifloslantirish o‘ta xunuklik hisoblanadi. Bu ish odamlarga katta zarar yetkazadi.

Jamiyatdagi go‘zallik – shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlovchi adolat, insonparvarlik va tenglikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar majmui.

Inson go‘zalligi uning ma’naviy, jismoniy uyg‘unligidadir. Insondagi go‘zallikni ifodalash uchun «go‘zallik» va «chiroylilik» tushunchalari ishlatiladi. «Go‘zal inson» deganda uning ijobiy axloqiy xislatlari, ya’ni yaxshiligi, mehribonligi, to‘g‘ri so‘zligi, o‘zgalarni hurmat qilishi, qisqasi, insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlari tushuniladi.

---

[138] Қаранг: *Умаров Э.* Эстетика. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.107.

«Chiroyli inson» deganda esa uning tashqi, ya'ni jismoniy tomoni tushuniladi. Bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, go'zal inson hamma vaqt ham chiroyli bo'lavermaydi va aksincha, chiroyli inson hamma erda va hamma vaqt ham go'zal hisoblanmaydi.

Kasbiy sohaxodimlari o'z faoliyatida uyg'un tarzdagi komillikka intilishlari kerak.

Xo'sh, *kasbiy soha xodimlarining* kasb faoliyatidagi go'zallik nimalarda ifodalanadi?

1. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish kasbiy soha xodimlarining kasb faoliyatidagi go'zallikning yorqin ifodasidir.

Ma'lumki, kasbiy soha xodimlari faoliyatining obyektini asosan jismoniy va ruhiy jihatdan xasta – sog'lom va nosog'lom shaxslar tashkil etadi. Bunday shaxslar o'zlarining xatti-harakatlari bilan jamiyatning rivojlanishiga, odamlarning erkin ijodiy mehnat qilishlariga, dam olishlariga xalaqit beradilar, ya'ni go'zallikni buzadilar.Kasbiy soha xodimlari, bir tomondan, insonning erkin ijodiy mehnat qilishlariga imkoniyat yaratib beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy-madaniy huquqlarini himoya qilsalar, ikkinchidan tomondan, har xil kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashish, yovuzlikni yo'q qilish, jamiyatda adolat o'rnatish, insonparvarlik, go'zallik, ulug'vorlik va qahramonlik urug'larini sepish bilan shaxs va jamiyat o'rtasidagi oliy darajadagi go'zallik, ya'ni uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladilar. Bu esa kasbiy soha xodimlarining ma'naviy go'zalligiga ko'p darajada bog'liq bo'ladi.

2. Kasbiy soha xodimlarining faoliyatidagi go'zallik ularning kasb mahoratlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kasb mahorati kasbiy soha xodimlarining insonparvarlik maqsadini amalga oshiruvchi vosita hisoblanadi. Kasbiy soha xodimlariningkasb mahorati quyidagi uchta estetik omilni taqozo etadi: 1) har bir xodimning o'z predmetlarini har tomonlama, to'liq va erkin egallab olishi; 2) mehnat vositalari va metodlarini erkin o'zlashtirishi; 3) bajaradigan ishiga ijodiy yondashishi. Bu uch omil kasbiy soha xodimlarining xizmat faoliyatidagi go'zallikni har tomonlama takomillashtirishga xizmat qiladi.

Go'zallik haqida donolar shunday deganlar:

– Kishida ikki go'zallik bo'lib, ular ichki va tashqi go'zallikka bo'linadi. Tashqi go'zallikka kishining barcha a'zolari, masalan, ko'z, quloq, qosh, yuz, lab, og'iz, qo'l, oyoq, qomat go'zalligi kiradi. Ichki go'zallik esa kishining yoqimli xulqlar bilan

bezanishidir. Bu xulqlar muloyimlik, saxovat, shijoat, ilm, kamtarlik, iffat va boshqalardir

(Abulbarakot Qodiriy).

– Kishini go'zal qilib ko'rsatadigan narsa uning chiroyi emas, balki chiroyli xulqidir. Chiroyli xulq xunuk kishini ham chiroyli qilib ko'rsatadi

(Xurramiy).

– Insonda hamma narsa: chehra ham, kiyim ham, qalb ham, tafakkur ham go'zal bo'lishi kerak

(A.P.CHexov).

– Go'zallik – haqiqiy baxt-saodat va rasmana qahramonlik bo'lib, u balandparvoz so'zlarga muhtoj emas

(V.Raabe).

– Go'zallik butun olamni qalbga olib kiradigan kuch va iste'dodga ega

(M.Servantes).

– Go'zallik ba'zi xislat va belgilardan iborat emas, balki umumiy tashqi qiyofada va unda hayotning mohiyati kam darajada aks etishidadir (N.A.Dobrolyubov).

– Go'zallik – bu erkin qalb va mustahkam sog'liq samarasidir.

(L.Shefer)

– Aql yetishmagan husn go'zal emas.

(E.L.Gule)

8. «Ulug'vorlik» tushunchasi va uning ahamiyati. *Kasbiy soha xodimlariningxizmat* faoliyatida ulug'vorlik alohida ko'zga tashlanib turadigan xatti-harakat hisoblanadi. Ulug'vorlik go'zallikka yaqin tushuncha hisoblansada, uning o'ziga xos tomonlari ham mavjud. O'zbek tilida ulug' deganda, egallagan o'rni, hajmi g'oyat yirik, juda katta, ulkan, buyuk narsa, voqea, hodisalar; har tomonlama ortiq, ustun, qudratli ishlar; beqiyos talantli, iste'dodli, qobiliyatli, buyuk shaxslar; ko'p va katta maqsadlarni o'z ichiga olgan, buyuk dasturlar tushuniladi. Shunga ko'ra, *kasbiy soha xodimlarinining ulug'vorligi deb o'zining g'oyat yirik va ulkanligi, viqorliligi, amalga oshirgan ishlarining qudratliligi, beqiyosligi, buyukligi bilan lol qoldiradigan, salobati bosib turadigan tabiat va jamiyat hodisa, voqea, narsalariga hamda ularning o'zlari xizmat faoliyati davomida namoyon qiladigan katta iste'dod, bajaradigan qahramonona ishlarining estetik ifodalanishiga aytiladi.*

«Ulug'vorlik» tushunchasi voqelikning turli sohalarida, ya'ni tabiatda, jamiyatda, inson faoliyatida, uning ma'naviy dunyosida mavjud

bo‘lib, o‘zida dunyoning cheksizligi, abadiyligi hamda inson ichki kuchlarining nihoyatda buyukligini aks ettiradi.

Ulug‘vorlikda quyidagi ikki tomon chambarchas bog‘lanib ketgan:

1) odamni lol qoldiradigan, salobati bosib turadigan ulug‘vorlik (masalan, ota va onaning ulug‘vorligi, Vatanning ulug‘vorligi, mashhur olimlar hamda davlat va jamoat arboblarining ulug‘vorligi va hokazo);

2) insonga ruh bag‘ishlovchi, uning kuch-qudratini ko‘taruvchi ulug‘vorlik (masalan, tabiatdagi ulug‘vorlik, xususan, baland tog‘lar, qorli cho‘qqilar, moviy dengiz, hayhatli to‘lqinlar, ulkan sharsharalar yoxud insonning ijodkorlik qobiliyati, ijodiy mehnati bilan yaratilgan me’moriy ansambllar, yodgorliklar, haykallar, aytaylik, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari, Shohi Zinda, Oqsaroy, Amir Temur maqbarasi).

Ulug‘vorlik hissi kasbiy soha xodimlarini yangidan-yangi ishlarni bajarishga, qahramonliklarga chorlaydi, ularga quvonch bag‘ishlaydi, oliyjanob insoniy tuyg‘ular shakllanishiga xizmat qiladi.

9. Qahramonlik va uning namoyon bo‘lishi. *Qahramon* deganda, odatda, shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan; jonbozlik, mardlik qilib, o‘zini ko‘rsatgan kishi tushuniladi. Biz ona-Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, uning ozodligi va mustaqilligi yo‘lida o‘zlarining jonlarini fido qilgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Amir Temur kabi nomlari mangulikka daxldor shaxslarni ko‘ramiz.

Xo‘sh, qahramonlik deganda nimani tushunamiz? Bu haqda I.A.Karimov:

«Har kuni, har soatda fidoyi bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu»[139], – degan edi.

Kasbiy soha xodimlarining qahramonligideb ularning ona-Vatan ozodligi,obodligi, fuqarolarning tinchligi va sog‘lig‘ini saqlash asosida tinch-osuda yashashlarini ta’minlash yo‘lida hech qanday qiyinchilikdan qo‘rqmasdan, hayotini xavfga qo‘yib bajaradigan, ya’ni insoniyatning kelajagi uchun qilgan va qiladigan alohida jasoratlariga aytiladi.

Kasbiy soha xodimlarining qahramonligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1) har xil illatlarning oldini olish, eng murakkab tib amaliyotini o‘tkazishda;

2) jismoniy va ma’naviy tajovuzlar girdobidan odamlarni qutqarishda;

3) tabiiy ofatlar va favqulodda hodisalar yuz berganida.

[139] *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч.– Т.: Маънавият,2008. – Б.165.

Qahramonlik asosida hamma vaqt ona-Vatanni sevish, insonlarga bo‘lgan chuqur muhabbat his-tuyg‘ulari yotadi. Vatanni sevgan odamgina qahramonlik ko‘rsatishga qodir.

Qahramonlik, mardlik, botirlik haqida donishmandlar shunday deganlar:

– Azizim, botir deb shunday kishiga aytiladiki, u o‘z elining tinchligi uchun har qanday mashaqqat qadahini qo‘rqmay qabul qilib, shodu hurramlik bilan nush etadi. Mardi maydon deb shunday kishiga aytiladiki, bunday kishining aqli biror ishni qilishga qaror topsa, jonidan kechib, hayotidan qo‘l yuvib, maqsad maydoniga qadam qo‘yadi.

(Xoja Samandar Termiziy)

– Qo‘rquv nimaligini bilmay, o‘limga mardona tik boqqan odamni mard desa bo‘ladi.

(Arastu)

– Haqiqiy mardlik kulfat va xatarlarga qaramay, o‘zini xotirjam tuta bilish va vazminlik bilan burchini ado etishda namoyon bo‘ladi.

(J.Lokk)

– Haqiqiy mard odam biron ishga qo‘l urganida ehtiyotkor bo‘lmog‘i, barcha tasodiflarni chamalab ko‘rmog‘i, ammo ishni hal qilishga kelganda esa jasorat ko‘rsatmog‘i lozim.

(Gerodot)

– Davlatingdan ayrilsang –ko‘p narsa yo‘qotmaysan,
nomusingdan ayrilsang – ko‘p narsa yo‘qotasan,
mardligingdan ayrilsang – hamma narsangni yo‘qotganing.

(I.Gyote)

– Mardlik – qarshilik ko‘rsata bilish kuchi bo‘lsa, jasorat – yovuzlikka tahdid soladigan kuchdir.

(P.Buast)

– Botirlik ma’naviy jasoratdir.

(J.Blekki)

10. Fojialilik va uning mohiyati. *Fojia* deganda, odatda, boshga tushgan ayanchli musibat, qayg‘u, halokat tushuniladi. Zero, hayotda ziddiyat va to‘qnashuvlar mavjud ekan fojialar bo‘lib turishi muqarrar. Bundan qochib qutulib bo‘lmaydi.

Kasbiy soha xodimlarining fojiasi deb ularning hayotdagi muhim kuchlar ziddiyati natijasida kelib chiquvchi to‘qnashuvlarning ishtirokchilari bo‘lib qolishlari yoki ularni bartaraf etish vaqtida qayg‘u bosib, g‘am-alam chekib, ayanchli ahvolga tushib qolgan holda halokatga uchrashlariga aytiladi.

Fojialilikning obyektiv asosini inson, uning taqdiri, azob-uqubat chekishi va halokatga uchrashi tashkil etadi. Ammo har qanday odamning azob-uqubati, halokati fojia bo‘lavermaydi, faqat yaxshining, qahramonning halokatigina fojiali bo‘lishi mumkin. Ablahning, jinoyatchi, muttahamning o‘limi fojia emas. Yaxshi odamlarning kasallik oqibatida o‘lim topishi haqiqiy fojiadir.

Fojia tarixiy davrning burilish nuqtalarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabatlar barbod bo‘lib, eski siyosiy qarashlar, estetik va axloqiy aqidalar mashaqqat bilan barbod bo‘layotgan sharoitlarda ravnaq topadi[140]. Masalan, sobiq SSSR davlati tanazzulga uchraganidan so‘ng tojik xalqining boshiga tushgan kulfat buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Tojikistonda eskilik bilan yangilik o‘rtasidagi kurashning tinch yo‘l bilan emas, balki qurolli to‘qnashuv yo‘li bilan amalga oshirilib, yuz minglab odamlarning o‘ldirilishi, shuncha oilalarning vatanidan judo bo‘lishi XX asr oxiridagi fojialardan biridir.

Fojialilik jamiyatdagi barcha ziddiyatlarni qamrab ololmaydi. Bu ziddiyatlar hech qachon butun insoniyat tarixi davomida faoliyat ko‘rsatadigan to‘qnashuvlarning manbaini tashkil etmaydi.

Kasbiy soha xodimlarining faoliyatidagi fojialilik, jumladan, yuqumli kasalliklarga, har xil epidemiyalarga qarshi kurashayotgan xodimning mardlarcha halok bo‘lishida, oilasinig rashk oqibatida barbod bo‘lishida, har xil adolatsizliklarning qurboni bo‘lishida yaqqol ko‘rinadi. Bunday xodimning halokatga uchrashidan butun xizmat jamoasi, mahalla va xalq qayg‘uradi. Biroq, xodimning korrupsioner-jinoyatchilar to‘dasiga qo‘shilib ketishi uning fojiasi emas, balki o‘z kasbi-burchiga xiyonati, Vataniga nisbatan sotqinligi sifatida baholanadi.

Fojialilik o‘zining badiiy ifodasini san’at asarlarida topgan bo‘lib, ular xalqqa, bir tomondan, kasal yuqtiruvchi jinoyatchiga nisbatan nafrat hissini uyg‘otishga xizmat qilsa; ikkinchi tomondan, kelajakka umid va ishonch uyg‘otish, yaxshilik va go‘zallik yomonlik va yovuzlikdan albatta ustun keladi, go‘zallik olamni yovuzlikdan qutqaradi, degan ma’naviy g‘oyani shakllantirish uchun zamin yaratadi.

11. Kulgililik va uning shakllari. Kulgililik – faqat insongagina xos xislat. Kulgililik asosida umrini yashab bo‘lgan yoki bo‘layotgan hodisalar yotadi.

«Kulgililik» tushunchasiga ta’rif berish qiyin. Chunki kulgi qo‘zg‘aydigan narsa, hodisa va voqealarning benihoya ko‘pligi, uning qo‘nimsizligi, o‘zgaruvchanligi bunga imkon bermaydi.

---

[140] Қаранг: *Умаров* Э.Эстетика. – Т.: Ўзбекистон 1995. – Б.122

Kulgililik umrini tugatib, yangilikka to‘siq bo‘layotgan illatlarning kulgi qo‘zg‘atishidir. Kulgililik go‘zallik va xunuklik o‘rtasidagi ziddiyatning kalaka bo‘ladigan darajasidir. Kulgililik insonning tashqi ko‘rinishi bilan asl mohiyati o‘rtasidagi nomuvofiqliklar, tafovutlar, beo‘xshovliklar, kelishmovchiliklarni anglab, masxara qilishdir.

Kulgi o‘z xususiyatiga ko‘ra demokratik mazmunga ega bo‘lib, odamlarni bir-biriga qovushtiradi, o‘zaro tenglashtiradi. U insoniylikka va axloqqa zid bo‘lgan illatlarga qarshi kurashning samarali vositasi, inson kuch-qudrati va ozodligining timsolidir.

Kulgililikning quyidagi shakllari mavjud:

Yumor (hazil-mutoyiba, hajv) – voqea-hodisalarni ulardagi kamchiliklarni hazilomuz tasvirlash, beg‘araz hajv qilish.

Istehzo (kinoya, piching, kesatiq) – qochirim bilan, pardalab kulish yoki kamsitish.

Satira (masxaralash) - hayotdagi, odamlardagi salbiy hodisalarni, kamchilik va nuqsonlarni qattiq masxaralab kulish.

Sarkazm (zaxarxanda) – kamchilikni kattiq botadigan tarzda mazax qilish.

Kasbiy soha xodimlarining faoliyatida kulgi katta ahamiyat kasb etadi. Kulgi ishdagi kamchilik va nuqsonlarni ochib tashlash bilan birga tarbiyalash, ko‘ngil yumshatish, achinish va mehr-shafqat ko‘rsatish vazifalarini ham bajaradi.

3-§. San’at va uning estetik madaniyatni shakllantirishda tutgan o‘rni

San’atning vujudga kelishi, ijtimoiy mohiyati va ta’rifi. Atrofimizni o‘rab turgan olam qanchalik rang-barang, serjilo bo‘lsa, uning ijodiy in’ikosi bo‘lgan san’at ham shunchalik xilma-xildir. U insonlarga zavq-shavq bag‘ishlovchi, ularning har tomonlama barkamollikka erishuvlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy hayotning ko‘p qirrali, murakkab ehsonlaridan biridir.

Dunyoda inson zoti borki, ona allasini tinglab ulg‘ayadi, qo‘shiq aytib o‘z mehnatidan bahra oladi, hazil-mutoyiba qilib hordiq chiqaradi, badiiy asarlar o‘qib, ko‘nglidagi qahramonlarini topadi. Bularning hammasi san’at inson va jamiyat hayotining ajralmas qismlaridan biri ekanligidan darak beradi.

Shuning uchun ham san’at nima, u qanday paydo bo‘lgan, uning odamlarga zavq-shavq bag‘ishlovchi, insoniyatni halokatlardan saqlab qoluvchi sehrli kuchi nimada, degan savollar turli zamonlarda yashab o‘tgan olimu fozillarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

1.San'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar. San'atning vujudga kelishi to'g'risida fanda turli fikrlar, qarashlar va nazariyalar mavjud. Shulardan asosiylariga to'xtalib o'tamiz. San'at nazariyasi tizimi quyidagilardan iborat.

1.1. Ilohiyat nazariyasi. Dunyoda mavjud bo'lgan barcha dinlarning rahnamolari va targ'ibotchilari har qanday san'atning bosh sababchisi, uning asosiy ijodkori *xudo* deb ta'kidlaydilar. «Alloh, – deb yozilgan Islom dinining muqqadas kitobi «Qur'oni karim»da, – hamma narsaga qodirdir. Osmon va Yer hamda ulardagi bor narsalar Allohning mulkidir. ...Mashriq, ham, mag'rib ham Allohnikidir. Bas qay tarafga yuz bursangiz, o'sha joy Allohning tarafidir. Allohdan ham go'zalroq rang beruvchi bormi?»[141]. Bu so'zlardan shunday xulosa chiqarilganki, Alloh yaratgan narsalar go'zaldir. San'at – ana shu Alloh yaratgan narsalarning aniq, hissiy ifodasi. San'atning vujudga kelishi esa bevosita xudo yaratgan narsalarning vujudga kelishi bilan bog'liqdir.

1.2. Jinsiy tasavvur - erotik nazariya. Bu nazariya ijodkorlari bo'lmish N.Nardau, K.Lange, Z.Freyd va boshqalarning fikriga ko'ra, san'at bir jinsdagilarning ikkinchi bir jinsdagilarni o'zlariga qiziqtirishlari, ya'ni har xil usul va vositalar bilan jalb qilishlari orqali kelib chiqqan. Eng qadimgi san'at turlaridan biri – bezanish. Bezanishdan ko'zlangan asosiy maqsad esa odamlarning o'z jinsiy mayllari, ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bunday ishqiy lazzat davomida odamlar, hayvonlarda bo'lgani singari, o'zlaridan qandaydir yoqimli musiqa ohanglarini chiqaradilar, ana shu ishqiy musiqa ohanglari esa sevgi tomirlarida qonning ko'pirishiga, bu esa yangidan yangi musiqalar yaratilishiga, ushbu musiqalar esa, o'z navbatida, yangidan-yangi san'atlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Bu haqda Zigmund Freyd shunday degan*: «Ishqiy lazzatning sehrli sozi yaratuvchanlik kuchiga egadir. Uni madaniyat ilmining birinchi talablariga bo'ysundirish lozim. Chunki u madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishishning manbai bo'lib, bu kuch orqali odamlar cheksiz baxt-saodatga musharraf bo'ladilar»*[142], – deydi. Demak, erotik nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, san'atning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida ikki jins o'rtasidagi ishqiy lazzatlanishdan hosil bo'ladigan yoqimli soz ohanglarining kuchi yotadi.

1.3. O'yin nazariyasi. Bu nazariya asoschilari bo'lgan G.Spenser, K.Byuxner, V.Frinche, F.SHiller va boshqalarning fikriga ko'ra, san'at hech bir ma'no anglatmaydigan o'yindir. O'yin esa barcha hayvonlarga

[141] Қаранг: *Қуръони карим*. Ўзбекча изоҳли таржима. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.15, 17.

[142] Қаранг: *Зигмунд Фрейд*. Очерки по психологии сексуальности. – М.: Система,1989. – С.73.

xos xususiyat, biologik hodisadir. Shunday ekan, san'at ham biologik xususiyatga ega bo'lgan hodisadir. O'yin o'zining kelib chiqishiga ko'ra, insonning foydali mehnatidan oldin paydo bo'lgan, shunga ko'ra san'at ham, shubhasiz, insonning foydali narsalarni ishlab chiqarishidan oldin vujudga kelgan, faqat insonga qoniqish hissini bahshida etuvchi tabiat ehsonidir. Uning asosiy maqsadi lazzatlanishdir.

1.4. Taqlid nazariyasi. Bu nazariya asoschilari Demokrit va Aristotel hisoblanadi. Ular san'atning asosiga insonning tabiatdagi narsalarga taqlid qilishini qo'yadilar. Masalan, Demokritning fikricha, san'at, eng avvalo, tabiatga taqliddir. Chunki biz tabiatdagi narsalarga taqlid qilganimiz tufayli o'rgimchakdan ip-mato to'qish san'atini, qaldirg'ochdan uy qurish san'atini, sayroqi kushlardan qo'shiq aytish, kuylash san'atini o'rganganmiz.

2. San'atning vujudga kelishi va ijtimoiy tabiati. San'at kishilik jamiyatining ilk davrlaridayoq vujudga kelgan ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida san'atning vujudga kelishi, qadimshunos, tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, neolit – yangi tosh davri *(neos* – yangi, *litos* – tosh degan ma'noni bildiradi) – miloddan avvalgi 6-7 ming yilliklarga to'g'ri keladi[143].

Ibtidoiy san'atning yangi asosda rivojlangan bosqichi ham neolit davriga to'g'ri keladi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'at namunalari topilgan. O'tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida Markaziy Osiyoning tog'li tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari diqqatga sazovordir. Ular ishlanish usuliga ko'ra ikki xil bo'lib, bir qismini bo'yoq bilan chizilgan, boshqalarini esa urib, o'yib, ishqalab hosil qilingan suratlar (petrogliflar) tashkil etadi.

Respublikamizdagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilarda bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami, ya'ni ibtidoiy buqalar, sherlar, yo'lbarslar, qoplon, tulki, bo'ri, bug'u va jayron kabilarning rasmlarini kuzatish mumkin. Ammo rasmlar orasida o'q-yoy, qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalarning tasvirlari ham talaygina.

O'zbekistan qoyatoshlaridagi rasmlar mazmunan boy va manzarasi jihatidan xilma-xildir. Unda odamlar, ularning ov qilishlari, yirtqich hayvonlarning to'qnashuvlari tasvirlangan.

Respublikamizdagi eng qadimgi suratlar Zarautsoyda (Surxondaryoda) bo'lib, ular mezolit-neolit, ya'ni mil. av. VIII-IV ming

[143] Қаранг: Ўзбекистон тарихи. 1– қисм. – Т.: Университет, 1997. – Б.24.

yillikka oiddir[144]. Qoyatosh rasmlari orqali o‘sha davr odamlarining ov, mehnat va jang qurollari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi ajdodlarimizning g‘oyaviy qarashlari va diniy e’tiqodlarini o‘rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tarixiy dalillar o‘zbek xalqining eng qadimiy xalqlardan ekanligi, uning san’ati ham o‘zi kabi qadimiyligidan dalolat beradi. O‘zbekning diyori jahonda ilk bor san’at vujudga kelgan qadimiy o‘lkadir. Bu shu o‘lkada yashab, ijod qilgan ajdodlarimizning nihoyatda mehnatsevar xalq bo‘lganidan dalolat beradi.

San’atni ilk bor vujudga keltirgan va asrlar osha harakatga solgan kuch insonning ongli, samarali ijodiy mehnatidir. Ibtidoiy odamlarning ilk bor qoyatoshga tushirgan rasmlari negizida paydo bo‘lgan tasviriy san’atdan hamda keyinchalik ularning nimalarnidir aytish, xirgoyi qilish, kuylash, jonli ifoda etishga intilishlarilari tufayli paydo bo‘lgan dastlabki musiqa, qo‘shiq, raqslaridan boshlab hozirgi kunda yuksak malakali va mohir san’atkorlar tomonidan yaratilayotgan yuzlab san’at asarlarigacha – hamma-hammasining asosida insoniyatning ongli ijodiy mehnat faoliyati yotadi.

Mazkur mehnat faoliyati davomida tabiatni, jamiyatni, bir-birlarini qayta anglash jarayoni boshlanadi, bu esa, o‘z navbatida, odamlar o‘rtasida yangicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa xil munosabatlarning shakllana borishiga olib keladi. Xuddi shu jarayonda voqelikni go‘zallik qonunlari asosida tushunish, idrok etish va qayta baholash boshlanadi. Vaholanki, voqelikni go‘zallik qonunlari asosida tushunish, idrok etish va baholash hamda o‘zgartirish san’at ijtimoiy tabiatining tamal toshi hisoblanadi.

San’atning ijtimoiy tabiatini ifodalovchi muhim jihatlardan birini har qanday san’at turining voqelikni badiiy qiyofalarda (obrazlarda) aks ettirish orqali insonning olijanob his-tuyg‘ularini o‘stirish, kayfiyatini ko‘tarib, uni zavq-shavq bilan samarali mehnat qilishga undash, ona tilini so‘z san’ati darajasiga ko‘tarib, uning kuch-qudratini namoyish etish, ajdodlar tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lgan madaniy meros durdonalarini kelgusi avlodlarga etkazib berish va uning buyuk kelajagini bashorat qilish tashkil etadi. Shunga ko‘ra, har qanday san’at turining mazmuni va mohiyati uning ijtimoiy tabiatiga qarab belgilanadi. Bu esa san’at rivojining obyektiv qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

[144] Ўзбекистон тарихи. 1– қисм. – Т.: Университет, 1997. – Б.24.

3. San'atning ta'rifi va xususiyatlari. San'at deganda odatdagi kundalik turmushimizda, birinchidan, yuksak mahorat va ustalik bilan bajarilgan yoki bajariladigan ishlar (masalan, haydovchining avtomobilni boshqarish yoki futbolchining to'p surish mahorati, jarroh yoki shaxmatchining ustaligi); ikkinchidan, amaliy ishlarni go'zallik qonunlari asosida bajarish (masalan, bog'bon yoki zargarning insonni lol qoldiradigan biron narsani mohirlik bilan yaratishi); uchinchidan, badiiy ijod ishlari (masalan, she'r yozish, rasm chizish, musiqa yaratish, ashula aytish va boshqalar) tushuniladi.

Shundan ham ko'rinib turibdiki, san'at keng qamrovli tushunchadir. Shuning uchun ham unga turli davrlarda turli olimlar tomonidan har xil ta'riflar berilgan.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda san'atga quyidagicha ta'rif berish mumkin.***San'at deb – kishilarning voqelikni badiiy qiyofalar, timsollar (obrazlar) orqali in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ongga hamda uni go'zallik qonunlari asosida o'zgartirishga qaratilgan badiiy amaliy-ijodiy mehnat faoliyatiga aytiladi.***

Ijtimoiy ong shakli sifatida san'at borliqni aniq his bilan idrok etishning muayyan ko'rinishi bo'lgan tipik badiiy qiyofalar, timsollar orqali aks ettirar ekan, albatta, davr talabidan, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hayotning negizlaridan kelib chiqqan holda undagi ijtimoiy munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Shunga ko'ra, u san'atkorga emas, balki kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitiga bog'liq bo'ladi.

San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllari bo'lgan siyosat, huquq, axloq, din kabilardan quyidagi qator xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. San'at, boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli o'laroq, voqelikni aniq tushunchalar va ilmiy kategoriyalarda emas, balki badiiy qiyofalar, timsollarda aks ettiradi. Masalan, o'zbek xalqining atoqli adibi Abdulla Qodiriy xalqimizning yaqin o'tmishdagi turmushi, tarixi, siyosati, odobi, tili va dilini o'zining «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarida yaratgan Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, Mirzakarim Qutidor; Anvar, Ra'no, Solih mahdum, Sultonali mirzo, Safar kabi obrazlari orqali ifodalab bergan.

2. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllari aks ettira olmaydigan xodisalarni – insonning ruhiy dunyosini tushunishga, uning ichki sirlari bilan oshno bo'lishga imkon beradi. Masalan, o'zbek xalqining zabardast shoiri Abdulla Oripovning *«Birinchi muhabbatim»* she'rida har bir insonning qalbiga ilk bora oshno bo'ladigan ajib bir tuyg'u, hech bir fan tushuntirib bera olmaydigan his shoir nazmida quyidagicha ifodalanadi:

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,

Zuhro yulduz miltirib, xira-xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.
Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.
Yo'lin yo'qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G'ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay,
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.
Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq, tutdim,
Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim,
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim.

3.San'atning bosh masalasi, eng avvalo, hazrati Insonni, uning ko'p qirrali ijtimoiy faoliyatini aks ettirishdan iborat. Shuning uchun ham jahon mutafakkirlari san'at va adabiyotni insonshunoslik fani deb ham ataydilar. Masalan, zamonamizning hassos shoiri Erkin Vohidov o'zining *«Inson»* nomli qasidasida olamning sarvari bo'lgan insonni, uning dunyo rivojidagi o'rnini quyidagi satrlarda yuksak mahorat bilan ifodalaydi:

Sobitu sayyorada inson o'zing, inson o'zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o'zing, sulton o'zing.
Sobit o'z ma'vosida, sayyor fazo dunyosida,*
Koinot sahrosida karvon o'zing, sarbon o'zing.
Shams — dil taftingdadur, sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur, bog'bon o'zing, posbon o'zing.
Bu yorug' dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur, mehmon o'zing, mezbon o'zing.
Bunda oq birla qaro, zulmat, ziyo, shohu gado,
Jang qilurlar doimo, ul yon o'zing, bul yon o'zing.
Sen balo, ham mubtalo, xayr ila kin, rostu riyo,
Fitnagar olam aro fatton o'zing, qurbon o'zing.*

**маъво – турар жой, бошпана, манзил*
***фаттон – мафтункор, сеҳрловчи*

Goh adolat bog'ida, piri adolat gohida,
O'z diling dargohida shayton o'zing, g'ilmon o'zing.
Xormisan yo gulmisan, tojdormisan yo qulmisan,
Chog'misan, bulbulmisan, nodon o'zing, xushxon o'zing.
Bu hayot o'rmon ekan, jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan, sirtlon o'zing, jayron o'zing.
Onaizoring – zamin, tanho yo'g'u boring – zamin.
Xasta bemoring – zamin, o'g'lon o'zing, darmon o'zing.
Bag'rida yotquchi — sen, ne'matlar totquchi sen,
Tig' bo'lib botquchi – sen, paykon o'zing, qalqon o'zing.
Bo'lmasin subhing qaro, bor bo'l mudom borliq aro,
O'zni etgil doimo inson o'zing, inson o'zing.

4. San'atda «badiiy obraz» tushunchasi va uning ahamiyati. Ma'lumki, san'at boshqa ijtimoiy ong shakllaridan (axloq, siyosat, huquq, din, fan va boshqalardan) voqelikni badiiy obraz orqali aks ettirishi bilan ajralib turadi. San'atga asosan ikki holat, birinchidan, voqelikni estetika qonunlari asosida idrok etish; ikkinchidan, odamlarning o'z fikr-mulohazalari, ichki hissiyotlari va tuyg'ularini bir-birlariga so'z, ohang, tovush, imo-ishora kabilar orqali etkazish xosdir. Har ikki holatning ham boshlang'ich nuqtasida voqelikni bilish qonuniyatining san'atda obrazli tarzda ijodiy aks ettirishda namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Xo'sh, badiiy obraz deb nimaga aytiladi?

Badiiy obraz deb san'atkor tomonidan voqelikni so'zlar, tovushlar, ohanglar, imo-ishoralar, ranglar, tasvirlarda moddiy, hissiy, ma'naviy ifodalash shakllariga aytiladi.

Bunday ifodalash shakllari jumlasiga qiyoslash, personaj[145], badiiy asar kabilar kiradi.

Qiyoslash, o'xshatish deganda odatda, san'atkorning voqelikdagi biron-bir narsa, hodisani badiiy jihatdan ikkinchi bir narsa, hodisaga o'xshatgan, qiyoslagan holda tasvirlash usuli tushuniladi. Masalan, Vatan – bu oltin beshik, Vatan – bu ona deganda Vatan onaga, oltin beshikka qiyoslanadi, o'xshatiladi.

Personaj – badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs bo'lib, san'atkor u orqali o'zining voqelikka bo'lgan munosabatini bildiradi. Masalan, shoir Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari personajlarini asosan qushlar – Yapaloqqush, Boyo'g'li, Qo'rqush, Hudhud, Sho'ranul, Malik Shohin va Kordonlarning kinoyaviy-allegorik obrazlari tashkil etadi.

[145] *Персонаж* – латинча "persona" сўзидан олинган бўлиб, шахс деган маънони англатади.

Badiiy asar – ijodkorning voqelikda sodir bo‘lgan yoki bo‘ladigan narsa va hodisalarga nisbatan bildirilgan his-tuyg‘usi, fikrini ifodalovchi san’at turi. Masalan, Alisher Navoiyning sof sevgi kuch-qudratini madh etuvchi «Farhod va Shirin» dostoni shunday asarlar jumlasiga kiradi.

Obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni badiiy qiyofa orqali aks ettirish o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan in’ikosning boshqa turlaridan ajralib turadi:

– badiiy qiyofada voqelik umumiy tarzda emas, balki alohida-alohida aks ettiriladi. Ya’ni umumiylikdan xususiylikka va undan alohidalikka qarab borish badiiy qiyofada ijodiy in’ikos qilishning asosiy xususiyati hisoblanadi;

– badiiy qiyofa orqali aks ettirishda tafakkur va his-tuyg‘ular uzviy birlikda ifodalanadi;

– san’atkor badiiy qiyofada aks ettirish orqali badiiy haqiqatni yaratadi. Masalan, Alisher Navoiyning musavvir L. K. Kaydalov ishlagan surati badiiy haqiqat jumlasiga kiradi. Chunki, tomoshabin unga qarab haqiqatan ham tarixda aynan shunday odam – shoir yashaganligiga to‘la ishonch hosil qiladi.

San’atda badiiy qiyofa quyidagi ahamiyatga ega bo‘ladi:

birinchidan, turfa xil olamni rang-baranglikda aks ettirish;

ikkinchidan, aks ettirilgan olam to‘g‘risidagi fikr va his-tuyg‘ularni o‘zgalarga etkazish, o‘zligini ifoda etish;

uchinchidan, yosh avlodni go‘zallik qonunlari asosida tarbiyalash.

5. San’atda mazmun va shakl. Mazmun va shakl munosabati san’atdagi muhim masalalardan biridir. Odatda, mazmun deganda narsa va hodisalarning ichki jarayonlari, xossalari, aloqalari, ziddiyatlari, rivojlanishlarining majmui tushunilsa, shakl deganda mazmunni ifodalash usullari tushuniladi.

Mazmunsiz shakl va shaklsiz mazmun bo‘lmaydi. Mazmun va shakl doimo uzviy birlikda bo‘lib, mazmun muayyan bir shaklda namoyon bo‘lsa, shakl ham muayyan bir mazmunni ifodalaydi.

San’at asarlarining mazmuni deb mazkur asarda ifodalangan narsa, voqea, hodisalarning ichki jarayonlari, aloqalari, ziddiyatlari, rivojlanishidagi muqobil holatlar majmuiga aytiladi.

Har qanday san’at asarining mazmuni asar uchun tanlangan mavzu va unda ifodalangan g‘oyaning uzviy birligidan tashkil topadi. San’at asarining mavzui deganda, odatda, asar uchun tanlangan obyekt hamda unda aks ettirilgan hayotiy voqea, jarayonlar tushuniladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romaniga mavzu qilib o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishdagi ijtimoiy turmushi tanlab olingan

bo‘lsa, yozuvchi Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» nomli romaniga sobiq sho‘rolar davrida butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida elkasi oftob ko‘rmagan, qut-barakot yurtida kosasi oqarmay, «paxta ishi», «o‘zbek ishi» bahonasida tavqi-la’nat tamg‘asi bosilgan o‘zbek xalqining hayoti mavzu qilib olingan. Tanlangan bu mavzu o‘zining mantiqiy intihosida shunday tasvirlanadi:

«Ivan Ivanovich! (Chor Rosiyasi va qizil imperiyaning qonxo‘r jallodlari haqida. – N.M.) Men senga yuz o‘ttiz yil yurtim to‘rini berdim, yuz o‘ttiz yil uyim to‘rini berdim – ammo sen bilan el bo‘lmadim!

Ivan Ivanovich! Men sen bilan yuz o‘ttiz yil elkama-elka kun kechirdim, yuz o‘ttiz yil chizgan chizig‘ingdan chiqmadim – ammo sen bilan el bo‘lmadim!

Yuz o‘ttiz yil tur desang turdim, o‘tir desang o‘tirdim, yuz o‘ttiz yil kul desang kuldim, yig‘la desang yig‘ladim – ammo sen bilan el bo‘lmadim!

Ivan Ivanovich! Men yuz o‘ttiz yil o‘zim kiymadim – senga kiydirdim!

Ivan Ivanovich! Men yuz o‘ttiz yil o‘zim emadim – senga edirdim, yuz o‘ttiz yil o‘zim ichmadim – senga ichirdim... ammo sen bilan el bo‘lmadim!

Ivan Ivanovich! Sen tirigim tirnog‘ini eding, sen o‘ligim yog‘in eding – ammo to‘ymading!

Ivan Ivanovich! Men ochlikdan o‘lmadim – sen to‘qlikdan yorilmading!

Ivan Ivanovich! Men seni yuz o‘ttiz yil to‘ng‘ich akam, dedim. Bo‘ldi – men endi seni to‘ng‘ich akam, demayman.

Men endi seni to‘ng‘ich aka degich tillarimni kesib itga tashlayman!..

Ivan Ivanovich! Dalalarimda nu-nulamay tur, endi.

Dalalarim diydoriga to‘yib-to‘yib olayin, endi.

Ivan Ivanovich! Sen dala nimaligini bilarmiding? Sen sadqai dala ket!

Sen qo‘sh jomadon ko‘tarib daydishni bilasan. Sen g‘ildirakli jomadon sudrab daydishni bilasan.

Sen qaysi yurt mevazor – shu yurtni makon etasan. Sen qaysi el mehnatkash – shu elni makon etasan...

Qator-qator daydib kelasanu ... osayishta-osayishta el-yurtni alg‘ov-dalg‘ov etasan.

Ota bilan bolani gij-gij etasan.

Aka bilan ukani kov-kov etasan...

Dalalarim bobolarim achchiq-achchiq ko‘z yoshlaridan dala bo‘ldi.

Dalalarim otalarim sho'rpeshona terlaridan dala bo'ldi.
Dalalarim ayollarim gulday xazon umridan dala bo'ldi.
Dalalarim – bobolarim sho'r-sho'r peshonasi.
Dalalarim – otalarim yag'ir-yag'ir elkasi.
Dalalarim ayollarim xazon-xazon umri.
Men... dalalarimni deya, qaytib kelaman!
Etti iqlimdan bo'lsa-da, qaytib kelaman»[146].

San'at asarining mazmuni faqat uning mavzui bilan cheklanib qolmasdan, balki uning g'oyasini ham qamrab oladi.

San'at asarining g'oyasi deb ijodkorning asarda aks ettirilayotgan narsa, voqea, hodisa, jarayonlarning hayotdagi o'rni, mohiyati, ma'nosi yuzasidan bildirgan fikri, qarashlari va ularga munosabatiga aytiladi.

Mavzu – asarda aks ettirilgan voqea, hodisalar bo'lsa, g'oya ularga ijodkorning munosabati, fikr va qarashlarini anglatadi. Har qanday san'at asarining mazmunini qamrab oluvchi mavzu va g'oya bir-biridan ajralmasdir.

Masalan, yozuvchi Muhammad Alining qalamiga mansub «Ulug' saltanat» nomdi romanining mavzuini – vatandoshimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, g'oyasini esa Amir Temurning ona Vatan ozodligi va obodligi yo'lidagi kurashi, kuch adolatda ekanligi tashkil etadi.

San'at asari hamma vaqt biron-bir shaklda ifodalangan bo'ladi.

San'at asarining shakli deb mazkur asarning tuzilishiga, undagi mazmunni ifodalovchi usullar, vositalarga aytiladi.

San'at asarining shakllariga asosan syujet, janr, kompozitsiya, shuningdek, vazn, qofiya, turoq, ohang va boshqalar kiradi.

Syujet – fransuzcha so'z bo'lib (sujet), 1) badiiy asarda ifodalangan voqealarni ketma-ket bayon qilish; 2) tasviriy san'atda – tasvirlash predmeti ma'nolarini anglatadi[147]. Syujet – badiiy asar mazmunini unda tasvirlangan voqea-hodisalarning o'zaro birligi, kurashi va rivojlanishini ketma-ket bayon qilish orqali ifodalashdir.

Masalan, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanining syujetini Anvar va Ra'no sevgi-muhabbatining tarixi tashkil qilsa, Abdulla Qahhorning «Sinchalak» romanida syujet bosh qahramonlar Saida va Qalandarovlar o'rtasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish borasidagi munosabatlarning rivojlanib borishidan iborat. Syujet har qanday badiiy asarning negizi hisoblanadi. Unda bosh, ya'ni birinchi

---

[146] Қаранг: *Мурод Тоғай*. Отамдан қолган далалар. Роман. – Т.: Шарқ, 1994. – Б.260 – 262.

[147] *Қаранг:* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3.– Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.– Б.608.

darajali voqea-hodisalar o‘z ifodasini topadi. Syujet, bir tomondan, mazmunga, ikkinchi tomondan, shaklga aloqador bo‘ladi.

San’at asarining kompozitsiyasi deganda 1) adabiy asar, san’at asari qismlarining tuzilishi, joylashuvi va o‘zaro munosabati; 2) tarkibiy qismlari ma’no jihatidan o‘zaro bog‘lanib birlik tashkil etgan badiiy asar, musiqa yoki rassomlik asari; 3) musiqa asari yaratish nazariyasi tushuniladi[148].

Shunga ko‘ra, har qanday asar o‘ziga xos kompozitsiyaga ega bo‘lib, ushbu kompozitsiya mazmun va shaklni o‘zaro bog‘lab turuvchi belbog‘ hisoblanadi. Badiiy asar kompozitsiyasining asosiy elementlarini ritm, simmetriya, badiiy parallellik va boshqalar tashkil etadi.

Masalan, Toshkent shahrining Amir Temur xiyoboniga o‘rnatilgan Amir Temur haykalining kompozitsiyasida shunday ma’no bor, ya’ni buyuk bobokalonimiz – sohibqiron Amir Temur qo‘rqmas, bahodir, ayni vaqtda dono lashkarboshi, islom homiysi, yurtni bosqinchilardan ozod qiluvchi daho qiyofasida aks ettirilgan. Xuddi shu joyda syujet va kompozitsiyaning birligi ham ta’minlangan. Sayoz syujet kompozitsiyani o‘ldirganidek, o‘lik kompozitsiya ham har qanday yaxshi syujetni yo‘qqa chiqaradi. Syujet va kompozitsiyaning uyg‘unligini ta’minlash har bir san’at asari ijodkorining muqaddas vazifalaridan biri hisoblanadi.

San’at asarlarining shaklini tushuntirib berishda janr masalasi muhim o‘rinlardan birini egallaydi. *Janr*[149]san’at asarining tarixan tarkib topgan, nisbatan turg‘un biron turiga mansubligini ifodalovchi ichki bo‘linishining tashqi ko‘rinishidir.

San’atda asosan – roman, qissa, hikoya, esse, lirik she’r, drama, portret, peyzaj, natyurmort, simfoniya, sonata, opera, balet, qo‘shiq, raqs, marsh kabi janr turlari mavjuddir.

San’atda shakl quyidagi usullar bilan ifodalanadi: badiiy adabiyotda – til; tasviriy san’atda – rang; musiqada – tovush, ohang; raqsda – imo-ishora.

6. San’atni tasniflash prinsiplari. Obyektiv olamdagi narsa va hodisalar turli-tuman bo‘lganidek, ularning badiiy in’ikosi bo‘lgan san’at ham shunchalik xilma-xil va rang-barangdir. Masalan, badiiy adabiyot, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik, naqqoshlik, ashula, raqs, me’morlik, teatr, kino va boshqalar.

San’atdagi ana shu xilma-xillik va rang-baranglik madaniy borliqning ijodkori bo‘lgan inson ijodiy faoliyatining tarixiy rivojlanish

---

[148] *Қаранг:* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.2. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат.илмий нашриёти, 2006.– Б.396–397.

[149] *Жанр* – французча “genre” – жинс,тур деган маънони англатади.

bosqichlarida vujudga kelgan bo‘lib, ularni tasniflash masalalari bilan uzoq o‘tmishdan hozirgi kungacha ko‘plab mutafakkirlar, olimu fozillar shug‘ullanganlar.

Masalan, qadimgi davr mutafakkiri Arastu (Aristotel) o‘zining «Poetika» asarida san’at turlari bir-birlaridan nima bilan taqlid qilishlari, nimaga taqlid qilishlari va qanday taqlid qilishlari bilan farq qiladi[150], deya san’at turlarini tasniflashning uch mezoni – nimani aks ettirishi, qanday aks ettirishi, nimada aks ettirishi – to‘g‘risida to‘g‘ri fikr bildiradi.

XVIII asrda yashab ijod etgan fransuz ma’rifatparvari Deni Didro (1713–1784) Aristotelning «taqlid nazariyasi»ga qo‘shilgan holda, agar san’atda so‘zlar orqali taqlid qilinsa – notiqlik, agar tovushlar orqali taqlid qilinsa – musiqa, ranglar orqali taqlid qilinsa – musavvirlik, yog‘och, tosh, marmar va shunga o‘xshash moddiy ashyolar orqali taqlid qilinsa, bunday san’at haykaltaroshlik deb ataladi[151], degan holda san’atda so‘z, musiqa, tasviriy san’at, rassomlik va haykaltaroshlik turlarini ajratadi.

Hozirgi kunda san’atni quyidagacha tasniflash mezonlari mavjud.

Birinchidan, san’atni ijtimoiy ong shakli deb bilgan holda uni aks ettirayotgan ijtimoiy borliqning mazmuniga qarab tasniflash mezoni. Bu prinsipga ko‘ra, san’at quyidagi turlarga ajratiladi:

– makonda mavjud bo‘lgan san’at turlari – arxitektura, haykaltaroshlik, musavvirlik va boshqalar;

– zamonda mavjud bo‘lgan san’at turlari – badiiy adabiyot, she’riyat, musiqa va boshqalar;

– makonda va zamonda mavjud bo‘lgan san’at turlari – teatr, kino, televidenie, estrada, sirk va boshqalar.

Ikkinchidan, san’atning obyektiv voqelikni aks ettirishda nisbiy mustaqillikka ega ekanligiga qarab tasniflash prinsipi. Unga ko‘ra san’at tasviriy va ifodali turlarga bo‘linadi. Tasviriy san’at turlariga – musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika), badiiy fotografiya (surat); ifodali san’at turlariga esa bezakli-amaliy san’at, me’morchilik san’ati va musiqa kiradi.

Uchinchidan, san’atni inson amaliy faoliyatining shakllaridan biri deb bilgan holda, tashki olamni badiiy jihatdan o‘zlashtirish va o‘zgartirishda qo‘llaydigan moddiy-ma’naviy ashyosiga, uslublariga qarab tasniflash prinsipi. Unga ko‘ra san’at – amaliy, tasviriy, so‘z va tomosha turlariga ajratiladi. Bunda amaliy san’at turlariga – me’morchilik, bezak, naqshlar kirsa; tasviriy san’at turlariga esa rassomlik, haykaltaroshlik, grafika, fotografiya kabilar kiradi. So‘z san’ati turlariga – badiiy adabiyot,

[150] Қаранг: *Аристотель*. Поэтика.– Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти,1980.– Б.10– 11.
[151] Қаранг: *Дени Дидро*. Избр. произ. – М– Л., 1951. – С.386.

musiqa, ashula, qo‘shiqlar kirsa; tomosha san’ati turlariga esa teatr, kino, sirk, televidenie kabilar kiradi.

San’atni yuqorida keltirilgan prinsiplar asosida turlarga ajratish voqelikni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etgan holda san’at turi degan tushunchaga umumiy ta’rif berish imkoniyatini ham beradi.

San’at turi deb aks etilayotgan predmetga, yaratilgan qiyofaning xarakteri va tipiga, estetik ehtiyojni qondirish usuliga, badiiy qiyofani yaratishda qo‘llaydigan o‘ziga xos material va qonunlariga ko‘ra farqlanuvchi inson badiiy faoliyatining sohasiga aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, san’at turlarining soni hamma vaqt ikki uzviy holatga: birinchidan, obyektiv olamdagi narsa, voqea, hodisa va jarayonlarning nihoyatda ko‘pligi, murakkabligi, serqirraligi, turli-tumanligiga; ikkinchidan, subyektiv omil hisoblanmish inson his-tuyg‘ulari, idrok etish qobiliyatining xilma-xil va rang-barangligiga, xayolot olamining cheksizligiga bog‘liqdir.

7. San’atning vazifalari. San’at hamma vaqt insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi, uda «insoniylik»ni shakllantiruvchi, shaxsni ijtimoiylashtiruvchi, uning ijodiy qobiliyatini amalda ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. San’at borligi tufayli odamlar tashvishlarini unutadilar. Bularning hammasi san’atning vazifalariga kiradi.

Umuman olganda, san’at ijtimoiy borliqning badiiy in’ikosi bo‘lgan ijtimoiy ong shakli va inson amaliy faoliyatining ijodiy turi sifatida bilish, aloqa, tarbiyalash, ma’rifatparvarlik, zavq berish va evristik (kashf etish, ochish) vazifalarini bajaradi.

San’atning bilish vazifasi. Bilish – voqelikning, uning qonunlarining inson ongida ma’lum maqsadga qaratilgan faol in’ikosi. Demak, voqelikning badiiy in’ikosi bo‘lgan san’at ham shaxs, guruh, sinf, jamoa va jamiyatning ma’naviy dunyosini, rivojlanish qonuniyatlarini bilishning o‘ziga xos usullaridan biridir.

Obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni bilishda tabiiy va ijtimoiy fanlar qonunlar, kategoriyalar va mantiqiy xulosalar orqali ish ko‘rsa, san’at esa, ulardan farqli ravishda, badiiy asarlarda aks ettirilgan shaxs qiyofasi orqali ish ko‘radi. SHunga ko‘ra san’atdagi bilish-anglash jarayoni, birinchidan, badiiy asarni o‘qitayotgan o‘quvchi-muxlisga ushbu asarda ifodalanayotgan voqealarda xayolan ishtirok etish imkoniyatini beradi. Asardagi qahramonlarning xatti-harakatlariga qarab, o‘quvchi-muxlis his-hayojonga tushadi, quvonadi, qayg‘uradi, mavjud real voqelikka baho beradi. Voqelikka baho berish esa bilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ikkinchidan, tasvirlanayotgan narsalar, voqea-hodisalarning mohiyatini ochib berish orqali, inson hayotining fan kuchi etmaydigan sirli tomonlarini ochish, ya'ni inson ma'naviy-ruhiy holatlarining tilsimini bilish imkoniyatini beradi.

Masalan, Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asarini o'qir ekansiz yoki shu asar asosida ishlangan filmni tomosha qilar ekansiz, sobiq sovetlar davrida ezilgan, tahqirlangan, paxta deya latofatidan, o'zligidan ayrilib, vujudi temirga aylangan o'zbek ayolining achchiq qismati xayolingizga keladi; ko'nglingizda sobiq sovet totalitar tuzumiga nisbatan nafrat, o'zbek ayolining qadrini ko'tarish, izzat-hurmatini joyiga qo'yish istagi jo'sh uradi.

Xuddi shuningdek, Tohir Malikning «Shaytanat» nomli asari bilan tanishgan o'quvchi jaholat dunyosining achchiq qismatidan voqif bo'ladi, dilida uyushgan jinoyatchilikka qarshi nafrat ortadi, tezroq adolatning tantana qilishi, dunyoda yovuzlikning yo'q qilinishi istagi bilan yashaydi.

San'atning bog'lash, aloqa o'rnatish vazifasi. San'at ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida o'zida turli davrlarda va mamlakatlarda yashab o'tgan xalqlarning bir butun olam to'g'risidagi tasavvurlarini, his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini mujassamlashtirgan holda kelgusi avlodni, tili va dini boshqa bo'lgan odamlarni, qolaversa, butun dunyo xalqlarini ular bilan tanishtiradi; ular o'rtasida aloqa o'rnatadi.

San'at aloqa vazifasi orqali asarlar yordamida ajdodlarni avlodlar bilan, dunyo xalqlarini bir-birlari bilan bog'laydi.

San'atning aloqa vazifasiga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. San'at o'zining aloqa vazifasi bilan dunyo xalqlarining tili xilma-xilligi tufayli yuzaga kelgan chegaralarni buzib o'tadi va ular o'rtasida do'stlik, hamkorlik, qon-qardoshlik, ma'rifatparvarlik aloqalarini o'rnatadi. Masalan, musiqa, raqs, me'morchilik, tasviriy san'at asarlari tili boshqa xalqlar uchun umumiy badiiy asarlar hisoblanadi. Ularni ko'rgan har bir xalq zavq-shavq oladi.

2. San'at orqali bog'lanish faqatgina aqliy-amaliy darajada bo'lib qolmasdan, balki hissiyotlar, tuyg'ular, ibrat ko'rsatish, tarbiya berish orqali ham sodir etiladi. Masalan, mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan san'at va madaniyat kunlari, har xil san'at asarlarining ko'rgazmalari, qo'shiq bayramlari xalqlar o'rtasidagi do'stlikning kuchayishiga, jaholatning chekinishiga olib keladi.

3. San'atning aloqa vazifasi orqali san'atdagi milliylik umuminsoniylik bilan qo'shilib, bir butunlikni tashkil etadi. Oqibatda, bu bir butunlik umuminsoniy qadriyat tusini olgan san'at asari shakliga kirib,

butun dunyo xalqlarining madaniy merosiga aylanadi. Bunday san'at asarlari jumlasiga Alisher Navoiy, Bobur, Shekspir, Rembrant, Betxoven, Umar Hayyom, Leonardo da Vinchi va boshqalar yaratgan asarlar kiradi.

San'atning tarbiyalash vazifasi. San'at asarlarining tarbiyaviy kuchi shunda ifodalanadiki, unda aks ettirilgan qahramonlarning qiyofasio'quvchi-muxlisni his-hayojonga tushishga, quvonishga, nafratlanishga majbur qiladi. Oqibatda, o'quvchi-muxlis o'zi sevgan qahramonga o'xshashga, u bajargan ishlarni bajarishga harakat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanini o'qigan yoki shu nomli filmni tomosha qilgan yigit yoki qiz o'zini Anvar kabi mard, jasur, sevgisiga vafo qiluvchi; Ra'no kabi iffatli, chiroyli, shirin so'zli, dono, vafodor bo'lishga harakat qiladi. Bu shundan darak beradiki, san'at insonning qalbi, ruhiyati, irodasiga ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi, o'zini o'zi chuqur anglab olishiga imkon beradi.

San'atning tarbiyaviy vazifasi, birinchidan, uning insoniyat tomonidan yaratilgan boy madaniy merosni kelgusi avlodlarga yetkazib berishi; ikkinchidan, insonning ehtiyojlarini qondiruvchi, his-hayajonlarini junbushga keltiruvchi sehrli kuch; uchinchidan, hayotning barcha jabhalarini o'zida mujassamlashtirgan insoniyat tajribasining majmui; to'rtinchidan, olamni go'zallik qonunlari asosida o'zgartiruvchi vosita ekanligida ifodalanadi va kishilarda nafis his-tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qiladi.

San'atning zavq berish va evristik vazifalari. San'atning eng muhim vazifalaridan biri voqelikni go'zallik qonunlari orqali o'zgartirishdir. Bu, avvalo, har qanday san'at asarining odamlarga zavq-shavq berishi, ularning his-tuyg'ularini junbushga keltirib, mehnat qilish qobiliyatini ishga solishi, yangi ijodiy ishga rag'batlantirishi, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirishida ko'rinadi.

San'atning zavq berish vazifasi deganda, odamlarning san'at asarlarini o'qish, ko'rish, eshitish orqali estetik zavq olishi, rohatlanishi tushuniladi. Masalan, tinmay mehnat qilib turgan dehqon mumtoz asarlar hisoblanmish

«Munojot» yoki «Tanovar»ni tinglab, rohatlanadi yoki uning kuyiga raqs tushgan raqqosalarning o'yinini ko'rib zavqlanadi.

San'atning evristik vazifasi deb odamlarning san'at asarlarini o'qish, ko'rish, eshitish, ma'nosini chaqish asosida o'zlarining ijodiy mehnat faoliyatlarida yangi-yangi narsalarni topishlariga, ixtiro qilishlariga aytiladi. San'at asari olim uchun biron-bir narsani kashf qilishda, biron- bir yangilikni ixtiro qilishda, topishda bevosita ta'sir ko'rsatmasa-da, unga kuch, zavq-shavq bag'ishlab, uning g'ayratiga-

g‘ayrat qo‘shgan holda bilvosita ta’sir qiladi. Xuddi shu ma’noda har qanday san’at asari evristik vazifani bajaradi.

San’atning barcha vazifalari o‘zaro ajralmas bo‘lib, bir-birini to‘ldirib turadi.

8.Badiiy adabiyot. Badiiy adabiyot badiiy ijod turlari ichida muhim o‘rin tutadi. Badiiy adabiyot, boshqa san’at turlaridan farqli o‘laroq, voqelikni so‘zlar orqali aks ettiradi. Rus yozuvchisi V.G.Belinskiy aytganidek: «Fan mantiqiy tushunchalar orqali fikr yuritish bo‘lsa, badiiy adabiyot obrazlar orqali fikr yuritishdir». Shuning uchun adabiyotni so‘z san’ati deb ham ataydilar. Badiiy adabiyotning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Adabiyotning quroli so‘z bo‘lib, u voqelikni so‘zlarda aks ettirishi bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. U boshqa ko‘pgina san’at turlarining asosini ham tashkil qiladi. Masalan, teatrda qo‘yiladigan spektakllar, kino voqealarining asosida u yoki bu badiiy asar yotadi.

2. Badiiy adabiyot obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni, kishilarning hayotini har tomonlama, o‘zining rivojlanish yo‘llariga mos ravishda aks ettiradi. Boshqa san’at turlarida bunday xususiyatlar yo‘q: ular mavjud voqelikning faqat bir tomonini aks ettiradi.

3. Badiiy adabiyot o‘zining hayotda tutgan o‘rni bilan ham san’atning boshqa turlaridan ajralib turadi. U mavjud turmush haqida ma’lumot beribgina qolmay, kelgusida qanday yashash kerakligini ham ko‘rsatib beradi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni xalqimiz «hayot darsligi» deb ataydi, yaxshi roman, qissa, hikoya, dostonlarni hamma vaqt qo‘ldan qo‘ymay, sevib mutolaa qiladi. Badiiy adabiyot har bir *kasbiy soha xodimlarining*axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi: birinchidan, hayotdagi voqealarni so‘zlar orqali ifodalab, uning siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy tomonlarini ijobiy yoki salbiy obrazlar orqali yoritib beradi; xodimning ongiga, harakatlariga ta’sir ko‘rsatib, uni qahramonlikka undaydi; ikkinchidan, san’at asarlariga baho berishni o‘rgatadi. Masalan, Tohir Malikning «Shaytanat» asarini o‘qigan odam, albatta, hayajonga tushadi, unda aks ettirilgan voqealardan o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib oladi.

Shuning uchun ham badiiy adabiyotning mohiyati haqida I.A.Karimov: «Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir»[152], – degan edi.

---

[152]*Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч.– Т.: Маънавият, 2008.– Б.136.

9.Teatr. «Teatr» so‘zi grekcha bo‘lib, o‘zbek tilida «Tomosha uchun joy» degan ma’noni anglatadi. Teatrga voqelikning aktyorlar orqali bevosita tomoshabinlar oldida ifodalanishi xosdir. Teatrda sodir bo‘layotgan voqealar tomoshabinlarning tezlikda javob qaytarishlariga qaratilgan. Teatr tomoshalari orqali kasbiy soha xodimlari o‘zlarining qilayotgan ishlarini, xulq-atvorlarini tahlil qiladilar. Spektakllarni ko‘rib o‘z qilmishlaridan qoniqish hosil qilib quvonishlari yoki o‘z-o‘zlaridan, qilgan ishlaridan uyalishlari mumkin. Bu esa ularning xulq-atvoriga, kasb mahorati oshishiga ta’sir etadi. Masalan, Hamza teatrining «Tiriklayin qo‘lga olinsin» nomli spektakli uyushgan jinoyatchilikning mohiyati, qabih ishlarini ochib tashlashi bilan bir qatorda, Kasbiy soha xodimlariningo‘z ishlariga sadoqati, mardligi, jasurligini tarannum etadi, jinoyatchilikni tugatib, odamlarni ezgulikka etaklashning naqadar zarur ekanligini badiiy obrazlar orqali ifodalab beradi.

10. Kino. Kino san’at turlari ichida muhim o‘rin tutadi. Kino jamoatchilik asosida yaratiladigan badiiy asar bo‘lib, unda san’atning barcha turlari ishtirok etadi.

Kinoda aks ettirilgan voqealar nihoyatda jonli bo‘lib, tomoshabinni o‘z komiga tortib ketadi. Bunda uning his-tuyg‘ulari qo‘zg‘alib, voqelikni teran ilg‘ab oladi. Masalan, «Jasur» filmidagi Jasur obrazi o‘zining haqqoniyligi bilan milliy gvardiyaning har bir xodimini doimo to‘lqinlantirib turadi.

Shunday qilib, san’at kasbiy soha xodimlarining estetik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu quyidagilarda ko‘rinadi:

1. U tarbiyalash vazifasini bajaradi, zero ijtimoiy hayotning in’ikosi bo‘lgan san’at asarlari ijobiy va salbiy obrazlar orqali pirovard-natijada kasb madaniyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

2. San’at kasalliklarning oldini olishda yordam beradi. San’at asarlarida hayotning qorong‘u tomonlari, illatlari, viruslar dunyosining kirdikorlari ochib tashlangani bois odamlarda virus tarqatvchilarga nisbatan nafrat, kasbiy soha xodimlariga nisbatan ishonch-hurmat hissi uyg‘onadi. Bu esa aholini kasbiy soha xodimlari bilan yanada yaqinlashtiradi.

3. San’at kasbiy soha xodimlarining kasb mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Kasb mahoratini oshirish nafaqat malaka oshirish joylarida, balki har xil ommaviy tomoshalarni, madaniy-ma’naviy dam olishlarni to‘g‘ri tashkil qilish jarayonida ham o‘sib boradi. Masalan, yaxshi musiqa yoki qo‘shiq odamning ish qobiliyatini oshiradi, uni ijodiy mehnatga undaydi.

4-§. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish – kasb axloqi va nafosatini rivojlantirishning muhim omili

1.Kitobning oddiy-kundalik tushunchasi va falsafiy ta'rifi. Odamzod paydo bo'libdiki,u doimo o'zini o'rab turgan borliqning sir-asrorlarini bilishga o'rinib kelmoqda. Shu asnoda to'plagan barcha bilimlarini jamlab, kitob holiga keltirgan holda ajdodlaridan avlodlariga etkazib bermoqda.Shu nuqtaii nazardan qaraganda kitob – bu ma'naviyat sarchasmasi,bilimlar xazinasidir.

Xo'sh, shunday ekan kitobning o'zi nima degan savol tug'iladi.Bu savolga ikki xil,ya'ni biron bir buyum-narsa tariqasida va falsafiy ma'noda javob berish mumkin. Buyum-narsa tariqasida: "**Kitob** – arabcha «yozilgan», «muqovalangan asar» degan so'zlardan olingan bo'lib,ma'lum matnli varaqlardan iborat,juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma asardir»[153]. Falsafiy ma'noda esa **kitob** – *bu moddiy va ma'naviy olamda yuz bergan va berayotgan narsa, voqea, hodisa, jarayonlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi, ularning boshqa narsalarga aylanib yangilanib borishi haqidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, ularni ajdodlardan avlodlarga yetkazib berishga xizmat qiladigan ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan asardir.*

2. Kitoblarning tasnifi.*Kitoblarning tasniflanishi deb, *ularni tabiat, jamiyat, inson tafakkurida sodir bo'lgan narsa, voqea, hodisa va jarayonlarni aks etganlik darajalariga, jamiyatning rivojlanishidagi o'rni va kishilarning shaxsiy hayotiga ta'sir etish xususiyatlariga qarab bir necha turlarga ajratishga aytiladi.*

Kitoblarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga ko'ra katta uchta guruhga ajratish mumkin.

1. Tabiat sir-asrorini o'rganish natijasida hosil qilingan bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan *tabiatshunoslikka* oid kitoblar. Masalan, fizika, kimyo, biologiya, mexanika va boshqalar.

2. Jamiyat sir-asrorini o'rganish natijasida hosil qilingan bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan *jamiyatshunoslikka* oid kitoblar. Masalan, tarix,falsafa,milliy g'oya va makura va boshqalar.

3 Jamiyatning ma'naviy hayotini go'zal ichki tuyg'ular yoki iztiroblar, muhabbatdagi sadoqat va xiyonatni, yoshlik g'ururi, keksaklik donishmandligini, ota-onalarning qadr-qimmatini o'zida aks ettirgan *badiiy* kitoblar. Masalan, Muhammad Yusufning she'rlar to'plami, Mirza

[153] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Ж.2.–Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. Б.376.

Kenjabekning tazkiralari,Muhammad Alining tarixiy romanlari shular jumlasidandir.

Kitoblarni sohalarda qo‘llanilish sohalariga qarab yana bir nechta turlarga ajratish mumkin. Masalan, huquqshunoslik ilmiga oid kitoblarni: konstitutsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, inson huquqi, tezkor-qidiruv huquqi; tibbiyotshunoslik sohasiga oid kitoblarni: terapiya, nevrologiya, pediatriya, urologiya va boshqa shunga o‘xshash turlarga ajratish mumkin. Xullas, kitob har qanday bilim sohasining ajralmas atributidir. Kitobsiz – ilm, ilmsiz – kitob bo‘lmaydi.

3. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish – davrtalabi. Bugungi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga sababhozirgi kunda yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning milliy g‘oya va mafkurani ularning qalbi va ongiga singdirish borasidao‘rni haqida mamlakatimiz Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev**: “Inson ma’naviy olamini boyitishda ulkan ta’sirga ega bo‘lgan kitob haqida so‘z ochilgan ekan, shu bilan bog‘liq muhim bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. ya’ni, bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlik darajasi qanday? U bizni qoniqtiradimi? Kim keyingi paytda qaysi kitobni o‘qidi, farzandimizga qanday kitob olib berdik?

*Afsuski, ko‘p hollarda bu savollarga ijobiy javob berishimiz qiyin.Odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko‘p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va ayni paytda eng ta’sirchan vosita - bu kitob emasmi?**Men shunga aminman - kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q.***

Albatta, hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda, televidenie, radio, internet, kompyuter, mobil telefon kundalik hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Biz ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakatimizda yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Ta'lim-tarbiya muassasalari, organ va tashkilotlar, mehnat jamoalarida shu masala bo'yicha turli tanlov, festival va aktsiyalar, kitob bayramlarini tashkil etishimiz kerak. Mavjud axborot-resurs markazlarini boyitish, kutubxonalar yo'q joylarda ularni tashkil etishimiz lozim. Ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi an'analarni davom ettirib, navoiyxonlik, boburxonlik, mashrabxonlik kechalari o'tkazsak, kerak bo'lsa, badiiy asrlarni televidenie orqali o'qitishni yo'lga qo'ysak[154]. Eng muhimi, farzandlarimizni yoshlik chog'idan kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirish, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor"[155],– degan edi.

4. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 12 yanvarda **"Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kommissiya tuzish to'g'risida"** Farmoyish,2017 yil 13 sentyabrda **"Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"** Qaror qabul qildi.

Mazkur qarorda aholining kitob mutolasini oshirish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi belgilab berildi. Bular: 1) xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish; 2) joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazib berish; milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish; 3) farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish asosida aholining mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida: ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; 4) adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish; 5) kitob

[154]***Мирзиёев Ш.М.*** Мамлакатимизнинг жавоҳир хазинаси// *Унинг ўзи.* Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.:. Ўзбекистон, 2017.– Б.114.

[155]***Мирзиёев Ш.М.*** Тошкент–барчамиз учун онадек улуғ ва муътабардир // *Унинг ўзи.* Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.:. Ўзбекистон, 2017.– Б.469.

tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralarini belgilash; 6) ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning “Ma’naviyat xonalari”ni o‘quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma’rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish; 7) mazmunan sayoz, milliy ma’naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me’yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralarini ko‘rish; 8) kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalda bajarishdan iborat.

5. Kasbiy soha xodimlari kitobxonlik madaniyati tushunchasi,uni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar. *Kasbiy soha xodimlarining* kasb axloqi va nafosatini shakllantirishda,ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ***Kasbiy soha xodimlarining kitobxonlik madaniyati deb*** *iqtidorli shaxslar,olimlar jamoasi tomonidan tabiat, jamiyat, insonning axloqiy va estetik olamini teran o‘rganish asosida yozilgan tabiiy-tibbiy, ilmiy-texnikaviy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va estetik adabiyotlarni o‘zluksiz tarzda o‘qib borish, ularni mantiqan tahlil qilish, o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib olish, ilhomlantirish, zaqlantirish xususiyatlariga ega bo‘lgan zaruriy kitoblarini fuqarolar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot qilishni tashkil etish asosida har qanday kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli amaliy xatti-harakatlarga aytiladi.*

Kasbiy soha xodimlarining kitobxonlik madaniyati shakllantirish va rivojlantirish chora-tadbirlar jumlasiga quyidagilar:

1) avlodlardan ajdodlarga o‘tib kelayotgan chuqur hayotiy mazmunga ega bo‘lgan kitoblarni topish,ayniqsa kasalliklarning oldini olish va xastalarni davolash;

2) hozirgi kunda yozilgan tabiiy-tibbiy, ilmiy-texnikaviy kitoblarni o‘qib, ulardan amaliyotda foydalinish rejalarini tuzish;

3) ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid kitoblarni o‘qitish, shu asosda o‘zi xizmat qilayotgan xududdagi ahvolga baho berish;

4) siyosiy-huquqiy adabiyotlarni o‘qitish zaminida jahonda yuz berayotgan siyosiy voqealarning mag‘zini chaqish, huquqshunoslik va qonun ijodkorligida yuz berayotgan o‘zgarishlardan tezlikda xabardor bo‘lishini ta’minlash;

5) badiiy, axloqiy va estetik adabiyotlarni o‘qish asnosida, har bir xodimning qalbida adolat va ona-Vatanga bo‘lgan his-tuyg‘usini o‘stirish;

6) o‘rganish lozim deb topilgan kitoblar asosida aholi,ayniqsa tarbiyasi og‘ir bo‘lgan yoshlar o‘rtasida kitobxonlik kechalarini o‘tkazish ishlarini tashkil etish;

7) saviyasi past, milliy g‘oya va mafkuramizga zid bo‘lgan kitoblarning aholi orasida tarqalib ketmasligining oldini olish va shu kabilar kiradi.

6.Jahon mutafakkirlari kitob va kitobxonlik haqida. Kitoblarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida jahonga taniqli mutafakkirlar shunday degan edilar.

Kitob har handay bilimning joni va yuragi, fanning ibtidosidir.

Sveyg Stefan (1881-1942) – Avstriya yozuvchisi

Kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiruvchi ixchamgina quroldir; u aqliy tanballigimiz bilan kurashishimizda bizga ko‘maklashuvchi tafakkur quvvatidir.

Fage Emil (1847-1916) fransuz tarixchi-olimi

Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko‘taradi va kuchiga-kuch qo‘shadi, unda eng yaxshi orzu-istaklarni uyg‘otadi, aqlni charxlaydi va yurakni yumshatadi.

Tekkerey Uilyam Maykpis (1811-1863) – ingliz yozuvchisi

Kitoblar aql farzandlaridir.

Svift Jonatan (1667–1745) – ingliz yozuvchisi

Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir.

Komenskiy Y.An. Amos (1592–1670) – chex donishmandi

Kitoblar orzu-istak tug‘diradi, uni hayotga chorlaydi, kishini fikrlashga majbur etadi, muhokamalarda mustaqil bo‘lish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Strumilin Stanislav (1877–1973) – rus iqtisodchi-olimi

Kitob eng olis va zimiston umr yo‘llarida insonga nur bag‘ishlab turuvchi sehrli chiroqdir.

Upit Andrey (1877–1970) – latish yozuvchisi

Kitoblar mangulik xususiyatiga ega. Ular inson faoliyatining eng umrboqiy mevalaridir. Kitoblar bizni yaxshi jamiyat sari etaklaydi, bizni barcha zamonlarning buyuk aql egalari bilan tanishtiradi.O‘smir aqlida chuqur iz qoldiruvchi kitob odatda ko‘pincha inson hayotida butun bir

4) siyosiy-huquqiy adabiyotlarni o‘qitish zaminida jahonda yuz berayotgan siyosiy voqealarning mag‘zini chaqish, huquqshunoslik va qonun ijodkorligida yuz berayotgan o‘zgarishlardan tezlikda xabardor bo‘lishini ta’minlash;

5) badiiy, axloqiy va estetik adabiyotlarni o‘qish asnosida, har bir xodimning qalbida adolat va ona-Vatanga bo‘lgan his-tuyg‘usini o‘stirish;

6) o‘rganish lozim deb topilgan kitoblar asosida aholi,ayniqsa tarbiyasi og‘ir bo‘lgan yoshlar o‘rtasida kitobxonlik kechalarini o‘tkazish ishlarini tashkil etish;

7) saviyasi past, milliy g‘oya va mafkuramizga zid bo‘lgan kitoblarning aholi orasida tarqalib ketmasligining oldini olish va shu kabilar kiradi.

6.Jahon mutafakkirlari kitob va kitobxonlik haqida. Kitoblarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida jahonga taniqli mutafakkirlar shunday degan edilar.

Kitob har handay bilimning joni va yuragi, fanning ibtidosidir.

Sveyg Stefan (1881-1942) – Avstriya yozuvchisi

Kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiruvchi ixchamgina quroldir; u aqliy tanballigimiz bilan kurashishimizda bizga ko‘maklashuvchi tafakkur quvvatidir.

Fage Emil (1847-1916) fransuz tarixchi-olimi

Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko‘taradi va kuchiga-kuch qo‘shadi, unda eng yaxshi orzu-istaklarni uyg‘otadi, aqlni charxlaydi va yurakni yumshatadi.

Tekkerey Uilyam Maykpis (1811-1863) – ingliz yozuvchisi

Kitoblar aql farzandlaridir.

Svift Jonatan (1667–1745) – ingliz yozuvchisi

Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir.

Komenskiy Y.An. Amos (1592–1670) – chex donishmandi

Kitoblar orzu-istak tug‘diradi, uni hayotga chorlaydi, kishini fikrlashga majbur etadi, muhokamalarda mustaqil bo‘lish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Strumilin Stanislav (1877–1973) – rus iqtisodchi-olimi

Kitob eng olis va zimiston umr yo‘llarida insonga nur bag‘ishlab turuvchi sehrli chiroqdir.

Upit Andrey (1877–1970) – latish yozuvchisi

Kitoblar mangulik xususiyatiga ega. Ular inson faoliyatining eng umrboqiy mevalaridir. Kitoblar bizni yaxshi jamiyat sari etaklaydi, bizni barcha zamonlarning buyuk aql egalari bilan tanishtiradi.O‘smir aqlida chuqur iz qoldiruvchi kitob odatda ko‘pincha inson hayotida butun bir

davrni tashkil qiladi. Yaxshi kitob hayotning beqiyos ganj-xazinalaridan biridir.

Smayls Sameyul (1816 – 1903) – ingliz yozuvchisi

Kitoblar qarshisida jamiki narsalar nursiz bo'lib qoladi.

Chexov Anton Pavlovich(1860–1904) – rus yozuvchisi

Kitobning kishilar hayotidagi o'rni haqida bunday oliyjanob fikrlarni ko'plab keltirish mumkin. Demak, kitob o'qish odamning aqliy salohiyatini rivojlantirib, jamiyatda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar ichidan oqini-oqqa, qorasini-qoraga ajratish imkonini beradi va shu asosda kasbiy soha xodimlarining mafkuraviy immunitetini shakllantirish va rivojlantirish, xullas ularning kasbiy axloqi va nafosatini o'stirishning asosiy omili– vositalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, *kitob – bu ilm sarchashmasi, ma'naviyat xazinasidir. Kitob o'qimagan odamda axloqiylik va go'zallikni, adolatni his etib shavq-zavq bilan yashashdan darak ham bo'lmaydi. Ayniqsa,* ***xalqni bunyodkorlik yo'lida ahloqiy-ma'naviy, estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida yozilgan kitoblarni nashr qildirishga to'sqinlik qilgan mansabdor shaxs – ma'naviy jihatdan ojiz, ko'rlik va karlik balosiga yo'liqqan odamdir, olimu-fozillarning qarg'ishiga uchragan kimsadir.***

5-§. Jinoyatchilar dunyosining g'ayri estetik madaniyati hamda uning umuminsoniy axloq va nafosatga zid mazmuni

Professional jinoyatchilarning quyidagi to'rt asosiy belgisi mavjud:

1) jinoyatchilik bilan shug'ullanishdagi barqarorlik, ya'ni biron-bir jinoyat turini sodir etishga ixtisoslashganlik;

2) ma'lum ko'nikma va malakaga ega bo'lish;

3) jinoyat orqali mol-mulk topish hayotining asosini tashkil etishi;

4) jamiyatdagi tartibga xilof tarzda hayot kechiruvchilar bilan aloqada bo'lish.

Jinoyatchilar dunyosi jamiyatning illati bo'lib, undan ajralgan holda ish ko'radi. Shuning uchun ham jinoyatchilar boshqalar bilmasligi yoki tushunmasligi uchun, o'zlarining tilini, har xil laqablarini, belgilarini ishlab chiqqanlar. Bu til (jargon), laqab, belgi (tatuirovka)lar orqali ular sirli muloqotda bo'ladilar. Ana shu sirni bilish va natijada ular sodir etmoqchi bo'layotgan jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh qilish Kasbiy soha xodimlariningvazifalaridan biridir.

Jinoyatchilar dunyosi jinoyatchilardan kishilar orasida va ijtimoiy hayotning illatlari bo'lgan boshqa qatlamlar bilan muloqot qilishda muomala qilish elementlarini: a) maxsus til, ya'ni jargonlarni; b)

jinoyatchilarning belgilari – tatuirovkalarni; v) jinoyatchilarning laqablarini yaxshi bilishlarini talab qiladi.

1. Jinoyatchilar dunyosining maxsus til – jargonlari. Jinoyatchilar dunyosi «g'ayriestetik madaniyati»ning asosiy elementlaridan birini ularning nutq madaniyatiga kiruvchi tili – **jargonlari**[156]tashkil etadi.

Jinoyatchilar dunyosida amal qiluvchi jargonlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) oddiy huquqbuzarlardan tortib, professional jinoyatchilargacha hamma foydalanadigan eng umumiy jargonlar;

2) ozodlikdan mahrum etilganlar qamoqxonalarda ishlatadigan jargonlar;

3) professional jinoyatchilar ishlatadigan maxsus jargonlar.

Jinoyatchilar dunyosining jargonlari ikki xil vazifani: birinchidan, jinoyatchilarning so'zlarini oddiy fuqarolar tushunmasligi uchun maxfiylashtirish; ikkinchidan, jargoniga qarab jinoyatchining qaysi toifaga kirishi va jinoyatchilar dunyosida qanday o'rin tutishini aniqlash, bilish vazifasini bajaradi.

Jinoyatchilar o'zlarining tilini san'at bilan qiyoslab, ularga estetik tus beradilar, ya'ni «musiqa sadolari ostida qadam tashlaydi» («по музыке ходит») debo'zlarining til hunarlarini maqtaydilar. Hozirgi kunda jinoyatchilarning lug'aviy boyligi 10 ming so'zdan ortiq bo'lgan har xil jargonlari mavjud. Shulardan ba'zilarini keltiramiz: masalan, polyak tilidan kirib kelgan jargonlarga *kapat* – etkazib borish, chaqish; *ment* – militsioner, turma nazoratchisi; ukrain tilidan kirib kelgan jargonalarga *xavat* – emoq, *xomka* – pichoq; lo'lilar tilidan kirib kelgan jargonlarga *chuvixa* – suyuq oyoq; turk tilidan kirib kelgan jargonlarga *yamaniy* – yomon, *kicha* – turma; nemis tilidan kirib kelgan jargonalarga *guten morgen* – ertalabki o'g'rilik; fransuz tilidan kirib kelgan *shpana* – mayda o'g'rilar kabi so'zlar kiradi.

Shuningdek, hozirgi kunda muomalada bo'lgan ba'zi jargonlarni ham keltiramiz. Masalan, *ayva – qoch, alkash* – aroqxo'r, *amba* – tamom, *ampula* – shisha idish, *balda* – nasha, *ban* – bozor, *baruxa* – xotin, *bugor* – brigadir, *vremya* – pul, *zajigalka* – to'poncha va boshqalar[157].

2. Jinoyatchilar dunyosining maxsus belgilari – tatuirovkalar. Jinoyatchilar dunyosi «g'ayriestetik madaniyati»ning elementlaridan yana biri bu jinoyatchilarning badanlariga chizilgan yoki kuydirib yozilgan har xil mazmundagi belgilar – **tatuirovkalar** hisoblanadi.

---

[156]***Жаргон*** деб бирон бир ижтимоий ёки профессионал гуруҳга хос, фақат уларнинг ўзи тушунадиган, адабий тилдан фарқ қиладиган сўз ва ибораларга айтилади.

[157] Империя Страха. – М.: Зеленый парус, 1992. – С. 146– 148.

Tatuirovkalar quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Jinoyatchilarning qaysi tabaqaga mansub ekanligini bildiradi. Masalan, badanga chizib ishlangan «xoch» (krest) – kissavurni, «gladiator» – bezorini, «o'rgimchak inidagi o'rgimchak» – giyohvandni bildiradi va h.k.

2. Jinoyatchining axloqiy qarashlari, qasos olishga intilishi, ayollarga munosabati, qamoqdan qochishga intilishi va boshqalarni ifodalaydi. Masalan, yo'lbars boshining tasviri – tajovuzkor jinoyatchini, «pogonga sanchilgan pichoq» – huquqni muhofaza qiluvchi organ odamlaridan o'ch olishga qasd qilganligini, «qurollangan echki» – militsiya xodimidan o'ch olish, «kallaga qadalgan pichoq, xanjar» – etkazilgan hamma musibatlar uchun o'ch olish, og'zida pichoq tishlash – «aktivistlarni so'yaman», «yurakka qadalgan xanjar va o'qdon» – «qonundagi o'g'rilar»dan o'ch olaman degan ma'nolarni bildiradi.

3. SHunchaki badanni «bezash» uchun xizmat qiladi. Hattoki, jahonga mashhur san'at asarlaridan nusxalar chizdirish, ya'ni zavq-shavq olish maqsadida hamda o'zining yuksak estetik did egasi ekanligini, madaniyat sohibi ekanligini ko'rsatish uchun maxsus chizilgan tatuirovkalar ham bor. Masalan, Vasnetsovning «Uch bahodir», Leonardo da Vinchining «Sikstin Madonnasi» asarlarini badanga chizdiradilar.

Jinoyatchilarning «g'ayriaxloqiy va estetik madaniyati» qamoq joylaridagi har xil o'yinlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, «Hammom» o'yinida yangi kelgan, tajribasi yo'q, jinoyatchini hammomga ko'rpa-to'shagi bilan borishga majbur qiladilar, oqibatda u xo'l ko'rpa-to'shakda uxlashga majbur bo'ladi. «Velosiped» o'yinida uxlab yotgan jinoyatchining panjalari orasiga kog'oz qo'yib yoqib yuboradilar. «Chmok» o'yinida yangi keltirilgan jinoyatchining ko'zini bog'lab, biron-bir narsani topishga buyuradilar, aslida esa unga o'zlarining yalong'ochlangan a'zolaridan birini tutqazib qo'yadilar. «Etik» o'yinida uxlab yotgan jinoyatchining etigini uning juda og'riydigan joyiga bog'lab quyishadi, u turishi bilan etik tortilib, o'sha joyini qattiq og'ritadi va h.k.

Bu o'yinlarning barchasi inson ustidan kulish, uning qadr-qimmatini erga urish, o'zlarining zo'rligini, hukmini o'tkazish uchun o'ylab topilgan o'yinlardir.

Jinoyatchilar dunyosining «g'ayriaxloqiy va estetik madaniyatini» biz umuminsoniy axloq va estetik madaniyat tarkibiga kirita olmaymiz. U o'zining butun mohiyati, mazmuni bilan umuminsoniy axloqqa va estetik madaniyatga zid hodisa hisoblanadi.

4. «Qahramonlik» va chidamlilikni namoyish qilish uchun chiziladi. Masalan, jon og‘riydigan nozik joylarga, ko‘z ustiga va boshqa joylarga chizilgan tatuirovkalar shular jumlasiga kiradi.

3. Jinoyatchilar dunyosining maxsus ism - laqablari. Jinoyatchilar dunyosi «g‘ayriestetik madaniyati»ning elementlaridan bo‘lgan **laqablar** jinoyatchilarning ikkinchi ismi hisoblanadi. Jinoyatchilarning laqablari asosan konspiratsiya, ya’ni niqoblash, yashirish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham har bir jinoyatchining laqabi bo‘ladi. Laqablariga qarab ular bir-birlarining jinoiy ish bilan shug‘ullanishlarini, qaerda turishlarini, kim bilan aloqa qilishlarini biladilar.

Laqab uyushgan jinoyatchilarning ajralmas belgilaridan biri hisoblanadi. Ba’zida laqablar jinoyatchining jismoniy jihatlarini bildirish uchun ham ishlatiladi.Masalan, «Yaponchik» qandaydir avtoritetning laqabi, «Masha» o‘g‘rilar bandasiga boshchilik qiluvchi ayolning laqabi, «Malina» o‘g‘rilar uchun maxsus kvartira saqlovchilarning laqabi va h.k. Surgun qilingan jinoyatchilarda «Ivan»lar deganda – bosqinchilik, ig‘vo bilan shug‘ullangan jinoyatchilar; «Xrari» deganda – o‘z ishlarini o‘zgalar qo‘li bilan qiladigan jinoyatchilar; «Igroki» deganda har xil qimorbozlar tushuniladi.

Jinoyatchilar dunyosining o‘ziga xos «g‘ayrisan’ati» ham mavjud. Bularga jinoyatchilar hayotini kuylaydigan qo‘shiqlar, musiqalar, raqslar kiradi. Ularda jinoyatchilar dunyosi «romantik» tarzda targ‘ib qilinadi. Bu «romantik» targ‘ibot esa jinoyatchilar dunyosiga yangidan-yangi a’zolarni jalb etishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda jinoyatchilik ruhida yozilgan qo‘shiqlar, she’rlar, kuylar jinoyatchilarga zavq bag‘ishlaydi. Masalan, Aleksandr Galichning «Turma motivlari» turkumidagi she’rlari shular jumlasiga kiradi.

Jinoyatchilar dunyosidagi axloqiy yomonlik qonunlari, ularning badanlariga chizilgan tatuirovkalar, qo‘yilgan laqablar, kuylangan qo‘shiqlar va boshqalar qanchalik go‘zal ko‘rinmasin, ular insoniylikka yot narsalar hisoblanadi.

Jinoyatchilikning yangi jamiyat qurish uchun tug‘diradigan xavfi to‘g‘risida Islom Karimov shunday yozadi: «Jinoyatchi unsurlarning yangi xo‘jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufiyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug‘diradi. Bu esa mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib keladi.

Jamiyatda jinoiy «xufiyona iqtisodiyot»ning mavjud bo‘lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo‘g‘inlari va turli darajalari vakillari ham uning

yo‘ldan ozdiruvchi ta’siriga tushib qoladi. Korrupsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdiddir.

Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijobiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab etmog‘i lozim»[158]. Shuning uchun jinoyatchilar dunyosiga qarshi kurash, ularni tag-tomiri bilan tugatish vijdonli kasb sohasi har bir xodimining muqaddas burchlaridan biri sanaladi.

4. Buyuk davlat va siyosat arbobi I.A. Karimovning korrupsiya va jinoyatchilik haqidagi fikrlari:

– Qanchalik qayg‘uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo‘lgan.

– Siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko‘rsatish ifodasidir.

– Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug‘-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo‘liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar etkazadi.

– Jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini emiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi.

– Jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a’zolarining fuqarolik mavqeini yo‘qqa chiqaradi.

– Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir.

---

[158] *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // *Унинг ўзи.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т.6. – Т.: Ўзбекистон,1998. – Б.89– 90.

– Borgan sari uyushib va professional tus olib borayotgan hozirgi jinoyatchilikning jipslashishi, jinoiy guruhlar tomonidan iste'mol bozorlarining butkul egallab olinishi, qonunsiz ravishda qo'lga kiritilgan kapitallarning xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali qonuniylashtirib olinishi yaqqol ko'zga tashlanayotganligi ham juda xavflidir.

– Jinoyatchilar dunyosi chegara bilmaydi. – Jinoyatchilik, korrupsiya bizning o'z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir[159].

Estetik tarbiya va uning axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishdagi ahamiyati. Kasbiy soha xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olishdagi vositalardan biri ularni estetik tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya deb insonni nafosat qonunlari asosida har tomonlama etuk qilib tarbiyalashga qaratilgan faoliyatga aytiladi. Estetik tarbiya Kasbiy soha xodimlarini go'zallik olami bilan oshno qilib, ularning axloqiy ongida vujudga kelgan har xil bo'lmag'ur fikrlarni chiqarib tashlashga, unda hayotga bo'lgan qiziqish, zavq-shavq bilan yashash orzu-umidlarini kuchaytirish ishiga xizmat qiladi.

Kasbiy buzilishning oldini olishda estetik tarbiyaning bir qancha omillaridan foydalaniladi.

Bunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. *Ijtimoiy munosabatlar omili* – bu odamlar, jamoalar o'rtasidagi bir-birlariga bo'lgan diqqat-e'tibor, dilkashlik, xushchaqchaqlik, kulgi, hazil-mutoyibalardan iborat bo'lib, ular odamdagi tushkunlik kayfiyatini yo'q qilib, ko'ngilni ko'taradi, quvontiradi, ishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

2. Tabiat omili – bu tog'larning ulug'vorligi, sharsharalar, gullar, bog'- rog'lar, moviy dengizlar, sayroqi qushlar, serjilo baliqlar kabi tabiat go'zalliklari bilan oshno bo'lish, tabiat bag'rida dam olish. U kishiga shavq-zavq, charchagan tanaga, toliqqan miyaga orom, rohat berib, odamni osoyishta hayot kuchog'iga qaytaradi, miyadagi har xil g'uborlarni chiqarib tashlashga xizmat qiladi.

3. San'at omili hisoblanmish yaxshi kuy, qo'shiq, serjilo raqs, kino, arxitektura yodgorliklarini tomosha qilish asablarga dam beradi, voqelikdagi go'zalliklarni ilg'ab olishga, mazmundor hayot quchog'iga qaytishga undaydi, yangidan-yangi qahramonliklarga chorlaydi.

*4. Atrof muhitni estetik jihatdan tashkil etish omili*o'z ichiga yangi zamonaviy uslubda qurilgan binolarni, yuksak estetik did bilan jihozlangan ish joylarini, unumli mehnat qilish uchun did bilan bezatilgan

[159] *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // *Унинг ўзи.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т.6. – Т.: Ўзбекистон,1998. – Б.89– 97.

va qulay mehnat vositalari – radio, televedinie, kompyuter, kriminalistika asbob-uskunalarini hamda xodimlarning dam olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar – bog'lar, dam olish uylari, chiroyli choyxona va oshxonalar, ko'llar, istirohat bog'lari, sayilgohlarni o'z ichiga oladi. Bu erlarda ishlagan, dam olgan xodimlarning miyasidan har xil bo'lmag'ur fikrlarning ko'tarilishi tabiiy.

6-§. Xalq bilan muloqot – kasbiy soha xodimlarining axloqiy va estetik tafakkurini rivojlantirish vositasi

1. Muloqot tushunchasi. Muloqot[160] – *bu kishilarning o'zaro bevosita yoki bilvosida uchrashishi, ko'rishishi, qabul qilishi orqali o'rnatiladigan munosabatlari natijasida axborotlar almashadigan, olingan ma'lumotlar bo'yicha tegishli xulosalar chiqarishga asos bo'ladigan ko'p qirrali jarayondir.*

Shunga ko'ra,muloqot jarayoni quyidagilarni:

– individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;

– individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;

– bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;

– bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;

– bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;

– shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayonini o'z ichiga qamrab oladi.

2. Xalq bilan bo'ladigan muloqot turlari. Kasbiy soha xodimlarining bevosita xalq bilan bo'ladigan muloqot turlariga quyidagilar: 1) bevosita; 2) bilvosita; 3) rolli; 4) mazmunli; 5) rasmiy; 6) norasmiy muloqat shakllari kiradi.

Bunda:

1. *Bevosita muloqot* «yuzma-yuz» suhbat bo'lib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo'llaydi.

2. *Bilvosita muloqot* ham aloqa vositasi bo'lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan: telegraf,telefon orqali gaplashish).

3. *Rolli muloqot* bu odamlar tomonidan ijtimoiy rollar orqali amalga oshiriladi. Masalan, davolovchi va davolanuvchi o'rtasidagi muloqot rollidir.

---

[160]**"Мулоқот"** арабча сўз бўлиб, ўзбек тилида «учрашиш», «кўришиш»; «қабул қилиш» деган маъноларни англатади//Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.2. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.636.

4. *Mazmunli muloqot* bu individning boshqa shaxsga o‘z holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishidir.

5. *Rasmiy muloqot* yuridik kuchga ega bo‘lib, davlat va jamiyat manfaatini ko‘zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turidir.

6. *Norasmiy muloqot* bu shaxslararo o‘zaro muloqot jarayonida o‘zini qiziqtirgan u yoki bu ma’lumotga ega bo‘lish hisoblanadi.

3. Xalq bilan muloqot qilish vazifalari. Xalq bilan muloqot qilish quyida ***vazifalarni***:

1) *aloqa o‘rnatish* – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;

2) *informatsion* – suhbatdosh bilan muayyan ma’lumotlar, fikrlar va rejalarni almashish;

3) *faoliyatga undash* – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish;

4) *koordinatsion* – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvofiqlashtirish;

5) *tushunishni ta’minlash* – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;

6) *motivlashtirish* – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg‘otish hamda ularni o‘zgartirish;

7) *munosabat o‘rnatish*–munosabatlar tizimidagi shaxsiy o‘rnini, mavqeni aniqlash;

8) *ta’sir ko‘rsatish*– suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlari va yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma, dasturlarini o‘zgartirish va sh.k. bajaradi[161].

4.Xalq bilan muloqot: muammo va yechimlar. Kasbiy soha xodimlarining xalq bilan muloqot qilishdagi eng asosiy masala – bu har bir insonning dilida nimalar kechayotganliklarini, ularni amalga oshirish uchun kimlar xalaqit berayotganligini, hayotda nimadan rozi-yu, nimadan narozi ekanligini, ayniqsa, tinch yashashi, halol mehnat qilishi uchun niamalar yetishmayotganliklarini bilib olishdan, so‘ngra shunga qarab ish yuritishdan iborat. Bu borada, mamlakatimiz fuqarolariga tegishli bo‘lgan barcha huquq va majburiyatlar Asosiy qonunimizda batafsil ko‘rsatilgan. Zero, shunday ekan **Sh.M.Mirziyoev**: «Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. ***Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish,***

---

[161]Қаранг: *Сирлиев Б.Н., Фарфиев Ё.А., Турсунова О.А.* Ички ишлар идоралари ходимлари фаолиятида касбий муомала: Ўқув қўлланма. – Т.: ИИВ Академияси, 2016. – Б. 6-7. Мулоқотнинг баъзи бир назарий масалаларини ёритишда ушбу ўқув қўлланмадан фойдаланилган.

ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi. Hozirgi vaqtda odamlar davlat organlaridan nimani istayapti?»[162] – degan holda, ushbu savolga javob topish uchun mamlakatimizning barcha olis va yaqin joylarida yashovchi aholining barcha qatlamlari bilan o'zaro muloqotda bo'ldilar.

Sh.M.Mirziyoevning muntazam ravishda bevosita xalq bilan olib borgan muloqotlari natijasida quyidagilar :

– uy-joylarning etishmasligi, borlarining ham ta'mirtalab bo'lib qolganligi;

– gaz, elektr energiyasi, o'tin ta'minotidagi uzilishlar, qishda uylarni isitish tizimining tobora izdan chiqib borayotganligi;

– kommunal, transport va savdo xizmatining past darajada tashkil etilganligi;

– ichki yo'llarning qarovsiz holatga kelib qolganligi;

– dori-darmonlarning haddan tashqari qimmatligi,ularning xufyona yo'llar bilan sotilishi;

– bemorlarga tez yordam ko'rsatish tizimining tobora yomonlashib borayotganligi;

– shifoxonalarda malakali tibbiy yordam olish uchun sharoitning yo'qligi, ayrim davolash muassasalarida tamagirlikning avjiga chiqqanligi;

– maktabgacha ta'lim, o'rta maktablarda bolalar va o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilmaganligi, o'qituvchi mutaxassislarning yetishmasligi, ularning boshqa ishlarga jalb qilinishi;

– kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'quvchilar davomadining pastligi, o'qitish sifatining zamon talablariga javob bermasligi, ayrim ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy muhitning yomonligi;

– oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatining zamon talablaridan orqada qolib ketayotganligi, professor-o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining past darajada ekanligi, o'quv dasturlarining amaliyot bilan etarlicha bog'lanmaganligi, o'qishga qabul qilish jarayonida adolat

---

[162] *Мирзиёев Ш.М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови// *Унинг ўзи.* Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.– Б.114.

prinsiplarining buzilayotganligi, ya'ni «bunker», «rektorat»degan ro'yxatlar asosida qobiliyasiz kimsalarning o'qishga kirayotganligi;

– mutasaddi rahbarlar tomonidan ishni tashkil etish va o'z vaqtida bajarish uchun byurokratik to'siqlar qo'yilayotganligi;

– rahbarlar tomonidan qonunga zid bo'lgan ko'plab idoraviy yo'riqnomalarning chiqarilayotganligi;

– bank kreditlari ajratishda tanish-bilishchilik asosida tamagirlik bilan katta pul mablag'larining o'zlashtirilayotganligi;

– tadbirkorlik bo'yicha noqonuniy tekshirishlarning avj olayotganligi;

–huquq-tartibot organlarining jabrdiydalar arziga quloq solmayotganligi, ularning o'zlari mavjud qonunlarni oyoq-osti qilayotganliklari;

– ishsizlik, ishlayotganlarning ish haqini, ayniqsa pensionerlarning pensiya pullarini o'z vaqtida ololmayotganligi, bu borada ayrim bank xodimlarining "turli xil o'yinlar"ni o'ynayotganliklari;

– yutuqlardan esankirash, madhiyabozlik, ayrim rahbarlardan "xudo yasash" kabi odamlarni ma'naviy inqirozga olib keluvchi holatlarning mavjudligi va boshqa shu kabi salbiy holatlarning mavjudligi ayon bo'lib qoldi.

Buning yana bir tasdig'ini 2016 yil 25 sentyabr kuni internet tarmog'ida ish boshlagan bosh vazirning so'ngra Prezidentning virtual elektron qabulxonasiga mamlakatimiz fuqarolaridan kelib tushyotgan minglab murojatlarida ko'rish mumkin. Ularning 93% o'z echimini topgan bo'lib,qolganlari ko'rib chiqilmoqda.

Bu xususda **Sh.M.Mirziyoev:** "Ochiq aytishim kerak, bu murojaatlar tahlilidan ko'p narsa ayon bo'ldi. Ta'bir joiz bo'lsa, ular hayotimizda mavjud bo'lgan o'tkir muammolarga ko'zimizni ochib berdi.

Mana, odamlar nimalar haqida murojaat qilmokda. Avvalo, ular turli sohalardagi byurokratik to'siqlarni olib tashlash, qonunga zid bo'lgan ko'plab organviy yo'riqnomalarni bekor qilish, stavkasi optimal bo'lgan bank kreditlari ajratish, tadbirkorlik bo'yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish haqida, huquq-tartibot organlarining faoliyati haqida murojaat qilmoqda.

Shu bilan birga, aholimizdan uy-joy qurilishi, kommunal, transport va savdo xizmati, energiya ta'minotini, yo'llarning holatini yaxshilash bo'yicha ham ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Ko'rib turibsizki bu talablarning barchasi qonuniy va adolatli. Bu borada ortiqcha izohning hojati yo'q.

Lekin shu o'rinda bir savol tug'iladi: mana shu murojaatlarda ko'tarilgan hayotiy muammolarni joylardagi hokimlik va organlar, tegishli

mutasaddilar o‘z vaqtida hal etishi zarur emasmidi? Holbuki, bu masalada alohida qonun, ya’ni, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun (2014 yil 3 dekabr) qabul qilingan. Lekin, ming, afsuski, bu qonunning ijrosini nazorat qilish o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

Shu sababli ana shu qonun talablarini bajarmayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma’muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur, deb hisoblayman.

Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkni himoya qilish yuzasidan qabul qilingan barcha huquqiy hujjat talablariga so‘zsiz amal qilishni ta’minlash shart. Nega deganda, xalq boy bo‘lsa, davlat ham albatta boy va qudratli bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq bilan muloqot va inson manfaatlari tushunchalari o‘zaro shunchalik bog‘lanib ketganki,ularni bir-biridan aslo ajratib bo‘lmaydi”[163],– degan edi.

Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi xalq bilan muloqot qilish barcha mutasaddi organ rahbarlari ish faoliyatini, uning qanday tashkil etilganligini o‘zida aks ettiruvchi kuzgi hisoblanadi. Demak, har bir kasbiy soha xodimlari ana shu kuzguda aks ettirilgan barcha narsalarni qanday bo‘lsa shundayligicha idrok qilish, uning xalqchil bo‘lgan qonuniy yechimini topish shunchalik hayotiy zarurat hisoblanadi. Bunda kuzguda aks ettirilgan xalqning dardiga quloq solmaslik, ana shu haqiqat kuzgusini sindirib qo‘yish demakdir.

5. Kasbiy soha xodimlarining xalq bilan muloqot olib borish metodikasi. Kasbiy soha xodimlariningxalq bilan muloqot qilish shunchalik uchrashuvdan,hol-ahvol so‘rashuvdan iborat bo‘lmasdan,ilmiy-amaliy asosda olib borini taqozo etadi. Buning uchun esa muloqot qilish qonun-qoidalarini, ayniqsa metodikasini yaxshi bilish kerak bo‘ladi. Shu sababli, xalq bilan muloqot olib borishda, ular bilan quyidagi aloqa o‘rnatish metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. O‘zaro bir-birini tushunish.
2. Umumiy yoki mos keladigan qiziqishlarni topish.
3. Muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadiganprinsiplarni bilish.
4. Muloqot uchun xavfli bo‘lgan sifatlarni aniqlash.

---

[163] *Мирзиёев Ш.М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови// *Унинг ўзи.* Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.– Б.114-116.

5. Individual ta'sir etish va suhbatdoshga moslashish.

6. Umumiy qoidalarni yaratish va o'zaro harakat qilish.

Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, voqeani o'tmishdagi vaziyat bilan bog'lashiga, o'zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Xalq bilan muloqot olib borishni tashkil etishda muloqotning quyidagi: kommunikativ, interaktiv, perseptiv tomonlari borligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

1. *Xalq bilan muloqot olib borishning kommunikativ tomoni* – bu ma'lumotlar almashinuv jarayoni bo'lib, birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o'y-xayollar, his-tuyg'u va kechinmalar bilan o'rtoqlashadilar. Bunda o'y-fikrlar, his-tuyg'u va kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotini shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblash mumkin emas. Zero, birinchidan, muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashiniladi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari, maqsadlari, yo'l-yo'riqlarini tahlil qiladilar); ikkinchidan, muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar tizimi orqali bir-biriga ta'sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta, suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta'sir o'tkaziladi); uchinchidan, muloqot jarayonida kommunikator (axborotni yuborayotgan odam) va retsipient (axborotni qabul qilayotgan odam) bir xil kodlashtirish hamda dekodlashtirish tizimiga ega bo'lishi kerak (yagona tizimni qabul qilishgina kommunikativ jarayon ishtirokchilariga bir-birini tushunish imkonini beradi); to'rtinchidan, muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos to'siqlar vujudga kelishi mumkin (to'siqlar nafaqat belgilar tizimidagi farqlar, balki ijtimoiy-siyosiy, diniy, kasbiy farqlar yoki umumiy dunyoqarash, olamni his etishdagi farqlar tufayli vujudga kelishi mumkin).

Kommunikatordan chiqayotgan axborot ikki xil bo'lishi mumkin: 1. Undovchi axborot buyruq, maslahat, iltimos va hokazolarda namoyon bo'ladi. Undan ko'zlangan maqsad retsipientni biror harakatga rag'batlantirishdan iborat. Rag'batlantirish uch xil bo'lishi mumkin: a)

faollashtirish (biror harakatni qilishga undash); b) interdiksiyalash (biror harakatni qilishdan to‘xtatish); v) destabillashtirish (biror harakatdagi muvozanatni buzish).

Konstatatsiyalovchi axborot ma’lumot tarzida ifodalanadi. Bu turdagi axborot turli ta’limiy tizimlardan o‘rin olgan bo‘lib, xulq-atvorni o‘zgartirish uchun bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi (lekin bilvosita ta’sir ko‘rsatish maqsadi ham bo‘ladi).

Kommunikativ jarayonning quyidagi besh unsur: a) kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda); b) nima (qanday axborot uzatilmoqda); v) qanday (axborot qanday yo‘l bilan uzatilmoqda); g) kimga (axborot kimga yo‘naltirilmoqda); d) qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi) tashkil topgan bo‘ladi.

2. *Xalq bilan muloqot olib borishning interaktiv tomoni* – birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta’sir o‘tkazishi tushuniladi. Kommunikatsiya orqali odamlar birgilikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan odamlar, albatta, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘zaro ta’sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud:

1) har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda ishning o‘ziga tegishli qismini bajarishi (masalan, shanbalikdagi ish);

2) umumiy vazifaning bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (masalan, konveerdagi ish);

3) har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o‘zida umumiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi (masalan, xirurglar jamoasidagi ish).

Odatda muloqot jarayonidagi o‘zaro ta’sirning ikki xil turi ajratiladi:

1) kooperatsiyaga asoslangan o‘zaro ta’sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsadi va o‘z kuchlarini birlashtirishdan iborat.

Kooperatsiyaning bir necha turi farqlanadi:

a) avtomatik (instinktiv-biologik darajada mavjud bo‘ladi);

b) an’anaviy (tarkib topgan ijtimoiy me’yorlar bilan, an’ana va urf-odatlar bilan taqozolangan bo‘ladi);

v) spontan (do‘stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo‘ladi);

g) direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo‘lishi);

d) shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar bilan taqozolangan bo‘ladi).

Kooperatsiya – birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementidir.

2) Raqobatga asoslangan o‘zaro ta’sir kommunikativ jarayon ishtirokchi-larining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o‘zaro kurash sharoitida bir-biriga ta’sir ko‘rsatishidan iborat.

Bunday o‘zaro ta’sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, u kooperatsiya bilan ma’lum darajada bog‘liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o‘rnatilishi talab etiladi. Aks holda o‘zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin. Raqobatning eng yorqin shakli nizodir.

3. *Xalq bilan muloqot olib borishning perseptiv tomoni* – kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni bo‘lib, insonning inson tomonidan idrok etilishi «ijtimoiy persepsiya» deyiladi.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda individ quyidagilarni idrok etishi mumkin: 1) o‘z guruhiga mansub individni; 2) boshqa guruhga mansub individni; 3) o‘zining guruhini; 4) o‘zga guruhni.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda guruh quyidagilarni idrok etishi mumkin: 1) o‘z individini; 2) o‘zga guruh individini; 3) o‘zini; 4) o‘zga guruhni.

Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizmlar ishga solinadi:

a) identifikatsiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

b) empatiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

v) refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

g) steriotipizatsiya – insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablonlardan foydalanishi[164].

6. Xalq bilan muloqot – Kasbiy soha xodimlari faoliyatining axloqiy-estetik darajasini aniqlash mezoni. Har bir Kasbiy sohaning katta va kichik xodimlari, mutasaddi rahbarlari uchun xalq bilan muloqot qilish shunchalik salom-alik, tanishish, eshitishdan iborat bo‘lmasdan, balki muloqot chog‘ida ko‘tarilgan masalani joyida hal etishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan xalq bilan muloqot qilish orqali, xalqning dilidagi orzu-istaklarini amalga oshirish uchun qisqa muddat ichida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

---

[164] Қаранг: *Сирлиев Б.Н.,Фарфиев Ё.А.,Турсунова О.А.* Ички ишлар идоралари ходимлари фаолиятида касбий муомала:Ўқув қўлланма. – Т.: ИИВ Академияси, 2016. – Б.6-7.

1. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga muljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va u aniq dasturlar asosida amalga oshirilmoqda.

2. Xalqning zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mamlakatimizning barcha hududlarida arzon uy-joy qurilishlari boshlab yuborildi.

3. Aholining eng katta boyligi,uning salomatligini saqlash bo‘yicha Kasbiy soha tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

4. Mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish borasida katta investitsion loyihalar asosida bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

5. Mamlakatda ishsizlikni tugatish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hech qanday byurokratik to‘siqlarsiz tashkil etish har tomonlama kafolatlandi va ularga etarlicha kreditlar berish yo‘lga qo‘yildi.

6. Aholining tomorqa xo‘jaligidan o‘zini-o‘zi boqishi uchun unumli foydalanishi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

7. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi.

8. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi o‘zgartilmoqda. Ayniqsa, adolatli sudlovni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

9. Fuqaroligi bo‘lmaganlarni O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilish masalasi o‘z yechimini topmoqda.

10. Yoshlarni g‘oyaviy–mafkuraviy tarbiyalash ishiga yongicha yondashuv konsepsiyasi yaratilib, uni amalga oshirish ishlari davlat siyosati darajasida olib borilmoqda.

Shuning uchun ham xalq bilan muloqot qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati haqida **Sh.M.Mirziyoev**:***«Hammamizni tarbiyalagan, voyaga etkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi»***[165],– degan edi.

---

[165]**Мирзиёев Ш.М.** Эркин ва обод,демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз// *Унинг ўзи.*Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд, –Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.– Б.151.

Ko‘rinib turibdiki, xalq bilan muloqot qilish natijasida, ularning ishonchini oqlash uchun qilinayotgan barcha ishlar mamlakatimizning kelgusidagi istiqbollarini belgilashning strategik vositasi hisoblanadi.

Xalq bilan muloqot qilishni uzluksiz tarzda,tizimri ravishda yo‘lga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda qabul qilgan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari (bundan buyon — Xalq qabulxonalari) — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (bundan buyon — Virtual qabulxona) tashkil etildi.

7. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalariining asosiy vazifalari.** *Tashkil etilgan Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib quyidagilar:*

– aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta’minlash;

– fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

– Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qat’iy amal qilgan holda, to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

– Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

– jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o‘tkazish;

– Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish[166] belgilandi. Bu mexanizm hozirgi kunda samarali ish bermoqda va kasbiy soha rahbar xodimlarining axloqiy tafakkuri va nafosatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Endilikda, kasbiy soha rahbar xodimlari bir tomondan davlat hokimiyatining,ikkinchi tomondan mahalla faollarining ishonchli vakili sifatida ish yuritishini amaliy jihatdan ta’minlamoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Estetika – go‘zallik olami, san’at va badiiy ijod qonuniyatlarini o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi fan.

2. Kasbiy faoliyat estetikasi - bu biron bir kasb sohiblarining voqelikka estetik munosabatda bo‘lish orqali o‘zlarining xizmat faoliyatlarini nafosat qonunlari, prinsiplari, vositalari asosida tashkil qilishlarini o‘rganish, o‘rgatish va o‘zgartirishidir.

3.Jamiyatdagi go‘zallik – shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlovchi adolat, insonparvarlik va tenglikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar majmui.

4. Inson go‘zalligi uning ma’naviy, jismoniy uyg‘unligidadir.

5. «Go‘zal inson» deganda uning ijobiy axloqiy xislatlari, ya’ni yaxshiligi, mehribonligi, to‘g‘riso‘zligi, o‘zgalarni hurmat qilishi, qisqasi, insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlari tushuniladi.

6. «Chiroyli inson» deganda esa uning tashqi, ya’ni jismoniy tomoni tushuniladi. Bu o‘rinda shuni unutmaslik kerakki, go‘zal inson hamma vaqt ham chiroyli bo‘lavermaydi va aksincha.

7. San’at deb kishilarning voqelikni badiiy qiyofalar, timsollar (obrazlar) orqali in’ikos ettiruvchi ijtimoiy ongga hamda uni go‘zallik

[166] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 28 декабрда қабул қилган «Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида» Фармони//«Халқ сўзи» газетаси 2016 йил 29 декабрь.

qonunlari asosida o‘zgartirishga qaratilgan badiiy amaliy-ijodiy mehnat faoliyatiga aytiladi.

8. San’at ijtimoiy ongning boshqa shakllari bo‘lgan siyosat, huquq, axloq, din kabilardan quyidagi qator xususiyatlari: a) voqelikni aniq tushunchalar va ilmiy kategoriyalarda emas, balki badiiy qiyofalar, timsollarda aks ettirishi; b) insonning ruhiy dunyosini tushunishga, uning ichki sirlari bilan oshno bo‘lishga imkon berish kabilari bilan farq qiladi.

9. Kitob – bu moddiy va ma’naviy olamda yuz bergan va berayotgan narsa, voqea, hodisa, jarayonlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi, ularning boshqa narsalarga aylanib yangilanib borishi haqidagi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan, ularni ajdodlardan avlodlarga etkazib berishga xizmat qiladigan ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo‘lgan asardir.

10. Kasbiy soha xodimlarining xalq bilan muloqot qilishdagi eng asosiy masala – bu har bir insonning dilida nimalar kechayotganliklarini, ularni amalga oshirish uchun kimlar xalaqit berayotganligini, hayotda nimadan rozi-yu, nimadan narozi ekanligini, ayniqsa, tinch yashashi,halol mehnat qilishi uchun niamalar etishmayotganliklarini bilib olishdan, so‘ngra shunga qarab ish yuritishdan iborat.

Tayanch iboralar

Estetika, nafosat, estetik ong, estetik munosabat, go‘zallik va xunuklik, qahramonlik va qo‘rqoqlik, san’at, san’at nazariyalari, badiiy adabiyot, kitob, kitobxonlik, muloqot, xalq bilan muloqot, estetik tarbiya, estetik madaniyat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Etika va estetika nimalardan bahs yuritadi?
2. Estetika fan sifatida nimalarni o‘rganadi?
3. Estetik munosabatlar deb nimaga aytiladi?
4. Estetik ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan nimasi bilan farq qiladi?
5. San’at deb nimaga aytiladi?
6. San’atning kelib chiqishi haqida qanday nazariyalarni bilasiz?
7. Erkin Vohidovning “Inson” qasidasini yoddan aytib berolasizmi?

9. Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” she’rining mazmuni va mohiyati haqida so‘zlab bering?

10. Qanday kitoblarni o‘qigansiz?

11. Kursdoshlaringiz bilan qanday muloqot qilasiz?

12. Zigmund Freydning: *«Ishqiy lazzatning sehrli sozi yaratuvchanlik kuchiga egadir. Uni madaniyat ilmining birinchi talablariga bo‘ysundirish lozim. Chunki u madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishishning manbai bo‘lib, bu kuch orqali odamlar cheksiz baxt-saodatga musharraf bo‘ladilar»*[167], – degan fikri yuzasidan bahs yuriting?

[167] Қаранг: *Зигмунд Фрейд*. Очерки по психологии сексуальности. – М.: Система,1989. – С.73.

VIII BOB. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT

1. Globallashuv tushunchasi. Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jurnalistlar va tadbirkorlar muhokama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda — «globallashuv» tushunchasi fransuzcha *global – umumiy va lotincha globus – shar* so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, yer yuziga oid, butun yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi. «Globallashuv» atamasi 1981-1983 yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T.Levitt, angliyalik olim R.Robersonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan[168] .

Globallashuv falsafiy ma'noda – bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir.

Globallashuvni jarayon sifatida ontologik jihatdan uchta: birinchidan, tabiat borlig'ida (iqlimning o'zgarishi, hayvonot dunyosi va o'simliklar olamining kamayib ketishi, tabiiy boylik zaxiralarining tugab borishi va boshqalar); ikkinchidan, ijtimoiy tabiiy borliqda (energetik, ekologik, demografik va boshqalar); uchinchidan, ijtimoiy yoki kishilik jamiyatining taraqqiy etishida (texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, megapolislarning ko'payishi, iqtisodiy hayot darajasining keskin tabaqalanib borishi va boshqalar) sodir bo'layotgan guruhlarga ajratish mumkin.

Globallashuvni makonda sodir bo'lishiga ko'ra planetar va regional, zamonda yuz berishiga qarab doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

2. Globallashuv jarayonlarining manbai va asosiy belgilari. *Globallashuv jarayonlarining manbai deb, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan omillarga aytiladi.* Bunday asosiy omillar jumlasiga: birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuz berayotgan tub sifatiy

[168] Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация:Учебник – М.: Изд-во РАГС,2008.-С.17-18.

o‘zgarishlar; ikkinchidan, davlatlarning investitsiya sohasida olib borayotgan yangicha siyosati; uchinchidan, innovatsion ta’limning qamrovlilik darajasining o‘sib borishi; to‘rtinchidan, jahonda dunyoviy tartibning o‘zgarishi natijasida mavjud borliqqa nisbatan yangicha dunyoqarashning vujudga kelishi va shu kabilar kiradi.

Globallashuvning umum e’tirof etilgan quyidagi asosiy belgilari mavjud: a) xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi; b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yo‘lidagi to‘siqlarning bartaraf etilishi; v) elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarishlar; g) transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: birinchidan, odamlar dunyoqarashi o‘zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta’sirni kuchaytiradi; ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o‘rtasida birlashishga intilishni kuchaytirsada, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an’analar va ma’naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko‘rsatib berdi[169].

3. Globallashuv jarayonining xususiyatlari. Globallashuv jarayonlariga xos bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) inson hayotining barcha jabhalari bo‘yicha xalqlar va mamlakatlarning bir- birlariga bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligining o‘sib borishi;

2) bozorlarning planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjahon moliya iqtisodiy makonining paydo bo‘lishi, alohida iqtisodiy tizimlarning global iqtisodiyotga qo‘shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi;

3) axborot sohasida yangi kompyuter va mediatexnologiyalar, global televideniya, internetning keng ko‘lamda ishlatilishi asosida butun jahon aloqa va muloqot tarmog‘ining paydo bo‘lishi;

4) obyektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan subyektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

XXI asrga kelib insoniyat o‘zining hayot sharoitini yanada yaxshilash uchun tabiat, jamiyat, inson tafakkuri sir-asrorlari qonunlarini yanada chuqurroq o‘rganish orqali buyuk kashfiyotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bularga eng arzon va qulay energiya manbaini topish borasida

[169] Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012.–Б.677-678.

VIII BOB. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT

1. Globallashuv tushunchasi. Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jurnalistlar va tadbirkorlar muhokama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda — «globallashuv» tushunchasi fransuzcha *global – umumiy va lotincha globus – shar* so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, yer yuziga oid, butun yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi. «Globallashuv» atamasi 1981-1983 yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T.Levitt, angliyalik olim R.Robersonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan[168] .

Globallashuv falsafiy ma'noda – bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir.

Globallashuvni jarayon sifatida ontologik jihatdan uchta: birinchidan, tabiat borlig'ida (iqlimning o'zgarishi, hayvonot dunyosi va o'simliklar olamining kamayib ketishi, tabiiy boylik zaxiralarining tugab borishi va boshqalar); ikkinchidan, ijtimoiy tabiiy borliqda (energetik, ekologik, demografik va boshqalar); uchinchidan, ijtimoiy yoki kishilik jamiyatining taraqqiy etishida (texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, megapolislarning ko'payishi, iqtisodiy hayot darajasining keskin tabaqalanib borishi va boshqalar) sodir bo'layotgan guruhlarga ajratish mumkin.

Globallashuvni makonda sodir bo'lishiga ko'ra planetar va regional, zamonda yuz berishiga qarab doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

2. Globallashuv jarayonlarining manbai va asosiy belgilari. *Globallashuv jarayonlarining manbai deb, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan omillarga aytiladi.* Bunday asosiy omillar jumlasiga: birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuz berayotgan tub sifatiy

[168] Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация:Учебник – М.: Изд-во РАГС,2008.–С.17-18.

o‘zgarishlar; ikkinchidan, davlatlarning investitsiya sohasida olib borayotgan yangicha siyosati; uchinchidan, innovatsion ta’limning qamrovlilik darajasining o‘sib borishi; to‘rtinchidan, jahonda dunyoviy tartibning o‘zgarishi natijasida mavjud borliqqa nisbatan yangicha dunyoqarashning vujudga kelishi va shu kabilar kiradi.

Globallashuvning umum e’tirof etilgan quyidagi asosiy belgilari mavjud: a) xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi; b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yo‘lidagi to‘siqlarning bartaraf etilishi; v) elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarishlar; g) transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: birinchidan, odamlar dunyoqarashi o‘zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta’sirni kuchaytiradi; ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o‘rtasida birlashishga intilishni kuchaytirsada, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an’analar va ma’naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko‘rsatib berdi[169].

3. Globallashuv jarayonining xususiyatlari. Globallashuv jarayonlariga xos bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) inson hayotining barcha jabhalari bo‘yicha xalqlar va mamlakatlarning bir- birlariga bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligining o‘sib borishi;

2) bozorlarning planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjahon moliya iqtisodiy makonining paydo bo‘lishi, alohida iqtisodiy tizimlarning global iqtisodiyotga qo‘shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi;

3) axborot sohasida yangi kompyuter va mediatexnologiyalar, global televideniya, internetning keng ko‘lamda ishlatilishi asosida butun jahon aloqa va muloqot tarmog‘ining paydo bo‘lishi;

4) obyektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan subyektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

XXI asrga kelib insoniyat o‘zining hayot sharoitini yanada yaxshilash uchun tabiat, jamiyat, inson tafakkuri sir-asrorlari qonunlarini yanada chuqurroq o‘rganish orqali buyuk kashfiyotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bularga eng arzon va qulay energiya manbaini topish borasida

[169] Назаров К. Фалсафа асослари. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012.–Б.677-678.

qilinayotgan kashfiyotlar, masalan, yer qobig'i issiqligidan ("geotermal" bunda "geo" – yer, "termal" – issiqlik), odam tanasining doimiy tebranma harakatlanishidan hosil bo'luvchi issiqlik energiyasidan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun ishlab chiqilgan "energetik kastyum", odamlarning yo'laklarda yurishidan hosil bo'ladigan "yo'l-yo'lak energiyasi" hamda "vodorod yonilg'isi", kishilarning o'sib borayotgan oziq ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan "transgen mahsulotlar", ichimlik suvi muammosini echishga bag'ishlangan "tegirmon suvi", kompyuterlashtirishga asoslangan "aqlli uy", "aqlli shahar", yashash joyiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan *"gidropolislar"* (suv osti shaharlari), *"suzib yuruvchi shaharlar", "sehrli mo'jizakor nur"* (lazer), super aqlli robitlar, shuningdek, uzoq yashash bo'yicha olib borilayotgan "genmuhandisligi" borasidagi bir qator "ko'z ko'rib, quloq eshitmagan" ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Globalashuv jarayonlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy jabhalarga o'tkazayotgan ta'sirini o'rganish orqali, uning milliy g'oyamizga o'tkazayotgan ta'sirlarini quyidagilarda ko'rish mumkin.

4. Iqtisodiyotning globallashuvi.*Iqtisodiyotning globallashuvi deb ishlab chiqarish, savdo va bank faoliyatining transnatsionlashuvi tufayli mamlakatlarning iqtisodiy hayotida tez sur'atlar bilan kechayotgan jarayonlar silsilasigiga aytiladi.* Iqtisodiy globallashuv o'z navbatida ma'naviy-mafkuraviy masalalarni hal qilishni ham kun tartibiga qo'yadi. Bu xususda I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot – jamiyatning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir"[170]. Shunday ekan, iqtisodiyotning globallashuvi bevosita milliy g'oya-mafkuramizga ta'sir o'tkazadi. Moddiy ishlab chiqarish har bir hudud va unda yashovchi xalqlar ehtiyojiga ko'ra takomillashib kelgan ekan, bu sohada o'ziga xoslikning saqlanishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi muhim amiyat kasb etadi. Davlatlar o'rtasidagi moliyaviy tafovut dunyo g'oyaviy rang-barangligini bir qutb tomon siljishiga sharoit yaratib beradi. Bu jarayonda, ayniqsa, transmilliy kompaniyalar ta'siri yaqqol seziladi. Bugungi kunda keng tarqalgan tor jinsi shimlar, kalta yubkalar, ochiq koftalar yoki turli mahsulotlar etiketkalaridagi yarim yalang'och tasvirlar nimaning ifodasi? Albatta, bular hech bir xalqning milliy ishlab chiqarish mahsulotlari emas. Bunday mahsulotlar oddiy o'ramdagi mahsulotlarga qaraganda "jozibador" va e'tiborni tortuvchi hisoblanadi. Faqat iste'molchilar e'tiborini tortish va savdoni jadallashtirish maqsadlarida ishlab chiqarilayotgan bunday

[170]***Каримов И.А.*** Илму фан мамлакат тараққиётига хизмат қилсин// Унинг ўзи. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.:Ўзбекистон,1996.– Б.261. 377-378

mahsulotlar, albatta, millat madaniyati va ma'naviyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bunday holatlar, ayniqsa, yosh avlod milliy-ma'naviy dunyoqarashini shakllanishiga, uning asosidagi hayotiy-axloqiy qarashlarga jiddiy putur yetkazadi. Bu kabi holatlar insoniyat kelajagi bo'lmish yosh avlod dunyoqarashining shakllanishi o'z milliy zaminlari hisobiga emas, balki unga zid bo'lgan, bugungi kunda keng ildiz otib borayogan ma'nan qashshoq —ommaviy madaniyatlning rivojlanib borishiga olib keladi.

5. Siyosiy-huquqiy hayotning globallashuvi. *Siyosiy-huquqiy hayotning globallashuvi deb, inson haq-huquqlarini himoya qilish, jamiyatni demokratik tamoyillar asosida boshqarish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, har bir xalqning tinch-osuda yashashini ta'minlash, insoniyatni har xil yadroviy falokatlardan asrash kabi amallarni tez sur'atlar ichida bajarishga qaratilgan faoliyatlar tizimiga aytiladi.* Siyosiy-huquqiy hayotning globallashuv jarayonlari bunyodkor g'oyalar yoki vayronkor mafkuralar ta'sirida kechishini ham inkor qilib bo'lmaydi, albatta. Buning misolini BMT, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti yoki NATO misolida ko'rish mumkin. Siyosiy-huquqiy globallashuv jarayonlarining kechishida O'zbekiston tashqi siyosatining o'rni va roli haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev:" Bu siyosatning asosiy ma'no-mazmuni - tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat. Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazi- famiz deb bilamiz. Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlashni istardim. Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo'lini izchil davom ettiramiz. Hamkorlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, bundan yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham shuncha ko'p naf ko'radi"[171] ,– degan edi. O'zbekiston uchun siyosiy-huquqiy hayot

[171] ***Мирзиёев Ш.М.*** Тошкент – барчамиз учун онадек улуғ ва муътабардир// Унинг ўзи.Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – Б.480. 379

jabhalarining glaballashuvi jarayonlarining mazmun-mohiyati, uning o‘rni va roli ana shu fikrlarda o‘zining haqiqiy ifodasini topgan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

6.Madaniyat sohasining globallashuv.*Madaniy-ma'naviy hayot sohalarining globallashuvi deb jahonda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan ko‘proq daromad topishga qaratilgan, shaklan turli xil ko‘rinishga ega bo‘lgan, mohiyatan o‘zga elat, millat, xalqlarning asrlar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarini ichidan parchalab tashlash evaziga, ular ni madaniy-ma'naviy qaramlikka mahkum qilishga yo‘g‘rilgan katta moliyaviy qudratga ega bo‘lgan davlat va shaxslar tomonidan tez sur'atlar bilan sodir etilayotgan hodisalar tizimiga aytiladi.* Bunday hodisalar tomosha jarayonini bozor munosabatlarining, xususan, san'at industriyasi, shou-biznesning shakllanishi iste'molchi talabiga ko‘ra mahsulotni taklif qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu sohalarda savdo-sotiq munosabatlarining shakllanishi, butun dunyo bo‘yicha "tomosha industriyasi" ni yuzaga keltirdi. Uning ta'sirida "ermak va tomoshalar" shiori ostida iste'molchilik ruhiyati avj oldirilayapti. Madaniyat sohasida iste'molchilik kayfiyatining shakllanishi milliy ma'naviyatning takomillashib, yanada boyib borishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Chunki iste'molchilik kayfiyati kuchaygan jamiyat a'zolari o‘z milliy ma'naviyatini yangi asoslarda boyitishdan ko‘ra tayyoriga taqlid qilish, uni o‘z ma'naviyatining tarkibiga kiritishga moyil bo‘lishadi. Bu esa jamiyat a'zolarini ma'naviy qaramlikka olib keladi. Shu manoda, siyosatshunos Z.Bzejinskiy: "Amerikaliklarning qiziqishiga, ovqatlanish va hatto kiyinish odatlarigacha butun dunyoda taqlid qilishadi"[172] ,– deb ta'kidlaydi. Madaniy iste'molchilik kayfiyatining rivojlanishi madaniy va ma'naviy boyliklarga nisbatan munosabatga, shu bilan birga milliy ma'naviyatning real hayotdagi ifodasi bo‘lmish urf-odatlar, an'ana va marosimlar, qadriyatlarga nisbatan ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ularni kishilar hayotidan siqib chiqaradi. Bugun yoshlar orasida urf bo‘lib borayotgan ochiq-sochiq kiyinish, muomalada milliy tilga e'tiborsizlik, Yevropa mentalitetiga intilish kabi holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Bular barchasi milliy ma'naviyatning axloqiy asoslariga putur yetkazadi.

7.Axborot-kommunikatsiya sohasining globallashuvi.*Axborot-kommunikatsiya sohalarining globallashuvi deb jahonda yuz berayotgan har qanday voqea, hodisa, jarayonlar, narsalar, predmetlar, faktlar, shaxslar yer sharining istalgan nuqtasidan axborotlarni tezlikda uzatish va*

---

[172]***Збигнев Бжезинский***. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивм) Перевод О.Ю.Уральской. –М.: Международные отношения, 1998. –С.39. 380

qabul qilish, ularni yig'ish, o'zgartirish, qayta ishlash, saqlash, qidirish va tarqatish jarayonlariga aytiladi.

Axborot-kommunikatsiya sohasining globallashuvi natijasida dunyo hamjamiyati yer sharining ixtiyoriy nuqtasidan axborot qabul qilish va uzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu borada keyingi yillarda telefon, internet tarmoqlari, shuningdek, radio va televideniya vositalari keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Bugungi kunda madaniy-ma'naviy mahsulotlar, san'at asarlari asosan, AQSH, Yevropa va Sharq mamlakatlari ma'naviy hayotini keng targ'ib etmoqda desak mubolag'a bo'lmas. Bu borada taniqli amerikalik siyosatshunos Z.Bzejinskiy:"Amerika televizion dasturlari va filmlari bu sohada dunyo bozorining deyarli to'rtdan uch qismini egallaydi. Amerika ommabop musiqasi eng yetakchi pog'onani egallagan, internet tili – inglizcha, global kompyuter tarmog'idagi so'zlashishning asosiy qismi ham amerikacha va «global suhbatlar»ga o'z ta'sirini o'tkazmoqda"[173], - deb ta'kidlaydi. Bulardan, AQSH, Yevropa mamlakatlari ma'naviyati ekspansiyasining naqadar avj olganligiga amin bo'lish mumkin.

8. Hozirgi globallashuv davrida mafkuraviy jarayonlarning xususiyatlari. XXI asrning boshlariga kelib mafkuraviy jarayonlarning universallashuvi shu darajaga yetadiki, undan biror kishi chetda qolayotgani yo'q. U butun yer yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab oldi, dunyodagi barcha odamlar uning ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Buni uning quyidagi xususiyatlarida: birinchidan, globallashish – insonparvarlashish, jamiyatning barcha sohalariga ta'sirida; ikkinchidan, integratsiyalashish – demokratiyalashish, milliy chegaralar doirasida qolib ketmasligida; uchinchidan, differensiatsiyalashish – siyosiylashish, inson umrining barcha bosqichlariga umumiy ta'sir ko'rsatishida ko'rish mumkin.

9. Hozirgi paytda mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillar. Bugungi dunyoda misli sz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrayi zaminini qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Bu jarayonlar jahon taraqqiyotining muhim xususiyati ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta'sir vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.

Mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillarga: 1) iqtisodiy munosabat va aloqalarning kuchayishi; 2)

---

[173] Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивм). Перевод О.Ю.Уральской. –М.: Международные отношения, 1998. –С.39. 381,382.

ijtimoiysiyosiy munosabatlarning kengayishi; 3) ma'naviy munosabatlar va madaniy aloqalar ko'lamining ortishi; 4) axborot va aloqa kommunikatsiyalarining taraqqiyoti; 5) fundamental ilmiy kashfiyotlar va fan yutuqlarining ko'payishi; 6) texnik va texnologik imkoniyatlarning o'sishi va boshqalar kiradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi – bu xalqlar va davlatlarning bir birlariga g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi natijasida, ular o'rtasidagi mafkuraviy munosabatlarning yer yuzining barcha mintaqalarida ijobiy yoki salbiy tarzda kengayib umumbashariy ahamiyat kasb etishidir.

10. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari. Har bir narsa va hodisalarning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayonining ham ana shunday tomonlari mavjuddir. AQSHdagi Florida universiteti professori Garri Dams "Kapitalizm transformatsiyasi" asarida globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari haqida to'xtalib:"Bu jarayonning afzalliklari haqida so'z ketganda, birinchidan, dunyo miqyosida sifatli mahsulot hajmining ortib borayotgani, unga nisbatan talab-ehtiyojning kengayishi; ikkinchidan, avto va aviatransport, turizm hamda aholi migratsiyasining kuchayishi; uchinchidan, kompyuter, internet, sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni uzatish tizimining mislsiz darajada rivojlanishi; to'rtinchidan, yangi kashfiyot va zamonaviy texnologiyalar vositasida o'simlik va hayvonot olamida irsiyatni o'zgartirish orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish hamda o'ta xavfli irsiy kasalliklarni bartaraf etish imkoniyati tug'ilayotganini e'tirof etish darkor. Ammo mazkur jarayonning salbiy jihatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Xususan, texnologik inqilob, haddan tashqari sanoatlashtirish jarayonining sayyoramiz iqlimiga global ta'sir etishi oqibatida insoniyat salomatligiga jiddiy xavf tug'ilmoqda. Madaniyatlarning bir xillashuvi esa milliy davlatlar, turli xalqlar qadriyatlariga putur yetkazmoqda"[174], – deb yozgan edi. O'zbek xalqi ham barcha odamlar kabi globallashuvdan chetda qolayotganicha yo'q. Xalqimizning globallashuv jarayonlariga bo'lgan munosabati Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimizdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-

[174] Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. – Т.: «Маънавият», 2006. –Б.14–15.

to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”[175], – deb aytgan so‘zlariga hamohangdir. Demak, globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlarini o‘z uyimiz bo‘lgan O‘zbekistonimizga qabul qilamiz, ulardan unumli foydalanamiz, ammo salbiy holatlarining esa uyimizga kirib kelib ag‘dar-to‘ntar qilishlariga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki, “ bugungi kunda, – degan edi I.A.Karimov, – inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zgako‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”[176].

2-§. Globallashuv sharoitida o‘zbek xalqining milliy manfaatlari mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari.

Globallashuv sharoitidamilliy manfaatimizga, milliy ma’naviyatimizga, g‘oya va mafkuraga qarshi bo‘lgan xavf-xatarlarning yuzaga kelishi nimalar bilan bog‘liqligini, uning sabablarini aniqlay bilish lozim bo‘ladi. Qanday sabablar, omillar va vositalar milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga qarshi xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin? Bu savolga javob berishdan oldin «xavf-xatar» va «tahdid» tushunchalari ustida qisqa to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

«Tahdid» turg‘unlik holatidagi xavf-xatardir. Xavf-xatar esa «tahdid»ning amaliyotga aylanishi,«ishlashi»,nimagadir ta’sir o‘tkazishining boshlanishidir. «Tahdid»ning xavf-xatarga aylanishi milliy manfaat, milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga nisbatan qo‘llanilganda unda ichki va tashqi yemirilish jarayoni kechayotganini tushunish mumkin. Zero, «tahdid» xatarli kuch bo‘lishiga qaramasdan, agar amaliyot darajasiga aylanmasa, uning ta’sir o‘tkazish maqomini anglab yetish murakkabligicha qoladi.

Xavf-xatar doim harakatda bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. U «tahdid»ning yuzaga kelishi oqibatida sodir bo‘ladi. Xavf-xatarning boshida «tahdid» turadi. Tahdidda turg‘unlik mavjud bo‘lsa, xavf-xatar har doim harakatdagi jarayondir. Bugun milliy manfaat,milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga qaysi biri kuchli ta’sir o‘tkazmoqda, degan savolga javob izlaydigan bo‘lsak, aytish mumkinki, ularning har ikkalasi ham kuchaygandan kuchayib bormoqda. Buning ma’nosi shuki, tahdid kuchayib borgani sari unga mos ravishda milliy manfaatlarimizning tub

---

[175] Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. –Т.: —Академия‖ нашриёти, 2005. –Б.81.

[176] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.115

mohiyatini ifodalovchi g'oya va mafkuramizga nisbatan xavf-xatar ortmoqda hamda ularni ichkaridan va tashqaridan yemirishga harakat qilish avj olmoqda. Ayni paytda, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yagona kuch sifatida amal qilmoqda.

Milliy manfaat, milliy ma'naviyat, g'oya va mafkuraga nisbatan xavf-xatar quyidagi holatlarda: millatning o'zgalarga qaramlik holatiga tushib qolishida; milliy birlikning susayishida; millat vakillarining o'z milliy ma'naviyatidan begonalashuvida; ta'limning tarbiyadan uzilib qolishida; mamlakatda qonun ustuvorligining yetarli darajada amal qilmasligi va korrupsiyaning kuchayishida; demokratik qadriyatlar rivojlanishining milliy taraqqiyot ehtiyojlarida orqada qolishi sharoitida yuzaga keladi.

Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: "Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur"[177].

1. Milliy manfaat va mafkuraviy xavfsizlik. *O'zbekiston xalqining milliy manfaati – bu o'zining milliylik va umuminsoniylik xususiyatlariga mos ravishda mavjud reallikda vujudga kelgan zaruriy obyektiv va subyektiv omillar talablaridan kelib chiqqan holda moddiy va ma'naviy jihatdan biror bir foyda,naf ko'rish maqsadida amalga oshiradigan faoliyatlari tizimidir.* Buning yadrosini o'zbek xalqining mehnatsevarligi, insofliligi, shukronaligi, baham ko'rishi va adolatpeshaligi kabi bir qator axloqiy-ma'naviy fazilatlari tashkil qiladi. Milliy manfaat – millatning yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlari va umuminsoniy axloq normalariga tayanmas ekan,u o'zining ma'naviy,mafkuraviy asosini yo'qotib, ichki va tashqi siyosatda qonuniylik tamoyillari ijrosining zaiflashuviga olib keladi.

---

[177] ***Мирзиёев Ш.М.*** Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир //https://president.uz/uz/lists/view/4089.19.01.2021.

Bu esa o‘z navbatida milliy manfaatlar tizimini izdan chiqarish bilan tugallanadi.

Globallashuv sharoitida O‘zbekiston xalqining milliy manfaatlarini ta’minlash *birinchidan,* keng ma’noda inson manfaatlari, *ikkinchidan* esa nisbatan tor ma’noda davlat manfaatlari sifatida,ularning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash ishlarini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Milliy manfaatlarga qaratilgan har qanday tahdid va xavf-xatarlarning oldini olishda milliy mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash alohida o‘rin egallaydi. Bunda, milliy-ma’naviy xavfsizlik – milliy ma’naviyatning barqaror taraqqiy qilishi uchun shart-sharoit, vaziyat, imkoniyatlarning mavjudligi, uning o‘ziga xosligiga zid bo‘lgan turli ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik tahdidlardan himoyalanganligi va milliy ma’naviyatning umummilliy taraqqiyotning tabiiy ehtiyoji va amaliyotiga aylanganlik salohiyatini, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik esa shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladigan g‘oyaviy-mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi.

2.G‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik. G‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik deganimizda, milliy g‘oya va milliy mafkuraning millatni zaiflashtirishga qaratilgan tashqaridan kirib keluvchi har qanday yovuz g‘oyalar va mafkuralarga nisbatan kuchliligi, milliy ong, dunyoqarashni ular ta’siridan himoya qilishi va milliy manfaatlarni tarannum etishda hamda uning amaliyotda namoyon bo‘lishini ta’minlay bilishdagi katta salohiyati nazarda tutiladi. Bunga erishish ham yuksak darajada rivojlangan ma’naviyatga bog‘liq holda kechadi. Qaysikim, milliy-ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlik mexanizmi zanjirdagi xalqalarning harakatga kelishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lsa, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik esa ushbu omilni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

3. Milliy manfaatlarning mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning usul va vositalari. Milliy manfaatlarning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash har xil mafkuraviy tahdid, xavf-xatar va tajovuzlarning oldini olish vositasi ekanligi quyidagilar bilan ifodalanadi.

1. Milliy ong, dunyoqarash, ruhiyat va qalbda milliy xavfsizlikni ta’minlash millat vakillarida millatni asrash va rivojlantirishning asosiy sharti ekanligi anglab yetilmas ekan, unga erishib bo‘lmaydi.

2. Milliy-ma’naviy qashshoqlik bo‘lgan jamiyatda siyosiy beqarorlik yuzaga keladi.

3. Ma'naviyati qashshoq millatda o'z vatanini himoya qilishga kuch-qudrat etmaydi. Bunday millat vakillari o'z vataniga xoinlik qilishdan ham qaytmaydi. Unga hamma joy vatanday ko'rinaveradi, o'z manfaatini hamma qadriyatlardan ustun qo'yib yashaydigan bevatan insonlardir.

4. Vatanni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilish, uning chegaralari mustahkam bo'lishiga o'z hissasini qo'shishga intiluvchi insonlarda milliy ma'naviyat kuchli bo'ladi. O'z vatanining chegaralari mustahkamligi, uning xavfsizligi ta'minlaganligini xuddi o'z oilasining mustahkamligi va xavfsizligini ta'minlash sifatida qaraydigan insonlarning ma'naviyati yuksak bo'ladi. Milliy manfaatlarni ta'minlashda iqtisodiy xavfsizlikda mamlakatning mavjud resurslaridan tejab foydalanish, ularning talon-toroj qilinishiga va chet ellarga olib chiqilishiga yo'l qo'ymaslik ham insonlar ma'naviyati bilan bog'liq. Ma'naviyatli insonlar mamlakat boyligini ko'z qorachig'iday asrash, ularni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zlashtirishga harakat qiladigan kimsalarga nisbatan nafrat tuyg'ularining yuzaga kelishi ham ma'naviyat bilan bog'liqdir.

5. Jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlardagi do'stlik, o'zaro hamkorlik va barqarorlikning amal qilishi ham ma'naviyat bilan bog'liqdir. Agar ma'naviyat taraqqiy qilgan bo'lsa, ular o'rtasida o'zaro munosabatlarda manfaatlar muvozanati amal qiladi va jamiyat barqaror rivojlanib boraveradi.

6. Atrof-muhitni toza, orasta tutish, mamlakat tabiatini, hayvonot dunyosini, o'rmon va suv zaxiralarini asrash, ob-havoning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik ham ma'naviyat bilan bog'liqdir. Ma'naviyatli insonlar ana shu boyliklar nafaqat bugun, shu bilan birga istiqbolda o'z avlodlari uchun ham zarurligini yaxshi biladi va o'z imkoniyati doirasida ularni asrashga harakat qiladi. Ma'naviy qashshoq insonlar esa bunday tuyg'ularga ega bo'la olmaydi.

7. Bugun insonlar va millatlar kuchli axborot bosimi ostida yashamoqda. Taraqqiy qilgan mamlakatlar o'zlarida mavjud bo'lgan yuksak darajadagi axborot vositalari orqali dunyoda o'z hukmronligini o'tkazish maqsadida turli buzg'unchi g'oyalar, axloqiy qashshoqdik va bo'htonlardan iborat xabarlar, axborotlar va ma'lumotlarni jahon afkor ommasi o'rtasida targ'ib qilmoqdalar. Mana shunday sharoitda ularni tanlash, inson va millat manfaatlariga zid bo'lgan jihatlaridan ogoh bo'lish ma'naviyat-mafkuramiz bilan bog'liqdir. Ma'naviyati yuksak insonlar va millatlargina ogoh bo'lishga hamda ular ta'siridan o'zlarini himoya qilishga qodir bo'ladi.

8. Bugun dunyodagi taraqqiy qilgan mamlakatlarning jahondagi turli mamlakatlardagi yuksak intellektual salohiyatli olimlar va mutaxassislarni «o‘g‘irlash»i an’anaga aylangan. Ular bunday olimlar va mutaxassislarga barcha moddiy imkoniyatlarni vujudga keltirish, texnik va texnologik shartsharoitlarni yaratishga va’da berib, ularni o‘z mamlakatlariga olib ketishga muvaffaq bo‘lmoqdalar. Ular bu faoliyatlari bilan, bir tomondan, ana shunday kadrlarni tayyorlashga ketadigan mablag‘ va vaqtni tejashga erishib, tayyor olim va mutaxassislarni qo‘lga kiritmoqdalar; ikkinchi tomondan, mamlakatlarni intellektual jihatdan zaiflashtirishga va oxir-oqibatda o‘zlariga qaram qilishga intilmoqdalar. Bunday sharoitda yuksak ma’naviyatga, o‘z millati va Vatanini sevish ruhiyatiga ega bo‘lgan insonlar moddiy boylik evaziga o‘zga mamlakatlarga ketishdan o‘zlarini tiyadilar. Bunga ham yuksak ma’naviyatlilargina amal qilishi mumkin. Ma’naviyati qashshoqlashgan, o‘zga g‘oya va mafkuralarning aldoviga uchgan insonlar esa o‘zgalarning takliflariga moyillik bildiradilar. SHuni ham hisobga olish kerakki, boshqa mamlakatlarga ketib, o‘zi va o‘z mamlakatiga manfaatlar keltiradigan intellektuallari ham borki, bu umummilliy taraqqiyot uchun ahamiyatlidir. Shu ma’noda qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z intellektuallar ma’naviy yuksakligini ta’minlash milliy taraqqiyotning zaruriy sharti bo‘lib qolmoqda .

Shunday qilib, milliy manfaatlarning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash jamiyat ma’naviy hayotida bo‘shliq paydo bo‘lishining oldini olish, o‘zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimini shakllantirishuni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni oshirish orqali zohir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi ichki omil – jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy salohiyatidir. Bundan tashqari, mafkuraviy xavfsizlik xalqimizning asriy an’analari, tili, dini, ma’naviyati va milliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari, madaniy-ma’rifiy muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tizimi mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning zaruriy shartidir.

O‘zbekiston xalqi manfaatlarining mafkuraviy xavfsizligini ilmiy asoslangan ijtimoiy siyosatga, huquqiy madaniyatga, jamiyatning ma’naviy etukligi va demokratiyalashuviga uzviy ravishda amalga oshiriladigan g‘oyaviy tarbiyaga tayanadi. Jamiyat, davlat va shaxs mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash – davlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu xususda Sh.M.Mirziyoyev:”Biz yaratayotgan yangi

O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz”[178], - degan edi.

3-§. Global muammolar mohiyati va uni tugatish yo‘llari.

1. Globalistika tushunchasi. Globalistika - bu gumanitar fanlar inqirozini yengib o‘tishga intiladigan xalqaro aloqalar va jahon siyosati sohasidagi bilimlarning maxsus transformatsiyalangan shakli bo‘lib, u zamonaviy dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar ta’sirida tadqiqot subyektlarining ko‘pincha to‘sqinliksiz ixtisoslashuvi va o‘zgarishiga bo‘linishi bilan ifodalanadi.

Globalistika globallashuv jarayonlarining mohiyatini, tendensiyalari va sabablarini, boshqa global jarayonlar va muammolarni ochib beradi, bu jarayonlarning inson va biosfera uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo‘llarini izlaydi.

Globalistikaning shakllanishini 4 bosqichga bo‘lish mumkin:

1. 1960-yillarning oxiri - 70-yillarning boshlari. Bu bosqich individual global muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan va ularni ajralmas tizimga birlashtirmagan davri hisoblanadi.

2. 1970-yillarning ikkinchi yarmi. Eng muhim nazariy yo‘nalishlarni shakllantirish va tadqiqot obyekti doirasini aniqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi..

3. 1980-yillar. Amaliy harakatlarga urinish bo‘lib,u "global miqyosda o‘ylang, mahalliy darajada harakat qiling" tamoyiliga asoslanadi.

4. 1980 yillarning burilishi - 1990 yillar. Xavfsizlikni ta’minlash muammolari ayniqsa, keskinlashmoqda va siyosiy globallashuv rivojlanmoqda. Davrning muhim bosqichi BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (1992) bo‘lib, unda barqaror rivojlanish konsepetsiyasi ilgari surildi.

20-asrning oxiridan boshlab global tadqiqotlarda aniq tendensiya mavjud bo‘lib, unga ko‘ra olimlar, tadqiqotchilar va siyosatchilarning e’tiborlari alohida global muammolardan globallashuv jarayonlariga va turli mamlakatlar va xalqlarning o‘zaro bog‘liqligining o‘sib borishiga o‘tishni boshladi. Xalqaro terrorizm, sayyoramizning alohida mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar va yangi dunyo tartibini o‘rnatish masalalari ham birinchi o‘ringa chiqdi. Buning sababi shundaki, ba’zi global muammolarni tushunish va ularni engib o‘tish

[178] *Мирзиёев Ш.М.* Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи – маънавиятдир/ https://president.uz/uz/lists/view/4089/19.01.2021.

tajribasi umuman qoniqarli emas, shuningdek ularning paydo bo‘lishining asosiy sabablarini va ularning taktikasi kuchayib borayotganini aniqlash istagi edi. Global tadqiqotlar spektri tobora ko‘proq tabiatshunoslik tadqiqotlaridan, ijtimoiy muammolarga va insonning global jarayonlardagi rolini aniqlashga o‘ta boshladi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida jahon hamjamiyati asosan sotsialistik tizim qulashi natijasida yuzaga kelgan tub o‘zgarishlardan qutildi va yangi vaziyatni tushuna boshladi. Aynan o‘sha paytda globallashuv jarayonlarini faol anglashi tufayli o‘ziga xos "ikkinchi shamol" ga ega bo‘lgan global tadqiqotlarga qiziqishning "ikkinchi to‘lqini" paydo bo‘ldi.

XXI asrning dastlabki ikki o‘n yilliklari globallashuv jarayonlariga jiddiy e’tibor belgisi ostida o‘tdi, bu esa global tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylandi

2. Hozirgi global muammolar spektri. Insoniyat jamiyati har xil muammolar bilan to‘qnash keldilar. Ammo ularning hammasi ham global emas. Jahonda ko‘p odamlar kambag‘allik chizig‘idan pastda yashaydilar. AQSHda terroristlar butun dunyo savdo markazi Pentagonni vayron qildilar.. Angliyada protestant va katoliklar o‘rtasida to‘qnashuvlar bo‘lmoqda. Bu barcha muammolar jiddiy bo‘lib, ko‘p odamlarning hayoti bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ular butun insoniyat manfaatlarini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham ular global emas.

O‘z xususiyatlariga ko‘ra butun insoniyat hayoti va farovonligiga ta’sir qiladigan o‘tkir dunyo muammolari global muammolarga kiradi.

XXI asr boshlarida shundan muammolardan eng muhimlari quyidagicha:

- Ma’naviy inqiroz.
- Ommaviy kasalliklarning tarqalishi.
- Ommaviy qirg‘in qurollari bilan urush xavfi.
- Planeta tabiiy resurslarining tugab borishi.
- Ekologik inqirozning chuqurlashishi.
- Demografik muammo.
- Terrorizmning o‘sishi.
- Planetada davlat va mintaqalarining ijtimoiy –iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi.
- Klimatning global o‘zgarishi.
- Er qobig‘i sistemik faolligining ko‘chayishi.

Yuqorida qayd qilingan muammolar u yoki bu darajada ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan tan olinadi. Lekin, shunday global muammolar borki, ularning muhokamasi tor doiradagi professional-tadqiqotchilar

tomonidan yakunlanib, ularning hammasi ham bunday muammolarning mavjudligini insoniyat uchun real xavfini tan olmaydilar. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

- Yerning kosmik jismlar (meteorit, kometa, asteroidlar) bilan to'qnashuvini kuchli xavfi bo'lib, undan hozirgi kunda himoya vositasi yo'q. Bunday to'qnashuv juda xavfli bo'lib, butun insoniyat va dunyo hayvonot dunyosining halokatiga olib kelishi mumkin.
- Ruhiy-energetikaning sayyoraning "ichki koinot " - nozik olam-dunyosiga salbiy ta'siri. Bunday ta'sir insoniyatning ma'naviylik va noosferasi o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishiga sabab bo'ladi.

Har qanday muammoni, shu jumladan global muammoni ham uning sababini tushunmay echish mumkin emas. Barcha yuqorida qayd qilingan global muammolar umumiy ko'rinishda uchta sababi bor:

1) odamning ma'naviy takomillashmaganligi;
2) insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining ziddiyatliligi;
3) obyektiv tabiiy jarayonlar.

Aksariyat ko'pchilik muammolar birinchi va ikkinchi sabablar bilan bog'liq. Ba'zi muammolar mutaxasislar fikricha, uchta sabab ta'siri ostida (klimatning global o'zgarishi, siyosiy faollikning ko'payishi) keskinlashadi. Ko'rsatilgan muammolardan faqat bittasi butunlay tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, bu erda inson va jamiyatning ta'siri aniqlanmagan (Yer planetasining kosmik jismlar bilan to'qnashuvi)

Shunday qilib, bir deyarli barcha global muammolar ong yoki inson dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lib, uning fan, siyosat, iqtisod, madaniyat, demografiya, texnikasi sohasidagi obyektiv voqelikning tez o'zgarishidan orqada qolganligini ko'ramiz. Hozirgi sivilizatsiya sharoitida odamning o'z faoliyati uchun javobgarligi yuzlab va minglab marta keskinlashadi. Bir nechta yuz yil oldin eng katta urush ham butun insoniyat uchun xavf solmagan edi. Hozirda ommaviy qirg'in quroli bilan harbiy mojarolarning oqibatlarini oldindan aytish qiyin. Yadro quroli nafaqat sivilizatsiyani, planetadagi barcha tirik jonzotlarni yo'qotishi mumkin.

3. Global muammolarni tugatish yo'llari. ***Global muammolarni tugatishning asosiy vositasi –insoniyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirishdir.*** Bu axloqiy, ekologik va madaniy ustunlikni ta'minlovchi umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan yangi planetar –kosmik tafakkur va insonparvarlik dunyoqarashni rivojlantirishni ifodalaydi.

Hozirgi odam tabiiy balansni buzish osonligi, uni tiklashning qiyinligi, yer ekologik tizimining qanchalik murakkabligini va shu bilan birga qanchalik nozikligini, planeta taqdiri uchun shaxsiy javobgarligini

to‘la anglashi kerak. Insoniyat o‘zining tarixiy rivojlanishida shunday chegaraga keldiki, terroristlar, dovullar, yer qimirlashlar, sunamilar, ekologik fojialar, chegarani bilmaydigan epidemiyalar kabi o‘z davlati chegaralariga yaqin dunyo muammolaridan chetda turishi mumkin emas.

Endi global muammolardan ba’zilarini batafsil qarab chiqamiz, ularni qanday tugatishni tushunishga harakat qilamiz.

- Insoniyatning ma’naviy rivojlanishi hamma vaqtda murakkab va ziddiyatli bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham XX asrda –XXI asr boshida ma’anaviy madaniyat, jamiyatning axloqiy negizlari shunday sinovlarga duch keldiki, bunday davrni tarixda topish qiyin. “Ma’naviy inqiroz” tushunchasining hozirgi falsafiy va ilmiy so‘z boyligiga kirishi tasodifiy emas.

Hozirgi ma’naviy inqiroz nimalarda namoyon bo‘ladi? SHaxsning ma’naviy negizini qo‘porishda va buzg‘unchi ijtimoiy hodisalarning o‘sishida. Bundan hodisalar qatoriga bizning ko‘p hozirgi zamondoshlarimizning ahvoliy yo‘nalishi va hayot ma’nosini yo‘qotishi, ichkilikbozlik va nashavandlik, fohishabozlik va jinsiy chekinishlar, ko‘p odamlarning faqat moddiy boyish va sezgi lazzatlanishga intilishi, jinoyatchilik va zo‘ravonlikning o‘sishi, ommaviy hayajon va ruhiy kasalliklar, ijtimoiy xudbinlik va chidamsizlik va boshqalar kiradi.

Insonning ichki dunyosi va uning ma’naviy tamoyillariga murojat qilmasdan, qonuniy, politsiya, tabiiy choralar bu illatlarni tugatishda samarasizdir. Ularni nima mustahkamlaydi va rivojlantiradi? Insoniyat asl ma’naviy madaniyati sohasiga kiruvchi –ma’naviy ta’limot, maorif, falsafa, fan, yuqori san’at. Ma’lumki, ma’naviy niqiroz muammosi –bu jamiyatning ma’naviy madaniyati va inson dunyoqarashi muammosi. Ma’naviy inqirozni tugatish uchun, mana shu yo‘nalishlarga barcha harkatlarni yig‘ish kerak.

Ommaviy kasalliklar tarqalishi to‘g‘risida gapirganda, eng avvalo kardiologik, onkologik, yuqumli va ruhiy kasalliklar nazarda tutiladi. Masalan, yer yuzida har yilgi kardiologik va onkologik kasalliklardan o‘lganlar millionlab hisoblanadi. SPID kasalligi tez tarqayapti. Buning ustiga koronovirus pandemiyasi ham qo‘shildi. Jahonda 80 mln.dan ortiq odam shu kasallikka chalingan. Kasalliklar soni o‘sishining sababi juda ko‘p noto‘g‘ri turmush tarzi va ovqatlanish, atrof -muhitning ifloslanishi, hayajonlar va ko‘pchilik odamlarning o‘z ichki dunyosi ustidan nazorat qilaolmasligi, jinsiy chekinishlar va ruhiy energiyaning yetishmovchiligi.

Mutaxassislar fikricha, ommaviy kasalliklar muammosi ikki tomonlama yechilishi kerak.

Birinchidan, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy va aqliy faollikni moslashtirish, profilaktika, jismoniy mashqlar va parhez ovqatlanish va boshqalar zarur.

Ikkinchidan, tibbiy terapiyaning yangi usullarini, yangi dorilar va ommaviy kasalliklarni davolashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

XX asrda insoniyat ommaviy qirg‘in qurollarni (yadro, ximiyaviy, biologik) ishlab chiqishni o‘rgandi. Ilmiy aql bu sohada ko‘zga ko‘rinarli “yutuqlar”ni qo‘lga kiritdi. Harbiy ximik reaktivning bir tomchisi butun ko‘lni zaharlashga etadi. Bitta suvosti yadro raketa tashuvchi butun bir davlatni xarobaga aylantirishi mumkin. XX1 asr boshlariga kelib, NATO bloki davlatlari, Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar aslaha xonasida minglab tonna ximik va biologik harbiy zaharlovchi modda, minglab yadro harbiy kallakilar saqlanib, yerdagi barcha tirik jonlarni, yer sharidagi barcha shaharlarni ko‘p marta yakson qilishga yetadi. Nimaga odamlarga buncha miqdordagi xonavayron qiluvchi qurol kerak?

Ommaviy qirg‘in quroli bilan urush, g‘oliblar va mag‘lublarni tenglashtirishini olimlar andazalashtirdi va isbotladi. Kuchli radiatsiya, atrof muhitning ifloslanishi yoki “Yadro qish” hamma –g‘oliblar va mag‘lublarni – bir xil sharoit – hayot bilan o‘lim orasiga qo‘yadi. Hozir ommaviy qirg‘in quroli yo‘qotilmas ekan, planeta miltiq dori yerto‘lasi bo‘lib, barcha insoniyatga o‘lim havfini tug‘diradi. Planeta barcha mamlakatlari uchun ommaviy qirg‘in qurollarni ishlab chiqarishni asta – sekin qisqartirish, keyin yo‘qotish va to‘la man qilish zarur.

Insoniyat o‘tgan asrda birinchi marta o‘z planetasida tabiiy resurslar – neft, ko‘mir, ruda –mineral xomashyolar, ichimlik suv zaxirasining, o‘rmon va hosildor yerlarning, baliqlar va boshqalarning tugashi havfini angladilar. Hozircha bu muammo eng dolzarb emas. Ammo, agar xomashyodan shu suratda foydalanish davom etsa, jamiyat XXI asrdayoq neft zaxirasining to‘la tugashi bilan to‘qnashib, ximiyoviy ishlab chiqarishning ko‘p turlari va boshqa sanoat korxonalari, avto, avia va suv transportlarining paralich bo‘lishiga olib keladi.

Qanday yo‘l topish mumkin? Olimlar chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyasi, xomashyoni iqtisod qiluvchi ishlab chiqarishni ishlab chiqish va tadbiq qilishni, quyosh, shamol, suv, yadro energiyasidan faol foydalanish, energiyaning yangi manbalarini izlash, resurslarni iste’mol qilishni chegaralash, quyosh tizimi planetasining yer osti boyliklariga sanoat ishlov berishni amalga oshirishni taklif qiladi.

Hozirgi davrning o‘tkir muammolaridan biri ekologik inqiroz. Ko‘plar u faqat atrof –muhtining ifloslanishi deb o‘ylaydi. Lekin bunday emas. Falsafiy nuqtai nazardan ekologik inqiroz bu odam faoliyatining tabiatga salbiy ta’siri. Bunday faoliyatning oqibati nafaqat sanoat chiqindilari bilan yerning, suvning va havoning zaharlanishida, balki barqaror ekologik tizimning va planeta azon qatlamining buzilishida ham namoyon bo‘lmoqda. Masalan, o‘rmonlarning ommaviy kesilishi kislorod foizini kamaytirib, atmosferada uglekisliy gaz miqdorini ko‘paytirmoqda. Mintaqa suv balansining o‘ylamay buzilishi (to‘g‘onlar qurilishi yoki daryo oqimining o‘zgarishi) sahro va botqoqlikning paydo bo‘lishiga, zararli hasharotlarning tarqalishiga, hayvon va o‘simliklarning ko‘p turlarining halok bo‘lishiga olib kelmoqda.

Ekologik muammolarni hal qilish butun kompleks choralarni ko‘rishni talab qiladi. Ularning orasida eng muhimi: atrof – muhitga odamlar munosabatining o‘zgarishi, ishlab chiqarishda tozalovchi binolarning qurilishi, issiqlik elektrostansiyalarni almashtirish, atmosferaga uglekisliy gaz va freonlarning chiqishini qisqartirish, mintaqalarda tabiiy ekologik balansni saqlash va boshqalar.

Demografik muammolarning mohiyati planetaning ba’zi bir mintaqalari va mamlakatlarida (Xitoy, Hindiston, Janubiy Amerika) aholining yuqori sur’atda ko‘payishida. Evropa, Shimoliy Amerika, Rossiyada tug‘ilish kamaysa ham er yuzi aholisining umumiy miqdori tezlik bilan o‘sib bormoqda. Bu nima bilan havf tug‘diradi? Ba’zi bir tahlilchilar yer cheklangan odamlar miqdorini boqishga qodir deb faraz qiladi. Masalan 10 mlrd deydi. Agar shunday o‘sish sur’ati saqlansa, har xil baholar bo‘yicha 7 mlrdlik sivilizatsiya bir nechta o‘n yillikda unga etishi mumkin.

Ko‘p mutaxassislar, odamlar bir tekis joylashtirilsa, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samarali tashkil qilinsa, planeta 50 mlrd aholini boqish mumkin deb xisoblaydi. Shu bilan bu muammo oson bo‘lib qolmaydi. Gap shundaki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy infrastrukturasi aholi o‘sish suratidan orqaga qolmoqda. Bu ikki jarayon bir biriga moslashishi kerak. SHuning uchun Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar aholi sonini kamaytirish siyosatini olib bormoqda.

Terorizm va zo‘rovonlik muommosi ijtimoiy-madaniy ildizga ega. Biroq u nafaqat axloq odob tamoyillariga inson huquqiy ongiga ham tayanishi kerak. Ko‘p hollarda terorizm-o‘z dunyoqarashi, huquqi uchun jamiyatga qarshi kurashning o‘ta ketgan usulidir. Shunga ko‘ra jamiyat eng avvalo o‘z odamlarini oddiy huquq va erkinliklar tafakkur va so‘z, mulk, vijdon, ta’lim, mehnat, yashash huquqlari bilan taminlanishi kerak. Bu

yerda aholini ko‘p huquq va imkoniyatlardan mahrum bo‘lgan rivojlanayotgan davlatlarni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy qo‘llab quvvatlash muhim rol o‘ynaydi.

Xalqlarga bir-birini tushinishda, qadriyat va an’analarni xurmat qilishda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish muhim ahamyatga ega. Jamiyatga qarshi, ijtimoiy xavfli guruhlarning kriminal sabablarga bog‘liq guruhlarning terroristik faoliyati alohida muammo. Bu yerda hal qiluvchi so‘z qonunchilik va huquqni himoya qiluvchi organlar tomonida. Shu bilan birga ularning terrorizmga qarshi kurashda huquqiy baholashning yagona standartini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlik juda dolzarbdir. Masalan, g‘arb davlatlari terrorizm muommosida ikkiyuzlamachilik standartlarini yoqlaydilar. Bunday siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra xavfli bo‘lib, jaxon hamjamiyatiga terrorizmga qarshi hamjihat bo‘lib kurashish imkoniyatini bermaydi.

XX asrda fan sayyoramizda global ob-havo o‘zgarishlarning o‘sib borishini qayd qildi. Olimlar asta sekin o‘sib borayotganligini aytmoqdalar. Ba’zi bir mamlakatlarda masalan Rossiyada oxirgi chorak asrda mutaxassis bo‘lmaganlarda ham bu holat ma’lum bo‘lmoqda. O‘rta kenglikda qish kam qorli, yozda juda issiq bo‘lmoqda, qutblarga muzlarning va qorlarning erishi natijasida Evropa qirg‘oqlarida, Atlantika okeanida suv sathining ko‘tarilishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga dunyoning ko‘p davlatlarida ob-xavo animiya kuzatilmoqda. Masalan Afrika va Amirekaning janubiy kengliklarida ko‘p yog‘moqda. Butun er yuzida meteorologlarning kuzatishicha tempratura, bosimining tez o‘zgarishi xavfli atmosfera xodisalarining (dovul, shamol, tayfun, yirik do‘l, to‘satdan kuchli qor) ko‘payishi qayt qilinmoqda.

Oxirgi bir necha yuz yillikda yer qari yillik faolligining oshib borishi kuzatib borilmoqda. Yer qimirlash tez va vayronagar bo‘layapti. Suv osti yer qimirlashlari katta okean to‘lqinlari sunamilarga olib kelmoqda. Masalan, 2004-yilda janubiy sharqiy osiyodagi kuchli sunami 250 mingdan ko‘p odamni halok qildi.

Bu jarayonlarning sababi nimada? Fan bunga hozir uzil-kesil javob bera olmaydi. Ammo, ko‘p olimlar bu nuqtayi nazarga, unga binoan ob-havoning o‘zgarishi seysmofaollikning o‘sishi obyektiv tabiiy sabablargagina bog‘iq bo‘lmay, inson faoliyatiga bog‘liq degan fikrga moyillik bildiradilar. Masalan, yadro portlashlar yerning silkinishiga olib keladi. Atmosferada uglekisli gazning ko‘payishi “parnik effekti”ni ko‘paytiradi. Ba’zi bir tadqiqotchilar qarab chiqilayotgan jarayonlarning obyektiv sabablari yer o‘qi qiyaligining davriy o‘zgarishi va planeta magnit qutblarning kursi og‘ishida deb biladilar. Bunday o‘zgarishlar

qadimda ham bo'lganligi faraz qilinadi. Natijada klimat va materiklarning geografik chiziqlari kardenal o'zgargan. Bazi bir falsafiy tizim (geografiya, etika va boshqalar) izdoshlari farazicha uzoq o'tmishda shunga o'xshash global jarayonlar ta'siri ostida katta materiklar Lemuriya va Atlantida xonavayron bo'lgan. Yer o'qi og'ishi va magnit qutblarning almashishi nimaga bog'liq? Bu savol hozircha ochiq qolmoqda.

Har bir global muammo o'z xususiyatiga ega bo'lsa, o'z yechim usullariga ham egadir. Lekin shu ma'lumki, birorta global muammo bitta millat yoki davlatning harakati bilan hal bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakat va xalqlarning keng xalqaro hamkorligi va ularning harakatlarini muvofiqlashtirish kerak. Biroq, dunyo muammolari insoniyatdan yagona planetar hamjamiyatga siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyalashishni talab qilmoqda. Insoniyat sivilizatsiyasi global muammolarning qanday hal qilinishiga bog'liq.

15-jadval

XXI asr boshlarida dunyo sivilizatsiyasining global muommolari



16-jadval

Sivilizatsiya global muommolarni yechishning zaruriy ijtimoiy-ma'naviy sharoitlari



17-jadval

Kelajaknidavrlashtirish

Kelajakdavri	Vaqt
Yaqinkelajak	5-10 yilgacha
Uzoqlashgankelajak	10-50 yilgacha
Uzoqkelajak	50-100 yildan yuqori

4-§. Rivojlanish tendensiyasi va insoniyat kelajagi

1. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivojlanishining tendensiyalari.

Rivojlanish yo'nalishlari to'g'risida gapirganda, ba'zi bir taraqqiyot yo'nalishlari, uning qandaydir tomonga intilishini nazarda tutadi. Sivilizatsiya taraqqiyoti yo'nalishlari to'g'risidagi masala-bu sivilizatsiya

16-jadval

Sivilizatsiya global muommolarni yechishning zaruriy ijtimoiy-ma'naviy sharoitlari



17-jadval

Kelajaknidavrlashtirish

Kelajakdavri	Vaqt
Yaqinkelajak	5-10 yilgacha
Uzoqlashgankelajak	10-50 yilgacha
Uzoqkelajak	50-100 yildan yuqori

4-§. Rivojlanish tendensiyasi va insoniyat kelajagi

1. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivojlanishining tendensiyalari.

Rivojlanish yo'nalishlari to'g'risida gapirganda, ba'zi bir taraqqiyot yo'nalishlari, uning qandaydir tomonga intilishini nazarda tutadi. Sivilizatsiya taraqqiyoti yo'nalishlari to'g'risidagi masala-bu sivilizatsiya

qanday o‘zgaradi va qaysi tomonga qarab harakatlanmoqda degan masaladir. Bu umuman emas, hozirgi tarixiy davr kesimida bilish kerak bo‘lgan muammodir.

XX asr davomida va XXI asr boshlarida insoniyat jamiyati rivojlanishda qanday asosiy yo‘nalishlar ustunlik qilganini ifodalashga harakat qilamiz. Buning uchun bizga jamiyat hayotining barcha sohalari-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va ijttimoiy sohalardagi fundamental o‘zgarishlarni etiborga olish kerak.

XX asr siyosatida mavjud bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarga qarshi qaratilgan milliy-ozodlik harakati, ishchi va dehqonlarning inqilobiy qo‘zg‘alonlari katta ahamiyatga ega. Biroq, ijtimoiy hayotni qayta qurishning sotsialistik andozasi o‘zining hayotiy emasligini ko‘rsatdi. XXI asr boshlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga demokratiya, huquqiy davlat, bozor iqtisodi g‘oyalari ustunlik qildi. Eng rivojlangan dunyo davlatlar amalda bu g‘oyalarni yoqlab chiqdilar.

XX asr oxirlarida Amerika, Evropa va Osiyoda davlatlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashuvining barqaror tendensiyasi sezila boshladi. Xalqaro mehnat taqsimoti kuchaya boshladi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarida dunyo globallashuvining birinchi belgilari paydo bo‘ldi. Lekin, integratsiya va globallashuvga qarshi turadigan siyosiy, diniy va madaniy sepratizm (bo‘linish va ajralish) kontr tendensiyasi ham paydo bo‘ldi.

Demokratiya rivojlanishiga totalitar (zo‘rovonlik) davlat g‘oyasi (fashistlar germaniyasi, stalincha SSSR va boshqalar) qarama qarshi qo‘yildi. Ammo XX asr oxiriga kelib dunyo siyosiy xaritasida totalitar davlat deyarli qolmadi. XXIasr boshlarida oxirgi totalitar davlatlardan biri klassik namuna sifatida shimoliy Koreya qoldi,xolos.

Mahalliy siyosiy va diniy mojarolar o‘chmadi. XX asr oxirlarida har xil milliy – diniy madaniyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar tezlashdi. Isroil yahudiylari va falastin musulmonlari, Hind indunitlari va musulmonlar reaksion islom vahobiylari va ko‘p dinli Rossiya jamiyati, ilgarigi Yugoslaviya Respublikalaridagi Islom va xristian jamoalari o‘rtasidagi munosabatlar o‘ta keskin rivojlandi.

XXIasr boshlarida terrorizmning keskin faollashuvi sezildi. Terroristik tashkilotlarning ancha keskin islom yo‘nalishida bo‘lib o‘zlarining reaksion-siyosiy va kriminal faoliyatida diniy parda sifatida foydalandilar.

Fan-texnika taraqqiyoti sanoat, transport, aloqa tizimi, axborot texnologiyalari, yadro energetikasini jadal rivojlantirishini rag‘batlantirdi.

Yangi ilmiy tadqiqot, resurslarini saqlovchi texnologiyalarning ahamiyati osha boshladi. Sivilizatsiya amaliy cheklanmagan axborot resurslariga aholi uchun keng yo'l ochadigan birinchi global axborot tarmog'i (internet) paydo bo'lib, jadal kengayib bormoqda. Kosmik tadqiqot va planeta oldi makonni o'zlashtirish rivojlanmoqda.

Ilmiy dunyoda su'niy intelekt va odamni kibernitsiya (odam-mashina, odam-kompyuter) tendensiyasi paydo bo'ldi. Odam va hayvonlar,o'simliklar nasldorligi va o'zgaruvchanlikning gen mexanizmlarini boshqarish bo'yicha eksperimentlar faol ishlab chiqilmoqda.

Birinchi sinkretik ma'naviy ta'limot (geosfiya, jonli etika va boshqalar) paydo bo'lib, jadal rivojlantirilib, unda diniy etika, falsafiy metafizika, bilishning ilmiy uslubiyati sintezi aniqlandi. Shunga o'xshash ta'limot diniy va ilmiy-falsafiy dunyoqarash o'rtasida muloqotni rag'batlantirdi. Odamning yashirin (paranormal) kuchlari faolligining ommaviy ko'payish belgilari sezildi.

Evropa, Rossiya, Shimoliy Amerikada aholining o'sishi pasaydi. Shu bilan birga Xitoy, Hindiston, Janubiy Amerikada kuchli demografik portlash kuzatilmoqda.

Ma'lumki, bu yerda dunyo sivilizatsiyasining barcha yo'nalishlari qayd qilinmagan. Garchi shu aniqki, XXIasr boshllarida fan, texnika, texnologiya, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, xalqaro muloqot jamiyat taraqqiyotining eng ta'sirchan harakatlantiruvchi hisoblanadi. Ko'p faylasuflar, olimlar va yozuvchilar fan va texnikaning rolini tahlil qilib, inson va jamiyat texnologik va ma'naviy rivojlanishi o'rtasidagi aniq nomutanosiblikni ko'rsatdilar. Ko'pgina atoqli mutaffakirlar texnika sivilizatsiyasining qo'shimcha mahsuloti bo'lib, odamning evolyusiyasiga tugalmas ichki kuchlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi kerak deb hisobladilar.

2. Kelajakni tadqiq qilishning metodlari va davrlashtirish. Fan va falsafaning muhim funksiyasi-kelajakni oldindan aytishdir. Odamga o'z kelajagini bilish nimaga kerak? Insoniyatning inqirozi va halokati, sivilizatsiya va madaniyatlarning yemirilishiga olib keladigan ijtimoiy jarayonlar, maqsadlar va rivojlanish mexanizmlariga o'zgartirishlar kiritish lozim. Odam o'tmishdan xulosa chiqarib, kelajakni ko'ra turib va hozirni boshqara turib, o'z tarixiga, o'zining keyingi taqdiriga ta'sir qilishga qodirdir.

Kelajakni tadqiq qilishda ma'lum vaqt kesimi yoki davri tanlab olinadi. Buni yaqin kelajak, uzoqlashgan kelajak, uzoq kelajakka ajratish qabul qilingan.

Yaqin kelajak-*5 yildan 10 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi*. Bu davrda odamda davlat, jamoat tashkilotlari, partiyalar, korxonalar rivojlanishining dastur va rejalari tuziladi. Bunday prognozlashtirish umumiy tendensiyalar darajasida unchalik murakkab vazifa emas. Voqealarni bir necha yilga batafsil prognozlashtirish -sal murakkabroq masaladir.

Uzoqlashgan kelajak- *tarixiy ufq taxminan 10 yildan 50 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi*. Bunday vaqt uzoqligini oldindan bilish (prognoz) katta qiyinchiliklar bilan bog'liq. XX asr 80-yillar boshida "rivojlangan sotsializm" jamiyati (SSSR) ning 10 yildan keyin o'z muommolari yuki ostida yemirilishini kim faraz qilibdi? 80 yillarning boshlarida eng zamonaviy armiyaga va keng tarqalgan maxsus xizmat tarmog'iga ega bo'lgan qudratli davlat AQSH, 2001-yilda butun dunyo savdo markazi va Vashingtondan uzoq bo'lmagan Pentagon binosining bir qismining to'siqsiz vayron qilinishini, Islom teroristlari oldida himoyasiz qolishini kim o'ylagan edi.

Uzoq kelajak-*uzoqligi 50 yildan 100 yilgacha bo'lgan davr*. Uzoq kelajakni oldindan aytish eng murakkab vazifa hisoblanadi. Bu yerda hozirgi davrda ma'lum va tushunarli bo'lganlardan, ko'plab sharoitlar va omillarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Bunday prognozlashtirish majburan ko'p "agar"lar bilan kuzatib boriladi. Masalan, agar insoniyat katta urushlardan qutulsa, agar iqtisodiy inqiroz tugatilsa,agar fan va iqtisod rivoji davom ettirilsa..., - 50-70 yildan keyin oyda kosmik stansiya quriladi va uni o'zlashtirish boshlanadi.

Fan kelajagini tadqiq qilish uchun barcha mumkin bo'lgan vosita va usullar arsenalidan foydalanadi. Bularga quyidagilar kiradi.

1. Prognozlashtirish.
2. Ekspertlarning baholashlari.
3. Andozalashtirish.
4. Tarixiy analogiyalar.
5. Ekstrapolyasiya.

Bunda qancha ko'p miqdordagi omillar ta'siri qamrab olinsa, ularning roli va kuchi to'g'ri baholansa, tasodiflar ta'siri hisobga olinsa eng aniq xulosalar olinadi.

Kelajakni tadqiq qilishning boshqa usullari ham mavjud bo'lib, ularni "noilmiy" deb ataydi. Bunga *astrologik kosmogramm* (kosmik obyektlarning ta'sir) ta'sirining kelajakni (oldinda ko'ra bilish) va *parapsixologik qabul qilish* kiradi. Bu hodisalarni tushuntirishga fan

qiynaladi, lekin ularning mavjudligini inkor qilish mumkin emas. Masalan, bunday odamlar fransuz astrologi M.Nostradamus, rus gumanisti va filologi E.Rerix, bolgar bashoratchisi Vanga, amerika oldindan ko'ra biluvchisi E.Keysi,polyak Volf Messing bo'lajak voqealarni bir necha marta oldindan ayta oldilar, ular aniq amalga oshirildi. Bunday xodisalarni tushuntirish-kelajak fanining vazifalari qatoriga kiradi.

3. Dunyo kelajagi rivojlanishining mumkin bo'lgan andozalari. Olimlar, faylasuflar, fantast-yozuvchilar, futurologlar, kinorejissiyorlar dunyo sivilizatsiyasi kelajagi rivojlanishining ko'p andozalarini ilgari surdilar. Ular orasida juda qorong'i va umidsizlik, shu bilan birga yer ahli yorqin istiqboliga, inson ma'naviy kuchiga ishonish bilan to'ldirilganlari ham bor. Ma'lumki, mavjud yangi ham noma'lum bo'lgan muommolari bo'lib, ularni yechish bilan bog'liq variantlar xam mavjud. Sivilizatsiya rivojlanish tendensiyalari va ilmiy faktlarni hisobga olib, aniq global muammolarni hal qilinmagan holda, insoniyat kelajagini andozalashtirishga harakat qilamiz.

1.Andoza: Yadro (ximik bakteriologik) qurolini qo'llagan holda qurolli mojaro, agar yadro zarbasining kuchi katta bo'lsa, olimlar prognozi bo'yicha, ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturaning xarob bo'lishiga, katta xududning radiatsion zaxarlanishiga "Yadro urushi" samarasiga, biologik turlarning mutatsiyasiga (shu jumladan odamni ham) olib keladi. Bunday holatda insoniyatning tirik qolgan qismi juda qiyin sharoitlarda qoladi. Lekin ba'zi mutaxassislar yadro urushining bunday natijasini juda optimizm (umid, ishonch) deb hisoblaydilar. Bunday kuchli portlashlar yer qa'riga, planetalar magnit maydoniga orbitaning parametrlari o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini hech kim bilmaydi. Bunday holda planetadagi barcha tiriklarning halok bo'lishini, yoki planetaning o'zining xarobaga aylanishini inkor qilish mumkin emas.

2.Andoza: *Ekologik inqirozning chuqurlashishi*. Masalan, hamma joyda suv, havo va tuproqning zaharlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning imkoniyatlarini qisqartiradi, o'lim va ommaviy kasaliklarni keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va suv, havoni tozalashning texnologik resurslaridan foydalanadigan odamlarning katta bo'lmagan guruhlari tirik qolishi mumkin. Sodda qilib aytganda bular maxsus pana-bunkerda, yopiq hayot ta'minoti tizimi bor joyda qolgan odamlar bo'lishi mumkin. Asta-sekin planetaning yuzi hayosiz makonga aylanadi. Hayvonlar va o'simliklar o'ladi. Qancha odam pana joyda yashashga qodirligini, ular planetadagi ekologik tenglik balansini tiklay oladimi, buni hech kim bilmaydi.

3. **Andoza**: *Ijtimoiy, iqtisodiy va global muommolarning keskinlashishi. D*emokratik siyosiy tizimlar ularni yecha olmaydi. Omma "yangi tartib " o'rnatishni, uning uchun "kuchli qo'l", "kuchli hokimiyat", "zolim lider" bo'lishi kerakligini talab qila boshlaydi. Ijtimoiy beqarorlik to'lqinida hokimiyatga diktator kelib, (mamlakatda, bir guruh davlatlarda, planetar hamjamiyatda) boshqarishning totalitar tizimni o'rnatadi. Muommolarning bir qismi real yoki nomiga yechiladi, shaxs demokratiya sharoitida foydalangan huquq va erkinliklarini yo'qotadi. Odamlarning hayoti va ongini hiyla-nayrang bilan aldab, odamlarning hokimiyat oldidagi himoyasizligiga qarshi ommaviy norozilik to'lqini keltirib chiqargan ijtimoiy portlashgacha totalitar tizim barqarorlikni saqlab turadi.

4.Andoza: *Planeta aholi sonining jiddiy ko'payishi.* Planetaning har xil mintaqalar o'rtasida demografik muvozanat o'zgaradi. O'z aholisi uchun yetarli darajada iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlar yaratib berishga qodir bo'lmagan, aholisi ko'p mamlakatlar paydo bo'ldi. Natijada ijtimoiy muommolar ko'paydi. Siyosiy beqarorlik, davlatlar chegaralarini qayta qurishga urunishlar paydo bo'ladi. Uning oqibatida xalqaro keskinlik va xarbiy mojarolar ehtimoli ko'payadi. Bunday harbiy mojarolar mahalliy bo'lishi yoki jahon urushiga aylanib ketishi mumkin. Bunday to'qnashuvlarda ommaviy qirg'in qurollari ishlatilmasligiga hech kim kafolat beraolmaydi.

5.Andoza: ***Yuqori rivojlangan axborot-texnik tizimlar (mashinalar) inson nazoratidan chiqadi.*** Inson sivilizatsiyasining mashina sivilizatsiyasiga qarshi kurashi boshlanadi. Unga bog'liq holda, uning yechimiga qarab, inson tirik qolishi mumkin, yoki erishilgan texnologik va madaniy taraqqiyot darajasini yo'qotib, halok bo'lishi mumkin.

6.Andoza: *Iqlimning global o'zgarishi, yer qimirlash, vulqonlar faolligi, tektonik plitalarning ko'chishi, planetaning geografik qiyofasini tubdan o'zgartiradi.* Eski madaniy va iqtisodiy markazlar to'la xarob bo'ladi yoki emiriladi. Sivilizatsiya va madaniyat darajasi keskin pasayadi. Yer yuzi aholisi qisqaradi. Ammo, planeta geografik va klimatik qulay mintaqalarida hayot barqarorlashadi va asta sekin yangi sivilizatsiya va madaniyat rivojlanishi boshlanadi. Tarixiy taraqqiyot madaniyat va iqtisodni tiklash tezligi ko'p tabiiy va ijtimoiy omilarga bog'liq. Biz qarab chiqilgan andozalarning, biz xoxlaganday umidli emasligini ko'ramiz. Ularning barchasi tarixiy taraqqiyotning katta yoki kichik inqirozini ifodalaydi. Haqiqatda bunday inqirozli andozalar ancha ko'p. Dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotining yo'lagi uncha keng emas. Biz insoniyat keyingi rivojining muhim sharti, bu global muommolarni muvaffaqiyatli

yechish ekanligini ko‘rdik. U nimaga bog‘liq? ko‘p hollarda ikkita zaruriy, lekin yetarli emas sharoitlarga:

1)Yer yuzi aholisining yagona markazdan boshqariladigan,yagona planetar hamjamiyatiga ijtimoiy integratsiyalashish:

2)Axloqiy tamoyillar va shaxsning umumiy madaniy potensialining rivojlanishi.

7.Andoza: Insoniyatning ijtimoiy integratsiyalashuvi va axloqiy–madaniy rivojlanishi insonparvarlik va madaniyat, huquq g‘oyalariga asosan, boshqarishning yagona siyosiy markaziga ega bo‘lgan, planetar birlashgan davlatning yaratilishiga olib keladi, sivilizatsiyaning birlashgan resurslari global muommolarni yechishga yo‘naltiriladi. Muvaffaqiyat bo‘lsa insoniyatning madaniy va iqtisodiy potensiali o‘sadi. Boshqa quyosh tizimi planetasi, keyin yaqin va uzoq galaktikani, vaqti bilan galaktikalararo makonni, kosmosga ko‘chib borishni keng doirada tadqiq qilish boshlanadi. Birlashgan ruhlantirilgan insoniyat kosmosning aqlli kuchlaridan biri bo‘lib, uning evolutsiyasi va genoparvarligini o‘zgartirishga ta’sir qiladi.

18-jadval

XX-XXI asrlarda sivilizatsiya va madaniyat rivojining muhim yo‘nalishlari (tendensiyasi)

Hayot sohalari	Barqaror yo‘nalishlar	Davr
Siyosat	Milliy –ozodlik xarakati.Inqiloblar	**XX asr**
	Demokratiya va totalitarizmning qarama qarshiligi	**XX asr**
	Integratsiya va globalizatsiya.Separatizm	**XX asr oxiri XXIasr boshi**
	Demokratiya va huquqiy davlat	**XXI asr boshi**
Iqtisod	Ko‘p ukladli bozor iqtisodiyoti ustunligi	**XX asr oxiri XXIasr boshi**
	Mamlakatlar va mintaqalarning notekis iqtisodiy rivojlanishi	**XX asr boshi XXIasr**
Fan va texnika	Materiya tuzilishini tadqiq qilish.Yangi materiyalarning yaratilishi	**XX asr boshi XXIasr**

	Sanoatning, transport, aloqa tizimi, yadro energetikasi, ommaviy qirg‘in qurolining rivojlanishi	**XX asr boshi XXI asr**
	Global axborot tarmoqlarining yaratilishi	**XX asr**
	Kosmik tadqiqot va yerga yaqin makonni o‘zlashtirish	**XX asr boshi XXIasr**
	Gen biologiya soxasini tadbiq qilish, naslchilik va o‘zgaruvchanlikni boshqarish	**XX asr boshi XXIasr**
	Sun’iy intelektni ishlab chiqish	
Inson	Odamni kibernizatsiyalash	**XX asr boshi XXIasr**
	Odam yashirin (paranorial) kuchlari faoliyatining o‘sishi	
	Inson yangi kasalliklarining paydo bo‘lishi	
	Odamni klonlashtirishga paydo bo‘lishi	
Jamiyat va madaniyat	Madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi	**XX asr boshi XXIasr**
	Jamiyatga fan va ommaviy madaniyatning kuchli ta’siri	
	Ma’naviy inqiroz	

1. Yangi ma’naviy ta’limotlarning paydo bo‘lishi.

Jamiyat-tabiat tizimi.	Ekalogik inqirozning chuqurlashishi	XX asr boshi XXIasr
	Planeta tabiiy resurslarining tugashi	
	Klimatning o‘zgarishi va planetaning geofizik tasnifi	
	Seysmik faollikning kuchayishi	

19Jadval

Hozirgi sivilizatsiya rivojlanishining asosiy ichki va tashqi omillari



20.Jadval.

Kelajakni tadqiq qilish usullari



21-Jadval.

Jonlietika falsafiy tizimiga binoan dunyo sivilizatsiyasi keyingi rivojlanishining asosiy yo'llari



22 jadval

Dunyo sivilizatsiyasi kelajagi rivojlanishining ba'zi bir mumkin bo'lgan andozalari

Kelajakning rivojlantirilishida (andozalar unsurlari elementlari)

Salbiy
Inson sivilizatsiyasining qisman yoki to'la halokatiga olib keladi

1	Manaviy inqirozning yanada chuqurlashishi
2	Omaviy qirg'in quroli bilan urushish
3	Ekologik inqirozning yanada chuqurlashishi
4	Planeta aholisining keskin ko'payishi
5	Kardiologik, onkologik, epidemiologik , ruhiy va boshqa kasaliklarning ko'payishi
6	Tabiiy resurslarning tugashi
7	"Oltin milliard" konsepsiyasini amalga oshirish
8	Vayron qiluvchi seysmik faoliyat va materiklarning tektonikdinamikasi
9	Texniktizim (sun'iy aql) ninginson nazoratidan chiqishi

Ijobiy
Inson sivilizatsiyasi keying progressive rivojlanish imkoniyatlarini ochadi

1	Yangi axloqiy, ekologik, madaniy yo'naltirilgan dunyoqarashning rivojlanishi ma'naviy inqirozning tugatilishi
2	Davlatlarning ommaviy qirg'in qurollarini qo'llashi, saqlash va ishlab chiqarishdan vos kechishi
3	Davlatlarning yagona planetar hamjamiyatga siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy integratsiyalashuvi.
4	Tug'ilish ustidan nazorat
5	Tabiatdan ekalogik foydalanish
6	Ommaviy kasaliklarni profilaktika va davolashda fan va amaliyotning yutuqlaridan foydalanish
7	Millatlararo muloqat va ijtimoi sheriklik, axloqiy madaniyatning rivojlanishi
8	Kometa asteroitlardan himoyalanish planetartiziminiyaratish
9	Kosmosni o'zlashtirish
10	Yuqori rivojlangan insonparvar yerdan tashqari aql bilan aloqa va o'zaro tasirga kirishish.

10	Planeta geofizik parametrlarining keskin salbiy o‘zgarishi (radiatsiya, magnit maydoni, ruhiy soha, klimatik belbog‘, aylanish o‘qi og‘ishi va boshqalar .
11	Katta kometa va astroidlarning to‘qnashuvi.

Qisqacha xulosalar

1. Globallashuv falsafiy ma’noda – bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy sohada o‘zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo‘layotgan voqeahodisalarning tez sur’atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo‘lishidir.

2. Globallashuvni jarayon sifatida ontologik jihatdan uchta: birinchidan, tabiat borlig‘ida (iqlimning o‘zgarishi, hayvonot dunyosi va o‘simliklar olamining kamayib ketishi, tabiiy boylik zaxiralarining tugab borishi va boshqalar); ikkinchidan, ijtimoiy tabiiy borliqda (energetik, ekologik, demografik va boshqalar); uchinchidan, ijtimoiy yoki kishilik jamiyatining taraqqiy etishida (texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, megapolislarning ko‘payishi, iqtisodiy hayot darajasining keskin tabaqalanib borishi va boshqalar) sodir bo‘layotgan guruhlarga ajratish mumkin.

3. Globallashuvni makonda sodir bo‘lishiga ko‘ra planetar va regional, zamonda yuz berishiga qarab doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

4. Iqtisodiyotning globallashuvi - bu ishlab chiqarish, savdo va bank faoliyatining transnatsionlashuvi tufayli mamlakatlarning iqtisodiy hayotida tez sur’atlar bilan kechayotgan jarayonlar tizimidir. Bunda “Agar iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot – jamiyatning tanasi bo‘lsa, ma’naviyat-ma’rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli va jonidir”[179].

[179] ***Каримов И.А.*** Илму фан мамлакат тараққиётига хизмат қилсин// Унинг ўзи. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.:Ўзбекистон,1996.– Б.261. 377-378

5.Siyosiy-huquqiy hayotning globallashuvi - bu inson haq-huquqlarini himoya qilish, jamiyatni demokratik tamoyillar asosida boshqarish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik,har bir xalqning tinch-osuda yashashini ta'minlash, insoniyatni har xil yadroviy falokatlardan asrash kabi amallarni tez sur'atlar ichida bajarishga qaratilgan faoliyatlar tizimidir.

6.Madaniy-ma'naviy hayot sohalarining globallashuv - bu jahonda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan ko'proq daromad topishga qaratilgan, shaklan turli xil ko'rinishga ega bo'lgan,mohiyatan o'zga elat,millat,xalqlarning asrlar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarini ichidan parchalab tashlash evaziga,ularni madaniy-ma'naviy qaramlikka mahkum qilishga yo'g'rilgan katta moliyaviy qudratga ega bo'lgan davlat va shaxslar tomonidan tez sur'atlar bilan sodir etilayotgan hodisalar tizimidir.

7.XXI asr boshlaridagi global muammolar quyidagilardan ibora:

- Ma'naviy inqiroz.
- Ommaviy kasalliklarning tarqalishi.
- Ommaviy qirg'in qurollari bilan urush xavfi.
- Planeta tabiiy resurslarining tugab borishi.
- Ekologik inqirozning chuqurlashishi.
- Demografik muammo.
- Terrorizmning o'sishi.
- Planetada davlat va mintaqalarining ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi.
- Klimatning global o'zgarishi.
- Yer qobig'i sistemik faolligining kuchayishi.

Tayanch tushunchalar

Globollashuv, globalistika, barqarorlik, globallashuvning xususiyatlari, globallashuvning yo'nalishlari, global inqiroz, iqtisodiyotning globallashuvi, siyosatning globallashuvi, madaniyatning globallashuvi,

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Globallashuv deb nimaga aytiladi?
2. Globalistika nimalardan bahs yuritadi?
3. Globallashayotgan sohalarni sanab bering?
4. Iqtisodiy globallashuv nima?
5. Ekologik muammolarga nimalar kiradi?
6. San'at nima?

7. Jamiyatning kelgusidagi xatti-harakatlarni oldindan ?

8. «Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur»[180],- degan so'zlarining ahamiyati haqida fikr bildiring?

[180] ***Мирзиёев Ш.М.*** Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир//https://president.uz/uz/lists/view/4089.(19.01.2021)

2-MODUL

IX BOB.GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOIY-MADANIY INQIROZ OQIBATI

XXI asrga kelib globallashuv jarayonlari barcha xalqlarning hayotiga chuqur kirib borar ekan,ularni bir tomondan zamonaviy ilg‘or texnika,texnologiyalardan unumli foydalangan holda barqaror taraqqiyot sari boshlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan,katta boyliklarni qo‘lga kiritib har bir joyda o‘zlarining hukumronliklarini o‘rnatish uchun ochiq yoki pinhona tarzda faoliyat olib borayotgan «Kimsa»larni ko‘rish mumkin. Bu «Kimsa»lar,shunchaki,savodsiz,bilimsiz odamlar emas,balki,iqtisodiyot «alifbo»sini yaxshi o‘zlashtirgan,eng zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lgan,o‘zgalarni har qanday yo‘l bilan o‘ziga og‘dirib olish san’atini yaxshi egallagan shaxslardir. Bularni xalq tilida “korrupsioner”lar deb atashadi. Ularning qilmishlariga hayratomuz nafrat bilan qarashadi.

1-§. Korrupsiya: tushunchasi, genezisi, evolyutsiyasi va yashovchanlik tendensiyalari

1. «Korrupsiya» atamasining ma’nosi. «Korrupsiya» atamasi lotincha**«sorrumpere – sorruptio»** degan so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida*«ifloslangan», « pora evaziga og‘dirish, buzilish,aynish,tanazzul,sotib olish, sotib yuborish, buzish, parchalash,sindirish,shikast yetkazish»* degan ma’nolarni anglatadi. Bu atama, odatda mansabdor shaxs tomonidan unga ishonib topshirilgan vakolatlar va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun jamiyat tomonidan o‘rnatilgan qonunlar va axloqiy tamoyillarga zid bo‘lgan holda foydalanishni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Bulardan tashqari, korrupsiya mafiyalashgan davlatlarga xos bo‘lgan tipik holat,ya’ni mansabdor shaxslarni sotib olish,ularning sotqinlik qilishini ham anglatadi. Shu tariqa, Yevropa tillariga tegishli bo‘lgan mazkur atama,o‘zining dastlabki asl ma’nosidan ko‘ra kengroq ma’noni anglatadi,ya’ni semantik[181] ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaning xarakterli belgisi mansabdor shaxsning xatti-harakatlari bilan uning ish beruvchisi manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat yoki saylangan shaxsning xatti-harakatlari bilan jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat hisoblanadi. Odatda, korrupsiyaning ko‘p turlari mansabdor shaxs

[181] ***Семантика***[*юнонча semantikos -ифодаловчи,билдирувчи*] Тил бирликларининг маъноси.

tomonidan sodir etilgan firibgarlikdan iborat bo‘lib,ular davlat organlariga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi.

Har qanday mansabdor shaxs – amaldor, deputat, sudya, huquqni muhofaza qilish organlari xodimi, ma’mur va boshqalar o‘zlariga tegishli bo‘lmagan har qanday resurslarni tarqatish sohasida korrupsiyaga duchor bo‘lishi mumkin. Korrupsiyani rag‘batlantiruvchi asosiy omil – bu hokimiyatdan foydalanish bilan bog‘liq holda ko‘proq iqtisodiy foyda olish imkoniyatining mavjudligi bo‘lsa, ularni tiyib turuvchi omil esa qilmishining oshkora bo‘lib qolishidan hadiksirash va jazo olishdan qo‘rqishidir.

Korrupsiyaning tizimli xususiyatlaridan biri korrupsiyalashgan davlat tashkilotlarida ishlaydiganlar mansabdorlarning o‘z lavozimini saqlab qolish uchun quyi pog‘onadagilardan majburiy tarzda pora yig‘ib olishi orqali olgan porasini yuqori pog‘onadagi mansabdorlar bilan bo‘lishishida namoyon bo‘ladi. Bunday holatning mavjudligi jamiyatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Odamlarni esa ma’naviy-mafkuraviy tanazzulga duchor etadi.

2. Korrupsiya tushunchasining ta’rifi. Bugungi kundamamlakatimizda jahon hamjamiyati bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish muammosiga juda katta e’tibor berilmoqda. Chunki, korrupsiya har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan holda, xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Xo‘sh,shunday ekan korrupsiya nima,uning genezisi,evolyutsiyasi,xullas,u salbiy hodisa sifatida tarixiy makon va zamonning qaysi kesishgan nuqtalarida paydo bo‘lgan degan savollar tug‘iladi?

Bu savolga Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiya bilan xalqaro kurash hujjatida: ”Korrupsiya – bu davlat hokimiyatining o‘z manfaatlari yo‘lida suiste’mol qilishidir[182]....,xususan: 1) davlat mulkini yuqori lavozimdagi amaldor shaxslar tomonidan o‘zlashtirish,o‘g‘irlash; 2) o‘zining manfaatlari yo‘lida o‘z lavozimini suiste’mol qilish; 3) shaxsiy manfaatdorlik va jamiyat oldidagi burchining o‘rtasidagi to‘qnashuv”[183],– degan javoblar berilgan. Shuningdek,Transparensy International, Jahon banki va boshqa tashkilotlar tomonidan berilgan ta’riflarda:” Korrupsiya – ishonib topshirilgan hokimiyatni shaxsiy manfaatlar yo‘lida suiste’mol

[182] Справочный документ о международной борьбе с коррупцией. Секретариат ООН. A/CONF.13 Apr.1995.

[183] Практические мерқ борьбқ с коррупцией. Руководство,подготовленное Секретариатом ООН. A/CONF. 29 May.1995.

qilishdir"[184], – degan ta'rif berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar', O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" qonunida: ***"Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"***,– degan ta'rif berilgan. Bu degan so'z korrupsiya bu pul, qimmatbaho buyumlar ko'rinishida imtiyozlar olish uchun mansab vakolatlarini suiste'mol qilish, pora berish, pora olish, o'z vakolatlarini suiste'mol qilish, tijorat pora olish yoki boshqa shaxsning o'z rasmiy mavqeidan jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga xilof ravishda noqonuniy foydalanishidir. Mulkiy xususiyatga ega bo'lgan boshqa mulk yoki xizmatlar, o'zi uchun yoki uchinchi shaxslar uchun boshqa mulkiy huquqlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ushbu shaxsga ushbu imtiyozlarni noqonuniy ravishda berish; shuningdek, ushbu harakatlarni yuridik shaxs nomidan yoki uning manfaatlari uchun amalga oshirish, demakdir.

3. Korrupsiyaning genezisi va evolyutsiyasi. Kishilik tarixiga nazar tashlasak,korrupsiyaning ham salbiy ijtimoiy fenomen sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu asosan urug' va qabilalarning paydo bo'lishidagi boshqaruv tizimining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib,urug'yetakchisi va qabila boshlig'ining o'rnatilgan tartib-qoidalarni o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi,aniqrog'i,urug'va qabilalarning oziq-ovqat,kiyim-kechak resurslarini o'z boshimchalik bilan taqsimlanishi natijasida paydo bo'lgan,desak yangilishmagan bo'lamiz.

Kishilik tarixida korrupsiyaga qarshi kurashchi sifatida tilga olingan birinchi hukmdor miloddan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida Lagash shahar-davlatining shumerlar podshosi **Uruinimgina bo'lgan.** Podsho tomonidan odamlarning,ayniqsa mansabdorlarning korrupsiyaga aralashgani uchun ko'rgazmali tarzda, shafqatsiz jazolar qo'llaganiga qaramay, u kutilgan natijalarni bermagan. Bu ko'rilgan chora-tadbirlareng xavfli jinoyatlarning oldi olingan bo'lsada, biroq, quyi pog'onada pora olish va berish borasida korrupsiya keng tarqalgan. Miloddan avvalgi IV asrda Bxarata (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan korrupsiya muhokamasiga oid birinchi traktat «Artxa – shastra» Kautil'ya taxallusi bilan nashr etilgan. Unda "qirolning mulki, hech bo'lmaganda ozgina

[184] Қаранг,масалан. Chinhamo O., Shumba G. Institutional working definition of corruption // ACT Southern Africa Working Paper. 2007. No. 1 [3]

bo‘lsa ham, ushbu mulk uchun mas’ul bo‘lganlar tomonidan o‘zlashtirilishi mumkin emas" degan pessimistik xulosa qayd etilgan.

Qadimgi Misr fir’avnlari ham shunga o‘xshash muammolarga duch kelishgan, chunki bu yerda amaldorlarning katta keng qamrovli byurokratik apparati mavjud bo‘lib, ular erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy zodagonlarga nisbatan qonunsizlik va o‘zboshimchalikni qilishlariga keng imkoniyatlar yaratib berishgan.Bu haqda Itahotel degan bir shaxsning:” Boshliq oldida belingizni bukib ta’zim qiling, shundagina uyingizda tartib, ish haqingiz to‘liq bo‘ladi, chunki boshliq oldida qarshilik qilgan odam yomon odam, uni rozi qilsangiz yashashingiz oson bo‘ladi"[185],– degan so‘zlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Sudyalarning sotqinligi alohida tashvish uyg‘otgan, chunki ular pora evaziga sotilib mulklarni noqonuniy ravishda taqsimlash va nizolarni qonunchilik doirasidan tashqarida hal qilishga berilib ketganlar. Shuning uchun ham yetakchi din vakillari sudyalarning poraxo‘rligini qoralab: "... boshliq sovg‘a talab qiladi, sudya esa pora olish uchun sud qiladi, zodagonlar o‘z qalblarining yomon istaklarini qondirish uchun ishni buzib ko‘rsatadilar", "Sovg‘alarni qabul qilmang, chunki sovg‘alar ko‘zi ochiqlarni ko‘r qiladi va haq-huquqlarni izdan chiqaradi”[186],– deganlar.

Qadimgi Rim qonunlarining XII jadvalida qayd qilingan «sorrumpere» atamasi "sudda guvohlik beruvchilarni pulga sotib olish" va "sudyaga pora berish":"Siz sud kelishuvi paytida tayinlangan [ishni ko‘rib chiqish uchun] va [bu ishda] pul pora olganlikda aybdor deb topilgan sudya yoki vositachini o‘lim bilan jazolash to‘g‘risidagi qonunning qat’iy qarorini ko‘rib chiqmoqchimisiz?"[187],– degan ma’noda ishlatila boshlagan.

Korrupsiyani tushunish masalasida Nikkolo Makiavellining asarlari alohida ahamiyat kasb etgan. U korrupsiyani kasallik bilan taqqoslab, u qichima kasaliga o‘xshash bir narsdir. Avvaliga uni tanib olish qiyin, ammo davolash osonroq. Agar unga e’tibor berilmasa, uni tanib olish oson, ammo davolash qiyin,degan xulosaga kelgan[188].

XVIII asr oxiridan boshlab G‘arbda jamiyatning korrupsiyaga bo‘lgan munosabatida burilish boshlangan. Bu davrda liberal islohotlar davlat hokimiyati unga bo‘ysunadigan odamlar manfaati uchun mavjud, shuning uchun “fuqarolar amaldorlar tomonidan qonunlarga qat’iy rioya qilish evaziga hukumatni qo‘llab-quvvatlaydilar”, - degan shior ostida

[185] Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древность и Средние века / сост. В. А. Томсинов. — М.: Зеркало, 1999; 2004. — С. 56.
[186] Библия. Ветхий Завет. — М., 1994. — С. 352.
[187] Таблица IX. 3. Авл. Гелий / Законы XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран / под ред. В. А. Томсинова. — М.: Зеркало, 1999. С. 120.
[188] Макиавелли Н. Избранное. — М., 1989. — С. 78-79.

amalga oshirildi. Xususan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasiga binoan, pora olish AQSH prezidentiga nisbatan impichment e'lon qilinishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatilgan ikkita jinoyatdan biridir. Jamiyat davlat apparati ishining sifatiga tobora ko'proq ta'sir o'tkaza boshladi. Siyosiy partiyalar va hukumat tomonidan tartibga solish kuchaygan sari, siyosiy elita va yirik biznesning til biriktirishi epizodlari tobora ko'proq tashvishga tushdi. Shunga qaramay, XIX-XX asrlarda rivojlangan mamlakatlarda korrupsiya darajasi boshqalariga qaraganda birmuncha pasaygan[189].

Rivojlangan mamlakatlarda korrupsiya evolyusiyasining yangi bosqichi XIX-XX asrlarga to'g'ri keldi. Bir tomondan, davlat tomonidan boshqaruv ishlarining tartibga solinish natijasida amaldorlar hokimiyatining yana bir kuchaytirish boshlandi. Boshqa tomondan,esa yirik xususiy biznes paydo bo'ldi.U raqobat kurashida "davlatni sotib olish" ga o'tishni boshladi. Endi ayrim kichik davlat xizmatchilarining epizodik pora olishiga emas, balki siyosatchilar va yuqori mansabdor shaxslarning faoliyatini kapital manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishga qaratildi. Bu rivojlangan mamlakatlarda (ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropada) siyosiy partiyalarning ahamiyati oshgani sayin, yirik firmalar va transmilliy korporatsiyalar siyosatchilarga o'z manfaatlarini lobbichilik qilgani uchun siyosatchining o'ziga emas,balki partiya g'aznasiga shaxsan pul o'tkazishni boshladilar, natijada partiyalar korrupsiyasi paydo bo'ldi va rivojlandi.

XX asrning ikkinchi yarmida korrupsiya tobora xalqaro muammoga aylana boshladi. Xorijda korporatsiyalar tomonidan yuqori lavozimli amaldorlarni pora berish evaziga sotib olish ommaviy tus oldi. Globallashuv jarayonlarining borishi bir mamlakatdagi korrupsiyaning boshqa ko'plab davlatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini boshlab berdi. Bunga qarshi ko'pgina davlatlar birgalikda kurash olib borishga kirishdilar. «Finansial Times» » gazetasi 1995 yil 31 dekabrdagi sonida 1995 yilni "korrupsiya yili" deb e'lon qildi. Korrupsiya to'g'risidagi bilimlarni targ'ib qilish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 9 dekabr' kunini «Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni" ni deb e'lon qildi.

4. Korrupsiyaning yashovchanlik tendensiyalari. XXI asrga kelib korrupsiya salbiy ijtimoiy jarayon sifatida tugatilmadi. U mazkur

[189] Bardhan P. Corruption and development: a review of issues. — In: Political corruption: concepts and contexts / Ed. Heidenheimer A. J., Johnston M. 3rd ed. New Brunswick, NJ: Transaction, 2002. — ISBN 978-0-7658-0761-8 — P. 331. (англ.). Glaeser E. L., Goldin C. Corruption and reform: an introduction (англ.) // NBER Working Paper 10775. 2004.

voqelikka moslashgan holda yashovchanlik xususiyatini namoyon qila boshladi. Moslashuvchanlikka asoslangan yashovchanlik tendensiyalari: *birinchidan*, kam rivojlangan davlatlarda ochiq korrupsiyaning boshqaruv tizimida hukumronlik qilishi; *ikkinchidan,*endi rivojlanib kelayotgan davlatlarda davlat hokimiyatidagi foyda keltiradigan mansablarni pora berish evaziga sotib olish; *uchinchidan*, rivojlangan davlatlarda xalqqa har xil imtiyozlarni berishni va'da qilish hisobiga saylovchilarni o'zlariga og'dirib olish,ya'ni saylovda yutib chiqish orqali davlat hokimiyatini egallab olishga urinishlari bilan xarakterlanadi.

Bu illatga qarshi BMT,Jahon Banki,Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki va boshqa mintaqaviy va ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan tizimli ravishda kurash olib borilmoqda. Uning ana shu moslashuvchanlik asosida yashovchanlik xususiyatiga hayot haqida turli xil e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan odamlar tomonidan axloqiy-ma'naviy jihatdan baho berilmoqda.

5. Korrupsiyani axloqiy-ma'naviy jihatdan baholash. Har qanday hodisa odamlar tomonidan axloqiy-ma'naviy jihatdan baholanadi. Shunga ko'ra korrupsiyaning turli ko'rinishlariga ham har xil axloqiy baho beriladi.Bunda ba'zi harakatlar – jinoiy, boshqalari esa – axloqsiz hisoblanadi. Oxirgisiga, qoida tariqasida, meritokratiya tamoyilini buzadigan siyosiy yo'nalishga asoslangan qarindoshlik va homiylik kiradi.

Biroq, korrupsiyaga nisbatan nisbatan ijobiy munosabat ham mavjud. Bu xususda Kanzas universiteti biznes professori Duglas Xyuston; «Korrupsiya rivojlanmagan joyda qonun ustuvorligining foydali o'rnini bosishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, korrupsiyaning foydasi - qo'shimcha sermahsul operatsiyalar natijasida hosil bo'lgan qiymat - bu xarajatlardan oshib ketishi mumkin. Bunday holat, ehtimol, biznes yuritishning qonuniy imkoniyatlari keskin cheklanganda yuzaga keladi"[190] ,– degan fikrni bildirgan.

Korrupsiyani lobbichilikdan ajratish kerak. Lobbi olib borayotganda, mansabdor shaxs o'z vakolatlarini tayinlash imkoniyatini oshirish yoki ma'lum bir guruh nomidan harakat qilish evaziga korporativ zinapoyada ko'tarilish uchun ham ishlatadi. Farqi shundaki, lobbichilik uchta shartni qondiradi :

1. Mansabdor shaxsga ta'sir o'tkazish jarayoni raqobatdosh bo'lib, barcha ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan qoidalarga amal qiladi.
2. Yashirin yoki yon to'lovlar mavjud emas.

[190] Дуглас Хьюстон. Способна ли коррупция улучшить положение дел в экономике?. inLiberty.ru.

3. Mijozlar va agentlar bir-biridan mustaqil, chunki hech bir guruh boshqa guruh tomonidan olingan foydadan ulush olmaydi[191].

Korrupsiyaning eng xavfli shakllaridan yana biri – bu jinoiy javobgarlik deb tasniflanadi. Bularga, *birinchi navbatda*,o'zlashtirish (o'g'irlik) va pora kiradi. O'zlashtirish - mansabdor shaxsga topshirilgan resurslarni shaxsiy maqsadlar uchun sarflab yuborish bo'lib, uning oddiy o'g'irlikdan dastlab odam resurslarni boshliqdan, mijozdan va boshqalar qonuniy ravishda tasarruf etish huquqi olganligi bilan farqlanadi. Ko'pgina hollarda, agar pora berish tovlamachilikning natijasi bo'lmasa, pora beruvchi ushbu bitimdan asosiy foyda oladi. Ovozlarni sotib olish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi (garchi ba'zilar buni korrupsiya emas, balki vijdonli saylov kampaniyasining bir turi deb hisoblashadi).

Ko'pincha hokimiyatni zo'rlik bilan almashtirishga chaqiruvlarning sababi ham korrupsiya bilan bog'langan bo'ladi. Bunda shu bilan birga, ko'pincha ma'lum bir siyosiy elitaga emas, balki umuman siyosiy tizimga qarshi ayblovlar qo'yiladi. Oskar Arias Sanches ta'kidlaganidek, avtoritar rejimlar hokimiyatni suiste'mol qilishning katta qismini jamoatchilikdan yashirishga qodir, shuning uchun ularning korrupsiyasi to'g'risida xulosa butun dunyo uchun o'ta muhim dalillar va zararli oqibatlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Aksincha, demokratiyadagi korrupsiya ko'pincha katta zarar etkazishdan oldin keng reklama qilinadi va bostiriladi. Biroq, davriy mojarolar fuqarolarda ularning mamlakatda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga va demokratiyadan ko'ngli qolganiga shubha uyg'otishigacha olib keladi[192].

2-§. Korrupsiyaning turlari, shakllari, sabab va oqibatlari.

1. Korrupsiyaning tipologiyasi. Korrupsiyaning tasniflash deb,uning jamiyatda egallagan o'rniga,xususan faoliyat mezonlariga qarab bir necha turlarga ajratishga aytiladi. Shunga ko'ra korrupsiyani ko'plab mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin.Bular asosan quyidagilardan iborat:

- o'zaro ta'sir qiluvchi sub'ektlarning turlari bo'yicha (fuqarolar va kichik xodimlar, firmalar va mansabdor shaxslar, millat va siyosiy rahbariyat);
- foyda turi bo'yicha (foyda olish yoki xarajatlarni kamaytirish);
- yo'nalishi bo'yicha (ichki va tashqi);
- sub'ektlarning o'zaro aloqa yo'li;

---

[191] Jain A. K. Corruption: a review // Journal of Economic Surveys. — 2001. — Vol 15, No. 1. — P. 71. doi:10.1111/1467-6419.00133 (англ.)

[192] Ариас Санчес, О. Предисловие // Основы борьбы с коррупцией (системы общегосударственной этики поведения) / Под ред. С. В. Максимова — М.: 1999

- markazlashtirilganlik darajasi;
– bashorat qilinishi mumkinligi;
– izchilligi va boshqalar.

2. Korrupsiyaning turlari. Bugungi kunda korrupsiyaning quyidagi turlari mavjud.

2.1. Kundalik turmushdagi korrupsiya. Korrupsiyaning bu turi oddiy fuqarolar va mansabdor shaxslarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Unda fuqarolarning turli xil sovg‘alari va amaldorga va uning oila a’zolariga xizmatlari kiradi. Ushbu toifaga qarindoshlik (nepotizm) kiradi.

2.2. Ishbilarmonlikdagi korrupsiya. Korrupsiyaning bu turi hukumat va biznes o‘zaro aloqada bo‘lganda yuzaga keladi. Masalan, biznes mojarosida tomonlar o‘z foydasiga qaror chiqarishi uchun sudyaning yordamiga murojaat qilishlari mumkin.

3.Yuqori hokimiyatgi korrupsiya. Korrupsiyaning bu turiga demokratik tizimdagi siyosiy rahbariyat va oliy sudlar kiradi. Bu hokimiyatda o‘rnashib olgan vijdonsiz kishilar guruhining o‘zlarining manfaatlarini ko‘zlab, saylovchilar manfaatlariga zarar etkazadigan darajada siyosat olib borishdir.

4. Korrupsion xizmatlar bozori. Bu sohada eng keng tarqalgan narsa - markazlashtirilmagan (tashqi) korrupsiya bo‘lib, bu mansabdor shaxs va alohida shaxs o‘rtasida individual ravishda tuzilganib o‘zaro foydali kelishuv hisoblanadi. SHu bilan birga, bu kelishuvga birgalikdagi tashkilot a’zolaridan iborat bo‘lgan ichki korrupsiyani ham qo‘shib olishsa, bu esa unga uyushgan jinoyatchilik tusini beradi.

Bixeviorizm[193] doktrinasiga ko‘ra, inson biron bir jamoaga kirar ekan, u albatta ushbu jamoada qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini ham qabul qiladi. SHuning uchun, bordiyu, agar idora ichidagi jamoaning madaniyati pora olish yoki berish bilan bog‘liq bo‘lsa,ya’ni qoniqish muhiti, ba’zan rasmiy masalalar bilan shug‘ullanishda mas’uliyasizlik, xodimlarning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini muhokama qilishda oshkoralikning yo‘qligi mavjud bo‘lsa,unda jamoaga yangi kelganlar bu xatti-harakatni odatdagidek qabul qilishadi va kelajakda unga rioya qilishadi. Biroq, boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, inson har doim bunday muhitdan chiqib ketish uchun asosiy imkoniyatga ega bo‘lib,unga mikro-hamjamiyat tomonidan jamoadagi buzilishlarga qarshi kurashish,bu kurashni ommalashtirish, ularni hech narsa bo‘lmagandek e’tiborsiz

[193] ***Бихевиоризм – (инг. behaviour*** хулқ) — 19-а. нинг охири — 20-а. даги америка психологиясининг етакчи оқимларидан бири. Бихевиоризм таълимоти асосида одам ва ҳайвон хулқида ташқи муҳитдан бўладиган таъсир, қўзғатувчи (стимул)га жавобан юзага келадиган хатти ҳаракат ва унга тааллуқли нутқий ва ҳиссий жавобларнинг мажмуи ётади/

qoldirish, shaxsning o‘zi tomonidan buzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi.

Amaldorlar orasida korrupsiyaning tarqalishi,oxir oqibatda unga bo‘ysunuvchilar ham, rahbarlar ham manfaatdor bo‘lishiga olib keladi.

23-jadval

Korrupsiya bilan bog‘liq pora olish va xatarlarni baholash modeli

Boshliq		Bo‘ysinuvchi	
Ijobiy (+)	Salbiy(-)	Ijobiy (+)	Salbiy(-)
Bo‘ysunuvchilardanf oizli pora olishning - barqaror daromad manbai ekanligi			
Pora berishda bevosita ishtirok etuvchining yo‘qligi	Bo‘ysinuvchi ushlansa– boshliqni sotib qo‘yishi mumkinligi	Ko‘proq pora berishga– kengroq imkoniyatning borligi	Uyushgan guruhning og‘irlashtiruvc hi holat ekanligi
Bo‘ysunuvchining boshliqni sotib qo‘yish ehtimolining kamligi	Uyushgan guruh ning og‘irlashtiruvch i holat ekanligi	Boshliqning qanoti ostida- pora olishning xavfsizroq ekanligi	Olgan porasidan ma’lum foizini berishi

Yuqorida keltirilgan modeldan ham ko‘rinib turibdiki,amaliyotda bo‘ysunuvchilar pora olgandan so‘ng nafaqat yuqori rahbarlari, balki o‘zlari o‘rtasida ham bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga xos ichki bozorlar va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishga olib keladi. Xususan, noqonuniy daromadlari yuqori bo‘lgan lavozimlar paydo bo‘ladi. Bunday lavozimlar uchun mansabdor shaxslar o‘rtasidagi kurash esa ichki "mehnat bozori" ni shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida korrupsion bozorlar xizmatining muayyan darajada kengayishiga,faolroq harakat qilishiga olib keladi.

5. Xususiy shaxsning qiziqishlari. Hayotda har bir shaxsning o‘z qiziqishlari bo‘ladi. Ayniqsa,kimdir oddiy ishchi bo‘lishga,kimdir olim bo‘lishga,kimdir amaldor bo‘lib xalqning og‘irini yengil qilishga,kimdir amaldor bo‘lib shaxsiy boylik orttirishga qiziqadi. Bularning ichida eng yomoni davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishidir.

Tovlamachilik ("hukumat reketi") – bu davlat amaldorlari tomonidan o'ziga berilgan vakolatlar doirasida boshqa shaxslarga litsenziyalarni, maxsus ruxsatnomalarni yoki boshqa xizmatlarni bajarishga ruxsatnomani berishni ataylab pora evaziga bajarishidir. Shu bilan bir qatorda, agar mansabdor shaxs to'lash kerak bo'lgan to'lovlar miqdorini (masalan, soliqlar yoki yig'imlar) baholash huquqiga ega bo'lsa, bu ham tovlamachilik, ya'ni pul talab qilish imkoniyatlarini ochib beradi.
Davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishi ustidan ichki yoki tashqi nazorat organi orqali shikoyat qilish huquqi mavjud. Qaror apellyasiya tartibining qanchalik qimmatga tushishiga, shuningdek, fuqaro davlat xizmatchisi sifatida o'zining qonuniy huquqlari va majburiyatlarini bilishiga bog'liq.

O'zaro til biriktirish. Bu tovlamachilik bilan bir xil sharoitda sodir bo'ladi, lekin u ikkala tomon uchun foydali bo'lishi va davlatga zarar etkazadigan bitim tuzishdan iboratligi bilan farq qiladi. Masalan, bojxona inspektori pora evaziga import miqdorini kamaytirishi va shu bilan import qiluvchi firmaning bojlar uchun to'lashi kerak bo'lgan miqdorni kamaytirishi mumkin. Bitim rasmiy shaxsni nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan tuzilmalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

6. Korrupsiyaning boyib borish sohalari. Har bir davlatning byudjeti bo'lib, u asosan daromadlar va xarajatlar degan qismlarni o'z ichiga oladi. Ana shu byudjetdagi davlat xarajatlari byurokratiya, ayniqsa yuqori siyosiy elita uchun korrupsiyani boyitishning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Bular jumlasiga *investitsiya loyihalari,davlat xaridlari,byudjetdan tashqari mablag'lar* kiradi.

Investitsiya loyihalari asosan yuqori lavozimli shaxslarning o'z ixtiyori bilan qabul qilgan qarorlari bilan belgilanadi. Yirik investitsiya loyihalari (xususan, xorijiy korporatsiyalar ishtirokida) ko'pincha monopol huquqlarni tanlov g'olibiga topshirishni o'z ichiga oladi. G'oliblikni qo'lga kiritish uchun rasmiylarga katta pora berishni va'da qilinadi. Ba'zi bir loyihalar ma'lum bir guruhlar loyihaning ijrochisi sifatida tayinlanganlardan ijara haqi ("hukumat ijarasi" olishlari uchun maxsus yaratiladi.

Davlat xaridlari, qoida tariqasida, bir nechta tanlov orasidan obyektiv ravishda eng yaxshi taklifni tanlov asosida tanlashni o'z ichiga oladi, lekin ba'zida mansabdor shaxs bitimdan eng yuqori "komissiya" ("tepki") va'da qilgan sotuvchining g'alabasini ta'minlay oladi. Buning uchun tenderda ishtirok etish cheklangan, uning qoidalari to'liq e'lon qilinmagan va hokazo. Natijada, xaridlar oshirilgan narxda amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari mablag'lar ko'pincha qonuniy maqsadlar uchun yaratiladi (pensiya jamg'armalari, yo'l fondlari va boshqalar) Ammo ba'zi bir fondlarda, masalan, nogironlarga yordam berish uchun, ularning daromadlari real xarajatlardan sezilarli darajada oshib ketishi mumkin, bu esa ba'zi mansabdor shaxslarning "profitsit" ga erishish istagini rag'batlantiradi. Aksincha, defitsit bo'lgan taqdirda, amaldorlar ko'pincha pulni kim olishini o'z xohishiga ko'ra hal qilishadi. Ba'zi mamlakatlarda chet el yordami orqali yoki tabiiy resurslarni sotishdan olingan mablag'lar byudjet mablag'lariga qaraganda kamroq shaffof va kam nazorat ostida bo'lgan maxsus fondlarga yo'naltiriladi. Tovarlar narxlarining bir necha daqiqali o'zgarishi sababli, operatsiyaning haqiqiy miqdorini va bunday mablag'larga ajratmalar miqdorini aniqlash oson emas, bu pulning bir qismini mansabdor shaxslarning cho'ntagiga yo'naltirishga imkon beradi.

Korrupsiya nuqtai nazaridan eng daromadli boshqa sohalarga quyidagilar kiradi:

– soliq imtiyozlari;
– tovarlarni bozor narxlaridan past narxlarda sotish;
– yerning qiymatiga ta'sir ko'rsatishi sababli yerni rayonlashtirish;
– tabiiy boyliklarni qazib olish;
–davlat aktivlarini sotish, ayniqsa davlat korxonalarini xususiylashtirish;
– tijorat (xususan, eksport-import) faoliyatining muayyan turiga monopol hokimiyat berish;
– yashirin iqtisodiyot va noqonuniy biznes ustidan nazorat (tovlamachilik, ta'qib qilishdan himoya qilish, raqiblarini yo'q qilish va boshqalar);
– hukumatdagi mas'ul lavozimlarga tayinlash.

Bunda shuni unutmaslik kerakki,fuqarolarning iqtisodiy ongining,huquqiy tafakkurining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli,ularning davlat boshqaruvidagi ma'lumotlarga erkin kirish imkoniyatining yo'qligi (ya'ni uning xiralashtirilganligi) korrupsiyaga sabab bo'ladi va muqarrar ravishda mamlakatni iqtisodiy inqirozga olib keladi.

7. Sud tizimidagi korrupsiya. Mamlakatda mavjud bo'lgan korrupsiya shakllarining birinchisini sudyalar boshchiligidagi sud tizimidagi korrupsiya tashkil qiladi.

7.1. Qonunchilikdagi "vilkalar". Ko'pgina normalar sudyaga aybning darajasi, huquqbuzarlikning og'irligi va boshqa holatlarni hisobga olish uchun yengil va og'ir jazo turlaridan birini tanlashga imkon beradi. Bunday holda sudya huquqbuzarlikni sodir etgan fuqaroga ta'sir o'tkazish

vositasiga ega. Jazoning yuqori va pastki chegaralari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, fuqaro shunchalik ko'p pora berishga tayyor bo'ladi.

7.2. Muqobil ma'muriy jazo. Muqobil ma'muriy jazo qo'llanilishiga oid qonun qoidalar mavjud, masalan, jarima yoki hibsga olish. Ular ko'pgina "vilkalar" me'yorlaridan nafaqat keng qamrovli jazolar (va, demak, huquqbuzarga pora berish uchun kuchli turtki) bilan, balki adolatni sud, hokimiyat emas, balki ijro etuvchi hokimiyat vakillari amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Ko'pgina huquqshunoslar ushbu turdagi sanksiyalarni qo'llash faqat jinoiy sud ishlarini yuritishda asoslanadi, deb hisoblashadi, ammo ma'muriy jarayonda unchalik katta asosga ega emas. Birinchidan, sud sud jarayonining ochiqligi (oshkoralik), qarama-qarshilik, og'zaki va dolzarblik prinsiplariga asoslanadi. Ma'muriy sud ishlarida fuqaro ko'p hollarda hokimiyat vakili bilan yolg'iz qoladi. Ikkinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik uchun eng yuqori jazo ham jinoyatchi uchun jinoyat qonunchiligidagi kabi og'ir emas, uni farqlash mantiqan to'g'ri keladi

7.3. Huquqbuzarlikning tarkibini qayta malakalash. Qonundagi "Vilkalar" ning yana bir turi - bu huquqbuzarlikning turli kodlarda takrorlanishi. Bu sodir etilgan huquqbuzarlikni yengilroq toifaga (masalan, jinoyatchilikdan ma'muriy yoki fuqarolik darajasiga) yoki aksincha, og'irroq toifaga qayta malakalash imkoniyatlarini ochib beradi. Qonunchilik hujjatlari aniq bo'lmaganligi sababli jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni farqlash qiyin kechadi va bunday holatlarda sudyalar (yoki mansabdor shaxslar) o'z ixtiyori bilan qaror qabul qilishadi, bu esa pora olish va tovlamachilik uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

7.4. Fuqarolarning pulini yo'qotishlari. Ba'zi qonun normalari huquq normalariga bo'ysunishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsga zarar yetkazsa korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Bunda hatto jarima miqdori va jinoyat uchun pora nominal darajada teng bo'lgan taqdirda ham, jarimani to'lashda bankda to'lovni amalga oshirish va jarimani rasmiylashtirgan idoraga to'lovni tasdiqlovchi hujjatlarni (kvitansiyalar) taqdim etish uchun pul bo'lmagan vaqt sarflari bilan birga olib borilishini ta'kidlash joiz. Qonun ustuvorligi oqibatida etkazilgan zararli zararlar har xil va fuqarolar uchun har xil darajada yoqimsiz hisoblanadi. SHuni ham e'tiborga olish kerakki, hali barcha fuqarolar o'z huquqlarini sudda himoya qilishga tayyor emaslar. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaning yashovchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

8. Korrupsiyaning zararli oqibatlari. Tomas Xobbes yozganidek, korrupsiya " har doim va har qanday vasvasalarda barcha qonunlarga nisbatan nafratlanish kelib chiqadigan ildizdir". Yuqori darajada korrupsiyaga uchragan mutasaddilarda aksariyat davlat resurslari qasddan ularni talon-taroj qilish eng oson bo'lgan yoki pora eng oson yo'l bilan yig'iladigan kanallarga yo'naltiriladi.Siyosat esa korrupsiya ustidan nazorat qilish mexanizmlarini: matbuot erkinligi, adliya tizimining mustaqilligi, raqobatdosh siyosatchilar (muxolifatchilar) va fuqarolarning shaxsiy huquqlarini yanada bostirishga qaratilgan bo'ladi. Qisqasi,siyosat korrupsiya uchun xizmat qila boshlaydi.

Shuningdek, korrupsiyaga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish mumkin degan nuqtai nazar mavjud. Tarixiy dalillarga ko'ra, ko'plab mamlakatlarning rivojlanish tarixida (Indoneziya, Tailand, Koreya) iqtisodiy o'sish korrupsiyaning ko'payishi bilan birga bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda hatto korrupsiyaning ko'payishi ham iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmagan. Boshqa bir dalilga ko'ra, pora berish faqat davlat va mahalliy tuzilmalar faoliyatida bozor tamoyillarini amalga oshirish hisoblanadi. Shunday qilib, korrupsiyaga nisbatan bag'rikenglik munosabati iqtisodiy o'sishda yoki umuman bozor samaradorligiga ta'sir qilmasa qabul qilinadi. Ushbu nuqtai nazarni tanqid qiluvchilarning ta'kidlashicha, yuqoridagi sabablarga ko'ra, korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar, o'sish davridan keyin barqarorlikni yo'qotishi va pasayish spiraliga tushib qolish xavfi bor.

9. Korrupsiyaning maqbul darajasi. Davlat korrupsiyani yo'q qilar ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish xarajatlari shu darajada ko'payadiki, korrupsiyani butunlay yo'q qilish uchun cheksiz harakatlar qilish kerak bo'ladi. Korrupsiyadan ko'rilgan zararlar va uning har bir darajasi uchun korrupsiyani yo'q qilish xarajatlarini taqqoslash orqali eng kichik umumiy yo'qotishlarni aks ettirgan holda korrupsiyaning maqbul darajasini topish mumkin. Ko'rinib turibdiki, korrupsiyani oxirigacha yo'q qilmaslik, shunchaki ushbu jarayonning qimmatligi sababli jamiyat uchun foydaliroqdir deb o'ylovchilar ham bor. Biroq, korrupsiyaga qarshi kurashga sarflangan mablag'larning yanada samaradorliroq qilish haqida tinmay o'ylash zarurligini unutmaslik kerak. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun haddan tashqari ishtiyoqni kuchaytirib yuborish, uning sabablarini yo'q qilish oqibatida kelib chiqadigan zarari ma'muriy tizimni moslashuvchanlikdan va fuqarolarning fuqarolik erkinliklaridan mahrum qilishi mumkin. Korrupsiyalashgan hukmron guruh jamiyat ustidan nazoratni kuchaytirish va siyosiy

muxoliflarni ta'qib qilish uchun jazolash qonunchiligidan unumli foydalanishi ham mumkin. Buni ham hisobga olish kerak bo'ladi.

10. Xalqaro savdo. Korrupsiya xalqaro savdoda milliardlab dollar yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. So'nggi yillarda xalqaro korrupsiya muammosiga qiziqish kuchayib borishi sabablaridan biri bu masalan, tovar va xizmatlarni eksport qiluvchi firmalarining ko'pincha qonunchilikka binoan chet el amaldorlariga pora berishga ruxsat berilmaganligi sababli sun'iy ravishda foydali shartnomalarni yo'qotishadi. Aksincha, aksariyat OBSE mamlakatlarida chet ellik sheriklarga pora berish nafaqat taqiqlanmagan, balki soliq to'lashda hatto daromaddan ushlab qolinishi mumkinligi qayd etilgan. Masalan, nemis korporatsiyalari uchun bunday xarajatlar yiliga 5,6 milliard dollarni tashkil etadi[194]. Vaziyat faqat 1997 yil oxirida, mamlakatlar "Xalqaro biznes operatsiyalarida xorijiy davlat amaldorlarining pora olishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya" ni imzolagandan keyingina o'zgardi. Konvensiyani bajarish uchun keyingi yillarda milliy kompaniyalarning birovga pora berishini man qiluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi.

11. Korrupsiya sabablari. Korrupsiya sabablari deb xususiy shaxs,uyushgan guruhlarning davlat muassasalarida egallagan mavqeyidan foydalangan holda davlat va nodavlat tashkilotlarining, shuningdek, xalqaro sherikchilik birlashmalarining mol-mulkini noqonuniy yo'l bilan o'zlashtirib olishlari natijasida kelib chiqqan uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyatiga aytiladi. Bunga asosan jamiyatning hayotini tartibga solib turuvchi huquq va axloq normalarida fundamental' ziddiyatlarning borligi asosiy sabab bo'ladi.

Fundamental qarama-qarshilik. Har qanday tovarni ishlab chiqarish ma'lum resurslarni iste'mol qilishni talab qiladi, bu esa ushbu tovarlar uchun ketgan xarajatlar iste'molchilaridan olingan mablag'lar bilan qoplanadi. Xodimlarning ish haqi - bu oxir-oqibat iste'molchi tomonidan qoplanadigan xarajatlardan biridir, ammo ularning faoliyati boshliq va ish beruvchining irodasi bilan belgilanadi. Bu shunday holatga olib keladiki, iste'molchi xodimdan kerakli xizmat yoki mahsulotni oladi, lekin bu xodimning faoliyatiga bevosita ta'sir eta olmaydi. Muayyan holat soliqlar bilan to'lanadigan va davlat xizmatchilari tomonidan ta'minlanadigan jamoat molidir. Mansabdor shaxslarning ish haqi haqiqatan ham fuqarolar tomonidan to'lanishiga qaramay, ularning ish

[194]Jain A. K. Corruption: a review // Journal of Economic Surveys. — 2001. — Vol 15, No. 1. — P. 71. doi:10.1111/1467-6419.00133 (англ.)

beruvchisi davlat bo‘lib, ularga qonun bilan turli shaxslarning raqobatdosh manfaatlariga ta’sir qiladigan qarorlar qabul qilish huquqini beradi.

“Agar biron bir ixtiyoriy kuch bo‘lmasa, korrupsiya imkonsiz bo‘lar edi”[195]. Biroq, yuqori hokimiyatga ega bo‘lgan shaxs yoki guruh o‘zi belgilagan siyosatni mustaqil ravishda amalga oshira olmaydi. Shu maqsadda u ma’murlarni tayinlaydi, ularga kerakli vakolatlarni beradi, ularning ixtiyorida zarur resurslarni o‘tkazadi, ular uchun o‘zini tutish qoidalarini o‘rnatadi va ustidan nazorat olib boradi. Bu erda quyidagi muammo paydo bo‘ladi:

1. Qonunning konservativligi. Amalda qo‘llanayotgan yo‘riqnomalar tashqi sharoitda bo‘layotgan hodisalarga qaraganda ancha sekin o‘zgaradi. Shuning uchun ham mutassadilar o‘zlarining xohishlariga ko‘ra ba’zi harakatlarni amalga oshirish uchun joy qoldiradilar.Busiz boshqaruv tizimi butunlay egiluvchan bo‘lmay qoladi,belgilangan qat’iy me’yorlarning hayot haqiqatlarga mos kelmasligi ishni butunlay to‘xtatishi mumkinligi yuzaga keladi. Biroq, bu shuni anglatadiki, qonunda nazarda tutilmagan vaziyatda ma’mur-mutassadi eng qulay ijara haqi bilan boshqarishni boshlashi mumkin. Demak,qonunlarning konservativligi ham korrupsiyaga yo‘l ochib beradi.

2. Hamma narsani qamrab oladigan nazoratning mumkin emasligi. Ma’lumki,davlat bor ekan,uning nazorat qilish funksiyasi ham mavjud bo‘ladi. Ba’zida nazorat qilish davlat uchun juda qimmatga tushadi. Haddan tashqari nazorat qilish boshqarish sifatiga ham zarar etkazadi va ijodkor iste’dodlarning pasayishiga olib keladi. Bu degan so‘z boshqaruv tamoyilining o‘zida ham korrupsiya ehtimolining mavjudligini anglatadi. Ushbu imkoniyat obyektiv sharoitda rivojlanib, potensial renta (foyda)olish xavfdan ustun turadi. Bu muammo byurokratik apparatda bir necha bor takrorlanmoqda. Bunga sabab esa yuqori darajadagi ma’murlarning o‘zlari bo‘ysunuvchilarini tayinlashidir. Vakillik demokratiyasiga ega tizimlarda esa eng yuqori hokimiyat lavozimlarini siyosiy elita egallaydi va keyingi saylovlarda hokimiyatni yo‘qotib qo‘yish xavfi mavjudligidan hadiksiraydi.

3. Yuqori darajadagi korrupsiya sabablari. Ko‘pchillik mutaxassislarning fikricha, yuqori darajadagi sababi g‘ayriinsoniy xatti-harakatlarning ichki va tashqi cheklash mexanizmlarini ta’minlovchi siyosiy institutlarning nomukammalligidadir. Bunga ba’zi obyektiv holatlar:

[195] Роуз-Аккерман, С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы / Пер. с англ. О. А. Алякринского. — М.: Логос, 2003.

– ikki xil ma'noli noaniq qonunlar;

– aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi;

– mansabdor shaxslarning o'zboshimchalik bilan byurokratik protseduralarga to'sqinlik qilish yoki tegishli to'lovlarni oshirib yuborishi;

– mamlakatdagi siyosiy vaziyatning beqarorligi;.

– davlat idoralari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllangan mexanizmlarining yetishmasligi;

– byurokratik apparat faoliyati asosidagi standartlar va prinsiplarning hukmron elita siyosatiga bog'liqligi;

–byurokratiyaning kasbiy layoqatsizligi;

– qarindoshlik va siyosiy homiylik; (bu korrupsiyani nazorat qilish mexanizmlarini zaiflashtiradigan maxfiy kelishuvlarni tuzishga olib keladi);

– ijro etuvchi hokimiyat tizimida birlikning yo'qligi, ya'ni bir xil faoliyatni turli hokimiyat organlari tomonidan tartibga solish;

– fuqarolarning davlat ustidan nazoratdagi ishtiroki darajasining pastligi boshqalar ham o'zining hissasini qo'shadi.

4. Yuqori darajadagi korrupsiya sabablari haqidagi farazlar. Yuqori darajadagi korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha quyidagicha taxminlar:

• xususiy sektorga nisbatan davlat sektorida ish haqining pastligi;

• iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;

•fuqarolarning mansabdor shaxslarga bog'liqligi, ayrim xizmatlarga davlat monopoliyasi;

• byurokratik elitani xalqdan ajratib turish;

• iqtisodiy beqarorlik, inflyasiya;

• aholining etnik xilma-xilligi;

• iqtisodiy rivojlanishning past darajasi;

• diniy an'analar;

• umuman mamlakat madaniyati va shu kabilar ham mavjud bo'lib,bugungi kunda ularni tasdiqlash bo'yicha kelishuv mavjud emas[196] .

Shunday qilib, xususiy sektorga nisbatan davlat sektorida ish haqining ko'payishi korrupsiyaning darhol pasayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan, bunday holat byurokratlar malakasi darajasini bosqichma-bosqich oshirishga yordam beradi va uzoq muddatli istiqbolda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning misolini korrupsiya darajasi eng past bo'lgan mamlakatlarda mansabdorlarning ish haqi ishlab chiqarish

[196] Lederman D, Loayza N. V., Soares R. R. Accountability and corruption: political institutions matter // Economics & Politics. — 2005. — Vol. 17, No. 1. — P. 1. doi:10.1111/j.1468-0343.2005.00145.x (англ.)

sohasidagi ish haqiga nisbatan 3-7 baravar yuqori ekanligida ko'rish mumkin.

Eng munozarali masalalardan biri bu davlatning monopolist sifatida bozorlarni tomonidan tartibga solinishi,ya'ni boshqarilishidir.

Erkin bozor tarafdorlarining ta'kidlashicha,davlat rolning pasayishi va raqobatning kuchayishi,korrupsiyaning pasayishiga yordam beradi,chunki bu talab qilinadigan ixtiyoriy kuch miqdorini kamaytiradi va himoya tartibga solish orqali bozor istunligini olish qobiliyati va shu sababli ijara haqini olish orqali imkoniyatini kamaytiradi. Darhaqiqat, korrupsiyasi past bo'lgan barcha mamlakatlar nisbatan erkin iqtisodiyot bilan ajralib turadi. Aksincha, mansabdor shaxslarning monopol hokimiyati va narxlarni bozor darajasidan past darajada ushlab turishi bilan tavsiflangan rejali iqtisodiyot kam mahsulot va xizmatlarni olish vositasi sifatida poraxo'rlikni rag'batlantiradi.[197]

Ushbu dalilga bir qator e'tirozlar ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, xususiy sektor har doim ham muammolarga qoniqarli yechimlarni taklif eta olmaydi va bunday hollarda ko'pchilik odamlar davlat aralashuvini asosli deb bilishadi. Bu, o'z navbatida, adolatsiz nazorat va davlat ijara haqini undirish uchun old shartlarni yaratadi. Shunday qilib, erkin iqtisodiyot sharoitida ham korrupsiyani to'liq yo'q qilish mumkin emas.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni hukumat tomonidan amalga oshiriladi va shu sababli, mohiyatan, bu iqtisodiyotga faol aralashishdir. (bu qo'shimcha ravishda, xususiylashtirish orqali korrupsiyani boyitish manbalarini yaratish bilan ham bo'lishi mumkin). Shuning uchun amalda liberallashtirishning boshlang'ich davri aksariyat hollarda teskari ta'sir - korrupsiyaning kuchayishi bilan tavsiflanadi[198]

Uchinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, liberal-demokratik siyosiy tizimdagi korrupsiya darajasi mamlakat rahbariyatining neoliberal yoki sotsial-demokratik mafkuraga rioya qilishiga bog'liq emas[199]. Bundan tashqari, korrupsiyasi past bo'lgan ko'plab mamlakatlarda soliqlar va davlat xarajatlari nisbatan yuqori.Masalan, Kanada, Niderlandiya, Skandinaviya va shu kabi mamlakatlarda.

---

[197] Shleifer A., Vishny R. Pervasive shortages under socialism // RAND Journal of Economics. — 1992. — Vol. 23, No. 2 — P. 237

[198] Weyland K. The politics of corruption in Latin America // Journal of Democracy. — 1998. — Vol. 9, No. 2. — P. 108.

[199] Kaufmann D. Research on corruption: critical empirical issues // Economics of corruption / ed. JainA. K. — Mass.: Kluwer. — 1998. — P. 129.

– ikki xil ma'noli noaniq qonunlar;

– aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi;

– mansabdor shaxslarning o'zboshimchalik bilan byurokratik protseduralarga to'sqinlik qilish yoki tegishli to'lovlarni oshirib yuborishi;

– mamlakatdagi siyosiy vaziyatning beqarorligi;.

– davlat idoralari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllangan mexanizmlarining yetishmasligi;

– byurokratik apparat faoliyati asosidagi standartlar va prinsiplarning hukmron elita siyosatiga bog'liqligi;

–byurokratiyaning kasbiy layoqatsizligi;

– qarindoshlik va siyosiy homiylik; (bu korrupsiyani nazorat qilish mexanizmlarini zaiflashtiradigan maxfiy kelishuvlarni tuzishga olib keladi);

– ijro etuvchi hokimiyat tizimida birlikning yo'qligi, ya'ni bir xil faoliyatni turli hokimiyat organlari tomonidan tartibga solish;

– fuqarolarning davlat ustidan nazoratdagi ishtiroki darajasining pastligi boshqalar ham o'zining hissasini qo'shadi.

4. Yuqori darajadagi korrupsiya sabablari haqidagi farazlar. Yuqori darajadagi korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha quyidagicha taxminlar:

• xususiy sektorga nisbatan davlat sektorida ish haqining pastligi;
• iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;
•fuqarolarning mansabdor shaxslarga bog'liqligi, ayrim xizmatlarga davlat monopoliyasi;
• byurokratik elitani xalqdan ajratib turish;
• iqtisodiy beqarorlik, inflyasiya;
• aholining etnik xilma-xilligi;
• iqtisodiy rivojlanishning past darajasi;
• diniy an'analar;
• umuman mamlakat madaniyati va shu kabilar ham mavjud bo'lib,bugungi kunda ularni tasdiqlash bo'yicha kelishuv mavjud emas[196] .

Shunday qilib, xususiy sektorga nisbatan davlat sektorida ish haqining ko'payishi korrupsiyaning darhol pasayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan, bunday holat byurokratlar malakasi darajasini bosqichma-bosqich oshirishga yordam beradi va uzoq muddatli istiqbolda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning misolini korrupsiya darajasi eng past bo'lgan mamlakatlarda mansabdorlarning ish haqi ishlab chiqarish

[196] Lederman D, Loayza N. V., Soares R. R. Accountability and corruption: political institutions matter // Economics & Politics. — 2005. — Vol. 17, No. 1. — P. 1. doi:10.1111/j.1468-0343.2005.00145.x (англ.)

sohasidagi ish haqiga nisbatan 3-7 baravar yuqori ekanligida ko'rish mumkin.

Eng munozarali masalalardan biri bu davlatning monopolist sifatida bozorlarni tomonidan tartibga solinishi,ya'ni boshqarilishidir.

Erkin bozor tarafdorlarining ta'kidlashicha,davlat rolning pasayishi va raqobatning kuchayishi,korrupsiyaning pasayishiga yordam beradi,chunki bu talab qilinadigan ixtiyoriy kuch miqdorini kamaytiradi va himoya tartibga solish orqali bozor istunligini olish qobiliyati va shu sababli ijara haqini olish orqali imkoniyatini kamaytiradi. Darhaqiqat, korrupsiyasi past bo'lgan barcha mamlakatlar nisbatan erkin iqtisodiyot bilan ajralib turadi. Aksincha, mansabdor shaxslarning monopol hokimiyati va narxlarni bozor darajasidan past darajada ushlab turishi bilan tavsiflangan rejali iqtisodiyot kam mahsulot va xizmatlarni olish vositasi sifatida poraxo'rlikni rag'batlantiradi.[197]

Ushbu dalilga bir qator e'tirozlar ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, xususiy sektor har doim ham muammolarga qoniqarli yechimlarni taklif eta olmaydi va bunday hollarda ko'pchilik odamlar davlat aralashuvini asosli deb bilishadi. Bu, o'z navbatida, adolatsiz nazorat va davlat ijara haqini undirish uchun old shartlarni yaratadi. Shunday qilib, erkin iqtisodiyot sharoitida ham korrupsiyani to'liq yo'q qilish mumkin emas.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni hukumat tomonidan amalga oshiriladi va shu sababli, mohiyatan, bu iqtisodiyotga faol aralashishdir. (bu qo'shimcha ravishda, xususiylashtirish orqali korrupsiyani boyitish manbalarini yaratish bilan ham bo'lishi mumkin). Shuning uchun amalda liberallashtirishning boshlang'ich davri aksariyat hollarda teskari ta'sir - korrupsiyaning kuchayishi bilan tavsiflanadi[198]

Uchinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, liberal-demokratik siyosiy tizimdagi korrupsiya darajasi mamlakat rahbariyatining neoliberal yoki sotsial-demokratik mafkuraga rioya qilishiga bog'liq emas[199]. Bundan tashqari, korrupsiyasi past bo'lgan ko'plab mamlakatlarda soliqlar va davlat xarajatlari nisbatan yuqori.Masalan, Kanada, Niderlandiya, Skandinaviya va shu kabi mamlakatlarda.

---

[197] Shleifer A., Vishny R. Pervasive shortages under socialism // RAND Journal of Economics. — 1992. — Vol. 23, No. 2 — P. 237

[198] Weyland K. The politics of corruption in Latin America // Journal of Democracy. — 1998. — Vol. 9, No. 2. — P. 108.

[199] Kaufmann D. Research on corruption: critical empirical issues // Economics of corruption / ed. JainA. K. — Mass.: Kluwer. — 1998. — P. 129.

Qisqacha xulosalar

1. Korrupsiya - mansabdor shaxslarning o‘zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolotidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi bo‘lib,u o‘z ichiga poraxo‘rlik,mansbni suiste’mol qilish va boshqa noqonuniy harakatlarni o‘z ichiga oladi.
2. Korrupsiya yashirin xarakteriga ega bo‘lib,ya’ni zimdan ish qilish orqali katta boylikni qo‘lga kiritishga harakat qiladi.
3. Korrupsiya kelishuvchanlik xarakteriga ega,uning ishtirokchilari o‘zaro kelishgan holda harakat qiladilar.
4. Korrupsiya moslanuvchanlik xususiyatiga ega.Chunki pora beruvchi ham pora oluvchi ham o‘zro kelishishib olishgan bo‘ladi.
5. Korrupsiyaning asosiy maqsadi pora evaziga boylik orttirish, to‘plashdir.
6. Pora *(forscha - bo‘lak, laxtak, parcha; hissa, ulush; yirtilgan, kesilgan)* biror ishni noqonuniy tarzda bitirib bergni uchun mansabdor shaxsga berildigan yoki berilgan narsa yoki pul.

Tayanch tunchalar

Korrupsiya, pora, pora olish va berish, korrupsioner, korrupsiya haqidagi paradigmalar, past, o‘rta, yuqori darajadagi korrupsiya, iqtisodiy korrupsiya, ta’lim sohasidagi korrupsiya, potensial korrupsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Korrupsiya” tushunchasining mazmuni nimalardan iborat?
2. Korrupsiyaning ildizlarini nimalar tashkil qiladi?
3. Korrupsiyaning sub’ektlariga kimlar kiradi?
4. Soliq tizimida korrupsiya borligiga ishonasizmi?
5. Qaysi sohalarni korrupsiyalashgan deb o‘ylaysiz?
6. Korrupsiyaning zararli oqibatlarini sanab bering?
7. Korrupsiyaning o‘sib borishining sabablarini bilasizmi?
8. Ma’muriy korrupsiya deganda nimani tushunasiz.?
9. “*Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi*” degan fikr haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring?

X BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

1-§. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalar

Kishilar jamiyat hayotida yuz berayotgan barcha jarayonlarni kuzatar ekan,ularga nisbatan xayrixoh yoki qarshi, yoki befarq munosabatda bo'layotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda korrupsiyaga qarshi kurash masalasida ham shunday munosabat mavjudligini kuzatish mumkin. Biroq,korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotining kushandasi ekanligini anglagan odamlar,bu illatga qarshi kurash bo'yicha bir qator taktik usullarni qo'llash va strategik yo'nalishlarini belgilab olish borasida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlanmalarni falsafiy paradigmalar shaklida ishlab chiqqan holda hayotga joriy qilishga harakat qilmoqdalar.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalardeb*korrupsiyaga qarshi kurash haqidagi g'oyalar,qarashlar va tushunchalarning etakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar,muammolarni qo'yish va ularni hal qilish modellari,tadqiqot usullari, ularni amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytiladi.* Bu borada yaratilgan falsafiy paradigmalarni;

a) tarixiy makon va zamonda joylashgan o'rniga qarab – qadimgi,o'rta asr,yangi va eng yangi davrdagi;

b) jazolarni qo'llash usul va vositalariga qarab qilmishiga yarasha qonunlarda belgilangan tartibda jazolash;

v) sub'ektlari bo'yichaindividual, jamoaviy;

g)axloqiy-ma'naviy ta'siriga qarabjamoa oldida uyaltirish, tadbirlariga qo'shmay izza qilish va boshqa shu kabilarga ajratish mumkin.

Bu paradigmalarni quyidagi davlatlar misolida ko'rish mumkin.

1. Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi. Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi o'zining qat'iyligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatdagi falsafiy paradigma "korrupsiyani nazorat qilish mantig'I" ga asoslanib: "korrupsiyani yo'q qilishga urinishlar ham rag'batlantiruvchi, ham shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash uchun imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo'q qilish istagiga asoslangan bo'lishi kerak"[200],– degan g'oyaga asoslanadi. Bu paradigmada: *birinchidan*, mansabdor shaxslarning

[200]ВЦИОП — Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией (недоступная ссылка). Датаобращения: 25 сентября 2006. Архивировано 29 апреля 2005 года.

harakatlarini tartibga solish; *ikkinchidan,* byurokratik protseduralarni soddalashtirish; *uchinchidan,* yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlarga rioya qilish ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirish masalasi ilgarilgan edi.

1965 yilda mustaqillik davrida Singapur korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakat edi.Undan qutilish uchun qonunchilik kuchaytirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va sudyalarning imtiyozli maqomi bilan), pora bergani yoki korrupsiyaga qarshi tergovda qatnashishdan bosh tortganligi uchun iqtisodiy sanksiyalar joriy etildi va bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatlarini to'liq ishdan bo'shatishgacha qattiq choralar ko'rildi. Bu iqtisodiyotni tartibga solish, mansabdor shaxslarning ish haqini oshirish va ma'muriy kadrlarni tayyorlash bilan birlashtirildi. Korrupsiya holatlarini tergov qiluvchi avtonom Byuro tuzildi va u fuqarolarning davlat xizmatchilari ustidan shikoyatini va ular tomonidan yetkazilgan zararni undirib beruvchi markazga aylantirildi. SHu tariqa,ayni paytda Singapur korrupsiya, iqtisodiy erkinlik va rivojlanishning yo'qligi bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

2. Shvetsiyaning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi. XIX asrning o'rtalariga qadar Shvetsiyada korrupsiya rivojlangan mamlakat edi. Bundan qutilish yo'lini o'zida aks ettiruvchi falsafiy paradigmaning o'ziga xos xususiyatlari:*birinchidan*,merkantilizm va uning oqibatlarini tugatish; *ikkinchidan*, barcha pog'onadagi mansabdorlar uchun yuksak darajadagi axloqiy-ma'naviy normalarni ishlab chiqish va ularga amal qilishni ta'minlash; *uchinchidan*,mustaqil va adolatli sud tizimini yaratish kabilar bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra mamlakatni modernizatsiya qilishdamerkantilizmni yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.O'shandan beri davlat tomonidan tartibga solish firmalarga qaraganda ko'proq uy xo'jaliklarigaqaratildi,bunda e'tibor taqiqlash va ruxsatnomalar berishga emas, balki imtiyozlarni soliqlar yukini kamaytirish va shu kabilar orqali berishga qaratildi. Ichki davlat hujjatlaridan foydalanish imkoniyati ochildi,mustaqil va samarali sudlovga asoslangan adolat tizimi yaratildi. Shu bilan birga, Shvetsiya parlamenti va hukumati ma'murlar uchun yuqori axloqiy me'yorlarni o'rnatdi va ularni bajarish boshlandi. Natijada, bir necha yil o'tgach, halollik amaldorlar(byurokratiya) o'rtasida ijtimoiy normaga aylandi. Yuqori martabali amaldorlarning ish haqi dastlab ishchilarning ish haqidan 12-15 baravar oshib ketdi, ammo vaqt o'tishi bilan bu farq ikki baravarga

kamaydi[201]. Bugungi kunda Shvetsiya dunyodagi eng past korrupsiya darajasiga ega davlatlardan biri sanaladi.

Bulardan tashqari bunday paradigmalarni amalga oshirishniGongkong, Portugaliya, Malaziya, Estoniya kabi mamlakatlar misolida ko'plab keltirish mumkin.

3. Hozirgi kundagi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha falsafiy paradigmalar: muammo va yechimlar. Bugungi kunga qadar pedagogika,psixologiya,falsafa,boshqaruv nazariyasida biron bir shaxsning ideal darajadagi amaldor bo'lishiga kafolat beradigan ma'lum usullar mavjud emas. Biroq, korrupsiya darajasi juda past bo'lgan ko'plab mamlakatlar mavjud. Bundan tashqari, davlatlar tarixida korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan harakatlar muhim yutuqlarga olib kelganligi haqidamisollar ham bor. Masalan, Estoniya, Singapur, Gonkong, Portugaliya, Shvetsiya shunday davlatlar qatoriga kiradi. Bu esa ,o'z navbatida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha muayya falsafiy paradigmalarga asoslangan usullarining mavjudligini ko'rsatadi. Mantiqan falsafiy paradigmalarnuqtai nazardanqaralsa,agar davlat bo'lmasa, korrupsiyaham bo'lmaydi. Davlatning ko'plab funksiyalari borki,ularni fuqarolar bajarishga majburdirlar. Shu sababli ularni yo'q qilish mumkin emas. Masalan, barcha soliqlarni bekor qilish orqali soliq idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashish mumkin emas. Shunga qaramay, korrupsiyakeng tarqalgan muhitda, korrupsiya girdobiga botgan davlat organlarini tarqatib yuborish, undan qutulishning eng samarali radikal usullaridan biri bo'lib tuyuladi. Biroq,barcha amaldorlarochko'z,poraxo'r bo'lmasligi ham mumkin. Buni ham hisobga olishga to'g'ri keladi.

Hozirgi kundakorrupsiyani kamaytirish borasida uchta falsafiy paradigmal yondashuvborligi ko'zga tashlanadi.

Birinchisi, korrupsiyaga aloqador bo'lganlarni qilmishiga yarasha jinoiy javobgarlikka tortish uchunyangi qonunlar qabul qilish va ularning ijrosini qat'iy tarzda amalga oshirishni ta'minlash.

Ikkinchisi, amaldorlarning korrupsiya botqog'iga botib ketmasligi uchun qoida va qonunlarni buzmasdan turib,ularning daromadlarini ko'paytirishga imkon beradigan iqtisodiy mexanizmlarni yaratishni yo'lga qo'yish.

Uchinchisi, bozorlar va raqobatning rolini oshirish orqalikorrupsiyadan olinadigan daromadlar ulushini kamaytirish.

Mazkur falsafiy paradigmalarni amalga oshirishning umumiy ilmiy-amaliymexanizmlari jumlasiga quyidagilar kiradi.

---

[201] Lindbeck A. Swedish lessons for post-socialist countries. — Institute for International Economic Studies, Seminar Paper No. 645. — Stockholm: 1998. [11] (англ.)

1. Ichki nazorat. Bunga davlat boshqaruv apparatida mavjud bo‘lgan ichki mexanizmlar va rag‘batlantirish omillari kiradi. Bularga mansabdor shaxslarning o‘z vazifalarini bajarishi uchun aniq standartlarning ishlab chiqilganligi va uni bajarish yuzasidan xodim ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilishni ta’minlashning mavjudligi kiradi. Nazoratni ta’minlash uchun ko‘pincha avtonom ishlaydigan maxsus bo‘limlar tashkil qilinadi.Masalan, huquqni muhofaza qilish idoralari ko‘pincha ijro etuvchi hokimiyat rahbariga, shuningdek byurokratik apparatga bo‘ysunsada, ammo shu bilan birga sezilarli darajada ichki nazoratni amalga oshirish bo‘yicha o‘z vakolatlariga ega bo‘ladi. Shu tufayli korrupsiyaga qarshi kurashning falsafiy paradigmalarini amalga oshirishning asosiy usuli bo‘lgan ichki nazorat bugungi kunda asosiy,salmoqli,samarador o‘rinlardan birini egallab kelmoqda.

2.Tashqi boshqaruv. Bunga ijro hokimiyatidan yuqori darajada mustaqillikka ega bo‘lgan mexanizmlar kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”da korrupsiyaga daxldorligi uchun ogohlantirish,korrupsiyada ishtiroki uchun jinoiy ta’qib va tergov hamda amaliyot operatsiyalarini ishga solmaslik,jinoyat yo‘li bilan topilgan mablag‘larni qaytarish maqsadida hatlash,musodara qilishga yo‘naltirish bo‘yicha amal qiladigan mexanizmlar ko‘rsatib o‘tilgan. Bunday mexanizmlar qatoriga kiruvchi mustaqil sud tizimining mavjudligi va uning qonunni buzgan byurokratni osongina va samarali sud qilishi,amalda korrupsiyaning potensial jozibadorligini keskin pasaytiradi. Shu bilan bir qatorda so‘z va ommaviy axborot vositalarining erkinligi byurokratik apparatda korrupsiya holatlarini nazorat qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tashqi nazorat erkin bozor iqtisodiyoti va liberal demokratik davlatlarga xosdir. Bu birinchi navbatda, bozorning normal ishlashinita’minlash uchun aniq qoidalar, mexanizmlarni yaratish va ishga tushurish,ikkinchi navbatda sog‘lom raqobat muhitini ta’minlaydigan samarali huquqiy tizimini shakllantirishni talab etilishi bilan bog‘liqligi bilan tavsiflash mumkin. Liberal demokratiyao‘z maqsadlariga erishish uchun saylov tizimiga, qonun ustuvorligiga, mustaqil sud tizimiga, hokimiyatning taqsimlanishiga va «cheklash va muvozanat»ni saqlash tizimiga tayanadi. Ushbu siyosiy institutlarning barchasi bir vaqtning o‘zida korrupsiya ustidan tashqi nazorat mexanizmlari bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, liberal demokratiyaning barcha qoidalari ham korrupsiyaga qarshi kurashish uchun bir xilda ahamiyatga ega emas. Masalan, hokimiyatning taqsimlash prinsipi. Vakolatlarning taqsimlanishi ularning

gorizontal ravishda bir-birlarini nazorat qilishlarini rag'batlantiradi. Masalan, parlament demokratiyasida vakillik hokimiyati hukumatni ishdan bo'shatish vakolatiga ega. Boshqa tomondan, prezidentlik demokratiyasida hokimiyat tarmoqlari yanada funksional ravishda bo'linadi.Shunga qaramay, prezidentlik respublikalarida korrupsiya odatda parlamentdagi kabi yuqori, bu, ehtimol, prezidentga impichment e'lon qilish protsedurasining og'irligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, vakolatlarni hududiy darajaga ko'ra taqsimlash va shu bilan ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarining ko'p qismini mahalliy o'zini o'zi boshqarish darajasiga o'tkazish davlat organlari sonining samarali qisqarishiga olib keladi. Bu hukumatning axborot shaffofligini oshiradi va korrupsiyani kamaytiradi.

Shunga qaramay, maksimal darajada markazsizlashtirishni ta'minlaydigan davlatning federal tuzilishi ko'pincha bir xil faoliyatning turli qirralarini turli darajadagi mansabdor shaxslar tomonidan tartibga solinishiga va binobarin, unitar davlatlarga nisbatan ko'proq korrupsiyaga olib keladi.

3. Saylov tizimi. Demokratikmamlakatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usuli, ularni keyingi saylovlarda hokimiyatdan chetlashtirish hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, saylovchining o'zi tanlagan kishilarning halolligi va javobgarligi darajasi uchun javobgardir. Korrupsiyaga qarshi qurol sifatida saylovlarning yuqori samaradorligiga qaramay, ularning ta'siri juda sust.Bir qator mualliflarning ta'kidlashicha, saylov jarayonidagi kamchiliklar korrupsiya doirasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar saylovlar qonunbuzarliksiz o'tkazilgan bo'lsa ham, ularning o'zisaylovchilarni u yoki bu nomzodga mafkuraviy sabablarga ko'ra ovoz berishni rag'batlantirishi mumkin, bunda uning shaxsan o'zi, bo'ysunuvchilari yoki umuman o'z partiyasi korrupsiyasini e'tiborsiz qoldiradi.Bu amalda tasdiqlangan gipoteza hisoblanadi..

Shuni alohida qayd qilish kerakki, majoritar tizim eng katta individual javobgarlikni ta'minlaydi va bir nechta vakillarni yoki ochiq partiyalar ro'yxati bilan saylanadigan saylovchilar nomzodlarning benuqsonligiga bo'lgan e'tiborini sezilarli darajada oshiradi.

4. Umumiy chora-tadbirlar. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hozirgi kundagi falsafiy paradigmalarni amalga oshirish bo'yicha qo'llaniladigan umumiy chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Korrupsion normalarning konstitutsiyaga xilofligi. Fuqarolarning huquq va burchlariga cheklovlar qo'yadigan har qanday me'yorlar korrupsiyaga olib kelishi mumkin, faqat bundan konstitutsiyaviy erkinliklar va inson huquqlarini tavsiflovchi normalar mustasnodir.

Konstitutsiya shaxslarga emas, balki davlat hokimiyatiga nisbatan cheklovlarni joriy qiladi, bu ham qonunning haddan tashqari oshirilgan talablaridan, ham davlat hokimiyati organlariga o'zboshimchalik vakolatlarini berilishidan institutsional kafolati hisoblanadi.Korrupsiya normalari muqarrar ravishda Konstitutsiyada belgilangan inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadi. Korrupsiyaga qarshi mustaqil ekspertiza doirasida korrupsiya normalarini aniqlash orqali,ularning faoliyatiga chek qo'yish mumkin bo'ladi.

2. Fuqarolarni axborot bilan ta'minlash. Korrupsiyaga qarshi kurashning mazkur umumiy ahamiyatga ega bo'lgan paradigmal uslubifuqarolarga ularning huquqlari va majburiyatlari nimada, uni buzish qanday huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkinligi, sud protsedurasi qanday o'tishi va unda nimalarni hisobga olishini aniq va ravshan tarzda qilib tushuntirish maqsadida qonunlarni tahlil qilish orqali tushuntirishni o'z ichiga oladi. Bularning barchasini bilgan,tushungan fuqarolarpora berishga undagan mansabdor shaxs bilan yuzma-yuz kelganda o'zlarini yanada ishonchli tutishadi.

3. Idoraviy tizimlarning ochiqligi. Idoralararo operatsiyalarning oshkoraligi va tegishli fuqarolik nazorati idoralararo hujjatlarni ommaviy internetda nashr etish va ochiq muhokama qilish orqali amalga oshirilishi mumkin, bu esa korrupsiyaning poydevorini jiddiy ravishda buzishga olib keladi. Biroq, bunday mexanizmlar tijorat sirlarini himoya qilish bo'yicha o'ta qat'iy qoidalar bilan cheklangan yoki ulardan ayrim bo'limlarda foydalanish fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini va mudofaa bo'limlari va tashkilotlarida maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurati bilan bog'liq bo'ladi

4. Mansabdor shaxslarning ijtimoiy ta'minoti. Birinchi darajali tibbiy yordam, ko'chmas mulk sotib olish uchun foizsiz kreditlar, katta miqdordagi pensiya - bularning barchasi davlat sektorida ish haqining oshishi bilan barobardir.Mansabdor shaxskorrupsiyaviy harakatlarga tushib qolsa, bu uning mansabidan ayrilib qolish ehtimolini oshiradi. Paradigman mazmundagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu chora korrupsiyaga darhol ta'sir qilmaydi, ammo vaqt o'tishi bilan byurokratiya sifatini yaxshilaydi.

5. Agent – prinsipi nazariyasi. Asosiy-agent nazariyasi kafolat beruvchida ("asosiy") ijrochilar ("agentlar") ning harakatlari to'g'risida barcha ma'lumotlarga ega bo'lmagan vaziyatni ko'rib chiqadi.

Shuning uchun agent ular bilan shartnoma tuzadi, ular o'zlarini tutishlariga turtki beradigan agentlar uchun (asosan mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun) agentning manfaati uchun qulay shart-sharoitlarni o'z

ichiga oladi. Agentlik modelining asosiy xulosalari - maxsus terminologiyadan foydalanmaslik hisoblanadi.

Ushbu model turli guruhlar ta'sirida bo'lgan elita xatti-harakatlarini o'rganish uchun ham qo'llaniladi. Korrupsiya ushbu guruhlarning manfaatlari bilan saylovchilarning manfaatlari to'qnashuvi sifatida tushuniladi. Bunda millat umuman tanlangan vakillar (agentlar) bilan ijtimoiy shartnoma tuzadigan asosiy shaxsdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, saylovchilar qanchalik ko'p xabardor bo'lsa, vakillarning korrupsiya uchun imkoniyatlari shunchalik kam bo'ladi. O'z navbatida vakillar shaxsiy daromadlarini ko'paytirishga imkon berib, qayta saylanishlarini ta'minlaydigan siyosat yuritishga intilishadi. Korrupsiya uchun imkoniyat yaratadigan yechim bu mudofaa byudjeti xarajatlarini ko'paytirishdir, chunki bu qaror ham siyosat, ham turli guruhlarning iqtisodiy manfaatlari bilan bog'liqligi bilan ajralib turadi.

6.Korrupsiyaga qarshi kurashdagi muammolar. Korrupsiyaga qarshi kurashdagi muammoning mohiyati haqida Jeyms Medison:«Agar odamlarni farishtalar boshqargan bo'lsa, tashqi va ichki hukumat ustidan nazoratga ehtiyoj qolmas edi. Ammo odamlar odamlarni boshqaradigan hukumatni yaratishda asosiy qiyinchilik shundaki, avvalambor, hukmdorlarga boshqariladiganlarni boshqarish imkoniyatini berish kerak; ammo bundan keyin hukmron organlarni o'zlarini nazorat qilishni majburlash kerak »[202],–deb yozgan edi. Korrupsiyaning oldini olishning eng muhim omillaridan biri bu jinoyat qonuni hisoblanadi. Amalda, aksariyat mamlakatlardagi qonunlar fuqarolik erkinliklari va qarama-qarshiliklarini bostirish uchun qonunchilikni tanlab tatbiq etish xavfini yo'q qilish uchun jinoiy javobgarlik deb hisoblanadigan korrupsiya turlarini izohlash uchun etarlicha tor doirani tashkil etadi. Shuning uchun, masalan, rasmiy shaxsga ta'sir o'tkazish niyati bo'lgan taqdirda, sovg'ani pora deb hisoblash mumkin. Agar mansabdor shaxsga prinsipial ravishda sovg'alarni qabul qilish taqiqlanmagan bo'lsa, unda odatda pora faktini isbotlash qiyin. Bundan farqli o'laroq, xodimning mablag'larini o'zlashtirishni maqsad qilgan-qilmaganligidan qat'i nazar, pulni o'g'irlash ko'pincha zarar borligida isbotlangan hisoblanadi.

Yana bir qiyinchilik, ayniqsa ko'pchilik odamlar pora beradigan keng ko'lamli korrupsiya psixologiya va o'yin nazariyasida "mahbuslar dilemmasi" sifatida tanilgan. Bir tomondan, agar hamma pora berishni to'xtatsa, unda ularning barchasi bundan foyda ko'rishadi. Ammo, agar

[202] Федералист: Политические эссе А. Гамильтона, Дж. Мэдисона и Дж. Джея. Федералист № 51 [50].

faqat bitta xususiy shaxs pora olishdan bosh torsa, u holda u o‘zini o‘ta noqulay sharoitga soladi. Va nihoyat, yuqorida aytib o‘tilgan korrupsiya bozorlarining barqarorligi jiddiy muammo tug‘diradi.

2-§. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy taktik usul va strategik yo‘nalishlari

1. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zarurligi. «Qizil imperiya» maqomini olgan SSSR parchalanib ketgandan so‘ng,uning o‘rnida paydo bo‘lgan mustaqil mamlakatlarda hokimiyat uchun sobiq kommunistlar,liberal demokratlar,din mutassadilari,uyushgan jinoyatchilar o‘rtasida kurashlar boshlanib ketdi. Natijada,mamlakatimizda ham uning mustqilligiga,davlat suverinitetiga,fuqarolarning tinch-osuda yashashlariga tahdid soluvchi ko‘pgina noxush voqealar sodir bo‘ldi. Bu voqealarning ortida qanday bo‘lmasin hokimiyatni qo‘lga kiritib, davlat mulkini o‘zining shaxsiy-xususiy mulki qilib olishga harakat qilayotgan«kimsa»lar, ya’ni xalq tili bilan aytganda mafiyalashgan korrupsionerlar turar edi. Demak,ularning asosiy maqsadi – qanday qilib bo‘lmasin hokimiyani egallab olish, uni boshqarish uchun berilgan vakolatlardano‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali katta bitmas-tugalmas boylikka ega bo‘lishdan iborat bo‘lganligi hech kimga sir emas edi. Afsuski,ularning manfur maqsadlari amalga oshmay qoldi. Xalq irodasi bilan uning haq-huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy davlatni amalga oshirish tamoyillariga asoslangan davlat hokimiyati shakllantirildi. Davlatning o‘zi xalqning manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda keng qamrovli islohotlarni boshlab yubordi. Shulardan biri korrupsiyaga qarshi kurashishdan iboratdir.

Korrupsiyaning keng tarqalganligi va uni tag-tomiri bilan yo‘q qilishning ilojini topish qiyinligini ko‘zda tutib, uni –«xalqaro ofat» deb atash mumkin. I.A.Karimov korrupsiyaning paydo bo‘lish sabablari va uning keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi. «Jamiyatda jinoiy “xufiyona iqtisodiyot”ning mavjud bo‘lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo‘g‘inlari va turli darajalari vakillari ham uning yo‘ldan ozdiruvchi ta’siriga tushib qoladi. Korrupsiya vujudga kelib, u eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinoyatchilik va korruppiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdiddir.

Korrupsiyaning mamlakatimizning xavfsizligiga solayotgan tahdidlari quyidagalardan iborat:

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy buyruqbozlik tizimi bilan "xufiyona" iqtisodiyotning manfaatlari ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga ega.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir, degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi. Basharti, iqtisodiyotda jinoiy guruhlar va reketchilar to'dalari - bazm qursa, ko'chalarda esa odamlar qo'rqqanlaridan tasodifiy o'tkinchilardan qochib yursalar, jamiyatdagi barqarorlik va sobitqadamlik haqida gap bo'lishi mumkinmi? Yo'q, albatta.

Uchinchidan, jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan–qudratli markazning kuchli qo'lini qo'msash hissini tug'diradi. O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa, yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi. Axir, jamiyat va davlat uchun yosh avlodning axloqan buzilishi va yuztuban ketishidan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?

*To'rtinchidan,*pul hokimiyatga intiladi, degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo'l bilan topilgan bo'lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas. Jinoyat olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Avvaliga bu ish nopok daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qo'lga kiritiladi. Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi.

Beshinchidan, nopok yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar. Bunday paytda ehtiroslarni junbushga keltirish, olomonni qo'zg'atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo'q. Bunday odamlarning "Faqat bizga yaxshi bo'lsa, ishimiz bitsa – bo'lgani" qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko'rinishidir.

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo'may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himoyachilari va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilaètganidan dalolat beruvchi misollar, jumladan, bizda ham oz emas. Ular bunday xatti-harakatlari bilan insoniyatning adolat va demokratiya kabi olijanob ideallariga naqadar jiddiy zarar etkazayotganlarini, o'z xalqlari vamamlakatlari sha'niga dog' tushirayotganlarini aytib o'tirishning hojati bormikin? Nafsilamrini aytganda, ular o'z xalqlari va mamlakatlarining taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar. Bunday shaxslarning turish-turmushi ketma-ket qilingan jinoiy xatti-harakatlar zanjiridan iboratdir. Avvaliga o'z xalqini aldab kapital to'planadi, keyingi gal – demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro' orttiriladi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir

ko‘rsatishga urinayotgan tashki kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar. Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligani yaxshi anglab yetmog‘i lozim[203].

Korrupsiya mamlakatimizda mavjud,uni inkor qilib bo‘lmaydi,albatta. Shu bilan bir qatorda ba’zi omillar uningasta-sekin o‘sib borishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Korrupsiyaning yashovchanligiga sabab bo‘luvchi omillarga quyidagilar:

- kambag‘allik va qashshoqlikning mavjudligi;
- iqtisodiyotning beqarorligi;
- qarindosh-urug‘chilining tomir ortganligi;
- kadrlarni tanlab olishdagitanish-bilishchilik;
- sud va huquqni muhofaza kiluvchi organlar ustidan nazoratning yetarli darajada emasligi;
- ma’muriy korrupsiya;
- siyosiy korrupsiya;
- so‘z erkinligining yo‘qligi;
- ommaviy axborot vositalarining kuchsizligi va shu kabilar kiradi.

Ana shu omillarning mavjudligidan foydalangan «manfur kimsa»lar,hokimiyat tizimlari tarkibiga suqulib kirib olishva undan boylik to‘plab olish uchun quyidagi harakatlarni:

1) amaldor, huquqni muhofaza qilish, sud, soliq, bojxona, ta’lim, tibbiyot yoki ma’muriy muassasalar, shuningdek, har qanday xususiy korxonaning mansabdor shaxsiga pora berish;

2) mahalliy yoki chet el amaldori va xalqaro tashkilot amaldorini pora berish orqali sotib olish;

3) davlat mansabdor shaxsi tomonidan mulkni talon-taroj qilish, g‘ayriqonuniy o‘zlashtirish yoki undan maqsaddan tashqari foydalanish;

---

[203]Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Унинг ўзи. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б.90–93.

4) shaxs tomonidan shaxsiy boylik orttirish yoki uchinchi shaxsning boyishi maqsadida o‘z obro‘si yoki xizmat mavqeidan foydalanish;

5) korrupsiya harakatlaridan daromad olish;

6) oshna-og‘aynigarchilik yoki urug‘-aymoqchilikni qo‘llab quvvatlash va shu kabilarni sodir etmoqda. Ularning bunday g‘ayri qonuniy xatti-harakatlarini «korrupsion harakatlar» deb atash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Umuman olganda «O‘zbekistonda korrupsiyaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud.

Birinchidan, ye*tarli bo‘lmagan ochiqlik va ma’lumotning yo‘qligi.* Davlat idoralarining yopiqligi sababli ommaviy axborot vositalari ham o‘z vazifalarini to‘liq bajara olmaydilar.

Ikkinchidan, *fuqarolik jamiyati ishtirokining yetishmasligi.* Hukumat idorasi, hattoki bizning agentligimiz hech qachon fuqarolik jamiyati ishtirokisiz korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olmaydi. Buning uchun esa kuchli fuqarolik jamiyati zarur.

Uchinchidan,*jazosiz qolish hissi.* Albatta, qonunchiligimizda poraxo‘rlik uchun jazo choralari ko‘zda tutilgan. Ammo ma’lum vaqt o‘tgach, biz pora olganlarni yana davlat organlarida, qaysidir tashkilotlarda ko‘ramiz. Odamlar bunday jiddiy qonunbuzarlik ham qoralanmaydi va hatto qayerdadir kechiriladi degan fikrga borishi mumkin. Kimdir, demak, menga ham mumkin deb o‘ylaydi, agar qo‘lga tushsam ham, ikki yoki uch yil o‘tirib chiqaman va davom etaman degan xayolga boradi. Bu ham muhim omil »[204].

Globallashuv sharoitida mamlakatimizda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishning eng samaraliyo‘nalishlaridan birini taktik va strategik usul va vositalar tashkil qiladi.

2. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi. *Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi deb mamlakatimizda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy resurslardan samarali foydalanishorqali korrupsiyani batamom yo‘q qilish uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni belgilab olish va uni bajarishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy-amaliy jihatdan tashkil qilish san’atiga aytiladi.*

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasinining samaradorligini oshirish va ularni ilmiy-amaliy jihatdanyanada takomillashtirib borishning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1.Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishishning yaqin va uzoq muddatga mo‘ljallangan modeli ishlab chiqilishi. unda

[204]Бурханов Акмал. Коррупция даражаси — мамлакат тараққиёти ва демократиясининг кўрсаткичи ҳисобланади// https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/05/akmal-burkhanov/

korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institutsional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta'minlab turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi aniq qonunchilikda mustahkamlanishi;qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yichahuquqiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy elementlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va bir-biriga ta'sir qilishmexanizmini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish. Bu strategik jihatdan olib qaraganda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaxlit kompleks tizimning uzviy ishlashini jamiyatda yo'lga qo'yishning samaradorligini ta'minlaydi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida innovatsion yondashuvni samarali qo'llash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berish. Bu O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integratsiyaga erishishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri – jinoyat va jinoyat prsessual qonunchiligini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddalarini mukammal ishlab chiqish hamda korrupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlarni o'rganish, tahlil qilish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chor-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilishda aniq statistika hamda dalillarga asoslangan ma'lumotga tayangan holda ish olib borishni ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishni jamiyatning ijtimoiy sohalarida, xususan, tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilishsohalarida yanada kuchaytirish uchun korrupsiya bilan bog'liq ayrim xatti-harakatlarni barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarda ta'minlash hamda xalqaro tajribani o'rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlarni qonunchilikda mustahkamlab borish. Bu esa mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturini ijrosini jamiyatda ta'minlanishi va bu borada tizimli monitoring qilish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmning islohotlar talablari darajasida ishlab chiqish.Bu davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashishqoidalariga rioya qilish darajasining talab darajasidan pastligini oshkor qilish, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda ta'minlanishi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish natijasidajamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatishga xizmat qiladi.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish. Bu fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish masalasiga nisbatan daxldorlik hissini,mas'uliyatini oshirishga,ular tomonidan bu illatga qarshi qilinayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritishga ishonchli dalil bo'lishiga imkon yaratib beradi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish. Bu fuqarolarning korrupsiyaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatini yaratish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish,korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning izchil tizimini yaratish va hayotga tadbiq qilishning optimal taktik variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish. Bu korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish va qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va adolatli baholashga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi[205].

O'zbekiston davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi strategik ahamiyatga molik bo'lgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib:

«aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash»[206] belgilangan.

Bu strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlardunyo davlatlarida jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan korrupsiya xavfiga qarshi kurashishni ta'minlashga qaratilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar:

---

[205] Умаров У.А. Коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш –жамият тараққиётини кафолати. Тошкент –ЎзННТМА – 2019.

[206] Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида» қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.01.2019 й., 03/19/516/2484-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон, 2019 й., 2-сон, 47-модда.

•Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan 1996 - yil 29 - mart kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerika konvensiyasi" ;

•Yevropa ittifoqi Kengashi tomonidan 1997 - yil 21 - noyabrda evropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki yevro ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi;

•Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi ;

•Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 - yil 27 - yanvarda qabul qilingan "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi ;

•Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 - yil 4 - noyabrda qabul qilingan "Korrupsiyauchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risida"gi Konvensiyasi;

•2003 - yil 12 - iyuldagi Afrika Ittifoqining "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Konvensiyasi;

•BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash" Konvensiyasi;

•MDH doirasida esa unga a'zo davlatlar tomonidan 2003 yil15 noyabrdagi qarorga muvofiq, "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi ham korrupsiyani jamiyat rivojlanishiga qarshi qaratilgan illat sifatida uning qanchalik xatarliekanliginiko'rsatadi.

•Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloqiy kodeksi (Nyu-York, 1996 - yil 12 - dekabr');

•Korrupsiya bo'yicha jinoiy javobgarlik konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar');

•Korrupsiya bo'yicha fuqaroviy-huquqiy javobgarlik konvensiyasi (Strasburg, 1999 - yil 4 - noyabr') va mazkur Konvensiyaga qo'shimcha protokol (Strasburg, 2003 - yil 15 - may);

•Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003 - yil 31 -oktyabr) va boshqalar qabul qilingan qarorlariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Shu bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003 - yil 21 - noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004 - yildan boshlab "9 - dekabr – "Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida nishonlanmoqda. Ushbu kunda BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiya"ni tan olgan, a'zosi hisoblangan

davlatlarda turli tadbirlar va aksiyalar uyushtiriladi, plakat va varaqalar chop etiladi, shuningdek ommaviy axborot vositalarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasidagi axborotlar faollashadi.

O‘zbekistonning 2008 yili BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga, 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga qo‘shilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini yaratishda muhim qadam bo‘ldi.

Shu tariqa,xalqaro-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik asosida, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi.

3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi.*O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi deb korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan aniq vositalar turkumidan iborat bo‘lgan chora-tadbirlar tizimiga aytiladi.*

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi va taktikasi o‘rtasidagi farqfaoliyat ko‘lami va faoliyat ko‘rsatadigan vaqt oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Bunda noto‘g‘ri tanlangan taktika - bu yo‘qolgan kun, notug‘ri tanlangan strategiya esa - bu yo‘qolgan yil demakdir.

Mamlkatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi korrupsiyaga qarshiharakat usuli sifatida, asosiy maqsadga bevosita erishish uchun mavjud resurslar etarli bo‘lmagan sharoitda zarur bo‘lib qolishi bilan xarakterlanadi.Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasiningmaqsadi - asosiy maqsad-korrupsiyani o‘q tomiri bilan yo‘q qilishgaerishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Taktikalar esa strategiyani amalga oshirish vositasi bo‘lib,u strategiyaning asosiy maqsadiga bo‘ysunadi.Strategiya asosiy maqsadga oraliq taktik vazifalarni hal qilish orqali erishadi .

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishstrategiyasi va taktikasiniikki darajali model: yuqori, mavhum daraja strategiya, pastroq, aniq taktikaga ajrarish sifatidan tushuntirib berish mumkin. Bunday modelda har qanday darajadagi strategiyani ustunroq strategiyaga nisbatan taktika deb hisoblash mumkin. Shuningdek, taktikani quyi darajadagi taktikaga nisbatan strategiya deb hisoblash mumkin. Ko‘p qavatli uyni tasavvur qiling. Har bir qavat pastki qavatlar uchun strategiya va shu bilan birga yuqori qavatlar uchun taktikadir.

Bunda shuni unutmaslik kerakki, taktika - bu harakatlar ssenariysi, unda siz amalga oshirilganda natija qanday bo‘lishini aniq bilasiz. Sizda qancha taktika bo‘lsa, shuncha ko‘p qirrali strategiyalarni yaratishingiz mumkin bo‘ladi.

Muayyan strategiyani amalga oshirish - bu ma'lum bir vaqt oralig'ida - prognozni amalga oshirish boshlanishi bilan prognozning asosli yoki asosli emasligini tushunishga erishish o'rtasidagi harakatlar tartibi aniqlab olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Agar bashorat amalga oshgan bo'lsa, taktika boshlanadi. Agar u asosli bo'lmasa, yangi kirishlar asosida yangi strategiya yaratiladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasining asosiy prinsiplarini«Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»giqonunning4-moddasi «Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari»: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi[207] tashkil qiladi.

4. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash taktikasini amalga oshirishuvchi davlat organlari va ularning vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasining 2017 - yil 3 - yanvar', O'RQ-419-sonli «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida» qonunining 7-moddasi" Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatnibevosita amalga oshiruvchi davlat organlari" da belgilanganligi bo'yicha:O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati; O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti; O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi,shuningdek,qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Mazkur organlarning taktik vazifalari qonunda ko'rsatib berilgan. Masalan,**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlariga:**

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek

[207] Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида» қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.01.2019 й., 03/19/516/2484-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон, 2019 й., 2-сон, 47-модда.

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlariga:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlariga:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi deb,qat’iy ravishda belgilab qo‘yilgan.

2020 - yil 29 - iyundaO‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolangan” O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoniga ko‘raO‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligitashkil etildi. Unga ko‘ra Agentlik:

•**korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish**, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi;

•**o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari** asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi** va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir;

•O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlikning**asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari** etib quyidagilar belgilangan:

- mamlakatda**korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni** ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda **korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash**;

- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda **korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish**;

- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid

axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali **jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish**;

- vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklardа**korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish**va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, **ularning mazkur sohadagi faoliyati bo‘yicha reytingini** tuzish;

- **normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi** samaradorligini ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg‘or xorijiy amaliyotni joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- **davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi** joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o‘z vaqtida ta’sir choralari ko‘rilishini ta’minlash;

- davlat xizmatiga halollik standarti **(“halollik vaksinasi”)** va **manfaatlar to‘qnashuvini hal etish** standartlarini joriy etishda ko‘maklashish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- **byudjet mablag‘lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish** va **davlat xaridlari** sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida **xalqaro hamkorlikni rivojlantirish** hamda mamlakatning imijini mustahkamlash va uning **xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish** bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- **korrupsiyaning holati, tendensiyalari** va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi **yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni** tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

- **korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash**, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish.

Zero,bu strategik va taktik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar bajarilmas ekan,korrupsiya iqtisodiyot,siyosat,madaniyat va sport,ta’lim va ilm-fan,ijtimoiy soha,sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati,jamiyat tashkilotlari,nodavlat notijorat tashkilotlari,ommaviy axborot vositalari va televideniya,siyosiy partiyalar va boshqalarda saqlanib qolishiga,zaruriyat bo‘lsa kuchaytirilib olib borilayotgan islohotlarga to‘sqinlik qilishi,davlatning konstitutsion asosini yo‘q qilishi,boshqaruv apparatini bo‘lib tashlashi,hukumat obro‘sini yo‘q qilishi,byudjetni asossiz qayta taqsimlanishi,jamiyatni intellektual potensialdan ayirishi,jamiyatni beqarorlashtirishi,jamiyatni jinoiylashtirishi,inson huquqlarini paymon qilishi;pirovardida jamiyatni ma’naviy tanazzulga duchor qilishi mumkinligi bilan xavfli salbiy ijtimoiy fenomen hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Sobiq SSSRning barcha respublikalari, garchi kurash olib borilayotgani haqida ma’lum qilsa-da, korrupsiyadan jabr ko‘rmoqda. Bu haqdahar yili «The Risk Advisory Group» tashkiloti o‘zining «Korrupsion chaqiriqlar » nomli hisobotida«Korrupsion chaqiriqlar darajasi», «Korrupsiya tahdidi» va «Korrupsiya haqida axborotning etishmasligi» ko‘rsatgichlari orqali:“yorqin(oq) rangli – korrupsiya darajasi eng kam bo‘lgan davlatlar; to‘q sariq(kulrang) rangli – korrupsiya darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar; qizil rangli – korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarni belgilash orqali,qaysi davlatda korrupsiya darajasining past yoki yuqori ekanligini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Bu ma’lumotlar korrupsiyaga qarshi kurashda juda ham asqotadi.

Qisqacha xulosalar

1. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalardeb korrupsiyaga qarshi kurash haqidagi g‘oyalar,qarashlar va tushunchalarning yetakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar,muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish

modellari,tadqiqot usullari, ularni amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytiladi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalarni:

a) tarixiy makon va zamonda joylashgan o‘rniga qarab – qadimgi,o‘rta asr,yangi va eng yangi davrdagi;

b) jazolarni qo‘llash usul va vositalariga qarab – qilmishiga yarasha qonunlarda belgilangan tartibda jazolash;

v) sub’ektlari bo‘yicha – individual, jamoaviy;

g) axloqiy-ma’naviy ta’siriga qarab – jamoa oldida uyaltirish, tadbirlariga qo‘shmay izza qilish va boshqa shu kabilarga ajratish mumkin.

3.Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha yaratilgan falsafiy paradigmaning mantig‘ini: har qanday ko‘rinishdagi korrupsiyani yo‘q qilishga urinishlar: a) rag‘batlantiruvchi; b) shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undovchi imkoniyatlarni cheklash; v) imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo‘q qilishgaasoslangan bo‘lishi kerakligi tashkil qiladi.

4. Korrupsiyaning yashovchanligiga sabab bo‘luvchi omillarga: kambag‘allik va qashshoqlikning mavjudligi;iqtisodiyotning beqarorligi; qarindosh-urug‘chilining tomir ortganligi;kadrlarni tanlab olishdagitanish-bilishchilik;sud va huquqni muhofaza kiluvchi organlar ustidan nazoratning etarli darajada emasligi;ma’muriy korrupsiya;siyosiy korrupsiya;so‘z erkinligining yo‘qligi;ommaviy axborot vositalarining kuchsizligi va shu kabilar kiradi.

5.Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi deb mamlakatimizda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy resurslardan samarali foydalanishorqali korrupsiyani batamom yo‘q qilish uchun o‘zoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni belgilab olish va uni bajarishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy-amaliy jihatdan tashkil qilish san’atiga aytiladi.

6.Korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi deb korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan aniq vositalar turkumidan iborat bo‘lgan chora-tadbirlar tizimiga aytiladi.

7. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi va taktikasi o‘rtasidagi farq faoliyat ko‘lami va faoliyat ko‘rsatadigan vaqt oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Bunda noto‘g‘ri tanlangan taktika - bu yo‘qolgan kun, notug‘ri tanlangan strategiya esa - bu yo‘qolgan yil demakdir.

Tayanch tushunchalar

Korrupsiya, paradigma, Singapur tajribasi, Shvetsiya tajribasi, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va taktikasi,halollik vaksinasi, axborot olishning ochiqligi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korrupsiyaga qarshi kurash zaruriyatmi yoki tasodifmi?
2. Korrupsiyaga qarshi kurash paradigmalarini sanab bering?
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Singapur tajribasining mazmuni nimalardan iborat?
4. BMT korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.?
5.O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasideb nimaga aytiladi?
6.O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash taktikasiqanday chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi?
7. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash qaysi tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan?
8.*«... afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldi olinmasa,haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi».Shuninguchun «Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari,eng yaxshi mutaxassislari jalb qilinmas ekan,jamiyatimizning barcha a'zolari,ta'bir joiz bo'lsa,«halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan,o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"*[208], – bo'ladi degan fikrgao'z munosabatingizni bildiring?

[208] ***Мирзиёев Ш.М.*** Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// *Унинг ўзи.* Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.42.

3-MODUL

DINSHUNOSLIK
XI BOB. DIN MADANIYAT FENOMENI

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida din madaniyatning fenomeni sifatida doimo muhim o‘rin tutib kelgan. Din jamiyatdagi mafkura sifatida odamlarning bilimi, dunyoqarashi, e’tiqodining asosini tashkil qilib, jamiyat hayotida odamlarni birlashtirgan, uyushtirgan, ma’lum bir maqsadga yo‘naltirgan. Din madaniyat fenomeni sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga iqtisodga, siyosatga, huquqqa, moddiy va ma’naviy madaniyatga, ma’naviyatga, san’atga, milliy mentalitetga, urf-odat va an’analarga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. Dinning madaniyat fenomeni sifatidagi mohiyati turli sivilizatsiyalarning shakllanishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatib, muayyan diniy ta’limot asosida inson va insoniyat jamiyati hayotida moddiy va ma’naviy madaniyat, milliy mentalitet va psixologiya shakllangan.

1-§. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik tushunchalarining mohiyati

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatidagi mohiyati. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan siyosatda din omiliga katta e’tibor qaratilib, dinning, xususan islom dinining xalqimiz tarixi, ma’naviyati, madaniyatida tutgan o‘rni masalasiga, milliy g‘oyamizdagi dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasining mamlakatimizda millatlararo totuvlik va tinchlik barqarorlikni ta’minlashda tutgan o‘rni masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish biz uchun o‘ta dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Keyingi vaqtda mamlakatimizda shu yo‘nalishda katta ishlar amalga oshirilayotgani, tabarruk qadamjolar obod qilinib, yangi-yangi ilmiy, madaniy va diniy markazlar, ta’lim maskanlari tashkil etilayotgani barchangizga yaxshi ma’lum[209].

Bugungi kunda jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonida dinlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning ba’zi

[209] ***Мирзиёев Ш.М.*** Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 375-376 бетлар.

mintaqalarida diniy asosdagi kelishmovchiliklarning vujudga kelishi, din shiori ostida ekstremistik, fundamentalistik g'oyalarning ilgari surilishi, missionerlik va prozelitizm harakatlarining paydo bo'lib targ'ibotchilik faoliyati olib borilishi, dinlar o'rtasidagi to'qnashuvlar to'g'risidagi turli qarashlarning ilgari surilishi dinshunoslik faniga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda. Ko'pmillatli hamda ko'pkonfessiyali O'zbekiston Respublikasida din va bag'rikenglik masalasi mamlakatda tinchlik barqarorlik, millatlararo totuvlik hamda dinlararo hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dinshunoslik fani milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib beradi, dinga nisbatan to'g'ri, ilmiy yondashuvni shakllantirib, dinning insonparvarlik va bag'rikenglik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Dinshunoslik fani din, uning mohiyati, turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, ijtimoiy mohiyati haqidagi dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

2. Din va dinshunoslik tushunchalarining mazmuni va mohiyati. Din so'zi arab tilidan olingan so'z bo'lib, *"ishonch, ishonmoq, kimgadir bo'ysunmoq, bo'yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo'lmoq, e'tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq"* degan ma'nolarni bildiradi. Din insonning dunyodagi barcha narsani yaratgan ilohiy qudratga bo'lgan ishonchini o'zida ifodalab, insondagi ma'naviy e'tiqod va amalni o'zida aks ettiradi. *E'tiqod* so'zi ham arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, *chuqur va mustahkam ishonch* degan ma'noni bildiradi. Diniy e'tiqod so'zi mustahkam, chuqur ishonch, maslak va ishonishni o'zida ifodalaydi. Insonning e'tiqodi din bo'lib hisoblanishi uchun u uch asosiy xususiyatga ega bo'lishi lozim bo'lib, bulardan birinchisi, barcha narsaning yaratuvchisi bo'lgan iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligidir. Jahondagi har bir dinda e'tiqod ob'yekti bo'lgan Xudo mavjud bo'ladi. Ikkinchidan,Xudo bilan insonlarni bog'lab turadigan ibodat va marosimlar majmuasi ishlab chiqilib, dinga e'tiqodning amal qilishi shu ibodat va marosimlar bilan belgilanadi. Uchinchidan esa e'tiqodchilarni o'zida jamlaydigan diniy tashkilotlar mavjud bo'ladi. Diniy tashkilot – bu bir dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning jamoaviy ravishda o'z diniy rasm–rusum, ibodat marosimlarini o'tkazadigan, diniy ta'lim oladigan muassasalaridir.

Dinshunoslik dinning mohiyati, ta'limoti, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganib insonda dinlar haqida ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga yordam beradi. Dinshunoslik o'zining o'rganish ob'yektiga ega bo'lib, u dinning paydo bo'lishi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, diniy

e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi.

3. Dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari, milliy g'oya, axloqshunoslik, nafosatshunoslik, arxeologiya, etnografiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bevosita bog'liqdir. Dinshunoslikni ilmiy asosda o'rganishda uning din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi, din falsafasi kabi sohalariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizmga iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri sifatida e'tiborning qaratilishi din bilan bevosita bog'liq bo'lgan ziyorat turizmining rivojlantirilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda O'zbekistonda odamlarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan me'moriy obidalar – masjid va diniy ta'lim muassasalarining yangilari barpo etilmoqda, eskilari esa ta'mirlanmoqda

Dinning ko'zga ko'rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o'rganuvchi ilm sohasi *"Din fenomenologiyasi"* deyiladi. Din fenomenologiyasi turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi. Din sotsiologiyasining asosiy mavzusi, jamiyatning asosiy shakllari va dinning tashqi ko'rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilishi va qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Din sotsiologiyasi, jamiyat va diniy ilmlarning taraqqiyotini o'zaro bog'liqlikda o'rganadi. Dinshunoslikning yana bir sohasi, din psixologiyasi insonga oid bo'lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. Din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Din psixologiyasi diniy tajribadan boshlagan holda inson turlarini atroflicha o'rganib, buyuk diniy shaxsiyatlarning ichki hayotlari bilan qiziqqan holda ularning ruhiy holatlari bilan shug'ullanadi. Insonning diniy his-tuyg'usi va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusi bo'lib hisoblanadi. Din psixologiyasi insonda din tuyg'usi va hissiyoti qanday kelib chiqqanligi va shakllanganligini ilmiy jihatdan o'rganadi.

4. Din falsafasi tushunchasi va uning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o'rni. Dinshunoslik fani o'rganadigan asosiy sohalardan yana biri din falsafasi bo'lib, u *"din"*ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Din falsafasi dinlarning kelib chiqishi va taraqqiy etib borishini o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda, tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida ko'rib o'tib, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Din falsafasida eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog'liq

dalillar tanqid yoki tahlil qilinadi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi ko‘rib o‘tiladi. Din falsafasi din to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilganda mantiqiy shakl va qonunlardan foydalanadi. Mantiqiy tafakkur din to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilishda hukm va xulosa chiqarish usullaridan keng foydalanadi. Din falsafasi boshqa fanlar tomonidan chiqarilgan xulosa va erishilgan natijalardan keng miqyosda foydalangan holda bu natijalarga tayanib yana bir qancha hukmlarni ham chiqarishi mumkin. Din falsafasi, bundan tashqari dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo‘lgan bog‘liqligini ham o‘rganadi. Din falsafasi o‘rganadigan mavzularning ichida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg‘ambarlik va vahiy kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Din falsafasi o‘rganadigan sohalarga bundan tashqari ilm–imon, ilm–din, din–madaniyat, din–san’at, din–adabiyot, diniy tajriba, diniy his-tuyg‘u kabilar ham kiritiladi. Alloh tomonidan olamning va odamning yaratilishi, inson hayotining ma’nosi va mazmuni, inson hayotining o‘tkinchiligi, foniy va boqiy dunyo haqidagi qarashlar, savob va gunoh to‘g‘risidagi yondashuvlar din falsafasi o‘rganadigan sohalar bo‘lib hisoblanadi.

5. Teologiya tushunchasi va uning o‘rganish sohasi. Insoniyat tarixida diniy bilimlarni o‘rganuvchi soha – teologiya vujudga kelib, teologiya ilohiyot, xudo to‘g‘risidagi ta’limot sifatida xudo, uning sifatlari, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslash, himoya qilish, muayyan din tomonidan belgilangan aqidalarning haqiqiyligini isbotlash, diniy axloq, dindor va ruhoniylarning hayot tarzi va faoliyati me’yorlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Teologiya muqaddas yozuvlar va muqaddas rivoyatlarning ilohiy ekanligini, ibodatxonalarning ilohiy mohiyatga egaligini isbotlash, shuningdek ibodatni bajarish bilan bog‘liq bir qator amaliy bilimlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Teologiya so‘zi yunon tilida *theos*-xudo, *logos* - ta’limot, degan ma’noni bildirib, ilohiyotning barcha dinlar doirasida yaratilgan tizimlari dunyoni yaratgan va uni inson bilolmaydigan qonunlar orqali boshqaradigan xudoni tan olishga asoslanadi. Ilohiyot tizimi deganda diniy ta’limot va sig‘inishlardagi har xil tomonlarni bayon etadigan turli ilohiyotga hos bilimlar yig‘indisi tushuniladi. Masalan xristianlik rasmiy ilohiyotining asosiy falsafiy manbaini Platon, Aristotel va neoplatonizm ta’limotlari tashkil etsa, pravoslaviye, protestantizm, katolitizm yo‘nalishlaridan har biri ilohiyot masalasida o‘ziga xos xususiyat va yondashuvlarga egadir.

6. Teizm tushunchasining mazmuni va mohiyati. Olamning xudo tomonidan yaratilganligini tan oluvchi diniy-falsafiy ta'limot teizm deb nomlanib, u iudaizm, xristianlik va islom dinlari uchun xosdir. Teizm ta'limotiga ko'ra xudo olamdan tashqarida turib, olamni o'z irodasiga ko'ra yaratgan va dunyodagi barcha narsalar uning xohish-irodasiga ko'ra yuz beradi. Xristian dinida teologiya diniy ta'limotning ko'plab sohalarini qamrab olgan bo'lib, ruhoniy faoliyatining amaliy masalalarini yoritib beruvchi pastir ilohiyoti, ibodat nazariyasi bo'lib hisoblanuvchi liturgika, targ'ibotchilik faoliyatining nazariy va amaliy masalalarini o'z ichiga olgan gomiletika, cherkov huquqi nazariyasi bo'lib hisoblanuvchi kanonika kabilar mavjuddir. Islom dinida ham ilohiyotning shakllanishi davrida xilma-xil ilohiyot oqimlari – jabariylar, qadariylar, mu'taziliylar, murji'iylar va boshqalar vujudga kelgan. Islom dinida ilmu kalom, ilmu hikmat, ilmu rivoyat, ilmu tavhid, aqida ilmi kabi bir qator ilm sohalari mavjud bo'lib, kalom falsafasi, tasavvuf falsafasi kabi diniy falsafiy oqimlar paydo bo'lib takomillashib borgan. Kalom falsafasi asosida islom ilohiyotining asoslari ishlab chiqilgan.

7. Teosofiya tushunchasi va uning din falsafasida tutgan o'rni. Diniy falsafiy ta'limotlardan biri teosofiya bo'lib, teosofiya yunon tilida *theos* – Xudo va *sophia* – donishmandlik, ya'ni xudoni bilish degan ma'noni bildiradi. Teosofiya ta'limotiga ko'ra barcha tirik mavjudotlarning hayoti ularning tanasini boshqarib turuvchi ilohiy jon, ruhning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, inson o'zining yuksak zakovati yordamida aslida o'zining ilohiy jon ekanligini anglab etadi. Xudoning tabiati bilan inson jonining tabiati aslida bir xil bo'lib, Xudo o'zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo'lgan eng kichik zarradan tortib eng katta tirik mavjudotning ichida alohida mavjud bo'la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo'lgan Oliy Ruh sifatida e'tirof etiladi. Jon esa Xudo quvvatining ajralmas bo'lagi hisoblangan ruh sifatida ko'rib o'tiladi. Borliq alohida ruhning mavjud emasligiga qarab tirik yoki o'lik, jonli yoki jonsiz mavjudotlarga bo'linadi. Teosofiya ilmiga asosan, Xudo – yagona mutlaq manba bo'lib uning tabiati uch turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bular - butun borliq Xudoning ichki va tashqi quvvatidan tashkil topgan bo'lib, butun olam ana shu ikki quvvatdan tarkib topgan ikki olamga, ruhiy va moddiy olamga bo'linadi, Xudoning ichki quvvati oliy ruhiy quvvat, tashqi quvvati esa quyi moddiy quvvat bo'lib hisoblanadi, degan yondashuvlardan iboratdir. Ushbu ta'limotga asosan ruhiy quvvat moddiy quvvatdan ustun bo'lib, uni boshqarib turadi. Ruhning o'z xohishi bilan ruhiy olamda yoki moddiy olamda yashashi mumkinligi e'tirof etiladi. Ruhlarning moddiy olamni

boshqarish faoliyati aralash quvvat, ya'ni ruhning moddiy hayoti bo'lib hisoblanadi. Ruhning moddiy olamdagi, bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib rivojlanish faoliyati ruhning evolyutsiyasi bo'lib hisoblanadi. Inson tirik mavjudotlar ichida ong, tafakkurga ega mavjudot bo'lganligi uchun u ruh va moddaning bir-biridan farqini anglab etadi. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi yagona xislati o'zining ruh ekanini anglab yetishi va hayotda ana shu ilmi asosida yashay olish qobiliyatiga egaligidir. Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan turli diniy-falsafiy ta'limotlarda ruh va tananing bir-biriga munosabati va farqli jihatlari o'z davridagi sharoitdan kelib chiqib o'rganilgan. Natijada teosofiya rivojlantirilgan.

Teosofiya mistik intuitsiya va vahiylar yordamida inson bevosita xudoni anglab etishi mumkin deb hisoblaydi. Butun olamni qamrab oluvchi, barcha narsalarning ilohiy mohiyati haqidagi tasavvur teosofiyaning nazariy asosini tashkil etadi. Rus dinslıunos faylasufi V. Solovyov teosofiyani ratsional ya'ni aqliy va empirik ya'ni tajribaviy bilimlarning mistika bilan sintezi deb hisoblaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, teosoflar jonning ko'chib yurishini e'tirof etishgan. Ular umuminsoniy birodarlik, barcha dinlarga yo'l qo'yishlik, ijtimoiy-xayoliy g'oyalarni ham targ'ib qilib kelishgan. Ularning fikricha har bir dinda ilohiy mohiyat bo'lib, barcha dinlar insonning ilohiy tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Xudojo'ylik tushunchasining mazmuni va mohiyati. Xudo va din yo'lidan chiqmaydigan va Xudoga ishonadigan kishi xudojo'y deyiladi. Xudojo'ylik va dindorlik inson zimmasiga dinga e'tiqod natijasida muhokama yuritmasdan bajarilishi lozim bo'lgan ibodat, diniy talab va vazifalarni yuklaydi. SHuning uchun xudojo'ylık din yo'lidan chiqmasdan uning asosiy talablarini bajarishni o'zida ifodalaydi. Ulamolarning fikriga ko'ra din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlar bo'lib, har bir diniy ta'limotda dindorlar bajarishi zarur bo'lgan talablar ishlab chiqilgandir. Agar islom diniga e'tiqod qiladigan xudojo'y dindorlar amal qilishi kerak bo'lgan asosiy talablar ko'rib o'tilsa, islom ta'limotining asosini imon, islom va ehson talablari tashkil etadi. Islom dinidagi imon talablari 7 aqidaga asoslanib, bular Allohga, farishtalarga, payg'ambarlarga, muqaddas kitoblarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va o'lgandan keyin tirilishga ishonishni tashkil qiladi. Islom dinida har bir dindor-xudojo'y 5 ta diniy marosim talablari, islomning ustuni bo'lib hisoblangan Kalimai shahodatni bilishi, namoz o'qishi, ro'za tutishi, zakot berishi va haj qilishi zarurligi belgilangan. Ehson talablari

esa har bir dindor-xudojo‘y musulmondan imon va islom talablarini sidqidildan bajarishni talab qiladi. Huddi shunday diniy ta‘limotlar buddaviylik, xristianlik va boshqa dinlarda ham mavjuddir.

Insonda diniy e’tiqodning shakllanishi diniy tarbiyaning olib borilishi, uning mazmuni va ta’sirchanligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Diniy talablar har bir shaxsdan qat’iylik, irodalilik, sabr-toqatlilik, chidamlilik va haqiqiy fidoyilikni, dindorga xos bo‘lgan e’tiqodga amal qilishni taqozo etadi. Dunyodagi barcha dinlardagi talab va ko‘rsatmalarning mohiyati insonni savobli ishlarga da’vat etadi, uni o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, yaxshi ishlar, savobli amallarni amalga oshirishga da’vat etadi. Din eng avvalo islom dini o‘zining qadriyatlari, qonunlari va talablari bilan insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Dindagi taqvodorlik inson uchun yomonliklardan, gunoh ishlardan saqlanishni bildiradi. Dindagi savob tushunchasi atrofdagilarga, jamiyatga yaxshilik qilishni o‘zida ifodalaydi. Din insonni halol mehnatga da’vat etadi, odamlarni bir-biriga mehr-shafqat, sahovat, madad, xayr-ehson, mehr-muruvvatli bo‘lishga chaqiradi.

Shunday qilib, din jamiyat xayotida umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq–atvor qoidalariga aylantirish, odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘maklashish, odamlarda ishonch hissini mustahkamlash, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan–avlodga yetkazishga yordam berish, madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatish masalasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat hayotida dindorlik o‘z dunyoqarashida, iymon-e’tiqodida, psixologiyasida, turmush tarzida, ahloq-odobida, kundalik hayot kechirishida, oilada, mehnat jamoalarida, jamoatchilik orasida, maishiy turmushda, o‘zining barcha xatti-harakatlarida to‘la ravishda diniy talablar, tartib-qoidalarga amal qilishni anglatadi.

2-§. Dinshunoslik va uning tushunchalari. Dinning asosiy elementlari.

Dinshunoslikda din, diniylik, dindorlik, diniy ong, diniy dunyoqarash, diniy ruhiyat, diniy his-tuyg‘u, diniy kayfiyat, diniy g‘oya, diniy mafkura, diniy faoliyat, diniy munosabat kabi bir qator tushunchalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda jamiyat hayotida mavjud bo‘ladi. Ushbu tushunchalar strukturaning elementlari sifatida tizimli ravishda ko‘rib o‘tilganda quyidagi bog‘liqlik va aloqadorlik jarayoni vujudga keladi.

Din murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, dinning tarkibiga diniy ong, diniy marosim va diniy tashkilotlar kiradi.

boshqarish faoliyati aralash quvvat, ya'ni ruhning moddiy hayoti bo'lib hisoblanadi. Ruhning moddiy olamdagi, bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib rivojlanish faoliyati ruhning evolyutsiyasi bo'lib hisoblanadi. Inson tirik mavjudotlar ichida ong, tafakkurga ega mavjudot bo'lganligi uchun u ruh va moddaning bir-biridan farqini anglab etadi. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi yagona xislati o'zining ruh ekanini anglab yetishi va hayotda ana shu ilmi asosida yashay olish qobiliyatiga egaligidir. Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan turli diniy-falsafiy ta'limotlarda ruh va tananing bir-biriga munosabati va farqli jihatlari o'z davridagi sharoitdan kelib chiqib o'rganilgan. Natijada teosofiya rivojlantirilgan.

Teosofiya mistik intuitsiya va vahiylar yordamida inson bevosita xudoni anglab etishi mumkin deb hisoblaydi. Butun olamni qamrab oluvchi, barcha narsalarning ilohiy mohiyati haqidagi tasavvur teosofiyaning nazariy asosini tashkil etadi. Rus dinshunos faylasufi V. Solovyov teosofiyani ratsional ya'ni aqliy va empirik ya'ni tajribaviy bilimlarning mistika bilan sintezi deb hisoblaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, teosoflar jonning ko'chib yurishini e'tirof etishgan. Ular umuminsoniy birodarlik, barcha dinlarga yo'l qo'yishlik, ijtimoiy-xayoliy g'oyalarni ham targ'ib qilib kelishgan. Ularning fikricha har bir dinda ilohiy mohiyat bo'lib, barcha dinlar insonning ilohiy tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Xudojo'ylik tushunchasining mazmuni va mohiyati. Xudo va din yo'lidan chiqmaydigan va Xudoga ishonadigan kishi xudojo'y deyiladi. Xudojo'ylik va dindorlik inson zimmasiga dinga e'tiqod natijasida muhokama yuritmasdan bajarilishi lozim bo'lgan ibodat, diniy talab va vazifalarni yuklaydi. SHuning uchun xudojo'ylik din yo'lidan chiqmasdan uning asosiy talablarini bajarishni o'zida ifodalaydi. Ulamolarning fikriga ko'ra din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlar bo'lib, har bir diniy ta'limotda dindorlar bajarishi zarur bo'lgan talablar ishlab chiqilgandir. Agar islom diniga e'tiqod qiladigan xudojo'y dindorlar amal qilishi kerak bo'lgan asosiy talablar ko'rib o'tilsa, islom ta'limotining asosini imon, islom va ehson talablari tashkil etadi. Islom dinidagi imon talablari 7 aqidaga asoslanib, bular Allohga, farishtalarga, payg'ambarlarga, muqaddas kitoblarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va o'lgandan keyin tirilishga ishonishni tashkil qiladi. Islom dinida har bir dindor-xudojo'y 5 ta diniy marosim talablari, islomning ustuni bo'lib hisoblangan Kalimai shahodatni bilishi, namoz o'qishi, ro'za tutishi, zakot berishi va haj qilishi zarurligi belgilangan. Ehson talablari

esa har bir dindor-xudojo‘y musulmondan imon va islom talablarini sidqidildan bajarishni talab qiladi. Huddi shunday diniy ta’limotlar buddaviylik, xristianlik va boshqa dinlarda ham mavjuddir.

Insonda diniy e’tiqodning shakllanishi diniy tarbiyaning olib borilishi, uning mazmuni va ta’sirchanligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Diniy talablar har bir shaxsdan qat’iylik, irodalilik, sabr-toqatlilik, chidamlilik va haqiqiy fidoyilikni, dindorga xos bo‘lgan e’tiqodga amal qilishni taqozo etadi. Dunyodagi barcha dinlardagi talab va ko‘rsatmalarning mohiyati insonni savobli ishlarga da’vat etadi, uni o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, yaxshi ishlar, savobli amallarni amalga oshirishga da’vat etadi. Din eng avvalo islom dini o‘zining qadriyatlari, qonunlari va talablari bilan insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Dindagi taqvodorlik inson uchun yomonliklardan, gunoh ishlardan saqlanishni bildiradi. Dindagi savob tushunchasi atrofdagilarga, jamiyatga yaxshilik qilishni o‘zida ifodalaydi. Din insonni halol mehnatga da’vat etadi, odamlarni bir-biriga mehr-shafqat, sahovat, madad, xayr-ehson, mehr-murnvvatli bo‘lishga chaqiradi.

Shunday qilib, din jamiyat xayotida umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq–atvor qoidalariga aylantirish, odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘maklashish, odamlarda ishonch hissini mustahkamlash, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan–avlodga yetkazishga yordam berish, madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatish masalasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat hayotida dindorlik o‘z dunyoqarashida, iymon-e’tiqodida, psixologiyasida, turmush tarzida, ahloq-odobida, kundalik hayot kechirishida, oilada, mehnat jamoalarida, jamoatchilik orasida, maishiy turmushda, o‘zining barcha xatti-harakatlarida to‘la ravishda diniy talablar, tartib-qoidalarga amal qilishni anglatadi.

2-§. Dinshunoslik va uning tushunchalari. Dinning asosiy elementlari.

Dinshunoslikda din, diniylik, dindorlik, diniy ong, diniy dunyoqarash, diniy ruhiyat, diniy his-tuyg‘u, diniy kayfiyat, diniy g‘oya, diniy mafkura, diniy faoliyat, diniy munosabat kabi bir qator tushunchalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda jamiyat hayotida mavjud bo‘ladi. Ushbu tushunchalar strukturaning elementlari sifatida tizimli ravishda ko‘rib o‘tilganda quyidagi bog‘liqlik va aloqadorlik jarayoni vujudga keladi.

Din murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, dinning tarkibiga diniy ong, diniy marosim va diniy tashkilotlar kiradi.

1. *Diniy ong diniy dunyoqarash tarkibida muhim o'rin tutib, diniy ong diniy tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidan iboratdir.* Diniy ongning o'zaro bog'liq va nisbatan mustaqil bo'lgan ikki darajasi - diniy ruhiyat va diniy mafkura mavjud. Diniy ruhiyat kishilarning diniy his-tuyg'ulari, odatlari, an'analari va kayfiyatlari majmuidan iborat bo'lsa, diniy mafkura diniy tashkilotlar orqali targ'ib etiladigan turli diniy g'oyalarning muayyan tizimidir. Diniy ruhiyat taraqqiy etgan sari diniy tasavvurlar ham takomillashib, diniy tasavvurlardan diniy g'oyalar shakllangan. Diniy mafkura muayyan tushuncha va qarashlarning, g'oyalarning tartibli tizimi bo'lib, u insoniyat taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichiga to'g'ri kelib, uni ruhoniylar, kohinlar, dinni o'rganuvchi faylasuflar ishlab chiqib targ'ib etib kelganlar.
2. *Dinning tarkibiy qismlaridan diniy marosim ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, diniy marosim individ, guruh yoki tabaqalarning manfaatlari, g'oyalari va orzu istaklarini o'zida aks ettiradigan munosabatlar va harakatlar tizimini o'zida ifodalaydi.* Diniy g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular va harakatlar tizimi diniy ta'limotni vujudga keltiradi. Diniy marosimlar ilohiy kuchga sig'inish, qurbonliklar qilish kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Sig'inish tarkibiga turli udumlar, an'analar, duolar, ro'za tutish va qurbonlik qilish kabilar kiradi. Sig'inish u yoki bu buyumni ilohiylashtirib (muqaddas qoratosh, qadamjolar, tumor, tasbeh, diniy libos va boshqalar) vositasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Din tarkibida e'tiqod ham muhim o'rin egallab, e'tiqod insonning muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari xaqqoniy ekanligiga bo'lgan ishonchidir. E'tiqodning asosini ishonch tashkil etadi. Diniy e'tiqod ilohiy kuchlar va hodisalarga ishonish, sig'inish orqali shakllanadi. Insonda e'tiqod dunyoviy ko'rinishda bo'lishi ham mumkin. E'tiqodning dunyoviy ko'rinishi insonni o'rab turgan ob'yektiv olamdagi narsa va hodisalarni hissiy tajriba va ilmiy bilish asosida shakllanadi.
3. *Diniy tashkilot diniy qarashlarga ega maslakdoshlarning muayyan birligi bo'lib, u umumiy e'tiqod va sig'inishlar zaminida vujudga keladi.* Masjidlar, cherkovlar, boshqa dinlarning turlicha nomlanadigan ibodatxonalari, diniy faoliyat bilan shug'ullanadigan boshqa faoliyat sub'yektlari ham diniy tashkilot bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat hayotida diniy tushuncha, tasavvur va kayfiyatlarga moslashib, bularning bevosita ta'siri natijasida vujudga keladigan dindorlar, diniy jamoa, uyushma va tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar diniy munosabatlar deyiladi. Dindorlar diniy e'tiqod, maqsad va vazifalar birligi, diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlar birligi asosida

diniy jamoalarga birlashib, bu jamoalar uyushma, tashkilotlar orasida diniy munosabatlarga kirishadilar.

Mustaqil O'zbekistonda diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan holda, asosan diniy ishlar bilan shug'ullanmoqdalar. Ular jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etib, ko'proq axloqiy-tarbiyaviy sohada faoliyat olib bormoqdalar. O'zbekistonning olib borayotgan siyosatida milliy o'zlikni anglash, kelajakda buyuk davlat qurish, mamlakatni eng rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, horijiy davlatlar bilan teng huquqli va foydali aloqalar olib borish, qo'shma korxonalar qurish, ilm-fan, texnika, san'at, adabiyot, kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, sport sohasidagi aloqalarni kuchaytirish, mamlakatimiz ichida esa tinch-totuvlikni saqlab turish, fuqarolar hamkorligini mustahkamlash, yoshlarning ta'lim-tarbiyasini yangi, zamonaviy talablar asosida olib borish, milliy qadriyatlarni tiklash kabi ishlar olib borilmoqda. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftihor tuyg'ularini shakllantirishda, milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar va qadriyatlarni qayta tiklashda, fuqarolarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida diniy tashkilotlar muhim o'rin tutmoqda.

Diniy e'tiqod insonning intuitiv ya'ni hissiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lsada, din to'g'risidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi diniy e'tiqodni ratsionallik asosida ya'ni insonning aqliy faoliyati bilan dialektik aloqadorlikda ko'rib o'tishni talab qiladi. Jamiyatning taraqqiyoti va insonning kamolotida e'tiqod bilan aqlning nisbati bir-biriga muvofiq bo'lib, insonning har bir qobiliyati (e'tiqodi ham, aqli ham) ijtimoiy faoliyat va munosabatlardagi qandaydir maqsad uchun muhim ahamiyatga egadir. E'tiqod bilish ob'yektini ochib beradi, insonning e'tiqodi ratsionallikka asoslangan holda diniy va dunyoviy bilimlar asosida shakllantiriladi. Jamiyat hayotida barcha insonlar o'zining e'tiqodiga ega bo'lgan holda ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etadilar, turli sohalarda faoliyat yuritadilar. Inson bilim olib o'zining bilimi va dunyoqarashini kengaytirar ekan, bilimda hamma vaqt e'tiqod unsuri ishtirok etadi. Insonning kundalik faoliyatida e'tiqod va aql bir-birini istisno etmaydi balki biri ikkinchisini to'ldiradi.

Inson dinning mazmuni, mohiyati va diniy ta'limotlar haqidagi ilmiy bilimlarga ega bo'lar ekan, u din shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan psixologik omillar, ob'yektiv va sub'yektiv sharoitlarni o'rganadi, tahlil qiladi va shu asosda ma'lum ilmiy xulosalarga keladi.Dinlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va evolyutsiyasi o'zining psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy sabab va omillariga ega bo'lib, tarixiy taraqqiyotda diniy ta'limotlar jamiyatning talab-ehtiyoji asosida paydo bo'ladi, bir-biriga

ta'sir ko'rsatgan holda rivojlanadi, jamiyat hayotini barqarorlashtirishga o'zining hissasini qo'shadi. Insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyotida shakllangan milliy va jahon dinlarida diniy tasavvurlar, diniy harakatlar, diniy psixologiya va diniy tashkilotlardan iborat bo'lgan to'rtta uzviy bog'langan elementlar mavjud bo'lib, ular yaxlit holda diniy ibodatlarni bajaradilar va umumiy bo'lgan diniy his-tuyg'ular asosida faoliyat yuritadilar. Dinlar tarixi g'oyat murakkab va uzoq tarixiy jarayonlardan iborat bo'lib, hozirgi davrda mavjud bo'lib turgan dinlarning barchasi o'zining kelib chiqishi, rivojlanishi va takomillashib borishi tarixiga egadir.

3-§. Qadimgi va milliy dinlarning tasnifi

Dinlar tarixi va ta'limotini o'rganish jarayonida dinlarning tarixiy tiplari, turli shakllari, yo'nalishlari, mazhablari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi, dindorlar hayotida va jamiyatda tutgan o'rni masalalariga to'xtalib o'tiladi. Dinshunoslikni o'rganishda dinning ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga, eng qadimgi diniy e'tiqod shakllari bo'lgan totemizm, fetishizm, animizm, sehrgarlik (magiya, shaman) dinlarining o'ziga xosligi, milliy davlat dinlariga, jahon dinlari bo'lgan buddaviylik, xristianlik va islom dinining mazmun-mohiyati va ta'limotini ochib berishga asosiy e'tibor qaratiladi. Politeizm ya'ni ko'pxudolik va monoteizm ya'ni birxudolik dinlarning o'ziga xosligi, tarixiy taraqqiyotda rivojlanish xususiyatlari o'rganiladi.

Dinlar urug'-qabila, milliy davlat va jahon dinlariga bo'lib o'rganiladi.

1. *Insoniyat tarixida ilk diniy tasavvurlar ibtidoiy jamiyatda vujudga kelib, bu o'sha davrda yashagan odamlarda ong-tafakkurning shakllanishi bilan bevosita bog'liq edi.* Insonda shakllangan dunyoqarashning ilk shakli mifologik dunyoqarash bo'lib, ong-tafakkuri shakllanayotgan inson o'zining tevarak atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunishga harakat qilar, lekin inson ongi ilmiy asosda voqea-hodisalarning mohiyatini tushuntirib bera olmas edi. Natijada inson o'zining atrofidagi barcha narsalarni jonlantirib tasavvur qila boshlaydi. Natijada mifologiya ya'ni afsona-asotirlar vujudga keladi. Insonda ilk diniy e'tiqodning vujudga kelganini ko'rsatuvchi belgilardan biri bu dafn marosimining paydo bo'lishi bo'lib, Surxondaryoning Teshiktosh g'orida o'rta paleolitning oxirlarida yashagan neandertal bola qabrining topilishi, uning ustiga arxar shoxlarining terib chiqilgani bu davr odamlarida yovuz ruhlardan qo'rqish, animizmning, ulardan himoya qilish uchun arxar shoxlarining terilganligi totemizm va fetishizmning belgilaridir. Insondagi

ilk diniy tasavvurlar axloqiy me'yorlarga ham asoslanib, ibtidoiy davrda ilk axloqiy me'yorlar "tabu", - ta'qiqlar paydo bo'lib, inson o'zi uchun muqaddas hisoblangan hayvon, o'simlik va turli narsalarga uni qo'llay boshlagan. Dinning tarixiy shakllariga urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lgan totemizm, animizm, fetishizm, shamanizm, magiya (sehrgarlik) kabilar kiradi. Dinning tarixiy shakllari keyinchalik milliy davlat va jahon dinlari tarkibiga singib, o'ziga xos bo'lgan yondashuvlarni shakllantirgan. SHuning uchun urug'-qabila dinlari, primitiv diniy tasavvurlar – totemistik, animistik, fetishistik tasavvurlarga asoslangan dinlardan iborat bo'lsa, milliy davlat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillarini o'ziga qabul qilmaydigan dinlar bo'lib hisoblanadi.

2. Milliy davlat dinlariga iudaizm (yahudiy millatiga xos), hinduizm, jaynizm, sikxizm (hindlarga xos), daosizm, konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kabi dinlar kiradi.

3. Jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilar o'zining millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar hisoblanib, jahon dinlariga buddaviylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi.

Insoniyat tarixida din shakllari turli-tuman bo'lgan. Ammo har qanday din muayyan tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq holda paydo bo'lib rivojlangan, o'zining ta'limoti va axloqiy me'yorlari tizimini ishlab chiqqan. Ibtidoiy jamiyatdagi dinning tarixiy shakllarida inson asosan tabiatni ilohiylashtirib unga sig'ingan bo'lsa, milliy va jahon dinlarida olamning uch bosqichdan iboratligi, jannat va do'zax haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi, ibodatxonalar, faqat dinga xizmat qiladigan rohiblar qatlami shakllantirildi. Diniy mafkura paydo bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalari shu mafkura asosida boshqarila boshlandi. Qadimgi Turon va Eronda zardushtiylik dini keng tarqalib ezgu so'z, ezgu fikr va ezgu amal g'oyasi asosida jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy munosabatlar tartibga solingan bo'lsa, Hindi-Xitoy mintaqasida Vedachilik, Buddaviylik, Jaynizm, Daosizm, Konfutsiylik kabi diniy ta'limotlar paydo bo'ldi. Agar Buddaviylikda insonning axloqiy fazilatlari haqida so'z yuritilib, inson to'g'ri qarash, to'g'ri jur'at, to'g'ri xatti-harakat, to'g'ri nutq va to'g'ri hayot tarziga chaqirilsa, Jaynizmda birovga zarar yetkazmaslik, muruvvat va rostgo'ylik, halol yashash, so'zda, fikrda va amalda o'zini tiyish targ'ib qilingan. Daosizm ta'limotida inson tabiat ko'rsatgan yo'ldan borishga, birovlarning ishiga aralashmaslikka da'vat etilsa, Konfutsiy tomonidan asosiy axloqiy qonun va qoidalar ishlab chiqiladi. Umuman milliy va jahon dinlarida politeizm, monoteizm,

dunyoning uch bosqichdan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlarning ishlab chiqilishi diniy ta’limotlardagi axloqiylik me’yorlarining takomillashishiga olib keldi. Insonning u dunyoda jannatga yoki do‘zaxga tushishi uning ezgu amallari, axloqliligi, boshqalarga ko‘rsatadigan yaxshiligi bilan belgilana boshladi. Inson diniy ta’limot doirasida halollik, poklik, adolat, insoniylikka da’vat qilinib, bu fazilatlar insonning u dunyodagi xayotini belgilashi e’tirof etildi va din doirasida axloq-odobning me’yorlari ishlab chiqildi.

Jahon dinlaridan Islom dinining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tarqalishi ko‘rib o‘tilganda, Islom dini insonparvar din sifatida o‘zining qadriyatlari, qonunlari va talablari, axloq-odob me’yorlari bilan ko‘pgina insonlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Taqvodorlik diniy ta’limot doirasida yomonliklardan, gunoh ishlardan saqlanishni bildiradi. YOmon ishlardan saqlanib yaxshi ishlarni amalga oshirish insonning muqaddas burchidir. Odobli, axloqli, insoniy va ma’naviy kamolotga yetgan insonni tarbiyalash masalasiga Islom dinida katta e’tibor qaratilgandir. Islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat’iy nazar, inson insonligi uchun ulug‘lanadi. Islom barcha millatlarni birlashtirib, teng, do‘st, yoru birodar qilib, tinch-omon yashashlarini uqtirib kelgan. Islom tinchlik dinidir. Islom insonlar zimmasiga yer yuzida tinchlik bilan yashash va yaratish vazifasini yuklaydi. Islom odamlar o‘rtasida adolatni saqlash zarurligini uqtiradi. Islom dinida e’tiqod erkinligi ochiq oydin e’lon qilingan bo‘lib, Qur’oni karimning Baqara surasi 256 oyatida “Dinda majburlashlik yo‘q”, degan so‘zlar bayon qilingan. Din tanlashda majburlash yo‘q, har kim o‘zi xohlagan dinga kirsin degan qoidada insonning aqli borligi, birov majbur qilmasdan har kim o‘zi xohlagan yo‘lni tanlab olishi bayon qilingan.

4-§.Vijdon erkinligi va diniy e’tiqod xaqida qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy ahamiyati

Vijdon erkinligi insonning biror dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqini o‘zida ifodalaydi. Vijdon erkinligi insonning ruhiy olamiga, uning sog‘lomligi va barkamolligiga ta’sir ko‘rsatadi. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir. Vijdon erkinligi huquqi insonga o‘z dini va e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini yoki e’tiqodiga o‘zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi.

1. O'zbekiston fuqarolarining vijdon erkinligi huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan himoya qilinib, Konstitutsiyaning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deyilgan. Qonun boshidan oxirigacha vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatini amalga oshirishni respublikada tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlikni ta'minlash bilan, jamoat xavfsizligini, fuqarolarning huquq va manfaatlarini doimo muhofaza qilish bilan birga olib borishni ko'zda tutadi. Diniy tashkilotlar O'zbekistonda tinchlik-totuvlik, xamkorlik, xamjihatlik va barqaror taraqqiyotga o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

2. O'zbekistonda din va e'tiqod erkinligi huquqining ta'minlanishi natijasida din fuqarolarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda davlatning dinga yangicha munosabati "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi" degan aniq ishonch asosida belgilanib amalga oshirilmoqda. Ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilib, u tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligini omon saqlab kelgan. O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi, tadrijiy taraqqiyotini o'rganish, vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda. Har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga olib, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o'z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la javob beradi.

3. *Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar, dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish, diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish, diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik,ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini*

izlash zarurati hamda dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etishdan iboratdir.
O'zbekistonning dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga asosan diniy e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qilinadi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining tamal toshi "vijdon erkinligi" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqaroviy erkinliklar ichida insonning ichki ma'naviy dunyosiga va uning ruhiyatiga bevosita aloqador bo'lgan vijdon erkinligi demokratik dunyo bo'ylab umume'tirof etilgan inson huquqlarining eng asosiylaridan biridir.
4. Fuqarolik jamiyati kishilar o'rtasidagi munosabatlarning yuksak madaniy saviya va teran ma'naviy zaminga asoslangani bilan ajralib turadi. Bunday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ularning mo''tabar va hatto, muqaddas sanalishi barqaror bo'ladi. Muayyan insonning qadr-qimmati, odamlar orasidagi mehr-oqibat, samimiylik, axloqiy poklik, insofu adolat va insonparvarlik kabi eng ezgu umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyati hayotining haqiqiy mezonlaridir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda kechayotgan davlat va jamiyat qurilishi jarayonida tom ma'nodagi vijdon erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan davlat va jamiyat qurilishining bosh maqsadlaridan biri – inson farovonligi ta'minlangan, ijtimoiy adolat va qonuniylik ustuvorlik qiladigan, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lgan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligiga asoslangan jamiyatni barpo etishdir. Bu, eng avvalo, yuksak ma'naviyat va hurfikrlilikka asoslangan, vijdon erkinligi amalda barqaror bo'lgan jamiyatni barpo etish demakdir. Bunday jamiyatni qurish esa, birinchi navbatda, keng ma'nodagi vijdon erkinligi, jumladan, diniy e'tiqod erkinligini ta'minlashni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ushbu hayotiy masalaga umume'tirof etilgan demokratik tamoyillardan kelib chiqib yondashilgan.
5. Huquqiy kategoriya sifatida – vijdon erkinligi, bir tomondan, e'tiqod erkinligini, ikkinchi tomondan esa, hech bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ifoda etadi. Axloqiy nuqtai nazardan vijdon erkinligi – bu

muayyan insonning fikrlash tarzi va shaxsiy ma'naviy e'tiqodiga mos xatti-harakat qilish huquqidir.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. Davr talablari asosida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunni tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va u 1998 yil 1 may kuni yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston xalqiga azaldan xos bo'lgan xislat – bag'rikenglik biz uchun an'anaviydir. O'zbekiston hududi azaldan turli urf-odat, madaniyat, til, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerlik xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Millati va diniy qarashidan qat'i nazar insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg'ular Markaziy Osiyo xalqlarining yuksak sifatlaridir. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki dinlararo muloqotining ma'naviy asosini tashkil qiladi.

5-§. Hozirgi davrda diniy ma'rifatni takomillashishning yo'nalishlari

O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

1. Dinlarning o'zaro munosabati hamkorlik, hamdo'stlik va teng huquqlilik asosida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlarning sabablaridan biri hozirgi vaqtda dunyoda umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning mamlakat, xalq va ijtimoiy guruhlar manfaati hamda qadriyatlaridan ustun turishidadir. Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan davlatlar demokratiya, insonparvarlik va dunyoviylik tamoyillariga amal qilgan holda taraqqiy etmoqda. Ularda vijdon erkinligi huquqi kafolatlanib, tolerantlik hal qiluvchi tamoyil sifatida e'tirof etilmoqda.

2. Globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, integratsiyalashuv sharoitida vijdon erkinligi va bag'rikenglik tamoyillari asosida dinlararo sog'lom muloqotning intensivlashuvi, diniy ong va madaniyatning rivojlanishi jarayoni sodir bo'lmoqda. Diniy jarayonlarning globallashuvi tezkor internet tizimi, yuksak texnologiyalar orqali jahon dinlari o'rtasida o'zaro ta'sirning kuchayishi, diniy tashkilotlar sonining ortib borishi

sharoitida amalga oshmoqda. Keyingi yillarda diniy ta'lim jahon miqyosida yuqori sur'atlar bilan o'smoqda. Bu jahonning bir qator hududlarida dinga qo'yilgan to'siqlarning bekor qilinishi, diniy e'tiqodning qayta faollashuvi, diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi, diniy ma'rifatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, bir qator diniy o'quv yurtlarining barpo etilishi bilan bog'liq holatda amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalarining keskin yuksalishi diniy mazmundagi ma'lumotlarni, xabarlarni global miqyosda keng yoyilishini ta'minlamoqda. Diniy axborot inson va jamiyat hayotining muhim resursi bo'lib qolmoqda.

3. Din istiqboliga doir futurologik masalalar dunyoviy jamiyat to'g'risidagi g'oyalarning rivojlanib borishi bilan shakllangan sekulyarlashuv konsepsiyalarida o'z aksini topib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi barcha konsepsiyalarda taraqqiy etgan mamlakatlarda dinning jamiyat hayoti sohalariga ta'sirining tobora pasayib, dunyoviylikka asoslangan hayot tarzining mustahkamlanib borishi haqidagi qarashlar qabul qilingan. Sekulyarlashuvga bag'ishlangan nazariyalarda dinlarning taqdiri bilan bog'liq masalalar yuzasidan tahliliy mulohazalarga e'tibor beriladigan bo'lsa, tabiiy ravishda insoniyat istiqbolida diniylikdan dunyoviylikka o'tib, rivojlanib boruvchi jamiyat qurilishi modeli ustuvor bo'lishi to'g'risidagi xulosa ilgari suriladi. O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan davlat munosabati dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish, diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish, diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash asosida amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda dunyoviy turmush tarziga dinning moslashish jarayonini ifodalash va din bilan siyosatning o'zaro nisbatini tavsiflash uchun ilmiy adabiyotlarda "sekulyarizatsiya" atamasi ham keng qo'llanilmoqda. Jamiyat hayotida din o'zida faqatgina diniy aqida va ibodatlarni qamrab olish bilan kifoyalanmay, avvalo o'ziga umuminsoniy axloq me'yorlarini singdirgan va ularni umummajburiy xulq–atvor qoidalariga aylantira olgan. Jamiyatda turli millat va din vakillarining bahamjihat yashashida, jamiyat a'zolarida ertangi kunga ishonch hissini mustahkamlashda, turli hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida, eng muhimi umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan–avlodga yetkazishda dinning alohida o'rni bor. O'zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo'lsada, mamlakatdagi madaniy-ma'naviy an'analarning ajralmas qismi va aholi ma'naviy kamolotining asosi sifatida qaraladi. Din kishilar mentaliteti, axloqi va madaniyati bilan dialektik aloqadordir. Shu sababli ham, har qanday dunyoviy davlatda

jamiyatning birdamligi, o‘zaro ahilligi, jipsligi, tinchligi va barqarorligini saqlashda din o‘zining alohida o‘rniga ega.

4. Islom ta’limotiga ko‘ra, insonlarning dini, joni, nasabi, aqli va moliga foyda keltiradigan har qanday amal diniy jihatdan ham ma’qullanib, savobli ish hisoblangan. Islomda dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmay, balki, dinning muqaddas manbalari-Qur’oni karim va Hadislarda ham inson bu dunyosi uchun ham harakat qilishi kerakligi uqtiriladi. Jumladan, “Baqara” surasi 201-oyatida: *Yana shundaylari borki, ular:”Ey, Robbimiz, bizga bu dunyoda ham yaxshilik ato etgin, oxiratda ham yaxshilik* (ato etgin) *va bizni do‘zax azobidan asragin”,- deydilar.* Qur’oni karimda diniy hayot tarzini majburlab singdirish mumkin emasligi ta’kidlanadi. Hadisi sharifdagi *“Sizlarning yaxshilaringiz dunyoni deb oxiratni, oxiratni deb dunyoni unutmaganlaringiz”* degan hikmatning mazmun-mohiyati ham dunyo va oxirat ishini uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Dunyoviy ishlar shaxs va jamiyat manfaatlarini ko‘zlar ekan, ular din ta’limotlarida doimo qo‘llab-quvvatlangan. Din jamiyat hayotida dunyoviy ishlarning ma’naviy jihatlarini savob yoki gunoh tushunchalari orqali tartibga solib turgan. Diniylik va dunyoviylik masalasi davlatchilik mavzusiga ham taalluqli masala bo‘lib, islom dini ta’limotida davlat siyosiy tuzilmasining umumiy tamoyillari - tenglik, erkinlik, adolat va mashvaratdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

5. Bugun O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish jarayonida dunyoviylik tamoyili va diniy qadriyatlar uyg‘unligi masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Dunyoviylik tamoyili O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni bilan huquqiy jihatdan kafolatlangan bo‘lib, xalqimiz diniy e’tiqodni chuqur hurmat qilgan holda dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan bormoqda.

Dunyoviylik diniy qadriyatlarni hurmat qilgan holda aql-zakovat, bilim va tajribani ishga solish, el-yurtni obod qilishga hissa qo‘shish, xalqning hurmatini qozonishni o‘zida ifodalamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, - *Dinu diyonatimiz, va zamon ruhini qalbimizga chuqur singdirib, bugungi hayotning o‘tkir talabi bo‘lgan ilm-fan, innovatsiya va taraqqiyot yutuqlari bilan qurollanib, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilsak, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga albatta yetamiz*[210].

[210] Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 377- бет.

Hozirgi davrda taraqqiy etgan mamlakatlarda diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lib, ularning davlat va nodavlat idoralar bilan aloqasi qonunlar asosiga qurilgan. Davlat diniy tashkilotlarning ichki ishiga aralashmasdan, ularning faoliyatini qonunchilik orqali tartibga soladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham turli ob’yektiv va sub’yektiv sabablarga ko‘ra dinga qiziqish kuchayib, xalqimiz tarixi va madaniyatini chuqurroq bilish, o‘zligimizni qaytadan kashf etish, qadriyatlarni qaytadan baholash zaruriyati tufayli dinga munosabat o‘zgarmoqda. Bugungi kunda dinni o‘rganish jarayonida uning axloqiy ta’limoti va tarbiyasiga, falsafasiga, ijtimoiy-amaliy me’yorlariga, qadriyatlar majmuasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Madaniy merosga ilmiy yondashishning mezonlari insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik va taraqqiyparvarlikdan iborat bo‘lib, O‘zbekistonda islom madaniy merosiga umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish, madaniyat va axloqiy bilimlarning asosi sifatida munosabatda bo‘linmoqda.

Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosida doimo halol mehnat bilan yashash, vatanparvarlik, mardlik, saxovat va kamtarlik ulug‘lanib kelgan. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy va boshqa ko‘plab allomalarimiz targ‘ib qilgan islomiy qadriyatlar ma’naviy hayotimiz va din-diyonatimizning ko‘zgusi bo‘lib hisoblanadi. Ulug‘ allomalarning ma’naviy merosi yoshlarni ezgu ishlar bilan shug‘ullanishga, vatanparvar bo‘lishga, halol mehnat qilishga undaydi. Vatanimiz hududida yashab faoliyat ko‘rsatgan ajdodlarimiz Islom dinini yuksak madaniyat va sivilizatsiya darajasiga ko‘tarishganini butun musulmon olami e’tirof etadi.

Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Axror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - *...Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir*[211].

[211] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил, 28-29 бетлар.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasida *"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"* deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish taklifini bildirib, bu rezolyutsiyaning qabul qilinishi dunyo mamlakatlarida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tarixiy ma'naviy merosimizdaBuxoro hanafiya mazhabi ilmiy markazining vujudga kelishi musulmon olamida ulug' alloma sanalgan Muhammad ibn Hasan Shayboniyning shogirdi, buyuk faqih Abu Hafs Kabir va u tarbiyalab yetishtirgan olimlar bilan bog'liq bo'lsa, Samarqand ilmiy markazining asos solinishida Imom al-Buxoriy, Imom ad-Dorimiy, Abu Mansur Moturidiy kabilarning xizmatlari katta bo'lgan. Bu ikkita ilmiy markazdan islom olamida mashhur bo'lgan bir necha minglab allomalar yetishib chiqqanlar. Ular orasida Abu Hafs Kabir Markaziy Osiyoda fiqh ilmiga asos soldi, Imom Buxoriy hadis ilmining sultoni darajasiga yetishdi. Abu Mansur Moturidiy sunniylikda kalom maktabini yaratdi. Burhoniddin Marg'inoniy fiqh ilmining qonunlarini hujjatlashtirib berdi. Abu Bakr Kolobodiy tasavvufning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi. Bularning bari islom ilmining taraqqiy etishiga xizmat qildi. Shu davrda har ikki ilmiy markazning eng yaxshi an'analarini davom ettirgan ulug' allomalardan biri, buyuk faqih Abu Zayd Dabusiy bo'ldi. Barcha islomiy ilmlar asosan sakkiz qismga ajratilib, ularga ilmi tafsir, ilmi usul ul-xadis, ilmi hadis, ilmi usul ul-kalom, ilmi kalom, ilmi usuli fiqh, ilmi fiqh, ilmi tasavvuf kabi ilmlar kiritilgan.

O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan *«Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi»* mavzusidagi anjumanda bildirgan taklifiariga ko'ra viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida va tasavvuf ilmlarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan 5 ta ilmiy maktab ochildi. Ushbu ma'rifat markazlari endilikda boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu yo'l orqali aholining diniy radikallashuvining oldi olinib, o'zaro hamjihatlik muhitini qaror toptirish ko'zda tutilgan. Xususan, 2017 yil 8 noyabrda Samarqand viloyatida Kalom ilmi maktabi, 10 noyabr kuni Qashqadaryo viloyatida Aqida ilmi maktabi va Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband Tasavvuf ilmi maktabi hamda 13 noyabr kuni Farg'ona viloyatida Islom huquqi maktabi, 2018 yil 16 aprelda Samarqand viloyatida Hadis ilmi maktabi kabi maktablar ish boshladi. Bu ilmiy maktablarning faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad islom dinini chuqur o'rganish va uning ma'rifatparvar g'oyalarini keng jamoatchilikka, shu jumladan, oddiy fuqarolarga yetkazishdan iboratdir.

6-§. Xalqaro diniy tashkilotlar va diniy uyushmalar faoliyatining tasnifi

Bugungi kunda islom dini xalqaro maydonda ham muhim ahamiyatkasb etib, bir qator islom tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

1. Islom olamida eng yirik va nufuzli, rasmiy, 57 ta davlat a'zo bo'lgan xalqaro islom tashkiloti Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)dir. IHT 1969 yilning 25 sentyabrida Marokashning poytaxti Robotda o'tkazilgan islom davlatlari birinchi yig'ilishida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda islom hamkorligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Bu tashkilotning asosiy maqsadi musulmon birdamligini mustahkamlashga ko'maklashish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilish, barcha musulmonlarni o'z qadriyatlari, mustaqilligi va milliy huquqlarini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlash, muqaddas joylarni muxofaza qilish, adolatlik asosida xalqaro tinchlik va barqarorlikka ko'maklashish, tashkilotga a'zo mamlakatlar va o'zga mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va o'zaro anglashuvni rag'batlantirishdan iboratdir.

2. Xalqaro islom tashkilotlaridan biri Islom olami uyushmasidir. Islom olami uyushmasi – dunyoning turli mamlakatlarining yirik musulmon arboblarini birlashtirgan xalqaro islom tashkilotidir. U 1962 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Makkada bo'lib, Riyoz, Jidda va Madina shaharlarida ham bo'limlari mavjud. Tashkilotning maqsadi Islom ta'limotini butun dunyoga tarqatishdir. Tashkilot keng miqyosdagi xayriya, insonparvarlik faoliyatini olib boradi. Saudiya Arabistoni hukumati IOUdan islom dinining muqaddasligi va sofligini dunyoga tanitish hamda obro'sini oshirishda foydalanishga harakat qiladi.

3. Diniy ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan ilm-fan muassasalaridan biri "al-Azhar" majmuasi bo'lib, Misrning poytaxti Qohirada joylashgan "al-Azhar" majmuasi dunyodagi eng qadimiy ta'lim va ilm-fan muassasalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda "al-Azhar" majmuasi islom qonunchiligi va arab tili bo'yicha turli arab va islom mamlakatlari uchun mutaxassislar tayyorlab kelmoqda. "Al-Azhar" ko'proq universitet sifatida butun jahonga tanilgan bo'lsada, uning tarkibiga universitetdan tashqari, o'rta va maxsus maktablar, ilmiy markazlar, masjidlar ham kiradi. Bugungi kunda "al-Azhar" majmuasi islom dini masalalari bo'yicha dunyodagi yetakchi markaz hisoblanadi. Hozirda "al-Azhar" majmuasining faoliyati nafaqat arab dunyosi, balki butun musulmon olamida madaniy, ilmiy va ma'naviy uyg'onish manbai bo'lib xizmat qilmoqda."Al-Azhar" majmuasi tinchlik va sahovat dini bo'lgan islomni mustahkamlash, uning insoniylik g'oyalarini targ'ib qilishda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

4. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan diniy tashkilotlardan biri Xalqaro islom fiqhi akademiyasidir. Xalqaro islom fiqhi akademiyasi Islom hamkorlik tashkiloti qoshidagi muassasa bo'lib, ushbu akademiya 1981 yilda Makka shahrida bo'lib o'tgan musulmon mamlakatlari rahbarlari oliy kengashida tuzilgan. Ushbu akademiyaning tashkil etilishidan maqsad zamonaviy hayot muammolarini o'rganish, ular haqida faol va asl ijtihod qilib islomiy ilmiy merosga asoslangan va islomiy fikr taraqqiyotidan kelib chiqqan yechimlarni taqdim qilishdir.

7-§. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan diniy tashkilotlar

1. Bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan dindorlar yoki diniy tashkilotlar birlashmasi diniy uyushmani tashkil qiladi. Diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushmaga diniy tashkilot deyiladi. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (1998) qonunida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi respublika diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. O'zbekiston musulmonlari idorasi O'zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot bo'lib, musulmonlarni birlashtirish, ularning ibodati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, islom asoslarini targ'ib qilish, malakali din xodimlarini tayyorlash, diniy adabiyotlar nashr etish kabilarni amalga oshiradi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Idora o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunga rioya qiladi. Oliy organi – Oliy hay'at va Allomalar kengashi bo'lib, raisi muftiy hisoblanadi. Hozir O'zbekiston musulmonlari idorasining muftiysi Usmonxon Alimovdir. O'zbekiston musulmonlari idorasi ko'pgina xorijiy diniy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatgan.

2. Bugungi kunda O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2276 ta diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Bu diniy tashkilotlardan 2093 tasi islomiy, 183 tasi noislomiy diniy tashkilotlar bo'lib, ularning ichida 166 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy ibodatxonasi, 6 ta bahoiy jamoalari, 1 ta krishnani anglash jamiyati mavjuddir.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida boy tarixiy ma’naviy meros va milliy qadriyatlarni tiklash masalasiga katta e’tibor qaratilib, tarixiy ma’naviy merosimizda esa din omili muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekistonda tarixiy, ma’naviy merosni tiklashda Qur’onu karim, Hadisu sharif, SHarq mutafakkirlarining adolatli jamiyat qurish, komil insonni tarbiyalash masalasiga taalluqli bo‘lgan ma’naviy merosiga katta e’tibor qaratilmoqda. Milliy urf-odat, an’ana, udumlar va marosimlarga diniy omil bevosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, davlatchilikning tashkil topishi, huquqiy tizimning takomillashishi milliy g‘oya, ma’naviyat tarbiyasi, odat huquqidagi diniy qadriyatlarga bevosita bog‘liqdir.

3. O‘zbekistonda dunyoviy davlat barpo etilmoqda. Lekin davlat dindorlarning haq-huquqlarini kafolatlash majburiyatini o‘z zimmasiga olgan holatda o‘z siyosatini olib bormoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga ko‘ra barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Mazkur konstitutsiyaviy norma negizida O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va milliy qonunchilikda kafolatlangan vijdon va e’tiqod erkinligi barcha fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarni yaratmoqda. O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqaroviy o‘zaro ahillikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lib, ushbu jarayonda din omiliga ham katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri bo‘lib, xalqimizning boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish masalasi davlatimiz siyosatida muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekistonda din va e’tiqod erkinligini ta’minlashga qaratilgan ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

4. Hozirgi davrda inson, jamiyat haqidagi masalada diniy va dunyoviy dunyoqarashlar o‘rtasida dialog olib borilmoqda. Din sivilizatsiyalar ma’naviy birligini kuchaytirishning, sotsiomadaniy sohadagi hissiy va ilohiy elementlarning garmonik birligini tiklashning omiliga aylanib bormoqda. SHarq dunyoqarashida diniylik va dunyoviylik keskin ajralib turmaydi. Unda diniy, falsafiy qarashlar o‘zaro chirmashib ketgan. SHarq falsafasida ishlab chiqilayotgan g‘oyalar diniy mohiyatga ega bo‘lsada, insonning falsafiy dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘zbekistonning milliy mafkurasi o‘zining dunyoviy va diniy ildizlariga ega bo‘lib, bu dunyoviy va diniy ildizlar O‘zbekistonda adolatli, insonparvar jamiyat qurishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat dunyoviylik asosida rivojlanib, fuqarolarda ilmiy bilimlar asosida dunyoviy dunyoqarash shakllantirilmoqda. Diniy bilimlar, diniy dunyoqarashga ma’naviy meros, qadriyat sifatida munosabat shakllantirilib, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyotiga yordam beruvchi dinning axloqiy, tarbiyaviy jihatlaridan ijobiy tarzda foydalanilmoqda. Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy dunyoqarashlar, mafkuralar o‘rtasida o‘zaro muloqot jarayonlari kuchayib bormoqda. Demokratiya tamoyillari jamiyat hayotida kuchayib borgan sari diniy va dunyoviy mafkuralar o‘rtasidagi munosabatlarda hamkorlik, hamjihatlak aloqalari mustahkamlanmoqda. Fuqarolar ma’naviyatini yuksaltirish, ular ongida bag‘rikenglik, hamkorlik munosabatlari ruhini shakllantirishda ham diniy va dunyoviy dunyoqarashlar uyg‘unligining ahamiyati katta bo‘lmoqda. Milliy mafkurada diniy va dunyoviy qadriyatlar hamohonglikda, yagona maqsadning qirralari sifatida namoyon bo‘lib, fuqarolar dunyoqarashining shakllanishida muhim o‘rin tutmoqda.

5.Fanda din va diniy dunyoqarashning paydo bo‘lib shakllanishiga oid ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchi yondashuvga ko‘ra dinning paydo bo‘lishi bevosita inson va jamiyatning yaratilishiga bog‘liq deb hisoblanadi. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O‘zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e’tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv”deb nomlanadi. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan har qanday diniy ta’limoto‘zining paydo bo‘lishini inson va jamiyatning yaratilishi – ilk inson bilan bog‘lashini ko‘rish mumkin. Mazkur ta’limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan bo‘lib, Islom dinida butun yer yuzidagi insoniyat Odam Ato va Momo Havoning avlodlari bo‘lib hisoblanadi. Teologik yondashuvga ko‘ra, turli buyumlarga sig‘inish va ko‘pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan.

Dinning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi yondashuv uni fan taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tushuntirib berishga harakat qiladi. Mazkur qarashlarning paydo bo‘lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan edi. Inson va jamiyatning paydo bo‘lishi tadrijiy taraqqiyotning natijasi ekanligi, insonda ong tafakkurning paydo bo‘lishi ilk diniy tasavvurlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligi fandagi yutuqlarga tayangan holatda asoslanadi. Ratsionalizm inson dunyoni aql yordamida bilishi, tushunishi mumkinligini e’tirof etadi. Hurfikrlilik diniy aqidalarga tanqidiy

yondashib, dunyoni, insonni, jamiyatni o‘z davridagi fan yutuqlariga tayangan holda tushuntirishga harakat qiladi. Charlz Darvin, Avgust Komt, Lyudvig Buxner va boshqalarning qarashlariga tayanilgan holda din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, hissiyotining mahsuli. Dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko‘pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy tadrijiy taraqqiyot jarayonini bosib o‘tgan, degan yondashuv ilgari surildi.

Bugungi kunda dunyoda turli dinlarga e’tiqod qiluvchi kishilar mavjud bo‘lib, shu bilan birgalikda tarixning ma’lum paytlarida paydo bo‘lib, o‘z sivilizatsiyalarining yo‘q bo‘lishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qadimgi Misr, Yunoniston, Qadimgi Rim, Mesopotamiya, Urartu, Xett, Qadimgi german va slavyanlar, Amerika hindularining dini kabi dinlar mavjud bo‘lgan. Qadimgi Markaziy Osiyoda tangrichilik, zardushtiylik, moniylik kabi dinlarga e’tiqod qilingan. Shu bilan birgalikda yahudiylik dini iudaizm, Hindiston dinlari veydizm, vishnuizm, shivaizm, braxmanlik, hinduizm, jaynizm, sikxizm, Xitoy dinlari konfutsiychilik va daosizm, Yapon dini sintoizm, jahon dinlari bo‘lib hisoblangan buddaviylik, xristianlik, islom dinlari paydo bo‘lib, ulardan ayrimlari o‘z mavqelarini yo‘qotgan bo‘lsalar, ayrimlariga jahondagi ko‘pchilik odamlar e’tiqod qilib kelmoqdalar. Bugungi kunda globallashuv, axborotlashuv sharoitida dunyoning diniy manzarasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Geopolitik maqsadlar, mehnat migratsiyasining kuchayishi, yaxshi hayotni orzu qilib boshqa hududlarga ko‘chish natijasida avvallari asosan xristianlar yashab kelgan Evropada musulmonlar soni ko‘payib bormoqda. Hozirgi paytda islom dini e’tiqod qiluvchilari soni eng tez ko‘payib borayotgan din hisoblanadi. Shuningdek, aholisi an’anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilib, mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo‘nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo‘lmoqda.

Xozirgi davrda diniy va dunyoviy dunyoqarashlar uyg‘unligi fuqarolar axloqiy va estetik tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Inson va jamiyatning ma’naviy kamolotida ilmiy bilimlar bilan birgalikda diniy e’tiqod alohida o‘rin tutib, u islom qadriyatlari va ruhiy bilimlar mag‘zini, ezgulik va poklikka da’vat etuvchi o‘gitlarni odamlar qalbiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Islom dini asrlar davomida xalqimizning muqaddas e’tiqodi, ma’naviy hayotining dasturilamali bo‘lib kelib, milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimiz bo‘lgan islomiy axloq-odobdan yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalashda foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Islom jamiyat a’zolarini eng

yuksak bashariy fazilatlar egasi qilib tarbiyalab, ularga insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, halollik, boshqa dinlarga ehtirom ko'rsatish, olijanoblik va axloq kabi tushunchalarni singdiradi.

Islom dini o'zining ma'naviy pokligi tufayli yangi demokratik davr talablariga javob bera oladi. Islomning kundalik hayot bilan chambarchas aloqasi shundaki, u har bir odamning o'zligini anglashiga imkon beradi, shuningdek ularda odamlarning o'zaro qon-qardosh va birodar ekanliklarini tan olish hissini tarbiyalaydi. Islom dini insonlarning tengligi, savob ishlarning muhimligi haqida ta'lim berib keldi. Islom dini negizida vujudga kelgan tasavvuf tariqati ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra bilimning boshi yuksak axloq-odobdan boshlanib, axloqiy me'yorlar, qoidalarning muayyan tizimi tasavvufning amaliy qismi, ya'ni mohiyatini ifodalaydi. Markaziy Osiyo xalqlari Uyg'onish davri ma'naviy madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti, uning falsafiy-ilmiy va badiiy-estetik yo'nalishlari mohiyatini tushunishda tasavvufning o'rni va ahamiyati muhimdir. Tasavvuf ta'limotida komil inson masalasi Allohga yaqin bir vujud sifatida qaraladi.

Dunyoviy bilimlarni o'rganish, shariat ilmini, ilohiy bilimlarni egallash va unga amal qilish - hammasi inson kamolotining muhim jihatlari sifatida e'tirof etiladi. Komil insonning sifatlari tasavvufda, dinda, ilm ahllari orasida o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Shariat ahli nazarida komil inson - farz-sunnatning amallarini ado etuvchi mo'min-musulmon hisoblansa, dunyoviy ilm namoyondalari unga aqlli zot, deb ta'rif beradilar. Tasavvufda esa komil inson bo'lish uchun inson fozillik, aqllilik, odillik, mo'min-musulmonlikni bekamu ko'st bajarishi zarur deb hisoblanadi. Komil insonda yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va ma'rifat namoyon bo'ladi. Tasavvufning ma'naviy barkamol inson tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan insonparvarlik, soflik, haqiqat, go'zallik, kamolot goyalari bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Diniy ilmlar insonni ruhiy va ma'naviy yuksaklikka yetaklasa, dunyoviy ilmlar dunyoning mohiyatini anglash va insonning tafakkurini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Islom dini avval boshidanoq insonni o'qib-o'rganishga va ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishga targ'ib qilib kelgan. Jamiyat hayotida axloqiy va estetik tarbiya diniy va dunyoviy bilimlar hamda odamlar mehnati va maishiy hayoti bilan bog'liq holda rivojlantirilgan. Islom madaniyati bugungi kunda ilm-fan, bilimlar, odob-axloq, huquqiy me'yorlar hamda go'zalliklar vositasida anglanib, tarbiya jarayonida qo'llanilib kelinmoqda.

Diniy urf-odatlar tarixiy ma'naviy meros va milliy qadriyatlarning tiklanishida, shaxs dunyoqarashi va tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diniy urf-odat va marosimlar fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlaridan iboratdir. Diniy urf-odat va marosimlar diniy e'tiqod va ibodatning amaldagi ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Islom dinida aqiqa, amri-ma'ruf, xatna, ro'za tutish va ramazon hayiti, qurbonlik qilish va qurbon hayiti, namoz, haj, janoza, sunnat, nikoh va boshqa urf-odat va marosimlar mavjud bo'lib, bu urf-odat va marosimlar milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketgandir. O'zbekistonda diniy urf-odat va marosimlarning erkin o'tkazilishi ta'minlanadi, ammo bunda qonunlar va jamoat tartibi buzilmasligiga, shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilinmasligiga e'tibor qaratiladi. Diniy urf-odat va marosimlar ibodatxona, diniy tashkilot muassasalari, ziyoratgohlar, fuqarolarning xonadonlarida o'tkazilib, xalqimizning milliy o'zligini anglashida, tarixiy xotirasining tiklanishida, milliy qadriyatlarning yanada takomillashib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy marosimlar dindorlarda Allohga itoatkorlik hissini uyg'otishga qaratilgan odatlarni o'zida ifodalaydi.

8-§. Diniy tolerantlik va plyuralizmtushunchalarining mazmuni va mohiyati

Diniy tolerantlik va plyuralizm jamiyatda tinchlik va barqarorlikning muhim omilidir. Tolerantlik lotin tilidagi *tolerantia* – so'zidan olingan bo'lib, sabr – toqat degan ma'noni bildiradi. Tolerantlik bag'rikenglikni – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishni o'zida ifodalasa, plyuralizm lotin tilida *pluralis* – ko'plik degan ma'noni bildiradi. Plyuralizm jamiyat hayotida manfaatlar, g'oyalar, qarashlarning ko'pligini bildirib, ko'plab konfessiya va diniy tashkilotlar bo'lgan O'zbekistonda davlat va din munosabatlari tolerantlik va plyuralizmga tayanilgan holda olib borilmoqda. Diniy tolerantlik xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi hususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi o'z ifodasini topgandir. O'zbekiston hududida islom

dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniylik kabi dinlar mavjud bo‘lib, ular negizida o‘sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Hozirgi paytda dinlararo tolerantlik g‘oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a’zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Azal-azaldan Vatanimiz hududida islom, xristianlik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo‘lib, turli millat va dinga mansub bo‘lgan qavmlar o‘z diniy amallarini erkin ado etib kelganlar. O‘zbekiston xalqi dinlararo bag‘rikenglik borasida katta tajriba to‘plagan. O‘zbekistonda davlat qonuniy asosda barcha dinlarga, barcha e’tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergan. Vatanimizda turli dinlar va din vakillari o‘rtasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim e’tibor berilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda turli konfessiyalarga mansub bo‘lgan diniy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning o‘z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topgan. Tolerantlik bizda umumiy ma’noda bag‘rikenglik deb qabul qilingan. Hozirgi kunda yurtimizda turli dinga e’tiqod qiluvchi din vakillarning ma’naviy dunyosi, e’tiqod erkinligi va uni ta’minlash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Hozirda mamlakatimizda turli e’tiqodga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hurmat o‘rnatilishi uchun barcha sharoitlar mavjud. O‘z navbatida respublikamizda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta’minlashda avvalo millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik to‘liq ta’minlangan va qonuniy kafolatlangan. Yurtimizda barcha dinlar uchun diniy bag‘rikenglikning o‘rnatilishi, turli din vakillari o‘rtasida hamkorlik, birdamlik va hamjihatlik o‘rnatilishiga yordam beradi. Bu esa yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma’naviyat rivojiga bevosita xizmat qiladi. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash va mustahkamlash, mamlakat milliy g‘oyasi – “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish”ning muhim tarkibiy qismi va shartidir. O‘zbekistonning din sohasidagi siyosatida diniy plyuralizmga amal qilinib, har bir din vakilining o‘z diniy e’tiqodiga amal qilishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Diniy plyuralizm – bir davlatda ko‘p diniy konfessiyalar va ularga xos dindorlar guruhlarining mavjudligi bilan bog‘liq vaziyatdir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida turli diniy

konfessiyalarga mansub diniy tashkilotlar faoliyat olib borib, ularning ichida nasroniy diniy tashkilotlari, yahudiylar va bahoiylar jamoalari, krishnachilar jamiyati va buddaviylar ibodatxonasi kabi diniy tashkilotlar mavjud. Mamlakatimizda dindorlar o‘z diniy bayramlarini nishonlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan. Noislomiy diniy tashkilotlar uchun xorijda nashr etilgan diniy adabiyotlarning respublika hududiga olib kirilishiga belgilangan tartibda ko‘mak ko‘rsatilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab masjid, cherkov va ibodatxonalar qurildi va ta’mirlandi. Bularning barchasi O‘zbekistonda diniy plyuralizmga asoslangan holatda davlatning din sohasidagi siyosati olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Din ijtimoiy hodisa sifatida sotsiologiya, psixologiya, antropologiya va boshqa fanlar tomonidan o‘rganilib, uning jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotida tutgan o‘rni va ahamiyati masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Din jamiyat hayotida mavjud bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarni o‘zida aks ettiradi. Din bilan jamiyat munosabatlari, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea–hodisalar din sotsiologiyasi tomonidan o‘rganiladi. Din sotsiologiyasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea–hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Din sotsiologiyasining asosiy mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi ko‘rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilishi va qonunlarini o‘rganishdan iboratdir. Din sotsiologiyasi dinning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlarini, ularning rivojlanib borishini qonuniyatli jarayon sifatida o‘rganadi.Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat hayotiga, ikkinchi tomondan diniy ilmlarga tayanadi, jamiyat hayoti va diniy ta’limotlarning o‘zaro bog‘liqligi masalasiga asosiy e’tiborni qaratadi. bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

Insonruhiyatining din bilan bog‘liqligi masalalari din psixologiyasi tomonidan o‘rganiladi.Din psixologiyasi zamonaviy psixologiyaning bir tarmog‘i bo‘lib, dinning inson ruhiyatiga, ijtimoiy ong va munosabatlarga, jamiyatning ma’naviy hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri masalalarini tadqiq etadi. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo‘lgan diniy hayotning turli jihatlari va sohalarini psixologik jihatdan o‘rganadi. Ya’ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko‘rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Din psixologiyasi dinning inson ruhiyatiga va uning xatti–harakatiga ta’sirini o‘rganadi. Insonning diniy e’tiqodi, diniy his-tuyg‘usining shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati masalasiga e’tibor qaratiladi. Din psixologiyasi diniy e’tiqodidan kelib chiqqan holda insonni atroflicha

o‘rganadi, dindorlarning diniy e’tiqodiga ko‘ra o‘ziga xos guruhlarini kashf qiladi, buyuk diniy shaxsiyatlarning ichki hayotlari bilan qiziqqan holda ularning ruhiy holatlari bilan shug‘ullanadi. Kishining diniy his-tuyg‘usi, tushunchalari va yashash tarzidagi o‘ziga xos jihatlari din psixologiyasi o‘rganadigan sohalardir.

Din psixologiyasi shaxsda din tuyg‘usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi, shakllanishini, diniy ruhiy holatlarning jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi. Din psixologiyasi dindorlikning shaxs ruhiyatiga, dinning ijtimoiy jarayonlarga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi. Din antropologiyasi madaniy antropologiyadagi yo‘nalish bo‘lib, u din psixologiyasi va din sotsiologiyasini o‘zida ifodalaydi. Din antropologiyasi an’anaviy jamiyatdagi arxaik e’tiqod, yangi dinlar, yangi diniy harakatlar, magiya, din va fan munosabatlarida yuzaga keladigan muammolarni o‘rganadi. Din antropologiyasi madaniy antropologiyaning bir qator yo‘nalishlari - psixologik, iqtisodiy, ekologik, tibbiyot, san’at antropologiyasi bilan o‘zaro aloqadordir. Din antropologiyasi dinshunoslikning turli yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tafakkur, madaniyat, marosimlar, dinning regulyativ va psixoterapevtik funksiyalari din antropologiyasining o‘rganish sohalaridir.

9-§. Sekulyarizatsiya nazariyasi (davlat va din munosabatlari) va postsekulyar konsepsiyalar

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi masalasida dunyoviylik tamoyiliga katta e’tibor qaratilmoqda. Dinshunoslik fanida dunyoviy modelni o‘zida ifodalovchi sekulyarizatsiya tushunchasi qo‘llanilib, *saecularis* – lotin tilida dunyoviy degan ma’noni bildiradi. Sekulyarizatsiya sotsiologiyada jamiyat hayotida din rolining pasayishi, diniy an’analar bilan boshqarib kelinayotgan jamiyatning dindan holi bo‘lgan, ratsional me’yorlar asosida qayta qurilishi, jamiyat tuzilishini dunyoviy modelga o‘tishini ifodalaydi. Bugungi kunda ba’zilar sekulyarlashuvni dinni jamiyatga ta’sir kuchini tobora susaytirib, yo‘q bo‘lishigacha olib boradigan ortga qaytmas jarayon deb hisoblasa, boshqalar, sekulyarlashuv – bu, faqat dinning shaklan o‘zgarishini ifodalaydigan, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan diniy e’tiqod shakllari o‘rniga yangilarining paydo bo‘lishi va shu tariqa dinning jamiyatdagi ahamiyatining saqlanib qolishini anglatadigan jarayon deb hisoblaydilar. Sekulyarlashuv yangilangan shakllarda dinlarning jamiyatdagi o‘rnini hatto, kengayishiga olib keladigan tabiiy, sog‘lom jarayon deb hisoblovchilar ham mavjuddir. Sekulyarlashuv nazariyalarining ichida kelajakda dinning fan, ratsional tafakkur, dunyoviy axloq me’yorlarining

rivojlanishi natijasida faoliyati cheklanishi to‘g‘risidagi futurologik qarashlar ham bor. Zamonaviy dinshunoslik fani talqinlariga ko‘ra, sekulyarlashuv tufayli din o‘zgarib boradi, biroq, u o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, insonlar hayotida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrda ijtimoiy fanlarda sekulyarizatsiya tushunchasi bilan birga postsekulyarlik tushunchasi ham ishlatilmoqda. Postsekulyarlik jamiyatning yangi sifat holati bo‘lib, bu bosqichda ijtimoiy makonga dinning qaytishi sodir bo‘ladi. Ushbu holatda sekulyar reallik bilan din o‘rtasidagi aloqalarning yangi shakllari vujudga keladi. Hozirgi davrda dinning ijtimoiy, jamoat va axborot sohasiga qaytishi “postnosekulyar jamiyat”ga o‘tish holati ro‘y berayotganligini ko‘rsatmoqda. Jamiyat hayotiga dinning kirib kelishi desekulyarizatsiya termini orqali ham ifodalanmoqda. Agar sekulyarizatsiyada yangi, dinsiz jamiyat qurish g‘oyasi asosiy maqsad sifatida belgilangan bo‘lsa, desekulyarizatsiyada din ijtimoiy makonga kirib kelib yangi “postnosekulyar jamiyat” qurish masalasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Global informatsion makonning paydo bo‘lishi ham postnosekulyar jarayonlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida dinga nisbatan ma’naviyat, qadriyat sifatida munosabat shakllantirilib, dinning axloqiy, tarbiyaviy jihatlaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Din vakillari ommaviy axborot vositalaridan erkin foydalanishmoqda, diniy ta’lim olish imkoniyati kengaymoqda, diniy adabiyotlarni chop etish, yangi masjidlar ochish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda dinga e’tibor kuchaytirilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Din jamiyat hayotida va inson kamolotida muhim o‘rin tutadi. Din jamiyat hayotida to‘ldiruvchilik, ovutuvchilik, birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik, nazorat qiluvchilik, aloqa bog‘lashlik kabi vazifalarni bajarib, fuqarolar birligi, hamkorligi va hamjihatligini ta’minlashga yordam beradi.
2. Din jamiyat hayotida falsafiy, nazariy vazifalarni ham bajarib, insonning yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, dorulfano, dorulbaqo – dunyo haqidagi masalalarga o‘z munosabatini bildiradi.
3. Dinshunoslik fani dinning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini, uning ta’limotini, vujudga kelishi va shakllanishini o‘rganadi. Bu fan jamiyat taraqqiyoti jarayonida din bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy hodisalar, mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, ibodatxona va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o‘rganadi hamda tahlil qiladi.

4. Har qanday din ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy ong shakli sifatida jamiyat madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Diniy tasavvur va e’tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta’sirida turli-tuman shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.
5. Ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo‘lgan dinlar rivojlanishi evolyutsiyasini e’tirof etish dinshunoslik haqida to‘g‘ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.
6. Dinshunoslik fuqarolarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda ilmga asoslangan imon va e’tiqodni qaror toptirish, ularning odob-axloqi va ma’naviyatini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalar

Dinshunoslik, din, diniylik, dindorlik, diniy ong, diniy dunyoqarash, diniy ruhiyat, diniy his-tuyg‘u, diniy kayfiyat, diniy g‘oya, diniy mafkura, diniy faoliyat, diniy munosabat, diniy ong, diniy marosim, diniy uyushma, diniy tashkilot, diniy ruhiyat, diniy mafkura, diniy g‘oyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, diniy e’tiqod, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik, urug‘-qabila, milliy, jahon dinlari, vijdon erkinligi, diniy ma’rifat, diniy madaniyat, diniy tolerantlik, diniy plyuralizm, sekulyarizatsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Dinshunoslik fani nimani o‘rganadi?
2. Din va e’tiqod tushunchalarining ma’nosi va mohiyati nimadan iborat?
3. Din falsafasi falsafiy fanlar tizimida qanday o‘rin tutadi?
4. Dinning tarixiy shakllari va turlari haqida ma’lumot bering?
5. Dinshunoslik fani tayanadigan huquqiy asoslarga nimalar kiradi ?
6. Islom ma’naviy merosi va undagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari?
7. Halqaro islom tashkilotlari va ularning faoliyati haqida gapiring?
8. Dunyoviy davlatda dinga bo‘lgan munosabat va uning huquqiy asoslari?
9. Diniy va dunyoviy dunyoqarash, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari?
10. Diniy tolerantlik va plyuralizm haqida ma’lumot bering?

XII BOB. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI

Buddaviylik va xristian dini jahon dinlari bo‘lib, bu dinlar o‘zlari paydo bo‘lgan hududlardan tashqariga ham o‘z e’tiqodlarini tarqata olgan dinlardir. Buddaviylik va xristian dini o‘z e’tiqodchilarining milliy, etnik, til, irq, tug‘ilgan joyi, fuqarolik kabi xususiyatlarini hisobga olmaydigan dinlardir. Buddaviylik va xristian diniga boshqa diniy e’tiqoddagi insonni o‘z diniga kiritishga urinish xosdir. Buddaviylik va xristian dini vujudga kelishi bilan diniy madaniyat negizida bir dindagi turli xalqlarning yaqinlashuvi jarayoni sodir bo‘la boshladi.

1-§. Buddaviylik va dini tarixi va falsafasi

Buddaviylik dunyoda birinchi paydo bo‘lgan jahon dinidir. Buddaviylik mil. av. VI – V asrlarda Hindistonda vujudga kelib, bu dinga e’tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit’alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiya respublikalarida istiqomat qiladilar. Hozirgi kunda e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahon dinlari ichida buddaviylik xristianlik va islom dinidan keyingi o‘rinni egallaydi. Buddaviylikka 500 mln. inson e’tiqod qilib, ular jahondagi 86 mamlakatda yashaydilar. Buddaviylikka e’tiqod qiluvchilardan 1millionga yaqinini rohiblar tashkil etadi.

Buddaviylik bundan salkam 2600 yil avval shimoli-sharqiy Hindistonda diniy-falsafiy ta’limot sifatida vujudga kelib, unda ko‘plab diniy manbalar va diniy yo‘nalishlar vujudga kelgan. 1956 yilda buddaviylikning 2500 yilligi nishonlangan. Buddaviylik turli milliy va diniy an’analar bilan kelishuvchanligi sababli ko‘p millatlar tomonidan keng qabul qilinib, u hayotning barcha sohalariga, diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayot sohalariga kirib bordi. Buddaviylikni din va falsafa, mafkura va madaniyat qoidalari to‘plami deb hisoblash mumkin. Bugungi kunda buddaviylik diniga e’tiqod qilib kelayotgan Sharq mamlakatlaridagi ushbu diniy ta’limotni o‘rganish u yerdagi siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy madaniyatni tushunishning asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Buddaviylik bu mamlakatlarda turmush tarzi, urf-odat va an’analar hamda oilaviy munosabatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Buddaviylik ta’limotining asoschisi hind shahzodasi Siddxartxa Gautama bo‘lib, u vafot etganidan so‘ng Budda, ya’ni “nurlangan”, “oliy haqiqatga erishgan”, “haqiqat najotkori” deb nomlangan. Buddaviylik

adabiyotlarida buddaviylik dinining asoschisi Siddxartxa Gautama (Gotama), Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan nomlangan. Bu ismlardan har biri o'zining ma'nosiga ega bo'lib, Siddxartxa – shaxsiy ism, Gautama – urug' nomi, Shakyamuni – «Shakya qabilasidan chiqqan donishmand», Budda – «nurlangan», Tadxagata – «shunday qilib, shunday ketgan», Djina – «g'olib», Bxagavan – «tantana qiluvchi», degan ma'nolarni bildiradi. Ular ichida eng mashhuri «Budda» bo'lib, shundan ushbu dinga buddaviylik degan nom berilgan.

Buddaviylik bu najot dini bo'lib, Siddxartxa Gautama yashagan davrda Hindistonda kastachilik tartibi nihoyatda kuchli edi. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'lgan. Ana shunday sharoitda jamiyat hayotida buddaviylik dini paydo bo'lib, u o'zining najot haqidagi ta'limotini ilgari surgan. Siddxartxa Gautama va uning shogirdlari yangi dinning ta'limoti mazmunini hammaga tushunarli qilib bayon etganlar. Buddaviylik Braxmanizmdan ajralib chiqib, o'zining diniy najot yo'lini taklif qilgan. Buddaning ta'lim berishicha, har qanday borliq, barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday borliq, barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday hayot – barcha mavjudotga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob uqubatlarning sababi – insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga – qayta tug'ilish dunyosi (sansara)ga bog'langanligi, ko'ngil qo'yganligidir. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob uqubatni chuqurlashtiradi, yanada dahshatliroq tarzda qayta tug'ilishga olib keladi. "Borliq girdobi"dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, turmush ko'ngilxushliklariga, lazzatlariga, hokimiyatga, boylikka intilishdan voz kechish lozim, yerdagi barcha hodisalarning beqaror va o'tkinchi ekanligini fahmlamoq darkor. Faqat shundagina "najot topish yo'liga" kirish mumkin. Najotning o'zi esa sansaradan nirvanaga, yo'qlikka o'tishdan iborat. Ilk Buddaviylikda bunday najotga faqat zohid yoki monaxgina umid qilishi mumkin edi. Oddiy odamlar esa, faqat yaxshiroq bo'lib qayta tug'ilishni umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga mo'l-ko'l xayr-sadaqa berishi hamda 5 ta axloqiy talab (pancha-shila)ga amal qilishi kerak edi. Buddaviylik qadimiy hind dinidan qayta tug'ilish zanjiri g'oyasini o'zlashtirib olgan. Bir qayta tug'ilishdan ikkinchi qayta tug'ilishga o'tish yo'li insonni azob-uqubatga mahkum qiladi, faqat nirvanaga erishgandan so'nggina inson undan qutiladi. Inson vositachisiz, o'z kuchi bilan, sahovatli hayoti bilan donishmandlikning to'rt bosqichini o'tib (arxat bo'lib) qayta tug'ilish zanjirini uzib tashlaydi va nirvanaga qarab ketadi.

Buddaviylik ta'limotining asosiy mazmuni – barcha jonli narsalarga (falsafada - santana) muhabbat bilan qarashni targ'ib qilish va aql farmoniga qat'iy bo'ysunishdir. Bilimlar xudojo'ylikka xizmat qilish uchun zarur bo'lib, ular azob-uqubatdan qutilishga yordam beradi.

Buddaviylik dini o'ziga e'tiqod qiluvchi dindorlardan og'ir qurbonliklar qilishni, murakkab marosimlarni bajarishni talab etmaganligi uchun ham qulay edi.

Buddaviylik dinining asoschisi Siddxartxa Gautama Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddxodananing o'g'li edi. Podshoh Shuddxodana o'g'lini orzu-havaslar bilan tarbiyalaydi, unga hayotning ijobiy, yaxshi tomonlarini ko'rsatib, jamiyat hayotining salbiy tomonlarini ko'rsatmaslikka harakat qiladi. Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifoqo bir keksa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bu hodisalar Siddxartxaning dunyoqarashini butunlay o'zgartirib yuboradi. U yer yuzida yashovchi jonzotlarning muqarrar azob chekishini bilib oladi. Endi uning xayolini hayotning mohiyati, mazmuni, mashaqqatlari haqidagi fikrlar egallab, u bu hayot behuda degan xulosaga keladi va bir kuni hech kimga bildirmay saroyni tashlab ketadi. Siddxartxa Gautama bu dunyo lazzatlaridan voz kechib, o'zining tarkidunyochilik hayotini boshlaydi. U odamlarni hayot azob-uqubatlaridan qutqarish yo'llarini izlab, 7 yil davomida mavjud muqaddas kitoblarni o'rganadi. Siddxartxa Gautama o'qigan muqaddas kitoblari asosida mushohada yuritib, nihoyat najot yo'lini topadi va bu yo'lni "hayot haqiqati" deb ataydi. Saroyni tashlab ketgan vaqtda Siddxartxa Gautama 29 yoshda bo'ladi. U beshta rohib bilan shahar hamda qishloqlarni kezib "hayot haqiqati" yo'lining mohiyatini targ'ib etish bilan shug'ullanadi. Siddxartxa Gautama o'z ta'limotining asosiy qoidalarini "To'rt oliy haqiqat" degan nom bilan bayon etadi. U Hindistonda birinchi monaxlik jamoasini tashkil etadi. Bu jamoa yangi din buddaviylik ta'limotini targ'ib etishda juda katta rol o'ynaydi.

Siddxartxa o'z ta'limotini yaratish jarayonida avval rohiblar bilan targ'ibot olib borishga harakat qiladi. Keyinchalik bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormasligini bilib, u rohiblar jamoasidan ajraladi. Siddxartxa Gautama birmuncha vaqt changalzor o'rmonlarda kezib yuradi, horib charchaganidan so'ng bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi. Siddxartxa Gautama to haqiqatni topmagunicha bu yerdan turmaslikka qaror qiladi. Siddxartxa Gautamaning ushbu o'tirishi 49 kunida uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi va uning ko'z oldida

butun borliq namoyon bo‘ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko‘radi, hech bir joyda osudalik yo‘q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko‘zlab o‘tib ketaveradi va sodir bo‘layotgan voqealarni inson aqli idrok qila olmaydi. Trishna – yashash, mavjud bo‘lish umidi barchaning tinchini buzib, halok qiladi va yana qayta yaratadi. Oliy haqiqatni bilgan Budda nimaga qarshi kurashish kerakligini anglaydi. Mana shu vaqtdan boshlab u Budda – ya’ni nurlangan deb, u tagida o‘tirgan daraxt esa – nurlangan daraxt (*botxa*) deb atala boshlanadi. Budda 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo‘lib, odamlarga o‘z g‘oyalarini yetkazadi, singdiradi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o‘tadi. Uning jasadi, hind udumiga ko‘ra, kuydirilib, xoki 8 ta buddaviy jamoalariga bo‘lib yuboriladi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (*stupa*) barpo etadi. Buddaviylik ta’limotida Buddaning ko‘p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida 550 marta qayta tug‘ilishi e’tirof etiladi. Bu qayta tug‘ilishlar davomida Budda 84 marta ruhoniy, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil, bundan tashqari baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida qayta tug‘ilgan deb hisoblanadi. SHu bilan birgalikda diniy ta’limotda Budda keyingi qayta tug‘ilishini qaerda, qanday qiyofada bo‘lishini o‘zi belgilaganligi aytib o‘tiladi. Buddaviylik ta’limotida so‘nggi marta Buddani xudolar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganliklari ko‘rsatiladi. Buddaviylikka tegishli afsonalarga ko‘ra, yer yuzida Gautamagacha 6 ta budda o‘tgan bo‘lib, shuning uchun buddaviylik tarqalgan hududlardagi muqaddas joylarda 7 ta ibodatxona barpo etilgani, 7 ta Bodxa daraxti o‘tqazilgani aytiladi.

Buddaviylik ta’limoti qadimiy hind diniy-falsafiy ta’limotlari asosida vujudga kelgan bo‘lib, u o‘ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo‘lgan diniy tizimni tashkil etadi. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlarni ishlab chiqmaydi, balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutulishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi. Uning ta’limoti insonning xayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy oliyjanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta’limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, varna(kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi. Budda «Yaratuvchi oliy kuch»ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, engmuhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta’limotining asosida «hayot – bu azob-uqubat» va «najot yo‘li mavjud» degan g‘oyalar yotadi. Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, inson

o‘ziga xos mavjudot bo‘lib, tug‘iladi, o‘zini-o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g‘oyalar Buddaning ilk da’vatida ta’birlangan to‘rt haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

1. Birinchi haqiqat – «azob-uqubat mavjuddir». Har bir tirik jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday dunyoviy hayot – qiynoq, azob-uqubatdir. Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, har qanday narsa yoki hodisa u xoh moddiy, xoh ma’naviy bo‘lsin, *dharma* (element)lardan tashkil topgan. Ular, o‘z xususiyatiga ko‘ra harakatsiz bo‘lib, dharmalarni qo‘zg‘atuvchi kuch insonning xayol va so‘zlaridir. Ob’yektiv haqiqat bu doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi dharmalar oqimidir. Harakatdagi dharmalar o‘z mavjudligining besh shakli – tana, sezgi, his-tuyg‘u, harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo‘ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o‘zaro mavjudligi insonning o‘limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va me’yor. Bu jarayon «hayot g‘ildiragi»ni tashkil qiladi. «Hayot g‘ildiragi»da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo‘ladi.

2. Ikkinchi haqiqat – «qiynoqlarning sabablari mavjuddir». Inson moddiy narsalar yoki ma’naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karmahozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, qaytadan qiynoqlarga duchor bo‘lish davom etadi. Ko‘pchilik buddaviylarning fikricha, Buddadan keyin hech kim nirvanaholatiga erisha olmagan.

3. Uchinchi haqiqat – «qiynoqlarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay uzilish nirvana holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Buddaviylarning fikricha, nirvanaholati «hayot g‘ildiragidan» tashqariga chiqish, «men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ularini to‘la tugatishdir.

4. To‘rtinchi haqiqat – «qiynoqlardan qutulish yo‘li mavjuddir». Bu yo‘l sakkizta narsaga amal qilish, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri harakat qilish, to‘g‘ri muomalada bo‘lish, fikrni to‘g‘ri jamlashdir. Bu yo‘ldan borgan inson Budda yo‘lini tutadi.

Buddaviylik ta’limoti, asosan, uch qismdan iborat bo‘lib, bular axloq, meditatsiya va donolikdan iboratdir.

Buddaviylikdagi axloq normalari – «Pancha shila» (Buddaning besh nasihati)dan iboratdir. Bular: qotillikdan saqlanish, o‘g‘rilikdan saqlanish,

gumrohlikdan saqlanish, yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish va mast qiluvchi narsalardan saqlanishdan iboratdir.

Meditatsiyaga quyidagilar taalluqlidir:

1) to‘g‘ri tushunish (to‘g‘ri e’tiqod qilish) – Buddaning birinchi da’vatida so‘z yuritilgan to‘rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

2) to‘g‘ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo‘lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar etkazib qo‘yishdan saqlanishga intilish;

3) o‘zini to‘g‘ri tutish – o‘ziniki bo‘lmagan narsaga ko‘z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

4) to‘g‘ri anglash – o‘z tanasi va ruhiga o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan darajada nazoratda bo‘lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo‘yish;

5) to‘g‘ri harakat qilish – o‘zidagi yomon tuyg‘ularni jilovlash hamda ezgu tuyg‘ular va harakatlarni rivojlantirish;

6) to‘g‘ri hayot kechirish – noma’qul hayot tarzidan saqlanish;

7) to‘g‘ri fikr yuritish – kamolotning to‘rt bosqichini ketma-ket bosib o‘tish;

8) to‘g‘ri gapirish – yolg‘ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

Donishmandlikesa buddaviylik ta’limotining asosiy maqsadi bo‘lib, u narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunishdan iboratdir.

Yuqorida ko‘rsatilgan uch amaliyot bosqichini o‘tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya’ni nirvanaholatiga erishadi. Nirvanaso‘zining lug‘aviy ma’nosi – «o‘chish, so‘nish» bo‘lib, unda hayotning har qandayko‘rinishiga intilish yo‘qoladi.

Buddaviylik ta’limotining yoyilishida buddaviylik jamoalarining (sangxa) roli katta bo‘lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo‘lgan to‘qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini buddaviylik diniga da’vat qilib yurganlar. Faqatgina mussonyomg‘irlari tinmay quygan uch oydagina ular o‘z ibodatxonalarida muqim bo‘lib meditatsiya bilan shug‘ullanganlar.

Mil. av. 273-232 yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddaviylik keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddaviy monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga buddaviylikni targ‘ib qilishlarini qo‘llab-quvvatladi. Buddaviy targ‘ibotchilar o‘z maqsadlarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar. Buddaviylik jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo‘lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o‘zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o‘z ta’sirlarini o‘tkazish maqsadida faoliyat olib bordilar.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda – Koreya, VI asrda – Yaponiya, VII asrda – Tibet, XIII –XVI asrlarda – Mo'g'uliston, XVII – XVIII asrlarda – Buryatiya va Tuva, XIX – XX asrlarda esa Amerika va Evropa qit'alariga kirib bordi.

Buddaviylik boshqa xudolarga sig'inishni taqiqlamaydi. Budda, ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular nirvana holatiga olib bormaydi, deb ta'lim beradi. Shu sababli buddaviylik ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan ilohiyotlari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarini egallay boshlaydi. Masalan, Hindistonning buddaviylikka mansub ilohiyotlari dunyoni yaratuvchi Braxma, chaqmoq va momaqaldiroq xudosi Indra, hunarmandchilar homiysi Xatimanu, Tibetda qahramon Baser timsoli, Mo'g'ulistonda Chingizxon kabi milliy qahramonlar buddaviylik ilohiyotlari timsoliga aylangan. Biroq bu ilohiyotlar nirvanaholatiga olib bormaydi. Faqatgina Budda nirvanaga boshlay oladi va shu yo'sinda insonni azoblardan xalos etadi.

Buddaviylik ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan bo'lib, ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uchqismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi ShriLankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Buddatarg'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi,xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari – Vinaya-pitaka, buddaviylikning falsafiy vapsixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikkaoid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddaviylik tarixi uchun ahamiyati ozroq. Buddahayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.

Buddaviylikning Maxayana yo'nalishi I asrda Xitoyga kirib kelib, III – VI asrlarda buddaviylik Xitoy hududida keng tarqaladi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin buddaviylik ibodatxonalari hamda diniy markazlari faoliyat yuritgan.

Buddaviylikning Maxayana yo'nalishining shakllanishida Kushon davlatining ham roli katta bo'lgan. Aynan Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning to'rt qurultoyidan so'ng buddaviylikning Maxayana yo'nalishi Markaziy Osiyo davlat va shaharlariga tarqala boshlaydi. Buyuk Ipak yo'li orqali ilk buddaviy targ'ibotchilar mil. av. II asrdayoq Xitoyga kelgan edilar. IV – V asrlarda buddaviylik katta muvaffaqiyatga erisha

boshladi. Ushbu ta'limot o'lkaning janubiy viloyatlariga yanada chuqurroq joylashdi. IV asrning o'rtalariga kelib Xitoyda ayollar ibodatxonalari, ayol monaxlar va tinglovchilar paydo bo'ldi. SHu asrning oxiriga borib, podshohlar buddaviylik ibodatxonalariga doimiy ravishda katta miqdordagi xayriyalarni beradigan bo'ldilar. Bu davrda Sharqiy Szin davlatining o'zidagina 1786 ta sangxa, 24 ming monax mavjud bo'lgan. Xususan, imperator Siyaou-Di 381 yili birinchi bo'lib o'zinibuddaviy deb e'lon qildi. U saroyida ibodatxona barpo qildirib, unga monax keltirishni buyurdi. Lyaosulolasidan bo'lgan U-Di hokimligi davrida (502-549) buddaviylik mamlakat janubida rasmiy dinsifatida tan olindi. SHunday qilib, buddizm miloddan avvalgi birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ra-tepa, Dalvarzin-tepa, Quva, Zar-tepa, Qorovul-tepa, Ayritom mavzelaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va stupaqoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddaviylikka katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

1. Buddaviylikning asosiy yo'nalishlaridan biri Xinayana yo'nalishidir. Xinayana «kichik arava» ma'nosini anglatib, u diniy yo'nalish sifatida miloddan avvalgi I asrda shakllangan. Biroq uning asosiy qoidalari ancha avval, shu jumladan, Tripitakada bayon qilingan.

Xinayana ta'limotiga ko'ra, dharmalar tabiatini o'rganishga va nirvanaga ma'naviy yo'l bilan erishiladi. Bu yo'l juda og'ir, shu sababli faqat monaxlargina nirvana holatiga yetishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar (masalan, «Budda tishiga sig'inish»), buddaviylikning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo'nalish Sharqiy Hindistonda, Shri Lanka, Hindi-xitoy davlatlarida tarqalgan.

2. Maxayana Xinayana bilan bir qatorda buddaviylikdagi ikkinchi asosiy yo'nalish bo'lib, u ruhiy kamolot ahdiga rioya etuvchi, xudoga iltijo qiluvchi rohiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday oddiy dindor najot topishi mumkin, degan ta'limotga asoslanadi. Unga ko'ra, Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli maxluqotlar shakliga kirishi va hayot zanjirining barcha vakillari uni o'rganishi, anglashi mumkin. Bu narsa cheksiz Budda ramzlarining, xudolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barcha uchun mumkin bo'lganligi sababli u «katta arava» degan nom olgan.

3. Buddaviylikdagi Szintuyo'nalishi Xitoyda vujudga kelib, keyinchalik Yaponiyaga o'tgan. Unga Xuey-Yuan asos solgan. V – VII asrlarda uning shogirdlari bu yo'nalishni rivojlantirganlar. Shuningdek, ushbu yo'nalish

Xitoy buddaviyligida sezilarli mavqega ega bo‘lib, rasman e’tirof etilgan. Xitoyshunos olimlarning ta’kidlashlariga qaraganda, Szintu yo‘nalishi daosizm, hatto qadimgi Xitoy «sinizm»i ta’sirida shakllangan.

4. Buddaviylikdagi Tyantay yoki Tendayyo‘nalishi shunday deb atalgan bir ibodatxona nomi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yo‘nalishning ilk va ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri monax Chji-I bo‘lgan. Chji-I ta’limotiga ko‘ra, bu dunyodagi hamma narsa haqiqiy emas, ular faqat bo‘shliqdan iborat bo‘lib, vaqtinchalik mavjuddir. Mana shu asosga binoan u xulosa qiladiki, olamdagi barcha narsa yolg‘iz mazmundadir. Budda hatto mayda qum zarrachalarida ham mavjud bo‘lishi va oxirida esa har birinsonning hayoti Budda hayotining bir qismi bo‘lishi mumkin.

Ushbu ta’limotni Chjan-Jan (711-782) maktabining 9-patriarxi rivojlantirib, shunday xulosaga keldi: Budda hamma joyda, hamma narsada, hattoki jonsiz narsalarda ham mavjud bo‘lib, ularda Budda-tabiatining bir bo‘lagi mavjud.Tyantay yo‘nalishi o‘z tarafdorlari orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan va XIV asrga qadar mavjud bo‘lgan. Xitoyda, yuqoridagilardan tashqari, ko‘plab mayda sektalar ham bo‘lgan. Ular orasida mamlakat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan «Chan» va «Tantrizm» yo‘nalishlarini alohida qayd etish o‘rinli.

Buddaviylikdagi Tantrizm yo‘nalishi Hindistonda birinchi ming yillik o‘rtalarida vujudga kelib, keyinchalik Xitoyga ham o‘tgan. Buddaviylikning ushbu yo‘nalishi VIII asrga kelib juda taraqqiy topdi. Bunga mazkur yo‘nalishning uch mashhur patriarxlari Hindistondan kelib faoliyat olib borishlari sabab bo‘ldi. Tantrizm mustaqil hamda ta’sirchan yo‘nalish sifatida Xitoyda uzoq qolmadi.

5. Chan-buddizm yo‘nalishining nomi sanskrit tilidagi «dxiana» (meditatsiya, fikrni jamlash) so‘zidan kelib chiqqan. Hindistonda vujudga kelgan dxianabuddaviylik maktabi tarafdorlarivaqti-vaqti bilan tashqi olamdan uzilib, ushbu abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtagajamlash ta’limotini ilgari surganlar. Bu ishda kishi, haqiqatan ham, trans holatiga tushadigan bo‘lsa,bu orqali haqiqatga erishish dxiananing oliy maqsadi hisoblanadi. Chan meditatsiyasi hind dxianasidagi meditatsiyaning oddiy takrori, aynan rivojlangan shakli bo‘lmay, mazkur ta’limot hind buddaviyligiga qarama-qarshi ta’limot sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, Chan yo‘nalishi Xitoy buddaviyligining boshqa oqimlariga qaraganda ko‘proq Xitoyga xosroq.

6. Lamaizm buddaviylikning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tibet tilida «lama» – «eng ulug‘» degan ma’noni bildiradi. Lamaizm yo‘nalishi rahbari shu nom bilan – lama deb ataladi. Lamaizm Tibetda VII – XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi)

unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan va bo‘lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa mazhablarga bo‘lingan. Lamaizm XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar, XVI asr oxiridan mo‘g‘ullar orasida ham tarqaldi. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar yordamida najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga etishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta’kidlanadi. Lamaizmning an’anaviy qonunlashgan asosi Kanjur (108 jildli) va Tanjur (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Bu dinda dabdabali ibodatlar, teatrlashtirilgan muqaddas tomoshalar – misteriyalar, ko‘pgina maishiy rasm-rusumlar, xudolarning g‘azabini, yovuz ruhlarning ziyonlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va afsunlar bor. Lamaizmga ko‘ra, lamalarga va dunyoviy hokimlarga so‘zsiz bo‘ysunish asosiy fazilat sanaladi. Masalan, buryat lamalari rus podshohlarini avatara, ya’ni ma’buda Sagan-Daraexening yerdagi ko‘rinishi deb e’lon qilganlar. Lamaizm ta’limotiga ko‘ra, odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, tuhmat, g‘iybat, bekorchi so‘zlash, ochko‘zlik, kek saqlash, buzuqlik – o‘nta «og‘ir gunoh» sanaladi. Gunoh qilishdan o‘zini tiyish insonga eng yaxshi qayta tug‘ilishgaimkon beradi. Lamaizm yo‘nalishining oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama sanaladi. U tug‘ilgan mavjudotlarning eng ulug‘i, bodxisatva Avalakiteshvaraning yerdagi ko‘rinishi, tirik xudohisoblanadi. Dalay– tibettilida «dengiz» ma’nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug‘ lama» deganidir. Bu unvon 1391yilda joriy qilingan bo‘lib, birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391-1475) bo‘lgan. Hozirgi kunda Dalay-LamaXIV Lozondantzenjanso-Igvant hisoblanadi. U 1935 yilda tug‘ilgan. Uningo‘limi bilan yerda yangiDalay-Lama paydo bo‘ladi. Oliy lamalardan tashkil qilingan hay’at uning o‘limidan so‘ng bir yilmobaynida yangi tug‘ilgan go‘daklar orasidan yangi Dalay-Lamani qidirib topadilar. Shundan so‘ng go‘dakmonastirda tarbiyalanadi. U voyaga yetgunga qadar uning vazifasini regent muvaqqat vakil bajaribturadi. Lamaizm diniy hayotining markazini monastir tashkil qiladi. U yerda Dalay-Lama, Lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradilar.

Buddaviylik boshqa hududlar bilan birgalikda Markaziy Osiyoga ham keng tarqalgan. Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixini o‘rganish bo‘yicha T.V. tadqiqotchilardan L.I. Albaum, R.Ch. Bagchi, V.V. Bartold, Belyaeva, A.N. Bernshtam, V.A. Bulatova, V.P. Vasilev, B.V. Veymarn, V.V. Vertogradova, V.L. Vyatkin, T.V. Grek, B.P. Denike, E.P. Denisov, B.N. Zasipkin, T.I. Zeymal, A.N. Zelinskiy, V.N. Kesaev, G.A.

Xitoy buddaviyligida sezilarli mavqega ega bo‘lib, rasman e’tirof etilgan. Xitoyshunos olimlarning ta’kidlashlariga qaraganda, Szintu yo‘nalishi daosizm, hatto qadimgi Xitoy «sinizm»i ta’sirida shakllangan.

4. Buddaviylikdagi Tyantay yoki Tendayyo‘nalishi shunday deb atalgan bir ibodatxona nomi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yo‘nalishning ilk va ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri monax Chji-I bo‘lgan. Chji-I ta’limotiga ko‘ra, bu dunyodagi hamma narsa haqiqiy emas, ular faqat bo‘shliqdan iborat bo‘lib, vaqtinchalik mavjuddir. Mana shu asosga binoan u xulosa qiladiki, olamdagi barcha narsa yolg‘iz mazmundadir. Budda hatto mayda qum zarrachalarida ham mavjud bo‘lishi va oxirida esa har birinsonning hayoti Budda hayotining bir qismi bo‘lishi mumkin.

Ushbu ta’limotni Chjan-Jan (711-782) maktabining 9-patriarxi rivojlantirib, shunday xulosaga keldi: Budda hamma joyda, hamma narsada, hattoki jonsiz narsalarda ham mavjud bo‘lib, ularda Budda-tabiatining bir bo‘lagi mavjud.Tyantay yo‘nalishi o‘z tarafdorlari orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan va XIV asrga qadar mavjud bo‘lgan. Xitoyda, yuqoridagilardan tashqari, ko‘plab mayda sektalar ham bo‘lgan. Ular orasida mamlakat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan «Chan» va «Tantrizm» yo‘nalishlarini alohida qayd etish o‘rinli.

Buddaviylikdagi Tantrizm yo‘nalishi Hindistonda birinchi ming yillik o‘rtalarida vujudga kelib, keyinchalik Xitoyga ham o‘tgan. Buddaviylikning ushbu yo‘nalishi VIII asrga kelib juda taraqqiy topdi. Bunga mazkur yo‘nalishning uch mashhur patriarxlari Hindistondan kelib faoliyat olib borishlari sabab bo‘ldi. Tantrizm mustaqil hamda ta’sirchan yo‘nalish sifatida Xitoyda uzoq qolmadi.

5. Chan-buddizm yo‘nalishining nomi sanskrit tilidagi «dxiana» (meditatsiya, fikrni jamlash) so‘zidan kelib chiqqan. Hindistonda vujudga kelgan dxianabuddaviylik maktabi tarafdorlarivaqti-vaqti bilan tashqi olamdan uzilib, ushbu abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtagajamlash ta’limotini ilgari surganlar. Bu ishda kishi, haqiqatan ham, trans holatiga tushadigan bo‘lsa,bu orqali haqiqatga erishish dxiananing oliy maqsadi hisoblanadi. Chan meditatsiyasi hind dxianasidagi meditatsiyaning oddiy takrori, aynan rivojlangan shakli bo‘lmay, mazkur ta’limot hind buddaviyligiga qarama-qarshi ta’limot sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, Chan yo‘nalishi Xitoy buddaviyligining boshqa oqimlariga qaraganda ko‘proq Xitoyga xosroq.

6. Lamaizm buddaviylikning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tibet tilida «lama» – «eng ulug‘» degan ma’noni bildiradi. Lamaizm yo‘nalishi rahbari shu nom bilan – lama deb ataladi. Lamaizm Tibetda VII – XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi)

unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo‘lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo‘lingan. Lamaizm XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar, XVI asr oxiridan mo‘g‘ullar orasida ham tarqaldi. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar yordamida najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga etishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta’kidlanadi. Lamaizmning an’anaviy qonunlashgan asosi Kanjur (108 jildli) va Tanjur (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Bu dinda dabdabali ibodatlar, teatrlashtirilgan muqaddas tomoshalar – misteriyalar, ko‘pgina maishiy rasm-rusumlar, xudolarning g‘azabini, yovuz ruhlarning ziyonlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va afsunlar bor. Lamaizmga ko‘ra, lamalarga va dunyoviy hokimlarga so‘zsiz bo‘ysunish asosiy fazilat sanaladi. Masalan, buryat lamalari rus podshohlarini – avatara, ya’ni ma’buda Sagan-Daraexening yerdagi ko‘rinishi deb e’lon qilganlar. Lamaizm ta’limotiga ko‘ra, odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, tuhmat, g‘iybat, bekorchi so‘zlash, ochko‘zlik, kek saqlash, buzuqlik – o‘nta «og‘ir gunoh» sanaladi. Gunoh qilishdan o‘zini tiyish insonga eng yaxshi qayta tug‘ilishgaimkon beradi. Lamaizm yo‘nalishining oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama sanaladi. U tug‘ilgan mavjudotlarning eng ulug‘i, bodxisatva Avalakiteshvaraning yerdagi ko‘rinishi, tirik xudohisoblanadi. Dalay– tibettilida «dengiz» ma’nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug‘ lama» deganidir. Bu unvon 1391yilda joriy qilingan bo‘lib, birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391-1475) bo‘lgan. Hozirgi kunda Dalay-LamaXIV Lozondantzenjanso-Igvant hisoblanadi. U 1935 yilda tug‘ilgan. Uningo‘limi bilan yerda yangiDalay-Lama paydo bo‘ladi. Oliy lamalardan tashkil qilingan hay’at uning o‘limidan so‘ng bir yilmobaynida yangi tug‘ilgan go‘daklar orasidan yangi Dalay-Lamani qidirib topadilar. Shundan so‘ng go‘dakmonastirda tarbiyalanadi. U voyaga yetgunga qadar uning vazifasini regent – muvaqqat vakil bajaribturadi. Lamaizm diniy hayotining markazini monastir tashkil qiladi. U yerda Dalay-Lama, Lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradilar.

Buddaviylik boshqa hududlar bilan birgalikda Markaziy Osiyoga ham keng tarqalgan. Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotchilardan L.I. Albaum, R.Ch. Bagchi, V.V. Bartold, T.V. Belyaeva, A.N. Bernshtam, V.A. Bulatova, V.P. Vasilev, B.V. Veymarn, V.V. Vertogradova, V.L. Vyatkin, T.V. Grek, B.P. Denike, E.P. Denisov, B.N. Zasipkin, T.I. Zeymal, A.N. Zelinskiy, V.N. Kesaev, G.A.

Koshelenko, V.A. Livshits, B.A. Litvinskiy, M.E. Masson, G.V. Parfyonov, G.A. Pugachenkova, E.G. Pchelina, E.V. Rtveladze, B.Ya. Staviskiy, A.S. Strelkov, B.A. Turg'unov, Z.I. Usmonova, V.B. Henning, V.A. Shishkin kabi o'zbekistonlik va chet ellik arxeolog olimlar izlanishlar olib borganlar. Ularning ekspeditsiyalari natijasida yozilgan maqola, risola va monografiyalar ushbu mavzuni o'rganishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bir guruh tadqiqotchilar mazkur din Markaziy Osiyoga kirib kelishini Kushonlar shohi Kanishka hukmronligi davriga taalluqli deb biladilar (I asrning oxiri – II asrning boshlari). Ikkinchi guruh esa bu jarayonning boshlanishini biroz ertaroq deb hisoblaydilar. Tadqiqotchi B.A. Litvinskiyning fikricha, buddaviylik Shimoli-G'arbiy Hindiston va Janubiy Afg'oniston (Qandahor) orqali taxminan miloddan avvalgi III asrda Baqtriyaga (O'zbekistonning janubiy hududlari) tarqala boshlagan. Baqtriyaga buddaviylikning kirib kelishi va yoyilishi haqida boshqa fikr ham mavjud. Tadqiqotchi R.Ch. Bagchi bu jarayon podshoh Ashoka (miloddan avvalgi 273-232 yillar) hukmronligi davrida yuz bergan deb hisoblaydi. Ammo bu fikrni tasdiqlovchi arxeologik materiallar yetarli emas. Shuning uchun ham buddaviylik bu hududga Kushonlar davrida kirib kelgan degan fikr haqiqatga yaqinroq. Chunonchi B.Ya. Staviskiy bu fikrni Kushonlar hukumatining hind viloyatlari va buddaviy jamoalarning homiylari bilan aloqalari mustahkam bo'lganligi bilan isbotlaydi. Ammo shu bilan bir qatorda baqtriyaliklarning Kanishkaga qadar buddaviylik bilan tanish bo'lganliklarini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig'ida Kushon imperiyasida buddaviylikning Maxayana yo'nalishi davlat dini deb e'lon qilindi. Bungacha buddaviylik Hindistonda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, u yerda asosiy yo'nalish bo'lgan Xinayana ham bunday mavqega erishmagan edi. Kanishka, Vima Kadfiz vaulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylikni keng yoydilar. Ular bu din an'analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda buddaviylik takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxonalarini qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari, sutra va pastrilarni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar. Hozirgi Termizdagi Qora-tepa, Fayoz-tepa, Sayram, Quva va boshqa joylarda topilayotgan budda haykalchalari yoki ularning parchalari, Ayritomdagi ayvon peshtoqi parchasidagi buddaviy musiqachilarning tasviri va boshqa osori atiqalar, saroy va ibodatxonalar Markaziy Osiyodagi buddaviylik haqida xabar beruvchi manbalardir. Bu dinga tegishli yozma manbalar qadimgi turkiy yozuvda, uyg'ur bitiklarida va

boshqa yozuvlarda saqlanib qolgan. Markaziy Osiyoning janubida Sarvastivadamaktabining ilk ko'rinishi – Vaybxashika maktabining ta'limoti yoyilgan. U buddaviylikning Xinayana oqimiga tegishli. Ammo Vaybxashika ta'limoti ba'zi jihatlari bilan Maxayana doirasidagi maktablarga yaqin turadi. Bunda, ayniqsa, Maxayana doirasiga kiruvchi Sarvastivadaning Vinayamaktabi muhim ahamiyatga ega. Manbalarning xabar berishicha, Xo'tanda maktabi vakillari Maxayanani yoyish uchun zamin tayyorlaganlar. Markaziy Osiyoda buddaviylikning boshqa maktablari ham yoyilgan. Qora-tepadan topilgan sopol buyumlardagi kxaroshtxi yozuvlari bu yerdagi Maxasangxika ta'limotini aks ettiradi. Maxasangxika maktabi Markaziy Osiyoda buddaviylikning tarqalishida muhim rol o'ynagan. Qora-tepaning boshqa qismida braxmi yozuvidagi bitiklar esa Markaziy Osiyoga keyinchalik Kanishka davrida kirib kelgan Sarvastivada buddaviylik maktabi ta'limotining yoyilganligidan xabar beradi.

Mil. av. III – I asrlarda buddaviylik Hindiston hududidan chiqib janubi-sharqiy yo'nalish bo'yicha asosan Xinayana ta'limoti shaklida yoyilgan. Lekin milodning boshlarida shimolga, shimoli-g'arbga hamda shimoli-sharqqa Maxayana tarzida harakat qildi. Buning sababi bir necha asrlar mobaynida Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo hududlarining yagona Kushon saltanati bayrog'i ostida birlashtirilishi bo'ldi. Aynan Markaziy Osiyo orqali buddaviylik Uzoq Sharqqa kirib bordi va u yerda ikkinchi hayotini boshladi.

Markaziy Osiyoda buddaviylikka tegishli tarixiy obidalarning ko'pligi jihatidan Fayoz-tepa eng yirik yodgorlik hisoblanadi. U yerdan chiqqan diniy bitiklar, haykallar bilan birga topilgan ibodatxonaning hududi ancha katta joyni egallaydi. 1926 yilda A.S. Strelkov tomonidan aniqlangan Eski Termizning sharqidagi Zurmala minorasi Markaziy Osiyo hududidagi birinchi ochilgan, katta ahamiyatga molik bo'lgan buddaviylik inshootidir. Eski Termizdan topilgan Qora-tepa buddaviylik majmuasi milodning I asri Kushon saltanatining gullagan davriga to'g'ri keladi. Qora-tepadagi har bir inshoot yer usti va g'or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, bir monax (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat. Dalvarzin-tepa majmuasi 1967-1968 yillarda qazib ochilgan bo'lib, Termiz yaqinidagi Surxon vohasining o'rta qismida joylashgan. Mazkur kompleks G.A. Pugachenkova va B.A. Turg'unov boshchiligidagi arxeologlar tomonidan ochildi.

Dalvarzin-tepada topilgan buddaviylik majmuasi bu din ta'limoti Kushon saltanatining shimoliy viloyatlariga I asrda yoyilganligini ko'rsatadi. Janubiy O'zbekistonda joylashgan Baqtriya-Toxaristonning

shimoliy qismida 60-yillarning ikkinchi yarmidan 80-yillargacha buddaviylik inshootlarining yettitasi aniqlanib o‘rganildi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan Janubiy Tojikistondagi Ajina-tepa, Kofir-qal’adagi kichik ibodatxona, Qal’a-i Kofirnigon ibodatxonasi, Ayritom majmuasi, Turkmanistondagi Marvdan 30 km uzoqlikda joylashgan Gyaur-qal’a majmuasi, Quvadagi ibodatxona va boshqa ko‘plab buddaviylikka tegishli yodgorliklar ushbu dinning mazkur mintaqadagi tarixi haqida xabar beradi.

Markaziy Osiyoning Marv, Balx, Termiz, Sug‘diyona viloyati, Quva, Koson, Samarqand va Buxoro kabi shaharlari, viloyatlari buddaviylik ta’limoti va marosimlarini ishlab chiqishda, boshqa o‘lkalar, mamlakatlarda targ‘ib va tashviq etishda, eng muhimi, buddaviylikning hozirgi zamonning ilg‘or jahon dinlaridan biriga aylanishida favqulodda ahamiyatga ega markazlari bo‘lgan. Sug‘d viloyati Xitoy bilan savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarni o‘rnatishda ahamiyatli rol o‘ynagan. Sug‘dliklar Xitoyda buddaviylikni yoyishda juda muhim o‘rin egallaydilar. Biroq Sug‘dda buddaviylikning keng yoyilganligi masalasi haligacha ochiq qolmoqda. To‘g‘ri, hozirga qadar bu yerda buddaviylikka oid ba’zi haykalchalar, Sanzordagi buddaviylik ibodatxonasi, Samarqand yaqinida budda haykalining boshi topilgani ma’lum. Ammo bu topilmalar ushbu hududda bu din keng tarqalgan degan xulosani chiqarishga hozircha yetarli emas. Surxondaryo Toxaristonidan chiqqan buddaviylikning yirik vakili – Tanmonanti (yoki Dxarmanandin). U yoshligidan tarkidunyochilik yo‘lini tutib, uzlatga chekingan. Yosh bo‘lsa-da, aqli tiniq bo‘lib, *sutralarni* o‘rgangan va yoddan aytib yurgan, bunga o‘zining butun borlig‘ini bag‘ishlagan. U Tripitakani to‘la o‘zlashtirgan. Dxarmanandinning ilmdagi salohiyati chuqur va benihoya edi. U o‘z vatanida ham, boshqa uzoq yerlarda ham katta obro‘ga ega bo‘lgan. 365-385 yillarda Dxarmanandin Xitoyning CHan’an viloyatiga Budda ta’limotini targ‘ib etgani va ibodatxonalar, vag‘nva vixaralar qurgani kelgan. Imperator Fu Szyan Xitoydagi barcha avliyolarning Dxarmanandinga ko‘rsatayotgan izzat-hurmatini ko‘rib, uni juda oliy maqomli mehmon sifatida kutib oladi va tortiqlar qiladi. Xitoyda bu paytda buddaviylik ancha keng tarqalganiga qaramay, to‘rt qismli Agama-Sutralardan birortasi ham hali xitoy tiliga tarjima qilinmagan edi. Imperator Fu Szyanning maslahatchisi va Uvey tumani hokimi Chjao Chjen Dxarmanandindan ana shu sutralarnitarjima qilib berishini so‘rash niyatida edilar. Chjao Chjen barcha avliyolar va Dxarmanandinni o‘z poytaxtiga taklif etib, Agama-Sutralarning ikkitasini – Chjun va Szen hamda mustaqil asarlar sanalgan Pi Tan Sin, San Fa Du va boshqa asarlarni tarjima etish, sharhlab berish va e’lon etishni iltimos

qiladi. Dxarmanandin bu ishga 2 yil rahbarlik qilib, uni muvafaqqiyatli yakunlaydi. So‘ngra o‘z vataniga qaytadi, lekin uning qachon va qayerda vafot etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bizgacha etib kelmagan.

Turkiy xalqlar butun Osiyoni, Xitoy va Uzoq Sharqni nafaqat qilich va ot kuchi bilan zabt etishgan, balki mavjud bo‘lgan diniy-falsafiy ta’limotlar, madaniyat, insonparvarlik sohalarida ham yetakchilik qilganlar. O‘zlaridan boshqa xalqlarni «varvarlar» deb atagan kalondimog‘ qadimxitoy siyosatchilari ham bu jihatdan ularni tan olishga majbur bo‘lganlar.

2-§. Xristianlik dini va falsafasi

Xristianlik buddaviylik va islom dinlari kabi jahonda eng keng tarqalgandinlardan biridir.Xristianlik diniga e’tiqod qiluvchilarning soni boshqa dinlarga qaraganda eng ko‘pbo‘lib, bu ko‘rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini tashkil etadi. Jahondagi 220 davlatda 2,4 milliard xristian diniga e’tiqod qiluvchilar mavjud bo‘lib, xristianlikning butun dunyoda keng tarqalishiga buyuk geografik kashfiyotlardan keyin yangi hududlarni egallab olish hamda faol tarzda olib borilgan missionerlik harakatlari o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xristianlik asosan Evropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit’alaridatarqalgan jahon dinidir.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko‘ra, xristianlik ta’limotining asoschisi bo‘lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog‘ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga kelgan. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog‘liq deb hisoblanadi.

Milodning boshlarida yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog‘liq og‘ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan, Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan, Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko‘mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o‘rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo‘ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g‘oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg‘in qildilar. Isoni 33 yoshida fitnachilikda ayblab, qatl etishga hukm qildilar. Isoning tarixi xususida diniy va diniy bo‘lmagan manbalar orasida ixtilof

mavjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'lmagan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs deb hisoblovchilar ham bor. Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – ivritdagi meshiaxso'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, nazroniyadeb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom nasroniyashaklini olgan. Iso Masih o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – havoriylarga o'rgatadi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi.

Xristianlik o'zining ta'limotiga ega bo'lib, manbalarning xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Shu bois xristianlikning shakllanishiga yaxudiylik ham o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Xristianlikning asosiy g'oyasi – Isoning odamzodning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir. Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida «gunohni yuvish», ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik Ota-Xudo, o'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch yuzlik Xudo (Trinity) to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi. Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asr boshlarida, yani 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshirildi. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirdi. Bu soborda «e'tiqod timsoli»ning (Credo) dastlabki tahriri qabul qilingan, *Pasxa*ni bayram qilish vaqti belgilangan. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. Bu soborda Nikeyada qabul qilingan «e'tiqod timsoli»ga aniqlik kiritish, ariychilar, evnomiychilar, fotinianlar, savelianlar kabi adashgan firqalar bilan kurashish masalalari ko'rilgan. II Jahon sobori troitsa(Trinity) haqidagi qoidani ishlab chiqqan va «e'tiqod

timsoli»ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa yepiskoplarga nisbatan imtiyozlarga egadegan qoidani kiritgan.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta'limoti katta ahamiyat kasb etadi. V asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan. Avgustinning taqdir haqidagi ta'limotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o'rin egallashi mumkin, chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristianlikda bir nechta oqimlar mavjud bo'lib,Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav (ortodoks) cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Konstantinopol patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keladi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida papa Nikolay va Konstantinopol patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolitsizmdan bir necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakati vujudga keldi. Buning natijasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

1. Xristianlikdagi Pravoslav oqimi tarixan xristianlikning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Xristianlikdagi Pravoslav oqimi asosan, Sharqiy Evropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi. Muqaddas kitob bo'lgan Injil va muqaddas o'gitlar, IV – VIII asrlardagi yetti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan. Xristianlikning sharqiy tarmog'i bo'lgan pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 16 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus

pravoslav cherkovi (RPCh, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo‘lib, unga 19 ming cherkov va 127 eparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 eparxiya chet eldafaoliyat olib boradi. Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o‘rin egallaydi. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo‘ladi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxadan so‘ngpravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Bular:

1. Bibi Maryamning tug‘ilishi (Rojdestvo Bojey materi);
2. Isoning xochini tiklash (Vozdvijenie kresta Gospodnya);
3. Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsi);
4. Isoning tug‘ilishi (Rojdestvo Xristovo);
5. Isoni cho‘qintirish (Kreshenie Gospodnya);
6. Olqishlash (Sretenie);
7. Xushxabarning nozil bo‘lishi (Blagoveshanie);
8. Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospodnya v Ierusalim) – pasxa postidan6 hafta keyingiyakshanba;
9. Isoning qayta tirilishi (Voskresene Xristovo) – Pasxa, bahorgi kecha va kunduz tengligi va oyto‘lishgan birinchi yakshanba;
10. Isoning osmonga ko‘tarilishi (Voznesenie Iisusa) – Pasxadan 39 kun keyin;
11. Muqaddas Ruhning tushishi (Soshestvie Svyatogo duxa – Troitsin Den);
12. Iso qiyofasining o‘zgarishi (Preobrajenie) – 6 avgustda.

Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1 sentyabrdan boshlanadi. 8 sentyabr kuni «Rojdestvo Bojey materi» bayrami o‘tkaziladi. 12 sentyabr kuni «Vozdvijenie kresta Gospodnya» bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliy davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag‘ishlanadi. 21 noyabr kuni «Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsi» bayrami o‘tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoniy tomonidan Qadimiy Ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag‘ishlanadi. Ibodatxonaga kirish bayramidan bir hafta oldin, yani 15 noyabrda Rojdestvo postiboshlanadi. Va nihoyat, 20 dekabrda Rojdestvo bayrami kiradi va 31 yanvargacha davom etadi. Isoning cho‘qintirilishi (Kreshenie Gospodnya) bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yahyo tomonidan cho‘qintirilishiga bag‘ishlanadi. Navbatdagi yana bir yirik bayram Sretenie (olqishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug‘ilgach, avliyo Simeon tomonidan

uning kutib olinishiga bag‘ishlanadi. Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa – Isoning o‘lganidan so‘ng qayta tirilganini nishonlab o‘tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog‘liq bo‘lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to‘la ajralib chiqqach, Pasxa yangicha tus oladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgarlik sifatida turli muddatli postlar o‘tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat. Rus Pravoslavining ko‘p kunlik postlari (ro‘zalari) bo‘lib, ular to‘rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug‘ilgan kundan oldin bo‘ladigan postlar. Pasxa oldidan bo‘ladigan «Velikiy post» 40 kunga cho‘ziladi. Ushbu post davrida – eski hisob bo‘yicha 25martda «Blagoveshenie» bayrami o‘tkaziladi. Post boshlanishidan olti hafta o‘tgach, yakshanba kunixristianlikning o‘n ikkinchi bayrami yoki 8-bayram «Xudoning Quddusga kirishi» nishonlanadi.

Pravoslav oqimida bir qancha diniy mansablar mavjud bo‘lib, Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo‘linadi: 1) diakon, 2) ruhoniy (svyashennik), 3) episkop. Diakon (grek. “xizmatchi”) ruhoniylikning eng quyi tabaqasi hisoblanadi. U mustaqil hech qanday ibodatni boshqara olmaydi, balki faqatgina ruhoniy yoki episkopga ibodat marosimini o‘tkazishda yordam bera oladi, xolos. Uni ruhoniylik sirliligiga (tainstvo) episkop qabul qiladi. Katta diakonlar protodiakon, rohib diakonlar ierodiakon, katta ierodiakonlar arxidiakon deb ataladi. Ruhoniy (svyashennik) yoki ierey pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. U boshqalarni ruhoniylikka bag‘ishlash va cherkov suvini muqaddaslashtirishdan boshqa barcha sirli marosimlarni bajara oladi. Kichik ruhoniylar ierey, katta ruhoniylar protoierey va eng katta ruhoniylar protopresviter deb nomlanadi. Episkop yoki arxiierey ruhoniylikning eng oliy unvoni hisoblanadi. Episkoplar barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma’lum bir shahar, viloyat cherkovi yoki eparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq episkoplar arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabipatriarxdir.

2. Xristianlikdagi yana bir yirik yo‘nalish bu katolik oqimidir. Katolitsizm Evropa, Osiyo,Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishinitashkil etadi. Katolitsizm “umumiy, dunyoviy” degan ma’nolarni ifodalaydi. Uning manbai uncha katta bo‘lmagan Rim Xristian jamoasi bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra uning birinchi

episkopi apostol Petr bo‘lgan. Katolik diniy ta’limotining asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi etti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo‘lib o‘tgan barcha soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi. Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik – selibathaqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko‘rinishga ega, diniy o‘qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolitsizmda ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig‘inish odatlari mavjuddir. Katolitsizm xristianlikning yo‘nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta’limot, sig‘inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat’iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovningboshlig‘i bo‘lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyatidunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi. Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta’limotni noan’anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, pravoslavcherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta’kidlanishicha, Muqaddas Ruh Ota-Xudodan kelibchiqadi. Katolik aqidasiga ko‘ra esa Muqaddas Ruh Ota-Xudodan va o‘g‘il-Xudodan kelib chiqadi.

Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o‘ziga xos alohida ta’limot shakllangan. Najotning asosi imon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, katolik ta’limotiga ko‘ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zaxirasiga» ega. Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya’ni gunohlarni afv etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Cherkov pul yoki tuhfa evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirish – indulgensiya haqidagi ta’limot mana shundan kelib chiqqan. A’rof haqidagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi mavze) aqida faqat katolik ta’limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in’ikosidir), keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a’rofda bo‘lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o‘lganlar xotirasiga yaqinlari tomonidan qilinadi. A’rof haqidagi ta’limot I asrdayoq paydo bo‘lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a’rof haqidagi ta’limotni

rad etadi. Bundan tashqari pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi yetti asrorni tan oladi, biroq bu asrorlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, pricheshenie (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy(miryane)larga non va vino bilan, shuningdek, faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Miropomazanie (cho'qinuvchining peshonasiga eley surkash) etti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dakligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmishlari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi zarur. Pravoslavlarda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylik qabul qiladi. Katoliklarda esa nikohsizlik (selibat) papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir. Katolitsizmning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, shuningdek, postlardir. Milodiy post katoliklarda adventdeb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchiyakshanba – 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodatbilan nishonlanib, Bibi Maryamning homilador bo'lishi, Isoning tug'ilishi va dindorning qalbidabo'lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun ehromlarda go'dak Isoningtimsoli qo'yilgan belanchaklar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoniy (kyure, pater, kendz), episkop. Episkopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiyasi saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi qo'shuv 1- ovoz (yashirin ovoz berish) yo'li bilan papa saylanadi. II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu birinchi navbatda ibodat an'analariga tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

3. Xristian dinidagi uchinchi yo'nalish Protestantizmdir.Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrdaEvropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqilcherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi. Protestantizm

atamasi «protest» (norozilik) so‘zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526 yilda Shpeyer reyxstagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o‘zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ammo 1529 yilda ikkinchi Shpeyer reyxstagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e’lon qildi. Protestantizmning ilk shakllari: lyuterchilik, svinglichilik, kalvinizm, unitarizm vasotsinchilik, anabaptizm, mennochilik va anglikanchilik edi. Keyinroq «so‘nggi protestantizm»shakllari: baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iegova shohidlari, mormonlar yoki«Oxirat avliyolari», «Najot armiyasi», «Xristian fani», pyatidesyatniklar va boshqa diniy oqimlarpaydo bo‘ldi. Bu oqimlarning ko‘pchiligi «diniy uyg‘onish», ilk xristianlik va Reformatsiyaideallariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. Hozirgi vaqtda protestantizm dunyoning barchaqit’alarida keng tarqalgan. Protestantizmning jahon markazi AQShda, bu yerda baptist, adventist,Iegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan. Hozirgi protestantizm integratsiya(birlashish)ga intilmoqda, bu 1948 yilda Jahon cherkovlari kengashining tuzilishida o‘z ifodasinitopdi.

Protestantizm ilohiyoti xristian mafkurasining bir ko‘rinishi sifatida o‘z taraqqiyotida muayyan bosqichlardan o‘tdi. XVI acp ortodoksal ilohiyoti (M. Lyuter, J. Kalvin), XVIII – XIX acplardagi yangi protestantizm yoki liberalizm ilohiyoti (F. SHleyermaxer, E. Tryolch, A. Garnak), Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘lgan dialektik ilohiyot (K. Bart, P. Tillix, R. Bultman), Ikkinchi jahon urushidan so‘ng tarqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D. Bonxeffer va boshqalar) shular jumlasidandir.

Protestantizm Xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo‘lishi, jonning o‘lmasligi, jannat va do‘zax (katolitsizmdagi a’rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to‘g‘picidagi umumxristian tasavvurlarini e’tirof etadi. Biroq Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko‘ra inson Xudo bilanbevosita muloqot qilishi mumkin. Papaning diniy va dunyoviy hokimiyat, katolik dindorlariningimonni va vijdonni inson bilan Xudo o‘rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagimulohazalariga Lyuterning qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilantinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko‘ra ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in’om etiladi. Insonning najot topishi uning shaxsiy e’tiqodi va Isoning vositasi orqali ro‘yberadi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirish saqlanib qoldi. O‘lganlarga bag‘ishlangan duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi. Asror (tainstva)lardan faqat cho‘qinish va mansublik (cherkovga) e’tirof etiladi. Ibodatva’z-nasihatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo‘ldi.Lyuter tomonidan tuzilgan Reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib berilgan. UlarVittenberg nasroniy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo‘yilgan. Tezislarning bir nusxasidaIso payg‘ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi», deb jar solganida shunita’kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to‘xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo‘lmog‘idarkor. Tavba ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to‘rt tezisda Lyuter ta’kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro‘yobga chiqmaydi. Bu bilan u katolitsizmdagi «a’rof» va u bilan bog‘liq indulgensiya masalasini rad etadi. Aytadiki,papa faqat o‘zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonniozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). Chindan tavba qilgan kishilarning gunohlarini Xudo kechadi va abadiy azobdan ozodqiladi. Gunohkor papa yorlig‘isiz ham bunday mag‘firatdan umid qilishi mumkin. Bu yerda va keyingi birqancha tezislarda papaning a’rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta’kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya’ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi». Lyuterning ta’kidlashicha, cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va Xudoning marhamatidir. Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog‘i zarur. Najot yo‘li ruxsatnoma yorlig‘ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir. 1517 yil 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo‘lib qoldi.

Protestantizm yo‘nalishidagi ta’limotlardan yana biri Kalvinizmdir. Diniy islohotning yana bir yirik arbobi Jan Kalvinning 1536 yilda nashr etilgan «Xristian dinidagi ko‘rsatmalar» degan bosh asari protestantizmdagi yangi bir diniy yo‘nalish – kalvinizmning asosi bo‘lib qoldi. Dastlabki islohot

arboblaridan farqli ravishda Kalvin uchun diqqat markazi Injil emas, Tavrot bo‘lib qoldi. Kalvin o‘z ta’limotida absolyut taqdir haqidagi qarashlarni ishlab chiqdi. Bu ta’limotga ko‘ra barcha odamlar xudoning biz uchun noma’lum bo‘lgan irodasiga asosan mag‘firat qilinganlar va mahkum etilganlar toifasiga bo‘linadi. Inson na imon, na «xayrli ishlar» bilan taqdirga yozilganini o‘zgartira olmaydi: Taqdir haqidagi ta’lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi. Protestant cherkovining kalvinistik yo‘nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Fransiya, Angliyada katta obro‘ va ta’sirga ega edilar.

Kalvinizmdan kelib chiqqan yo‘nalishlardan biri Presviterianlik bo‘lib, Presviterianlik (yunoncha eng eski) mo‘‘tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu ta’limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a’zolari tomonidan saylangan presviter turadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim juda sodda, ibodat paytida va’z aytiladi, birgalashib duolar o‘qiladi va diniy qo‘shiqlar kuylanadi. Presviterning mav’izasi oyatlarni kuylashdan iborat. Liturgiya bekor qilingan, boshqa oqimlarda asosiy ibodat qo‘shig‘i hisoblangan «din ramzi» va «otche nash» o‘qilmaydi. Faqat dam olish kunlari bayram kuni deb hisoblanadi. Presviterianlar diniy ta’limotining asosiy aqidalari «Vestminster» kitobida bayon qilingan. Bu aqidalar ortodoksal kalvinizm ruhida bo‘lib, olamdagi barcha odamlarning gunohkorligi va qismatning mutlaqligiga ishonishdan iborat. Hozirgi paytda Shotlandiya (davlat cherkovi), Angliya, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda presviterchilar mavjud.

Protestantizm yo‘nalishlaridan biri Anglikan cherkovidir.Anglikan cherkovi – Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolikcherkovi Rim qiroli Genrix VIIIni cherkov boshlig‘i deb e’lon qildi, ya’ni cherkov qirol hokimiyatigabo‘ysundirildi. XVI asr o‘rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlarbekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo‘lmay qoldi. Anglikan cherkovida katolitsizmdagi marosimlar shundayligicha qabul qilinib, undagi ierarxiya tuzumiga o‘xshash tartib joriy etilgan. Bu tartibgako‘ra, qirol Anglikan cherkovining boshlig‘i hisoblanadi va u episkoplarni tayinlaydi. Anglikancherkovining birinchi diniy rahbari Kenterberi arxiepiskopi hisoblanadi. Anglikan cherkovidan rasman ajralgan cherkovlar Shotlandiya, Uels, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya kabi jami 16 mamlakatda tarqalgan.

Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha«suvga cho'ktirish») XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatidao'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olibboradilar. «Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydilar. Kishidinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur»degan qoida baptistlar va zabur xristianlariningasosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodat va mav'izadan iborat. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish (o'spirinlar uchun), tanovul, nikoh, qo'l bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but ehtirom ramzi emas.

Protestantizm yo'nalishlaridan biri Adventistlar harakatidir. Adventistlar harakati (lot. – "kelish") Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy buhron, umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Adventistlar harakatining asoschisi Vilyam Millerdir (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi «Ettinchi kun adventistlari» bo'lib hisoblanadi. Ularning asosiy g'oyasi Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni shayton va uning tarafdorlaridan mutlaq xalos etishidir. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun xushaxloq bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladilar. Iso payg'ambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat «najot yo'li» deb hisoblanadi. Hozirgi paytda g'arbiy hamda sharqiy cherkovlarning rahbarlari ko'p asrli ixtiloflarning ayanchli oqibatlarini bartaraf qilishga intilmoqdalar. Masalan, 1964 yili Rim papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor ikkala cherkov vakillarining XI asrda aytgan o'zaro qasamyodlari tarqoqligini bartaraf qilish uchun birinchi qadam qo'ydilar.

Xristian dinining muqaddas kitobi Bibliya bo'lib, Bibliya yahudiylik va xristianlik dinlari talimotiga ko'ra, Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir. U ikki qismdan iborat: «Qadimiy Ahd» (Old Testament) va «Yangi Ahd» (New Testament). Yahudiy va xristian Bibliyalari (Bible) bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va qadimiy yahudiylarning diniy ta'limot va urf-odatlari asosida miloddan avvalgi XIII asrda yozilgan bo'lsa, xristianlarning kitobi milodning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar. Xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar. Bibliya so'zi grek tilida biblia – "kitob", "o'ram" ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida

72, protestant nashrlarida 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbai Talmudning xabar berishicha, Qadimiy Ahdda 24 ta kitob bo'lishi kerak.

Xristianlar Qadimiy Ahdni «Rivoyatlar kitoblari», «Ta'limotlar kitoblari», «Payg'ambar kitoblari»ga bo'ladilar. Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo'linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo'linishi Nenterberiya episkopi Stefan Langton (vaf. 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo'lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yahudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (vaf. 1541 y.), keyinchalik 1555 yillardaRobert Etenlar tomonidan raqamlandi.

Injil so'zi yunoncha «evangelion» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "xushxabar" ma'nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblangan Iso Masihning yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi. Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo'limdan iborat. Injil Iso Masihni ko'rib, uni yaqindan bilgan, uning ta'limotini sinchiklab o'rgangan mualliflar tomonidan yozilgan. Xristianlikda bu mualliflar xudoning ruhidan ilhomlanib, aynan xudoning buyurganini Injilda yozib qoldirganlar deb hisoblanadi. Injilning matni yozib tugatilgandan keyin undan ko'p nusxa ko'chirilib, dunyoning har tarafiga tarqatilgan.

Xristianlik dini jahondagi boshqa mamlakatlar bilan birgalikda O'zbekistonda ham tarqalgan bo'lib, hozirgi davrda mamlakatimizda xristianlikning Rus Pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, To'liq injilchi xristianlar cherkovi, Ettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, "Iegovo shohidlari" cherkovi, "Golos Bojiy" cherkovi, Koreys protestant cherkovlari kabi diniy tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Xristianlikning Markaziy Osiyo xalqlari tarixida zardushtiylik, buddaviylik dinlari kabi o'ziga xos tutgan o'rni hamda ahamiyati bor. Xristianlik dini Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga ikki yo'l bilan kirib kelgan bo'lib, bunga bir tomondan, xristianlikka da'vat etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik faoliyati, ikkinchi tomondan, Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining bu hududga ko'plab ko'chib kelishi sabab bo'ldi. Bu din missionerlari Markaziy Osiyoning turli viloyatlariga milodningIII asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Taroz (Merke) cherkovlari qurilib bo'lgan,Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va MarkaziyOsiyoning boshqa shaharlarida episkoplik

va missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar tashkil bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lganlar. Ular Sosoniylar va Qoraxitoylarga qarashli yerlarda yashaganlar. Markaziy Osiyo hududida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o‘rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo‘lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo‘lgan. XIX asrning 70-yillari Markaziy Osiyo mintaqasiga, pravoslavie bilan bir qatorda boshqa oqimlarning tarafdorlari ham kirib kela boshladilar. Ular ortidan turli sektalarga mansub dindorlar, masalan, baptistlar, adventistlar, katoliklar va boshqalar ham paydo bo‘ldi. 1879 yil 27 martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e’lon qilingach, bu jarayon yanada faollashdi. Rossiya armiyasi tomonidanBirinchi jahon urushida asir olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g‘arbiyevropalik askarlarning Turkiston o‘lkasiga surgun qilinishi ular e’tiqod qiladigan din yokioqimlarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, evropalik asirlar orasida diniy jamoalartuzish hamda cherkovlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizningtaxminan 20-30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav yoki 5340 masjidga 306 cherkov to‘g‘rikelgan. Bundan tashqari, e’tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub staroobryadchilar, 8,2ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 26 ming yahudiy diniga va 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlargamansub dindorlar bo‘lgan.

Pravoslav yo‘nalishi O‘zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiyaimperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O‘rta Osiyo va Toshkent) eparxiyasiniochishga qaror qilindi. 1880 yillarga kelib Rus pravoslav cherkovi (RPCh) o‘zining yangi ibodatxonalari sonini ko‘paytirishga harakat qildi. Ularning aksariyati Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida qurildi. 1916 yil 16 dekabrda imperator buyrug‘i bilan Turkiston kafedral sobori Verniydan (hozirgi Almati) Toshkent shahriga ko‘chirildi. Cherkovlar soni 1930 yillarga qadar O‘zbekiston hududida Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa hududlariga nisbatan ko‘p edi. 1920-1940-yillarda O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda xristian diniga mansub turli etnik guruhlar ko‘payib bordi. Ikkinchi jahon urushi va undan so‘ng O‘zbekistonga Rossiya, Ukraina, Belorusiya,

Moldova va Boltiqbo‘yi mamlakatlaridan ko‘plab aholi evakuatsiya qilindi, pravoslaviyaga e’tiqod qiluvchi aholining soni taxminan 1 millionga yetdi. 1990 yil 20 iyuldan O‘rta Osiyo va Toshkent eparxiyasi yepiskop sifatida, 1991 yil 23 fevraldan e’tiboran arxiepiskop Vasiliy Zaxarovich Ikim (ruhoniylik ismi – Vladimir) rahbarligida boshqarib kelindi. Uning tasarrufiga O‘zbekistondan tashqari Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi rus pravoslav cherkovlari kiradi. Rus pravoslav cherkovining O‘rta Osiyo va Toshkent eparxiyasi O‘zbekistonning 11 ta hududiy tuzilmasida o‘zining ibodatxonalari va markaziy boshqaruv organi hamda diniy o‘quv yurtiga ega.

Xristianlikning O‘zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolitsizmdir. Ayrim ma’lumotlargako‘ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo‘lgan. O‘sha vaqtda rim katoliklarijamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yildaqurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qaytata’mirlandi. Vatikan davlati O‘zbekistonning mustaqilligini 1992 yil 1 fevralda tan olib, shu yilning 17 oktyabr kuni diplomatik aloqalar o‘rnatdi. 1994 yil 31 oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov Vatikan davlatining nunsiy elchisi Marian Olesdan Ioann-Pavel II ning ishonch yorlig‘ini qabul qildi. Shundan so‘ng Vatikanning Toshkentdagi elchixonasi rasman o‘z ishini boshladi. M. Olesning qarorgohi Qozog‘istonning sobiq poytaxti Almatida bo‘lganligi sababli Toshkentdagi elchixona rahbarligi K. Kukulka tomonidan boshqarib kelindi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo‘lib, uning «Echmiadzin» jurnali hamda maxsus diniy o‘quv yurti mavjud. Kilikiya katolikosati, Quddus va Konstantinopol patriarxatliklari, AQSh, Janubiy Amerika, Evropa, Yaqin, O‘rta va Uzoq Sharqdagi eparxiya boshqarmalari Echmiadzin katolikosatiga bo‘ysunadi.

O‘zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o‘n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo‘nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o‘z qarindosh-urug‘lari bilan diydor ko‘rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo‘ldi. Xorijda ular ma’lum bir diniy oqim ta’siriga tushib, O‘zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta’limotlarini targ‘ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag‘ga ega bo‘lgan protestantizm yo‘nalishi markazlari hisobiga mahalliy koreys

millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar. O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamdabirgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiyada hamda Markaziy Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning O'rta Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi. 1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 1967 yili Toshkentda V.A. Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ularning faoliyati hozirgi davrga qadar davom etib kelmoqda. Adventistlar respublikaning besh hududiy tuzilmasida 9 ta o'zlarining cherkovlariga ega.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi. 1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida O'rta Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida Evangelchi xristian-baptistlar (EXB) jamoasi tashkil etildi. 1948 yil oktyabr oyidan esa T.Penkov

Butunittifoq EXB kengashining O‘zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930 yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O‘zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko‘rsatgan. 1964 yilda bu jamoalar norasmiy O‘rta Osiyo Evangelchi xristian-baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo‘yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo‘lib o‘tgan baptistlarning 1-qurultoyida Evangelchi xristian-baptistlar ittifoqi federatsiyasi Evro-Osiyo EXB ittifoqi nomiga o‘zgartirildi. EXBIF respublikaning 8 ta hududiy tuzilmasida o‘zining cherkovlariga hamda markaziy boshqaruv organiga ega.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan To‘liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo‘lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o‘rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to‘liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e’tiboran rasmiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo‘lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e’tirof qilingan ta’limotdir. U protestantizmdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri hisoblanib, tarafdorlaritaxminan 75 million kishini tashkil etadi. Lyuteranlar diniy ta’limoti XVI asrda EvropaReformatsiyasida M. Lyuter va uning tarafdorlari, birinchi navbatda, Melanxtonning kuch-g‘ayratibilan qaror topdi. 1989 yildan e’tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog‘icton va O‘rta Osiyodagi Evangelchi-lyuteranlar cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Evangelchi-lyuteranlar cherkovi rahbari Georg-Fridrix-Karl Krechmardir. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir. Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 eparxiyaga bo‘lingan bo‘lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Evangelchi-lyuteranlar O‘zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O‘zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo‘lib, u xristian dinining protestantlik yo‘nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O‘zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo‘lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro‘yxatdan o‘tgan. O‘zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti FritsSHreder.

O‘zbekistonda «Iegova shohidlari» protestant yo‘nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbilarmon Ch.T. Rassel tomonidan asos solingan. Sektaning markazi Bruklin shahri Akioda joylashgan va 15 a’zodan iborat bo‘lgan «Rahbar korporatsiya»gagina bo‘ysunadilar. Ayrim manbalar Markaziy Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo‘lganligini bildiradi. O‘sha davrda ular o‘zlarini «*kanalistlar*» deb atab kelganlar. Iegova shohidlari diniy tashkilot sifatida O‘zbekistonda 1994 yildan Toshkent hamda Farg‘ona viloyatlarida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan. 1998 yil yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng qayta ro‘yxatdan o‘tish uchun respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasidagi tashkilotlari hujjatlarini joylardagi adliya bo‘limlariga topshirgan.

Qisqacha xulosalar

1.Jahon dinlari buddaviylik va xristianlik jahondagi ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan dinlar bo‘lib, ular o‘z e’tiqodchilarining milliy, etnik, til, irq, tug‘ilgan joyi, fuqaroligi kabi xususiyatlarini hisobga olmaydi. Jahon dinlariga prozelitizm (yunoncha - kelgindi), boshqa diniy e’tiqoddagi odamni o‘z diniga kiritishga urinish uchun faol targ‘ibotchilik xususiyati xosdir.

2. Jahon dinlari buddaviylik va xristianlikning paydo bo‘lishi bilan jahondagi turli xalqlar hayotida bir dindagi turli xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi jarayoni ro‘y bera boshladi.

3. Buddaviylar ta’limotining asosiy mazmuni – barcha jonli narsalarga (falsafada - santana) muhabbat bilan qarashni targ‘ib qilish va aql farmoniga qat’iy bo‘ysunishdir. Buddaviylikka ko‘ra bilimlar xudojo‘ylikka xizmat qilishi kerak va ular azob-uqubatdan qutulish uchun zarur.

4. Xristian dini kosmopolitizm xususiyatiga, missionerlik faoliyatiga va ijtimoiy-siyosiy va axloqiy dasturlarning mavhumligi, ijtimoiy va milliy tafovutlarni baravarlashtirishni talab qiluvchi diniy ta’limot bo‘lib hisoblanadi.

5. Jahon dinlari buddaviylik va xristianlik paydo bo‘lganidan so‘ng bu diniy ta’limotlar doimo o‘zgartirilib, takomillashtirilib borildi. Diniy ta’limotda mavjud bo‘lgan turli aqidalarni tushunish masalasida munozaralar bo‘lib o‘tdi. Diniy ta’limot jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga moslashtirildi.

Tayanch tushunchalar

Buddaviylik, "haqiqat najotkori," "to'rt oliy haqiqat", "najotning olijanob sakkizlik yo'li", nirvana, bodisatvo, Gautama Shak'ya Muni, arxat, pancha shila, Xinayana, Maxayana, Lamaizm, "xaloskor," muqaddas uchlik (troitsa), ota xudo, o'g'il xudo, muqaddas ruh xudo, "Bibliya", "Yangi Ahd", Evangeliya, Vifleem, Katolitsizm, Pravoslavie, Protestantizm, Xristianlik marosim va bayramlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Ilk buddaviylik ta'limoti nimalardan iborat?
2. Buddaviylik amaliyotida meditatsiya qanday o'rin tutadi?
3. Xinayana va Maxayana orasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
4. Buddaviyliko'zga sivilizatsiyalar ichiga qanday kirib borgan?
5. Hozirgi Yaponiya hayotida buddaviylik qanday o'rin egallaydi?
6. Lamaizm qaysi davrda vujudga keldi?
7. Lamaizmning Rossiya Federatsiyasida tutgan maqomi qanday?
8. Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixini o'rganishning qanday ilmiy muammolari bor?
9. Xristianlik birinchi bo'lib qaysi davrda va qaerda tarqaldi?
10. Xristianlikning asosiy aqidasi qanday?
11. Xristianlikning qanday asosiy oqimlarini bilasiz?
12. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?
13. Iso Masih shaxsi haqida nimalarni bilasiz?
14. Hozirgi paytda xristianlikning asosiy markazlari qaerda?
15. Xristianlikning qanday manbalarini bilasiz?
16. Bibliyaning tarkibiga qanday kitoblar kirgan?
17. Pravoslaviyaning asosiy ta'limoti qanday?
18. Katolitsizmning tarqalishi qanday yuz berdi?
19. Protestantlik oqimi qanday holatda vujudga keldi?
20. O'zbekiston hududida xristianlikning qaysi oqimlari tarqalgan?

XIII BOB. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI

Islom dini tarafdorlari jahon aholisining 20 foizga yaqin qismini tashkil etadi. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziya (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eron (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Arablar barcha musulmonlarning 20 foizini tashkil etadilar. Bugungi kunda jahondagi 173 mamlakatda 1,7 milliard odam islom diniga e'tiqod qiladi.

1-§. Islom dini paydo bo'lishidagi ijtimoiy sharoit

Islom dini paydo bo'lishi tarixiy sharoitlari ko'rib o'tilganda, islom tarixida bu din kelmasidan avvalgi muddat johiliya yoki johiliyat davri deb yuritilgan. «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo – Allohni tanimaslik» degan ma'noni bildiradi. Bu so'z musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatilgan. Bu bilan yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (al-Vasaniya) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishadi. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar.

Arab yerlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomondan – Shom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Ummon dengizi, janub tomondan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu yerda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lishi arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch sivilizatsiya mavjud bo'lgan:

1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);

2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;

3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq Shimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati – Arab xalifaligivujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch sivilizatsiya vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishda nisbiy mustaqil rivojlanganliklari arablar nasabi haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: qahtoniylar – janub arablari, adnoniylar– shimol arablaridir. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin tadqiqotlarningko'rsatishicha, mazkur

tasavvur VII asr oxirlari – VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchunharbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar)vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko‘chmanchilik mafkurasi qoldiqlari,qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo‘lsa-da, islom dini paydo bo‘lishi davrlarida ularning katta(2/3) qismi o‘troq holda shahar va qishloqlarda yashagan. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makkava Yasrib shaharlari Yaqin SHarq sivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan.Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o‘zichiga olgan qismi qadimdan Hijoz deb atalgan.Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «ko‘pxudolik» e’tiqodi hukmsurardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizmelementlari va o‘tmish ajdodlar ruhiga sig‘inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalilisifatida ko‘pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: asad (arslon), kalb (it), bakr (bo‘taloq),sa’lab (tulki), zi’b (bo‘ri) va h.k.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paydo bo‘lgan emas, albatta.Ular uzoq vaqt shakllangan. Biroq keyingi davr islom tarixchilarining xabar berishlariga qaraganda,Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ‘ib qilgan shaxs Amr ibn Luhayismli kishi bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra, u Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibnLuhay ba’zi shomliklar odatlaridan qattiq ta’sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olibkelgan. Keyinchalik butlarga sig‘inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlargasig‘inish – dinning yangi bosqichi bo‘lgan. Ibn al-Kalbiyning (vaf. 763 y.) «Kitob al-asnom» asaridata’kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o‘z sanamiga ega edi. Tez-tez bo‘libturadigan qabilalararo urushlardan so‘ng, odatda, mag‘lub qabila g‘olib qabila sanamiga sig‘inaboshlardi. Ba’zida g‘olib qabila mag‘lub qabilaning sanamini ham o‘z sanamlari safiga qabul qilishimumkin edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo‘lib, ularziyoratgohlar sifatida ma’lum edi. Ulardan biri Makka Ka’basi edi. Makka eski Arabistonning diniymarkaziga aylangach, u yerdagi Ka’baga sanamlar to‘plandi. Ibn al-Asirning (vaf. 1232 y.) uqtirishicha,Makka fath etilgan 630 yili Ka’ba ichida 360 ta sanam bo‘lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda kattako‘rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo‘lsa, u Ka’baga shuncha nusxadaqo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, sira (Payg‘ambar hayoti

tasavvur VII asr oxirlari – VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchunharbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar)vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko‘chmanchilik mafkurasi qoldiqlari,qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo‘lsa-da, islom dini paydo bo‘lishi davrlarida ularning katta(2/3) qismi o‘troq holda shahar va qishloqlarda yashagan. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makkava Yasrib shaharlari Yaqin SHarq sivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan.Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o‘zichiga olgan qismi qadimdan Hijoz deb atalgan.Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «ko‘pxudolik» e’tiqodi hukmsurardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizmelementlari va o‘tmish ajdodlar ruhiga sig‘inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalilisifatida ko‘pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: asad (arslon), kalb (it), bakr (bo‘taloq),sa’lab (tulki), zi’b (bo‘ri) va h.k.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paydo bo‘lgan emas, albatta.Ular uzoq vaqt shakllangan. Biroq keyingi davr islom tarixchilarining xabar berishlariga qaraganda,Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ‘ib qilgan shaxs Amr ibn Luhayismli kishi bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra, u Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibnLuhay ba’zi shomliklar odatlaridan qattiq ta’sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olibkelgan. Keyinchalik butlarga sig‘inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlargasig‘inish – dinning yangi bosqichi bo‘lgan. Ibn al-Kalbiyning (vaf. 763 y.) «Kitob al-asnom» asaridata’kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o‘z sanamiga ega edi. Tez-tez bo‘libturadigan qabilalararo urushlardan so‘ng, odatda, mag‘lub qabila g‘olib qabila sanamiga sig‘inaboshlardi. Ba’zida g‘olib qabila mag‘lub qabilaning sanamini ham o‘z sanamlari safiga qabul qilishimumkin edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo‘lib, ularziyoratgohlar sifatida ma’lum edi. Ulardan biri Makka Ka’basi edi. Makka eski Arabistonning diniymarkaziga aylangach, u yerdagi Ka’baga sanamlar to‘plandi. Ibn al-Asirning (vaf. 1232 y.) uqtirishicha,Makka fath etilgan 630 yili Ka’ba ichida 360 ta sanam bo‘lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda kattako‘rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo‘lsa, u Ka’baga shuncha nusxadaqo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, sira (Payg‘ambar hayoti

va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu yerdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini yahudiylar tashkil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so'ng ham ba'zi yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu yerda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Odatda targ'ibotchilar tib va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo'l topa oladigan odamlar bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o'zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ'iboti bilan shug'ullanar edilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma'lum emas. Hijoz shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog'i ostidagi Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, Yasrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

Qadimgi Arabiston jamiyatida «haniflar» nomi bilan ma'lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda «noma'lum monoteizm» deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular bir yerda muqim turmay, o'lka bo'ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma'lum mavqega ega bo'ldilar.

Sosoniylar Eroni dinlari ham Arabiston yarim orolida mavjud edi. Ular haqida adabiyotlarda kam gapiriladi. Vaholanki, zardushtiylik va manixeizm ta'limotlari ham bu mintaqalarda keng tarqalgan edi. Bu davrda o'zini «Payg'ambarlar muhri» (Xotam al-anbiyo) deb atagan Moniy va

uning «o‘zga dinlar ta’limotini to‘g‘rilovchi» dini atrof hududlarga etib ulgurgan edi. Chunki Laxmiylar davlati Sosoniylar ta’siri ostida bo‘lib, islom dini shakllanishi arafasida Eron Yamanni zabt etgan edi. Yangi dinning shakllanishida Arabiston yarim orolida mavjud holatning ta’siri, albatta katta bo‘ldi. Ammo bu jarayonlarda birinchi arab davlati vujudga kelishi va uning mafkurasining shakllanishi muhim o‘rin tutadi. Ularni to‘laqonli idrok etishda Muhammad payg‘ambar hayoti, uning yangi din targ‘ibotchisi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati asosiy o‘rinni egallaydi.

Muhammad payg‘ambar hayoti haqida ma’lumot berilsa, Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Makka va uning atrofi tarixida «Fil voqeasi» nomi bilan mashhur bo‘lgan jangdan 50 kun keyin tavallud topgan. Bu sananing milodiy hisob bo‘yicha qaysi kunga to‘g‘ri kelishi keyinchalik hisoblab chiqarilgan. Bu hisoblardan misrlik munajjim Mahmud poshoning aniqlashicha, Payg‘ambarning tavallud topishlari milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to‘g‘ri keladi. Otasi Abdulloh Qurayshning Banu Hoshim, onasi Omina bint Vahb – Banu Zuhra urug‘idan edilar. Ota-onadan etim qolgan Muhammad payg‘ambar to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo‘lida tarbiyalanadi. So‘ngra uni amakisi Abu Tolib o‘z himoyasiga oldi. Payg‘ambar yoshlik chog‘larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan safarga chiqadi.

Arablar orasida o‘zaro qon da’vosi sababi bilan bo‘lgan urushlarning eng og‘ir kechgani «Fijor jangi» hisoblanadi. Islomdan avval ham arablarda muharram, rajab, zulqa’da va zulhijja oylari muqaddas sanalib, ularda urush ta’qiqlangan edi. Mazkur urush mana shu oylarda bo‘lganligi uchun unga «Fijor jangi» («Gunohkorlar urushi») deb nom berilgan. Bu urushda Quraysh tarafida Muhammad payg‘ambar ham ishtirok etgan. To‘rt yil davom etgan bu urush sulh bilan yakunlanadi.

Muhammad payg‘ambar 25 yoshga to‘lganida Banu Asad urug‘idan bo‘lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylidga uylanadi. Muhammad payg‘ambarning yetti farzandidan (Moriyadan tug‘ilgan Ibrohimdan boshqa) oltitasi (Zaynab, Umm Kulsum, Ruqayya, Fotima, Qosim, Abdulloh)ning onasi Xadicha bint Xuvaylid edi.

Makkadagi Ka’ba binosi ustida tomi bo‘lmaganidan, yomg‘ir suvlari uni emirib yuborgan edi. Keyinchalik binoni sel oqimidan saqlash uchun bir to‘siq qurilgan bo‘lsa-da, u ham yillar o‘tib yemirilgan edi. Payg‘ambar davrida Makka ahli Ka’bani yangidan qurishga qaror qildilar. Bu qurilishda Payg‘ambar ham qatnashdi.

Muhammad (s.a.v.)ga vahiy nozil bo‘lishining boshlanishi, payg‘ambar 40 yoshga to‘lganidan so‘ng boshlanadi.Muhammad payg‘ambar 40 yoshga yetganida ko‘proq yolg‘izlikni qo‘msaydigan bo‘lib

qoladi. Shunday paytlarda Muhammad payg‘ambar Makkadan 3 mil uzoqdagi Hiro tog‘ida joylashgan g‘orga chiqib ketar, yerlik aholi odaticha ramazon oyini u yerda ibodat bilan o‘tkazardi. G‘amlagan ozuqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytib, bir oz vaqtdan so‘ng yana o‘sha g‘orga ketar edi. U yerda o‘zini sukunatga berib, chuqur o‘yga tolar, g‘oyibdan quloqlariga «Sen Allohning elchisisan» degan tovushlar eshitilaredi. Ko‘p tush ko‘rar, tushida ko‘rgan narsalari o‘ngida to‘g‘ri chiqar edi.

Islom tarixida ilk vahiy «Alaq» surasining boshidagi besh oyatdir. Xadicha vahiy nozil bo‘lishihaqidagi xabarni yaxshilikka yo‘yib, Varaqa ibn Navfal nomli samoviy kitoblardan xabardor bo‘lganqarindoshidan bo‘lib o‘tgan voqeaning tafsilotini so‘raydi. Varaqa ibn Navfal buni payg‘ambarlikningnishonasi deb ta’bir qiladi. Nozil bo‘layotgan vahiylarda Payg‘ambarga o‘z qavmini qiyomat haqidaogohlantirish, yagona, barchani yaratgan Parvardigordan qo‘rqishga chaqirish uchun ko‘rsatmalar beriladi. Shundan so‘ng Muhammad payg‘ambar yashirin da’vatga o‘tadi. Birinchi bo‘lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abu Tolib islomni qabul qilishadi. Vaqt o‘tishi bilan musulmonlar soni 30 kishiga yetadi. Ular o‘z dinlarini yashirin saqlaydilar. Bu holat uch yil davom etadi.

Ochiq da’vatdan so‘ng Makka mushriklari Abu Bakr Siddiq, Usmon ibn Affon kabi islomni qabul qilgan ulug‘ va badavlat zotlarga hech narsa deya olmasalar-da, ammo zaif, kambag‘al, himoyasiz musulmonlarni qattiq siquvga oladilar. Habashistonga borishni istagan 11 erkak va to‘rt ayoldan iborat bo‘lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo‘ylab ketadi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqayya (Payg‘ambarning qizi), Abu Huzayfa va xotini, Zubayr ibn al-Avom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Mas’ud bor edilar. Guruh boshlig‘i Usmon ibn Maz’un edi. Bu 15 kishi vahiyning beshinchi yili Habashistonga (Oqsum podshohligi) yetib keldilar. Ularni Habashistonda xristianlar juda yaxshi kutib oldilar. U yerda yaxshi, sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so‘ng ikkinchi guruh holida u yerga hijrat qildilar. Bu guruhning boshida Ja’far ibn Abu Tolib (Alining akasi) bo‘lib, ular 80 kishi edilar. Habashiston xalqi va uning podshohi Najoshiy muhojirlarga juda yaxshi munosabatda bo‘ldilar.

Makkaliklarning qattiq qarshiliklaridan ko‘p ozor chekkan Payg‘ambar Toifga yo‘l oladi. Biroq toifliklardan hech kim islomni qabul qilmaydi. Shu qiyinchilik yillarida «Isro va Me’roj» voqeasi yuz beradi. Qur’ondagi «Isro» va «Najm» suralarida bu hodisa haqida so‘z yuritilgan.

Da'vatning o'ninchi yili haj mavsumida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) Makkaning shimolida «Aqaba» deb ataladigan bir tepalikda Yasrib (Madina) shahridan kelgan olti kishini uchratib, ularni islomga da'vat etdilar. Ular islomni qabul qildilar. Ushbu uchrashuv islom tarixida «Birinchi Aqaba bay'ati» deb nom oldi. Unda As'ad ibn Zarora, Rafi' ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdullohlar Payg'ambarga din shartlarini bajarishga «bay'at» (qasamyod) qildilar. Keyingi ikki haj mavsumida ham Aqaba bay'ati bo'lib o'tdi. Ikkinchi uchrashuvda madinaliklardan 12 kishi, uchinchisida esa 75 kishi ishtirok etdilar. Bu voqealardan so'ng Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) Madinaga hijrat qilishga qaror qildilar.

Islom dini tarixidagi Madina davri shu voqealardan keyin boshlandi. Madinalik «ansor» (yordamchi)lar makkalik «muhojir»larni samimiy kutib olishadi. Muhammad payg'ambarning Madinaga ko'chib o'tishi rabi' al-avvalning sakkizinchi kuni, milodiy 622 yil 20 sentyabrda yuz beradi.
Islomning Madina davri uning tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, musulmonlar birinchi marta alohida diniy jamoa (Umma) bo'lib yashay boshladilar. Bu esa o'z navbatida diniy qoidalarning takomillashuvini tezlashtirib yubordi. Asta-sekin namoz, azon va boshqa amallar tartibga solindi.

Payg'ambar bu shaharga uchinchi taraf vakili sifatida taklif etilgan edi. Avval murosasiz Avs vaXazraj arab qabilalari hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo', Banu Nadir yahudiy qabilalari bilano'zaro sulh tuzildi. Hijratning ikkinchi yili ramazon oyida (mil. 624 y.) musulmonlar ummasi qo'shinlari va makkaliklar o'rtasida Badr jangi bo'ldi. Bu jang Madinadan 80 mil (taxminan 150 km.) uzoqda Suriya karvon yo'lida joylashgan Badr qudug'i yaqinida bo'lib o'tdi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g'alabasi bilan tugadi. Bu jangdan so'ng Ummaning mavqei Madina ahli orasida beqiyos o'sdi. Shu davrdan boshlab Muhammad payg'ambar yetakchiligidagi islom jamoasi kuchli bir davlatning vazifalarini bajara boshladi. O'zlarini musulmon deb e'lon qilib, aslida esa Payg'ambar va musulmonlarga muxolif ish yuritganlar munofiqun deb nomlandilar. Ko'pxudolikka e'tiqod qiluvchilar mushriklar deb ataldi. Musulmon jamoasi davlat darajasiga ko'tarilib, boshqa qabilalar va qabilalar ittifoqlari bilan o'zaro qisqa va uzoq muddatli sulh shartnomalari tuzildi. Shu yili zakot islomning asosiyamallaridan biri sifatida farz qilindi. Yahudiy, xristian va sobi'iylar ahl al-kitob mavqeiga ega bo'lishdi. Ular – Madina davlati xazinasiga har bir voyaga yetgan erkak boshidan to'lov (jizya) yig'ib berib, o'z ijtimoiy-diniy erkinliklarini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldilar. Ammo Madina davlatining asosiy muxolifi Makka jamoasi

bo‘lib qolaverdi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim g‘alabalardan biri bo‘ldi.

Makka fathidan (630 y.) so‘ng islom davlati Arabiston yarim orolida to‘la g‘alabaga erishdi. Shunialohida ta’kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘ldi,chunki shundan so‘ng musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida yetakchi davlat va siyosiy kuchga aylandi.Shu bilan bir qatorda Madinada diniy qoida va tartiblar bir tekis shakllana boshladi. Musulmonlar va yahudiy qabilalari o‘rtasida o‘zaro mojarolar bo‘lib o‘tdi. Qibla Quddusdan Makkadagi Ka’baga o‘zgartirildi, ahl al-kitobga (yahudiylar, xristianlar, sobi’iylar) ahl az-zimma (musulmon davlati himoyasi ostidagi diniy jamoa) mavqei berildi. Payg‘ambar Umma hayotini ko‘p hollarda atrofdagi odamlar uchun odatiy bo‘lgan qoidalar asosida boshqardi. Muhim hollarda yangi diniy va ijtimoiy qoidalar vahiy orqali kiritildi.

11 hijriy yil 12 rabi’ al-avval, milodiy 632 yil 8 iyun kuni Payg‘ambar vafot etdi. Bu bilanislom tarixida ilk davr – Qur’oniy davr yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arabdavlati tarixida podshohlar – xalifalar, islom dini me’yorlarini shakllantirish varivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi. Payg‘ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida yoyilgach, ansorlar Umma boshchisi – xalifalikka nomzod masalasini hal qilish maqsadida Banu So‘ida qabilasining Saqifa nomli guzariga oshiqdilar. Bir qancha muhojirlar va ansorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahs va tortishuvlardan so‘ng xalifalikka (xalifat rasulilloh) Abu Bakr as-Siddiqni (632-634) saylab, barcha unga bay’at qildilar. Abu Bakr diniy va dunyoviy hokimiyatni o‘z shaxsida birlashtirdi.

Payg‘ambar vafotidan so‘ng islomni qabul qilgan ba’zi qabilalar Madina shahar-davlati yangi yo‘lboshchisi Abu Bakr davrida zakotni berishdan bosh tortdilar. Soxta payg‘ambarlar harakatlari vujudga keldi. Ilk islom tarixidagi ushbu voqealar «Ridda» nomi bilan ataladi. Abu Bakr bunday xatti-harakatlarni qat’iylik bilan bostirdi. Bu davrda Arab qo‘shinlari islomni tarqatish g‘oyasi bilan Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqa boshladilar. Bu esa o‘z navbatida islomning jahon diniga aylanishiga zamin yaratib berdi.

Islom dini vujudga kelishi bilan uning ta’limoti ham ishlab chiqildi.Islom so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi – taslim bo‘lish, bo‘ysunish, istilohda esa yagona Allohga bo‘ysunish degan ma’nolarni bildiradi. Islom dini ta’limoti bo‘yicha Muhammad payg‘ambar avvalgi (o‘rta Yer havzasi sivilizatsiyasida ma’lum bo‘lgan) payg‘ambarlar ishini davom ettirgan,

ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg‘ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islom dinining ta’limoti uning muqaddas kitobi Qur’oni karimda bayon qilingan bo‘lib, Islom ta’limotiga ko‘ra Qur’on Alloh tomonidan Muhammad payg‘ambarga vahiy qilingan. Islom ta’limotining asosini imon, islom va ehson talablari tashkil etadi. Imon talablari 7 ta aqida: Allohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga, o‘lgandan keyin tirilishga ishonishdan iboratdir.

«Imon» so‘zining lug‘aviy ma’nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa «La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari») kalimasini til bilan aytib (al-iqror bi-l-lison), dil bilan tasdiqlash (at-tasdiq bi-l-qalb) demakdir. Mazkur ta’limot boshqalaridan imon masalasida amalni imondan alohida hisoblashi bilan farqlanadi.

1. Islom dinidagi imon talablarining birinchisi – Allohning borligi va birligiga imon keltirishdir. Ya’ni Allohning Qur’oni karimda va Muhammad payg‘ambar hadislarida bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish. Ibodat qilish va sig‘inishga undan o‘zga loyiq zot yo‘q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish.

2. Islomdagi imon talablarining ikkinchisi farishtalarning borligiga imon keltirish. Islom ta’limoti bo‘yicha farishtalar (malo‘ika) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalari bo‘lib, ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur’onda zikr etilgan. Jabroil farishtaning vazifalaridan biri payg‘ambarlarga Allohning vahiylarini yetkazishdan iborat bo‘lgan. Farishtalardan ba’zilari odamlar bilan doim birga bo‘lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur’onda ular«Kirom kotibun» (mukarram kotiblar) deb zikr etilgan (Qur’on, 82: 10-12). Bundan tashqari, tafsirkitoblarida Isrofil, Azroil nomli farishtalarning ismlari qayd etilgan. Qur’on va hadislardafarishtalar haqida juda ko‘p yerda so‘z yuritilgan. Ularga ishonish imonning shartlaridan biridir.

3. Islom dinidagi imon talablarining uchinchisi ilohiy kitoblarga imon keltirishdir. Alloh Muhammad payg‘ambarga Qur’onni nozil qilganidek, boshqa payg‘ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma’lum bo‘lganlari: Ibrohim payg‘ambarga «Sahifalar», Muso payg‘ambarga «Tavrot», Dovud payg‘ambarga «Zabur» va Iso payg‘ambarga berilgan «Injil» kitoblaridir. Ulardan boshqa payg‘ambarlarga yuborilgan kitoblar haqida Qur’on va hadislarda xabar berilmagan. Yuqorida nomlari zikr

etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi.

4. Islomdagi imon talablarining to'rtinchisi payg'ambarlarning haqligiga imon keltirishdan iboratdir. Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Barcha payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'inlari kabidirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur'onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarining barchasiga barobar imon keltirish shart deb ko'rsatilgan.

5. Islom dinidagi imon talablarining beshinchisi oxirat kuniga ishonishdan iborat bo'lib, dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g'oyalaridandir.

6. Islomdagi imon talablarining oltinchisi taqdiri ilohiyga – inson boshiga tushgan yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga e'tiqod qilishdan iboratdir. Inson o'zining hayotida ro'baro' bo'ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o'zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi zarur bo'lib, yaxshiliklarga shukur qilmog'i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog'i imonning shartlaridan bo'lib hisoblanadi.

7. Islom dinidagi imon talablarining ettinchisi o'limdan keyin qayta tirilishga ishonishdir. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

Islom dinida "Islomning arkonlari" (islom ustuni) bo'lib hisoblanuvchi diniy marosim talablari Islom talablari deyiladi va unga 5 ta amaliy marosimchilik talablari kiritiladi. Bularga kalimai shahodatni bilish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish va haj qilish kabi amallar taalluqlidir.

1. Islom dinidagi amaliy marosimchilik talablarining birinchisi kalimai shahodatni bilishdir. Kalimai shahodat Allohdan o'zga iloh yo'qligiga va Muhammad uning bandasi va payg'ambari (rasuli) ekanligiga shohidlik beraman deyishdan iboratdir. Kalimai shahodat arab tilida "Ashhadu an la iloha illollohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh" deb o'qiladi.

2. Namoz islom dinidagi islom amaliy marosim talablarining ikkinchisidir. Qur'oni karimda namozga qat'iy buyruqlar kelgan bo'lib, uning ba'zi shartlari bayon etilgan. Namozning vaqti, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada turli mazhablarda ba'zi farqlar bor. Har kuni besh vaqt namoz: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o'z bo'yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr – (peshin vaqti chiqishi bilan to quyosh to'liq botgunga qadar), shom – (quyosh to'liq botganidan ufqdagi qizillik yo'qolguniga qadar), xufton – (shom vaqti chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

3. Islom dinidagi amaliy marosimchilik talablarining uchinchisi ro'za bo'lib, u yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning ramazon oyi davomida kunduz kunlari yeyish-ichish va boshqa huzur-xalovatdan tiyilishni talab qiladi. Ro'za hijratning ikkinchi yili farz bo'lgan bo'lib, bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro'zani buzgan kishi uning kafforati sifatida ikki oy paydar-pay ro'za tutishi lozim bo'ladi. SHuningdek, ro'za ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, nafl ro'za yoki qasamni buzishdagi kafforat ro'zasi tutiladi.

4. Islom dinidagi amaliy marosimchilik talablarining to'rtinchisi zakot bo'lib, zakot«poklash» degan ma'noni bildiradi, ya'ni ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot etim-esir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo'lida yurganlar, zakot yig'uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag'dan beriladi. Zakot islomdagi ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos ko'rinishidir. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo'lida katta ahamiyat kasb etadi.

5. Islom dinidagi amaliy marosimchilik talablarining beshinchisi haj bo'lib, hajqodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj zulhijja oyining sakkizinchi kunidan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: «ifrod» – faqat haj amallari bajariladi, «qiron» – haj va umra amallari oldinma-ketin bajariladi, «tamattu'» – avval umra qilinib, ehromdan chiqiladi va zulhijja oyining sakkizinchi kuni ehromga kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: ehrom bog'lab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Ka'bani tavof qilmoqdan iboratdir.

Ehson talablari Islom dinidagi imon va islom talablariga sidqidildan ishonishni o'zida ifodalaydi.Islom dinida imon va boshqa e'tiqod

masalalari – ilm al-aqoid (ilohiyot) ilmida o‘rganilsa, boshqa ibodat masalalari va shu masalaga taalluqli ko‘pgina savollar bilan ilm al-fiqh (diniy qonunshunoslik) doirasida bayon qilinadi va o‘rganiladi.

2-§. Islom asoslari, oqimlari va yo‘nalishlari.

Islomning asosiy oqimlar va yo‘nalishlaridan eng avvalo xavorijlar paydo bo‘lgan edi. Usmon ibn Affon (644-656) davriga kelib islom jamoasi (umma) ichida fitnalar paydo bo‘lib, Usmonga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o‘ldirilgach, uning o‘rniga o‘z tarafdorlari tomonidan Ali ibn Abi Tolib (656-661) saylandi. Ana shu davrdan umma-davlat ichida birinchi fuqarolar urushi boshlanadi (656-660). Talha ibn Ubaydulloh, az-Zubayr ibn al-Avomm va Mu’oviya ibn Abi Sufyon kabi guruh rahbarlari Aliga qarshi chiqib, bu holatni shunday talqin qildilar: «Ali qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashda Usmonga yordam bermadi, qodir bo‘la turib odamlarni bu ishdan qaytarmadi, bundan tashqari u xalifalik mansabiga ko‘tarilganidan keyin Ibn Affonning qasosini olmadi, balki u Usmonni qatl etilishidan manfaatdor bo‘ldi». Bu uch sahobaning bu fikrga kelishlariga har birining xalifalikka Alidan ko‘ra o‘zini loyiqroq deb hisoblashi turtki bo‘ldi. Ular o‘z da’volari haq ekanligini turli yo‘llar bilan isbotlardilar: Talha va az-Zubayr «Umar (634-644) vafotidan oldin xalifa saylash xususida kengashga (sho‘ro) chaqirilgan olti kishidan birimiz» deyishsa, Mu’oviya esa Usmonga yaqin qarindosh (ularning ikkisi ham Quraysh qabilasining Umayya urug‘idan edilar) va uning qasosini olishga loyiq ekanligini ro‘kach qildi. Talha va az-Zubayr «al-Jamal» («Tuya») jangida halok bo‘ldilar. Shundan so‘ng Ali o‘rniga xalifalikka da’vogarlardan birgina Mu’oviya ibn Abi Sufyon (660-680) qoldi. 657 yili Suriyada Mu’oviya va Ali o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Siffin jangi Ali tarafdorlarining ikki guruhga ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu jangda Ali ibn Abu Tolib qarshi tomon (Umaviylar, 660-749) bilan o‘zaro bitim tuzib, urushni to‘xtatishga rozi bo‘ldi. Alining tutgan bunday murosasozlik siyosatidan uning qo‘shini orasidagi bir guruh kishilar norozi bo‘lib ajralib chiqdilar. Aliga itoat etishdan bosh tortganlar «xavorij» deb, Mu’oviyaga qo‘shilmay Ali atrofiga to‘planganlar, keyinchalik, «shia» deb nomlana boshlandi. Bu guruhlar islomdagi ikki katta oqimga asos soldilar. O‘z navbatida har bir toifaning o‘ziga xos diniy-siyosiy nuqtai nazarlari, ta’limot va amaliyotlari shakllana boshladi.

Ali bilan Mu’oviya o‘rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo‘shinning bir qismi norozi bo‘ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning qo‘lidadir», degan shior bilan qo‘shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog‘iga ketdilar. Bu firqaning

Kufadagi «xuruj» (bo‘ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo‘ldi. Bu voqea Harura qishlog‘ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o‘zlarini «SHurot» («Jonlarini Alloh yo‘lida tikkan kishilar») deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning qo‘lida» deguvchilar) degan nomlari ham bo‘lgan. Xavorijlar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali va Mu’oviyani yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o‘lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo‘liga o‘tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o‘z kuchini yo‘qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so‘nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

1. Xavorijlar ta’limotlari asosi quyidagilardan iborat:

- ular gunohkorni «kofir» deb e’lon qildilar. Shunga ko‘ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umaryo‘lidan yurmagani uchun kofir deyishadi. Ali, Mu’oviya, Abu Muso al-Ash’ariy, Amr ibn al-Oslarmuxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;
- «zolim» podshohga qo‘lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (vojib) deb biladilar. O‘ze’tiqodini yashirish tamoyili (taqiya) rad etadilar. O‘zlari harbiy jihatdan zaif bo‘lsalar ham,qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish vojib bo‘laveradi, deb hisobladilar;
- xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo‘lishligidan qat’i nazar,musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma’lum jamoat (sulola)ichida cheklanmagan;
- namoz, ro‘za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo‘lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barchaamallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchunkifoya emas.

VII asr ikkinchi yarmida xavorijlar orasida yigirmaga yaqin turli guruhlar paydo bo‘ldi. Ular ichida eng yiriklari – ibodiylar, azoriqalar hamda sufriylar bo‘lib, o‘z yo‘lboshchilari nomi bilan shunday atalganlar.

2. Shialik islomdagi uch yirik oqimdan biri bo‘lib, hokimiyat masalasida islom jamoasida paydo bo‘lgan ixtilof natijasida vujudga kelgan. Shia so‘zining to‘liq shakli «ash-shia» («tarafdorlar, guruh, partiya»), aniqrog‘i «Shiat Ali» («Ali tarafdorlari partiyasi») bo‘lib, bu nom xalifa Ali (656-661) va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan. Shialikda

imomat masalasi asosiy diniy ruknlardan hisoblanadi. Imomat jamiyat manfaatlaridan emas, balki din ruknlaridan kelib chiqadi, deb e'tiqod qilinadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, balki u meros sifatida o'tadi. Mazkur ta'limotga binoan, Muhammad payg'ambar Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Imomlik (xalifalik) payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg'ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga ilmi ladun (Alloh huzuridan berilgan ilm) bergani kabi xalifalarni ham shunday tanlaydi deyiladi. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olishgan. Alining xalifaligi Payg'ambar vafotining birinchi kunidan boshlangan, deb hisoblaydilar. Ash-SHahrastoniy (vaf. 1153 y.) iborasi bilan aytganda: «Shialarning e'tiqodiga ko'ra, Alining imomligi va xalifaligiga oshkora va maxfiy dalillar kelgan hamda undan keyingi imomlik uning avlodlaridan tashqariga chiqmaydi, agarda chiqsa ham, bu ularga zulm qilish yo'li bilan oshirilishi mumkin».

Shialikda isno'ashariya firqasi mavjud bo'lib,ushbu firqa e'tiqodicha, 12 imomlik (isno'ashariya) Ali ibn Abi Tolibdan boshlanadi, so'ng uning Fotimadan bo'lgan o'g'illari al-Hasan va al-Husaynga o'tadi va nihoyat 12-imom Muhammad al-Mahdiyga borib tugaydi. Shuning uchun bu firqa isno'ashariylar – «o'n ikki imomni e'tirof qiluvchilar» deb nomlangan. Isno'ashariylarning e'tiqod qilishicha, o'n ikkinchi imom Muhammad al-Mahdiy hali o'lmagan, balki u 873-74 sanada g'oyib bo'lgan va oxir-zamonda paydo bo'lib, zulm va fasodga to'lgan yer yuzini tinchlik va adolatga to'ldiradi. Ular imomlarni xato va gunohdan ma'sum (pok) deb hisoblaydilar. Bunga sabab, ularning fikricha, imomlarga ilohiy ilhom keladi yoki Payg'ambar o'z zamonida bayon etishlariga hojat bo'lmagan ahkomlar ilmini ularga qoldirganlar. Shu bois ular imomga imon keltirishni musulmonlik shartlaridan biri deb hisoblaydilar. Ular imomga shunday tavsif beradilar: «Imom xatodan, adashishdan yiroq bo'lgan, to'g'ri yo'ldagi, taqvoli va Alloh qo'llagan ma'sum kishidir. Alloh va bandalarining o'rtasida hujjat bo'lishi uchun Alloh ularga shu xususiyatlarni berdi».

Isno'ashariylar imomlarning maqomlari xususida turli fikrlar bildirganlar. Ba'zilar Alini Payg'ambardan afzal deb e'tiqod qiladilar hamda Ali va uning o'n bir avlodi insonlarga rizq berib turadi. Ular Payg'ambardan keyingi Allohning hujjatlaridirlar. Ularning buyruqlari Payg'ambarning buyrug'i, nahy(taqiq)lari Payg'ambarning nahyisi, ularga itoat qilish – Payg'ambarga itoat qilish, ularga bo'ysunmaslik – Payg'ambarga isyon

qilish, degan fikrlarni bildiradilar. Ularning jasadlari nuroniyliklari sababidan qabrlarda chirimaydi yoki ba'zilarining e'tiqodiga ko'ra osmonga ko'tariladi.

Ular fiqh qoidalarini Qur'onga, o'z olimlaridan naql qilingan ko'rsatmalarga asosan tuzadilar. Sunniylikda fatvo (diniy hukm) chiqarish uchun qo'llaniladigan ijmo' masalasida faqatgina Ahl al-Bayt (Ali avlodlari) ijmo'ini qabul qiladilar va boshqalarini rad etadilar. Isno'ashariya firqasi islomdagi boshqa mazhablardan nafaqat e'tiqod masalalarida, balki ibodat masalalarida ham farqlanadi.

Isno'ashariya imomlari quyidagilar:

1. Ali ibn Abi Tolib (al-Murtazo);
2. al-Hasan ibn Ali (al-Mujtabo);
3. al-Husayn ibn Ali (ash-Shahid);
4. Ali Zayn al-obidin ibn al-Husayn (as-Sajjod);
5. Muhammad ibn Ali (al-Boqir);
6. Ja'far ibn Muhammad (as-Sodiq);
7. Muso al-Kozim ibn Ja'far as-Sodiq (al-Kozim);
8. Ali ibn Muso (ar-Rizo);
9. Muhammad al-Javod ibn Ali (at-Taqiy);
10. Ali al-Hodi ibn Muhammad al-Javod (an-Naqiy);
11. al-Hasan al-Askariy ibn Ali al-Hodi (az-Zakiy);
12. Muhammad al-Mahdiy ibn al-Hasan al-Askariy (al-Hujjat al-Qo'im al-Muntazir).

Bu firqaning markazlashgan joyi Erondir. Undan tashqari Ozarbayjon, Suriya, Livan, Falastin,Hindiston va Pokistonda «Isno'ashariya» oqimi vakillarini uchratish mumkin.

Ismoiliya firqasi – islomdagi shia oqimining asosiy shaxobchalaridan biri bo'lib, islom tarixida juda muhim o'rin tutadi. Ushbu firqa vakillari turli mamlakatlarda botiniya, sab'iya, qarmatiya, ta'limiya, mulhidiya va h.k. nomlar bilan atalganlar.

Ismoiliyaning paydo bo'lishi VIII asrda shialar orasidagi o'zaro bo'linishdan boshlandi. Shialarning keyinchalik «imomiylar» deb atalgan bir guruhi Ja'far as-Sodiqning kichik o'g'li Muso al-Kozimni yettinchi imom deb tan oldilar. Chunki Imom Ja'far katta o'g'li Ismoilni vorislikdan mahrum etib, imomlikni kichik o'g'liga vasiyat qilgan edi. Ammo, shunga qaramay, boshqa bir guruh Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoilni imomlikning merosxo'ri sifatida tan oldilar. Ismoil otasi tirikligida vafot etganligi sababli keyinchalik uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni yettinchi imom sifatida qabul qildilar. Imomiya shialaridan farqli ravishda

imomatning davomchisi Ismoildir, deb da'vo qiluvchi ushbu firqa o'zlarini «ismoiliylar» deb atadilar.

Islomda ilohiyot masalalari bo'yicha turli g'oyaviy mazhablar shakllangan bo'lib, ulardan biri mu'taziladir. Mu'taziliylik so'zi arabchadan olingan bo'lib, ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degan ma'nolarni anglatadi. Mu'taziliylar – islomdagi aqidaviy firqalardan biri bo'lib, ular qadariylar, ahl al-adl, ahl at-tavhid va va'idiylar kabi nomlar bilan ham tanilganlar. Mu'taziliylik maktabi VIII asrda Umaviylar xalifaligining oxirlarida vujudga kelib, Abbosiylar davrida katta e'tiborga ega bo'lgan firqadir. Abbosiy xalifalar al-Ma'mun, al-Mu'tasim va al-Vosiqlar davrida (813-847) rasmiy e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Biroq al-Mutavakkil (847-861) davriga kelib mu'taziliylar ta'qibga uchradi. Uning asoschisi Vosil ibn Ato (vaf. 748 y.)dir. U mashhur islom ilohiyotchisi va faqihi Hasan al-Basriy (vaf. 728 y.)ning shogirdlaridan bo'lgan. Vosil ibn Ato hamda Amr ibn Ubayd (vaf. 761y.)lar mu'taziliylik firqasiga asos soldilar. Keyinchalik ular ta'limotlarini yoyish maqsadida Basra, Kufa, Bag'dod, Nasaf, Damashq va Misrga o'z targ'ibotchilarini yubordilar.

Mu'taziliylik firqasi dastlab «inson o'z amalini o'zi yaratadi», degan fikr bilan o'z ta'limotlarini boshlaganlar. Keyinchalik o'z e'tiqodlarini 5 asosda barpo qilganlar:

1). at-Tavhid (Allohning yagonaligiga e'tiqod qilish). Bu aqidaga asosan mu'taziliylar Allohni sherikdan, o'xshatishlardan pok, uning hukmiga hech kim qarshi chiqa olmaydi, insonlarda sodir bo'ladigan holatlardan hech biri unda sodir bo'lmaydi, deb biladilar. Ahl as-sunna quyidagi mavqelari uchun ularni tanqid qildilar: 1. Allohni oxiratda ko'rish mumkin emas. 2. Allohning sifatlari uning zotidan boshqa emas. 3. Qur'onning yaratilganligi.

2). al-Adl (adolat). Bunga ko'ra, Alloh bandalarning amallarini yaratmaydi, ularning buzilishlariga ham rozi bo'lmaydi, balki bandalarning o'zlari Alloh ularga bergan qudrat bilan buyurilgan ishlarini bajaradilar va qaytarilgan ishlaridan saqlanadilar. Alloh bandalarga faqatgina o'zi yaxshi ko'rgan amallarni buyuradi va ularni o'zi yomon ko'rgan barcha amallardan qaytaradi. Shuning uchun Alloh bandalar qiladigan barcha yomon amallardan pokdir. Ularni qurblari yetmaydigan ishga buyurmaydi.

3). al-Va'd (solih amalga mukofot va'dasi) va-l-va'id (yomon amallarga jazo va'dasi). Ushbu aqidaga ko'ra, Alloh taolo bandalarning qilgan amallariga qarab ularga mukofot yoki jazo beradi. Katta gunoh qilgan bandalarni esa to tavba qilmagunlariga qadar kechirmaydi.

4). al-Manzila bayna-l-manzilatayn (mo''minlik va kofirlik orasidagi holat). Bunda zino, o'g'irlik,aroq ichish kabi katta gunoh qilgan banda

mo‘‘min ham bo‘lmaydi, kofir ham bo‘lmaydi, balki shu ikkidaraja o‘rtasida qoladi. Bu aqida mu’tazila asoschisi Vosil ibn Ato tomonidan belgilangan.

5). al-Amr bi-l-ma’ruf (yaxshilikka buyurish) va-n-nahy ani-l-munkar (yomonlikdan qaytarish).

Mu’taziliylar ushbu qoidani islom diniga da’vat, adashganlarga yo‘l ko‘rsatish uchun barcha mo‘‘minlarga vojib deb belgilaganlar. Har bir mo‘‘min o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, bu vazifani bajarishi zarur: olim ilmi bilan, kotib qalami bilan, qilich sohibi qilichi bilan.

Mu’taziliylik e’tiqodiy masalalarni bayon qilishda aqlni naqldan ustun qo‘yadi. Ular yunon va hind falsafasidan ta’sirlangan holda, har bir masalani aqlga tayanib yechishga harakat qiladilar. Hozirgi kunda mu’taziliylar maktabi mavjud emas. Biroq zamonaviy islom ilohiyotchilari orasida ularning fikr va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchilar bor.

Islom dinida Ahl as-sunna va-l-jamoa e’tiqodi Kalom ilmiga asoslanadi. Kalom ilmi O‘rta asrlarda diniy – falsafiy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o‘rganish, islom aqidalariga e’tiqod qilish haqidagi bilimlarni jamlagan. E’tiqod qilinishi lozim bo‘lgan diniy talablarga nisbatan aqliy mulohaza yurgazish jarayonida kalom maxsus bilimlar tizimi majmui sifatida vujudga keldi. Kalom (Ilm al-kalom) atamasi keng ma’noda o‘rta asrlar – musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (jumladan, nasroniylik va yahudiylik dinlarida ham) erkin fikr yuritishlarga nisbatan qo‘llanilgan, tor ma’noda esa Qur’on va sunna ta’limotini aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan.

Ratsionalistik yo‘nalish vakillari-mutakallimlar va faylasuflar orasidagi farq ular tahlil etadigan masalalarning boshqa-boshqaligida. Mutakallimlar ilohiyot masalalari bilan shug‘ullanadigan bo‘lsalar, faylasuflar dunyo, jamiyat va insoniyat haqidagi g‘oyalar dunyosini tahlil etadilar.

Kalom ilmi dastlab islomda mavjud bo‘lgan turli diniy-siyosiy firqalar (xavorijlar, qadariylar, jabariylar, murjiiylar)ning o‘zaro munozaralari va boshqa din (mazdakiylik, nasroniylik) vakillari bilan bahs jarayonida shakllandi. Ushbu tortishuvlarda Qur’on va sunna kabiislom manbalari asos qilib olindi. SHular asosida kalom ilmining dastlabki predmeti vujudgakeldi: Allohning yagona vujudligi va uning sifatlari; qazo va qadar (inson taqdiri); o‘tganpayg‘ambarlar, shu jumladan, Muhammad payg‘ambar elchiligi; qiyomat kuni va qayta tirilishga ishonish;musulmonlarning diniy hamda dunyoviy rahbarining (xalifa, imomlik) sifatlari kabi masalalar.

Islom tarixining dastlabki bosqichlarida jamiyatning diniy-huquqiy asoslarini turli dindagi xalqlarning milliy madaniyati tashkil qilar edi. O‘zga dinlarda bo‘lgani kabi islomning nazariy-huquqiy jihatlari keyingi asrlarda shakllana boshladi. Chunki ushbu din o‘rta asrlarda o‘z atrofiga arab bo‘lmagan ajam xalqlarini ham birlashtirishga ulgurgan edi. Shu tufayli islomning diniy-huquqiy ta’limotini yaratishda bu dinni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim edi. IX asr o‘rtalariga kelib islomda yirik oqimlar sunniylar, mu’tazila, murji’a, shialar va xavorijlar tashkil topdi.

Moturidiya islom dinidagi ash’ariyadan keyingi ikkinchi sunniy kalom maktabidir.Abu Mansur al-Moturidiy moturidiyya sunniy kalom maktabining asoschisidir. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy taxminan 870 yilda yoki undan sal oldin tug‘ilgan, degan xulosalar mavjud. U Samarqanddagi Moturid (yoki Moturit) mahallasida tug‘ilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy kabi fiqh va kalom olimlaridan dars olgan.

Al-Moturidiy uslub jihatidan mukammal kalom ta’limotini yaratdi. Uning fikrlari «Kitob at-tavhid» va «Kitob at-ta’vilot» asarlarida bayon etilib, bizgacha yetib keldi. Uning tafakkuri mavjud turli ta’limotlardan sintez yo‘li bilan yangi nazariyani ishlab chiqishning noyob namunasidir. Al-Moturidiy Movarounnahrdagi ilohiyot taraqqiyotida burilish nuqtasini belgilab berdi. U asosan mu’taziliylar va dualistik dinlar vakillariga qarshi g‘oyat sog‘lom va ehtiyotkor tarzda kurashib, o‘ziga xos sintez ilohiyotining asosini yaratdi. Uning shogirdlari – Abu-l-Hasan Ali ibn Sa’id ar-Rustufag‘niy, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abdulkarim al-Pazdaviy va Abu Isma al-Buxoriylardir.

Hanafiya mazhabi ilohiyotini bayon etib bergan al-Moturidiy va uning shogirdlari mazkur sohada ko‘plab asarlar yozdilar. Al-Moturidiy Abu Hanifaning «ar-Risola ilo Usmon al-Battiy», Abu Muti’ al-Balxiyning «al-Fiq al-absat», Abu Muqotil as-Samarqandiyning «al-Olim va-l-muta’allim» kitoblaridagi ta’limotni an’anaviy ta’riflar yordamida qaytarish va ta’kidlash bilangina cheklanmaydi. U o‘zi so‘z yuritayotgan masalalarni asoslab berishga intiladi, imkon bor yerda, bir fikrni ikkinchisidan keltirib chiqarishga harakat qiladi. U aniq tarkibga ega bo‘lgan epistemologiya, ya’ni bilish nazariyasiga ega ediki, uning yordamida olim o‘z fikrlarini tahlil etar hamda bilishning turli manbalarini anglab, ular haqida so‘z yuritar edi. Uning usuli muhim masalalarda doimo (qarama-qarshi ilohiy qarashlar o‘rtasida) oraliq yo‘lni tanlashni hamda turli da’volar (vahiy va aql, Alloh va inson, Alloh va olam) o‘rtasida mantiqiy mutanosiblik mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Biror diniy hukm

chiqarish lozim bo‘lgan hollarda al-Moturidiy turli jihatlar mutanosibligi talabini amalga kiritgan. Al-Moturidiy 333 hijriy /944-45 milodiy yil Samarqandda vafot etgan bo‘lib, ulamolar qo‘yiladigan Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

Ash’ariya islomdagi ahl as-sunna va-l-jamoa doirasidagi ikki yirik e’tiqodiy maktabning biridir. Uning asoschisi basralik Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash’ariydir. U birinchilardan bo‘lib kalom bilan islom aqidalarini uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Abu-l-Hasan al-Ash’ariy ta’limotini asoslashda sunniylikdagi to‘rt mazhabning ikkisi – shofi’iya va molikiyaga suyanar edi.

Shuningdek, u kalom borasida turli xil ziddiyatlar orasida faoliyat ko‘rsatganligi ma’lum.

Uning hayotini uch yoki ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

1) mu’tazila maktabining vakili Abu Ali al-Jubbo‘iydan ta’lim olib, 40 yil ushbu ta’limot tarafdori sifatida o‘tgan hayoti;

2) 912-13 yil mu’taziladan ajralib chiqib, o‘zi uchun yangi yo‘l topgan davrdagi hayoti. Abu-l-Hasan al-Ash’ariy bu borada ko‘p asarlar tasnif etgan bo‘lib, ularning asosiylari «Maqolot al-islomiyin» va «al-Luma’» kitoblaridir. U 934-35 yili Bag‘dodda vafot etdi. Al-Ash’ariy al-Moturidiydan farqli o‘laroq, bilish nazariyasi, olamning tuzilishi, Allohning zoti va ta’siri, insonga taqdim etilgan xatti-harakat masalalarida boshqacha mulohaza yuritgan.

Ash’ariylarning asosiy tayanadigan manbalari Qur’oni karim, sunna va kalom ilmi qoidalaridir. Ular ohod hadislarga aqida bobida tayanmaydilar. Ular Allohning zoti haqida shunday e’tiqod qiladilar:

– Allohning birligi, uning tengi va o‘xshashi yo‘qligi;

– Qur’onda zikr qilingan Allohning «yuzi», «ko‘zi» kabi so‘zlarning o‘ziga xos talqini (ta’vili) mavjudligi;

– inson balog‘atga yetganda uning avvalgi vazifasi fikrlash, so‘ngra esa imon keltirish ekanligi;

– imon va toat – Allohning tavfiqi bilan, kofir bo‘lish va gunohkorlik esa Allohning xor qilishi sababidan ekanligi;

– Allohni qiyomatda ko‘z bilan ko‘rish mumkinligi;

– gunohi kabira qilgan inson tavbasiz vafot etsa, uning hukmi Allohga havola ekanligi;

– oxirat, qayta tirilish, mahshar, tarozi, sirot ko‘prigi, shafoat, jannat, do‘zax va shu kabi g‘aybiy narsalarga imon keltirish shartligi;

– sahobalar barcha ishlarini ummatning manfaatini ko‘zlab qilganliklari uchun ular haqida yomon so‘z aytish mumkin emasligi.

Islom dinida fiqh fani o‘ziga xos fan bo‘lib, u birinchi navbatda din masalalarini o‘z ichiga oladi. Lug‘atda «al-fiqh» so‘zi «aql ila anglamoq, tushunmoq» ma’nolarini beradi. Istilohda esa u «islom huquqi»ni anglatadi. Fiqh fani – G‘arbda Islamic Law, Muslim Law (ingliz tilida), le Droit musulman (fransuz tilida), islamische Gesetz (nemis tilida) kabi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoviy huquq normalaridan farqli o‘laroq fiqh o‘z ichiga ko‘proq ibodat masalalarini ham qamrab oladi. Shuningdek, fiqhda fuqaroviy jamiyatdagi kishilar o‘rtasidagi ba’zi mulkiy, fuqarolik va boshqa masalalar ham ko‘riladi. Bu esa, o‘z navbatida, fiqhni yurisprudensiyaga yaqinlashtiradi. Aynan shu jihat davlat huquqi tarixini o‘rganuvchilar bilan diniy huquqni tadqiq etuvchi islomshunoslar orasida turli talqinlarni keltirib chiqarmoqda.

Fiqh ilmining musulmonlar uchun amaliy diniy qoidalarni ishlab chiquvchi «furu’ al-fiqh» («fiqh tarmoqlari») va sakral manbalardan amaliy qoidalarni chiqarish (istinbot) uslublarini tadqiq etuvchi «usul al-fiqh» («fiqh asoslari») degan asosiy sohalari mavjud. Fiqh ilmi ummaning olim kishilari orasida shakllana boshladi. Avval u Ilohiy Kitobni aqliy tushunish va izoh berishni anglatgan. Bu ma’noda ilk davrda fiqh (aqliy tushunish) ‘ilm (naqliy tushunish) ning aksini bildirgan. Asta-sekin islomning amaliy masalalaridan bahs etuvchi fanshakllanib, unga ilm al-fiqh nomi berildi.

Payg‘ambar vafotidan keyingi davrda arab davlati hududlari tez sur’atlar bilan kengaya bordi. Uning tarkibiga Andalus (Ispaniya), Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa o‘lkalar kiritildi. Fiqhning mintaqaviy maktablarida islom amaliyoti masalalari tezlik bilan ishlab chiqila boshlandi. Ularning an’analari o‘zlari faoliyat olib borayotgan muhit va mahalliy madaniyat ta’siri ostida bir-biridan farq qilar edi. Bir-biridan uzoq bo‘lgan yerlarda mustaqil fiqh markazlari paydo bo‘ldi. Ular orasida katta arab qo‘shinlari turgan Iroq (Kufa, Basra), Misr, Shom, Hijozning (Madina, Makka) ahamiyati yuqori bo‘ldi. Mazkur mahalliy markazlarning urf-odatlari, ehtiyoj va shart-sharoitlari turlicha edi. Yangi ko‘tarilgan masalalarga kirishilganda (ijtihod), har bir faqih turli echim (fatvo) qabul qilardi. Bularning barisi ma’lum o‘lkalarda turli mazhablarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Ilk rivojlanish davrida fiqhga doir bo‘lgan masalalar miqyosi, ularni muayyan boblar va fasllarga bo‘lib o‘rganish an’analari shakllanib ulgurdi. Shu davrning o‘zidayoq fiqh islom fanlari orasida o‘z o‘rnini oldi.

Muhaddislar (traditsionalizm) harakatining boshlanishi fiqh ilmining rivojlanishida yangi davrni ochib berdi. Faqat Payg‘ambardan maxsus texnika (muhaddislar texnikasi) asosida naql qilingan xabargina muqaddas

(diniy) ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikr diniy ilmlar sohasida eski qoidalarni zudlik bilan o‘zgartirdi. Traditsionalizmning VIII asr mobaynida kuchayib borishikalom va fiqh sohasida keskin burilish yasadi. Bundan avval qabul qilingan qoidalar yangi talablarasosida ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Bu ishlarni amalga oshirishda ash-Shofi’iyning «ar-Risola» asarimuhim rolni o‘ynadi. Unda naqliy va aqliy uslublar, muqaddas matnlar o‘zaro munosabatlari o‘rtasidagiziddiyatlarni hal qiluvchi metodologiya asoslanib berildi. Bu bilan usul al-fiqh fani dunyoga keldi. «Ar-Risola» fiqh olimlari orasida shu davrgacha olib borilgan «Ahl al-hadis» va «Ahl ar-ra’y» guruhlarining ziddiyat va ixtiloflariga barham berdi. Mintaqaviy maktablardan o‘z ta’limotiga ega bo‘lgan mazhablarga o‘tish boshlandi. IX – X asrlarda muayyan sunniy mazhablarning soni kamayib, XII – XIII asrlarda ulamolarning o‘zaro kelishuvi (ijmo‘) asosida ular to‘rtta deb e’lon qilindi. Shu bilan bir qatorda ijtihod darvozalari yopilganligi haqidagi noreal fikr ham tarqatildi.

1. Islom dini sunniylik yo‘nalishidagi eng keng tarqalgan mazhab Hanafiya mazhabidir. Mazhabga Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit al-Kufiy (699-767) tomonidan asos solingan va diniy-huquqiy jihatdan ishlab chiqilgan. Hanafiya mazhabini shakllantirishda Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit al-Kufiyning o‘quvchilari Abu Yusuf (vaf. 798 y.) va Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniylarning (vaf. 804-05 y.) xizmati kattadir. Umumislomiy masalalarda mazhablar o‘rtasida katta farqlarni uchratmasak-da, shu bilan birga xususiy masalalarning qariyb hammasida o‘ziga xos qoidalar mavjudligini ko‘ramiz. Shu sababli boshqa mazhablar bilan qiyosan hanafiya mazhabiga xos bo‘lgan jihatlarni sanab o‘tirishga hojat yo‘q.

Hanafiya mazhabi, asosan, Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Turkiya, Suriya, Iroq, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya, Jibuti, Eritreya mamlakatlarida keng tarqalgan. Hanafiya mazhabi rivojida Markaziy Osiyo (Movarounnahr) faqihlarining o‘rni beqiyosdir. X-XII asrlar davomida Yaqin Sharq mamlakatlarida shialik tazyiqi ostida so‘nib borgan hanafiy markazlarni Saljuqiylar, Usmoniylar imperatorligi davrida aynan Movarounnahr hanafiylari qaytadan tikladilar. Ular barcha yangi markazlar uchun ustoz bo‘lib qoldilar.

2. Sunniylikdagi Molikiya mazhabining asoschisi Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abi Omir al-Asbahiydir. Imom Molik 93/711-12 yili Madinada tug‘ilgan. Uning mashhur asarlari orasida «al-Muvatto» bor. Molikiya mazhabi ko‘proq Misr, Sudan, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Mavritaniya, Quvayt, Bahraynda tarqalgan.

3. Sunniylikdagi Shofi'iya mazhabining asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon ibn Shofi'iy al-Hoshimiy al-Muttalibiydir. U 767 yilda Falastin diyorida tavallud topgan. Imom Shofi'iy 800 yilda shia mazhabini qabul qilgan deb ayblanib, Iroqqa surgun qilindi. Iroqda Imom Shofi'iy Abu Hanifaning shogirdlaridan Imom Muhammad ash-Shayboniy va boshqa Iroq faqihlari bilan uchrashib, ular bilan ilmiy munozaralar o'tkazdi. U 814-15 yili Misrga kelib, u yerda o'z ilmiy faoliyatini davom ettirdi. U bu yerda o'z mazhabining asosini tashkil qilgan «al-Umm» asarini yozdi. Imom Shofi'iy 820 yili Misrda vafot etdi. Uning shogirdlari orasida Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Yahyo al-Buvaytiy kabilar bor edi. Shofi'iya mazhabi Suriya, Livan, Falastin, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaman, Misr, Somali, Komor va Maldiv orollari, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Bruney sultonligida tarqalgan.

4. Sunniylikdagi Hanbaliya mazhabining asoschisi Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal bo'lib, u 780 yili Bag'dod shahrida tug'ilgan. Ibn Hanbal faoliyati an'anachilar ilohiyoti bilan mu'tazila orasidagi g'oyaviy kurashning avjiga chiqqan (Qur'oni karimni maxluq, ya'ni yaratilgan degan aqidani hokimiyat tarafidan xalqqa kuch bilan singdirish bilan bog'liq mihna – «sinov») davriga to'g'ri keldi. Boshqa olimlar qatori Ibn Hanbal ham quvg'inga uchrab, 833 yilda hibsga olindi. U hadis ilmida «al-Musnad» asarini yozdi. Olimning shogirdlari Ibn Hanbal ta'limotini rivojlantirib, keyinchalik fiqhiy mazhab darajasiga olib chiqdilar. Hanbaliya mazhabi hozirgi kunda Saudiya Arabistoni, Qatar, Bahrayn kabi davlatlarda tarqalgan.

VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Movarounnahrda hanafiya mazhabi tarqala boshladi. Buxoro va Samarqand shaharlarida shu mazhab ta'limoti asosida Movarounnahr fiqh maktabi tarkib topdi. Movarounnahrlik faqihlar teran bilimlari, qimmatli asarlari bilan islom dunyosida katta shuhrat qozondilar. Faqihlarning davlat hukmron doiralari, xalq ommasiga ta'siri juda kuchli edi. Diniy hayotda uchraydigan muammoli masalalar faqihlar orqali echilgan. Fiqh shaxs, oila va jamiyat hayoti turli shahobchalari masalalarini qamrab olganligi tufayli Movarounnahr maktabi namoyandalari bu o'lka xalqlari an'analari, urf-odatlarini umumislom mavqelaridan turib tahlil qilishdek vazifani bajarganlar. Movarounnahrlik faqihlarning bir necha avlodlari faoliyati orqali mahalliy xalqlarning tarixiy, huquqiy an'analari islom madaniyatida o'z aksini topdi.

VIII – X asrlarda Movarounnahrning ayrim shaharlarida hanafiylikka asoslangan ilmiy markazlar paydo bo'ldi. Buxoro maktabiga

Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (vaf. 832 y.) asos solgan. Samarqand ilmiy markazining shakllanishiga Abu Muqotil as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Juzjoniy, al-Atakiylarning ta'siri katta bo'ldi. Buxoro faqihlari bu davrda asosan fiqhning amaliy masalalari (furu' al-fiqh) bilan, samarqandliklar esa o'z ilmiy faoliyatlarini ilohiyot (usul ad-din) mavzui bilan shug'ullanishga qaratdilar. XI – XIII asrlarga kelib, fiqh rivoji yuksak pog'onaga ko'tarildi. Qoraxoniylar (999-1212) davri faqihlari umumislom darajasida shoh asarlar yaratib, hanafiya mazhabi klassiklari mavqeiga erishdilar. O'sha davrda Movarounnahrda hanafiya mazhabi keng tarqaldi.

Sadrlar, ar-Rig'damuniy, az-Zaranjariy, al-Mahbubiy, as-Saffor, al-Pazdaviy, Samarqand sayyidlari, al-Xayzoxaziy, al-Aqiliy, al-Marg'inoniy oilalari ilm va ijtimoiy hayotda kuchli mavqega ega bo'ldilar. XI – XII asrlarda faoliyat olib borgan Movarounnahr faqihlaridan Abu Zayd ad-Dabusiy (vaf. 1037 y. dan avval), al-Halvoiy (vaf. 1056 y.), as-Saraxsiy (vaf. 1088-1089 y.), al-Pazdaviy (vaf. 1089 y.), as-Sadr ash-Shahid (vaf. 1141 y.), Abu Hafs an-Nasafiy (vaf. 1142 y.), Alo ad-din as-Samarqandiy (vaf.1144-45 y.), Burhon ad-din al-Kabir al-Buxoriy (vaf. 1174-75 y.), al-Attobiy (vaf. 1190 y.), al-Kosoniy (vaf. 1191 y.), Qozixon (vaf. 1196 y.) va Burhon ad-din al-Marg'inoniy (vaf. 1197 y.) kabi ma'lum va mashhur faqihlarning nomlarini keltirish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda dinga nisbatan ma'naviy meros, madaniyat, qadriyat sifatida munosabatda bo'linib, dinning axloqiy, tarbiyaviy jihatlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikkacha bo'lgan davr, sobiq Ittifoq davrida dinga nisbatan sinfiylik nuqtai-nazaridan munosabatda bo'linib, din mazlum sinflarni itoatda ushlab turadigan g'oyaviy qurol degan qarash odamlarning ongi va dunyoqarashiga singdirildi. Davlat siyosatida dahriylik targ'iboti olib borildi. Bu esa juda ko'p ma'naviy meros, qadimgi qo'lyozmalarning yo'qotilishiga, moddiy madaniyat, me'moriy obidalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqohlarning qarovsiz qoldirilib, buzilib yo'qolib ketishiga olib keldi. Qatag'on yillarida ko'plab ulamolar jismonan yo'q qilindi. Bu esa oxir-oqibatda jamiyatning ma'naviy qashshoqlanishiga olib keldi. O'zbekistonda arab yozuvidan lotin yozuviga, undan kirill yozuviga o'tilishi ham keyingi avlod ko'pchiligining o'z ota-bobolari ma'naviy merosidan uzilib qolishiga olib keldi. Bu ma'naviy meros yodgorliklarining ichida ilmi kalom, ilmi hikmat, ilmi rivoyat, ilmi tavhid, ilmi aqidaga tegishli bo'lgan islomiy asarlar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi.

Shuning uchun mustaqillikdan keyin islom diniga, uning qadriyatlariga yangicha yondashuv shakllantirildi. Xalqimiz boy ma'naviy merosimizni, diniy qadriyatlarimizni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qur'oni karim, hadislar, kalom ilmi, islom falsafasi va tasavvufga oid ko'pgina asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinib xalqimizga yetkazib berildi. Islom dini xalqimizning tarixida hamda bugungi kunida muhim o'rin tutib kelmoqda. Mustaqillikdan so'ng diniy bayramlar qayta tiklanib, islomiy ilmlar sohasida faoliyat olib borgan mutafakkirlarning tavallud kunlari keng nishonlanmoqda. Xalq tarixi va madaniyatini teranroq bilish, o'zlikni anglashning kuchayishi dinga qiziqishni kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya, 2276 ta diniy tashkilot faoliyat ko'rsatib, ular bilan davlat idoralari o'rtasida demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy munosabat shakllangan. Din va e'tiqod erkinligini ta'minlash asosida O'zbekistonda fuqarolar hamjihatligi va milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlik ta'minlanmoqda. O'zbekistonda din va e'tiqod erkinligi huquqining ta'minlanishi natijasida din fuqarolar ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim o'rin tutib kelmoqda. Islom dini, Qur'on va hadislardagi g'oyalar insonlarni vijdonan pok, iymonli va halol bo'lishga da'vat etib kelmoqda. Halol mehnat bilan kun kechirish, insofli, diyonatli, adolatparvar bo'lish, saxiylik, muruvvatlilik, o'z xalqi, uning madaniyati haqida qayg'urish iymonli insonga xos bo'lgan fazilatdir.

3-§. Dunyo va O'zbekistonda islom dinining mavqei

So'nggi o'n yilliklar mobaynida dunyoda din omilining faollashuvi kuzatilmoqda. Islom dini bugungi kunda davlatlarning ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, davlatlararo va xalqaro munosabatlarga ta'sir etib kelmoqda. Islom omilining kuchayishiga musulmon mamlakatlari hududlarining kattaligi, demografik jihatdan aholi sonining tez o'sishi, ushbu hududlarda tabiiy resurslarning ulkan zahiralari mavjudligi, geografik-strategik imkoniyatlarining qulayligi, islom mamlakatlaridagi milliy o'zlikni anglash jarayonlari ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Oxirgi paytda Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Indoneziya, Turkiya kabi davlatlarning xalqaro maydondagi ta'siri kuchayib bormoqda. Shu bilan birgalikda xalqaro islom tashkilotlarining nufuzi ham ortib bormoqda.

Bugungi kunda "Musulmon olami" (Islom olami) tushunchasi diniy jihatdan musulmonlarni, madaniy jihatdan o'z tarkibiga mazkur hududda istiqomat qiluvchi musulmon bo'lmagan kishilarni ham qamrab oluvchi "islom sivilizatsiyasi"ni anglatadi.Zamonaviy geosiyosiy ma'noda "musulmon olami" tushunchasi aholisining ko'pchiligi (50%dan ortig'i)ni

musulmonlar tashkil etadigan mamlakatlarga nisbatan ishlatiladi.Hozirgi kunda "musulmon olami"da Yer aholisining 23,4 foizi, ya'ni 1,64 mlrd. kishi istiqomat qiladi. Ularning taxminan 62 % Osiyo va Tinch okeani hududida, 20 % Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada, 15 % Markaziy Afrikada, 3%ga yaqini Evropada, 0,3 % Amerikada yashaydi.
Dunyoda eng rivojlangan 20 ta davlatlar (G-20) orasida 3 ta musulmon davlati Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Turkiya bor. Islom olamida eng rivojlangan 8 ta (D-8) davlatlar Bangladesh, Indoneziya, Malayziya, Misr, Nigeriya, Pokiston, Turkiya va Erondan iborat.

Islom dunyosidagi xalqaro islom tashkilotlari jahonda tinchlik, totuvlik va barqaror taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) o'z oldiga musulmon birdamligini mustahkamlashga ko'maklashish; siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilish; barcha musulmonlarni o'z qadriyatlari, mustaqilligi va milliy huquqlarini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlash; muqaddas joylarni muxofaza qilish; adolatga tayangan holatda xalqaro tinchlik va barqarorlikka ko'maklashish; tashkilotga a'zo mamlakatlar va o'zga mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va o'zaro anglashuvni rag'batlantirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, Islom olami uyushmasi dunyoning turli mamlakatlaridagi yirik musulmon arboblarini birlashtirgan xalqaro islom tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Ushbu tashkilot islom ta'limotini butun dunyoga tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yib, keng miqyosdagi xayriya va insonparvarlik faoliyatini olib bormoqda.

Hozirgi davrda islom dinini zamonga moslashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalish islom modernizmi deb nomlanadi. Islom modernizmi tarafdorlari musulmon mamlakatlarida mavjud bo'lib, ular islom diniy va ijtimoiy ta'limotini yangi zamon sharoitlariga muvofiqlashtirish, islom dinining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy muammolariga taalluqli aqidalarini yangicha talqin etish, xo'jalik hayotini tartibga solish va islom tamoyillari asosida taraqqiyotning yangi modellarini, yo'llarini ishlab chiqishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yishgan. Islom modernizmi hozirgi ijtimoiy hayot va ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga islom ta'limotini moslashtirish harakatidan iboratdir.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karim bo'lib, u Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga oyatma - oyat, sura - sura nozil qilingan ilohiy kitob bo'lib hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri ahl as-sunna va-l-jamoa ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmidir. Mazkur ilohiy kitobning bir nechta nomlari bo'lib, ulardan «Qur'on» so'zi – arabcha

«qara'a» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Qur'on 114 ta suradan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, 6636 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turli qiroat maktablarining (ularning soni 14 dan ortiq) an'analari bo'yicha turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Qur'ondagi suralar o'z mazmuniga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko'ra – avval katta, so'ng kichik suralar tartibida Payg'ambar vafotidan ancha keyin yig'ib joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmli ikkinchi surada 286 oyat bor bo'lsa, eng kichik suralar faqat uch oyatdangina iborat.

Islomshunoslik va qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. Birinchi Makka davri (610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar o'qilgan. Evropa olimlari ularga «Nazmiy suralar» deb nom berganlar.
2. Ikkinchi Makka davri (616-619 yillar). Bu suralar Muhammad payg'ambar va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchiligi Habashistonga ko'chib ketgan vaqtda o'qilgan. Bu suralarda Alloh «Rahmon» sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Evropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.
3. Uchinchi Makka davri (619 yil boshlaridan – 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad payg'ambar va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida payg'ambarlar haqidagi asotir-hikoyatlarga keng o'rin berilganligi sababli evropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom berganlar.

Tarixiy voqealarni aniqroq aks ettirishini e'tiborga olgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini quyidagi besh bosqichga ajratish mumkin:

I davr (622 yil oktyabridan 624 yilgacha) Muhammad payg'ambar Madinaga ko'chib o'tganidan so'ng to makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha nozil bo'lgan to'rt sura bu davrga kiradi.

II davr (624 yil martidan 625 yil martigacha). Bu davr Badr jangidan to Uhud jangigacha o'tgan bir yil mobaynida nozil bo'lgan uch surani o'z ichiga oladi.

III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhuddagi mag'lubiyatdan to Xandaq jangigacha o'tgan ikki yil ichida beshta sura nozil bo'lgan.
IV davr (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Bu davrga Xandaq jangidan to Makka fathigacha o'tgan salkam uch yil ichida nozil bo'lgan sakkiz sura kiradi.
V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fathidan Muhammad payg'ambarning vafotigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida yana to'rtta sura nozil bo'lgan.

Muhammad payg'ambar vafotidan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) mo'minlar va murtadlar (dindan qaytganlar) o'rtasida shiddatli janglar (yuqorida eslatilgan Ridda voqealari) bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar halok bo'ldilar. Shunda bo'lajak xalifa Umar ibn al-Xattob (634-644) Abu Bakrga: «Barcha qorilar shu zaylda o'lib ketaversa, Qur'on nuqsonli bo'lib qolishi mumkin, shu sababli uni jamlab kitob holiga keltirish zarur», - degan maslahatni berdi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Payg'ambar davrida qilinmagan edi. Bu hol bid'at deb qabul qilinishi mumkin edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur'onni kitob shakliga keltirib qo'yish zarurligini anglab yetdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib, bu ishni unga topshirdi. Shunday qilib, Zayd va boshqa qorilar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozib chiqdilar va bog'lab Abu Bakrning uyida saqlab qo'ydilar. Bu jamlanma keyinchalik «as-Suhuf al-Bakriya» – «Abu Bakr sahifalari» deb nomlandi. Abu Bakr olamdan o'tgandan keyin jamlanma Umar ibn al-Xattob uyida, u olamdan o'tgandan so'ng uning qizi – Payg'ambar ayoli Hafsada qoldi. Vaqt o'tishi bilan islom davlatida turli siyosiy guruhlar paydo bo'ldi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlar xalifa Usmon ibn Affon (644-656) davrida keskinlashdi. Har bir guruh o'z siyosiy da'volarini Qur'on orqali asoslashga urinar edi. Qur'onni o'qishdagi turli ixtiloflar bunga asos yaratar edi. Bu ixtiloflarni bartaraf etish maqsadida xalifa Usmon ibn Affon Qur'onning yangi tahririni ko'chirishga buyruq beradi. Bu topshiriqqa binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on qismlarini yig'ib, taqqoslab chiqib, qaytadan Qur'oni karim matnini jamladi. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yilda xalifa Usmonga taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib, undan yana uchta, ba'zi manbalarga ko'ra ettita nusxa ko'chirtirilib, arab askarlari turgan yirik shaharlardan – Basra, Damashq, Kufaga jo'natilgan. «Imon» deb nomlangan asl nusxa esa Madinada xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar «Mushafi Usmon» deb ataldi. Ilk Qur'on

nusxalaridagi arab yozuvida harflarning elementlari – nuqtalar va unli tovush belgilari qo‘yilmagan bo‘lib, uni Qur’onni to‘liq yod biluvchi usta qorilargina o‘qiy olar edilar. Hammaga faqat Qur’onning shu nusxasidan ko‘chirishga buyruq berildi. Saqlangan ilk nusxalar hijoziy va kufiy xatlarida ko‘chirilgan. Mutaxassislarining fikricha, Arab davlatining poytaxtini 749 yilda Suriyadan Iroqqa o‘zgartirilishi hijoziy xatining yo‘qolib ketishiga olib keldi. Qur’on yozuvining hozirgi ko‘rinishi faqat X asrga kelib to‘liq shakllangan. Qur’onning shu kunimizgacha saqlanib qolgan nodir nusxalari arab yozuvi rivojining bebaho yodgorliklari hisoblanadi.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur’onni mutolaa qilib o‘tirganida fitnachilar tomonidan o‘ldirilgan. U kishining qoni Qur’on sahifasiga to‘kilgan, degan naql xalq orasida keng tarqalgan. Bundan Kufadagi kitob savdogarlari foydalanib, ko‘p nusxada «qonli» Qur’on nusxalari tayyorlab sotganlar. Hozirgi paytda jahon muzey va kutubxonalarida Mushafning bir nechta nusxalari saqlanadi. Ulardan biri Toshkent shahrida O‘zbekiston musulmonlar idorasidadir. Unda ham qon izlari bo‘lib, shu nusxa aynan xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud. Mazkur Qur’on 353 varaqdan iborat bo‘lib, varaqlar o‘lchami 68x53 sm, matn yozilgan qism hajmi 50x44 sm. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo‘lib, har biriga 12 qatordan chiroyli kufiy xatida yozuv bitilgan. Ko‘p varaqlari yo‘qolgan va keyinchalik qog‘oz sahifalar bilan to‘latilgan.

Tataristonlik mashhur olim Shihobuddin al-Marjoniyning (1818-1889) aytishicha, Qur’onni qayta tiklash Samarqandda joylashgan «Mug‘ak masjidi» imomi Abdurrahim ibn Usmon al-O‘tiz-Imoniy (vaf. 1838 y.) tarafidan bajarilgan.

Usmon Qur’oni ruslar O‘rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo‘ja Ahror madrasasidasaqlanar edi. Qur’onning Samarqandga keltirilishi haqida ham mutaxassislar orasida har xiltaxminlar mavjud. Ulardan birida muqaddas kitobni Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy (976 yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag‘doddan olib kelgan, deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu BakrQaffol Shoshiy merosxo‘rlaridan Xo‘ja Ahror qo‘liga o‘tgan bo‘lishi mumkin. Xo‘ja Ahror va uningavlodlari bu nusxadan zamonalarining boshqa sufiy tariqatlari shayxlari bilan bo‘lgan raqobatkurashida unumli foydalanganlar. Bu nusxa vositasida ular o‘zlarining islom sarchashmalariga yaqinroqekanliklarini isbotlamoqchi bo‘lganlar. Chunonchi, Ishqiya tariqati shayxlari ahroriynaqshbandiylarga qarshi Qur’onning o‘z qadimiy nusxalariga – Katta Langar Qur’oniga ega bo‘lganlar.

Ikkinchi bir rivoyatda esa Xo'ja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istambulga kiradi va sultonni og'ir xastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur'onni hadya qiladi.

Ko'pchilik arabshunos olimlarning fikricha, bu Qur'on Amir Temur (1370-1405) tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga qo'ydirilgan. Temuriylar davridagi (1405-1506) o'zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirib yuborilgan. Tasodifan shu nusxa omon qolgan. Bu fikr haqiqatdan uzoqroq. Chunki Amir Temurning kutubxonasi haqidagi farazlar hali isbotlangani yo'q. Ikkinchi tarafdan, Amir Temur zamonida boshqa bir Qur'on nusxasi hukmdorlar diqqat-e'tibori markazida edi. Bu Samarqand jome-masjidi (keyinchalik bu masjid Bibixonim masjidi nomini olgan) sahniga qo'yilgan Boysung'ur Qur'onidir.

Toshkent Qur'onini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan sankt-peterburglik sharqshunos olim A.F. Shebunin fikricha, Qur'on Basradan Amir Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan. Chunki A.F. Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur'onning Basra nusxasi ekanligini isbotlashga harakat qildi. Darhaqiqat, bu muqaddas kitob eski nusxalardan hisoblanib, VIII asr oxiri – IX asr boshlarida yaratilgan. 1868 yilda rus askarlari Samarqandga kirishi bilan Usmon Mushafiga e'tibor kuchaydi. Musulmonlar Qur'onni yashirincha Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga yetib, «Fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslikning hamma chorasi ko'rilsin», deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general - gubernatori fon Kaufmanga yetkazadi. U, o'z navbatida, 1869 yil 24 oktyabrda Usmon Qur'onini Sankt-Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar nazoratida jo'natdi. Bu Qur'on nusxasi ustida tadqiqotlar boshlandi. Masalan, 1895 yili mazkur Qur'onning bir varag'i ikki ming nusxada chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Ahmad-shoh «Yosin» surasining fotonusxasini chiqardi. Shu yili S.I. Pisarev va F.I. Uspenskiy Qur'onni faksimile uslubida 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotuvga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so'm baho qo'yildi. Ular faksimileni asl nusxasiga o'xshatish uchun hajmini ham o'shandayligicha qoldirdilar. Hozir bu faksimile nusxadan respublikada bir nechta bo'lib, biri O'zbekiston musulmonlarining diniy idorasi kutubxonasida, ikkinchisi – O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanadi.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To‘qumboev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur’onini o‘z egalariga, ya’ni musulmonlarning o‘lka s’ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur’on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podshoh kutubxonasining «Nodir qo‘lyozmalar» bo‘limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U. To‘qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo‘natiladi. Qur’on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi. 1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo‘mi Usmon Qur’onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlik Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. Komissiya tarkibida sharqshunos olim Sultonxo‘ja Qosimxo‘jaev, professor A.E. Shmidt va din peshvolaridan 3 vakil bor edi. Komissiya maxsus vagonda qurolli kuchlar kuzatuvida Qur’onni Toshkentga keltirdi. Shundan keyin Qur’on 1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo‘ja Ahror jome masjidiga topshiriladi. Lekin ko‘p o‘tmay Qur’onni Toshkent eski shahar muzeyiga keltiradilar va u maxsus po‘lat sandiqda saqlana boshlanadi. Eski shahar muzeyi birinchi o‘zbek muzeyiga aylantirildi. Muzey 1926 yilning 1 yanvarida ochildi. 1926 yilning faqat bir oyi ichida muzeyni 4000 kishi kelib ko‘rdi.

Qur’oni karimga ko‘plab olimlar tomonidan turli tafsirlar yozilgan. Qur’on XII asrdan boshlab Evropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Evropa xalqlari tillaridan, XIX asr o‘rtalarida arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S. Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasi Qozonda uch marta (1878, 1894, 1907 yillarda) nashr qilingan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur’onning ilmiy izohlari bilan rus tiliga tarjimasi hanuzgacha mashhur. Bu tarjima uning vafotidan (1951 y.) keyin, 1963 va 1986 yillarda to‘liq nashr etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan so‘ng Qur’oni karimni o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. Movarounnahr Diniy boshqarmasi vakillari Qur’onning o‘zbek tilidagi tarjimasini nashr etishda bir qancha tarjimalar bilan tanishib chiqib, Alouddin Mansur tarjimasini muvofiq topdilar. 1992 yilda Qur’on o‘zbek tiliga tarjima qilindi va «Cho‘lpon» nashriyotida ko‘p nusxada chop etildi. Shuningdek, «Zvezda Vostoka» jurnali Qur’on matnlarini akademik I.Yu. Krachkovskiy tarjimasida falsafa fanlari doktori, professor, islomshunos olim M.A. Usmonovning tuzatishi va qisqa sharhi bilan «Qadimiy adabiyot yangiliklari» – «Drevniy pamyatnik literaturi» turkumi ostida 1990 yildan boshlab berib bordi.

Qur'onga o'zbek tilida tafsir yozish ishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 2001 yilda taniqli olim Abdulaziz Mansur tomonidan Qur'oni karim ma'nolarining izohli tarjimasi nashr etildi. Islomning ilk davridan to shu kunga qadar Qur'oni karimga turli tillarda, har xil yo'nalishlarda minglab tafsirlar bitilgan. Ularda Qur'oni karimni turli davrlar va muhitlarda tushunish o'z aksini topgan. Binobarin, vaqt o'tishi bilan Qur'onning yangidan-yangi ma'nolari kashf etila boradi. Shuning barobarida yangi tafsirlar ham maydonga kelaveradi.

4-§. Hadis tushunchasining mohiyati. Hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk hadisshunoslar hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslik rivoji

Hadis – Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko'rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so'zining lug'aviy ma'nosi – «so'z, xabar, hikoya, yangi». Hadislar islom dini ta'limoti va qonunlari uchun, ba'zi mazhablar nazdida, Qur'ondan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – isnoddan iborat.

Hadislar o'zidagi ma'lumot xarakteriga qarab xilma-xildir:

1. - al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda ma'no – Allohdan, lafz – Payg'ambardan deb hisoblanadi);
2. - al-hadis an-nabaviy (bunda ma'no ham, lafz ham Payg'ambarniki deb hisoblanadi) va boshqalar.

Hadislar ilk davrda faqat og'zaki ravishda avloddan-avlodga uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarni to'plamaslik haqidagi Payg'ambar va xalifalarning ko'rsatmalari, asosan, ilk islom davriga taalluqli edi. Keyingi davrda paydo bo'lgan muhaddislarning fikricha, Payg'ambar o'z so'zlarini yozib olishdan odamlarni qaytarishlariga sabab – hadislarni Qur'on oyatlariga aralashtirib yubormaslik lozim edi. Boshqa hadisda esa Payg'ambar (bu ahl al-hadis muhitiga tegishli bo'lsa kerak): «Bu og'izdan, – deya o'z og'izlariga ishora qildilar, – faqatgina haq so'z chiqadi» – deb, o'z so'zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan.

VII – VIII asrlarda musulmon siyosiy guruhlari o'rtasidagi shiddatli kurash davomida, taqiqga qaramasdan, juda ko'p sonli hadislar dunyoga kela boshladi. Bunga javoban ilm al-jarh va-t-ta'dil (hadislarni tanqid qilib o'rganuvchi) maxsus fani paydo bo'lib, rivojlana boshladi. Keyinchalik soni tobora osha borgan hadislar alohida to'plamlarga yig'ila boshlandi. Ulardamaxsus tekshirish orqali «tozalanib» olingan hadislar jamlana boshladi. SHunday ilk to'plamlardanbiri Madinadagi Urva ibn az-

Zubayrga (vaf. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko‘chib ketganMuhammad ibn Muslim az-Zuhriyga (vaf. 741 y.) tegishli edi.
Ilk tuzilgan to‘plamlar har bir sahoba nomidan rivoyat qilingan hadislarni o‘zida jam qilganligi uchun musnad deb ataladi. Keyingi davrlarda tuzilgan at-Tayolisiy (vaf. 818 y.) va Ahmad ibn Hanbalning (vaf. 855 y.) to‘plamlari mazkur uslubda yozilgan. Biroq undan foydalanish ancha noqulay. Chunki bunda bir mavzu haqida ma’lumot olish uchun bir necha to‘plamlarni ko‘rib chiqish kerak. Ikkinchi turdagi to‘plamlarda hadislar shu paytgacha shakllanib ulgurgan fiqh fani mavzulari bo‘yicha joylashtirildi. Bu turdagi to‘plamlarga Madina regional fiqh maktabi vakili Molik ibnAnasning (vaf. 795 y.) «al-Muvatto» asari misol bo‘la oladi.
IX asr mavjud hadis to‘plamlari qayta ishlangan holda ularni boblar bo‘yicha tasnif qilib, musannaflar yozish davri bo‘ldi. Musannaflar tuzilishi mobaynida hadislar, asosan ularning isnodlari tanqidiy o‘rganilib, sahih (ishonchli)lari hasan va zaif (ishonchsiz)laridan ajratildi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi XII – XIII asrlardan boshlab alohida e’tiborga molik deb sanala boshlandi. Ular orasida katta nufuzga ega bo‘lgan Imom al-Buxoriy (v. 870 y.) va ImomMuslimning (v. 875 y.) «al-Jomi’ as-sahih» to‘plamlari; undan keyingi muhim to‘plamlar: Abu Dovud,at-Termiziy (v. 892 y.), an-Nasoiy (v. 915 y.) va Ibn Mojjaning (v. 886 y.) «as-Sunan» asarlaridir.

«Al-Jomi’ as-sahih» kitoblari o‘z ichiga biografik ma’lumotlar, Qur’on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini qamrab oldi. «Al-Jomi’ as-sahih»ning ishonchlilik darajasi sunniylar orasida boshqa to‘plamlardan ko‘ra yuqoriroq hisoblanadi.

Hadis to‘plamlarining qay darajada ishonchli ekanligini aniqlab beradigan maxsus nazorat bo‘lmaganligi bois ularning mavqeini jamiyatda egallagan obro‘siga qarab belgilash mumkin. Al-Buxoriy va Muslimning asarlari X asrdayoq e’tirof etila boshlagan bo‘lsa, qolgan to‘plamlar vaqt o‘tishi bilan asta-sekin tan olina bordi. Masalan, molikiy Ibn Xaldun (vaf. 1406 y.) o‘zining «al-Muqaddima» asarida Ibn Mojjaning «as-Sunan» kitobini tan olmagan holda faqat besh to‘plam haqida so‘z yuritadi. Vaqt o‘tishi bilan u oltinchi to‘plam sifatida tan olindi. Biroq ba’zi ulamolar Molikning «al-Muvatto»sini Ibn Mojjaning «as-Sunan» asaridan yuqori qo‘yadilar. Bu kabi e’tirozlar har bir olimda topilishi mumkin. Shialar va xavorijlar bu to‘plamlarni umuman tan olmaydilar. Chunki ulardagi isnodlar shialar va xavorijlar uchun ishonchsiz bo‘lgan shaxslar nomlaridan iboratdir. Yana sunniy muhaddislar qatorida Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy Samarqandiyni (798-869) aytib o‘tish joiz. Bu olim Samarqandda yashab ijod etgan bo‘lib, hadis ilmini rivojlantirishga

o‘zining katta hissasini qo‘shgan. Imom ad-Dorimiy «as-Sunan» to‘plami tuzuvchisidir.

Keyinchalik islom olamida turli darajadagi soxta hadislarning ko‘payib ketishi muhaddis-olimlar oldiga katta mas’uliyatli vazifani – mana shu to‘qima va sahih hadislarni ajratib berish vazifasini qo‘ydi. Qissanavislar (qussoslar) inkor etib bo‘lmaydigan isnodlar bilan hadislar to‘qish bobida eng «ilg‘or» kishilar bo‘lib, bu hikoyalari uchun sodda kishilar ularga yaxshigina haq to‘lar edilar. Ko‘pchilik soxta hadislarni osonlikcha aniqlash mumkin edi. Hadislar turli maqsadlarda to‘qilar edi. Ba’zilar siyosiy manfaatlar yo‘lida, ijtimoiy mafkuralarni tarqatish maqsadida yangi hadis to‘qisalar va mashhur hadislarni qisman o‘zgartirsalar, boshqalar o‘z shaxsiy manfaatlarini o‘ylab turli hadislarni muomalaga kiritdilar. Xususan, hadislar orasida to‘qima hikoyalar ko‘p uchraydi. Ularda Arabistondan uzoqdagi keyin bosib olingan o‘lkalar (masalan, Buxoro, Samarqand, O‘sh) va hatto Payg‘ambar davrida hali asos solinmagan shaharlar, keyinchalik paydo bo‘lgan masalalar, mavzular haqida so‘z boradi. Islom tarixining navbatdagi bosqichlarida vujudga kelgan xorijiy, murji’iy, qadariy, jahmiy, shia, abbosiy kabi oqim va guruhlar haqida gapiriladi. Umaviylar (661-749), Abbosiylar (749-1258) va Alaviylarning «benuqson» xalifalari, imomlari, ularning bobokalonlari Payg‘ambarning «hamfikr» yordamchilari sifatida zikr qilinadilar. Turli kishilarning hadis to‘qishga bo‘lgan urinishlari hadislarning jamiyat hayotida, undagi nufuz, muayyan siyosiy-ijtimoiy maqsadlarga erishishda naqadar katta ahamiyatga ega bo‘lganligini isbotlaydi.

Hadislar islom ta’limoti rivoji va uning turli davr, mintaqalardagi ko‘rinishlarini o‘rganishda qimmatli manbadir. VIII – XII asrlar Movarounnahrda hadis ilmi sohasida olg‘a siljish davri bo‘ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma’lum bir chegaralangan doirada ijod qilish bilan kifoyalanmay, balki imkon qadar ilmning ko‘proq qirralariga ega bo‘lishga intilganlar. Shunga ko‘ra biror olim, masalan, faqatgina mufassir yoki faqihning o‘zi emas, balki bir vaqtning o‘zida muhaddis ham bo‘lgan. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o‘tilgandek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. Shunga ko‘ra ulamolar mavjud ixtiloflarning oldini olish, bartaraf etish uchun har taraflama kuchli bilimga ega bo‘lishlari lozim edi. Hadis sohasida keyinchalik kompilyativ (ko‘chirma) ishlar ham ko‘payib bordi. Ular mazkur olti to‘plam darajasiga ko‘tarilmasa-da, o‘quv jarayonida asosiy qo‘llanmalar sifatida foydalanilardi. Ulardan al-Bag‘aviyning «Masobih as-sunna» va yana xalq orasida ommalashib ketgan Valiy ad-din al-Xatib at-Tabriziyning «Mishkot al-masobih» asarlaridir. Hadis to‘plamlariga ham ko‘plab sharhlaryozildi. «Arba’un» («qirqlik») janridagi

hadis to'plamlari tuzish xalq orasida sharafli va sevimliishga aylandi. Masalan, Abdurrahmon Jomiy (vaf. 1492 y.), Alisher Navoiylar (vaf. 1501 y.) hamhadislarni she'riy usulda tarjima qilib, o'z «Arba'un»larini yaratdilar. SHu bilan birgalikda turlimanbalardan hadislar jamlanib, turli mavzular bo'yicha yangi to'plamlar ham yaratilib turdi.

Yuqorida zikr etilgan asarlar asosan sunniylikka taalluqlidir. Shialar faqatgina Ali (656-661) va uning tarafdorlari vositasida rivoyat qilingan xabarlar (hadislar)ni o'z ichiga olgan manbalarga egadirlar. Ularda shialik ta'limoti talablariga javob beradigan rivoyatlar mujassam bo'lgan edi. Bunday asarlar qatoriga Abu Ja'far Muhammad ibn Ya'qub al-Kuliniyning (vaf. 939 y.) «al-Kofi fi ilm ad-din», al-Bobuya al-Qummiy nomi bilan mashhur Abu Ja'far Muhammad ibn Alining (vaf. 991 y.) «Kitob man lo yahzuruhu al-faqih», Abu Ja'far Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiyning (vaf. 1067-68 y.) «Tahzib al-ahkom» va keyinchalik undan muxtasar qilgan «al-Ibtisor fi-mo-xtulifa fih min al-axbor» asarlari kiradi. Ular ham sunniylik to'plamlaridagi aynan o'xshash mavzularni o'z ichiga olgan kitoblardir.

Hadis ilmi taraqqiyotida ayollarning ham o'ziga xos o'rni bor. Hadislarni rivoyat qilgan roviylar haqida xabar beruvchi ilm ar-rijol (roviylar haqidagi ilm) asarlarida bu sohada zikr etilgan hadis rivoyatchilari orasida ko'plab ayollar uchraydi. Hadislarni tanqidiy o'rganish bo'yicha tez orada olti to'plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom at-Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirdi. U faqatgina hadislarni to'plash bilangina cheklanib qolmasdan, ularning tahliliga ham alohida bo'lim ajratdi. Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib hadislarni sahih, hasan va zaif guruhlarga ajratgan olimdir. Vaqt o'tishi bilan hadis ilmidagi terminlar taraqqiy etib bordi va bu sohada umumiy qabul qilingan shaklga keldi.

Hadislar sahih (ishonarli), hasan (yaxshi), zaif (ishonchsiz), saqim (kasal) va boshqa turlarga ajratildi. Masalan, sunniylikda sahih hadislar darajalari bo'yicha etti xilga bo'lindi:

1) Imom Buxoriy va Imom Muslim keltirgan;
2) faqat Imom Buxoriy keltirgan;
3) faqat Imom Muslim keltirgan;
4) ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
5) Imom Buxoriy shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
6) Imom Muslim shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
7) boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.

Quyidagi isnodga tegishli texnik terminlar barcha ulamolar tomonidan bir xilda talqin qilinmasa-da, asta-sekin ular barqaror istilohga aylanib bordi. O‘rganish qulay bo‘lishi uchun ularni besh guruhga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

I. Roviylarning soniga ko‘ra: mutavotir, mashhur, mustafid, aziz, g‘arib, fard, shozz, ohod hadislar;

II. Isnodning tabiatiga ko‘ra: muttasil marfu’, muttasil mavquf, musnad, maqtu’, munqati’, munfasil, muallaq, mursal, mu’allal yoki ma’lul hadislar;

III. Matn yoki isnodning asosiy xususiyatlariga ko‘ra: ziyodot as-siqot, mu’an’an, musalsal, mudallas, mubham, maqlub, mudraj, mudtarib, isnod oli hadislar;

IV. Hadislarning qabul qilish uchun yaroqliligiga ko‘ra: ma’ruf, munkar, majhul, maqbul, mahfuz hadislar;

V. Hadislarning inkor etilishiga ko‘ra: munkar, mardud, matruk, matruh hadislar.

Hadislarni o‘rganish fani ulum al-hadis (hadis ilmlari) deb ataladi. Bu ilmiy sohada ko‘plab asarlar yaratildi. Ular orasida eng avvalgi davrda yozilgan, boshqalariga nisbatan har tomonlama mukammal deb hisoblangan asar Abu Muhammad ar-Romahurmuziyning (vaf. 971 y.) yetti jildli «al- Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va-l-vo‘iy» kitobidir. Undan keyingi o‘rinda al-Hokim an-Nishopuriyning «Ma’rifat ulum al-hadis», Ibn as-Salohning «Ulum al-hadis» nomli asarlari turadi. Bu fan hadislar va roviylar tasnifi, sahoba va ularning o‘quvchilari – tobi’unlarni bilish, hadislarni rivoyat qilish, yozib olish, ulardagi xatoliklarni to‘g‘rilash, isnodda kelgan birinchidan tortib oxirgi roviylarning yashagan yillarini o‘rganishdan iborat maxsus bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Hadis ko‘pincha sunna so‘zi bilan ham yonma-yon keladi. Sunna so‘zining lug‘aviy ma’nosi – «odat», «tariqa», «yo‘l» bo‘lib, istilohda Payg‘ambar odatlari, tutgan yo‘li, taqrir (ko‘rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Payg‘ambar turmush tarzini anglatadi.

Ayni kunlarda – Vatanimiz istiqlolga erishgandan keyingi davr mobaynida madaniy, ma’naviy va diniy tarix, uni chuqur tadqiq etishga keng yo‘l ochildi. Mamlakatimizda hadislarni o‘rganish bo‘yicha qisqa muddat ichida talay ishlar amalga oshirildi. «Axloq-odobga oid hadis namunalari», «al-Adab al-mufrad», «Ming bir hadis», to‘rt jilddan iborat «al-Jomi’ as-sahih»ning tarjimasi nashr etildi. Xususan, t.f.d. Ubaydulla Uvatov, t.f.n. B.I. Eshonjonov, N. Mirmahmudov kabi tadqiqotchi-olimlarimiz tomonidan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom

Muslim kabi bir qator muhaddis-ulamolar hayoti, ilmiy faoliyatlari yoritildi. Bu yo'lda ilmiy izlanishlar olib borilib, maqola,risola va kitoblar nashr ettirildi.

Vazirlar Mahkamasi buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini hisobga olib, jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1997 yil 29 aprelida «1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini mamlakatimizda keng nishonlanishi haqida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosida buyuk muhaddisning yubiley to'yi mamlakatimiz miqyosida nishonlandi. 1998 yili O'zbekistonning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan «Imom al-Buxoriy» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma qisqa muddat ichida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2000 yildan «Imom al-Buxoriy saboqlari» ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali prof. Z.I. Munavvarov muharrirligida muntazam ravishda nashr etilmoqda. Unda Vatanimiz va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan buyuk muhaddislar ijodi, hadis ilmi rivoji haqidagi ilmiy maqolalar berib borilmoqda.

5-§. Kalom falsafasi va fiqh

Kalom arab tilida ravon nutq, jumla, gap, so'z degan ma'noni bildirib, islom ilohiyot ilmi bo'lib hisoblanadi. Kalom ilmi VIII asrda arab xalifaligida paydo bo'lib, u islom diniy ta'limotini asoslashga harakat qiladi. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyiladi.

Kalom umaviylar hukmronligi davrida rasmiy hokimiyat bilan xorijiylar, shialar, murji'iylar va boshqa diniy-siyosiy guruhlar orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, bahslar jarayonida paydo bo'ldi va taraqqiy qildi.

Siyosiy kurash diniy shiorlar ostida olib borilganligi sababli Alloh adolati (adl), mavjud voqelik Alloh tarafidan yaratilganmi va uni o'zgartirish mumkinmi (qadar), kimni imonli yoki gunohkor deb hisoblab, jazolash kerak (imon) va hokazo masalalarga dolzarb masalalar sifatida e'tibor qaratildi. Kalomga xos uslub va mavzular majmui birinchi bor al-Ja'd ibn Dirham (742 y. qatl etilgan) ijodida kuzatiladi. U uslubda doimo aql-idrokka tayanish talabini ilgari surdi va faqat inson aqli ojizlik qilgan hollardagina Qur'on oyatlarini ramziy-majoziy ma'noda talqin qilish (ta'vil) mumkin, deb hisobladi. Jahm ibn Safvon (745 y. qatl etilgan), Abul Huzayl (841 yoki 849 y. vafot etgan) va Bishr ibn al-Mu'tamir (825 y. dan so'ng vafot etgan) uning g'oyalarini rivojlantirdilar. Jahmning qarashlari mu'taziliylarga yaqin bo'lgani bois, odatda, bu ikki ta'limotni

bir-biridan farqlamaydilar. Kalom tarixida mu'taziliylar maktabi ta'limoti muhim o'rin egallaydi. Ularning ta'limoti al-Ma'mun (827—848) davrida «davlat ta'limoti» darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, al-Mutavakkil (847—861) davrida ta'qibga uchradi.

Ma'lum vaqtgacha sunniylikda mu'taziliylarning falsafiy dalillariga qarshi kurashda g'oyaviy qurol rolini o'ynashi mumkin bo'lgan aqrid tizimi mavjud emas edi va faqat Qur'on hamda xadislarga havola qilish bilan cheklanilardi. Aynan mu'taziliylar o'zlarining mantiqiy-falsafiy isbotlash uslublari bilan haqiqiy islom yo'li shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bunday tizim 10-asrga kelib ishlab chiqildi va uni Kalomni aqidaparastlar bilan murosaga keltirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan al-Ash'ariy (873 — 935) va al-Moturidiy (870—944) amalga oshirdi. Natijada Kalomning ash'ariya va moturidiylik maktabi vujudga keldi.

Al-Boqiloniy (1013 y. v. e.), al-Juvayniy (1085 y. v. e.), ash-Shahristoniy (1153 y. v. e.) va ar-Roziy (1209 y. v. e.)lar ash'ariya maktabining yirik namoyandalaridir. Ash'ariylar zohiran o'zlarini mu'taziliylarga qarshi qo'yib, hanbaliylar bilan murosa qilishga intilgan bo'lsalarda, dunyoqarashi bo'yicha mu'taziliylarning aql-idrokka asoslangan yo'lini davom ettirdi. Kalomning ikkinchi yirik maktabi — moturidiylik ham mustaqil tarzda taraqqiy etdi. Ash'ariya maktabi, asosan, shofi'iylar orasida tarqalgan bo'lsa, moturidiylik hanafiylik doiralarida ko'plab tarafdorlarga ega bo'ldi va xususan, Movarounnahr musulmonlarining asosiy aqidasiga aylandi.

13-asrdan Kalom Ibn Sino asos solgan Sharq falsafasi bilan yaqinlasha boshladi. Natijada, Ibn Xaldun ta'biri bilan aytganda, Kalom va falsafani bir biridan ajratish mushkul bo'lib qoldi. Bu hol Baydoviy (1286y. v.e.), Isfahoniy (1349 y.v.e.), Ijiy (1355 y.v.e.), Taftazoniy (1390 y. v. e.), Jurjoniy (1413 y. v. e.)lar ijodida o'z ifodasini topdi. Yangi vaeng yangidavrlardaJamoliddinalAfg'oniy, Muhammad Abdu, Ahmad Amin, Hasan Hanafiykabi musulmonislohotchilarining asarlarida Kalom va ayniqsa, mu'taziliylar g'oyalari mafkuraviy asos vazifasini bajarib keldi.

Fiqh arab tilida fahm, tushuncha degan ma'noni bildirib, Qur'on, sunnat, ijmo' va qiyos kabi islomiy manbalar, shuningdek tegishli hududlardagi urf-odatlar va boshqalar asosida shariat ahkomlari, musulmonlarning shaxsiy hayoti va musulmon jamiyatlarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tartibga soluvchi islomiy qonun-qoidalarni shakllantirish usullarini o'rganuvchi fan, islom huquqi, islom qonunchiligidir. 8-asr va 9-asrning birinchi yarmidan fiqhning o'z tushunchalari vujudga kela boshlaydi, o'ziga xos tili va uslubi shakllanadi. Qur'on va sunna huquqiy

yechimlarning asosiy manbalari bo‘lib qoladi. 10-asrlarda fiqh diniy ilmlar sirasiga kiruvchi mustaqil fan sifatida uzil-kesil tarkib topadi. Biroq u nazariy ilohiyot (kalom ilmi)dan rasman ajralib chiqqaniga qaramay, fiqh bilan kalom ilmi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik saqlanib qoladi. Kalom dastlab al-faqih al-akbar deb nomlanib, kalom ilmining ko‘pgina qoidalari fiqh doirasida huquqiy masalalarni hal etish uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ular ko‘p jihatdan bir-birini to‘ldirib, diniy haqiqat va turmush tarzi (shariat) to‘g‘risidagi yagona islom ta’limotining turli sohalarini ishlab chiqqan.

Fiqh shakllanishining ilk bosqichidayoq Iroq va Madina maktablari vujudga kelib, Iroq maktabi - mustaqil fikrlash tarafdorlari (ashob ar-ra’y) maktabi, Madina maktabi - naql tarafdorlari (azhob al-hadis) maktabi deb nomlangan. Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit Iroq maktabining asoschisi bo‘lgan. 9-10 asrlarda fiqhning boshqa sunniy maktab (mazhab)lari yuzaga keladi. Muhammad ibn Idris Shofi’iy nomi bilan atalgan shofi’iy mazhabi, Ahmad ibn Hanbal asos solgan hanbaliy mazhablari tan olinadi. Sunniy faqihlar fatvolarining aksariyat to‘plamlari keng mazmunli bo‘lib, namoz, zakot, ro‘za, haj, savdo-sotiq kelishuvlari va majburiyatlari, mulkni tasarruf etish tartiboti, vaqf, meros, nikoh-oila munosabatlari, turli huquqbuzarliklar, musulmon hokimiyatining boshqa davlatlar bilan munosabatlari, qozilik, kiyinish, ovqatlanish qoidalari va boshqa asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Fiqh musulmonlar orasida amal qilgan fe’l-atvor qoidalari mazmunida diniy, huquqiy, axloqiy me’yorlar, shuningdek, urf-odat va axloq-odob qoidalarini o‘z ichiga olgan keng, umumiy ijtimoiy majburiyat sanalgan huquq bo‘lib hisoblangan.

6-§. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixi va asosiy g‘oyalarining tasnifi. Tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf va hozirgi zamon

Tasavvuf, sufiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limotdir. Islomdagi zohidlik oqimi taxminan 8-asrning o‘rtalari – 9-asrning boshlarida shakllana boshlagan. Islomda zohidlik an’analari paydo bo‘lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g‘oyaviy va ma’naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlarning ta’sir ko‘rsatishi kabilar mavjud.

Tasavvuf – islomdagi mistik-asketik oqim bo‘lib, mistitsizm, mistika so‘zlari qadimiy yunon tilidagi mystikos – «yashirin», «sirli» degan so‘zlardan olingan. Mistitsizm insonning ilohiyot bilan bevosita muloqot qilishi mumkinligi to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Tasavvuf so‘zining ma’nosini o‘rta asr musulmon olimlari «suf» (jun chopon) so‘zi bilan bog‘lab tushuntiradilar. O‘sha davrda sufiylarning asosiy belgilaridan biri ularning dag‘al jundan kiyim kiyishlari edi. Tasavvufga asos bo‘lgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. Sufiylikning ilk namoyandalari Payg‘ambarning Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Tasavvuf paydo bo‘lgan 8-9 asrlarda sufiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, jangchilar, kosiblar, tijoratchilar va islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda sufiy yoki at- tasavvuf terminlari hali keng tarqalmagan bo‘lib, uning o‘rniga zuhd (tarkidunyochilik) yoki zohid, obid so‘zlari ishlatilar edi.

Ilk davr sufiylari, zohid va obidlar Qur’oni karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur’on va Payg‘ambar sunnatlariga qat’iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o‘tkazish, kunduzlari ro‘za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o‘zini yiroq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (vara’), o‘zini Alloh ixtiyoriga topshirish (tavakkul) kabi amallarga asosiy e’tiborni qaratishgan.

Sufiylik ta’limoti mu’taziliylardagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obro‘li shaxslarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so‘zma-so‘z itoat etishdan farqli o‘laroq, insonga asosiy ob’yekt sifatida qaraydi, inson amallarini boshqaradigan ruhiyatning mayda qirralarini ham chuqur tahlil qiladi, uning shaxsiy kechinmalarga e’tibor berib, diniy haqiqatlarni chuqur his qiladi.

Ilm al-qulub va-l-xavotir (qalblar va fikrlar ilmi)ga asos solgan al-Hasan al-Basriy (vaf. 728 y.) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi. O‘sha davrda Al-Hasan al-Basriyning ashoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabi’a al-Adaviya (vaf.752-53 y.), Molik ibn Dinor (vaf.748-49), SHaqiq al-Balxiy (vaf. 770 y.) va Fuzayl ibn Iyod (vaf. 778 y.), Sulaymon ad-Doroniylarning (VIII-IX asrlar) va’z va ma’ruzalarida Allohga bo‘lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo‘lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo‘ldi. O‘sha davrdan boshlab ular sufiylikka aniq mistik xarakter bag‘ishladilar va bu ta’limotlar sufiylik mafkurasining o‘ziga xos xususiyatiga aylandi.

IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg‘in harakatlar davom etib, Basra bilan bir qatorda Bag‘dod va Xuroson sufiylik maktablari ham eng nufuzli maktablar sirasiga kirdi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e’tiborni qaratar edilar. Ularning ahvol, maqomotlariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta’limotlar kabi sufiylikka «dunyo

gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishga olib boradigan yo‘l (tariq) sifatida qaradilar. Tasavvufda inson va uning Xudoga munosabati qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi ta’limot yaratildi. Insonning ruhiy kamolotga erishish yo‘llari ko‘rsatib berildi. Bu yo‘l 4 bosqichdan iborat bo‘lib, bular shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatdan iboratdir. Shariat talabiga ko‘ra tasavvuf ahli avvalo shariatning barcha talablariga bo‘ysunishi kerak. Tariqatga ko‘ra muridlar o‘z pirlari, murshidlariga itoat etishi, o‘z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart. Ma’rifatga ko‘ra koinotning birligi Xudoda mujassam bo‘lishi e’tirof etiladi, yaxshilik bilan yomonlikning nisbiyligi aql bilan emas, qalb bilan anglab yetiladi deb hisoblanadi. Haqiqatga ko‘ra zohid “shaxs sifatida tugab” “haqiqat”ga Xudoga yetishadi. Bunga sufiylar mahsus ruhiy va jismoniy harakatlar – sig‘inish va ibodatlar orqali intiladi. Asosan, xalq ommasining ma’naviy ehtiyojlariga qaratilgan “amaliy” tasavvuf bilan birga sufiylik ta’limotining, birinchi navbatda, o‘qimishli musulmonlar manfaatini ko‘zlovchi, quruq muhokamaga asoslangan jihati yanada rivojlangan. Bu “falsafiy” tasavvufning asosiy qoidalarini Ibn Arabiy bayon qilib, o‘z falsafiy qarashlari bilan “vahdati vujud” g‘oyasini keng ko‘lamda tarqatgan. “Falsafiy” tasavvuf 13-14 asrlarda yuksak cho‘qqiga ko‘tarilib, keyin o‘z mavqeini yo‘qota boradi. “Komil inson”, “borliqning birligi” (vahdati vujud), “Mutlaqning o‘zini namoyon qilishi - jilolanishi” (tajalli) va “nurlanishi” kabi g‘oyalar bahs munozaralar manbai bo‘lib qolgan (masalan, vahdati mavjud va vahdati vujud tarafdorlari o‘rtasidagi tortishuvlar).

Tasavvufning o‘zgaruvchanligi va yot ta’sirlarga “ochiqligi” uning turli-tuman oqimlarga bo‘linib ketishiga olib kelgan. Tasavvuf tarafdorlari soni ortishi bilan uning tartibotlari rasmiylashgan va tariqatlarning tuzilmalari murakkablashib, ichki hayoti qat’iy belgilab qo‘yila boshlagan. 19-20 asr boshlarida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o‘ynashda davom etgan. Musulmon olamining u yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab, bu rol ham nisbatan ilg‘or, ham salbiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin edi. Sharq mamlakatlarida jamiyatning din ta’siridan chiqa boshlashi, xo‘jalik va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, yangi ma’naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning mavqeiga ko‘p joylarda salbiy ta’sir ko‘rsata boshlagan. Tasavvuf ko‘pgina mamlakatlarda tanqid qilingan, mamlakat qoloqligining sababi deb ko‘rsatilgan. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tasavvuf tariqatlari faoliyati qisman cheklangan yoki man qilingan.

Tasavvuf o‘zining avvalgi obro‘sini ancha yo‘qotgan bo‘lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o‘z ta’sirini

saqlab kelmoqda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, sufiylik tariqatlari safiga kirmoqda. 20 asrda ham yangi suluklar paydo bo‘lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi.

Tasavvufning tarixiy taraqqiyotida unga nisbatan turli yondashuvlar shakllantirildi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlardan kelib chiqib ta’limot takomillashtirilib borildi. Tasavvufning manbalardagi talqiniga ko‘ra, ba’zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko‘rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o‘z qalblarini saqlab, Alloh taoloning muhabbati yo‘lida zuhd va taqvoni o‘zlariga kasb qilib oldilar va ularga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim ash-Shomiy (vaf. 776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi Zunnun al-Misriy (vaf. 869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Abu Bakr ash-Shibliy (vaf. 945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd al-Bag‘dodiy (vaf. 1007-08 y.) edilar. Ayollardan birinchi sufiy bo‘lgan kishi Robi’a al-Adaviyadir (vaf. 752-53 y.). Umuman olganda, tasavvufning rivojlanish yo‘li islom tarixining ajralmas bir bo‘lagidir.

Sufiylik Movarounnahrga Xuroson orqali kirib keldi. Keyingi davr sufiylarining talqiniga ko‘ra, Movarounnahrda sufiylik oqimi aqoid olimi shayx Abu Ya’qub Yusuf al-Hamadoniy (vaf. 1140-41 y.) shaxsidan boshlanadi. Unga ko‘ra Yusuf al-Hamadoniy maktabi ikki tarmoqqa ajratiladi: Naqshbandiya tariqati va uning ikkinchi nomi Xo‘jagon yo‘nalishi bo‘lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo‘ja Yusuf al-Hamadoniyning mashhur shogirdi Xo‘ja Abdulxoliq al-G‘ijduvoniy (vaf. 1179 yoki 1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo‘ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilib, shu davrdan boshlab Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlaydi. Bahouddin Naqshband tomonidan targ‘ib etilgan Naqshbandiya tariqati ko‘plab mamlakatlarga tarqaladi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o‘tkazadi. Islom olamida juda katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Naqshbandning hayoti manoqiblarga to‘la bo‘lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko‘plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo‘iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma’lumot beruvchi manba bo‘lib hisoblanadi.

Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib yetadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba’zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va

shunga ko‘ra o‘sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiyga qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G‘ijduvoniyga qadar tayfuriya, G‘ijduvoniydan Bahouddin Naqshbandga qadar xo‘jagoniya, Naqshbanddan Xo‘ja Ubaydulloh Ahrorga qadar Naqshbandiya, Xo‘ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiyga qadar Naqshbandiya-ahroriya, «Mujaddidi alfi soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiydan Shamsiddin Mazharga qadar Naqshbandiya-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag‘dodiyga qadar Naqshbandiya-mazhariya, Xolidiy Bag‘dodiydan keyin esa Naqshbandiya-xolidiya deya tilga olingan.

1. Naqshbandiya ahli sunna e’tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo‘lib, xafiy zikrga asoslangan. Zohiran ko‘zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq suhbat va robitaga kuchli e’tibor beradi. Ko‘pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xo‘jagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari taqiqlanadi. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvish ushbu shartlarga amal qilishi shart - doimo tavbada bo‘lish, sunnatga qat’iy amal qilish, bid’atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo‘lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to‘rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan zohirni poklash; 2) tariqat bilan botinni poklash; 3) haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq; 4) ma’rifat bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o‘n bir asos-tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G‘ijduvoniy ishlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Hush dar dam (har nafasda hushyor bo‘lish) – g‘aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash, har nafas olish-chiqarish chog‘ida Allohni zikr qilish, agar g‘aflatga tushsa, istig‘for aytish.

2. Nazar bar qadam (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo‘lishidan qat’i nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko‘zi va nazari bo‘lmag‘ur manzaralarga qarashdan xalos bo‘lsin. Shunda ma’naviy safarda ro‘para keladigan tahlikalar tezda oshib o‘tiladi. U tamoyil kamtar bo‘lish va mavjud holatga shukur qilishni o‘zida mujassam etadi.

3. Safar dar vatan (vatanda, o‘z yerida turib safar qilish) – solikning yomon axloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo‘nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiylar fikricha, sayru suluk chog‘ida solikni

umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zidamujassam etadi.

4. Xilvat dar anjuman (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma'nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich – maqomdir. Bahouddin Naqshband Naqshbandiyaning tamalini «xilvat dar anjuman» tashkil etishini ta'kidlagan. «Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor» deya Naqshbandiyada xilvatga ko'p rag'bat ko'rsatilmaydi. Shu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo'lib, Haq roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish muhim o'rin tutadi. Naqshbandiyada Qur'ondagi «Shunday kishilar bordirlarki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas» (Nur; 24-37) oyati ushbu holga ishora qiladi deb ta'kidlanadi.

5. Yodkard (eslash, zikr etish) – Allohni yod etib, boshqa narsalardan ko'ngilni uzish. Naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini huzur ichra shayxining ko'ngli ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi – og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xokisorlik bilan qalban «kalimai tavhid»ni zikr qiladi. Bir nafas olib chiqarishda uch daf'a zikr etishga urinadi va hokazo. Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari: ahroriya, mazhariya, mujaddidiya va xolidiya. Mujaddidiyaning asoschisi Ahmad as-Sirhindiy Ibn Arabiyning vahdat al-vujud falsafasini tanqid qilib, vahdati ash-shuhudni yoqlab chiqqan.

2. Yassaviya tariqati Shayx Ahmad Yassaviy (vaf. 1166-67 y.) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yassaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham bo'lib, Yassaviy g'oyalari bir necha marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki zuhd va taqvoni ixtiyor etib, umrini toat-ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan.

Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yassida (hozirgi

Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda u Arslon-bob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan.

Axmad Yassaviy oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she’rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo‘lga chaqiradi, ularning ma’naviyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ahmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o‘lkalarga muridlarini jo‘natib, o‘z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yassaviy riyozat, chilla, zikr va mujohadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini chillaxonada o‘tkazdi. Uning hayotiva karomatlari haqida ko‘plab manoqiblar saqlanib qolgan.
Yassaviy tariqatida jahriy zikr ijro etiladi. Zikr chog‘ida darvishning tomog‘idan arraning tovushi kabi ovoz chiqqani uchun Yassaviya zikriga «zikri arra», «zikri minshoriy» deyiladi. Bu zikr quyidagicha ijro etiladi: darvish ikki qo‘lini tizzasi ustiga qo‘yib, nafasini qorniga chiqarib «ha» deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, yelka qimirlamagan holda «hayy» deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Zikrning 12 zarb turi ma’lumdir. Yassaviylikda xilvatga ham katta ahamiyat beriladi.

Bu tariqatda muhim o‘rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (ma’rifatulloh), mutlaq jo‘mardlik, rostgo‘ylik, o‘zini Allohga topshirish (tavakkul) va teran tafakkur.

Yassaviya tariqati, asosan, sunniy e’tiqodiga amal qilish bilan birga Xuroson malomatiya maktabidan biroz ta’sirlangani sababli, terma madaniyat asosiga ega. Uning xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko‘plab tariqatlarda aks etgan. Hatto Naqshbandiyani Yassaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor. Ahmad Yassaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg‘oniy (vaf. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az-Zarnuqiy va boshqalar ma’lum.

3. Tasavvufdagi Kubraviya tariqatining asoschisi – shayx Najmiddin Kubro al-Xivaqiy (vaf. 1221 y.) bo‘lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. Shariat va tariqat ilmining buyuk donishmandi bo‘lgani uchun “Kubro” (ulug‘larning ulug‘i), “Najmiddin” (dinning yulduzi) degan ismlarni olgan. Shayx Najmiddin Kubro Xivada tug‘ilib, yoshligida diniy ilmlarni egallagan. Najmiddin Kubro tariqat va futuvvatni (javonmardlikni) bir-biriga qo‘shib, axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g‘oyalarini targ‘ib etdi. U ayniqsa, hadis ilmida chuqur bilimga ega bo‘lib, turli o‘lkalarni kezib o‘z bilimini oshirishga katta e’tibor qaratgan edi. Shayx Najmiddin Kubro Misrda shayx Ruzbihon al-Misriy bilan tanishib, unga murid bo‘ladi. Qattiq riyozatlar natijasida murshidining xurmatiga sazovor bo‘ladi. Undan so‘ng u Ammor Yosirga murid bo‘lib, uning tavsiyasi bilan Ismoil Kasriy dargohiga kiradi va u yerda «xirqai tabarruk»ni kiyadi. Yana Misrga o‘z shayxining yoniga qaytgan Najmiddin

Kubro shayxi tomonidan o‘zining vatani Xorazmga irshod vazifasi bilan jo‘natiladi. Najmiddin Kubro Xorazmga ko‘chib borib, kubraviya-zahabiya tariqatiga asos soladi. Qisqa vaqt ichida atrofdagilarning muhabbatini qozonib, shogirdlar tarbiyalab voyaga yetkazadi. Najmiddin Kubro Allohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaraydi, nafsni qattiq qoralab, ulug‘ taqvo piri sifatida nom chiqaradi. Irfon (bilish nazariyasi)da aqliy va hissiy intuitiv bilishni birlashtirdi, tasavvufda “xushyorlik” (saxv) maslagini tanlab, “behud” – aqli norasolikni inkor etadi. Najmiddin Kubro insonni “kichik olam” deb hisoblab, uning kamoloti cheksiz ekanligini ta’kidlaydi. U tasavvufda oriflik rutbasini (martabasini) oldinga surib, maqomotning, ya’ni darajalarga ajratishning o‘nta bosqichini joriy etadi.

Najmiddin Kubro o‘zidan ko‘pgina shogirdlar ham qoldirib, Farididdin Attorning ustozi – shayx Najmuddin al-Bag‘dodiy bilan «Mirsod al-ibod» asari muallifi mashhur Najmuddin Doya Najmiddin Kubroning shogirdlari bo‘lib hisoblanadi. Najmiddin Kubro mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan jangda “Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim” degan so‘zlarni aytib, qo‘lida bayroq bilan halok bo‘lgan. Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo‘lib, bu asar barcha tariqatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ismoil Xaqqiy Bursaviy tomonidan sharh etilgan. «Favoihul jamol» asari esa tasavvuf ruhshunosligi mavzusidadir. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta’sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Kubraviya ko‘proq O‘rta Osiyo, Rossiya va Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubraviyaning o‘ziga xos jihatlari chordona qurib, jahriy zikr qilish. Uning tariqat silsilasi Ali ibn Abi Tolibga borib ulanadi. Tariqat asoslari «Usuli ashara» asarida tavsif etilgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari bahoiya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya kabilardan iboratdir.

Islom falsafasi insonning yaratilishida tuproq, suv, havo va olovga bevosita tayanilganligini e’tirof etsa, tasavvuf falsafasi bu masalada yanada ilgari ketadi. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra to‘rtta moddiy unsurning har biridan insondagi to‘rt xususiyat, to‘rt holat, to‘rt mayl va to‘rt sifat yuzaga keltirilgan bo‘lib, insondagi tuproqdan paydo bo‘lgan xususiyatlar – sabr, umid (xudoning marhamatiga), ezgu xulq va muruvvatdir. Insonda suvdan – quvonch, saxovat, nazokat, birlik, shamoldan yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik, olovdan – nafs, kibr, tama, hasad paydo bo‘lgan deb hisoblanadi. Tasavvufga ko‘ra tuproq Allohning munavvar nuri, suv – uning yorug‘ hayoti, havo – buyukligi, olov – uning

g‘azabining timsoli sifatida e’tirof etiladi. Tuproq va suv – jannat mulki, shamol va olov – do‘zax ichidagi narsalar bo‘lib, insondagi jismning yoki ruhning ustunligi moddiy unsurlardan qaysi birining ustun ekanligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tasavvuf insonning komil inson darajasiga yetishi natijasida Alloh vasliga musharraf bo‘lishi va ruhan Alloh bilan birlashib ketishi haqidagi ta’limot bo‘lsa, “tariqat” komil inson darajasiga erishishni ko‘rsatuvchi to‘g‘ri yo‘l, ma’naviy-axloqiy poklanish bosqichlarini bosib o‘tishini ifodalovchi tushunchadir. Tasavvufga ko‘ra dilga Allohning nomini jo qilish insonning qalbini poklaydi, uni iymon, halollik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik yo‘liga undab komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

1. Islom dini Alloh yagona degan e’tiqod bilan unga bo‘ysunmoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Alloh buyurgan diniy e’tiqodga imon keltirishni o‘zida ifoda etuvchi diniy ta’limotdir. Islom dini tarqoq arab qabilalarini yagona mafkura asosida birlashtirdi, yangi madaniyat musulmon madaniyatining vujudga kelishi uchun imkoniyatni yaratdi.
2. Islom dini xalqimizning moddiy va ma’naviy madaniyatiga, urf-odat, an’ana, udumlar va marosimlariga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Boy tarixiy ma’naviy meros va milliy qadriyatlarimiz islom mafkurasi asosida shakllandi. Islom dini xalqning milliy mentaliteti, psixologiyasi va dunyoqarashiga ham ta’sir ko‘rsatdi.
3. Islom dini faqat harbiy harakatlar yo‘li bilan emas, balki savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy yo‘llar bilan, da’vat va targ‘ibot yo‘llari bilan ham jahondagi ko‘plab mamlakatlarga tarqaldi. Turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirdi.
4. Islom madaniyati asosan shaharlarda markazlashib, xalq urf-odatlari, milliy qadriyatlari, madaniy an’analari bilan bog‘liq ravishda takomillashib bordi. Bu esa tasavvufiy tariqatlarning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.
5. Islom dini tarqalgan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Madrasalarda diniy ta’lim bilan birgalikda dunyoviy fanlardan ham bilim berildi. Natijada Sharq Uyg‘onish davrida jahon tan olgan buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi.
6. Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma’lum mintaqaviy shakllarga ega bo‘ldi. Mintaqaviy islom asosida milliy madaniyat, mafkura va ma’naviyat rivojlandi.

Hanafiylik mazhabi e'tiqod qiluvchilarga bir muncha engilliklarni berib, odat huquqiga e'tibor qaratdi.

Tayanch tushunchalar

Islom dini, haniflik harakati, yagona Allohga e'tiqod, iymon, islom va ehson talablari, vahiy, Qur'oni karim, "Mushaf", hadislar, sahih, hasan, zaif, Shariat va uning manbalari, Qur'on, Sunna, Ijmo', Qiyos, sunniylik va shialik, Xanafiya, Shofi'iya, Molikiya, Xanbaliya, Tasavvuf va tariqat, Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Islom dini paydo bo'lishidagi ijtimoiy sharoit haqida ma'lumot bering?
2. Islom dinining asoslari, oqimlari va yo'nalishlari haqida gapiring?
3. Islomning diniy huquqiy maktablari vujudga kelishining sabablarini aniqlang?
4. Sobiq Ittifoqda islom diniga munosabat qanday bo'lgan?
5. Dunyo va O'zbekistonda islom dinining mavqei oshib borishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatmoqda?
6. Qur'oni karim qachon nozil bo'la boshladi?
7. Qur'on nozil bo'lish davriga ko'ra qanday qismlarga bo'linadi?
8. Qur'on qachon yaxlit kitob shakliga keltirildi?
9. Toshkentdagi «Usmon Mushafi» haqida nima bilasiz?
10. Qur'onning o'zbek tiliga tarjimasi kim tomonidan amalga oshirildi?
11. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosini tushuntirib bering?
12. Hadis tushunchasining mohiyatini aniqlang?
13. Hadislarning turlari va tasnifi haqida ma'lumot bering?
14. Buyuk hadisshunoslar hayoti va ijodi xaqida gapiring?
9. O'zbekistonda hadisshunoslik rivojini tushuntiring?
10. Kalom falsafasi va fiqhning mazmuni va mohiyatini ochib bering?
11. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyatini tushuntiring?
12. Tasavvuf tushunchasining tarixi va asosiy g'oyalarining tasnifi haqida ma'lumot bering?
13. Tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi va ta'limotini yoriting?
14. Hozirgi davrda tasavvufning tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntiring?

XIV BOB. ISLOM QADRIYATLARI

Islom falsafasida inson kamolotiga alohida urg‘u berilgan. Ya’ni insonning shakllanishi uchun diniy bilimlar bilan bir vaqtda dunyoviy bilimlarni puxta egallab xaq yo‘ldan toymaslik, hayotda ezgu izlar qoldirib, iymon-e’tiqod va hidoyat yo‘lida ulug‘ maqsadlar bilan yashashga da’vat etilgan. Shaxsning odob-axloqining shakllanishida, shaxs va jamiyat munosabatlarida diniy ta’limot, xususan uning qadriyatlarini o‘rni kattaligi uqtirilgan.

Inson diniy ongdagi ma’naviy qadriyatlar orqali o‘zida mehnatsevarlik, insonparvarlik, adolatlilik, imonlilik, insoflilik, odamlarga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi axloqiy me’yorlarni shakllantiradi.

1-§. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari

Islom falsafasining mazmuni Qur’oni karim va hadisi shariflarda, ularga asoslangan islom falsafasi, tasavvuf, odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan dunyoviy va diniy olimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Bu bilimlarni targ‘ib qilish islom ma’rifati doirasiga kiradi.

Xalqimiz tarixidan ma’lumki, ilm-fan, adabiyot, san’at va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda dunyoviylik va diniylikka nisbatan ko‘p holda to‘g‘ri yondoshilganligi uchun ijtimoiy va ilmiy sohada jahonga mashhur kashfiyotlar qilindi. Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan mutafakkirlar jamiyatning paydo bo‘lishi, mohiyati va istiqbollari to‘g‘risida, shaxs va jamiyat munosabatlari, davlatni boshqarish xususida ilg‘or ilmiy qarashlarni ilgari surdilar. Markaziy Osiyo mutafakkirlari haqiqatga erishishning ikki xil yo‘lini, ya’ni biri diniy, ikkinchisi ilmiy yo‘lni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdilar. Inson diniy yo‘l bilan ilohiy zot - yaratuvchiga ishonish va unga sig‘inish, turli diniy an’ana va qadriyatlarga rioya qilish orqali ilohiy haqiqat yo‘liga kirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, ilmiy yo‘l bilan tabiat va uning qonuniyatlari, ob’yektiv olamni bilishga intiladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari jamiyatning paydo bo‘lishi, uning mazmuni va mohiyati, shaxs va jamiyat munosabatlari, inson va uning ma’naviy kamolotiga tegishli bo‘lgan o‘zlarining qarashlarini ilgari surdilar.

O‘zbekiston hududida keng tarqalgan islomning hanafiya mazhabi mahalliy xalqlar milliy urf-odatlari, an’analari bilan uyg‘unlashib, diniy g‘oya shakllanishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilayotgan hozirgi sharoitda, milliy g‘oya targ‘ibotida islomiy qadriyatlardan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

1. Islom inson huquqlarini, shuningdek, shaxs va jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan va inson qadr-qimmatiga hurmatni ta’minlaydigan din bo‘lib hisoblanib, bu huquqlar shariat va uning me’yorlari tomonidan har bir kishiga, uning irqi va tanasining rangidan qat’i nazar kafolatlanadi.

2. Islom nuqtai nazaridan inson eng munosib va olijanob mavjudot bo‘lib, Alloh taolo yerdagi va osmonlagi bor narsalarni unga bo‘ysundirib qo‘ygan, unga ong va fikrlash qobiliyatini in’om etgan. Inson qadr-qimmati haqida tasavvur Islomda mukammal nazariyaga tayanadi.

3. Islom dinida inson hayotiga, uning tanasi va or-nomusi daxlsizligiga tajovuz qilish, uni qiynoqqa solish, tirikligida unga qarshi moddiy yoki ma’naviy jihatdan ziyon yetkazish, uning o‘limidan keyin, hatto urush paytida ham murdasini tahqirlash taqiqlanadi, chunki insonga hurmat uning o‘limidan keyin ham ko‘rsatilishi lozim.

4. Insonning yashash huquqini asrash uchun Islomda faqat haqiqat uchun va himoya qilish yo‘lida, faqat ogohlantirgan va urushni ochiq e’lon qilgan holdagina urishishga qonun bilan ruxsat etiladi. Islom irqiy yoki milliy murosasizlik yoki o‘lja uchun urush olib borishni taqiqlaydi. Islom harbiy harakatlarga cheklovlar belgilagan va o‘zini Allohga xizmat qilishga bag‘ishlagan odamlar, ayollar, bolalar va qariyalarni, agar ular urush harakatlarida qatnashmagan bo‘lsa, o‘ldirishni ta’qiqlagan. Jang maydonidan uzoqda mehnat qilayotganlar, masalan, dehqonlarni, agar ular urush harakatlarida qatnashmagan bo‘lsa, o‘ldirish ta’qiqlangan. Islomda shuningdek, odamlarning oziq-ovqat bilan ta’minlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilgan holda, ekin maydonlari va chorvani nobud qilish ham ta’qiqlangan.

Inson hayotiga tajovuzlarning oldini olish chorasi sifatida shariatda yetkazilgan ziyonga teng jazo belgilangan. Inson ruhini saqlab qolish uchun Islom uning hayotiga qasd qilishni ta’qiqlaydi. Ongni saqlash uchun Islomda may ishlab chiqish ta’qiqlanadi, chunki u sog‘lom fikrlashni yo‘qotishga va idrok qilishning buzilishiga olib kelib, aql-hushdan ayiradi, shuningdek, insonning fikrlash qobiliyati susayishi va ongini yo‘qotishiga olib keladigan hamma narsa ta’qiqlangan. Musulmon olimlar aql-idrok va ongning qimmati va ularning inson hayotiga ta’sirini tushunib yetganlar. Yashash huquqi hamda tana va his-tuyg‘u organlari daxlsizligining tarkibiy qismlaridar biri sifatida Islomda musulmonlarga ziyon keltiradigan har narsadan uzoqlashish talab qilinadi. Islomda musulmonlarni qiynoqqa solish, ularning qadr-qimmatini yerga urish,

tahqirlash yoki mazah qilish ta'qiqlanadi. Islom dinida erkinlik inson hayotning asosi hisoblanadi. Erkinlik, musulmon olimlarining tushunishicha, insonning harakat qilish qobiliyatidir.

Islomda din asoslari, Islom arkonlari, uning qadriyatlari va me'yorlari, shuningdek, umumiy manfaatlariga rioya qilishda so'z va fikr erkinligiga tayaniladi. Islom dinida so'z erkinligi Islom jamiyatini tashkil qiladigan, uning xatlarini tuzatadigan, to'g'ri yo'ldan qanday borish va umumiy ishlarda qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tushuntirib beradigan shariat me'yorlari bilan tartibga solinadi. Shariat erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham huquqshunoslar «fuqarolik erkinligi» deb ataydigan huquqni kafolatlaydi. Ayol kishi to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lishi, u mulk bilan bog'liq harakatlarni hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishi, oila qurishi, nikohga rozi bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

Islom dini bag'rikenglik dinidir. Unda ilm va olimlar hurmat qilinadi. Islom dinida boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik, inson huquqlarini hurmat qilish, tinch-totuv yashash kabi g'oyalar ilgari surilgan. Islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat'iy nazar, inson insonligi uchun ulug'lanadi. Islom dini insonlar zimmasiga yer yuzida ezgulik bilan yashash va yaratish vazifasini yuklaydi. Tinchlik va osudalikni o'rnatishning omillaridan biri sifatida Islom dini odamlar o'rtasidagi adolatni saqlash zarurligini uqtiradi. Ezgulik qilish, Islom ta'limotiga ko'ra, inson hayotidagi eng muhim vazifadir. Islom dini kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka chaqiradi. Islom dinida saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, qo'li ochiqlik, bag'rikenglik, muruvvatlilik, keng fe'llilik, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilib, bu axloqiy qadriyatlar yuksak ma'rifat belgisi deb qaralgan. Islom dinida kim birovga ehson qilsa, uning foydasi o'sha kishining o'ziga qaytishi, birovga yaxshilik qilgan kishi o'zida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat-ehtiromga sazovor bo'lishi ta'kidlanadi. Qur'oni karimda ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-onalar kiritiladi. Islom dinida qarindoshlar, yetimlar, kambag'allar, qo'ni-qo'shnilarga ham yaxshilik qilish zarurligi ta'kidlanadi. Islom dinida ezgulik qilish, el-yurtga foyda keltirish, odamlarni to'g'ri yo'lga solish yuksak ma'naviy fazilat sifatida e'tirof etiladi. Islom dinida yaxshilik tushunchasi ostida rostgo'ylik, qanoat, saxiylik, shijoat kabi fazilatlar ko'zda tutiladi.

Jamiyat hayotida diniy ong rivojlanib borishi bilan, dinning mohiyati chuqurroq anglanib, diniy bag'rikenglik ham rivojlana boradi. Hozirgi davrda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z

faoliyatlarini o‘zaro teng huquqlilik, hamdo‘stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqdalar.

Diniy bag‘rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo‘lidagi hamkorligini o‘zida ifodalaydi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi zarur, deganda dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashi nazarda tutiladi. Diniy bag‘rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e’tiqodidan qat’iy nazar milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish yo‘lida birlashtiradi.

O‘zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o‘tish davrida diniy bag‘rikenglik qanchalik muhim bo‘lsa, diniy bag‘rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Respublika aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G‘arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e’tiqod, an’ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma’naviy mezonlarni o‘zida aks ettiradi. Bunda O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog‘liq orzu umidlari asrlar osha yonma-yon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik, bag‘rikenglik, qardoshlik tuyg‘ulari uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab – avaylash, barcha fuqarolar o‘z e’tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o‘rtasidagi qadimiy mushtarak an’analarini yanada rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Diniy bag‘rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo‘nalishlar va mazhablarning ezgu g‘oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshiriladi.

2-§. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari

Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda Islom qonun va qoidalari, shariat axkomlari bilan bir qatorda, atrof-muhitni toza saqlash, tabiat boyliklaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigienasi, zurriyotni tozaligiga, o‘simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi jahondagi millionlab odamlarni, ular qatorida din ahllarini ham tashvishga solmoqda. Ular bu muammolarni ijobiy hal qilishda Qur’on va Sunnaga murojaat qilmoqdalar. Biosferadagi har bir narsada suv, tuproq, havo, tog‘, hayvonot, nabotot va mikrojonzotlar muayyan o‘lchov bilan bir-biriga bog‘liq, mutanosib holda

mavjuddir. Agar bu muvozanat buziladigan bo‘lsa, insoniyat uchun qator muammolar kelib chiqishi va oqibatda tabiat muhofazasi xalokatga yuz tutishi mumkin.

1. Qur’oni Karimning “A’rof” surasi 56-oyatida, “Obod qilib qo‘yilgan yer yuzida buzg‘unchilik ishlarini qilmang” deyilgan. Hadislarda olamning birligi, undagi qatradan tortib okeangacha, zarradan boshlab Quyoshgacha, odam, o‘simlik, hayvonot dunyosi Xudoning irodasi bilan o‘zaro bog‘langanligi va o‘zaro bir-biriga muvofiq holda harakatda ekanligi aytilgan. Muqaddas kitoblarda Alloh taolo inson uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarni muhayyo qilganligini, uning sog‘lom irsiy taraqqiyoti uchun sof havo, toza suv, oziq-ovqat, shifobaxsh nur, o‘simlik va hayvonot dunyosini in’om etganligi uqtiriladi. Avlod-ajdodlarimiz suvni muqaddas sanab, uni ifloslantirishni esa gunoh deb hisoblaganlar. Islom dinida suv hayotning asosiy unsuri deb hisoblanib, Qur’oni karimda «Barcha tirik narsani suvdan qilganmiz», boshqa bir yerda esa «Barcha jonzotni suvdan yaratdik» degan jumlalar mavjud. Islom dinida inson ekologiyasiga ham e’tibor qaratilib, insonning ma’naviy kamolotiga asosiy e’tibor berilgan.

2. Nabotot va hayvonot olami Islomda inson uchun eng zarur narsalardan hisoblangan. Kimdir bularga zarar keltirsa insoniyatga ziyon keltirgan bo‘ladi. Islom dini tabiatga zarar keltirmaslikka, mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Qur’oni karimda ham hayvonlar va xasharotlarning nomlari bilan nomlangan suralar mavjuddir. Qur’oni karimning An’om surasida, «Yerda sudralib yurgan har bir jonivor, osmonda qanot qoqayotgan har bir qush xuddi sizlar kabi (Bizning qo‘l ostimizdagi) jamoalardir», deyilgan. Demak, hamma jonzotlar tabiatda yashashga, hayotiy faoliyat huquqiga egadir. Yana bir Hadisi sharifda: «Kim daraxt ekib uni muhofaza qilishda sabr qilsa, meva bergunicha parvarish qilsa, u odamga mevasidan kelgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savob bo‘lgay», - deyilgan. Qur’oni karim va Hadisi shariflardagi shunga o‘xshash bayonlar ulamolar uchun, “dehqonchilik kasblar ichida eng afzali” deyishga asos bo‘lgan. Tabiatni asrash, muhofaza qilishda Islom dini insoniyat tarixida birinchi marta ayrim joylarda, ma’lum vaqtlarda xayvonot va o‘simlik dunyosiga zarar keltirish, ov qilish, o‘ldirishni qat’iy man qilgan. Fiqhshunos ulamolar qaysi hayvon uchun qanday jarima to‘lanishi zarurligini belgilab berganlar. Bunday gunoh ishlar tasodifan yoki qasddan qilinishidan qat’iy nazar gunohkorlar baribir jazolanadilar. Islom dini yil davomida maxsus joylarda hayvonlarni sababsiz o‘ldirish, daraxtlarni kesish va o‘simliklarni nobud qilishni man qilgan. Bu atrof muhitini himoya qilishga yordam bergan.

faoliyatlarini o‘zaro teng huquqlilik, hamdo‘stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqdalar.

Diniy bag‘rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo‘lidagi hamkorligini o‘zida ifodalaydi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi zarur, deganda dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashi nazarda tutiladi. Diniy bag‘rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e’tiqodidan qat’iy nazar milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish yo‘lida birlashtiradi.

O‘zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o‘tish davrida diniy bag‘rikenglik qanchalik muhim bo‘lsa, diniy bag‘rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Respublika aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G‘arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e’tiqod, an’ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma’naviy mezonlarni o‘zida aks ettiradi. Bunda O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog‘liq orzu umidlari asrlar osha yonma-yon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik, bag‘rikenglik, qardoshlik tuyg‘ulari uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab – avaylash, barcha fuqarolar o‘z e’tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o‘rtasidagi qadimiy mushtarak an’analarini yanada rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Diniy bag‘rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo‘nalishlar va mazhablarning ezgu g‘oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshiriladi.

2-§. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari

Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda Islom qonun va qoidalari, shariat axkomlari bilan bir qatorda, atrof-muhitni toza saqlash, tabiat boyliklaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigienasi, zurriyotni tozaligiga, o‘simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi jahondagi millionlab odamlarni, ular qatorida din ahllarini ham tashvishga solmoqda. Ular bu muammolarni ijobiy hal qilishda Qur’on va Sunnaga murojaat qilmoqdalar. Biosferadagi har bir narsada suv, tuproq, havo, tog‘, hayvonot, nabotot va mikrojonzotlar muayyan o‘lchov bilan bir-biriga bog‘liq, mutanosib holda

mavjuddir. Agar bu muvozanat buziladigan bo‘lsa, insoniyat uchun qator muammolar kelib chiqishi va oqibatda tabiat muhofazasi xalokatga yuz tutishi mumkin.

1. Qur’oni Karimning “A’rof” surasi 56-oyatida, “Obod qilib qo‘yilgan yer yuzida buzg‘unchilik ishlarini qilmang” deyilgan. Hadislarda olamning birligi, undagi qatradan tortib okeangacha, zarradan boshlab Quyoshgacha, odam, o‘simlik, hayvonot dunyosi Xudoning irodasi bilan o‘zaro bog‘langanligi va o‘zaro bir-biriga muvofiq holda harakatda ekanligi aytilgan. Muqaddas kitoblarda Alloh taolo inson uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarni muhayyo qilganligini, uning sog‘lom irsiy taraqqiyoti uchun sof havo, toza suv, oziq-ovqat, shifobaxsh nur, o‘simlik va hayvonot dunyosini in’om etganligi uqtiriladi. Avlod-ajdodlarimiz suvni muqaddas sanab, uni ifloslantirishni esa gunoh deb hisoblaganlar. Islom dinida suv hayotning asosiy unsuri deb hisoblanib, Qur’oni karimda «Barcha tirik narsani suvdan qilganmiz», boshqa bir yerda esa «Barcha jonzotni suvdan yaratdik» degan jumlalar mavjud. Islom dinida inson ekologiyasiga ham e’tibor qaratilib, insonning ma’naviy kamolotiga asosiy e’tibor berilgan.

2. Nabotot va hayvonot olami Islomda inson uchun eng zarur narsalardan hisoblangan. Kimdir bularga zarar keltirsa insoniyatga ziyon keltirgan bo‘ladi. Islom dini tabiatga zarar keltirmaslikka, mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Qur’oni karimda ham hayvonlar va xasharotlarning nomlari bilan nomlangan suralar mavjuddir. Qur’oni karimning An’om surasida, «Yerda sudralib yurgan har bir jonivor, osmonda qanot qoqayotgan har bir qush xuddi sizlar kabi (Bizning qo‘l ostimizdagi) jamoalardir», deyilgan. Demak, hamma jonzotlar tabiatda yashashga, hayotiy faoliyat huquqiga egadir. Yana bir Hadisi sharifda: «Kim daraxt ekib uni muhofaza qilishda sabr qilsa, meva bergunicha parvarish qilsa, u odamga mevasidan kelgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savob bo‘lgay», - deyilgan. Qur’oni karim va Hadisi shariflardagi shunga o‘xshash bayonlar ulamolar uchun, “dehqonchilik kasblar ichida eng afzali” deyishga asos bo‘lgan. Tabiatni asrash, muhofaza qilishda Islom dini insoniyat tarixida birinchi marta ayrim joylarda, ma’lum vaqtlarda xayvonot va o‘simlik dunyosiga zarar keltirish, ov qilish, o‘ldirishni qat’iy man qilgan. Fiqhshunos ulamolar qaysi hayvon uchun qanday jarima to‘lanishi zarurligini belgilab berganlar. Bunday gunoh ishlar tasodifan yoki qasddan qilinishidan qat’iy nazar gunohkorlar baribir jazolanadilar. Islom dini yil davomida maxsus joylarda hayvonlarni sababsiz o‘ldirish, daraxtlarni kesish va o‘simliklarni nobud qilishni man qilgan. Bu atrof muhitini himoya qilishga yordam bergan.

3-§. Islom dinida vatanparvarlik g‘oyalarining talqini

Inson qaerda dunyoga kelsa, ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Vatanni sevish, uni sog‘inib yashash inson ma’naviyatining muhim jihatidir. Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddas tushunchalardir. Islom dini ta’limotida ona Vatan himoyasi, millat farovonligi masalalari hadislarda keng yoritilgan. *“Dushman bilan to‘qnashib jang qilishni orzu qilmanglar. Ammo jang boshlanib qolsa, sabot va matonatli bo‘linglar!”* deyiladi hadislarda. Xalqimizda *“O‘zga yurtda shoh bo‘lganingcha o‘z yurtingda gado bo‘l”*, degan hikmatli so‘z ham bor. O‘z huzur-halovatini o‘ylab, o‘zgalarni unutgan kishi hech qachon ona Vataniga, xalqiga nisbatan sadoqatli bo‘lolmaydi.

1. Islomda Vatan tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, avvalo u istiqomat maskani, ya’ni uy-joy ma’nosida ishlatiladi. Islom dini ta’limotida inson o‘zi yashab turgan Vatanini, dinini, oila ahlini himoya qilishi eng ulug‘ amallardan ekanligi ta’kidlangan. Vatan himoyasi uchun harbiylar safida turish ham islom dinida ulkan savobli amal sanaladi. Hadislarda *«Bir kecha kunduz «ribot»,* (ya’ni dushman qarshisida turish) *bir oy tutilgan nafl ro‘za va o‘qilgan tungi namozdan yaxshidir»*, degan fikr bayon qilingan.

2. Ulamolardan biri, *«Har bir kimsaga ma’lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrli, qimmatli to‘rt narsasi bordir. Bu to‘rt narsaga ega bo‘lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo‘lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o‘zi egalik qilmog‘i, tug‘ilib o‘sgan ona Vatani hamda asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelayotgan muqaddas dini»,* deb islom dinida vatanparvarlikning muhimligi masalasiga o‘z munosabatini bildirgan.

O‘z vatanini sevish, u bilan faxrlanish, uning baxt-saodati yo‘lida faoliyat olib borish vatanparvarlikning namoyon bo‘lishidir. Insonning o‘z ona tilini, milliy madaniyati, an’analari, urf-odatlari, diniy e’tiqodini hurmat qilishi ham vatanparvarlikka asoslanadi.

3. Vatanni turli zararli oqimlar va kuchlardan himoya qilish insonning vatanparvarligi asosida amalga oshiriladi. Zararli g‘oyalar va mafkuralarga qarshi kurash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash ularning ongi va qalbiga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish asosida amalga oshiriladi. Vatanimiz tinchligi, osoyishtaligini ta’minlashdek mas’uliyatli, shu bilan birga, savobli ishlarni amalga oshirishda boshqa fuqarolar bilan birga din vakillari ham o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

4-§. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarda er-xotinning huquq va majburiyatlari

Islom dinida fuqarolar o'rtasidagi oila va nikoh munosabatlari muqaddas sanalib kelingan. Oila jamiyatning negizi bo'lganidan islomda oilaga katta e'tibor berilib, oilani qanday tashkil etish, uning boshlig'i va a'zolarining huquqlari, farzandlar tarbiyasi, bir so'z bilan aytganda, oilaviy hayotning barcha masalalari atroflicha hal etilgan. Er-xotinning o'zaro munosabati oila mustahkamligining garovi bo'lganligi uchun islomda er-xotinning tinch-totuv yashashiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Niso surasining 19-oyatida erkaklarga ayollar bilan kelishib, tinch-totuv yashashning zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Islom dinida ayollarga yaxshi munosabatda bo'lgan erkaklar insonlarning eng yaxshilari deb hisoblanadi. Shuningdek, Qur'oni karimga ko'ra, oilaviy bahslar paydo bo'lganida, ularni er-xotinlar tomonidan oqilona va odilona hal qilinishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi. Oilaning asosini nikoh tashkil etadi. Shuning uchun nikoh masalasiga islom dinida o'ta mas'uliyat bilan yondashiladi. Islom dinida oila munosabatlarida ruxsat etilgan va ta'qiqlangan xatti-harakatlar, ya'ni, faqat halol ishlar bilan shug'ullanishga, harom ishlardan saqlanishga da'vat etiladi. Ma'lumki, oila nikoh tuzilishidan boshlanadi. Nikoh tushunchasi shariatda shunday shartnoma-bitim sifatida ta'riflanadiki, unga muvofiq nikohga kirgan xotin erkak uchun begona, ta'qiqlangan bo'lmaydi. Islomda oilaning barqarorligi hamma narsadan ustun qo'yiladi, shu bois mustahkam oila qurishga barcha musulmonlar tomonidan katta ahamiyat beriladi. Islomda nikoh Allohga xush keladigan amallardan sanaladi va unga har bir kishi haqli ekanligi ta'kidlanadi.

Islom huquqiga ko'ra nikohning haqiqiyligi quyidagi to'rt shartning uyg'unligi, chunonchi: 1) bevosita monelik qiluvchi holatlarning yo'qligi; 2) muayyan shaxslarning roziligi; 3) mahrning belgilanishi; 4) rasmiy qoidalarga rioya etilishi bilan belgilanadi. Nikohning birinchi bosqichi - kelishish, unashtirish (xitba) bo'lib, unda kuyov o'zi yoki vakili orqali kelinning otasi, vasiysi yoxud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va nikoh shartnomasi (sig'a)ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlar - kelinni kuyov xonadoniga uzatish (zifof) va to'y tantanalari (urs, valima). Bular oldinma-ketin bo'lishi ham mumkin, chunki, agarda kelin hali balog'at yoshiga yetmagan go'dak bo'lsa, uni uzatish to 13-15 yoshga to'lmaguncha kechiktiriladi. Valima vaqtida sig'a aytiladi va mahr yoki uning bir qismi (sadoq) to'lanadi. Mana shu barcha bosqichlarda, faqat kelinga qilingan sarf-xarajatlarni (mut'a) hisobga olmaganda, nikoh hech qanday oqibatsiz to'xtatilishi mumkin. So'nggi

bosqich - amalda er-xotin bo‘lish (nikoh). Nikoh ahdi qoidasini bo‘lg‘usi er yoki xotin yoxud ularning ishonchli vakillari o‘qishlari lozim. Nikoh ahdi o‘qilganidan so‘ng nikoh amalga oshgan hisoblanadi. Nikohning zaruriy shartlariga mahr to‘lash, ayolni boqish va unga uning oilasining mavqeiga qarab muomala qilish, erlik vazifalarini ado etish va farzandlarini boqish kiradi.

O‘zbek oilasida farzandlarni tarbiyalashda halollik bilan birga mardlik, jasurlik, aqllilik, bilimdonlik, xususan, ularni kasb-hunarli bo‘lishlariga e’tibor qaratilgan. Shariatdagi oila va nikoh bo‘limlarining falsafiy mazmunicha, oila jamiyatning bir kichik bo‘g‘ini, ajralmas qismidir. Shuning uchun shariatda oila bilan bog‘liq masalalar: oila qurish tartibi, nikohlash qoidalari, balog‘atga etganligini aniqlash, erkak va ayol roziligi, mol-mulkka egaligi, er-xotin, ota-ona va bolalar odobi, taomlarda halol va haromni ajrata olish kabi ko‘pgina masalalar o‘z ifodasini topgan. Asrlar davomida musulmonlar shaxs va jamiyat munosabatlarini o‘rnatishda shariatning oila va nikoh haqidagi talablariga rioya qilib kelganlar. Hozirgi mustaqillik davrida ham diniy e’tiqodi bo‘lgan kishilar hayotida ularning ta’siri bor, albatta. Zero, oila va nikoh masalasi har bir jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimida faqat iqtisodiy, maishiy va huquqiy masalalarnigina qamrab olmasdan, shu bilan birga jamiyat va shaxs uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-axloqiy masala hamdir. Bu narsa islomiy qadriyatlarning ilk manbalari - Qur’on va hadislarda yorqin o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, Qur’onning «Niso» va «Taloq» suralari masalasiga bag‘ishlangani, shuningdek boshqa suralarda ham bir necha oyatlarning oilaviy-maishiy masalalarga bag‘ishlanganligi bundan dalolat beradi. Jumladan, «Niso» surasida oila qurish qat’iy nikoh asosida bo‘lishini ta’kidlab shunday deyiladi: «Ey mo‘minlar, sizlar uchun xotinlarni majburiy holda meros qilib olish durust emasdir» (4: 19). Musulmon huquqshunosligining eng nufuzli manbai «Hidoya» da ham oila va nikoh masalalariga juda katta e’tibor berilgan bo‘lib, uning ikki kitobi – «Nikoh kitobi» va «Taloq kitobi» bevosita ushbu masalalarni yoritishga bag‘ishlangan. Ma’lumki, oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Oila faqat er va xotinning o‘zidan iborat emas. Oila er-xotin, ularning farzandlari, eng yaqin tug‘ishganlardan iborat kishilar guruhidir. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. «Hidoya» asarida oila va nikoh masalalaridagi ana shu munosabatlarning hamma tomonlari adolat nuqtai-nazaridan yondashilib yoritiladi. Adolatning asosiy mezonlari sifatida insof va diyonat, haromdan xazar, poklik kabi ezgu tushunchalar

ko‘zda tutiladi. «Hidoya» da ta’kidlanishicha, nikohdan maqsad er-xotinning faqat bir-birlariga nisbatan maishiy va moddiy huquqlarini rasmiy ta’kidlashdangina iborat bo‘lib qolmasdan, eng avvalo, nikohlanganlarning axloqiy va ma’naviy poklanishi uchun zamin tayyorlashdir. *«...Nikohdan ko‘zda tutilgan maqsad iffatli va pokiza bo‘lib yurishdir»*; Shariatda oila va nikoh masalasida chiqarilgan hukmlarning ma’naviy va huquqiy ahamiyati yana shundaki, ularda Qur’on oyatlarini asos qilib olingan holda nikoh ahdini tuzuvchi har ikki tomonning, xususan ayolning er tanlash huquqining daxlsizligi nikohning shartlaridan biri deb hisoblanadi. Chunonchi, «Hidoya» da shunday yoziladi: «*...oqila, hur ayolning nikohi xoh u qiz bo‘lsin, xoh juvon bo‘lsin, valiysiz ham o‘zining roziligi bilan bog‘lanaveradi... Nikoh joizligining sababi shundan iboratki, bu masalada kelishicha, ayol o‘zining xolis haqqida foydalangan, chunki u oqila oq-qorani ajrata oladigan bo‘lgani uchun o‘z xohishicha foydalanishga haqli. Shuning uchun ayol mol-mulkni tasarruf etishga ham, o‘zi uchun er tanlashga ham haqqi bor... Shuning uchun uni majburlashga hech kimning haqqi yo‘q»*. Shariatda xususan «Hidoya» da oila va nikoh masalasida katta ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hukmlardan biri ayolning nikoh to‘g‘risida o‘zining qanday haq-huquqlarga ega ekanligi haqidagi bilimga ega bo‘lishining zarurligidir: «*Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo‘lishligi shart qilinadi. Chunki qiz bola faqat ilm bo‘lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo‘lolmaydi*». Marg‘inoniyning bu hukmi hozirgi davrimiz uchun ham ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Zero, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida huquqiy bilimga, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish fuqarolik jamiyati va demokratik davlat barpo etishning ob’yektiv zaruriyatiga aylanib bormoqda. Oilaviy munosabatlar jamiyatda o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlardan biri bo‘lganligi tufayli ham bu masalada ayniqsa ayolning huquqiy bilimga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Shariat ahkomlarida, xususan «Hidoya»da oila va nikoh masalasida chiqarilgan hukmlarning katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tomonlaridan yana biri – erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va aqliy jihatlardan mumkin qadar bir-birlariga teng bo‘lishlariga e’tibor qaratishdir. Marg‘inoniyning «Hidoya» asarida oila va nikoh masalasida chiqargan shar’iy hukmlarining mohiyatini tahlil qilib xulosa qilish mumkinki, masala eng avvalo yuksak hulq-atvor, ma’naviy poklik, insoniy qadriyatlar nuqtai-nazaridan hal qilinadi. Erkak va ayol o‘rtasidagi munosabat muayyan qonun-qoidalarga tayangan holda oilani mustahkamlash, uning axloqiy pokligi va halolligini ta’min qilishga

qaratilgandir. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy va diniy qadriyatlarni tiklashga, xususan, xotin-qizlar huquqi va ularning jamoat ishlarida tutgan mavqeini ko'tarishga katta e'tibor berildi.

Islom dinida er va xotinlarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan bo'lib, bu huquq va majburiyatlarga quyidagilar tegishlidir.

Xotinning er zimmasidagi haqqi erning o'ziga ham, moliga ham tegishli bo'lib, xotinning eri zimmasidagi mahr va nafaqa singari moliyaviy va shaxsiy haqlari mavjuddir. Bu haq-huquqlar quyidagilardan iboratdir:

1. Er xotiniga xushfe'l bo'lishi, u bilan yaxshi muomala qilishi, birga farovon hayot o'tkazishi, unga ozor etkazmasligi kerak. Hadislarda aytilganidek, *«Sizlarning eng yaxshilaringiz xotinlariga yaxshilaringizdir».*
2. Er xotinning ozorini ko'tarishi, u g'azablanganida va jahli chiqqanida muloyim bo'lishi, uning xatolarini kechirishi kerak. Bunday qilish islom dinida sunnat amal bo'lib hisoblanadi.
3. Erkak ayolini qizg'anishi, uning or-nomusini saqlashi kerak.
4. Er xotinning o'ziga alohida joy qilib berishi, unda erning yaqinlaridan hech kim bo'lmasligi kerak.
5. Er xotinga berishi lozim bo'lgan mahrni qancha bo'lsa-da, to'la berishi kerak. Mahr tanho xotinning haqqidir.
6. Er xotinining oziq-ovqat va kiyim-bosh kabi ehtiyojlarini isrof etmay, yetarli ta'minlashi kerak.
7. Er xotiniga diniy masalalarda bosh maslahatchi hisoblanadi.
8. Er xotinini to'g'ri yo'lga solish uchun odob o'rgatishi zarur bo'lib, bu odob o'rgatish bosqichma-bosqich olib boriladi. Avvalo pand-nasihat, ogohlantirish, targ'ib qilish orqali odob o'rgatiladi.
9. Er o'z xotinining iffatini saqlashi lozimdir.
10. Er xotinni na so'z bilan va na fe'li bilan so'kib, ayblab, haqoratlab, yomonlab pastga urmasligi, uning jismi-yu xulqini, oilasi-yu yaqinlarini kamsitmasligi kerak. Zero, bu musulmon axloqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.
11. Er xotinini yaxshi ko'rsa, juda hurmatlashi lozim, yomon ko'rsa, zulm qilmasligi kerak.

Erning xotin zimmasidagi eng muhim haqlari quyidagilardir:

1. Xotin erining haqqini o'z haqqidan va hamma yaqinlarining haqqidan ham oldinga qo'yishi kerak. CHunki zimmasidagi erining haqqi juda kattadir.
2. Xotin uyiga erining ruxsatisiz hech kimni qo'ymasligi, erining uyidan uning ijozatisiz biror narsani o'zining yaqinlariga ham berishi kerak emas.

3. Xotin hamisha erga itoatda bo‘lishi, eridan ruxsat olmay uydan chiqishi, uydan boshqa joyda ishlashi mumkin emas.
4. Xotin o‘z nasibasiga rozi bo‘lishi, eriga injiqlik qilmasligi kerak.
5. Xotin erining do‘stiga notanishdek bo‘lishi lozim.
6. Xotin go‘zalligi bilan eriga faxrlanmasligi, erini yomon ko‘rmasligi, agar boy bo‘lsa, eri oldida moli bilan g‘ururlanmasligi kerak.
7. Xotin farzandlariga rahm qilishi, ularni hurmat qilishi, farzandlari va eriga yomon gaplarni gapirmasligi kerak. Er – oilaning rahbari. Agar ayol erning itoatida bo‘lsa, farzandlar ham otaga itoat qiladigan bo‘ladi. Oqibatda oilada do‘stlik, ahillik, muhabbat hukm suradi, oila mustahkamlanadi, qut-barakali bo‘ladi. Ayolning eriga itoatsizligi esa oilaning buzilishiga, boshqa ko‘plab kelishmovchiliklarga sabab bo‘ladi.

5-§. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat

Islom dini farzandlarning zimmasida ota-onalarning bir qancha haq-huquqlari borligini ta’kidlaydi. Bu masala Qur’oni karimda, hadislarda va Islom tarbiyasi haqidagi kitoblarda alohida bayon qilingan. Islom ta’limotiga ko‘ra farzandlar o‘z ota-onalariga yaxshi muomala qilishlari, shirinsuxan bo‘lishlari, ularga mehribonlik ko‘rsatishlari, doimiy ehtirom bilan ularni taqdirlab turishlari, ularning shariatga zid bo‘lmagan barcha buyruq, talab-istaklarini bajarishlari lozim deyiladi. Qur’oni karimning «Isro» surasida farzandning ota-onasiga munosabati masalasida quyidagi oyat keltirilgan. - *Robbing faqat Uning O‘zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishingni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «uff» dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so‘z ayt! Ikkovlariga mehribonlik ila xokisorlik qanotingni paslat va «Robbim, alar meni kichiklikda tarbiya qilganlaridek, ularga rahm qilgin», deb ayt»* (23–24-oyatlar). Ushbu oyatda Allohga ibodat qilishdan keyin ota-onaga yaxshilik qilish buyurilmoqda. Islom ta’limotiga ko‘ra farzand ota-onasiga biror og‘iz yoqimsiz so‘z aytmasligi, ota-onasiga ozor yetkazmaslik uchun ularning oldida o‘zining g‘ami borligini bildirmasligi, ota-onaga qo‘pol harakat qilmasligi, ularning yuzlariga tik qaramaslīgi, ota-onaga doimo muloyimlik bilan shirin so‘zlarni aytishi talab etiladi. Farzandning ota-onaga qilgan yaxshi munosabati, ularga tavoze ko‘rsatib, mehribonlik qilishi, ularning oldiga izn so‘rab kirishi, ular kelganda o‘rnidan turib, kutib olishi, ularni ismi bilan atamaslik, ulardan oldin yurmaslik va o‘tirmaslik, ularning oldilariga kirganda va chiqqanda ularga salom berishdan iboratdir. Ota-onani yoqimli so‘zlar bilan chaqirish, ularga

dinlari va dunyolarida manfaat beradigan gaplarni aytish, dinda ular bilmaydigan narsalarini o‘rgatish, ularning barcha so‘zlariga itoat qilish, ota-ona bilan o‘tirganda ularning ruxsatisiz chiqib ketmaslik, ota-onaning muhabbatini qozongan kishilarning hurmatini qilish, ota-onasining nafaqasini yaxshilash, hadyalar berib turish, ularni so‘rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay, izzat ko‘rsatish islom dinida farzandning ota-ona oldidagi belgilab berilgan burchidir. Ota-onalar zaiflashgan, qartaygan vaqtlarida farzandlar tomonidan ularning haqlarini ado etish, farzandning ota-ona xizmatida doimo shay turishi, ularning obro‘sini himoya qilish, ularni xursand qilishning chorralarini ko‘rish, Islom dinida e’tirof etilgan.
Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Avvalo tarbiya va odob masalasida ota-onalarning o‘zlari bolalarga yaxshi namuna bo‘lishlari kerak.Har bir bola uchun uning ota-onasi dunyodagi eng ulug‘ kishilar bo‘ladi. Bola ota-onasiga taqlid qiladi va ulardan o‘rnak oladi. Shuning uchun ham ota-ona farzandlariga doimo yaxshi va go‘zal o‘rnak bo‘lishlari lozim. Ota-ona bolalariga shaxsiy namuna ko‘rsatishlari bilan birga, ularga odoblarni qunt bilan, zerikmasdan o‘rgatib borishlari zarur. Chunki ota-onaning bolalarga beradigan narsalari ichida eng qimmatlisi va zaruriysi odobdir.

Farzand tarbiyasi o‘ta murakkab va ma’suliyatli jarayon bo‘lib, bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. Bolalarni intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi. Islom shu ma’noda ota-onalarni o‘z farzandlariga sog‘lom tarbiya berishga rag‘batlantiradi. Hadisi sharifda *“Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring”* deb ta’kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifat va madaniyatga etaklash muammolariga e’tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida

farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

– odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. SHuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

– farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

– yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Ota-bobolarmiz azaldan o‘g‘il qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi. Farzand tarbiya qilganda odatda o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasi inobatga olinadi. Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotda ota-ona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Hadislarda *“Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”*, deb odamlar ilm olishga da’vat qilingan. Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasi ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Yosh avlod tarbiyasida ularni o‘z ajdodlariga munosib voris qilib tarbiyalash, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda islom dinining asl mohiyatini va insoniyatni ezgulikka eltuvchi din ekanligini ilmiy asoslangan xolda teran o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, dunyo madaniyatiga xissa qo‘shgan ajdodlarimiz merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimiz ma’naviy axloqiy qadriyatlarining shakllanishida islom dini, Qur’oni karim va hadislar muhim o‘rin tutib kelgan. Islom dini milliy madaniyatimiz, axloq, nafosat, urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlarimizga ta’sir ko‘rsatib, milliy mentalitetimizda ham namoyon bo‘lib kelmoqda. Milliy mentalitetimizda namoyon bo‘lib kelayotgan odob, axloq, tarbiya, insoniylik asrlar davomida islom mafkurasi asosida shakllangan, moddiy va ma’naviy madaniyatimizga, san’atimizga doimo o‘zining ta’sirini o‘tkazib kelgan.

6-§. Islomda axloqiy qadriyatlar

Xalqimizning axloq va odob haqidagi qadriyatlari minglab yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Ayniqsa islomdagi ma’naviy qadriyatlar, buyuk mutafakkirlarning ma’naviy axloqiy qarashlari, fikrlari milliy ma’naviyatimizga asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bular iymon e’tiqodlilik, andishalilik, xalollik, poklik, birovning haqqiga hiyonat qilmaslik, ota onaga mehribonlik, insonni qadrlash, ustozlarga hurmat, mehmondo‘stlik, sahovatpeshalik kabi qadriyatlardir.

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti, inson faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatarkan, islom dinidagi asl insonparvarlik, adolat, ezgulik kabi qadriyatlarning bugungi kunda, jamiyatning ma’naviy yangilanishidagi tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda.

1. Islom dini doimo ma’rifatparvarlik va yuksak axloqiylik g‘oyalarini ilgari surib kelgan diniy ta’limotdir. «Qur’on» va «Hadis»larda ilgari surilgan axloqiy qarashlar insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida doimo muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Islom dinining axloqiy ta’limotida har bir insonni insonparvar, vatanparvar, adolatli, ma’rifatli, ma’naviyatli, yuksak axloq-odob sohibi qilib tarbiyalash masalasiga asosiy e’tibor qaratiladi. Islom dinida insonning bunyodkor va yaqinlariga g‘amxo‘r bo‘lishi takror va takror uqtiriladi. Islom dinida, xususan Qur’oni karim va hadislarda ota-onaga mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e’tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo‘l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo‘lish, mehr-shafqatlilik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sofdil bo‘lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g‘oyalari ilgari surilgan.

2. Hadislarda ota-onani hurmat, halol mehnat, adolat, insoniylik masalalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, *«Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, tangri uning umrini uzaytiradi»; «Jannat onalar oyog'i ostidadir», «Mehnat qilishdan uyalmang, mehnat qilish – ibodat qilishga barobar»* kabi hadislarning axloqiy tarbiyadagi o'rni hamda ahamiyati kattadir. Islom dini doimo odamlarni halollikka, poklikka, insof va diyonatga da'vat etib kelgan. *"Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin!", "Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar", "Imonning afzali – sabr va keng qalbli bo'lishdir", "Imonli odam va'daga vafodor bo'ladi",* kabi hadislar insonning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatga egadir.

3.Qur'oni karim va hadislarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati insonlarni ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lishga chaqirishida ham namoyon bo'ladi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd etilishining o'zi katta tarbiyaviy axamiyatga ega. Hadislardagi *«Sadaqaning afzali mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'minlarga ham o'rgatishidir»; «Ilm ibodatdan afzaldir»; «Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar»* kabi har bir kishini ma'rifatga chorlovchi so'zlarning ahamiyati beqiyosdir.

Islom dini kishilarni faqat diniy bilimlarnigina emas, balki shu bilan birga dunyoviy ilmlarni ham chuqur egallashga chaqiradi. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy ilmlar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tarilishini Sharq Uyg'onish davri, Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Farobiy singari buyuk olimlar yashab ijod etgan davr misolida ko'rish mumkin.

Bugungi kunda islom dini asosida asrlar davomida yaratilgan axloqiy-ma'rifiy qadriyatlar jamiyatdagi ma'naviy yangilanish va barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Islomiy axloqiy qadriyatlar odamlarni halol, pok, adolatli, insofli, diyonatli, mehr-shafqatli bo'lishga da'vat etib kelmoqda.

7-§. Islomda do'stlik o'zaro yordam va sog'lom turmush tarzining targ'iboti

1.Islom dini odamlarni do'stlik va o'zaro yordamga ham doimo da'vat qilib kelgan. Islom dini odamlarni eng olijanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab, ularni ezgulik, ijtimoiy adolat, do'stlik, o'zaro totuvlik, birodarlik, mehribonlikka da'vat qilgan, jamiyat hayotida odamiylik, insonparvarlik tantanasiga xizmat qilib kelgan. Islom dinida qo'ni-qo'shni,

qarindosh urug‘, do‘st-birodarlar doimo bir-birini hurmat qilishga, o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lib, bir-birini qo‘llab-quvvatlab turishga da’vat qilinadi. Islom dinida barcha musulmonlar bir-birlariga tayanib, bir-birlarining qayg‘ularini o‘rtoqlashib, marhamat va shafqat ko‘rsatib, oralaridagi muhabbat va hurmatni ziyoda qilishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Islom dini odamlargagina emas, barcha jonivorlarga ham shafqatli va marhamatli bo‘lishga buyuradi.

2. Islom dinida do‘stlik va qadrdonlik haqida ham bir qator da’vat va tavsiyalar yaratilgan. Hadislarda *"Odam do‘stining yo‘lidadir. Kim bilan do‘stlashishingga e’tibor qil"*, degan fikr bayon qilingan. Inson qayg‘uli damlarda ham, xursandlik chog‘larida ham do‘stlarga muhtojdir. Inson qayg‘u va shodligini do‘stlari bilan o‘rtoqlashadi. Og‘ir va qayg‘uli vaqtlarda do‘stlar bir-birlariga tayanch bo‘ladi. Ota-bobolarning hikmatli so‘zlarida: *"Aqlli dushmandan qo‘rqma, ahmoq do‘stdan qo‘rq", "Do‘sting o‘zingdan yaxshiroq bo‘lsin"*, — deyilgan. Insonning do‘sti diyonatli, e’tiqodli bo‘lsa doimo o‘z do‘stini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Shodlik vaqtida shukr qilish, qayg‘uli damlarda sabr etish musulmonlarga farz qilingan bo‘lib, Qur’oni karimda *"Hech shak-shubha yo‘qki, sabr-toqat qiluvchilarga ajr-mukofotlari hisob-kitobsiz to‘la-to‘kis qilib berilur"*, - deb ta’kidlangan.("Zumar" surasi, 10-oyat).

4. Islom axloqida eng oldin qo‘yilgan va eng muhim masalalardan biri adolatdir. Qur’oni karimda *"Alloh adolatga, chiroyli amallar qilishga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur hamda buzuqlik, yomon ishlar va zo‘ravonliklardan qaytarur"*, deyilgan. ("Nahl" surasi, 90-oyat). Bu oyat bilan musulmonlar adolatga da’vat etiladi. Qur’onda yana: "Alloh adolat qilguvchilarni sevadi", degan oyat ham mavjud. Qur’oni karimda Allohning adolatli ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Islom dinida Allohning 99 sifati mavjud bo‘lib, bulardan biri Al-Adl, ya’ni, Alloh bandalariga adolatlidir, degan ma’noni bildiradi. Adolat faqat mahkamadagina bo‘lmaydi. Mamlakatning hamma joyida adolat barqaror bo‘lishi lozim. Uyda ota-ona bolalariga, maktabda o‘qituvchi o‘z shogirdlariga, badavlat kishilar o‘z qo‘l ostidagi ishchi va xizmatchilarga adolat qilishga majburdirlar.

5. Islom dinida sog‘lom turmush tarziga ham e’tibor qaratilgan. Hadislarda *"Ikki ne’mat borki, odamlar ularning qimmatini anglab etmaydilar. Ulardan biri sog‘lik bo‘lsa, ikkinchisi vaqtdir"*, deyilgan. Hadislarda yana *"Zarar berish va zararlanish (islomda) yo‘q"* degan fikr bayon qilingan bo‘lib, zararlanishning oldini olish insondan badantarbiya bilan shug‘ullanishni, sog‘lom turmush tarziga o‘tishni talab qiladi. Mashhur tabib Abu Ali Ibn Sino ham *"Badantarbiya bilan muntazam shug‘ullangan*

inson hech qanday dori-darmonga muhtoj bo'lmaydi", degan fikrni bayon qilgan.

6. Islom dinida sog'lom insonni tarbiyalash va sog'lom oilani barpo etishga katta e'tibor qaratilib, sog'lom inson va sog'lom oila, sog'lom jamiyatning asosi hisoblanadi. Inson hayoti ish, hordiq chiqarish, mutolaa qilish, sport bilan shug'ullanish, ibodat qilish asosida tashkil qilinadi. Islom dinida inson hayoti ma'lum nizom asosida, halollik va poklik asosida, o'zaro ishonch va hurmat asosida bo'lishi belgilangan bo'lib, sog'lom hayot sog'lom jamiyat uchun asos bo'ladi. Islom dini insonning ma'naviy va jismoniy sog'lomligiga katta e'tibor qaratadi.

7. Islomda farz qilingan ro'za ruhiy tarbiya bo'lish bilan birga jismoniy tarbiya hamdir. Hozirgi kunga kelib, tabobat bilimdonlari insonga bir yilda bir kurs ochlik muolajasini olishni tavsiya qilmoqdalar. Kundalik besh mahal namozda ham ajoyib jismoniy tarbiya bor. Musulmon kishi ibodat qilar ekan, namozga tayyorgarlik hamda namoz mobaynida o'zi sezmagani holda talaygina jismoniy xatti-harakatlarni bajaradi. Jismoniy tarbiyada nafas masalasi birlamchi masala hisoblanadi. Kelajak avlod sog'lom va kuchli bo'lishi uchun, xalqning ertasi buyuk bo'lishi uchun jismoniy tarbiya zarurdir. Hadislarda *«O'q otinglar, ot mininglar, men uchun otganingiz minganingizdan yaxshiroqdir»*, degan hadis bo'lib, islom dinining ilk davrida ham harbiy jismoniy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratilgan. Islomda sog'lom turmush tarziga, jismoniy tarbiyaga katta e'tibor qaratilib, islom odamlarning ham jismoniy, ham ma'naviy tarbiyasiga doimo katta e'tibor qaratib kelgan.

8-§. Islomda fan va ta'lim, madaniyat va san'atga munosabat

Yaqin Sharqda arab davlati — xalifalikning vujudga kelishi hamda islom dinining qator mintaqa va mamlakatlarga tarqalishi natijasida musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlana boshladi. Madaniyatimiz taraqqiyotida o'rta asrlar (IX-XII) katta rol o'ynadi. Bu davr Markaziy Osiyo xalqlarini dunyo madaniyatida mashhur qildi. Shuningdek, madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari qorishib, adabiyotlarda «musulmon madaniyati» deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi.

1. Markaziy Osiyoda musulmon madaniyati bilan bir qatorda ilm-fan ham rivojlandi. Bunga esa Movarounnahrning Xuroson, Hindiston, Xitoy, arab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilganligi asosiy omillardan bo'ldi. Mashhur geograf olim Ibn Xurdodbeh o'zining «Kitab al-masalik val-mamalik» («Mamlakatlar va yo'llar to'g'risida

kitob») asarida Movarounnahr va Xurosondagi ko‘plab shaharlar hamda Hindiston, Xitoy, Eron kabi o‘lkalarni bog‘lovchi bir necha yirik savdo yo‘llari, ularning masofasi va ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirgan. Akademik M.Xayrullaev yozganidek, islom madaniyati adabiyot, san’at, fan, falsafa, axloq, urf-odat, ta’lim tarbiya kabilarning barchasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. O‘rta Osiyo xalqlarining boy madaniy an’analari nafaqat bu yerdagi, balki boshqa muzofotlardagi musulmon madaniyati rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ming yillar davomida jahon savdo yo‘llari chorrahasi — Markaziy Osiyo mintaqasida o‘ziga xos boy madaniyat mavjud bo‘lib, o‘rta asrlarda ilg‘or madaniyat, ilm-fan xuddi aynan Markaziy Osiyo hududida rivojlandi. O‘rta asrdagi sayyohlar, olimlar va muarrixlar X—XII asrlarda O‘rta Osiyo Sharqdagi boshqa mamlakat va o‘lkalar ichida ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan rivojlangan mintaqa bo‘lganligini e’tirof etishgan.

2. IX—XII asrlarda Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o‘lka sifatida mashhur bo‘lib, bu yerda qadimiy an’analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an’analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar — astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo dorishunoslik, jug‘rofiya kabilar rivoj topdi.

O‘sha davrlarda Sharqda islom ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangan. IX—XI asr musulmon madaniyatidagi umumiy madaniy yuksalish Movarounnahr va Xuroson olimlari ijodida o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ellinistik davrning oxirlarida fan va madaniyat o‘chog‘i Misrning Iskandariya shahriga to‘g‘ri kelsa, musulmon madaniyatining «oltin davri» hisoblangan IX-XI asrlarda fan va madaniyat rivoji Xuroson hamda Amudaryoning ortidagi o‘lka — Movarounnahrga yoki zamonaviy istiloh bilan aytganda, Markaziy Osiyoga ko‘chib o‘tdi.

O‘sha davrlarda Markaziy Osiyodan Muhammad al-Xorazmiy (783—850), Ahmad al-Farg‘oniy (tax. 798—865), Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810—870), Muhammad at-Termiziy (824— 892), Abu Nasr al-Forobiy (873—950), Abu Rayhon al-Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Mahmud az-Zamaxshariy (1075—1144) kabi yirik allomalar etishib chiqdi. Movarounnahr nafaqat o‘zining ilmiy salohiyati, balki moddiy ne’matlarga boyligi, iqtisodiy quvvati bilan rivojlanganligi tarixiy manbalarda e’tirof etilgan.

3. X—XII asrlarda Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Xiva, Shosh va boshqa shaharlar butun musulmon Sharqidagi madaniy markazlar qatorida mashhur bo‘lgan. Bu madaniy markazlarda adabiyot, tilshunoslik, mantiq fanlari bilan bir qatorda hadis, fiqh ilmlari ham rivojlangan.

Movarounnahrda islomiy ilmlar rivojlanib, bu yerda yetishib chiqqan olimlar islom dunyosining turli markazlarida ilmiy faoliyat olib borishgan va shuhrat qozonishgan. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shosh, Nasaf, Termiz, Marv kabi turli shaharlardagi madrasalarda faoliyat ko'rsatgan olimlar o'rtasidagi ilmiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etgan.

Markaziy Osiyo xalqlarini Buyuk Ipak yo'li qadimdan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari – Ozarbayjon, Eron, Arabiston, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan bog'lab turdi hamda bu yerda yashaydigan xalqlarni jamiyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining oldingi saflaridan joy olishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Komil inson tarbiyasi, uning atrof-muhitga oqilona munosabati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat g'oyalarini targ'ib qilgan ko'pgina ta'limotlar Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa mamlakatlarga tarqaldi va bu yerda yashovchi xalqlar dunyoqarashi, ma'naviy dunyosi, madaniyati shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

4. Markaziy Osiyo xalqlari insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining eng oldingi bosqichlaridan birida bo'lgan XI-XII va XIV-XV asrlar Sharq Uyg'onish davrining birinchi va ikkinchi bosqichlarida yuzaga kelgan bir qator asarlarning umumiyligi, falsafa, badiiy adabiyot, musiqa, fan, me'morchilik va san'atning o'xshashligi va bir-biriga yaqinligi Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari madaniyatining o'zaro aloqadorligi va ta'sirchan ekanligiga yorqin misol bo'la oladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi zaruriyat, iqtisodiy va madaniy aloqalar bu xalqlarning madaniyatini bir-biriga yaqin va ma'lum darajada mushtarak madaniyatga aylantirdi. Masalan, fors-tojik klassik adabiyotining merosi hisoblanmish Firdavsiy, Hayyom, Hofiz, Sa'diy, Jomiy va boshqalarning asarlari bir necha asrlar davomida butun Markaziy Osiy xalqlari uchun ma'lum darajada umumiy bo'lib keldi hamda ozarbayjonlik shoir va mutafakkir Nizomiy, amir Xusrav Dehlaviylarning ijodiy ta'siri ostida o'zbek shoirlari va mutafakkirlarining eng yaxshi asarlari vujudga keldi. Navoiy ijodi xususan, "Hamsa" asari XVI-XVIII asrlardagi barcha turkiy va fors-tojik badiiy adabiyoti va ijtimoiy fikrlarining rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrlarda yashab ijod etgan Turk, Ozarbayjon, Xorazm, Qo'qon xonliklaridagi, sharqiy Eron va Afg'onistondagi shoir-ulamolar Navoiy ma'naviy xazinasidan ilhomlandilar, bahramand bo'ldilar va undan o'rgandilar. Ijtimoiy madaniyatning bu o'zaro ta'siri xalqlar ijtimoiy milliy madaniyatining rivojlanishi va boyishiga olib keldi.

5. Mutafakkir olimlar Forobiy, Xorazmiy, Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib, Qoshg'ariy, al-Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Sino, Rudakiy, Rumiy, Hofiz va

boshqalar Sharq bilan G‘arb mamlakatlari o‘rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarning kuchayishi, intensivlashishi, turli xalqlar madaniyatlari o‘zaro integratsiyalashuviga katta hissa qo‘shganlar. Bu davrlarda Markaziy Osiyo madaniyatida Kavkazorti, Eron, Vizantiya, qadimgi Gretsiya, Arab davlatlari, Hindiston, Xitoy mamlakatlari qadimgi madaniyatining va bularning boshqa xalqlar ma’naviy-madaniy hayotiga ta’siri ko‘zga tashlanadi.

Masalan, Forobiy qadimgi yunon ilmi va falsafasini chuqur o‘rgandi. U ayniqsa, Arastu asarlarini mukammal bilgan, uning ta’limoti bilan yangi Aflotun ta’limotini birlashtirib olgan, islom falsafasiga olamshumul hissa qo‘shgan va shular bois, Arastudan keyingi “Ikkinchi muallif” (al-muallim as-soniy) nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk olim sifatida tanildi.

Markaziy Osiyo mutafikkirlarining asarlari XII asrdan boshlab, Evropada ilmiy-adabiy til hisoblangan lotin tiliga tarjima qilina boshlandi, so‘ng XVII-XVIII asrda ingliz, ispan, nemis, fransuz tillariga tarjima qilindi.

Markaziy Osiyoda, xususan Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Kesh, Termiz kabi shaharlarda oylab, yillab istiqomat qilgan, ajnabiy savdogarlar xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari va ma’naviyatiga xos qirralarini o‘rganib, ma’qul bo‘lganlarini o‘z yurtlariga borib targ‘ibot qilishga harakat qilganlar.

Sharq Uyg‘onish davri fan va madaniyatni yuqori cho‘qqiga ko‘tarishda Ibn Sinoning o‘rni beqiyosdir. U G‘arbda Avitsenna nomi bilan tanilib, tibbiyot ilmining yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilishida uning “Al-qonunu fit-tib” asari katta o‘rin tutib kelmoqda. Ibn Sino tibbiyot ilmidagi eng mo‘‘tabar olim sanaladi. Uning asarlari tabiatshunoslikning insonni o‘rganadigan sohasiga kirishga yo‘l ochdi.

Ibn Rushd G‘arbda Averroes nomi bilan shuxrat qozondi, Al-Farg‘oniy Evropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo‘ldi. G‘arb olimlarini hayratga soldi va ularning yangi-yangi kashfiyotlari uchun asos yaratdi. Abu Rayhon Beruniy o‘zidan keyin ulkan va boy ilmiy-madaniy meros qoldirdi. Abu Rayhon Beruniyning “Kitob fil - Hind” asari hind madaniyati, dini va falsafasini xolisona tadqiq etishning ilk yuksak namunasi bo‘lib qoldi. Beruniyning asarlari o‘sha davrdagi ilmiy kashfiyotlar va tadqiqot ishlarini jonlanishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan bir vaqtda Sharq va G‘arb xalqlari madaniyati va ma’naviyatining integratsiyalashuvi va yuksalishiga ham xizmat qildi.

6. Buyuk Ipak yo‘li orqali tarqalgan buyuk madaniyat Temuriylar davrida turli xalqlarni ma’naviy jihatdan oziqlantirdi, taraqqiyotga zaruriy kafolatlar berib, iqtisodiy ko‘tarilish, siyosiy-ijtimoiy yuksalish sodir

bo‘ldi. Temuriylar saltanati davridagi an’analar Mirzo Ulug‘bek va undan keyingi davrlarda ham davom ettirildi. Temur va uning avlodlari “Kitobat san’atiga” e’tibor qaratdi. Bu san’at, avvalo, Temuriylarning Hirotdagi saroyida chig‘atoy adabiyoti bilan birga ravnaq topib, u bilan sulton Husayn hamda uning do‘sti va vaziri Mir Alisher Navoiy shug‘ullandilar. Hindistonda qaror topgan buyuk Boburiylar sulolasi (1526-1857) saroylarida uzoq vaqt chig‘atoy – turk tili amal qilib keldi.

Sharqda fanning turli yo‘nalishlarini boshqaruvchi “Bayt ul-hikma”dan tashqari badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchi akademiyalar Hirotda (XV asr) ishlab turgan “Nigoriston” san’at akademiyasi Mirak Naqqosh, Sultonali Mashhadiy va Kamoliddin Behzod singari betakror musavvirlarni jahonga tanitdi.

Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan mamlakatlar bir-birlari bilan yana musiqa, yozuv, san’at turlari, turmush madaniyati sohalarida ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvga erishdilar. Shu boisdan qadimda asos solingan madaniyatlardagi umumiylik, uyg‘unlik nishonalari hozirgacha yaqqol sezilib turadi.

Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar dunyoqarashining shakllanishiga diniy qadriyatlarning, xususan, islom ta’limotining ta’siri kuchli bo‘lgan, Ipak yo‘li bu hudud xalqlarini yanada yaqinlashtirib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, ma’naviy va moddiy madaniyatining uyg‘unlashishiga ta’sir ko‘rsatgan.

7. Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy madaniyatiga islom dini asosida vujudga kelgan ilmi kalom, ilmi rivoyat, ilmi tavhid, ilmi aqida kabi islomiy ilmlar, ratsionalizmga asoslangan ilmi hikmatning rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatdi. Ilmi tavhid asosida vujudga kelgan tasavvuf nazariyasi va amaliyoti hamda uning uch tariqati – Kubraviya, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlari bizda paydo bo‘lib, shu yerdan Buyuk Ipak yo‘li orqali keng islom olamiga yoyildi va o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi.

Islom diniga e’tiqod qilgan olimlarning insoniyat ilm-fani va madaniyatiga qo‘shgan hissalari beqiyosdir. Islom dinida bir xalq yoki shaxs boshqa xalq yoki shaxsdan dinga bo‘lgan qiziqishi, ilmiy saviyasi, ko‘rsatgan xizmati, din va ilm yo‘lida qilgan say-harakati bilan ustun sanaladi.

8. Arablar Islomdan keyin asrlar osha shariat ilmlarini chuqur egallagan, zabardast olimlarga tan berishib, ularni imomlarimiz va rahnamolarimiz deb e’tirof etganlar. Zabardast islom ulamolarining ko‘pchiligi asli arab bo‘lmasalarda, arablar ularga o‘z millatlariga bermagan ilmiy unvonlarni berdilar. Muhammad ibn Ismoil Buxoriyga hadis ilmida mo‘minlar amiri, degan unvon berdilar. U kishi yozgan sahih kitobni esa Qur’ondan keyingi

eng ishonchli kitob, deb tan oldilar. Shuningdek, 468-xijriy yilda vafot etgan imom Abul Ma'oliy Abdulmalik al-Juvayniy an-Naysoburiyga ikki haram imomi, degan unvon berdilar. Abu Homid G'azzoliyni esa "Hujjatul islom" deb ataganlar.

9. Birinchi islom asrining oxirlaridayoq nasl-nasabi arab bo'lmagan islom ulamolari katta islom mamlakatida ilm manbaiga aylangan edilar. Fatvo, fiqh va hadis ilmlarida eng yetuk ulamolar ajam bo'lganliklarini manbalar ta'kidlab o'tadi. Mashhur arab allomasi Ibn Xaldunning fikriga ko'ra, *"Hayotdagi ajab ishlardan biri: islom millatida shar'iy va aqliy ilmlarda yetuk olimlarning ko'pchiligi ajamlar ekanidir, ya'ni arab millatidan bo'lmaganlardir. Islom shariati arab tilida, shariat sohibi hazrat Muhammad alayhissalomning arab bo'lishiga qaramasdan, islom ulamolarining ko'pchiligi ajam bo'lganlar. Ulardan ba'zilari arablarga nisbat berilsada, ona tili, tug'ilib o'sgan joyi, hatto dars bergan mashoyixlarigacha ajam bo'lganlar. Nahv ilmi, ya'ni arab grammatikasining asoschilari sanalmish Sibavayh, al Forisiy va Zajjojlar nasl-nasabda arab emaslar. Shuningdek, hadis, usulul fiqh, kalom ilmi, mufassir ulamolarning ko'pchiligi ajamlardir".*

Diniy ilmlarda peshqadam ulamolar bilan bir qatorda dunyoviy ilm-fanda ham peshqadamlikni qo'ldan bermagan musulmon ulamolarning ismlari hozirgacha ham chuqur hurmat va ehtirom bilan eslanishining o'zi ham islom dinining haqiqiy ilm dini ekanligiga yaqqol dalildir.

Islom dini ilm-fan va ma'naviyat maydonida sof aqidadan tortib to odob-axloq, yurish-turishgacha, ijtimoiy va shaxsiy maydondan tortib to siyosat, qonun va xalqaro aloqalargacha, xalq kasbu-hunaridan tortib to me'morchilik, adabiyot, she'riyat va benazir did-farosat maydonlarida o'zligini namoyon etdi.

10. Movarounnahrlik mutafakkirlar Imom ad-Dorimiy, Qaffol Shoshiy, Mahmud Zamaxshariy islomda tafsir ilmini, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy hadis ilmini, Abu Mansur Moturidiy, Abul Mu'in an-Nasafiy kalom ilmini, Abu Zayd Dabusiy, Burxoniddin Marg'inoniy fiqh ilmini, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband tasavvuf ta'limotini o'z asarlari bilan yuksak darajaga ko'tardilar. Islom falsafasi va ilm-ma'rifati ana shunday asarlar tufayli dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatining ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda olamdagi o'zgarishlar, hayotdagi yangilanishlar bu dinning asl tarixiy qadriyatlarini tiklashni, uning madaniy va ma'naviy qudratini adolat bilan o'z o'rniga qo'yishni, unga xolislik bilan baho berishni talab qilmoqda. Boshqacha aytganda, endilikda ma'rifiy islomni rivojlantirish, xalqimizning milliy-diniy qadriyatlarini tiklash, buyuk

ajdodlarimizning yaratib ketgan asarlarini keng o‘rganish, ular merosini targ‘ib-tashviq qilish davlat siyosatining muhim dasturilamaliga aylandi.

Ma’lumki, islom dinining shakllanishi va rivojlanishi, uning insonlar tomonidan qabul qilinib, ijtimoiy-ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylanishi, o‘z navbatida, ko‘plab “ulum ul-islomiya” yoki “ulum ush-shar’iya” nomlari bilan islom ilmlari ham shakllana boshlanishiga zamin yaratdi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastavval Madina davridayoq asosiy uch islom ilmi:1. Qiroat va tafsir ilmi; 2. Hadis ilmi; 3. Fiqx ilmi shakllangan edi.

Bugungi kungacha, bu ilmlarni o‘ziga xos jihatlari, bahs mavzulari, klassifikatsiyasi, ularni o‘rganish zaruriyati va ahamiyati kabi masalalarni qamragan ko‘plab asarlar yaratilgan. Ular jumlasidan, Abu Homid al-G‘azzoliyning “Ehyou ulum id-din”, Ibn Xaldunning “Muqaddima”, Muhammad bin Abu Bakr al-Maroshiyning “Tartibul ulum”, Xoja Xalifazodaning “Kashf uz-zunun” kabi ko‘plab manbalarni keltirish mumkin. Mashhur musulmon olimlaridan biri Sayyid Abdulxakim Arvasiy “Maktubot”ida islom ilmlarini ikkiga ulumi aqliya, ya’ni tabiiy va ijtimoiy ilmlar va ulumi naqliyaga, ya’ni diniy ilmlarga ajratadi. Birinchi guruh ilmlari qaerda va kimdan bo‘lsa ham o‘rganilishi farzi kifoya hisoblangan. Bunga Muhammad alayhissalomning *“Xitoyda bo‘lsa ham ilmni o‘rganinglar”* degan hadislari asos sifatida keltirilgan. Ikkinchi guruh ilmlarini faqat ahli sunna val jamoa olimlari tomonidan yozilgan asarlardan o‘rganish mumkin. Bu ilmlar islom shariatining eng muhim sanalgan to‘rt manbai: Qur’on, hadis, ijmo‘ va qiyosdan olingan holda shakllangan. Barcha islom ilmlari asosan sakkiz qismga ajratilgan:
1. Ilmi tafsir. 2. Ilmi usul ul-xadis. 3. Ilmi hadis. 4. Ilmi usul ul-kalom. 5. Ilmi kalom. 6. Ilmi usuli fiqh. 7. Ilmi fiqh. 8. Ilmi tasavvuf.
Aksariyat manbalarda bu sakkiz xil ilm quyidagicha taqsimlangan: 1. Ilmi qiroat. 2. Ilmi usul ul-xadis. 3. Ilmi hadis. 4. Ilmi tafsir. 5. Ilmi kalom. 6. Ilmi usuli fiqh. 7. Ilmi fiqh. 8. Ilmi adab. Ya’ni tasavvuf, ilmi usuli kalom kabi ilmlar bu taqsimlarga kiritilmagan.
Sanab o‘tilgan islom ilmlarini o‘rganish uchun arab tiliga mansub 12 ilmni bilish zarur bo‘lgan. Ular: sarf, ishtiqoq, naxv, kitobat, ishtiqoqi kabir, lug‘at, matni lug‘at, bayon, maoniy, badi’, balog‘at, insho. Bundan yuksak darajadagi islom olimi bo‘lishi uchun 8+12 ilmlarni – ulumi naqliyani, shuningdek, mazhab asoschilarining ijtihodlarini bilishi va bu masalalarni ijtimoiy-tabiiy ilmlar bilan uyg‘un muhokama qila olishi uchun keng zamonaviy bilimga ega bo‘lishi kerak degan xulosalar chiqarilgan.
Islom ma’rifatida ilmlar turli asoslarga ko‘ra, turlicha qismlarga ajratilgan va tasnif qilingan:1. Shariat (islom qonunchiligi) bilan bog‘liqligiga ko‘ra,

ikkiga a) shar'iy ilmlar ya'ni, Qur'oni karim qiroati, hadis, fiqh va shunga o'xshash ilmlar; b) shar'iy bo'lmagan ilmlar, ya'ni tibbiyot, algebra kabi ilmlar.2. Bu ilmlarni o'rganish hukmiga ko'ra beshga bo'lingan:A) Farz (o'rganish zarur) bo'lgan ilmlar. Bu ham o'z navbatida, ikkiga: farzi ayn va farzi kifoyaga ajratilgan. E'tiqodiy va kishi kundalik hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan fiqhiy hukmlarni o'rganish har bir musulmon uchun farz ul-ayn hisoblangan. Masalan, savdo bilan shug'ullanuvchilar savdodagi mumkin bo'lgan va ta'qiqlangan narsalar haqida bilishi farz ul-ayn bo'lib, hatto ba'zi olimlar: savdoning hukmlarini o'rganmay turib, bu ishga kirishishga ruxsat berilmaydi, deganlar. Bunda inson duch kelishi mumkin bo'lmagan holatlarni o'rganish zarur hisoblanmagan. B) Farz ul-kifoya ilmlariga Qur'oni karimni to'liq yod olish, arab tili yoki fiqh ilmini to'liq o'rganish va ba'zi dunyoviy ilmlar kiritilgan.V). Mandub – ya'ni tavsiya va targ'ib qilinadigan ilmlar, ya'ni bunga shariat ilmlarining nozik masalalarini o'rganish bilan mandub hisoblangan.G). Muboh – ya'ni ruxsat etilgan, tarix, adabiyot kabi ilmlar.D). Makruh – ya'ni qo'llab quvvatlanmaydigan ilmlar.E). Harom –ruxsat etilmagan ya'ni bu ilmlarni o'rganish gunoh hisoblangan. Masalan, sehr ilmi.

3. O'rganish darajasiga ko'ra, ilmlar uchga taqsimlangan:A) al-iqtisor – birinchi yoki quyi;B) al-iqtisod – o'rta;V) al istiqso – oliy.

Har bir ilmni bu uch xil darajasi bilan o'rganish farz ul-ayn hisoblanilmagan. Buni Imom G'azzoliy "aqoid" ilmi misolida ko'rsatib beradi: ahli sunna val jamoa aqidasini dalil-isbotlarsiz o'rganish – birinchi daraja. Dalillar asosida bid'at ahli bilan bahs qila oladigan darajada o'rganish –o'rta daraja. Yoki hadis ilmini o'rganishning birinchi darajasi muhaddislar Imom Buxoriy va Imom Muslim asarlarida keltirilgan hadislarni bilishi, qolgan ishonchli musnad kitoblarida kelgan hadislarni bilishi o'rta darajasidir.

Islom ilmlari tasnifiga bag'ishlangan asarlarni tadqiq qilish asosida yana quyidagi tasniflar keltirilgani namoyon bo'ladi:1. Nazariy va amaliy ilmlar; 2. Arabiy va arabiy bo'lmagan ilmlar; 3. Haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan ilmlar; 4. Asbobga ehtiyoj sezadigan va asbobsiz ilmlar; 5. Azhon (zehnlar) va alfoz(lafzlar)ga taalluqli ilmlar kabi.

Ilmlarning yuqorida ko'rsatilgan ko'plab tasniflarga ajratilishi ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ishlardan hisoblangan. Ya'ni dastlabki, o'rganuvchi bu taqsimlardan ilmlarning qaysi biri uning uchun zarur va yoki zarur emasligini bilishiga yordam bergan. Bilimlarni egallashda oddiylikdan murakkablik tomon borilgan. Kim qaysi ilmlarni o'rganmoqchi bo'lsa, eng birinchi, bu ilmning asoslarini va tamoyillarini

o‘rganishi shart qilingan, keyin sekin-asta nisbatan chuqur masalalarga o‘tilgan.

Ilmlar tasnifi, o‘z navbatida, ko‘plab ilmlarning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Asosiy ilmlar (asl) yana ko‘plab ilmlarga (far’lar) bo‘lingan. Masalan, hadis ilmi: hadis sharhi ilmi, nosix va mansux ilmi, xadis roviylari ilmi, ta’nalarni daf etish ilmi, xadis ramzlari va ishoralari ilmi, nabiy alayhissalom so‘zlarini ta’vil qilish ilmi kabi, tafsir ilmi: makkiy va madiniy ilm, sababi nuzul ilmi, jam va tartib ilmi, sura, oyat, kalima va harflar ilmi, hofizlar va roviylar ilmi, mufassir odob va shartlari ilmi kabi, fiqh ilmi: faroiz (meros) ilmi, fatvolar ilmi, shariat hukmlari ilmi kabi ko‘plab ilmlarga ajratilgan.

Ilmlar tasnifi haqida gapirganda, uni tadqiq etishning bugungi kundagi ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Bu ilmlar islom dinining asosi hisoblanib, ularni o‘rgangandan so‘nggina, islom dini asoslari haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi. Ma’naviyatning yuksalishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ulkan mezon – din ilmiy-falsafiy jihatdan ham ma’naviyatning elementi hisoblanadi. Islom dinining mazmun-mohiyati yuqorida sanalgan ilmlarda tushuntirib berilar ekan, ularni manbalar asosida o‘rganish va ilmiy tadqiq etish xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning muhim omillaridan hisoblanadi[212].

Islom dini san’at bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u san’atni axloqiy va nafosat me’yorlari asosida bayon qiladi. Islom dini tarqalgan hududlarda insonga estetik zavq beradigan san’at turlari rivoj topdi. Islom dini din-diyonatga mos keladigan san’at turlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. San’at insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. San’atning ijtimoiy, estetik vazifalari juda keng va xilma xil bo‘lib, san’at— inson uchun estetik zavq-shavq manbaidir. San’at inson hayotiga go‘zallik baxsh etadi, odamlarda voqe’likka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi, odamlarning badiiy estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma’lum dunyoqarashni shakllantiradi. Islom insonni ijtimoiy faollikka, boshqalarga hurmat bilan qarashga, ma’rifatli bo‘lishga da’vat qiladi. Islom madaniyati, islom san’atining negizini jimjimador naqsh, sirli-sinoatli she’riyat, musiqa va boshqa san’at asarlari tashkil etadi.

Inson islom madaniyatining, san’atining mohiyatini, Qur’oni karim suralari va oyatlarini, Hadis kitoblarini, ularga yozilgan tafsir ya’ni sharhlarni o‘rganmay islom mutafakkirlari asarlarini, islomdan bahra olgan ilohiy va dunyoviy fanlarni, falsafa, tarix, she’riyat, me’morchilik, axloq, urf-odatlarning mohiyatini bila olmaydi.

[212] https://xadicha. Uz / 2855

"Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi" deyiladi islom ta'limotida. Islom insonni go'zallikka oshno bo'lishga da'vat etadi. Alloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod etgan olam ham, u o'z bandalariga hadya etgan noz-ne'matlar ham go'zaldir. Shuning uchun Allohning ismi sifatini ifodalovchi so'z ham, musiqa ham, uning qudratini namoyon etuvchi binolar-me'morchilik obidalari ham, Allohning irodasi, nomi, sifati bilan yaratilgan bu olamdagi narsalarning hammasi go'zal bo'lishi kerak.

Islom dini san'at orqali odamlarning ruhiyatiga, hissiyotiga ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir qiroat orqali, o'qish, arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, san'at turlari orqali insonning ongi va qalbiga singdirib boriladi. Islom san'ati ilohiy tafakkurni o'zida ifodalab, bu holat she'riyatda (g'azal), musiqada (maqom), tasviriy san'atda (naqsh), me'morchilikda (masjid, maqbara, minora, madrasalarning shakli) sifatida namoyon bo'ladi. Islom diniga e'tiqod qiluvchi kishi borlig'ini Allohga bag'ishlab, ilohiyot qoidalariga, hukmlariga itoat etadi. Shuning uchun masjidlarda muqaddas so'zlarga, Alloh ismi va sifatlarini ramziy ifodalovchi naqsh va yozuvlarga alohida e'tibor qaratiladi. Islom dinida me'moriy obidalardagi bir-biriga chirmashib ketgan "Kufiy" va "Suls" xati yozuvlari musulmon kishining Alloh taolo bilan tanho muloqotining sog'inchli muloqotini ifodalaydi. Naqsh va yozuvlar inson qalbiga Allohning go'zalligini singdiruvchi ramz va timsollar bo'lib, naqsh - xotirjamlik, ruhiy osoyishtalik, cheksizlikni o'zida ifodalaydi. Me'moriy binolarning naqshlari o'zida oliy barkamollik va komillikni, Allohning huzuriga yo'l olish va uning jamoliga yetishni ham ifodalaydi. Me'morchilik va hattotlik islom mohiyatiga ko'ra ilohiy So'zning yozma shakl ko'rinishini o'zida aks ettiradi. Me'morchilik san'ati ramz-timsollariga ko'ra masjid – Allohning uyi – ibodat dargohi, madrasa – Allohning So'zi o'qiladigan – ilm o'rganiladigan maskan. Bu me'moriy obidalarning peshtoqlari, gumbazlari va muqarnaslari, ichki va tashqi devorlaridagi naqshlar va bitiklar muqaddas so'zlarning shakli sifatida e'tirof etiladi. Minora islom me'morchilik san'atida Allohning yagonaligini o'zida ifodalaydi. Uning balandligi va viqorli turishi, tepasidan hamma narsaning ko'rinishi – Allohning ulug'ligi va hamma narsani bir ko'zda ko'rib turishi timsolidir. Minora uzoq yo'ldan kelayotgan karvonlarga yo'l ko'rsatkich – mayoq, e'tiqod va go'zallik ramzi, san'at asari vazifasini bajaradi. Islom dinida me'morchilik san'atidagi binolarning shakli va bezaklari musulmon kishining ma'naviy-ruhiy olami, turmush tarzi, hayot ma'nosi, yashashdan maqsadi va mazmunini ramziy ifodalaydi.

Islom dinida musiqa san'ati ham ilohiy kashfiyot sifatida talqin qilinadi. Fazoviy tartib – qoidalar va maqomlarning musiqiy tuzilishi muayyan uyg'unlikni tashkil qiladi. Musiqadagi maqom san'atida yettita maqomning yetti payg'ambardan meros bo'lib qolganligi ta'kidlanadi. Rost – Odam Atodan, Hijoz – Ibrohimdan, Rahoviy – Ismoildan, Ushshoq – Yoqubdan, Iroq – Yusufdan, Ko'cha – Yunusdan, Husayniy – Dovud payg'ambardan meros bo'lib qolgan deb hisoblanadi.

Xattotlik san'ati Sharq mamlakatlarida o'ziga xos alohida yo'nalish kasb etgan va fan darajasiga ko'tarilgan bebaho san'at turi bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan bu o'lkaga "Qur'on karim" nozil qilingan arab yozuvi kirib keldi. Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida VII asr oxiridan Qur'on yozuvi ilmu fan va davlat ishlarida rasmiy yozuvga aylandi. Arab yozuvining 100 dan ortiq turi mavjud bo'lib, 28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli "Xatti ma'qaliy" bo'lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. VII asrdan boshlab uning o'rnini arab yozuvining eng qadimiysi va mashhuri hisoblangan "Xatti kufiy" egallaydi. So'ngra xatti ma'qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san'atkorona yaratilgan 8 xil asosiy uslubi maydonga kelgan. Bular: suls xati; nasx xati; muhaqqaq xati; rayxoniy xati; tavqi' xati; riqo' xati; devoniy xati; nasta'liq xati. Qur'oni karim hozirgi vaqtda asosan nasx xatida chop etiladi. Riqo' yozuvi arab yozuvining qo'lyozma shaklida o'z ifodasini topgan. Yana suls deb ataladigan yozuv uchun qalam uchi kamida 3 millimetr keng bo'lishi kerak. Nasx yozuvi uchun 1 millimetrli yoki undan ham kichikroq qalamni ishlatsa bo'ladi. Arab yozuvining muhim xususiyatlaridan yana biri – u stenografik yozuv xususiyatiga egadir. Markaziy Osiyo xattotlik san'ati taraqqiyoti tarixiga bir nazar solsak, VII–X asrlarda Arab xalifaligining markaziy shaharlari – Makka, Ko'fa va Basrada yaratilib, keyinchalik xalifalikning boshqa hududlariga tarqalgan xat turlaridan foydalangan holda Movarounnahr xattotlik maktabi vujudga keldi. Ahmad ibn Umar Ash'as Abu Bakr Samarqandiy (XI asr), Ahmad Tabibshoh Movarounnahriy (vafoti 1215 yil), Ali Banokatiy (XIII asr), Jamshid Shoshiy (XIV asr) kabi xattotlar ushbu maktab vakillari sifatida dong taratganlar. XIV–XV asrlarda ilm-fan, madaniyat va san'atning barcha sohalarida bo'lgani kabi xattotlik san'atida ham misli ko'rilmagan yuksalish kuzatildi. Shu davrdan boshlab Movarounnahrning turli mintaqalarida bir necha xattotlik maktablari paydo bo'ldi. XV asrda Temuriylar sulolasi hukmdorlarining qo'llab-quvvatlashlari bilan vujudga kelgan Hirot xattotlik maktabi Sultonali Mashhadiy (1437–1520), Darvesh Muhammad Taqiy Hiraviy (XV asrning birinchi yarmi), Abduljamil Kotib

(vafoti 1505/1506 yil) kabi vakillari bilan elga tanildi. XVI asrda Shayboniylar sulolasi xonlari sa'y-harakatlari bilan asos solingan Buxoro xattotlik maktabi Mirali Hiraviy (vafoti 1557 yil), Mir Ubayd Buxoriy (vaf. 1601 y.), Mir Husayn Ko'lankiy Buxoriy (XVI asr), Sayyid Abdulloh Buxoriy (vafoti 1647), Hoji Yodgor (vafoti 1663), Ahmad Donish (1826–1897) kabi vakillari bilan shuhrat qozondi. XVIII asr boshlarida Xiva va Qo'qon xonliklari hududida Xorazm va Farg'ona xattotlik maktablari, XIX asrda esa Samarqand va Toshkent xattotlik maktablari shakllandi.

Xattotlik san'atidan me'morchilik va xalq amaliy san'atida ham keng foydalanilgan. Yurtimizda azaldan me'moriy inshootlar – masjidlar, madrasalar va maqbaralarning tashqi va ichki devorlari, peshtoqlari turli naqshlar bilan birgalikda xattotlik uslublarida yozilgan bitiklar – Qur'oni karim oyatlari, hadislar, hikmatli so'zlar va she'riy parchalar bilan bezatilgan. Sharqda xattotlarning xatlari ma'no ifodasidan tashqari, kishini hayajonga solib, unga estetik zavq bergan. Har bir xatga san'at mo''jizasi sifatida qaralgan.

Islom dini jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ilm-fan, madaniyat musulmonlar orqali butun dunyoga tarqaldi. Musulmonlar diniy ilmlar bilan bir qatorda tabiiy fanlarda ham ko'pgina yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Islomiy madaniyat jahondagi ko'plab xalqlarning turmush tarzi, e'tiqodi, hayot tarziga aylandi.

Islom dinining ta'siri turli millat va elatlarning falsafalarida, dinlarida, madaniyatlarida namoyon bo'lib, ularning ichki dunyolari, ma'naviyatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

Fransiyalik olim Jolivet Kostelot o'zining "Tarix qonuni" kitobida: "Payg'ambar vafotidan keyin arablar katta taraqqiyotga erishdilar. Islom yoyilishi zamon talabi edi. Shu bois musulmonlar taraqqiyoti juda tezlab ketdi. Natijada aqlni lol qoldiruvchi Islom madaniyati yuzaga keldi. Fathlar bilan birga Islom madaniyati hamma joyga yoyildi. Islom madaniyatining asari san'at, adabiyot, she'r va ilmlarda aks etdi. Shu bilan falsafa, falakiyot ilmi, kimyo, tibbiyot va ruhiy ilmlar mash'ali bir qancha asr musulmonlar qo'lida qoldi. Ular ixtirochilarga aylandilar. Shunchaki ixtirochilar emas, balki ilm asoslarini juda o'tkir va o'ta qobiliyat bilan qo'lga kiritgan ixtirochilar edi. Islom madaniyatining qoldirgan asari hammani lol qoldirgandi. Darhaqiqat, X asrdan to XIV asrgacha taraqqiyotiga sabab bo'lgani va Evropada o'rta asrlarda sust harakat qilgan ilmiy falsafiy fikrni Islom madaniyatidan olgani uchun Evropa Islom madaniyatidan qarzdordir. Islom madaniyati, musulmonlarning ilmi, odob-axloqi, san'ati oldida Evropa qoloq va johil ko'rinardi. Ilm va madaniyat bayrog'ini musulmon olimlari ko'targan, hatto Evropada ham Islom

madaniyatidan o‘zga madaniyat bo‘lmagan to‘rt asr mobaynida musulmonlar fikridan foydalanganini Evropa tan oladi”[213], deb yozadi.

Gustav Lebon o‘zining “Arablar madaniyati” nomli kitobida bunday deydi: “Musulmonlarning tadqiqotga bag‘ishlagan himmati kishini hayratga soladi. Ilm va tadqiqotda musulmonlar bilan teng millat bo‘lishi mumkin, ammo taxminimcha musulmonlardan ustuni bo‘lmagan. Musulmonlar hukmiga o‘tgan shaharlarda masjid va madrasa qurishga katta e’tibor berardilar. Agar shahar katta bo‘lsa, u holda bir emas, bir nechta masjid va madrasa qurilardi. Ana shular qatorida 1173 yilda vafot etgan Benyamin Totbaliy guvoh bo‘lgan Iskandariyadagi 20 ta madrasa ham turadi. Bundan tashqari Bag‘dod, Qohira, Kordova va shunga o‘xshash katta shaharlarda labaratoriya, rasadxona hamda ilmiy tadqiqotga asqotadigan barcha sharoit yaratilgan, kitobga boy kutubxonalarga ega jome’a – universitetlar qad ko‘targandi. Musulmon tarixshunoslari rivoyatiga ko‘ra, birgina Ispaniyada arablarga tegishli yetmishta kutubxona bo‘lgan. Xalifa “Al-hakamus-saniy”ning Kordova shahridagi xos kutubxona tokchalarida olti yuz ming kitob terilgandi. Shulardan qirq to‘rt jildi fihrist – mundarija bo‘lgan. Shu sababli dono Charl to‘rt yuz yildan keyin Fransiyaning qirol kutubxonasida to‘qqiz yuz jilddan ziyoda kitob jamlay olmagan. U jamlagan kitoblarning uchdan bir qismi ilohiyot ilmiga tegishli bo‘lgan, deyiladi”.

Tarixchilarning yozishlaricha birinchi ilm dargohi ko‘pchilik da’vo qilganidek Evropada emas, balki 3-xijriy asrda Marokko mamlakatida tashkil topgan. U madrasa “Jome’atul Qarvin” nomi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Ilm dargohida musulmonlar bilan bir qatorda G‘arb mamlakatlaridan ham talabalar kelib dunyoviy bilimlardan ta’lim olishgan. Xristian olimlaridan hisoblangan Jerbert ismli kishi aynan o‘sha ilm dargohida ta’lim olgan. Jerbert birinchi bo‘lib arab tilida yozilgan ilmiy asarlarni o‘z tiliga tarjima qilib, musulmonlardan o‘rgangan bilimlarini Evropaga tarqalishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik Evropa qonunchiligida islom qonunchiligi bilan kelishtirib, davlat boshqaruv va qonunchilik ishlarini musulmon shariati asosida qaytadan ko‘rib chiqish fikrini o‘rtaga tashladi. Shunday qilib Fransiya qonunlari islom qonunchiligi asosida qaytadan yozildi.

Robert Briffault “Evropaning barcha sohasidagi taraqqiyotida Islom madaniyatining xizmati beqiyos va Evropa taraqqiyotiga katta ta’sir o‘tkazgan keskin asarlari bor” deb yozadi.

Yana bir g‘arb olimi Margoliuz Rodvell “Tadqiqotchi olimlar ittifoq qilgan narsalardan biri shuki: Qur’on oxirgi kitob bo‘lishiga qaramasdan

[213] https://islom.uz/maqola/3450

tarix asosi bo‘lmish katta diniy sahifalar – samoviy kitoblar orasida oliy o‘rinni egallaydi. Ayni paytda Qur’on insoniyatga katta ta’sir o‘tkazishda boshqa kitoblardan oldinda turadi. Shubhasiz, Qur’on yangi insoniy fikr yaratdi. O‘ziga xos xulqiy madrasaning mustahkam asosini barpo etdi”, degan fikrni ilgari suradi.

Evropalik tarixchi Jon Duanbord “Agar islom Ispaniyaga etib kelmaganda edi, bizning Evropamiz haligacha o‘zining vaxshiyligida, johillik hayotida davom etgan bo‘lardi”, deb hisoblaydi.

Musulmon ilm-fani va madaniyati jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan holda rivojlanib bordi. Diniy ilmlarda peshqadam ulamolar bilan bir qatorda dunyoviy ilm-fanda ham peshqadam bo‘lgan musulmon mutafakkirlarining xizmatlari bugungi kunda ham chuqur hurmat va ehtirom bilan eslanib kelinmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Islom dinida inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari ilgari surilib, odamlar halollik, poklik, adolat, insof, diyonat, insonparvarlik, adolatparvarlik, bag‘rikenglikka, mehr-shafqatga da’vat etilgan.
2. Islom dinida inson atrof muhitni muhofaza qilishga, halol mehnat qilishga, mehr-muruvvatli bo‘lishga, vatanni himoya qilishga da’vat etilgan. Qur’oni karim va hadislarda odamlar ilm olishga, tinchlikni saqlashga, muruvvatli bo‘lishga chaqirilgan.
3. Islom dinida nikoh va oilaviy munosabatlarda er va xotinning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan bo‘lib, er tomonidan o‘z xotinini uy bilan, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ta’minlashining zararligi, ayolning mulk huquqiga, meros huquqiga egaligi, farzandlar tarbiyasida ota-onaning majburiyatlari belgilab berilgan.
4. Islom dinida farzandning ota-ona oldidagi burch va mas’uliyati belgilab berilgan bo‘lib, Qur’onning “Al-Isro” surasining 23-24 oyatlarida ota-onaga yaxshilik qilish Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi o‘rinda turishi ta’kidlanadi. Farzand ota-onaga nisbatan hurmat saqlashi, ularning so‘zlarini qaytarmasligi zarurligiga e’tibor qaratilgan.
5. Islom dinida axloq va odob masalasiga alohida e’tibor qaratilib, odamlar tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka da’vat etilgan. Qur’oni karimda saxovat, jasorat, sabr-qanoat, qo‘li ochiqlik, bag‘ri kenglik, muruvvatlilik, to‘g‘rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e’tibor berilgan.
6. Islom dinida odob-axloq madaniyati, huquqiy munosabatlar va insonni ulug‘lashga oid muhim ko‘rsatmalar ilgari surilgan. Qur’oni karimda

insonparvarlik, tinchliksevarlik, boshqa dinlarga nisbatan murosa bilan qarash targ‘ib qilingan. Islomda fan, ta’lim, madaniyat va san’atga munosabat masalalari yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar

Islom, inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, adolat, tolerantlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, vatanparvarlik g‘oyalari, Islom dinida nikoh va oila munosabatlari, er va xotinning majburiyatlari, Islomda ota-onaga munosabat va farzand tarbiyasi, Islomda axloqiy qadriyatlar, do‘stlik, o‘zaro yordam, sog‘lom turmush tarzi, fan, ta’lim, madaniyat, san’at va me’morchilik.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Islom dinida inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari xaqida qanday fikrlar bayon qilingan?
2. Islom dinida atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari xaqida nima deyilgan?
3. Islom dinida vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti haqida qanday fikrlar bildirilgan?
4. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar talqini, ayolning maqomi haqida bildirilgan fikr va g‘oyalar?
5. Islom dinida er-xotinlarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida bildirilgan fikrlar?
6. Islom dinida ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat to‘g‘risida qanday fikrlar ilgari surilgan?
7. Islomda axloqiy qadriyatlarning bayon qilinishi?
8. Islomda do‘stlik va o‘zaro yordam haqidagi g‘oyalarning yoritilishi?
9. Islom dinida sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti haqida nima deyilgan?
10. Islom madaniyati tarixi haqida ma’lumot bering?
11. Islom dinida fan va ta’lim taraqqiyotining hususiyati haqida gapiring?
12. Islom dinining san’at taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri qanday?
13. Islom dini va uning arxitektura yodgorliklari takomillashuviga ko‘rsatgan ta’siri?
14. Islomning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida ma’lumot bering?

XV BOB. DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK

Dinda chuqur ketgan, mutaassib kishilar o‘z ibodatlari bilan mag‘rurlanish hissiga mubtalo bo‘ladilar. Doimo o‘zini so‘zsiz haq deb bilib, fikrida qattiq turish olish, boshqalarni esa nohaq deb bilish mutaassiblikka xos xususiyatdir. Mutaassiblik insonda o‘zgani tahqirlaydigan, uning insoniy haq-huquqlarini e’tirof etmaydigan muayyan xatti-harakatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi va uning tabiatiga singib boradi. aks etadi.

1-§. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo‘lishi, mohiyati, asoslari va manbalari

Mutaassiblik – biron e’tiqodga yoki dunyoqarashga o‘ta berilganlik, o‘z fikrida qat’iy turib olib, boshqalarning fikrini inobatga olmaslik hamda inkor qilish va hamisha o‘zini haq deb bilishlikdir. Hozirgi vaqtda mutaassiblik “fanatizm” ham deyiladi. Mutassib (fanat) kishi ko‘r-ko‘rona hox to‘g‘ri, hox noto‘g‘ri bo‘lsin o‘ziga ma’qul bo‘lgan bir fikrda mahkam turib, o‘zini fikrini haq, boshqalarning fikrini nohaq deb e’tiqod qilgan holda o‘z fikrini amalda ko‘rsatishga harakat qiladi. Mutaassiblik “dinda chuqur ketish, diniy arkonlar va ibodatlarni bajarishda haddidan oshish, to‘g‘ri yo‘l deb noto‘g‘ri yo‘lga burilish” degan ma’nolarni bildiradi. Mutaassiblik va fanatizm bir-biriga ma’nodosh tushunchalar bo‘lib, bu tushunchalarning aksi bag‘rikenglik so‘zida o‘z ifodasini topadi.

1. Jamiyat hayoti va inson faoliyatida mutaassiblikning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, bular diniy mutaassiblik, irqiy mutaassiblik, qabilaviy mutaassiblik, tabaqaviy yoki ijtimoiy mutaassiblik, fikriy mutaassiblik kabilardan iboratdir. Qur’oni karimda *“Dinga zo‘rlab kiritish yo‘q. Zero, to‘g‘ri yo‘l zalolatdan ajrab bo‘ldi”* (Baqara surasi: 256-oyat) degan oyat mavjud bo‘lib, ulamolar bu oyatni diniy mutaassiblikdan qaytaruvchi dalil sifatida keltiradilar.

2. Mutaassiblik tufayli tarixda ko‘plab urush-janjal va xunrezliklar bo‘lib o‘tgan. Mutaassiblikning xavfli tomoni shundaki, mutaassiblikka moyil odamlar jamiyatda beqarorlik to‘lqinini keltirib chiqaradilar, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadilar. Mutaassiblikdagi ommaviylik muayyan xatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlik hissini yo‘qotib harakatga ommaviy tus beradi. O‘zining shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi zo‘ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo‘lishiga olib keladi.

3. Bugungi kunda jahonning ko‘pgina mintaqalarida ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirib, begunoh kishilarning hayotiga zomin

bo‘layotgan mutaassiblarning ekstremistik xatti-harakati bu illatga qarshi birgalikda kurash olib borishni taqozo qilmoqda. Mutaassiblikning shaxs va jamiyatga yetkazadigan zararlari juda katta bo‘lib, mutaassib – darg‘azab, jazavali, asabiy, hissiyotga berilgan va qattiq hayajonga tushuvchi shaxs sifatida o‘z g‘oyalarini, qarashlarini odamlar o‘rtasida faollik bilan targ‘ib qilishga harakat qiladi. Mutaassib voqe’likni o‘zining asl holatida emas, balki o‘zining tasavvuri, dunyoqarashidan kelib chiqib ko‘rishga harakat qiladi. Mutaassib faqat o‘zini haq, o‘zgalarni nohaq deb bilgani uchun jamiyat hayotida ixtiloflarni keltirib chiqaradi. U boshqalardan o‘zining talabi bilan yashashni talab qiladi, agar kim uning fikriga qo‘shilmasa, unday odamlarni adashgan odam deb hisoblab, uni chetlashtirishga harakat qiladi. Mutaassib haqiqatni tan olmasdan, voqe’likni o‘zining foydasiga burishga, haqiqatni soxtalashtirishga harakat qiladi. U mo‘‘tadil ilmiy bahs orqali haqiqatga erishish yo‘llarini o‘zining nizo qo‘zg‘aydigan, ixtilof kuchaytiradigan bahslari bilan barbod qiladi. Natijada jamiyatlar, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida keskinlik ruhi yanada kuchayadi.

4. Mutaassib o‘z fikriga ega bo‘lmasdan, u o‘zgalar fikri bilan harakat qiladi. Uni faqat ichki emotsional tuyg‘u boshqaradi. Shu bois u muqobil tomonning fikrini qabul qilish va hurmat qilish imkoniyatiga ega emasdir. Biron-bir nuqtai-nazarni faqat u o‘zining qoidalariga mos kelmagani uchun rad etadigan har qanday odam bashqalarga nisbatan toqatsiz va mutaassib bo‘lib hisoblanadi.

5. Dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik mutaassiblikka sabab bo‘ladi. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiylashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dinni noto‘g‘ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishga urinishlar amalga oshiriladi. Shuning uchun jamiyat hayotida diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Bugungi kunda «aqidaparastlik» so‘zi «mutaassiblik» so‘zi bilan birgalikda qo‘llanib kelinmoqda.

6. Mutaassiblik ilmiy, ijtimoiy, aqidaviy sohalarda doim uchraydigan tushuncha bo‘lib, u din va jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Mutaassiblik diniy – aqidaviy va fiqhiy sohalarda ham namoyon bo‘lib, u dinning turli ijtimoiy va siyosiy oqimlarga bo‘linib ketishiga sabab bo‘ladi.

Islom dinida diniy mutaassiblik kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri diniy ilmlar – Qur’on, hadis va shariatni bilmaslikdir.

Islom dini mutaassiblikni qoralaydi, diniy e'tiqodda islom diniga e'tiqod qiluvchilarni bag'rikenglikka da'vat etadi. Hadislarda *"Yengil qiling va qiyin qilmang. Xushxabar bering va nafratlantirmang. O'zaro yordam bering va ixtilof qilmang",(*Imom Buxoriy rivoyati) degan so'zlar bayon qilinib, musulmonlar ixtilofga emas, balki hamkorlikka da'vat etilgan.

7. Qur'oni karimda *"A'robiylar (shari'at ilmidan bexabar kishilar) kufru nifoqda qattiqroq va Alloh O'z payg'ambariga nozil qilgan narsalarning chegaralarini bilmaslikka loyiqroqdirlar. Alloh bilim va hikmat sohibidir,"* ("Tavba" surasi 97-oyat) – degan oyat mavjuddir. Islom dinida mutaassiblik qoralanadi, islom diniga e'tiqod qiluvchilar bag'rikenglikka da'vat etiladi. Shu bilan birga turli firqalarga bo'linish, bilimsizlik, mutaassiblik ham islom dinida qoralanadi. Islom tarixida dinda chuqur ketib, haddidan oshish natijasida musulmonlar ichida ko'plab firqalar vujudga kelgan bo'lsa, hozirgi davrda ham bu holat davom etmoqda. O'tmishda xorijiylar, mu'taziliylar, marisiylar, rofiziylar, qadariylar, jahmiylar Islom dinida bo'linishni boshlab unga katta zarar etkazishgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham "al-qoida", "musulmon birodarlar", "hizbu-t-tahrir", "hizbulloh", "tablig'chilar", "akromiylar", "nurchilar", "soxta salafiylar", "jihodchilar" kabi ko'plab firqalar dinni targ'ib qilish bahonasida aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm g'oyalarini tarqatishga harakat qilmoqdalar. Ekstremistik, terroristik tashkilotlar din niqobi ostida siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda odamlar ongida dinga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga ham sababchi bo'lmoqdalar.

8. Islom dini ezgulikka asoslangan mo''tadil din bo'lib, diniy mutaassiblikka va dinga chuqur berilishga doimo qarshi bo'lgan. Islom dini mutaassiblikka xayrixohlik bildirmaydi. Aksincha, insonni teran o'ylashga, boshqalarga nisbatan murosali bo'lishga chaqiradi.Islom dinining poydevori bag'rikenglik va engillik asosiga qurilgan bo'lib, u doimo mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashib kelmoqda.

Jamiyat hayotida mutaassiblik va aqidaparastlikning ko'pgina salbiy oqibatlari mavjud bo'lib, bular o'zgalarga nisbatan tahqir va malomatlarni yog'dirish, o'zganing fikrini eshitmaslik hamda xolislikning yo'qolishi natijasida haqiqatdan yuz o'girish, kishilarni dindan bezdirish, musulmonlar orasida kelishmovchilikni keltirib chiqarish kabilardan iboratdir.

9. Mutaassiblik har bir diniy konfessiyada topiladi. Biroq, so'nggi vaqtlarda jahonda sodir bo'layotgan turli terroristik hurujlar, diniy masalalardagi ixtiloflar, to'qnashuvlar natijasida ko'proq Islom mutaassibligi haqida gapirilmoqda. Lekin islom dini mutaassiblikka qarshi

bo‘lib, har qanday diniy ta’limotni tahlil qilganda diniy mutaassiblikning asosiy alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasiga asosiy e’tibor qaratiladi.

1) Diniy mutaassiblikning birinchi alomati **boshqa din vakillariga nisbatan toqatsizlikning mavjudligidir.** Islom dini ushbu masalada o‘ziga e’tiqod qiluvchilarni yaxshilikka da’vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Islom dini yaxshilik va yuqori darajadagi axloqni zo‘rlik va kuch ishlatishga nisbatan ustun deb hisoblaydi.

2) Diniy mutaassiblikning ikkinchi alomati**dunyoqarashlarning o‘ta torligidir.** Islom dini o‘ziga e’tiqod qiluvchilarni doimo ilmga da’vat qilib kelgan. Hadislarda *"Ilm talab qilish har bir muslim va muslima uchun farzdir",* deyilgan. Vahiyning birinchi so‘zi ham *"O‘qi!"* - bo‘lgan. Musulmon olimlari ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shishgan.

3) Diniy mutaassiblikning uchinchi alomati **tanqidni to‘g‘ri qabul qilmaslik**dan iboratdir. Mutaassibning fikrlash doirasi cheklanganligi o‘zgalar fikrini yoki boshqa nuqtai nazarlarni to‘g‘ri qabul qilishga imkon bermaydi. O‘z nuqtai nazarini himoya qilish uchun u ko‘pincha diniy matnlardan o‘ziga kerakli joylarni kesib olish usulini qo‘llaydi, ba’zida esa suhbatdoshi bilan bo‘lgan suhbatlarida axloq chegarasidan ham chiqib ketadi. Hadislardan birida aytilganidek, bu kabi fe’l-atvor, munozara va bahslashuvlarda fojirlik qilishi munofiqlikning alomatlaridandir.

4) Diniy mutaassiblikning to‘rtinchi alomati boshqalar sha’niga **tamg‘alar bosishdir.** Diniy mutaassiblar boshqalar sha’niga tamg‘a bosishni yaxshi ko‘radilar. Islomiy talqinda bu tamg‘a "munofiq", "murtad", "kofir" va hokazo so‘zlarni ishlatishdir. Bunday ayblov hamda insonning holatiga bu kabi ishonch bilan baho berish mutaassib tomonidan o‘zini haddan ziyod yuqori baholash va o‘z aybini bilmaslikdan iboratdir. Islomiy atamalar bilan "qurollangan" mutaassib o‘z atrofidan ularni qo‘llash uchun imkon qidira boshlaydi. Islom dinida esa bunday narsalar doimo qoralab kelingan. Islom dinining mutaassib hatti-xarakatiga zid bo‘lgan asosiy talablari, bu eng avvalo islomda kibrga yo‘l qo‘yilmaydi. Ikkinchidan islom dini odamlarni yaxshi fe’l va yuksak axloqqa undaydi. Uchinchidan islom dinida birodarlarning sha’nini bulg‘ash, mulkini o‘zlashtirish va hayotini barbod qilish harom qilingan. To‘rtinchidan, islom dini musulmonlardan o‘z fikriga komil ishonchda bo‘lishni talab qiladi. Qur’oni karimda *“Shuningdek, sizlarni odamlar ustidan guvoh bo‘lishingiz va Payg‘ambar sizlarning ustingizdan guvoh bo‘lishi uchun o‘rta millat qildik”,* (Baqara surasi, 143-oyat) deyilgan bo‘lib, ushbu oyatning o‘zi Islom mutaassiblikni qabul qilmasligini ko‘rsatadi. Mutaassiblar tomonidan dinda g‘uluv chiqarish islom dinida bid’at, kufr va shirk deb hisoblanadi. Mutaassib esa o‘zining shaxsiy tor tushunchalari uchun kurashadi, shu yo‘lda o‘ziga

qarshi chiqqanlarni ko‘r-ko‘rona dushman deb e’lon qiladi, bu yo‘lda diniy shiorlardan foydalanadi va o‘zining shaxsiy fikrlariga boshqalarni kuch bilan majburlashga harakat qiladi.

2-§. Qo‘rquv, savodsizlik va ishonchsizlik diniy mutaassiblik va ekstremizmning asosi

Jamiyat hayotida diniy mutaassiblik va ekstremizmning kelib chiqishiga ko‘p holatlarda qo‘rquv, savodsizlik va ishonchsizlik asos bo‘ladi. Jamiyatda qabul qilingan va faoliyat ko‘rsatayotgan qonun - qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo‘lgan g‘oyalar «ekstremistik» hisoblanadi. Dinning qandaydir bir yo‘nalishini buzgan holda talqin etib, siyosiy maqsadni ko‘zlovchi harakat diniy ekstremizmga olib keladi.

1. Ekstremizm – lotincha extremus – o‘ta, keskin degan ma’noni bildirib, jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy xususiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni o‘zida ifodalaydi. Ekstremizm mazmuniga ko‘ra – diniy va dunyoviy bo‘lishi yoki namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra – hududiy, mintaqaviy va halqaro shakllarda bo‘lishi mumkin. Ekstremistlarning qarashlari juda chuqur ildizlarga ega bo‘lib, ular hech qachon chegara bilmagan yoki din, millat, biron bir mamlakat hududini tan olmagan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan bo‘lib, uning vakillari o‘zaro nizolar, ixtiloflar keltirib chiqarib, qon to‘kish, zo‘rlik bilan islomiy davlat “xalifalik”ni barpo etishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar. Ekstremistik tuzilmalar qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning asosiy maqsadi jangarilik yo‘li bilan hokimiyatni qo‘lga olishdan iboratdir. Ular siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish orqali jamiyatni to‘la islom shariati qonun-qoidalari asosida qayta tashkil qilish va boshqarish zarur deb hisoblaydilar. Islom diniga asoslangan holda ekstremizmni targ‘ib qiluvchi guruhlar hozirgi davrda ko‘pgina islom davlatlaridagi musulmon jamoalari johiliya (islom kelib chiqishidan avvalgi arablardagi ma’naviy buzilish davri) davrida yashayapdi deb hisoblaydilar. Ular o‘zlarini «haqiqiy» musulmon deb hisoblab, o‘zlari barpo qiladigan «islomiy tartibni» keskinlik va jangarilik yo‘li bilan, agressiv harakat vositasida barpo qilishga harakat qiladilar. Islom ekstremizmi g‘oyalarini jamiyat hayotiga tatbiq qilishdan asosiy maqsad diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g‘oyalardan faqat vosita va niqob sifatida foydalanib jamiyatda beqarorlik, diniy va millatlararo nizolarni keltirib chiqarishdan iboratdir. Diniy ekstremistik guruhlar iqtisodiyotni turli yo‘llar bilan (diversiya qilib)

izdan chiqarishga, iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarish orqali hukumatni kuchsizlantirib obro‘yini to‘kishga harakat qiladilar. Ular turli ommaviy axborot vositalari orqali «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi borasidagi huquqlari buzilmoqda, diniy e’tiqod poymol etilmoqda» degan da’volar bilan chiqib, odamlarda konstitutsion hukumatga qarshi ishonchsizlik va norozilikni keltirib chiqarishga intiladilar. Diniy ekstremistik guruhlar mamlakatda diniy adovatni kuchaytirib, vaziyatni beqarorlashtirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar. Islom ekstremizmi vakillari o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida islom ta’limotini o‘z manfaatlari yo‘lida buzib talqin qiladilar.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir.Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Ikkinchi sababi dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘ladi.

2. Diniy ekstremistik tashkilotlarning ko‘pchiligi o‘z nomini muqaddas islom dini bilan bog‘lashga urinadilar. “Islom” so‘zining lug‘aviy ma’nolaridan biri “tinchlik” bo‘lib, u hech qachon o‘ziga e’tiqod qiluvchilarni buzg‘unchilikka, qotillikka, zo‘ravonlikka undamagan. Zamonaviy terrorchilar esa buzg‘unchilik va qotillik, odamlarni dahshatga solishni o‘zlarining maslaklariga aylantirib olganlar.

3. Qur’oni karimda begunoh odamlarning joniga qasd qilish qoralanib, “Niso” surasining 93-oyatida, “Kimda-kim qasddan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g‘azab qilgay, la’natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo‘ygay”, deyilgan.

Hadislarda ham bu masalada tegishli ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda, *“Rasulullоh (s.a.v.): “Alloh taoloning nazdida bir musulmon kishining nohaq qatl etilishidan ko‘ra, yorug‘ dunyoning barbod bo‘lib ketishi yengilroqdir”, dedilar”, degan fikr keltirilgan.*

4. Bugungi kunda dunyoda ko‘plab ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularning ma’lum bir qismi islom dini niqobi ostida faoliyat yuritishga harakat qilib, “halifalik”, “jihod”, “shahidlik”, kabi tushunchalarni ilgari surmoqdalar.

5. Insonni o‘z joniga qasd qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z kamikadze degan so‘z bo‘lib, kamikadze yapon tilida “ilohiy shamol” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi paytda ba’zilar kamikadzeni o‘zini-o‘zi o‘ldirishga tayyor terroristlarga nisbatan qo‘llashga harakat qilmoqdalar. Kamikadze ikkinchi jahon urushi davrida yapon uchuvchilari tomonidan Vatan

ozodligi yo‘lida o‘z jonini qurbon qilishni ifodalasa, ekstremist-terrorchilar o‘zini-o‘zi o‘ldirish bilan ko‘plab begunoh odamlarning hayotiga zomin bo‘lmoqdalar.

3-§. Dindorlikning paydo bo‘lishi va bosqichlari

Dinga ishonadigan, uning talablarini muntazam bajarib yuradigan kishilar dindorlar deyiladi. Hozirgi davrda dindorlar dinga amal qilishi, dinning nazariy va amaliy, huquqiy qoidalarini, ahloq-odoblarini bilish darajalariga qarab uch guruhga ajratiladi.

1. Birinchi guruhga mansub dindorlar - ulamolar, ruhoniylar, diniy tashkilotlardagi din peshvolari, diniy ta’lim-tarbiya muassasalarida ishlab turgan muallim hamda mudarrislar, diniy kitoblar, jurnallar, gazetalar nashriyotida ishlayotgan xodimlarning yuqori qatlamidagi kishilar kiritiladi. Mazkur guruhdagi dindorlar din bo‘yicha nazariy va amaliy, ilmiy tajribalarga ega bo‘lib, ular dinning tarixini, aqidalarini, marosimlarini, huquqiy va ahloqiy me’yorlarini yaxshi bilishdan tashqari ularni tushuntirib bera oladilar, sharhlaydilar, targ‘ib-tashviqot qiladilar, diniy ishlarni uyushtiradilar va rahbarlik qiladilar.
2. Dindorlarning ikkinchi guruhiga mansub dindorlar dinning nazariy tomonlarini yaxshi bilmaydigan, ammo diniy marosimlarni faol bajaradigan, diniy ishlarga bosh-qosh bo‘ladigan, ularni targ‘ib etadigan, diniy dasturlardan, diniy jihatdan man’ etilgan yoki ruxsat qilingan tartib qoidalardan yaxshigina xabardor, dinga ixlosi baland bo‘lgan dindorlardir.
3. Uchinchi guruhdagi dindorlar dinga ishonadigan, diniy qoidalarni boshqalardan eshitgan yoki diniy marosimlarni an’anaviy odat sifatida bajaradigan, dinga ham, ilm-fanga ham ishonib yuradigan, diniy ishlarda uncha faol bo‘lmagan, diniy e’tiqodi hali pishib yetilmagan dindorlardir.

Birinchi guruhga mansub dindorlar dindorlarning umumiy soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil etadilar. Ikkinchi guruhga mansub dindorlar birinchi guruhlardagiga nisbatan ancha ko‘p miqdorni tashkil etadilar. Uchinchi guruhdagi dindorlar eng ko‘pchilik dindorlardir.

Dindorlik - o‘z dunyoqarashida, iymon-e’tiqodida, psixologiyasida, turmush tarzida, ahloq-odobida, kundalik hayot kechirishida, oilada, mehnat jamoalarida, jamotchilik orasida, maishiy turmushda, o‘zining barcha xatti-harakatlarida to‘la ravishda diniy talablar, tartib-qoidalarga amal qilishni anglatadi. Jamiyatning harakteri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, madaniyat darajasiga qarab dindorlik ayrim davrlarda yuqori yoki past darajada bo‘lishi mumkin.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda islomga ixlos kuchaydi, ko‘plab yangi masjidlar va madrasalar ochildi, diniy marosimchilik

faollashdi, diniy adabiyotlar ko‘paydi. Jahonda musulmon davlatlarining xalqaro obro‘si oshdi, o‘zaro aloqalari kuchaydi. Din, dindorlar va dindorlikka katta e’tibor qaratila boshlandi.

Islom dinida muayyan ta’limot aqidalarining o‘zgarmasligini e’lon qiladigan, e’tiqodni aql dalillaridan ustun qo‘yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma’noda bayon etilgan bo‘lsa, shu ma’noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma’noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og‘ishmay bajarishni qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo‘nalishlar ham mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishlarga fundamentalizm deyiladi. 20-asrning 70-yillaridan boshlab fundamentalizm so‘zi islomga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi Qur’on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etish va ilk islomga qaytishni targ‘ib qiladi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar «fundamentalistlar» deb atalmoqda. Islom fundamentalizmi turli yo‘nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o‘z ichiga oladi. Ularning ba’zilari terror usullari bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o‘zini namoyon etsa, boshqalari targ‘ibot-tashviqot ishlari, diniy ta’lim bilan, turli jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalariga kirib borish bilan shug‘ullanishga harakat qilmoqda. Islom fundamentalizmiga xos bo‘lgan g‘oyalar - g‘arb turmush tarzi va g‘arb tovarlarining iste’moliga qarshi kurash, dinsiz yoki «sof islomdan chekingan» davlat rahbarlarini jismonan yo‘q qilish, islomda shirkka barham berish kabilardan iboratdir. Islom fundamentalizmi talqinida aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilish ham butparastlikka kiradi. Hozirgi davrda islom fundamentalizmi vakillari butun dunyoga yoyilib, har yerda o‘z maslakdoshlarini topishga intilmoqdalar.

Jamiyat hayotida ba’zida kvazidinlar ham paydo bo‘lib, kvazi tushunchasi lotin tilida – go‘yoki, degan ma’noni bildiradi. Kvazidin tushunchasi yolg‘on, haqiqiy bo‘lmagan din degan ma’noda qo‘llaniladi. Insoniyat tarixining turli davrlarida turli dinlar paydo bo‘lib, dinga e’tiqod qiluvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganligi tufayli jamiyat hayotidan yo‘q bo‘lib ketgan.

4-§. Diniy fundamentalizmning yo‘nalishlari. O‘zbekistonda diniy ekstremizmning paydo bo‘lishi, rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash

Hozirda davrda dunyoda ko‘plab ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularning ba’zilari islom dini niqobi ostida faoliyat yuritmoqdalar. Bu diniy ekstremistik-terroristik tashkilotlar qatorida “al-Qoida”, “Hizbut-tahrir al-islomiy” (Ozodlik islomiy partiyasi),

"al-Jihod", "at-Takfir val-hijra" (Takfir va xijrat), "Turkiston islom harakati", "Islomiy jihod ittihodi" (Islomiy jihod uyushmasi), "Katibatul Imam al-Buxari" (Imom Buxoriy batal'oni), "Jamoat Ansorulloh" (Allohning yordamchilari jamoasi), "Jabhatun-nusra" (G'alaba fronti) va "Islom davlati" kabi tashkilotlar bor.

Diniy-ekstremistik oqimlarni bajaradigan funksiyalariga ko'ra shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Birinchi guruhga kiruvchi tashkilotlarning asosiy vazifasi odamlarni go'yoki "islomlashtirish", "taqvoga chaqirish"dan iborat bo'lib, bunday guruhlar qatoriga "Tablig'chilar" harakatini kiritish mumkin.

2. **Ikkinchi guruh** tashkilotlari esa aholiga mutaassiblik g'oyalarini singdirish, ulardan muayyan g'oya va rahnamoga og'ishmay, so'zsiz ergashadigan "kadr"larni tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bunday guruhlar qatoriga "Hizbut-tahrir" kabi diniy-ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin.

3. Uchinchi guruhga mansub harakatlar esa hech qanday asossiz musulmon diyorlarni "kufr diyori" deb e'lon qilib, u yerdagilarni "hijrat" qilishga undash orqali turli nizo va fitna o'choqlariga jalb qilish, qo'lga qurol olib tinch aholi vakillari va boshqa din vakillarini qirish orqali mintaqada urush olovini yoqish, jihod tushunchasini noto'g'ri talqin qilish orqali yoshlarni qotilliklar qilishga chorlash bilan shug'ullanadilar. Bu guruhga barcha terrorchi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Diniy-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston uchun ham dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda diniy-ekstremistik va terroristik guruhlar faoliyatida muhim o'zgarishlar kuzatilib, ular internet orqali o'z g'oyalarini tarqatish masalasiga katta e'tibor qaratmoqdalar.

G'oyaviy jihatdan milliy manfaatlarga zid bo'lgan diniy mazmundagi mahsulotlarni respublika hududiga olib kirish va tarqatishga urinish holatlari O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Bu kabi ekstremistik ruhdagi mahsulotlarni internet va boshqa yo'llar orqali tarqatilishi aholi tomonidan dinning noto'g'ri talqin etilishiga, kam ma'lumotga ega o'quvchilar ma'naviy ongining buzilishiga, turli e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan odamlar, xususan yoshlar orasida adovat va xusumat uyg'onishiga zamin yaratmoqda.

20 asr oxirlarigacha diniy-ekstremizm va aqidaparastlikni tarqatish va aholi orasida yoyishning asosiy qurollari bo'lib turli adabiyot va nashrlar xizmat qilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiya vositalari rivojlangan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet

tarmog‘i diniy ekstremistik va aqidaparastlik g‘oyalarini tarqatishning eng optimal va qulay manbaiga aylandi.

Hozirgi davrda turli guruh va oqimlar tomonidan diniy ekstremizm va aqidaparastlikni targ‘ib qilishda, jamiyatda norozilik kayfiyatini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilmoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga “kufr diyori”, “hijrat”, “jihod”, “shahidlik”, “xalifalikni tiklash” kabi g‘oyalar singdirilib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalb qilinmoqda.

Internet tarmog‘ining chegara bilmasligi, sun’iy yo‘ldosh orqali efirga uzatiladigan fazoviy kanallarga to‘siq qo‘yishning iloji yo‘qligini hisobga oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda bu kabi buzg‘unchi g‘oyalardan aholini, xususan yoshlarni asrash uchun ularda bu kabi yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetni hosil qilish, internet va OAV orqali mazkur guruhlarga asosli raddiyalar berish, sof diniy ta’limotlarni yoshlarga yetkazish, ularni xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy va diniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Turli buzg‘unchi oqimlarning domiga ilinib qolmaslik uchun yoshlarimiz quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim:

- diniy-ekstremistik ruhdagi saytlarga kirmaslik. Bunday saytlarning alomatlari: joylashtirilgan materiallarda “hijrat” va “jihod”ga da’vat qilish, dunyoviy hukumat va tuzumlarni kofirlikda ayblash, davlat mustaqilligi, Yangi yil, Navro‘z, 8-mart kabi bayramlarni, tug‘ilgan kunni nishonlashni harom deb e’lon qilish, Afg‘oniston, Pokiston, Iroq, Suriya kabi mamlakatlardagi jangarilarni madh etish. Shuningdek, Muhammad ibn Abdulvahhob, Ibn Taymiya, Nosiriddin Alboniy, Sayyid Qutb, Ayman az-Zavohiriy, Usoma bin Lodin, Abduvali qori, Obid qori, Rafiq qori, Rashod qori kabi aqidaparast shaxslarning kitoblari, fatvolari, audiomurojaatlari, savol-javob shaklidagi ma’ruzalari mavjudligi;
- ijtimoiy tarmoqlar, turli forumlarda diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib suhbatga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni tanqid qilib, mutaassibona diniy turmush tarzini da’vat qilayotgan shaxslar bilan umuman aloqa qilmaslik;
- elektron pochta orqali noma’lum shaxslardan kelgan diniy mazmundagi da’vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuborilgan elektron materiallarni yuklab olmaslik;
- mobil telefonlarga bilib-bilmay mutaassiblik ruhidagi nashidalar (qo‘shiqlar), ma’ruzalar, suratlar, videoroliklarni yuklab olmaslik va tarqatmasik.

Mutaassiblik va aqidaparastlik ruhidagi ma’lumotlarni bilib-bilmay yuklab olish, saqlash yoki uni boshqa shaxslarga tarqatish esa O‘zbekiston

Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 184^2-moddasiga muvofiq, shuningdek Jinoyat Kodeksining 244^1-moddasiga ko'ra "Diniy-ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash" eng kam ish haqining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan;

- diniy mavzudagi ma'lumotlarni olishga ehtiyoj tug'ilganda bunday ma'lumotlarni faqat "uz" domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlaridan olish masalasiga e'tiborni qaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so'ng diniy erkinliklarga keng yo'l ochildi. Haqiqiy diniy e'tiqod erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlandi. Biroq, siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan ba'zi guruhlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'sir o'tkazishga harakat qila boshladi. Markaziy Osiyoga diniy ekstremizmning kirib kelishida Afg'oniston darvoza vazifasini o'tadi. Diniy-ekstremistik guruhlar "xalifalik" davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashga harakat qila boshladilar. Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlikka "O'zbekiston islom harakati" (ikkinchi nomi - Turkiston islom harakati), "Hizbut tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar", "Tablig'chilar" kabi diniy ekstremistik va terrorchi guruhlar xavf sola boshladi. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O'zbekistonga nisbatan bunday tahdidning yuzaga kelishiga e'tiborli diniy ulamolar o'rnini soxta "islomchilar"ning egallashga intilishlari va ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aholining islom diniga bo'lgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi; – din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g'arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasida shakllangan, qo'poruvchilik maqsadini ko'zlagan turli oqim va yo'nalishlarga mansub xorijiy da'vatchilar mintaqaga o'z g'oyalarini olib kirishga harakat qila boshladilar;

–mintaqa davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, qurol-yarog'larning noqonuniy savdosi orqali

moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqa bo‘ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Mustaqillik arafasi va mustaqillikning ilk davrida diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuvi ko‘zga tashlanib, diniy ekstremistik tashkilotlar aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib va siyosiylashtirilgan diniy g‘oyalarni singdirishga harakat qilishdi. Buning uchun aholi ichida aqidaparastlik g‘oyalari va “Hizbut tahrir” guruhining ta’limotlari da’vat qilindi, “jihod”, “shahidlik” g‘oyalari targ‘ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalar tarqatildi, yashirin “hujralar” tashkil qilinib, o‘qiyotganlarga mutaassib tushunchalar singdirildi. Aholi ichida va xorijiy axborot vositalarida O‘zbekistondagi ijtimoiy - siyosiy vaziyat, jumladan, diniy siyosat, imomlarning faoliyati bo‘yicha ig‘vo ma’lumotlar tarqatildi, yashirin guruhlar tuzilib, ular tomonidan aqidaparastlik ruhidagi diniy tashviqot yuritildi. “O‘zbekiston islom harakati” guruhi Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi respublikalarini birlashtiruvchi “Buyuk Islom amirligini” tiklash g‘oyasini ilgari surishdi. “Hizb at-tahrir al-islomiy” – (“Islom ozodlik partiyasi”) tashkiloti demokratiya, konstitutsiya, saylovni inkor etib, siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatishni o‘z oldiga maqsad qilib belgilagan. “Jihodchilar”ning maqsadi esa diniy holatni payg‘ambar davridagi ko‘rinishga qaytarish, ya’ni, din, musulmonchilik o‘sha davrda qay holatda bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunday bo‘lishi kerak, degan da’voda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘sha davrda “Tablig‘chilar” ham dunyoviylikni inkor etuvchi, siyosiylashtirilgan va mutaassib diniy mafkurani tashviqot qilishga harakat qilishdi. “Tablig‘chilar” ilgari surgan g‘oyalar hanafiylik mazhabiga zid bo‘lib, aqidaparast guruhlarning g‘oyalari singari ular dinda mutaassiblikni targ‘ib qilishdi. Asoschisi turkiyalik Sayyid Nursiy Badiuzzamon bo‘lgan Nurchilar tashkiloti ham o‘sha davrda Markaziy Osiyoda o‘z targ‘ibotini olib borishga harakat qildi. Nurchilar mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o‘ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashga harakat qilishdi.

O‘zbekiston Respublikasi diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati bilan birgalikda unga qarshi kurash olib bormoqda. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada va global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin va farovon hayotini ta’minlashdir. Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham O‘zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o‘zaro birgalikda

Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 184^2-moddasiga muvofiq, shuningdek Jinoyat Kodeksining 244^1-moddasiga ko'ra "Diniy-ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash" eng kam ish haqining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan;

- diniy mavzudagi ma'lumotlarni olishga ehtiyoj tug'ilganda bunday ma'lumotlarni faqat "uz" domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlaridan olish masalasiga e'tiborni qaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so'ng diniy erkinliklarga keng yo'l ochildi. Haqiqiy diniy e'tiqod erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlandi. Biroq, siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan ba'zi guruhlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'sir o'tkazishga harakat qila boshladi. Markaziy Osiyoga diniy ekstremizmning kirib kelishida Afg'oniston darvoza vazifasini o'tadi. Diniy-ekstremistik guruhlar "xalifalik" davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashga harakat qila boshladilar. Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlikka "O'zbekiston islom harakati" (ikkinchi nomi - Turkiston islom harakati), "Hizbut tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar", "Tablig'chilar" kabi diniy ekstremistik va terrorchi guruhlar xavf sola boshladi. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O'zbekistonga nisbatan bunday tahdidning yuzaga kelishiga e'tiborli diniy ulamolar o'rnini soxta "islomchilar"ning egallashga intilishlari va ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aholining islom diniga bo'lgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi; – din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g'arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasida shakllangan, qo'poruvchilik maqsadini ko'zlagan turli oqim va yo'nalishlarga mansub xorijiy da'vatchilar mintaqaga o'z g'oyalarini olib kirishga harakat qila boshladilar;

–mintaqa davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, qurol-yarog'larning noqonuniy savdosi orqali

moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqa bo‘ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Mustaqillik arafasi va mustaqillikning ilk davrida diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuvi ko‘zga tashlanib, diniy ekstremistik tashkilotlar aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib va siyosiylashtirilgan diniy g‘oyalarni singdirishga harakat qilishdi. Buning uchun aholi ichida aqidaparastlik g‘oyalari va “Hizbut tahrir” guruhining ta’limotlari da’vat qilindi, “jihod”, “shahidlik” g‘oyalari targ‘ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalar tarqatildi, yashirin “hujralar” tashkil qilinib, o‘qiyotganlarga mutaassib tushunchalar singdirildi. Aholi ichida va xorijiy axborot vositalarida O‘zbekistondagi ijtimoiy - siyosiy vaziyat, jumladan, diniy siyosat, imomlarning faoliyati bo‘yicha ig‘vo ma’lumotlar tarqatildi, yashirin guruhlar tuzilib, ular tomonidan aqidaparastlik ruhidagi diniy tashviqot yuritildi. “O‘zbekiston islom harakati” guruhi Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi respublikalarini birlashtiruvchi “Buyuk Islom amirligini” tiklash g‘oyasini ilgari surishdi. “Hizb at-tahrir al-islomiy” – (“Islom ozodlik partiyasi”) tashkiloti demokratiya, konstitutsiya, saylovni inkor etib, siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatishni o‘z oldiga maqsad qilib belgilagan. “Jihodchilar”ning maqsadi esa diniy holatni payg‘ambar davridagi ko‘rinishga qaytarish, ya’ni, din, musulmonchilik o‘sha davrda qay holatda bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunday bo‘lishi kerak, degan da’voda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘sha davrda “Tablig‘chilar” ham dunyoviylikni inkor etuvchi, siyosiylashtirilgan va mutaassib diniy mafkurani tashviqot qilishga harakat qilishdi. “Tablig‘chilar” ilgari surgan g‘oyalar hanafiylik mazhabiga zid bo‘lib, aqidaparast guruhlarning g‘oyalari singari ular dinda mutaassiblikni targ‘ib qilishdi. Asoschisi turkiyalik Sayyid Nursiy Badiuzzamon bo‘lgan Nurchilar tashkiloti ham o‘sha davrda Markaziy Osiyoda o‘z targ‘ibotini olib borishga harakat qildi. Nurchilar mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o‘ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashga harakat qilishdi.

O‘zbekiston Respublikasi diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati bilan birgalikda unga qarshi kurash olib bormoqda. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada va global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin va farovon hayotini ta’minlashdir. Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham O‘zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o‘zaro birgalikda

bartaraf etish bo‘yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro‘yobga chiqarib kelmoqda. O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar ishida faol ishtirok etishi, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

5-§. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Bugungi kunda jahon miqyosida tinchlik barqarorlikka katta xavf tug‘dirayotgan omillardan biri bu terrorizmdir. Terrorizm lotin tilida «qo‘rqitish», «vahimaga solish» degan ma’noni bildirib, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatni o‘zida ifodalaydi.

Terrorizmning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik, qo‘rqitish yo‘li bilan o‘z hukmini o‘tkazib, davlatni qulatuvchi, hokimiyatga erishishda parokandalikka olib keluvchi g‘oyasidan foydalanish bilan xarakterlanadi. Hozirgi davrdagi shakllangan xalqaro terrorizm tushunchasida esa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalarni beqarorlashtirish va xalqaro ijtimoiy – siyosiy nufuzga ega bo‘lgan alohida siyosiy arboblarni qatl qilishga yo‘naltirilgan buzg‘unchi siyosiy xususiyati bilan xarakterlanadi. Terrorizm iqtisodiy, siyosiy, diniy, g‘oyaviy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ta’qib qilish, zo‘ravonlik, qo‘poruvchilik va qotillik terrorizmning har qanday ko‘rinishi uchun umumiy xususiyat bo‘lib, u gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday shaklda amalga oshirilmasin, uning mohiyati insoniyatga, jamiyat taraqqiyotiga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Terrorning iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlovchi, moddiy boyliklarni o‘zlashtirishni maqsad qilib olgan ko‘rinishlarda, raqib shaxslarni jismoniy yo‘q qilish, o‘g‘irlab ketish, garovga olish, tajovuz bilan qo‘rqitib o‘z hukmini o‘tkazish yoki raqiblar boyliklarini o‘zlashtirishda foydalanadi. Siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan terrorizm qadimdan mavjuddir. Islomda Muhammad (s.a.v) vafotidan keyingi to‘rtta halifadan faqatgina Abu Bakr Siddiq o‘z ajali bilan vafot etgan. Qolgan halifalar Umar Ibn Xattob, Usmon Ibn Affon va Ali Ibn Abu Toliblar ham siyosiy muholiflari tomonidan terroristik yo‘l bilan o‘ldirilganligini ko‘rish mumkin. Jamiyat hayotida asosan ko‘pchilikni tashkil qiladigan millatning manfaatlari hisobga olinib, qolgan barcha kichik millat va etnik guruhlarning milliy ehtiyojlari hisobga olinmasa bu milliy terrorizmni keltirib chiqarishi mumkin.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib terrorchilik alohida olingan davlat yoki mintaqa doirasidan chetga chiqib, xalqaro miqyosda uyushgan tashkilot darajasigacha ko‘tarildi. Hozirgi kunda jahonda 500 dan ortiq xalqaro terrorchilik tashkilotlari, markazlari mavjud. Terrorizm qanday bayroq ko‘tarib chiqmasin (diniymi, siyosiymi, iqtisodiymi, milliymi) qanday niqoblar bilan bo‘yalmasin, uning reaksion jangari jinoyatkorona mohiyatini tushunib olib, ularning yovuz niyatini ochib tashlash har bir ongli, vatanparvar insonning burchidir.

Jahonda diniy ekstremistik va terroristik faoliyatlar 3 ta usulda olib borilmoqda. 1-usul: Diniy tashkilot bo‘lgan masjidlarga yordam ko‘rinishida bo‘lsa; 2-usulda, diniy struktura (tashkilot)lar tuzilishi orqali amalga oshirilmoqda. 3-ish uslubida davlat tomonidan kam e’tibor beradigan joylarda o‘zlarining nazoratini o‘rnatish yoki kuchaytirish orqali faoliyat olib borilmoqda. Terrorizm – siyosiy kurashning jamiyatda beqarorlik o‘rnatishga hamda aholida vahima va dahshat uyg‘otishga qaratilgan usulidir. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlar ongini zaharlayotgan, ulardan terrorchilar tayyorlayotgan, musulmon olamida xalifalik davlati tuzishdek xomhayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlashga asosiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda o‘zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlari asosida shakllangan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yoshlarimiz ongi va qalbiga ta’lim va tarbiyaviy usullar bilan singdirib borish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Mustaqil davlatimizning qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) kabilar o‘z ifodasini topgandir.

O‘zbekistonda fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda yurt istiqloliga sadoqat, milliy-ma’naviy, umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish, jamiyatimizda diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlarining oldini olish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

6-§. Kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik (cyberbullying), tushunchalarining mohiyati

Bugungi kunda inson hayotini internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada

bartaraf etish bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro'yobga chiqarib kelmoqda. O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar ishida faol ishtirok etishi, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

5-§. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Bugungi kunda jahon miqyosida tinchlik barqarorlikka katta xavf tug'dirayotgan omillardan biri bu terrorizmdir. Terrorizm lotin tilida «qo'rqitish», «vahimaga solish» degan ma'noni bildirib, aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatni o'zida ifodalaydi.

Terrorizmning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u buzg'unchilik, qo'poruvchilik, qo'rqitish yo'li bilan o'z hukmini o'tkazib, davlatni qulatuvchi, hokimiyatga erishishda parokandalikka olib keluvchi g'oyasidan foydalanish bilan xarakterlanadi. Hozirgi davrdagi shakllangan xalqaro terrorizm tushunchasida esa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalarni beqarorlashtirish va xalqaro ijtimoiy – siyosiy nufuzga ega bo'lgan alohida siyosiy arboblarni qatl qilishga yo'naltirilgan buzg'unchi siyosiy xususiyati bilan xarakterlanadi. Terrorizm iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib qilish, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorizmning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, u gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday shaklda amalga oshirilmasin, uning mohiyati insoniyatga, jamiyat taraqqiyotiga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Terrorning iqtisodiy manfaatlarini ko'zlovchi, moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan ko'rinishlarda, raqib shaxslarni jismoniy yo'q qilish, o'g'irlab ketish, garovga olish, tajovuz bilan qo'rqitib o'z hukmini o'tkazish yoki raqiblar boyliklarini o'zlashtirishda foydalanadi. Siyosiy maqsadlarni ko'zlagan terrorizm qadimdan mavjuddir. Islomda Muhammad (s.a.v) vafotidan keyingi to'rtta halifadan faqatgina Abu Bakr Siddiq o'z ajali bilan vafot etgan. Qolgan halifalar Umar Ibn Xattob, Usmon Ibn Affon va Ali Ibn Abu Toliblar ham siyosiy muholiflari tomonidan terroristik yo'l bilan o'ldirilganligini ko'rish mumkin. Jamiyat hayotida asosan ko'pchilikni tashkil qiladigan millatning manfaatlari hisobga olinib, qolgan barcha kichik millat va etnik guruhlarning milliy ehtiyojlari hisobga olinmasa bu milliy terrorizmni keltirib chiqarishi mumkin.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib terrorchilik alohida olingan davlat yoki mintaqa doirasidan chetga chiqib, xalqaro miqyosda uyushgan tashkilot darajasigacha ko‘tarildi. Hozirgi kunda jahonda 500 dan ortiq xalqaro terrorchilik tashkilotlari, markazlari mavjud. Terrorizm qanday bayroq ko‘tarib chiqmasin (diniymi, siyosiymi, iqtisodiymi, milliymi) qanday niqoblar bilan bo‘yalmasin, uning reaksion jangari jinoyatkorona mohiyatini tushunib olib, ularning yovuz niyatini ochib tashlash har bir ongli, vatanparvar insonning burchidir.

Jahonda diniy ekstremistik va terroristik faoliyatlar 3 ta usulda olib borilmoqda. 1-usul: Diniy tashkilot bo‘lgan masjidlarga yordam ko‘rinishida bo‘lsa; 2-usulda, diniy struktura (tashkilot)lar tuzilishi orqali amalga oshirilmoqda. 3-ish uslubida davlat tomonidan kam e’tibor beradigan joylarda o‘zlarining nazoratini o‘rnatish yoki kuchaytirish orqali faoliyat olib borilmoqda. Terrorizm – siyosiy kurashning jamiyatda beqarorlik o‘rnatishga hamda aholida vahima va dahshat uyg‘otishga qaratilgan usulidir. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlar ongini zaharlayotgan, ulardan terrorchilar tayyorlayotgan, musulmon olamida xalifalik davlati tuzishdek xomhayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlashga asosiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda o‘zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlari asosida shakllangan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yoshlarimiz ongi va qalbiga ta’lim va tarbiyaviy usullar bilan singdirib borish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Mustaqil davlatimizning qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) kabilar o‘z ifodasini topgandir.

O‘zbekistonda fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda yurt istiqloliga sadoqat, milliy-ma’naviy, umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish, jamiyatimizda diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlarining oldini olish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

6-§. Kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik (cyberbullying), tushunchalarining mohiyati

Bugungi kunda inson hayotini internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada

osonlashtirmoqda. O‘zbekistonda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar soni jadal sur’atlar bilan ko‘payib bormoqda. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ko‘payib borishini ta’minlamoqda. Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga egadir.

1. Kibermakon dunyo komp’yuter tarmoqlarining “virtual” umumiy majmui bo‘lib, ushbu atama global axborot makonini ifodalash uchun ishlatiladi. Telefon suhbatlari; “chatlar”, turli onlayn bahslar, komp’yuter aloqalari kibermakonda amalga oshirilmoqda. Kibermakonda diniy jarayonlar ko‘rinishlari quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: muloqot, ma’lumot, ta’lim, tajriba, amaliyot, missionerlik, marketing, shifo va boshqalar.

Yetakchi diniy tashkilotlar bugungi kunda o‘z a’zolari o‘rtasida komp’yuterlashtirilgan ma’lumot olishga ehtiyojning ortganini ta’kidlamoqdalar. Diniy ma’lumotlarni tarqatishda elektron diniy ma’lumot tarqatuvchi “bloggerlar” yoki “bloglar” komp’yuterlashtirilgan muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Jadal suratlarda “podkastlar”,veb-saytdan MR3 pleer, “i-Pod”larga yuklanayotgan audiodasturlar, xususan, ma’ruzalar ommalashmoqda.

Avvallari tanqis, keng tarqalmagan muqaddas matnlar va undan keyingi o‘rinlarda turuvchi ma’lumotlarni endi istagan kishi veb saytlardan yuklab olib, ta’limolish imkoniyatiga egadir. Shuning uchun diniy mavzularga qiziquvchilar uchun maxsus veb saytlar, dalillar, havolalar va resurslar yaratilmoqda. Internetdan foydalanuvchi shaxs istalgan hajmdagi marosimlar shablonlarini yuklab olib, virtual tarzda diniy marosimlarda ishtirok etishi mumkin.

2. Kiberterrorizm(lot, cyber terrorizm; cyber - “kiber”, terror – “qo‘rquv”, “dahshat”) – zamonaviy, ilg‘or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilar tomonidan o‘zining g‘arazli niyatlariga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatni ifodalovchi tushunchadir.

Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g‘arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog‘idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo‘rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. Kiberterrorizminsoniyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o‘z yangiligi tufayli to‘la-to‘kis o‘rganib ulgurilmagan quroldir. Kiberterrorizm (kiber urush) - kompyuter tizimlariga hujum

asosida amalga oshiriladi. Kiberterroristlar o‘zlarining g‘oya, maqsad va vazifalarini tarqatishda Internetdan foydalanishmoqda.

Internet quyidagi jihatlari bilan terroristlar uchun qulay hisoblanadi: internetga kirishning osonligi; foydalanuvchilar sonining ko‘pligi; aloqaning anonimligi; tashqaridan boshqarish va tahrir qilishning cheklanganligi; axborotlarning qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi; faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi.

Terroristlar internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar: targ‘ibot va tashviqot maqsadida ma’lumot tarqatish; yangi a’zolarni yollash (verbovka); a’zolik va xayriya badallarini yig‘ish hamda ulardan foydalanish; tarmoq va shahobchalar tashkil etish; terroristlarni o‘qitish, ko‘rsatmalar berish; razvedka va ma’lumot qidirish; yangi terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va boshqarish.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlariga keng o‘rin berilgan. Terrorchilar kuch ishlatish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga, terror va qo‘poruvchilik harakatlarini ma’naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi. Bunda o‘zlarini “ozodlik kurashchisi”, “qarshilik ko‘rsatuvchi” deb atab, o‘zlarini tinchlik tarafdori qilib ko‘rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo‘l bilan harakat qilishi lozimligini asoslashga harakat qilishadi. Ular saytlarda hukumat tarafidan qo‘llanilayotgan usullarning “vahshiyligini” yoritishga ham alohida e’tibor berishadi.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatini oqlovchi, “qahramonligini” kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar”, “muxolifat” va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi.

Bugun axborot ham iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy

ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo'lmaganda: "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Nima uchun uzatayapti?" va "Qanday maqsadda uzatayapti?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olishi zarur. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishi, ularni noto'g'ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

"Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", – degan fikr bugungi kunda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

3. Kompyuterlar tomonidan modellashtirilgan, insonlar, ob'yektlar, hodisalar, holatlar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, matematik, ramziy yoki boshqa har qanday ma'noda ifodalangan, veb sayt mahalliy va global kompyuter tarmoqlarida harakat qiladigan yoki har qanday jismoniy yohud virtual qurilma xotirasida saqlanadigan ma'lumotlar, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar orqali sodir etiladigan har qanday zo'ravonlik kiberzo'ravonlik bo'lib hisoblanadi. Kiberzo'ravonlik – zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni kibertexnologiyalar yordamida tayyorlash, Respublika hududiga olib kirish yoki olib chiqish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, foydalanish, targ'ib qilishni o'zida ifodalaydi. Terrorchilar Internet tarmog'i orqali

zo‘ravonlik, buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qilishga harakat qilishadi.

Internetdagi ekstremizm bu avvalo targ‘ibot-tashviqotdan iboratdir. Internet saytlarida estremistlar e’tiqod qiladigan bir qator maqsad va qarashlar targ‘ib qilinadi, ularning “ilg‘or”, “muqarrar”ligining isboti keltiriladi, qarshilar va dushmanlar aniqlanadi. Agarda tashkilot ma’lum bir submadaniyatga e’tiqod qilsa, o‘zlarining targ‘ibot va tashviqotida “kiberhujum mexanizmi”ni ishga soladi. Kiberhujum orqali kiberzo‘ravonlikda kiyinish uslubi, xatti-harakat, tashqi ko‘rinish va hokazolar kabi masalalar bo‘yicha maslahatlar beriladi;kundalik hayotga oid nima qilish mumkin-u, nima mumkin emasligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi; “to‘g‘ri” narsani to‘g‘ri bajarishni, u yoki bu ko‘rinishda “qo‘shilish” yoki “kurash”ga chaqiriladi.

Din niqobi ostida internet orqali olib boriladigan “kiberhujum mexanizmi”ga qarshi “kiberhimoya mexanizmi” qo‘llaniladi. “Kiberhimoya mexanizmi”da internetda berilayotgan ma’lumotlarni “filtrlash” yoki yoshlarda bu ma’lumotlarni “filtrlay” olish qobiliyatini shakllantirish masalasiga e’tibor qaratiladi;internet ma’lumotlariga yoki kompyuterga qiziquvchi yoshlarga doimiy ravishda salbiy saytlar va ularning oqibatlari to‘g‘risida kerakli ko‘rsatmalar berib boriladi; joylarda ota-onalar uchun doimiy ravishda tushuntirish ishlari olib boriladi; ta’lim muassasalari bilim oluvchilari o‘rtasida internet hujumlari va internet savodxonligi bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilish masalasiga e’tibor kuchaytiriladi.

Fuqarolarimiz ongini zaharlashga qaratilgan radikal guruhlardan himoya qilishning yana bir yo‘li, xalqimiz qadriyatlarini tiklab, o‘zlikni anglash hissini uyg‘otish orqali Vatanga, millatga sadokat ruhida tarbiyalashni kuchaytirish lozim. Chunki, milliy va diniy qadriyatlarimiz, fuqarolarni Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, zo‘ravonlikka nafrat ruhida tarbiyalovchi, ularni ezgulik va bunyodkorlikka da’vat etuvchi ma’naviy manbadir.

O‘zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridanoq o‘zining dinga munosabatini aniq va qat’iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati “Inson e’tiqodsiz yashay olmaydi”, “Dunyoviylik – dahriylik emas” degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil O‘zbekiston Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda o‘zining huquqiy ifodasini topdi. O‘zbekistonda diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat’i nazar, faoliyat borasida bir xil huquqqa egadirlar.

Xozirgi davrda kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur’atlardagi taraqqiyoti g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining

kengayishiga turtki bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarga bo‘ysundirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda.

Bugungi kunda dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko‘rsatib, ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritmoqda. Ular qatoriga “ISHID (Iroq va Shom islom davlati)”, “Jabha an-Nusra”, “Ansaru ash-Sham” (Suriya), “al-Qoida”, “al-Jihod al-Islomiy”, “at-Takfir va-l-Hijra” (Misr), “Abu Sayyaf” (Filippin), “Ozod Achex”, “Lashkari jihod” (Indoneziya), “Qurolli islomiy harakat” (Jazoir), “Boko haram” (Nigeriya), “Islom jihodi uyushmasi”, “O‘zbekiston islomiy harakati”, Tolibon (Afg‘oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilib ko‘rishdi. Lekin “jihodchilar”, soxta “salafiylar” kabi diniy-siyosiy, “Xizbut tahrir” kabi diniy-ekstremistik guruhlarning Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan harakatlari xech qanday natijaga olib kelmadi. Bunga Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi din sohasida olib borilgan adolatli va uzoqni ko‘zlangan siyosat o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

So‘nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, oila a’zolari, yaqinlari va qo‘shnilarini o‘z guruhiga tortish, yashirin “hujralar” tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko‘rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko‘rinishlarini o‘zida tashuvchi g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g‘oyalar singdirilib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalb qilinmoqda. Ayniqsa, “jihodchi” guruhlar o‘z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng

foydalanmoqda. Qisqa qilib aytganda "ijtimoiy tarmoqlar" "ekstremistik qarmoqlar" vazifasini o'tamoqda. Aqidaparastlik jamiyatimizdagi fuqarolarni "haqiqiy" va "soxta" dindorlarga ajratishi bilan ham tahdid solmoqda.

7-§. Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati

O'zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan bo'lib, O'zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida "uch yovuz kuch", ya'ni "terrorchilik", "ayirmachilik" (separatizm) va "ekstremizm"ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004 yildan beri Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O'z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta'sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga ko'ra konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarning faoliyatini aniqlaydi va ularning g'ayriqonuniy faoliyatiga chek qo'yadi.

Jamiyat OAV, ma'naviyat yo'nalishida faoliyat yuritadigan tuzilmalar, jamoat va diniy tashkilotlar orqali fuqarolarni aqidaparast g'oyalarning ta'siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradi.

O'zbekistonda Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat targ'iboti markazi davlat idoralari va

kengayishiga turtki bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarga bo‘ysundirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda.

Bugungi kunda dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko‘rsatib, ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritmoqda. Ular qatoriga “ISHID (Iroq va Shom islom davlati)”, “Jabha an-Nusra”, “Ansaru ash-Sham” (Suriya), “al-Qoida”, “al-Jihod al-Islomiy”, “at-Takfir va-l-Hijra” (Misr), “Abu Sayyaf” (Filippin), “Ozod Achex”, “Lashkari jihod” (Indoneziya), “Qurolli islomiy harakat” (Jazoir), “Boko haram” (Nigeriya), “Islom jihodi uyushmasi”, “O‘zbekiston islomiy harakati”, Tolibon (Afg‘oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilib ko‘rishdi. Lekin “jihodchilar”, soxta “salafiylar” kabi diniy-siyosiy, “Xizbut tahrir” kabi diniy-ekstremistik guruhlarning Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan harakatlari xech qanday natijaga olib kelmadi. Bunga Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi din sohasida olib borilgan adolatli va uzoqni ko‘zlangan siyosat o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

So‘nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, oila a’zolari, yaqinlari va qo‘shnilarini o‘z guruhiga tortish, yashirin “hujralar” tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko‘rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko‘rinishlarini o‘zida tashuvchi g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g‘oyalar singdirilib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalb qilinmoqda. Ayniqsa, “jihodchi” guruhlar o‘z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng

foydalanmoqda. Qisqa qilib aytganda "ijtimoiy tarmoqlar" "ekstremistik qarmoqlar" vazifasini o'tamoqda. Aqidaparastlik jamiyatimizdagi fuqarolarni "haqiqiy" va "soxta" dindorlarga ajratishi bilan ham tahdid solmoqda.

7-§. Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati

O'zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan bo'lib, O'zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida "uch yovuz kuch", ya'ni "terrorchilik", "ayirmachilik" (separatizm) va "ekstremizm"ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004 yildan beri Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O'z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta'sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga ko'ra konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarning faoliyatini aniqlaydi va ularning g'ayriqonuniy faoliyatiga chek qo'yadi.

Jamiyat OAV, ma'naviyat yo'nalishida faoliyat yuritadigan tuzilmalar, jamoat va diniy tashkilotlar orqali fuqarolarni aqidaparast g'oyalarning ta'siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradi.

O'zbekistonda Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat targ'iboti markazi davlat idoralari va

manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda har yili diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo‘nalishida dastur asosida tizimli faoliyatni olib bormoqda. Targ‘ibot va tushuntirish ishlari OAV, Internet, televizion va radiodasturlardagi chiqishlar, o‘quv muassasalari, mahalla fuqaro yig‘inlari, turli tashkilot va korxonalarda ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish shakllarida amalga oshirilmoqda.

Tinchlikni asrash, hushyorlik va ogohlikni talab qilib, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olgan hozirgi davrda O‘zbekiston fuqarolarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini qaror toptirish, hayot g‘oyalardan saqlovchi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm dunyo mamlakatlari uchun nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masalaga aylanib, O‘zbekiston diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda faol siyosat olib bormoqda. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e’lon qildi. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada va global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin va farovon hayotini ta’minlashdir. O‘zbekiston din sohasidagi jarayonlarni tartibga solish, diniy munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ijobiy yo‘sinda kechishini ta’minlash, ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish uchun o‘zining tashqi va ichki siyosatida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o‘zaro birgalikda bartaraf etish bo‘yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro‘yobga chiqarib kelmoqda. O‘zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashda mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida ham faol ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Evroosiyo iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (EIHT), Kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnoma tashkiloti (KHSHT), Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT) kabi bir qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida din sohasidagi siyosat qonuniylik, demokratiya, dunyoviylik va inson huquqlarini ta’minlash tamoyillari asosida olib borilmoqda. Konstitutsiya hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunda dinning davlatdan ajratilgani, vijdon va e’tiqod erkinligi kafolatlangani hamda diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari ifodalangan.

O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularini yuksaltirish asosida ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Fuqarolarning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo‘lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, mafkuraviy immunitet tizimining birinchi unsuri bilim bo‘lsa, ikkinchi unsuri olingan bilimlar zamirida shakllanadigan baholar va qadriyatlardan iboratdir.

Bugungi kunda dunyoda ko‘plab diniy konfessiyalar mavjud bo‘lib, "konfessiya" lotin tilida “e’tiqod qilish” degan ma’noni bildiradi. Diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta’limot doirasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va ushbu e’tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud deb hisoblaydilar. Islom dinidagi mazhablar boshqa dinlardagidan farqli ravishda alohida konfessiyalar sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. O‘zbekistonda bir necha shia jamoalari bo‘lishiga qaramay, ular o‘zlarini alohida diniy konfessiya deb hisoblamaydilar.

8-§. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar faoliyatining yo‘nalishlari

XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo‘ldi. Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70 yillarida Evropa va AQSHda tarqalgan noan’anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an’anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Yangi diniy harakatlar yetakchilari jamiyat kayfiyatidagi o‘zgarishlarni, bu “o‘tkinchi dunyo”ning nuqsonlarini fosh qilib, o‘zlarini “xaloskor”, yuksak axloqli “haqiqatgo‘y” sifatida ko‘rsatishga harakat qilib, yangi diniy harakatlar safiga ko‘proq yoshlar qo‘shildilar. Yangi diniy harakatlar qat’iy ta’limotga ega bo‘lmagan tashkilot bo‘lib, uning faoliyati yetakchining mavqei bilan belgilangan edi. Yetakchilar an’anaviy diniy

qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borib, diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. Yangi diniy harakatlarning ba'zilari dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandilar. Ushbu diniy tashkilotlar meditasiya amaliyotini keng qo'llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladilar. Yangi diniy harakatlarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardan iboratdir. (Aym Sinrikyo (Tokio metrosida gaz bilan zaharlash), Quyosh ehromi (Fransiya va Kanada) va boshqalar).

1. Diniy ta'limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga: protestantlarning "ikkilamchi" birlashmalari – Iegovo shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih cherkovi (Boston harakati); soxta xristian harakatlar – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birodarlar; sayentalogik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati; neo va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – "Tirik axloq"(Agni yoga), Krishnani anglash jamiyati, Transsendental meditatsiya, Aym-Sinrekyo, Saxadja-yoga va boshqalar.); Yangi majusiy tashkilot va kultlar – "Runvira" ukrain milliy e'tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk "qadimgi diniy e'tiqodiga qaytish kulti" va boshqalar kiradi.

2. Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatib, mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb hisoblaydilar.

Hozirgi davrda diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo'lgan sektalar faoliyatining bir muncha jonlanishi kuzatilmoqda. O'zbekistonga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Iisusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvenniy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham mavjud bo'lib, bu sekta tarafdorlari aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar. Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida

bo‘layotgan voqealarning ko‘pchilikka ma’lum bo‘lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda. Jahon xristianlarini birlashtirish yo‘lidagi Muqaddas Ruh assosiasiyasi (Assosiasiya Svyatogo Duxa za ob’edinenie mirovogo xristianstva (ASD-OMX) bo‘lib, Mun San Men birlashtirish cherkovi, Birlashtirish harakati, munchilar (munisti) kabi nomlar bilan ham ataladi. 1992 yilda Mun o‘zini yangi insoniyatning “Haqiqiy ota”si deb e’lon qilgan, 1993 yilda “Yangi Ahd davri” tugab, “Ahdning yakuniy davri (“era Zaversheniya Zaveta“) boshlanganini bildirgan.

3. Aym sinrikyo (sanskritcha “olam”) haqiqati ta’limoti; ingliz tilida «Supreme truth», ya’ni “oliy haqiqat» deb tarjima qilingan (2000 yildan boshlab Alef nomi bilan faoliyat yuritmoqda (somiy tillar alifbosidagi 1 harfi bo‘yicha) — yangi diniy, sinkretik, terroristik, ekstremistik, totalitar, destruktiv sekta bo‘lib, vadjrayana buddizmi asosida Yaponiyada vujudga kelgan. Sektaga yaponiyalik Syoko Asaxara 1987 yili asos solgan, u 1995 yilda Tokio metrosida zaharli gazlar portlatishni uyushtirgan. Hozirda sekta terroristik tashkilotlar ro‘yxatiga kiritilgan. Evropa Ittifoqi, Kanada, Moldaviya, Rossiya, AQSH va boshqa davlatlarda faoliyati ta’qiqlangan. Aym sinrikyodan Rossiyada 24000, Yaponiyada 6600 kishi jabrlangan. 1990 yillarda Aym Sinrikyoning Nyu York, Bonn, Shri Lankada markazlari faoliyat yuritgan. 1986 yilda uning tashkilotiga diniy tus berildi va u «Aym Sinsen-no-kay» («Ma’naviy rivojlangan va notabiiy kuch quvvatga ega kishilar jamiyati) deb ataldi. Shu yili Asaxara Ximolayda «butunlay azoblardan qutilib, Nurlanishga erishdi», tashkiloti 1987 yilning iyulidan Aym sinrikyo degan nom oldi va butun mamlakat bo‘ylab bo‘linmalariga ega bo‘ldi. 1989 yil avgustidan sekta diniy tashkilot sifatida tanildi. U Yaponiyaning oliy tabaqadagi universitetining talabalarini o‘ziga jalb qilib, ikkinchi nom - «elita vakillari dini» degan nom oldi. 1995 yil 20 martda «Aym sinrikyo»ning 10 ta a’zosi tomonidan terroristik akt sodir etilgan. Ular Tokio metrosida zarin zaharli gazi yordamida gazli portlatish sodir etishgan. Natijada 12 kishi vafot etgan, o‘nlab kishilar zaharlangan, 1000 kishining ko‘rish qobiliyati pasaygan. Yaralanganlarda tananing ayrim a’zolarida paralich, so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishi, tayanch harakat a’zolarining shikastlanishi, ko‘r bo‘lib qolish holatlari ham uchragan. Ushbu aktga Asaxara o‘zi buyruq bergan (rad etsada). Ularning fikricha, Oxirzamon kelishi va Yaxshilik va Yomonlik o‘rtasidagi oxirgi urush kutilmoqda va urushda barcha “gunohkorlar” qirib tashlanadi. Politsiyachilar tomonidan sekta markazlari tekshirilganda kimyoviy va biologik qurollarning komponentlari (sibir yarasi (sibirskaya yazva) va Ebola virusi) topilgan.

4. Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo‘lib, Nyu Eyj harakati bilan o‘zaro bog‘liq. Uning g‘oyalarida ham Baliq erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodoley erasi, ya’ni yer yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishi e’lon qilinadi. Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov. O‘z qiziqishlari o‘laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a’zo bo‘ladi va turli uslublarni o‘rganadi. U “Atma” nomli “Qalb instituti”ni ochadi va “Znanie” nashriyoti orqali ko‘plab risolalar chop etadi. Krivonogov o‘zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg‘ambarlar Yoqub, Nuh, Ioann Krestitel, Tutanxamon, knyaz Vladimir, v.h) va oxiri Yooann Svami ismida to‘xtagan. Uning xotini Mariya dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O‘g‘il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan.

Yuriy Krivonogov yer yuzida oxir zamon bo‘lib, yer yuzi vayron bo‘lishi, insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi yerda yangi hayotni boshlashini bashorat qilgan edi.

Yer yuzida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, xatarli kasalliklarning tarqalishi turli sektalarning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sektalar insonning ojizligi, ma’naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo‘lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanishlari natijasida paydo bo‘lmoqda. Mavjud diniy ta’limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizasiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Mavjud dinlarning tarqalish hududida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. O‘tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Evropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Bunday o‘zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migrasiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko‘pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shuningdek, aholisi an’anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo‘nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo‘lmoqda. Bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Diniy konfessiyalar turli-tumanligini O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xristianlikka mansub bo‘lsada, yurtimizdagi 11 ta yo‘nalishning har biri o‘zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida xristianlik diniga tegishli bo‘lgan Rus Pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, To‘liq injilchi xristianlar cherkovi, Ettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, “Iegov guvohlari” cherkovi, “Golos Bojiy” cherkovi, Koreys protestant cherkovlari faoliyat olib borishmoqda. Noislomiy diniy tashkilotlardan yana Yaxudiylar diniy jamoalari, bahoiylar diniy jamoalari, buddaviylar ibodatxonasi, Krishnani anglash jamiyati, Bibliya kitob jamiyati kabi diniy tashkilotlar mavjud.

5. Noan’anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun begona bo‘lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o‘sha yerga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi. XIX asr o‘rtalari - XX asr boshlariga kelib Evropa, Amerika va Osiyo qit’alarida "payg‘ambarlik" va "armageddonizm" epidemiyalari avj ola boshladi. AQSHda 1840 yillarda "millerizm" nomi ostida paydo bo‘lgan harakat tez orada boshqa hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, "islohotchi" oqimlar yuzaga keldi. Ulardan, xristianlik doirasida "Iegovo shohidlari" va "Mormonlar"ni, islom dini doirasida "Bahoiylar", "Ahmadiylar" va "Qora musulmonlar"ni, hinduiylik doirasida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ni sanash mumkin. Iegovo shohidlari (yoki Yahve guvohlari) yo‘nalishiga 1873 yilda Charlz Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo‘nalishning diniy ta’limoti uning etti tomlik "Muqaddas Yozuvni o‘rganish" kitobiga asoslanadi. Ch.Rassel vafotidan keyin tashkilotga rahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklin Ruzerford iegovochilikka "armageddon" (ya’ni, go‘yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo‘shini o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jang) tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o‘tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ‘ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo‘lga qo‘ydi. "Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo‘nalishlar kabi uning barcha ko‘rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o‘z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar. Iegovochilar Iso Xudoning O‘g‘li bo‘lgan deb e’tiqod qilsa-da, uning Xudo bo‘lganini inkor qilishadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko‘rinmas kuchi bo‘lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog‘ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi. Iegovo butun insoniyat

4. Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo‘lib, Nyu Eyj harakati bilan o‘zaro bog‘liq. Uning g‘oyalarida ham Baliq erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodoley erasi, ya’ni yer yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishi e’lon qilinadi. Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov. O‘z qiziqishlari o‘laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a’zo bo‘ladi va turli uslublarni o‘rganadi. U “Atma” nomli “Qalb instituti”ni ochadi va “Znanie” nashriyoti orqali ko‘plab risolalar chop etadi. Krivonogov o‘zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg‘ambarlar Yoqub, Nuh, Ioann Krestitel, Tutanxamon, knyaz Vladimir, v.h) va oxiri Yooann Svami ismida to‘xtagan. Uning xotini Mariya dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O‘g‘il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan.

Yuriy Krivonogov yer yuzida oxir zamon bo‘lib, yer yuzi vayron bo‘lishi, insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi yerda yangi hayotni boshlashini bashorat qilgan edi.

Yer yuzida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, xatarli kasalliklarning tarqalishi turli sektalarning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sektalar insonning ojizligi, ma’naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo‘lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanishlari natijasida paydo bo‘lmoqda. Mavjud diniy ta’limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizasiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Mavjud dinlarning tarqalish hududida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. O‘tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Evropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Bunday o‘zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migrasiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko‘pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shuningdek, aholisi an’anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo‘nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo‘lmoqda. Bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Diniy konfessiyalar turli-tumanligini O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xristianlikka mansub bo‘lsada, yurtimizdagi 11 ta yo‘nalishning har biri o‘zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida xristianlik diniga tegishli bo‘lgan Rus Pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, To‘liq injilchi xristianlar cherkovi, Ettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, “Iegov guvohlari” cherkovi, “Golos Bojiy” cherkovi, Koreys protestant cherkovlari faoliyat olib borishmoqda. Noislomiy diniy tashkilotlardan yana Yaxudiylar diniy jamoalari, bahoiylar diniy jamoalari, buddaviylar ibodatxonasi, Krishnani anglash jamiyati, Bibliya kitob jamiyati kabi diniy tashkilotlar mavjud.

5. Noan’anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun begona bo‘lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o‘sha yerga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi. XIX asr o‘rtalari - XX asr boshlariga kelib Evropa, Amerika va Osiyo qit’alarida "payg‘ambarlik" va "armageddonizm" epidemiyalari avj ola boshladi. AQSHda 1840 yillarda "millerizm" nomi ostida paydo bo‘lgan harakat tez orada boshqa hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, "islohotchi" oqimlar yuzaga keldi. Ulardan, xristianlik doirasida "Iegovo shohidlari" va "Mormonlar"ni, islom dini doirasida "Bahoiylar", "Ahmadiylar" va "Qora musulmonlar"ni, hinduiylik doirasida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ni sanash mumkin. Iegovo shohidlari (yoki Yahve guvohlari) yo‘nalishiga 1873 yilda Charlz Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo‘nalishning diniy ta’limoti uning etti tomlik "Muqaddas Yozuvni o‘rganish" kitobiga asoslanadi. Ch.Rassel vafotidan keyin tashkilotga rahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklin Ruzerford iegovochilikka "armageddon" (ya’ni, go‘yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo‘shini o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jang) tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o‘tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ‘ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo‘lga qo‘ydi. "Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo‘nalishlar kabi uning barcha ko‘rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o‘z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar. Iegovochilar Iso Xudoning O‘g‘li bo‘lgan deb e’tiqod qilsa-da, uning Xudo bo‘lganini inkor qilishadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko‘rinmas kuchi bo‘lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog‘ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi. Iegovo butun insoniyat

tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o‘lgandan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri tiriladi va osmon podshohligiga o‘tib ketishadi. Hozirgi kunda o‘sha tanlangan 144 ming kishi, ya’ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo‘lida ko‘p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e’tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya’ni Iegovo shohidlariga qo‘shilgan "qo‘ylar"ga (oddiy dindorlar) Yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va’da qilinadi. "Iegovo shohidlari" faqatgina Iso Masih o‘limini eslash kechalari bilan bog‘liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a’zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo‘lishi shart. "Iegovo shohidlari" diniy tashkiloti qat’iy markazlashgan xususiyatga ega bo‘lib, uning diniy-ma’muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasidir. Boshqaruv korporatsiyasi 15 kishidan iborat bo‘lib, Bruklinda (AQSH, Nyu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ‘ibot ishlarini olib bormoqda. Xristianlikning ko‘zga ko‘ringan vakillari iegovochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo‘q, deb hisoblaydilar. Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo‘lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko‘rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman ro‘yxatga olingan. "Iegovo shohidlari" missionerlikka katta e’tibor beradi. Jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o‘z izdoshlarini ko‘paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi. Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo‘riqchi minora", "Bibliya" va "Risolalar jamiyati" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda "Iegovo shohidlari" 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo‘yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega. Iegovochilar missionerlikni o‘ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, "Iegovo shohidlari" o‘z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar.

Jumladan, ular o‘z da’vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr – tuyg‘ulari bo‘lishiga alohida e’tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni: – o‘z qarashlariga zarracha bo‘lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so‘ng ularni ta’limotni qabul qilishga tayyorlash; – da’vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o‘rganish orqali diniy ta’limotni singdirish; – prozelitlarni suv bilan cho‘qintirish; – ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to‘rt bosqichda amalga oshiradilar. Iegovochilikning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a’zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a’zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a’zolari qancha ko‘p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko‘tarilib boradi. So‘nggi paytlarda iegovochilar maktab o‘quvchilari va yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini olib borishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo‘yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta’minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag‘ sarflanadi.

6. Mormonlar oqimiga 1830 yili Nyu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan. Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o‘rmonida kambag‘al va bechora tarafdorlariga Moroni nomli bir farishtaning o‘ziga vahiy olib kelganini da’vo qiladi. Unga ko‘ra Moroni, Smitga Nyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko‘milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergan. Jozef Smit matnlarni o‘qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e’lon qiladi va uni nashr ettiradi. Shunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Masihning oxirgi kun azizlari cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so‘ng "Mormonlar" deyila boshlangan. Mormonlar e’tiqodiga ko‘ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanlilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o‘g‘li Moronidir. Lavhlarni ana o‘shalar ko‘mgan va ularni Smit topib olgan. Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shtati, AQSH) qurilishiga doir vahiy olganini aytgan. Tarafdorlar sonini

tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o'lgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri tiriladi va osmon podshohligiga o'tib ketishadi. Hozirgi kunda o'sha tanlangan 144 ming kishi, ya'ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo'lida ko'p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e'tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya'ni Iegovo shohidlariga qo'shilgan "qo'ylar"ga (oddiy dindorlar) Yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va'da qilinadi. "Iegovo shohidlari" faqatgina Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart. "Iegovo shohidlari" diniy tashkiloti qat'iy markazlashgan xususiyatga ega bo'lib, uning diniy-ma'muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasidir. Boshqaruv korporatsiyasi 15 kishidan iborat bo'lib, Bruklinda (AQSH, Nyu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ'ibot ishlarini olib bormoqda. Xristianlikning ko'zga ko'ringan vakillari iegovochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo'q, deb hisoblaydilar. Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo'lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman ro'yxatga olingan. "Iegovo shohidlari" missionerlikka katta e'tibor beradi. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi. Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora", "Bibliya" va "Risolalar jamiyati" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda "Iegovo shohidlari" 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega. Iegovochilar missionerlikni o'ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, "Iegovo shohidlari" o'z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar.

Jumladan, ular o‘z da’vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr – tuyg‘ulari bo‘lishiga alohida e’tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni: – o‘z qarashlariga zarracha bo‘lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so‘ng ularni ta’limotni qabul qilishga tayyorlash; – da’vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o‘rganish orqali diniy ta’limotni singdirish; – prozelitlarni suv bilan cho‘qintirish; – ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to‘rt bosqichda amalga oshiradilar. Iegovochilikning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a’zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a’zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a’zolari qancha ko‘p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko‘tarilib boradi. So‘nggi paytlarda iegovochilar maktab o‘quvchilari va yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini olib borishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo‘yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta’minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag‘ sarflanadi.

6. Mormonlar oqimiga 1830 yili Nyu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan. Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o‘rmonida kambag‘al va bechora tarafdorlariga Moroni nomli bir farishtaning o‘ziga vahiy olib kelganini da’vo qiladi. Unga ko‘ra Moroni, Smitga Nyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko‘milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergan. Jozef Smit matnlarni o‘qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e’lon qiladi va uni nashr ettiradi. Shunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Masihning oxirgi kun azizlari cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so‘ng "Mormonlar" deyila boshlangan. Mormonlar e’tiqodiga ko‘ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanlilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o‘g‘li Moronidir. Lavhlarni ana o‘shalar ko‘mgan va ularni Smit topib olgan. Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shtati, AQSH) qurilishiga doir vahiy olganini aytgan. Tarafdorlar sonini

orttirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug‘ullanganlar. Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuriga; u yerda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoisga ko‘chishga majbur bo‘lishadi. 1840 yilda botqoqzor o‘rnida Navu shahrini qurib o‘z markazlarini shu yerda tashkil etadilar. Omadli kechgan bir-ikki yildan keyin Smit "Mormon kitobi"da aksi yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, yangi bir "vahiy"ga asoslanib, ko‘pxotinlilikni targ‘ib qilgan va o‘zi bu ishni boshlab bergan. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo‘lgan, natijada Smit ukasi va tarafdorlari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o‘ldirilgan. Smitdan keyin mormonlarga Brijman Yang boshchilik qildi. Mormonlar Yutada "Buyuk tuz ko‘li" qirg‘og‘ida, "Tuz ko‘li shahri" hozirgi Solt Leyk Siti shahrini qurganlar. Ular bu yerda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etishgan. "Iso Masihning oxirgi kun azizlari" sifatida o‘zlariga baho beruvchi mormonlarning e’tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. Cherkov boshlig‘i "rais" deb nomlanadi. Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog‘liq e’tiqodni tan oladilar. Ularga ko‘ra, Injil Xudoning so‘zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so‘zidir. Iso Masihning qayta tirilish joyi Amerika qit’asidir. Yangi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o‘zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko‘rinish oladi. Iso ming yillik saltanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo‘lgan (mormon)lar najot topadilar. Ular cho‘qintirishda suvga bo‘ktirish usulini qabul qilganlar. Ulug‘likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikkacha yuksalishni e’tirof qiladilar. E’tiqod asoslari orasida joy olgan ko‘p xotinga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Prichaщenie ya’ni "Poklanish" marosimi, sigaret va aroq harom bo‘lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi. Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqalganligini ham aytib o‘tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a’zo ikki yil missionerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o‘z hayotlarini missionerlik uchun bag‘ishlagan. Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni "adashgan oqim" sifatida e’tirof etadi.

7. Bahoiylik – XIX asrda Eronda bobiylik yo‘nalishi zamirida vujudga kelgan diniy yo‘nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya’ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin

orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo‘lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in’om etishini targ‘ib qila boshlagan. Bobning yirik izdoshlaridan biri Mirza Husayn Ali Nuriy (1817- 1892) 1863 yilda Bob bashorat etib ketgan xudoning elchisi uning o‘zi ekanini e’lon qiladi va Bahoulloh, ya’ni "Allohning jilosi" nomini oladi. Ushbu yo‘nalishning nomi ham Bahoullohning nomidan olingan. Bahoullonning "Kitobi Aqdas" ("Eng muqaddas kitob") va "Kitobi Iqon" ("Mustahkam ishonch kitobi") asarlari bahoiylik ta’limotining asoslarini tashkil etadi. Yo‘nalish asoschisi o‘ziga islom dini e’tiqodiga ko‘ra, olamlarning yaratuvchisi bo‘lgan "Allohning jilosi" nomini qabul qilgan bo‘lsa-da, bahoiylar aqidasiga ko‘ra, bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindan ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas, deb hisoblanadi. Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSH, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyoda bahoiylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoiylarning umumiy miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi. Bahoiylik ta’limotiga ko‘ra: – barcha dinlar bir ildizdan paydo bo‘lgan va payg‘ambarlar birodar hisoblanadi; – Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg‘ambarlardan tashqari Budda, Zardusht, Krishna, Bob va Bahoulloh ham payg‘ambar hisoblanadi. Bahoiylikda ular eng buyuk 9 ta payg‘ambar sifatida e’tirof etiladi; – xudo har ming yilda yer yuziga yangi payg‘ambar tushiradi; – jannat va do‘zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi; – hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo‘qotish lozim. Bahoiylar da’vosiga ko‘ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim. Bahoiylarning fikricha Vatan, millat degan tushunchalar ma’nisiz hisoblanib, ularning fikricha, yer yuzining hamma joyi ular uchun Vatan hisoblanadi. Bahoiylikda ruhoniylar yo‘q. Mahalliy jamoalarni yilda bir marotaba 21 aprel kuni yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadigan 114 kishidan iborat Mahalliy diniy majlis boshqaradi. Bahoiylar yirik jamoasi mavjud bo‘lgan har bir davlatda Milliy diniy majlis saylanadi. O‘z navbatida Milliy diniy majlis vakillari 9 kishidan iborat bo‘lgan Umumjahon Adolat Uyi a’zolarini saylaydilar. Har besh yilda saylanadigan Umumjahon Adolat Uyi umumjahon bahoiylar jamiyatining faoliyatini boshqarib boradi. Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo‘lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a’zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog‘liq ishlarni muhokama qilish, o‘zaro birodarlik aloqalarini mustahkamlash uchun yig‘iladilar. Kuniga uch marta Isroilning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Umumiy ibodat duo o‘qish, meditasiya hamda bahoiylikning

asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o‘qish orqali amalga oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o‘zlarini tiyib, ro‘za tutadilar. Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu erda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

8. Ahmadiya (Qodiyoniya). Mazkur oqim XIX asrning oxirlarida Mirzo G‘ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan - "Mirzoiya", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan - "Qodiyoniya" deb nomlangan. Mirzo G‘ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiya" nomini olgan. Mirzo G‘ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasining xohishiga binoan 1864 yilda Sialkot shahriga borgan va o‘sha erda bir muddat ishlagan. Shu paytda, u kundalik ishidan tashqari islom ilmlari hamda boshqa dinlar haqida va o‘zi bilan yaqindan munosabatda bo‘lgan missionerlardan xristianlik haqida ko‘pgina ma’lumotlar olgan, hinduiylar bilan munozaralarga kirishgan. 1876 yilda G‘ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da’vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o‘z ta’limoti asoslariga bag‘ishlangan "Barohini Ahmadiya" (Ahmad dalillari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islomni boshqa dinlardan himoya qilgan. SHu tufayli musulmonlar kitobdagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o‘z-o‘zini maqtashlarga, dastlab, uncha e’tibor bermaganlar. Uchinchi va to‘rtinchi jildlarda esa G‘ulom Ahmad o‘ziga vahiy tushayotgani va payg‘ambar ekanini da’vo qilgan. Shuningdek, ingliz hukumatini maqtab, hozirgi paytga kelib "jihod" tushunchasining o‘rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytgan. Boshlanishda 50 jild bo‘lishi rejalashtirilgan "Barohini Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan. 1885 yili Mirzo G‘ulom Ahmad o‘zini o‘zi yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaddidi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay’at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e’lon qiladi. 1891 yilda u Iso ibn Maryamning tabiiy yo‘l bilan o‘lganini aytib va shundan kelib chiqib o‘zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da’vo qilgan. 1904 yilning noyabr oyidan boshlab esa ochiqdan-ochiq o‘zini musulmonlar uchun "mahdiy", xristianlar uchun "masih" va hindular uchun "krishna" deb e’lon qilgan. Ahmadiylarga ko‘ra barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan

qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo‘lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo‘lardi. Mirzo G‘ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan. Mirzo G‘ulom Ahmadning o‘limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig‘ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim "Qodiyon ahmadiylari" va "Lahor ahmadiylari" nomli ikki jamoaga bo‘linib ketdi. Dastlab, payg‘ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg‘ambar kelmasligini tan olishini ta’kidlagan Mirzo G‘ulom, 1901 yildagi "Juma xutbasi"da uning izdoshi bo‘lgan Mavlaviy Abdulkarim Mirzo G‘ulom Ahmadga nisbatan "nabiy" va "rasul" sifatlarining ishlatish mumkin deb e’lon qilgan. Avvalroq, "Muhaddas" (xitob qilinib, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G‘ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma’noda juz’iy nabiylik sifatida baholagan; payg‘ambarlikning butunlay tugaganini, lekin juz’iy nabiylikning qolganligini ochiq va oshkora aytgan.

9. Xalqaro Krishnani anglash jamiyati Shrila Bxaktivedanta Svami Prabxupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda "Veda" falsafasi bilimdoni sifatida "Bxaktivedanta" (sanskritcha "sodiqlik", "fidokorona xizmat") unvoniga sazovor bo‘ladi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko‘pgina "Veda" matnlari, jumladan, "Bxagavadgita" ("Xudo qo‘shiqlari")ni sharhlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahd qiladi va Svami ("Aql va hissiyotlar egasi") unvoniga erishadi. 1965 yilda A.Ch.Bxaktivedanta Svami AQSHga ko‘chib o‘tdi va "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ga asos soldi. Bu davrda SHarq mistik ta’limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ‘ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud. Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e’tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga "Bxagavatgita"dan tashqari boshqa "Veda" matnlari ham kiradi. Krishnachilik yakkaxudolikka, ya’ni yagona va mutlaq xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta’limotiga ko‘ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo‘linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo‘l bilan xudoga qo‘shilishni oliy maqsad, deb biladilar. Har bir inson

asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o‘qish orqali amalga oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o‘zlarini tiyib, ro‘za tutadilar. Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu erda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

8. Ahmadiya (Qodiyoniya). Mazkur oqim XIX asrning oxirlarida Mirzo G‘ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan - "Mirzoiya", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan - "Qodiyoniya" deb nomlangan. Mirzo G‘ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiya" nomini olgan. Mirzo G‘ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasining xohishiga binoan 1864 yilda Sialkot shahriga borgan va o‘sha erda bir muddat ishlagan. Shu paytda, u kundalik ishidan tashqari islom ilmlari hamda boshqa dinlar haqida va o‘zi bilan yaqindan munosabatda bo‘lgan missionerlardan xristianlik haqida ko‘pgina ma’lumotlar olgan, hinduiylar bilan munozaralarga kirishgan. 1876 yilda G‘ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da’vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o‘z ta’limoti asoslariga bag‘ishlangan "Barohini Ahmadiya" (Ahmad dalillari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islomni boshqa dinlardan himoya qilgan. SHu tufayli musulmonlar kitobdagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o‘z-o‘zini maqtashlarga, dastlab, uncha e’tibor bermaganlar. Uchinchi va to‘rtinchi jildlarda esa G‘ulom Ahmad o‘ziga vahiy tushayotgani va payg‘ambar ekanini da’vo qilgan. Shuningdek, ingliz hukumatini maqtab, hozirgi paytga kelib "jihod" tushunchasining o‘rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytgan. Boshlanishda 50 jild bo‘lishi rejalashtirilgan "Barohini Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan. 1885 yili Mirzo G‘ulom Ahmad o‘zini o‘zi yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaddidi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay’at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e’lon qiladi. 1891 yilda u Iso ibn Maryamning tabiiy yo‘l bilan o‘lganini aytib va shundan kelib chiqib o‘zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da’vo qilgan. 1904 yilning noyabr oyidan boshlab esa ochiqdan-ochiq o‘zini musulmonlar uchun "mahdiy", xristianlar uchun "masih" va hindular uchun "krishna" deb e’lon qilgan. Ahmadiylarga ko‘ra barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan

qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo‘lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo‘lardi. Mirzo G‘ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan. Mirzo G‘ulom Ahmadning o‘limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig‘ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim "Qodiyon ahmadiylari" va "Lahor ahmadiylari" nomli ikki jamoaga bo‘linib ketdi. Dastlab, payg‘ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg‘ambar kelmasligini tan olishini ta’kidlagan Mirzo G‘ulom, 1901 yildagi "Juma xutbasi"da uning izdoshi bo‘lgan Mavlaviy Abdulkarim Mirzo G‘ulom Ahmadga nisbatan "nabiy" va "rasul" sifatlarining ishlatish mumkin deb e’lon qilgan. Avvalroq, "Muhaddas" (xitob qilinib, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G‘ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma’noda juz’iy nabiylik sifatida baholagan; payg‘ambarlikning butunlay tugaganini, lekin juz’iy nabiylikning qolganligini ochiq va oshkora aytgan.

9. Xalqaro Krishnani anglash jamiyati Shrila Bxaktivedanta Svami Prabxupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda "Veda" falsafasi bilimdoni sifatida "Bxaktivedanta" (sanskritcha "sodiqlik", "fidokorona xizmat") unvoniga sazovor bo‘ladi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko‘pgina "Veda" matnlari, jumladan, "Bxagavadgita" ("Xudo qo‘shiqlari")ni sharhlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahd qiladi va Svami ("Aql va hissiyotlar egasi") unvoniga erishadi. 1965 yilda A.Ch.Bxaktivedanta Svami AQSHga ko‘chib o‘tdi va "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ga asos soldi. Bu davrda SHarq mistik ta’limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ‘ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud. Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e’tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga "Bxagavatgita"dan tashqari boshqa "Veda" matnlari ham kiradi. Krishnachilik yakkaxudolikka, ya’ni yagona va mutlaq xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta’limotiga ko‘ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo‘linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo‘l bilan xudoga qo‘shilishni oliy maqsad, deb biladilar. Har bir inson

o‘zida Krishnani anglash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Buning uchun bir qancha harakat shakllarini o‘z ichiga olgan va xudoga muhabbatni rivojlantirish hamda uni butunlay ruhiy anglashga sho‘ng‘ishga qaratilgan bxakta-yoga mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Ayni paytda, inson o‘zini moddiy ehtiyojlardan xoli qilishi, go‘sht, baliq, tuxum, mast qiluvchi narsalarning barchasi, jumladan, spirtli ichimliklar, tamaki, qahva, choy iste’mol qilish, nikohsiz jinsiy hayot kechirish va qimor o‘yinlardan voz kechishi zarur, deb hisoblanadi. Krishnachilikda meditasiya deb ataluvchi, ibodatxonada o‘tkaziladigan diniy marosimlar har kuni soatlab bajariladi. U maxsus harakatlar, Sankirtana – birgalikda xudo Krishnani "Xare Krishna, Xare Krishna, Krishna Xare, Xare, Xare Rama, Xare Rama, Rama, Rama, Xare, Xare" degan, maxamantra ("ozod bo‘lishning buyuk qo‘shig‘i")ni kuylash bilan sharaflash amaliyotini qamrab oladi. Bularning hammasi, ularning ta’biricha, aqlni tozalash, fikrni tashqi dunyodan xalos etish, butun diqqat-e’tiborni xudoga nisbatan muhabbatga yo‘naltirish uchun bajariladi. "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"da o‘z ergashuvchilarining mol-mulklarini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniylik vazifasiga o‘tishlari rag‘batlantiriladi. Bu ta’limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a’zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar. Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati o‘tgan asrning 70- yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ‘ibotchilik harakatining o‘ziga xos xususiyatlari qatorida ko‘chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo‘shiqlar aytish va adabiyotlarini tarqatish, "Hayot uchun ozuqa" deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyalari o‘tkazilishini ko‘rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy ob’yektlari sifatida odatda talabalar, maktab o‘quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

Hozirga davrda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan barcha dinlar – islom ham, xristianlik ham, mavjud boshqa diniy konfessiyalar ham dinning ijtimoiy obro‘yini to‘kuvchi har qanday ko‘rinishdagi diniy ekstremistik oqimlar, sektalar va guruhlarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lmoqdalar. O‘zbekistonga dunyoning boshqa mintaqalarida faoliyat olib borayotgan turli zararli guruhlar va sektalarni kiritmaslik mamlakatda tinchlik va barqarorlik hamda millatlararo totuvlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda hozirgi davrda jahonda turli diniy harakatlar va sektalar faoliyat olib borib, psixolog Margaret Teler Singer ularni Neoxristian, Xinduizm va sharqiy diniy, Okkultizm, sehrgarlik va satanizmga asoslangan, Spiritik, Dzen va xitoy-yapon falsafiy-mistik yo‘nalishdagi,

Irqiy, yerdan tashqaridagi fenomenlar bilan bog‘liq bo‘lgan, Psixologik va psixoterapevtik, Siyosiy, O‘z-o‘zidan takomillashuvchi, o‘zini namoyon etuvchi va o‘zi rivojlanuvchi guruxlarga bo‘lib o‘rganadi. Sotsiolog Ronald Enrot bu guruxlarni Sharqiy mistik, Yolg‘on xristianlik, Ma’naviy-psixologik va o‘z-o‘zidan takomillashib boruvchi, Eklektik va sinkretik, Parapsixologik, okkultli astral guruhlarga bo‘ladi. Psixolog Maykl Langounning fikriga ko‘ra yangi diniy harakatlar sharqiy meditatsiya, Bibliya va xristianlikka asoslangan harakatlar, Okkultizm, satanizm, sehrgarlik, qora magiya, Siyosiy terrorizm, Psixoterapiya, o‘z imkoniyatlarini namoyon qiluvchi, Narkotik qaramlikdan ozod bo‘luvchi, Kommersiya bilan bog‘liq bo‘lgan guruhlarga bo‘linadi.

Hozirgi davrda MDH mamlakatlari, eng avvalo Rossiyada o‘z ta’sirini kuchaytirishga harakat qilayotgan yangi diniy harakatlar va sektalarga Bahoiylar, Mormonizm, Spiritualizm, Yangi tafakkur, Teosofiya jamiyati, Antroposofiya, Arkanlar maktabi, Butunjahon oq birodarlar, Yangi Akropol, Telema, Vikka, “Tensegritlar”, Kastanedlar, Saentologiya cherkovi, Raelitlar, Satanistlar, Reyka, Osho-harakati, Falungun, Allatra kabilarni keltirish mumkin.

O‘zbekistonda dinlararo bag‘rikenglik sohasida faoliyat olib borayotgan barcha diniy konfessiyalar vakillarining uchrashuvlari, davra suhbatlari va boshqa shakllardagi muloqotlarini o‘tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda. Uchrashuvlarda tub aholini masihiy mazhablariga jalb etmaslik, diniy missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanmaslik, o‘zbek tilida diniy adabiyotlarni chop etmaslik va tarqatmaslik yuzasidan chora-tadbirlar belgilanmoqda. Olib borilayotgan sa’y-harakatlar natijasida fuqarolararo va millatlararo totuvlikka raxna solish ehtimoli bo‘lgan diniy tashkilotlarning ro‘yxatdan o‘tishlari, ularning da’vat ruhidagi diniy adabiyotlar tarqatishlarining oldi olinmoqda. Adliya vazirligi va Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda ularning faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish hamda diniy tashkilotlarning rahbarlari va a’zolari tomonidan amaldagi qonunchilikni chuqur o‘rganish va unga amal qilish masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Aholi orasida diniy bilimlarni, xususan, yot va zararli diniy oqimlar hamda firqalar haqidagi xolis ma’lumotlarni tarqatish, dindan, diniy qadriyatlardan ma’naviy-ma’rifiy maqsadlarda foydalanishni kuchaytirish choralari ko‘rilmoqda. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tufayli respublikamizda konfessiyalararo totuvlik va bag‘rikenglik ustuvorlik qilmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm) o‘z g‘oyasini “to‘g‘ri” deb hisoblab, boshqacha fikr egalarini tan olmasdan ularni buzg‘unchilikda ayblaganligi uchun ham jamiyat taraqqiyotiga tahdid bo‘lib hisoblanadi. Aqidaparastlik bilan miyasi zaharlangan inson har xil zararli g‘oyalar va mafkuralarga beriluvchan bo‘ladi.
2. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati bo‘lib hisoblanib, ekstremizm jamiyatni qo‘rquv va vahimada ushlab turishga harakat qiladi.
3. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va axborot omili ta’sirining kuchayishi bugungi kunda aqidaparastlik va ekstremizmning ijtimoiy havfi kuchayishiga olib keltirdi. Internet orqali aqidaparastlik va ekstremizm g‘oyalari targ‘ib qilina boshladi.
4. Terrorizm jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usuli bo‘lib, u “zo‘rlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi” degan g‘oyaga asoslanib harakat qiladi.
5. Kiberterrorizm (kiber urush) – kompyuter tizimlariga hujum qilib, muhim hujjatlarni yo‘qotish yoki qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshiriladigan harakat. Kiberterroristlar Internetdan foydalangan holda o‘zlarining g‘oyalarini tarqatishga harakat qiladilar.
6. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlari bo‘lib, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi chuqur o‘ylangan strategiya asosida tizimli ravishda kurash olib boriladi.

Tayanch tushunchalar

Diniy mutaassiblik, (fanatizm), qo‘rquv, savodsizlik, ishonchsizlik, mutaassiblik va ekstremizmning asosi, diniy ekstremizm, fundamentalizm, hudkushlik amaliyoti, kamikadze, dindorlik, kvazidinlar, terrorizm tushunchasi va shakllari, kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik, zamonaviy diniy harakatlar va sektalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo‘lishi, mohiyati, asoslari va manbalari haqida ma’lumot bering?
2. Qo‘rquv, savodsizlik va ishonchsizlik diniy mutaassiblik va ekstremizmning asosi ekanligini asoslang?

3. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari haqida gapiring?
4. Kamikadzening ikkiyoqlama ma'nosini tushuntiring?
5. Dindorlikning paydo bo'lishi va bosqichlari haqida ma'lumot bering?
6. Diniy fundamentalizmning yo'nalishlari haqida gapiring?
7. Kvazidinlar haqida ma'lumot bering?
8. O'zbekistonda diniy ekstremizmning paydo bo'lishi, rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash vositalari haqida gapiring?
9. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlarini yoriting?
10. Kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying), tushunchalarining mohiyatini ochib bering?
11. Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyatini ko'rsating?
12. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar faoliyatining yo'nalishlari haqida gapiring?

XULOSA

XXI asrda o‘zbek xalqi o‘zining fidokorona mehnatlari bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida o‘lkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, jahondagi eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan joy oladi. Chunki, uning sha’nu sharafini, or-nomusini, ishonch-e’tiqodini ifodalovchi, taraqqiyot yo‘lini yorituvchi, ona-Vatan mustaqilligini mustahkamlash uchun ma’naviy jasorat ko‘rsatishga chorlovchi yangicha dunyoqarashga asoslangan o‘zbekona milliy falsafasi bor.

Bugungi kunda o‘zbek xalqining milliy falsafasijamiyatimizning moddiy va ma’naviy hayotini o‘zida aks ettiruvchi, uning ma’naviy vujudini harakatga keltiruvchi kuch sifatida odamlarni buyuk kelajak sari boshlab borar ekan, u albatta, ilmu irfon maydonida o‘z maqomiga ega bo‘lgan gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan biri sifatida faoliyat olib boradi. Zero, bu fan qotib qolgan aqidalar to‘plami emas, balki, zamon talablariga mos ravishda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan ilmiy qarashlar tizimidan iboratdir.

O‘zbek xalqi milliy falsafasining bosh va asosiy masalasi moddiy va ma’naviy olamni uyg‘un holda idrok etish tamoyili asosida tafakkur qilishdan iborat bo‘lib, shu orqali adolat va haqiqat, ezgulik, odamiylik, insonparvarlik kabi bunyodkor g‘oyalar asosida kelgusi avlodni jismonan sog‘lom va ma’naviy jihatdan kuchli inson qilib tarbiyalashdan iborat.Shu sababli milliy o‘zbek falsafasining hayotiyligini ta’minlash uchun bir tomondan,«odam va olam» munosabatlarni muntazam ravishda o‘rganib borish, ikkinchi tomondan, turli xil ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilayotgan dunyoqarashlarni o‘zida mujassamlash-tirgan g‘oya va mafkura tamoyillari asosida uyg‘unlashtirib borish, uchinchi tomondan, qo‘shni mamlakat xalqlari bilan maqsadlar mushtarakligi asosida geomafkuraviy siyosat yurgizishni taqozo etadi. Bu esa milliy o‘zbek falsafamizning mazmunan boyishiga, tez va samarali harakat qilishiga olib keladi.

O‘zbek xalqining milliy falsafasi – odam va olam munosabatlari doirasida olamning genezisi, evolyutsiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi nazariy hamda amaliy fan sifatida mavjud ekan, uning tarixiy, falsafiy, diniy, dunyoviy asoslarini to‘laqonli yoritish borasida fundamental ilmiy izlanishlar olib borish hayotiy zaruriyat bo‘lib, milliy o‘zbekona dunyoqarash ruhi bilan sug‘orilgan tariximizni o‘zgalar tomonidan soxtalashtirilishining oldini oladi, o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarimizni mustaqillik tarixi bilan ilmiy jihatdan qurollantiradi.

Hozirgi kunda ayrim davlatlar tomonidan xomashyo resurslarini egallash, kommunikatsiyalar ustidan nazorat o‘rnatish uchun geoiqtisodiy urushlarning olib borilayotganligi, xalqaro terrorizm va ekstremizm ekspansiyasining faollashuvi, millatlar va konfessiyalararo mojarolarning kuchayayotganligi falsafiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish uchun kurashning yangi pallaga kirganligini ko‘rsatmoqda. Zero, shunday ekan jahonda kechayotgan turli xil mazmundagi falsafiy dunyoqarashning ustunligini ta’minlash uchun kechayotgan kurash maydonlarida o‘zbek xalqining g‘oyaviy-mafkuraviy raqobatbardoshligini ta’minlash ishiga o‘zining keng qamrovli falsafiy dunyoqarashi bilan munosib hissasini qo‘shadigan mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalab voyaga etkazish o‘zining dolzarbligicha qolaveradi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aytganidak: «Mavjudot haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa,shu haqda ta’lim berilsa, mavjudotdan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa,narsaning ma’nosi tushunilsa,ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turliishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma’lumotga doir fanni falsafa deymiz. Falsafa bilimi ochiq-oydin ishonchli dalil-hujjatlarga ega bo‘ladi. Odamlar falsafa yo‘li bilan isbot etilgan mavjud narsa haqida to‘la ishonch va qanoatga ega bo‘ladilar.Faylasufning xulq-atvori, axloqi ham o‘z kasbigaloyiq bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘z xalqining ra’yini va o‘z xalqida bo‘lgan eng yaxshi urf-odatlarni qattiq tutgan bo‘lishi kerak.

Faylasuf bo‘lmoqchi bo‘lgan odam o‘z axloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o‘rganishga va uni boshqalarga o‘rgatishga kirishuvi mumkin»[214],-degan edi. Bu boradashuni alohida ta’kidlash joizki,har qanday texnokratik dunyoqarashga asoslangan boshqaruv tizimi, falsafiy tafakkursiz o‘lik bir tanaga o‘xshaydi. Falsafa ilmini kamsitish,uning qonun,kategoriya va tamoyillarini amalda qo‘llamasdan faoliyat yuritish jamiyatni ma’naviy inqirozga olib keladi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti ***Sh.M.Mirziyoyev***: «Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga

[214] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент:Янги аср авлоди,2016. – Б.283..

asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab etmagay, "ma'naviyat kerakmi-yo'qmi", deb yurganlar ham bor. Milliy g'oya deganda, eski sovet mafkurasini tasavvur qilib, "labiga uchuq toshadiganlar" ham yo'q emas.Lekin agar mafkura odamiy bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini, uning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak? Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman.Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.

Iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha katta ishlar olib borayapmiz. Lekin ma'naviy qashshoqlikni qanday qisqartiramiz? Fikr qaramligidan qanday qutulamiz? Islohotlar uchun mablag' va investitsiyalarni topyapmiz, lekin ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qaerdan topamiz? Bu savollar har birimizni o'ylantirishi zarur.

Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani tarqatadigan qurolga aylanmoqda. Ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan xonadonimizga, jamiyatimizga kirib kelayapti. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangrashi zarur. Biz – g'ururi baland xalqmiz. Mana shu boyligimizni yo'qotib qo'ymasligimiz kerak.

Chetda nima yaltiroq bo'lib ko'rinsa, o'shaning orqasidan chopish, xorijniki ekan, deb unga qulluq qilish, ayniqsa, ma'naviyat sohasida yarashmaydi.

Afsuski, keyingi paytda bu borada chetning ta'siri, ta'bir joiz bo'lsa, "import"ning hajmi oshib ketmoqda. Ma'naviy immuniteti zaif bo'lgan ba'zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham boshqalarga ko'r-ko'rona ergashmoqda.

Ilgari "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalladagi nuroniylar, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi. Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalatadi. Ko'p qavatli uylarda qo'shni qo'shnisini tanimaydi. Bu holda bolalar mehnatni, odobni, madaniyatni, mehr-oqibatni kimdan o'rganadi?.

Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizda loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligidir.Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", degan gap bor. Ayniqsa, hozirgi zamonda ma'naviy nuqtai nazardan "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti. Shuning uchun ham "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etishga qaror qilindi»[215]_ degan,chuqur falsafiy ma'no-mazmunga ega bo'lgan fikrlarni bayon qilgan holda,ularning qanchalik jamiyatni yangi bosqichga olib chiqish uchun zarurligini ko'rsatib berdi.

Ayni paytda mavjud voqelikni falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilgan Prezident Sh.M.Mirziyoyev«Milliy tiklanishdan– milliy yuksalish sari» degan g'oya asosida quyidagicha faoliyat olib borishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.«Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklarimiz ham etarli. Joylarda ishni to'g'ri tashkil

[215]***Мирзиёев Ш.М.*** Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир//https://president.uz/uz/lists/view/4089

asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab etmagay, "ma'naviyat kerakmi-yo'qmi", deb yurganlar ham bor. Milliy g'oya deganda, eski sovet mafkurasini tasavvur qilib, "labiga uchuq toshadiganlar" ham yo'q emas.Lekin agar mafkura odamiy bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini, uning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak? Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman.Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.

Iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha katta ishlar olib borayapmiz. Lekin ma'naviy qashshoqlikni qanday qisqartiramiz? Fikr qaramligidan qanday qutulamiz? Islohotlar uchun mablag' va investitsiyalarni topyapmiz, lekin ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qaerdan topamiz? Bu savollar har birimizni o'ylantirishi zarur.

Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani tarqatadigan qurolga aylanmoqda. Ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan xonadonimizga, jamiyatimizga kirib kelayapti. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangrashi zarur. Biz – g'ururi baland xalqmiz. Mana shu boyligimizni yo'qotib qo'ymasligimiz kerak.

Chetda nima yaltiroq bo'lib ko'rinsa, o'shaning orqasidan chopish, xorijniki ekan, deb unga qulluq qilish, ayniqsa, ma'naviyat sohasida yarashmaydi.

Afsuski, keyingi paytda bu borada chetning ta'siri, ta'bir joiz bo'lsa, "import"ning hajmi oshib ketmoqda. Ma'naviy immuniteti zaif bo'lgan ba'zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham boshqalarga ko'r-ko'rona ergashmoqda.

Ilgari "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalladagi nuroniylar, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi. Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalatadi. Ko'p qavatli uylarda qo'shni qo'shnisini tanimaydi. Bu holda bolalar mehnatni, odobni, madaniyatni, mehr-oqibatni kimdan o'rganadi?.

Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizda loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligidir.Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", degan gap bor. Ayniqsa, hozirgi zamonda ma'naviy nuqtai nazardan "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti. Shuning uchun ham "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etishga qaror qilindi»[215]- degan,chuqur falsafiy ma'no-mazmunga ega bo'lgan fikrlarni bayon qilgan holda,ularning qanchalik jamiyatni yangi bosqichga olib chiqish uchun zarurligini ko'rsatib berdi.

Ayni paytda mavjud voqelikni falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilgan Prezident Sh.M.Mirziyoyev«Milliy tiklanishdan– milliy yuksalish sari» degan g'oya asosida quyidagicha faoliyat olib borishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.«Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklarimiz ham etarli. Joylarda ishni to'g'ri tashkil

[215]***Мирзиёев Ш.М.*** Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи – маънавиятдир//https://president.uz/uz/lists/view/4089

etmaslik, ayrim rahbarlarda saviya va malaka etishmasligi, byurokratiya, korrupsiya holatlari, loqaydlik va beparvolik kabi nuqsonlar ham borligi sir emas.Biz bularning barchasini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz. Yo‘limizda katta g‘ov bo‘lib turgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun boshlagan islohotlarimizni og‘ishmasdan davom ettiramiz.

Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo‘yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O‘zbekiston ham – kechagi O‘zbekiston emas.

Hech shubhasiz, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir.

Biz barchamiz **“Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!”** degan yagona maqsad atrofida birlashib, mas’uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, o‘z orzu-maqsadlarimizga, inshoolloh, erishamiz»[216]. Bunga hech kim,hech qachon shubha qilmaydi,albatta.

[216] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.29.12.2020 йил.//https://president.uz/uz/lists/view/4057

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Расмий ҳужжатлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ,2021.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги» Қонуни.2016 йил 14 сентябрь. ЎРҚ – 406-сон.

3. Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида» Қонуни. 2017 йил 3 январь. ЎРҚ – 419-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.2017 йил 7 февраль.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармони. 2017 йил 19 май.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш,китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича коммиссия тузиш тўғрисида» Фармойиши. 2017 йил 12 январь.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида» Фармони. 2016 йил 28 декабрь.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллабқувватлаш тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 5 июль

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3151-сон Қарори. 2017 йил 27 июль.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. 2017 йил 20 апрель.

11.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакатимизда ўзбек тилиниривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.2020 йил 20 октябрь.

12.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори. 2020 йил 6 ноябрь.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистоннинг янги тараққиёт давридатаълим-тарбия ва илм-фансоҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.2020 йил 6 ноябрь.

II. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг асарлари

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ ,2017 йил.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017 йил.

3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2- жилд.-Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018 йил.

4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3- жилд.-Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019 йил.

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.-Т.: «Ўзбекистон»НМИУ, 2020 йил.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (29.12.2020) //https:// president. uz/uz/lists/view/4057

7. Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. (19.01.2021)/ /https:// uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451

III. Буюк давлат ва сиёсат арбоби И.А.Каримов асарлари

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ //Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999.

2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998.

4. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000.

5. Каримов И.А. Мустақиллигимиз боқий бўлсин//Биздан озод ва обод Ватан қолсин.Т.2. – Т.: Ўзбекистон,1996.

6.Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари// Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.Т.3. – Т.: «Ўзбекистон»,1996.

7. Каримов И.А. Юксак маънавият–енгилмас куч. – Т.:«Маънавият»,2008.

8.Каримов И.А. «Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти» мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқ // Ўзбекистон эришган ютуқ ва марралар – биз танлаган ислоҳотлар йўлининг тасдиғидир. Т.22. –Т.: Ўзбекистон, 2014.

9. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.–Т.: Ўзбекистон, 2011.

10.Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси //Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. –Т.: Ўзбекистон, 2011.

IV. Дарсликлар, ўқув қўлланмалар, монографиялар, китоблар, рисолалар, энциклопедиялар, луғатлар

1. Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти,2012.

2. Шермуҳамедова Н.А. Фалсафа.2-нашр. – Тошкент:" Идрис Абдурауф Нашр",2020.

3. Кузнецов В.Г., Момджян К.Х. Философия. Учубник. – М.: ИНФРА-М,1999.

4. Шаповалов В.Ф. Основы философии современности.К итогам XX века. – М.: Флинта:Наука,1998.
5. Ильин В.В. Философия власти.-М.: МГУ,1993.
6. Шевченко. Философия медицины.Учебник. – М.:ГЭОТАР-МЕД, 2004.
7. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Техника ва информацион технологиялар фалсафаси. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ,2019.
8. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий гоя ва мафкура. Монография – Т.: «Фан», 2015.
9. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя –тараққиёт стратегияси.Монография – Т.: «Фан», 2017.
10. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя:Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси.Дарслик. – Т.: «Чўлпон» НМИУ, 2018.
11. Муҳаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. Дарслик. Иккинчи нашри. – Т.: ИИВ академияси,2014.
12. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Т.: Akademiya, 2011.
13. Фалсафа: қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров,– Т.:«Шарқ», 2004.
14.Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари: Монография. – Т.: «Фан», 2016.
15. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик.–Т.: «Ўзбекистон», 2013.
16. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: «Шарқ», 2001. –Б.34.
17. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.:«Янги аср авлоди», 2016.
18. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб (Қалблар севгиси). –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
19. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис. 4-китоб. К.1. Ал-жомиъ Ас-Саҳиҳ: (Ишонарли тўплам). –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1991.
20. Ёзиева У. Ахборотлар таҳдидидан ҳимояланишнинг педагогик шартшароитлари. Монография. – Т.: «Akademnashr», 2016.
21. Афлотун.Давлат:насрий достон. – Т.:«Янги аср авлоди», 2015.
22. Арасту. Ахлоқи кабир. – Т.:«Янги аср авлоди», 2015.
23. Алиев Б.. Ҳакимов Р. Коррупцияга қарши кураш. Монография. – Тошкент: «Янги аср авлоди»,2012 й.

24. Абдусамадов А.Э. Диншунослик. Дарслик. Тошкент: «Тошкент ислом университети » нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018 йил.
25. Ислом: энциклопедия.- Тошкент:«Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017 йил.
25. Шарипов М. Мантиқ. –Т.: ЎзМУ.2003.
26. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. – Тошкент: УзМУ,2017.
27. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти,1983.
28. Румий Жалолиддин. Етти мажлис.-Тошкент:« Янги аср авлоди»,2018.
29. Румий Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадур (фалсафий-маърифий асар).-Тошкент: «Янги аср авлоди»,2018.
30. Конфуций. Суҳбат ва мулоҳазалар.-Тошкент: «Янги аср авлоди», 2016.
31. Тўраев Б.Т. Синергетика моҳияти қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Монография.–Тошкент:«Наврўз». 2017.
32. Ахмедова м. ва бошқалар. Фалсафа.-Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти,2006.
33. Хайриддинов Б ва бошқалар. Табиий фанларнинг замонавий концепцияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: «Ношир»,2014.

V. Хорижий адабиётлар

1. 100 ученых изменивших мир. –Мн.: Харвест, 2006.
2. Бзежинский З. Выбор: мировое господство или глобальное лидерство. – М.: Международные отношения, 2004.
3. Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивм) Перевод О.Ю.Уральской. –М.: Международные отношения, 1998.
4. Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация:Учебник – М.: Изд-во РАГС,2008.
5. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общества, культура. – М.: Изд-во «ВШЭ»,2000.
6. Чернов А. А. Становление глобального информационного обшества.Проблемы и перспективы -М.: Дашнков и.К: 2003.
7. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991.
8. Попов Л. Информациология и информационная политика. -М.:Луч, 1999.
9. Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. - М.: Дело,1993.
10. Моль С. Информационное воздействие в современном мире. -М.: Крымский мост, 2004.

4. Шаповалов В.Ф. Основы философии современности.К итогам XX века. – М.: Флинта:Наука,1998.
5. Ильин В.В. Философия власти.-М.: МГУ,1993.
6. Шевченко. Философия медицины.Учебник. – М.:ГЭОТАР-МЕД, 2004.
7. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Техника ва информацион технологиялар фалсафаси. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ,2019.
8. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя ва мафкура. Монография – Т.: «Фан», 2015.
9. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя –тараққиёт стратегияси.Монография – Т.: «Фан», 2017.
10. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя:Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси.Дарслик. – Т.: «Чўлпон» НМИУ, 2018.
11. Муҳаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. Дарслик. Иккинчи нашри. – Т.: ИИВ академияси,2014.
12. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Т.: Akademiya, 2011.
13. Фалсафа: қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров,– Т.:«Шарқ», 2004.
14.Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари: Монография. – Т.: «Фан», 2016.
15. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик.–Т.: «Ўзбекистон», 2013.
16. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: «Шарқ», 2001. –Б.34.
17. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.:«Янги аср авлоди», 2016.
18. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб (Қалблар севгиси). –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
19. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис. 4-китоб. К.1. Ал-жомиъ Ас-Саҳиҳ: (Ишонарли тўплам). –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1991.
20. Ёзиева У. Ахборотлар таҳдидидан ҳимояланишнинг педагогик шартшароитлари. Монография. – Т.: «Akademnashr», 2016.
21. Афлотун.Давлат:насрий достон. – Т.:«Янги аср авлоди», 2015.
22. Арасту. Ахлоқи кабир. – Т.:«Янги аср авлоди», 2015.
23. Алиев Б.. Ҳакимов Р. Коррупцияга қарши кураш. Монография. – Тошкент: «Янги аср авлоди»,2012 й.

24. Абдусамадов А.Э. Диншунослик. Дарслик. Тошкент: «Тошкент ислом университети » нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018 йил.
25. Ислом: энциклопедия.- Тошкент:«Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017 йил.
25. Шарипов М. Мантиқ. –Т.: ЎзМУ.2003.
26. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. – Тошкент: УзМУ,2017.
27. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти,1983.
28. Румий Жалолиддин. Етти мажлис.-Тошкент:« Янги аср авлоди»,2018.
29. Румий Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадур (фалсафий-маърифий асар).-Тошкент: «Янги аср авлоди»,2018.
30. Конфуций. Суҳбат ва мулоҳазалар.-Тошкент: «Янги аср авлоди», 2016.
31. Тўраев Б.Т. Синергетика моҳияти қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Монография.–Тошкент:«Наврўз». 2017.
32. Ахмедова м. ва бошқалар. Фалсафа.-Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти,2006.
33. Хайриддинов Б ва бошқалар. Табиий фанларнинг замонавий концепцияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: «Ношир»,2014.

V. Хорижий адабиётлар

1. 100 ученых изменивших мир. –Мн.: Харвест, 2006.
2. Бзежинский З. Выбор: мировое господство или глобальное лидерство. – М.: Международные отношения, 2004.
3. Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивм) Перевод О.Ю.Уральской. –М.: Международные отношения, 1998.
4. Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация:Учебник – М.: Изд-во РАГС,2008.
5. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общества, культура. – М.: Изд-во «ВШЭ»,2000.
6. Чернов А. А. Становление глобального информационного обшества.Проблемы и перспективы -М.: Дашков и.К: 2003.
7. Винер Н. Кибернетика и обшество. -М.: Наука, 1991.
8. Попов Л. Информациология и информационная политика. -М.:Луч, 1999.
9. Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. -М.: Дело,1993.
10. Моль С. Информационное воздействие в современном мире. -М.: Крымский мост, 2004.

11. Свитич Л .П. Социальная информациология. -М.: Алгоритм, 2000.
12. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: РАГС, 2001.
13. Окиновская Н.А. Хартия глобалного информационного общества - Дипломатический вестник. – М.: 2000. – №8.
14. Жоль К.К.,Сиволов Ю.В. Информация, общественние, науки, управление.(Философско-экономический анализ). -Киев, Наукова думка, 1991.
15. Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В.Категория информации (философский обзор). «Философские науки». – М.: 2006. № 1.

VI. Интернет сайтлари ва материаллари

www.ziyonet.uz. – Зиёнет интернет тармоғи
www.api.uz. – Ўзбек матбуот ва ахборот агентлиги.
www.gov.uz. – Ўзбекистон Реснубликасининг Ҳукумат портали.
www.bilim.uz. – Илмий-оммабоп сайт.
www.philosophy.ru. – Философский портал.
www.ziyonet.uz. – Зиёнет интернет тармоғи.
www.lex.uz . – Ўзбекистон қонун қужжатлари сайти.

Mundarija

Kirish 6

Birinchi modul
Falsafa

I BOB. FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI

1-§. Dunyoqarash olamni diniy, falsafiy, ilmiy bilish shakli..... 6
1. « Falsafa» va « filosofiya» atamalari haqida tushuncha..... 6
2. Dunyoqarash tushunchasi..... 6
3. Dunyoqarashning asosiy xususiyatlari..... 7
4. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi..... 9
5. Dunyoqarashning komponentlari..... 11
6. Dunyoqarashning xarakteri..... 12
7. Dunyoqarashning tasnifi..... 13
8. Dunyoqarashning darajalari..... 13
9. Dunyoqarashning tarixiy tiplari..... 14
2-§. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funksiyalari, yangi sohalari..... 21
1. Falsafaning predmeti..... 21
2. Falsafiy bilimlarning predmetlari bo'yicha tuzilishi..... 25
3. Falsafaning kelib chiqishi..... 27
4. Falsafaning asosiy masalasi: bahslar va yechimlar..... 28
5. Falsafiy tizim va an'anlarning tasnifi..... 30
6. «Fan» tushunchasi, ta'rifi va tavsifi..... 30
7. Fan falsafasi..... 32
8. Falsafaning maqsadi va asosiy funksiyalari..... 35
9. Falsafaning metodlari..... 36
10. Falsafaning amaliy qadr-qiymati..... 39
11. Falsafaning inson va jamiyat hayotda tutgan o'rni..... 39
12. Falsafaning hozirgi kunda yangilanib borish zaminlari..... 40
13. Haqiqiy faylasuf bo'lish tamoyillari..... 40

II BOB. BORLIQ VA RIVOJLANISH FALSAFASI

1-§. Ontologiya- borliq haqidagi falsafiy ta'limot..... 43
1. "Ontologiya" atamasi haqida tushuncha..... 43
2. «Ontologiya» atamasining falsafiy tavsifi..... 43
3. Ontologiyaning genezisi, evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari..... 44
4. Ontologiyaning asosiy masalasi va tushuntirish apparati..... 45
5. Ontologiyaning predmeti..... 46
6. Ontologiyaning tiplari..... 46

2-§. Aniq fanlar ontologiyasi va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati.....47
1. Aniq fanlar ontologiyasiga xos bo'lgan elementlar.....47
2. Aniq fanlardagi ixtisoslashgan va umumiy ontologiyalar.....48
3. Aniq fanlar ontologiyasini tavsiflovchi maxsus tillar.....48
4. Informatika ontologiyasi. 49
5. Tibbiyot ontologiyasi. 50
6. Gen ontologiyasi.....53
7. Formal ontologiya. 55
8. Formal va noformal ontologiyalar.....55
3-§. Borliq va uning asosiy shakllari.....56
1. Borliq tushunchasi.....56
2. Borliq va yo'qliq.....57
3. Substansiya va substrat.....59
4. Borliq, mavjudlik va reallik.....61
5. Borliqning shakllari. 62
4-§. Borliqning asosiy atributlari: materiya, harakat, makon va zamon.....65
1. Materiya tushunchasi.....65
2. Materiyaning tarkibiy tuzilishi.....68
3. Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari.....68
4. Materiyaning miqyosiy-struktura darajalari.....69
5. Materiyaning hozirgi kundagi ko'rinishlari.....70
6. Harakat - borliqning asosiy mavjudlik usuli.....71
7. Makon va zamon.....76
5-§. Tabiatning tarkibiy tuzilishi va jamiyat hayotidagi o'rni.....86
1. Tabiat tushunchasi.....86
2. Tabiatning tuzilishi.....87
3. Biosfera.....91
6-§.Tabiatning jamiyat hayotidagi o'rni.....93
1. Geografik determinizm.....93
2. Geoiqtisodiyot.....93
3. Noosfera.....97

RIVOJLANISH FALSAFASI

1-§. Dialektika - rivojlanish haqidagi ta'limot.....101

1. Shakllanish, o'zgarish, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalari.....101
2. Dialektika tushunchasi va uning mohiyati.....103
3. Aloqadorlik va bog'lanishlarning namoyon bo'lishi.....106
2-§. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.....108
1. Qonun tushunchasi va uning turlari.....108

2. Miqdor o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘zaro o‘tish qonuni.....109
3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.....114
4. Inkorni inkor qonuni.....118
3-§. Falsafiy kategoriyalar: tushunchasi va mohiyati.....122
1. Alohidalik, xususiylik va umumiylik.....124
2. Mohiyat va hodisa.....127
3. Butun va qism.....128
4. Sistema, struktura va element.....129
5. Mazmun va shakl.....131
6. Sabab va oqibat.....132
7. Zarurat va tasodif.....133
8. Imkoniyat va voqelik.....134

III BOB. BILISH NAZARIYASI

1-§. Bilishning mazmuni va mohiyati, ob’ekti va sub’ekti, usul va darajalari.....143
1.Gnoseologiya tushunchasi va muammolari.....144
2. Bilish sub’ekti.....145
3.Bilish ob’ekti.....146
4.Bilishning shakllari.....147
5.Bilishning maqsadi.....148
6.Bilish predmeti.....148
7.Bilish darajalari.....148
2-§. Odamning bilish qobiliyatlari.....150
1. Hissiy bilish.....150
2. Aqliy bilish.....152
3. Irratsional bilish.....152
4. Bilish va til.....153
5. Bilish va o‘z-o‘zini anglash.....154
6. Bilish va axborot.....155
3-§. Haqiqat tushunchasi, uning turlari va mezonlari.....156
4-§. Bilish metodologiyasi......160

IV BOB. MANTIQ

1-§. Mantiq fanining predmeti va tarkibiy qismlari.....165
1.Mantiq haqida tushuncha.....165
2.Dialektik mantiq. Formal mantiq. Matematik (simvolik) mantiq.....166
2-§. Tushuncha va uning turlari.....169
1. Tushuncha - tafakkur shakli sifatida.....169
2. Tushunchaning turlari va ular o‘rtasidagi munosabatlar.....172
3. Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar.....174

4. Tushunchalar ustida mantiqiy amallar.....176
5. Tushunchani ta'riflash.....176
6. Ta'riflash qoidalari.....177
7. Tushunchalarni bo'lish.....177
8. Dixotomik bo'lish.....177
9.Tushunchalarni tasniflash.....177
3-§. Hukm tushunchasi, turlari va ular o'rtasidagi munosabatlar.....178
1. Hukm va uning turlari.....178
2. Hukm va gap.....180
3. Sodda hukm va uning turlari.....181
4. Sodda hukmlarning sifat va miqdor jihatdan tasnifi.....182
5. Murakkab hukm va uning turlari.....184
4-§. Formal mantiqning asosiy qonun-qoidalari.....185
1. Ayniyat qonuni. 185
2. Ziddiyasizlik qonuni.....186
3. Uchinchisi istisno qonuni.....187
4. Yetarli asos qonuni. 188
5.Tafakkur qilish qoidalari.....189
5-§. Xulosa va uning turlari.....190
1.Xulosa haqida umumiy tushuncha. 190
2. Deduktiv xulosa chiqarish.....191
3. Sillogizm.....196
4. «Sorit»lar.....201
5. Epixeyrema.....202
6. Induktiv xulosa chiqarish.....204
7. Analogiya.....207
6-§. Dalillashning mantiqiy asoslari.....209
1.Isbotlashning tuzilishi va turlari.....209
2.Raddiya va uning usullari.....213
3. Isbot va raddiyada tezisga nisbatan xatoliklar.....215
4. Paralogizm, sofizm va paradoks.....217
5. Muammo.....220
6. Savol.....222
7. Faraz.....224
8. Nazariya.....226

VBOB. JAMIYAT VA INSON FALSAFASI

1-§. Inson falsafasi.....231
1. Falsafiy antropologiya tushunchasi.....231
2. Insonning mohiyati muammosi.....231
3. Biologizatorlik yoki naturalistik yondashuv.....232

4. Teologik yondoshuv.....233
5. Sotsiologizatorlik yondoshuv.....233
6. Sotsiokosmik yondashuv.....233
7. Antropogenez muammosi.....234
8. Antropogonezning teologik konsepsiyasi.....234
9. Insoning biologik evolyutsiyasi konsepsiyasi.....234
10. Insonning kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi.....235
11. Inson ongining kelib chiqishi.....236
12. Insonning kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi.....236
13. Insonning ruhiy dunyosi.....236
14. Insonning paranormal kuchlari.....238
15. Insonning ma'naviy rivojlanishi.....241
9. Odam evolyutsiyasining keyingi istiqbollari.....241
10. Odam hayoti ma'nosi muammosi.....243
11. Insonning erkinligi va javobgarligi.....244
12. Inson va bioetika muammolari.....246
13. Evtanaziya: muammo va yechimlar.....247
2-§. Jamiyat falsafasi.....251
1. Jamiyat tushunchasi.....251
2. Jamiyat hayotining sohalari va tuzilishi.....253
3. Qadriyatlar va uning jamiyat hayotidagi o'rni.....254
4. Shaxs va jamiyat.....256
3-§.Tarixiy jarayon va tarix falsafasi.....261
1. Tarix falsafasi tushunchasi va muammolari.....261
2. Jamiyat tarixiy rivojlanishining andozalari (modellari).....264
3.Tarixiy jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchlari.....265
4. Madaniyat: tushunchasi, shakllari, turlari va funksiyalari.....270
5. Sivilizatsiya.....272
6. Ma'naviy madaniyat va moddiy sivilizatsiya.....273
7. Yuksak madaniyat va «ommaviy madaniyat».....274
8. Shaxs madaniyati.....275
9. Madaniyat ko'pxilligi va madaniyatlararo dialog (muloqot).....276

VI BOB. ETIKA

1-§. Axloq va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni.....280
1. Axloq va uning ta'rifi.....280
2. Axloqshunoslik fani va uning rivojlanish qonuniyatlari.....281
3. Kasb axloqi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.....283
2-§. Kasb axloqining mohiyati, tarkibiy qismlari, soha va xususiyatlari.....287
1.Axloqning tarkibiy qismlari.....287

2.Axloqiy ong.....287
3.Axloqiy hissiyot va uning vazifalari.....288
4.Axloqiy amaliyot.....289
5.Axloqiy munosabatlar.....289
6.Axloqiy va huquqiy munosabatlar.....290
7. Kasb axloqining xususiyatlari.....291
8. Kasb axloqining vazifalari.....292
3-§. Umuminsoniy axloq prinsiplari va normalari.....294
1. «Umuminsoniy axloq prinsiplari» tushunchasi.....294
2.Insonparvarlik prinsipi.....295
3. Jamoachilik prinsipi.....299
4. Qonuniylik prinsipi.....301
5. Vatanparvarlik prinsipi.....302
4-§. Umuminsoniy axloq normalari.....304
1. «Umuminsoniy axloq normalari» tushunchasi.....304
2. Kasb axloqining normalari.....306
3. Xushmuomalalik va odoblilik.....306
4. Halollik va rostgo'ylik.....308
5. Shijoat va hushyorlik.....311
6. Jasorat.....311
7. Hayolilik va pokizalik.....312
8. Sobitqadamlik, sabr-qanoat, kamtarlik.....313
5-§. Adolat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....315
1.Adolat g'oyasi, uning genezisi va evolyutsiyasi.....316
2. Adolat prinsipi va uning mezonlari.....318
3. Adolatlilikning jamiyat hayotida amal qilish qoidalari.....318
4. Adolatni qaror toptirishning maqsadi, taktik va strategik vazifalari.....319
5. Adolatparvarlik va uning mohiyati.....321
6. Adolatsizlik va uning shakllari.....321
7. Adolatsizlikka qarshi kurash chora-tadbirlari.....323
6-§.Umuminsoniy axloqqa zid illatlar.....328
1. G'azab.....328
2. G'iybat va tuhmat.....329
3. Yolg'on.....330
4. Haqorat, qo'rqoqlik, nifoq, tama, zulm.....330
5. Poraxo'rlik.....331
6.Loqaydlik, beparvolik, befarqlik. 332
7. Axloqqa zid illatlarga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlari.....335
7-§. Etika kategoriyalari, ularning mohiyati va ijtimoiy tabiati.....337
1. Kasb etikasining kategoriyalari. 337
2. «Yaxshilik» tushunchasi va uning mohiyati.....339

3. «Yomonlik» tushunchasi va uning mohiyati.....340
4. «Kasb burchi» tushunchasi va uning ahamiyati.....343
5. «Or-nomus» («sha'n») va «qadr-qimmat» kategoriyalari.....344
6.«Vijdon» kategoriyasi.....346
7. Hayotning ma'nosi.....348
8-§. Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan muomala qilish madaniyati.....349
1. Muomala madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari.....349
2. Kasbiy soha xodimlari madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari.....349
3. Muomala madaniyatining umumiy qoidalari.....351
I. Kasbiy soha xodimlarining xulq-atvor madaniyati.....353
1. Kasbiy soha xodimlarining aholi bilan salomlashish odobi qoidalari.....355
2. Kasbiy soha xodimlarining fuqarolar va mansabdor shaxslar bilan muomala qilish madaniyati.....357
3.Kasbiy soha xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish vaqtida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati qoidalari.....358
4. Kasbiy soha xodimlarining chet el fuqarolari bilan muomala qilish madaniyati.....360
5.Kasbiy soha xodimi fuqarolar xonadonlariga tashrif buyurish madaniyati.....360
6. Kasbiy soha xodimlarining fuqarolarni qabul qilish madaniyati.....361
II. Kasbiy soha xodimlarining nutq madaniyati.....364
1. Yozma nutq va uning kasbiy soha xodimlarining kasbiy faoliyatida tutgan o'rni.....364
2. Ilmiy uslub.....364
3. Rasmiy uslub.....*364*
4. Og'zaki nutq va uning va uning kasbiy soha xodimlari muomala madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati.....365
5. Kasbiy soha xodimlari nutq odobi qoidalari.....366
III. Kasbiy soha xodimlarining tashqi ko'rinish madaniyati.....368
1.Tashqi qiyofa va uning ahamiyati.....368
2. Kiyinish madaniyati va uning xususiyatlari.....370
8-§. Kasbiy soha xodimlarining axloqiy-kasbiy buzilishi va uni bartaraf etish yo'llari.....372
1.«Axloqiy-kasbiy buzilish» tushunchasi.....372
2. Axloqiy-kasbiy buzilishning turlari.....372
3.Axloqiy buzilish sabablari.....374
4.Axloqiy-kasbiy buzilishning ob'ektiv sabablari.....375
5.Axloqiy-kasbiy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi sub'ektiv sabablar.....376
6.Axloqiy-kasbiy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omillar.....377
7. Kasbiy buzilish shakllari. 377

8. Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olish tadbirlari.....378

VII BOB. ESTETIKA

1-§. Estetikaning ta'rifi, mohiyati va vazifalari.....385
1. Estetika va uning ta'rifi.....385
2. Estetik munosabat.....386
3. Estetik ong.....386
4. Estetik faoliyat.....386
5. Estetika fani.....386
2-§. Estetika kategoriyalari, ularning mohiyati va ahamiyati
1. Estetika kategoriyalari.....387
2. Nafosat.....387
3.Estetik me'yor.....387
4. Estetik uyg'unlik.....388
5. Estetik mukammallik.....388
6. Estetika kategoriyalarining tur va shakllari.....388
7.«Go'zallik» kategoriyasi va uning amalda namoyon bo'lishi.....389
8. «Ulug'vorlik» tushunchasi va uning ahamiyati.....391
9. Qahramonlik va uning namoyon bo'lishi.....392
10. Fojialilik va uning mohiyati.....393
11. Kulgililik va uning shakllari.....394
3-§. San'at va uning estetik madaniyatni shakllantirishdagi o'rni...395
1. San'atning vujudga kelishi haqidagi nazariyalar:.....395
Ilohiyat nazariyasi.....396
Jinsiy tasavvur - erotik nazariya.....396
O'yin nazariyasi.....396
Taqlid nazariyasi.....397
2.San'atning vujudga kelishi va ijtimoiy tabiati.....397
3.San'atning ta'rifi va xususiyatlari.....399
4.San'atda «badiiy obraz» tushunchasi va uning ahamiyati.....401
5.San'atda mazmun va shakl.....402
6. San'atni tasniflash prinsiplari.....405
7. San'atning vazifalari.....407
8. Badiiy adabiyot.....410
9. Teatr.....411
10.Kino.....411
4-§. Kitob mutolaasi vakitobxonlik madaniyatini oshirish – kasb axloqi va nafosatini rivojlantirishning muhim omili.....412
1. Kitobning oddiy-kundalik tushunchasi va falsafiy ta'rifi.....412
2. Kitoblarning tasnifi.....412

3. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish – davr talabi.....413
4. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....414
5. Kasbiy soha xodimlari kitobxonlik madaniyati tushunchasi,uni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar.....*415*
6. Jahon mutafakkirlari kitob va kitobxonlik haqida.....416

5-§. Jinoyatchilar dunyosining g'ayriestetik madaniyati hamda uning umuminsoniy axloq va nafosatga zid mazmuni.....418
1. Jinoyatchilar dunyosining maxsus til – jargonlari.....418
2. Jinoyatchilar dunyosining maxsus belgilari – tatuirovkalar.....418
3. Jinoyatchilar dunyosining maxsus ism - laqablari.....420
4. I.A. Karimovning korrupsiya va jinoyatchilik haqidagi fikrlari 421
6-§. Xalq bilan muloqot – kasbiy soha xodimlarining axloqiy va estetik tafakkurini rivojlantirish vositasi.....423
1. Muloqot tushunchasi.....423
2. Xalq bilan bo'ladigan muloqot turlari.....423
3. Xalq bilan muloqot qilish vazifalari. 424
4. Xalq bilan muloqot: muammo va echimlar. 424
5. Kasbiy soha xodimlarining xalq bilan muloqot olib borish metodikasi.....427
6. Xalq bilan muloqot – kasbiy soha xodimlari faoliyatining axloqiy-estetik darajasini aniqlash mezoni.....430
7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalarining asosiy vazifalari.....432

VIII BOB. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT
1-§. Globallashuv jarayonlaring yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalari.....436
1. Globallashuv tushunchasi.....436
2.Globallashuv jarayonlarining manbai va asosiy belgilari.....436
3. Globallashuv jarayonining xususiyatlari.....437
4. Iqtisodiyotning globallashuvi.....438
5. Siyosiy-huquqiy hayotning globallashuvi.....439
6. Madaniyat sohasining globallashuv.....440
7.Axborot-kommunikatsiya sohasining globallashuvi.....440
8. Hozirgi globallashuv davrida mafkuraviy jarayonlarning xususiyatlari..441
9. Hozirgi paytda mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillar.....441
10. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari.....442

2-§.Globallashuv sharoitida o'zbek xalqining milliy manfaatlari mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari.....443
1. Milliy manfaat va mafkuraviy xavfsizlik.....444
2. G'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik.....445
3. Milliy manfaatlarning mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning usul va vositalari.....445
3-§. Global muammolar mohiyati va uni tugatish yo'llari.
1. Globalistika tushunchasi. 448
2. Hozirgi global muammolar spektri. 449
3. Global muammolarni tugatish yo'llari.....450
4-§. Rivojlanish tendensiyasi va insoniyat kelajagi.....456
1. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivojlanishining tendensiyalari.....456
2. Kelajakni tadqiq qilishning metodlari va davrlashtirish. 458
3. Dunyo kelajagi rivojlanishining mumkin bo'lgan andozalari.....458

2-MODUL
IX BOB. GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOIY-MADANIY INQIROZ OQIBATI

1-§.Korrupsiya: tushunchasi, genezisi, evolyutsiyasi va yashovchanlik tendensiyalari.....471
1. «Korrupsiya» atamasining ma'nosi.....471
2. Korrupsiya tushunchasining ta'rifi.....472
3. Korrupsiyaning genezisi va evolyutsiyasi.....473
4. Korrupsiyaning yashovchanlik tendensiyalari.....474
5. Korrupsiyani axloqiy-ma'naviy jihatdan baholash.....475
2-§. Korrupsiyaning turlari, shakllari, sabab va oqibatlari.....477
1. Korrupsiyaning tipologiyasi.....477
2. Korrupsiyaning turlari.....478
2.1. Kundalik turmushdagi korrupsiya.....478
2.2. Ishbilarmonlikdagi korrupsiya.....478
3. Yuqori hokimiyatgi korrupsiya. 478
4. Korrupsion xizmatlar bozori. 478
5. Xususiy shaxsning qiziqishlari.....479
6. Korrupsiyaning boyib borish sohalari.....480
7. Sud tizimidagi korrupsiya. 481
7.1.Qonunchilikdagi "vilkalar".....481
7.2.Muqobil ma'muriy jazo.....482
7.3.Huquqbuzarlikning tarkibini qayta malakalash. 482
7.4.Fuqarolarning pul yo'qotishlari. 482
8. Korrupsiyaning zararli oqibatlari.....483

9. Korrupsiyaning maqbul darajasi. 483
10.Xalqaro savdo. 484
11. Korrupsiya sabablari....484
1. Qonunning konservativligi....485
2. Hamma narsani qamrab oladigan nazoratning mumkin emasligi....485
3. Yuqori darajadagi korrupsiya sabablari. 485
4. Yuqori darajadagi korrupsiya sabablari haqidagi farazlar....486
X BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI
1-§. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalar....489
1. Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi....489
2. SHvetsiyaning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi....490
3. Hozirgi kundagi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha falsafiy paradigmalar: muammo va yechimlar....491
1. Ichki nazorat. 492
2. Tashqi boshqaruv....492
3. Saylov tizimi. 493
4. Umumiy chora-tadbirlar....493
1. Korrupsion normalarning konstitutsiyaga xilofligi....493
2. Fuqarolarni axborot bilan ta'minlash....494
3. Idoraviy tizimlarning ochiqligi. 494
4. Mansabdor shaxslarning ijtimoiy ta'minoti....494
5. Agent – prinsipi nazariyasi. 494
6. Korrupsiyaga qarshi kurashdagi muammolar....495
2-§. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy taktik usul va strategik yo'nalishlari 496
1.O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zarurligi....496
2. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi....500
3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi....504
4.O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash taktikasini amalga oshirishuvchi davlat organlari va ularning vakolatlari 505
3-MODUL
DINSHUNOSLIK
XI BOB. DIN MADANIYAT FENOMENI
1-§. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik tushunchalarining mohiyati....513
1. Dinning madaniyat fenomeni sifatidagi mohiyati....513
2. Din va dinshunoslik tushunchalarining mazmuni va mohiyati. 514
3. Dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 515

4. Din falsafasi tushunchasi va uning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni. 515
5. Teologiya tushunchasi va uning o‘rganish sohasi.....516
6. Teizm tushunchasining mazmuni va mohiyati.....517
7. Teosofiya tushunchasi va uning din falsafasida tutgan o‘rni.. 517
8. Xudojo‘ylik tushunchasining mazmuni va mohiyati.....518
2-§.Dinshunoslik va uning tushunchalari. Dinning asosiy elementlari.....519
3-§. Qadimgi va milliy dinlarning tasnifi.....522
4-§.Vijdon erkinligi va diniy e’tiqod xaqida qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy ahamiyati.....524
5-§.Hozirgi davrda diniy ma’rifatni takomillashishning yo‘nalishlari.....527
6-§.Xalqaro diniy tashkilotlar va diniy uyushmalar faoliyatining tasnifi.....532
7-§. O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan diniy tashkilotlar.....533
8-§. Diniy tolerantlik va plyuralizm tushunchalarining mazmuni va mohiyati.....538
9-§. Sekulyarizatsiya nazariyasi (davlat va din munosabatlari) va postsekulyar konsepsiyalar.....541

XII BOB. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI

1-§. Buddaviylik dini tarixi va falsafasi.....544
2-§. Xristianlik dini tarixi va falsafasi.....557

XIII BOB. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI

1-§. Islom dini paydo bo‘lishidagi ijtimoiy sharoit.....575
2-§. Islom asoslari, oqimlari va yo‘nalishlari.....575
3-§. Dunyo va O‘zbekistonda islom dinining mavqei 597
4-§. Hadis tushunchasining mohiyati. Hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk hadisshunoslar hayoti va ijodi. O‘zbekistonda hadisshunoslik rivoji.....604
5-§. Kalom falsafasi va fiqh.....609
6-§. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixi va asosiy g‘oyalarining tasnifi. Tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf va hozirgi zamon.....611

XIV BOB. ISLOM QADRIYATLARI

1-§. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari.....621
2-§. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari.....624
3-§. Islom dinida vatanparvarlik g‘oyalarining talqini.....626
4-§. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarda er-xotinning huquq va majburiyatlari.....627
5-§. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat.....631
6-§. Islomda axloqiy qadriyatlar.....634
7-§. Islomda do‘stlik o‘zaro yordam va sog‘lom turmush tarzining targ‘iboti.....635
8-§. Islomda fan va ta’lim, madaniyat va san’atga munosabat.....637

XV BOB. DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK

1-§. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo‘lishi, mohiyati, asoslari va manbalari.....652
2-§. Qo‘rquv, savodsizlik va ishonchsizlik diniy mutaassiblik va ekstremizmning asosi.....656
3-§. Dindorlikning paydo bo‘lishi va bosqichlari.....658
4-§. Diniy fundamentalizmning yo‘nalishlari. O‘zbekistonda diniy ekstremizmning paydo bo‘lishi, rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash.....659
5-§. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari.....664
6-§. Kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik (syberbullying), tushunchalarining mohiyati.....665
7-§. Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.....671
8-§.Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar faoliyatining yo‘nalishlari.....673

Xulosa.....688
Foydalanilgan adabiyotlar.....693

YAXSHILIKOV
Jo‘raboy Yaxshilikovich,
falsafa fanlari doktori, professor

MUHAMMADIYEV
Nurmuhammad Ergashevich
falsafa fanlari nomzodi, professor

FALSAFA

DARSLIK
(5120500 – Falsafa yo‘nalishining talabalari uchun tavsiya etilgan)

Muharrir **Ozoda Sharapova**
Musahhih **Xosiyat Rahimova**
Texnik muharrir **Bahodir Egamberdiyev**

ISBN 978-9943-5943-0-2

2021 yil 18 fevralda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2021 yil 22 fevralda orginal-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84. 1/16 «Times New Roman» garniturasi.
Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i -44,5
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 448.

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni,15.

YAXSHILIKOV
Jo‘raboy Yaxshilikovich,
falsafa fanlari doktori, professor

MUHAMMADIYEV
Nurmuhammad Ergashevich
falsafa fanlari nomzodi, professor

FALSAFA

DARSLIK
(5120500 – Falsafa yo‘nalishining talabalari uchun tavsiya etilgan)

Muharrir Ozoda Sharapova
Musahhih Xosiyat Rahimova
Texnik muharrir Bahodir Egamberdiyev

ISBN 978-9943-5943-0-2

2021 yil 18 fevralda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2021 yil 22 fevralda orginal-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84. 1/16 «Times New Roman» garniturasi.
Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i -44,5
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 448.

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni,15.

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich – 1953 yil 25 fevralda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, Oqtom Beshbola qishlog'ida tug'ilgan. 1975 yilda ToshDU (hozirgi O'zMU)ning falsafa bo'limini tamomlagan. 1975-2006 yillarda Samarqand davlat universitetida o'qituvchi, dotsent, prorektor lavozimlarida ishlagan. 1992 yildan boshlab shu kungacha "Falsafa" kafedrasi mudiri bo'lib ishlab kelmoqda. U "Sotsial-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotni jadallashtirish dialektikasi" (Moskva, 1989), "Temuriylar ma'naviyati" (1999), "Ulug'bekning tab... ilmiy merosi" (1997), "Jadidchilik va Behbudiy" (2004), "Milliy g'oya va mafkura" (2015), "Milliy g'oya – taraqqiyot strategyasi" (2017) kabi monografiyalar, "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategyasi" (2018), "Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi" (2020) nomli darsliklar, shuningdek 300 dan ortiq ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanmalar muallifi hisoblanadi.

Ilmiy faolyati davomida 3 fan doktori va 23 fan nomzodini tayyorlab o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan.

Falsafa fanlari doktori, professor. "O'zbekiston xalq ma'orifi a'lochisi".

Muhammadiyev Nurmuhammad Ergashevich – 1953-yil 8-dekabrda Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, Serharakat qishlog'ida tug'ilgan. 1979-yilda ToshDU (hozirgi O'zMU)ning falsafa bo'limini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 1979-1980 yillarda Samarqand davlat universitetining Falsafa kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1980-2007 yillarda Qurolli kuchlar va Ichki ishlar vazirligining oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borgan. Iste'fodagi polkovnik. 2007-2009 yillarda Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida kafedra mudiri, 2010-2019 yillarda dotsent, 2019-yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda. U «Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati» (1998, 2014 yillar), «Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi» (2018 yil), «Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi» (2019 yil), «Milliy gvardiya xizmatchilari (xodimlari)ning kasb etikasi» (2020 yil), «Falsafa» (2021 yil) nomli darsliklar, «Milliy g'oya va mafkura» (2015), «Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi» (2017), «O'zbek xalqining milliy g'oya va mafkuasi» (2018 yil), «Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash – jamiyatni tinch va barqaror rivojlantirish omili» (2018), «Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va ruhiy tanazzullarni bartaraf etish omili» (2020 yil) nomli monografiyalar, «Milliy ideya» nomli qoraqolpoq tilida o'quv qo'llanma (2020 yil), «Yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik fazilatlari va muomala madaniyatini kamol toptirish» (hammualiflikda, 2016-yilda «Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv qo'llanmasining muallifi» nomli birinchi darajali diplom bilan taqdirlangan), «IIV Akademiyasi» (2004) o'quv qo'llanmalarini yaratgan. 10 dan ortiq ilmiy maqolalari xorij jurnallarida chop etilgan. Jami 200 ga yaqin darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, dastur, metodik ishlanma va ilmiy maqolalar muallifi.

Falsafa fanlari nomzodi, professor.

ISBN 978-9943-5943-0-2